Ta'lim texnologiyalarni qo'llashga turli nuqai nazardan yondashuvlar mavjud. Tarbiyachilarning innovatsion faoliyatini tashkil etishga oid yondashuvlarni ishlab chiqish ham o'z yechimini kutmoqda. Maktabgacha ta'lim jarayonida variativ xarakterdagi innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish muammosining yechimi bevosita tarbiyachilarning pedagogik faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish bilan bog'liq. Bu masalaga rivojlangan xorijiy mamlakatlar pedagogik tizimida alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion jarayonlar variativ xarakterdagi ta'lim texnologiyalarni qo'llashga yo'naltirilmoqda. Shu bilan bir qatorda ayni paytda maktabgacha ta'lim jarayoniga nisbatan tizimlashmagan, chuqur anglanmagan holda yondashuvlar mavjud. Ba'zi hollarda maktabgacha ta'lim mazmuniga emas, balki amalga oshiriladigan ishlarining sonini ko'paytirishga bo'lgan intilishlar ham ko'zga tashlanadi, shuningdek, yangi maktabgacha ta'lim muassasalari sonini ko'paytirish, tarbiyachilar sonini ko'paytirish, yuqori tashkilotlarning topshirig'ini bajarish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini jihozlash kabilar shu jumlasidandir. Shunga ko'ra maktabgacha ta'lim sohasida o'z yechimini kutayotgan bir qator muammolarning mavjudligi kuzatilmoqda. Innovatsion xarakterdagi ta'lim texnologiyalarini qo'llash zaruriyati bilan ularni maktabgacha ta'lim amaliyotida qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik majmualar hamda metodik infraqstruktura orasidagi; maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning to'laqonli rivojlantirish uchun variativ xarakterdagi innovatsion texnologiyalarning mohiyatini anglash bilan ularni samarali qo'llash imkonini beradigan pedagogik shart-sharoitlarning yetishmasligi orasidagi; variativ xarakterdagi texnologiyalardan foydalanish zaruriyati bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining pedagogik mahorati yetarlicha shakllanmaganligi orasida nomutanosibliklar kuzatilmoqda.

Shu bilan bir qatorda maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashning ilmiy metodik tizimida variativ xarakterdagi innovatsion texnologiyalar bilan ishlash metodikasini o'rgatishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Shuning uchun ham bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida variativ xarakterdagi innovatsion texnologiyalardan foydalanish modelini yaratish va uni nazariy jihatdan asoslash zaruriyati kuchaymoqda. Maktabgacha ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish samaradorligini ta'minlash uchun

- innovatsion pedagogik texnologiyalarning turlari, uni qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari, vositalari, mexanizmlarini aniqlash;
- uning mazmunini tanlash, tizimlashtirish va tavsiflash;
- mazkur texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq qiyinchiliklar, ularni bartaraf etish yo'llari;
- variativ ta'lim sharoitida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish modelini ishlab chiqish va uning komponentlarini nazariy jihatdan asoslash;
- uning turli bloklari orasidagi aloqadorlikni belgilash;
- shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy hamda madaniyatshunoslik yondashuvlariga tayangan holda variativ xarakterdagi o'quv jarayoniga tatbiq etiladigan modelning samaradorlik darajasini muntazam diagnostika qilish va aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish mexanizmlarini takomillashtirish;
- modelning shaxsiy, birlashtiruvchi, kognitiv, amaliy, motivatsion komponentlari orasidagi uyg'unlikni ta'minlash;
- jarayonli-faoliyatli, ya'ni maktabgacha ta'limning an'anaviy hamda innovatsion shakllari orasidagi uyg'unlikni ta'minlovchi metodikani takomillashtirish hamda bo'lajak tarbiyachilarni mazkur metodika bilan ishlashga tayyorlash;
- maktabgacha ta'lim jarayoniga tatbiq etiladigan variativ xarakterdagi innovatsion texnologiyalar bilan ishlash imkonini beradigan natijaviy, refleksiv xarakterdagi pedagogik faoliyatni amalga oshirish, uni muntazam korreksiyalash va takomillashtirishga tarbiyachilarni tayyorlash kabilar nazarda tutilmoqda.

Buning uchun kompleks shart sharoitlarni joriy etish: jumladan, ota onalarning ehtiyojlarini o'rganish asosida bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik muhitni tashkil etish; maktabgacha ta'lim jarayoniga tatbiq etiladigan variativ xarakterdagi innovatsion texnologiyalarni samaradorlik darajasini tanqidiy tahlil asosida o'rganish hamda undan foydalanishning potensial imkoniyatlarini aniqlash; variativ xarakterdagi innovatsion texnologiyalarni maktabgacha ta'lim jarayoniga tatbiq etish imkonini beradigan didaktik materiallar hamda kadrlar bilan bog'liq resurlarlarni aniqlash; maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkonini beradigan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini o'rganish; variativ xarakterdagi innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish jarayonida sub'ektlarning funksiyalarini aniqlash va ularni taqsimlash; tarbiyachilarning kasbiy, kommunikativ, tashkilotchilik darajalari, ular faoliyatning yangi turiga pedagogik-psixologik jihatdan tayyorliklari, qo'shimcha pedagogik yuklamalari, oraliq va yakuniy nazorat asosida aniqlanishiga e'tibor qaratildi.

Variativ xarakterdagi innovatsion texnologiyalarni maktabgacha ta'lim jarayoniga tatbiq etish natijasida bolalarga individual hamda tabaqalashtirgan holda yondashish imkoniyati vujudga keladi. Ta'lim jarayoni bola shaxsiga yo'naltiriladi, bolalarga kompleks tarzda yondashgan holda ularni tarbiyalash va rivojlantirish imkoniyati ta'minlanadi. Shunga ko'ra maktabgacha ta'lim jarayonida variativ xarakterdagi innovatsion texnologiyalardan foydalanish shakllari, metodlari quyidagilar asosida amalga oshirilishi kerak: bolalarning ta'lim mazmunini o'zlashtirishlarini hisobga olgan holda pedagogik jarayonni loyihalash va uning strategiyasini aniqlash hamda pedagogik jarayonning taktikasini aniqlash, bunda tarbiyachilar yordamida aniq vaziyatlarda bolalarning improvizatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirish nazarda tutiladi.

Pedagogik jarayonning variativ xarakterga ega bo'lishi maktabgacha ta'lim mazmunini yangilash imkonini beradi. Bunda tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchilarning shaxsga yo'naltirilgan didaktik vaziyatlarda o'zaro munosabat va hamkorlikka kirishishlari ta'minlanadi. Bu jarayonda tarbiyalanuvchilarga individual yondashish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim jarayonida individual yondashuvni qo'llash har bir bolaning o'ziga xosligi va betakrorligini kashf etish imkonini beradi. Chunki variativ xarakterdagi pedagogik jarayonda bolaning o'ziga xosligi, qiziqishlari, iqtidori tarbiyachi tomonidan qo'llab quvvatlanadi. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim jarayoni variativ xarakterdagi tabaqalashtirilgan dasturlar asosida tashkil etilishi talab qilinmoqda. Chunki bunday dasturlar har bir bolaning individual yondashish traektoriyalarini aniqlash va qat'iy belgilab olish imkonini beradi. Bunday ta'lim jarayonida turli tuman variativ xarakterdagi texnologiyalarni qo'llash uchun qulay pedagogik vaziyat yaratiladi. Variativ xarakterdagi pedagogik texnologiyalarni maktabgacha ta'lim jarayoniga tatbiq etish natijasida tizimda mavjud bo'lgan muammolar yechimiga kompleks yondashish uchun qulay sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori
3. Akimova G. Kak pomoch svoemu rebyonku: Shkolnyy jurnal 2003. URL: <http://psy.1september.ru/>. (Data obraçeniya 3.12.2016)
4. Tkachuk, N. Yu. Variativno-obrazovatelnyy protsess v sovremennom doskolnom obrazovatelnom uchrejdenii / N. Yu. Tkachuk. — Tekst : neposredstvennyy // Obrazovanie i vospitanie. — 2017. — № 2 (12). — S. 14-18.

ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ СОЦИАЛЬНЫХ ПЕДАГОГОВ К РАБОТЕ С ДЕТЬМИ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ.

Жубакова С.С.

*и.о. доцента Евразийский Национальный университет имени Л.Н.Гумилева
Казахстан, г.Астана Zhubakova.saule@mail.ru*

Новые условия развития казахстанского общества ставят перед системой высшего профессионального образования новые приоритеты и задачи. В качестве первоочередной выдвигается задача формирования качественного нового уровня подготовки специалистов, обладающих собственным стилем мышления и оригинальным подходом к решению поставленных задач.

В законе Республики Казахстан «Об образовании» сформулирована основная цель профессионального образования: подготовка квалифицированного специалиста соответствующего уровня и профиля, конкурентоспособного на рынке труда, компетентного, ответственного, свободно владеющей своей профессией и ориентированного в смежных областях деятельности, способного к постоянному профессиональному росту, социальной и профессиональной мобильности, в удовлетворении личности в получении образования [1].

Широкое внедрение идей интеграции и инклюзии в общеобразовательные школы в значительной мере зависит от квалификации кадров, что требует внесения изменений в процесс подготовки будущих социальных педагогов.

В Казахстане инклюзивное образование стало внедряться только с 2011 года, поэтому фундаментальные исследования по данной проблеме отсутствуют. Имеются отдельные работы, рассматривающие некоторые аспекты инклюзивного образования: Мовкебаева З.А., Сулейменова Р.А., Ерсарина А.М., Оралканова И.А., Жубакова С.С. и др. В этих работах раскрываются условия реализации, организация, возможности, методологические подходы развития инклюзивного образования.

Вопросы готовности будущего педагога разрабатывали ученые Левитов Н.Д., Платонов К.К., Ковалев А.Г., Кандыбович Л.А., Чамата П.Р., Дьяченко М.И.

Значительный вклад в изучение проблем теории и методики профессионального образования в нашей стране внесли ученые Абдыманапов С.А., Ахметова Г.К., Арынгазин К.М., Каргин С.Т., Кожахметова К.Ж., Коканбаев С.З., Кусаинов А.К., Магауова А.С., Минжанов Н.А., Муканова С.Д., Сейтешев А.П., Сарсенбаева Б.Г., Таубаева Ш.Т., Хмель Н.Д. и др.

Вышеперечисленные исследования внесли определенный вклад в развитие теории инклюзивного образования, однако проблема профессиональной подготовки будущих социальных педагогов к работе в инклюзивной среде требует фундаментального изучения и внедрения в практику высшей школы.

По отношению к образованию ЮНЕСКО считает инклюзию как процесс «обращения и реагирования на разнообразие потребностей всех обучающихся через участие в обучении, культуре и сообществах, и сокращении отказа от поступления в школы и исключения из них». Его главной целью является создание свободной, безбарьерной среды в обучении и профессиональной подготовке людей с особыми образовательными потребностями. При инклюзии дети с особыми образовательными потребностями заняты в мероприятиях общеобразовательного процесса, имеют равное общение со сверстниками.

В Казахстане есть ряд проблем, которые связаны с внедрением инклюзивного образования. В Казахстане к детям с особыми образовательными потребностями относят тех, кто «испытывают постоянные или временные трудности в получении образования,

обусловленные здоровьем и нуждающиеся в специальных, общеобразовательных учебных программах и образовательных программах дополнительного образования» [1].

Личность социального педагога, готового и способного к инклюзивной работе, следует характеризовать с точки зрения его внутренней целостности, где профессиональное и личностное «я» тесно связаны системой ценностей. Значение ценностей, их доля в человеческой сущности раскрывается через индивидуальные жизненные представления, идеалы, идеи, элементы индивидуально-культурного и нравственного развития.

Важная составляющая *профессионально-личностной готовности* социального педагога, работающего с лицами с особыми образовательными потребностями – *готовность к оказанию помощи*. Психологи считают, что готовность к помощи у разных людей неоднородна. Чем выше уровень эмпатии, ответственности, заботливости, тем выше уровень готовности к помощи. Готовность к помощи у человека развивается при соответствующих условиях.

Готовность к оказанию помощи – интегральное личностное качество, включающее милосердие, эмпатию, толерантность, педагогический оптимизм, высокий уровень самоконтроля и саморегуляции, доброжелательность, умение наблюдать, способность суммировать наблюдения и использовать увеличившийся объем информации о ребенке (взрослом) для оптимизации педагогической работы; перцептивные умения (*способности проникать во внутренний мир ребенка, психологическая наблюдательность, связанная с тонким пониманием личности учащегося и его временных психических состояний*); креативность, творческий подход к решению проблем, задач педагогической работы и др. Педагог должен осознавать значимость этих качеств и стремиться их развивать.

Для определения уровня готовности будущих социальных педагогов к работе с детьми с особыми образовательными потребностями, мы провели исследование среди студентов 2 курса ОП «6В01108 – Социальная педагогика».

Для достижения задачи данного этапа применялись вербально-коммуникативные методы (анкета Бурениной Е.Е. «Изучение готовности будущих педагогов общеобразовательных организаций к внедрению инклюзивного образования», оценочные опросники «Методика диагностики профессиональной педагогической толерантности», автора Ю.А. Макарова) [2,3]. На основе анализа научных исследований данных авторов были определены основные компоненты, а также маркеры сформированности готовности будущего социального педагога к работе с детьми с особыми образовательными потребностями.

С помощью методики «Диагностика профессиональной педагогической толерантности» (автор Ю.А. Макаров), был изучен мотивационный критерий.

Данная методика направлена на изучение у студентов сформированности педагогической толерантности. Респондентам предлагается один на выбор ответ «СОГЛАСЕН» или «НЕСОГЛАСЕН».

Предполагаемое распределение педагогов по уровням выраженности толерантных установок характеризует именно профессиональную педагогическую среду.

Показатели ниже 21 балла не были выявлены, следовательно, противопоказаний к педагогической деятельности у данной группы будущих социальных педагогов нет.

Низкий уровень профессиональной педагогической толерантности, продемонстрировали 6 студентов (17%) контрольной группы и 5 студентов (14%) экспериментальной.

Средний уровень толерантности показали 20 человек (57%) контрольной группы и 15 студентов (43%) экспериментальной группы.

Высокий уровень был продемонстрирован у 11 студентов (26%) контрольной группы и 15 студентов (43%) – экспериментальной группы.

Такая личностная позиция свидетельствует о том, что студенты в будущем примут основные принципы и задачи инклюзивного образования, а также смогут увидеть ценностную значимость каждого ребенка, в том числе и с ООП.

Вариант интолерантности не выявлен.

Представим исследование когнитивного компонента инклюзивной компетентности. Для изучения данного компонента мы провели исследование с помощью анкеты Бурениной Е.Е. «Изучение готовности будущих педагогов общеобразовательных организаций к внедрению инклюзивного образования».

Результаты анкеты показали, что студенты – будущие социальные педагоги ответили следующим образом:

- с особенностями реализации инклюзивного образования знакомы только почти половина студентов, 30 человек, что составляет 43%;

- нормативно-правовой информацией в области инклюзивного образования обладают 15 человек (43%) экспериментальной группы и 7 студентов (20%) контрольной группы;

- только 6 человек (17%) студентов контрольной группы, при этом в экспериментальном произошла положительная динамика, уже 11 человек (31%) экспериментальной группы, знакомы с опытом внедрения инклюзивного образования в нашей стране и за рубежом;

- 18 человек (51%) контрольной группы связывают эффективность реализации инклюзивного образования только с материальными факторами, в экспериментальной группе этот показатель снизился до 11 человек (29%).

Исследование рефлексивного компонента инклюзивной компетентности мы провели с помощью оценочной анкеты «Показатели инклюзивную практики» (С.К. Нартова-Бочавер, Е.В. Самсонова).

Результаты сформированности рефлексивного компонента говорят о следующем:

- 7 человек (20%) будущих социальных педагогов контрольной группы и 4 человека (11%) экспериментальной группы находятся на стадии явного или латентного сопротивления инклюзии;

- 11 человек (31%) контрольной группы и 10 человек (29%) понимают роль инклюзивного образования в формировании подрастающего поколения;

- 22 человека (63%) контрольной группы и 29 человек (83%) экспериментальной группы признают приоритетность инклюзивного образования в развитии системы образования Казахстана,

- 10 человек (29%) контрольной группы и 13 человек (37%) экспериментальной группы относятся к инклюзии как позитивному явлению;

- 18 студентов (51%) контрольной группы и 22 будущих социальных педагогов (63%) согласны работать с детьми с ООП, понимая, что эти дети нуждаются в их помощи, но на условиях достаточной профессиональной подготовки.

Как видим из результатов проведенного исследования у будущих социальных педагогов имеются все предпосылки для эффективной подготовки их к работе с детьми с особыми образовательными потребностями, но в то же время у них недостаточно сформирована когнитивная сфера готовности к профессиональной деятельности в условиях инклюзивного образования. Что требует усиления академической подготовки, дополнением образовательной программы элективными курсами, непосредственно направленными на раскрытие особенностей инклюзивного образования и формирования практических умений взаимодействия с детьми с особыми образовательными потребностями.

Список литературы:

1. Закон об образовании Республики Казахстан (с изменениями и дополнениями) // <https://adilet.zan.kz/rus/docs>
2. Колесниченко Е.А. Общая психология. Практикум. – Мозырь : МГПУ. им. И. П. Шамякина, 2018. – 348 с.
3. Авраменко А.И., Богословский В.В. Практикум по общей психологии. – М.: Юрайт, 2018. – 540 с.

JADID TARAQQIYPARVARLARI ASARLARINING TA'LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI

Sh.N. Murodov

Buxoro davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar prorektori, f.f.d.(PhD), dotsent

Annotatsiya. Yangi O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'liga kirishi keng jamoatchilikning tarixga, jumladan, yaqin o'tmish Turkistonda sodir bo'lgan XX asr boshlaridagi hodisalarga qiziqishini kuchaytirib kelmoqda. Ushbu maqolada Turkiston jadid taraqqiyparvarlarining ta'limiy g'oyalari, xususan, jamiyat hayotida ta'lim- tarbiyaning o'rni va ahamiyati, yoshlarning savodxonlik darajasi hamda bu maqsad sari jadidlarning olib borgan sa'y-harakatlari, yoshlarni bilimli qilish, yangi usul maktablariga ularni jalb etishlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Jadidlar, ta'limiy g'oyalar, pedagogik qarash, madaniyat.

ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРУДА ДЖАДИДОВ ПРОГРЕССИВОВ

Аннотация. Вступление нового Узбекистана на путь независимого развития усиливает интерес общественности к истории, в том числе к событиям начала XX века, происходившим в Туркестане в недавнем прошлом. В данной статье рассматриваются просветительские идеи современных прогрессистов Туркестана, в частности, роль и значение образования в жизни общества, уровень грамотности молодежи и усилия, предпринимаемые джадидами в направлении этой цели, воспитания молодежи, ввода школы новой методики, говорят, что они их привлекают.

Ключевые слова: джадида, образовательные идеи, педагогическое видение, культура.

EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF THE WORKS OF JADID PROGRESSIVES

Abstract. The new Uzbekistan's entry into the path of independent development has been increasing the public's interest in history, including the events of the early 20th century that took place in Turkestan in the recent past. In this article, the educational ideas of the modern progressives of Turkestan, in particular, the role and importance of education in the life of society, the level of literacy of young people and the efforts made by the Jadids towards this goal, educating young people, introducing new method schools it is said that they will attract them.

Keywords: jadids, educational ideas, pedagogical vision, culture.

Kirish. Bugungi kunda mushtarak tariximizni yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma'rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o'z qimmatini va ahamiyatini yo'qotmasdan kelayotgan boy merosini teran tadqiq va targ'ib etish bizning ustivor vazifamiz hisoblanadi. Tarixan ma'lum, zaminimiz allomalar yurti hisoblanib, bunday zamin, albatta, o'zining madaniy yodgarliklari, bebaho asarlariga boy sanaladi. Mazkur madaniy me'ros yosh avlodni barkamol etib voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, rivojlanib, taraqqiy topib borayotgan jamiyatimiz ma'naviyatini yanada yuksaltirishda millatimiz tarixini o'zida badiiy aks ettirgan tarixiy, badiiy hamda ilmiy asarlarni alohida o'rganishga e'tibor yanada kuchaytirilmoqda. Jahon ta'lim va ilmiy - tadqiqot muassasalarida pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining bilish faoliyatini takomillashtirish, raqobatdosh kadrlar tayyorlash orqali davlat va jamiyatni iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirish, o'z o'tmishi va tarixiga xolisona yondasha oladigan, iste'dodli shaxslarni tarbiyalash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvarlari, xususan, jadidlar ilmiy merosida o'z aksini topgan xalq farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan ilg'or pedagogik g'oyalar asosida pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim shakllari, metodlari va vositalari, ta'lim subyektlari faoliyatini tashkil etishda foydalanishga doir ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda milliy qadriyatlar, ma'rifatparvar siymolar merosi asosida ta'limni takomillashtirish, yosh avlodni vatanparvarlikda tarbiyalash, milliy g'urur

tuyg'ularini shakllantirish, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha me'yoriy asoslar yaratilmoqda. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-marifiy" ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi Qarorida: "Jadid ma'rifatparvarlari g'oyalardan yosh avlod tarbiyasida foydalanish hamda innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish" ustivor yo'nalish etib belgilangan. Natijada, pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalariga jadidchilik harakati vakillarining pedagogik merosini o'rganishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirishga erishiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'zlarining "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigida: "Tilda, fikrda, ishda birlik" degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'aflat borqog'idan qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar. Ular shu yo'lda fidoyilik ko'rsatib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochdilar. Jamiyat a'zolarining dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirish maqsadida gazeta va jurnallar nashr etdilar. Yoshlarni ilg'or davlatlarga o'qishga yubordilar. Bir so'z bilan aytganda, ular milliy uyg'onish, milliy taraqqiyot g'oyasini ro'yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar" – deya Jadidlar haqida shunday fikrlarni bildirganlar. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayoni O'zbekistonda milliy o'quv dasturi qabul qilinishi va amaliyotga joriy qilinishini ta'lim va tarbiya uzluksizligining asosiy bo'g'ini sifatida qarash mumkin.

Oliy ta'lim tizimida ta'lim va tarbiya takomillashuvi jarayoni tarixi va taraqqiyoti o'tmishdagi boy meroslarni targ'ib qilish, amalda qo'llash biz yoshlarning zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: Jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyati haqida: "Jadidlarning g'oyalari yangi O'zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir", - deya ta'kidlaydilar. Jadidchilik O'rta Osiyoda, jumladan, hozirgi O'zbekiston hududiga kirib kelgan ijtimoiymadaniy va ma'rifiy oqim bo'lgan. Bu harakat ta'lim tizimini yangilash va musulmon maktablarida o'qitish usullarini takomillashtirishga xizmat qilgan. Turkistonda ta'lim sohasiga jadidchilikning ta'siri katta bo'lgan bo'lib, bu zamonaviy maktab tizimini rivojlantirish, o'qitishning yangi uslublarini joriy etish va aholi o'rtasida savodxonlikni oshirishga xizmat qilgan. Pedagogik metodlarni rivojlantirish va o'qituvchilar malakasini oshirishga ham e'tibor qaratilgan hamda jadidchilik aholi, jumladan, xotin-qizlar o'rtasida ta'limning keng tarqalishiga yordam bergan, bu esa mintaqada bilim olish va savodxonlikni oshirishga olib kelgan edi. Xususan, vujudga kelgan ushbu jadidchilik harakati XX asrning boshlariga kelganda o'z cho'qqisiga yetadi. Yillar davomida bir-biridan farq qiluvchi rivojlanish boshqichlarini bosib o'tadi.

Vatan va millat taraqqiyoti uchun jadidlar turli xil yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatdilar. Ushbu harakat vakillari jamiyatda ijtimoiy - siyosiy islohotlar o'tkazish uchun kurashni muhim masala deb bilganlari holda, ta'lim-tarbiya uchun kurash jadidlar faoliyatining asosiy diqqat markazida turgan edi. Jadidlar mamlakat istiqloli va istiqboli ma'rifat bilan bog'liqligini chuqur anglab yetganlar. O'zbekistonda XIX asrdan boshlab milliy vatanparvar ziyolilar tomonidan istiqlol harakatlari va modernizatsiya ishlari olib borilgan. Bu harakatlar natijasida jadidlar ta'sirida, aytish mumkinki, innovatsion harakat vujudga kelgan bo'lib, Jadidchilik harakati tarafdorlarining yirik namoyondalari: Mahmudxo'ja Behbudiy (1878-1919), Fayzullo Xo'jayev (1896-1937), Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931), Abdurauf Fitrat(1884-1939), Is'hoqxon Ibrat (1862-1937), Saidrasul Aziziy(1866-1933), Abdulla Avloniy (1875-1943), Sadridin Ayniy (1878- 1962), Saidahmad Siddiqiy (1864-1927), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929), Abduqodir Shakuriy(1875-1943), Ismatulla Rahmatullaev (1883-1962) kabi ma'rifatparvarlar yangi usuldagi maktablar ochish bilan birga o'lka ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida faol ishtirok etib, ma'rifatparvarlik sohasidagi ishlarni amalga oshirganlar. O'sha davr talabiga javob bera oladigan darsliklar kitoblarini yozib, nashr qildirganlar, o'z hisoblaridan bosmaxonalar tashkil qilib Turkiston xalqlarining siyosiy ongini oshirishga o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol ishtirok etishga undash uchun bir qator gazeta va jurnallar chop etganlar

hamda “Jamiyati xayriya” kabi xayriyalar tashkil qilganlar. Shuni ta’kidlash joizki, ilg’or ziyolilar – ilm taraqqiyotning asosi ekanligini anglagan holda, avvalo qoloqlikdan qutilishning haq yo’li deb, ma’rifatni tanlaydilar. Bu maqsad yo’lida XIX asrning so’nggi choragida Turkistonda dastlabki yangi usul maktablari tashkil etila boshlaydi. Jadidchilik harakati mintaqaning markaziy hududlarida jadal rivojlanadi. Xususan, Toshkent, Buxoro, Samarqand va Xorazm bu borada ancha faolroq bo’lgan bo’lib, shu bilan birga vodiy, viloyatlar ham jadidchilik harakatining foal harakatlari olib borilgan qaynoq joylardan edi. 1983- yilda Buxoro amirligida “birinchi” rasmiy yangi usul maktabi faoliyat ko’rsata boshladi. Turkiston hududida tashkil topgan jadid maktablaridan – Qo’qonda 1898-yilda Salohiddin domla tomonidan ochilgan maktabni ko’rsatish mumkin. To’raqo’rg’onda 1886-yilda yangi maktabni jadidchilik harakatining nufuzli vakillaridan bo’lgan Is’hoqxon Ibrat Qo’qon shahrida madrasa tahsilini olgach ochadi, ammo u ma’lum sabablarga ko’ra tezda yopiladi. Mazkur voqeadan keyin Ibrat 1887-1895-yillari Yevropa va Osiyoning bir qator mamlakatlarida bo’lib, o’ndan ortiq chet tillarini o’rganishga kirishadi. Xorijiy ilm-fan yutuqlari va texnika mo’jizasi bilan yaqindan tanishib, 1907-yilda yangidan “usuli savriya” maktabini ochadi. Bu maktabda 25 nafar qishloq bolalarini o’qitadi. Xorijiy safardan qaytib, yurt taraqqiyoti uchun jadal faoliyatga o’tib jadidchilik harakatining a’zosiga aylanadi. Ta’limni o’zi tomonidan ishlab chiqilgan dastur asosida tashkil etadi. U olgan tajribalari asosida o’z maktablarida haftalik dars jadvalini joriy etishga erishadi. O’sha kezlarda Jadidlarning e’tibor markazida bo’lgan, aytish mumkinki, faoliyatining asosini tashkil qilgan faoliyat bu nashriyotchilik bo’lgan. Ular faol ravishda ommaviy maqolalar yozganlar va shu orqali aholini savodli qilishga bel bog’laganlar. Bu esa o’z natijasini ko’rsatganligini yangi usuldagi maktablarda ta’lim olishni istovchi talabgorlarning soni ortib borganligidan ham ko’rish mumkin.

Maktablarda yoshi katta insonlar ham savod chiqarish uchun qatnagani, aholining bilim olishga ishtiyoqi ortib ketganligi bilan izohlanadi. Ularning yana bir e’tibor qaratgan sohalar bu teatr sohasi bo’lib, mamlakatda esa o’ta mashhurlikka erishgan edi. Bu san’atning joriy qilinishidan ko’zlangan asosiy maqsad xalqni ma’rifatli qilish edi. Moddiy manfaatdorlik mutlaqo ko’zda tutilmagan jadidlarning mana shunday faoliyati ham har taraflama tahsinga sazovor. Shu nuqtayi nazardan, jadidlarning harakati tufayli XX asr boshlariga kelib o’nlab yangi usul maktablari faoliyat ko’rsatgan edi. Turkistonlik jadidlar faolligi yanada oshgan hamda jadidchilik harakati ushbu jarayonlar ta’sirida siyosiy tus ola boshlagan. Musulmon madrasalarida talabalarining siyosiy faolligi ham sezilarli darajada oshgan edi. 1908-yilda Qo’qon shahridagi bir guruh ilg’or fikrli madrasa talabalari “Shamsinur” jamiyatini tuzdilar. Bu jamiyat a’zolari o’zlarining asosiy vazifalari deb, aholini bilimli va ma’rifatli qilish hamda madrasalarda tabiiy va aniq fanlar ham o’qitilishining joriy qilinishini belgilab olgan edilar.

O’lkadagi ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy masalalar ham jamiyat yig’ilishlarida muhokama qilinib borildi. 1874-yilda Xiva xonligida matbaachilikning paydo bo’lishi, toshbosma usulida kitoblar chop etishning yo’lga qo’yilishi natijasida maktab o’quvchilari va madrasa talabalarining ta’lim olish imkoniyatlari bir qancha kengaydi. Yangi usul maktablari va ular negizida vujudga kelgan jadidchilik harakatini yoshlar ongiga singdirishda “Yosh xivaliklar” harakati a’zolari faol ishtirok etdilar. Shu bilan birgalikda, 1912-yil 20-iyulda Qo’qon shahrida “Qo’qon artistlar to’garagi” tashkil etilgan bo’lib, Hamza uning asoschilaridan biri edi. To’garakning maqsadi dramatik asarlarni o’rganish va ularni sahnalashtirish hamda san’at havaskorlarini unga jalb etishdan iborat edi. Bu davrda Hamzaning faoliyati, asosan, yangi o’zbek drama teatrini vujudga keltirishdan iborat bo’lgan. 1914-1916- yillar mobaynida u 18 dan ortiq adabiy –publistik asarlar yaratdi. Garchi o’sha davrda birinchi jahon urushi borayotgan bir jarayon bo’lishiga qaramasdan, hudud ma’rifatparvarlari faoliyatlari jadallashdi. Mazkur faollik natijasida, Turkistonda mahalliy yillarda gazeta-jurnallar va turli uyushmalar adadi ko’payib bordi va ilmsizlik, xurofot, dogmatik qarashlardan chekinib, rivojlanish, ma’rifat sari ishonchli odimlar tashlandi.

Jadidlar faoliyatining kichik bir tarmog’ini tahlil qilish bilan, bugungi kunda ta’lim jarayonida qo’llanilishi mumkin bo’lgan juda katta ma’lumotlar bazasiga ega bo’lishimiz mumkin hamda fan tarmog’ining barcha sohalarida foydalansa bo’ladigan amaliy ko’nikmalar

yaratish mumkin. Avvalo muayyan xalq o'tmishga nazar solishi undan namuna olishi lozim, qolaversa, jadidchilik harakati ilm va g'oyalarni tarqatishda matbuotning ahamiyatini ta'kidlagan, gazeta va jurnallarni chiqarish orqali jadidlar o'z tarbiyaviy g'oyalarini keng ommaga yetkaza olganlar. Jadidlarning maktab, madrasa, matbuot, teatr san'ati kabi turli platformalar orqali olib borgan ilmiy-pedagogik faoliyati katta ijtimoiyma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan, ularning zamonaviy va ilg'or g'oyalarga urg'u berishlari, shuningdek, an'anaviy islom ta'limoti va zamonaviy ta'lim o'rtasidagi tafovutni betaraf etishga qaratilgan sa'y-harakatlari Markaziy Osiyo jamiyatlarining intellektual va ma'rifiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Jadidlar matbuotdan o'z g'oyalarini targ'ib qilish va kengroq auditoriyani qamrab olish uchun kuchli vosita sifatida foydalanganlar. Ular gazeta, jurnal va kitoblar orqali ta'lim-tarbiyaning ahamiyatini, taraqqiyotning qadrini, ijtimoiy islohotlar zarurligini keng ommaga yetkazib turganlar. Bu esa kitobxonlik madaniyati va intellektual faollikni rag'batlantirish bilan birga, aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy yuksalishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev, (2023) Jadidlar, milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari " mavzusidagi xalqaro konferensiyasi ishtirokchilariga tabrigi// (<https://president.uz/uz/lists/view/6919>)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev, (2021) PQ-5040-son "Ma'naviy-marifiy" ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi Qarori
3. M.Jumayev, (2024) Jadidchilik merosining munosib vorislari// Pedagog gazetasi №5.
4. D.Alimova, (2022) Jadidchilik fenomeni // Toshkent Akademnashr
5. Xasanov, Baxtiyor, & Irzayev, Baxrom (2022). Millatimiz fidoyilari (Ilmiy-ommabop maqolalar to'plami) Tashkent
6. D.U.Djurayev, (2019) Turkiston xalq ta'limining tashkil etilishi va boshqarilishi nazariy asoslari (XIX-asr ikkinchi yarmi-XX-asr boshlari)//fan d.(DSc) diss T

SHAXSDA TOLERANTLIK SHAKLLANISHINING KONSEPTUAL ASOSLARI

Bafayev Muxiddin Muxammadovich

Buxoro davlat pedagogika instituti o'quv ishlari bo'yicha prorektori PhD, dotsent

Annotatsiya: Asli tolerantlik insoniyat tarixida o'zga din va millatlarga nisbatan bag'rikenglik va ehtiromli munosabatda bo'lish mezonini sifatida shakllanib kelgan. Tolerantlik murakkab va o'ziga xos ham ijtimoiy ham individual xususiyatlarini o'zida mujassam etgan voqelik hisoblanadi. Ahvoli, diniy e'tiqodiga qaramasdan muvozanatda saqlash me'yorlarini anglatadi. Tolerantlik faqat insonning o'z shaxsiy xususiyatlariga aloqador bo'lgan psixologik tushuncha bo'lmay, balki insonga xos bo'lsa ham ana shu o'ziga xoslikni boshqa insonlarga qarata ishlata olish, qo'llay bilish ko'nikmalaridan iboratdir.

Tayanch tushunchalar: shaxs, tolerantlik fenomeni, differensiallashgan tushuncha, tolerantlik tiplari, tolerantlik komponentlari, tolerant munosabatlar, intolerant munosabatlar.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТОЛЕРАНТНОСТИ У ЛИЧНОСТИ

Аннотация: В истории человечества толерантность сформировалась как критерий толерантного и уважительного отношения к другим религиям и народам. Толерантность представляет собой сложную и уникальную социальную и индивидуальную реальность. Статус относится к стандартам баланса независимо от религиозных убеждений. Толерантность является не только психологическим понятием, связанным с личностными особенностями человека, но и состоит из умений использовать эту характеристику по отношению к другим людям.

Основные понятия: личность, феномен толерантности, дифференцированное понятие, виды толерантности, компоненты толерантности, толерантные отношения, интолерантные отношения.

CONCEPTUAL FOUNDATIONS FOR FORMATION OF TOLERANCE IN A PERSON

Abstract: In the history of humanity, tolerance has been formed as a criterion for a tolerant and respectful attitude towards other religions and peoples. Tolerance is a complex and unique social and individual reality. Status refers to standards of balance regardless of religious beliefs. Tolerance is not only a psychological concept associated with the personal characteristics of a person, but also consists of the ability to use this characteristic in relation to other people.

Keywords: personality, phenomenon of tolerance, differentiated concept, types of tolerance, components of tolerance, tolerant relations, intolerant relations.

Boshqa fan sohalarida bo'lgani kabi psixologiyada ham tolerantlikni kundalik va ilmiy tushuncha sifatida farqlash lozim. Biroq, hozirgi zamonaviy adabiyotlarda bunday farqni sezish mushkul. Tolerantlikka berilgan ba'zi ta'riflar bilan tanishib chiqishni o'zi kishini shunday xulosaga kelishga undaydi. Xo'sh, bu ta'riflarning asosiy mazmuni qanday? Ular quyidagi holatda namoyon bo'ladi: "qarama-qarshilik sharoitida hamkorlik qadriyati", "o'zining shaxsiy maqsad va qiziqishlaridan farqlilarini qabul qilish", "eshitganlarning o'z dunyoqarashiga qanchalik nomutanosib bo'lmasin, sabr bilan eshitish, turli fikrlar bilan hisoblashish qobiliyati", "tinchlik va xotirjamlikka intilish". Yuqoridagi keltirilgan barcha ta'riflar shaxsda tolerantlik fenomenining ta'rifi bo'la oladi [1]. Tolerantlik fenomenining differensiallashgan tushunchalariga quyidagilar kiradi:

Tabiiy tolerantlik – yosh bolalarga xos bo'lgan va uning shaxsiy "Men" sifatleri assotsiyalashmagan – ochlik, mehribonlik, ishonuvchanlik ("A" tipli tolerantlik);

Ma'naviy tolerantlik – insonning tashqi "Men"i bilan assotsiyalashgan sabr, sabrlik ("V" tipli tolerantlik);

axloqiy tolerantlik – ichki "Men" bilan assotsiyalashgan qabul qilish va ishonch tuyg'ulari ("D" tipli tolerantlik).

Ushbu tolerantlik turlariga batafsil to'xtalib o'tamiz:

"A" tipdagi tolerantlik – bu boshqa insonni so'zsiz, tabiiy ravishda, boricha qabul qilish unga nisbatan qadrlil va aziz mavjudot sifatida munosabatda bo'lishdir. Bunday tolerantlik yosh bola hayotida katta o'rin egallaydi, chunki uning shaxs bo'lib shakllanish jarayoni hali individual va ijtimoiy tajribalarni his etishga yetib bormagan. Tolerantlikning bu turi bolalar psixologiyasi va psixoanalizida yetarlicha tadqiq etilgan. Go'dak o'z ehtiyojlariga nisbatan mutlaqo sabrsiz – u ochlik, sovuq, emotsional "huvillashga" nisbatan chidamsizdir. U o'zidagi bazaviy ehtiyojlarni qondirilishini o'ziga xos bo'lgan qurol – yig'i bilan talab qilishga moyil. Agar unda boshqa "qurol" bo'lganida edi, u albatta, undan foydalangan bo'lar edi. Keyinchalik ota-onalar o'z farzandlarini sabrlikka o'rgatadilar, ba'zida esa ayrim kattalar o'z ehtiyojlarini tezda qondirilishini talab etib, "go'dakligicha" qolib ketadilar.

Tolerantlikning "A" tipi yosh bolalarning o'z ota-onalarini, hattoki ular qattiqqo'l munosabatda bo'lganlarida ham – psixologik yoki jismoniy zo'ravonliklar jarayonida ham mehribondek qabul qilishining asosidir. "A" tipdagi tolerantlikning mavjud bo'lishi yomon munosabatning namoyon bo'lishidan psixologik, subyektiv himoyalanganlik va ota-onalari bilan ijobiy munosabatni saqlashga yordam beradi.

"V" tipdagi tolerantlik shaxs sifatida o'zini ko'rsatish uchun xarakterli bo'lgan, individning shaxs bo'lib shakllanish jarayonining ixtiyoriy qismi hisoblanadi. Ko'pincha bu tip katta yoshdagilarga xos ekanligini alohida qayd etish lozim. Tolerant shaxs ko'proq bosiqlikka harakat qiladi, u ko'pincha himoya mexanizmlaridan foydalanadi. Biroq ba'zida o'zining hayajonlarini, hissiyotlarini aytmoqchi bo'lgan noroziliklari va agressiyalarini yashiradi. Shuni aytish mumkinki, ko'pincha "V" tipdagi tolerantlik haqiqiy bo'lmagan, qisman namoyon bo'luvchi, shartli, madaniy tolerantlikdir. Ya'ni, bu tipdagi tolerantlikka misol keltiradigan bo'lsak, quyidagicha ifodalarni ko'rish mumkin: "Biz sizga sabr qilamiz, chunki....", "Sharoit shuni taqozo qiladiki, biz sizga chidashga majburmiz, chunki....", "Ayni paytda men o'zimdek bo'la olmayman va o'zimni sabrlikdek qilib ko'rsatishga majburman...." "Men boshqa narsa haqida o'ylayman, lekin buni oshkor aytish...."

"V" tipdagi tolerantlik – bu berk, yashirin ichki agressiya bo'lib, bunday sabrlik bir qarashda sabrsizlikdan yaxshiroq bo'lib ko'rinsa-da, unisi ham bunisi ham tabiatan bir xil hodisalar hisoblanadi. Ularning psixologik asosi bir xil bo'lib, ular orasidagi farq sifat jihatidan emas, faqatgina son jihatidandir. Shuni aytish mumkinki, "D" tipdagi tolerantlik – sabrsizlikning

teskari teskari tomoni bo'lib, inson ustidan turli xildagi zo'ravonlik, manipulyatsiya, uning subyektiv tavsiflarining suiste'mol qilinishidan iboratdir.

“D” tipdagi tolerantlik inson tomonidan atrofdagilar bilan bir qatorda o'zini ham bir xilda qabul qilishdir. Zo'ravonlik va manipulyatsiyaga qarama-qarshi bunday o'zaro ta'sir etish boshqa inson uchun qadrlı bo'lgan ichki qadriyatlar, hayotning mazmunini, his-hayajonlariga hurmat bilan qarashni va ularni to'g'ri qabul qilishni aks ettiradi. Bu haqiqiy yetuk, asl pozitiv tolerantlik bo'lib, “A” va “V” tipdagi tolerantliklarga nisbatan inson haqiqatini chuqurroq va to'liqroq anglashga asoslanadi. Bolalar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatdagi o'zaro sabrsizlik o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, bu kattalarning sabrliqligi, ya'ni tolerantligi oqibatidir.

Psixologiya fanida tolerantlik fenomen sifatida o'rganilayotganiga deyarli ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Jumladan, A.V.Petrovskiy, A.V.Zimbuli, Yu.A.Ishenko, V.M.Zolotuxin, A.G.Asmolov, G.U.Soldatovlar tomonidan sabr, chidamlilikning asosiy tashkil etuvchisi deb qaraladi.

A.A.Rean chidamlilik va tolerantlik tushunchalari o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha yuqoridagi mualliflar keltirgan fikrlariga qarama-qarshi fikrini bayon etadi. U tolerantlik psixofiziologik atama bo'lib, u noxush omillarga javob qaytarishning susayishi deb biladi. A.A.Rean fikriga ko'ra, “chidamlilik” umumiyroq tushuncha bo'lib, turli xil fikrlarga nisbatan munosabati bilan bog'liq [2].

E.V.Magomedovanning fikriga ko'ra, tolerantlikni inson ongining ikki darajasida ratsional-mantiqiy va emotsional-hissiy ko'rib chiqish mumkin [3].

Rus tadqiqotchilari tolerantlikning bahoviy tabiatini ta'kidlab o'tib, uni insonning axloqiy rivojlanishi bilan munosabatini ko'rsatib o'tishadi. Bundan tashqari bixevioristik yondashuvda ham tolerantlikni alohida tahlil qilib, uni insonning alohida bir xulq-atvori sifatida qaraydi.

Tolerantlikning kognitiv komponenti mukammallikni dunyoning turli-tumanligini qabul qilish orqali namoyon bo'ladi. Tolerantlikning emotsional komponenti tolerant munosabatlarning tarkibiy qismi bo'lgan emotsiyani ko'rib chiqadi [4]. Emotsional komponentning alohida tashkil qiluvchisi sifatida G.Kristall tomonidan emotsional turg'unlikning asosiy ko'rinishlaridan biri “affektiv tolerantlik” ni ajratilib ko'rsatiladi. Uning asosida emotsional zo'riqlashni yenga olish, boshqalarning og'ir kechinmalariga sabrli bo'lish yotadi. Tolerantlikning xulq-atvor komponenti tadqiqotchilarning e'tiborini tortadi.

S.L.Bratchenko xulq-atvor tolerantligi tarkibi ichida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi [5]:

- o'z fikrida qat'iy tura olish va uni izohlashda tolerantlik qobiliyatiga ega bo'lish;
- boshqalarning mulohazalariga tolerant munosabatda bo'lishga tayyorlik, kelisha olish ko'nikmasi;
- qiyin vaziyatlarda tolerant xulq-atvor.

S.L.Bratchenko tolerantlik komponentining shartli verbal ko'rinishini ham ajratishni taklif qiladi (1-jadval).

1-jadval

Tolerantlik-intolerantlik munosabatlarining tarkibiy qismlari

Psixologik tuzilish komponentlari	Tolerant munosabatlar	Intolerant munosabatlar
Motivatsion-qadriyatli	Falsafiy–etnik qadriyatlarni qabul qilish motivlari: Yordam, hamkorlik, muhabbat, yon bosish, muruvvat	Falsafiy–etnik qadriyatlarni qabul qilmaslik motivlari: befarqlik, qabul qilmaslik, boshqalarning qarashlari va xulq-atvorini o'zgartirish istagi
Kognitiv	Tushunish, qabul qilish mexanizmining rivojlanganligi	Tushunish, qabul qilish mexanizmining rivojlanmaganligi
Emotsional-irodaviy	Sabr-toqat mexanizmining rivojlanganligi: asabiylikni yengish, jahlni tiyish, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi nazorat qilish, empatiya,	Sabr-toqat mexanizmining rivojlanmaganligi: o'zini tuta bilmaslik, asabiylik, sovuqlik, befarqlik, emotsional

	sevgi, hurmat, qiziqish, emotsional turg'unlik	noturg'unlik, agressivlik, pisand qilmaslik
Konativ	Assertiv xulq: Muruvvat, hamkorlik. Muloqot usullari: yon berish, tushuntirish, kelishish, hamkorlik, yordam, ogohlantirish	Agressiv xulq: impulsivlik, o'zini chetga olish Muloqot usullari: diktatorlik, manipulyatsiya qilish, buyruq berish, qo'rqitish

Shunday qilib, tolerantlik tushunchasi, ko'pgina manbalarda bardoshlilik tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Tolerantlik – faol, boshqalarning fikriga, dunyoqarashiga va harakatlariga notabiiy ravishda bo'ysunish emas, balki faol axloqiy-ma'naviy dunyoqarash va etnoslar orasidagi, ijtimoiy guruhlar orasidagi boshqa madaniyat, millat, dinlar va ijtimoiy muhitlar orasidagi o'zaro munosabatlarda insonni bardosh bilan sabr qilishga psixologik jihatdan tayyorligini ko'rsatib turuvchi faol pozitsiya degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Ko'pgina manbalarda tolerantlik sabr-bardoshlilik, o'zlaridan farq qiladigan insonlar bilan muloqot o'rnatish qobiliyati, umumqabul qilingan fikrga qo'shilmaydiganlarga nisbatan chidamlilik sifatida talqin qilinadi [6].

Psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, bolaning oiladagi erta psixologik jarohatlanishi, doimiy ravishda bolaning individual namoyon bo'lishini bosib borilishi natijasida shaxsning intolerantligining rivojlanishiga olib keladi.

Avlodlar o'rtasidagi nizo – bu, eng avvalo, qadriyatlar tizimi konfliktidir. Masalan, o'smirlik yoshidagi ko'pgina muammolar asosan ularning ota-onasi bilan munosabatdagi sabrsizligi bilan bog'liqdir. Albatta, bu sabrsizlik birdaniga yuzaga kelmaydi. O'smirlik davridagi nizolar shunisi bila qiziqki, tolerantlik ko'rinishlari shakllanishining ketma-ketligini inobatga olgan holda o'smirni “kattalarning kattasi” sifatida ko'rib chiqishi mumkin. O'smir katta bo'lib turgan sari uning hayotidagi barcha o'zgarishlar uning uchun yangilik bo'lib, hali o'smir tomonidan yetarli darajada o'zlashtirilmagan bo'ladi. O'zining sabrsizligi, qattiqqo'lligi, qat'iyatliligida o'smir kattalardan ancha o'zib ketadi. O'smir “o'z olamida” yashaydi, uning qadriyatlar tizimi yaxshilik va yomonlik dualizmiga asoslangan bo'lib, aynan ularni atrof-olamga ko'chirishga intiladi; kattalar esa ularning ruhiy mavjudlik tomonlarini kuchaytirish o'rniga, ularni ko'proq ijtimoiylashtirishga harakat qiladilar, buning natijasida rezonans yuzaga keladi, ya'ni ota-onasining negativ atmosferasi ta'sirida o'smirda negativizm kuchayib boradi.

Aynan o'smirlik yoshida o'ziga xos “tuynuk” paydo bo'lib, bu tuynuk “A” tipdagi tolerantlik bilan “V” tip tolerantlik o'rtasida hosil bo'ladi, o'smir endi bola uchun xarakterli “A” tipdagi tolerantlikka toqati yo'q va o'z navbatida kattalarga xos bo'lgan sabrlik tolerantligiga ham tayyor emas. O'smirlik suitsidi aksariyat holatlarda o'smirning “marginal tolerantligi” kabi chegaralangan imkoniyatlari bilan izohlanadi. Kattalarning yosh bolalar bilan o'zaro munosabatidagi muammo shundan iboratki, bolani emas, o'zini o'zi qabul qilishni, ya'ni ota-onalarning o'zlarini birlamchi qabul qilishlari va bu narsa qandaydir “soya”ni his etishni yuzaga keltiradi.

“D” tipdagi tolerantlik bir qator muloqot amaliyotlarning o'ziga xos xarakterli xususiyatlaridan hisoblanib, psixoterapevtik effektga egadir.

Tolerantlik turli falsafiy va psixologik yondashuvlarga ko'rib chiqiladi. Zamonaviy psixologik adabiyotlarda bixevioral (tolerantlik insonning alohida xulq shakli sifatida ko'riladi) va kognitiv (tolerantlik o'z asosida bilim va ratsional sabablarga ega) yondashuvlar ustunlik qiladi. Tolerantlikka nisbatan bir qancha yondashuvlarning bu borada o'ziga xos fikrlarni bildiradi.

Shaxsiy yondashuv – tolerantlikning murakkab anatomiyasida uning psixologik asosi va bosh o'lchovi – tolerantlikning shaxsiy o'lchami (qadriyatlar, shaxsiy ustanovkalar) hisoblanadi.

Fasilitativ yondashuv – shaxslararo munosabatlar jarayonida to'liq tolerantlik nafaqat shakllanadi, balki rivojlanadi ham, tolerantlikning shakllanishida unga rivojlanish uchun yaratilgan sharoitlar yordam beradi.

Bundan tashqari ekzistensial-gumanistik yondashuv – tolerantlik qandaydir omillar harakatining mexanik natijasi hisoblanmaydi, haqiqiy tolerantlik – bu shaxsning anglangan va mas’uliyatli tanlovi bo‘lib, insonning boshqalar bilan munosabat o‘rnatishdagi pozitsiyasi va faolligidir. Ekzistensial-gumanistik nuqtayi nazardan to‘liq, yetuk tolerantlik bu so‘zsiz anglash, tushunish va mas’uliyatlilikdir. Bunday tolerantlik avtomatizm, ya’ni oddiy stereotipik harakatlar emas, balki qadriyat va hayotiy pozitsiya bo‘lib, ularni amalga oshirish har bir konkret vaziyatda o‘ziga xos ma’noga ega va tolerantlik subyektdan ushbu mazmunni izlashni talab etadi.

Tolerantlikka diversifikatsion yondashuv – tolerantlikning psixologik mazmuni, alohida bir xususiyatga tavsifga olib kelinishi mumkin emas, bu murakkab, ko‘p aspektli va ko‘p komponentli fenomen bo‘lib, bir nechta bazaviy o‘lchamlarga ega.

Aksariyat hollarda murakkab psixologik hodisalarni tasvirlashda komponentlar triadasidan foydalaniladi. Bu triada quyidagilarni o‘z ichiga oladi: kognitiv komponent, emotsional komponent va xulq-avtor komponenti. Ushbu sxemani qo‘llashga intilishlar tolerantlikka ham paydo bo‘ldi. Eng umumiy hollarda yuqoridagi komponentlarning asosiy mazmuni yoki tolerantlik o‘lchamlar quyidagicha ta’riflanishi mumkin:

Tolerantlikning “kognitiv” komponenti. Bu komponent yaqqol ko‘rinuvchi va ko‘p jihatdan tadqiq etilganligi uchun tolerantlik ko‘pincha kognitiv “transkripsiya”da tasvirlanadi. Bu yerdagi asosiy jihatlar murakkablik, ko‘p o‘lchamlilik, oldindan bashorat qilib bo‘lmashligi, u haqdagi individual fikrlar tabiatini tan olishdir. Shuning uchun ham u haqdagi fikrlarni yagona haqiqatga birlashtirishning imkoni yo‘q.

Tolerantlikning kognitiv komponenti inson tomonidan murakkablik va ko‘p o‘lchamlilikni qabul qilish va tushunishdan iborat bo‘lib, bular hayotiy haqiqat bilan bir qatorda uni qabul qilish variantlarining turlichaligi, ularni turli insonlar tomonidan turlicha baholanishi va utushunilishi, nisbiy va to‘liq emasligi, subyektivligidir. Tolerantlik kognitiv o‘lchamda aynan qarama-qarshilik holatlarida namoyon bo‘ladi: fikrlarning to‘qnash kelishi, qarashlarning mos kelmasligi va hokazo. Bu mos kelmaslik plyuralizmni qabul qilish, interpretatsiyalarning boyligidan dalolat beradi. Kognitiv intolerantlik tolerantlikning aksi bo‘lib, me’yor mavjudligi pozitsiyasidan kelib chiqadi, shuning uchun u fikrlarning ko‘p bo‘lish imkoniyatini rad etadi va har qanday fikrlar plyuralizmi, insonlarning turlicha nuqtayi nazarlarini xatolik, adashish va hatto atayin qarshi chiqish deb baholaydi. Tolerantlik shuningdek, shaxsning suhbatdoshi bilan ma’lum vaziyat yuzasidan turlicha fikrlar bildirish imkoniyatini ham anglatadi, kognitiv “nizo” shaxslararo nizoga olib kelmaydi.

Tolerantlikning emotsional komponenti. Tolerantlikka empatiyaning ahamiyati beqiyos va bu fikrni deyarli barcha tadqiqotchilar ma’qullagan. Tolerantlikning emotsional tashkil etuvchisining ahamiyati shundaki, aynan shu o‘lchov kommunikativ jarayonda suhbatdoshlarni o‘zaro umumiylikka erishishlari, uzilgan insoniy aloqalarni tiklashlari imkonini beradi. Bunda tashqari empatiya suhbatdoshlar o‘rtasidagi kognitiv yoki xulq-atvor tekisligida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yoki yumshatish imkonini beradi. To‘liq empatiya bebaho va bu ma’noda mazmunan tolerantidir. Emotsional komponentning alohida tashkil etuvchisi sifatida emotsional barqarorlikning o‘ziga xos ko‘rinishi – “affektiv tolerantlik”ni aytish mumkin. Uning mazmuni emotsional tolerantlikni, og‘riqli hislarni sabr bilan yengish va hokazo. Tolerantlikning ushbu ko‘rinishining boshqa bir aspekti o‘zga kishining turli emotsional ko‘rinishlariga sabrli munosabatla bo‘lish bilan bog‘liq. Rivojlangan affektiv tolerantlik insonga shaxsiy emotsional jarayonlari bilan bir qatorda boshqa insonlarning his-hayajonlarini yaxshiroq anglashga, asabiylashmay va ulardan yomon ma’no izlamay qabul qilishga yordam beradi.

Tolerantlikning xulq-atvor komponenti. Ushbu o‘lchov “tolerantlik aysbergi”ning eng ko‘zga ko‘ringan qismini tashkil etadi va odatda o‘ziga e’tiborni jalb qiladi. Xulq-atvor tolerantligiga qarab ko‘nikma va qobiliyatlarni kiritish mumkin, ular orasidan quyidagilarni ajratib ko‘rsatamiz:

1) tolerant fikr bildirish va o‘z nuqtayi nazarini shaxsiy muloahaza sifatida himoya eta olish qobiliyati;

2) boshqalarning fikriga tolerant munosabatda bo'la olish qobiliyati, ya'ni o'zining shaxsiy fikridan qanchalik farq qilishiga qaramasdan, boshqalarning ham o'ziga xos fikri borligi va u ham bu fikrni bildirish huquqiga ega ekanligini tan olish;

3) nizoli vaziyatlarda (qarama-qarshi nuqtayi nazar, fikrlar to'qnashuv yuz berganda) tolerant bo'la olish qobiliyati.

Bular orasida oxirgi uchinchisi, nafaqat xulq-atvor o'lchamida balki boshqa o'lchamlarda ham alohida e'tiborni talab qiladi [1]. Tolerantlikning ushbu jihatlarini tadqiq etishda B.I. Xasanning konflikt va konflikt kompetentligi konsepsiyasi asos bo'lib xizmat qiladi [7]. Kognitiv komponent tolerantlik prinsiplarini qabul qilish, tushunish, fikrlash, interpretatsiyalashni nazarda tutsa, verbal komponent "ilmiy tashkil etuvchilar" bilan chegaralanadi [1].

Shunday qilib, tolerantlik tushunchasi ko'pgina manbalarda bardoshlilik tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Tolerantlik faol, boshqalarning fikriga, dunyoqarashiga va harakatlariga notabiiy ravishda bo'ysunish emas, balki faol axloqiy-ma'naviy dunyoqarash va etnoslar orasidagi ijtimoiy guruhlar orasidagi o'zaro munosabatlarda insonni bardosh bilan sabr qilishga psixologik jihatdan tayyorligini ko'rsatib turuvchi faol pozitsiya. Binobarin, zamonaviy shart-sharoitlar o'sib kelayotgan avlodni xilma-xillikka chidamli, boshqa fikrlarni eshita olish va ularni hurmat qilish, bir so'z bilan aytganda, bardoshlilik va tolerantlik ruhida tarbiyalashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ismoilova N.Z., Abdullayeva D.U. Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 168 b.

2. Реан А.А., Бордовская Н.В., Розум С.И. Психология и педагогика. СПб.: Питер, 2002. – 432 с.

3. Магомедова Е.В. Толерантность как принцип культуры. Ростов-на-Дону, 2000. – С.46-60

4. Волков Б. С. Психология развития человека: учебное пособие для вузов / Волков Б. С., Волкова Н. В. – Москва: Академический Проект, 2020. – 224 с.

5. Братченко С.Л. Психологические основания исследования толерантности в образовании / Л.С. Братченко Электронный ресурс. — Режим доступа: www.hpsy.ru.

6. Bafayev M.M. Tolerantlikning tarixiy-falsafiy va psixologik ildizlari. – "Pedagogika" jurnali. – № 1. – Toshkent, 2023. – B.66-70

7. Хасан Б. И. Конструктивная психология конфликта: учебное пособие по дисциплине "Педагогика" цикла "Общепрофессиональные дисциплины" для студентов вузов, обучающихся по педагогическим специальностям": описание и анализ конфликта. Модели разрешения конфликта. Технологии переговорного процесса. Тренировка переговоров. – М.: Питер, 2003. – 250 с.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich

Buxoro pedagogika instituti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari keng yoritilgan. Funksional savodxonlik tushunchasining mazmuni, uning zamonaviy ta'limdagi ahamiyati, o'quvchilarda ushbu ko'nikmalarni shakllantirish usullari va o'qituvchining bu jarayondagi o'rni ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun funksional savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar, metodik yondashuvlar va ta'lim texnologiyalari asosida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, zamonaviy raqamli axborot muhitida funksional savodxonlikning roli, fanlararo integratsiya va baholashning zamonaviy mezonlari ham yoritilgan.

Kalit soʻzlar: funksional savodxonlik, boshlangʻich taʼlim, pedagogik asoslar, interfaol metodlar, oʻquvchilarni rivojlantirish, axborot bilan ishlash, taʼlim texnologiyalari, kompetensiyaviy yondashuv.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING FUNCTIONAL LITERACY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article broadly covers the pedagogical foundations of developing functional literacy in primary school students. The content of the concept of functional literacy, its importance in modern education, methods of forming these skills in students, and the role of the teacher in this process are analyzed from a scientific and theoretical point of view. The article develops scientifically based recommendations based on pedagogical conditions, methodological approaches, and educational technologies that serve to develop functional literacy for primary school students. It also covers the role of functional literacy in the modern digital information environment, modern criteria for interdisciplinary integration and assessment.

Keywords: functional literacy, primary education, pedagogical foundations, interactive methods, student development, working with information, educational technologies, competency-based approach.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация: В статье широко рассматриваются педагогические основы развития функциональной грамотности учащихся начальной школы. С научно-теоретической точки зрения анализируется содержание понятия функциональной грамотности, ее значение в современном образовании, методы формирования этих навыков у учащихся, роль учителя в этом процессе. В статье разработаны научно обоснованные рекомендации, основанные на педагогических условиях, методических подходах и образовательных технологиях, способствующих формированию функциональной грамотности учащихся начальной школы. В нем также рассматривается роль функциональной грамотности в современной цифровой информационной среде, междисциплинарная интеграция и современные критерии оценки.

Ключевые слова: функциональная грамотность, начальное образование, педагогические основы, интерактивные методы, развитие учащихся, работа с информацией, образовательные технологии, компетентностный подход.

Kirish. Bugungi globallashuv va tez oʻzgaruvchan zamonda taʼlim tizimidan asosiy kutilayotgan natija — oʻquvchilarning olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda amaliy qoʻllay olish qobiliyatini shakllantirishdir. Anʼanaviy bilimga asoslangan yondashuv oʻrnini endilikda funksional yondashuv egallamoqda. Aynan shu nuqtai nazardan, funksional savodxonlik tushunchasi zamonaviy taʼlimning asosiy mezoni sifatida eʼtirof etilmoqda. Funksional savodxonlik bu — oʻquvchining oʻqigan matnni tushunishi, axborotni tahlil qilishi, uni hayotiy vaziyatda qoʻllay olishi, shuningdek, oʻz fikrini asosli bayon eta olishi demakdir.

Xalqaro baholash tizimlari — xususan, PISA, PIRLS, TIMSS kabi dasturlar tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, rivojlangan davlatlarda taʼlim sifati oʻquvchilarning real hayotdagi masalalarni hal qilish koʻnikmasi orqali baholanmoqda. Funksional savodxonlikni ilk bosqich — boshlangʻich taʼlimdan boshlab shakllantirish zaruratini taqozo qiladi. Boshqacha aytganda, zamonaviy maktab oʻquvchisi faqat maʼlumot oluvchi emas, balki axborotni anglaydigan, tahlil qiladigan, undan xulosa chiqaradigan va uni hayotda qoʻllay oladigan shaxsga aylanishi lozim. Bu esa oʻqituvchidan nafaqat anʼanaviy dars berish, balki zamonaviy, interaktiv metodlar, mantiqiy fikrlash va tanqidiy yondashuvga asoslangan taʼlimni tashkil qilishni talab etadi. Shuningdek, raqamli transformatsiya davrida bolalarning nafaqat bosma matn, balki multimodal matnlar (audio, video, interaktiv vizual axborotlar) bilan ishlash koʻnikmasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Funksional savodxonlik bu borada oʻquvchining har tomonlama ongli, faol, mustaqil va hayotga tayyor boʻlgan shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Boshlangʻich sinfda funksional savodxonlikni rivojlantirish nafaqat taʼlim sifatining oʻsishi, balki milliy taraqqiyot, mehnat bozorining ehtiyojlariga javob bera oladigan, raqobatbardosh avlodni shakllantirishda hal qiluvchi omillardan biridir. Shuning uchun ham bu

mavzuning dolzarbligi bugungi ta'lim siyosatida va pedagogik amaliyotda juda muhim o'rin tutadi. XXI asrda ta'lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biri bu – o'quvchilarning funksional savodxonligini shakllantirishdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida ushbu savodxonlik asoslarini to'g'ri va puxta shakllantirish kelgusidagi barcha ta'lim bosqichlarining poydevorini belgilaydi. Funksional savodxonlik — bu faqat oddiy o'qish va yozish emas, balki matnni tushunish, uni tahlil qilish, fikr bildirish, o'z fikrini asoslash, amaliy hayotiy vaziyatlarda foydalanish qobiliyatini anglatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda bu tushunchaning asosiy mezonlari quyidagicha: o'qilgan matndan asosiy fikrni aniqlay olish, so'zlar ma'nosini kontekstdan tushunish, diagramma, jadvallar bilan ishlay olish, topshiriqlarni tahlil qilish, o'z shaxsiy fikrini mustaqil ifoda eta olish. Ushbu ko'nikmalar bolada mustaqil fikrlash, ijtimoiy va axborot kompetensiyalarini rivojlantiradi. Zamonaviy ta'limda bu mezonlar asosida faol o'qitish metodlari (klaster, insert, aqliy hujum, Venn diagramma va b.) keng qo'llanilmoqda.

Funksional savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy yondashuvi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi har bir topshiriq orqali o'quvchining tafakkuriga, muloqotga kirishish malakasiga, tanqidiy fikrlashiga ta'sir ko'rsatadi. Fanlararo integratsiya ham bu borada samarali. Masalan, ekologik matnlar orqali o'quvchilarda nafaqat til va savodxonlik, balki tabiatga nisbatan munosabat, ijtimoiy fikrlash ham shakllanadi. Funksional savodxonlikni baholashda an'anaviy testlar o'rniga ochiq tipdagi savollar, hayotiy vazifalar, loyiha ishlaridan foydalanish zarur. Bu esa nafaqat bilimni, balki o'quvchining shaxsiy faol fikrlashini aniqlashga xizmat qiladi.

Xalqaro tadqiqotlar, xususan, PISA dasturi O'zbekiston uchun katta saboq bo'ldi. Ushbu baholashda yurtimiz o'quvchilari asosan matnni o'qish tezligi bo'yicha emas, uni tushunib tahlil qilishda orqada qolgan. Bu esa bizda funksional savodxonlikni endi jiddiy va tizimli shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Yangi davlat dasturlari, o'quv rejalari va o'qituvchilar tayyorlash tizimi bu yo'nalishda isloh qilinmoqda.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ham funksional savodxonlikning ajralmas qismiga aylanmoqda. Raqamli savodxonlik, axborotlarni tanlab olish, izlab topish, uni qayta ishlash ham funksional tafakkur bilan bevosita bog'liqdir. Shunday ekan, pedagoglar darsda turli interaktiv uslublar, vizual materiallar, elektron resurslardan keng foydalanishi, shuningdek, o'quvchilarni mustaqil axborot topishga yo'naltirishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlikni shakllantirish – bu zamonaviy, izchil va metodik yondashuvni talab etuvchi murakkab, ammo zarur pedagogik jarayondir. Ushbu savodxonlikni rivojlantirish orqali biz bilimdon emas, balki fikrlaydigan, muammo yechadigan, mustaqil qaror qabul qiladigan shaxsni shakllantiramiz. Bu esa Yangi O'zbekiston ta'limining strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim jarayoni o'z oldiga faqatgina bilim berishni emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishni, o'quvchining olgan bilim va malakalarini real hayotda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishni maqsad qilib qo'ymoqda. Shu nuqtai nazardan, funksional savodxonlik tushunchasi ta'lim tizimining markaziy g'oyalardan biriga aylanmoqda. Bu tushuncha o'quvchining faqat o'qish va yozish qobiliyati bilan cheklanib qolmasdan, o'qiganini tushunish, izohlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va uni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Funksional savodxonlik bolaning mustaqil fikrlashi, muloqotga kirisha olishi, axborot bilan ishlay bilishi, har qanday muammoni hal qilishda ongli qarorlar qabul qila olishini ta'minlaydi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi bu qobiliyatlarni shakllantirishda asosiy davr bo'lib xizmat qiladi. Aynan shu bosqichda o'quvchilarning tafakkur jarayonlari shakllanadi, tahliliy va mantiqiy fikrlashga asoslar qo'yiladi, o'qish, tinglash, yozish va gapirish orqali til va nutq faoliyati rivojlanadi. Shuningdek, bolalar o'z atrof-muhitini anglay boshlaydi, shaxsiy fikrini ifoda etish imkoniyatini topadi. Bu esa ta'lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki o'quvchining bilimni hayotga tatbiq eta olishini nazarda tutuvchi metodik yondashuvlar tizimini talab qiladi.

Funksional savodxonlikni shakllantirishda o'qituvchining o'rnini alohida ta'kidlash lozim. Dars jarayonining mazmunli, faol, interaktiv, hayotiy kontekstlarga bog'liq bo'lishi ko'p jihatdan o'qituvchining metodik mahoratiga bog'liqdir. O'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirish uchun savollarga javob berish bilan cheklanmaydigan, aksincha, tafakkurni rivojlantiradigan topshiriqlar, real hayotiy vaziyatlarga mos muammoli mashqlar, guruhviy ishlanmalar va ijodiy

yondashuvlar samarali bo'ladi. Matn asosida tahlil qilish, izohlash, o'xshatish, umumlashtirish, baholash kabi faoliyat turlari orqali o'quvchining chuqur fikrlashi ta'minlanadi. Funksional savodxonlikni shakllantirish nafaqat ona tili, balki boshqa fanlar orqali ham amalga oshiriladi. Matematika, tabiiy fan, texnologiya darslari orqali bolalar axborotni o'qib tushunish, grafik va jadval bilan ishlash, izchil fikrlash, sabab-oqibatni tushunish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi. Har bir fan o'z metodikasi doirasida funksional yondashuvni shakllantirish imkoniyatiga ega. Fanlararo integratsiya bu borada ayniqsa samarali yo'ldir. Bir mavzuni turli fanlar orqali yoritish o'quvchining umumiy tafakkurini rivojlantiradi va o'zaro bog'liqlikni anglashiga xizmat qiladi.

Funksional savodxonlikni rivojlantirishda baholash tizimi ham muhim ahamiyatga ega. An'anaviy yoddan javob berish yoki test usullaridan tashqari ochiq savollar, amaliy topshiriqlar, muammoli holatlarni hal qilish kabi baholash vositalari qo'llanilsa, o'quvchi o'z bilimini ifodalash, fikrini asoslash, qaror qabul qilish jarayonlarida faollashadi. Bu esa uning mustaqillik, tahliliy fikrlash, kreativlik va kommunikatsiya qobiliyatlarini namoyon etadi. Bugungi raqamli jamiyatda bolalarning faqat matn bilan emas, balki turli axborot manbalari bilan ishlay bilishi ham zarur. Funksional savodxonlik bolada bu ko'nikmalarni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Matn, rasm, jadval, diagramma, video yoki audio materiallar asosida axborotni tushunish va undan foydalana olish zamonaviy o'quvchining ajralmas ko'nikmalaridan biridir. Demak, darslarda multimodal materiallar, raqamli vositalardan foydalanish ham funksional savodxonlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Funksional savodxonlikni rivojlantirish bugungi ta'limning markaziy masalalaridan biridir. Boshlang'ich sinfda bu jarayonni to'g'ri yo'lga qo'yish, bolalarga nafaqat bilim, balki tafakkur, muloqot, axborot bilan ishlash, hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini berish orqali erkin fikrlovchi, ongli, faol, mustaqil shaxsni shakllantirish mumkin. Bu esa o'z navbatida kelajak avlodning raqobatbardosh, zamon bilan hamnafas, har tomonlama yetuk bo'lishiga asos yaratadi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlikni rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, bu jarayon o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, axborotni tahlil qilishi, muloqotda faol bo'lishi va bilimlarni real hayotda qo'llay olishiga xizmat qiladi. Funksional savodxonlikni shakllantirish ta'lim mazmunining amaliyot bilan uyg'unlashuvi, interfaol metodlar va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilishi bilan bevosita bog'liq. Boshlang'ich ta'lim jarayonida bu ko'nikmalarni shakllantirish o'quvchining keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatli o'zlashtirishi va shaxsiy rivojlanishining mustahkam poydevorini yaratadi. Funksional savodxonlik o'qituvchidan yangicha pedagogik fikrlash, didaktik yondashuvni tanlash va har bir o'quvchining individual rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda darslarni tashkil etishni talab etadi.

Shuningdek, bu savodxonlik faqat o'qish-yozish bilan emas, balki o'qiganini tushunish, xulosa qilish, baholash va turli axborot manbalari bilan ishlash ko'nikmalari orqali namoyon bo'ladi. Demak, boshlang'ich sinfda funksional savodxonlikni rivojlantirish ta'limning sifatini oshiruvchi, o'quvchining kelajak hayotda ijtimoiy faolligini ta'minlovchi va shaxsiy salohiyatini to'la ro'yobga chiqaruvchi muhim pedagogik mezon sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Prosveshchenie, 2021. – 220 b.
2. Qo'ldoshev R., Hamroyev A., Jumayeva X., Abulova, Z., Xayrullayeva, D., & Niyazova, M. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining til boyligi, uning vazifalari. E3S Web of Conferences da (538-jild, 05017-bet). EDP fanlari.
3. Qo'ldoshev R., Jumayeva, H., Husenova, A., Xaitov, L., Gudgina, V., & Sanoyev, G. A. (2024). Assessment of the effectiveness of the physical education process in preschool educational organizations. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05042). EDP Sciences.
4. Jumayeva H.G'., "Pedagogik muloqot asosida ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari" Zamonaviy fan va tadqiqotlar 4.3: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2025 yil 22-aprel) 340-346.
5. Jumayeva H.G'., "Geymifikatsion yondashuv asosida talabalarning evrestikkognitiv faoliyatini rivojlantirishning metodik asoslari" Zamonaviy tasviriy-pedagogik ta'limda an'ana va innovatsiyalar: izlanishlar va yechimlar xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari Buxoro – 2025

6. Jumayeva H.G., "Talabalarda evristik tafakkurni shakllantirishda geymifikatsion yondashuvning ahamiyati", "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 5

7. Jumayeva H.G., "Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish", "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 3

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI BOSHQARISHNING SAMARALI TEXNOLOGIYALARI

A.B. Mamanazarov

*M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkent shahridagi filiali
direktorining moliya-iqtisod ishlari bo'yicha o'rinbosari p.f.d (DSc), dotsent*

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy boshqaruv texnologiyalari asosida takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Muallif zamonaviy menejment yondashuvlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, strategik rejalashtirish hamda innovatsion boshqaruv modellarining maktabgacha ta'lim tizimidagi samaradorligini asoslab beradi. Shuningdek, tizimni raqamlashtirish, pedagogik monitoring, sifat menejmenti hamda differensial yondashuvlar orqali boshqaruv jarayonini optimallashtirish yo'llari yoritiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, boshqaruv texnologiyalari, innovatsion yondashuv, raqamlashtirish, sifat menejmenti, pedagogik monitoring, strategik boshqaruv, institutsional rivojlanish, rahbarlik kompetensiyasi, differensial yondashuv.

ЭФФЕКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ УЧРЕЖДЕНИЯМИ

Аннотация: В статье анализируются теоретико-методологические основы совершенствования управления дошкольными образовательными учреждениями на основе современных управленческих технологий. Автор обосновывает эффективность внедрения современных подходов к менеджменту, использования информационно-коммуникационных технологий, стратегического планирования и инновационных моделей управления в систему дошкольного образования. Также освещаются пути оптимизации управления через цифровизацию системы, педагогический мониторинг, управление качеством и дифференцированные подходы.

Ключевые слова: дошкольное образование, управленческие технологии, инновационный подход, цифровизация, управление качеством, педагогический мониторинг, стратегическое управление, институциональное развитие, управленческая компетентность, дифференцированный подход.

EFFECTIVE MANAGEMENT TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations of improving the management of preschool educational institutions based on modern management technologies. The author substantiates the effectiveness of applying contemporary management approaches, the use of information and communication technologies, strategic planning, and innovative management models within the preschool education system. Furthermore, the paper explores ways to optimize management processes through system digitalization, pedagogical monitoring, quality management, and differentiated approaches.

Keywords: preschool education, management technologies, innovative approach, digitalization, quality management, pedagogical monitoring, strategic management, institutional development, leadership competency, differentiated approach.

Kirish. Globallashuv, raqamli transformatsiya va axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini samarali boshqarish muhim ilmiy-amaliy masalaga aylangan. Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ko'p jihatdan maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishiga, ularni sifatli ta'lim-tarbiya bilan ta'minlashga va ushbu jarayonlarni samarali boshqarishga bog'liq bo'lib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv tizimini takomillashtirish, boshqaruv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, rahbar xodimlarning menejerlik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali tizimning samaradorligini oshirish muhim nazariy va amaliy vazifa sifatida dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada aynan shu masalalar ilmiy tahlil qilinadi, mavjud muammolar tahlil etiladi va ularni bartaraf etish yo'llari taklif etiladi.

Asosiy qism. Zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari, innovatsion yondashuvlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim tizimiga kirib kelishi maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini yangicha asosda tashkil etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mazkur sharoitda an'anaviy boshqaruv shakllari o'z samarasini yo'qotmoqda, natijada strategik rejalashtirish, raqamli boshqaruv, sifat monitoringi kabi ilg'or boshqaruv texnologiyalariga ehtiyoj ortib bormoqda.

Boshqaruv tushunchasi tor ma'noda biror bir tashkilot maqsadini aniqlash va unga erishish uchun zarur bo'lgan rejalashtirish, tashkil etish va nazorat jarayonlarini foyda keltirishi, samara berishi qanchalik faoliyat yo'nalishini to'g'ri tanlay bilish, qarorlar qabul qila olishga hamda uning boshqarilishini nazorat qilishga va bu jarayon borishiga bog'liq bo'ladi. Boshqaruv keng ma'noli tushuncha sifatida jahondagi boshqaruv va uni tashkil etishning nazariyotchilaridan biri Piter F.Druker aytganidek, «Boshqaruv alohida faoliyat turi bo'lib, tashkil etilmagan betartib ommani, bir maqsadga yo'naltirilgan samarali va unumli guruhga, jamiyatga aylantiradigan, ijtimoiy o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi element hisoblanadi». Boshqaruv nafaqat korxona doirasida, qolaversa, butun bir jamiyat, davlatni o'z tanlagan yo'li maqsad va intilishlariga yetaklovchi, iqtisodiyotni kuchli barqaror ishlovchi mexanizmga aylantirishda muhim ta'sir etuvchi kuch hisoblanadi.

Boshqarish:

- *kelajakni ko'ruvchi;*
- *faoliyatni tashkillashtiruvchi;*
- *tashkilotni idora qiluvchi;*
- *faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi;*
- *qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi kuchli quroldir.* (Fransuz olimi A.Fayol).

Mamlakatimizda ta'lim tizimida davlat siyosati darajasiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Mustaqillik sharofati tufayli barcha sohalarda bo'lgani kabi maktabgacha ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Har qanday mamlakatning kuchi uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Salohiyatga turli yo'llar bilan erishish mumkin. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi ta'lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, manaviyma'rifiy o'zgarishlar ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali, zamonaviy kadrlar tayyorlash hamda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirishni taqozo etmoqda.

Keng qamrovli islohotlar, ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishga yunaltirilgan davlat dasturlari, hukumat qarorlari, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga qaratilayotgan e'tibor, ular uchun yaratilayotgan qulay shartsharoitlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, balki mazkur tizimdagi boshqaruv

muammolarining ijobiy yechimini topish, mazkur soha rahbarlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirishni, ya'ni boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik metodlaridan voz kechib, bugungi kun talablariga mos keladigan, demokratik tamoyillarga va innovatsion yondashuvlarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirish, xodimlarning professional tayyorgarligini oshirib borishni taqozo etmoqda.

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish sohasida davlat siyosatini muvaffaqiyatli yuritishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. MTT rahbarlari va ta'limi muassasasi turli bo'g'inlarida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachi-pedagoglarning aksariyatida boshqaruv yo'nalishlari bo'yicha zaruriy bilim, kasbiy faoliyat tajribalari, tashkilotchilik mahorati, ko'nikma va malakalarning yetarli darajada emasligi, «maktabgacha ta'lim tashkilotlarining malakali pedagog kadrlar bilan jamlanmaganligi» kabi turli muammolar shular jumlasidandir.

1. Maktabgacha ta'limda boshqaruvning dolzarb yo'nalishlari

Maktabgacha ta'lim tizimi bolalar shaxsining ilk bosqichdagi intellektual, axloqiy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlovchi muhim institut hisoblanadi. Bu tizimda boshqaruvning samarali amalga oshirilishi nafaqat pedagogik jarayon sifatiga, balki kelajak avlodning ta'limga tayyorlik darajasiga ham bevosita ta'sir qiladi. Bugungi kunda ta'limda amalga oshirilayotgan islohotlar maktabgacha ta'lim muassasalarining ham boshqaruv mexanizmlarini yangilashni talab qilmoqda.

2. Samarali boshqaruv texnologiyalari: mohiyat va tasnif

Samarali boshqaruv texnologiyalari deganda, tashkilotning faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, monitoring qilish va baholash jarayonlarida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish tushuniladi. Quyidagi texnologiyalar ayniqsa dolzarb hisoblanadi:

- Strategik boshqaruv – uzoq muddatli maqsadlarni aniqlash, resurslar taqsimotini optimallashtirish va tashkilot taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan yondashuv.

- Raqamli boshqaruv texnologiyalari – elektron hujjat aylanishi, onlayn monitoring, elektron dars jadvallari, bolalar rivojlanishini raqamli kuzatish kabi vositalarni o'z ichiga oladi.

- Sifat menejmenti tizimi – ISO standartlari asosida ta'lim sifatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash tizimidir.

- Innovatsion liderlik – rahbar shaxsining o'zgarishlarga ochiqqligi, jamoani motivatsiyalash va yangi tashabbuslarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyati.

- Pedagogik monitoring – o'quv-tarbiya jarayonini uzluksiz kuzatib borish va tahlil qilish orqali qarorlar qabul qilish tizimi.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va ularning roli

AKTlar boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Elektron platformalar, mobil ilovalar va raqamli axborot bazalari yordamida maktabgacha ta'lim muassasalaridagi jarayonlar aniq, shaffof va tezkor bo'lishi ta'minlanmoqda. Misol uchun, O'zbekistonda "Bolalar bog'chasi" axborot tizimi orqali muassasalar faoliyati markazlashtirilgan holda monitoring qilinmoqda.

4. Rahbarlik kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirish

Samarali boshqaruv uchun muassasa rahbarida quyidagi kompetensiyalar mavjud bo'lishi zarur:

- tashkiliy-kommunikativ salohiyat;
- strategik fikrlash;
- muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalari;
- innovatsion loyihalarni boshqarish malakasi. Bunday kompetensiyalarni shakllantirishda qayta tayyorlash kurslari, amaliy seminarlar, stajirovkalar va professional rivojlanish dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari

Maktabgacha ta'lim muassasalarini boshqarishda hali ham quyidagi muammolar mavjud:

- boshqaruvda byurokratik yondashuvlar;
- yetarli darajadagi raqamli savodxonlikning yo'qligi;

• sifat monitoringi tizimlarining to'liq shakllanmaganligi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlov mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish zamonaviy jamiyatning ta'limga bo'lgan talablari, raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanish sharoitida muhim strategik vazifaga aylanmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, samarali boshqaruv texnologiyalarining qo'llanilishi nafaqat tashkilotning ichki faoliyatini optimallashtiradi, balki ta'lim sifati va bolalarning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Strategik rejalashtirish, raqamli boshqaruv, sifat monitoringi va pedagogik innovatsiyalarni tizimli ravishda joriy etish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari raqobatbardosh va barqaror rivojlanishga erishadi. Shu bilan birga, rahbarlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni doimiy ravishda malaka oshirishga yo'naltirish ushbu texnologiyalarning amaliyotga samarali tatbiq etilishining asosiy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Камилова Г. А., Тураева О. С. ФОРМИРОВАНИЕ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ //Проблемы науки. – 2021. – С. 50.

2. Eshova S. D., Rajabova K. I. Organization of didactic games for preschoolers.

3. Rajabova I. Ossobennosti organizatsii i provedeniya didakticheskix igr s detmi starshego doshkolnogo vozrasta //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

4. Xamidovna R. I. Play as a means of developing the creative abilities of Preschool Children //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 10.

5. Rajabova I. Ossobennosti organizatsii i provedeniya didakticheskix igr s detmi starshego doshkolnogo vozrasta //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

6. Хамроева Н. А. МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ РЕЧИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ //Проблемы науки. – 2021. – №. 3 (62). – С. 74-76.

GENDER TENGLIGI VA FARQLARI NUQTAI NAZARIDAN TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Tilavova Matlab Muhammadovna
Buxoro davlat pedagogika instituti*

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani, pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya: maqolada ta'lim jarayonida ayniqsa boshlang'ich ta'limda gender tenglik va farqlarni hisobga olishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari xaqida fikr yuritilgan. gender nazariyasi tarixiga oid ma'lumotlar yoritilgan. jins identifikatsiyasi shakllanish jarayonida shaxs ulg'ayishining dastlabki bosqichlari o'ta ahamiyatliligi va o'quvchining jinsiga tayangan holda unga ta'lim-tarbiya berish, ijtimoiy hayotga tayyorlash lozimligi tavsiya etilgan.

Tayanch tushunchalar: gender, feminizm, ta'lim jarayoni, jins, jinsiy rivojlanish, malaka, ko'nikma.

УЧИТЫВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА И РАЗЛИЧИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. В статье рассматривается учет педагогических и психологических возможностей гендерного равенства и различия в процессе обучения. В материале раскрыты сведения об истории теории гендера. Рекомендуются особая важность первоначальных этапов процесса образования идентификации пола учащегося и опираясь на это, дать воспитательно-образовательное обучение, подготавливая его к современной жизни.

Опорные слова: гендер, феминизм, процесс обучения, пол, половое развитие, навыки, опыт.

TAKING INTO ACCOUNT THE PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF GENDER EQUALITY AND DIFFERENCE IN THE LEARNING PROCESS

Abstract: The article examines taking into account the pedagogical and psychological possibilities of gender equality and difference in the learning process. The material reveals information about the history of gender theory. It is recommended that the initial stages of the process of education identify the student's gender be of particular importance and, based on this, provide educational training, preparing him for modern life.

Keywords: gender, feminism, learning process, sex, sexual development, skills, experience.

Kirish. Gender nazariyasining vujudga kelishida bugungi kunda ijtimoiy-madaniy rivojlanishning muqobil nazariyasiga aylangan feminizm hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

XX asrning 70-yillarida Z.Freyd va T.Parsons g'oyalari bilan sug'orilgan an'anaviy ijtimoiy fandan qoniqmagan feminizm nazariyotchilari o'zlarining g'arbona madaniy, tarbiyaviy, nazariy-uslubiy yondashuvlarini ifodalay boshladilar. Feministik g'oyalarning madaniyat va ta'lim-tarbiyaning turli sohalariga kirib borishi nihoyatda jadal sur'atlar bilan davom etdi. 70-yillarning boshida hammani hayratga solgan bahs-munozaralar, genderga nisbatan yondashuvlar va qarashlar asta-sekinlik bilan jamiyat a'zolari ongiga singa boshladi. Amalda jinsiy chegaralashga qarshi kurash BMTning xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasida (1979) ham e'lon qilingan.

Genderga oid qarashlarning g'arb mamlakatlarida keng yoyilishida Simone de Bovuar va Keyt Millett tadqiqotlari muhim o'rin tutdi. Simone de Bovuarning "Ikkinchi jins" (1949) kitobida ifodalangan g'oyalar zamonaviy gender nazariyasiga asos bo'lib xizmat qildi. Keyt Millett esa o'zining "Jinsiy siyosat" (1972) kitobini yaratishda de Bovuar qarashlariga tayandi. "Feminizm nazariyalari" umumlashtiruvchi-tahliliy maqolasida P.Elliott va N.Mendell genderning barcha asosiy yo'nalishlarini tarixiy va zamonaviy nuqtai nazardan ko'rib chiqqanlar. R.Xofning "Gender tadqiqotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi" maqolasi gender nazariyasi va metodikasi shakllanishi xususida yaxlit tasavvur hosil qilishga ko'maklashsa, K.Uest va D.Zimmerman izlanishlari mahsuli bo'lgan "Genderning yaratilishi" deb nomlangan fundamental tadqiqotning YE.Zdravomislova tomonidan ingliz tilidan qilingan tarjimasi ijtimoiy shakllantirish nazariyasi bo'yicha birlamchi manba bilan tanishish imkoniyatini beradi. J.Lorberning "Jins ijtimoiy kategoriya sifatida" maqolasi esa istiqbolda gender tadqiqotlar bilan mustaqil shug'ullanish uchun zamin hozirlaydi.

Ta'lim tizimi jamiyatda nafaqat texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili, balki ma'naviy va iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois mustaqil mamlakatimizda ta'lim sohasiga yil sayin katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur vazifa ta'lim tizimining barcha bosqichlari: maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oliy ta'limning yuqori bosqichlarigacha bo'lgan bo'g'inlar zimmasiga yuklatilgan. XXI asrning axborot asri deya e'tirof etilayotganligi bejiz emas. Negaki, jamiyat shaxsning bilimdonligi va tadbirkorligiga tayanib rivojlanadi hamda taraqqiy topadi. Gender farqlar va tenglik asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni esa jamiyat taraqqiyotiga muhim hissa qo'shib, o'quvchi shaxsining madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanishi uchun zarur tarkibiy qism sifatida maydonga chiqadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, istiqbolda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish nafaqat o'zlashtirish, balki o'g'il va qiz bolalarning har biriga xos bo'lgan tushunish, bilimlarni amaliy qo'llash va ijod ko'nikmalarini aniqlash asosida ham amalga oshirilishi lozim.

Pedagogika fanlari doktori, professor, Mavlonova esa ko'nikmaga quyidagicha ta'rif beradi: "Ko'nikma — bu kishining bilim va elementlarni tajriba asosida egallagan, ma'lum harakatni ongli bajarishga bo'lgan qobiliyatidir. Masalan, kartonni kesa bilish ko'nikmasi, qaychini to'g'ri ushlay bilish, harakatni aniq muvofiqlashtirish, yo'nalish, kuch va bosimning tengligini saqlash, qomatni muvofiq keluvchi tarzda tutish degan ma'noni anglatadi. Bu o'rinda ustalik bilan harakat qilib, ma'lum ish shartlariga, masalan, ishning sur'ati va aniqligiga rioya qilish kerak. Aks holda ish qo'pol chiqishi mumkin".

Elementar tajriba o'quvchilarga faoliyatning ma'lum turi bo'yicha tasavvur beradi. Bunday tasavvurlarni yaratishda o'quvchilarning shaxsiy tajribalari ham, o'zgarlar tajribasining (so'z, grafik tasvir orqali berilgan natural ko'rsatish va shu kabilarning) ular tomonidan idrok etilishi ahamiyatlidir. Biroq shaxsiy tajriba yetakchi o'rin egallaydi. Shu bilan birga barcha ko'nikmalar malakaga aylanavermaydi. Faqat faoliyatning u yoki bu turini, uning ayrim harakatlarini bajarishning texnik tomonigina avtomatlashadi.

Malakalarni shakllantirish fandan olinadigan bilim va ma'lumotlarini qayta ishlash bo'yicha hamma operatsiyalar tizimini, ma'lumotni aniqlash, uni harakatlar bilan taqqoslashni o'rganishdir. Subyektiv maxsus faoliyat sifatida malakalarga mustaqil o'qitish jarayoni mavjud emas, degan fikrni K. K. Platonov tanqid qilib, quyidagicha ta'kidlaydi: "Malakalarga albatta o'qitish kerak, bundan kelib chiqadiki, kerakli metodika to'g'risida o'ylash kerak. "Malaka" deb – odamning bilim va oddiy tajriba asosida egallagan muayyan harakatlarni ongli bajarish qobiliyati tushuniladi. Bilimlar bajarilayotgan harakatlarning nazariy asosidir. Bilimlar tufayli harakatlarning ayrim davrlari va ularning ketma-ketligi tushunarli bo'ladi. Har qanday malakalarni egallash bilimlarga asoslangan aniq faoliyat, amaliyotni talab qiladi, ularsiz umuman malakalar bo'lishi mumkin emas. Malakaning psixologik asosi deganda faoliyat maqsadi, sharoit va uni bajarish usullari orasidagi o'zaro aloqadorlik tushuniladi. Bundan shu xulosa kelib chiqadiki, malaka bilimlarga tayanadi. Bilimsiz malaka yo'q. XXI asrda uzluksiz ta'lim strategik ahamiyat kasb etib, shaxs va jamiyat hayotida asosiy mavqeni egallaydi. Shaxs faqatgina gender tenglik va o'ziga xoslik hisobga olinib tashkil etilgan ta'lim jarayonida olingan bilim yordamida uzluksiz texnologik innovatsiyalarni o'zlashtirishi mumkin. Bu esa nafaqat mehnat qurollarining mukammallashuvini, balki yangi bilimlarni egallash qobiliyati va kasbiy faoliyatni puxta o'zlashtirishni talab qiladi.

Adabiyotlarda gender tushunchasining bir necha xil talqini mavjud. Jumladan, faylasuflar uni quyidagicha tavsiflaydilar: "Gender" inglizcha so'z bo'lib, jinsga mansublikning ijtimoiy jihatlarini ma'nosini anglatadi.... Bu tushuncha erkaklar va ayollar o'rtasida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatning jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy tavsiflarning butun majmuini hisobga oladi. Erkaklar va ayollarga tegishli ijtimoiy bog'liqlik, xulq-atvor va kutilgan natijalarni ifodalaydi" Jamiyatshunoslar esa, gender tushunchasiga quyidagicha yondashadilar: "Gender" ijtimoiy, biologik holat bo'lib, erkak va ayolning jinsiy munosabatlari majmuasi hisoblanadi" Ruhshunoslar ham gender tushunchasiga o'ziga xos tarzda yondashganlar: "Psixikaning gender asoslari jins va u bilan bog'liq ijtimoiy stereotiplar, shaxsning psixologik ko'rinishidir". Olimlar orasida bu xususiyatlarning qaysi biri tug'ma, qaysi biri esa ta'lim va tarbiya jarayonida rivojlanganligi to'g'risida keskin munozaralar bormoqda. O'g'il va qiz bolalarning har bir xalq madaniyatida har xil tarbiyalanishi tufayli, ular maktabga kelgan davrdan boshlab jinslarning psixologik farqlari ma'lum bo'ladi. Bu farqlar orasida psixologlar (A.YE.Taras, 2002) qizlar o'g'il bolalardan matematik va vizual qobiliyatlari bilan ustunroq deb ta'kidlashadi. O'g'il bolalarda qizlarga qaraganda o'ziga ishonch hissi kuchliroqdir. Qiz bolalar bir xillikka asoslangan qiziqarsiz faoliyatni yengilroq qabul qilishadi. O'zgaruvchan muhitga tez moslashishadi. O'g'il bolalar har bir holatni umumiy tarzda baholashsa, qizlar yaxshilab tekshirib, o'rganib, keyin unga baho berishadi". Pedagogik ma'noda gender – o'g'il va qiz bolalarning murakkab ta'limiy sotsiomadaniy birligi bo'lib, ularning xatti-harakati, mentaliteti va emotsional xususiyatlari, o'quv faoliyatidagi o'zaro teng va farqli jihatlarini o'z ichiga oladi. Shu bois keyingi vaqtlarda gender muammosi, uni o'rganish metodlari pedagoglar e'tiborini ko'proq jalb etmoqda.

Ta'lim jarayonida gender yondashuv amal qilishining afzalligi shundaki, u o'quv sharoitida o'g'il va qiz bolalar manfaatlari hamda intellektual imkoniyatlarini hisobga olishga ko'maklashadi. Ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan pedagogik ta'sirlar o'g'il va qiz bolalarning xatti-harakatlari, dunyoqarashlarida ijobiy o'ziga xoslik paydo bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim jarayonida gender xoslikni ta'minlamasdan turib, intellektual-ma'naviy jihatdan rivojlangan shaxsni shakllantirib bo'lmaydi. Bunday ta'lim tizimi o'g'il va qiz bolalarning manfaatlari ustuvorligi asosida tashkil etilishi kerak. Genderga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish zarurligini hisobga olgan holda o'quv jarayonini isloh qilish o'g'il va qiz bolalarning erkin, intellektual, ma'naviy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Gender yondashuvning pedagogikada qo'llanilishi, birinchidan, ijtimoiy muhitda samarali faoliyat ko'rsata oladigan, ikkinchidan, jamiyat talablariga mos keladigan ijodkor, tadbirkor, intellektual rivojlangan shaxsni kamol toptirishga ko'maklashadi.

Pedagogika fanida gender tenglik va farqlarni hisobga olish tamoyili ustuvor bo'lishi kerak. Bu ustuvorlikni ta'minlashning o'ziga xos jihatlari:

- o'quv materialini tanlashda o'g'il va qiz bolalar orasidagi o'ziga xoslikni farqlash;
- o'g'il va qiz bolalarning alohida o'ziga xos faoliyatini rivojlantirish;

Ta'lim jarayonida o'g'il va qiz bolalarga mehnat ta'limi berish va ularni kasbga yo'naltirishning barqaror pedagogik tizimini vujudga keltirishda o'quvchilarning gender jihatdan o'ziga xos bo'lgan shaxsiy sifatlarini qaror toptirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ta'lim jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor berish zarur:

- o'g'il va qiz bolalar orasidagi farqlarni neytrallashtirish va interpretatsiyalashga qaratilgan o'quv harakatlarini tashkil etish;
- ularni gender o'xshashlikni namoyon qilish ruhida tarbiyalash;
- o'quv jarayonida o'g'il va qiz bolalarning alohida-alohida faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

Ta'lim jarayonida gender ijtimoiylashtirishning muayyan asosi, mehnat taqsimoti va jamiyatda qabul qilingan madaniy meyorlar, ijtimoiy faoliyat turlari, ularning ijtimoiy mavqei orqali ifodalanadi. Ta'lim tizimida qabul qilingan gender meyorlar va mezonlar muayyan darajada o'quvchilarning biologik jinsiga qarab ularning ruhiy sifatleri, qobiliyatlari, faoliyat turlari, egallaydigan kasblarini belgilashga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilar, oila, maktab, atrof-muhitdagilar birgalikda o'quvchilar ongiga gender meyorlar, mezonlarni singdiradilar.

Kasbiy jihatdan o'z-o'zini kamol toptirish har bir yoshda o'quvchilarning ruhiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bunda aniq shakl va metodlardan foydalaniladi.

Ota-onalar tomonidan boshlangan o'g'il va qiz bolalarni ijtimoiy shakllantirish jarayonini, ularga xos bo'lgan faoliyat to'rtini qaror toptirish maktabda, birinchi navbatda, mehnat darslarida davom ettiriladi. O'quvchilarua gender tenglik va farqlar asosida ta'lim-tarbiya berishda o'qituvchining shaxsiy namunasi, nutqi, xatti-harakatlari alohida ahamiyatga ega.

Maktablarda gender ta'limni rivojlantirish natijasida jinslarning teng huquq, bir xil mehnat qilish va majburiyatlari, o'g'il bola ham, qiz bola ham xohlagan yo'lini o'zi tanlash huquqiga egaligi o'quvchilar ongiga singdiriladi. O'quvchilarning ijtimoiy gender ta'limni tushunishi va unda ishtirok etishi uchun o'qituvchining gender pedagogikasiga oid bilimlari yetarli bo'lishi lozim. Shuningdek, o'qituvchida gender tarbiya va ta'lim texnologiyalari, bolalarni ijtimoiy genderlash shart-sharoitlari mujassam bo'lgan maxsus ilmiy dastur bo'lishi ham shart.

Pedagogikada yangi yo'nalishni ishlab chiqish natijasida, tabiiyki, yangi atama va tushunchalar paydo bo'ladi. Ta'limda gender o'lchov tushunchasi o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya berish yo'lidagi intilishlari natijasida o'g'il va qiz bolalarning holati va rivojlanishi, o'zligini anglashi va kelajakda o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari, qaysi jinsga mansub bo'lishidan qat'i nazar, jamiyatdagi mavqei anglatadi. Ta'lim jarayonida gender yondashuvni qo'llash o'g'il va qiz bolalarni kelib chiqishidan qat'i nazar, ijtimoiy vazifalarini to'g'ri anglaydigan, jinslarning farqiga oid eski qarashlardan xoli o'ziga xos shaxs sifatida tarbiyalash va rivojlantirishga katta yordam beradi. O'z ma'nosi jihatidan gender ta'lim-tarbiyaga yaqin bo'lgan "jinsiy ta'lim-tarbiya", "jinsiy-ijtimoiy ta'lim-tarbiya" atamalari mazkur so'zning ma'nosini to'liq ifodalamaydi. Zero, bu atama mohiyati ancha keng va serqirradir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi: / rus tilidan qisqar. tarjima. Oliy o'quv yurtlari uchun. –Toshkent, O'zbekiston, 2003. – 411 b.
2. Mavlonova R., Goroxova O., Ogluzdina L. Mehnat ta'limi metodikasi: Oliy ped. hamda maxsus o'rta bilim yurt. uchun o'quv qo'll. –Toshkent, O'qituvchi, 1985. –248 b.
3. Pedagogika: Bolshaya sovremennaya ensiklopediya / Sost. YE. S. Rapatsevich – M.: Sovrem. slovo, 2005. – 720 s.
4. Уэст К., Зиммерман Д. Создание гендера. Пер. с англ. Е.Здравомысловой /Гендерные тетради. Вып.1.Спб., 1999 mhtml:file://F:/enter/

5. Усманова А. Гендерная проблематика в парадигме культурных исследований // Введение в гендерные исследования. Ч.1: Учебное пособие. – Харьков, Спб., 2001. – 447-449 с.

6. Хоф Р. Возникновение и развитие гендерных исследований // Пол, тендер, культура / Под ред. Э.Шоре и К.Хайдер. – М.: 1999. – 23-53 с. www.lib.vsu.ru/project/golosary.phtml.

7. Тилавова М.М., Шаропова З.Т. Образование на основе гендерного равенства в начальной школе. ACADEMY научно-методический журнал №6(57). Июнь 2020. – 81 с.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM UZVIYLIGINING TA'LIM TEXNOLOGIYALARI BILAN UYG'UNLASHUVI

Hasanova Gulnoz Qosimovna

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedra mudiri p.f.n., dotsent

Annotatsiya Mazkur maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash hamda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Bugungi kunda ta'limda raqamli transformatsiya asosida pedagogik yondashuvlarni yangilash, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda AKTning o'rni tobora ortib bormoqda. Maqolada ushbu sohadagi dolzarb muammolar, ilg'or xorijiy tajribalar, innovatsion metodlar va ularni o'zbek ta'lim tizimiga tatbiq qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, uzviylik, axborot texnologiyalari, raqamli transformatsiya, innovatsiya, ta'lim sifati.

СОВМЕСТИМОСТЬ ДОШКОЛЬНОГО И НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ С ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ТЕХНОЛОГИЯМИ

Аннотация. В данной статье рассматривается обеспечение преемственности между дошкольным и начальным образованием, а также роль и значение информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе. В условиях цифровой трансформации образования возрастает необходимость обновления педагогических подходов, повышения качества и эффективности обучения. В статье анализируются актуальные проблемы в данной области, передовой зарубежный опыт, инновационные методы и возможности их применения в системе образования Узбекистана.

Ключевые слова: дошкольное образование, начальное образование, преемственность, информационные технологии, цифровая трансформация, инновации, качество образования.

COMPATIBILITY OF PRESCHOOL AND PRIMARY EDUCATION WITH EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Abstract. This article explores the continuity between preschool and primary education and highlights the role and significance of information and communication technologies (ICT) in the educational process. In the context of digital transformation, there is a growing need to modernize pedagogical approaches to enhance the quality and effectiveness of education. The article analyzes current challenges, international best practices, innovative methods, and their applicability within the Uzbek education system.

Key words: preschool education, primary education, continuity, information technology, digital transformation, innovation, education quality.

Kirish. Ta'lim tizimining eng muhim bosqichlaridan biri bu – maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviyligini ta'minlashdir. Mazkur uzviylik bolaning rivojlanishida uzluksizlik va bosqichma-bosqich o'sish kafolati sifatida xizmat qiladi. Bugungi globallashtuv va raqamli transformatsiya davrida ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarini joriy etish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biriga aylangan.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviyligi — bu bola ta'limining ilk bosqichlari o'rtasida mazmunan, metod jihatdan va psixologik tarzda bog'liqlikni ta'minlash demakdir. Bu ikki bosqich o'rtasidagi uzviylik bola shaxsining har tomonlama rivojlanishi, o'zini erkin his qilishi va ta'lim jarayoniga bema'lol moslashuvi uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'limda bola asosan o'yin faoliyati orqali bilim oladi, darsdan ko'ra erkin va qiziqarli faoliyatlar orqali rivojlanadi. Boshlang'ich ta'lim esa ancha tartibli, maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan darslar asosida olib boriladi. Agar bu ikki bosqich orasida uzviylik bo'lmasa, bola o'zini yangi muhitda begona, noqulay his qilishi, motivatsiyasi susayishi mumkin. Shu sababli boshlang'ich ta'lim maktabgacha bosqichdagi uslub va yondashuvlarga yaqin bo'lishi, bosqichma-bosqich murakkablashgan holda davom etishi lozim. Shuningdek, bu uzviylikni ta'minlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni ham juda muhim. Maktabgacha bosqichda bolaning rivojlanish jarayonini raqamli portfellar orqali qayd etish va bu ma'lumotlarni boshlang'ich ta'lim muassasalariga uzatish, o'qituvchilarga bolaning shaxsiy rivojlanish xususiyatlarini chuqur tushinishda yordam beradi. Interaktiv o'quv dasturlari, vizual vositalar, raqamli ta'lim resurslari bolani yangi muhitga moslashtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Jean Piaget (Shveysariya) – Bolalar kognitiv rivojlanishi bosqichlarini nazariy jihatdan asoslab, ta'lim uzviyligi uchun psixologik asos yaratgan.

Lev Vygotsky (Rossiya) – Ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi orqali ta'limdagi uzviylik va zonal rivojlanish kontseptsiyasini, Kathy Sylva (Buyuk Britaniya) – Erta yoshdagi ta'lim sifatining boshlang'ich bosqichdagi o'quv yutuqlarga ta'sirini, David Whitebread (Buyuk Britaniya, Cambridge University) – O'yin faoliyatining boshlang'ich ta'limdagi o'rnini tadqiq qilgan, maktabgacha va maktab boshlang'ich davri o'rtasidagi metodik bog'liqlikni, Barbara Rogoff (AQSh) – Madaniy kontekstda bola rivojlanishining uzviyligi va o'qitishdagi holistik yondashuvni tadqiq qilgan.

Umuman olganda, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviyligini ta'minlash — bola rivojini izchil va bosqichma-bosqich olib borish, har ikki bosqich o'rtasida mantiqiy, psixologik va metodik bog'liqlikni shakllantirish demakdir. Bu jarayon o'qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik, zamonaviy pedagogik va texnologik yondashuvlarga tayanishi bilan muvaffaqiyatli bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsining shakllanishida dastlabki, ammo nihoyatda muhim poydevor bo'lib, uning kognitiv, emotsional, jismoniy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishini ta'minlaydi. Boshlang'ich ta'lim esa ushbu rivojlanishni tizimli va maqsadli tarzda davom ettiradi. Demak, bu ikki bosqich o'rtasida metodik, mazmuniy va psixologik uzviylik bo'lishi shart.

Zamonaviy axborot texnologiyalari – multimedia vositalari, raqamli platformalar, virtual sinflar va mobil ilovalar – ta'lim jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axborotga nisbatan qiziqish tabiiy bo'lib, bu bosqichda didaktik o'yinlar, interaktiv dasturlar orqali axborot texnologiyalarini joriy qilish muhim ahamiyatga ega.

AKT vositalari orqali uzviylikni ta'minlashning yo'llari

- Raqamli portfellar: bolaning rivojlanish dinamikasini maktabgacha ta'limdan boshlang'ich bosqichga uzatish.

- Interaktiv platformalar (Zoom, Google Classroom, EduPage): ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlash.

- LMS tizimlari (Learning Management System): o'quv dasturlarining uzviyligini va baholash tizimini avtomatlashtirish.

- Elektron resurslar: dastlabki savodxonlik, matematik tasavvur va boshqa ko'nikmalarni shakllantirishda o'qituvchilarga moslashgan vositalarni qo'llash.

Kadrlar salohiyati yetishmasligi: AKT vositalaridan foydalanish ko'nikmalari bo'yicha o'qituvchilarning salohiyatini oshirish.

- Resurs yetishmovchiligi: barcha maktabgacha va boshlang'ich ta'lim muassasalarini texnik jihozlash.

- Metodik ta'minot muammolari: AKT asosida yaratilgan uzviy o'quv dasturlarini ishlab chiqish.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylikni axborot texnologiyalari asosida ta'minlash – raqamli pedagogikaning zamonaviy yondashuvi hisoblanadi. Bu jarayon uzluksiz ta'lim tizimini mustahkamlab, bola shaxsining har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi. O'zbekiston ta'lim tizimida bu yo'nalishda kompleks yondashuvni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Maktabgacha ta'lim bosqichida bolalarda elementar tushunchalar, bilishga qiziqish, nutq va tafakkur faoliyati shakllanadi. Ushbu bosqichda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda multimediya materiallari, interaktiv o'yinlar, vizual dasturlar bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlariga mos ravishda tanlab olinadi. Masalan, maxsus ishlab chiqilgan elektron interfaol darsliklar, bolalar uchun mo'ljallangan mobil ilovalar (masalan, "Smart Kids", "Bilimland Kids") ularning bilish jarayonini qulay va qiziqarli muhitda tashkil etishga imkon beradi. Bu texnologik yondashuvlar orqali o'quvchilarda boshlang'ich sinf uchun zarur ko'nikmalar tayyor holatda shakllanadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida esa ushbu dastlabki tayyorgarlik raqamli metodlar asosida rivojlantirilib boriladi. AKT vositalari, xususan, elektron darsliklar, interaktiv testlar, virtual laboratoriyalar va onlayn baholash tizimlari orqali bilimlarni mustahkamlash, individual yondashuv asosida darslarni tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Shu nuqtai nazardan qaranganda, AKT ikki bosqich — maktabgacha va boshlang'ich ta'lim — o'rtasida pedagogik, metodik va texnologik uzviylikni ta'minlaydi.

Didaktik nuqtai nazardan olib qaranganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim mazmunini bolalar uchun tushunarli, ko'rgazmali va shaxsiy qiziqishlarga mos holga keltiradi. Bu, ayniqsa, darsda ishtirok etish darajasi past bo'lgan bolalarda faollikni oshiradi, o'z fikrini erkin ifodalashga undaydi, mustaqil izlanish va amaliy faoliyatga yo'naltiradi. Shu bilan birga, pedagoglar uchun ham ta'lim jarayonini rejalashtirish, samaradorlikni monitoring qilish, har bir bola uchun individual yondashuvni ishlab chiqish imkoniyatlari kengayadi.

Prezident qarorlari asosida hayotga tatbiq etilayotgan "Raqamli maktab", "e-Talim", "Smart maktabgacha ta'lim" kabi dasturlar aynan maktabgacha va boshlang'ich bosqichlar uzviylikni raqamli platformalar orqali kuchaytirishga xizmat qilmoqda. 2024–2025-yillardagi farmon va qarorlarda belgilanganidek, bolalarning elektron portfellari, onlayn baholash tizimlari, AKT orqali kompetensiyalarning rivojlanishini kuzatish imkoniyatlari ta'lim sifatini oshirish bilan birga, uzviylikni nazorat ostiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasida samarali uzviylikni ta'minlaydi. Bu uzviylik nafaqat dasturiy yoki tashkiliy birlikda, balki bolaning psixologik, kognitiv va faoliyatga yo'naltirilgan rivojlanish bosqichlarida ham namoyon bo'ladi. Bugungi kunda ta'limning bu ikki ilk bosqichini raqamli yondashuvlar orqali birlashtirish kelajakda raqobatbardosh, bilimdon va raqamli savodxon avlodni shakllantirishga mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova, Z. (2022). Raqamli ta'lim texnologiyalari va ularning boshlang'ich ta'limdagi o'rni. Toshkent: O'zRTA nashriyoti.
2. UNESCO (2021). ICT in Early Childhood Education: Global Practices and Guidelines.
3. Shodmonova, S. (2023). Ta'limda uzviylik: maktabgacha va boshlang'ich bosqichlar tajribasi. Pedagogika jurnali, 1(4), 35-42.
4. Qodirov, B. (2020). Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. World Bank (2022). Digital Education in Central Asia: A Policy Brief.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI O'QUV MASHG'ULOTLARIGA O'YINLAR ORQALI MENTAL ARIFMETIKANI TIZIMLI KIRITISH METODIKASI

Kamilova Gulmira Alimovna-

Buxoro davlat pedagogika instituti Maktabgacha talim kafedrası professori, p.f.n

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarning maktab ta'limiga tayyorlanishida asosiy va yetakchi o'rin tutuvchi jihat bu kommunikativ va bilim olish ko'nikmalarni shakllantirishdir. Bunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv mashg'ulotlarida bolalarga o'yinlar orqali "Mental arifmetika"ni o'rgatish hamda bolalar miyasining o'ng va chap yarim sharlarini rivojlantirish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy, aqliy qobiliyatlari rivojlanadi. Maqolada mental arifmetika bolalarda diqqatni jamlash, tasviriy xotira, ijodiy fikrlash, analitik fikrlashini o'stirishda qo'llaniladigan samarali usullarning afzalliklari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Mental arifmetika, tasviriy xotira, analitik fikr, maktabgacha yosh, markaz, mantiq.

МЕТОДИКА СИСТЕМНОГО ВНЕДРЕНИЯ МЕНТАЛЬНОЙ АРИФМЕТИКИ ЧЕРЕЗ ИГРОВЫЕ ЗАНЯТИЯ В УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация: Формирование коммуникативных и познавательных навыков у воспитанников дошкольных образовательных учреждений является ключевым направлением их подготовки к школьному обучению. В данном контексте использование ментальной арифметики посредством игровых форм обучения способствует активному развитию как правого, так и левого полушарий мозга у детей. Включение таких занятий в образовательный процесс позволяет развивать творческие и интеллектуальные способности дошкольников. В статье рассмотрены преимущества применения методов ментальной арифметики для улучшения концентрации внимания, зрительной памяти, творческого и аналитического мышления у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: ментальная арифметика, зрительная память, аналитическое мышление, дошкольный возраст, центр, логика.

TITLE OF THE TOPIC: METHODOLOGY FOR SYSTEMATICALLY INTEGRATING MENTAL ARITHMETIC INTO PRESCHOOL EDUCATIONAL ACTIVITIES THROUGH GAMES

Abstract: In preschool education, the formation of communication and cognitive skills is a fundamental aspect of preparing children for primary school. Integrating "mental arithmetic" into preschool educational sessions through games provides an effective means to develop both the right and left hemispheres of a child's brain. This approach enhances children's creative and intellectual abilities at an early age. The article explores the advantages of using mental arithmetic methods to improve attention span, visual memory, creative and analytical thinking in preschool children.

Keywords: mental arithmetic, visual memory, analytical thinking, preschool age, center, logic.

Kirish. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi inson intellektual salohiyatining dastlabki bosqichda shakllanishiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik muhit sifatida e'tirof etilmoqda. Erta yoshdagi bolalarning bilish faoliyati, mantiqiy mushohada yuritish qobiliyati, tafakkur jarayonlari va ijodiy fikrlash layoqatini rivojlantirishda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda, innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim metodlari ham keng joriy etilmoqda. Ushbu maqolada mental arifmetikaning maktabgacha ta'lim jarayoniga o'yin orqali kiritilishi bo'yicha metodik yondashuvlar, ularning ilmiy-nazariy asoslari hamda amaliy tatbiq etish mexanizmlari tizimli tahlil qilinadi.

Asosiy qim. Mental arifmetikaning o'yin shaklidagi integratsiyasi orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda nafaqat matematik ko'nikmalar, balki konsentratsiya, vizual tasavvur, tezkor tafakkur, eslab qolish qobiliyati va ikki yarim sharni muvozanatli faollashtirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, mazkur metodikaning o'quv mashg'ulotlariga tizimli tatbiqi bolalarning individuallashtirilgan o'rganish trayektoriyalarini shakllantirishga, ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga va o'z-o'zini anglash mexanizmlarining faollashuviga sabab bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida belgilangan bolalarga ta'lim berishda kompetentsiyaviy yondashuvning muhim qismi sanaladi. Ma'lumki, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga ko'ra mashg'ulotlar erkin ta'lim faoliyati asosida tashkil etilmoqda. "Mental arifmetika" elementlari har kuni erkin ta'lim faoliyatiga bog'lab olib borish kerak. Bunda asosiy yordam beruvchi vosita – o'yinlardir. "Mental arifmetika"ga mos o'yinlarni mavzudan kelib chiqib ta'lim markazlarida rivojlantirish mumkin.

Mental arifmetika san'at va aql-idrokni rivojlantiruvchi yuqorori sifatli dastur bo'lib, matematik amalni miyada tezroq hisoblashni o'rgatadi. Nomlanishiga qaramasdan, aqliy arifmetikaning maqsadi faqatgina hisoblashni o'rgatish emas, eng asosiysi, bu miyaning rivojlanishi. Chunki rivojlangan miya masalalarni osongina bajara oladi. Mental arifmetika bolalarda quyidagi malakalarni oshirishda yoki rivojlantirishga yordam berishi qayd etilgan. Shular jumlasiga: diqqatni jamlash, tasviriy xotira, ijodiy fikrlash, analitik fikrlash, mantiq, tasavvur qilish. Mental arifmetika bilan eng yaxshi natija ko'rsatadigan bolalar bu 4 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalardir. Olimlarning fikricha, bu yoshda bolalarning miyasi eng yuqori darajagacha rivojlanadi. Shu davr mobaynida bolaning miyasi mutanosib ishlashga moyil bo'ladi. Ammo bitta muammo bo'lib hamma ota-ona ham farzandini "Mental arifmetika"ga berish imkoniyatiga ega emas. "Mental arifmetika"ga aksariyat shahar joylarida ommalashayotgan bo'lib, tuman va qishloq joylarida bu sohada hali yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmagan ota – onalar mavjuddir. Rivojlantiruvchi markazlarida mental arifmetikaga oid faoliyatlar olib boriladi. Qurish-yasash va matematika markazida strelka bo'ylab raqamlar yordamida kataklarda harakatlanadi va kerakli rasmni hosil qiladi. Bu o'yin orqali bolaning diqqati jamlanadi, fikrlash tezligi oshadi.

Markazlarda o'tishga mo'ljallangan bu kabi o'yinlar hamma vaqt ham mental hisob-kitobga asoslanmaydi. Bunda bolalar bir-biri bilan o'zaro muloqot qilish, raqs tushish va qo'shiq aytishga o'rgatiladi. Bir so'z bilan aytganda, bir turdagi barcha o'yinlar asosida miyaning har ikkala yarim sharlarini doimiy rivojlanishi kuzatiladi. Bolalarga aqliy arifmetika elementlarini o'rgatish ularning mustaqil fikrlashlariga o'zining ijobiy samarasini ko'rsatadi. Aqliy arifmetika bilan shug'ullanib borish natijasida bola kuchli tasviriy va eshitish xotirasiga ega bo'ladi, e'tiborni jamlay oladi, bir vaqtning o'zida tahliliy va ijodiy qobiliyat rivojlanadi, chap va o'ng miya yarim sharlari uyg'unlikda rivojlanadi, chet tillari va maktab dasturlarini oson o'zlashtiradi, xayolda tez hisoblash va matematik bazaga ega bo'ladi.

Mental arifmetika bu yuqori sifatli dastur bo'lib matematik amalni miyada kalkulyatordan ham tezroq hisoblashni o'rgatadi. Mental arifmetika dasturi ta'limtarbiya olayotgan bolalarda quyidagi malakalarni rivojlantirishga yordam beradi.

1. Diqqatni jamlash
2. Mantiqiy fikrlash va mantiq
3. Tasavvur qilish
4. Analitik fikrlash
5. Ijodiy fikrlash

Mental arifmetika dasturida ta'lim olgan bolalar nafaqat matematikada balki boshqa sohalarda ham ulkan yutuqlarga erisha oladi. Aynan mental arifmetikaning Xitoyda paydo bo'lganligi va bolalar ta'limida keng joriy qilinganligi va ularning ikki yarim sharining va bir vaqtning o'zida bir nechta ish bilan shug'ullanishida mental arifmetika dasturi asosiy ahamiyat kasb etar ekan. Bundan tashqari bu dastur bo'sh o'zlashtiradigan bolalar uchun ham juda foydalidir. Ularda bu hayotga bo'lgan ishonchni, bilimini, qiziqishini ortishiga sabab bo'ladi. Barchamizga ma'lumki hozirda bizning yurtimizda ham mental arifmetika dasturiga

qiziquvchilar talaygina ammo umumta'lim maktablarida, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha kurs sifatida pulli to'garaklar asosida o'tilmoqda qolaversa mental arifmetika trenerlari ham maxsus xususiy o'quv markazlarida tayyorlanilmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda O'zbekiston aholisi o'rtasida ota onalar bolalarini qo'shimcha o'quv kurslariga (pullik) berishda anchagina tafovut kuzatiladi. Masalan bitta guruhda 25ta tarbiyalanuvchi tarbiyalansa ularning 10 nafari qo'shimcha mental arifmetika kursiga qatnashishga imkoni bor qolganlariniki esa oilaviy sharoitiga ko'ra o'z farzandini qo'shimcha kursga bera olmaydi va shuningdek mamlakatimizdagi umumta'lim maktablarida ham xuddi shu jarayonlar kuzatilishi tabiiy holat.

Ammo hozirgi paytda mental arifmetika sohasi naqadar muhim ekanligini bilamiz-u ammo savol tug'iladi nega mental arifmetika faqatgina xususiy ta'lim muassasalarida dars va mashg'ulot sifatida o'tiladiyu lekin davlat ta'lim muassasalarida qo'shimcha kurslar sifatida pullik tashkil etiladi? Bundan ko'rinib turibdiki davlat ta'lim tashkilotlarida tahsil oluvchi hamma bolalar ham pullik to'garaklarga birdek qatnasha olmaydilar va natijada bir sinfda tahsil oluvchi bolalar o'rtasida tafovutlar yuzaga kela boshlaydi. Ayniqsa hozirgi paytda mental arifmetika sohasi bo'yicha bolalar xalqaro olimpiadalarda ham qatnashib yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarmoqdalar lekin bu bolalar ham maxsus o'quv kurslarida tayyorlanib o'z salohiyatlarini oshirganlar. Mental arifmetika aynan 4-6 yoshdan boshlab bolalarga o'rgatilishi va abakusda hisoblash texnikasi qo'llanilishi aynan shu yoshlar oralig'ida amalga oshirilishi bir necha ko'plab misollar bilan isbotlangan va aynan shu yoshda miya yodlash nuqtai nazaridan ancha moslashuvchan bo'ladi.

Mental arifmetika ta'lim texnologiyasi bolalarning o'ylash tezligi, tafakkurning moslashuvchanligi, eslab qolish darajasi hamda vizual ko'rish asosidagi hisoblash salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy metodik vositadir. Maktabgacha yosh davrida bola miyasining neyropsixologik rivojlanish jarayoni eng faol bosqichda bo'lganligi bois, aynan shu davrda miya yarim sharlarini muvozanatli faollashtirish maqsadida ongli matematik fikrlash asoslarini shakllantirish zarur bo'ladi.

Mental arifmetikaning o'yinlar orqali joriy etilishi esa bu jarayonni bolalar uchun nafaqat qiziqarli, balki samarali ham qiladi. Dastlab, an'anaviy arifmetik amallarni vizual obrazlar yordamida (masalan, abakus tasviri, tasviriy kartochkalar, rangli to'plar) ong ostiga singdirish orqali bolada tasavvur asosida fikrlash shakllanadi. Ushbu bosqichda o'yin orqali berilgan topshiriqlar bolaning faolligini oshirishga, ichki motivatsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mental arifmetika o'yinlarini muntazam qo'llagan guruhlarda bolalar diqqatni jamlash, eslab qolish, muammoni tez tahlil qilish, tushunchalarni umumlashtirish va noan'anaviy yechim topish ko'nikmalarini ancha yuqori darajada namoyon qilishadi. Bu o'z navbatida ularning maktabga psixologik va intellektual tayyorgarligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Mental arifmetika o'yinlarini mashg'ulotlarga tizimli integratsiyalashda quyidagi metodik tamoyillar muhim hisoblanadi:

1. Bosqichlilik – avval tasviriy va predmetli-didaktik o'yinlardan boshlab, asta-sekin aqliy hisobga o'tiladi.

2. Moslashtirish – har bir bolaning rivojlanish darajasiga qarab topshiriqlar differensiallashtiriladi.

3. Multimodal yondashuv – vizual, eshituv, kinestetik kanallarning birgalikda faollashtirilishi.

4. Motivatsion-kommunikativ asos – bolalar o'rtasida jamoaviy musobaqa, rag'batlantirish va muloqotga asoslangan o'yinli faoliyat.

Ta'kidlash joizki, mental arifmetikani joriy etishda pedagogning o'zi ham maxsus tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi, bolalarga individual yondashuvni qo'llashi va o'yinli faoliyatni puxta metodik rejalashtirgan bo'lishi lozim. Aks holda, bu metodikaning samaradorligi pasayishi mumkin.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mental arifmetika elementlarini o'yinlar orqali o'quv mashg'ulotlariga tizimli tarzda integratsiya qilish bolalarning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu metodika nafaqat matematik bilimlarni o'zlashtirishda, balki diqqatni jamlash, eslab qolish, tasavvur qilish, tezkor fikrlash va ijodiy tafakkurni shakllantirishda ham yuqori samaradorlikka ega.

Tajriba va kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, o'yin orqali mental arifmetikani o'rgangan bolalarda tafakkur jarayonlari faollashadi, o'quvga qiziqish ortadi va intellektual o'sish sur'ati sezilarli darajada tezlashadi. Bunday yondashuv pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirilgan va zamonaviy ta'lim tamoyillariga mos holda tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M.Mirziyoyev.Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi strategiyasi. – Toshkent:2021
2. "Ilk qadam" davlat dasturi T:2018
3. Sultanov B.,Xudoynazarov.E.M.,Qochqorov. Sh.A. Mental arifmetika o'quv qo'llanma UrDu. – Toshkent: Nodirabegim,2021.
4. D.M.Maxmudova., N.A.Mirxalilova."Mental arifmetika" kurslarini ta'lim klasteri asosida tatbiq qilish. Academic researchi in educational sciences, 2021.T._ N6 Pp.101-102.
5. Jo'raev S., F.Qodirov "Kichkintoylar nutqini o'stirish" T.: 2005 y.
6. Ivanov P.I, M.Zufarova "Umumiy psixologiya" T.: 2008 y

**1-SHO‘BA:
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH
TA‘LIM UZVIYLLIGINI TA‘MINLASH.
TA‘LIMDA AXBOROT
TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA
AHAMIYATI**

BOLALARNI KITOB O'QISHGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISHDA AKT TEKNOLOGIYALARINING O'RNI

Nigmatova Mavjuda Maxmudovna

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti nigmatova_mavjuda@buxdpi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda o'qishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish muammosini hal qiladi. Muallif AKT texnologiyalari yordamida o'qishga qiziqishni shakllantirish masalalarini ko'rib chiqadilar. Tinglangan va o'qilgan kitoblar asosida interaktiv kitob burchagi va kvest o'yini yaratish loyihasini ishlab chiqish yo'lga qo'yilgan.

Kalit so'zlar: o'qishga qiziqish, AKT texnologiyalari, o'qish, katta va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalar, o'qish burchagi, kvest o'yini, axborot-kommunikatsiya muhiti.

РОЛЬ ИКТ-ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ИНТЕРЕСА ДЕТЕЙ К ЧТЕНИЮ КНИГ

Аннотация: В данной статье актуализируется проблема формирования читательского интереса у детей дошкольного возраста. Авторам рассматриваются вопросы формирования читательского интереса средствами икт-технологий. Описывается разработка проекта по созданию интерактивного книжного уголка и квест-игры по мотивам прослушанных и прочитанных книг.

Ключевые слова: читательский интерес, икт-технологии, чтение, дети старшего и среднего дошкольного возраста, читательский уголок, квест-игра, информационно-коммуникационная среда.

THE ROLE OF ICT TECHNOLOGIES IN FORMING CHILDREN'S INTEREST IN READING BOOKS

Abstract: In this article the problem of formation of reader's interest at children of preschool age 4-5 years, by means of use of ICT technologies is actualized. The questions of preservation of reader's interest at features of influence of the information environment on children of preschool and primary school age are considered. Describes the development of the project to create an interactive book corner and quest games based on the books read. The features of the quest game organization are considered.

Keywords: readers' interest, ICT technologies, reading, children of senior and middle preschool age, readers' corner, quest-game, information and communication environment.

Kitobxonlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish milliy dasturida ta'kidlanganidek, zamonaviy jamiyatdagi asosiy vazifa yosh avlodda kitobxonlikka bo'lgan ehtiyojni shakllantirishdir. XXI asrda kitobxonlik muammosi butun dunyo nazariyotchilari va amaliyotchilarining e'tiborini tortmoqda. O'qishga bo'lgan qiziqishning rivojlanishi K.D.Ushinskiy kabi olimlarning e'tiborini tortdi [2].

Texnologik taraqqiyot va aholini axborotlashtirish davrida maktabgacha yoshdagi bolani kitobga qiziqish va o'qishga qachon va qanday o'rgatish masalasi tobora keskinlashmoqda. Hozirgi bosqichda maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini shakllantirish muammosining dolzarbligi, so'nggi o'n yilliklarda kattalar va bolalar o'rtasida kitobga bo'lgan qiziqishning pasayishi bilan izohlanadi, bu esa butun aholining kitobxonlik madaniyatining pasayishiga olib keladi.

Bolalar internet va televideniye orqali badiiy adabiyot bilan tobora ko'proq tanishmoqda. Bolalar o'qishni o'rganishdan oldin kompyuterlarni o'zlashtiradilar va mundarijadan ko'ra klaviaturada yaxshiroq harakatlana oladilar. Syuzan Grinfeld, Arik Sigman, Manfred Spitzer va boshqalar kabi taniqli neyropsixologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalardan faol foydalanish xavotirga sabab bo'ladi. Madaniyatga endigina o'rganib, dunyoqarashini shakllantirayotgan davrda o'zining moslashuvchan miyasiga ega bo'lgan maktabgacha va boshlang'ich sinf o'quvchilariga axborot muhiti eng katta ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy davrda "bolalar-tomoshabinlar" keladi. Ular vizual ma'lumotni idrok etishga odatlangan va matn va og'zaki tilni tushunishda qiynaladi. Ular uchun o'qish yoki tinglashdan ko'ra tomosha qilish osonroq. Bolalar kattalarning gaplariga uzoq vaqt e'tibor qarata olmaydilar.

Natijada, hayotiy qadriyatlar o'zgaradi, kattalarning bolalar bilan birgalikda o'qish faoliyatiga bo'lgan munosabati o'zgaradi va oilaviy o'qish an'analari yo'qoladi. Adabiyot o'qish, multfilmlar va kompyuter o'yinlarini tomosha qilish bilan almashtiriladi. Shu munosabat bilan maktabgacha yoshdan boshlab o'qishga qiziqish, kitoblarni idrok etishni rivojlantirish muammosini hal qilish kerak. Shuningdek, jadal rivojlanayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va oilaviy kitobxonlik an'analari o'rtasida mutanosiblikni topish zarur, deb hisoblaymiz. Maktabgacha yoshdagi bolalarda AKT texnologiyalari yordamida o'qishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish maqsadida ular o'qigan kitoblar asosida kvest o'yini yaratish loyihasi ishlab chiqildi. Keling, kvest o'yinini tashkil qilish xususiyatlarini batafsil ko'rib chiqaylik. Uzoq muddatli ta'lim va ijodiy loyiha ta'lim munosabatlarining quyidagi ishtirokchilarini birlashtiradi: katta va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalar, tarbiyachilar, musiqa o'qituvchisi, ota-onalar, kutubxonachi.

Loyihaning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda kitob o'qishga, jumladan, oilaviy kitobxonlikka qiziqishni rivojlantirishdan iborat.

Loyiha maqsadlari:

1. Bolalarni kitob o'qish madaniyati bilan tanishtirish, savodli tinglovchi-bolalarni tarbiyalash.

2. Oilaviy kitobxonlik an'analarni tiklash va saqlashga ko'maklashish.

3. Aqliy rivojlantirish: analogiya, tizimlashtirish, umumlashtirish, kuzatish, rejalashtirish.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'qish burchagi uchun dizayn loyihasini ishlab chiqish.

5. Kitob syujeti asosida kvest o'yinini ishlab chiqish.

Loyihani amalga oshirishning asosiy shakllari:

- bolalar bilan suhbatlar, badiiy adabiyotlar o'qish, rolli o'yinlar, didaktik stol o'yinlari, dramatisatsiya o'yinlari, kitob ko'rgazmalari, bukkrossing tashkil etish;

- ota-onalar, kutubxonachilar bilan anketalar, maslahatlar, ota-onalar yig'ilishlari, interfaol o'qish burchagini loyihalashda ishtirok etish;

- pedagoglar bilan konsultatsiyalar, mahorat darslari, interfaol o'qish burchagini loyihalashda ishtirok etish.

Maktabgacha ta'lim mutashkilotlarida interaktiv kitoblar burchagi yaratilish lozim bo'lib, maktabgacha ta'lim bo'yicha ta'lim standarti talablariga muvofiq, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi kitob burchagi nafaqat fan muhitining zarur elementi, balki kitoblar, ularning mualliflari va illyustratorlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatish shakli, bolalarning kitob qiyofasiga ko'nikishiga yordam beradi, unga qarash va o'qish istagini uyg'otadi. O'qish burchagida kichik, doimiy o'zgaruvchan kutubxona bo'lishi kerak. Burchaklar ko'pincha haftaning o'quv vazifalariga muvofiq tematik tarzda bezatilgan bo'lib, shu bilan birga, kitobxonlik burchagini bolalarni qiziqtiradigan kitoblar bilan to'ldirish muhimdir. Yangilanishlar bolalarning tashabbusi bilan uyda ota-onalari bilan kitob o'qib chiqqandan so'ng, burchakka tushishi ma'qul. O'qish maydoni haqida o'ylash ham muhim, u shinam o'rindiqlarni (xalta-kreslo, yostiqlar, gilamlar, divan), yoritish va atmosferani yaratish uchun bir nechta stol yoki osilgan lampalar, shuningdek, o'rindiq yostiqlari, shaffof kanoplarni o'z ichiga olishi kerak. O'qish burchagida quti yoki savat mavjud bo'lib, "kasal" kitoblar ya'ni yuzi yirtilgan, sahifalari yirtilgan kitoblarni bolalar bilan birgalikda yoki ota-onalar bilan birgalikda "davolash" mumkin. Agar kitob ota-onaning bolaligidan qolgan kitob bo'lsa, yangi bo'lmasa, uni skanerda o'tkazib, rangli printerda chop etish orqali unga ikkinchi hayot baxsh etish mumkin. Shuningdek, bolalarga kitobdagi rasmlarning qahramonlarini suratga olish (reproduksiya) qilish va ularni devordagi guruhda foto ramkalarga joylashtirish taklif etiladi. O'qish burchagida nafaqat kitoblar bo'lishi mumkin. Bu audio kitoblar (va naushniklar) to'plamiga ega pleer bo'lishi mumkin. Kitoblardagi sahnalarni sahnalashtirish uchun barmoq qo'g'irchoq teatri, turli hikoyalar qahramonlari ko'rinishidagi o'yinchoqlar, kiyinish uchun rekvizitlar (qog'oz niqoblar, shlyapalar, qalpoqlar, kitoblarning syujetlari bilan bog'liq stol o'yinlari, bo'r bilan chizish uchun magnit shifer taxtasi ham bo'lishi mumkin. O'qish burchagida pochta qutisini o'rnatish muhim deb hisoblaymiz. Unga ertak qahramonlarining maktublari kiradi va u erda kitoblarning rasmi sharhlari joylashtiriladi.

Mutolaa burchagi “Hikmatli soʻzlar”, adabiy tilning ifodali vositalari boʻlmish topishmoqlar, matallar, masallar, iboralar, “Rasmi hikoyalar” koʻrgazmali va didaktik qoʻllanmalar, bolalar yozuvchilari portretlari, oʻqilgan asarlar asosida yaratilgan syujetli rasmlar, 3D shaklidagi kitobchalar bilan oʻz vaqtida boyitib borish mumkin.

Turli mualliflarning ertaklari uchun illyustratsiyalar bilan albom ishlab chiqilib, ota-onalar tashabbusi bilan guruhda sevimli bolalar kitoblarining illyustratsiyasi uchun QR kodlar osish lozim. Bolalar planshetda oʻqilgan asarlar asosida rasmlarni koʻrishlari mumkin boʻladi. Baʼzi elektron va 3D kitoblar ham planshetga yuklash yaxshi natija beradi.

Keling, kvest oʻyiniga toʻxtalib oʻtamiz. Uning syujeti mavzu haftasiga muvofiq ishlab chiqilgan ota-onalar bilan oʻqilgan kitoblarga asoslangan edi. Ishtirokchilar pochta qutisidan kvest oʻyinida ishtirok etish taklifi bilan kitob qahramonidan xat topadilar. Buning uchun bolalar kitobni oʻqishlari, topshiriqlarni bajarishlari va oxirida yashirinish joyini topishlari kerak. Buning uchun siz kitobni diqqat bilan oʻqib chiqishingiz, maslahatlarni topishingiz va hal qilishingiz kerak. Maslahatlar - bu kitob mavzusi boʻyicha turli xil mantiqiy jumboqlarni oʻz ichiga olgan vazifalari boʻlgan kartalar. Har bir vazifada keyingi maslahatning joylashuvi kartada shifrlangan. Badiiy asarlar asosida topshiriqlar yozilgan tematik kartochkalar kitob sahifalariga oldindan birlashtirilgan. Masalan, kitobni taxmin qiling, boshqotirma illyustratsiyasini tuzing, kitob qahramoni haqida topishmoq toping, kitobdan audio parchani tinglang, tinglagan parcha uchun rasmni toping, sahna koʻrinishini namoyish eting va hokazo.

Koʻpincha bu kitoblar (jumboqlar, bukkrossing, lapbook va boshqalar) asosida hunarmandchilik qilish imkonini beruvchi blankalar bilan bogʻliq. Interfaol oʻqish burchagida oʻquvchilarning “faxriylar taxtasi” joylashgan boʻlib, unda bolalar oʻqigan kitoblarining nomlari bilan choʻntaklardagi kvestdan bajarilgan topshiriqlar sonini belgilaydilar. Kvest oʻyidan soʻng kitob javonga qoʻyiladi va kitob asosidagi bolalar hunarmandchiligi choʻntaklarda qoladi.

Biz maktabgacha yoshdagi bolalarda AKT vositalarisiz kitoblarga qiziqishni rivojlantirishi mumkinligiga ishonamiz, ammo biz zamonaviy maktabgacha yoshdagi bolalar axborot-kommunikatsiya muhitini oʻz ichiga olgan faoliyat bilan shugʻullanishga koʻproq tayyor ekanligini ham taʼkidlaymiz. Biz zamonaviy imkoniyatlarni eʼtiborsiz qoldirmaslikni, lekin shu bilan birga bolalar va kattalar bilan oʻzaro munosabatlar gadget bilan oʻzaro aloqada boʻlishdan koʻra koʻproq qiziqish uygʻotadigan izlanishda koʻproq ijodiy vazifalarni rejalashtirishni taklif qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Фельдштейн Д.И. Характер и степень изменений современного детства [Электронный ресурс].URL:<https://letidor.ru/obrazovanie/a345-harakter-i-stepen-izmeneniy-sovremennogo-detstva-8580.shtml> (дата обращения: 4.11.2019).
2. Nigmatova M. M., Jorayeva S. H. J. MAKTABGACHA TALIMDA STEM TAʼLIM MODULI //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 1396-1400.
3. Kuldoshev R. et al. Mathematical statistical analysis of attainment levels of primary left handed students based on pearson's conformity criteria //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 371. – C. 05069.
4. Nigmatova M. KOMPYUTER OʻYINLARINING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR HISSIY INTELEKTIGA TAʼSIRI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – T. 22. – №. 22.
5. Nigmatova M. RAQAMLI OʻYINLAR BOLALARNI OʻQITISH USULI SIFATIDA //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 3. – №. 3.
6. Nigmatova Mavjuda Mahmudovna. (2021). Reasons for Personal Change of Modern Preschool Children. Middle European Scientific Bulletin, 10(1). <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.10.359>.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM UZVIYLIGI

*Sayfiddinova Sitora
BuxDPI 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasidagi islohotlari asosida maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash masalasi ilmiy-nazariy nuqtai nazardan yoritilgan. Maktabgacha ta’lim dan boshlang‘ich ta’lim ga o‘tish jarayonida dasturlar, metodikalar va baholash mezonlari uyg‘unligining ahamiyati tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim , boshlang‘ich ta’lim , uzviylik, Prezident qarorlari, ta’lim islohotlari, konstruktivizm, pedagogik yondashuv, metodika.

НЕПРЕРЫВНОСТЬ ДОШКОЛЬНОГО И НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье раскрывается вопрос обеспечения преемственности между дошкольным и начальным образованием на основе реформ в сфере образования, инициированных Президентом Республики Узбекистан. Рассматривается значение согласованности программ, методик и критериев оценки на этапах перехода от дошкольного к начальному образованию.

Ключевые слова: дошкольное образование, начальное образование, преемственность, президентские постановления, образовательные реформы, конструктивизм, педагогический подход, методика.

CONTINUITY OF PRESCHOOL AND PRIMARY EDUCATION IN NEW UZBEKISTAN

Absract. This article explores the scientific and theoretical foundations of ensuring continuity between preschool and primary education in the context of educational reforms initiated by the President of the Republic of Uzbekistan. The importance of aligning curricula, teaching methodologies, and assessment systems during the transition from preschool to primary education is analyzed.

Keywords: preschool education, primary education, continuity, presidential decrees, educational reforms, constructivism, pedagogical approach, methodology

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim -tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uning samaradorligi va uzviyligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. So‘nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ta’lim ning barcha bosqichlarini zamonaviy talablarga moslashtirish, yosh avlodni intellektual va ma’naviy jihatdan yetuk shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan muhim qaror va farmonlar qabul qilindi. Xususan, 2019-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4517-son qaror, 2020-yil 23-dekabrda “Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish va uning uzviyligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlar uzviy ta’lim zanjirini shakllantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi uzviylik – bolaning shaxsiy, ijtimoiy, emotsional, intellektual va harakat faoliyati jihatidan bosqichma-bosqich rivojlanishini ta’minlaydigan muhim pedagogik prinsip hisoblanadi. Ilmiy-nazariy jihatdan bu uzviylik Lev Vygotskiy, Jan Piaget, Xovard Gardner kabi olimlarning rivojlanish psixologiyasi va konstruktivistik ta’lim nazariyalari bilan asoslanadi. Bu yondashuv bolalarda dastlabki bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirib, maktab davriga silliq o‘tishiga sharoit yaratadi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston – maktabgacha ta’lim dan boshlab” tamoyili ta’lim ning boshlang‘ich bo‘g‘inini har tomonlama isloh qilishga qaratilgan. Jumladan, 2022-yil 28-fevraldagi PQ–158-sonli qaror bilan maktabgacha ta’lim da integratsiyalashgan yondashuv, STEAM-elementlari, o‘yin orqali o‘qitish metodikasi joriy

etilishi belgilandi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy salohiyatini oshirish, ularni maktabgacha ta'lim dagi dasturiy talablar bilan tanishtirish vazifasi qo'yilgan.

Ilmiy-nazariy nuqtai nazardan, uzviylikni ta'minlashda quyidagi omillar muhim o'rin tutadi:

1. Ta'lim dasturlarining uyg'unligi – maktabgacha ta'lim dagi "Ilk qadam" dasturi bilan boshlang'ich ta'lim dagi davlat o'quv standarti o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash;

2. Pedagoglararo hamkorlik – tarbiyachi va boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasidagi uzviy metodik muloqot;

3. Baholashning izchil uslubi – bola rivojini kompleks baholash orqali ta'lim ga individual yondashuvni kuchaytirish;

4. Oilaviy tarbiya bilan integratsiya – ota-onalarni ta'lim jarayoniga faol jalb qilish;

5. Psixologik tayyorgarlik – bola psixikasini maktab muhitiga moslashtirish.

Bugungi kunda bu yondashuvlar asosida O'zbekiston ta'lim tizimida izchil o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi – 2030" hujjatida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim ning uzviyligi ta'lim sifati kafolati sifatida e'tirof etilgan.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ta'lim sohasining barcha bosqichlarini o'zaro uzviy va tizimli holga keltirish vazifasi ilgari surilmoqda. Xususan, 2022-yil 28-fevralda qabul qilingan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviyligini mustahkamlash, ta'lim sifatini tubdan yaxshilash vazifasi ilgari surilgan (8-maqсад, 122-band). Bunga muvfiq, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasida pedagogik, metodik va mazmuniy uzviylikni ta'minlashga qaratilgan bir qator aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan:

2023-yilda tasdiqlangan "Davlat maktabgacha ta'lim dasturi" ("Ilk qadam") va Boshlang'ich ta'lim davlat standarti o'rtasida metodik uyg'unlik prinsipiga asoslangan mazmuniy bog'liqlik ta'minlandi;

Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'quvchilarni boshlang'ich ta'lim ga tayyorlov dasturlari (5–6 yoshli bolalar uchun) amaliyotga tatbiq etildi;

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun maktabgacha ta'lim mazmuni bilan tanishtiruvchi modullar asosida malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yildi (2023-yildan boshlab, InnoTex markazi, TDPU huzuridagi ilmiy-metodik markazlar orqali).

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviyligini ta'minlashda quyidagi asosiy tamoyillar ustuvor sanaladi:

Rivojlanish davomiyligi: bola shaxsining psixologik va fiziologik xususiyatlari ketma-ket rivojlanish bosqichlarida to'liq hisobga olinadi. Maktabgacha ta'lim da shakllangan ko'nikmalar boshlang'ich ta'lim da mustahkamlanadi.

Faoliyat turlari mosligi: maktabgacha ta'lim da asosiy o'quv shakli bo'lgan o'yin faoliyati boshlang'ich sinfda ham saqlanib qolishi lozim (1-sinfda o'yinli topshiriqlar ulushi 40–50% gacha bo'lishi tavsiya etiladi).

Nutqiy va kommunikativ tayyorgarlik: MTTlarda bola og'zaki nutq va eshituv faoliyatiga tayyorlanadi, bu boshlang'ich sinfda savod o'rgatish jarayonini soddalashtiradi.

Baholashdagi uzviylik: 2024-yildan boshlab maktabgacha ta'lim da joriy etilgan rivojlanish monitoringi natijalari boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga berilishi rejalashtirilgan.

Amaliyotdagi natijalar va mavjud muammolar shundan iboratki, 2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston bo'yicha 2 milliondan ortiq bola maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan, bu umumiy yosh guruhining 70 foizini tashkil qiladi. Maktabga tayyorlov guruhlarini tashkil etish natijasida 1-sinf o'quvchilarining savod o'rganish tezligi 2024-yilga nisbatan o'rtacha 35% ga oshgan (Maktabgacha va maktab ta'lim i vazirligi ma'lumotlariga ko'ra).

Shunga qaramay, muammolar ham mavjud:

- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari hali to'liq shakllanmagan;

- tarbiyachilar va o'qituvchilar o'rtasidagi axborot almashinuvi va metodik muvofiqlashtirish zaif;

• ayrim hududlarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari bolalarning tayyorgarlik darajasini inobatga olmay, bir xil yondashuv bilan dars o'tmoqda.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviyligini mustahkamlash uchun quyidagi strategik yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi:

• “Maktabga qadam” nomli maxsus platforma orqali bolalarning tayyorgarlik holati bo'yicha elektron monitoring yuritish;

• boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun “Ilk qadam” dasturi asosida yaratilgan tayanch modullarni o'quv jarayoniga kiritish;

• tarbiyachi va o'qituvchilar o'rtasida metodik klub va yagona rejalashtirish tizimini joriy etish;

• MTT bitiruvchilari uchun moslashtirilgan diagnostika sinovlari asosida differensial yondashuv bilan dars tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylik – nafaqat pedagogik, balki strategik milliy taraqqiyot mezonidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuslari bu boradagi islohotlarning izchil va barqaror amalga oshirilishiga mustahkam zamin yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-noyabrda PQ-4517-son qarori “O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-dekabrda “Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish va uning uzviyligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevralda PQ-158-son qarori “Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimini integratsiyalashgan shaklda rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”.

4. “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi – 2030”. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi farmoni).

5. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

6. Piaget, J. (1952). *The Origins of Intelligence in Children*. New York: International Universities Press.

7. Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. New York: Basic Books.

8. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim i vazirligi. (2023). Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim dasturlari uzviyligini ta'minlash bo'yicha metodik tavsiyalar.

9. Xodjayev, N. va boshq. (2020). *Ta'lim bosqichlari uzviyligini ta'minlashning nazariy va amaliy asoslari*. Toshkent: TDPU nashriyoti.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Asatova Barfiya Faxridinovna

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,

Buxoro shahar 24-maktabning oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Unda interfaol ta'lim usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'yinli ta'lim, loyiha metodikasi va masofaviy ta'lim ning o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'siri muhokama qilingan. Zamonaviy texnologiyalar yordamida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni qiziqarli va samarali tashkil etishning usullari hamda ularning o'quvchilarning

mustaqil ta'lim olish qobiliyatiga ta'siri tahlil qilingan. Maqola zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish yo'llarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. Boshlang'ich ta'lim , sinfdan tashqari ishlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol ta'lim , axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'yinli ta'lim , loyiha metodikasi, masofaviy ta'lim.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ ВНЕКЛАССНОЙ РАБОТЫ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В данной статье освещается значение использования современных педагогических технологий при организации внеклассной работы в начальных классах. В ней обсуждается влияние интерактивных методов обучения, информационно-коммуникационных технологий, игрового обучения, проектной методики и дистанционного обучения на развитие знаний и навыков учащихся. Анализируются методы организации увлекательных и эффективных внеклассных занятий с использованием современных технологий, а также их влияние на способность учащихся к самостоятельному обучению. Статья показывает пути повышения качества начального образования посредством использования современных образовательных технологий.

Ключевые слова: начальное образование, внеклассная работа, современные педагогические технологии, интерактивное обучение, информационно-коммуникационные технологии, игровое обучение, проектная методика, дистанционное обучение.

USE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM WORK IN PRIMARY GRADES

Annotation. This article highlights the importance of using modern pedagogical technologies in organizing extracurricular activities in primary grades. It discusses the impact of interactive learning methods, information and communication technologies, game-based learning, project methodology, and distance learning on the development of students' knowledge and skills. Methods for organizing engaging and effective extracurricular activities using modern technologies are analyzed, as well as their influence on students' ability for independent learning. The article demonstrates ways to improve the quality of primary education through the use of modern educational technologies.

Keywords: primary education, extracurricular activities, modern pedagogical technologies, interactive learning, information and communication technologies, game-based learning, project methodology, distance learning.

Kirish. Boshlang'ich ta'lim insonning hayot yo'lidagi eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davrda o'quvchilarda nafaqat bilim va ko'nikmalar shakllanadi, balki mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, muloqot qobiliyatlari ham rivojlanadi. Shu sababli, ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olib, ularga qo'shimcha ta'lim imkoniyatlarini yaratish zarur.

Sinfdan tashqari ishlar – o'quvchilarning rasmiy darslardan tashqari bilim olishlari, qobiliyatlarini rivojlantirishlari va ijtimoiy faolliklarini oshirishlari uchun muhim vositadir. An'anaviy usullardan farqli o'laroq, zamonaviy pedagogik texnologiyalar sinfdan tashqari mashg'ulotlarni yanada qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Bugungi kunda interfaol ta'lim usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha metodikasi va o'yinga asoslangan ta'lim o'quvchilarning chuqur bilim olishlari uchun muhim vositalar sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini sinfdan tashqari ishlar bilan integratsiyalash orqali o'quvchilar o'zlari mustaqil izlanish olib borishlari, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishlari va yangi bilimlarni innovatsion yondashuvlar asosida o'zlashtirishlari mumkin. Bu esa ularning kelajakdagi ta'lim jarayonlariga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularga yangi texnologiyalar bilan ishlash madaniyatini ham singdiradi.

Asosiy qism. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga yordam beradi. Sinfдан tashqari ishlarni tashkil etishda ushbu texnologiyalarning qo'llanilishi o'quvchilarning qiziqishlarini oshiradi, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda ularga bilimlarni interfaol va amaliy tarzda o'zlashtirish imkonini yaratadi.

Interfaol ta'lim usullari – O'quvchilarni faollikka undaydi va mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Guruhli mashg'ulotlar, muhokamalar va rolly o'yinlar orqali o'quvchilar bir-birlari bilan fikr almashishadi va yangi bilimlarni o'zaro hamkorlikda o'rganishadi.

“TOSH OYNA”metodi

Doskaga bo'r bilan to'rtburchak chizasiz. O'quvchilarga: -biz o'tgan darsda o'rgangan bilimlarimizni ushbu tosh oyna berkitib turibdi. Qo'llarigizdagi toshchalarni (turli rangdagi plastilindan yasalgan aylana shaklidagi toshchalar) tosh oynaga bittadan o'tgan darsdagi ma'lumotlarni aytib otasiz. Har gal ma'lumot aytib toshchangizni otganingizda tosh oyna sinaveradi. (1-rasm)



1-rasm. Tosh oyna metodi

Masalan, uztozi o'tgan darsda “to'g'ri to'rtburchakning perimetri” mavzusini o'tgan bo'lsa, o'quvchilar toshchalarni olib birma bir mavzuga doir quyidagi fikrlarini aytishdi:

- to'g'ri to'rtburchakning to'rtta tomoni mavjud;
- to'g'ri to'rtburchakning to'rtta tomoni mavjud;
- to'g'ri to'rtburchaklarning qarama-qarshi tomonlari o'zaro teng;
- to'rt tomoni teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak kvadrat deyiladi;
- to'rtburchakning perimetri barcha tomonlarning yig'indisiga teng;
- to'rtburchakning perimetri $P=2x(a+b)$ formula orqali topiladi va hokazo.

Bu metod orqali o'quvchilar xohlasa, xohlamasa o'tgan darsni esiga oladi. O'quvchidan shunchaki, o'tgan darsda nimalarni o'tgan edik deb savol berilsa, 3-4 o'quvchi javob beradi xolos. Bu metod orqali sinfdagi barcha o'quvchilar tosh otishni xohlab, o'ylashga yoki o'tgan darsni varaqlashga majbur bo'ladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – O'quv jarayonini vizuallashtirish, multimedia materiallardan foydalanish imkonini beradi. Elektron darsliklar, onlayn platformalar va ta'lim dasturlari yordamida o'quvchilar mustaqil ravishda ham bilim olishi mumkin.

O'yinga asoslangan ta'lim – O'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va darslarni qiziqarli o'tkazishga xizmat qiladi. Turli didaktik o'yinlar, intellektual viktorinalar va topshiriqlar o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada zavqli va samarali qiladi. (2-rasm)



2-rasm. O'yin asosida sonlar bilan tanishtirish.

Loyiha metodikasi – O'quvchilarni ijodiy fikrlashga va mustaqil izlanishga o'rgatadi. Sinfдан tashqari mashg'ulotlarda loyiha asosida ishlash orqali o'quvchilar real muammolarni hal

qilishga yo'naltiriladi, jamoa bo'lib ishlash va mas'uliyatni bo'lishish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.(3-rasm)



3-rasm. Ijodiy fikrlashga asoslangan tarqatma.

Differensial va individual yondashuv – Har bir o'quvchining qiziqishlari, qobiliyatlari va o'zlashtirish darajasiga mos ravishda mashg'ulotlarni tashkil etish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarni rag'batlantirish va ularning potensialini to'liq ochishga xizmat qiladi.(4-rasm)



4-rasm. Diqqatni tekshirish uchun ko'rgazma

Masofaviy ta'lim – Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilar istalgan joydan bilim olishlari mumkin. Onlayn kurslar, webinarlar va virtual darslar orqali o'quvchilar o'z qiziqishlariga mos mavzularni chuqurroq o'rganish imkoniga ega bo'ladilar.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali sinfdan tashqari ishlarni quyidagi shakllarda tashkil etish mumkin:

Elektron kutubxona va virtual laboratoriyalar – O'quvchilar mustaqil ravishda turli fanlarga oid elektron resurslardan foydalanib bilimlarini boyitadi. Virtual laboratoriyalar esa ayniqsa tabiiy fanlar bo'yicha tajribalarni o'tkazishda samarali vositadir.

STEM va STEAM dasturlari – Fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasiga asoslangan mashg'ulotlar o'tkazish. Ushbu yondashuv o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

Onlayn va oflayn musobaqalar – Masalan, intellektual o'yinlar, viktorinalar, fan olimpiadalari, robototexnika bo'yicha musobaqalar va turli tanlovlar o'quvchilarni rag'batlantirish va ularning bilim doirasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Teatr va sahna ko'rinishlari – O'quvchilarning badiiy ijodkorligini rivojlantirish maqsadida turli spektakllar, pantomimalar, adabiy-badiiy kechalar tashkil etish (5-rasm).



5-rasm. Sahna ko'rinishi

Ilmiy-tadqiqot va kashfiyot klublari – O‘quvchilar ilmiy tadqiqot metodlari bilan tanishib, kichik ilmiy loyihalar ishlab chiqadilar. Bu ularning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) orqali ta’lim – O‘quvchilar tarixiy voqealarni jonli tajriba sifatida o‘rganishlari yoki tabiiy fanlar bo‘yicha tajribalarni virtual muhitda sinovdan o‘tkazishlari mumkin.

Xulosa. Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarga ta’lim jarayonini yanada samarali, interfaol va qiziqarli tarzda tashkil etish imkonini beradi.

O‘qituvchilar tomonidan innovatsion yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish qobiliyatini oshiradi, ularni yangi bilimlarni o‘zlashtirishga rag‘batlantiradi va real hayotga moslashtiradi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishi ortadi, jamoaviy ish faoliyati rivojlanadi va ularning kelajakdagi kasbiy tayyorgarligi yaxshilanadi.

Shunday ekan, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan unumli foydalanish boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash, ularni zamonaviy jamiyat talablari darajasida tayyorlashga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim tizimining samaradorligini oshirish va yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xasanboyeva, M. (2020). Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Usmonov, A. (2019). Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
3. Jonibekov, S. (2021). Zamonaviy ta’lim da axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Toshkent: Ma’naviyat.
4. UNESCO (2022). Innovative Teaching and Learning Strategies. Paris: UNESCO Publishing.
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYLARI MUHITIDA INFORMATIKA FANI O‘QITUVCHILARINI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

*Rajabov Adham Umarqulovich,
Qarshi davlat universiteti dotsenti
Mastonov Jahongir Mamatqul o‘g‘li,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti E-mail:mastonovjahongir@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli ta’lim texnologiyalari sharoitida informatika fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning dolzarb metodlari tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonining raqamlashtirilishi o‘qituvchilardan nafaqat zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini, balki metodik va pedagogik yondashuvlarni yangilashni ham talab qilmoqda. Shu munosabat bilan maqolada interaktiv platformalardan foydalanish, onlayn kurslar orqali uzluksiz o‘qitish, masofaviy treninglar va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirish usullari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Raqamli ta’lim, kompetensiya, metod, informatika, masofaviy ta’lim


METHODS FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCIES OF COMPUTER SCIENCE TEACHERS IN THE ENVIRONMENT OF DIGITAL EDUCATION TECHNOLOGIES

Annotation. This article explores effective methods for developing the professional competencies of computer science teachers in the context of digital education technologies. The digitalization of the educational process requires teachers not only to master modern technologies but also to update their methodological and pedagogical approaches. The paper discusses the use of interactive platforms, continuous professional development through online courses, distance training programs, and practical workshops aimed at enhancing teachers' knowledge and skills in information and communication technologies (ICT).

Keywords: Digital education, competence, method, computer science, distance learning.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimining raqamlashtirilishi global tendensiyaga aylanib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning jadal rivojlanishi, ta'lim jarayoniga zamonaviy raqamli vositalarning keng joriy etilishi o'qituvchilardan yangi kompetensiyalarni egallashni talab qilmoqda. Kasbiy kompetensiya — bu o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini samarali bajarishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuasidir.

Raqamli ta'lim sharoitida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodlari



Rasm 1.1

Raqamli ta'lim texnologiyalari o'qituvchilarga o'z kasbiy salohiyatini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Quyida raqamli ta'lim sharoitida informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda qo'llaniladigan asosiy metodlar ko'rib chiqiladi:

1. Onlayn kurslar va vebinarlar

Bugungi kunda Coursera, EdX, Udemy, Khan Academy, "ZiyoNET" kabi platformalar orqali informatika va ta'lim texnologiyalariga oid ko'plab bepul va pullik kurslar mavjud.

2. Masofaviy treninglar va web-ustozlik(E-monitoring)

Internet orqali tashkil etiladigan treninglar, forumlar va tajriba almashish dasturlari orqali o'qituvchilar turli hududlardan bo'lgan mutaxassislar bilan hamkorlik qilishi, o'z tajribalarini baham ko'rish mumkin.

3. Interaktiv va virtual o'quv platformalaridan foydalanish

Google Classroom, Microsoft Teams, Moodle, Zoom, Quizizz, Kahoot kabi platformalar o'quv jarayonini raqamli shaklda samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

4. Loyiha asosida o'qitish (Project-based learning)

O'quvchilarning amaliy faoliyatini tashkil etish orqali informatika o'qituvchilari nafaqat o'z pedagogik yondashuvlarini boyitadi, balki zamonaviy dasturlash va IT-yechimlarga asoslangan real loyihalarda faol ishtirok etish orqali o'z bilimlarini yangilaydi.

5. Refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish

O'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilib borishi, darslarda nimalar ishladi, nimalar unchalik samarali bo'lmadi, degan savollar asosida o'z ustida ishlashi, kasbiy kompetensiyani chuqurlashtiruvchi muhim metodlardan biridir.

Jadval 1.1

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi muammolar va takliflar

№	Metod	Kompetensiyaga ta'siri
1	Onlayn kurslar	AKT, mutaxassislik
2	Loyiha asosida o'qitish	Metodik, texnik
3	Interaktiv platformalar	Pedagogik, raqamli
4	E-monitoring	Reflektiv, kommunikativ
5	Masofaviy malaka oshirish	Kasbiy, innovatsion

Asosiy muammolar.

Texnik imkoniyatlarning yetarli emasligi. Ayrim hududlardagi maktablarda internet tezligining pastligi, zamonaviy kompyuter texnikasi va raqamli vositalarning yetishmasligi o'qituvchilarning raqamli ta'lim texnologiyalaridan to'laqonli foydalanishiga to'sqinlik qilmoqda.

O'qituvchilarning raqamli savodxonligining past darajada bo'lishi. Ba'zi o'qituvchilar hali ham raqamli texnologiyalardan foydalanishda qiyinchilikka duch kelishadi.

Malaka oshirish tizimining zamon talablariga to'liq javob bermasligi. Amaldagi o'quv-seminar va malaka oshirish kurslari ko'pincha nazariy ma'lumotlarga asoslanadi va real, amaliy ko'nikmalarni yetarli darajada shakllantira olmaydi.

Takliflar. Maktablarni zamonaviy AKT vositalari bilan ta'minlash va internet infratuzilmasini yaxshilash orqali texnik bazani mustahkamlash.

O'qituvchilar uchun amaliyotga yo'naltirilgan, qisqa muddatli va moslashuvchan onlayn malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

Yangi texnologiyalarni o'rganishga qaratilgan ichki (maktab ichidagi) tajriba almashish dasturlarini (peer-learning) joriy etish.

Xulosa. Raqamli ta'lim texnologiyalari zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Informatika fani o'qituvchilari uchun bu texnologiyalarni o'zlashtirish, o'z malakasini oshirish va o'quvchilarni yuqori darajadagi bilim bilan ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Kelajakda, raqamli ta'lim ni yanada kengaytirish, innovatsion ta'lim platformalarini yaratish va o'qituvchilarning yangi texnologiyalarga moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilishi lozim. Bu nafaqat informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshiradi, balki butun ta'lim tizimining sifatini yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akhmedov, A., & G'aniyev, M. (2020). Raqamli ta'lim texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

2. Kuchkarov, S. (2021). Informatika fani o'qituvchilari uchun kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodlari. Ta'lim da yangiliklar jurnali, 15(2), 45-52.

3. Juraev, F. S., & Akbarov, Z. A. (2022). Informatika o'qituvchilarining raqamli savodxonligi: Muammolar va imkoniyatlar. Jahondagi ta'lim innovatsiyalari jurnali, 7(1), 120-128.

4. Gulomov, S., & Toshmatov, R. (2020). O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 12(4), 88-94.

BOSHLANG'ICH TA'LIM DA TEXNOLOGIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA O'YIN FAOLIYATI VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATIV AHAMIYATI

Ahrorova Shahrizoda Anvar qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti, 1-kurs magistranti ahrorovashahrizoda10@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim dagi texnologik kompetensiyani shakllantirishda o'yin faoliyati va axborot texnologiyalarining integratsion ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada o'yin metodikasining o'quvchilarning raqamli savodxonligini va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rniga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, integrativ yondashuv orqali dars jarayonining interaktiv va qiziqarli bo'lishi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini oshirish usullari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, texnologik kompetensiya, o'yin faoliyati, axborot texnologiyalari, integratsiya

ИНТЕГРАТИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье анализируется интеграция игровой деятельности и информационных технологий в процессе формирования технологической компетентности в начальном образовании. Особое внимание уделяется влиянию игровых методик на развитие цифровой грамотности учащихся и их навыков использования современных технологий. Рассматриваются подходы, способствующие повышению самостоятельного мышления и активности учеников через интерактивные уроки.

Ключевые слова: начальное образование, технологическая компетентность, игровая деятельность, информационные технологии, интеграция.

THE INTEGRATIVE IMPORTANCE OF GAMING ACTIVITIES AND INFORMATION TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF TECHNOLOGICAL COMPETENCE IN PRIMARY EDUCATION

Annotation. This article examines the integrative significance of game activity and information technologies in developing technological competence in primary education. The focus is on the role of playful methodologies in enhancing digital literacy and the ability to use modern technologies among students. The paper discusses approaches that promote independent thinking and active participation through interactive lessons.

Keywords: primary education, technological competence, game activity, information technology, integration

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat an'anaviy o'quv dasturlariga, balki o'quvchilarning amaliy ko'nikmalari, kreativ fikrlash va raqamli savodxonligini rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda dars jarayonini interaktiv usullar bilan boyitish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Ushbu maqolada o'yin faoliyati va axborot texnologiyalarining uzviy integratsiyasi orqali texnologik kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari va metodikasi tahlil qilinadi. Maqsadimiz – o'quvchilarning innovatsion tafakkurini rivojlantirish, ularni raqamli dunyo talablariga moslashtirish va dars jarayonini qiziqarli qilish yo'llarini aniqlashdir.

Texnologik kompetensiya – bu o'quvchilarning zamonaviy texnologiyalarni anglashlari, ulardan samarali foydalanishlari, shuningdek, yangi muammolarga yechim topish qobiliyatidir. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va interaktiv ta'lim usullari ta'lim tizimini tubdan o'zgartirayotganligi sababli, ushbu kompetensiyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu jarayonda o'yin faoliyati muhim instrument sifatida e'tirof etiladi. O'yin orqali o'quvchilar o'zaro muloqot, muammolarni yechish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Shuningdek, axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini vizual va interaktiv qilish orqali o'quvchilarning qiziqishi va bilim olishini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarining jadal sur'atlarda kirib kelishi natijasida o'yin faoliyati yangi format va vositalar bilan boyimoqda. Endilikda an'anaviy o'yin shakllari zamonaviy raqamli platformalarda, mobil ilovalarda yoki kompyuter dasturlarida keng qo'llanmoqda. Bu esa o'quvchilarda texnologik kompetensiyani shakllantirishning qulay, samarali va eng muhimi – motivatsion usuliga aylanmoqda. Interaktiv o'yinlar dars jarayonida quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi. **Ko'rish, eshitish va amaliy harakatlar orqali o'rganish:** Audio-vizual vositalar orqali taqdim etilgan topshiriqlar o'quvchilarning sensor tizimlarini bir vaqtning o'zida faollashtiradi. **Gamifikatsiya elementlari:** Ball yig'ish, darajalarni bosib o'tish, mukofot tizimi kabi elementlar o'quvchilarni rag'batlantiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi. **Mustaqil ishlash imkoniyati:** Interaktiv dasturlar o'quvchilarga o'z tezligida o'rganish imkonini beradi. Axborot texnologiyalari va o'yin faoliyatining birgalikdagi qo'llanilishi nafaqat o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki quyidagi jihatlarida o'quv natijalarini ham yaxshilaydi: **Muammoli vaziyatlarda yechim topish ko'nikmasini rivojlantiradi., Ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Jamoaviy ishlash, muloqot qilish madaniyatini kuchaytiradi. Raqamli muhitda erkin harakat qilish va texnologik vositalardan foydalanish malakalarini mustahkamlaydi.** O'yin metodikasi o'quvchilarni faol ishtirok etishga, ijodiy va analitik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodikada quyidagi usullar keng qo'llaniladi:

Rol o'ynash o'yinlari: Talabalar ma'lum rollarni bajarish orqali turli vaziyatlarni simulyatsiya qiladilar.

Muammo yechish o'yinlari: O'quvchilarga turli muammolar berilib, ularni yechish yo'llari qidiriladi.

Interaktiv savol-javoblar: Dars davomida onlayn testlar va interaktiv savollar orqali bilim mustahkamlanadi.

“Kahoot!”, “Wordwall”, “Quizziz” kabi platformalarda tuzilgan viktorinalar va test o'yinlari.

Scratch, Code.org kabi dasturlash asoslari o'rgatiladigan interaktiv o'yinlar orqali texnologik fikrlashni rivojlantirish.

Zamonaviy ta'lim muhitida axborot texnologiyalari dars jarayonini samarali tashkillashtirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Quyidagi texnologiyalar misol sifatida keltirilishi mumkin: Multimedia taqdimotlar: Vizual materiallar yordamida mavzular yanada tushunarliroq bo'ladi. Onlayn ta'lim platformalari: Masofaviy ta'lim va interaktiv mashg'ulotlar uchun qulay vosita. Mobil ilovalar va interaktiv dasturlar: O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Integratsion yondashuvning afzalliklari. O'yin faoliyati va axborot texnologiyalarining integratsiyasi dars jarayonini quyidagi jihatlar bilan boyitadi: Qiziqarli o'quv muhiti yaratish: O'yin va interaktiv texnologiyalar orqali o'quv jarayoni yanada jonli va qiziqarli bo'ladi.

Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish: O'yinlar orqali o'quvchilar muammolarni mustaqil yechish va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Texnologik bilimlarni mustahkamlash: Axborot texnologiyalaridan faol foydalanish orqali o'quvchilar raqamli muhitga moslashadi va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash tajribasini orttiradi.

Amaliyotda o'yin metodikasini qo'llash boshlang'ich sinflarda turli xil natijalarga olib kelmoqda. Bir qator maktablarda o'tkazilgan eksperimentlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv o'yinlar orqali o'qitish usuli o'quvchilarning darsga qiziqishini va faol ishtirokini oshiradi.

Misol uchun, interaktiv multimedia darslari va raqamli platformalar yordamida o'quvchilar mavzuni yanada mustahkam o'zlashtiradilar va mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantiradilar.

Tadqiqotlar shuni isbotladi: an'anaviy dars metodlariga nisbatan o'yin metodikasini qo'llash natijasida o'quvchilarning bilim darajasi va ijodiy yondashuvi sezilarli darajada yaxshilanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimanki, o'yin texnologiyalari orqali ta'lim jarayoniga madaniyatlararo komponentlarni integratsiyalash nafaqat ta'lim sifatini, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi., boshlang'ich ta'lim da texnologik kompetensiyani shakllantirishda o'yin faoliyati va axborot texnologiyalarining integrativ yondashuvi samarali natijalar beradi. Bu usul o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshiribgina qolmay, ularning ijodiy fikrlashini, muammolarni tahlil qilish va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Shuningdek, integratsiyalashgan yondashuv dars jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilib, o'quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusidagi tadqiqotlar ushbu yondashuvning qo'shimcha imkoniyatlari va metodik usullarini yanada chuqurroq o'rganishga qaratilgan bo'lishi lozim. Shunday qilib, o'yin metodikasi va axborot texnologiyalari yordamida boshlang'ich ta'lim da yangi innovatsion yondashuvlarni joriy etish, kelajak avlodning raqamli dunyoga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Axmadaliyev, A. (2020). Ta'lim da raqamli texnologiyalarni qo'llashning dolzarb masalalari. *Pedagogika va innovatsiyalar*, 45-56.
2. Alimova, G. (2019). Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining axborot kompetentsiyasini shakllantirishning metodik asoslari. *Oliy ta'lim muammolari*, 32-42.
4. Samadov, T. (2021). Boshlang'ich ta'lim da innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari. *Ta'lim va tarbiya ilmiy jurnali*, 22-34.
5. Rahmonov, O. (2020). Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi roli. *O'zbekiston ta'lim i va ilm-fani*, 58-69.
6. Xudoyberdiyevich, R. B., & Abdurazzoqovna, S. A. (2023). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK MAXORATINI VIRTUAL TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI. *Ustozlar uchun*, 191-198

USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LITERATURE

Kurbanova Marifat Yaxyayevna

15-IDUM teacher of mother tongue and literature of the highest category

Annotation. Our country is on the path of new innovations and the development of the digital economy the future of Uzbekistan in this period of rapid development. It is important to comprehensively support the intellectual potential and thinking ability of young people, to form the knowledge, skills and qualifications they should acquire based on the state education standard, and to improve the assessment system based on international criteria and requirements, improvement

Keywords: literature, free thinking, information and communication technologies, pedagogical technologies.

The level and effectiveness of the lesson will be high only if the teacher uses new pedagogical technologies in the course of the lesson in order to modernize the educational processes, prepare specialists who meet the world's requirements, provide them with education and follow the learner. With the development of the education system, which is an integral part of the future of every society is determined. Today, the reform and improvement of the continuous education system of our republic, which is on the path of independent development, the introduction of advanced pedagogical and information technologies and the improvement of educational efficiency have been raised to the level of state policy. Modern information and communication technologies are a new form of education and a wide opportunity was created for the development of methods. At the same time, in-depth teaching of information and communication technologies, students are great there is a problem of receiving, processing and

independent work of large amounts of data. Today it is based only on lectures the time of traditional lessons has passed. At a time when the speed of the flow of information is accelerating, it is difficult to attract the student's attention to knowledge if every lesson is not colorful. For this, the teacher needs to constantly search and be creative. In this case, especially based on the system of viewing the lesson based on games transition has a significant effect. Games should be chosen based on the student's psychology. The method of encouraging to be the first always pays off. Because that children always show themselves, walk one step ahead of their peers will come. Even in the lessons, before delivering new information, the teacher clarifies and organizes their previously acquired knowledge and ideas will be appropriate. The main educational work carried out in the lesson one of its elements is that students perform independent, free-thinking educational and practical tasks based on mutual activity, which will definitely lead to maturity in life. Any interactive methods used in lessons are educational having a character, strengthening students' knowledge, helps clarify and expand, generalize and systematize them. When we talk about the work being done to improve the quality of education, we liken the process of education to a bridge of virtue, which the teacher to take our students across the bridge as knowledgeable and broad-minded, that is, we consider teachers to be their duty. In the theoretical and practical part of the lessons effective pedagogical technology to increase students' interest. It is conducted in small groups using methods. Monitoring of the training process and necessary advice helps to pass lessons in small groups effectively..He is a master of his profession in the field of information and communication technologies to organize meetings with senior specialists, to tell students about them speaking, questions are answered with life examples. for this only advises on the need to read and study. So skilled organizing meetings and discussions with experts increases students' interest in science. Parents have children the desire to grow into a highly spiritual, educated, perfect person strengthening is necessary. In lyceum, there is regular communication with parents and they are treated with care, for the child's abilities if conditions are not created together, this ability will slowly fade and disappear the possibility of leaving, and this has a negative impact on the choice of a profession for their child information will be provided. Greater use of conferencing methods of educational technology is appropriate. This method is carried out between parallel groups. Groups they send questions to each other. The student who asked the question appears on the screen and asks the question to the students of the parallel group. Pupils sitting in class answer they give They get 5 points for the correct answer. During the semester group scores are calculated and the most active group is determined at the end of the semester. This method to make students search, to become fluent in speech, information communication encourages effective use of technologies. Modern information and communication technologies are a new form of education and a wide opportunity was created for the development of methods. At the same time, in-depth teaching of information and communication technologies, students reception, processing and independent work of large amounts of data problem is occurring. There are many who came from school to study at the lyceum students have sufficient skills for independent thinking and working it's not. Some have very little interest in learning. Capable, sought after and information that our children, who are passionate about creativity, are interested in taking in-depth lessons in communication technologies, that they will definitely grow into highly qualified specialists in the future serves as the main factor.

References

1. Shaikhislamov, N. (2021). ROLE AND FUNCTIONS OF INNOVATION AND PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING MOTHER LANGUAGE. Scientific progress, 2(3), 933-937.
2. Shaikhislamov, N. (2021). IMPROVING B1 LEVEL LEARNER'S VOCABULARY COMPETENCE. Development of science and education: opportunities and trends, (1), 37-39.
3. Shaikhislamov, N. (2021). IZUCHENIE FRAZEOLOGIZMOV S IMENAMI ChISLITELNYMI. The 21st Century Skills for Professional Activity, (8), 69-73.

4. Shaikhislamov, N., & Norboeva, D. (2021). PEDAGOGICAL EDUCATION CLUSTER-BASE OF MODERN EDUCATION. Pedagogical education cluster: problems and solutions, (1), 350-354.

5. Shaikhislamov N. (2021). SCIENTIFIC-THEORETICAL BASIS OF COULDING WATER COMPOUNDS IN WORKING DOCUMENTS. The 21st Century Skills for Professional Activity, (7), 60-63.

ELEKTRON TA'LIM RESURLARI VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Aslonov Jasur Sharifovich

Buxoro davlat pedagogika institute

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada elektron ta'lim resurslari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot madaniyatini shakllantirish metodikasi ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan o'rganilgan. Maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri, boshlang'ich ta'lim da raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi, pedagogik yondashuvlar va metodik ta'sir mexanizmlari tahlil qilingan. Elektron darsliklar, multimedia vositalari, interaktiv o'yinlar va platformalarning boshlang'ich sinf o'quvchilari axborot madaniyatini shakllantirishdagi roli nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Shu bilan birga, o'qituvchilar faoliyatida axborot xavfsizligi, media savodxonlik va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: elektron ta'lim resurslari, axborot madaniyati, boshlang'ich ta'lim, raqamli savodxonlik, pedagogik metodika, multimedia vositalari, interaktiv o'qitish, axborot xavfsizligi, media madaniyat, AKT, raqamli texnologiyalar, o'quvchi kompetensiyasi.

METHODOLOGY FOR FORMING INFORMATION CULTURE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS USING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES

Abstract. This article studies the methodology for forming information culture of primary school students using electronic educational resources from a scientific and pedagogical point of view. The article analyzes the impact of modern information technologies on the educational process, the effectiveness of using digital resources in primary education, pedagogical approaches and methodological mechanisms of influence. The role of electronic textbooks, multimedia tools, interactive games and platforms in forming information culture of primary school students is theoretically and practically covered. At the same time, proposals and recommendations for the formation of information security, media literacy and digital competencies in the activities of teachers are developed.

Keywords: electronic educational resources, information culture, primary education, digital literacy, pedagogical methodology, multimedia tools, interactive teaching, information security, media culture, ICT, digital technologies, student competence.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ

Абстрактный. В статье рассматривается методика формирования информационной культуры учащихся начальной школы с использованием электронных образовательных ресурсов с научно-педагогической точки зрения. В статье анализируется влияние современных информационных технологий на образовательный процесс, эффективность использования цифровых ресурсов в начальном образовании, педагогические подходы и методические механизмы воздействия. Теоретически и практически освещена роль электронных учебников, мультимедийных средств, интерактивных игр и платформ в

формировании информационной культуры учащихся младших классов. Одновременно разработаны предложения и рекомендации по формированию информационной безопасности, медиаграмотности, цифровых компетенций в деятельности педагогов.

Ключевые слова: электронные образовательные ресурсы, информационная культура, начальное образование, цифровая грамотность, педагогическая методика, мультимедийные средства, интерактивное обучение, информационная безопасность, медиакультура, ИКТ, цифровые технологии, компетентность учащихся.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimida yangi imkoniyatlar bilan birga yangi mas'uliyatlarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan ta'lim resurslaridan foydalanish nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning axborot madaniyatini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Axborot madaniyati deganda, axborotni qabul qilish, uni saralash, tanqidiy tahlil qilish, baholash va undan foydali xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarning shakllanishi tushuniladi. Bu madaniyatni erta yoshdan boshlab rivojlantirish zarurati jamiyatda raqamli savodxonlikning ortib borayotgan talablaridan kelib chiqadi.

Elektron ta'lim resurslari — bu o'quv materiallarini raqamli formatda taqdim etish imkonini beruvchi dasturiy vositalar, platformalar, simulyatsiya ilovalari, audio-video darsliklar va interaktiv materiallardir. Ular o'quvchilarni faol, mustaqil fikrlovchi, izlanuvchan shaxs sifatida shakllantirishda yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalarning axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonlari o'ta sezgir bo'lib, bu davrda berilgan raqamli axborot resurslari o'quvchilarning ongiga tez singadi. Shu bois, pedagoglar tomonidan elektron resurslarni tanlash, ulardan foydalanish metodikasini to'g'ri yo'lga qo'yish zarurdir. Axborot madaniyatini shakllantirish jarayonida elektron darsliklar, multimedia platformalari (Kundalik, EduPage, Google Classroom), ta'lim iy ilovalar (Kahoot, Quizizz, LearnUP), interaktiv vizual vositalar (Plickers, Mentimeter), bolalar uchun moslashtirilgan raqamli ensiklopediyalar, hamda maxsus animatsion videodarslar samarali vosita bo'la oladi. Ushbu vositalar orqali o'quvchilar mavzuni nafaqat ko'rish va eshitish orqali qabul qiladi, balki uni faol o'zlashtiradi, savol-javoblar, testlar, topshiriqlar orqali mustahkamlaydi. Bu esa axborotga nisbatan ongli yondashuvni, tahliliy fikrlashni, mantiqiy bog'liqlikni anglashni va axborot xavfsizligiga e'tiborli bo'lishni shakllantiradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, axborot madaniyati faqat texnik ko'nikmalar majmuasi emas, balki axborotdan madaniyatli, axloqiy va mas'uliyatli tarzda foydalanish layoqatidir. Boshlang'ich sinf o'quvchisida bu madaniyatni shakllantirishda o'qituvchining shaxsiy axborot kompetensiyasi, uning metodik yondashuvlari va pedagogik didaktikasi hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, o'qituvchilar uchun axborot texnologiyalari bo'yicha muntazam seminar-treninglar tashkil etish, elektron vositalardan samarali foydalanishni o'rgatish, ularni dars jarayoniga ijodiy integratsiya qilishga yo'naltirilgan metodik qo'llanmalar ishlab chiqish lozim.

Yana bir muhim jihat — boshlang'ich sinfda o'quvchilarning axborot madaniyatini shakllantirishda ota-onalarning ham ishtiroki ahamiyatlidir. Uy sharoitida bolalarning Internetdan foydalanish tartibi, axborot xavfsizligi, mos yoshga doir kontentga yo'naltirish bo'yicha ota-onalarning bilim darajasi ham bola axborot madaniyatining tarkibiy qismidir. Shu nuqtayi nazardan, elektron ta'lim resurslarining oilaviy ta'lim muhitiga integratsiyasi haqida ham ilmiy-metodik izlanishlar olib borilishi muhim. Natijaviy jihatdan aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot madaniyatini shakllantirishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish samarali metodika va ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali amalga oshirilsa, bu bolalarda mantiqiy fikrlash, tanqidiy qarash, mustaqil qaror qabul qilish, raqamli savodxonlik, ijtimoiy mas'uliyat kabi zamonaviy ko'nikmalarning barvaqt shakllanishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida, kelajakda axborotga asoslangan jamiyatda faol, mas'uliyatli va axloqiy qarorlar qabul qiluvchi fuqaroni shakllantirishda asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim sohasida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, elektron ta'lim resurslari nafaqat oliy ta'lim tizimida, balki boshlang'ich ta'lim jarayonida ham keng joriy etilmoqda. Elektron ta'lim resurslari — bu

raqamli formatdagi o'quv materiallari bo'lib, ular internet platformalari, mobil ilovalar, audio-video darsliklar, interaktiv topshiriqlar, o'yin elementlari asosida ishlab chiqilgan dasturlar orqali o'quvchining bilim olishiga xizmat qiladi. Bu resurslar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, tahlil qilish, yaratish va axborotdan foydali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Elektron resurslarning turlari turlicha: multimedial darsliklar, animatsiyalangan vizual materiallar, video darslar, interaktiv testlar, simulyatsion ilovalar, sun'iy intellekt yordamida ishlovchi platformalar, raqamli ensiklopediyalar va boshqa ko'rinishdagi vositalar. Ular o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan elektron resurslar rang-barang, jonli, oson tushunarli va qiziqarli bo'lishi lozim. Chunki bu yoshdagi o'quvchilar asosan obrazli va vizual idrok asosida bilimlarni o'zlashtiradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida elektron resurslardan foydalanishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: 1) individual yondashuvni ta'minlash; 2) ta'lim ni ko'rgazmali va interaktiv qilish; 3) o'quvchining mustaqil bilim olishini rag'batlantirish; 4) vaqt va makondan qat'iy nazar o'rganish imkoniyatini yaratish. Shu sababli, elektron ta'lim resurslari o'quv dasturlarini yanada boyitishga xizmat qilmoqda. Axborot madaniyati tushunchasi pedagogika fanida keng talqin etiladi. U o'quvchining axborotni anglash, tanlash, saralash, tahlil qilish, undan ongli foydalanish va axborot xavfsizligiga rioya qilish kabi fazilatlar yig'indisidir. Boshlang'ich ta'lim bosqichi axborot madaniyatining shakllanishi uchun asosiy pog'onadir. Chunki bu davrda bolaning shaxsiyati, fikrlash tarzi, tafakkur doirasi shakllanadi. Agar o'qituvchi bu davrda o'quvchilarda axborot bilan ishlash ko'nikmalarini to'g'ri yo'lga qo'ya olsa, kelgusida bu o'quvchilar mustaqil, izlanishga moyil, ongli qaror qabul qiluvchi shaxs bo'lib shakllanadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, axborot madaniyatini shakllantirish o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi: 1) o'quvchilar yoshiga mos metodikani tanlash; 2) dars jarayoniga interaktiv va vizual materiallarni joriy etish; 3) o'quvchini faollashtiruvchi savol va topshiriqlarni yaratish; 4) o'quvchini muloqotga undovchi usullardan foydalanish. Shu o'rinda, "Jadval bilan ishlash", "Axborotni top va taqqosla", "Muammoni yech" kabi topshiriqlar orqali o'quvchilarda axborotga nisbatan ongli yondashuvni shakllantirish mumkin.

Axborot madaniyatini shakllantirishda metodika muhim o'rinni egallaydi. Bu borada elektron vositalardan foydalanishga asoslangan metodik yondashuvlar pedagogik innovatsiyalar bilan uyg'unlashgan bo'lishi zarur. Chunki raqamli texnologiyalar bilan ishlashni o'rgatish, ularni hayotiy faoliyatga tatbiq etish axborot madaniyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Metodik yondashuvlar o'z ichiga: ko'rgazmali usullar, interaktiv metodlar, muammo asosida o'rgatish, loyihaviy yondashuv, izlanishli o'qitish kabi shakllarni qamrab oladi. Boshlang'ich sinflarda bunday yondashuvlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: 1) vizual materiallar asosida axborotni tushunish; 2) o'yinli faoliyat orqali axborotni tahlil qilish; 3) test va interaktiv mashqlar yordamida axborotni saralash; 4) loyihaviy topshiriqlar orqali axborotni ishlab chiqish. Bu yondashuvlar bolalarda nafaqat axborot bilan ishlash, balki muloqot, hamkorlik, liderlik, muammoni hal qilish kabi hayotiy ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Dars jarayonida o'qituvchi axborotni to'g'ri taqdim etish, uni oddiy tilda tushuntirish, bolalarning yoshiga mos izohlar berish, savollarga ochiq yondashuvni qo'llashi kerak. Elektron resurslar yordamida amalga oshirilgan topshiriqlar yakunida o'quvchi mustaqil fikrlashi, xulosa chiqarishi va o'z nuqtai nazarini bildirishi lozim. Shu bois bu metodika integratsiyalashgan, tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilgan bo'lishi kerak.

Axborot madaniyatini shakllantirishda o'qituvchining o'zi axborot texnologiyalarini chuqur bilishi, ulardan samarali foydalana olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining AKT kompetentligini oshirish uchun maxsus kurslar, malaka oshirish dasturlari, onlayn treninglar, metodik qo'llanmalar zarur. O'qituvchi raqamli vositalar, elektron platformalar, interaktiv doskalar, mobil ilovalar bilan ishlay olmasa, elektron resurslardan foydalangan holda axborot madaniyatini shakllantirish imkonsiz bo'ladi. Shuningdek, o'qituvchilar o'zaro tajriba almashuvi, amaliy seminarlar, ochiq darslar, innovatsion loyihalar orqali ham o'z malakalarini

oshirishi mumkin. Bu jarayon tizimli va uzluksiz bo'lishi, dars sifatiga bevosita ta'sir etuvchi mezonlar asosida baholanib borilishi zarur. Zero, axborot madaniyatini rivojlantirish pedagogdan yuksak mas'uliyat, yangilikka intilish va doimiy o'sishni talab etadi.

Bugungi kunda jamiyatda raqamli axborot oqimining jadal ortib borayotgani, global kommunikatsion tarmoqlarning kengayishi, sun'iy intellekt va internet texnologiyalarining hayotimizning barcha jabhalariga kirib kelishi sharoitida axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, bu jarayonni inson rivojining ilk bosqichlaridan – boshlang'ich ta'lim dan boshlash zaruriyati ortib bormoqda. Chunki raqamli axborot olamini to'g'ri tushunish, uni tahlil qilish, saralash, xavfsiz foydalanish kabi ko'nikmalar inson hayotining ajralmas qismiga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2022–2026 yillarga mo'ljallangan “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasida ta'lim tizimini raqamlashtirish, o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, har bir yosh fuqaroda axborot madaniyatini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa ushbu mavzuni ilmiy-amaliy jihatdan chuqur tadqiq etishni, pedagogik metodikalarni takomillashtirishni va zamonaviy elektron resurslarni o'quv jarayoniga to'laqonli integratsiya qilishni taqozo etadi. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun axborot madaniyatini shakllantirishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish ikki barobar ahamiyatlidir. Bir tomondan, bu yoshdagi o'quvchilar raqamli texnologiyalarga qiziqish bildiradilar va uni tez o'zlashtiradilar. Ikkinchi tomondan, aynan shu bosqichda ularning axborotga nisbatan ongli munosabati, mantiqiy tafakkuri, tahliliy yondashuvi va axborot xavfsizligi borasidagi odatlari shakllanadi. Bu esa axborot madaniyatini bola tafakkuriga singdirishda pedagogik yondashuvlarning ilmiy asoslangan bo'lishini talab qiladi. Shuningdek, maktab o'qituvchilari va ota-onalar axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirishda bevosita ishtirok etuvchi sub'yektlar sifatida bu boradagi o'z bilim va ko'nikmalarini zamon talablariga mos ravishda yangilab borishlari lozim. Afsuski, amaliyotda ko'plab boshlang'ich sinf darslarida elektron resurslardan foydalanish faqat texnik ko'rsatkichlar bilan cheklanmoqda va axborot madaniyatini shakllantirishning mazmun-mohiyati chuqur tahlil qilinmayapti. Bu esa yangi pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodikalarning yetarlicha o'zlashtirilmaganligini anglatadi.

Shu jihatdan mazkur mavzuni tadqiq etish — elektron ta'lim vositalarining didaktik imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish, boshlang'ich sinfda ularni metodik jihatdan to'g'ri qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqish, o'quvchilarda axborot madaniyatini barvaqt shakllantirishni ilmiy asoslash va bu boradagi tajriba-sinov ishlarini tashkil etish uchun dolzarbdir.

Xulosa. XXI asr – axborot texnologiyalari asri bo'lib, ushbu jarayon jamiyatning barcha jabhalarida, ayniqsa, ta'lim tizimida tub islohotlarni amalga oshirishni talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, elektron ta'lim resurslari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot madaniyatini shakllantirish zamonaviy ta'lim ning muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Axborot madaniyati o'quvchining axborot bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish, xavfsiz axborot muhitida harakat qilish kabi hayotiy zarur kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Elektron ta'lim resurslaridan maqsadli va metodik jihatdan asoslangan holda foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilari dunyoqarashining kengayishiga, mustaqil fikrlash va axborot bilan ongli ishlash malakalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, dars jarayonlarida multimedia, interaktiv ilovalar, raqamli o'yinlar, vizual materiallar asosida o'rgatish o'quvchilarning diqqatini jalb etadi, ularni faollikka undaydi, mustahkam bilim olishlariga yordam beradi.

Biroq mazkur faoliyatni samarali yo'lga qo'yish uchun o'qituvchilarning AKT bo'yicha bilim va malakasini uzluksiz oshirib borish, zamonaviy elektron platformalar bilan ishlash kompetentligini shakllantirish lozim. Ta'lim da elektron resurslardan foydalanishning samaradorligi ko'p jihatdan pedagogning ularni to'g'ri tanlashi, metodik asosda qo'llashi va didaktik maqsadga yo'naltirgan faoliyatiga bog'liqdir. Shuningdek, axborot madaniyatini shakllantirish bo'yicha metodik yondashuvlar – muammoli o'qitish, loyiha asosida o'qitish,

o'yinli metodlar va integratsiyalashgan texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilganda maksimal natija beradi. Bu esa o'quvchilarning nafaqat axborot bilan ishlash, balki muloqot qilish, jamoada ishlash, muammoni hal qilish kabi hayotiy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Elektron ta'lim resurslari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot madaniyatini shakllantirish samarali metodikani talab qiladigan, ayni vaqtda zamonaviy ta'lim da strategik ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Bu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar, tajriba-sinov ishlarining natijalari kelajakda raqobatbardosh, axborotga mas'uliyatli yondasha oladigan intellektual avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kattabekova M., Soliyeva D. "Pedagogik texnologiyalar va axborot madaniyati". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 167 b.
2. Raxmonova M. "Raqamli vositalar orqali interaktiv dars tashkil etish metodikasi". – Andijon: ADTO, 2022. – 110 b.
3. G'ulomova Sh. "AKT vositalari orqali o'quvchilarda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish". – Nukus: QDU, 2021. – 133 b.
4. Sharipova M. "Boshlang'ich ta'lim da media savodxonlikni rivojlantirish texnologiyalari". – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – 118 b.
5. Saidova G. "O'quvchilarda axborotga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishning didaktik asoslari". – Qarshi: QDPI, 2023. – 140 b.
6. Ahmadaliyeva D. "Elektron darsliklardan foydalanish va o'quvchilarda axborot savodxonligini rivojlantirish". – Toshkent: Ilm, 2020. – 121 b.
7. Rasulov A. "Ta'lim da raqamli resurslar: imkoniyatlar va metodik yondashuvlar". – Toshkent: Innovatsion ta'lim, 2023. – 135 b.
8. Buxorov N. "Axborot xavfsizligi va bolalar muhofazasi: zamonaviy qarashlar". – Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2021. – 98 b.
9. Solijonov I. "Axborotga asoslangan ta'lim va raqamli pedagogika". – Toshkent: Ziyonashr, 2024. – 147 b.
10. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim i vazirligi. "Raqamli ta'lim kontsepsiyasi". – Toshkent, 2022. – 37 b.
11. Yusupova S. "Media madaniyat va axborot maydonida bolalar xavfsizligi". – Farg'ona: FPI, 2023. – 101 b.
12. Mahmudov T. "Ta'lim da elektron platformalar va ularning samaradorligi". – Toshkent: Innovatsiya, 2021. – 116 b.
13. Habibullayeva U. "Raqamli o'qitish metodikasi va boshlang'ich sinflar uchun didaktik resurslar". – Qarshi: QDU, 2023. – 124 b.
14. Azizova M. "Multimedia darsliklar asosida axborot madaniyatini shakllantirish". – Buxoro: Ilm ziyo, 2024. – 130 b.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA TA'LIM SOHASIDAGI O'RNI VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Elmurodova Dilnoza Shuhrat qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi
Ro'ziyeva Sevinch Maxmud qizi
Ibodullayeva Barno Ulug'bek qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamli texnologiyalar va ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni tahlil qiladi, raqamli texnologiyalar nafaqat o'qitish usullarini, balki o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, o'zlashtirish darajasini yaxshilash va ta'lim tizimida ijtimoiy muvozanatni yaratishdagi roli haqida ham gapiriladi. Maqolada texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari muhokama qilinadi, shuningdek, ta'lim tizimida ularni samarali qo'llash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit soʻzlar. Raqamli texnologiyalar, taʼlim , onlayn taʼlim , virtual haqiqat, kengaytirilgan haqiqat, interaktiv taʼlim , elektron taʼlim resurslari, raqamli ilovalar, ilm-fan, oʻquv platformalari, raqamli oʻqitish, innovatsion taʼlim , taʼlim da texnologiya.

РОЛЬ И ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье анализируются цифровые технологии и изменения в системе образования. Рассматривается роль цифровых технологий не только в методах обучения, но и в повышении мотивации учащихся, улучшении уровня усвоения знаний и создании социального баланса в системе образования. Обсуждаются преимущества и недостатки технологий, а также даются рекомендации по их эффективному применению в образовательной системе.

Ключевые слова: цифровые технологии, образование, онлайн-обучение, виртуальная реальность, дополненная реальность, интерактивное обучение, электронные образовательные ресурсы, цифровые приложения, наука, учебные платформы, цифровое преподавание, инновационное образование, технологии в образовании.

THE ROLE AND INNOVATIVE APPROACHES OF DIGITAL TECHNOLOGIES AND EDUCATION

Annotation: This article analyzes digital technologies and changes in the education system. It discusses the role of digital technologies not only in teaching methods but also in increasing students' motivation, improving the level of knowledge acquisition, and creating social balance within the education system. The article examines the advantages and disadvantages of these technologies and provides recommendations for their effective use in the education system.

Keywords: Digital technologies, education, online learning, virtual reality, augmented reality, interactive learning, electronic educational resources, digital applications, science, learning platforms, digital teaching, innovative education, technology in education.

Kirish. Hozirgi kunda texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga kirib borayotgan boʻlsa-da, taʼlim tizimida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ayniqsa ahamiyatlidir. Anʼanaviy oʻqitish metodlari koʻpincha oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajalariga mos kelmasligi yoki ular uchun qiyinchilik tugʻdirishi mumkin. Shu sababli, raqamli texnologiyalarni taʼlim tizimiga integratsiyalash raqamli oʻqitish usullarini va resurslarini taqdim etadi, bu esa taʼlim jarayonini yanada samarali, interaktiv va moslashtirilgan qiladi. Taʼlim sohasidagi raqamli innovatsiyalar, shu jumladan onlayn platformalar, virtual va kengaytirilgan haqiqiyat texnologiyalari, oʻquvchilarga yangi oʻqish imkoniyatlarini yaratib, bilim olish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli texnologiyalar va taʼlim sohasidagi tadqiqotlar koʻplab ilmiy maqolalar va ishlanmalar orqali oʻrganilgan. Kettunen (2020) tomonidan oʻtkazilgan tadqiqotda, raqamli taʼlim platformalarining interaktiv va shaxsiylashtirilgan oʻquv tajribalarini yaratishda muhim oʻrin tutishi koʻrsatilgan. Uning fikricha, raqamli texnologiyalar oʻquvchilarga oʻzlari uchun mos keladigan oʻquv resurslarini tanlash va oʻrganish tezliklarini nazorat qilish imkonini beradi. Baxshi va Ismail (2019) tomonidan oʻrganilgan virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalarining taʼlim da qoʻllanilishi oʻquvchilarni mavzularni yaxshiroq oʻzlashtirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar yordamida oʻquvchilar sinf xonasida boʻlmagan holatda ham oʻrganilgan materiallarni koʻrish va amalda tatbiq etish imkoniyatiga ega boʻladilar. Biroq, Zhang va Liu (2021) tadqiqotida raqamli taʼlim ning barcha talabalar uchun teng imkoniyat yaratmasligi va baʼzi kamchiliklari mavjudligi taʼkidlangan. Ularning fikricha, texnologiya resurslariga kirish imkoniyati cheklangan oʻquvchilar uchun masofaviy taʼlim ni samarali qoʻllash qiyinlashadi.

Maqolada foydalanilgan metodologiya asosan adabiyotlarni tahlil qilish, raqamli taʼlim platformalari va texnologiyalarining samaradorligini oʻrganishdan iboratdir. Ushbu tadqiqotda

onlayn ta'lim platformalarining ta'lim jarayoniga ta'siri va raqamli texnologiyalarning o'quvchilarning bilim olish darajasiga qo'shgan hissasi o'rganildi. Tadqiqotda onlayn platformalarda, masalan, Coursera, Khan Academy, edX, va boshqa raqamli platformalarda ta'lim olgan o'quvchilarning muvaffaqiyatlari va natijalari tahlil qilingan. Shuningdek, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari yordamida amalga oshirilgan o'qish tajribalari ham tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqildi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning mavzularni o'zlashtirishdagi samaradorligini qanday oshirishi va ular tomonidan qanday qabul qilinishi haqida malumotlar to'plandi.

Texnologiya – bu ilm-fan va muhandislik bilimlarini amaliyotda qo'llash orqali inson hayotini yengillashtirish va yaxshilashga qaratilgan jarayonlar, vositalar, tizimlar va asboblarning yig'indisidir.

Raqamli texnologiya va bilim olish o'rtasidagi aloqalar zamonaviy ta'lim ning asosiy unsurlaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, asosan, internet va kompyuter tizimlari orqali bilim olish jarayonini yanada samarali va osonlashtiradi. Quyidagi yo'nalishlarda raqamli texnologiyalar bilim olishni o'zgartirgan:

Onlayn ta'lim : Internetda mavjud bo'lgan turli onlayn kurslar, ma'ruzalar va ta'lim platformalari yordamida istalgan joyda va istalgan vaqtda ta'lim olish mumkin. Masalan, Coursera, Khan Academy, edX kabi platformalar ta'lim resurslarini taqdim etadi.

O'quv materiallariga oson kirish: Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilar va talabalar ilmiy maqolalar, kitoblar, video darslar va boshqa ta'lim resurslarini tezda topa olishadi. E-kitoblar, audiokitoblar, ilmiy maqolalar va videolar ta'lim jarayonini boyitadi.

Interaktiv o'rganish: Kompyuter va mobil ilovalar o'quvchilarga interaktiv tarzda bilim olish imkonini beradi. Masalan, turli testlar, simulyatsiyalar va o'yinlar orqali o'quvchi o'rganayotgan mavzularni amalda sinab ko'rishi mumkin.

Masofaviy ta'lim : Raqamli texnologiyalar masofaviy ta'lim ni rivojlantirdi. O'quvchilar yoki talabalar o'zlarining joylashuvlaridan qat'i nazar, darslarga qatnashishlari, ma'lumotlarni olishlari va baholash tizimlariga kirishlari mumkin.

Raqamli texnologiyalar bilim olishda ko'p imkoniyatlarni taqdim etsa-da, ularning samarali ishlatilishi uchun foydalanuvchilarni tanlash va foydalanish madaniyati ham muhimdir. Ular to'g'ri va maqsadga yo'naltirilgan tarzda foydalanilsa, ta'lim jarayoni ancha samarali bo'lishi mumkin.

Resurslarga oson kirish. Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilar va talabalar dunyo bo'ylab mavjud bo'lgan ilmiy maqolalar, kitoblar, darsliklar va video materiallarga oson kirish imkoniyatiga ega. E-kitoblar, video darsliklar va ilmiy jurnallar ilmiy va ta'lim resurslarini tezda topishga yordam beradi.

Kommunikatsiya va hamkorlik. Raqamli texnologiyalar o'quvchilarni bir-biri bilan oson muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. Onlayn forumlar, videokonferensiyalar va guruh chatlari yordamida talabalar bir-birlariga yordam berishlari, birgalikda ishlashlari va o'rganishlari mumkin. Bu hamkorlik o'rganish jarayonini boyitadi va yanada samarali qiladi.

6. Onlayn testlar va baholash. Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini onlayn tarzda baholashlari mumkin. Bu testlar real vaqt rejimida taqdim etiladi va natijalar darhol ko'rsatiladi. Bu o'quvchilarga o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini tezda aniqlash imkonini beradi.

Yangi imkoniyatlar yaratish. Raqamli texnologiyalar orqali yangi o'rganish shakllari paydo bo'ldi. Masalan, videolar yordamida o'rganish, podcastlar eshitish, va ijtimoiy tarmoqlarda bilim almashish kabi imkoniyatlar mavjud. Bu turli xil o'rganish usullarini qo'llashni ta'minlaydi, shu bilan birga, o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar bilim olish jarayonida yanada mustahkam asoslarni yaratadi va o'quvchilarga yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatini beradi. Ular yordamida o'quvchilar o'z vaqtlarini tejash, bilimlarini kengaytirish va yanada samarali o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Raqamli texnologiya, axborotlarni raqamli shaklda saqlash, uzatish va qayta ishlashga imkon beruvchi texnologiyalardir. Bu texnologiyalar, kompyuterlar, internet, mobil qurilmalar, dasturlar va boshqa elektron vositalar orqali amalga oshiriladi. Raqamli texnologiyalar hayotimizning ko'plab sohalarida, masalan, kommunikatsiya, ta'lim, tibbiyot, biznes va boshqa ko'plab sohalarda keng qo'llaniladi. Ular axborot almashishning tezligini va samaradorligini oshiradi, shuningdek, global miqyosda bog'lanish imkoniyatlarini yaratadi.

Natija. Tadqiqotning natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada samarali va qulay qilishda katta rol o'ynaydi. Onlayn ta'lim platformalari orqali talabalar o'zlarining ehtiyojlariga mos ta'lim olishlari mumkin. Shuningdek, virtual va kengaytirilgan haqiqiyat texnologiyalarining qo'llanilishi o'quvchilarni mavzular bilan bevosita muloqotga kirishishga, amaliyotda sinab ko'rishga va o'rganilgan materiallarni vizual tarzda ko'rishga yordam beradi. Bu esa ta'limni yanada samarali va esda qoladigan qiladi. Misol uchun, VR texnologiyalari yordamida talaba tarixiy joylarga virtual sayohatlar qilishi yoki biologiya fanida organik birikmalarni virtual tarzda o'rganishi mumkin. Shu bilan birga, barcha o'quvchilar uchun raqamli resurslarga kirish imkoniyati cheklangan bo'lishi mumkin, bu esa ta'lim tizimining global miqyosda teng imkoniyatlar yaratishidagi muammolarga olib kelishi mumkin.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimida yangi imkoniyatlar yaratadi va o'quvchilarga bilim olishda yanada samarali, interaktiv va individual yondashuvni taqdim etadi. O'quvchilar o'zlari uchun mos resurslarni tanlash va o'rganish jarayonida to'liq erkinlikka ega bo'ladilar. Raqamli ilovalar va ta'lim platformalarining qo'llanilishi, shuningdek, virtual va kengaytirilgan haqiqiyat texnologiyalarining ta'lim jarayoniga qo'shgan hissasi yuksak natijalar berishi mumkin. Biroq, raqamli ta'limni joriy etishda texnik infratuzilmaning yaxshilanishi, o'qituvchilar va talabalar uchun texnologiyalarga oid malakalarni oshirish zarur. Bundan tashqari, raqamli ta'limning samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarning motivatsiyasi va ta'limga bo'lgan yondashuvi ham muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimining har tomonlama rivojlanishiga katta hissa qo'shadi, ammo uning muvaffaqiyatli qo'llanilishi uchun barcha tomondan o'zaro hamkorlik zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kettunen, P. (2020). Digital learning platforms: An exploration of their impact on student engagement and academic success. *Journal of Educational Technology*, 15(4), 234-245.
2. Baxshi, T., & Ismail, A. (2019). The role of virtual and augmented reality in modern education. *International Journal of Educational Innovations*, 12(1), 75-89.
3. Zhang, Y., & Liu, X. (2021). Barriers to digital education: Addressing challenges for students and teachers. *Educational Research Review*, 8(2), 51-64.
4. Anderson, C., & Madsen, J. (2018). The integration of online learning platforms in higher education: A review of the global trends. *Journal of Online Learning and Teaching*, 14(3), 215-227.
5. Smith, L., & Brown, S. (2022). Virtual reality in education: An empirical study of its impact on student learning outcomes. *Technology and Education Review*, 19(1), 102-115.

STEAM TEXNOLOGIYALARINING MAKTABGACHA TA'LIM DA O'RNI

Jamolova Shoyira Uyg'un qizi

*Buxoro davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 2-bosqich magistranti*

To'yeva Z.N.

Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.

Annotatsiya. Ushbu maqolada STEAM texnologiyalarining maktabgacha ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi bolalarning tanqidiy fikrlash, ijodiy muammolarni hal qilish, mantiqiy tafakkur va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Maqolada STEAM elementlarini bolalar

uchun qiziqarli va interfaol mashg'ulotlarga tatbiq etish usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, harakatli o'yinlar orqali bolalarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Mazkur tadqiqot natijalari STEAM yondashuvini maktabgacha ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish bo'yicha muhim nazariy va amaliy asoslarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: STEAM texnologiyalari, maktabgacha ta'lim, integratsiyalashgan ta'lim, tanqidiy fikrlash, ijodiy tafakkur, harakatli o'yinlar, muammolarni hal qilish, interfaol mashg'ulotlar, amaliy ko'nikmalar, innovatsion pedagogika.

РОЛЬ ПАРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В данной статье описывается роль и значение STEAM-технологий в системе дошкольного образования. Подход STEAM (наука, технология, инженерия, искусство, математика) помогает детям развивать критическое мышление, творческое решение проблем, логическое мышление и практические навыки. В статье рассматриваются методы применения элементов STEAM в интересных и интерактивных занятиях для детей. Также даются рекомендации по развитию знаний и умений детей посредством подвижных игр. Результаты данного исследования обеспечивают важную теоретическую и практическую основу для успешной интеграции подхода STEAM в процесс дошкольного образования.

Ключевые слова: STEAM-технологии, дошкольное образование, интегрированное образование, критическое мышление, творческое мышление, экшн-игры, решение задач, интерактивная деятельность, практические навыки, инновационная педагогика.

THE ROLE OF STEAM TECHNOLOGIES IN PRE-SCHOOL EDUCATION

Abstract: This article describes the role and importance of STEAM technologies in the preschool education system. STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) approach helps children to develop critical thinking, creative problem solving, logical thinking and practical skills. The article examines methods of applying STEAM elements to interesting and interactive activities for children. Recommendations on developing children's knowledge and skills through action games are also given. The results of this research provide important theoretical and practical foundations for the successful integration of the STEAM approach into the preschool education process.

Key words: STEAM technologies, preschool education, integrated education, critical thinking, creative thinking, action games, problem solving, interactive training, practical skills, innovative pedagogy.

Bugungi kunda STEAM (Science – Fan, Technology – Texnologiya, Engineering – Muhandislik, Art – San'at, Mathematics – Matematika) ta'lim yondashuvi nafaqat maktab va oliy ta'lim muassasalarida, balki maktabgacha ta'lim tizimida ham faol qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuv bolalarning tabiiy qiziqishini qo'llab-quvvatlash, ularni mustaqil izlanishga undash va turli muammolarni ijodiy hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

STEAM texnologiyalarining maktabgacha ta'lim dagi asosiy vazifalari:

1. Bolalarning tabiiy qiziqishini uyg'otish va rivojlantirish – STEAM yondashuvi orqali bolalar turli tajribalar, kuzatishlar va o'yinlar orqali o'zlari uchun yangi bilimlarni kashf qiladi.

2. Muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish – bolalar real hayotga oid muammolar bilan shug'ullanib, ularni o'z ijodiy va mantiqiy tafakkuri yordamida hal qilishga o'rganadi.

3. Amaliy bilim va ko'nikmalarni oshirish – bolalar harakatli o'yinlar, eksperimentlar va konstruktorlik mashg'ulotlari orqali o'rganish jarayonida ishtirok etadi, bu esa ularning bilimlarni amaliyotda qo'llay olishiga yordam beradi.

4. Jamoaviy ishlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish – STEAM texnologiyalari asosida tashkil etilgan o'yinlar va topshiriqlar bolalarni birgalikda ishlash, fikr almashish va jamoa bo'lib muammolarni hal qilishga o'rgatadi.

5. Ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish – san‘at (Art) elementi orqali bolalar o‘z g‘oyalarini ifoda etish, tasavvurini kengaytirish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

6. Matematika va texnologiyaga qiziqishni oshirish – bolalar erta yoshdan matematik tushunchalar, texnologik jarayonlar va muhandislik asoslari bilan tanishib, ularni kundalik hayotda qo‘llashni o‘rganadi.

STEAM texnologiyalarini maktabgacha ta‘lim ga integratsiya qilish usullari:

✓ Harakatli o‘yinlar orqali o‘rganish – bolalar mexanika, muvozanat, tortishish kuchi kabi ilmiy tushunchalarni o‘yin orqali tushunib yetadi.

✓ Konstruktorlik va loyihalash faoliyatlari – Lego, bloklar va boshqa qurilish materiallari orqali bolalar o‘z loyihalarini yaratib, muhandislik asoslarini o‘rganadi.

✓ Tabiiy hodisalarni kuzatish va tajriba o‘tkazish – suv, qum, magnit, yorug‘lik, havo kabi elementlar bilan turli tajribalar o‘tkazish orqali bolalar tabiiy fanlar bo‘yicha dastlabki tushunchalarga ega bo‘ladi.

✓ San‘at va ijodkorlik mashg‘ulotlari – musiqiy, badiiy va teatr elementlarini qo‘shish orqali bolalar o‘z g‘oyalarini erkin ifoda etadi.

✓ Matematik o‘yinlar – shakllar, o‘lchamlar, miqdorlar va naqshlar bilan ishlash orqali bolalar matematik mantiqni rivojlantiradi.

STEAM texnologiyalarining maktabgacha ta‘lim da qo‘llanilishi bolalarning tabiiy qiziqishini qo‘llab-quvvatlash, ularni faol o‘rganish jarayoniga jalb qilish va muhim hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Harakatli o‘yinlar bilan boyitilgan STEAM faoliyatlari esa ta‘lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi.

STEAM ta‘lim ining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Fanlararo integratsiya – Ilmiy va texnologik yo‘nalishlarni yagona tizim sifatida uyg‘unlashtirish (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics).

2. Amaliyotga yo‘naltirilganlik – Nazariy bilimlarni real hayotga tadbqiq etish, tajriba va loyihalar asosida o‘qitish.

3. Ijodiy va tanqidiy fikrlash – Muammolarni turli usullar bilan hal qilish, kreativ yondashuvni rivojlantirish.

4. Hamkorlik va jamoaviy ish – Bolalarni guruhda ishlashga, o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga o‘rgatish.

5. Muammo asosida o‘qitish (PBL – Problem-Based Learning) – Turli muammolarni o‘rganish va ularga echim topish orqali bilimlarni mustahkamlash.

6. Eksperiment va tadqiqotga asoslangan ta‘lim – Bolalarni qiziqtiradigan tajribalar o‘tkazish va o‘z natijalarini tahlil qilish.

7. Texnologiyadan samarali foydalanish – Dasturiy vositalar, robototexnika, raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitish jarayonini boyitish.

Maktabgacha ta‘lim da bu tamoyillar harakatli o‘yinlar, interaktiv darslar va amaliy mashg‘ulotlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Maktabgacha ta‘lim da STEAM texnologiyalarini qo‘llagan holda harakatli o‘yinlar bolalarning jismoniy faolligini oshirish bilan birga, ularning ilmiy bilimlarini ham chuqurlashtiradi. Bunday o‘yinlar orqali bolalar tajribalar o‘tkazish, muammolarni hal qilish va jamoaviy ishlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.

STEAM asosida harakatli o‘yinlar misollari

1. “Rangli harakat” (Science + Arts + Math)

Bolalar rangli kartochkalar yoki chizilgan doiralarga sakrash orqali ranglar va shakllarni o‘rganadilar.

Masalan, o‘yin boshlovchisi “Qizil va uchburchak!” desa, bolalar shu rang va shaklga mos joyga sakrashadi.

2. “Mexanik odam” (Engineering + Technology)

Bolalar robot yoki mexanik qo‘g‘irchoq harakatlarini taqlid qilib, turli topshiriqlarni bajaradilar.

Masalan, ularga “qo‘llaringni ko‘tar, ikki marta sakra” kabi buyruqlar beriladi.

3. “To‘lqin harakati” (Science + Engineering)

Bolalar ip, to‘p yoki boshqa vositalardan foydalanib, fizik hodisalarni tushunishadi.

Masalan, arqonni tebratish orqali to‘lqinlar qanday harakat qilishini kuzatish.

4. “Matematik yugurish” (Math + Physical Activity)

Polga turli raqamlar yoki misollar yozilgan kartochkalar joylashtiriladi.

Bolalar yugurib borib, to‘g‘ri javob berilgan kartochkani olib kelishadi.

5. “Ovozli qidiruv” (Technology + Engineering)

Bolalar turli tovush manbalarini eshitib, ularning kelib chiqishini topishga harakat qiladilar.

Masalan, musiqa chalib yoki tabiiy tovushlarni eshittirib, bolalar ularning manbalarini topadilar.

6. “Quruvchi bolalar” (Engineering + Arts)

Bolalar turli modullardan (karton, konustruktur, legolar) foydalanib, inshootlar quradilar.

Qurilishga ketadigan vaqtni hisoblash yoki uning barqarorligini sinash mumkin.

Bu o‘yinlar orqali bolalar nafaqat harakat qiladi, balki ilm-fanga bo‘lgan qiziqishlari ham ortadi.

Maktabgacha ta’lim da STEAM asosida harakatli o‘yinlarni rejalashtirish bo‘yicha namunaviy dastur.

Dastur mavzusi: “STEAM orqali harakat va bilim”

Maqsad: Bolalarning jismoniy faolligini oshirish, muvozanatni saqlash, matematik va ilmiy tushunchalarni o‘yin orqali o‘rganish.

1. Dastur maqsadi :

- Harakatli o‘yinlar orqali STEAM fanlariga bo‘lgan qiziqishni oshirish.
- Bolalarning jismoniy, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Vazifalar:

- Bolalarning motorikasi, muvozanat, e’tibor va diqqatini rivojlantirish.
- Fan (Science): Tabiat va fizik hodisalarni tushunish.
- Texnologiya (Technology): Oddiy texnologik vositalardan foydalanish.
- Muhandislik (Engineering): Qurilish va konstruktorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- San’at (Arts): Ranglar, shakllar va dizayn bo‘yicha bilim berish.
- Matematika (Math): Raqamlar, shakllar va o‘lchov birliklarini o‘yin orqali o‘rganish.

2. Dastur mazmuni va rejalashtirilgan o‘yinlar:

Dastur 4 hafta davomida har haftada 2 ta harakatli STEAM o‘yini o‘tkaziladigan tarzda tuziladi.

1-hafta: Ilmiy tadqiqotlar va harakat

O‘yin 1: “Tabiat sirlari” (Science + Harakat)

Maqsad: Bolalar turli tabiiy hodisalar (shamol, suv, tortish kuchi) haqida tushuncha olishadi.

Materiallar: Shamol uchun yelpig‘ich, suv uchun idish, sharlar.

O‘yin jarayoni: Bolalar shamol esayotgan tomonga yugurishadi. Suv bilan tajriba qilib, unga narsa tashlash orqali og‘irlikni tushunishadi. Sharlarga urilib, ular qanday harakat qilishini kuzatishadi.

O‘yin 2: “Raqamli sakrash” (Math + Harakat)

Maqsad: Raqamlarni tanish va ularni tartib bilan o‘rganish.

Materiallar: Polga yozilgan raqamlar yoki kartonlar.

O‘yin jarayoni: Bolalar aytilgan raqam ustiga sakrashadi. Juft va toq sonlarni ajratish uchun mos raqamlarga yugurishadi.

2-hafta: Texnologiya va muhandislik harakatda

O‘yin 3: “Mexanik odam” (Technology + Engineering + Harakat)

Maqsad: Texnologik jarayonlarni tushunish va mexanik harakatlarni takrorlash.

Materiallar: Oddiy robot qo‘g‘irchoqlari yoki mexanik qo‘llar.

O'yin jarayoni: Bolalar robot harakatlarini taqlid qilishadi (sekin yurish, qo'lni burish, to'xtash). Buyruqlar berish orqali bolalar muayyan yo'nalishda harakat qilishadi.

O'yin 4: "Ko'prik quramiz" (Engineering + Math + Harakat)

Maqsad: Muhandislik tafakkurini rivojlantirish.

Materiallar: Yog'och kublar, karton, ip.

O'yin jarayoni: Bolalar turli materiallardan mustahkam ko'prik yasashadi. Ular yaratgan ko'priklardan yurib o'tib, uning qanchalik mustahkamligini sinashadi.

3-hafta: San'at va matematik harakat

O'yin 5: "Rangli marshrut" (Arts + Math + Harakat)

Maqsad: Ranglar va shakllarni o'rganish.

Materiallar: Rangi va shakli har xil bo'lgan qog'ozlar, yo'lakcha chizilgan pol.

O'yin jarayoni: O'qituvchi "qizil doira" desa, bolalar shu shakl va rangga yugurishadi. Shakl va ranglarni birlashtirish orqali muvozanat mashqlari bajariladi.

O'yin 6: "Geometriya harakatda" (Math + Harakat)

Maqsad: Geometrik shakllarni tanish va tushunish.

Materiallar: Yirik geometrik shaklli kartonlar.

O'yin jarayoni: Bolalar uchburchak, to'rtburchak, aylana shakllari ustiga yurishadi. O'yin davomida geometrik shakllar nomi va xususiyatlari tushuntiriladi.

4-hafta: Muvozanat, strategiya va tadqiqot

O'yin 7: "Tortish kuchi sinovi" (Science + Harakat)

Maqsad: Og'irlik va muvozanat tushunchalarini o'rganish.

Materiallar: Og'ir va yengil predmetlar.

O'yin jarayoni:

Bolalar muvozanat doskasida turib, og'irlikni tenglashtirishga harakat qilishadi.

Har xil og'irlikdagi narsalarni bir qo'ldan ikkinchi qo'lga o'tkazib, tortishish kuchini his qilishadi.

O'yin 8: "Ovozli qidiruv" (Technology + Science + Harakat)

Maqsad: Eshitish va diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantirish.

Materiallar: Tabiiy tovushlar yozilgan audio yoki musiqa vositalari.

O'yin jarayoni: Bolalar turli tovushlar orqali narsalarni topishga harakat qilishadi. O'yin davomida eshitish sezgirligi rivojlantiriladi.

3. O'yin natijalarini baholash

❖ Kuzatuv orqali: Har bir bola qanday ishtirok etgani, qanday qiyinchiliklarga duch kelgani qayd etiladi.

❖ Savol-javob orqali: O'yindan keyin bolalarga "Bugun nima o'rgandingiz?" kabi savollar beriladi.

❖ Jamoaviy muhokama: Bolalar guruhlariga bo'linib, tajribalar va o'yin natijalari bo'yicha fikr almashishadi.

Bu dastur orqali bolalar harakat qilgan holda o'rganish, STEAM fanlariga qiziqishni oshirish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.V. Grosheva, Sh.Sh. Miziyoieva, L.G. Yevstafeva, D.T. Maxmudova, Sh.B. Nabixanova, S.V. Pak va boshqalar. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T: 2022.

2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lim - tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. T., 2020 y

3. I.V. Grosheva, G.E. Djanpeisova, U.T. Mikailova, M.A. Ismailova, D.A. Kenjabayeva, N.B. Gulyamova, N.A. Miftayeva "O'yin orqali ta'lim olish". O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirligi. T.: 2020 y

4. Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna. "Maktabgacha ta'lim da STEAM texnologiyalari" o'quv qo'llanma - Toshkent: Tamaddun.: 2022.

ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA "LIFELONG LEARNING" KONSEPSIYASINING UYG'UNLIGI

Hakimova Nargiza Supxonovna
BuxDPI, Umumiy pedagogika kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Maqolada "insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi" ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar sifatida tadqiq qilingan. Shuningdek, o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, "lifelong learning" tamoyili asosida o'qitishning samaradorligi ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: uzluksiz kasbiy rivojlanish, "hayot davomida o'qish" tamoyili, uzluksiz ta'lim, hayot davomidagi ta'lim tizimi.

НЕПРЕРЫВНОЕ ОБУЧЕНИЕ» В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ ГАРМОНИЯ КОНЦЕПЦИИ

Аннотация: В статье рассматривается «непрерывное обучение» как основополагающий принцип в сфере образования. Также научно и педагогически обоснованы основные направления непрерывного профессионального развития педагогов, эффективность преподавания на основе принципа «обучения в течение всей жизни».

Ключевые слова: непрерывное профессиональное развитие, принцип «обучения в течение всей жизни», непрерывное образование, система непрерывного обучения.

"LIFELONG LEARNING" IN MODERN EDUCATIONAL ENVIRONMENT HARMONY OF THE CONCEPT

Abstract: The article examines the "lifelong learning" as a fundamental principle in education. It also examines the main directions of continuous professional development of teachers, the effectiveness of teaching based on the principle of "lifelong learning" scientifically and pedagogically.

Keywords: continuous professional development, the principle of "lifelong learning", continuous education, lifelong learning system.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Respublikada uzluksiz ta'lim tizimining tuzilmasi va mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajribaga tayangan holda tubdan isloh qilishni ko'zda tutadi. Buning uchun, avvalo, ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini ilg'or, ilmiy-metodik jihatdan asoslangan yangi va zamonaviy metodika bilan ta'minlash, sifatli ta'lim muhitini yaratish uchun mas'ul bo'lgan o'qituvchi-pedagoglarni zamon talabi va jamiyat ehtiyojlari asosida kasbiy rivojlantirish, ularni o'qitish va ta'lim berish, shuningdek, "lifelong learning" tamoyili asosida uzluksiz malakasini oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali ta'lim sifatini oshirish, jahon tajribasi va milliy ustuvorlik asosida ta'lim berishning amalga oshirilishi muhim vazifalardan biridir. Bu masala dunyo ta'lim tizimida qizg'in muhokama qilinmoqda, xususan, ta'lim XXI asrning jahon miqyosidagi barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi¹. Yevropa ittifoqi Komissiyasining pedagogik ta'limni takomillashtirish bo'yicha takliflari uzluksiz kasbiy rivojlanishning "hayot davomida o'qish" tamoyilini yaqqol namoyish qiladi. Unga ko'ra – dastlabki uch yil ichida kasbiy faoliyatga olib kirish dasturlari; – ko'proq tajribaga ega bo'lgan hamkasblarning maslahat berishi; – o'qituvchilarni ishlayotgan maktablarining rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqib ularning malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojlari muhokamasi va malaka oshirish dasturlari; – keyinchalik norasmiy va informal o'quvlar orqali olingan kompetensiyalarni tan olish sharti bilan uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun shart-sharoitlarni

yaratish; – uzluksiz kasbiy rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi. Respublikamizda ham “insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi” ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar sifatida belgilangan³. Bularning barchasi yillar davomida kattalar ta’lim i bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan “lifelong learning” g‘oyasini keltirib chiqardi. “lifelong learning” tamoyili asosida uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini yaratishning dolzarbligini yurtimizda ilk marta O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda qabul qilingan “Ta’lim - tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarorida dolzarb vazifa sifatida qayd etilishi bilan ham izohlashimiz mumkin.

Yurtimizda “hayot davomida o‘qish” atamasi dastlab 2018-yillardan boshlab ilmiy adabiyotlarda qayd etila boshlandi². Bunda xalq ta’lim i xodimlarining uzluksiz ta’lim i va uni tashkil etish tamoyillari, o‘qituvchilarning pedagogik mahorati va kasbiy rivojlanishiga yangicha qarashlar, katta yoshdagilarning mustaqil ta’lim i, uni tashkil etishning usul va vositalari, shuningdek, an’anaviy va hayot davomida o‘qitishning farqli jihatlari haqida batafsil yoritildi. Mualliflar ta’kidlashicha, uzluksiz ta’lim bir tomondan “hayot davomida o‘qish”ni anglatga, boshqa talqini avval olingan ma’lumot, kattalarning o‘ziga xos ehtiyojlari, shuningdek, ta’lim iy faoliyat tajribasi va amaliy ko‘nikmalariga ega bo‘lgan kattalarni o‘qitish texnologiyalariga e’tiborni qaratgan kattalar ta’lim ini nazarda tutadi. Bunda asosiy e’tibor mutaxassislarni o‘zlarining ish joyida mehnat faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda “takomillashtirish”ga qaratiladi. Shu bilan birga, kelajakda ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishning manbalaridan foydalanish imkoniyatlari ham nazarda tutiladi.

“Hayot davomida o‘qish” (yoki butun umr davomida o‘rganish) – bu yoshi va faoliyat sohasidan qat’iy nazar, insonning shaxsiy yoki kasbiy manfaatlariga asoslangan holda doimiy ravishda yangi bilimlarni izlash va to‘plash konsepsiyasi. Amalda ushbu konsepsiya insonni shaxsiy o‘qishga undaydi, shuningdek, mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshiradi. “Hayot davomida o‘qish” – bu umrbod o‘qitish faoliyati. Bu shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan va ushbu rivojlanish uchun qulay sharoitlar yaratishga asoslangan. Har qanday cheklovlar yo‘qligi sababli, ushbu global ta’lim yondashuvi tanlangan yo‘nalish bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni doimiy ravishda o‘zlashtirishni va natijada shaxsiy ta’lim tizimini nazarda tutadi. Bu jarayonda tugallangan ta’lim mavjud emas, u umr bo‘yi davom etadi, shu bilan birga zamonaviy axborot jamiyatidagi barcha yangiliklar va o‘zgarishlarga o‘z vaqtida javob berishga imkon beradi. Uning konsepsiyasi – bu doimiy ravishda o‘rganish va rivojlantirish, eskirgan g‘oyalar va yondashuvlarni yangi usullar va ilg‘or qarashlar bilan almashtirish, texnologik rivojlanishning barcha yutuqlaridan foydalanishni anglatadi. Ushbu konsepsiyaning dastlabki g‘oyalari o‘tgan asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan va hozirda turli sohalarining ko‘plab xodimlari doimiy ravishda uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida qatnashadilar. Hayot davomidagi ta’lim – bu ham kasbiy, ham shaxsiy ehtiyoj va sabablarga ko‘ra bilim va ko‘nikmalarni doimiy ravishda yangilash konsepsiyasi. Uzluksiz ta’lim konsepsiyasi yoshi va faoliyat sohasidan qat’iy nazar o‘rganish, shuningdek, har qanday ehtiyojlarni ro‘yobga chiqarish va rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ushbu konsepsiyani tushunish va hayot davomida o‘qish iqtisodiyot va butun jamiyat uchun foydali ta’sir ko‘rsatadi. Odatda, “lifelong learning” tamoyili asosidagi uzluksiz kasbiy rivojlantirishning to‘rtta asosiy yo‘nalishlarini ajratish mumkin: – bilimlarni o‘zlashtirish, o‘qitish va amaliy ko‘nikmalarga o‘rgatish; – boshqa mutaxassislar bilan o‘zaro hamkorlikda o‘rganish; – boshqalar bilan muloqot qilishni o‘rganish o‘zini o‘zi rivojlantirish. Hayot davomida o‘qitish g‘oyasi yangi vaziyatda harakat qilish, o‘z tajribasini sarflash, shuningdek, uni e’tiqod va qadriyatlar, his-tuyg‘ular va natijalar asosida yangilash va o‘zgartirishga asoslanadi. Bu insonning barcha tajribalarini fikrlash va harakat qilish orqali o‘zgartirishi va shu bilan g‘oyalar yaratishda o‘zini o‘zgartirish jarayonidir. Shuni ta’kidlash kerakki, umr bo‘yi ta’lim institutsionalizatsiya qilingan hozirgi sharoitda jamiyatni va uning rivojlanishini boshqarish hamda davlat uchun zarur bo‘lgan faoliyat usullarini joriy etish imkoniyati mavjud. Tez o‘zgaruvchan iqtisodiy ishlab chiqarish tizimi yanada malakali ishchi kuchini talab qiladi. Shunday qilib, umrbod o‘rganish nafaqat o‘qituvchilarning sa’y-harakatlar yoki o‘rganishlari tufayli, balki iqtisodiy tizim ehtiyojlari tufayli samaradorlikka erishadi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda "lifelong learning" tamoyilining samaradorligini quyidagi omillar bilan asoslash mumkin: Birinchidan, tez o'zgaruvchan texnologiyalar va yangilanib boruvchi axborot oqimini o'zlashtirish, o'qitish jarayonida qo'llash ehtiyoji mavjud. Ikkinchidan, zamonaviy o'qituvchi uchun bir sohada mutaxassis bo'lishning o'zi yetarli emas, ta'lim ning boshqa sohasiga kirib borish lozim. Uchinchidan, kasbiy faoliyatni tahlil qilish, kasbiy ehtiyojlar asosida o'qitish metodikasini uzluksiz yangilab borish, hamkasblari bilan muloqotga kirishish, tajriba almashish orqali yangi bilimlarni olish jarayoni samaraliroq bo'ladi. To'rtinchidan, insonning o'zi tomonidan o'zlashtirilgan bilim uning hayoti davomida egallagan bilimlari orasida eng samarali va uzoq vaqt natija berishi aniqlangan. Shuningdek, o'rganish va o'rganganlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatlari rivojlanib boradi. An'anaviy ta'lim orqali kasbiy rivojlanish jarayonida bilimlarni muhokama qilish va aniqlashtirish mumkin, mustaqil ta'lim da esa faol pozitsiyani egallash orqali faollik va kutish rejimi mavjud bo'ladi.

Beshinchidan, bilimni yaxshi o'zlashtirish uchun nafaqat ma'lumot iste'molchisi bo'libgina qolmay, balki uni o'zi ham ijodiy ravishda qayta ishlash kerak. Bizning nazarimizda, "lifelong learning" tamoyili asosida uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida buning imkoni bor. Mavjud tajriba "lifelong learning" tamoyili asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirishning afzalliklari quyidagilardan iborat ekanligini ko'rsatdi: – o'qituvchi bilimlar manbaiga yo'naltiriladi; – kattalar amaliy faoliyat vositasida o'qitiladi; – kattalar o'zaro tajriba almashish asosida o'rganadi; – o'qituvchilar butun hayot davomida o'rganadilar. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, hayot davomida o'qish ("lifelong learning") kasbiy harakatchanlikning oshishiga yordam beradi, bu esa asosiy tarmoqlarda yuqori ilmiy texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish va innovatsion iqtisodiyotning raqobatbardoshligini shakllantirish omili hisoblanadi. Shu munosabat bilan, ish beruvchilarning zamonaviy malaka talablariga va iqtisodiyotni maqsadli rivojlantirish dasturining rejalashtirilgan ehtiyojlariga javob beradigan kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun hayot davomida o'qish ("lifelong learning") o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini yaratish alohida ahamiyatga ega.

Xulosa. Uzluksiz ta'lim tizimi barcha insonlar uchun ochiq ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan ta'lim, mehnat va jamoatchilikni o'z ichiga olgan yaxlit va tizimli yondashuvni mujassamlashtiradi. Ta'lim faqat davlat muassasalari bilan cheklanib qolmasligi, u o'qituvchining ish joyida, oilada, fuqarolik jamiyati tashkilotlarida va ixtiyoriy ravishda moslashuvchan shakllarda berilishi mumkin. Hayotiy ta'lim har tomonlama va barqaror iqtisodiy o'sishga, tinchlik va jamiyatning barqaror ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O'RQ637-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim -tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori.
3. Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Edutezcation Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
4. UNESCO. Learning: The Treasure within. UNESCO/HMSO, London. 1996.
5. Alkarov E.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida pedagog kadrlar uzluksiz kasbiy rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.
6. Jarvis P. (2012). Learning from everyday life. Human and Social Studies Research and Practice, Retrieved October 20, 2016.
7. Radjiyev A.B. Xalq ta'lim i tizimida rahbar xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni boshqarish samaradorligini oshirish (umumta'lim maktab direktorlari misolida): pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2020.

8. N.Raxmanqulova, M.Yuldashev, A.Baxramov, M.Ahmedov, T.Raimov, A.Ametov. Xalq ta'lim i xodimlarining malaka oshirish kurslaridan keyingi faoliyatlarini pedagogik qo'llabquvvatlash. – T.: Lesson Press, 2018.

9. Shodiyeva M.J. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiypedagogik jihatlari // «Zamonaviy ta'lim » jurnali. 2021.

10. Ждан А.А. Управление системой непрерывного образования российской федерации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва.: 2009.

TIZIMLI TAHLILLAR ORQALI MAKTABGACHA TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

*Haqqiyeva Fotima Olimjonovna
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim mazmunini tizimli tahlil asosida takomillashtirish zarurati, uning asosiy ilmiy-metodik yondashuvlari, tahlil metodlari, ta'lim jarayoniga ta'siri va tavsiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, tizimli yondashuv orqali ta'lim sifatini oshirishning dolzarb jihatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim , tizimli yondashuv, metodika, takomillashtirish, ta'lim sifati, innovatsion texnologiyalar.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СОДЕРЖАНИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ЧЕРЕЗ СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. В статье рассматриваются необходимость усовершенствования содержания дошкольного образования на основе системного анализа, его научно-методологические подходы, методы исследования, влияние на образовательный процесс и практические рекомендации. Также раскрываются актуальные аспекты повышения качества образования с помощью системного подхода.

Ключевые слова: дошкольное образование, системный подход, методология, усовершенствование, качество образования, инновационные технологии.

SCIENTIFIC-METHODICAL BASIS OF IMPROVING THE CONTENT OF PRE- SCHOOL EDUCATION THROUGH SYSTEMATIC ANALYSIS

Abstract. This article discusses the need to improve the content of preschool education through systematic analysis, examining its main scientific-methodological approaches, research methods, impacts on educational processes, and practical recommendations. It also outlines current perspectives on enhancing education quality using a systemic approach.

Keywords: preschool education, systemic approach, methodology, improvement, education quality, innovative technologies

Maktabgacha ta'lim sohasi — bu bola shaxsining dastlabki rivojlanishini ta'minlovchi va uning keyingi bosqichlardagi muvaffaqiyatiga zamin yaratadigan muhim bosqichdir. Mazkur bosqichdagi ta'lim ning sifatli va samarali tashkil etilishi, avvalo, uning mazmuni va metodikasiga bog'liq. Tizimli tahlil bu borada samarali qarorlar qabul qilish va resurslardan oqilona foydalanishga imkon yaratadi.[1]

Tizimli yondashuv o'quv jarayonining barcha komponentlarini bir butun sifatida ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuvda ta'lim maqsadlari, usullari, vositalari, natijalari va baholash mexanizmlari o'zaro uzviy bog'liqlikda tahlil qilinadi. Tizimli yondashuv V. A. Slastyonin, I. P. Podlasy, T. A. Ilyina kabi pedagog-olimlarning ilmiy ishlarida keng o'rin olgan.[3],[4]

Maktabgacha ta'lim mazmunini optimallashtirishda quyidagi jihatlar e'tibor qaratish zarur:

- Darsliklar va metodik materiallarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida yangilash;[6]

- Har bir bolaning individual qobiliyatlarini inobatga oluvchi moslashtirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish;[5]

- O'yinli, interaktiv va tajribaviy o'quv usullaridan foydalanish;

- O'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish bo'yicha uzluksiz treninglar.[8]

Tizimli tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim da quyidagi muammolar mavjud:

- Ta'lim dasturlarining real hayotiy ehtiyojlardan uzoqligi;

- Tarbiyachilarning yetarli darajada zamonaviy pedagogik bilimlarga ega emasligi;[7]

- Resurslar taqsimotida nomutanosiblik;

- Baholash tizimining ob'yektiv emasligi.[9]

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun:

- Maktabgacha ta'lim muassasalarining pedagogik faoliyatini muntazam tahlil qilish;

- Innovatsion metodikalarni joriy etish;

- Mahalliy va xalqaro tajribalarni integratsiya qilish;

- Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.[10]

Maktabgacha ta'lim mazmunini tizimli tahlillar asosida takomillashtirish – bu nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi muhim omildir. Tizimli yondashuv asosida ishlab chiqilgan ta'lim strategiyasi kelajak avlodning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori, 2019.
3. Slastyonin V.A. Pedagogika: darslik. Moskva, 2005.
4. Podlasyy I.P. Pedagogika. Moskva: Vlados, 2000.
5. Nishonova S.N. Maktabgacha ta'lim da innovatsion metodlar. – Toshkent, 2020.
6. Sayfullayeva N. va boshq. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU, 2019.
7. Юнусова М.Т. Системный подход в педагогике. // Педагогика, №2, 2021.
8. UNESCO. "Early Childhood Education: A Global Overview". 2020.
9. OECD. "Starting Strong: Early Childhood Education and Care". 2021.
10. www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Ta'lim portali.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINING IJTIMOIIY INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIIY YONDASHUVLAR

*Ibragimova Shaxnozabonu Ismoilovna
Buxoro davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha
talim) magistranti ibragimovas106@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlash masalalari yoritilgan. Unda intellekt tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy qismlari va erta yoshdagi bolalarda intellektual qobiliyatlarni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy intellekt, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, muloqot, o'yin metodi, bola, tafakkur, faoliyat, idrok, mantiqiy fikrlash, qobiliyat.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения интеллектуального развития воспитанников дошкольных образовательных учреждений. Анализируется содержание понятия «интеллект», его составляющие, а также современные подходы к формированию интеллектуальных способностей у детей раннего возраста.

Ключевые слова: социальный интеллект, дошкольное образование, воспитатель, общение, игровой метод, ребенок, мышление, деятельность, восприятие, логическое мышление, способности.

MODERN APPROACHES TO DEVELOPING SOCIAL INTELLIGENCE OF PRESCHOOL CHILDREN

Annotation: This article explores the importance of developing social intelligence in preschool children, the methods used for its enhancement, and the role of educators. Special focus is given to improving children's communication skills, empathy, and group cooperation through effective pedagogical strategies.

Keywords: social intelligence, preschool education, child development, educator, communication, empathy, play-based learning.

Kirish. Hozirgi davrda jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, muammolarga ijodiy yondasha oladigan shaxsni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishini erta bosqichlardan boshlab qo'llab-quvvatlash va maqsadli ravishda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, 3–7 yosh oralig'i bolaning psixik va aqliy salohiyati jadal rivojlanadigan davr bo'lib, aynan shu bosqichda berilgan to'g'ri ta'lim va tarbiya uning keyingi rivojlanishiga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida intellektual rivojlanish yo'nalishida olib borilayotgan ishlarga zamonaviy yondashuvlar, innovatsion metodlar va bolalar psixologiyasi asosida qurilgan ta'lim mazmuni talab etilmoqda. Shu munosabat bilan, ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektini rivojlantirishning nazariy asoslari, samarali usullari va amaliy yondashuvlari tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi — bolalar intellektining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda tarbiyachilarning bu jarayondagi roli va metodikasini yoritishdan iborat.

Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, har bir bolaning intellektual, ma'naviy va jismoniy salohiyatini to'la ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning nafaqat bilim olishi, balki shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiluvchi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda bolalarning ijtimoiy muhitda o'zini tuta bilishi, boshqalarning his-tuyg'ularini anglay olishi, muloqotga kirisha olishi, ya'ni ijtimoiy intellektini rivojlantirish masalasi juda muhimdir.

Asosiy qism. Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy rivojlanishini umumiy tushunchasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ijtimoiylashuv - bu o'quvchining jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish jarayoni. Ijtimoiylashuv - bu butun hayot davomida davom etadigan doimiy jarayon. Maktabgacha yoshdagi bolalikda bu birinchi navbatda ijtimoiy hayot normalarini o'zlashtirishdir.

Ijtimoiy intellekt (social intelligence) - bu shaxsning boshqalar bilan o'zaro munosabatlarda to'g'ri yo'l tuta olish qobiliyati, his-tuyg'ularni anglash, empatiya qilish va jamoa bilan ishlashdagi samaradorligidir. Bu qobiliyat bola tug'ilishi bilan birga shakllana boshlaydi va ijtimoiy muhitda faoliyat olib borish orqali rivojlanadi. Maktabgacha yoshda bu qobiliyatni rivojlantirish orqali bola keyinchalik maktabda, jamiyatda, kasbiy sohada muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni intellektual rivojlantirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishda qulay imkoniyatlar yarata oladigan, bogcha-maktab kabi yangi

tipdagi ta'lim tashkilotlari vujudga keldi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oliy ma'lumotli tarbiyachilar safi kengaydi. O'zbekiston Respublikasining 2020 yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida maktabgacha ta'lim ga alohida e'tibor qaratish lozimligi uqtirildi. Jumladan: Maktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim jarayoni bolalarni axloqiy, intellektual, jismoniy rivojlantirish uchun qulay pedagogik imkoniyatlarga ega.

Ijtimoiy intellekt bu – o'zaro munosabatlarning muvafaqqiyatli olib borilishini ta'minlaydigan qobiliyatlar to'plami. Boshqalarning fe'l-atvorini anglash qobiliyati, o'ziga xos xatti-harakatlarda, vaziyatlarda o'zini oqilona boshqara olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy intellektni tushuntirishga oid qarashlar juda ko'p ammo uning yagona ta'irifi belgilanmagan. Olimlarning qarashlaridan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha ijtimoiy intellekt – "insonlar bilan bo'lgan muloqot jarayonini ijobiy olib borilishga, ijtimoiy munosabatarning yaxshi o'rnatilishiga, ijtimoiylashuv jarayoniga yordam beruvchi shaxs xususiyati" degan fikr yuzaga keladi.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim muassasalarida intellektual rivojlanishga qaratilgan faoliyatlar bolalarning har tomonlama shakllanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonni tizimli va maqsadli tashkil etish, tarbiyachilarning doimiy izlanishi, metodik vositalarni takomillashtirib borishi bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, oila va ta'lim muassasasi hamkorligi intellektual rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, har bir pedagog bolada fikrlash va ijod qilishga bo'lgan qiziqishni uyg'otuvchi sharoit yaratishga intilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining " Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni. 2019 yil 16 dekabr. www.lex.uz
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". - T., "Ma'naviyat", 2013.
3. Karimova, D. A. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o'yin faoliyatining ahamiyati. Toshkent: TDPU nashriyot
4. G'ulomova, Z. R. (2019). Bolalar psixologiyasi va aqliy rivojlanish nazariyalari. Toshkent: Ilm ziyo.
5. Maktabgacha va maktab ta'lim i vazirligi (2022). Ilk qadam dasturi. Rasmiy metodik qo'llanma.
6. Axmedova, M. (2023). "Intellektual o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurni rivojlantirish". Ilmiy-amaliy jurnal, №2, 45–49-betlar.

TALIMDA GEYMIFIKATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA FAOLIYATNING ZARURATI

*Jumayeva Habiba G'afarovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasida
o'qituvchisi p.f.f.d. (PhD) habibajumayeva89@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim da geymifikatsion yondashuvdan foydalanish orqali talabalarda faoliyatga bo'lgan ichki zaruratni shakllantirish masalalari yoritilgan. Geymifikatsiyaning pedagogik va psixologik asoslari, uning motivatsion, ijtimoiy va kognitiv ta'sirlari tahlil qilingan. Faoliyat zarurati tushunchasi psixologik yondashuvlar asosida izohlanib, zamonaviy ta'lim da bu ehtiyojni uyg'otuvchi asosiy omil sifatida geymifikatsiyaning ahamiyati ko'rsatib berilgan. Shuningdek, milliy ta'lim tizimida geymifikatsion yondashuvni joriy etish istiqbollari, raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi va talabalar shaxsiy rivojlanishiga ta'siri keng ochib berilgan.

Kalit so'zlar: geymifikatsiya, faoliyat zarurati, motivatsiya, ta'lim da innovatsiyalar, o'yin asosidagi o'qitish, talabalar faolligi, raqamli ta'lim , psixologik ehtiyoj, shaxsiy rivojlanish, zamonaviy pedagogika.

THE NEED FOR STUDENT ACTIVITY BASED ON A GAMIFICATION APPROACH IN EDUCATION

Abstract. This article discusses the issues of forming an internal need for activity in students through the use of a gamification approach in education. The pedagogical and psychological foundations of gamification, its motivational, social and cognitive effects are analyzed. The concept of the need for activity is explained based on psychological approaches, and the importance of gamification as the main factor that arouses this need in modern education is shown. Also, the prospects for introducing the gamification approach in the national education system, its integration with digital technologies and its impact on the personal development of students are widely disclosed.

Keywords: gamification, need for activity, motivation, innovations in education, game-based learning, student activity, digital education, psychological need, personal development, modern pedagogy.

НЕОБХОДИМОСТЬ В АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ИГРОВОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ

Абстрактный. В данной статье рассматриваются вопросы формирования внутренней потребности в деятельности у обучающихся посредством использования игрового подхода в образовании. Анализируются педагогические и психологические основы геймификации, ее мотивационные, социальные и когнитивные эффекты. С позиций психологии раскрывается понятие потребности в деятельности, а также показывается значение геймификации как ключевого фактора пробуждения этой потребности в современном образовании. Широко раскрыты перспективы внедрения игрового подхода в отечественную систему образования, его интеграция с цифровыми технологиями, его влияние на личностное развитие учащихся.

Ключевые слова: геймификация, потребность в активности, мотивация, инновации в образовании, игровое обучение, вовлеченность учащихся, цифровое обучение, психологические потребности, личностное развитие, современная педагогика.

Bugungi ta'lim da talabalarning shunchaki bilim olishlari emas, balki faol ishtirok etishlari, o'rganishga nisbatan ichki zaruratni his qilishlari ta'lim sifatining asosiy mezoniga aylangan. Bu holatda, ta'lim iy jarayonni faollashtirishning samarali usullaridan biri sifatida geymifikatsion yondashuvlar jadal rivojlanmoqda. Geymifikatsiya – bu o'yin elementlarini noo'yin sohalarga, jumladan, ta'lim ga qo'llash orqali o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish, e'tiborini jalb qilish va ularni faol ishtirokchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladigan innovatsion pedagogik yondashuvdir. Ushbu yondashuv ayniqsa talabalarda faoliyatga bo'lgan ehtiyojni uyg'otishda va uni doimiy harakatga undashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim da faoliyat zarurati talabaning o'z bilimini mustaqil izlash, uni amaliyotda qo'llash va bu orqali o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'liq. Ushbu ehtiyojning shakllanishi talabaning ichki motivatsiyasi, uning ijtimoiy va intellektual faolligi, mustaqil fikrlash qobiliyati bilan bevosita aloqador. Geymifikatsion yondashuv bu jarayonda talaba ongiga bosim o'tkazmasdan, balki ularning o'z qiziqishlaridan kelib chiqib o'qishga kirishishlariga zamin yaratadi.

Zamonaviy psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson faoliyatga ehtiyojni o'rganilgan yoki majburiy holatlarda emas, balki mazmunli, qiziqarli va maqsadli faoliyatda ko'proq his etadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, ta'lim ga o'yin elementlarini kiritish – bu shunchaki “qiziqarli dars” emas, balki faoliyatni ongli ravishda boshqarishga olib keluvchi vosita hisoblanadi. Geymifikatsiya orqali ta'lim jarayonida raqobat, mukofot, reyting, badge (belgilar), ball tizimi kabi elementlardan foydalanish talabalarning o'zini baholashi, faol ishtirok etishi va intilishlarini oshiradi.

Faoliyat zarurati shaxsiy o'sish va o'z-o'zini anglash jarayonlarida asosiy ichki dvigatel bo'lib xizmat qiladi. Talaba bilimni olishni emas, uni qo'llashni, sinab ko'rishni, muammolarni hal qilishni istasa – bu faoliyat zaruratining eng yuqori bosqichidir. Geymifikatsion muhit esa

aynan shunday holatlarni yaratadi: o'yin orqali o'rgatish emas, balki o'yin vositasida real va ijtimoiy vazifalarni mustaqil hal qilishga undaydi.

Konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, talaba o'z bilimini o'zi quradi, o'z tajribasi orqali shakllantiradi. Geymifikatsiya esa bu nazariyaning amaliy ko'rinishi sifatida talabaning kognitiv faolligini rag'batlantiradi, shaxsiy tajribalarni yaratish imkonini beradi. Faoliyatga yo'naltirilgan o'quv jarayonida "fikrlash - harakat - baholash" zanjiri muhim o'rin tutadi. Harakat – bu bilimni egallash emas, balki uni real holatlarda qo'llashni o'z ichiga oladi. Masalan, biznes simulyatsiyalar, rol o'yinlari, loyiha asosidagi topshiriqlar, gamifikatsiyalashgan tanlovlar talabaning faoliyatga bo'lgan zaruratini uyg'otuvchi samarali vositalardir.

Bundan tashqari, xalqaro tajribalarda, masalan, "Classcraft", "Duolingo", "Kahoot" kabi platformalar yordamida ta'lim jarayoni to'liq geymifikatsiyalashgan bo'lib, o'quvchilar bilim olish jarayonini shaxsiy maqsadlariga bog'lab, o'zlashtirish darajasini oshirishga erishgan. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda ilk qadamlar tashlangan. Jumladan, ba'zi oliygohlarda STEM-loyihalar, raqamli portallar va masofaviy kurslar asosida geymifikatsion elementlar joriy qilinmoqda.

Geymifikatsion yondashuv asosida talabalarda faoliyatga bo'lgan zaruratni uyg'otish zamonaviy ta'lim ning ajralmas tarkibiy qismidir. Bu zaruratni yuzaga keltirish orqali talaba o'quv jarayonining passiv kuzatuvchisi emas, balki faol ishtirokchisiga aylanadi. Kelajakda esa ta'lim muhitlari individuallashtirilgan, raqamli va gamifikatsiyalashgan tarzda shakllanadi. Bu esa faoliyat zarurati tamoyiliga asoslangan, ongli, mas'uliyatli va bilimga chanqoq yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, talabaning faoliyatga bo'lgan ichki ehtiyoji ijtimoiy muhit, shaxsiy qiziqishlar va motivatsion omillar bilan bevosita bog'liqdir. Geymifikatsiya bu omillarni uyg'unlashtirib, talabaning ehtiyojlarini aniqlash, ularni rivojlantirish va faoliyatga yo'naltirish imkonini beradi. Masalan, raqamli muhitda yaratilgan reyting tizimi yoki topshiriq bajarish orqali mukofot olish (virtual medallar, ballar, yutuqlar) talabaning natijaga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi. Ayniqsa introvert, tortinchoq yoki passiv talabalar uchun bu kabi vositalar ularning ishtirokini faollashtirishga xizmat qiladi.

Pedagogik jihatdan olib qaralganda, geymifikatsiya o'quv jarayonini bolalarcha yengillashtirmaydi, aksincha, uni chuqurlashtiradi, chunki u faoliyatga erkinlik, tanlov imkoniyati va ijtimoiy hamkorlik elementlarini olib kiradi. Talabalar guruhlarda ishlaydi, qaror qabul qiladi, o'z yo'nalishini tanlaydi va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Shunday qilib, geymifikatsion ta'lim nafaqat bilim beradi, balki faoliyatni boshqarish, muammolarni hal qilish, o'zini anglash va rivojlantirish imkonini ham yaratadi.

Geymifikatsiya asosida tashkil etilgan o'quv faoliyatida talabalar o'zlarini o'yin qahramoni sifatida tasavvur qilishadi. Bu qahramonlik esa ularni o'z oldilariga maqsad qo'yishga, bu maqsad sari harakat qilishga undaydi. Aynan shu jarayonda "faoliyat zarurati" deb ataluvchi psixologik ehtiyoj yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, talaba darsga kirayotganda bilim olishni emas, yangi topshiriqni kutadi, muammo yechishni istaydi, o'zini sinab ko'rishga intiladi.

Milliy ta'lim tizimida geymifikatsiya hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, ayrim eksperimental darslarda yoki innovatsion pedagogik laboratoriyalarda bu uslub sinovdan o'tkazilmoqda. Jumladan, raqamli pedagogik platformalarda test topshiriqlarini kreativ shaklda berish, masalan, "virtual sarguzasht", "kvest", "vazifa ichida vazifa" uslublari orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi rag'batlantirilmoqda. Bu esa o'z-o'zidan o'quvchilarda "ishlash zarurati", "o'rganish ehtiyoji" kabi muhim shaxsiy-psixologik holatlarni shakllantiradi.

Boshqa tomondan, faoliyat zarurati o'z-o'zini motivatsiyalashga olib keladi. Bu holat ayniqsa talabalar o'zini baholay olganida va harakatlari uchun darhol ijobiy yoki salbiy fikr olganida sodir bo'ladi. Geymifikatsiya esa bevosita feedback (orqama-alloqa) ustida qurilgan tizim bo'lib, talabaga real vaqtda fikr, ball yoki reyting ko'rinishida fikr bildiradi. Bu esa passiv ishtirokni emas, faol, ongli va intellektual ishtirokni ta'minlaydi.

Kelajak ta'lim i aynan shunday muhitlarni talab qiladi: talabalar o'z qiziqishlariga binoan o'qishsin, tanlovga ega bo'lishsin, xatolaridan o'rganishsin va eng asosiysi, o'z faoliyatini anglab, uni boshqara olishsin. Geymifikatsion yondashuv esa bu talablarning har biriga mos tushadi. U o'yin emas, balki bilim olishni o'yin tusida qabul qilishga imkon beruvchi

strategiyadir. Bunda har bir talaba o'z hayotidagi bilim olish jarayoniga o'zini muallif sifatida his qilishi lozim.

Ta'lim da geymifikatsion yondashuv orqali talabalarda faoliyat zaruratini shakllantirish nafaqat ularning ta'lim dagi ishtirokini faollashtiradi, balki ularni mustaqil, mas'uliyatli va ongli shaxs sifatida rivojlantiradi. Bu esa zamonaviy ta'lim ning eng muhim maqsadlariga to'g'ri keladi. Aynan shuning uchun O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ham geymifikatsion ta'lim ni rivojlantirish, uni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish va raqamli transformatsiya doirasida tizimli joriy etish zarurdir. Chunki zamonaviy talaba bilimni emas, faoliyatni istaydi. Bilim esa aynan faoliyat jarayonida egallanadi, shakllanadi va hayotga tadbiiq qilinadi. Faoliyat zarurati insonning shaxsiy rivojlanish bosqichlarida o'zining eng muhim psixologik ehtiyojlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. A.N. Leontyev, L.S. Vygotskiy, D.B. Elkonin kabi psixologlar faoliyatga nisbatan ehtiyojni insonning ontogeneza yuzaga keladigan va shaxsiy shakllanish jarayonini belgilovchi asosiy psixik kuchlardan biri deb hisoblaganlar. Bugungi kunda bu nazariy qarashlar zamonaviy o'quv jarayonlarida, xususan, ta'lim da geymifikatsion yondashuv orqali amaliy qo'llanilmoqda.

Geymifikatsiya talabani faoliyatga bo'lgan ehtiyojini bir vaqtning o'zida uch darajada rag'batlantiradi: kognitiv (bilishga oid), affektiv (hissiy) va ijtimoiy darajada. Kognitiv jihatdan talaba o'yin muhitida muammoli vaziyatlarga duch keladi va ularni hal qilishga harakat qiladi. Bu esa aqliy faoliyatni faollashtiradi. Hissiy darajada u muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikni boshdan kechiradi, bu esa uni o'zini nazorat qilish, ijobiy emotsiyalarni boshqarishga o'rgatadi. Ijtimoiy darajada esa hamkorlikda ishlash, guruhdagi o'z o'rnini topish, liderlik fazilatlarini namoyon etish ehtiyoji kuchayadi. Shuni unutmaslik kerakki, ta'lim faqat bilim berish bilan cheklanmasligi kerak. Zamonaviy ta'lim shaxsni tarbiyalash, u bilan bog'liq faoliyatni to'g'ri yo'naltirish, uning ichki ehtiyojlarini anglash va ular asosida pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishni o'z oldiga maqsad qilmoqda. Geymifikatsion yondashuv esa ana shu ehtiyojlarga bevosita mos keladigan vosita sifatida qaralmoqda. Geymifikatsiyaning afzalligi shundaki, u talabani ongsiz ravishda ham faol ishtirokini ta'minlaydi. Harakat orqali bilim olish, o'yin orqali faoliyat zaruratini anglash va shaxsiy motivatsiyani kuchaytirish — bularning barchasi talaba uchun tabiiy va qiziqarli muhitda amalga oshadi.

O'rganish va faoliyat o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qilar ekanmiz, shuni ta'kidlash joizki, har qanday bilim faoliyat orqali mustahkamlanadi. O'qituvchining asosiy vazifasi esa — bu faoliyatni tashkil qilish emas, balki unga zarurat uyg'otishdir. Aynan shuning uchun geymifikatsion ta'lim modeli talabalarni o'z faoliyatini ongli tarzda qurishga majbur etadi. Ularda tashabbuskorlik, muammoli vaziyatga yondashuv, innovatsion fikrlash shakllanadi. Bu jihatlar esa zamonaviy dunyoda eng zarur kompetensiyalardir. Geymifikatsion muhitda ta'lim berish degani bu faqatgina o'yin o'ynatish emas, balki o'yin strukturasidan foydalanib ta'lim mazmunini qiziqarli, motivatsiyaga boy va maqsadga yo'naltirilgan qilishdir. O'yinlar orqali masalan: vazifa bajarilganda yangi darajaga o'tish (level up), mukofot olish (rewards), yangi imkoniyat ochish (unlocking) kabi holatlar, real hayotdagi yutuqlar, taraqqiyot va intilish bilan o'zaro uyg'unlashadi. Bu esa o'rganishni jarayon sifatida emas, maqsadli faoliyat sifatida ko'rishga olib keladi.

Yana bir muhim jihat — geymifikatsiyada refleksiya kuchli rol o'ynaydi. Talaba har bir bajarilgan topshiriqdan so'ng o'zining muvaffaqiyati, xatolari, yondashuv usullarini tahlil qiladi. Bu esa o'z-o'zini tahlil qilish, rejalashtirish, baholash va tuzatish mexanizmlarini shakllantiradi. Shaxsiy refleksiya esa faoliyat zaruratining eng yuqori bosqichidir, chunki bu bosqichda talaba “nega men bu ishni bajaryapman?” degan savolga ongli tarzda javob bera boshlaydi. Bundan tashqari, ta'lim ning strategik yo'nalishlari, jumladan O'zbekistonda 2030-yilgacha mo'ljallangan “Raqamli ta'lim ” konsepsiyasi ham aynan faoliyatga asoslangan, individuallashtirilgan va raqamli vositalar bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratishni nazarda tutadi. Bu esa geymifikatsion yondashuvlar uchun keng imkoniyatlar ochadi. Mobil ilovalar, AR/VR texnologiyalar, metaversum asosidagi o'quv muhitlari kelajakda talabani faolligini ta'minlovchi asosiy vositalar bo'lib qoladi.

Geymifikatsiya bu zamonaviy ta'lim da shunchaki o'yin emas, balki chuqur psixologik va pedagogik asosga ega bo'lgan faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvdir. Bu yondashuv orqali talaba o'zini topadi, faoliyatni anglaydi, maqsadga intiladi va eng muhimi, o'rganishdan zavq

oladi. Bugungi raqamli jamiyatda bu eng katta yutuqdir. Har bir o'qituvchi, pedagog va metodist geymifikatsiyani nafaqat vosita, balki talabning ichki dunyosi bilan ishlash imkoniyati sifatida ko'ra olsagina, ta'lim tizimimizda chinakam natijalar yuzaga chiqadi.

Xulosa. XXI asr ta'lim i inson faoliyatini faollashtiruvchi, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi, o'zini anglash va o'z-o'zini boshqarishga yo'naltiruvchi muhit yaratishni talab qilmoqda. Ana shu jarayonda geymifikatsion yondashuv innovatsion pedagogik strategiya sifatida ajralib turibdi. U o'z mohiyati bilan nafaqat o'yin elementlari orqali ta'lim ni qiziqarli qiladi, balki talabada bilishga, harakat qilishga, muvaffaqiyat sari intilishga ichki ehtiyoj — ya'ni faoliyat zaruratini shakllantiradi.

Geymifikatsion ta'lim modeli o'zida motivatsiya, emotsional ishtirok, kompetensiyalarga yo'naltirish va ijtimoiy hamkorlik kabi muhim tarkibiy qismlarni birlashtirib, o'quv jarayonini chuqur ma'noli, interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan shaklga keltiradi. Bunday yondashuv natijasida talaba o'zini o'quv jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki faol ijrochisi va yaratuvchisi sifatida anglaydi. Aynan mana shu anglash jarayoni faoliyat zaruratini vujudga keltiradi. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, geymifikatsion yondashuv orqali tashkil etilgan o'quv faoliyati talabada nafaqat bilim va ko'nikma hosil qiladi, balki unga o'z harakatlarini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash imkonini beradi. Bu esa uni mustaqil, mas'uliyatli, faol va ongli shaxs sifatida shakllantiradi.

Geymifikatsiya — bu kelajak ta'lim ining muhim tarkibiy qismi bo'lib, raqamli transformatsiya va psixologik-pedagogik yondashuvlar uyg'unligida samarali natijalar beruvchi mexanizmdir. U orqali talabalarda nafaqat o'rganish istagi, balki faoliyat zarurati chuqur ildiz otadi. Bu esa yuksak samaradorlikka, barqaror ta'lim iy o'sishga va milliy taraqqiyotga xizmat qiladi. Shu bois, zamonaviy o'quv muhitida geymifikatsion yondashuvni keng joriy etish, uni milliy qadriyatlar va raqamli imkoniyatlar bilan uyg'unlashtirish, pedagoglar uchun esa ushbu uslubni puxta o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, faoliyat zarurati shakllangan talaba — ertangi kunning o'zgaruvchan muhitiga moslasha oladigan, bilimli, faol va mas'uliyatli yetuk shaxsidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abduraxmonova Z. Sh. Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar va ularning samaradorligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 215 b.
2. Akramova M. A. Psixologiyada motivatsiya nazariyalari va ularning ta'lim dagi roli. – Toshkent: Ilm ziyo, 2019. – 164 b.
3. Allamurodov O. R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Samarqand: Noshir, 2020. – 192 b.
4. Bobomurodov B. T. Talabalarda o'quv motivatsiyasini shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari. – Buxoro: Ilm va taraqqiyot, 2022. – 206 b.
5. Bozorov T. R. Ta'lim da raqamli texnologiyalar asosida interaktiv muhit yaratish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 173 b.
6. Ergashev A. G. Faoliyatga asoslangan o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2016. – 184 b.
7. Fayziyeva S. H. Geymifikatsiya va o'yinli metodlarning pedagogik asoslari. – Andijon: O'qituvchi, 2020. – 198 b.
8. G'ulomova D. A. Psixologik ehtiyojlar va shaxsiy rivojlanish. – Toshkent: Innovatsiya, 2023. – 172 b.
9. Hamroyeva G. I. Oliy ta'lim da interaktiv o'qitish metodlari. – Farg'ona: Yangi asr, 2017. – 165 b.
10. Islomov N. Sh. Pedagogik jarayonda talabning faol ishtiroki. – Toshkent: Fan va taraqqiyot, 2018. – 189 b.
11. Jo'rayev I. N. Geymifikatsiya: tushuncha, imkoniyatlar va amaliyot. – Toshkent: Ziyonur, 2021. – 158 b.

MAKTABGACHA TA'LIM DA UZVIYLIK VA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA MASHG'ULOTLARNI LOYIHALASH

Toshova Farida Husen qizi

BuxDPI ta'lim -tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi I bosqich magistanti

Hasanova Gulnoz Qosimovna

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedra mudiri, p.f.n., dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashda kompetensiyaviy yondashuv asosida mashg'ulotlarni loyihalashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Kompetensiyaviy yondashuv bolani faqat bilim egallashga emas, balki ularni kundalik hayotda qo'llay olishga o'rgatish orqali shaxsiy salohiyatini rivojlantirishni maqsad qiladi. Tadqiqot davomida kompetensiyalarning turlari, ularni aniqlash mezonlari, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mos metodik yondashuvlar tahlil qilindi. Mashg'ulotlarni loyihalashda integratsiyalashgan yondashuv, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, shuningdek, faol, interaktiv o'quv metodlariga tayangan holda darslar tuzishning afzalliklari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, uzluksizlikni ta'minlashda kompetensiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim faoliyatining boshlang'ich ta'lim bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilindi. Mazkur ish natijasida pedagoglar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va kompetensiyaviy yondashuv asosidagi mashg'ulot namunasi taqdim etildi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, uzviylik, uzluksizlik, kompetensiyaviy yondashuv, mashg'ulot loyihalash, pedagogik metodika, integratsiyalashgan o'quv faoliyati, shaxsiy rivojlanish, boshlang'ich ta'lim bilan bog'liqlik, innovatsion ta'lim texnologiyalari.

ПРОЕКТИРОВАНИЕ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ИНТЕГРАЦИИ И НЕПРЕРЫВНОСТИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретические и практические аспекты проектирования занятий на основе компетентного подхода для обеспечения преемственности и непрерывности в системе дошкольного образования. Компетентностный подход направлен не только на усвоение знаний детьми, но и на развитие их личностного потенциала посредством применения этих знаний в повседневной жизни. В ходе исследования были проанализированы виды компетенций, критерии их определения, а также методические подходы, соответствующие возрастным особенностям детей дошкольного возраста. В статье освещаются преимущества проектирования занятий с использованием интегрированного подхода, с учетом возраста и индивидуальных особенностей детей, а также с применением активных и интерактивных методов обучения. Кроме того, проанализирована связь образовательной деятельности на основе компетенций с начальными звеньями школьного образования, обеспечивающая педагогическую непрерывность. В результате исследования разработаны методические рекомендации для педагогов и представлен образец занятия, основанного на компетентностном подходе.

Ключевые слова: дошкольное образование, преемственность, непрерывность, компетентностный подход, проектирование занятий, педагогическая методика, интегрированная учебная деятельность, личностное развитие, связь с начальным образованием, инновационные образовательные технологии.

DESIGNING TRAINING BASED ON A COMPETENT APPROACH IN ENSURING INTEGRATION AND CONTINUITY IN PRE-SCHOOL EDUCATION

Annotation: This article explores the theoretical and practical aspects of designing lessons based on a competency-based approach to ensure continuity and consistency in the preschool

education system. The competency-based approach aims not only to provide children with knowledge but also to develop their personal potential by enabling them to apply this knowledge in everyday life. The study analyzes the types of competencies, the criteria for identifying them, as well as methodological approaches suitable for preschool-aged children. The article highlights the advantages of planning lessons using an integrated approach, taking into account children's age and individual characteristics, and relying on active, interactive teaching methods. Furthermore, the interconnection between competency-based educational activities in preschool and their continuity with primary education is examined. As a result of the study, methodological recommendations for educators were developed, and a sample lesson plan based on the competency-based approach is presented.

Keywords: preschool education, continuity, consistency, competency-based approach, lesson planning, pedagogical methodology, integrated learning activities, personal development, connection with primary education, innovative educational technologies.

Maktabgacha ta'lim bolalar shaxsining shakllanishida muhim poydevor vazifasini bajaradi. Bu bosqichda bolaning aqliy, emotsional, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishi asoslanadi. Ta'lim tizimining uzluksizligi va bosqichlararo uzviyligi aynan shu davrda boshlanadi. Shu bois, maktabgacha ta'lim da uzviylik va uzluksizlikni ta'minlovchi metodik yondashuvlar, xususan, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv bolani bilim olish sub'ekti emas, balki hayotiy faoliyatga tayyorlanayotgan shaxs sifatida ko'radi. Mazkur yondashuv asosida tuzilgan mashg'ulotlar bolaning real hayotiy vaziyatlarda mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga yo'naltiriladi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim bosqichlari o'rtasida uzviylikni ta'minlaydi.

Kompetensiyaviy yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra, bilim, ko'nikma va malakalarning majmuasi bo'lib, ularni amaliyotda qo'llay olish layoqati orqali aniqlanadi. Bu yondashuvda asosiy e'tibor bolaning shaxsiy, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishiga qaratiladi.

Maktabgacha ta'lim da quyidagi kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor hisoblanadi:

- **Kommunikativ kompetensiya** – bola o'z fikrini erkin bayon qila olish, suhbatda ishtirok eta olish;

- **Ijtimoiy kompetensiya** – guruhda ishlash, navbat kutish, qoidalarga rioya qilish;

- **Shaxsiy o'sish kompetensiyasi** – o'zini anglash, o'z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlardan chiqish;

- **Bilish kompetensiyasi** – kuzatish, sinab ko'rish, solishtirish, tahlil qilish.

Bu kompetensiyalar orqali bola hayotda to'laqonli faoliyat yuritishga tayyorlanadi. Maktabgacha bosqichda shakllangan bu salohiyat boshlang'ich ta'lim da izchil rivojlanishi bilan ta'lim tizimidagi uzluksizlik ta'minlanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida mashg'ulotlarni loyihalash quyidagi metodik tamoyillarga asoslanadi:

- ✚ **Integratsiyalashgan yondashuv:** fanlararo bog'liqlikni ta'minlash orqali bolada kompleks tushunchalar shakllanadi. Masalan, "Tabiat" mavzusida bolalar nafaqat o'simliklarni o'rganadi, balki rasm chizadi, ertak to'qiydi, she'r aytadi – bu esa bilish, estetik, til kompetensiyalarini rivojlantiradi.

- ✚ **Faol va interaktiv metodlar:** Rolli o'yinlar, mini-loyihalar, muammoli vaziyatlar, muloqotli mashqlar orqali bola bilimlarni mustaqil egallaydi. Masalan, "Do'kon" o'yini orqali nafaqat sonlarni o'rganadi, balki muomala, savdo qilish, muloqot qilish kabi ko'nikmalarni ham oladi.

- ✚ **Yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish:** Har bir bola o'z rivojlanish sur'ati, qiziqishlari va ijtimoiy tajribasiga ega. Shuning uchun mashg'ulotlar bolalarning ehtiyojlariga moslashtiriladi: differensial yondashuv qo'llaniladi.

- ✚ **Hayotga yaqinlashtirilgan topshiriqlar:** Hayotiy kontekstga ega bo'lgan vazifalar orqali bola bilimni real holatda qo'llashga o'rganadi. Masalan, "Mening oilam" mavzusida bola

oila a'zolari haqida gapirib beradi, oilaviy ro'yxat tuzadi – bu orqali u ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'lim da kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalangan mashg'ulotlar orqali:

- Bolaning **shaxsiy rivojlanishi** izchil ta'minlanadi;
- Bola maktabga **psixologik va ijtimoiy jihatdan tayyor holda** keladi;
- Boshlang'ich ta'lim dagi dasturlar bilan **mazmuniy va metodik uzviylik** hosil bo'ladi;
- O'qituvchi bolani passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko'radi;
- Pedagogik jarayon **biryozlama bilim berishga emas, shaxsiy rivojlanishga** qaratiladi.

Shu bois, kompetensiyaviy yondashuv – zamonaviy ta'lim da uzviylikni ta'minlovchi asosiy vositalardan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonning ayrim hududlarida tajriba tariqasida amalga oshirilayotgan "Maktabga tayyorgarlik dasturi"da kompetensiyaviy yondashuv asosida mashg'ulotlar olib borilmoqda. Masalan, Toshkent va Samarqand viloyatlaridagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning shaxsiy portfeli yuritilishi, rivojlanish xaritalari tuzilishi, mashg'ulotlarda muammoli vaziyatlar asosida fikrlashga undovchi topshiriqlar berilishi kuzatilmoqda. Bu orqali bola mustaqil fikrlashga, muomala qilishga, qaror qabul qilishga o'rganilmoqda.

Xulosa qilib shunga to'xtalish mumkinki: maktabgacha ta'lim da kompetensiyaviy yondashuv asosida mashg'ulotlar loyihalash – zamonaviy ta'lim talablariga javob beruvchi samarali metodik yo'nalishdir. Ushbu yondashuv bolalarda mustaqil fikrlash, faoliyatga tayyorgarlik, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kabi hayotiy muhim kompetensiyalarni shakllantiradi. Bu esa maktabgacha ta'lim dan boshlang'ich ta'lim ga o'tishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashning eng muhim omilidir. Pedagoglar ushbu yondashuvga asoslangan mashg'ulotlarni loyihalashda innovatsion, faol va bolalar ehtiyojiga mos metodlardan foydalanishlari lozim. Faqatgina shu tarzda bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirish va ularni keyingi bosqichlarga tayyorlash mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim i vazirligi. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga qo'yiladigan Davlat talablari" (DTS). – Toshkent, 2022.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun namunaviy o'quv dasturi. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2021.
4. Mirziyoyev, Sh.M. Yangi O'zbekiston – yangi taraqqiyot bosqichida. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2020.
5. Hasanboeva M., Axmedov M., Zunnunov A. Pedagogika: Umumiy pedagogik nazariyalar. – Toshkent: Fan, 2019.
6. Allayeva M.S. Kompetensiyaviy yondashuv asosida mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2021.
7. Raxmonov, I. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari jamiyati, 2020.
8. Piaget, J. Psixologiya intellektual rivojlanish nazariyasi. – Moskva: Akademkniga, 2017. (rus tilida)
9. Vygotskiy, L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 2018. (rus tilida)
10. UNESCO. Competency-based Early Childhood Education Framework. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.
11. Xamidova D. Maktabgacha ta'lim da integratsiyalashgan o'quv faoliyati: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
12. Niyozova, M. Kompetensiyaviy yondashuv: maktabgacha ta'lim tizimida qo'llanilishi. // Pedagogik ta'lim da innovatsiyalar. – 2023. – №4. – B. 15–20.

MAKTABDAGI TARBIYAVIY ISHLAR TIZIMIDA BOSHLANG'ICH SINF RAHBARINING FAOLIYATI

*Baxronova Adiba Ismoilovna
Buxoro davlat pedagogika instituti,*

Maktabgacha va Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrası kata o'qituvchisi

Annotatsiya. Sinf rahbarining asosiy vazifasi-o'quvchilarning ahil guruhlarini, aniq maqsadga yo'naltirilgan ishchan jamoani tashkil qila olish va ularni ta'lim -tarbiyali shaxslar, kelajagi buyuk davlatning haqiqiy egalari, komil insonlar etib voyaga yetkazishdir

Kalit so'zlar sinf, rahbar, ma'naviy-ma'rifiy ish, ta'sir ko'rsatish, bola shaxsini hurmatlash, ish rejasi.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ РУКОВОДИТЕЛЯ НАЧАЛЬНОГО КЛАССА В СИСТЕМЕ ШКОЛЬНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ

Аннотация. Основная задача классного руководителя — организовать дружные коллективы учащихся, работоспособный коллектив, нацеленный на определенную цель, и воспитать из них образованных личностей, настоящих хозяев великого будущего государства, совершенных людей.

Ключевые слова: класс, руководитель, духовно-воспитательная работа, влияние, уважение к личности ребенка, план работы.

ACTIVITY OF PRIMARY CLASS HEAD IN SCHOOL EDUCATIONAL WORK SYSTEM

Annotation. The main task of the class teacher is to organize friendly groups of students, a working team focused on a specific goal, and to raise them to become educated individuals, true owners of a great future state, and perfect people.

Keywords class, leader, spiritual and educational work, influence, respect for the child's personality, work plan.

Kirish. O'quvchilarga har tomonlama tarbiya berishning negizida sinf rahbarlarning olib boradigan tarbiyaviy ishlari markaziy o'rinni egallaydi. Sinfda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yuvchi, o'quvchilarning asosiy tarbiyachisi va murabbiysi sinf rahbaridir. Unga bolalar hayotini yo'lga qo'yish, jamoani uyushtirish va tarbiyalash mas'uliyati, sinfdagi o'quv-tarbiyaviy ishlariga javobgarlik yuklanadi. U tarbiyachi sifatida o'quvchilarni barkamol shaxs bo'lib kamol topishi to'g'risida, ularda aqliy teranlik, jismoniy baquvvatlilik, ruhiy tetiklikni tarkib toptirish, ilmga e'tiqod, bilimdonlik hislatlarini tarbiyalash to'g'risida va sinfdagi tartib intizomni mustahkamlash borasida g'amxo'rlik qiladi. Sinf rahbari bu ishlarning barchasini kuzatuvchi sifatida emas, balki rasmiy, ma'sul shaxs sifatida bajaradi, chunki u maktab pedagogik jamoasi oldida o'ziga topshirilgan sinfdagi g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy – axloqiy ishlarning ahvoli uchun, tarbiyaviy ishlarning mazmuni va yo'lga qo'yilishi uchun javobgardir. Sinf rahbarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tarbiya berish va ularni do'stona jamoa qilib jipslashtirishdan iboratdir. Albatta, o'z sinfidagi o'quv ishlari, o'quvchilar bilim, darajasini oshirish masalalari ham uning e'tiborini jalb etadi, ammo bu masalalarni hal etishga u avvalo tarbiyachi sifatida yondoshadi. U eng avvalo tarbiya berish vositalari orqali (o'quvchilarda o'quv vazifasiga nisbatan ongli va ma'suliyat bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash, u darslarda o'quvchilarning o'zaro yordamini yo'lga qo'yish, ularni maktab kun tartibiga rioya qilishga o'rgatish va shu kabilar) ta'lim berish sifatini oshirishda shu sinfdagi dars beradigan barcha o'qituvchilarga yordam beradi. Har bir sinfdagi muayyan o'quvchilar jamoasi ish olib boradiki, u jamoa o'quvchilarga qo'yiladigan yagona talabga amal qilish, ular bilan individual ish olib borishni amalga oshirish kerak. Odatda, bu jamoaning tashkilotchi va yetakchisi sinf rahbari bo'ladi. U sinfdagi dars beradigan o'qituvchilar olib boradigan o'quv-tarbiya ishlarining xususiyatlarini o'rganadi, ularning o'quvchilarga qo'yadigan talablari hamda o'quvchilar bilan o'zaro aloqalarini o'rganadi, ayrim o'quvchilar xulq-atvori haqida, ularga ta'sir ko'rsatish

metodlari haqida o'qituvchilar bilan o'zaro fikr almashib turadi. Uning muhim vazifasi o'qituvchilarning tarbiyaviy ish faoliyatlarini birlashtirib, yo'naltirib borishdan iborat. Sinf rahbari maktab pedagogik jamoasi va pedagogik kengashining a'zosi. U barcha tashkilotchilik va tarbiyaviy ishlarni faqat yolg'iz o'zi emas, balki maktab direktori va uning o'rinbosarlari rahbarligida, o'z sinfida dars beradigan boshqa o'qituvchilar bilan mustahkam hamkorlikda olib boradi va quyidagilarga o'z e'tiborini qaratadi.

Sinf rahbarininng vazifalari. Sinf rahbarining asosiy vazifasi-o'quvchilarning ahil guruhlarini, aniq maqsadga yo'naltirilgan ishchan jamoani tashkil qila olish va ularni ta'lim - tarbiyali shaxslar, kelajagi buyuk davlatning haqiqiy egalari, komil insonlar etib voyaga yetkazishdir.

Sinf rahbarlari o'quvchilariga mehribon bo'lishi, ularning o'sib-ulg'ayishlarini pedagogik kuzatuvlar asosida nazorat etishi, yordamga muhtoj o'quvchilarga yakka holda yondosha olishi lozim. Shu asosda ular qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik, mehr-muruvvat, mas'uliyat, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarini uyg'otadi.

Sinf rahbari ishini o'quvchilarning yosh xususiyatlarini va umumiy rivojlanish darajalarini, qobiliyatlarini hisobga olgan holda, keng qamrovli tarbiyaviy ishlar va aniq mezonlar asosida tashkil etadi.

Jumladan:

O'quvchilarni Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari ruhida tarbiyalash yo'nalishida;

O'quvchilarni vatanga fidoiylik, davlat ramzlariga sadoqat, milliy g'oya ruhida tarbiyalash;

O'quvchilar ongiga o'zi tug'ilib ulg'aygan yurtiga, buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg'ularini singdirish, yurtimizda bunyod etilayotgan inshootlar, ma'rifat maskanlari bilan tanishtirib borish;

Sinfda o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhitini yaratish, tarbiya jarayoniga boy madaniy merosimiz, milliy odob-axloq me'yorlarini tatbiq etish, mehnatga ijodiy munosabatni tarbiyalash;

O'quvchilarni o'zbek va boshqa xalqlarning madaniy, tarixiy, milliy an'analariga hurmat ruhida tarbiyalash;

Ota-onalar va mahalla bilan hamkorlik

Barkamol avlodni tarbiyalashda «Mahalla, maktab va oila hamkorligi» konsepsiyasini hayotga tatbiq etish, aniq belgilangan reja asosida sinf ota-onalar majlislarini o'tkazib borish;

O'quvchilarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilash, jumladan, kam ta'minlangan oilalar farzandlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, ota-onasiz bolalarning, homiylik va vasiylikka berilgan voyaga etmaganlarning ijtimoiy huquqlarini himoyalash;

O'quvchilarning maktabga belgilangan libosda kelishlarini nazoratga olish;

O'quvchilar kundaliklarining yuritilishini nazorat va tahlil qilish, ularning o'quv qurollari mavjudligi va saqlashlarini kuzatib borish;

O'quvchilarning turar joylari, uy sharoitlari bilan tanishish. Ularning sog'ligi, maishiy holatlarini o'rganish, yaxshilashga yordam berish. Uyda va maktabda madaniy dam olishlariga va mustaqil ishlashlariga sharoit yaratishga harakat qilish;

O'quvchilarning turli salbiy diniy oqimlar ta'siriga tushib qolishlarining oldini olish, bu borada targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

Sinf ota-onalar qo'mitasi bilan hamkorlikda umummaktab ota-onalar majlislari, konferensiyalar, davra suhbatlari, muloqotlar uyushtirish. Sinfda o'tkazilgan tarbiyaviy ishlar yuzasidan pedagogik kengashlarda hisobot berish;

Darslarga muntazam kelmaydigan, tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda ularning ota-onalari, huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlik qilish;

O'quvchilarni ota-onalar va kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash, kamtarlik, saxiylik va saxovatparvarlik, insonlarga yordam berishga tayyor turish, mehribonlik, mehnatsevarlik xislatlarini singdirib borish.

Maktabda tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyatini tashkil etish metodikasi. Sinf rahbari barkamol avlod tarbiyasiga mas'ul shaxs sifatida faoliyat ko'rsatadi.

BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT BILAN ISHLASHNING ZARURIYATI

Elova Marjona Shomurod qizi
BuxDPI 1-bosqich magistranti elovamarjona80@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola axborot texnologiyalarining (IT) boshlang'ich maktab matematika darslariga integratsiyasini o'rganadi. Ta'lim da texnologiyaning o'sib borayotgan ta'siri bilan ushbu tadqiqot IT-ning talabalarning matematik o'rganish tajribalariga ta'sirini baholashga qaratilgan. Maqolada adabiyotlar tahlili keltirilgan, qo'llanilgan usullar muhokama qilingan, tadqiqot natijalari keltirilgan va kelajakda amalga oshirish uchun tushuncha va takliflar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, boshlang'ich maktab, matematik ta'lim, integratsiya, raqamli ta'lim, pedagogika, o'quvchilarni jalb qilish, texnologik vositalar.

НЕОБХОДИМОСТЬ РАБОТЫ С ИНФОРМАЦИЕЙ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ

Аннотация: В данной статье рассматривается интеграция информационных технологий (ИТ) в уроки математики в начальной школе. Учитывая растущее влияние технологий в образовании, данное исследование направлено на оценку влияния информационных технологий на опыт обучения студентов математике. В статье представлен обзор литературы, обсуждаются используемые методы, представлены результаты исследований и в заключение приводятся выводы и предложения по дальнейшему внедрению.

Ключевые слова: Информационные технологии, начальная школа, математическое образование, интеграция, цифровое образование, педагогика, вовлечение учащихся, технологические инструменты.

THE NEED TO WORK WITH INFORMATION IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS

Abstract: This article examines the integration of information technology (IT) into elementary school mathematics lessons. With the growing influence of technology in education, this study aims to assess the impact of IT on students' mathematical learning experiences. The article provides a literature review, discusses the methods used, presents research findings, and concludes with insights and suggestions for future implementation.

Key words: Information technology, elementary school, mathematical education, integration, digital education, pedagogy, student involvement, technological tools.

Kirish. Bugungi kunning talabi har tamonlama yetuk, barkamol va har ishda ilg'or komil insonni tarbiyalashdir. Bu ulkan vazifani ta'lim jarayoni bevosita o'z zimmasiga oladi. O'zbekistonda ta'lim -tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri bu ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq bo'lib, bugun hayotimizga chuqur kirib borayotgan raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, yoshlarimizni O'zbekistonning qadimiy va boy tarixi, ezgu qadriyatlarimiz, yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan milliy axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish va dars davomida axborot bilan ishlash qanchalik muhim ekanini tushuntirishdan iboratdir.

Ta'lim ining asosiy maqsadlaridan biri zamonaviy ta'lim tizimida yuqori sifatli texnologiyalarni joriy etib, ta'lim samaradorligini oshirish va ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng ko'lamda joriy etishdan iborat.

Hozirgi zamon darsliklari o'quvchilarning fanga qiziqishini uyg'otish va bilimlarini yanada boyitish uchun kreativ fikrlashga undaydigan misol va masalalar bilan boyitilgan. Bunday misol va masalalarni o'quvchilarga samarali qilib yetkazish uchun multimedia va kompyuter texnologiyalarining ahamiyati beqiyosdir.

Matematika aniq mantiqiy mushohadalariga asoslangan bilimlar haqidagi fan deb e'tirof etilgan bo'lib, tafakkur-voqelikni bilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatning yuksak shakli hisoblanadi. Matematikada tafakkur yuritish mantiqiy qonunlar asosida amalga oshiriladi. Bugun o'quvchilar o'rtasida matematika faniga qiziqish har qachongidan ham rivojlanib bormoqda. Zero, fan olimpiadalarida yoshlarimiz ko'rsatayotgan natijalar fikrimizning yaqqol dalilidir.

Shu bois yurtimizda matematika darslari sifat va samaradorligini oshirishni avvalo boshlang'ich ta'lim dan boshlash maqsadga muvofiq sanaladi.

L.S. Vygotskiyning "Psixologik rivojlanish asoslari" asarida o'quvchilarning intellektual rivojlanishi va matematik bilimlarni o'zlashtirish jarayonida axborot bilan ishlash ko'nikmalarining shakllanishi muhim ekanligi ta'kidlangan. Olim, xususan, o'quvchilarning yangi bilimlarni egallash jarayonida ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida urg'u beradi. Yangi axborot va an'anaviy axborot o'rtasidagi farq, uning o'ziga xos kichik texnologik tizimdan iboratligidadir. Zero, istalgan ta'lim muassasasi axborot-kommunikativ texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi, ta'limning boshqa barcha didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, nazariy-metodologik jihatdan kichik tizimlardagi tub o'zgarishlar bilan kechadi.

"Videotopishmoq" metodi - ushbu metoddan foydalanishda quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilishi lozim:

- o'quvchilar 2-guruhga ajratiladi;
- o'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o'quvchilar har bir tasvirda qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
- 2 ta guruh bir-biriga tuzgan savollarni ketma-ketlikda berishadi;
- oxirida o'qituvchining videolavhaga qanday tartibda savollar tuzganini taqdim etishi bilan yakunlanadi;

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi. Qisqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashlarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi, shu bilan birga birga kollaboratsiya ya'ni guruhdoshlari hamkorlikda ishlash malakasi shakllanadi, bironvni fikrini hurmat qilishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi axborot texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalansa, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi va o'ziga bo'lgan ishonchi ortib, mustaqil fikri rivojlana boradi. O'qituvchi esa darsda o'z oldiga qo'ygan maqsadiga oson erishadi. Faqatgina o'quv jarayonida axborot texnologiyalari darsning asosiy tayanchi emas, balki bolaga yangi ma'lumotlarni, tushunchalarni osonlik bilan yetkazib berish hamda esda saqlashiga yordam beruvchi vosita sifatida qaralishi lozim. O'qituvchi esa darsning asosiy boshqaruvchisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qahhorov, S.Q., Hayitov, U.H. Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida innovatsion texnologiyalar. "Durdona" nashriyoti Buxoro – 2022 3-b;
2. Mullis, I.V.S., "Psixologik rivojlanish asoslari", 2012. -1088 p
3. Gadanidis, G., & Geiger, V. (2010). A social perspective on technology enhanced mathematical learning—from collaboration to performance. ZDM, 42(1), 91–104.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim -tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrda "Xalq ta'lim i tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № PQ-3931-sonli Qarori.
6. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM UZVIYLIGINI TA'MINLASH: ILMIY-NAZARIY YONDASHUV

Sayfiddinova Sitora

BuxDPI 1-bosqich magistranti:

Hasanova G.Q

Ilmiy rahbari: pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash masalalari ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab muhitiga tayyorlashda uzviylikning psixologik, metodik, pedagogik va dasturiy jihatlarini yoritiladi. Shuningdek, uzviylikni ta'minlashdagi muammolar va ularning echimlari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, uzviylik, metodika, pedagogika, integratsiya.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИНТЕГРАЦИИ ДОШКОЛЬНОГО И НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы обеспечения преемственности между дошкольным и начальным образованием с научно-теоретической и практической точек зрения. Анализируются психологические, методические, педагогические и программные аспекты подготовки детей дошкольного возраста к школьной среде. Также рассматриваются проблемы и научно обоснованные пути их решения.

Ключевые слова: дошкольное образование, начальное образование, преемственность, методика, педагогика, интеграция.

ENSURING INTEGRATION OF PRE-SCHOOL AND PRIMARY EDUCATION: A SCIENTIFIC AND THEORETICAL APPROACH

Absract. This article analyzes the issue of ensuring continuity between preschool and primary education from both theoretical and practical perspectives. It highlights the psychological, methodological, pedagogical, and curricular aspects of preparing preschool children for school. Furthermore, it discusses challenges in ensuring continuity and proposes scientifically grounded solutions.

Keywords: preschool education, primary education, continuity, methodology, pedagogy, integration.

Zamonaviy ta'lim tizimida bolani maktabgacha muhitdan boshlang'ich ta'lim ga o'tkazish jarayonida uzviylikni ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. Bola shaxsining har tomonlama rivojlanishi, psixologik barqarorligi va ta'lim dagi muvaffaqiyatining poydevori aynan mazkur bosqichlararo izchillikka bog'liq. Shuning uchun uzviylik — ta'lim tizimining yaxlitligini ta'minlovchi muhim pedagogik tamoyildir.

1. Uzviylik tushunchasi va uning ta'lim dagi ahamiyati

Uzviylik (preemstvennost) — bu bosqichlararo izchillik, mazmuniy va metodik muvofiqlikdir. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim da uzviylik bola rivojining tabiiy bosqichlarini inobatga olib, bilim va ko'nikmalarning izchil shakllanishini ta'minlaydi. Bu pedagogik jarayonda bola o'zini qulay his qilishi, yangi sharoitga moslashuvi va motivatsiyasini saqlab qolishi uchun muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalik davri asosiy ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning etakchi faoliyati o'yindir. Asosiy aqliy jarayonlar - xotira, diqqat, fikrlash, tasavvurning rivojlanishi ham davrda faol sodir bo'ladi maktabgacha yosh. Bolalar bog'chasidan maktabga o'tishda bolaning tanasi va psixologiyasida qayta qurish sodir bo'ladi. O'yindan o'yinga o'tish bolaning o'quv jarayonining o'zini idrok etishida ba'zi qiyinchiliklarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Bolalar bog'chasi va

maktab ishidagi uzluksizlik maxsus, yaxlit yaratishni nazarda tutadi ta'lim muhiti yagona tizimdagi uzluksiz ta'lim ning ushbu bo'g'inlari o'rtasida. Bunday yagona ta'lim muhitini tashkil etishda ta'lim muassasalari tomonidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad - ta'lim va ta'lim ga yagona yondashuvni oqilona rivojlantirishdir.

Ikkala madaniyat turlari bir-birini to'ldiradi va mustahkamlaydi. Masalan, inson iqtisodiy faoliyat yuritar ekan, u doimiy huquqiy muhitda harakat qiladi. Tadbirkorlik qilish, shartnoma tuzish, soliqlarni to'lash, mehnat munosabatlarini tashkil qilish – bularning barchasi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lsa-da, huquqiy bilimlarni talab etadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga asoslangan ta'lim hamda gumanistik yondashuvlar orqali talabada iqtisodiy-huquqiy tafakkurni shakllantirishga urinishlar mavjud. Biroq ta'lim mazmunida ko'proq nazariy jihatga urg'u berilib, amaliy mashg'ulotlar yetarli emasligi kuzatilmoqda. Oliy ta'lim tizimida talabaning iqtisodiy va huquqiy madaniyat darajasini aniqlash uchun obyektiv va aniq mezonlar ishlab chiqish zarur. Bugungi kunda aksariyat universitetlarda bu ikki yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalarni baholashda faqat reytinglar, yozma ishlanmalar yoki test tizimlari bilan cheklanib qolinyapti. Holbuki, madaniyat — bu faqat bilim emas, balki munosabat, qadriyat va ijtimoiy harakatlar tizimidir. Shuning uchun baholash tizimi ham kompleks bo'lishi shart.

Iqtisodiy madaniyatni baholovchi asosiy indikatorlarga talabalar tomonidan budjet tuzish malakasi, xarajat va daromadlarni tahlil qilish qobiliyati, moliyaviy rejalashtirish, investitsiyaviy qarorlar qabul qilishga tayyorgarlik, bozor sharoitini tushunish darajasi kiradi. Talabani har qanday iqtisodiy faoliyatga nisbatan munosabati, mas'uliyat hissi, moliyaviy etikaga sodiqligi ham muhim rol o'ynaydi. Huquqiy madaniyatni baholashda esa, avvalo, talabani O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik, mehnat va jinoyat qonunchiligiga oid asosiy bilimlari bo'yicha bilim saviyasi baholanadi. Biroq bu yetarli emas. Talabani huquqiy madaniyatini chinakam aks ettiruvchi belgilar — bu uning ijtimoiy faoliyati, qonunlarni hurmat qilishi, ijtimoiy adolat prinsiplariga sodiqligi, jamiyatdagi huquqiy munosabatlarda o'zining shaxsiy pozitsiyasini bildirib olishi, huquqiy konfliktlarni tahlil qila olishi kabilardir. Bugungi raqamli asrda ta'lim texnologiyalari insonning ongini, fikrlash madaniyatini va qaror qabul qilish qobiliyatini tubdan o'zgartirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy va huquqiy madaniyat kabi murakkab tushunchalarni shakllantirishda zamonaviy texnologiyalar ta'lim mazmunini qiziqarli, hayotiy va ta'sirli qiladi. Interaktiv metodlar, vizual vositalar, multimedia kontentlar, o'yinli formatdagi mashg'ulotlar, sun'iy intellekt asosidagi o'quv chatbotlar orqali talaba ongida barqaror ta'sir hosil qilish mumkin.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining asosiy ustunligi shundaki, ular talabani faolligini, mustaqil fikrlashini, tanqidiy yondashuvini shakllantiradi. Shuningdek, texnologik vositalar orqali iqtisodiy va huquqiy muammolar bo'yicha bahs-munozaralarni tashkil qilish, virtual debat platformalari yaratish, jamiyatdagi real voqealarga yondashuv bildirish imkonini berish mumkin. Bu esa nafaqat nazariy, balki fuqarolik va kasbiy yetuklikni rivojlantiradi. Shu bois, oliy ta'limda pedagoglar tomonidan Moodle, Edmodo, Kahoot, Quizizz, Google Classroom kabi platformalardan samarali foydalanish orqali talabani iqtisodiy-huquqiy tafakkurini rivojlantirish mumkin. Biroq bu uchun avvalo o'qituvchilarning texnologik savodxonligi, yangi metodlarga ochiqligi va innovatsion ta'lim muhitini yaratish ko'nikmalari bo'lishi zarur.

Iqtisodiy va huquqiy madaniyatni shakllantirishda milliy va xorijiy tajribalarni solishtirish, o'zaro integratsiya qilish oliy ta'lim tizimi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. O'zbekiston ta'lim tizimida keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar — huquqiy savodxonlik haftaliklari, iqtisodiy formalar, yoshlar parlamenti, tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash kurslari — bu borada muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, xorijiy tajribalarni chuqur tahlil qilish va kontekstda moslashtirish zarur. Masalan, Germaniyada talabalar moliyaviy savodxonlikni bolalikdan o'rganadi. AQShda esa "Constitutional Law in Practice" kursi orqali talabalar real huquqiy jarayonlarda ishtirok etadi. Janubiy Koreyada esa "Youth Economy Labs" orqali o'quvchilar iqtisodiy muammolar yechimini topadi. Xitoyda esa iqtisodiy-huquqiy bilimlar bilan texnologiyani uyg'unlashtirish tajribasi mavjud.

Pedagogik strategiyalar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: faoliyatga asoslangan yondashuv, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, taqqoslama o'rganish, reflektiv yondashuv, rolli o'yinlar, ijtimoiy loyiha yaratish. Ushbu metodlar talabani faolligini oshirib, ularni ijtimoiy-huquqiy jarayonlarda faol ishtirok etishga undaydi. Ta'lim tizimida mazkur siyosiy hujjatlarni amalda qo'llash orqali talabalarni huquqiy-me'yoriy asosda faol fuqarolik pozitsiyasiga tayyorlash mumkin. Misol uchun, yangi qabul qilinayotgan qonunlar, soliq imtiyozlari, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlovchi normativlar, ekologik-iqtisodiy masalalardagi qonuniy tartibotlar — bularning barchasi ta'lim mazmunida yoritilishi va muhokama qilinishi kerak.

Davlat va nodavlat sektor o'rtasidagi hamkorlik, xususan, "yoshlar yetakchiligi", "mahalla maslahatchilari" instituti, "fuqarolik jamiyati subyektlari" bilan olib borilayotgan hamkorlik amaliyoti misolida davlat siyosatining faol mexanizmlari ochib beriladi. Natijada, talabalar o'z fuqarolik burchini, iqtisodiy erkinliklarini, konstitutsiyaviy huquqlarini anglab yetgan, demokratik jamiyatda faol ishtirok etishga tayyor yetuk shaxslar sifatida shakllanadi.

Xulosa. Oliy ta'lim tizimida talabalar shaxsini har tomonlama yetuk, fuqarolik mas'uliyatini his qiladigan, iqtisodiy jihatdan ongli va huquqiy madaniyatga ega inson sifatida shakllantirish bugungi globallashtirish davrida dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Iqtisodiy va huquqiy madaniyat — bu nafaqat muayyan bilimlar yig'indisi, balki bu jamiyat

taraqqiyotini belgilovchi asosiy madaniy-ijtimoiy ko'rsatkichdir. Talabada bu madaniyatni shakllantirish esa oliy ta'lim ning eng muhim vazifalaridan biridir. O'tkazilgan ilmiy-tadqiqotlar, nazariy tahlillar va mavjud pedagogik tajribalar shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy va huquqiy madaniyat mustahkam asosga ega bo'lishi uchun ta'lim mazmuni yangilanishi, interaktiv va innovatsion metodlar asosida olib borilishi lozim. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanilgan holda iqtisodiy simulyatsiyalar, huquqiy treninglar, case-stadilar, bahs-munozaralar orqali talabalarda mustahkam hayotiy ko'nikmalar hosil qilinadi. Bunday yondashuvlar talabaning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, tanqidiy yondashuv va javobgarlik xususiyatlarini rivojlantiradi.

Talabaning iqtisodiy va huquqiy madaniyatini baholash mezonlarini aniqlashtirish, kognitiv, affektiv va konativ komponentlar asosida indikatorlar ishlab chiqish bu madaniyatni amaliy baholash va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mezonlar orqali nafaqat bilim, balki talabaning shaxsiy munosabati va ijtimoiy faoliyati ham chuqur tahlil qilinadi. Milliy va xorijiy tajribalar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy va huquqiy madaniyatni shakllantirishda davlat siyosati, ta'lim islohotlari va jamiyatdagi fuqarolik institutlari bilan uzviy integratsiya zarur. Xorij tajribasida bu masalalar ta'lim ning barcha bosqichiga tatbiq etilgan bo'lsa, O'zbekistonda ham bu borada muhim huquqiy asoslar, dasturlar va strategiyalar shakllanmoqda. Bu esa masalaning ijobiy yechimini ta'minlovchi ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratmoqda. Shunday qilib, oliy ta'lim tizimida iqtisodiy va huquqiy madaniyatni shakllantirish, bu jarayonni samarali mexanizmlar bilan ta'minlash — yosh avlodni ijtimoiy hayotda faol, ongli va mas'uliyatli ishtirokchiga aylantirishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bunda pedagogik yondashuvlar, davlat siyosati, zamonaviy texnologiyalar, milliy va global tajriba uyg'unlashgan holda bir butun tizimda amal qilsa, bu boradagi natijalar yanada samarali va barqaror bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "O'zbekiston – 2030" strategik dasturi. – T.: "Adolat" nashriyoti, 2023. – B. 18.
2. Tursunov B.O. "Iqtisodiy madaniyat asoslari". – T.: IQTISODIYOT, 2020. – B. 59.
3. Nurmatova G.I. "Yoshlar huquqiy tarbiyasi asoslari". – T.: Yangi asr avlodi, 2019. – B. 72.
4. Abduazizov A.A. "Huquqiy ong va madaniyat: nazariya va amaliyot". – T.: HUQUQ, 2021. – B. 80.
5. Haydarov S.S. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar". – T.: Innovatsiya, 2022. – B. 64.
6. Abdug'aniev M.M. "Ta'lim tizimida iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish". – T.: Ma'rifat, 2021. – B. 53.
7. Jurayev A.J. "Oliy ta'lim da huquqiy madaniyatni shakllantirish strategiyalari". – T.: Ilm ziyo, 2020. – B. 41.
8. G'afforov O.M. "Huquqiy tarbiya va ijtimoiy ong". – T.: O'qituvchi, 2018. – B. 70.
9. Yusupov I.I. "Iqtisodiy tafakkur asoslari". – T.: Sharq, 2023. – B. 66.
10. Karimova M.T. "Pedagogik yondashuvlar va innovatsiyalar". – T.: Fan va texnologiya, 2022. – B. 84.
11. UNESCO. "Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives". – Paris, 2019. – P. 91.
12. Constitutional Awareness in Higher Education. – Berlin: Springer, 2021. – P. 105.
13. Legal Literacy and Civic Education: Comparative Practices. – Cambridge Univ. Press, 2022. – P. 76.
14. Tanaka H. "Economic Education in Asian Universities". – Tokyo: APEC Studies, 2020. – P. 67.
15. Ziyayeva S.B. "Yoshlar ijtimoiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasi". – T.: Yosh kuch, 2023. – B. 48.
16. Bozorov K.K. "Demokratiya va qonun ustuvorligi". – T.: Huquqiy davlat, 2018. – B. 58.
17. Mamatqulov E.E. "Raqamli ta'lim va huquqiy innovatsiyalar". – T.: Zamonaviy bilim, 2024. – B. 62.

RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY O‘SISHNI TAKOMILLASHTIRISH

*Qo‘ldoshev Ro‘zimurod Avezmurodovich
Buxoro innovatsiyalar universiteti II bosqich magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotning zamonaviy taraqqiyotdagi o‘rni, uning innovatsion texnologiyalar bilan o‘zaro aloqasi, iqtisodiy o‘sishga ta’siri chuqur ilmiy tahlil qilingan. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, jahon va O‘zbekiston misolidagi rivojlanish bosqichlari, shuningdek, iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashdagi roli keng yoritilgan. Ishda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida olib borilayotgan islohotlar, milliy raqamli infratuzilmaning shakllanishi, IT-ekotizimlar va kiberxavfsizlik masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlariga ham e’tibor qaratilgan. Kalit so‘zlar.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak murabbiy, kasbiy madaniyat, sport pedagogikasi, kurash, murabbiylik kompetensiyasi, sport etika va estetika, zamonaviy texnologiyalar, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, axloqiy tarbiya, sport psixologiyasi, kommunikativ ko‘nikma, milliy qadriyatlar, innovatsion o‘qitish.

IMPROVING ECONOMIC GROWTH BASED ON THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES

Abstract. This article provides a deep scientific analysis of the role of the digital economy in modern development, its interaction with innovative technologies, and its impact on economic growth. The concept of the digital economy, its components, stages of development in the world and in Uzbekistan, as well as its role in ensuring economic efficiency are widely covered. The work analyzes the reforms carried out on the basis of the “Digital Uzbekistan - 2030” strategy, the formation of a national digital infrastructure, IT ecosystems and cybersecurity issues. Attention is also paid to the problems arising in the process of digital transformation and their solutions. Keywords.

Keywords: future coach, professional culture, sports pedagogy, wrestling, coaching competence, sports ethics and aesthetics, modern technologies, person-centered approach, moral education, sports psychology, communicative skills, national values, innovative teaching.

ПОВЫШЕНИЕ ТЕМПОВ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА НА ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Абстрактный. В статье представлен глубокий научный анализ роли цифровой экономики в современном развитии, ее взаимодействия с инновационными технологиями и ее влияния на экономический рост. Широко освещены понятие цифровой экономики, ее составляющие, этапы развития в мире и в Узбекистане, а также ее роль в обеспечении экономической эффективности. В работе анализируются реформы, проводимые на основе стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030», формирование национальной цифровой инфраструктуры, ИТ-экосистемы, вопросы кибербезопасности. Также уделено внимание проблемам, возникающим в процессе цифровой трансформации, и путям их решения. Ключевые слова.

Ключевые слова: будущий тренер, профессиональная культура, спортивная педагогика, спортивная борьба, тренерская компетентность, спортивная этика и эстетика, современные технологии, личностно-ориентированный подход, нравственное воспитание, спортивная психология, коммуникативные навыки, национальные ценности, инновационное обучение.

Raqamli iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, iqtisodiy o‘sish, transformatsiya, raqamli savodxonlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli infratuzilma, elektron hukumat, raqamli xizmatlar, “Raqamli O‘zbekiston – 2030”, kiberxavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik, raqobatbardoshlik. Bugungi kunda dunyo miqyosida

iqtisodiy rivojlanishning yangi paradigmasi – raqamli iqtisodiyotga o'tish bosqichi kechmoqda. Raqamli texnologiyalarning keskin rivojlanishi, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), IoT (Internet of Things), bulutli hisoblash, blokcheyn va avtomatlashtirish kabi innovatsion vositalar butun iqtisodiy tizimni tubdan o'zgartirib yubordi. Aynan shu o'zgarishlar jarayonida davlatlar iqtisodiy o'sishni faqat an'anaviy resurslar emas, balki intellektual va raqamli salohiyat, innovatsion yondashuvlar, texnologik transformatsiya orqali ta'minlashga intilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning ahamiyati shundaki, u iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi, inson resurslarini yuqori unumdorlik bilan boshqarish imkonini beradi, shuningdek, axborot oqimini real vaqt rejimida tahlil qilish orqali tezkor, aniq va asosli iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Bu esa nafaqat sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida, balki davlat boshqaruvi, sog'liqni saqlash, ta'lim, moliya va boshqa tarmoqlarda ham inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi raqamli iqtisodiyotga o'tish borasida muhim bosqich bo'lib, mamlakatda innovatsion iqtisodiy modelga asoslangan, texnologik jihatdan ilg'or, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan rivojlanish kursini belgilab berdi. Ushbu strategiya asosida raqamli infratuzilma barpo etilmoqda, IT-parklar va texnoparklar tashkil etilmoqda, elektron hukumat tizimi kengaytirilmoqda, aholi va tadbirkorlarning raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi oshmoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirishda mavjud muammolar – raqamli tafovut, infratuzilmaning yetarli emasligi, raqamli savodxonlikning past darajasi, IT-kadrlar yetishmasligi, kiberxavfsizlik muammolari dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. Ana shunday sharoitda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish dinamikasini chuqur ilmiy tahlil qilish, innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy o'sish jarayoniga ta'sirini baholash, samarali rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish nihoyatda zarur bo'lib qolmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi, eng avvalo, iqtisodiy o'sishni zamonaviy raqamli yechimlar orqali ta'minlash zarurati bilan belgilanadi. Chunki bugungi real iqtisodiy sharoitda raqamli texnologiyalarni o'zlashtirmagan, innovatsion salohiyatga ega bo'lmagan davlatlar global raqobatda orqada qolmoqda. Shu sababli raqamli iqtisodiyot rivoji, uning ustuvor yo'nalishlari, muammolari va istiqbollari har bir davlat, jumladan, O'zbekiston uchun ham strategik ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, "Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va innovatsion texnologiyalar asosida iqtisodiy o'sishni takomillashtirish" mavzusi nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo'lib, u zamonaviy iqtisodiy siyosatning poydevorini tashkil etuvchi muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot — bu zamonaviy texnologiyalar asosida faoliyat yuritadigan yangi turdagi iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Uning negizida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet xizmatlari, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, bulutli hisoblash, elektron savdo va raqamli to'lov tizimlari yotadi. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi ilk bor 1990-yillarda paydo bo'lgan bo'lsa-da, XXI asrda u global iqtisodiy muhitni tubdan o'zgartirib yubordi. Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda, balki davlat boshqaruvi, moliyaviy tizim, sog'liqni saqlash, ta'lim, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa sohalarda ham ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasi, tarmoqlari, raqamli mahsulot va xizmatlar, shuningdek, bu sohadagi yetakchi davlatlar tajribasi, AQSH, Xitoy, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida olib borilayotgan raqamlashtirish siyosatlari keng tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotda axborot asosi, infratuzilmaning roli, innovatsion muhitning shakllanishi va raqamli savodxonlik darajasi muhim tarkibiy omillar sifatida ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Innovatsion texnologiyalar iqtisodiy o'sishning eng muhim drayverlaridan biri hisoblanadi.

Bu jarayonlar iqtisodiyotda raqobatbardoshlik darajasini oshirishga olib keladi. Ushbu bobda innovatsion texnologiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Jumladan, innovatsiyalarni iqtisodiy o'sishga olib boradigan asosiy omillar — investitsiyalar, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI), intellektual mulk himoyasi, texnologik transfer, startup ekotizimlarining rivoji — ilmiy asosda yoritiladi. Shu bilan birga, dunyodagi ilg'or tajribalar (Janubiy Koreya, Estoniya, Isroil kabi mamlakatlar misolida) innovatsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri orqali ko'rsatiladi. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda olib borilayotgan

islohotlar: IT-parklar, texnoparklar, AKTni rivojlantirish markazlari, yoshlar startaplari qo'llab-quvvatlanishi orqali innovatsion o'sish omilini shakllantirishga intilmoqda.

Strategiyada elektron hukumatni rivojlantirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, elektron tijorat va elektron to'lov tizimlarini takomillashtirish, raqamli infratuzilmani kengaytirish, IT-sohada kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Shu bilan birga, mamlakatda raqamli iqtisodiyotning istiqbollari — "aqli shaharlar", raqamli qishloq xo'jaligi, elektron ta'lim, sun'iy intellektga asoslangan tibbiyot kabi yo'nalishlar bo'yicha strategik chora-tadbirlar yoritiladi. Raqamli iqtisodiyot rivojida bir qator to'siq va cheklovlar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etmasdan iqtisodiy o'sishni barqaror ta'minlash mushkuldir. Bunday muammolar qatoriga infratuzilmadagi tengsizlik, past raqamli savodxonlik, IT-kadrlar tanqisligi, kiberxavfsizlik tahdidlari, normativ-huquqiy muammolar, innovatsion faoliyatga sarmoyaning yetarli emasligi, mahalliy kompaniyalarning texnologik darajasi pastligi kiradi. Ushbu bobda aynan mana shu muammolar tahlil qilinadi va ularni hal qilish bo'yicha ilmiy asoslangan strategiyalar ishlab chiqiladi. Xususan, "Digital inclusion" – raqamli inklyuziya siyosatining afzalliklari, AKT infratuzilmasini mintaqaviy rivojlantirish zaruriyati, IT-ta'limni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, xususiy sektorni IT-loyihalarga jalb etish, davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsiyalarni rivojlantirish, zamonaviy raqamli yondashuvlarni (govtech, regtech, agritech) ilgari surish usullari ko'rib chiqiladi.

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot bugungi global iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas va yetakchi omiliga aylangan bo'lib, uning rivojlanish sur'atlari har bir davlatning milliy iqtisodiy xavfsizligi, raqobatbardoshligi va ijtimoiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy iqtisodiy modeldan farqli o'laroq, raqamli iqtisodiyot axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, raqamli moliyaviy xizmatlar va internet infratuzilmasiga asoslangan innovatsion yondashuvlarni o'z ichiga oladi. U iqtisodiy faoliyatning har bir bosqichini soddalashtiradi, xarajatlarni qisqartiradi, samaradorlikni oshiradi va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi tahlillar va amaliy holatlar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali:

- ✚ Yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish,
- ✚ Mehnat bozorining yangi shakllarini yaratish,
- ✚ Mahsulot va xizmatlarning eksport salohiyatini kuchaytirish,
- ✚ Davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash,
- ✚ Ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash mumkin.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot iqtisodiy tenglik, inklyuzivlik va ekologik barqarorlik kabi zamonaviy taraqqiyot mezonlariga mos tushadi. Uning yordamida urbanizatsiya, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim va moliyaviy xizmatlar sifatini keskin oshirish mumkin. Bu esa davlat va jamiyat o'rtasida ishonchli va tezkor axborot almashuvini ta'minlash, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va milliy iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash imkonini beradi. Biroq raqamli iqtisodiyotning muvaffaqiyatli shakllanishi uchun bir qancha muhim shart-sharoitlar mavjud: zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda aholining raqamli savodxonligini oshirish, IT-kadrlar tayyorlash, kiberxavfsizlikni ta'minlash, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va xususiy sektorni faol jalb qilish shart.

Shunday qilib, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va innovatsion texnologiyalar asosida iqtisodiy o'sishni takomillashtirish nafaqat dolzarb, balki strategik jihatdan ustuvor yo'nalishdir. U milliy iqtisodiyotga barqarorlik, raqobatbardoshlik, inklyuzivlik va zamonaviylik baxsh etuvchi asosiy vositaga aylanishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 5-oktabr, PF-6079. – 18 b.
2. Murodov I., Yo'ldoshev Q. Raqamli iqtisodiyot: tushuncha, rivojlanish bosqichlari va istiqbollari. – T.: Iqtisodiyot, 2022. – 224 b.
3. Alimov R.X. Innovatsion iqtisodiyot va axborot texnologiyalari. – T.: Innovatsiya, 2021. – 178 b.
4. Abdullayev S.A. Raqamli texnologiyalar asosida iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish. – T.: Fan, 2023. – 203 b.

-
5. Soliyev B., Yo'ldasheva M. Raqamli transformatsiya va iqtisodiy o'sish. – T.: Ilm Ziyo, 2023. – 156 b.
 6. Toirov D.R., Yoqubov F. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – T.: Innovatsiya, 2022. – 134 b.
 7. Jumaev D. Innovatsion rivojlanish va raqamli transformatsiya: tahlil va istiqbollar. – T.: Tafakkur, 2023. – 175 b.
 8. Moliya va iqtisodiyot jurnali. 2022-yil, №4. – 86-94 b.
 9. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar agentligi materiallari. – T.: ATKA, 2023. – 65 b.
 10. Internet boshqaruvi bo'yicha xalqaro forum (IGF) 2023-yilgi yakuniy hisobot. – 124 b.
 11. O'zbekiston Respublikasida raqamli savodxonlik bo'yicha dastur. – T.: Adliya vazirligi, 2022. – 52 b.
 12. Davlat statistika qo'mitasi hisobotlari. – T.: DSQ, 2023. – 76 b.
 13. Jahon banki. Digital Development Partnership Report. – Washington, 2023. – 134 p.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA PEDAGOG TARBIYACHINING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN ROLI

Kamolova Mohidil Komil qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti kamolovamohidil425@gmail.com

Annotatsiya: Tarbiyachi – bu nafaqat bolalar bilan ishlaydigan mutaxassis, balki jamiyatning kelajagini shakllantiruvchi muhim shaxsdir. Tarbiyachilar bolalarning shaxsiyati, axloqi va intellektual rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ular bolalarni tarbiyalash jarayonida nafaqat bilim berish, balki ularni hayotga tayyorlash, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va mustaqil fikrlashga o'rgatish vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: tarbiyachilar, jamiyat, bolalar, ijodiy fikrlash, qobiliyatlar, qadriyatlar, ta'lim.

РОЛЬ ПЕДАГОГА В ОРГАНИЗАЦИИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА

Аннотация: Педагог – это не только специалист, работающий с детьми, но и важный человек, формирующий будущее общества. Воспитатели играют важную роль в личностном, нравственном и интеллектуальном развитии детей. В процессе воспитания детей они выполняют задачу не только дать знания, но и подготовить их к жизни, развить социальные навыки и научить самостоятельно мыслить.

Ключевые слова: педагоги, общество, дети, творческое мышление, способности, ценности, образование.

THE ROLE OF THE TEACHER IN THE PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION IN COMMUNITY LIFE

Abstract: An educator is not only a specialist who works with children, but also an important person who shapes the future of society. Educators play an important role in the personality, moral and intellectual development of children. In the process of raising children, they perform the task of not only imparting knowledge, but also prepare them for life, develop social skills and teach them to think independently.

Key words: educators, society, children, creative thinking, abilities, values, education.

Tarbiyachining asosiy vazifasi – bolalarga ta'lim berishdan tashqari, ularning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham katta e'tibor qaratishdir. Tarbiyachi bolalar bilan doimiy aloqada bo'lib, ularning hissiyotlarini, ehtiyojlarini va qobiliyatlarini tushunishga harakat qiladi. Bu jarayonda tarbiyachi bolalarning o'zaro munosabatlarini, do'stlik va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Tarbiyachining bu yondashuvi bolalarga o'zlarini ishonchli his qilishlariga, o'z fikrlarini ifoda etishlariga va jamiyatda o'z o'rnini topishlariga yordam beradi. Tarbiyachilar jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Ular bolalarni tenglik, hurmat va o'zaro yordam kabi qadriyatlar bilan tanishtiradi. Tarbiyachilar bolalarga boshqalar bilan qanday munosabatda bo'lishni, boshqalarni hurmat qilishni va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishni

o'rgatadi. Bu qadriyatlar bolalarning kelajakdagi hayotida muhim ahamiyatga ega bo'ladi va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Tarbiyachilar shuningdek, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Ular bolalarga o'z fikrlarini ifoda etish, yangi g'oyalar yaratish va ijodiy yechimlar topish imkoniyatini beradi. Tarbiyachilar bolalarning ijodiy faoliyatini rag'batlantirish orqali ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo'lishlariga yordam beradi. Tarbiyachining jamiyatdagi o'rni, shuningdek, ta'lim tizimining sifatini oshirishda ham muhimdir. Tarbiyachilar ta'lim jarayonida bolalarning qiziqishlarini, ehtiyojlarini va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, o'quv dasturlarini ishlab chiqadilar. Ular bolalarning individual yondashuvini ta'minlash orqali ta'lim jarayonini samarali qiladi. Tarbiyachilar ta'lim jarayonida innovatsion usullarni qo'llash orqali bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni yangi bilimlarni o'zlashtirishga rag'batlantiradi. Tarbiyachilar, shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashda muhim rol o'ynaydi. Ular ota-onalarga bolalarini tarbiyalashda yordam berish, ularga maslahatlar berish va bolalarning rivojlanishini kuzatish orqali ota-onalar bilan mustahkam aloqalar o'rnatadi. Tarbiyachilar ota-onalar bilan birgalikda bolalarning tarbiyasi va rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni yaratishga harakat qiladi. Bu hamkorlik bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachining jamiyatdagi o'rni, shuningdek, madaniyat va an'analarni saqlashda ham muhimdir. Tarbiyachilar bolalarga o'z milliy madaniyatini, urf-odatlarini va an'analarni o'rgatish orqali ularning o'zligini rivojlantirishga yordam beradi. Ular bolalarga o'z madaniyati va tarixini tushunishga yordam berish orqali ularni milliy g'urur va identifikatsiya hissinini rivojlantiradi. Bu jarayon bolalarning o'zligini anglashlariga va jamiyatda o'z o'rnini topishlariga yordam beradi. Tarbiyachilar shuningdek, bolalarga global muammolarni tushunishga yordam berish orqali ularga kengroq dunyoqarashni rivojlantiradi. Ular bolalarga ekologik muammolar, ijtimoiy adolat va inson huquqlari kabi masalalarda bilim berish orqali ularni faol fuqarolar sifatida tarbiyalaydi. Bu jarayon bolalarning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi va ularni jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlaydi. Tarbiyachining jamiyatdagi o'rni, shuningdek, bolalarning psixologik rivojlanishida ham muhimdir. Tarbiyachilar bolalarning hissiy holatini tushunib, ularga zarur yordam ko'rsatish orqali ularning psixologik salomatligini ta'minlaydi. Ular bolalarga stressni boshqarish, hissiyotlarini ifoda etish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini o'rgatish orqali ularning psixologik rivojlanishiga yordam beradi. Bu jarayon bolalarning o'z-o'zini anglashlariga va o'z hissiyotlarini boshqarishlariga yordam beradi.

Tarbiyachilar jamiyatda muhim rol o'ynaydi. Ular bolalarning shaxsiyati, axloqi va intellektual rivojlanishida, ijtimoiy adolatni ta'minlashda, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda, ta'lim tizimini takomillashtirishda, ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashda, madaniyat va an'analarni saqlashda, global muammolarni tushunishda va bolalarning psixologik rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachilar bolalarning kelajagini shakllantirishda muhim rol o'ynab, jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shadilar. Shuning uchun, tarbiyachilarning mehnati va ularning jamiyatdagi o'rni har doim e'tiborda bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova, S. (2020). "Bolalar tarbiyasi: nazariya va amaliyot". Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
2. Tursunov, B. (2019). "Tarbiyachilik san'ati". Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti.
3. Isroilova, D. (2021). "Tarbiyachining ijtimoiy roli". Farg'ona: Farg'ona Davlat Universiteti.
4. Mamatqulova, N. (2022). "Bolalar psixologiyasi va tarbiyasi". Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
5. Qodirova, R. (2023). "Tarbiyachilar va ularning jamiyatdagi o'rni". Andijon: Andijon Davlat Universiteti.
6. Nurmatova, A. (2020). "Bolalar bilan ishlashda tarbiyachining roli". Namangan: Namangan Davlat Universiteti.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM UZVIYLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA YECHIM

Berdiyeva Sadoqat Eshonqul qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi
Tohirova Gulmira Idiris qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviyligini ta'minlashning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Mualliflar ushbu ikki ta'lim bosqichi o'rtasidagi metodik, mazmuniy va psixologik bog'liqlikning ahamiyatini asoslab beradi. Yagona yondashuvlar asosida ta'lim dasturlarini uyg'unlashtirish, pedagoglar malakasini oshirish va otalalar bilan hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Uzviylik, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, pedagogik integratsiya, ta'lim sifati.

PROSPECTS FOR INTEGRATION OF PRE-SCHOOL AND PRIMARY EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Annotation: This article analyzes the theoretical and practical foundations of ensuring continuity between preschool and primary education. The authors justify the importance of methodological, content-related, and psychological connections between these two educational stages. Prospects for harmonizing educational programs based on a unified approach, improving teachers' qualifications, and developing cooperation with parents are examined.

Keywords: Continuity, preschool education, primary education, pedagogical integration, quality of education.

ПЕРСПЕКТИВЫ ИНТЕГРАЦИИ ДОШКОЛЬНОГО И НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и практические основы обеспечения преемственности между дошкольным и начальным образованием. Авторы обосновывают значимость методической, содержательной и психологической связи между этими двумя этапами обучения. Рассматриваются перспективы гармонизации образовательных программ на основе единого подхода, повышения квалификации педагогов и развития сотрудничества с родителями.

Ключевые слова: преемственность, дошкольное образование, начальное образование, педагогическая интеграция, качество образования.

Zamonaviy ta'lim tizimi inson kapitalini shakllantirish, intellektual salohiyatni rivojlantirish va shaxsni har tomonlama kamol toptirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlari bola shaxsining shakllanishida, uning aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojida poydevor vazifasini bajaradi [1]. Bugungi kunda ushbu ikki bosqich o'rtasida uzviylikni ta'minlash ta'lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda.

Bolaning maktabga tayyorlanishi, boshlang'ich sinfga o'tishda qiynalmasligi, yangi ta'lim muhitiga moslasha olishi bevosita maktabgacha ta'lim muassasasidagi pedagogik yondashuvlar, metodik vositalar va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Shuningdek, boshlang'ich sinfdan o'qituvchilar tomonidan maktabgacha ta'lim tajribasi hisobga olinmasligi bola uchun stressli muhit yaratadi. Demak, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviyligini ta'minlash – bolalarning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini saqlab qolish, motivatsiyasini oshirish va sifatli bilim olishiga imkon beruvchi strategik yo'nalish hisoblanadi.

Uzviylik tamoyilining pedagogik mohiyati. Pedagogikada uzviylik – bu ta'lim bosqichlari orasida mazmuniy, metodik, tashkiliy va psixologik jihatdan izchillikni ta'minlashni anglatadi. Bu tamoyil asosida bola rivojining uzluksizligini, qiyinchiliksiz moslashuvini, o'zlashtirish

darajasining barqarorligini ta'minlash maqsad qilinadi. Maktabgacha ta'lim dagi o'yin faoliyati, erkin fikrlash, ijodiy yondashuvlar boshlang'ich ta'lim da ham davom ettirilishi kerak.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim maqsadlarining uyg'unligi. Maktabgacha ta'lim – bolaning ilk ijtimoiylashuv bosqichi bo'lib, bu davrda u atrof-muhitni o'rganadi, muloqot ko'nikmalarini egallaydi, ilk tushunchalarni o'zlashtiradi. Boshlang'ich ta'lim esa bu bilim va ko'nikmalarni tizimli shaklda rivojlantiradi [2]. Har ikki bosqichda bolaning shaxs sifatida kamoloti, axloqiy fazilatlar, kommunikativ qobiliyatlari va mustaqil fikrlash malakalari shakllantiriladi. Shunday ekan, bu bosqichlar o'rtasida maqsad uyg'unligi va bosqichma-bosqich rivojlanish tamoyili muhimdir.

Psixologik muvofiqlik va rivojlanish bosqichlari. Bolaning psixik rivojlanishi bosqichma-bosqich kechadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar – affektiv, ya'ni hissiy-intuitiv tafakkur bilan ajralib turadi. Boshlang'ich sinfda esa mantiqiy fikrlash shakllanadi. Bu bosqichlar o'rtasida psixologik muvofiqlikni ta'minlash, darslarda o'yin elementlari, rasm chizish, she'r aytish, rol o'yinlardan foydalanish bola uchun qulay muhit yaratadi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim da uzviylikni ta'minlashda amaliy muammolar:

Dastur va metodikalardagi tafovutlar. Maktabgacha ta'lim dagi dasturlar bolani o'yin orqali o'rganishga yo'naltirgan bo'lsa, boshlang'ich sinfda fanlar asosida bilim berish ustuvorlik qiladi [3]. Bu esa bolaning moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ko'pincha bolaning avvalgi ta'lim tajribasini hisobga olmaydilar. Bu esa bilimlar uzluksizligi tamoyiliga ziddir.

O'qituvchilar malakasi va metodik yondashuvlar. Maktabgacha ta'lim pedagoglari ko'proq ijtimoiy va psixologik rivojlanish masalalariga e'tibor qaratadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari esa o'quv fanlarini o'rgatishga urg'u beradi. Har ikki bosqich o'qituvchilari uchun yagona metodik treninglar, tajriba almashuv darslari, qo'shma pedagogik kengashlar tashkil qilinmasligi uzviylikka to'sqinlik qiladi [4].

Diagnostika va baholash tizimining uzilishi. Maktabgacha ta'lim da bolaning yutuqlari asosan kuzatish va suhbat asosida baholanadi. Boshlang'ich sinfda esa reyting, ball va sinov tizimi mavjud. Bu o'zgarish bola uchun stress manbaiga aylanishi mumkin. O'quvchining rivojlanish dinamikasini izchil kuzatish, yagona diagnostika mezonlarini joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.-Toshkent: Adolat, 2020.
2. Xolmatova M, Yusupova D. Maktabgacha ta'lim metodikasi asoslari. -Toshkent: Innovatsiya,2021.
3. Yoqubov I.Y. Pedagogika nazariyasi va tarixi. -Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Davronova Z.M. Maktabgacha ta'lim psixologiyasi. -Toshkent: FAN, 2018.

BOSHLANG'ICH SINFDA ONA TILI DARSIDA O'QUVCHILARNING TIL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR

Turganbekova Gulsiyma Ziyurbek qizi
Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning til kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning samarali metodik yondashuvlari yoritiladi. Til kompetensiyasining tarkibiy qismlari, yosh psixologiyasi bilan bog'liq jihatlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'yin va matn asosidagi topshiriqlar, tanqidiy fikrlashga asoslangan metodlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: til kompetensiyasi, boshlang'ich sinf, ona tili, o'yin metodlari, matn asosida ishlash, kommunikativ kompetensiya, tanqidiy fikrlash, baholash.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ

Аннотация: В данной статье освещаются эффективные методические подходы к формированию и развитию языковой компетенции у учащихся на уроках родного языка в начальных классах. Рассматриваются составные части языковой компетенции, аспекты, связанные с возрастной психологией, современные педагогические технологии, задания, основанные на играх и текстах, а также методы, основанные на критическом мышлении.

Ключевые слова: языковая компетенция, начальные классы, родной язык, игровые методы, работа с текстом, коммуникативная компетенция, критическое мышление, оценка.

METHODS USED IN DEVELOPING THE LANGUAGE COMPETENCE OF STUDENTS IN MOTHER LANGUAGE LESSONS IN PRIMARY CLASS

Annotation: This article discusses effective methodological approaches to forming and developing language competence in students during native language classes in primary grades. It analyzes the structural components of language competence, age-related psychological aspects, modern pedagogical technologies, game-based and text-based assignments, and methods based on critical thinking.

Keywords: language competence, primary grades, native language, game methods, text-based work, communicative competence, critical thinking, assessment.

Bugungi kundagi ta'lim ning bosh maqsadi – funksional savodxon, tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror chiqarishga qodir, fikrini erkin ifoda eta oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishishda til ta'lim i asosiy omil bo'lib, uning ilk poydevori aynan boshlang'ich sinflardagi ona tili darslarida qo'yiladi. Shu sababli til kompetensiyasini shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Til kompetensiyasi – bu faqat nazariy bilim emas, balki uni amaliyotda ongli va faol qo'llashdir. Mominova til o'rganishda og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar, jumladan, matn yaratish, ssenariy tuzish, fikr bildirish mashqlari orqali o'quvchining til faoliyatini shakllantirishni muhim deb hisoblaydi [1]. Bunday metodik yondashuv o'quvchining tanqidiy fikrlashini, muloqotda erkinligini oshiradi. Til kompetensiyasi bu o'quvchining tinglash, gapirish, o'qish va yozish faoliyati orqali til qoidalarini o'zlashtirishi hamda ulardan muloqotda maqsadli foydalanish ko'nikmasidir. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- leksik kompetensiya – lug'aviy zahira va uning to'g'ri qo'llanishi;
- grammatik kompetensiya – grammatik qoidalarni o'zlashtirish va qo'llash;
- diskursiv kompetensiya – matn yaratish va uni mantiqiy davom ettirish qobiliyati;
- sotsiolingvistik kompetensiya – til birliklarini ijtimoiy kontekstga mos ravishda qo'llash ko'nikmasi.

Zamonaviy pedagogikada kompetensiyaviy yondashuv o'quv markazli (learner-centered) modelga asoslanadi. Bu yondashuv o'quvchining bilimi, ko'nikmasi, malakasi va shaxsiy faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi. Q. Qudaybergenova bu yondashuvni “bilim berish sifatini oshirishning yangi yo'nalishi” deb ataydi [2]. Unga ko'ra, til kompetensiyasi faqat grammatik me'yorlar bilan chegaralanib qolmasdan, balki o'quvchining axborot izlash, fikr bildirish, bahs yuritish, nutq etikasiga amal qilish kabi ko'nikmalarini qamrab olishi lozim.

Zamonaviy metodlarning tadbiqui quyidagilardan iborat:

1. Kommunikativ yondashuv: O'quvchilarning to'rt asosiy til ko'nikmasini uyg'un holda rivojlantirishga yo'naltirilgan. Mashg'ulotlar real hayotiy vaziyatlar asosida tashkil etiladi.

2. Kompetensiyaga asoslangan ta'lim : Har bir topshiriq ma'lum bir til ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

3. O'yin texnologiyalari: Muloqotli va interfaol o'yinlar orqali tilni o'rgatish — eng samarali usullardan hisoblanadi.

4. Matn asosida ishlash: Matnni to'ldirish, davom ettirish, savol-javob, reja tuzish, sarlavha qo'yish.

5. Tanqidiy fikrlash topshiriqlari: “Nima uchun?”, “Nima sababdan?” kabi savollarga javob berish, tahlil va esse yozish.

6. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar: Interfaol doska, audio-video materiallar, onlayn o'yinlar orqali ta'lim sifatini oshirish.

O'qituvchining roli. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi til kompetensiyasini shakllantirishda asosiy figurant hisoblanadi. U:

- ochiq va erkin muloqot muhitini yarata olishi;
- usuliy vositalarni tizimli ravishda qo'llay olishi;
- differensial ta'limni tashkil eta olishi zarur.

Baholash va refleksiya. Formativ baholash, o'z-o'zini baholash va refleksiya orqali o'quvchilar o'z bilimini tahlil qiladi, mustahkamlaydi va rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf ona tili darslarida til kompetensiyasini rivojlantirish — shaxsiy, ijtimoiy va akademik rivojlanishning mustahkam poydevoridir. Uyin texnologiyalari, matn asosida tahlil, tanqidiy fikrlash va AKT vositalari bu jarayonda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Момынова Б. “Қазіргі қазақ тілі: оқыту әдістемесі”, Алматы: Қазақ университеті, 2015. – 312 б.

2. Құдайбергенова К. “Құзыреттілік тәсіл – білім беру сапасын арттырудың жаңа бағдары”, Алматы: РБК, 2010. 128 б.

UZLUKSIZ TA'LIM TA'LIM JARAYONIDA MOTIVATSIYANING ROLI VA UNING IJTIMOIIY AHAMIYATI

*Xudayberganova Lobarxon Ibodulla qizi
Guliston davlat universiteti Psixologiya yo'nalishi talabasi
Ravshanov Sobir Abdimalik o'g'li
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: hozirgi jadal rivojlanayotgan davrda har bir shaxs bilimi, o'zi bilgan ko'nikma, maxorat, odat va boshqa shunga o'xshash jamiyatdan o'zi o'zlashtirib olgan ma'naviy boyliklar orqali o'z hayot tarzini hamda boshqalarga munosabatini shakllantiradi. Dunyo ijtimoiy-iqtisodiy tizimini globallasuvi va integrallasuvi jamiyatga, xususan inson falsafasiga o'z ta'sirini o'tkazib, uni ma'lum bir yo'nalishlarga yetaklaydi.

Kalit so'zlar: motivatsiya, ijobiy motivatsiya, salbiy motivatsiya, yoshlar, harakat, faollik, qobiliyat, shaxsiyat, inson, ehtiyoj, rag'batlantirish, xulq-atvor.

НЕПРЕРЫВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ РОЛЬ МОТИВАЦИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ И ЕЕ СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация: в современную бурно развивающуюся эпоху каждый человек формирует свой образ жизни и отношение к другим через знания, умения, навыки, привычки и другие подобные духовные богатства, которые он приобрел от общества. Глобализация и интеграция мировой социально-экономической системы оказывают влияние на общество, в частности на философию человека, направляя ее в определенных направлениях.

Ключевые слова: мотивация, положительная мотивация, отрицательная мотивация, молодежь, движение, активность, способность, личность, человек, потребность, стимул, поведение.

CONTINUOUS EDUCATION THE ROLE OF MOTIVATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS AND ITS SOCIAL SIGNIFICANCE

Annotation: in the current rapidly developing era, each person forms his own lifestyle and attitude towards others through knowledge, skills, abilities, habits and other similar spiritual wealth that he has acquired from society. The globalization and integration of the world's socio-economic system have an impact on society, in particular on human philosophy, leading it in certain directions.

Keywords: motivation, positive motivation, negative motivation, youth, movement, activity, ability, personality, person, need, incentive, behavior.

Ta'lim da uzviylik ikki xil turda qo'llaniladi. Birinchidan, ta'lim turlari (bo'g'inlari) orasidagi uzviylik. Bunda ta'lim ning keyingi turi mazmuni avvalgisini qisman takrorlab, mazmun jihatidan uzviy bog'langan holda uning keyingi ta'lim turlarida davom etadi. Ikkinchidan, o'quv fanlari orasidagi uzviylik. Bu odatda fanlararo yoki predmetlararo bog'lanish orqali amalga oshiriladi. Uzviylik tushunchasi uzluksiz ta'lim tizimining har bir turida o'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablarni xarakterlaydi.[1] Uzviylik o'quv materialining muayyan ketma-ketlikda, tizimli joylashtirilishi, bilimlarni o'zlashtirishda mavjud bilimlarga tayanish, o'quv materialining ma'lum darajada navbatdagi bosqichlarda qo'llanilishi, o'quv-tarbiya jarayoni bosqichlarining davomiyligini anglatadi. Mazkur hodisa o'quv predmeti materiallarini joylashtirish hamda ushbu predmet (fan) asoslarini o'zlashtirish faoliyati turlarining samarali tanlanishiga yordam beradi. Bu jarayonda quyidagi ikki omil: muayyan fanning mazmuni mantig'i (o'quv predmetida uzviylikning mavjudligini aniqlovchi jihatlar-o'quv predmeti mazmunini tashkil qiluvchi tushuncha, qonun-qoidalar, manbalar va dalillar hisoblanadi).

O'zaro organik bog'lanuvchi avval va keyin o'zlashtirilgan muayyan soha bilimlari mohiyatini ma'lum ketma-ketlik asosida asta-sekin ochib berilishini ta'minlovchi harakatlar) hamda bilimlarini o'zlashtirish jarayonining qonuniyatlari (didaktik jihatdan qayta ishlanmagan muayyan soha bilimlarining o'quv predmetiga to'g'ridan-to'g'ri singdirilishiga yo'l qo'ymaydigan harakat, amal)ni inobatga olish muhim ahamiyatga ega hisoblanishi nazarda tutilgan. Pedagogika sohasiga oid adabiyotlarda uzviylik tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan. Masalan, **B.G.Ananyev** "uzviylik" tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Ta'lim dagi uzviylik o'quvchilar fan asoslarini egallash jarayonida olgan bilimlar tizimining vaqt nuqtai nazaridan rivojlanishidir" [2].

Motivatsiya ma'lum bir martaba uchun individual va mas'uliyatli tanlovning muhim hal qiluvchi omilidir. Motiv va motivatsiya muammosi jahon psixologiyasida turli tuman nuqtai nazaridan yondoshish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Motivatsiya inson xulq atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, motivatsiya (grekcha motif, lotincha moveo – "harakatlantiraman" so'zidan yasalgan) – insonni biron-bir maqsadga erishish uchun astoydil intilish, bunga ishtiyoq uyg'otishga qiziqtirish va buning uchun kuch jamlash jarayonidir. Ruscha-o'zbekcha lug'atda motivatsiya tushunchasi biror ish yoki harakatning yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan motivlar, dalillar, isbotlar, bahonalar, vajlar yoki sabablar majmui ma'nosida talqin etiladi. Inson motivatsiyasi tog'risida yozilgan ilmiy ishlarda "agar inson xayoti uning rivojlanishga qarab oldinga harakatlanish bo'lsa, unda hayoti bu o'z-o'zini takomillashtirish hamda o'z shaxsiyatining o'sishida eng yuqori natijalarga erishish yo'lidagi doimiy ravishda yangi-yangi to'siqlarni bartaraf etish jarayoni deb aytisak bo'ladi. Va bu jarayonda insonning har bir qilgan xatti-harakatining ma'nosini anglab yetish eng asosiy rol egallaydi" deb ta'kidlangan. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, motivlarning rivojlanishi, motivlashgan yangi ma'lumotlarning paydo bo'lishi, faoliyat muhiti doirasidagi o'zgarishlar tufayli amalga oshiriladi. Motiv mexanizmi shaxs sifatlarini qayta qurish, ularni rivojlantirish jarayonining faollashuvi tarzida yuzaga chiqadi, shu bilan birga inson kamol topish jarayoniga, faoliyat muhiti va sharoiti asta sekin yoki tez o'zgarishi – motivlarning takomillashuvi, barqarorlashuvi kabi omillarga ta'sir etadi. Insonni mehnat faoliyatida qayta tarbiyalash va muayyan fazilatlarini shakllantirish yuqoridagi mulohazalar mohiyatidan iboratdir. Bu o'rinda faoliyat faol vaziyat hisoblanib, mavjud ehtiyojlar, qiziqishlar doirasidagi psixologik holatlardan uzoqlashib boradi, so'ngra yangi qiziqish, ehtiyoj va intilishlarni shakllantiradi, motivlar mohiyati va shakllarni o'zgartiradi. [3]

Insonning qaysi faoliyatini tanlashi ko'proq tashqi omillar haqidagi karorning kabul kilinishi jarayoni haqida tuxtalishi muhimdir. Bu asosan tashki holat baholariga, o'zining imkoniyat va kobiliyatlariga, kasb tanlashdagi qiziqish va moyilliklariga bog'liqdir. Tashqi holatini baholash, ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar, o'zida ishlab topiladigan pul mikdori, imtiyoz, taklif etilayotgan korxona, muassasaning yashash joyiga yaqin bo'lishi, transpot alokalarining kulayligi, ish joyi estetikasi va ishlab chikarishning zararli tomonlari, jamoadagi psixologik iklim, maktov va tartibga chakirish kabilarni kamrab oladi. O'z imkoniyatlarini baxolash soglomligi, ishga yarokliligi, kasbi bo'yicha muhim sifatlarga egaligi, bilim darajasi,

stresslarsiz ishga moyilligi, yuqori shovkinli ishda talab etilgan temp va xotirjam ritm bilan ishlay olish imkoniyati kabilarni uz ichiga oladi.

Qiziqishlarga mos ravishda tanlangan ish joyini baholash, ayni vaqtda ishlayotgan muassasasi, korxonadagi imkoniyat to'siqlari, ishni boshqarish, kasbiy o'sish, tashabbusning paydo bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ba'zan qiziqish bo'yicha ish joyini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ish joyini va kasbni tanlash motivlari E.S.Chuchunay tomonidan klassifikasiya qilingan. Motivlarning mustaxkamlanishi mehnat faoliyatida ishlovchilarning ko'pgina omillarini qondirilishiga bog'liq bo'ladi. G'arb psixologlaridan V.Vrum va E.Disi mehnat faoliyati motivasiyasini tarkibiy qismlarini ajratadilar. Unga ko'ra insonlar qanchalik uz ishidan qoniqsa, shunchalik ular o'z ishlarini bajarishga kuchliroq xarakat qiladilar. Ularni faoliyat jarayonida ragbatlantirib borilsa, shunchalik qattiqroq ishlaydilar. Bunday yondashuvda amalga oshiriladigan ragbatlantirish ishchilar faoliyatining mahsuldorligiga bog'liq. Bunda ular faoliyat ko'rsatadigan firma, kompaniya va tashkilotlardan kuch oladilar. [4]

So'rovnomaga natijalariga muvofiq ishdan bo'shashning turi - obyektiv, obyektiv - subyektiv va subyektiv ko'rinishlarga ajratiladi. Obyektiv sabablarga sog'liqning yomonligi va jismoniy holati, turar joyini o'zgarishi, ta'lim olishni davom ettirish, tug'ish va bolani parvarishlash kabilar kiradi. Obyektiv - subyektiv sabablarga mehnat shartnomasining shartlari, kasbiy o'sish, yuksalish imkonining yo'kligi va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Subyektiv sabablarga jamoadagi psixologik iqlim, shaxslararo munosabatlar va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Ishsizlarning ish qidirish motivasiyalari haligacha ham o'rganilmayotgan muammo bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga ishsizlarning axloqi, yangi ish joyini topish bo'yicha faoliyati ko'p jihatdan uning motivasion jabhalariga, ularning tuzilishiga kam hollarda hayot mazmunining shart-sharoitlariga bog'liq. M.V.Dmitriy ta'kidlaganidek, ishsizlarning motivasion jabhalarini o'ziga xos xususiyatlari ish izlashdagi faoliyatlari motivasion tuzilishlarining xamma ko'rsatkichlariga bog'liq holda namoyon bo'ladi. [5] Ular ijtimoiy o'zgarishlardan mustakil bo'lish uchun kayta xarakat kilishda uz imkoniyatlaridan foydalanishga turtki beradi. Passiv ishsizlarning motivasion imkoniyatlarini tuzilish xususiyati alohida motivlarning xam asosan ular doimiy xarakatlanuvchanligi bilan tavsiflanadi.

Pedagogik oliy o'quv yurtlariga kirish va pedagog kasbini tanlash motivlari (o'qituvchi, bog'cha tarbiyachisi va b.) turli xil bo'lib, bunda ulardan bir qanchasi pedagogik faoliyat bilan bog'liq bo'ladi. Bu jihat anchadan beri pedagogik, jamoatchilik va oliy o'quv yurtlarini o'yantirib keladi. O'tkazilgan ko'pgina so'rovlar bo'yicha olingan natijalarda (pedagogik oliy o'quv yurtiga kirganlarning) o'qituvchi kasbiga ijobiy munosabat bildirgan. Taxminan 40 % u yoki bu narsa yoki predmetlarga qiziqqani tufayli o'qituvchilik faoliyatiga qiziqmagan xolda 13 % dan 22 % talabalar esa na o'qituvchilik faoliyatiga va na kasbiy fanga ijobiy munosabat bildiradi. Ularni oliy o'quv yurtiga kirishidan maksad ayni vaktda xarbiy xizmatdan qochish yoki oliy ta'lim nufuziga ega bo'lish hisoblanadi. Ko'pgina, talabalarning pedagogika o'quv yurtiga kirish sabablari shu dargoxning ularning turar joyiga yaqinligi bo'ladi. Bu ko'rsatkich, bunday moyillik ko'p yillar davomida saqlanib kelmoqda.

O'rganilgan manbalarga ko'ra motivasiya tiplari o'qituvchilarning o'quvchilarga bo'lgan pedagogik talablarining yo'nalishi va xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining turli tomonli motivasiyasi o'quvchilarning axloqiga va ularning o'quv materialini o'zlashtirishga talabning uyg'unligi bilan tavsiflanadi. O'qituvchilardagi majburiyat motivlarining ustunligi o'quvchilarga fakatgina katta talablar kuyib qolmasdan, balki, qat'iy intizomni ham talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Anorbayevna, G. N. (2016). Influence of the sibling statute's of teenagers on interpersonal relations. European journal of education and applied psychology, [3-5 bet]
2. Deci EL, Ryan RM. Self-determination theory: A macro theory of human motivation, development, and health. Canadian Psychology. 2008;49(3):182-185. [4-7 bet]
3. Deci EL, Ryan RM. Self-determination theory: A macro theory of human motivation, development, and health. Canadian Psychology. 2008;49(3):182-185.
4. O.E.Hayitov; Psixodiagnostika: O'quv qo'llanma // V.M.Karimovanning umumiy tahriri ostida. - T.: 2007. [1,2- 76 bet]

5. Rasulova Miss, F. (2020). PSYCHOCORRECTIONAL WORK OF A PRACTICAL PSYCHOLOGIST WITH AGGRESSIVE BEHAVIOR OF CHILDREN AND TEENAGER. The Light of Islam, 2020. [5-123 bet]

BOSHLANG'ICH TA'LIM DA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'RNI

*Askarova Shirin Muxiddin qizi
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya Ushbu maqolada axborot kommunikatsion texnologiyalari ya'ni, zamonaviy kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf darslarida foydalanishning afzallik va qulaylik tomonlari yoritilgan. Shuningdek maqolada pedagogik texnologiyalardan qo'llash orali ta'lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy xususiyatlar ko'rsatib berilgan hamda oliy o'quv yurtidagi sifat tizimi tushunchasini asosini ifodalovchi qoidalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, axborot, texnologiya, kompyuter, taqdimot, dars, samaradorlik, test, animatsion, multimedia, fanlar, didaktik, pedagogik, psixologik.

РОЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация В данной статье рассматриваются преимущества и удобство использования информационно-коммуникационных технологий, то есть возможности современных компьютерных технологий на уроках начальной школы. В статье также показаны основные черты, определяющие качество образовательного процесса посредством использования педагогических технологий, и представлены правила, составляющие основу концепции системы качества в высшем учебном заведении.

Ключевые слова: начальное образование, информация, технология, компьютер, презентация, урок, эффективность, тест, анимация, мультимедиа, науки, дидактический, педагогический, психологический.

THE ROLE OF USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN PRIMARY EDUCATION

Abstract This article discusses the advantages and convenience of using information and communication technologies, that is, the capabilities of modern computer technologies in primary school classes. The article also shows the main features that determine the quality of the educational process through the use of pedagogical technologies, and presents the rules that represent the basis of the concept of a quality system in a higher education institution.

Keywords: primary education, information, technology, computer, presentation, lesson, efficiency, test, animation, multimedia, sciences, didactic, pedagogical, psychological.

Kirish. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan o'qituvchilarning darslarga ijodiy yondashishini ta'minlash, ular faoliyatiga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o'quvchilarning dastlabki egallaydigan bilimlarning poydevori mustahkam bo'lishi, barcha fanlarni o'zlashtirishga qiziqishini oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Shuningdek, ta'lim tizimida ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, xalq ta'lim i muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish, yoshlar ta'lim -tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Pedagogik va psixologik tadqiqotlarga ko'ra inson ongi ma'lumotlarning 90% ni ko'rish, 9% ni eshitish, 1% ni esa his qilish orqali qabul qilar ekan. Bundan kelib chiqqan holda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri

rivojlanishiga katta ta'sir etadi. Multimedia texnologiyalarida an'anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko'rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko'rinishida ifodalanilishi o'quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo'lishga o'rgatadi, chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi. Bu orqali fanga bo'lgan qiziqish uyg'onib, o'z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash, mavzuni o'rganishda o'zi uchun qulay bolgan tezlik va o'zlashtirish darajasini tanlash imkoniyatini beradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o'qituvchi dastlab:

- darsning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;
- o'quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;
- o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim bo'ladi.

Axborot texnologiyalaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining barcha o'quv fanlarida samarali foydalanish mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali mashq, nazorat mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Unga fanga oid qoidalarni joriy o'rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan grammatika, orfografik mavzular bo'yicha boy va turlituman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ona tili darslarida insho yozishda taqdimotlardan foydalanish qulay. U orqali mavzuning savol va rejalarini tuzish, qiyin so'zlarni topish osonlashadi. Insho rasm asosida yozilayotgan bo'lsa, mavzuga doir rasmni ekranda namoyish etish imkonini beradi. Axborot texnologiyalari yetakchi o'ringa chiqib olgan hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda maktablar tizimini, ta'lim mazmunini yangilash zaruratga aylandi. Ta'lim -tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb - hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda o'rta ta'lim ning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash, ta'lim da tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yul oshish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddaodir. Masalan, barcha maktablarda zamonaviy kompyuterlar va internet mavjud emas. Shuningdek, o'qituvchilarning axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha yetarlicha malakaga ega emasligi ham muhim muammolardan biridir. Elektron darsliklar va ta'lim platformalarini ko'paytirish. Ta'lim jarayonini jonlantirish axborot texnologiyalarining joriy etilishi darslarni jonli va interaktiv qilishga imkon beradi. Masalan, elektron darsliklar, video darslar va ta'limiy o'yinlar bolalar uchun dars jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faolligini oshirish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metod va shakllari haqidagi masala tobora dolzarblashib bormoqda. Yangi axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish ta'lim mazmuniga, shuningdek, boshlang'ich ta'lim mazmuniga ham yangilik olib kiradi. Kompyuterda o'yinlar o'ynar ekan, o'quvchi mashina bilan muloqotning birmuncha oddiy shakllarini o'zlashtiradi.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi axborot texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalansa, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi va o'ziga bo'lgan ishonchi ortib, mustaqil fikri rivojlana boradi. O'qituvchi esa darsda o'z oldiga qo'ygan maqsadiga oson erishadi. Faqatgina o'quv jarayonida axborot texnologiyalari darsning asosiy tayanchi emas, balki bolaga yangi ma'lumotlarni, tushunchalarni osonlik bilan yetkazib berish hamda esda saqlashiga yordam beruvchi vosita sifatida qaralishi lozim. O'qituvchi esa darsning asosiy boshqaruvchisidir. Boshlang'ich ta'lim da axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy o'quvchilarning

raqamli dunyoga moslashishi, mustaqil o'rganish qobiliyatining shakllanishi va ta'lim jarayonining interaktiv bo'lishi uchun ATdan foydalanish zarur. Shuning uchun, ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Multimedia ilovalarining turlari" <http://tami.uz/>
2. Olimov Q.T. Maxsus fanlar bo'yicha elektron darsliklarni yaratishning uslubiy asoslari. G'G' Kasb-hunar ta'lim i №2. 2004 y.
3. Rasulov O. Zamonaviy elektron darsliklarning didaktik xususiyatlari Kasb-hunar ta'lim i. №5. 2005 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim -tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6108-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'lim i tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № PQ-3931-sonli Qarori.
6. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008.

ZAMONAVIY TA'LIM DA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING IMKONIYATLARI

*Xaydarova Oliy Kaxxarovna,
p.f.n., dotsent. Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
"Pedagogika va o'qitish metodikasi" kafedrasida*

Annotatsiya. Maqola zamonaviy ta'lim da axborot texnologiyalarining imkoniyatlari masalasiga bag'ishlangan. Bo'lajak mutaxassisni tayyorlash jarayonida axborot texnologiyasi va texnik vositalar samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanishning ob'ektiv ehtiyoji oliy ta'lim tizimini jahon standartlariga muvofiq yo'nalishda amalga oshirishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda kompyuter texnologiyalarining inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib borishi yangi ta'lim tizimining faol rivojlanishi, ta'lim oluvchilarning kognitiv faoliyatdagi faolligini oshirish, zarur ma'lumotlarni qidirishni optimallashtirish, fikrlashni rivojlantirish, axborot va turli dasturiy mahsulotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllanishiga faol ta'sir etadi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim , axborot texnologiyalari, bo'lajak mutaxassis, tayyorlash jarayoni, axborot texnologiyasi, texnik vositalar, kognitiv faoliyat, optimallashtirish, fikrlashni rivojlantirish, axborot va turli dasturiy mahsulotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllanish.

ВОЗМОЖНОСТИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. Статья посвящена вопросу возможностей информационных технологий в современном образовании. Объективная необходимость широкого использования дидактических материалов, определяющих эффективность информационных технологий и технических средств в процессе подготовки будущих специалистов, требует внедрения системы высшего образования в соответствии с мировыми стандартами. В современных условиях проникновение компьютерных технологий практически во все сферы деятельности человека активно влияет на активное развитие новой системы образования, повышая активность обучающихся в познавательной деятельности, оптимизируя поиск необходимой информации, развивая мышление, формируя навыки работы с информацией и различными программными продуктами.

Ключевые слова: современное образование, информационные технологии, будущий специалист, процесс обучения, информационные технологии, технические средства,

познавательная деятельность, оптимизация, развитие мышления, формирование навыков работы с информацией и различными программными продуктами.

OPPORTUNITIES OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION

Annotation. The article is devoted to the issue of the possibilities of information technologies in modern education. The objective need for the widespread use of didactic materials that determine the effectiveness of information technology and technical means in the process of training future specialists requires the implementation of the higher education system in accordance with world standards. In modern conditions, the penetration of computer technologies into almost all areas of human activity actively affects the active development of a new education system, increasing the activity of learners in cognitive activity, optimizing the search for necessary information, developing thinking, and forming skills in working with information and various software products.

Key words: modern education, information technology, future specialist, learning process, information technology, technical means, cognitive activity, optimization, development of thinking, formation of skills for working with information and various software products.

Bugungi kunda jahon axborot-ta'lim makoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimining faol rivojlanishi kuzatilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kompyuter yordamida o'qitiladigan ta'lim oluvchilar va o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanilmay ta'lim olgan o'quvchilarning bilimlarida sezilarli farq bor. Shuning uchun axborot texnologiyalari ta'lim ga qo'shimcha bo'lmalik, balki butun o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lib, samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi kerak.

Ta'lim sohasiga axborot texnologiyalarining joriy etilishi o'qitish mazmuni, usullari va shakllarini sifat jihatidan o'zgartirish imkonini beradi. Ta'lim dagi ushbu texnologiyalarning maqsadi: ta'lim sifatini oshirish, ta'lim oluvchilarning kognitiv faoliyatdagi faolligini oshirish, zarur ma'lumotlarni qidirishni optimallashtirish, fikrlashni rivojlantirish, axborot va turli dasturiy mahsulotlar bilan ishlash ko'nikmalarini o'zlashtirish.

Ta'lim jamiyatning yangi sifatini shakllantirish omili hisoblanib, uning taraqqiyotida inson ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Yangiliklarning asosini – bo'lajak mutaxassisni rivojlangan zamonaviy kasbiy tayyorlash tashkil etadi.

Ta'lim – taraqqiyot bosqichidagi eng asosiy tizim hisoblanadi. Jamiki o'zgarishlar, yangilanishlar bevosita ta'lim rivoji bilan bog'liq. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev iborasi bilan aytganda, «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz». [1]

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davrida jamiyat hayotiga yandiliklarning kirib kelishi, inson mehnatining ham takomillashishi, qulaylikka ega bo'lishini ta'minlab beradi.

Albatta, bugungi kundagi yangilanish jarayonlari ta'lim ga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ta'lim da yangiliklarning muhim elementlaridan biri bu kompyuter va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan ajralib turadigan jamiyatni axborotlashtirish deb hisoblash mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalari tufayli o'quv jarayoni sifat jihatidan yangi shakllarda shakllana boshladi. Ta'lim tizimida axborotlardan foydalanish jarayoni har qanday ma'lumotni on-layn rejimida olish, konferensiyalarda, veb-seminarlarda masofadan turib qatnashish, jahon kutubxonalari kitoblaridan, eng yaxshi ilmiy maqolalar materiallaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan barcha ta'lim oluvchilar uchun eng keng istiqbollarni ochib berdi. Internet talabalar, o'qituvchilar, shuningdek ma'lum bir sohada o'z kasbini o'zgartirishni yoki qo'shimcha ma'lumot olishni istagan keng doiradagi odamlar uchun ma'lumot olishning eng muhim manbalaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda axborot texnologiyasi va texnik vositalar samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy ta'lim texnologiyalarning asosiy belgilaridan biridir.

Axborot texnologiyalarini qo'llagan holda texnik vositalar orqali o'qitish jarayoni o'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlarini optimallashtiradi. Bunda har ikkala shaxs

ham faol ishtirokchiga aylanishi ko'zda tutiladi. Ta'lim jarayonining samaradorligi esa ushbu o'zaro munosabatlarning qanday bo'lishiga bog'liq, albatta.

Ta'lim jarayoni axborot texnologiyalari orqali yuksak saviyada tashkil etilsa bo'lajak mutaxassislarda intellektual faollik namoyon bo'ladi. Intellektual faollik esa bo'lajak mutaxassisning har tomonlama tayyorgarlik ko'rishiga, bo'lajak faoliyatning ustasi bo'lib etishishiga yordam beradi.

Axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida o'rinli foydalanish muhim hisoblanib, quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- har bir odamga xos noyob fazilatlardan iborat individual qobiliyatlarni o'qitilayotgan o'quvchi va talabalarda ochish, saqlash va rivojlantirish, ularda bilish qobiliyatlarini, o'zini o'zi kamolotga etkazishga intilishni shakllantirish;

- voqea va hodisalarni kompleks o'rganishni, aniq, tabiiy-ilmiy, texnikaviy, ijtimoiy, gumanitar fanlar va san'at orasidagi o'zaro bog'liqlikning chambarchasligini ta'minlash;

- o'quv-tarbiya jarayonlarining mazmun, shakl va metodlarini doimiy tarzda va dinamik ravishda yangilash.

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishda qo'yidagilarga e'tibor qaratish lozim:

ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishda o'qitishning noan'anaviy modellaridan unumli foydalanish, innovatsiyalardan foydalanishga erishish, zamonaviy o'quv-ta'minot bazasini yaratish lozim;

ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini yanada takomillashtirishda pedagoglar tomonidan maxsus turdagi topshiriqlar, mustaqil faoliyat turlarini bajarish orqali ro'yobga chiqarilishi va ularning samaradorligi muayyan mezonlar yordami bilan amalga oshirilishi lozim;

fikrlash faoliyatida yanada samaradorlikka erishish maqsadida professor-o'qituvchi va talabalar uchun metodik ta'minotni yaratish.

Axborot texnologiyalaridan faqat o'quv jarayonida emas, balki uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarni ilmiy-texnik va maxsus axborot bilan ta'minlaydigan axborot ishida, ta'lim tizimini boshqarishda va kadrlarning malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash tizimida ham foydalanish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda axborot texnologiyalarini ta'lim ga joriy etishda ularning texnik vositalarini integratsiyalash asosiy yo'nalish bo'lmoqda. Shu munosabat bilan, hatto «multimedia» tushunchasi paydo bo'ldiki, u o'qitishda ko'pchilik texnik vositalardan kompleks foydalanishni bildiradi.

Axborot texnologiyalarni qo'llashda eng muhim masala ta'lim oluvchilarni kerakli axborotni tanlab olishga o'rgatishdan iborat bo'ladi.

O'qituvchi(pedagog)ning vazifasi faqat axborotni berish emas, balki uni topishda yordam berishdan iborat bo'ladi. Bundan tashqari o'qituvchi (pedagog) bilimlar sohasida yo'l ko'rsatuvchi hamdir.

Bu kabi o'qitish vositalari kompleksidan foydalanilgan holda ta'lim oluvchiga ta'sir ko'rsatish birgina axborot kanallari (ko'rish, eshitish va h.k.) orqali amalga oshiriladi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi.

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish shakllarini tiklash muammosi yangicha hal etilishi lozim. Agar an'anaviy ta'lim sharoitlarida bilish faoliyatini tashkil etishning eng ko'p tarqalgan shakllari individual va frontal shakllar bo'ladigan bo'lsa, axborot texnologiyalaridan foydalanish sharoitida ularning ikkalasidan bir vaqtda foydalanish mumkin.

Xulosa qilib shuni ta'kidlashni lozimki, bo'lajak mutaxassislarda intellektual faollik oshirishda ta'lim da axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, shuningdek o'quv materiallarini to'g'ri tanlash, qayta ishlab, ta'lim oluvchilarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab, shakli, hajmini o'zgartirish ta'lim jarayonining yuqori samaradorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoev. Milliy taraqqiyot va yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: «O‘zbekiston» NMIU. 2017, 124-b.
2. R. Ishmuxamedov, M.Yuldashev. “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. – T.: 2013.
3. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: O‘z MU. 2003. - 66 b
3. Xaydarova O.K. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvga tayyorlash. Monografiya. –Qarshi, «Nasaf» nashriyoti, 2020.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA HUQUQIY ONGNI RIVOJLANTIRISH TIZIMI

Umurov Zarif Latifboyevich

Buxoro davlat pedagogika instituti professor,p.f.f.d.(PhD)

Zaripova Mohinabonu O‘ktam qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida huquqiy ongni shakllantirish zarurati, bu boradagi shakl, metod va vositalarning turlari, ular asosidagi pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Huquqiy tarbiyaning erta bosqichdan boshlanishi, bolalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishga ijobiy ta’siri va bu yo‘nalishda o‘qituvchining roli yoritiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim , huquqiy ong, huquqiy tarbiya, pedagogik metod, tarbiyaviy vosita, shaxs kamoloti, huquqiy madaniyat.

ФОРМЫ, МЕТОДЫ И СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В статье рассматривается необходимость формирования правового сознания у учащихся начальных классов, а также анализируются формы, методы и средства, применяемые в этом процессе, с точки зрения педагогических подходов. Освещается важность начала правового воспитания с раннего возраста, его положительное влияние на развитие правовой культуры детей и роль учителя в этом направлении.

Ключевые слова: начальное образование, правовое сознание, правовое воспитание, педагогический метод, воспитательное средство, развитие личности, правовая культура.

FORMS, METHODS AND MEANS OF DEVELOPING LEGAL AWARENESS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation. The article discusses the necessity of forming legal consciousness in primary school students and analyzes the types of forms, methods, and tools used in this process based on pedagogical approaches. It highlights the importance of starting legal education at an early age, its positive impact on the development of children’s legal culture, and the teacher’s role in this field.

Keywords: primary education, legal consciousness, legal education, pedagogical method, educational tool, personal development, legal culture.

Jamiyatda huquqiy tafakkur va huquqiy savodxonlikni oshirib borish — bu qonun ustuvorligini ta’minlash hamda qonunchilik asoslarini mustahkamlashning eng asosiy omillaridan biri sanaladi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda milliy huquq tizimini tubdan yangilash, fuqarolar orasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonida “yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini


hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish, umumta'lim maktablari va akademik litseylarda huquqiy bilimlarga doir o'quv mashg'ulotlari ko'lamini yanada kengaytirish" ustuvor vazifalardan biri sifatida qayd etilgan. Ushbu Farmon huquqiy-demokratik jamiyat hamda fuqarolik institutini shakllantirish yo'lida huquqiy tarbiyaning asosiy mezonlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Darhaqiqat, har qanday jamiyatda yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash doimo muhim masala hisoblanadi. Buning yana bir muhim jihati — bu yoshlarning huquqiy dunyoqarashini shakllantirishda huquqiy tarbiyaning tutgan o'rnidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, huquqiy ongni shakllantirish maktab ta'lim i tizimining eng muhim bosqichi – boshlang'ich sinflardan boshlanishi lozim. Chunki bu bosqichda bola dunyoqarashi shakllana boshlaydi, atrof-muhitni anglaydi va jamiyatda o'zining tutgan o'rnini sekin-asta tushunib boradi.

Huquqiy ong – bu shaxsning huquq va majburiyatlarni tushunish, qonunlarga nisbatan ongli munosabat bildirish, adolat va javobgarlik kabi ijtimoiy tushunchalarni anglash layoqatidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida huquqiy ongni shakllantirish quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

- O'quvchilarda "nima to'g'ri, nima noto'g'ri" degan fikrlashni rivojlantirish;
- Qonuniy tartib-intizomga rioya qilishga o'rgatish;
- Jamiyatda to'g'ri xulq-atvor ko'rsatishga undash;
- Inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilishni bolalikdan singdirish.

Huquqiy tarbiya hamda huquqiy ongni o'quvchilar tafakkurida shakllantirish — uni ichki e'tiqod darajasigacha yetkazish orqali amalga oshiriladi. Bevosita ta'lim jarayoni va komil insonni voyaga yetkazish bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayonda mantiqiy mulohaza yuritish, tasavvurni boyitish, bilish faoliyatini rivojlantirish kabi jihatlar muhim o'rin tutadi. Ta'lim orqali o'quvchida shaxsiy qarashlar va ichki ishonch asoslari shakllanadi. Badiiy-estetik tushunchalar hamda ilmiy asoslarni anglash, o'quv dasturida belgilangan bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, faoliyatda yuzaga keladigan to'siqlarni yengib o'tish, yakka tartibda, juft bo'lib yoki jamoada ishlash jarayonida o'quvchi individuallik sifatida kamol topadi. O'qituvchining zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan maqsadli foydalanishi, ta'lim jarayonini ilg'or pedagogik va raqamli texnologiyalar asosida olib borishi o'quv-tarbiya sifati uchun muhim kafolat hisoblanadi.

Huquqiy ongni rivojlantirish jarayonida qo'llaniladigan shakllar mazmunan turlicha bo'lib, ular bolaning yosh xususiyatlari, psixologik holati va qiziqishlariga mos tanlanishi lozim. Quyidagilar eng samarali shakllardandir:



Huquqiy ongni rivojlantirish shakllari

1. Dars shaklida tashkil etiladigan huquqiy ongni rivojlantirishda huquqiy mazmun dars jarayoni bilan uyg'unlashtiriladi. Dars mavzusi doirasida huquqiy tushunchalarni yoritish

(masalan, “Mening huquqlarim”, “Toza muhit – mening huquqim”). Fanlararo integratsiya: ona tili, o‘qish savodxonligi, tarbiya fanlarida huquqiy mavzularni qo‘shib o‘rganish. Maxsus huquqiy tarbiya darslari – sinfdan tashqari, tarbiya soatlari sifatida o‘tkazilishi mumkin.


2. Sinfdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi. Tarbiyaviy soatlar: “Men va mening huquqlarim”, “Yaxshi fuqarolik odobi” kabi mavzularda suhbatlar, savol-javoblar. Kuzatuv va tahlil ishlari: Huquqiy holatlarni kuzatish (masalan, maktabda navbatchilik qilish), bu borada mulohazalar bildirish. Axloqiy muammolar bo‘yicha muhokamalar: Noto‘g‘ri va to‘g‘ri hatti-harakatlarni ajratish.

3. O‘yin shaklida tashkil etilgan huquqiy ongni rivojlantirishda rol o‘yinlar: O‘quvchilar “sudya”, “huquq himoyachisi”, “ichki ishlar organlari hodimi”, “o‘qituvchi”, “fuqaro” rollarini ijro etadilar. Didaktik o‘yinlar: “Ha yoki yo‘q”, “Kim haq?”, “Qaysi huquq buzildi?” kabi savol-javob o‘yinlari. Musobaqa va tanlovlar: “Huquq bilimdoni”, “Adolatli bola” viktorinalar.

4. Tashkiliy-tarbiyaviy ishlar shaklida maktab ichidagi huquqiy targ‘ibot haftaliklarida huquqiy ko‘rgazmalar, viktorinalar, devoriy gazeta chiqishlari. Uchrashuvlar va suhbatlarda ichki ishlar xodimlari, sud vakillari, oila a‘zolari bilan tashkil etilgan davra suhbatlarida. Ekskursiyalarda sud binosi, ichki ishlar, adliya organlariga ekskursiyalar qilsa bo‘ladi.

5. Ijodiy faoliyat orqali huquqiy ongni rivojlantirishda rasm tanlovlari: “Mening huquqlarim”, “Huquq va burch” mavzularida bolalar rasm chizadilar. She‘r, hikoya, sahna ko‘rinishlari tayyorlaydilar va huquqiy mavzularda ijodiy topshiriqlar bajaradilar. Huquqiy holatlarni sahnalashtirish orqali ongli anglashga erishiladi.

Boshlang‘ich sinflarda huquqiy ongni rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:



Huquqiy ongni rivojlantirish metodlari

1. Interfaol metodlar huquqiy ongni rivojlantirishda juda muhim hisoblanadi. Quyida ularning bir-bir nechtasini keltirsam: Tushuntirish va izohlash – sodda, lo‘nda va bolalar uchun tushunarli tilda qonuniy me‘yorlarni tushuntirish. Didaktik o‘yinlar – “To‘g‘ri-noto‘g‘ri”, “Huquqiy domino”, “Qonun nima deydi?” kabi o‘yinlar orqali bilimni mustahkamlash. Rolga kirish o‘yinlari (dramalashtirish) – sinfdan kichik sahnalar orqali huquqiy vaziyatlarni jonlantirish. Bahs-munozaralar – o‘quvchilarni mustaqil fikr bildirishga undovchi vaziyatlar ustida ishlash. Kuzatish va tahlil – o‘quvchilarning xatti-harakatlarini kuzatish va ularga tarbiyaviy izohlar berish.

2. O‘yin metodlari. Bu metodlar yosh bolalarning o‘ziga xos xususiyatlariga mos keladi va ularni faol ishtirok etishga undaydi. Rolli o‘yinlar: “Sud majlisi”, “Huquq himoyachisi”, “Adolatli bola” rollarini ijro etish. Dramalashgan sahnalar: Huquqiy vaziyatlarni sahnalashtirib,

ularni yechimini topish. Didaktik o'yinlar: "Ha yoki yo'q", "To'g'rimi yoki noto'g'rimi?", "Kim huquqni buzdi?" kabi savol-javoblar asosidagi o'yinlar.

3. Vizual (ko'rgazmali) metodlar. Rasmlar, plakatlar, huquqiy devoriy gazetalar orqali tushunchalarni mustahkamlash. Videoroliklar, qisqa lavhalar: Bola huquqlari to'g'risida animatsiyalar yoki huquqiy hikoyalar. Infografikalar orqali huquq va burchlarni tushuntirish.

4. Suhbat (dialogik) metodlar. O'quvchilar bilan ochiq suhbatlar tashkil etiladi: "Huquq nima?", "Men qanday huquqlarga egaman?", "Adolat nima?". O'quvchilar savol beradi, o'qituvchi yo'naltiradi, fikr bildiradi. "Muammoni birga hal qilaylik" metodi asosida huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish.

5. Muammoli ta'lim metodlari. Huquqiy ziddiyatli holatni (masalan, maktabda nizolar, o'zaro hurmatsizlik) berib, yechim topish talab etiladi. O'quvchilarda mantiqiy fikrlash va tanqidiy qarash shakllanadi.

6. Ijodiy metodlar. She'r, hikoya yozish orqali huquqiy qadriyatlarni ifodalash. "Mening huquqim" mavzusida rasm chizish. Topishmoq, masal, maqol, tez aytilishlar orqali mavzuni mustahkamlash.

7. Loyiha asosida o'qitish metodi. Guruh bilan "Farzand huquqlari", "Bolalar konvensiyasi" mavzularida kichik tadqiqot loyihalari qilish. Tayyor materiallarni taqdim etish, maketlar, plakatlar tayyorlas.

Quyidagi vositalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining huquqiy ongini rivojlantirish ishlarini olib borishda samarali hisoblanadi:

1. Badiiy-adabiy vositalar. Bu vositalar bolaning tasavvur, tafakkur va qiziqishiga mos keladigan shaklda huquqiy bilim berishga xizmat qiladi. Ertak va hikoyalar: masalan, "To'g'riso'z qushcha", "Adolatli shoh", "Yolg'onchi bola" kabi axloqiy-mazmundagi ertaklar orqali bolaga haqiqat, halollik, burch va adolat haqida tushuncha beriladi. She'r va dialoglar: Yod olish oson, mazmunli she'rlar orqali huquqiy tushunchalar (masalan, o'qish huquqi, xavfsizlik huquqi) shakllantiriladi.

2. Ko'rgazmali vositalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun vizual ta'sir kuchli bo'lib, ular orqali huquqiy tushunchalarni tez va samarali o'zlashtiradilar. Plakat va bannerlar: "Huquqlarimiz", "Burchimiz nima?", "Xavfsiz yo'l harakati qoidalari" kabi mavzudagi ko'rgazmalar. Suratlar, kollajlar: Huquqiy holatlarni (masalan, maktabdagi xavfsizlik, oila, tabiatni asrash) aks ettiruvchi rasm va fotosuratlar. Didaktik kartochkalar: Turli huquqiy vaziyatlar tasvirlangan kartochkalar orqali o'yin shaklida savol-javoblar o'tkazish.

3. Interfaol o'yinli vositalar. O'yin orqali o'rganish boshlang'ich yoshdagi bolalar uchun eng qulay va samarali metoddir. Rolli o'yinlar: "Sud zalida", "To'g'ri va noto'g'ri hatti-harakatlar", "Huquq himoyachisi" kabi ssenariy asosidagi rolli o'yinlar. Didaktik o'yinlar: "To'g'ri tanla", "Ha yoki yo'q", "Kim huquqni buzdi?" kabi interfaol o'yinlar orqali huquqiy fikrlashni rivojlantirish. Musobaqalar va viktorinalar: "Huquq bilimdoni" tanlovi, "Haqqoniylikni tanla" viktorinasi.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT). Zamonaviy raqamli vositalar bolalarning e'tiborini jalb qiladi va darsda ishtirokini faollashtiradi. Animatsion filmlar va multfilmlar: Huquqiy mazmundagi o'rgatuvchi videolar (masalan, "Bola huquqlari" mavzusida tayyorlangan animatsiyalar). Elektron taqdimotlar: Slaydlar va videolar orqali huquqiy mavzularni tushuntirish. Onlayn testlar va viktorinalar: Darsdan so'ng o'quvchilarning bilimini mustahkamlash uchun foydalaniladi.

5. Tarixiy-ma'naviy vositalar - allomalar hayoti va fikrlarida Abdulla Avloniy, Behbudiy, G'afur G'ulom kabi mutafakkirlarning bolalar uchun mo'ljallangan fikrlaridan foydalanish va milliy qadriyatlar asosidagi misollar: "Odobli bola", "Vatanparvar bola", "Ota-onaga hurmat" kabi mavzulardagi milliy hikmatlar, maqollar orqali huquqiy va axloqiy tarbiya berish.

6. Tarbiyaviy suhbat va uchrashuvlar- huquqshunos, ichki ishlar xodimlari bilan suhbatlar: Oddiy va tushunarli tilda bolalarga xavfsizlik, qonun va burch haqida tushuncha beriladi. Sinfda munozaralar o'tkazish: "Agar men prezident bo'lsam", "Haqqoniylik nima?", "Yaxshi bola qanday bo'ladi?" kabi mavzular orqali bolalarda axloqiy-ijtimoiy fikr shakllanadi.

Huquqiy ongni shakllantirish – shunchaki bilim berish emas, balki shaxsda ongli, mas’uliyatli, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bu jarayonning eng nozik va mas’uliyatli ishtirokchilaridir. Shuning uchun pedagoglar ularning yosh xususiyatlariga mos metod, shakl va vositalarni tanlab, ularni hayotiy misollar asosida o‘rgatishlari lozim. Bu nafaqat o‘quvchining, balki kelajak jamiyatining huquqiy madaniyatini shakllantirishda muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir). 2020-yil 23-sentabr. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., №03/20/637/1305-son.
3. “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya. BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil 20-noyabrdagi 44/25-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 1992-yil 9-dekabrda ratifikatsiya qilingan. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, №3, 113-modda.
4. Normurodova G. “Boshlang‘ich sinf pedagogikasida huquqiy tarbiya masalalari”, – Toshkent, 2023.
5. Xamidov S. “Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar”, – Samarqand, 2022.
6. Abdukamol Rahmonov. “Yuksak huquqiy madaniyat — demokratik jamiyat poydevori”. // Huquqshunos, 2019, №1.
7. www.ziynet.uz.
8. <https://lex.uz>

INTERFAOL TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: METODIK ASOSLARI VA INTERAKT USULINING O’RNI

D.K.Tajbenova

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta’lim ” kafedrasi assistant o‘qituvchisi*

Annotatsiya Mazkur tezisda interfaol ta’lim texnologiyalari va ularning metodik asoslari tahlil qilingan. Xususan, interakt usulining interfaol metod tarkibidagi roli, o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning ahamiyati, dars samaradorligini oshirishdagi metodik yondashuvlar yoritilgan. Ushbu usullar ta’lim jarayonida teng bilim olish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной тезисной работе проанализированы интерактивные образовательные технологии и их методологические основы. Особое внимание уделяется роли интеракт-метода в составе интерактивного обучения, значению взаимного влияния учащихся и методическим подходам к повышению эффективности урока. Эти методы способствуют обеспечению равных образовательных возможностей.

Annotation. This thesis analyzes interactive educational technologies and their methodological foundations. In particular, the role of the interact method within the framework of interactive methods, the importance of mutual influence among students, and methodological approaches to improving lesson effectiveness are covered. These methods serve to create equal educational opportunities.

Ключевые слова: интерактивное обучение, метод интеракта, взаимное влияние, методический подход, активное обучение, образовательные технологии.

Keywords: interactive learning, interact method, mutual influence, methodological approach, active learning, educational technologies

Zamonaviy ta’lim da interfaol texnologiyalarning o‘rni tobora oshib bormoqda. Xususan, ona tili darslarida o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida faol va

samarali ish usullarini qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ilgari o'quv jarayonidagi savol-javoblar, dialoglar va suhbatlarga jalb etish kabi usullar interaktiv usullar deb atalgan bo'lsa-da, bu atamaning mohiyati va uning metodik jihatdan to'g'ri qo'llanilishi yuzasidan chuqurroq tahlil talab etiladi.

I.R.Rajabovanning «Kasb-hunar kollejlari adabiyot darslari samaradorligini oshirishda interfaol usullardan foydalanish yo'llari» mavzusidagi tadqiqot ishida interfaol metodlardan biri sifatida birgalikda o'qishni ko'rsatar ekan, u o'quvchilarda bir qator ijobiy sifatlarning shakllanishiga sabab bo'ladigan omillar sirasida quyidagi natijani ham ko'rsatadi: «O'quvchilar bir-birlariga yordam berish va olishga odatlanadilar. Bu munosabat faqat o'qish jarayoniga emas, balki boshqa insoniy munosabatlarga ham tegishli bo'ladi» [1]. Tadqiqotchining ushbu fikri interfaoligagina emas, interakt usuliga ham xosdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili darslarida nazariy ma'lumot ustida birgalikda bosh qotirishlari va uni chuqurroq anglashga erishishlari mumkin.

Interfaol ta'lim metodlari nafaqat guruhda ishlashni, balki o'quvchilarning bir-biriga ta'sir ko'rsata olishi, yordamlashish, o'zaro anglashish, tushunmagan bilimni tushungan o'quvchi orqali o'zlashtirishini ham nazarda tutadi. Bu jarayonda "interakt usuli" alohida ahamiyatga ega bo'lib, u interfaol metodning birinchi tayyorlov bosqichi sifatida qaraladi. Uning vazifasi – bilim darajalari turlicha bo'lgan o'quvchilarni ma'lum darajada tenglashtirish va barcha o'quvchilar uchun teng imkoniyat yaratishdan iborat.

Interakt usuli o'quvchilarni dialog, suhbat, munozara kabi faol nutqiy jarayonlarga jalb etish orqali faollashtiradi. Bu esa o'qituvchiga darsda barcha o'quvchilarni jalb etish, ularni bilimni o'zlashtirishda faol ishtirokchiga aylantirish imkonini beradi. Ushbu usul "hamma hammani o'qitadi" shiori asosida quriladi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro ta'sir, bilishga qiziqish, yordam berish va qabul qilish kabi ijobiy munosabatlarni shakllantiradi.

Interfaol metodda barcha o'quvchilar birdek faol bo'la olmasligi mumkin. Chunki darsda ko'pincha yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar faol bo'lib, bilimga muhtoj o'quvchilar chetda qolishi mumkin. Shu bois interakt usuli orqali dastlab o'zaro yordam muhitini yaratib, so'ngra interfaol metodlarga o'tish maqsadga muvofiq. Bu usul faqat guruhda ishlashni anglatmaydi, balki o'zaro ta'sir jarayonini tashkil etish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan.

R.A.Yo'ldoshev va L.R.Mirjalolovanning ta'kidlashicha, interaktiv usul nafaqat faoliyatning shakli, balki mazmuni va maqsadiga ko'ra ham alohida yondashuvni talab etadi [2, 14-bet]. Bu jarayonda o'quvchi nafaqat bilish faoliyati ishtirokchisi, balki boshqa o'quvchilar uchun manbaga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, interakt usuli metod emas, balki interfaol metodni amalga oshirishdagi muhim tayyorlov bosqichidir. U darsda barcha o'quvchilarni faollashtirish, bilimni anglash darajasini tenglashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday usullardan samarali foydalanish o'qituvchining rejalashtirish, kuzatish va yo'l-yo'riq berish mahoratiga bog'liq. Shu sababli, har bir pedagog interakt va interfaol metodlarning farqini, ularning ta'limdagi o'rni va vazifasini aniq anglagan holda qo'llashi zarur.

Adabiyotlar:

1. И.П.Ражабова. Касб-хунар коллежлари адабиёт дарслари самарадорлигини оширишда интерфаол усуллардан фойдаланиш йўллари. – Тошкент: Fan, 2009. – 64 б.

2. Р.А.Йўлдошев, Л.Р.Миржалолова. Ona tilidan ayrim mashqlarni bajarishning interaktiv usullari. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – 48 б.

DUAL TA'LIM - BU SIFATLI KADRLAR TAYYORLASH SHAKLIDIR

*Umurov Zarif Latifboyevich,
BuxDPI professori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Maqolada dual ta'lim tizimining mohiyati, afzalligi, oliy ta'lim muassasasidagi nazariy tayyorgarlik bilan korxonadagi amaliy mashg'ulotlarning uyg'unligi xususida fikr bayon etilgan. Dual ta'lim tizimida talabalar haftaning ma'lum bir qismida o'qish

muassasalarida o'qib, nazariy bilimlarini o'zlashtiradilar, amaliy mashg'ulotlar korxonada pedagogik tayyorgarlikdan o'tgan korxona mutaxassislari va malaka oshirish kurslaridan o'tgan o'quv muassasasi o'qituvchilarining bevosita ishtirokida amalga oshiriladi. Bu talabalarga nafaqat o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirish, balki yaxshi amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish va mehnat jamoasi bilan aloqalarni o'rnatish imkonini beradi.

Kalit so'zlar. Ta'lim , dual ta'lim , nazariy bilim, amaliyot, tashkilot, o'qitish, malakaviy amaliyot.

ДУАЛЬНОЕ ОБУЧЕНИЕ — ЭТО ФОРМА ПОДГОТОВКИ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ

Аннотация. В статье рассматривается сущность и преимущества дуальной системы обучения, а также согласованность теоретической подготовки в высшем учебном заведении и практических занятий на предприятиях. В дуальной системе образования студенты часть недели обучаются в учебных заведениях, осваивая теоретические знания, а практические занятия проводятся на предприятиях при непосредственном участии специалистов, прошедших педагогическую подготовку, и преподавателей учебных заведений, прошедших курсы повышения квалификации. Это позволяет студентам не только успешно усваивать учебную программу, но и приобретать ценные практические навыки, а также налаживать связи с трудовым коллективом.

Ключевые слова: образование, дуальное обучение, теоретические знания, практика, организация, преподавание, производственная практика.

DUAL EDUCATION IS A MODEL FOR TRAINING QUALIFIED SPECIALISTS

Annotation. The article discusses the essence and advantages of the dual education system, as well as the integration of theoretical training in higher educational institutions with practical sessions at enterprises. In the dual education system, students spend part of the week studying theoretical knowledge at educational institutions, while practical training is carried out at enterprises with the direct involvement of company specialists who have undergone pedagogical training, and instructors from educational institutions who have completed advanced training courses. This system enables students not only to successfully master the curriculum but also to acquire valuable practical skills and establish connections with the workforce.

Keywords: education, dual education, theoretical knowledge, practice, organization, teaching, internship.

Fan-texnika yutuqlarini ta'lim jatayoniga tatbiq etish evaziga nafaqat sifatli kadrlarni tayyorlash, balki jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishni ham maqsad qilgan. Shu bois, shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim uchun nafaqat yosh mutaxassislari, balki, birinchi navbatda, tashabbuskor, pedagogik mahorat va ta'lim jarayonlarini takomillashtirish tendensiyasini namoyon etuvchi pedagoglarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Aksariyat oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining asosiy muammosi-bu amaliyotning etishmasligidadur. Dual (ikki tomonlama) ta'lim - bu sifatli kadrlar tayyorlashning samarali usuli hisoblanadi. Dual ta'lim ning samaradorligi shundan iboratki, olingan nazariy bilimlar o'quv ustaxonalarida, shuningdek, ishlab chiqarishda amaliy ishlar bilan qo'llab-quvvatlanadi. Ular bugun darsda berilgan nazariy ma'lumotlarni ertaga korxonada amalda qo'llaydilar. Dual ta'lim – talabaga ta'lim ni o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizimdir.

Dual ta'lim tizimining mohiyati oliy ta'lim muassasasidagi nazariy tayyorgarlik bilan korxonadagi amaliy mashg'ulotlarning uyg'unligidan iborat. Dual ta'lim tizimida talabalar tanlagan mutaxassisligi bo'yicha chuqurroq bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Bu talabalar butun o'qish vaqtining yarmini kelajakda ishlaydigan tashkilotda amaliyotga bag'ishlaydigan tizim bo'lib, bu talabalarga nafaqat o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirish,

balki yaxshi amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish va mehnat jamoasi bilan aloqalarni o'rnatish imkonini beradi.

Talabalar haftaning ma'lum bir qismida o'qish muassasalarida (masalan, kasb-hunar maktablari yoki universitetlarda) o'qib, nazariy bilimlarini o'zlashtiradilar. Bu o'qish ko'pincha 2-3 kunni tashkil qiladi.

Talabalar haftaning qolgan kunlarida kompaniyalar yoki ishlab chiqarish korxonalarida ishlaydi. Bu bosqichda ular o'z kasblariga oid amaliy ko'nikmalarni egallashadi. Talabalarga ustozlar yoki tajribali mutaxassislar tomonidan yordam beriladi.

Dual ta'lim tizimini joriy etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- tayanch tashkilotlarning mavjudligi;
- ta'lim muassasasi va tashkilot o'rtasidagi o'zaro hamkorlik dasturini ishlab chiqish;
- tashkilotda talabalar uchun joy ajratish;
- tashkilotda maxsus fanlar o'qituvchilarining amaliyotini joriy etish.

Dual ta'lim ning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- dual ta'lim mutaxassislarni tayyorlash jarayonida o'qitishning an'anaviy shakllari va usullarining asosiy kamchiliklarini bartaraf etishga imkon beradi - nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut nazariy tarkibiy qism darajasini saqlab, o'quv jarayonining amaliy yo'nalishini kuchaytirishga imkon beradi;

- tashkilotda asosiy mehnat funktsiyalarini bajarishga tayyor bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha belgilangan vazifalarni bajarishga imkon beradi;

- dual ta'lim tizimi modelida mutaxassis shaxsiga va xodimning zarur fazilatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatish mumkin;

- dual ta'lim tizimi kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilimlarni olish uchun motivatsiya va ehtiyojlarni oshiradi. Chunki olingan bilimlarning sifati ish joyidagi xizmat vazifalarini sifatli bajarishga imkon beradi;

- dual ta'lim tizimi korxona va tashkilot rahbarining "o'z" xodimlarini o'qitish va tayyorlashga bo'lgan qiziqishini oshiradi;

- dual ta'lim bitiruvchining nafaqat kasbiy yo'nalishdagi harakatchanligini oshirishga, balki uni zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh qilishga imkon beradi;

- dual ta'lim tizimi o'quv jarayonini "ta'lim muassasasi - tashkilot" yo'nalishida tashkil etishga imkon beradi. O'qitish jarayonida bunday yondashuv bo'lajak mutaxassisga qo'yiladigan ishlab chiqarish talablarini hisobga olish imkonini beradi;

- talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki real ish tajribasini ham oladilar. Bu ularning ishga kirishish imkoniyatlarini oshiradi;

- talabalar ish joyida ishlash orqali o'z kasbiy kompetensiyalarini tezda rivojlantiradilar;

- dual ta'lim ni tamomlaganlar, ko'pincha o'qishni tugatgach, o'z amaliyot o'tagan tashkilotlarida ishlashga da'vat qilinadilar. Bu esa ishga joylashishda katta afzallik beradi;

- talabalar o'qish davomida ish joyiga integratsiyalashadi va shu bilan ular o'rgangan nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Dual ta'lim tizimi ta'lim muassasasi va ish beruvchining o'zaro ta'siri natijasidir. Evropa ta'lim tizimining tajribasi shuni ko'rsatadiki, kelajakdagi kasbiy faoliyat va muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvda ishonchni ta'minlaydi. Talaba o'qitishning birinchi bosqichidan boshlab korxona xodimi sifatida ishlab chiqarish jarayoniga kiritiladi, o'ziga yuklangan vazifalarni bajaradi, resurslarni boshqaradi, mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi, zarur kasbiy ko'nikmalarni egallaydi va ba'zi hollarda shartnoma bo'yicha ish haqi olishi mumkin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, nazariy va ishlab chiqarishdagi o'qitish vaqtining nisbati 40 ga 60% ni tashkil etadi. O'quv faoliyatini haftaning kunlariga ko'ra taqsimlash amalga oshiriladi, masalan, talaba haftada 2-3 kun ta'lim muassasasida, boshqa kunlarda - tashkilotlarda.

Amaliy mashg'ulotlar korxonada pedagogik tayyorgarlikdan o'tgan korxona mutaxassislari va malaka oshirish kurslaridan o'tgan o'quv muassasasi o'qituvchilarining bevosita ishtirokida amalga oshiriladi.

Dastlab, avtomobilsozlik, metallurgiya, mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish, elektrotexnika kabi sohalarning malakali ishchilari va texnik xodimlarini tayyorlash uchun dual ta'lim tizim joriy etilgan.

Dual ta'lim tizimi qator mamlakatlarda, xususan, Germaniya, Avstriya, Bosniya va Gertsegovina, Xorvatiya, Serbiya, Sloveniya, Makedoniya, Chernogoriya va Shveysariya, Daniya, Niderlandiya va Fransiyada, oxirgi yillarda Xitoy va Osiyoning boshqa mamlakatlarida qo'llanilib kelinmoqda.

Kasbiy ta'lim ning tuzilishi va mazmunini tartibga solish masalalari Evropa Ittifoqining turli mamlakatlarida sezilarli farqlarga ega:

- Germaniyadagi dual tizim korporativ tamoyillar doirasida tartibga solinadigan kasbiy ta'lim tizimidir.

- Fransiyada kasbiy ta'lim davlat boshqaruvi tamoyillari asosida tartibga solinadigan kasbiy ta'lim tizimidir;

- Britaniyaning milliy kasbiy malaka tizimi, bozor iqtisodiyotining qat'iy tamoyillari bilan boshqariladigan kasbiy ta'lim tizimi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida umumiy va kasb-hunar ta'lim ini tashkil etish va ta'lim siyosatini ishlab chiqish tobora dinamik va moslashuvchan ijtimoiy sheriklikka asoslanmoqda. Ayniqsa, mehnat bozori va ta'lim xizmatlari monitoringini tashkil etishda ish beruvchilarni yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish ishlariga jalb etish faollashmoqda. Bu ehtiyojlarni, kasblar tarkibini muvofiqlashtirish va rivojlanayotgan iqtisodiyot talablarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash mazmunini moslashtirish imkonini beradi.

Xorijda mavjud bo'lgan oliy ta'lim sifatini nazorat qilish tizimlari tahlili shuni ko'rsatadiki, uni ta'minlash bilan shug'ullanadigan tashkilotlarning vakolatlarining xilma-xilligi va o'ziga xosligiga qaramay, ular amalga oshiradigan maqsad va vazifalar majmuasi an'anaviy ravishda quyidagilarni o'z ichiga oladi: ta'lim sifatini ta'minlash va oshirish. Mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy kontekstdagi faoliyat; oliy ta'lim muassasalariga o'qitish va ta'lim sifatini oshirishda yordam ko'rsatish; mavjud tajribani tarqatish va sifat masalalari bo'yicha axborot almashish, bu ham ularning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Germaniyada dual ta'lim modeli. Germaniya mehnat bozori 60% ga yaqini dual dasturlar bitiruvchilari tomonidan shakllantiriladi. Germaniyada dual ta'lim olgan talabalarning 80% i ishga joylashishga muvaffaq bo'ladi, bu esa standart oliy ta'lim tizimidagi ishga joylashish darajasidan 20% yuqoridir.

Germaniyada **dual ta'lim tizimining** joriy etilishi tarixiy rivojlanish jarayonida bir nechta muhim bosqichlarga ega. Bu tizimning shakllanishi asosan XIX-asrning oxiri va XX-asrning boshlariga to'g'ri keladi va u Germaniya sanoati va iqtisodiyotining tez rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. Dual ta'lim tizimi Germaniyaning iqtisodiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlarida muhim rol o'ynagan va uni dunyo bo'ylab namuna sifatida ko'rsatishadi.

Dual ta'lim tizimining boshlanishi Germaniyaning sanoat inqilobi davriga borib taqaladi. XIX-asrning oxirlarida Germaniya sanoatlashayotgan davrda, ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan birga, malakali ishchi kuchiga bo'lgan talab ortib bordi. Shu davrda Germaniyada ta'lim tizimi, ayniqsa kasb-hunar ta'lim i, amaliyot va nazariy bilimlarni birlashtirishga intila boshladi. Germaniyada sanoatning rivojlanishi uchun yangi mutaxassislar tayyorlash zarurati tug'ildi. Shuning uchun bir qator kasb-hunar maktablari tashkil etildi, bu esa o'quvchilarga nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'rgatishga imkon berdi. Bu o'zgarishlar jamiyatda ham, iqtisodiyotda ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Dual ta'lim tizimi rasmiylashishi va tizimga kiritilishining muhim bosqichi XIX-asr oxirida ro'y berdi. 1870-yillarda Germaniyada birinchi marta kasb-hunar ta'lim i ga oid qonunlar qabul qilindi. 1). **1870-yilgi Ta'lim Reformasi:** Germaniyada kasb-hunar ta'lim ini tartibga solish bo'yicha qonunlar joriy etildi, bu esa ish beruvchilarning o'quvchilarga amaliy ta'lim berishga majbur bo'lishini ta'minladi. 2) **1910-yilda Kasb-hunar ta'lim i bo'yicha federal qonun:** 1910-yilda Germaniyada kasb-hunar ta'lim i ga oid federal qonun qabul qilindi. Ushbu

qonun kasb-hunar maktablarining rivojlanishiga imkon yaratdi va kasb-hunar ta'lim ining asoslarini belgilab berdi.

XX-asrning boshlarida Germaniyada dual ta'lim tizimining to'liq shakllanishi boshlandi. 1920-yillarda, Germaniya iqtisodiyoti va sanoatining qayta tiklanishi davomida, kasb-hunar ta'lim i yanada takomillashdi. 1930-yillarda Germaniyada dual ta'lim modeli rasmiylashtirildi va amaliyot bilan o'qishni birlashtirish prinsiplariga asoslangan tizim yaratildi. Talabalar bir tomondan kasb-hunar maktabida nazariy bilim olishgan bo'lsa, boshqa tomondan ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o'tashgan. Dual ta'lim tizimining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ish beruvchilarning faolligi juda muhim ahamiyat kasb etdi. Kompaniyalar va sanoat korxonalari talabalarni tayyorlashda ishtirok etishni o'zlariga foyda deb hisoblaydilar, chunki ular o'z ehtiyojlariga mos malakali ishchilarni tayyorlab olishgan.

Ikkinchi Jahon Urushi Germaniya iqtisodiyotiga katta zarba berdi. Ammo urushdan keyingi qayta tiklanish davrida dual ta'lim tizimi yana muhim rol o'ynadi. Germaniya iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan tiklana boshladi va bu jarayonda malakali ishchi kuchiga bo'lgan talab ham oshdi. Germaniyaga yordam sifatida AQSh tomonidan taqdim etilgan Marshall Yordami (1948–1952) sanoatni qayta tiklashda yordam berdi va dual ta'lim tizimi orqali malakali ishchilarni tayyorlashga imkon berdi.

Dual ta'lim tizimi Germaniyaning "iqtisodiy mo'jizasi" (Wirtschaftswunder) vaqtida kengayib, butun jamiyatda keng qo'llanila boshladi. Germaniya sanoatining tez rivojlanishi va global raqobatning kuchayishi talab va ta'lim tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yanada kuchaytirdi. Germaniyada dual ta'lim tizimi mukammallashtirildi va bu tizimning samaradorligi nafaqat Germaniyaning iqtisodiyoti, balki uning jamiyatining ijtimoiy strukturasini ham shakllantirdi.

Germaniyada dual ta'lim tizimi nafaqat milliy, balki xalqaro darajada muvaffaqiyatli model sifatida tan olindi. Shu bilan birga, Germaniya ushbu tizimni boshqa mamlakatlarga eksport qilishni ham boshladi. Shuningdek, dual ta'lim tizimi Yevropa Ittifoqi, xususan, Avstriya va Shveytsariyada ham muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Yangi texnologiyalar va kasblarning rivojlanishi dual ta'lim ni yanada zamonaviylashtirishni talab qiladi. Germaniyada bu tizimni yangilash va optimallashtirish uchun doimiy islohotlar olib borilmoqda.

Germaniyada dual ta'lim tizimi o'zining tarixiy rivojlanishi davomida sanoat ehtiyojlariga, ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi uyg'unlikka javob bera oladigan tarzda shakllandi. Bugungi kunda bu tizim nafaqat Germaniya, balki dunyoning bir qator mamlakatlari uchun samarali ta'lim modeli sifatida xizmat qilmoqda.

Dual ta'lim tizimi faqat **Germaniyada** emas, balki bir qator boshqa davlatlarda ham yuqori samara bilan rivojlangan. Ushbu tizimning asosiy afzalligi shundaki, u oliy ta'limni va kasb-hunar ta'limini birlashtirib, talabalarga ishlash va o'rganishni bir vaqtda olish imkonini beradi. Dual ta'lim rivojlangan davlatlar qatoriga quyidagi mamlakatlarni kiritish mumkin.

Avstriyada dual ta'lim tizimi Germaniyadagiga o'xshash tarzda ishlaydi. Avstriyada ishchi kuchini tayyorlash va kasb-hunar ta'limini shakllantirish uchun davlat va ish beruvchilar orasida hamkorlik davom etadi. Dual ta'lim tizimi sanoat va xizmat ko'rsatish sohaslarida keng qo'llaniladi. Maxsus maktablar va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida ishlash va amaliy tajriba o'rgatishga alohida e'tibor beriladi. **Kasb-hunar oliy maktablari** va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlik orqali ta'lim olish juda samarali hisoblanadi.

Shveytsariya dual ta'lim sohasida juda muvaffaqiyatli davlatlardan biri. Bu mamlakatda ta'lim tizimi aniq tartibga solingan va ish beruvchilar va ta'lim muassasalari o'rtasida amaliy ta'limning integratsiyasi yuqori darajada. Shveytsariyada dual ta'lim dasturi mamlakatning mehnat bozoriga moslashgan va ayniqsa texnik va tibbiy sohalarda muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Dual ta'lim talabalari, 16 yoshdan boshlab, 3–4 yillik ta'limni olishadi, bu davrda talabalar ishlash bilan birga nazariy bilimlarni ham o'zlashtiradilar. Shveytsariyada 2022-yilga kelib, o'sish muhiti va ishlab chiqarish salohiyatiga muvofiq, talabalarning 70% ga yaqini dual ta'lim modeli asosida o'qitilmoqda. Dual ta'lim olgan talabalarning ishga joylashish darajasi 96% ga yetgan. Bu, shveytsariya ishlab chiqarish salohiyatining yuqori darajasini ko'rsatadi.

Niderlandiya (Gollandiya)da dual ta'lim tizimi 1990-yillardan boshlab tizimli ravishda rivojlanmoqda. Bu mamlakatda amaliy tajriba bilan birgalikda, umumiy ta'lim va ishlayotgan jamoalarda kasbiy bilimlar olishga katta ahamiyat beriladi. Niderlandiyada ishga qabul qilish va talabalarni ishlab chiqarish sohasidagi tashkilotlar bilan hamkorlik qilish uchun qonunlar va normativ hujjatlar ham ishlab chiqilgan. Amaliy ta'lim talabalarga ishlash va mehnat bozoriga moslashish imkonini beradi.

Daniyada dual ta'lim tizimi 1960-yillardan boshlab rivojlanib, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalariga amaliy ta'lim berishda ijobiy natijalarga erishilgan. Daniyadagi dual ta'lim tizimi "karting" tizimiga asoslangan bo'lib, u talabalarga amaliy tajriba va kasbning nazariy negizlarini o'rganish imkonini beradi. Daniya ham davlat va ish beruvchilar o'rtasida yaqin hamkorlik mavjud va ish beruvchilar oliy maktablarda o'qish va ishlashni birlashtirishga ko'maklashadilar.

Shvetsiyada dual ta'lim tizimi xususidagi jarayonlar asosan iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarga mos ravishda tashkil etilgan. Shvetsiyada dual ta'limning muhim sohalaridan biri – texnik va kasb-hunar ta'limi. Shvetsiyadagi dual ta'lim maktablari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida yaqin hamkorlik mavjud. Bu hamkorlik ta'lim tizimining samarali ishlashini ta'minlaydi.

Finlyandiya dual ta'limni oliy ta'lim va kasb-hunar ta'limi bilan birlashtirishda muvaffaqiyatli natijalarga erishgan. Bu mamlakatda dual ta'lim tizimi juda sifatli va samarali yo'lga qo'yilgan. Finlyandiya talabalar amaliy ta'limni ish bilan birga olishadi va ish beruvchilar talabalarining ko'nikmalarini ishlab chiqarish jarayonida va real sharoitlarda aniqlashda ishtirok etadilar.

Avstraliyada dual ta'lim tizimi asosan texnik va kasb-hunar sohalarida rivojlangan. Ushbu tizim avstraliyalik yoshlar uchun ishga o'rganish va amaliy tajriba olish imkonini beradi. Avstraliya dual ta'limda ish beruvchilarning asosiy vazifasi – talabalarga amaliy ko'nikmalarni berishdir, shuningdek, davlat o'qish va ishlashni birlashtirish uchun moliyaviy stimullar beradi.

Buyuk Britaniyada dual ta'lim tizimi «o'qish va ishlash» modelini shakllantirishda asosiy ahamiyatga ega. 2010-yillarda Britaniya dual ta'lim dasturlari takomillashtirilishi va ishga tatbiq etilishiga katta e'tibor berildi. Bu tizimda talabalar ish beruvchilar tomonidan yo'llanmalar, tajriba va mentorlik bilan ta'minlanadilar.

Kanadada dual ta'lim tizimi ayniqsa texnik kasb-hunar ta'limida muvaffaqiyatli joriy etilgan. Kanadalik talabalar nazariy bilimlar va amaliy tajriba olishga erishishadi. Bu tizim Kanadada iqtisodiy rivojlanish va ishsizlikni kamaytirishga yordam beradi.

Yaponiyada dual ta'lim tizimi asosan texnik ta'lim va sanoat sohasida juda rivojlangan. Yaponlar ishda har bir kishi amaliy ta'lim va o'qishni birlashtirishga katta e'tibor beradilar. Yaponiyada dual ta'lim tizimi yuqori samara beradi, chunki davlat va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida o'zaro javobgarlik mavjud.

Dual ta'lim tizimi ko'plab mamlakatlarda yuqori natijalarga erishish va mehnat bozoriga moslashishda muhim rol o'ynaydi. Bu tizim talabalarga ishlab chiqarish jarayoniga jadal kirishish va ularning kasbiy ko'nikmalarini mukammallashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida" GI O'RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son [Farmoni](#). Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2024-y., 06/24/152/0773-son.
3. Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2025 y., 09/25/14/0063-son.
4. https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/events_in_uzbekistan/yil_oxirigacha_uz_bekistonda_50_ming_kishi_dual_talim_tizimi_bilan_qamrab_olinadi.html.
5. https://uza.uz/uz/posts/malakali-kadrlar-tayyorlashda-dual-talimning-ahamiyati_541908?q=%2Fposts%2Fmalakali-kadrlar-tayyorlashda-dual-talimning-ahamiyati_541908).

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHDA UZVIYLIKNI TA'MINLASHNING PEDAGOGIK TIZIMI VA UZVIYLIGI

*Hakimova Mexriniso Homitovna
BuxDPI "Boshlang'ich ta'lim" kafedrası dotsenti,
Qosimov Fayzullo Muhammedovich
"Boshlang'ich ta'lim" kafedrası professori, p.f.n.*

Dunyoda ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab bermoqda. Zamonaviy jamiyatning eng muhim xarakterli jihati uning barcha sohalarida globallashuvning ko'zga tashlanayotganligidir. Globallashuv o'z - o'zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo'lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali tatbiq qilishni taqozo etadi. Bu tarzda harakatlanish imkoniyatiga o'z sohasining bilimdoni bo'lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratga ega kadrlargina ega bo'ladilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda 2030 yilgacha mo'ljallangan ta'lim muammolari bo'yicha butunjahon Forumida qabul qilingan konsepsiyada "...barcha uchun butun hayoti davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish..." dolzarb vazifa etib belgilanganligi muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy - ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm - fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni asosida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohaları uchun malakali kadrlarni tayyorlash kabi ustuvor vazifalar belgilandi.

2016 yilning 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 - 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 2707 - sonli Qarori [1;] ning qabul qilinishi hamda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017 - 2021 yillarga mo'ljallangan dasturning tasdiqlanishi tom ma'noda maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratdi.

Dasturning maqsadli vazifalari va yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish;

- maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish;

- maktabgacha ta'lim muassasalarida 5 - 6 yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha 6100 ta qisqa muddatli guruhni tashkil etish;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish;

- maktabgacha ta'lim muassasasini zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, jihoz, o'quv-metodik qo'llanmalar va multimediali vositalar bilan ta'minlash kabilar.

"Yo'l xaritasi"da qisqa davr mobaynida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va maktabgacha ta'lim muassasalarini malakali kadrlar bilan to'ldirish hamda davlat maktabgacha ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy - texnik ta'minotini yaxshilash yo'nalishlari belgilandi va qadamba - qadam amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqildi.

Biz maktabgacha va boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tasavvurlarini shakllantirishda uzviylikni ta'minlash metodikasini ta'lim - tarbiya loyihalari asosida tashkil

etilgan tajriba - sinov jarayonida alohida sinf o'quvchilari bilan tashkil etiladigan, amalga oshiriladigan va o'qituvchilar tomonidan tahlil qilinadigan nazorat darslarini o'tkazdik.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodikada bolalarning yosh xususiyatlari inobatga olindi. O'quv rejalariga asoslangan nazorat darslarini quyidagicha tashkil etdik. Bunda: maktabga tayyorlov guruhi bolalari va o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar nazorat qilindi, asosiy mavzular bo'yicha ularning bilimlari tahlil etildi, bog'cha bolalari va birinchi sinf o'quvchilari o'rtasida mavzu doirasida tizimlashtirilgan topshiriqlarni bajarish jarayoni tahlil etildi, bolalar va o'quvchilar faoliyatida uchragan umumiy qiyinchiliklar aniqlandi. Tahlil jarayonida pedagog metodistlardan iborat "eksprimentator-o'qituvchi"lardan maxsus kuzatib borshi yo'lga qo'yildi.

Biz kuzatishlarimiz jarayonida maktabgacha ta'lim muassasasi katta va maktabga tayyorlov guruhi bolalarining va boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika mashg'ulotlari va darslariga qiziqishlarini va qobiliyatlarini ham o'rganib chiqishga harakat qildik. Ushbu jarayonda quyidagilarni aniqlashga muvaffaq bo'ldik.

- MT va BT o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib o'quv dasturi asosida tarbiyachi va o'qituvchi tomonidan tuzilgan dars loyihalari, muayyan sinf o'quvchilarining talablari va ehtiyojlari;

- bolalarning va o'quvchilarning ehtiyojlari va mavzu maqsadidan kelib chiqqan holda tanlangan o'quv topshiriqlari;

- o'quv fani bo'yicha MT va BT DTS talablari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar, ularning bilim, ko'nikma va malakalarining mavjud darajasini aniqlashga xizmat qiladigan baholash mezonlari, tanlab olingan asosiy mavzular bo'yicha tekshirish va nazorat ishlarining variantlari.(maktabgacha ta'lim muassasalari bolalari yosh xususiyatlaridan kelib chiqib rag'batlantirish va baholash mezonlari)

O'rganilayotgan har bir mavzu bo'yicha quyidagi qismlari ajratib ko'rsatilgan didaktik loyihalar tuzildi:

- mavzuning o'tish vaqti;
- mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsad va vazifalari;
- mavzuning siklogrammasi;
- foydalaniladigan mavzu mazmuni va topshiriqlarning o'ziga xos jihatlari;
- mavzu doirasida rejalashtirilgan natijalar;
- teskari aloqani amalga oshirish imkonini beradigan nazorat ishlarining turlari;
- mashg'ulot va dars mavzuning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan metodik tavsiyalar.

O'rganiladigan mavzu asosida o'quv - tarbiya jarayonining didaktik loyihalarini o'quvchilarning mustaqil tarzda tuzishlari talab etildi.

Muayyan mavzuga oid didaktik loyihalar – darsning kontur tizimi bo'lib, kafolatlangan natija olish imkonini yaratishga qaratilgan vositadir. Mavzu didaktik loyihasining murakkab qismlari dars maqsadi va vazifalarini aniqlash hamda o'quv material mazmunini tanlash va uni tayyorlashdan iborat pedagogik harakatni o'z ichiga oladi.

Biz amalga oshirgan tajriba - sinov ishlarining tahlili dars maqsadlaridan kelib chiqqan holda o'quv materiallarini o'zlashtirish usullarini belgilash tartibi o'zini oqlaganligining guvohi bo'ldik. O'quv materiallarini samarali o'zlashtirishning asosiy omillaridan biri – har bir darsning loyihasi va erishiladigan natijalarni oldindan bashorat qilishga bog'liq.

Shu o'rinda uzviylik tizimi haqida to'xtalib o'tsak. Adabiyotlar tahlilidan bizga ma'lumki, uzviylik tizimi ochiq tizim bo'lganligi sababli maktabgacha va boshlang'ich ta'limda matematik tasavvurlarni shakllantirishda sinergetik (kuchaytiruvchi) yondashuvdan foydalanish mumkin. Uzviylik tizimi uchun bifurkatsiya (razdvoenie, bir narsa kelib ikkiga bo'linib ketishi) nuqtasi maktabgacha ta'lim oluvchilarning ta'limning bir bosqichidan ikkinchisiga, o'quv maskanini almashtirish boshlang'ich ta'limga o'tish bosqichidan iborat bo'ladi. Bifurkatsiya nuqtasidan o'tish jarayonining uzoq davom etishi tizimning degradatsiyasiga (orqaga qaytish) olib keladi. Ammo maktabgacha va boshlang'ich ta'limda matematik tasavvurlarni shakllantirishda uzviylikni ta'minlashning mazmuni, ularni tanlab olish mezonlarini ishlab chiqish o'quv tarbiya

jarayonini rivojlanishiga, bolalarning mantiqiy fikrlashlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Shuningdek biz tomonimizdan, tadqiqotda ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlandi. Bu omillar quyidagilardan iborat: ilmiy - tadqiqot va pedagogik ko'nikmalar hamda malakalar (refleksiv, tolerantlik, kommunikabellik, prognostik, ishoraviy modellashirish ko'nikmalari); ijod uchun zarur mustaqil ishlash tajriba va usullari; chuqur nazariy bilimlar; o'qish motivatsiyasi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor, umumiy o'rta ta'lim maktablari "..... matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish" vazifasi belgilanib, bundan "maktabgacha ta'lim muassasasi – umumiy o'rta ta'lim maktablari (boshlang'ich sinf) tizimida matematika fanini o'qitishda uzviylikni ta'minlash metodikasini har bir maktabgacha va xalq ta'limi muassasalarining xususiyatlarini hisobga olish, hamda maktabga tayyorlov guruhi bolalarining matematik savodxonlik darajasiga, bilimiga, malaka, ko'nikmalariga, tayanch va predmet kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga maktabgacha va boshlang'ich sinflarda matematikani o'qitish jarayonida uzviylikni ta'minlash orqali takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda matematik tasavvurlarni shakllantirishda uzviylikni ta'minlashga yo'naltirilgan pedagogik vaziyatlarda bilish jarayonini tashkil etishga xizmat qiladigan ta'lim mazmuni, metodikasi, shakli va vositalari, usullaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday metodlarga muammoli izlanish, evristik izlanish, dialog, bahs - munozara, illustrativ - tushuntirish kabilar kiradi. Mazkur usullar va metodlarning xarakteridan kelib chiqqan holda mashg'ulotlarning tarkibi hamda unda foydalaniladigan materiallar tanlanadi. Jumladan, o'yin darslari, akmeologik yondashuv asosidagi pedagogik vaziyatlarni tashkil etish, teatrlashtirilgan darslar, ochiq darslar, ma'ruza va bahs - munozara mashg'ulotlari, evristik izlanish xarakteridagi mashg'ulotlar, konferensiya tipidagi mashg'ulotlar, integratsiyalashgan darslar kabilar kiradi.

Shuningdek, mazkur mashg'ulotlarda kichik guruhlarda ishlash, yakka tartibda ishlash, jamoaviy munozara metodlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'zlashtiriladigan bilimlarning asosiy sifati ularning anglanganlik, tushunilganlik darajasida ifodalanadi, shuningdek tahsil oluvchining buyum va hodisalarni nafaqat tavsiflab bera olishi, balki o'rganilayotgan dalillarni asoslab xulosalar chiqara olishida namoyon bo'ladi. Hosil bo'lgan bilimlar o'rganilayotgan buyum, hodisalar mazmuni va qarash ko'lamining kengligiga xizmat qiluvchi mukammallikka ega bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all [Word Education Forum, 19-22 may, 2015, Incheon, Republic of Korea].

2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2011 yil 4 iyuldagi "Uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 144-sonli buyrug'i.

3. Pedagogik texnologiya: muammo va istiqbollari (zamonaviy pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy asoslari). Mualliflar guruhi. / T.:OO'MKHTRM, 300 bet.

КЛАССИФИКАЦИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕТОДОВ ПРИМЕНЯЕМЫХ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

*Бафаева Дильдора Хасановна
Магистрант факультета дошкольного и начального образования, Бухарский
государственный педагогический институт*

Аннотация. Современная образовательная система переживает активную трансформацию под влиянием инновационных технологий. Данные изменения почти всегда актуальны в начальной школе. Там ведь формируется основа для дальнейшего обучения. В условиях цифровизации и изменения подходов к обучению математика в целом требует новых методов подачи материала, мотивирующих учеников к активной

учебной деятельности. Цель этой статьи — произвести классификацию инновационных образовательных технологий, а также проанализировать их практическое применение на уроках математики в начальных классах.

Ключевые слова: образование, методы, инновация, технология, математика, мышление, навыки, цифровизация

Abstract. The modern educational system is undergoing an active transformation under the influence of innovative technologies. These changes are almost always relevant in primary school. After all, the basis for further education is formed there. In the context of digitalization and changing approaches to teaching, mathematics in general requires new methods of presenting material that motivate students to active learning. The purpose of this article is to classify innovative educational technologies, as well as analyze their practical application in mathematics lessons in primary grades.

Key words: education, methods, innovation, technology, mathematics, thinking, skills, digitalization

Введение. Сегодняшний учитель должен преподавать так, чтобы соответствовать требованиям времени и быть на шаг впереди молодежи. Наша молодежь настолько требовательна, что быстро осваивает мир компьютеров, телефонов и Интернета. Поэтому важно использовать новые методы и приемы обучения для этой молодежи, внедрять новые технологии в образование, обучать по-современному, тем самым формируя и развивая их компетенции.

«Как бы это ни было сложно, мы должны найти свои уникальные и эффективные методы воспитания молодежи, соответствующие сегодняшнему времени», — подчеркнул в своем выступлении глава нашего государства.

В целях совершенствования преподавания и оптимизации образовательного процесса наряду с совершенствованием традиционных методов рекомендуются новые методы, адаптированные к требованиям времени и достижениям науки и техники. Одним из таких методов является использование инновационных технологий (информационно-коммуникационных технологий и интерактивных методов) в качестве помощников учителя в образовательном процессе. Однако инновационные технологические инструменты вносят большой вклад в формирование компетенций учащихся и их современного образования. Учит студентов последовательно и активно усваивать учебный материал и уметь применять полученные теоретические знания на практике. Это очень удобный инструмент для быстрого и объективного определения уровня усвоения материала учащимися. Поэтому организация и управление всеми этапами образовательного процесса с использованием инновационных технологических средств, разработка инновационных технологических средств, соответствующих образовательной этике для реализации этих работ, а также разработка методологии их внедрения на всех уровнях образования являются одними из важнейших и актуальных задач. проблемы, с которыми мы сталкиваемся в нынешнюю эпоху информационных технологий. — это одна из них.

Методы

В рамках исследования был проведён углублённый анализ школьных учебников, нормативных документов, а также практических примеров использования современных технологий в школах. В основу классификации, безусловно, вошли такие критерии, как тип технологии, форма взаимодействия, уровень цифровизации, а также педагогические цели. Рассмотрели цифровые, а также педагогические инновации, а именно: от электронных платформ для образования до методик в деятельностном подходе. Использование методов и средств при индивидуальном подходе в обучении помогает своевременно выявлять и устранять некоторые недостатки, возникающие в учебном процессе (уровень сложности учебного материала, уровень усвоения обучающимися, ситуации, с которыми они сталкиваются и т. д.).

Классификация инновационных технологий применяемых на уроках математики:

- **Интерактивные платформы** повышают мотивацию учеников, позволяют автоматизировать проверку знаний.

• **Игровые технологии** (например, использование карточек, квестов, математических соревнований) делают обучение увлекательным и помогают лучше усваивать материал.

• **Проектная деятельность** способствует развитию логического и критического мышления.

• **Технология флип-класс** позволяет использовать время урока на активную практику, а изучение теории переносит в домашнее пространство через видеоуроки.

Результаты

Полученные результаты в целом подтверждают высокую эффективность инновационных технологий в рамках преподавания математики в начальной школе. Их грамотное применение всегда способствует формированию устойчивого интереса к предмету, развитию аналитического мышления и повышению уровня усвоения знаний. Впрочем, для внедрения инноваций нужна методическая подготовка учителей, техническая оснащенность, а также поддержка от администрации образовательных учреждений.

По результатам анкетирования:

• 72% учителей отметили повышение интереса к математике при использовании инновационных подходов.

• 65% указали на улучшение учебных результатов у учеников.

• Основными барьерами названы недостаток оборудования и нехватка времени на подготовку.

Обсуждение (Discussion)

Полученные результаты подтверждают высокую эффективность инновационных технологий в преподавании математики в начальной школе. Их грамотное применение способствует формированию устойчивого интереса к предмету, развитию аналитического мышления и повышению уровня усвоения знаний. Однако внедрение инноваций требует методической подготовки учителей, технической оснащенности и поддержки со стороны администрации образовательных учреждений.

Важно также учитывать возрастные особенности младших школьников и сочетать новые технологии с классическими методами обучения. Будущее начального математического образования — за интеграцией традиционного и инновационного подходов, обеспечивающей индивидуализацию обучения и развитие универсальных учебных действий.

Заключение

Инновационные технологии представляют собой мощный инструмент в арсенале учителя начальных классов. Их классификация и целенаправленное применение позволяют значительно повысить эффективность преподавания математики. Чтобы соответствовать условиям современной школы особенно важно внедрять такие подходы, которые формируют у детей не только знания, но и любовь к предмету, готовность к самостоятельному мышлению и работе в цифровом мире.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Bafaeva Dildora Khasanovna (February, 2025) IMPLEMENTATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF MATHEMATICAL COMPETENCES IN PRIMARY SCHOOL CHILDREN, European science international conference: MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS (pp. 65-67)

2. Muxamedovich, K. F., & Ilxomovna, U. Z. (2023, January). BOSH LANG 'ICH SINF O' QUVCHILARIDA HISOBLASH MALAKASINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDANALISH METODIKASI. In E Conference Zone (pp. 47-51).

3. Muxamedovich, K. F., & Ilxomovna, U. Z. (2023). METHODS AND TOOLS FOR FORMING CALCULATION SKILLS IN STUDENTS THROUGH INTERACTIVE METHODS IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS EDUCATION.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKAGA ASOSLANGAN MEZONLAR

Tajbenova Saule Sarsengalieвна

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,

Boshlang‘ich ta’lim kafedrası dotsent, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda bilim, ko‘nikma va malaka kabi tarkibiy komponentlarga asoslangan mezonlar yoritilgan. Ayniqsa, qozoq tilida ta’lim oluvchi sinflarda ona tilini bosqichma-bosqich o‘zlashtirishda fonetik, grammatik va sintaktik birliklar asosida kompetensiyani shakllantirish zarurligi ta’kidlangan. Maqolada bosqichli mezonlar asosida tuzilgan jadval va o‘quv topshiriqlarining natijalari orqali o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishi baholangan.

Kalit so‘zlar. Lingvistik kompetensiya, bilim, ko‘nikma, malaka, mezon, boshlang‘ich sinf, ona tili, qozoq tili, til o‘rgatish.

Аннотация. В статье рассматриваются критерии формирования лингвистической компетенции младших школьников на основе знаний, умений и навыков. Особое внимание уделено поэтапному усвоению родного языка в классах с казахским языком обучения, а также необходимости развития речевых навыков через фонетические, грамматические и синтаксические явления. Представлены таблицы уровневых критериев и результаты заданий, отражающие уровень речевого развития учащихся.

Ключевые слова. Лингвистическая компетенция, знание, умение, навык, критерии, начальные классы, родной язык, казахский язык, обучение языку.

Annotation. This article explores the criteria for developing linguistic competence in primary school students based on the components of knowledge, skills, and abilities. It emphasizes the importance of a step-by-step acquisition of the native language in Kazakh-taught classes, highlighting the need to build linguistic competence through phonetic, grammatical, and syntactic elements. The paper includes a criterion-based table and sample assignments that illustrate students' speech development levels.

Keywords. Linguistic competence, knowledge, skills, abilities, criteria, primary school, native language, Kazakh language, language instruction.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi ilmiy markazlar va oliy ta’lim muassasalarida ayrim metodist olimlar lingvistik kompetensiyaning ona tilidan egallanadigan bilim va malakalar bilan bog‘liqlik darajasini nazariy jihatdan asoslashga, ba’zilar esa ulardan farqlanadigan, yuqoriroq darajada turadigan tomonlarini innovatsion pedagogik texnologiyalarni yaratishga ustuvor ahamiyat bermoqdalar. “Innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida o‘qitishni tubdan yaxshilash” muammosi BMTning ta’lim, fan va madaniyat masalalariga doir Bitimida ham dolzarb vazifa sifatida belgilangan [1]. Nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish mazmuni, innovatsion metod va vositalarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ko‘p tilli ta’limni amalga oshirishda tillar o‘rtasidagi funksional tenglikni ta’minlash, har bir bolaning ona tilidagi nutqiy rivojlanishini kafolatlash ta’lim siyosatida ustuvor vazifalardan biridir. Xususan, qozoq va qoraqalpoq tilida ta’lim oluvchi sinflarda o‘quvchilarning ona tilidagi lingvistik kompetensiyasini shakllantirish – murakkab, bosqichma-bosqich tashkil etiladigan jarayondir.

L.V.Cherepanovanning ta’kidlashicha, lingvistik kompetensiya mazmunini tashkil etuvchi bilim, ko‘nikma va malakalar hamda o‘quv-biluv faoliyati usullari ta’lim metod va usullari yordamida amalga oshiriladigan o‘qitish tizimi orqali rivojlanadi va shakllanadi [2]. Shubhasiz,

bunday o'quv-biluv faoliyati fonetik, leksik, morfem, frazeologik, so'z yasalishi, morfologik va sintaktik til hodisalarini intellektual-fikrlash faoliyati asosida o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, nutqiy amaliyotsiz faqat grammatik qoidalarini bilish ham, nazariy umumlashmasiz nutqiy amaliyot ham tilning erkin va mazmunli o'zlashtirilishini ta'minlay olmaydi (o'sha joyda).

Lingvistik kompetensiyaning asosiy xususiyatlaridan biri – uning kommunikativlikka yo'naltirilganligidir. T.V.Lebedeva ta'kidlaganidek, "kommunikativ kompetensiya – bu o'zgalarni tushunish va muloqot maqsadlari, sohalari, vaziyatlariga mos ravishda shaxsiy nutqiy xulq-atvor dasturini yarata olish qobiliyatidir" [3].

Lingvistik kompetensiya quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

bilim – tilning nazariy qoidalarini bilish (fonetika, morfologiya, leksika, sintaksis);

ko'nikma – til qoidalarini amaliyotda qo'llay olish;

malaka – til qoidalarini avtomatik, xatosiz qo'llash darajasi.

Bu komponentlarni rivojlantirish uchun izchil va bosqichli yondashuv talab qilinadi.

Quyidagi jadvalda komponentlarga mos ravishda bosqichli mezonlar keltirib o'tilgan:

Komponent	Bilim	Ko'nikma	Malaka
1-bosqich	So'z tartibi haqida tushunchaga ega	Qisqa jumla tuzadi	Xatolar bilan gapiradi
2-bosqich	Jumla tuzilishida qoidalarini anglaydi	Bir nechta so'zli jumla tuzadi va bog'lovchilarni qo'llaydi	Xatolarni qisman to'g'rilaydi
3-bosqich	Til qoidalarini mustaqil sharhlaydi va qo'llaydi	Murakkab jumla tuzadi	Erkin, ravon va xatosiz nutqqa ega

Yuqoridagi mezonlarni hisobga olgan holda quyidagi misollarni ko'rib chiqamiz:

Topshiriq: "Менің отбасым" mavzusida 4-5 jumladan iborat matn tuzish.

1-bosqich natijasi: Менің отбасым бар. Әкем, анам, ағам. – sodda jumlarlar, so'z tartibi asosan to'g'ri, ammo bog'lovchilar yo'q.

3-bosqich natijasi: Менің отбасым үлкен. Әкем дәрігер, анам мұғалім. Біз демалыс күндері бірге серуенге шығамыз. – murakkab jumlarlar, gaplar o'zaro bog'langan.

Topshiriq: "Менің достым" mavzusida og'zaki so'zlashuv matni tuzish.

1-bosqich natijasi: Meniñ dostım bar. Atı – Alisher. Jaqsı bala. – qisqa jumlarlar, kerakli fe'llar yetmaydi.

3-bosqich natijasi: Meniñ dostımniñ atı – Alisher. Ol júdá aqıllı, mudamı járdem beredi. Biz birge oynaymız hám oqıymız. – bog'langan jumlarlar, nutqiy birlik shakllangan.

Ushbu misollar o'quvchining til o'zlashtirishdagi ijobiy rivojlanishini ko'rsatadi. 1-bosqichda gaplar ajralgan, fe'llar va bog'lovchilar kam ishlatilgan. 3-bosqichda esa jumlarlar mantiqan bog'langan, grammatik jihatdan to'g'ri berilgan va kengroq matn tuzilgan. Bu esa, o'quvchilarning so'z boyligi, grammatik ko'nikmalari hamda mantiqiy izchillikni qo'llash malakasi ortib borayotganligini anglatadi. Shuningdek, murakkab jumlarlar va nutqiy birliklarning shakllanishi o'quvchining ifoda qilish qobiliyatining oshganini ko'rsatadi. Bunday tahlil til o'rganish jarayonini bosqichma-bosqich baholash hamda o'quvchining individual yondashuvga muhtoj jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

O'quvchi lingvistik kompetensiyani o'zlashtirar ekan, faqatgina nazariy bilimlarni egallamasdan, balki bu bilimlardan boshqalar uni to'g'ri tushuna oladigan darajada foydalanish, ovoz, intonatsiya, grammatik tuzilishga e'tibor berish, tengdoshlarining nutqidagi muvaffaqiyat va kamchiliklarga e'tiborli bo'lish, zarurat tug'ilganida o'z tushunchalari bilan o'rtoqlashish kabi ko'nikmalarni ham shakllantirishi lozim. Bu jarayonda o'quvchida nutqiy muloqotga kirishish, fikrni aniq va ravshan ifodalash, tilning funksional imkoniyatlaridan unumli foydalanish ko'nikmalari rivojlanadi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, qozoq va qoraqalpoq sinflarda lingvistik kompetensiyani shakllantirishda bilim, ko'nikma va malaka komponentlariga asoslangan bosqichli kuzatuv mezonlarini joriy etish yuqori samara beradi. Bu usul orqali har bir o'quvchining individual nutqiy rivojlanishini kuzatish va metodik islohlarni kiritish mumkin.

bo'ladi. Qo'sh tilli muhitda bunday yondashuv nafaqat kompetensiya rivojiga, balki umumiy savodxonlik darajasining oshib borishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ЮНЕСКО халқаро меъёрий хужжатлари //Ўзбекча нашрининг масъул муҳаррири Л.Саидова. –Т.: Адолат, 2004. –Б. 19-62.

2. Черепанова Л.В. Формирование лингвистической компетенции младших школьников. – М.: Педагогика, 2004. – 128 с.

3. Лебедева Т.В. Коммуникативная компетенция и речевое поведение школьников // Вопросы психолингвистики. – 2006. – №2. – С. 47–53.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHDA UZVIYLIKNI TA'MINLASHDA MEDIATEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Hakimova Mexriniso Homitovna

BuxDPI "Boshlang'ich ta'lim" kafedrası dotsenti

Pedagogik adabiyotlar tahlili va kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning muayyan bir yangilikni his etishlariga mavzuni nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirishlariga ko'maklashadi. Aytish joizki, media va axborot texnologiyalaridan foydalanish har doim ta'lim oluvchilarning rivojlanishi, yaratuvchilik va ijodkorlik ko'nikmalarini egallashlari uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. Mediatexnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish shaxs ijod erkinligi va rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omildir.

Shu nuqtai nazardan yondashganda ta'lim oluvchilarni intellektual salohiyatini oshirish, ularda ijodiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonining birinchi darajali vazifasiga aylanishi kerak. Bunda quyidagicha yo'l tutish maqsadga muvofiqdir:

- pedagoglarning yaratuvchilik imkoniyatlarining vujudga kelishi uchun mustaqillikni ta'minlash; (Bog'cha va maktab hamkorligini yanada mustahkamlash, o'zaro darslarga kirishni ta'minlash)

- yangi ta'lim turlari va ilg'or o'quv vositalari o'rtasidagi o'zaro birlik mexanizmini ishlab chiqish; (mavzu mohiyatidan kelib chiqib bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olish, (bog'cha, maktab))

- maktabgacha va boshlang'ich ta'limda matematik tasavvurlarni shakllantirishda uzviylikni ta'minlashla ijtimoiy zaruriyatning yuzaga kelishi;

- maktabgacha va boshlang'ich ta'limda matematik tasavvurlarni shakllantirishda uzviylikni ta'minlashda jamiyat tomonidan ijtimoiy buyurtmaning berilishi;

- maktabgacha va boshlang'ich ta'limda matematik tasavvurlarni shakllantirishda uzviylikni ta'minlashda ilg'or o'quv vositalarining yaratilishi;

- maktabgacha va boshlang'ich ta'limda matematik tasavvurlarni shakllantirishda uzviylikni ta'minlashda ilg'or o'quv vositalarini qo'llash texnologiya (usul)larining asoslanishi;

- maktabgacha va boshlang'ich ta'limda matematik tasavvurlarni shakllantirishda uzviylikni ta'minlashda ta'lim tamoyillari (yangi didaktik qoidalar) tizimining yaratilishi.

Aksariyat mutaxassislar J.G'.Yo'ldoshev, M.Ochilov, R.G'.Safarova, F.Yuzlikaev, Sh.S.Sharipovlar zamonaviy pedagogik texnologiyaga asoslangan yangi paradigmaning mohiyati interfaol ta'limni keng ko'lamda va mavjud imkoniyatlar asosida yo'lga qo'yishdan iborat ekanligini e'tirof etadilar.

Fikrimizcha, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda matematik tasavvurlarni shakllantirishda uzviylikni ta'minlashda mediatexnologiyalardan foydalanish, ta'lim vositalarini bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishlarda qo'llash imkonini beradi. Ayni vaqtda "Apparat-matnlar" tizimi (videokitoblar, o'quv diskleri, matematikadan matnli albomlar va boshqalar) dan ommaviy ravishda foydalanilmoqda. Bu esa pedagoglarning o'zaro muloqot va bahs munozara qilish imkoniyatini kengaytirishi bilan birga, ta'lim loyihalarini yaratishda pedagog - texnolog va metodistlarning kasbiy mahoratlarini oshirishga yordam beradi.

Bugungi kunda tajriba va kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, aksariyat bog'cha va maktablarda elektron o'quv darsliklari va qo'llanmalardan keng miqyosda foydalanilmoqda. Bu esa "Buyurtma - vosita uslub - yondashuv ta'lim turi" tizimi kinoproektor, o'quv magnitofoni, radio va televidenie, lingofon xonasi, avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlari, multimedia va gipermatnli ta'lim turlarining intellektual tizimi yordamida o'zlashtiriladi.

Aytish joizki, yangi ta'lim turlarining shakllanish sabablari hamda ilg'or o'quv vositalarining samaradorligini o'rganish ular o'rtasida o'zaro uzviylik mavjudligini ko'rsatadi. Bu uzviylik mohiyati nuqtai nazaridan quyidagi mexanizmga asoslanadi:

- matematika fan yo'nalishlari bo'yicha yaratilgan elektron o'quv matnlaridan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lgan mahoratli pedagog - texnologlarni tayyorlash, ta'limning texnik vositalaridan foydalanish jarayonida pedagoglar duch kelayotgan qiyinchiliklar, shuningdek, "faoliyatsiz fikrlash" sabablarini o'rganish va bartaraf etishga erishish.

Pedagogik faoliyat mazmunidan bilamizki, har bir o'qituvchi ertaga o'tadigan darsida qanday o'quv - metodik jarayonni amalga oshiraman degan savolga javob izlashdan boshlashi kerak. 45 - minutlik dars vaqtini taqsimlashda yangi materialni o'quvchilarga tushuntirishga va uni mustahkamlash yuzasidan misol va masalalar yechishga ko'proq vaqtni ajratish zarur. Aksariyat hollarda maktab o'qituvchilari ko'proq vaqtni uy vazifasini tekshirishga sarf qilib, yangi mavzu mazmunini bayon qilish va uni mustahkamlash vaqtini qisqartirishga olib keladilar. Fikrimizcha, bu usuldan qochish vaqti keldi, chunki darsning asosiy maqsadi yangi mavzu mazmunini o'quvchilarga tushuntirish va uni mustahkamlashdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda matematika fanini o'qitishda darsning maqsadi o'quv dasturining mazmuni va o'quv materiallaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Shuni nazarda tutgan holda, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda matematik tasavvurlarni shakllantirishda uzviylikni ta'minlashda mashg'ulot va dars maqsadini aniqlashda tahsil oluvchilarning o'quv materiallari bilan ishlashga oid faoliyatlarining tasnifi, tashkil etiladigan o'quv vaziyatlari ham aniq hisobga olinishi muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all [Word Education Forum, 19-22 may, 2015, Incheon, Republic of Korea].

2. Pedagogik texnologiya: muammo va istiqbollar (zamonoviy pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy asoslari). Mualliflar guruhi. / T.:OO'MKHTRM, 300 bet.

3. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. – T.: "Fan va texnologiya", 2008. – 288 b.

BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHI TALABALARNING ANGLASH, TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA GERMENEVTIK TA'LIMOTIDAN FOYDALANISH

*Sidiqova Dilara Shavkatovna
BuxDU doktoranti*

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar anglash va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda germenevtik ta'limotning nazariy va amaliy ahamiyati yoritiladi. Matnni tahlil qilish, kontekstual anglash, mantiqiy fikrlash orqali talabalarining tafakkur doirasini kengaytirish usullari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, germenevtik yondashuv asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ma'no izlash va matnga chuqur yondashish kompetensiyalarini shakllantirish yo'llari tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv boshlang'ich ta'limda samarali pedagogik vosita sifatida ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: germenevtika, boshlang'ich ta'lim, anglash ko'nikmasi, tinglab tushunish, matnni tahlil qilish, tafakkur, kontekstual anglash, lingvistik kompetensiya, ta'lim metodikasi, kommunikativ yondashuv.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКОГО УЧЕНИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ПОНИМАНИЯ И АУДИРОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В статье раскрывается теоретическая и практическая значимость герменевтического учения в развитии навыков понимания и аудирования у студентов, обучающихся по направлению начального образования. Показаны методы расширения кругозора студентов через анализ текста, контекстуальное понимание и логическое мышление. Также рассматриваются пути формирования у обучающихся таких компетенций, как самостоятельное мышление, поиск смысла и глубокое восприятие текста на основе герменевтического подхода. Данный подход предлагается как эффективное педагогическое средство в начальном образовании.

Ключевые слова: герменевтика, начальное образование, навык понимания, аудирование, анализ текста, мышление, контекстуальное понимание, лингвистическая компетенция, методика обучения, коммуникативный подход.

THE USE OF HERMENEUTIC THEORY IN DEVELOPING COMPREHENSION AND LISTENING SKILLS OF PRIMARY EDUCATION STUDENTS

Abstract: This article explores the theoretical and practical significance of hermeneutic theory in developing the comprehension and listening skills of students studying in the field of primary education. It outlines methods for expanding students' cognitive scope through text analysis, contextual understanding, and logical reasoning. The paper also examines ways to foster competencies such as independent thinking, meaning-making, and deep text interpretation based on a hermeneutic approach. This method is proposed as an effective pedagogical tool in primary education.

Keywords: hermeneutics, primary education, comprehension skills, listening, text analysis, thinking, contextual understanding, linguistic competence, teaching methodology, communicative approach.

Kirish. Zamonaviy ta'limda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan yangilanishlar boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar oldiga yangicha kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini qo'ymoqda. Ayniqsa, anglash va tinglab tushunish ko'nikmalarining rivoji pedagogik faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko'nikmalar o'quvchi bilan samarali muloqotga kirishish, axborotni to'g'ri tushunish va uni izohlab bera olish qobiliyatining shakllanishi uchun zarurdir.

Ushbu jarayonda germeneytik ta'limot asosida talabaning matn ustida izchil ishlashi, mazmunni anglash, fikrni tahlil qilish va talqin etish kabi malakalari bosqichma-bosqich shakllanadi. Bunday yondashuv, ayni paytda, ta'lim jarayonining ma'noga yo'naltirilgan, fikrlashga asoslangan shaklini yuzaga keltiradi.

Asosiy qism. Ta'limda anglash va tinglab tushunish faoliyatlari — shaxsning nutqiy, mantiqiy va tafakkuriy salohiyatini shakllantiruvchi asosiy vositalardan biridir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bu ko'nikmalar kelajakda o'z mutaxassisligi doirasida samarali faoliyat yuritish, o'quvchilar bilan mazmunli muloqotga kirisha olish va ta'limiy jarayonda tushunchalarni to'g'ri yetkazish kabi kompetensiyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, talabaning anglash jarayoni faqat axborotni qabul qilish emas, balki uni tushunish, tahlil qilish, izohlash va ongli ravishda qayta ishlash orqali amalga oshadi. Bu jarayonda germeneytik ta'limot metodik asos sifatida samarali xizmat qilishi mumkin.

Germeneytika — tushunish, izohlash va talqin qilish nazariyasi bo'lib, uni ta'lim jarayoniga integratsiyalash orqali talabaning tafakkur doirasi kengayadi, matn va ma'lumotlar bilan ishlash qobiliyati rivojlanadi. Ushbu ta'limotning asosiy tamoyillari — kontekstual anglash, ma'noni chuqur qamrab olish, muloqotli tafakkur va o'zaro izohli tahlil — til bilan bog'liq kompetensiyalarni shakllantirishda muhim metodologik vosita sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarorida ham ta'lim sifati va mazmunini oshirishda yangicha metodik yondashuvlar, ayniqsa, tafakkurga asoslangan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish zarurligi ta'kidlangan.

Talabalarning tinglab tushunish ko'nikmasi matnni anglashdan farqli o'laroq, nutqiy axborotni vaqtincha idrok qilish, uni xotirada saqlash, mazmunini ilg'ash va unga munosabat bildirish kabi bosqichlardan iborat. Bu esa germeneytik yondashuvda «eshitilgan matnni ma'no kontekstida tahlil qilish» mexanizmlari orqali takomillashtiriladi. Masalan, biror hikoya yoki ma'ruza tinglanayotgan paytda talaba avvalo mavjud bilimlari asosida eshitilgan matnga «mazmuniy taxmin» beradi, so'ng uni tushunishga urinadi, va nihoyat, o'z tafsiri bilan uni qayta talqin qiladi. Bu — germeneytik aylana prinsipining didaktik ko'rinishidir.

Bo'lajak boshlang'ich maktab o'quvchisi faoliyatidagi kreativlik evristik ta'limning pedagogik asosidir, uning samarali o'quv faoliyatini belgilaydigan ilmiy g'oyalar. O'quvchilarda bilish jarayoni kreativlik natijasida yuzaga keladi. Tadqiqot jarayonida kreativ faollikni namoyish etish uchun maqsadli, rejalashtirilgan, standartlashtirilgan, o'z-o'zini anglaydigan harakatlar zarur. Bu shuni anglatadiki, talaba atrof-muhit ob'ektlari va ular haqida bilimga ega bo'ladi; ta'lim samaradorligini oshirish oldingi faoliyatga tayanishni talab qiladi. Kreativlik-turli xil hayotiy vaziyatlarda paydo bo'ladi. Tajriba, ilhom, intilish va boshqalar inson ongidagi eng yuqori namoyon bo'lishdan tortib, uning namoyon bo'lishigacha bo'lgan kreativlik jarayonini o'z ichiga oladi.

Insonning kreativ faoliyatga bo'lgan ehtiyoji faoliyatda ilgari amalga oshirilmagan yangi kreativ istakni anglatadi. Ta'lim jarayonida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish barcha imkoniyatini yaratish, ularning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish kelajakda yuqori salohiyat, ijtimoiy faollik, o'tkir fikrlash va aql-idrokni namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni rivojlantirishning kalitidir. Bu davlatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash g'oyasiga mos keladi. Ta'limga yangi yondashuv dars samaradorligini oshirish vositasi, yangi sifat darajasiga ko'tarilgan fanlararo aloqa shakli. Boshlang'ich ta'limdagi yangi yondashuv turli xil hayotiy voqealarni universal baholash emas, balki ularning munosabatlariga kompleks yondashuvdir. Masalan, integratsiyalashgan ta'limni amalga oshirishda buni har jihatdan sof ilmiy bilim, adabiyot, musiqa, san'at orqali namoyish etish mumkin. Bu talaba shaxsiyatining hissiy va axloqiy rivojlanishiga, uning kreativ tafakkurini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich ta'limda talabalarning kreativ faoliyatini shakllantirish shartlari, birinchi navbatda, ushbu shartlarning paydo bo'lishi, amalga oshirilishi va rivojlanishi jarayonini anglatadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Talabalar o'zlarining kreativ faoliyatini shakllantirishda olishlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar.

2. Kreativ faoliyatni shakllantirishda nazariy bilim va amaliyotning nisbati.

3. Kreativ faoliyatni shakllantirish uchun evristik muammoli vaziyatlarni yaratish.

4. Talabalarning kreativ faoliyatini shakllantirishga texnologik yondashuv.

Boshlang'ich ta'lim kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki shu bilan birga odam o'z qiziqishlari va moyilliklarini shakllantirish uchun poydevor qo'yishni boshlaydi. Mustaqil va jamiyat uchun tanqidiy fikrlashga qodir kreativ shaxslarga bo'lgan ehtiyoj bugungi kunda pedagogikaning dolzarb muammosi, talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Kreativ ko'nikmani shakllantirishda talabalar egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va qoidalarni o'zlashtirish;
- tanlangan mavzu bo'yicha vazifalarni mustaqil ravishda bajara olish;
- o'rganilayotgan mavzularning asosiy muammolarini tushunish;
- vazifalarni bajarishda o'quv qo'llanmalari va jihozlaridan, axborot texnologiyalaridan foydalana olish;

- o'z qobiliyatlarini namoyish eta olish va rivojlantirish;
- mavzu bo'yicha maqsadlar qo'yish, rejalar tuzish va natijalarni baholash imkoniyatiga ega bo'lish;

- mavzularni o'rganishda o'z nuqtai nazarini isbotlay olish;

- takliflarni tavsiya qila olish.

Ushbu talablar o'qituvchiga talabalarning qiziqishlarini, ularning o'quv faoliyatini, individual tendentsiyalarini bilishga imkon beradi va bu borada o'quv jarayonining tuzilishini aniqlashga yordam beradi.

Shuningdek, boshlang'ich ta'limda dars jarayonida talabalarni matnga asoslangan muloqotga jalb etish, savol-javoblar orqali fikr almashish, matnni tahlil qilish asosida mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltirish ham hermenevtik ta'limotning amaliy ifodasidir. Bunday mashg'ulotlarda o'qituvchi o'z rolini axborot beruvchi emas, balki anglashga yo'naltiruvchi — yo'lboshchi sifatida olib boradi. Bu yondashuv talabaning faolligini oshiradi, uning shaxsiy fikri va talqinini rag'batlantiradi, bu orqali anglash va eshitish faoliyatining samaradorligi oshadi.

Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda matnga asoslangan topshiriqlar — eshitilgan matndan asosiy g'oyani aniqlash, tahlil qilish, izohli savollarga javob berish, ixtiyoriy tarzda takror bayon qilish, muallif pozitsiyasini tushuntirish kabi mashqlar samarali hisoblanadi. Hermenevtik metodika bu jarayonlarga chuqur kontekstual va semantik yondashuv olib kiradi, natijada talabada tanqidiy fikrlash, mantiqiy umumlashtirish va ijodiy izoh berish malakalari shakllanadi.

Shu o'rinda, Respublika oliy ta'lim muassasalarining boshlang'ich ta'lim fakultetlarida olib borilayotgan metodik tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarning matn bilan ishlashga doir faoliyatlarida aynan hermenevtik yondashuvdan foydalangan hollarda anglash va tinglab tushunish darajasi ancha yuqori bo'lmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida o'qitish metodikasi va nazariyasiga hermenevtik prinsiplarni chuqur singdirish zarurligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Yuqoridagi ilmiy-tahliliy mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining anglash va tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishda hermenevtik ta'limotdan foydalanish nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki analitik fikrlash, semantik talqin, tanqidiy tahlil va ma'no anglash kompetensiyalarining ham izchil rivojlanishiga xizmat qiladi. Hermenevtik yondashuv orqali talaba matn va og'zaki nutqni faqat qabul qiluvchi emas, balki uni izohlay oluvchi, qayta ishlab, mazmun yaratishga qodir subyekt sifatida shakllanadi.

Mazkur ta'limotning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi natijasida, darslar mazmuniy jihatdan chuqurlashadi, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot samarali tus oladi, talabaning mustaqil fikrlashi va nutqiy faolligi ortadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashga tayyorlanayotgan pedagoglar uchun bu yondashuv o'quv jarayonining sifatini ta'minlovchi kuchli metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ишмухамедов Р., Абдукодилов А., Пардаев А. Инновационные технологии в образовании (практические рекомендации для учителей образовательных учреждений). Ташкент, 2008. 87 с.
2. Безрукова В.С. Основы духовной культуры (энциклопедический словарь педагога) [Текст] / В.С. Безрукова. – Екатеринбург: ПЕРО, 2000. – 937 с.
3. Madraximovich, K. E., & Ruzimovich, Y. J. (2021). Application of Problem-Based Teaching Methods in the Development of Mathematical Thinking Skills of Students. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 43-47.
4. Khudoynazarov, E. (2023). THEORETICAL FOUNDATIONS OF GROWING LOGICAL THINKING OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS. *International Bulletin of Engineering and Technology*, 3(5), 33-37.
5. Madрахimovich, K. E. (2023). Didactic Principles of Developing Logical Thinking in Students. *New Scientific Trends and Challenges*, 97-100.

2-SHO‘BA.
UZLUKSIZ TA‘LIM TIZIMIDA TA‘LIM
MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH VA
O‘QUVCHILAR BILIMINI
TASHXISLASHNING DOLZARB
MASALALARI

MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYALANUVCHILARIDA OG'ZAKI SANASH TUSHUNCHASI VA UNING MAKTABGACHA TA'LIMDAGI O'RNI

Achilov O'tkir Isomitdinovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

G'aniyeva Munisa Nuraliyevna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

e-mail: achilov.uz1985@gmail.com tel: +99897 393-66-35

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarga og'zaki sanashni o'rgatish usullari, maktabgacha yoshdagi bolalarni og'zaki sanashga o'rgatish, maktabgacha ta'limda og'zaki sanashning ahamiyati va vazifasini yoritilib beriladi. Og'zaki sanash maktabgacha ta'limning muhim bir qismi bo'lib, bu jarayon bolalarda matematik fikrlash, mantiqiy tafakkur va miqdoriy anglashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagoglar og'zaki sanashni nafaqat nazariy mashqlar, balki o'yinlar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatishadi. Bu esa bolalar uchun nafaqat samarali, balki qiziqarli va foydali ta'lim usulini tashkil etadi. Og'zaki sanashning maktabgacha ta'limdagi o'rni — bu bolalar matematik tushunchalarni o'rganishda va aqliy rivojlanishda muhim vosita hisoblanadi.

Kalitta so'zlari: Mantiqiy fikrlash, og'zaki sanash, maktabgacha yosh, maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari, maktabgacha ta'lim tashkiloti, mantiqiy sanash, o'yinlar, tafakkur, ko'nikma rivojlanishi.

ПОНЯТИЕ УСТНОГО СЧЕТА У ДОШКОЛЬНИКОВ И ЕГО РОЛЬ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы обучения детей устному счёту, обучение дошкольников устному счёту, а также значимость и задачи устного счёта в дошкольном образовании. Устный счёт является важной частью дошкольного образования, поскольку этот процесс способствует развитию у детей математического мышления, логического рассуждения и количественного восприятия. Педагоги обучают устному счёту не только с помощью теоретических упражнений, но и через игры и практические занятия. Это делает обучение не только эффективным, но и интересным и полезным для детей. Роль устного счёта в дошкольном образовании заключается в том, что он служит важным инструментом в освоении математических понятий и умственном развитии детей.

Ключевые слова: логическое мышление, устный счёт, дошкольный возраст, воспитанники дошкольного образования, дошкольное образовательное учреждение, логический счёт, игры, мышление, развитие навыков.

THE CONCEPT OF VERBAL COUNTING IN PRESCHOOLERS AND ITS ROLE IN PRESCHOOL EDUCATION.

Annotation: This article explores methods for teaching children oral counting, the process of introducing preschool-aged children to oral counting, as well as the importance and objectives of oral counting in preschool education. Oral counting is a crucial part of preschool education, as it fosters the development of mathematical thinking, logical reasoning, and quantitative understanding in children. Educators teach oral counting not only through theoretical exercises but also through games and practical activities. This approach makes learning not only effective but also engaging and beneficial for children. The role of oral counting in preschool education lies in its function as a key tool for learning mathematical concepts and supporting children's cognitive development.

Keywords: logical thinking, oral counting, preschool age, preschool learners, preschool education institution, logical counting, games, reasoning, skill development.

Kirish. Maktabgacha ta'lim — bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi, uning intellektual, ijtimoiy va ruhiy salohiyatini shakllantiruvchi muhim bosqichlardan biridir. Shu jarayonda matematik tasavvurlarni o'zlashtirish, xususan, og'zaki sanash ko'nikmalarini rivojlantirish bolalarning mantiqiy fikrlashini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Og'zaki sanash — bolalarni sonlar ketma-ketligi, ularning tartibi va miqdoriy munosabatlari haqida dastlabki tasavvurga ega qilish imkonini beruvchi asosiy faoliyat turlaridan biridir. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni og'zaki sanashga o'rgatishda an'anaviy yodlash usullari bilan bir qatorda mantiqiy usullardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mantiqiy usullar yordamida o'rganish bolalarga sonlarning ma'nosini anglash, ularni taqqoslash, guruhlash, ketma-ketlikni aniqlash kabi amaliy qobiliyatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, bu usullar orqali bolalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, tahlil qilish va xulosaga kelish malakalari shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi: Og'zaki sanash va mantiqiy fikrlash bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Og'zaki sanash jarayonida bolalar sonlarni tartibda sanashni o'rganadilar, bu ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan, bolalar sanashni davom ettirayotganda ular mantiqiy aloqalarni, farqlarni va qo'shish yoki ayirishni tushunadilar. Bundan tashqari, bolalar og'zaki sanash jarayonida muayyan savollarga javob berish, sonlarni taqqoslash, natijalarni tahlil qilish va o'z fikrlarini izchil tarzda ifodalashni o'rganadilar. Bu barcha ko'nikmalar mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki sanash va mantiqiy fikrlashning ahamiyati juda katta. Og'zaki sanash bolalarga sonlar va miqdorlarni tushunishda yordam beradi, mantiqiy fikrlash esa ularni masalalarni hal qilishda va kreativ fikrlashda rivojlantiradi. Bu jarayonlar birgalikda bolalar uchun matematik bilimlarni o'rganishning mustahkam asosini yaratadi. Og'zaki sanash va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, bolalarning aqliy rivojlanishiga va kelajakdagi o'qish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda dastlabki matematik tasavvurlarni shakllantirishda og'zaki sanash muhim o'rin tutadi. Og'zaki sanash – bu bolalarning sonlar ketma-ketligini yodda saqlashi, tartib bilan aytishi va ular orasidagi bog'liqlikni anglash jarayonidir[1]. Ushbu ko'nikma orqali bolalarda nafaqat sonlar haqidagi tushuncha, balki matematik tafakkur, mantiqiy fikrlash va muammoli vaziyatlarda to'g'ri yo'l topa olish qobiliyati rivojlanadi. Og'zaki sanashning maktabgacha ta'limdagi o'rni juda keng. Bu ko'nikma bolalarning kelajakdagi matematik bilimlariga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Sonlarni tartib bilan sanash, ularni orttirish yoki kamaytirish, muayyan predmetlarni sanab chiqish, taqqoslash, guruhlash kabi faoliyatlar orqali bolalar sonlar orasidagi munosabatni tushunishga harakat qilishadi. Shu sababli og'zaki sanash maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kundalik mashg'ulotlarida muhim o'rin egallaydi.

Pedagoglar og'zaki sanashni bolalarga o'rgatishda didaktik o'yinlardan, musiqiy mashg'ulotlardan, ertaklar va interfaol usullardan keng foydalanishlari mumkin. Masalan, "1, 2, 3 – sanaylikchi biz!" kabi o'yinlar orqali bolalar sonlarni eslab qolishadi, ularni ketma-ketlikda aytishadi va bu jarayon ular uchun qiziqarli o'yin shaklida kichadi[2]. Shuningdek, qo'shiq va she'rlar orqali sonlarni o'rgatish bolalarning eslab qolish va takrorlash qobiliyatini kuchaytiradi. Og'zaki sanash orqali bolaning e'tibori, eslab qolish darajasi, tafakkuri va mustaqil fikrlashi rivojlanadi. Ayniqsa, 3-6 yosh oralig'idagi bolalar uchun bu jarayon o'ziga xos rivojlanish bosqichlarini tashkil etadi. Boshlanishida bolalar 1 dan 10 gacha sanashni o'rganishadi, keyin esa 20 gacha va undan yuqoriga o'tishadi. Shu bilan birga ular har bir sonning ma'nosini anglab borishadi.

Og'zaki sanashni rivojlantirishda muayyan bosqichlarga amal qilish muhim hisoblanadi. Dastlabki bosqichda bolalarga sonlar ketma-ketligini yodlab olishga yordam beriladi. Bu bosqichda takrorlash, qo'shiq va she'rlar yordamida sanash mashqlari samarali bo'ladi. Keyingi bosqichda bolalarga sonlar orasidagi munosabat, ya'ni qaysi son oldin, qaysi son keyin kelishini anglashga oid mashqlar beriladi. So'nggi bosqichda esa bolalar sanash orqali oddiy arifmetik amallar – qo'shish va ayirish haqida tushunchaga ega bo'la boshlaydilar. Og'zaki sanashda muhim jihatlardan biri bu — bolalarda son tushunchasini shakllantirishdir. Ya'ni bola "5"

deganda faqat ketma-ketlikdagi beshinchi sonni emas, balki bu sonning miqdorini ham tushunishi kerak. Buni shakllantirish uchun pedagoglar real hayotiy vaziyatlardan foydalanishlari mumkin: masalan, “stol ustida nechta olma bor?” yoki “yana ikkita qo’shsak nechta bo’ladi?” kabi savollar bolani fikrlashga undaydi[9]. Didaktik o’yinlar orqali og’zaki sanashni o’rgatish ayniqsa samarali hisoblanadi. “Sanab top”, “Sonni top”, “Qaysi son yo’qolgan?” kabi o’yinlar bolalarning fikrlashini faollashtiradi, ularni qiziqtiradi va raqamlar bilan ishlashga rag’batlantiradi. Shuningdek, bolalarni kichik guruhlariga bo’lib, jamoaviy tarzda o’yinlar tashkil qilish orqali ularda ijtimoiy ko’nikmalar ham shakllanadi. Pedagog uchun esa har bir bolaning individual qobiliyatini hisobga olib yondashish muhim[3]. Ba’zi bolalar sonlarni tez eslab qolsa, boshqalar ko’proq amaliy mashg’ulotlar orqali o’rganadi. Shu boisdan, og’zaki sanash bo’yicha mashg’ulotlar turli darajadagi topshiriqlarni o’z ichiga olishi lozim: osonidan murakkabigacha, yakkalikdan guruhli faoliyatlargacha.

Xulosa va takliflar: Xulosa qilib aytganda, og’zaki sanash faqat matematik ko’nikma emas, balki bolalarning umumiy intellektual rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim vositadir. Uni o’rgatishda pedagoglarning puxta rejalashtirilgan, tizimli va ijodiy yondashuvi hal qiluvchi rol o’ynaydi. Og’zaki sanash maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nafaqat matematik tayyorgarlik vositasi, balki umumiy aqliy rivojlanish, mantiqiy fikrlash va mustaqil o’rganish malakasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan pedagoglar og’zaki sanashni o’rgatishda ijodiy yondashib, har bir bolaning yoshi, bilimi va qiziqishiga mos metodlarni tanlashlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanboyeva O. U va boshqalar “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” Toshkent.
2. Bikbayeva. N. U. Ibragimova. Z. J. “Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish” T., “O’qituvchi”, 1995-y
3. O’I. Achilov, P.K. Idiyeva. Development of logical thinking preschool age children through quantitative tasks. Excellencia: international multi-disciplinary journal of education. <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje>
4. O’I.Achilov. M.G’Tashpulatova. Logical Thinking Methods and Classification inPreschool Children. International Journal of Language Learning and Applied Linguistics ISSN: 2835-1924. 2025, 4(1), 96-102. <https://journal.academicjournal.id/index.php/ijllal>
5. O’I.Achilov., M.N.G’aniyeva. Methodology for Developing Logical Thinking in Preschool Children through Pedagogical Educational Resources. American Journal of Open University Education ISSN 2997-3899 Vol. 2, №.2, Feb2025,DOI.10.5287/zenodo.1486844 <https://scientificbulletin.com/index.php/AJOU>
6. O’I.Achilov, Yu.K.Sodikova Maktabgacha ta’limda bolalarda mantiqiy fikrlashga o’rgatish metodikasi (O’quv qo’llanma)

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA 5-6 YOSHLI BOLALARDA MANTIQ RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA KVANTLAR BILAN BOG’LIQ MASALALAR

Achilov O’tkir Isomitdinovich

O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasida katta o’qituvchisi

Idiyeva Parvina Kamol qizi

O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabasi
e-mail: achilov.uz1985@gmail.com tel: +99897 393-66-35

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishda kvantorli masalalarning ahamiyati yoritiladi. “Har bir”, “ba’zi”, “kamida bitta” kabi kvantorlar orqali tuzilgan topshiriqlar bolalarda umumlashtirish, xulosa chiqarish, haqiqat va yolg’onni farqlash kabi mantiqiy ko’nikmalarni rivojlantiradi. Mualliflar fikricha, bunday topshiriqlar bolalarning fikrlash izchilligi, kuzatuvchanlik va mustaqil qaror qabul qilish

qobiliyatini oshirib, ularni aniq va mantiqiy fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: Mantiqiy fikrlash, kvantorlar, maktabgacha yosh, umumiy kvantor, ekzistensial kvantor, miqdoriy hukm, qarshi misol, haqiqat va yolgʻon, muammoli vazifa, fikr yuritish, sabab-oqibat bogʻliqligi, tafakkur izchilligi, tahlil va sintez, tasdiq va inkor, mustaqil fikrlash.

ВОПРОСЫ КВАНТОВОЙ МЕХАНИКИ КАК СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ ЛОГИКИ У ДЕТЕЙ 5-6 ЛЕТ В ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Аннотация: В данной статье раскрывается значение кванторных задач в формировании логического мышления у детей дошкольного возраста. Упражнения, составленные с использованием кванторов, таких как «каждый», «некоторые», «по крайней мере один», способствуют развитию у детей навыков обобщения, вывода, различения истины и лжи. По мнению авторов, такие задания повышают последовательность мышления, наблюдательность и способность принимать самостоятельные решения, способствуя формированию у ребёнка чёткого и логичного способа мышления

Ключевые слова: логическое мышление, кванторы, дошкольный возраст, универсальный квантор, существующий квантор, количественные суждения, контрпример, истина и ложь, проблемные задачи, рассуждение, причинно-следственные связи, последовательность мышления, анализ и синтез, утверждение и отрицание, самостоятельное мышление.

ISSUES RELATED TO QUANTUM MECHANICS AS A MEANS OF DEVELOPING LOGIC IN 5-6 YEAR OLD CHILDREN IN A PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION

Annotation: This article explores the importance of quantifier-based tasks in developing logical thinking in preschool children. Exercises involving quantifiers such as «each,» «some,» and «at least one» help children develop skills in generalization, drawing conclusions, and distinguishing between truth and falsehood. According to the authors, such tasks enhance consistency in thinking, observation skills, and independent decision-making abilities, thereby contributing to the formation of clear and logical reasoning in children.

Key words: Logical thinking, quantifiers, preschool age, universal quantifier, existential quantifier, quantitative judgments, counterexample, truth and falsehood, problem tasks, reasoning, cause-and-effect relationships, consistency of thinking, analysis and synthesis, affirmation and negation, independent thinking.

Kirish. Bugungi kunda maktabgacha taʼlimga eʼtibor jiddiy ravishda oshmoqda, chunki maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishi inson hayotining keyingi bosqichlari uchun mustahkam poydevor hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ushbu davrda bolalarda aqliy, ijtimoiy va hissiy koʻnikmalar shakllanadi, ular maktab va hayotdagi muvaffaqiyatlarning asosidir. Shu sababli, koʻplab mamlakatlarda maktabgacha taʼlim tizimini takomillashtirish va kengaytirishga qaratilgan siyosiy va qonuniy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasining “Maktabgacha taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni (2019 yil) maktabgacha taʼlim muassasalari faoliyatini tartibga soladi, bolalarning sifatli va teng huquqli taʼlim olishini taʼminlaydi hamda pedagoglarning malakasini oshirishga alohida eʼtibor qaratadi. Ushbu qonun maktabgacha taʼlim sohasidagi zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga mos keluvchi tizim yaratishni maqsad qilgan. Shuningdek, Milliy dasturlar doirasida maktabgacha taʼlimning sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini taʼminlash va taʼlim muassasalarini infratuzilma bilan taʼminlash boʻyicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa bolalarning mantiqiy fikrlash, ijodiy va ijtimoiy koʻnikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar, xususan, UNESCO va UNICEF maktabgacha taʼlimni rivojlantirish

bo'yicha loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi, bu esa mamlakatlar o'rtasida tajriba almashish va ilg'or metodlarni joriy etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish masalalari bugungi ta'lim jarayonining dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, kvantorlar bilan bog'liq masalalar bolalarning mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Kvantorlar — bu fikrning ko'lamini belgilashga yordam beruvchi mantiqiy birliklar bo'lib, ular umumiy kvantor ("har bir", "hamma", "har qanday") va ekzistensial kvantor ("kamida bitta", "ba'zi", "mavjud") shaklida ifodalanadi. Ushbu mantiqiy birliklar yordamida tuzilgan masalalar bolalarda umumlashtirish, ajratish, xulosa chiqarish, shuningdek, haqiqat va yolg'onni farqlash kabi mantiqiy operatsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, «Rasmda barcha shakllar ko'kmi?», «Hech bo'lmaganda bitta sariq to'rtburchak bormi?» kabi savollar bolaga miqdoriy hukmlarni tahlil qilish, fikrning noto'g'riligini isbotlash uchun qarshi misollar keltirish, berilgan shartlarga ko'ra xulosa chiqarish imkoniyatini beradi. L.M. Fridmannning mantiq haqidagi ta'rifida mantiqiy fikrlash insonning to'g'ri bayonotlar, hukmlar va xulosalarni shakllantirish qobiliyati sifatida ko'rsatilgan. Shu nuqtai nazardan, mantiqiy tafakkur faqatgina intellektual qobiliyatlarni oshirib qolmay, balki bolalarning hayotiy vaziyatlarda to'g'ri va oqilona qaror qabul qilishlarini ham ta'minlaydi. Bundan tashqari, muammolarni hal qilish jarayoni bolalarning sabr-toqat, qat'iyatlilik va yechim izlashga bo'lgan qiziqishini rivojlantiradi.

Bu jarayon muvaffaqiyatli amalga oshirilganda, bola chuqur mamnuniyat hissi bilan o'z-o'zini rag'batlantirib, yanada faol fikrlashga undaydi. Metodologik jihatdan, maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkur va kvantor tushunchalarini shakllantirishda didaktik topshiriqlar va muammoli vazifalardan foydalanish samarali hisoblanadi. Ushbu topshiriqlar orqali bolalar sabab-oqibat munosabatlarini anglash, voqelikni ketma-ketlikda tushunish, shuningdek, umumiy qoidalarni aniqlash va farqlash ko'nikmalarini egallaydilar. Mantiqiy savollar, masalan, "Bu rasmdagi har bir shakl sariqmi?" yoki "Har bir to'rtburchak yashil emasmi?" kabi, bolaning fikrini diqqat bilan tahlil qilish, umumlashtirish va inkor qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. T.K. Kamolov va I.L. Nikolskaya tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy fikrlash harakatlari — bayonotlarning mantiqiy tuzilishini aniqlash, tushunchalarga aniq ta'rif berish, inkorlar va bog'lovchilarning ma'nosini tushunish, murakkab gaplarni tuzish va bilimni mantiqiy asoslarda isbotlash — eng muhim ko'nikmalar sifatida ko'rsatilgan. Ushbu ko'nikmalar bolalarning boshlang'ich matematik bilimlarini o'zlashtirish, savol-javoblar orqali fikr yuritish, hamda hayotiy tajribalarni anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish uchun turli usullar qo'llaniladi. Jumladan, o'yinlar, rasm chizish, konstruktor bilan ishlash kabi faoliyatlar mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vositalardir. Bu usullar orqali bolalar mantiqiy tafakkur jarayonida zarur bo'lgan tahlil, sintez, umumlashtirish va tasniflash kabi aqliy harakatlarni muntazam ravishda mustahkamlab boradilar. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda kvantorli masalalar orqali mantiqiy tafakkur va fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat bolalarning intellektual salohiyatini oshiradi, balki ularni mustaqil, izchil va oqilona fikr yuritadigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishda o'yin metodlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'yin jarayonida bolalar ko'proq erkin fikrlashga va yangi bilimlarni amalda qo'llashga o'rganadilar. Masalan, konstruktorlar yordamida shakllarni yig'ish yoki ranglar bilan ishlash orqali ular kvantor tushunchalarini yanada chuqurroq anglay boshlaydilar. Shuningdek, o'yin orqali murakkab mantiqiy bog'liqliklarni tushunish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash imkoniyati oshadi. Ta'lim jarayonida interaktiv va vizual metodlardan foydalanish ham mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Rasmlar, diagrammalar, grafiklar bolalarning fikr yuritishini soddalashtiradi, ularni muammoni tahlil qilish va yechim topishga undaydi. Bu esa, o'z navbatida, bolalarning fikrlash jarayonini tizimli va izchil qiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda maktabgacha ta'limda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda

individual yondashuv va differentsial ta'lim usullarining ahamiyati katta. Har bir bolaning intellektual salohiyati va rivojlanish darajasini inobatga olib, ularga moslashgan topshiriqlar berish samaradorlikni oshiradi. Muammoli vazifalarni yechish jarayoni nafaqat mantiqiy fikrlashni, balki bolalarning ijtimoiy-muloqot ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Muammolarni birga hal qilish, fikr almashish orqali ular hamjihatlik va jamoaviy ishlashni o'rganadilar. Bu esa ularning shaxs sifatida rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkur va kvantor tushunchalarini shakllantirish nafaqat aqliy rivojlanishga, balki kelajakda mustaqil va oqilona qaror qabul qila oladigan shaxslar bo'lib yetishishlariga ham xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar: Maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishda kvantorlar va mantiqiy masalalar muhim o'rin tutadi. Ular bolalarda umumlashtirish, ajratish, xulosa chiqarish kabi mantiqiy operatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. O'yin, muammoli vazifalar va interaktiv metodlar bolalarning fikrlash faoliyatini yanada chuqurlashtirib, amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi. Individual yondashuv va differentsial ta'lim usullarining qo'llanilishi har bir bolaning intellektual salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Muammolarni hal qilish jarayoni nafaqat mantiqiy fikrlash, balki ijtimoiy-muloqot ko'nikmalarini ham mustahkamlaydi, bu esa bolalarning shaxs sifatida yetuklashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, maktabgacha ta'lim muassasalarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan metod va vositalarni yanada kengroq joriy etish zarur. Ta'lim jarayonida kvantorli masalalar, o'yinlar va interaktiv faoliyatlarga ko'proq e'tibor qaratish, shuningdek, pedagoglarning malakasini oshirish orqali ta'lim sifatini yanada yaxshilash mumkin. Natijada, bolalar mustaqil, izchil va oqilona fikrlashga ega bo'lgan shaxslar sifatida yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanboyeva.O. U va boshqalar "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" Toshkent.
2. Bikbayeva. N. U. Ibragimova. Z. J. "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish" T., "O'qituvchi", 1995-y
3. D. Q. Asqarova. Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. Namangan – 2020.
4. Agayeva, E. Mantiqiy fikrlash elementlarini shakllantirish [Matn] / E. Agaeva // Maktabgacha ta'lim, 1982. No 1. – 38-41 b.
5. Alyabyeva, E.A. 5-8 yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash va nutqni rivojlantirish yillari [Matn] / E.A. Alyabeva – M.: TC Sfera, 2010. – 112 b.
6. Andreeva, I.A. Rivojlanayotgan mantiq [Matn] / I.A. Andreeva – M.: Interpressservis, 2015. – 32 b.
7. Bazhenova, M. Matematik ABC. Shakllanish elementar matematik tasvirlar [Matn] / M. Bazhenova – M.: Eksmo, 2005. – 64 b.
8. Beloshistaya, A.V. Matematikaga tayyorgarlik: uslubiy 5-6 yoshli bolalar bilan mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar [Matn] / A.V. Beloshistaya – M.: Yuventa, 2013. – 32 b.
9. Beloshistaya, A.V. Matematik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun darslar 5-6 yoshli bolalarning qobiliyatlari: dars yozuvlari [Matn] / A.V. Beloshistaya. – M.: Vlados, 2004. – 100 b.
10. Beloshistaya, A.V. Matematikaning shakllanishi va rivojlanishi maktabgacha yoshdagi bolalarning qobiliyatlari [Matn] / A.V. Beloshistaya – M.: VLADOS, 2003. – 400 b
11. Boyko, A.P. Mantiq [Matn] / A.P. Boyko – M.: Ta'lim, 1994. – 37 b.
12. Veklerova, X.M. Mantiqiy tuzilmalarni shakllantirish katta maktabgacha yoshdagi bolalar [Matn] / X.M. Veklerova – Obninsk: Svetoch, 1998. – 87 b.
13. Voroshikov, S.G. ABC mantiqiy fikrlash [Matn] / S.G. Voroshikov – M.: Bilim uchun 5, 2007. – 352 b.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA INKLYUZIV TA'LIM MAZMUNI

Rabbimova Sarvinoz Jurabek qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistri
I.E.Davronov

Ilmiy rahbar: Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada uzluksiz ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning mohiyati, asosiy tamoyillari hamda ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylikda inklyuziv yondashuvni amalga oshirishning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, uzluksiz ta'lim, moslashuvchan o'qitish, maxsus ehtiyoj, ta'lim bosqichlari, pedagog tayyorgarligi

THE CONTENT OF INCLUSIVE EDUCATION IN THE CONTINUING EDUCATION SYSTEM

Abstract: This article discusses the essence, basic principles of inclusive education in the system of continuing education, and the importance of implementing an inclusive approach in the continuity between educational stages. Keywords: inclusive education, continuing education, flexible learning, special needs, educational stages, pedagogical training

Keywords: inclusive education, continuing education, flexible learning, special needs, educational stages, pedagogical training

THE CONTENT OF INCLUSIVE EDUCATION IN THE CONTINUING EDUCATION SYSTEM

Аннотация: В статье рассматриваются сущность, основные принципы инклюзивного образования в системе непрерывного образования, а также важность внедрения инклюзивного подхода в преемственность между образовательными ступенями.

Ключевые слова: инклюзивное образование, непрерывное образование, гибкое обучение, особые потребности, образовательные ступени, педагогическая подготовка

Bugungi kunda jamiyatda ta'lim jarayonini insonparvarlik va adolat prinsiplariga asoslab, har bir shaxsning ehtiyoj va imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'minlash zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta'lim — ya'ni imkoniyati cheklangan, nogironligi bo'lgan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar uchun umumiy ta'lim muassasalarida ta'lim olish imkoniyatini yaratish — ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimi doirasida inklyuziv ta'limning uzviyligi, bosqichma-bosqichligi va izchilligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta'lim — bu har bir bolani ijtimoiylashuv, o'ziga ishonch va mustaqillikka erishish yo'lida teng imkoniyatlar bilan ta'minlovchi ta'lim modeli bo'lib, u nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy, madaniy va huquqiy jihatdan ham yondashuvni talab qiladi. Bu konsepsiya "hech kim e'tibordan chetda qolmasin" tamoyiliga asoslanadi va bu orqali har bir insonning shaxsiy rivojlanish sur'ati, ehtiyojlari va o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi. Mazkur muammo ayniqsa uzluksiz ta'lim tizimi sharoitida yanada murakkab va ko'p qirrali tus oladi. Uzluksiz ta'lim — insonning butun hayoti davomida ta'lim olish, o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda boyitib borish imkonini beruvchi tizim bo'lib, unda shaxsning bolalikdan to kattalikka, hatto keksalik davrigacha bo'lgan taraqqiyoti muvofiqlashtiriladi. Shunday ekan, bu tizimda inklyuziv ta'limning uzviy bog'liqligi va har bir bosqichda mantiqiy davomiyligi — ta'limning sifatli, adolatli va samarali bo'lishining kafolatidir.

O'zbekistonda ham inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri, "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi BMT konvensiyasi hamda Milliy strategik dasturlar bu boradagi harakatlarni muvofiqlashtirib borishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, ta'limning barcha bosqichlarida (maktabgacha, umumiy o'rta, kasb-hunar, oliy ta'lim hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida) inklyuziv yondashuvni tatbiq etish — ilg'or xalqaro tajribalar bilan

hamohang holda amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta'lim mazmuni bu — har bir bolaning individual ehtiyojlari, salohiyati va imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyillari, shakl va vositalari yig'indisidir. U umumiy ta'lim muassasalari negizida imkoniyati cheklangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni ajratmasdan, ular bilan birgalikda ta'lim berishni nazarda tutadi. Inklyuziv yondashuv faqatgina nogironligi bo'lgan bolalarga emas, balki har qanday turdagi o'ziga xos ehtiyojga ega bo'lgan bolalarga taalluqlidir (masalan, til, madaniyat, jins, intellektual daraja, ijtimoiy maqom, psixologik muhit va h.k.).

Inklyuziv ta'lim — bu statik model emas, balki shaxs rivojlanishini butun hayot davomida qo'llab-quvvatlovchi dinamik tizimdir. Shuning uchun uning mazmuni uzluksiz ta'limning har bir bosqichida mantiqan davom etishi va izchil qo'llanilishi kerak. Maktabgacha ta'lim inson shaxsining shakllanishidagi ilk va eng muhim bosqich bo'lib, bolaning aqliy, jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu davrda bola jamiyat bilan muloqotga kirishadi, mustaqil fikrlash, ijtimoiylashish, o'zini anglash va o'rganish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Shunday ekan, maktabgacha ta'limda inklyuziv yondashuvni joriy etish — barcha bolalarning teng huquqli ta'lim olishiga, ayniqsa imkoniyati cheklangan, nogironligi bo'lgan yoki maxsus ehtiyojga ega bolalarning jamiyatga to'laqonli integratsiyasiga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda inklyuziv ta'limning o'рни ayniqsa kattadir. Masalan, bolaning rivojlanishidagi og'ishlarni erta aniqlash va unga nisbatan zarur choralarni ko'rish, ayniqsa 0–3 yosh oralig'ida, juda muhimdir. Alohida yordamga muhtoj bolalar orasida maxsus diagnostika, sog'liqni tiklovchi dasturlar, sensor integratsiya mashg'ulotlari ayni shu yosh davrida foydali hisoblanadi.

O'yin — maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy ta'lim shaklidir. Inklyuziv ta'limda o'yinlar bolaning nuqsonlarini hisobga olgan holda moslashtiriladi: vizual, audial yoki harakatli elementlar qo'shiladi, tengdoshlar bilan muloqot imkoniyati kuchaytiriladi. Inklyuziv guruhda bola bilan bir vaqtning o'zida bir nechta mutaxassislar ishlaydi: tarbiyachi, psixolog, logoped, defektolog va tibbiy xodimlar. Ularning o'zaro hamkorligi bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Inklyuziv muhitda bolaning o'ziga ishonchi shakllanadi, do'st orttirish, guruhda faol ishtirok etish, his-tuyg'ularini ifodalash va boshqalarni tushunish ko'nikmalari rivojlanadi. Bu esa uni keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning mazmunini to'g'ri shakllantirish - nafaqat individual rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi, balki farzandlar orasida tenglik, bag'rikenglik va ijtimoiy moslashuvni ta'minlaydi. Ayni bu davrda ta'lim sifati o'qituvchining bilim va ko'nikmalariga bevosita bog'liqdir. Inklyuziv ta'limda faoliyat yurituvchi pedagoglar moslashtirilgan metodikalarni qo'llay olishi, nutq buzilishi yoki jismoniy cheklovlari bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi, ijtimoiy- emmotsional qo'llab-quvvatlashni ko'rsata olishi lozim. Sinfda alohida yordamga muhtoj bolalar uchun qulay vositalarni shakllantirish ularni bilim olishini ta'minlashga yordam beradi. Masalan, nogironlik aravachasida harakatlanadigan o'quvchi uchun maktabga rampa o'rnatilishi, visual materiallardan foydalanilishi, o'qituvchining differensial yondashuvi muhimdir.

Maktab bosqichida inklyuziv ta'lim mazmunining to'g'ri va tizimli tashkil etilishi — imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy integratsiyasi, mustaqil hayotga tayyorlanishi va jamiyatning barqaror taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Bu jarayon faqat maktab doirasida emas, balki davlat siyosati, oila, jamiyat va xalqaro hamkorlik asosida kompleks tarzda olib borilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasida 2021-yil 15-iyunda qabul qilingan “Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida”gi qonun, “Ta'lim to'g'risida”gi yangi tahrirdagi qonun, shuningdek, UNESCO, UNICEF va BMTning Inson huquqlari bo'yicha rezolyutsiyalari asosida inklyuziv ta'limni amaliyotga tatbiq qilish ishlari kengaymoqda. Bu borada rivojlangan davlatlar, jumladan, Finlandiya, AQSh, Yaponiya va Singapur tajribasi o'rganilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, uzluksiz ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim — bu shunchaki o'quvchi yoki talaba uchun mos sharoit yaratish emas, balki jamiyatni o'zgartirishga qaratilgan ijtimoiy-huquqiy yondashuvdir. Bu tizim har bir fuqaroni o'z imkoniyatlariga qarab

to'laqonli rivojlanishini, hayotga moslashishini ta'minlashga qaratilgan. Shu bois, inklyuziv ta'limni uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chuqur integratsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-dekabrda PQ-42-son qarori "2022–2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni (yangi tahrirda) – 2020-yil 23-sentabr.
3. "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi BMT Konvensiyasi – 2006-yil.
4. Norboyeva G'.N. Ta'limda inklyuziv yondashuv: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDPU, 2022.
5. Kadirova D.I. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2020.
6. Qodirov A.M. Uzluksiz ta'lim tizimi: muammolar va istiqbollar. – Toshkent: Ilm ziyo, 2019.
7. Mahkamova M.M. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda inklyuzivlik: O'zbekistondagi yondashuvlar. – "Pedagogika va psixologiya" jurnali, 2021

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA CHIDAMLILIKNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

*Sh.I.Davronov
BuxDU mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida umumiy chidamlilikni rivojlantirish usullari yoritilgan. Unda aerob imkoniyatlarni kengaytirish, nafas olish tizimi va tayanch-harakat organlarini mustahkamlashga qaratilgan mashg'ulot turlari (uzluksiz, o'zgaruvchan, intervalli, o'yin usullari) tahlil qilinadi. Har bir usulning o'ziga xos xususiyatlari, yuklama va dam olish nisbatlari, yurak urish tezligi va fiziologik reaksiyalar asosida ko'rib chiqiladi. Sport o'yinlari va nafas mashqlari chidamlilikni oshirishda muhim omil sifatida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, chidamlilik, jismoniy mashg'ulotlar, intervalli usul, uzluksiz usul, sport o'yinlari, yurak urish tezligi, nafas mashqlari, jismoniy tarbiya

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ УСТОЙЧИВОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация: В статье рассматриваются методы развития общей выносливости у младших школьников. Особое внимание уделяется расширению аэробных возможностей, укреплению дыхательной и опорно-двигательной систем. Проанализированы различные методы тренировок: непрерывный, переменный, интервальный и игровые методы. Описаны особенности каждого метода, соотношение нагрузки и отдыха, частота сердечных сокращений и физиологические реакции. Показана роль спортивных игр и дыхательных упражнений в развитии выносливости.

Ключевые слова: младшие школьники, выносливость, физические упражнения, интервальный метод, непрерывный метод, спортивные игры, ЧСС, дыхательные упражнения, физическое воспитание

METHODS FOR DEVELOPING RESILIENCE IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

Annotation: This article explores methods for developing general endurance in primary school children. It focuses on enhancing aerobic capacity, strengthening the respiratory and musculoskeletal systems. Various training approaches such as continuous, variable, interval, and game-based methods are analyzed. Each method's characteristics, workload-to-rest ratios, heart

rate response, and physiological effects are discussed. The importance of sports games and breathing exercises in improving endurance is emphasized.

Keywords: primary school children, endurance, physical exercises, interval method, continuous method, sports games, heart rate, breathing exercises, physical education

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida chidamlilikni rivojlantirishning asosiy vazifasi – ularning umumiy jismoniy bardoshlilikini oshirishdan iborat bo'lib, bu turli xil jismoniy faoliyat turlari orqali amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda bir necha turdagi mashg'ulot usullari qo'llaniladi: uzluksiz, intervalli va musobaqa xarakteridagi mashg'ulotlar. Har bir usulning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, ular chidamlilikning turli komponentlarini rivojlantiradi. Masalan, bajarilayotgan mashqlar turini (tez yurish, yugurish, yengil og'irliklar bilan bajariladigan mashqlar, futbol, basketbol kabi harakatli o'yinlar) o'zgartirish mumkin. Bundan tashqari, chidamlilikni shakllantirishda mashg'ulot davomiyligi, intensivligi, takrorlar soni va dam olish (tiklanish) oraliqlari muhim ahamiyatga ega.

Mashqlar, odatda, maxsus chidamlilikni talab qiladigan sport turlari uchun xosdir. Bunday mashqlarda mashg'ulotning intensivligi yuqori bo'lib, ko'plab mushak guruhlari faol ishlaydi. Chidamlilikni samarali rivojlantirish usuli sifatida raqobat xarakteriga yaqin, intensivligi yuqori mashqlar qo'llaniladi.

Quyida umumiy chidamlilikni oshirishga xizmat qiluvchi ba'zi mashg'ulot usullarini ko'rib chiqamiz. Masalan, barqaror (teng sur'atdagi) uzluksiz mashg'ulotlar usuli shundan iboratki, mashg'ulot kamida 30 daqiqa davom etadi va mashqlar nisbatan past yoki o'rtacha kuchlanishda, teng ritmda bajariladi. Ular yurishdan boshlab, o'rta tezlikdagi yugurish yoki unga o'xshash mashqlarni o'z ichiga oladi. Mashg'ulot davomida ishtirokchi harakatlar tezligi, sur'ati, kuchlanishi va amplitudasini doimiy saqlashga harakat qilishi lozim.

Jismoniy tayyorgarlik darajasi yetarli bo'lmagan boshlang'ich sinf o'quvchilari kuchli jismoniy yuklamani bajara olmaydi. Shu sababli, mashg'ulotlar davomiyligini asta-sekin va ehtiyotkorlik bilan oshirish, intensivlikni ko'paytirmasdan olib borish tavsiya etiladi.

O'zgaruvchan uzluksiz usul – bu mashg'ulot davomida ish intensivligining davriy o'zgarib borishi bilan xarakterlanadi. Mazkur usul o'quvchilarda iroda, sabr va matonatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu usul ko'pincha chang'ichilar va uzoq masofaga yuguruvchilarda qo'llaniladi. U organizmning vegetativ funksiyalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi va aerob almashinuv jarayonining faol ishlashiga olib keladi. Bunday mashg'ulotlar vaqtida tanada aerob va anaerob yuklamalar aralash rejimda amalga oshadi. Shu bois, mashg'ulot intensivligi va tezligidagi o'zgarishlar keskin bo'lmashligi lozim, aks holda aerob yuklama buzilishi mumkin.

Intervallik usul esa yuqori intensivlikdagi mashqlarni takroriy bajarish va ular orasida aniq belgilangan dam olish intervallari bilan ajralib turadi. Biroq, bu usul boshlang'ich bosqichda chidamlilikni rivojlantirish uchun mos emas, chunki u yurak-qon tomir va nafas olish tizimlaridan jiddiy talablarni talab qiladi. Mashqlar odatda 1–2 daqiqa davom etadi, so'ngra 1–3 daqiqa dam olish vaqti beriladi. Dam olish vaqtida o'quvchilar yengil harakat (masalan, sekin yurish) qiladilar. Mashqlarni qisqa vaqt bajarsa – yurak-qon tomir tizimi to'liq faollashmaydi; ortiqcha uzoq davom etsa – ish intensivligi kamayadi.

Mashg'ulot paytida yurak urish tezligi 155–175 zarbaga/minutgacha yetadi, dam olish oxiriga kelib esa YUT 115–130 urish atrofida saqlanishi kerak. Mashqning samarasi faqat bajarilish vaqtida emas, asosiy ijobiy fiziologik ta'sir aynan tiklanish (dam olish) fazasida yuz beradi. Dam olishning dastlabki daqiqasida kislorod iste'moli ortadi va yurakning qon chiqarish hajmi ko'payadi. Agar keyingi yuklama organizm ana shu yuqori faollik holatida bo'lgan paytda takrorlansa, kislorod iste'moli bosqichma-bosqich oshib boradi, natijada chidamlilik samarali rivojlanadi.

Jismoniy tarbiya darslarida faqat siklik harakatlar (masalan, yugurish, yurish) bilan cheklanib qolmasdan, sport o'yinlari ham umumiy chidamlilikni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Basketbol, stol tennisi, voleybol, futbol, mini-futbol, «quvishmachoq» kabi o'yinlar 5–15 daqiqa davomida o'ynaladi va ular harakat intensivligining almashinuvi (faollik va pauzalar) bilan ajralib turadi.

Shuningdek, chidamlilikni oshirish uchun arpa sakrash mashqlari ham oyda bir necha marotaba qo'llaniladi. Bu mashqlar bosqichma-bosqich murakkablashib, intensiv sakrash vaqti har safar 5–15 soniyaga oshirib boriladi. O'yinlar va musobaqaviy usullarni qo'llash bolalarning darsga bo'lgan e'tibori va hissiy holatini yaxshilaydi, charchoq kamayadi, darsga bo'lgan qiziqish oshadi.

To'g'ri tashkil etilgan sport o'yinlari orqali turli turdagi chidamlilikni rivojlantirish mumkin. Ammo o'yinlar chidamlilikni nishonli shakllantirishda yetarlicha aniqlikka ega bo'lmaydi. Shu sababli, dozalangan mashqlar (masalan, uzoq davom etadigan sekin yugurish yoki o'rtacha yurish) orqali chidamlilikni yanada aniqroq shakllantirish maqsadga muvofiq.

Umumiy chidamlilikni rivojlantirishda kislorod bilan ta'minlash tizimining faoliyati muhim o'rin tutadi. Shu sababli, chidamlilikka qaratilgan mashqlardan so'ng yoki ular bilan birgalikda nafas mashqlari ham bajarilishi lozim. Imkon bo'lgan hollarda mashg'ulotlar ochiq havoda tashkil etilishi tavsiya etiladi.

Chidamlilikni rivojlantiruvchi mashqlarni tuzishda quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish muhim:

1. Bolalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini inobatga olib, avvalo aerob imkoniyatlar va nafas tizimi faoliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratish.

2. Yuklamalarni asta-sekin oshirish, buning uchun barqaror mashqlar (uzoq davom etadigan sekin yugurish, doirasimon mashg'ulotlar)dan foydalanish.

3. Yuklamaning umumiy hajmini va mashqlar intensivligini bosqichma-bosqich oshirib borish.

Umumiy chidamlilikni rivojlantirish metodikasi — bu aniq vaqt, takrorlar soni, dam olish oralig'i va xarakteri bilan belgilangan uzluksiz mashg'ulot tizimidir. U o'quv yilining butun davomida tizimli olib borilganda maksimal samarani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Aniyev S. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun jismoniy tarbiya darslarining ahamiyati //Inter education & global study. – 2024. – №. 5. – С. 177-182.

2. Алиев М.Н., Гаджимурадова Р.Т. Воспитание общей выносливости младших школьников //Известия Волгоградского государственного педагогического университета. – 2010. – Т. 53. – №. 9. – С. 90-95.

3. Волкова Л. М. Влияние упражнений разной направленности на развитие физических качеств младших школьников : дис. – Московский ордена трудового красного знамени областной педагогический институт имени НК Крупской, 1983.

4. Jo'rayev A. B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish (kurash) //Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 2. – С. 473-479.

5. Yaqubova Z., Axmedov F.T. 10-12 yoshli stol tennischilarni jismoniy tayyorgarligini yordamchi mashqlar majmuasini qo'llash orqali rivojlantirish //Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – Т. 3. – №. 5.

TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA ALGEBRA ELEMENTLARINI O'QITISH METODIKASI

Berdiyev Bahodir Ravshanovich Qarshi DU

“Boshlang'ich ta'lim” kafedrası dotsenti

Normuminova Sevinch Bekzod qizi

Qarshi DU “Boshlang'ich ta'lim” yo'nalishi 2-kurs iqtidorli guruh talabasi E-mail:

berdiyevbahodir36@gmail.com Phone number: +99897 222 14 72

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda umuta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishning yangicha usullari, zamonaviy ta'lim tizimining yutuqlari, dars jarayonlarida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarning tub mohiyatini o'rganish zarurligi, matematika fanini o'qitishda qiziqarli metodlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: algebraik ifoda, tenglik, tengsizlik, tenglama, arifmetik, matematik ifoda, amallarning komponentlari, matematik munosabat.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ЭЛЕМЕНТОВ АЛГЕБРЫ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ СОДЕРЖАНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: в данной статье на сегодняшний день проводятся новые методы обучения математике в общеобразовательных школах, достижения современной системы образования, необходимость изучения принципиального характера недостатков в процессе обучения, проводится представление об интересных методах обучения математике.

Ключевые слова: алгебраическое выражение, равенство, неравенство, уравнение, арифметика, математическое выражение, компоненты операций, математическая связь.

METHODOLOGY FOR TEACHING ALGEBRA ELEMENTS IN PRIMARY GRADES TO IMPROVE EDUCATIONAL CONTENT

Abstract: in this article, today new methods of teaching mathematics in secondary schools, the achievements of the modern education system, the need to study the fundamental nature of shortcomings in the learning process, are presented, an idea is given of interesting methods of teaching mathematics.

Key words: algebraic expression, equality, inequality, equation, arithmetic, mathematical expression, components of operations, mathematical relation.

Boshlangʻich sinflarda arifmetik materiallarni oʻrganib yakunlash algebraik materiallarni va matematika simvolikani oʻrganish bilan umumlashtiriladi. Boshlangʻich sinflarda oʻquvchilar alfavitni matematik simvol tarzida qoʻllay boshlaydilar. Shu orqali algebraik ifoda, tenglik, tengsizlik, tenglama toʻgʻrisida boshlangich maʼlumot oladilar. Bular toʻgʻrisida maʼlumot berishning asosiy maqsadi arifmetik amallarning mohiyatini toʻlaroq ochish, shuningdek, keyingi sinflarda oʻrganiladigan algebra fani uchun zaruriy tayyorgarlikni amalga oshirishidir. Lekin, algebraik misollarni yechish algebra qoida va qonuniyatlarga asoslanmasdan arifmetik qoidalarga asoslanadi. Masalan, 3 a 10 dan a qoʻshiluvchini topish noʻmalum komponentni topish qoidasi bilan yechiladi. Algebra materiallarini oʻrganish algebraik taʼriflarga asoslanmaydi.

Maʼlumki, boshlangich sinf dasturining asosiy mazmuni natural sonlarni ogʻzaki va yozma nomerlash va ular ustida 4 arifmetik amallarni bajarish malakasini berishdir. Shuning uchun 1-sinfdan boshlab sonlarni oʻqish va yozish malakalari bir necha bosqichga boʻlib oʻqitiladi. Masalan, 10 ichida ogʻzaki va yozma nomerlash, 100, 1000 va koʻp xonali sonlar toʻgʻrisida maʼlumotlar beriladi. Sonli ifodalar deganda sonni biror amallar bilan birlashtirilgan yoki alohida yozilgan bir xonali, yoki ikki xonali yoki koʻp xonali sonlarni oʻqish va yozishni tushunamiz. Sonli ifodalar faqatgina arifmetik ifodalarda 4 amalni bajarish emas, geometrik masalalar, arifmetik va algebraik masalalarni yechishda bevosida qoʻllaniladi.

2-sinfdan oʻquvchilar “matematik ifoda” va “matematik ifodaning qiymatlari” tushunchalari bilan tanishadilar. Avval $6:2=4$ ifodaga oʻxshash 2, 3 amalli ifodalarni misol keltiradi, keyin esa uning qiymati nechaga teng degan savolni qoʻyadi, bu ifoda 7 ga teng va 7 yozilgan ifodaning qiymati ekanligi tushuntiriladi. Shundan keyin yana murakkab ifodalarga misol keltiradi, keyin oʻquvchilarning oʻziga ifoda tuzing va uning qiymatini top degan topshiriqlar beradi. Sonli ifodalarga:

- a) har bir son sonli ifoda;
- b) agar a va b sonli ifodalar boʻlsa, u holda ularning ayirmasi, yigʻindisi, koʻpaytmasi va boʻlinmasi ham sonli ifoda boʻladi. 2-sinfdan asosan amallar tartibi qoidalari oʻrganiladi. U murakkab ifodalar deb yuritiladi.
- a) oldin qavslarsiz ifodalarda amallarning bajarilish tartibi qoraladi, bu holda sonlar ustida faqat 1- yoki 2- bosqich amallari bajariladi.

b) shundan keyin 1-, 2- bosqich amallarini o'z ichiga olgan va qavslarsiz amallarni bajarishga o'tadi.

v) shundan keyin $25 \times (40-15)$, $(85-30):5$ kabi qavslar qatnashgan ifodalarni hisoblashga o'tadilar, hisoblash qoidasini keltirib chiqaradilar. O'tilgan materialni mustahkamlash maqsadida quyidagi topshiriqlar beriladi:

Matematika dasturiga binoan harfiy ifodalar 1-sinfдан boshlab kiritiladi. Bu yerda o'quvchilar har xil ko'rinishdagi tenglamalarni yechishda va masalalarni tenglamalar yordamida yechishda, no'malum sonni belgilash uchun simvol sifatida ishlatiladigan x harfi bilan tanishadilar. 2-sinfda x harf o'zgaruvchini belgilaydigan simvol sifatida kiritiladi. Bu boshlang'ich sinflardan o'zgaruvchi tushunchasini shakllantirish va bolalarni simvollarning matematik tilda ifoda qilish imkonini beradi. Harfning o'zgaruvchini belgilash uchun simvol sifatidagi ma'nosini ochib berishga tayyorgarlik ishi 2-sinfda o'quv yilining boshida qo'shish va ayirish amallarini takrorlash munosabati bilan o'tkaziladi. Harflarning kiritilishi bilan bir vaqtda tayyorgarlik davrida, bolalar yangi terminlar: "matematik ifoda" va "matematik ifodaning qiymati" bilan ta'rifsiz tanishadilar. Bu davrda yig'indi va qoldiqni topishga doir bir xil mazmundagi sodda arifmetik masalalarni yechish bo'yicha ish olib boriladi.

O'quvchilar harfiy simvolikaning ma'nosini tushunib olganlaridan so'ng, harflarni ishlatishda shakllanayotgan bilimlarni umumlashtirish vositasi sifatida foydalanish mumkin. Arifmetik amallarning harflar yordamida yozilgan xossalarini, bog'lanishlarini, munosabatlarini va hokazolarni o'qish.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar bilan tenglik, tengsizlik, tenglama kabi matematik ifodalar (sonli ifoda va o'zgaruvchili ifodalar) haqidagi tushunchalarni shakllantirish bo'yicha planli ish olib boriladi. Bu tushunchalarning hammasi o'zaro uzviy bog'langandir. Masalan, harfiy simvolikani kiritish bolalarni tengsizlik, tenglama va boshqa tushunchalar bilan tanishtirish imkonini beradi. Endi matematik ifoda, tenglik, tengsizlik, tenglama ustida va matnli masalalar yechishda tenglamalardan foydalanish borasida mukammalroq to'xtalamiz. Avvalo sonli ifoda tushunchasining mazmunini eslatib o'tamiz. Bu tushuncha matematika kursiga doir qo'llanmalarda bunday ta'riflanadi: eng sodda sonli ifodalar - yig'indi va ayirma bilan o'quvchilar birinchi sinfda tanishadilar. Ikkinchi sinfda esa ular yana ikkita eng sodda ifodalar - ko'paytma va bo'linma bilan tanishadilar.

Ifodani almashtirish bu berilgan ifodani boshqa, qiymati berilgan ifoda qiymatiga teng bo'lgan ifoda bilan almashtirish demakdir. Masalan, bir xil qo'shiluvchilar yig'indisini ko'paytma bilan almashtiriladi: Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni birinchi darajali bir noma'lumli tenglamalarning ba'zi xillari yechilishlari bilan tanishtiramiz.

Matematika dasturida bolalarni ba'zi xil masalalarni tenglamalar tuzish bilan yechishga o'rgatishni nazarda tutadi. Bolalar masalalarni algebraik yo'l bilan yechishni o'rganib olishlari uchun ular masaladagi berilgan va izlanayotgan miqdorlarni ajratib olish; undan o'zaro teng bo'lgan ikkita asosiy miqdorni ajrata olish yoki undan bitta miqdorning o'zaro teng ikkita qiymatini ajrata olish va bu qiymatlarni har xil ifodalar bilan yoza olish malakalariga ega bo'lishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi.(OO'Y uchun darslik.) Toshkent. "Turon-Iqbol", 2016 yil. 426 b.
2. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (OO'Y uchun o'quv qo'llanma) Toshkent. "O'qituvchi", 2004 yil.
3. Berdiyev B. R., Shodiyev R.D., "Interactive methods of assessment of knowledge on the basis of digital education on the subject "Information technology in education". "International Journal Papier Public Review". Volume-1, Issue-2. Austria. 2020 114-118 p
4. Berdiyev B. R. "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini boshqarishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya "Fan va ta'lim" Qarshi – 2022 y 33-41 b.
5. Berdiyev B. R. "Matematika o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma "Fan va ta'lim" Qarshi – 2022 y 77-81 b.

YOSH AVLOD TARBIYASIDA JADID PEDAGOGIK MEROSINING DOLZARBLIGI

M.A.Jumayeva

Buxoro davlat universiteti dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvarlari – Abdulla Avloniy va Mahmudxo'ja Behbudilarning ta'lim-tarbiya sohasidagi ilg'or g'oyalari tahlil qilinadi. Muallif bu pedagogik merosning zamonaviy yosh avlod tarbiyasida qanday dolzarb ahamiyatga ega ekanini yoritadi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan maktab islohoti, yangi darsliklar yaratish, dunyoviy fanlarni o'quv dasturiga kiritish va ma'naviy qadriyatlarni singdirish tamoyillari bugungi ta'lim tizimi uchun ham ibratli namuna bo'lib xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: jadid pedagogikasi, Avloniy, Behbudiy, ta'lim islohoti, yosh avlod, ma'naviyat, milliy maktab.

АКТУАЛЬНОСТЬ СОВРЕМЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ В ВОСПИТАНИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация: В статье рассматривается педагогическое наследие узбекских просветителей-джадидов — Абдуллы Авлони и Махмудаходжи Бехбуди. Анализируются их новаторские идеи в области образования и воспитания, а также актуальность этих взглядов в контексте современной системы воспитания молодого поколения. Подчеркивается значение джадидских принципов в формировании национальной школы, разработке учебников, внедрении светских наук и воспитании патриотизма.

Ключевые слова: джадидская педагогика, Авлони, Бехбуди, школьная реформа, молодёжь, духовность, национальная школа.

THE RELEVANCE OF THE MODERN PEDAGOGICAL HERITAGE IN THE EDUCATION OF THE YOUNGER GENERATION

Annotation: This article analyzes the pedagogical legacy of Uzbek Jadid reformers Abdulla Avloniy and Mahmudkhoja Behbudi. It highlights their innovative contributions to educational reform, including the creation of new schools, textbooks, and the integration of secular sciences. The relevance of their ideas to modern educational practices is emphasized, particularly in shaping a spiritually rich and intellectually competent younger generation.

Keywords: jadid pedagogy, Avloniy, Behbudi, educational reform, youth education, national identity, moral values.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida maydonga kelgan ma'rifiy islohotlar harakatidir. Jadidlar eski maktablarning ta'lim usuli va dasturlarini tubdan o'zgartirib, yangi usul maktablarini tashkil etdilar. Bu maktablar an'anaviy maktabxonalardan farqli o'laroq, bolalarga ona tilida usul-i savtiya (tovush usuli) orqali savod o'rgatdi va zamonaviy dunyoviy fanlar hamda taraqqiyparvar g'oyalarni o'quv dasturiga kiritdi. Bunday islohotlarga zarurat katta edi – chunki o'sha davrdagi ko'hna maktablar yoshlarga zarur bo'lgan amaliy bilim va ko'nikmalarni bera olmayotgan, jamiyat esa savodxon kadrlarga ehtiyoj sezayotgandi. Jadidchilik harakati natijasida Turkiston o'lkasida savodxonlik darajasi oshdi, ilmfan va madaniyat rivojiga turtki berildi, milliy ong va ma'rifatgarolik yuksaldi.

Mazkur harakatning eng muhim yo'nalishi ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar bo'lib, uning doirasida ko'plab yangi maktablar ochildi, darsliklar yaratildi va ilg'or pedagogik qarashlar targ'ib qilindi. Jumladan, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadridin Ayniy kabi jadid ma'rifatparvarlar millatni savodli qilish va ma'naviy taraqqiy ettirish yo'lida fidokorona mehnat qilganlar. Ularning pedagogik qarashlari, ilmiy-nazariy asoslari hamda didaktik yondashuvlari o'z davrida katta samaralar bergan bo'lsa, bugungi zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Quyida ana shu ma'rifatparvarlarning ta'limga oid merosi va uning zamonaviy dolzarbligi tahlil qilinadi.

Abdulla Avloniy (1878–1934) – o‘zbek jadid ma’rifatparvarlarining yorqin namoyandasi, pedagog, shoira va jamoat arbobi. Avloniy o‘z faoliyatini xalqni savodxon qilish, millatni uyg‘otish maqsadiga bag‘ishlagan. Uning ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari orasida tarbiya masalasi alohida o‘rin tutadi. Ma’rifatparvar shoirning mashhur so‘zlari shundaki: *“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”*. Bu chuqur ma’noli ibora Avloniyning nazarida tarbiya masalasi millat kelajagi uchun qanchalik hayot-mamot masalasi ekanini ko‘rsatadi. Haqiqatan ham, Avloniy nazariyasida ta’lim va tarbiya ajralmas tushuncha bo‘lib, u maktabni faqat bilim berish maskani emas, balki komil insonni voyaga yetkazuvchi tarbiya o‘chog‘i deb bildi.

XX asr boshlarida Avloniy jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi sifatida Toshkentda yangi usul maktablar ochishga bosh-qosh bo‘ldi. Jumladan, u 1908-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida mahalliy bolalar uchun yangi usul maktabi tashkil etib, o‘zi unda ona tili va adabiyot fanlaridan dars bergan. 1912-yilda esa Avloniy Toshkentning Degrez mahallasida ikki sinfli maktab ochdi – bu maktab eski maktabxonalardan farqli ravishda dunyoviy fanlar (masalan, hisob, geografiya va hokazo) o‘qitilishi bilan ajralib turardi. Avloniy o‘sha davr uchun noodatiy bo‘lgan taklifni ham ilgari surdi – u ilk bor mahalliy maktablarda kimyo, geografiya, fizika va astronomiya singari tabiiy fanlarni joriy etish g‘oyasini aytdi. Bu g‘oya zahirida yoshlarga faqat diniy bilim emas, balki zamonaviy ilm-fan asoslarini ham o‘rgatish, ularni jamiyatning ilg‘or taraqqiyoti uchun zarur bilimlarga ega qilib tarbiyalash maqsadi yotardi.

Avloniy faoliyatining muhim jihatlaridan biri – jamiyatda o‘qituvchi va ma’rifatchi kadrlar tayyorlashga qaratilgan ishlardir. 1920-yillardan boshlab, jadidchilik davri tugab, yangi davr – sho‘ro hokimiyati o‘rnatilganida ham Avloniy xalq maorifi sohasida xizmat qilishda davom etdi. U 1921-yildan boshlab savodsizlikni tugatish harakatlarida, yangi maktablar ochish, o‘zbek xotin-qizlarini o‘qitish va malakali o‘qituvchilar tayyorlash ishlarida faol qatnashdi. Jumladan, Eski shahardagi qizlar maktabiga mudir bo‘lib ishladi, so‘ngra Toshkent harbiy maktabida, O‘zbekiston xalq universitetida (hozirgi Milliy universitet) til va adabiyot kafedrasiga rahbarlik qildi. Bu faoliyatlari davomida ham u o‘zbek maktablari uchun yangi dastur va darsliklar tuzishni davom ettirdi.

Avloniyning ilmiy-nazariy qarashlari sharqona tarbiya an‘analari va zamonaviy pedagogika yutuqlarini uyg‘unlashtirishga asoslangan edi. U arab, fors va rus tillarini o‘rgangan, Tolstoy va Konstantin Ushinskiy kabi mashhur pedagog-yozuvchilarning asarlarini mutolaa qilib, ayrimlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Jumladan, rus pedagogi K.Ushinskiyning asarlariga tayangan holda, ona tilida ta’lim berish va bolalarning ruhiy xususiyatlariga mos metodikalarni qo‘llash tarafdori edi. Avloniy nazariyasida ta’lim va tarbiya bir butun jarayon bo‘lib, *“tarbiya ta’limning asosida turishi shart”* deb hisoblagan. Ya’ni, maktabdagi o‘qitish jarayoni axloqiy tarbiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lmog‘i lozim – faqat shundagina ta’lim samarasini beradi. U har bir muallimning vazifasi bilim berish bilangina cheklanmay, balki *“kelajagi porloq, Vatan va el-yurt xizmatida turadigan halol kadrlarni tarbiyalash”* bo‘lishi kerakligini uqtirgan.

Avloniy pedagogik merosining bugungi ahamiyati shundan iboratki, uning ilgari surgan g‘oyalari hozirgi zamonaviy ta’lim tamoyillari bilan hamohangdir. Masalan, Avloniy yoshlarni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan barkamol inson qilib tarbiyalashni orzu qilgan. Bugungi kundagi kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasida ham aynan shaxsning har tomonlama rivojlanishi, bilim bilan birga axloqiy tarbiyasi muhim sanaladi. Avloniy aytganidek, ta’lim jarayonida tarbiya negiz bo‘lsa, bunday ta’lim natijasida jamiyatga foydali, vatanparvar va halol yoshlar voyaga yetadi. Shu bois Avloniy merosi – xususan uning *“Turkiy guliston”* asaridagi axloqiy qarashlari va boshqa pedagogik fikrlari – bugungi o‘quv-tarbiya ishlarida ham qo‘llanilishi, ta’lim dasturlarida aks etishi lozim bo‘lgan bebaho manbadir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri, jurnalist, dramaturg va pedagog ma’rifatchidir. Behbudiy o‘z davrida *“Turkiston jadidlarining yo‘lboshchisi, milliy ma’rifat rahnamosi”* sifatida e’tirof etilgan. U dastlab an’anaviy maktab va Buxoro madrasalarida puxta diniy ta’lim olgan, shariat ilmlarini mukammal

o'rgangan (hatto qozi va mufti darajalarigacha yetishgan). Biroq Behbudiy zamonasining talablarini chuqur anglab, musulmon jamiyatini taraqqiy toptirish yo'li ta'limni isloh qilishda ekanini fahmladi. U 1899–1900-yillarda haj safariga borib, Istanbul va Arab mamlakatlaridagi islohotlar bilan tanishib kelgach, Turkistonda yangi usul maktablar ochish g'oyasini qat'iy maqsad qildi.

1903-yilda Behbudiy tashabbusi va g'ayrati bilan Samarqand atrofidagi qishloqlarda ilk yangi usul maktablari tashkil etildi. Xususan, Halvoyi va Rajabamin qishloqlarida ochilgan bu maktablar Behbudiy va uning safdoshlariga tegishli tajriba maydoniga aylandi. U ushbu maktablar uchun zarur o'quv qo'llanmalarini tez fursatda tayyorlashga kirishdi. Natijada ketma-ket bir necha darsliklar yaratildi: "Risolai asbobi savod" (1904) – savod chiqarish qo'llanmasi, "Risolai jug'rofiyai umroniy" (1905) – umumiy geografiya kitobi, "Risolai jug'rofiyai Rusiy" (1905) – Rossiya geografiyasi, "Kitobat ul-atfol" (1908) – bolalar uchun yozuv o'rgatish kitobi, "Amaliyoti islam" (1908) – islom amaliyoti qo'llanmasi, "Tarixi islam" (1909) – islom tarixi kitobi va boshqalar. Behbudiy bu darsliklar orqali o'quvchilarga zamonaviy fan asoslarini (jug'rofiya, tarix kabi) ona tilida sodda tilda yetkazishga intildi. Shu bilan birga u bolalarga diniy bilim va odob-axloqni ham o'rgatar ekan, ma'rifatning milliy-diniy asoslarini mustahkam saqlashga harakat qildi. Mutafakkir bu sa'y-harakatlari bilan "millatni savodli qilishga, murg'ak qalbdagi millat qayg'usi, millat iftixorini uyg'otishga oz bo'lsa-da hissa qo'shish"ga ishonch bilan kirishgan edi. Demak, Behbudiy ta'lim-tarbiyada yosh avlod qalbidagi millatga muhabbat va fidoyilik tuyg'ularini shakllantirishni eng muhim vazifa deb bilgan.

Behbudiy nazarida, millat ma'rifatga erishishi uchun faqat maktab ochishning o'zi yetarli emas edi. U ta'lim-tarbiyani keng ma'noda tushunib, yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish uchun jamiyat hayotining boshqa sohalarini ham jalb qilish kerakligini ta'kidladi. "Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq" – ya'ni globallashtayotgan dunyodan xabardor bo'lib yashamoq zarur, deb hisobladi. Binobarin, Behbudiy nazarida matbuot va teatr ham xalqni tarbiyalashning kuchli vositalaridir. U *"millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o'z qabohatini ham, mahobatini ham ko'ra olsin"* deya, jamiyatni o'zini o'zi tanqid va isloh qilishga chorlovchi vosita sifatida ommaviy axborot vositalarini ko'rdi. Mana shu ehtiyoj tufayli Behbudiy matbuot sohasida ham faol ish boshladi: 1913-yilda u "Samarqand" gazetasini tashkil etdi (ushbu gazeta turkiy va forsiy tillarda haftada ikki marta chiqib turgan). Keyinchalik moddiy qiyinchilik sabab "Samarqand" gazetasi to'xtaganidan so'ng, o'sha yili "Oyna" nomli haftalik jurnalni nashr eta boshladi. "Oyna" – o'z davrida suratli jurnal shaklida chiqib, asosan o'zbek tilida xalqni ma'rifatga chorlovchi maqolalar chop etgan. Behbudiy shu tariqa matbuot orqali ham keng ommani o'qitish va tarbiyalashga erishdi.

Behbudiy pedagogik merosining bugungi dolzarbligi shundan iboratki, uning ilgari surgan tamoyillari hozirgi ta'lim-tarbiya jarayonida ham nihoyatda muhim sanaladi. Bugungi globallashtayotgan davrida yoshlarning faqat o'quv dasturidagi nazariy bilimlarga ega emas, balki keng dunyoqarash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lib voyaga yetishi talab qilinmoqda. Bu esa Behbudiy orzu qilganidek, ta'limni ijtimoiy hayot va jahon voqealari bilan bog'lash zarurligini anglatadi. Shuningdek, bugungi ta'lim tizimida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un singdirish masalasi ko'ndalang turibdi – bu borada Behbudiy yozgan darsliklardagi integratsiyalashgan yondashuv (dunyo fanlari va diniy-ma'naviy tarbiyani birga olib borish) yaxshi namuna bo'la oladi. Yana bir muhim jihat – yoshlar tarbiyasida vatanparvarlik va milliy ongni shakllantirish masalasi. Hozirgi kunda yurtimiz maktablarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga e'tibor kuchaymoqda; Behbudiy merosida esa aynan millatga muhabbat ruhida tarbiya g'oyalari ustuvor edi. Uning "millat qayg'usi va iftixori"ni bolalikdan shakllantirishga qaratilgan faoliyati hozir ham ibratlidir – masalan, maktablarda tarix va adabiyot darslarida Behbudiy va boshqa jadidlarning hayoti va ijodini o'rganish yosh avlodga milliy g'urur tuyg'usini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo'ja Behbudiy milliy taraqqiyot kaliti sifatida qaragan ta'lim-tarbiya masalalari bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Uning pedagogik merosi – savodxonlikni oshirish, dunyoqarashni kengaytirish, siyosiy madaniyatni shakllantirish, teatr va

matbuot orqali tarbiya berish kabi g'oyalari – hozirgi zamonaviy tarbiya konsepsiyalariga hamohang va ularni boyituvchi manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik merosi – xalqimizning bebaho madaniy boyligi bo'lib, yosh avlod tarbiyasida undan bugun ham samarali foydalanishimiz mumkin. XX asr boshlarida Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadridin Ayniy kabi fidoyi zotlar millatni savod chiqarishga, ilm-u hunar o'rgatishga chorlab, o'sha davr uchun ilg'or bo'lgan yangi ta'lim tizimini yaratdilar. Ular Sharqning boy tarbiya an'analari va G'arbning zamonaviy pedagogik yutuqlarini uyg'unlashtirgan holda, milliy maktablar uchun ilk darsliklarni yaratdilar, o'quv jarayoniga ilg'or usullarni tatbiq etdilar, teatr va matbuotni tarbiya xizmatiga safarbar etdilar. Jadid pedagogikasining asosiy tamoyillari – ta'lim va tarbiya birligi, milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unligi, ta'lim mazmunini hayot bilan bog'lash, o'qituvchi va ziyolilarning jamiyatdagi o'rnini yuksaltirish – bularning barchasi bugungi ta'lim-tarbiya tizimi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida aytganda, jadid pedagogik merosi – bu kecha va bugunni, Sharq va G'arb ta'limiy tafakkurini bog'laydigan, sintezlovchi noyob ko'prikdir. U o'z davrida xalqimizni taraqqiyotga eltgan bo'lsa, bugungi kunda ham yosh avlodni barkamol tarbiyalashda ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Jadid ma'rifatparvarlarining qarashlari va faoliyati shuni ko'rsatadiki, haqiqiy tarbiya va ta'lim uzviy holda millatni yuksaltirishga qodir kuchdir. Demak, biz hozirgi va kelajak avlod tarbiyasida bu boy merosdan yanada samarali foydalanmog'imiz, uni chuqur o'rganib, amaliyotga tadbiq etmagimiz zarur. Zero, jadidlar orzu qilgan ma'rifatli, ozod va obod jamiyat barpo etish g'oyasi hali-hanuz bizning oldimizda turgan ulug' maqsaddir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sattorqulovna X.M. Mahmudxo'ja Behbudiyning boshlang 'ich ta'lim va tarbiyaga oid qarashlari //Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 41-45.
2. Мухаммадиев Л.Ф., Кошанова Н.М. Абдулла Авлониё асарларида тарбиянинг долзарб масалалари //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 6. – C. 713-718.
3. Umarqulova M.A. Abdulla Avloniy asarlarida ta'lim-tarbiya masalasining yoritilishi //Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 231-234.

KIRITMA TUSHUNCHASINING TILSHUNOSLIKDAGI O'RNI VA XUSUSIYATLARI

Jo'rayeva Mohigul Baxtiyor qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti.
mohiguljurayeva95@gmail.com +998935153395

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida **kiritma** tushunchasi, uning grammatik va stilistik xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan. Kiritmalar gap qurilishida asosiy sintaktik bo'lak hisoblanmasa ham, gap mazmuniga qo'shimcha ma'no, ekspressivlik va emotsionallik baxsh etishi ta'kidlangan. Tadqiqotda kiritma, kirish so'z, kirish birikma va kirish gaplar o'rtasidagi farqlar, ularni ajratuvchi grammatik, semantic va uslubiy belgilar yoritib berilgan. Shuningdek, badiiy, publitsistik, ilmiy va rasmiy uslublarda kiritma qurilmalardan foydalanishdagi o'ziga xosliklar tahlil qilingan. Kiritmalar nutqda ishonch, gumon, shodlik, afsus, fikr tartibi yoki fikriga bo'lgan munosabatlarini ifoda etish vazifasini bajarishi asosida ularni zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish muhimligi asoslangan.

Kalit so'zlar: kiritma, kirish so'z, kirish birikma, stilistik xususiyat, grammatik tuzilish, ekspressivlik, emotsionallik, o'zbek tilshunosligi, gap, nutq

ROLE AND FEATURES OF THE CONCEPT OF INCLUSION IN LINGUISTICS

Annotation. In this article, the concept of inclusion, its grammatical and stylistic features are thoroughly analyzed in Uzbek linguistics. While not considered a basic syntactic piece in sentence construction, the entries have been argued to provide additional meaning, expressiveness, and emotionality to the content of the sentence. The study highlighted the differences between input, input, input conjugation, and input statements, and the grammatical, semantic, and methodological characters that distinguish them. Also, specifics in the use of input devices in artistic, publicistic, scientific and formal styles are analyzed. The importance of studying them from the point of view of modern linguistics is based on the fact that the entries perform in speech the task of expressing their relationship to trust, suspicion, joy, regret, order of thought or opinion.

Keyword: introduction, introduction, introduction compound, stylistic feature, grammatical structure, expressiveness, emotionality, Uzbek linguistics, sentence, speech

РОЛЬ И ОСОБЕННОСТИ ПОНЯТИЯ ВКЛЮЧЕНИЯ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. В данной статье подробно проанализировано понятие включения в узбекском языкознании, его грамматические и стилистические особенности. Хотя вставки не считаются основным синтаксическим фрагментом в конструкции предложения, они придают содержанию предложения дополнительный смысл, выразительность и эмоциональность. В исследовании освещаются различия между вводным, вводным словом, вводным союзом и вводными предложениями, а также грамматические, семантические и стилистические признаки, которые их разделяют. Также были проанализированы особенности использования вводных устройств в художественном, публицистическом, научном и формальном стилях. На том, что включения выполняют в речи функцию выражения доверия, подозрения, радости, сожаления, отношения к порядку мыслей или мысли, основывается важность их изучения с точки зрения современной лингвистики.

Ключевые слова: введение, вводное слово, вводный союз, стилистический признак, грамматическая структура, выразительность, эмоциональность, узбекская лингвистика, предложение, речь

Kirish. Har qanday til uning grammatik qurilishi, leksik tizimi va uslubiy imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Til — fikrni toʻliq va aniq ifoda etish, odamlar oʻrtasida muloqotni yoʻlga qoʻyish vositasi hisoblanganligi uchun uning har bir boʻlagi muhim ahamiyat kasb etadi. Gap qurilishida asosiy boʻlaklar — ega va kesim asosida mazmun shakllangan boʻlsa, ikkilamchi boʻlaklar, kirishlar, ajratmalar yoki undalmalarni qoʻllash nutqni yanada aniq, taʼsirli va ekspressiv qilishga yordam beradi. Oʻzbek tilshunosligida kiritma tushunchasi sintaktik boʻlaklar qatorida alohida oʻrin egallaydi. Kiritmalar gapning asosiga bevosita aloqador boʻlmasa ham, uning maʼnosiga, uslubiga va hissiyotiga muhim taʼsir oʻtkazadi. Ular gap mazmuniga qoʻshimcha maʼlumot, aniqlovchi yoki fikriga munosabatlarini aks ettirish vazifasini bajaradi.

Mazkur maqolada kiritma tushunchasi, uning grammatik, semantik va uslubiy xususiyatlarini oʻrganish asosida oʻzbek tilining sintaktik qurilishiga, nutq madaniyatiga hamda badiiy ifoda imkoniyatlarini oshirishdagi rolga eʼtibor qaratiladi. Shuningdek, kiritma, kirish soʻz, kirish birlikma va kirish gaplar oʻrtasidagi oʻxshashlik va farqlar, ularni qoʻllanishiga oid meʼyorlar tahlil etiladi.

Oʻzbek tilshunosligida kiritmalar nutqiy birlik sifatida tilning sintaktik tizimida alohida oʻrin egallaydi. Ular nutq jarayonida aytilayotgan fikrga bogʻliq holda, uni toʻldiradi, izohlaydi yoki baholaydi. Kiritma deb, gapga grammatik jihatdan boʻysunmaydigan, lekin mazmun jihatidan bogʻliq boʻlgan birliklar tushuniladi. Ular odatda, fikrni aniqlashtirish, baholash, shubha bildirish, izoh keltirish kabi maqsadlarda ishlatiladi. Tilshunoslikda kiritmalar koʻproq parentetik birliklar deb ham yuritiladi. Ular gap tarkibida "kiritilgan" boʻlsa-da, asosiy sintaktik tuzilishga bevosita taalluqli boʻlmaydi. Shu sababli kiritmalar odatda vergul, chiziqcha yoki qavs orqali ajratiladi. Misol: Aytishlaricha, uni ona qornidan sihat-salomat tushirgan va birinchi marta

yo'rgaklagan kampir hazilkashligi va sho'xligi bilan xotin-xalaj orasida dong chiqargan Hamro enaymish. (A.Qodiriy. O'tkan kunlar)

Akademik Sh.Rahmatullayev, A.Madvaliyev, X.Toshxo'jayev va boshqa olimlar o'zbek tilidagi kiritmalarni turli jihatdan tasniflab, ularning uslubiy vazifalarini ham izohlab o'tishgan. Gap bo'laklari bilan sintaktik bog'lanmagan, gap bo'lagi vazifasida bo'lmagan, gapning ayrim bo'laklari yoki butun gapning mazmuniga so'zlovchining turlicha munosabatini ifodalovchi so'z. Kirish so'z barcha uslublarda uchraydi, qolgan nutqlarga qaraganda badiiy, publitsistik nutqda ko'proq qo'llaniladi, so'zlashuv nutqida badiiy va publitsistik nutqlarga qaraganda biroz kamroq, ilmiy va rasmiy uslubda esa kam uchraydi. Ammo shunga qaramay har qaysi nutqda kirish so'z matn mazmuniga qo'shimcha ma'no – ishonch (albatta), gumon (shekilli), quvonch (xayriyat), fikr xulosalash (xullas), fikr tartibi (birinchidan) – berish uchun xizmat qiladi. Masalan: *Zokir ota, shubhasiz, juda tajribali paxtakor (publitsistik nutq); Xayriyatki, yana ko'rishishga muyassar bo'ldik (badiiy nutq);*

Xususan, kesim modallikni namoyon qilishi bilan ajralib turadi (ilmiy nutq); Masalan, mazkur qaror ijrosi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qo'mitasiga yuklatilsin (rasmiy nutq); Xullas, bu qilig'ing bo'lmadi (so'zlashuv nutqi). Tilimizdagi kirishlar deb umumlashtiriladigan birliklar juda katta uslubiy, ekspressiv- emotsional imkoniyatlarga ega. Kirishlar so'zlovchining bayon qilayotgan fikrga bo'lgan subyektiv bahosi, turli munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi, ya'ni nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligi, ekspressivligini ta'minlaydi. Ular ishonch (u, albatta, keladi), gumon- taxmin (u, ehtimol, keladi), istak, mamnunlik (u, xayriyat, keldi), taajjub (tavba, u kelmaydimi?!), ta'kid (axir, u keladi), fikrning kimga tegishliligi (menimcha, u keladi), xulosalash (xullas, u keladi) kabi bir qancha uslubiy ma'nolarni ifodalaydi. Kirishlar mohiyatan subyektiv ma'no ifodalashga xos langani uchun rasmiy uslubda deyarli qo'llanmaydi. Kirishlar alohida so'z (afsuski, sizningcha, aytishlaricha kabi), so'z birikmasi (gapning ochig'i, dangalini aytganda, so'zning qisqasi kabi), gaplar (rostini aytsam, o'ylab ko'rsam, buni qarang kabi) yoki undan katta birliklar shaklida bo'lishi mumkin. Kirishlar asosiy gapdan verguldan tashqari, ayniqsa, gapga teng holatlarda qavslar, ba'zan tire bilan ajratilishi mumkin.

Tilimizdagi kiritmalar deb umumlashtiriladigan birliklar so'zlovchining bayon qilayotgan fikrga qo'shimcha izohi, to'ldiruvchi ma'lumotini ifodalaydi. Ular nutqning aniqligi va to'liqligini ta'minlaydigan muhim vositalar sifatida nutqning deyarli barcha uslublarida qo'llanadi. Ammo badiiy va publitsistik uslublarda qahramon xarakterini ochish, uning nutqini individuallashtirishdagi fikr ifodalashning o'ziga xos usuli kabi vazifalarni ham bajaradi. Kiritmalar ham so'z, so'z birikmasi va gap shakllarida bo'lishi mumkin. Ko'pincha qavslar bilan asosiy gapdan ajratiladi: *O'g'lining qo'liga to'rt dona chachvon (chimmat) tutqazdi. (G'afur G'ulom) Ijobatni olgandan keyin yuqorida mazkur Toshkent ashroflari bir majlis qurib, o'tirishga Normuhammad qushbegi (Toshkent hokimi)ni ham chaqiradilar. (Abdulla Qodiriy) Oqposhshoning in'omi kelganini eshitgan xotinlar (ustaning onasi va xotini) talashib, nari-beri gapga borib qoldilar. (Cho'lpon) Salomatxonning dadasi, soqol-mo'ylovidan tegirmon gardi arimaydigan (u kishi qishloqda tegirmonchilik qilardi) xushsurat mo'ysafid qizining peshonasidan o'pib xayrlashdi. (Said Ahmad).*

Kiritma konstruksiyalar gap mazmuniga yoki uning ayrim bo'laklari ma'nosiga nutq jarayonida kiritilib, gap bilan logik - semantik jihatdan munosabatga kirishadilar. Kiritma konstruksiyalar intonatsion jihatdan mustaqillikka ega bo'ladilar. Kirish so'z, kirish birikma va kirish gaplar. So'zlovchining o'zi bayon qilgan fikriga munosabatini bildirgan so'z kirish so'z, shunday so'z birikmasi esa kirish birikma deb yuritiladi.

Kirish so'zlar va kirish birikmalar asosan modal so'zlar bilan ifodalanib, quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1. Ishonch va tasdiqni: Albatta, shubhasiz, ma'lumki, haqiqatan, darhaqiqat, haqiqatdan ham, so'zsiz.
2. Gumonni: ehtimol, shekilli, chamasi, balki, taxminimcha, mumkin.
3. Shodlik yoki achinishni: Baxtinga, baxtga qarshi, attang, afsus.

4. Bayon qilingan fikrning kimga qarashli ekanligini: Menimcha, mening fikrimcha, uning aytishicha, aytishlaricha, sizningcha.

5. Bayon qilingan fikrning tartibini: birinchidan, ikkinchidan...

6. Bayon qilingan fikrning oldingi fikr bilan bog'liqligini: demak, shunday qilib, umuman, aksincha ba'zan, aks holda, xullas, shuningdek, ayniqsa, asosan, binobarin, xususan.

7. Tasdiq yoki inkorni: ha, yo'q, mayli, to'g'ri. Kirish so'z yoki birikma gapning boshida kelsa, undan keyin, gapning o'rtasida kelsa, ikki tomonga, gapning oxirida kelsa, undan oldin vergul qo'yiladi: Nihoyat, ular jo'nashdi. Ular, nazarimda, ketishdi. Hali-beri qishning oxiri ko'rinmaydi, shekilli.

Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida, eng avvalo, ana shu jihat, ya'ni shakl va mazmun birligi birlamchi tamoyil sifatida nazarda tutilishi lozim.

Kiritmalar gapning asosiy komponenti bo'lolmaydi, ular predikat yoki subyekt vazifasida kelmaydi. Biroq ular mazmunan gapga bevosita ta'sir qiladi. Kiritmalar o'z ifoda vositalari jihatidan quyidagilarga xosdir:

- grammatik jihatdan mustaqil emas (gapda ikkilamchi rol o'ynaydi),
- talaffuzda pauza bilan ajratiladi,
- yozma matnda tinish belgisi bilan ajratiladi (vergul, chiziqcha yoki qavs).

Stilistik nuqtai nazardan kiritmalar muallifning yoki qahramonning fikriga munosabatini bildiradi, uni izohlaydi, kuchaytiradi yoki yumshatadi. Bu esa asarning emotsional fonini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra, kiritma o'zbek tilining sintaktik tizimida muhim o'rin egallaydigan, asosiy gap qurilishiga bevosita kirmaydigan, lekin uning mazmuniga, uslubiga va ekspressivligini oshirishga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi. Kiritmalar, grammatik jihatdan mustaqil bo'lmasa ham, nutqda ma'no aniqligi, to'liqligi, hissiy bo'yog'i va muallif yoki qahramon munosabatini aks ettirishda asosiy rol o'ynaydi. Ular turli uslublarda — badiiy, publitsistik, ilmiy va rasmiy nutqda — fikrni aniqlash, asoslash yoki ta'kidlash uchun samarali qo'llaniladi. Kiritma konstruksiyalarni o'rganish o'zbek tilining sintaktik imkoniyatlarini chuqur tushunishiga, nutq madaniyatini oshirishiga va ifoda usullarini boyitishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zamonaviy o'zbek tili: Sintaksis / Mualliflar jamoasi. – Toshkent.: Mumtoz so'z, 2011. – 302 b.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent.: Universitet, 2006. – 476 b.
3. Xudayberganova D. Lingvokulturologiyaning nazariy asoslari xususida mulohazalar. Miasto Przyszłości. – Kielce, 2023. 660-663.
4. Jalilov U. Matn lingvistikasi: Kirish va kiritmalar tahlili. Filologiya va madaniyat. 2011. 4(2), 67-73.

ONA TILI TA'LIMIDA GIPOTETIK-DEDUKTIV USULI ORQALI TALABALARNI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH METODIKASI

Abdisodiqova Marjina Normurod qizi

Qarshi davlat universiteti doktoranti 88-587-37-97 original7711ss@gmail.com

Annotatsiya. Ona tili ta'limida talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirishda gipotetik-deduktiv metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu jarayon boshlang'ich ta'lim yo'nalishida amalga oshirilsa, talabalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. O'qituvchilar va ta'lim muassasalari innovatsion metodikalarni qo'llash orqali talabalarning intellektual salohiyatini oshirishga hissa qo'shishi mumkin.

Kalit so'zlar: gipotetik-deduktiv usul, aksiomatik-deduktiv usul, innovatsion metod va texnikalar, tadqiqotchilik faoliyati, innovatsion texnologiyalar.

Abstract: It is advisable to use hypothetical-deductive methods in improving the methodology of preparing students for research activities in native language education. This process, if implemented in primary education, will create a solid foundation for the future success of students. Teachers and educational institutions can contribute to increasing the intellectual potential of students by using innovative methodologies.

Keywords: Hypothetical-deductive method, axiomatic-deductive method, innovative methods and techniques, research activities, innovative technologies.

Аннотация: Для совершенствования методики подготовки студентов к научно-исследовательской деятельности в области обучения родному языку целесообразно использовать гипотетико-дедуктивные методы. Этот процесс, реализованный в начальном образовании, создает прочную основу для будущего успеха учащихся. Преподаватели и образовательные учреждения могут способствовать повышению интеллектуального потенциала учащихся, используя инновационные методики.

Ключевые слова: Гипотетико-дедуктивный метод, аксиоматически-дедуктивный метод, инновационные методы и приемы, научно-исследовательская деятельность, инновационные технологии.

Talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, bu jarayonda ta'lim metodlari, innovatsion texnologiyalar hamda o'qituvchilarning roli muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon talabalarni nafaqat akademik jihatdan, balki shaxsiy rivojlanishda ham qo'llab-quvvatlaydi. Talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning gipotetik-deduktiv usuli orqali takomillashtirish dolzarb va zaruriy jarayon hisoblanadi. Bu jarayon boshlang'ich ta'lim yo'nalishida amalga oshirilsa, talabalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. O'qituvchilar va ta'lim muassasalari innovatsion metodikalarni qo'llash orqali talabalarning intellektual salohiyatini oshirishga hissa qo'shishi mumkin.

Talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash komponentlarini takomillashtirishda o'qituvchi o'quv jarayonini loyihalash va modellash uslubiy madaniyatga ega bo'lishi, pedagogik muammolarni anglashi va shakllantirishi hamda ijodiy hal etishi lozim. Ona tili ta'limida talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirishda gipotetik-deduktiv metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Gipotetik-deduktiv usul (yunoncha ὑπόthesis - faraz; lotincha - deductio - hosila) — bu ilmiy tadqiqotga tayyorlashning maxsus usuli bo'lib, bayonotlarni gipoteza sifatida taqdim etish va bu gipotezalarni empirik tekshirishdan iborat. Ko'pgina manbalarda bu usul "H-D usuli" deb qisqartiriladi.

"H-D usuli" mazmuniga kiradigan metodlar tizimi kontekstida gipotezani tekshirishning yetarlicha uzoq jarayonigina uning asosli qabul qilinishi yoki rad etilishiga olib kelishi mumkin. Zamonaviy ilmiy metodologiyada gipotetik-deduktiv usulni ko'rib chiqishda ular gipotetik ilmiy konstruksiyalarni empirik ma'lumotlar bilan taqqoslash natijasida takomillashtirish va rivojlanish jarayonlarini ham hisobga olishga intiladi.

Gipotetik-deduktiv usul hozirgi vaqtda ilmiy tafakkurning rivojlanishida asosiy usullaridan biri hisoblanadi. U 17-asrdan boshlab klassik tabiatshunoslikda qo'llanilgan induktiv-empirik metod o'rnini egalladi. Shu sababli, F.Bekon bu usulni ilmiy tadqiqotchilikning universal usuli sifatida ta'kidlaydi. Gipotetik-deduktiv usul — bu gipotezadan (yoki gipotezalar tizimidan) natijalarni deduktiv chiqarish va ularni empirik (eksperimental) tekshirishga asoslangan ilmiy bilishning nazariy usuli.

Gipotetik-deduktiv usulning qo'llanilishini bir turdagi algoritm shaklida ham tasvirlash mumkin.

1. Aksiomatik-deduktiv usulda bo'lgani kabi, dastlab haqiqat sifatida qabul qilingan ilmiy bilimlarning ma'lum bir bo'limi doirasida ma'lum qat'iy mulohazalar to'plami mavjud deb taxmin qilinadi.

2. Bu mavjud tajribaga yangi innovatsiyalarni qo'shish asosida boyitish vazifasi qo'yiladi.

3. Bunda yangi zamonaviy metodik tizim majmui shakllantiriladi.

4. Mantiqiy xulosa chiqarish qoidalariga ko'ra, tadqiqotning turli shakllarini rivojlantirishda metodikaning mosligi e'tiborga olinadi.

5. Natijani eksperimental tekshirishga harakat qilinadi.

Gipotetik-deduktiv usul, aksiomatik-deduktiv usuldan farqli o'laroq, asosan ekstensiv usul bo'lib, mavjud haqiqatlar to'plamini tartibga solishga emas, balki yangi haqiqatlarni qo'shish orqali kengaytirishga imkon beradi. Ushbu usulda induktiv harakat ustunlik qiladi, agar ulardan kelib chiqadigan oqibatlar tajribada tasdiqlangan bo'lsa, mumkin bo'lgan haqiqatlar ehtimolini oshirish bilan bog'liq. Ammo bu usul deduksiya elementlarini ham o'z ichiga oladi, masalan, gipotezalardan natijalarni chiqarish va ulardan olingan oqibatlar tajriba bilan tasdiqlanmagan gipotezalarning ehtimolini kamaytirish. Binobarin, gipotetik-deduktiv usul induksiya va deduksiyaning birligidir, garchi induktiv komponentning ustunligi bo'lsa ham.

Gipotetik-deduktiv usulning afzalligi mavjud bilimlarni kengaytirish imkoniyatini berishidir. Ushbu usulning cheklanishi mavjud bilimlarni tartibga solish bo'yicha vazifalarning yetishmasligidadir. Umuman olganda, shuni ta'kidlash mumkinki, gipotetik-deduktiv usul — ilmiy bilimlarni rivojlantirish jarayonida bir-birini to'ldirishi kerak. Aksiomatik-deduktiv usul, birinchi navbatda, olingan bilimlarni tartibga soladi, gipotetik-deduktiv usul esa olingan bilimlar doirasini kengaytiradi. Ba'zan ilmiy bilishning gipotetik-deduktiv usuli kengroq ma'noda — yuqorida tavsiflangan ikki usulning birligi, ilmiy bilishning eng to'liq usuli sifatida tushuniladi. Shu sababli gipotetik-deduktiv usul mazmuniga kiruvchi metodlar va texnikalar taklif etildi.

“Yulduzlar jamoasi” (Star Team) metodi

Maqsad: talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirish, ularning muayyan qobiliyatlarini konsentratsiya qilish, hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish ko'nikmasini boyitadi.

Metod mazmuni:

1. Talabalar kichik guruhlariga bo'linadi.
2. Har bir guruh a'zosi o'zlarini ma'lum sohada “Yulduz” sifatida qobiliyatlarini namoyish etishi lozimligi tushuntiriladi (masalan, tez tafakkur, tanqidiylik, kreativlik va b).
3. Berilgan muammoni hal etishda ular birgalikda guruhning umumiy maqsadiga erishish uchun harakat qilishi ta'kidlanadi.
4. Topshiriqlar mavzu yuzasidan mashqlarni bajarish, aqliy vazifalarni hal qilish va strategiyalarni ishlab chiqish talab etiladi.

“Real tadqiqotchi” texnikasi

Maqsad: talabalarda aniq topshiriqlar vositasida tadqiqotchilik ko'nikmasini tarkib toptirish, tadqiqot olib borishda adabiyotlar bilan ishlay olish ko'nikmasini rivojlantirish.

Jihozlar: ilmiy-metodik adabiyotlar, lug'at kitoblari, ensiklopediya va boshqa adabiyotlar.

Mazmuni:

1. Kichik guruhlariga bo'linadi.
2. Talabalarlar kiyinishiga e'tibor beriladi. Ular tadqiqotchi-laborant qiyofasida bo'lishi ta'minlanadi.
3. Talabalarga turli hil muammoli topshiriqlar beriladi.
4. Muammoli topshiriqlar talabalar tomonidan real izlanishlar-adabiyotlar tahlili orqali hal etilishi talab etiladi. Eng to'g'ri va aniq bajargan guruh rag'batlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Дорожкин А. М. Основные особенности гипотетико-дедуктивного метода научного исследования // Философия и методология науки : материалы Третьей Всерос. науч. конф. (Ульяновск, 15–17 июня 2011 г.) / под ред. Н. Г. Баранец, А. Б. Верёвкина. Ульяновск : Издатель Качалин Александр Васильевич, 2011. С. 256.

2. Føllesdal D. Hermeneutics and the hypothetico-deductive method // Readings in the philosophy of social science / ed. by Martin M., McIntyre L. C. MIT Press, 1994. P. 233.

3. Дорожкин А. М. О проблемах, возникающих при попытках интеграции гуманитарных и естественнонаучных подходов к изучению когнитивных процессов //

Нелинейная динамика в когнитивных исследованиях – 2013 : труды III Всерос. конф. Н. Новгород : ИПФ РАН, 2013. С. 81.

4. Шибаршина С. В. Специфика выдвижения и развития гипотез в социально-гуманитарных науках : дис. ... канд. филос. наук. Н. Новгород, 2014. С. 130.

5. Белайчук О.С. Гипотетико-дедуктивный метод для описания семантики глаголов отрицания (пошаговое описание методики, применяемой для решения конкретной исследовательской задачи) / Лингвистика на рубеже эпох. Доминанты и маргиналии, Вып. 2.- М.: МГПУ, 2004. С.158-176.

RAQAMLI PLATFORMALAR VOSITASIDA MASOFAVIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

*To'rayev Muzaffar Farmonovich
Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti, p.f.f.d (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli platformalar yordamida masofaviy ta'limni takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Raqamli texnologiyalarning o'quv jarayonidagi o'rni, ta'lim sifatiga ta'siri, mavjud raqamli platformalarning samaradorligi tahlil qilinadi va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan uslubiy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: *raqamlashtirish, masofaviy ta'lim, onlayn test, virtual laboratoriyalar, simulyator, real vaqt rejimi, interfeys, raqamli kompetensiya, adaptatsiya, innovatsion texnologiyalar.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования дистанционного обучения с использованием цифровых платформ. Анализируется роль цифровых технологий в образовательном процессе, их влияние на качество образования, эффективность существующих цифровых платформ, а также даются методические рекомендации по повышению качества образования.

Ключевые слова: цифровизация, дистанционное обучение, онлайн-тестирование, виртуальные лаборатории, симулятор, режим реального времени, интерфейс, цифровая компетентность, адаптация, инновационные технологии.

Abstract. This article examines the issues of improving distance learning using digital platforms. The role of digital technologies in the educational process, their impact on the quality of education, the effectiveness of existing digital platforms are analyzed, and methodological recommendations are given to improve the quality of education.

Keywords: *digitization, distance learning, online testing, virtual laboratories, simulator, real-time mode, interface, digital competence, adaptation, innovative technologies.*

Kirish. Global raqamlashtirish sharoitida ta'lim sohasida ham zamonaviy texnologiyalarning keng joriy etilishi kuzatilmoqda. Xususan, masofaviy ta'lim modeli pandemiya davrida o'zining zaruriy va samarali mexanizmga aylanganligini ko'rsatdi. Bugungi kunda raqamli platformalardan foydalanish orqali ta'lim sifati va qulayligi yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ammo bu jarayonda sifatni ta'minlash, samaradorlikni oshirish va ta'lim oluvchilarning faol ishtirokini ta'minlash dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Masofaviy ta'lim – o'quv jarayonining maqsadi, mazmuni, uslublari, o'qitish vositalari va internet texnologiyalari yordamida tinglovchi hamda o'qituvchilarning masofadan turib, interfaol muloqot qilish jarayoni hisoblanadi.

Masofaviy ta'lim — bu, muayyan sohada mutaxassislar tayyorlash tizimidagi barcha fanlarni kompleks tarzda masofaviy o'qitishga asoslangan, biroq, kompleks doirasida o'qish jarayoni uchun qat'iy belgilangan joy va vaqt mezonini shartli o'rnatilmagan ta'lim shaklidir[4]. Bu ta'rif mohiyatini to'la va to'g'ri tushunish uchun, uni yuqorida qayd etilgan masofaviy o'qitishning ta'rifi bilan birga keltirish kerak. Masofaviy o'qitish zamonaviy ta'limning eng muhim va tobora ommaviylashib borayotgan shakli sanaladi. Masofaviy ta'lim uslubi o'qitishning yangicha zamonaviy shakli bo'lib, u tinglovchining mustaqil fikrlash, holatni

baholash, xulosa qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Mustaqil bilim olishga, izlanishga, fikrlashga o'rgatadi.

Masofaviy ta'limning afzalligi shundaki, unda har kim o'ziga qulay vaqtda, qulay joyda, qulay muhitda bilim olishi mumkin. Shu tufayli ushbu tizim bugungi kunda dunyoda keng ommalashmoqda. Masofaviy ta'limning ijobiy tomonlarini ko'radigan bo'lsak, bugungi kunda dunyoda ko'pgina OTMlar, yirik korxonalar mutaxassislar malakasini oshirishda ushbu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab pul mablag'larini tejamoqda. Shuningdek masofaviy ta'limning tashkiliy-iqtisodiy afzalliklari ham mavjud bo'lib, masalan, o'qitish uchun xonalar, doskalar, stollar va boshqa o'quv qurollari zarur emas. Moliyaviy xarajatlar asosan o'quv-uslubiy materiallar tayyorlash hamda internet trafik uchun sarflanadi. Tabiiyki, xarajatlar kamayadi. O'quv-uslubiy materiallar qanchalik tushunarli va batafsil bo'lsa, shunchalik tinglovchiga foydali bo'ladi.

Masofaviy ta'limda tinglovchi va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi. Masofaviy o'qitish barcha ta'lim olish istagi bo'lganlarga o'z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o'qitish jarayonida tinglovchi interaktiv rejimda mustaqil o'quv-uslubiy materiallarni o'zlashtiradi, nazoratdan o'tadi, o'qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertikal o'quv guruhi» tinglovchilari bilan muloqotda bo'ladi. Ma'lum sabablarga ko'ra, ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlarida tahsil olish imkoniyati bo'lmagan, masalan, sog'ligi taqoza etmaydigan, mutaxasssligini o'zgartirish niyati bo'lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo'lgan kishilar uchun masofaviy o'qitish qulay o'qitish shakli hisoblanadi.

Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya'ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog'liq. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari (o'quv qo'llanma, darsliklar) tinglovchilarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga, elektron pochta to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarini jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan. Oldindan tasmaga muhrlangan videoma'ruzalar tinglovchilarga ma'ruzalarni tinglash va ko'rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish tinglovchilarga o'zaro teskari aloqa orqali o'qitish imkonini beradi [5].

Raqamli platformalar ta'lim oluvchilarga:

- Mustaqil bilim olish;
- Onlayn test va topshiriqlar bajarish;
- Virtual laboratoriyalar va interaktiv simulyatorlardan foydalanish;
- O'quv materiallarini qayta ko'rib chiqish;
- O'qituvchilar bilan real vaqt rejimida muloqot qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Coursera, EdX, Canvas kabi platformalar masofaviy ta'limni samarali tashkil etishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Masofaviy ta'limda sifatni oshirish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

• Platformaning funktsionalligi: foydalanishga qulay interfeys, barqaror ishlash va moslashuvchanlik.

• Interaktiv ta'lim materiallari: video darslar, testlar, virtual laboratoriyalar.

• O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalari: o'quv kontentini yaratish va raqamli texnologiyalarni o'qitishda samarali qo'llash qobiliyati.

• Talabalarning motivatsiyasi va o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalari: masofaviy o'qish rejimiga moslashish.

• Doimiy teskari aloqa: o'qituvchi va talaba o'rtasida muntazam muloqotni ta'minlash.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra: Yaxshi ishlab chiqilgan raqamli platformalar o'quvchilarning bilim darajasini 20–30% ga oshirishi mumkin. Bunda onlayn sinovlar va topshiriqlar orqali o'zlashtirish darajasi doimiy monitoring ostida bo'ladi. Interaktiv va multimediya asosida tayyorlangan darslar talabalarning darsga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi.

Masofaviy ta'lim platformalarining kamchiliklari esa texnik nosozliklar, internet tezligi muammolari va ayrim hollarda talabalar tomonidan o'zini boshqarishdagi zaiflikda namoyon bo'ladi.

Takliflar va tavsiyalar.

- ✓ Raqamli platformalarda mustaqil o'quv materiallari va avtomatlashtirilgan baholash tizimlarini kengaytirish;

- ✓ O'qituvchilar uchun muntazam raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha treninglar tashkil etish;

- ✓ Ta'lim platformalarini mahalliy ehtiyojlarga mos ravishda adaptatsiya qilish va o'zbek tilida sifatli kontent yaratish;

- ✓ Platformalar uchun foydalanuvchi tajribasini yaxshilashga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni joriy etish;

- ✓ Talabalarga o'zini-o'zi boshqarish va vaqtni to'g'ri taqsimlash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha metodik yordam ko'rsatish.

Xulosa. Raqamli platformalar masofaviy ta'lim sifatini oshirishda beqiyos imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq bu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun platformalarning sifatini oshirish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish va o'quvchilarning raqamli madaniyatini rivojlantirish zarur. Kelgusida raqamli ta'limni yanada rivojlantirish uchun o'quv jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdukadirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti (monografiya). – T.: «Fan», 2009.

2. Djurayev R.X., Tayloqov N.I. Axborotlashgan ta'lim muhiti-o'qitish samaradorligini oshirish vositasi // “Uzluksiz ta'lim”. IMJ. – T., 2004. – №3. – B. 3-7.

3. Parpiyev A. va boshq. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari. – T.: O'zME davlat ilmiy nashriyoti 2008. –196-b.

4. Yusupov M. va boshqalar. Masofaviy ta'lim: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDPU, 2021. – 224 b.

5. Xolbo'tayev B.X. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020. – 232 b.

6. Alimov M. va boshqalar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularning ta'limdagi o'rni. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2022. – 180 b.

7. Tashanov S.A. Masofaviy ta'limni tashkil etishda raqamli platformalardan foydalanish imkoniyatlari // Pedagogik mahorat. – 2023. – №2. – B. 45–51.

BOLALARNING MAKTAB TA'LIMIGA MOSLASHISHIGA TA'SIR QILUVCHI PSIXOLOGIK SHAROITLAR

Jo'rayeva Nazokat Farhodovna

Buxoro pedagogika instituti I bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada bolalarning maktabga moslashishiga ta'sir qiluvchi psixologik sharoitlar, birinchi sinf o'quvchilarini maktabga moslashtirish jarayoni tashqi va ichki omillarga bog'liqligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: birinchi sinf, o'quvchi, maktab, psixolog, omil, moslashish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ, ВЛИЯЮЩИЕ НА АДАПТАЦИЮ ДЕТЕЙ К ШКОЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ

Аннотация. В статье рассматриваются психологические условия, влияющие на адаптацию детей к школе, зависимость процесса адаптации первоклассников к школе от внешних и внутренних факторов.

Ключевые слова: первый класс, ученик, школа, психолог, фактор, адаптация.

PSYCHOLOGICAL CONDITIONS AFFECTING CHILDREN'S ADAPTATION TO SCHOOLING

Annotation. The article examines the psychological conditions affecting children's adaptation to school, the dependence of the process of adaptation of first-graders to school on external and internal factors.

Keywords: first grade, student, school, psychologist, factor, adaptation.

Birinci sinf o'quvchilarining maktabga moslashish jarayoni bir qator turli omillarga bog'liq bo'lib, ular tashqi va ichkiga bo'linadi. Tashqi omillarga bolaning ijtimoiy faolligi, uning sinf, ota-onalar va o'qituvchilar bilan o'zaro munosabati kiradi. Ichki omillar bolaning psixofizik holatini, maktabga tayyorligini va birinci sinfga kirish vaqtidagi motivatsiya darajasini aks ettiradi. Tashqi va ichki omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ulardan biri asosiy, ikkinchisi ikkinchi darajali bo'lishi mumkinmi yoki yo'qligi aniq emas, chunki ikkalasi ham bolaning maktabga muvaffaqiyatli moslashishini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. S. I. Samygin, V. I. Dolgova kabi psixologlar hali ham bolaning ichki omillarini ikkinchi darajali deb tasniflashadi.

Ota-onalar va bolalar munosabatlari, ularning fikriga ko'ra, bolaning sog'lig'iga, motivatsiyasiga va ijtimoiy aloqalarni o'rnatish qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Olimlar - psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, maktabda muvaffaqiyatli moslashish uchun optimal ota-ona uslubi bolani oilaviy munosabatlarning faol sub'ekti sifatida qabul qiladigan uslubdir. Odatda, bunday oilalarning bolalari ancha faol, izlanuvchan va tashabbuskor bo'ladi. Biroq, hozirda bunday oilalar juda kam. Oilaviy ta'lim uslubidan tashqari, bolaga qiyin davrda - moslashishda yordam beradigan yoki zarar etkazadigan bir qator omillar mavjud.

Qiyinchiliklarning sabablarini sanab o'tamiz.

1. Umumjahon ta'lim harakatlarining elementlari va ko'nikmalarining shakllanmaganligi. Ular katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning muhim neoplazmasi. Bunday shakllanishning natijasi talabaning o'quv fanlari bo'yicha akademik ko'rsatkichlarining pasayishi hisoblanadi. Bu asosiy qiyinchilik bo'lishi mumkin.

2. Maktab motivatsiyasining past darajasi. Ota-onalar o'qituvchi bilan muloqotda bunday bola mustaqil ravishda biznesga kirisha olmasligidan va doimo o'ynashni xohlayotganidan shikoyat qiladilar. Asosiy sabab bolaning ota-onasining uni "infantilizatsiya qilish" istagi bo'lishi mumkin. Ushbu muammoda o'quv faoliyatining birlamchi va ikkilamchi shakllanmasligini farqlash kerak, chunki ikkilamchi salbiy omillar ta'siri ostida o'rganish motivatsiyasini yo'q qilish natijasida yuzaga keladi. Tashqi alomatlar ichki alomatlariga o'xshaydi: intizomsizlik, o'qishdagi kechikish, mas'uliyatsizlik, lekin, qoida tariqasida, kognitiv qobiliyatlarning juda yuqori darajasi fonida.

3. Xulq-atvorni to'g'ri tartibga sola olmaslik. Bu tartibsizlik, beparvolik, kattalarga qaramlikda namoyon bo'ladi. Birlamchi qoidabuzarliklar bo'lmagan taqdirda, bolaning xatti-harakatlarining o'zboshimchalik darajasining etarli emasligi sababi ko'pincha oilaviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarida izlanadi: bu yashirin giperproteksiya (ruxsat berish, cheklovlar va me'yorlarning yo'qligi) yoki dominant giperopek (ota-onalar tomonidan bolaning xatti-harakatlarini to'liq nazorat qilish). Tengdoshlar va o'qituvchi bilan muloqot qilish va aloqa o'rnatish muammolari. Har bir bola o'ziga xos tarzda individualdir, ikkita bir xil bolani topish mumkin emas. Ularning har biri o'ziga xos tayyorgarlik darajasiga, individual psixologik xususiyatlarga va hatto jismoniy rivojlanishning turli darajalariga ega. Psixologik va kognitiv

jarayonlarning borishi-hamma narsa bir bo'g'inli xarakterga ega. Agar birida ixtiyoriy e'tibor rivojlangan bo'lsa, unda ikkinchisining e'tiborini qo'shimcha motivatsion material yordamida qo'llab-quvvatlash kerak. Ba'zilarida eshitish xotirasi rivojlangan, boshqalarga esa materialni vizual idrok etish va boshqalar yordam beradi. Bunday narsalarni e'tiborsiz qoldirmaslik kerak, o'qituvchi bolalar o'rtasidagi farqni hisobga olishi va bolalar o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelmasligi uchun ma'lumotni tushuntirishga individual yondashuvni topishga harakat qilishi kerak. Ba'zan buni qilish oson emas, buning uchun har bir maktabda psixolog o'tiradi, u bolalarga turli xil texnikalar yordamida u yoki bu kognitiv jarayonni rivojlantirishga yordam beradi.

Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, moslashish uchun ijobiy xususiyatlar bo'lmagan taqdirda, bolaning hissiy namoyon bo'lishi uchun juda muhim joy ajratiladi. Yangi talablar bolaning hissiy holatini juda o'zgartiradi, u asabiylashadi, chalg'itadi, buning sababi vaziyatlarning yangiligi tufayli tez – tez stressdir. Bunga etarlicha e'tibor bermaslik mumkin emas, chunki siz tanani hissiy charchoqqa olib kelishingiz va kichik odamda bir qator ruhiy kasalliklarni keltirib chiqarishingiz mumkin. Moslashuvning ob'ektiv va sub'ektiv mezonlarini ajratish mumkin. Shunday qilib, birinchisi faoliyatning samaradorligi va muvaffaqiyati, ishbilarmonlik ishtiroki, jamoadagi shaxsning holati va boshqalarni o'z ichiga oladi, ikkinchisi - shaxsning hissiy farovonligi, uning psixofiziologik holatining faolligi, ishdan (o'qishdan) qoniqish va boshqalar.

Shunday qilib, ya.L. Kolominskiy va E. A. Panko birinchi sinf o'quvchilarining moslashish darajasining quyidagi mezonlarini ajratib ko'rsatishadi.

1) ta'limning muvaffaqiyati; yaxshi ishlash; asosiy maktab fanlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish; mehnatga munosabat.

2) shaxslararo munosabatlar tarkibidagi pozitsiya – bu munosabatlarning holati, ulardagi holat; muloqot darajasi; hissiy farovonlik.

3) ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat; ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishda mustaqillik, tashabbuskorlik.

E. M. Aleksandrovskeya va S. M. Trombax moslashish mezonlari sifatida o'quv faoliyati samaradorligini, maktab xulq-atvori me'yorlarini o'zlashtirishni, ijtimoiy aloqalarning muvaffaqiyatini taklif qiladi.

Ijtimoiy moslashuv jarayonida bolaning o'zi ijtimoiy – psixologik vaziyatni o'zgartiradi. Shuning uchun, yangi muhitga, ilgari noma'lum bo'lgan odamlarga nafaqat talaba, balki sinf o'qituvchisi ham moslashishi kerak.

Maktabga kirish haqiqati bilan bog'liq muammolar yoki qiyinchiliklar odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) kunning yangi rejimi bilan bog'liq qiyinchiliklar;

2) bolani sinf jamoasiga moslashtirish;

3) o'qituvchi bilan munosabatlar sohasida lokalizatsiya qilingan qiyinchiliklar;

4) bolaning uy sharoitidagi o'zgarishlar tufayli qiyinchiliklar.

Vaqt o'tishi bilan moslashish taxminan 6-7 hafta davom etadi, ammo qiyinchiliklar yuzaga kelganda, u yanada oqishi yoki hatto noto'g'ri ishlashga aylanishi mumkin.

Bola o'zi uchun yangi ijtimoiy rolga ko'nikish uchun ko'p mehnat qilishi kerak. Yangi odamlar (sinfdoshlar, o'qituvchilar) bilan munosabatlarni o'rnatish kerak. O'zingizning kun tartibingizni qayta tiklang, 40 daqiqa davomida jismoniy faollikni ko'rsatmang va boyqushning diqqatini o'quv mavzusiga qaratishga harakat qiling. Bularning barchasi 7 yoshli bola uchun oson emas.

Maktabga kirishda u bir yil oldingiga qaraganda butunlay boshqacha majburiyatlarga ega. U yangi bilimlarni olishi va uni saqlab qolishga harakat qilishi kerak. O'quv faoliyati uning yangi hayotining ko'p vaqtini oladi. O'yin faoliyati o'quv faoliyati bilan almashtiriladi va shuning uchun qum qutisidagi o'rtoqlar bilan o'ynash istagi paydo bo'ladi. O'rganishni o'rganish o'quv faoliyatining asosiy vazifasidir. Ammo odamlarning vazifalari puyida qiyinchiliklar mavjud.

Asosiy qiyinchilik shundaki, bolaning maktabga kelishi motivi u maktabda bajarishi kerak bo'lgan faoliyatning mazmuni bilan bog'liq emas.

Maktabda ijtimoiy munosabatlarning yangi tuzilishi paydo bo'ladi. "Bola – kattalar" tizimi boshqa "bola – o'qituvchi" va "bola – ota-ona" tizimlari bilan almashtiriladi.

O'qituvchining muloqot uslubidan quyidagilar aniqlanadi: o'quv jarayonining samaradorligi, maktab jamoasining o'zaro ta'siri jarayoni, bolalarning hissiy kayfiyati.

Ushbu bosqichda aloqa uslubining uchta darajasi mavjud: avtoritar demokratik va do'stona. Olimlar isbotladilar: o'qituvchi talabalar bilan demokratik muloqot uslubini tanlagan sinfda talabalar moslashish jarayonidan og'riqsiz o'tadilar. Yil oxirida o'quvchilarning tashvish darajasi, o'zlariga va tengdoshlariga nisbatan dushmanlik darajasi pasayadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'qituvchiga sinfda ishonchli muhit yaratishga yordam beradi.

O'qituvchilarning ota-onalar bilan muloqot uslubi ham talabalarni muvaffaqiyatli moslashtirish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ota – ona – o'qituvchi-bola dizayni eng maqbuldir. Uchbirlik tarkibida ishlash, o'quv jarayonining har bir ishtirokchisi o'z rolini bajaradi, bu esa boshqalarning hayotini sezilarli darajada osonlashtiradi.

Bolaning maktabga moslashishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar-bu o'z-o'zini hurmat qilish va da'volar darajasi.

Moslashuv jarayonida qiyinchilikning asosiy sabablari:

1. Ta'lim motivatsiyasining past darajasi.
2. Xulq-atvorni tartibga solishdagi muammolar
3. Muammo sinfdoshlar va o'qituvchilar bilan munosabatlarni o'rnatishda.

Birinchi yil bola uchun eng qiyin yil. Agar u yolg'iz o'zi o'tishi kerak bo'lsa, bu uning psixologik va jismoniy sog'lig'iga salbiy ta'sir qiladi. Ota-onalar, o'qituvchilar va psixologning vazifasi bolaga qo'rquv va aybdorlik tuyg'usini boshdan kechirmasdan, uning individual xususiyatlarini ochib berishga yordam berish orqali ushbu yo'ldan o'tishni osonlashtirishdir.

O'rganish jarayonida moslashish jarayonini o'z sohalarida o'rganayotgan turli olimlarning nuqtai nazarida turli xil qarama-qarshiliklar mavjud. Bu shuni ko'rsatadiki, ushbu muammoni yanada o'rganishda ehtiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi. Bolalarning maktabda o'qishga moslashuvining o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, birinchi sinf o'quvchilarining ushbu ishda maktabga moslashishining psixologik sharoitlarini hisobga olish kerak. Moslashuv jarayoni yanada muvaffaqiyatli bo'lishini taxmin qiladigan gipotezaga kelsak, agar bola tengdoshlari bilan ijtimoiy o'zaro ta'sir o'tkazish qobiliyatini rivojlantirsa, unda nazariy qismni o'rganayotganda, keyingi empirik tadqiqotlar bilan buni tasdiqlash mumkin, chunki ijtimoiy muloqot qobiliyati yosh o'quvchining muvaffaqiyatli moslashuvining yorqin omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayev R., Jo'rayeva N. Birinchi sinf o'quvchilarini maktabga samarali moslashtirish //МАКТАБГАЧА ВА МАКТАБ ТА'ЛИМИ JURNALI. – 2025. – Т. 3. – №. 3.
2. Александровская Э. М., Лусканова Н. Г. Психологические трудности при адаптации детей к школе //Гигиена и санитария. – 1984. – №. 3. – С. 29-32.
3. Безруких, М.М. Растя первоклашка: энциклопедия для родителей [Текст] / М.М. Безруких Л.А. Леонова. – Москва, 2009. – 36 с.
4. Битянова, М.Р. Работа психолога в начальной школе [Текст] / М.Р. Битянова, Т.В. Азарова, Е.И. Афанасьева, Н.Л. Васильева. - М: Совершенство, 2015. - 358 с.
5. Божович, Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте [Текст] / Л.И. Божович. - М.: Изд-во МГУ, 2014. - 132 с.
6. Коломинский Я. Л. Психология взаимоотношений в малых группах (общие и возрастные особенности). – ТетраСистемс, 2000.
7. Наумова О. А. Адаптация молодых специалистов в образовательном учреждении //ББК 74.58 Д 548. – 2017. – С. 56.
8. Савина, Н. Н. Школьная дезадаптация: природа, структура, причины [Текст] // Наука и школа. - 2010. - № 3. - С.118-121.

TALABALAR TA'LIM-TARBIYASIDA OILA PEDAGOGIKASI FANINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY DIDAKTIK AHAMIYATI

Hamdamova Sitora Rustam qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti Umumiy pedagogika kafedrası tayanch doktoranti

Telefon: +99899 501 66 46 hamdamova_sitora@buxdpi.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada oila pedagogikasi fanining talabalar ta'lim-tarbiyasidagi o'rni, uning nazariy asoslari va zamonaviy didaktik yondashuvlari tahlil etiladi. Shu bilan birga, oila va oliy ta'lim muassasasi hamkorligi orqali talaba shaxsining har tomonlama kamol topishidagi imkoniyatlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: oila pedagogikasi, ta'lim-tarbiya, didaktika, zamonaviy metodlar, talaba shaxsi, pedagogik hamkorlik.

Abstract: This article explores the scientific-theoretical foundations and modern didactic relevance of the subject of family pedagogy in the education and upbringing of university students. It analyzes the role of the family as a pedagogical environment and highlights the need for effective collaboration between higher education institutions and families. The article also discusses contemporary didactic approaches and methods that enhance students' understanding of family values, responsibility, and moral development.

Keywords: family pedagogy, higher education, upbringing, didactic methods, student personality, pedagogical partnership.

Аннотация: В статье рассматриваются научно-теоретические основы семейной педагогики и её значение в образовательном и воспитательном процессе студентов высших учебных заведений. Анализируется роль семьи как воспитательной среды, а также подчеркивается важность сотрудничества между вузами и семьями студентов. Освещаются современные дидактические подходы и методы, направленные на формирование у студентов семейных ценностей, ответственности и нравственного развития.

Ключевые слова: семейная педагогика, образование, дидактика, современные методы, личность ученика, педагогическое сотрудничество.

Oila pedagogikasi — bu oilada olib boriladigan tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va metodlarini o'rganuvchi fan sohasidir. Oilaning yosh shaxs kamolotiga ta'siri quyidagicha namoyon bo'ladi:

Ma'naviy va axloqiy asoslar oilada shakllanadi. Farzandda ijtimoiy qadriyatlar, hurmat, vatanparvarlik, halollik singari xislatlar oilada rivojlanadi;

Oila muhitidagi munosabatlar sifati talabaning keyingi ijtimoiy hayotiga bevosita ta'sir qiladi. Talabaning hayoti ikki asosiy muhit – oila va ta'lim maskani ta'sirida kechadi. Ularning o'zaro pedagogik hamkorligi quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi. Tarbiya jarayonida uzviylik va uyg'unlik ta'minlanadi. Talabada mas'uliyat va o'zini boshqarish ko'nikmalari shakllanadi. Ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi muloqot talaba shaxsining ijtimoiy moslashuviga yordam beradi.

Oila–ta'lim hamkorligi misollar orqali:

Ota-onalar bilan seminar-treninglar;

Talabalar ishtirokidagi ota-onalar majlislari;

Oila qadriyatlari mavzusida loyiha va esse tanlovlari.

Bugungi raqamli jamiyatda oila muhitining rolini kuchaytirish – yoshlarni turli salbiy axborotlardan himoya qilishda muhim vosita sanaladi. Shu nuqtayi nazardan, oila pedagogikasi:

Axborot oqimida tanqidiy fikrlovchi yoshlarni tarbiyalaydi. Raqamli vositalardan mas'uliyat bilan foydalanishni o'rgatadi. Talabaga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdiradi. Talabalar "Oila pedagogikasi" fanini o'rganish orqali oila tarbiyasining psixologik-pedagogik asoslarini anglaydi. Kelajakda samarali ota-ona bo'lishga tayyorlanadi. Shaxsiy hayotida to'g'ri oila munosabatlarini shakllantirish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Bu fan, ayniqsa, pedagogika, psixologiya, sotsial ish, defektologiya kabi yo‘nalishlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy jamiyatda inson kapitalining shakllanishida oila va ta‘lim muassasalarining o‘zaro aloqasi muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, oliy ta‘lim bosqichidagi talabalar shaxsining ma‘naviy-axloqiy rivojlanishida oila pedagogikasining o‘rni beqiyosdir. Oila pedagogikasi – bu oila sharoitida ta‘lim-tarbiya jarayonining qonuniyatlarini o‘rganadigan fan bo‘lib, u talabalarning ijtimoiy psixologik jihatdan barkamol shaxs bo‘lib shakllanishida muhim metodologik vositadir.

1. Oila pedagogikasi fanining ilmiy-nazariy asoslari

Oila pedagogikasi pedagogika fanining mustaqil yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda quyidagi nazariy asoslar muhim o‘rin tutadi:

Pedagogik qonuniyatlar: oila muhitida tarbiyaning uzluksizligi, shaxsga individual yondashuv, ota-ona bilan pedagogik hamkorlik.

Psixologik asoslar: oila a‘zolarining o‘zaro munosabati, ota-onaning psixologik savodxonligi, emotsional muhit.

Ijtimoiy asoslar: oila - jamiyatning kichik modeli sifatida fuqarolik mas‘uliyatini shakllantirishda muhim ijtimoiy institutdir.

Mazkur fan orqali talabalarga o‘z oilaviy muhitini to‘g‘ri baholash, kelajakda barkamol avlodni tarbiyalashga tayyorlanish, ijtimoiy ongni shakllantirish ko‘nikmalari beriladi.

2. Talabalar ta‘lim-tarbiyasida oila pedagogikasining o‘rni

Talaba – bu o‘zini anglayotgan, ijtimoiy faoliyatga tayyorlanayotgan shaxs. Oila pedagogikasi orqali quyidagi maqsadlar amalga oshiriladi:

Shaxsiy mas‘uliyat hissini shakllantirish

Ota-onalik burchini anglash

Oila bilan ta‘lim muassasasi o‘rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlash

Ayni vaqtda, oliy ta‘lim tizimida oila bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish talabaning nafaqat bilim olish jarayonida, balki ma‘naviy yuksalishida ham muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa: Talabalarning ta‘lim-tarbiyasida oila pedagogikasi muhim ilmiy-amaliy asosga ega. Oila va ta‘lim muassasasining hamkorligi orqali nafaqat bilimli, balki ma‘naviy jihatdan yetuk, axloqiy barkamol yoshlarni tarbiyalash mumkin. Shuning uchun har bir talaba o‘zining kelajakdagi ijtimoiy va oilaviy roli haqida ongli tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Bu esa oila pedagogikasini chuqur o‘rganish bilan bevosita bog‘liq. Oila pedagogikasi fanining talabalar ta‘lim-tarbiyasida tutgan o‘rni yildan-yilga ortib bormoqda. Bu fan orqali talaba shaxsini har tomonlama tarbiyalash, uni mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy mas‘uliyatli inson sifatida shakllantirishga erishiladi. Oila – insoniyatning birinchi maktabi bo‘lsa, oila pedagogikasi – bu maktabni ilmiy asosda anglash va uni zamonaviy didaktika bilan boyitish vositasidir. Shunday ekan, oliy ta‘lim tizimida bu fan mazmunini boyitish, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xasanboyeva, M. (2020). *Oila pedagogikasi asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti.

2. Saidov, A. A. (2018). *Ta‘lim tizimida oila va jamiyat hamkorligi*. – Toshkent: Ilm ziyo.

3. Mahkamova, D. (2022). *Pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar*. – Toshkent: Fan va texnologiya.

4. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge: Harvard University Press.

5. Bronfenbrenner, U. (1994). *Ecological Models of Human Development*. International Encyclopedia of Education, Vol. 3, 2nd Ed.

6. UNESCO (2020). *Family and Education: Global Perspectives on Parental Involvement*. Paris: UNESCO Publishing.

7. Абдукаримова, Н. (2021). *Современные подходы в семейной педагогике*. – Ташкент: Фан.

BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHILARNI TA'LIM MAZMUNINI LOYIHALASHGA O'RGATISH

*Haydarkulova Mahliyo Zafarovna
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchilarni ta'lim mazmunini loyihalashga o'rgatishda foydalaniladigan usullar, vositalar, metodlar haqida so'z boradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda ularga loyihalash metodi va ta'lim mazmunini loyihalashni o'rgatish ta'lim samaradorligini oshirishda, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga, dunyoqarashini kengaytirishda va mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada loyihalash metodining kelib chiqishi va hozirgi kundagi ta'lim jarayonidagi ahamiyati izohlangan.

Kalit so'zlar: loyiha, mustaqil ish, tanqidiy fikrlash, ta'lim mazmuni, darslik, o'qituvchi, kompetensiya, texnologiya, metod, tajriba.

Abstract: This article discusses the methods, tools, and techniques used to train teachers in the design of educational content in the process of primary education. The importance of teaching them the design method and the design of educational content in the preparation of future primary school teachers in increasing educational efficiency, developing students' logical thinking, broadening their horizons, and forming independent work skills is highlighted. The article explains the origin of the design method and its importance in the current educational process.

Keywords: project, independent work, critical thinking, educational content, textbook, teacher, competence, technology, method, experience.

Аннотация: В статье рассматриваются методы, средства и приёмы, используемые для обучения учителей проектированию образовательного контента в процессе начального образования. Подчёркивается важность обучения их методу проектирования и проектированию образовательного контента в подготовке будущих учителей начальной школы для повышения эффективности обучения, развития логического мышления учащихся, расширения кругозора, формирования навыков самостоятельной работы. В статье объясняется происхождение метода проектирования и его значение в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: проект, самостоятельная работа, критическое мышление, образовательный контент, учебник, учитель, компетентность, технология, метод, опыт.

Nufuzli oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy tadqiqot institutlarida birinchi navbatda boshlang'ich ta'limga e'tibor qaratilishi hamda bo'lajak boshlang'ich ta'lim mutaxassislarining intellektual qobiliyatini shakllantirish, ularda kreativlik, ijodkorlik qobiliyatini izchil rivojlantirib borish hamda ilm-ma'rifatli, odob-axloqni egallagan komil inson tamoyillari muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik loyihalash kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi texnologiyalar va metodlarni ishlab chiqish tadqiqot ishining dolzarbligini nazarda tutadi. Mamlakatimizda ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda har tomonlama mukammal va jahon bozori talablariga javob beradigan o'qituvchilar tayyorlash maqsad qilib qo'yilgan. Bu jarayonda boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ta'lim mazmunini loyihalash va loyihalash metodini o'rgatish ta'lim samaradorligini oshirish va o'quvchilarning mustaqil ishlar ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Loyihalash – bu g'oyalar orqali vujudga keladigan muammolar yechimi jamlanmasi, uni hal qilish vositasi hamda olingan natijalarni amalda qo'llash jarayoni. Loyihalash – bu muayyan vaqt oralig'ida ma'lum bir izchillikda kechadigan, noyob natijaga olib keladigan hodisa, jarayondir. Loyihalash atamasining keng va tor ma'nolarini farqlash maqsadga muvofiq. Hozirgi sharoitda jamiyatda loyihalash asosida ish olib bormaydigan faoliyatning biror sohasi yo'q. Ayniqsa, ta'lim jarayonida loyihalash usulidan foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodga

loyihalash ko'nikmalarini singdirish murakkab, lekin loyihalash mamlakat va jamiyat manfaatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan jarayon hisoblanadi. U har ikkala ta'lim subyektlaridan iroda, izchillik, ulkan safarbarlik, fidoiylik, eng asosiysi, jiddiy intilish va motivatsiyani talab qiladi. Manbalarga ko'ra, loyihalash usuli XIX asrning 2-yarmida AQSHda paydo bo'lgan, uning asoschisi amerikalik pedagog va psixolog Jon Dyui hisoblanadi. Ta'lim jarayonini loyihalashni pedagogik voqelikni o'zgartirish uchun qiymatga yo'naltirilgan, chuqur motivatsiyalangan, yuqori darajada tashkil etilgan, maqsadli kasbiy faoliyat sifatida qaragan.

Ta'lim mazmunini loyihalash ma'lumotni samarali yetkazib beradigan va o'rganishni osonlashtiradigan materiallarni yaratishni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon maqsadli auditoriyani, o'quv maqsadlarini va kerakli o'rganish tajribasini hisobga olishi kerak. Tizimli yondashuv, masalan, o'quv loyihasi, mazmunning ushbu omillarga mos kelishini ta'minlashga yordam beradi va samarali o'rganishga yordam beradi.

Ta'lim mazmunini loyihalashda o'qituvchi:

- aniq maqsadlarni belgilashi,
- o'quvchilarning qiziqishini inobatga olishi,
- kontentni ishlab chiqish jarayonini boshqarish uchun aniq o'quv maqsadlari belgilashi,
- o'quv maqsadlari va ta'lim standartlariga mos kelishini ta'minlashi,
- o'quvchilarni baholash va fikr bildirish uchun turli baholash usullaridan foydalanishi,
- tarkibni kichikroq, boshqariladigan bo'laklarga bo'lishi lozim.

Ushbu bosqichlarni bajarish va ushbu jihatlarni hisobga olgan holda, o'quvchilarining ehtiyojlariga moslashtirilgan, qiziqarli, samarali ta'lim mazmunini loyihalash mumkin.

Loyihalash quyidagi usullarda bo'ladi:

- Ta'lim tajribasini loyihalash. Bu yaxlit ta'lim tajribasini yaratish jarayoni.
- Loyihaga asoslangan ta'lim amaliy muammolarni hal qilish orqali o'rganishdir.
- Muammoli ta'lim - bu haqiqiy muammolarga asoslangan o'rganish.

Loyihalashni quyidagi bosqichlarda amalga oshirish mumkin:

- o'quv maqsadlarini rejalashtirish va tahlil qilish.
- Tarkib va materiallarni ishlab chiqish.
- Tarkibni baholash va moslashtirish.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchilarni ta'lim mazmunini loyihalashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon orqali o'qituvchilar o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda samarali ta'lim dasturlarini yaratishga qodir bo'ladilar. Ta'lim mazmunini loyihalash o'qituvchilarga nafaqat bilim va ko'nikmalarni tizimli tarzda tashkil etish imkonini beradi, balki o'quvchilarning faoliyatini faollashtirish va ularning individual rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Shu sababli, o'qituvchilarni mazmunni loyihalashga o'rgatish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, kelajak avlodning sifatli bilim olishiga va jamiyatning barqaror taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-son qarori.

2. Husenova A.Sh. "Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarini integratsiyalashtirishda o'qituvchi faoliyatini loyihalashtirish metodikasi" (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Buxoro 2023

3. Navro'zov I.N. "Loyihaviy ta'limning asosiy o'ziga xos maqsadi va samaradorligi" "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" (2021-yil N:6)

4. Haydarqulova M.Z. "Ta'lim mazmunini loyihalashning ahamiyati" "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 11

5. Haydarqulova M.Z. "Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'lim mazmunini loyihalashga o'rgatish" Ta'lim va innovatsiyalar jurnali №9 2024

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNI SAMARALI O'QITISH USULLARI

Jumayeva Hanifa G'aforovna

Buxoro shahar 29 – maktabi oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda differensial yondashuvning ahamiyati va uning o'quvchilarning ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Differensial yondashuv o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ta'limni shaxsiylashtiradi va ularning ehtiyojlariga mos keladigan metodlarni qo'llashga yordam beradi. Bu yondashuv, o'quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilash, motivatsiyasini oshirish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada differensial yondashuvning ta'lim tizimidagi ahamiyati, uning o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga qo'shgan hissasi hamda inkluziv ta'limni rivojlantirishdagi o'rni keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: differensial yondashuv, boshlang'ich ta'lim, shaxsiylashtirilgan ta'lim, o'quvchilarni samarali o'qitish, motivatsiya, ijodiy fikrlash, inkluziv ta'lim, ta'lim jarayoni, o'quvchilar rivojlanishi.

METHODS OF EFFECTIVE TEACHING OF STUDENTS BASED ON A DIFFERENTIATED APPROACH IN PRIMARY EDUCATION

Abstract. This article analyzes the importance of a differentiated approach in primary education and its impact on the educational process of students. A differentiated approach, taking into account the individual characteristics of students, personalizes education and helps to use methods that meet their needs. This approach plays an important role in improving the learning process of students, increasing their motivation and developing creative thinking skills. The article extensively discusses the importance of a differentiated approach in the education system, its contribution to the personal development of students, and its role in the development of inclusive education.

Keywords: differentiated approach, primary education, personalized education, effective teaching of students, motivation, creative thinking, inclusive education, educational process, student development.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yilga "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb nom berilishi ta'lim tizimida ham yangicha yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Ayniqsa, inson salohiyatini to'laqonli namoyon etish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarini amalda qo'llash, o'quvchining individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday yondashuv, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda muhim o'rin tutadi. Zero, aynan shu bosqichda o'quvchilarning tafakkuri, bilimga bo'lgan munosabati va psixologik rivojlanish sur'atlari shakllanadi. Shu boisdan, boshlang'ich ta'limda differensial yondashuv asosida o'quvchilarni samarali o'qitish usullarini ishlab chiqish va tatbiq etish zamonaviy ta'lim strategiyalarining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Differensial yondashuv deganda, har bir o'quvchining bilim darajasi, qobiliyati, qiziqishi, psixofiziologik holati va individual rivojlanishiga qarab o'qitishning mazmuni, shakli va metodlarini moslashtirish tushuniladi. Bu yondashuv, o'z navbatida, o'qituvchidan har bir o'quvchining ichki imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishni, o'ziga xos yondashuvni aniqlashni va turli pedagogik vositalarni mos ravishda qo'llay olishni talab qiladi. Ushbu metodologiya o'zini oqlagan va samarali natijalarni ko'rsatgan xalqaro tajribalarda ham keng qo'llanilgan bo'lib, har bir bola o'zining shaxsiy sur'atida o'qib-o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinfda differensial o'qitishning asosiy usullari quyidagicha: birinchidan, individual yondashuv orqali har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasiga qarab mos topshiriqlar beriladi. Bu o'zlashtirish darajasini barqarorlashtirish, ortda qolishni bartaraf etish va ilg'or o'quvchilar salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, kichik guruhlarda ishlash orqali o'quvchilar o'zaro muloqotga kirishadi, bilim almashadilar va bir-birlarini qo'llab-

quvvatlaydilar. Guruh topshiriqlari differensial yondashuvga asoslangan holda tuziladi: ya'ni, bilim darajasi, fikrlash sur'ati yoki psixologik jihatlari bo'yicha guruhlar shakllantiriladi. Uchinchidan, moslashtirilgan topshiriqlar qo'llaniladi - bu orqali bitta mavzu bo'yicha har xil darajadagi mashqlar tuzilib, o'quvchilarning aqliy faoliyatiga moslashtirilgan holda taqdim etiladi. Masalan, kuchli o'quvchi mustaqil ravishda matndan asosiy g'oyani ajratib chiqsa, o'rta darajadagi o'quvchi savollarga javob topadi, boshlang'ich darajadagi o'quvchi esa savolni tushunadi va ustoz yordami bilan uni hal etadi.

Boshlang'ich ta'limda differensial yondashuv asosida o'quvchilarni samarali o'qitishning dolzarbligi bugungi ta'lim jarayonida nihoyatda muhimdir. Bu yondashuv o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishga asoslanadi, shuning uchun har bir bola o'zining rivojlanish tezligi va xususiyatlariga mos ravishda o'qitiladi. Har bir o'quvchining bilim olishdagi individual yondashuvi uning shaxsiy rivojlanishiga to'g'ri keladi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar o'zlarini to'liq ifoda eta olishlari, bilimlarini amaliyotga tadbiiq etishlari uchun differensial yondashuvni qo'llash juda muhimdir.

Boshlang'ich ta'limda differensial yondashuvni qo'llashning dolzarbligi bir necha jihatlardan kelib chiqadi. Har bir o'quvchi o'zining individual rivojlanish tezligiga ega. Bu, o'z navbatida, darslarni boshqarishda o'qituvchi uchun o'quvchilarning ehtiyojlarini to'g'ri aniqlashni talab qiladi. O'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olish differensial yondashuvning asosiy jihatlaridan biridir. Masalan, ayrim o'quvchilar tezda yangi bilimlarni o'zlashtirishi mumkin, boshqalari esa ko'proq vaqt va qo'shimcha yordamga muhtoj. Differensial yondashuv bu farqlarni hisobga olib, har bir o'quvchiga o'ziga mos metodlarni taklif qiladi.

Differensial yondashuv o'quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Boshlang'ich ta'limda ayniqsa o'quvchilarning qobiliyatlari va iste'dodlarini erta aniqlash muhimdir. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarga o'z potentsiallarini to'liq ochish imkoniyatini beradi. Masalan, ayrim o'quvchilar ijodiy fikrlashda kuchli bo'lishi mumkin, boshqalari esa matematik fikrlashda ilg'or bo'lishi mumkin. Differensial yondashuv har bir bolaning kuchli tomonlarini aniqlashga yordam beradi va shu orqali uning ta'lim jarayonini individual ravishda tashkil etishga imkon yaratadi.

Differensial yondashuv o'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir bola o'ziga mos o'quv material va topshiriqlar bilan ishlash orqali mustaqil fikrlashni o'rganadi. Bu esa bolaning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va uni ta'lim jarayoniga yanada faol jalb qiladi. Darslar differensial yondashuv asosida o'tilganda, o'quvchilar o'zlariga mos qiyinchilik darajasidagi topshiriqlarni bajargan holda o'z bilimlarini mustahkamlashadi va rivojlantiradilar.

Differensial yondashuv o'quvchilarning o'zini o'zi anglashiga yordam beradi. Har bir bola o'zining bilim olishdagi yutuqlarini ko'rib, o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Bu psixologik jihatdan ham muhimdir, chunki o'quvchi o'zining muvaffaqiyatlarini ko'rib, yanada faolroq o'qishga intiladi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish ularning kelajakdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Differensial yondashuv inkluziv ta'limni ta'minlashga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning har xil imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos darslar o'tilganda, o'quvchilar o'rtasida tenglik ta'minlanadi. Differensial yondashuv asosida o'tilgan darslar imkoniyatlari cheklangan o'quvchilar uchun ham muvaffaqiyatli o'qish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonining inkluzivligini oshiradi va har bir o'quvchining ta'lim olishi uchun teng imkoniyatlar yaratadi.

Boshlang'ich ta'limda differensial yondashuv asosida o'qitish o'quvchilarning individual rivojlanishiga, ijodiy va mustaqil fikrlashiga, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam beradi. Bu yondashuv o'quvchilarning o'z qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga imkon yaratadi va ta'lim jarayonini samarali va innovatsion tarzda tashkil etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, dars jarayonida interaktiv usullar, o'yinli metodlar, konseptual xaritalar va vizual materiallar differensial yondashuvga mos ravishda tanlanadi. Dars boshida va yakunida

tezkor baholash, blits-so'rovlar, "chiroqcha", "qadamlar", "reaksiya kartochkasi" kabi metodlar yordamida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi monitoring qilinadi. Bu monitoring asosida keyingi darslar uchun yondashuv tanlanadi. Bu pedagogik jarayon o'zgaruvchan va moslashuvchan bo'lib, o'qituvchi doimiy ravishda o'quvchilar holatini tahlil qilib boradi.

Differensial yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularda o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi va muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etish ko'nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, bunday yondashuv ijtimoiy moslashuv darajasini ham oshiradi, chunki har bir bola o'zining o'rnini, qobiliyati va roli borligini his qiladi. Ta'lim sharoitining shaxsga moslashtirilganligi esa o'quvchilarda stress holatlarini kamaytiradi, motivatsiyani oshiradi, o'z-o'zini boshqarish va intizomni mustahkamlaydi.

Differensial yondashuv asosida o'qitilgan o'quvchilar bilimni chuqurroq o'zlashtiradi, murakkab vazifalarni mustaqil bajarishga intiladi, o'qituvchiga faol yordamchi sifatida ishtirok etadi. Statistik tahlillar bu yondashuv asosida ta'lim olgan o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari 20–30 foizga yuqori ekanligini ko'rsatmoqda.

Boshlang'ich ta'limda differensial yondashuv asosida o'quvchilarni samarali o'qitish - bu zamonaviy ta'limning talabi bo'lib, shaxsga yo'naltirilgan, moslashtirilgan, izchil va puxta o'ylangan pedagogik faoliyatni talab qiladi. Bu usullarni izchil tatbiq etish orqali har bir o'quvchining o'ziga xosligi e'tiborga olinadi, ularning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi oshadi, mustaqil fikrlovchi, mas'uliyatli va faol shaxs shakllanadi. Bu esa nafaqat ta'lim, balki jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'limda differensial yondashuv asosida o'quvchilarni samarali o'qitish bugungi kunda ta'lim jarayonining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Har bir o'quvchining individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ta'lim berish, ularning qobiliyati, psixologik rivojlanish darajasi, bilish faoliyati va shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv usullarini qo'llash orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish mumkin. Differensial yondashuv – bu har bir o'quvchini o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olish, unga mos uslubda o'qitish deganidir. Bu yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchining mustaqil fikrlash ko'nikmalari, ijodiy yondashuvi, tanqidiy tahlil qilish qobiliyati shakllanadi.

Ushbu yondashuvning nazariy asoslarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, uning ildizlari Jean Piaje, Lev Vigotskiy, Jerom Bruner, Jon Dyui kabi zamonaviy pedagogika va psixologiya asoschilarining asarlarida uchraydi. Piajening intellektual rivojlanish bosqichlari, Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi differensial yondashuvning psixologik negizini tashkil qiladi. Ularning ilmiy qarashlaridan kelib chiqib, o'quvchilarning qobiliyati, bilish tezligi, bilimlarni qabul qilish shakllari turlicha ekanligi isbotlangan. Bu esa har bir o'quvchiga mos darsni rejalashtirish, ularni guruhlariga ajratish va darajalashgan topshiriqlarni qo'llash zaruratini keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tizimi yangilanayotgan bir paytda, differensial yondashuv o'quvchilarning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi muhim vositaga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, "Ilm-fan – taraqqiyot omili" tamoyiliga asoslangan holda, har bir o'quvchining o'z-o'zini namoyon qilishiga imkon beradigan zamonaviy metodlarni joriy etishni talab qilmoqda. Yangi avlod darsliklari, kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar aynan shu maqsadni ko'zda tutgan. Shu boisdan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun differensial yondashuv asosida o'quv jarayonini tashkil qilish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Amaliy jihatdan olib qaralganda, differensial yondashuv quyidagicha tashkil qilinadi: o'quvchilar bilim darajasi, qobiliyati, nutq madaniyati, ijtimoiy faolligi, psixotipiga ko'ra tahlil qilinadi va ular bir nechta guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh uchun alohida topshiriqlar, mashqlar, o'yinli metodlar, interaktiv uslublar tanlanadi. Misol uchun, iqtidorli o'quvchilar uchun murakkab va ijodiy topshiriqlar berilsa, bilimga sust o'quvchilar uchun esa ko'proq ko'rgazmali vositalar, oddiy namunali mashqlar va ko'makchi savollar asosida o'qitish yo'lga qo'yiladi. Shu tarzda differensial yondashuv o'zini oqlaydi – har bir o'quvchining bilish ehtiyojiga mos tarzda ta'lim beriladi.

Yana bir muhim jihat – differensial yondashuvda foydalaniladigan metod va vositalardir. Bugungi kunda “Bosqichli topshiriqlar”, “Rangli signal”, “O‘yinli kvest”, “Mashg‘ulotli stansiyalar” kabi metodlar keng qo‘llanilmoqda. Bu metodlar yordamida o‘quvchilar o‘z imkoniyatlariga qarab faoliyat olib boradilar, bu esa o‘z navbatida ularda motivatsiyani oshiradi. Raqamli texnologiyalar – xususan, Wordwall, Quizizz, Kahoot, Padlet kabi platformalar esa individual yondashuvni raqamli formatda qo‘llab-quvvatlaydi. Har bir o‘quvchi o‘z tezligida ishlaydi, mustaqil o‘rganadi va natijalarni bevosita baholash imkoniga ega bo‘ladi.

Bu borada ekologik ong, yashil madaniyat, atrof-muhitni asrash, resurslardan tejab foydalanish g‘oyalari o‘quvchilarning yoshiga mos, darajaviy topshiriqlar orqali singdiriladi. Masalan, yuqori darajadagi o‘quvchilarga ekologik muammolarni hal qilish bo‘yicha loyihalar taklif qilinadi, o‘rta guruhdagilar uchun esa rasm chizish, tajriba o‘tkazish, lavha yozish vazifalari beriladi, quyi guruhdagilar bilan esa ertak, she‘r, video namoyishlari orqali tushunchalar shakllantiriladi.

Differensial yondashuvni sinfda joriy qilishda metodik jihatdan to‘g‘ri rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Dars rejasi tuzishda asosiy e‘tibor – kompetensiyalarning erishiladigan bosqichiga, o‘quvchilarning mavjud bilim holatiga va kutilayotgan natijalarga qaratiladi. Baholash ham differensial yondashuvga asoslanadi. Bunda formatif (jarayonli) va summativ (yakuniy) baholash shakllari moslashtiriladi. Har bir o‘quvchiga individual yondashuv asosida rag‘bat beriladi, bu esa uning rivojlanish motivatsiyasini oshiradi. Tajriba o‘tkazilgan sinflarda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy yondashuvi, nutq madaniyati, jamoaviy faoliyatga kirishish ko‘nikmalari yuqorilagan. Shu bilan birga, bilimga sust o‘quvchilar ham sekin-asta rivojlanib, asosiy bilim ko‘rsatkichlariga yetib kelgan.

Boshlang‘ich ta’limda differensial yondashuv asosida o‘qitish nafaqat zamonaviy ta’limning talabidir, balki har bir o‘quvchining to‘laqonli rivojlanishini ta’minlovchi muhim strategik vositadir. Bu yondashuvni tizimli tarzda joriy etish orqali ta’lim jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan, mazmunli, samarali va ekologik ongni tarbiyalovchi ijtimoiy institutga aylanadi. Differensial yondashuvning muhimligi bir nechta jihatdan ko‘rinadi va ta’lim jarayonida uning samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuv, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini, ehtiyojlarini va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta’lim berishni ta’minlaydi. Bu nafaqat o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilashga, balki ta’lim sifatini ham oshirishga yordam beradi. Quyidagi jihatlar differensial yondashuvning muhimligini yanada yaqqol namoyon qiladi: Shaxsiy ehtiyojlar va qobiliyatlarni hisobga olish: Har bir o‘quvchi o‘zining o‘rganish uslubi, qobiliyatlari, qiziqishlari va imkoniyatlariga ega. Differensial yondashuv o‘quvchilarni bir-biridan ajratib, ularning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim beradi. Boshqacha aytganda, bu yondashuv ta’lim jarayonini o‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtiradi va ularning o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatlarini oshiradi. Differensial yondashuv o‘quvchilarga o‘zlariga mos bo‘lgan qiyinchilik darajasidagi topshiriqlarni taqdim etadi, bu esa o‘quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Ular yangi bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtiradilar va o‘zlariga ishonch hosil qilishadi. O‘quvchilarning mustaqil ishlashga rag‘batlantirilishi ularni ta’lim jarayonida yanada faolroq ishtirok etishga undaydi. Motivatsiya va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish: O‘quvchilar o‘zlariga mos darslar va topshiriqlarni bajargan holda muvaffaqiyatga erishadilar. Bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi, chunki ular o‘zlarining kuchli tomonlarini anglab, o‘z qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Muvaffaqiyatli o‘qish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga yordam beradi va o‘quvchilarga yanada yuqori darajadagi bilimlarni o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

Differensial yondashuv nafaqat o‘quvchilarning akademik bilimlarini rivojlantirishga, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham yordam beradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda yondashilgan ta’lim metodlari ularning o‘z-o‘zini anglashiga, o‘zlarini boshqarishga va ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga imkon yaratadi. Differensial yondashuv imkoniyatlari cheklangan yoki boshqa xususiyatlarga ega o‘quvchilarga ham ta’lim olish imkoniyatlarini teng taqdim etadi. Bu yondashuv, o‘quvchilarning barcha ehtiyojlarini inobatga olib, ta’lim jarayonida ularning teng va faol

ishtirok etishini ta'minlaydi. Shu tariqa, differensial yondashuv inkluziv ta'limni rivojlantirishga yordam beradi, chunki har bir o'quvchi o'zining individual ehtiyojlariga mos tarzda ta'lim oladi.

Ta'lim jarayonida har bir o'quvchiga individual yondashuvni qo'llash o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'quvchilar o'zlariga mos, qiziqarli va ularning darajasiga mos materiallarni o'rganishadi. Bu esa o'quvchilarning darslarga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi va ta'lim jarayonida yanada samarali ishtirok etishga rag'batlantiradi. Differensial yondashuv o'quvchilarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishga, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga va o'z imkoniyatlarini to'liq anglashga yordam beradi. U o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ta'limni shaxsiylashtiradi va ularning eng yuqori darajada o'qishlarini ta'minlaydi. Bu esa nafaqat o'quvchilarning bilim olish jarayonini, balki ta'lim tizimini yanada sifatli qilishga xizmat qiladi.

Differensial yondashuv boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va xususiyatlarini hisobga olib, ta'limni shaxsiylashtiradi. Bu yondashuv o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va ta'lim jarayoniga yanada faol ishtirok etishga undaydi. Shuningdek, differensial yondashuv inkluziv ta'limni ta'minlaydi, bu esa har bir o'quvchining o'ziga mos ta'lim olishini va o'z imkoniyatlarini to'liq anglashiga yordam beradi. Shu sababli, differensial yondashuv nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo'ldoshev R., Hamroyev A., Jumayeva X., Abulova, Z., Xayrullayeva, D., & Niyazova, M. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining til boyligi, uning vazifalari. E3S Web of Conferences da (538-jild, 05017-bet). EDP fanlari.

2. Qo'ldoshev R., Jumayeva, H., Husenova, A., Xaitov, L., Gudzina, V., & Sanoyev, G. A. (2024). Assessment of the effectiveness of the physical education process in preschool educational organizations. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05042). EDP Sciences.

3. Jumayeva H.G'., "Pedagogik muloqot asosida ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari" Zamonaviy fan va tadqiqotlar 4.3: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2025 yil 22-aprel) 340-346.

4. Jumayeva H.G'., "Geymifikatsion yondashuv asosida talabalarning evrestikkognitiv faoliyatini rivojlantirishning metodik asoslari" Zamonaviy tasviriy-pedagogik ta'limda an'ana va innovatsiyalar: izlanishlar va yechimlar xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari Buxoro – 2025

5. Jumayeva H.G'., "Talabalarda evristik tafakkurni shakllantirishda geymifikatsion yondashuvning ahamiyati", "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 5

6. Jumayeva H.G'., "Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish", "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 3

3-SINF MATEMATIKA DARSLIKLARIDAGI MAVZULARNI STEAM YONDASHUVI ASOSIDA O'TISH

Isoyeva Maftuna Bobomurod qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti isoyeva_maftuna@buxdpi.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada 3-sinf matematika darsliklaridagi mavzularni STEAM yondashuvi asosida qanday o'tish mumkinligi, bu metodikaning o'quvchilarga qanday ta'sir qilishi va uning samaradorligi haqida fikr yuritiladi. Bundan asosiy maqsad–boshlang'ich sinflarda matematika fanini hayotiy ko'nikmalar bilan bog'lab o'qitish, o'quvchilarni kelajakda mustaqil fikrlay oladigan, ijodiy yondasha biladigan va amaliy natijalarga yo'naltirilgan shaxs sifatida shakllantirishdir.

Kalit soʻzlar: geometrik shakllar, oʻlchov birliklari, integratsiya, STEAM yondashuvi, oʻqituvchi, oʻquvchi, darslik, matematika, muhandislik, sanʼat, innovatsion texnologiya, robototexnika, raqamli vositalar.

ПЕРЕХОД НА ОСНОВЕ ПОДХОДА STEAM В УЧЕБНИКАХ ПО МАТЕМАТИКЕ 3 -ГО КЛАССА.

Аннотация. В этой статье, как темы математики 3 -го класса могут идти на основе подхода STEAM, как эти методы будут влиять на учащихся и его эффективность. Основная цель этого состоит в том, чтобы научить студентов жизненным навыкам в начальных классах, формировать студентов в качестве независимого и практического результата, который может думать самостоятельно в будущем.

Ключевые слова: геометрические формы, единицы измерения, интеграция, подход STEAM, учитель, текстиль, математика, художественное текстовое строительство, ограбки, инновационные технологии, робототехника и цифровое оборудование.

TRANSITION ON THE BASIS OF THE STEAM APPROACH IN 3RD GRADE MATH TEXTBOOKS.

Annotation. In this article, how the topics in 3rd grade mathematics can go on the basis of the STEAM approach, how this methods will affect students and its effectiveness. The main purpose of this is to teach the students with life skills in primary grades, to form students as an independent and practical result that can think independently in the future.

Keywords: geometric shapes, units of measurement, integration, STEAM approach, teacher, textile textile, math, art textbuilding, robrooms, innovative technologies, robotics, and digital equipment.

Kirish. Bugungi kunda ilm-fan sohasida boʻlayotgan oʻzgarishlar bizni ham chetlab oʻtmayabdi. Nafaqat rivojlangan mamlakatlarda, balki oʻzimizda ham taʼlim sohasida innovatsion yondashuvlar keng qoʻllanilmoqda. Xususan, STEAM (Science-fan, Technology-texnologiya, Engineering–muhandislik, Art-sanʼat, Mathmetics-matematika) anʼanaviy oʻqitish metodlariga muqobil boʻlib, oʻquvchilarida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni yechish koʻnikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuv nafaqat yuqori sinflar yoki oliy taʼlim bosqichida, balki boshlangʻich sinflardayoq joriy etilishi zarur. Ayniqsa, 3-sinf matematika darslari nbu borada juda muhim oʻrin tutadi.

Asosiy qism. Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar S.L.Novoselovanning fikriga koʻra; “taʼlim jarayonida kompyuterdan foydalanish boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar nafaqat kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati maqsadga muvofiqligini, balki oʻquvchining intellekti va shaxsiyatini rivojlantirishda alohida oʻrin tutganligini va bugungi kunda multimedia oʻqitish vositalaridan foydalanish maktabgacha taʼlim tizimidagi koʻplab uslubiy yangiliklarni ishonchli isbotlamoqda”. STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) — bu integratsiyalashgan yondashuv boʻlib, bolalarning fanlararo bilimlarni amaliyot bilan uygʻunlashtirish orqali oʻzlashtirishiga xizmat qiladi. T. Baranova (2019) va S. Karpova (2020) kabi olimlarning tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun moslashtirilgan STEAM yondashuvlarining afzalliklari yoritilgan. Ular STEAM texnologiyasi orqali bolalarda analitik fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish koʻnikmalarining shakllanishini asoslab berishadi. Maktabgacha taʼlimda STEAM texnologiyalarini joriy qilishga oid metodik qoʻllanmalar, masalan, M. Sharipova va N. Xudoyberdiyeva (2021) tomonidan tayyorlangan ishlarida, 5-6 yoshli bolalarning yosh xususiyatlariga mos tajriba va faoliyat turlari bilan tanishtirilgan. Ular loyihaviy ishlar, amaliy mashgʻulotlar, konstruktorlik faoliyati orqali bolalarda ilmiy tafakkurni shakllantirishni taklif qilishadi. Xalqaro manbalarda, xususan R.Yakman va L.Whittaker (2013) tomonidan taqdim etilgan tadqiqotlarda STEAM texnologiyasi bolalarni boshlangʻich maktab bosqichiga tayyorlashda juda samarali vosita sifatida eʼtirof etiladi. Ularning fikricha, bu yondashuv bolalarni izlanishga, eksperiment qilishga va ilmiy asosda fikr yuritishga oʻrgatadi. Oʻzbekiston va xorijiy davlatlarda oʻtkazilgan tajribaviy tadqiqotlar (masalan, Rossiya, AQSh, Janubiy Koreyada) koʻrsatadiki, STEAM texnologiyalari bilan oʻqitilgan bolalarda maktabga tayyorgarlik darajasi yuqori boʻladi. Ular fanlarga boʻlgan qiziqish bilan birga, jamoada ishlash,

mustaqil fikrlash va muammoga ijodiy yondashish ko'nikmalariga ega bo'lishadi. Maktabgacha ta'lim tizimida STEAM texnologiyalarini joriy etish masalasi O'zbekiston olimlari tomonidan ham izchil o'rganib kelinmoqda. Jumladan, D. X. Mamatqulova o'zining ilmiy ishlarida bolalarning bilimga qiziqishini oshirishda fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani uyg'unlashtirishning samarali yo'llarini tavsiya etadi. U tarbiyalanuvchilarni amaliy faoliyatga jalb etish orqali ularning kuzatuvchanligi va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishni taklif qiladi. Shuningdek, M. S. Usmonovning izlanishlarida STEAM komponentlaridan foydalanish orqali bolalarning fikrlash jarayoniga ta'sir o'rganilgan. U o'zining ilmiy ishida bolalar uchun mos loyihaviy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqqan bo'lib, bunda konstruktorlardan foydalanish, oddiy eksperimentlar o'tkazish va guruhii ishlar orqali ijodiy fikrni shakllantirish asos qilib olingan. G. A. Karimova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa STEAM metodikasini o'yin faoliyati bilan integratsiyalashga qaratilgan. U interfaol o'yinlar va ijodiy topshiriqlar yordamida bolalarning motivatsiyasini kuchaytirish, o'z fikrini ifoda etish qobiliyatini mustahkamlash mumkinligini ko'rsatgan.

Xalqaro tajribalarga e'tibor qaratilsa, Dr. Marina Umaschi Bers tomonidan ishlab chiqilgan "Coding as a Playground" modeli bolalar uchun kodlash va robototexnika elementlarini o'rgatish orqali tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan. U taklif qilgan yondashuv bolalarning o'yin orqali o'rganishini nazarda tutadi, bu esa STEAM integratsiyasining samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, Christine Cunningham tomonidan ishlab chiqilgan "Engineering is Elementary" loyihasi boshlang'ich yoshdagi bolalarda muhandislik fikrlashini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, unda tajriba, tahlil va muammo yechimi asosiy metod sifatida qo'llaniladi. Shuningdek, Jie-Qi Chen va Barbara Taylor bolalarning tabiiy qiziqishlari va kuzatuvchanligini hisobga olgan holda, erta yoshda STEM (yoki kengroq STEAM) komponentlarini joriy etish metodikasini ishlab chiqqan. Ularning tadqiqotlari bolalarda analitik tafakkur, muammoli vaziyatlarga nisbatan faol yondashuv shakllanishiga zamin yaratadi.


An'anaviy o'qitish tizimida matematika mavzulari ko'proq nazariy asosda o'rgatilgan bo'lsa, STEAM yondashuvi orqali o'quvchilarga bu bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyati yaratiladi. Masalan, oddiy geometrik shakllarni o'rganish faqat ularning nomi va xususiyatlarini yod olish bilan cheklanmay, balki ushbu shakllarni turli qurilish loyihalarida, texnologik jarayonlarda qanday qo'llash mumkinligi bilan bog'lanadi. O'lchov birliklari mavzusi faqatgina qoidalarni eslab qolish emas, balki real hayotda ulardan qanday foydalanish mumkinligini tushunishga yo'naltiriladi. Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish esa oddiy misollar yechish bilan cheklanmay, balki statistik tahlil va axborot texnologiyalari bilan integratsiya qilinadi. Endi bularning har biriga to'xtalib o'tsak.

1. Geometrik shakllar va ularning xususiyatlari: O'quvchilar shakllarni chizish bilan cheklanmay, muhandislik va san'at bilan bog'langan loyihalar yaratadilar.

Geometrik shakllar mavzusini o'rganishda o'quvchilarga muhandislik va san'at bilan bog'liq loyiha taklif etiladi. O'quvchilar guruhlariga bo'linib, to'g'ri to'rtburchak shaklidagi binolar maketlarini yaratadilar. Har bir guruh o'z binosining uzunligi va kengligini o'lchab, uning yuzi va perimetrini hisoblaydi. Maketlarni yaratishda turli materiallardan foydalanish (karton, plastmassa va h.k.) va ularning mustahkamligini tahlil qilish. Har bir guruh o'z binosining chizmalarini tayyorlaydi va ularni sinfda taqdim etadi. Bu amallarni bajarish uchun biz darslikdagi misollardan foydalanishimiz mumkin.



1. Ko'rgazmada bir rassomning ishlari namoyish qilindi. Rasmlarga qarab, qaysi kubga ko'proq sim ketganini aniqlay olasizmi?



2.O'lchov birliklari va ularni qo'llash: Faqatgina uzunlik va massani o'lchash emas, real loyihalar ustida ishlash. Og'irlik o'lchov birliklari mavzusida o'quvchilar fan va texnologiya bilan bog'liq tajriba o'tkazadilar, tijorat va iqtisodiyot bilan bog'laydilar. O'quvchilar turli meva va sabzavotlarning og'irligini tarozida o'lchaydilar va natijalarni, narxini yozib oladilar. Olingan ma'lumotlar asosida jadval tuzadilar, mevava sabzavotlarning o'rtacha og'irligini, narxini hisoblaydilar. Natijalarni diagramma ko'rinishida tasvirlab, qaysi meva, yoki sabzavot eng og'ir yoki eng yengil ekanligini tahlil qiladilar va qancha summada sotilishi mumkinligini aniqlaydilar. Biologiya yoki kimyo bilan bog'lab, turli materiallarning og'irligini yoki hajmini ham o'lchaydilar. Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun bizga 3-sinf matematika darsligidagi quyidagi masala yordam beradi:



3.Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish:O'quvchilar real hayotda foydalaniladigan ma'lumotlar bilan ishlaydi. Statistik ma'lumotlar mavzusida o'quvchilar texnologiya va matematikani birlashtirgan holda loyiha bajaradilar. O'quvchilar sinfdagi do'stlarining sevimli mevalari haqida so'rovnomani o'tkazadilar va natijalarni yig'adilar. Olingan ma'lumotlarni Excel dasturida kiritib, ustunli diagramma yaratadilar. Diagramma orqali qaysi meva eng mashhur ekanligini aniqlaydilar va natijalarni sinfda muhokama qiladilar. O'quvchilarga oddiy Excel jadvallaridan va diagrammalardan foydalanishni o'rgatish, dasturlashga qadam tashlash.

4.Raqamli texnologiyalarni qo'llash: LEGO, Arduino, Scratch kabi texnologiyalarni matematika darslarida qo'llash o'quvchilarning dasturlash va muhandislikka bo'lgan qiziqishini oshiradi. Scratch dasturida o'quvchilar ikki sonni qo'shadigan dastur yaratib, uni turli qiymatlar bilan sinab ko'rishlari mumkin. "Sonlar va hisob-kitob jarayonlari" mavzusida o'quvchilar LEGO WeDo yoki Arduino bilan ishlash orqali oddiy hisob-kitob jarayonlarini avtomatlashtirishadi. Scratch dasturida raqamlar yig'indisini hisoblaydigan kod yozishadi. O'quvchilar algoritmik fikrlash va avtomatlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Dasturlash va matematika o'rtasidagi bog'liqlikni tushunadilar.

Xulosa. 3-sinf matematika darslarida STEAM yondashuvini qo'llash orqali o'quvchilarda nafaqat matematik tushunchalar chuqurroq o'zlashtiriladi, balki ularning ijodiy fikrlashi, muammoni hal qilish ko'nikmalari va real hayotga bog'liq bilimlari ham rivojlanadi. Amaliy topshiriqlar, loyihaviy ta'lim, raqamli texnologiyalar hamda tajribalarga asoslangan darslar o'quvchilarni fanlararo integratsiyaga tayyorlaydi va ularni faol ishtirokchi sifatida o'qitish imkonini yaratadi. Mavjud 2023-yil darsliklari asosida tahlil qilingan mavzularda (geometriya, o'lchov birliklari, statistik ma'lumotlar va boshqalar) STEAM yondashuvi orqali o'quvchilarga turli sohalar – fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika–o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatish mumkin. Bu yondashuv orqali darslar an'anaviy shakldan chiqib, o'quvchining faol, o'rganuvchi va kashf qiluvchi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu asosda, boshlang'ich sinflarda, xususan 3-sinflarda STEAM asosidagi ta'limni tizimli joriy etish zaruriyati dolzarb bo'lib, bu yo'nalish bo'yicha o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar va o'quv dasturlarini ishlab chiqish taklif etiladi. STEAM yondashuvi asosida dars o'tish 3-sinf o'quvchilarining matematikaga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi, fanlararo fikrlashni shakllantiradi va hayotga tatbiq etiladigan bilimlarni o'zlashtirishga xizmat qiladi. An'anaviy yodlash usullari o'rniga, bu model o'quvchini markazga qo'yib, uni faol ishtirokchi, mustaqil

tadqiqotchi va ijodkor sifatida shakllantirishga yo'naltiradi. Ayniqsa, loyihaviy faoliyat, tajriba asosidagi darslar va texnologik vositalar (Scratch, LEGO, Arduino) orqali o'rgatish bolalarning tafakkurini kengaytiradi. 2023-yilda nashr etilgan 3-sinf matematika darsligi mazmunan zamonaviy yondashuvlarga mos kelishi bilan birga, STEAM asosidagi integratsiyalangan darslar uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Biroq, bu yondashuvni samarali amalga oshirish uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish, metodik qo'llanmalarni yaratish va darsliklarda STEAM loyihalari uchun alohida bo'limlar ajratish maqsadga muvofiqdir. Shu bois, boshlang'ich ta'limda, ayniqsa 3-sinfda, STEAM asosidagi innovatsion yondashuvlarni joriy etish nafaqat o'quvchilar bilimini chuqurlashtiradi, balki ularni kelajakda raqobatbardosh, texnologik fikrlaydigan shaxslar sifatida shakllantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda PQ-4884-son -Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi Qarori.
2. Karima Qosimova, Safo Matjonov "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent "NOSIR" nashr 2009.
3. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma. Toshkent: Sharq, 2019.
4. I.V.Repyova. Matematika: 3-sinf uchun darslik.-Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023.
5. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». 2023 y
6. Davletshin M.G., Sh.Do'stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To'ychiyeva "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya" o'quv metodik qo'llanma. T.: 2004. 118 b.
7. Давыдов Э. Психологическая теория учебной деятельности и методов начального обучения, основанных на содержательном обобщении. Томск, 1992; 145 страниц
8. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. "O'zbekiston maktablarida STEAM ta'limini rivojlantirish bo'yicha strategic yo'nalishlar". (2021).
9. Bybee, R. W. *The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities*. National Science Teachers Association. (2013).
10. Yakman, G. *STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education*. (2008).

MUAMMOLI TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANIB TO'PLAMLAR VA ULAR USTIDA AMALLAR MAVZUSINI TASHKIL ETISH.

*Mamatoxunova Yulduzxon Abduraimjon qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Oliy ta'lim muassalarida matematika fanini o'qitishda ma'ruza mashg'ulotlarini qiziqarli, sifatli darajada tashkil etish, talabalar olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olishi, bugungi kunda ta'limning dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy o'qitish metodlaridan biri Case-Study yoritilib, undan foydalangan holda, to'plamlarning birlashmasi elementlarini sonini topishda hayotiy masalani muammo sifatida qo'yilib, mini-case lar orqali teorema va yechimlarni olish keltirilgan.

Kalit so'zlar: Case-Study, muammoli ta'lim metodlari, to'plam, elementlar soni, to'plamlar birlashmasi, to'plamlar kesishmasi, to'plamlar ayirmasi, diagramma.

ОРГАНИЗАЦИЯ ТЕМЫ «МНОЖЕСТВА И ДЕЙСТВИЯ НАД НИМИ» С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. Сегодня одной из актуальных задач образования является организация интересных и качественных лекций по преподаванию математики в высших учебных заведениях, формирование у студентов навыков применения полученных знаний на практике. В данной статье описан один из современных методов обучения - Case-Study, с

помощью которого реальная задача нахождения числа элементов объединения множеств ставится как проблемная задача, а теоремы и решения излагаются через мини-кейсы.

Ключевые слова: Case-Study, проблемные методы обучения, множество, число элементов, объединение множеств, пересечение множеств, разность множеств. диаграмма.

ORGANIZING THE TOPIC OF SETS AND OPERATIONS ON THEM USING PROBLEM-BASED LEARNING METHODS

Annotation. Today, one of the urgent tasks of education is to organize interesting and high-quality lectures on the teaching of mathematics in higher educational institutions, and to form students' skills in applying the acquired knowledge in practice. This article describes one of the modern teaching methods - Case-Study, with the help of which the real problem of finding the number of elements of the union of sets is set as a problem, and theorems and solutions are presented through mini-cases.

Key words: Case-Study, problem-based teaching methods, set, number of elements, union of sets, intersection of sets, difference of sets. diagram.

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarida matematikaning fundamental fanlarini dasturiy didaktik majmualar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kontekstli masalalar, muammoli masalalar, katta, o'rta va kichik modulli texnologiyalar asosida loyihalash va kompyuterning matematik dasturlari yordamida o'qitish metodikalari bo'yicha yurtimiz va xorijda bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Yurtimizda J.B Ergashev, N.M. Muxitdinova, S. Xoliqov mustaqil davlatlar hamdo'stligi bo'yicha M.V.Shurkova, Yu.A.Semenyachenko, O.I.Chiranova, M.A.Pavlova, I.V. Kuzneseva, J.I. Zayseva, N.V. Sichyeva, N.A. Demchenkova, T. S. Mamontova, M.L.Nuriyeva Xorijda esa Joys J. Asing-Keshman, Iman Mohammad Alghazo, M. Madalena, Chris Sangwin, James H. Clay, Anthony Fong, Karina Jaquet, Neal Finkelsteinlar va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'limning har bir bosqichida o'z samarasini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, oliy o'quv yurtlarida bo'lajak kadrlarni tarbiyalash boshlang'ich va o'rta ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo'layotgan o'zgarishlar talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifatiga yangi yondashuvlarni talab qiladi[1-3]. Kognitiv mustaqillikni rivojlantirish, uni tashkil etish vositalari kabi har doim muammoli bo'lib kelgan[4-9].

Ko'plab tadqiqotchilar yo'nalishlari va fan nuqtai nazaridan o'z izlanishlari davomida muammoli ta'lim metodlaridan samarali foydalanilib, buning ta'lim sifatidagi ahamiyati jarayonlarda yoritilib berilgan. Muammoli ta'lim metodlaridan biri Case-Study shular jumlasidandir. "Case"-inglizcha so'zdan olingan bo'lib, turli hujjatlar saqlanadigan jamadon ma'nosini bildiradi. "Study"- fan, bilim, o'rganmoq, hal qilmoq ma'nolarini bildiradi [10]. Aynan shu usuldan foydalanib darsni tashkil etish ketma-ketligini bayon qilamiz. An'anaviy o'quv amaliyotida o'qituvchi biladi, talabalar esa muammoni yechishni o'rganayotgan teng huquqli hamkor sifatida chiqadilar [11]. Mazkur metod talabalarga muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish va bilimlarni mustahkamlash, mustaqil ishlash, mustaqil qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini takomillashtirishi bilan samarali hisoblanadi.

"Case" - bu biror jarayondagi qandaydir aniq, real vaziyatning yozma tavsifidir. Undan foydalanish mobaynida talabalardan vaziyatni tahlil qilish, muammoning mohiyatini ko'rib chiqish, mumkin bo'lgan variantlarni taklif etish va ulardan eng maqbulini tanlash so'raladi. Bu usulning diqqat markazida axborot olish turadi. Shuning uchun talabalarni mustaqil axborot izlash orqali, tizimli ravishda muammoning yechimiga olib kelinadi[12].


Pedagogika institutlari "Fizika" ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga "Chiziqli algebra" fani birinchi bosqichda o'tiladi. Tadqiqot doirasida biz kuzatgan mashg'ulotlar davomida talabalar fanidan to'plamlar ustida bajariladigan amallarga doir topshiriqlarni osonlik bilan hal qildilar, biroq teoremlarni isbotlashda, formulalarni keltirib chiqarishda, ta'riflar va tushunchalarni bir-biriga bog'lashda bir qancha muammolarga duch keldilar.

Ma'ruza mashg'ulotini tashkil etishni Case lar orqali, bosqichma-bosqich keltiramiz. Bunda avval to'plamlar mavzusiga doir hayotiy bir masala muammo sifatida doskada keltiriladi. Talabalardan masalani yechish bo'yicha fikrlar tinglanadi va mavzu boshlanadi.


Dastlab talabalarga avvalgi bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash uchun mini case taqdim etamiz. Talabalar case ni yechib bo'lganidan keyin, ularga kesishmaydigan ikkita A va B to'plam elementlar sonini topish vazifasini beramiz.

Ma'lumki, kesishmaydigan A va B chekli to'plamlarning birlashmasidagi elementlar soni A va B to'plamlar elementlari sonlarning yig'indisiga teng (1-rasm):

$$n(A \cup B) = n(A) + n(B).$$



1-rasm



2-rasm.

1-teorema. Agar ixtiyoriy A va B chekli to'plamlar uchun ushbu tenglik o'rinli:

$$n(A \cup B) = n(A) + n(B) - n(A \cap B) \quad (1)$$

Isbot. Agar $A \cap B = \emptyset$ bo'lsa, $n(A \cap B) = 0$ bo'lib, $n(A \cup B) = n(A) + n(B)$ ifoda o'rinli bo'ladi. Agar $A \cap B \neq \emptyset$ bo'lsa, u holda $A \cup B$ to'plamni uchta juft-jufti bilan kesishmaydigan to'plamlarning birlashmasi ko'rinishida tasvirlash mumkin.

$$A \cup B = (A \setminus (A \cap B)) \cup (B \setminus (A \cap B)) \cup (A \cap B) \quad (2)$$

$(A \setminus (A \cap B))$, $(B \setminus (A \cap B))$ va $(A \cap B)$ to'plamlardagi elementlari soni mos ravishda $n(A) - n(A \cap B)$, $n(B) - n(A \cap B)$, $n(A \cap B)$ ga teng.

Jamlash qoidasiga ko'ra, (2) tenglikdan

$$\begin{aligned} n(A \cup B) &= (n(A) - n(A \cap B)) + (n(B) - n(A \cap B)) + n(A \cap B) = \\ &= n(A) + n(B) - n(A \cap B), \end{aligned}$$

ya'ni (1) tenglikni hosil bo'ladi.

Talabalar hayotiy masalani olgan bilimlarini mustahkamlab, tasavvur qilgan holda yechimini topishdi. Dars jarayonini mustahkamlash uchun tengdoshlar uchun ko'rsatma metodidan foydalaniladi. Uyga vazifa qilib yangi mavzuni o'zlashtirish berilib, unga doir video dars va elektron kitoblar taqdim etiladi.

Xulosa: Muammoli ta'lim metodlaridan foydalanib ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etish, dars jarayonlarini samarali va sifatli tashkil etishga, talabalarining faolligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda, talabalarining bilim va ko'nikmalarini hamkorlikda qo'llash, taklif qilingan yechimlarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni izlash ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. С. А. Володина, С.П. Филиппов Мотивационная готовность студентов к освоению педагогической деятельности/ Проблема современного образования. № 1-2021
2. Высшее образование в немецкой и русской традициях: колл. моногр. / М. В. Богуславский, Е. В. Неборский, В. В. Неборская [и др.]; под общ. ред. М. В. Богуславского. Ижевск: Ин-т компьютерных исследований, 2016. 272 с.
3. Володина С. А. Мотивация обучения современных студентов педагогического вуза // Преподаватель XXI век. 2014. № 4. С. 68–72
4. Развитие познавательной самостоятельности учащихся 5–9 классов при изучении математики на основе учеб+ных задач. Д. Н. Камалова, В. А. Соломенникова
5. Махмутов М. И. Организация проблемного обучения в школе. Книга для учителей. М.: Просвещение, 1977. 340 с.
6. Скаткин М. Н. В творческом поиске // Педагогический поиск / сост. И. Н. Баженова. 2-е изд., с испр. и доп. М.: Педагогика, 1990. С. 3–8.
7. Лернер И. Я. Критерии уровней познавательной самостоятельности учащихся // Новые исследования в педагогических науках. 1971. № 4. С. 34–39.
8. Пидкасистый П. И. Самостоятельная деятельность учащихся. М.: Педагогика, 1980. 240 с.

9. Краткий словарь современной педагогики / под ред. Л. Н. Юмсуновой. Улан-Удэ: Изд-во Бурятского госун-та, 2001. 100 с.

10. Козина И. "Case-study" некоторые методические проблемы. Рубеж, 1997

11. Abduqodirov A.A., Astonova F.A., "Case-study uslubi, nazariyasi, amaliyot va tajriba. "Tafakkur qanoti" 2012, 134-b.

12. Abduqodirova F., Abduqodirov A.A., Keys texnologiyasi va undan matematika darslarida foydalanish metodikasi. Yosh matematiklarning yangi teoremlari-2013 respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA NUTQIY SAVODXONLIK TADQIQI TAHLILI

Sharofova Nilufar Ilhom qizi

*Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
+99893 477 13 31 sharofova_nilufar@buxdpi.uz*

Annotatsiya. Nutqiy savodxonlik har bir soha vakillarining egallashi lozim bo'lgan qobiliyatdir. Kichik maktab yoshidan boshlab o'quvchilarni chiroyli, ifodali, mazmunli so'zlashga o'rgatish, ularning bosqichma- bosqich nutq malakalarini shakllantirish va turli mashqlar tizimini ishlab chiqish pedagoglar oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Kalit so'zlar: nutq, notiqlik, talaffuz, tovush, boshlang'ich sinf, qobiliyat

ANALYSIS OF ORAL LITERACY RESEARCH IN PRIMARY GRADES

Abstract. Speaking literacy is a skill that representatives of every field should acquire. Teaching students to speak beautifully, expressively, meaningfully, gradually forming their speech skills and developing system of various exercises are among the important tasks faced by pedagogues

Key words: speech, oratory, pronunciation, sound, elementary class, ability

АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАНИЙ УСТНОЙ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация Устная грамотность- это навык который должны приобрести представители каждой сферы деятельности. Научить учащихся говорить красиво, выразительно, осмысленно, постепенно формируя их речевые навыки и разрабатывая систему различных упражнений, входят в число важных задач, стоящих перед педагогами.

Ключевые слова речь, ораторское искусство, произношение, звук, элементарность, способность

So'nggi paytlarda Respublikamizda ta'lim va tarbiyaga har doimgidan ham yuqori e'tibor qaratib kelinyaptiki, biz buni yoshlarimizning nafaqat O'zbekiston maydonida balki, jahon sahnalarida erishayotgan muvaffaqiyatlaridan ham anglasak bo'ladi. Barcha sohalar singari ta'limni isloh qilish, bugungi kun va kelajak uchun yurtimizda har bir sohada eng yetuk kadrlarni yetishtirish, taqdirimizning ishonchli qo'llarda ekanligiga amin bo'lishimiz uchun yoshlarimizni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan qurollantirishimiz zarurdir.

Nutq- tafakkur va tilning mahsuli. Biz so'zlashuv jarayonida dastlab fikrlarimizni tafakkur orqali shakllantirib, so'ngra til vositasida uni tinglovchiga yetkazamiz. Til umumiylikka, nutq esa xususiylikka ega. Har kim dunyoqarashidan kelib chiqib o'z nutqini shakllantiradi. Nutqning mukammal bo'lishida esa bilim yetakchi o'rinda turadi.

Qadimdan yosh avlod ma'naviy-ma'rifiy kamolotida nutq madaniyatiga alohida ahamiyat berilgan. Kaykovusning «Qobusnoma» sida shunday deyiladi: "... Ey farzand, so'zning yuzin va orqasin bilg'il va ularga rioya qilg'il, har ne so'z desang yuzi bila degil, to suxango'y bo'lg'aysan. Agar so'z aytib, so'zning nechuk ekanin bilmasang, qushga o'xsharsankim, unga to'ti derlar, ul doim so'zlar, ammo so'zning ma'nosin bilmas... ..So'zni bag'oyat ulug' bilg'il, so'z osmondin kelmas va ul xor narsa emasdir. Qay bir so'zniki bilsang, joyini o'tkazmay aytkil, vaqtni zoye qilmagil, yo'q ersa donishga sitam qilg'on bo'lg'aysan. Har so'z desang, rost degil va bema'nilikni da'vo qilguvchi bo'lmag'il".

Sh. Sariyev o'zining "Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish metodikasi" nomli monografiyasida shunday deydi: "Nutq o'stirish - shaxs tomonidan

og'zaki va yozma badiiy til me'yorlari: to'g'ri talaffuz, urg'u, grammatika, so'zlami to'g'ri qo'llash qoidalarini o'zlashtirish orqali unda tilning badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalangan holda ravon so'zlash malakalarini rivojlantirishni ifodalovchi pedagogik jarayon". Nutq doimiy ravishda rivojlanib boradigan jarayon va tilimizga kirib keladigan har qanday yangi so'zlar, olinma so'zlar uning zamonaviyligini, rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Albatta, har bir so'zni nutqda o'rinli qo'llash, pauza, urg'ularga e'tibor berish uning sifatini oshiradi, atrofda gilarda hurmat ishonch tuyg'ularini shakllantiradi

Nutqni rivojlantirishga oid yurtimizda ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilyaptiki, bulardan ko'zlangan asl maqsad - jamiyatda nutqiy barqarorlikka erishish, yoshlarning o'z fikr, dunyoqarashlarini ifodali, chiroyli qilib ommaga taqdim etishlariga ko'maklashishdan iboratdir. Nutq va uni rivojlantirish izlanuvchilarning doimiy diqqat markazidagi mavzulardan sanaladi. Negaki, biz qaysi sohada faoliyat yuritmaylik, bir-birimiz bilan muloqot qilamiz, fikr almashamiz va albatta hamma soha so'zlashuvga asoslanib, kommunikativ munosabatlarni taqozo qiladi. Ko'rinib turibdiki, kommunikatsion munosabatlarning asosiy manbai bu – nutqdir. Tadqiqotchi Qosimova N. A o'zining nomzodlik dissertatsiyani ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilar nutqini so'z ma'nodoshlari bilan boyitishga qaratdi. *"Ona tili ta'limining samaradorligi mustaqil turmushga qadam qo'yayotgan yoshlarning nutqiy taraqqiyot darajasi bilan baholanadi. Zero, nutqiy faoliyatga tayyor bo'lmagan shaxsni mustaqil hayotga tayyor deb bo'lmaydi"*, deydi olima.

Ayniqsa, Qosimova N. A umumta'lim maktablarida yuqori saviyadagi rivojlangan og'zaki va yozma nutq o'z- o'zidan paydo bo'lib qolmasligini, o'quvchilarning so'z zaxirasini muttasil oshirib borish va so'zning ma'nodoshlari (qiymatdoshlari, vazifadoshlari) dan nutqiy faoliyat jarayonida unumli foydalanish lozimligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi o'quvchilar nutqini sinonimlar bilan boyitish bo'yicha Respublikamizda qator ishlar olib borilganligini ta'kidlab, yirik metodistlardan A.G'ulomov, Q. Qosimova, R. Abdulahatova, G'. Azizov, R. Qosimova, M. Abduraxmonov, T. Ziyodovalarning ilmiy tadqiqot ishlari bu borada ancha samarali natijalar ko'rsatganligi haqida aytib o'tadi. G. Azizovning nomzodlik dissertatsiyada sinonim so'zlar ustida ishlashning samarali yo'llari, vosita va usullari haqida fikr yuritilgani ammo, tadqiqotchi sinonim so'zlar ustida ishlashni faqat "leksika" bo'limi doirasida chegaralaganligi ta'kidlaydi va o'z tadqiqot ishini "Fonetika", "Leksika", "Morfologiya" bo'limlarini o'qitish jarayonida o'quvchilar nutqini so'z ma'nodoshlari bilan boyitish va ulardan samarali foydalanishni maqsad qiladi. Nutq jarayonida so'zning qiymatdoshi, nutqiy ekvivalenti sifatida nafaqat uning sinonimlari balki, ko'chma ma'noda qo'llaniladigan boshqa so'zlar, so'z birikmalari, iboralar, tasviriy ifodalar, kengaytirilgan birikmalar, olmoshlar va hattoki ravishlar ham keng qo'llanilishini va shu sabab tadqiqot mavzusini so'z ma'nodoshlari bilan nutqni rivojlantirishga qaratganini izohlab o'tadi.

Tadqiqotchi olima Hamdamova M.Z ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishga oid o'z ilmiy loyihasini ishlab chiqarkan, 1-2- sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishning samarali usullarini qidirish va ularni amaliyotga tadbiiq qilishga kirishdi. Olima nutq madaniyati rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan ma'rifatparvar ajdodlarimiz va ularning boy ma'naviy merosi xususida to'xtalib, o'quvchilar nutqini rivojlantirishga oid qator tadqiqotchi olimlarning ilmiy izlanishlari haqida fikr yiritadi. *Og'zaki nutqda nuqsonlarning mavjudligi nafaqat boshlang'ich sinf balki, oily ta'lim muassasasi talabalarida ham uchraydigan muammo va bu muammoning asl sababi ona tili boshlang'ich kursini o'rganishdagi imkoniyatlardan samarali foydalanilmaganligidir* deydi, Hamdamova M.Z. Ushbu kamchiliklarning oldini olish maqsadida tadqiqotchi boshlang'ich sinfning 1-2-sinf o'quvchilarini og'zaki va yozma nutqni o'stirishning mantiqiy va ilmiy tizimini ishlab chiqish, ona tili va o'qish darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq mahorati malakalarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan tizimni vujudga keltirishni ilmiy ish maqsadi sifatida belgiladi. *Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biridir* deydi olima. *Har bir o'quvchi uchun maktabda muvaffaqiyatli ilm olish quroli bu –nutq* deya so'zini davom ettiradi. Dastlab o'quvchi nutqi "Alifbe" darsligi asosida rivojlantiriladi. Yangi o'zbek alifbosi asosida yaratilgan darslik (O.Sharafiddinov, Q. Abdullayeva va boshqalar) asosiy 3 qismdan iborat bo'ladi:

-tovush va harf saboqlari

-talaffuz va imlo saboqlari
-ifoda va insho saboqlari

Ushbu bosqichlar bir- birini to'ldirib, bir- birini taqazo qiladiki, bosqichma - bosqich jarayon nazarotga olinsa, nutqiy savodxonlikda yuqori natijalarga erishish muqarrar.

Masharipova Umida Abduvohidovna nomzodlik ishida innovatsion sharoitda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish borasida tadqiqot olib bordi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish mezonlari(muloqot vaziyatlariga mos gap qurilmalaridan foydalana olish, lingvistik kompetensiya elementlarining shakllanganligi, ta'lim motivatsiyasining yuqori darajasi, o'zini o'zi baholash) ta'lim shakllarini integratsiyalash asosida takomillashtirish;

Ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy faoliyati tilning kommunikativ, ekspressiv va estetik funksiyalariga ustuvorlik berish asosida rivojlantirish;

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirishning tashkiliy tuzilmasi komponentlarini integratsiyalash asosida multimediali elektron axborot resurslarni yaratish boyicha tavsiyalar ishlab chiqdi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shdi. Tadqiqotchi boshlang'ich sinflarda nutqni takomillashtirish doimiy dolzarb mavzu sifatida qaralishini va nutq to'g'riligi ustida ishlash boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini takomillashtirish o'qituvchining o'quv- uslubiy faoliyatidagi asosiy yo'nalish bo'lishini ta'kidlaydi. U nutq madaniyatining uzoq o'tmishga egaligini ta'kidlab, Farobiyning quyidagi fikrlarini keltirib o'tadi: " Qanday qilib ta'lim berish va olish, fikrni qanday ifodlash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berishga kelganimizda bu haqidagi bilimlarning eng birinchisi jismlarga, ya'ni substansiyava aksedentsiyalarifga ism beruvchi til haqidagi ilmdir deb tasdiqlayman. Ikkinchisi grammatikadir va keyingisi logika". Nutqning inson hayotida muhim ahamiyat kasb etishini Kaykovusning "Qobusnoma" asarida keltirilgan fikrlari orqali keltirib o'tadi: "... xalq oldida gapirganda so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening so'zing bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so'z orqali biladilar, ...har kishining ahvoli o'z so'zi ostida yashiringan bo'ladi".

Mavzuga oid adabiyotlarni o'rganish davomida qator qo'llanmalarni tahlil qilib, nutqning kishilik jamiyatidagi orni va davlat ishlarini boshqarishda notiqlikning o'rni benihoya katta ekanligiga guvoh bo'ldik. Ayniqsa, sud- huquq tizimida notiqlikning alohida o'rni bo'lganligi, tomonlarning manfaatlari ayni paytda nutqiy savodxonligi yuqori bo'lgan kishi foydasiga hal bo'lishi kuzatilganligini ko'plab adabiyotlarda uchratishimiz mumkin. Ayni nutqning madaniyat darajasida rivoj topishida, notiqlik san'atining yuksalishidagi Aristotel, Sitseron, Demosfen, Lisiy, Gorgiylarning xizmatlari yuqori ekanligiga amin bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hamidova M. O "Notiqlik san'ati" (O'quv qo'llanma) Namangan -2023
2. Bekmirzayev N "Notiqlik san'ati asoslari" (O'quv qo'llanma) Toshkent- "Yangi nashr"-2008
3. M.I.Israil, L.I.Tashmuhamedova "Notiqlik san'ati" Toshkent. "Noshir" 2019
4. Qosimova N. A " Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilar nutqini so'z ma'nodoshlari bilan boyitish". Dissertatsiya. Toshkent -1998
5. Hamdamova M.Z "1-2-sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish tizimi". Dissertatsiya Toshkent- 1998.
6. Masharipova U. A " Innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi". Dissertatsiya. Toshkent-2018
7. Kaykovus "Qobusnoma" -Toshkent -Yangi asr avlodi, 2016, 224 bet

BOSHLANG'ICH SINFLARDA YANGI DARSLIKЛАRNI O'QITISHNING INNOVATSION USUL VA VOSITALARI

*Barotova Feruza Bahrilloyevna
Buxoro davlat Pedagogika instituti magistranti*

Annotatsiya: Bugungi kun darsliklari tuzilishiga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, ularning keng mazmun va mohiyatga ega ekanligining guvohi bo'lamiz. Ushbu maqolada yangi darsliklarni o'qitishning innovatsion usul va vositalari yoritilgan. Yangi avlod boshlang'ich sinf darsliklari o'quvchilarga bilimlarni zamonaviy yondashuvlar va metodlardan foydalangan holda taqdim etishi bilan ajralib turib, keng pedagogik imkoniyatlarga ega. Bu darsliklar o'quvchilarni nafaqat ijodiy, tanqidiy fikrlashga o'rgatadi, balki har bir masala, muammoga atroflicha yondashish ko'nikmasini shakllantirishi bilan real hayotga tayyorlaydi. Darsliklardan o'rin olgan topshiriqlar va mavzularning boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holatda berilishi o'quvchilarni ushbu fanlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Shuning uchun, ushbu yangi darsliklarni o'qitish har jihatdan o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Kalit so'zlar: 4K modeli, innovatsiya, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, muammoli ta'lim, darslik, dastur, integratsiya, didaktika, pedagogika, interfaol metod, mashq daftari, tabiiy fanlar.

Kirish. Joriy yilda boshlang'ich sinflar uchun yangi darsliklarning yaratilgani o'quvchilar va o'qituvchilar uchun ko'plab qulayliklarni yaratdi. Darsliklar "4K" modeli asosida yaratildi. Maktabga endigina qadam qo'ygan bolalarga yangi darsliklar tayyorlashda "4K" modelidan foydalanish ko'plab sinovlardan o'tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. Biz avvallari bolalarning yozuviga ko'proq e'tibor qaratganmiz, diktantlar yozdirganmiz. Yangi tajriba bilan esa bolalarning tanqidiy fikrlashi, o'z fikrini erkin bayon eta olishiga ko'proq ahamiyat beriladi. Boshlang'ich sinflar uchun ushbu yangi darsliklar o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, nafaqat bilim, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Ma'lumki, xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq, ilg'or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari "4k" modeli asosida yangidan tayyorlandi. "4K" modelidan foydalanish ko'plab sinovlardan o'tdi. Ushbu zamonaviy yondashuv Singapur, Xitoy, Angliya, Finlyandiya, Estoniya kabi ilg'or ta'limga ega mamlakatlarda muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Shuningdek, PISA va PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan mamlakatlar ta'lim sohasida "4K" modeli o'z ichiga olgan kommunikatsiya, tadqiqot, kreativlik kabi ko'nikmalarga alohida e'tibor qaratilmoqda va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda yuksak natijalarga erishmoqda.[2]

Asosiy qism. Boshlang'ich sinflarda yangi darsliklarni o'qitishda innovatsion usul va vositalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Quyida bu borada qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy innovatsion yondashuvlar, usullar va vositalarni keltirsak:

1. Interfaol o'qitish metodlari

"Aqliy hujum"- Yangi mavzuga oid g'oyalarni birgalikda topish. O'quvchi darsliklarda berilgan savollarga partadoshi bilan suhbatlashish orqali javob topishi talab etiladi. Bu esa hamkorlikda ishlash ko'nikmasini bolada shakllantiradi. Bunday innovatsion usul darsliklardan yetarlicha o'rin olgan. Masalan, ona tili darsliklarida har bir bo'limning boshlanishida matn yoki rasm keltiriladi va shu yuzasidan o'quvchiga tezkor savollar beriladi. Undan tashqari, yangi mavzu bilan tanishish oldidan unga tag zamin tayyorlash ham darsliklarda yetarlicha. Masalan, "unli tovushlar va harflar" mavzusi bilan tanishtirishdan oldin quyidagi tezkor savol berilgan: **Mehmon** so'zida nechta unli tovush bor?

Quyida ona tili darsligidan "Aqliy hujum" metodidan namuna keltirilgan:



1.1-rasm. 2-sinf I qism ona tili darsligi, 16-17- betlar.

Yangi avlod boshlang'ich sinf darsliklari o'quvchilarga bilimlarni zamonaviy yondashuvlar va metodlardan foydalangan holda taqdim etishi bilan ajralib turib, keng pedagogik imkoniyatlarga ega. Bu darsliklar o'quvchilarni nafaqat ijodiy, tanqidiy fikrlashga o'rgatadi, balki har bir masala, muammoga atroflicha yondashish ko'nikmasini shakllantirishi bilan real hayotga tayyorlaydi. Darsliklardan o'rin olgan topshiriqlar va mavzularning boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holatda berilishi o'quvchilarni ushbu fanlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Shuningdek, ayrim topshiriqlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini, diqqatini rivojlantiradi. Quyidagi topshiriq o'quvchilarda gap ustida ishlashga o'rgatish bilan birga rasm bilan ishlash ko'nikmasini ham hosil qiladi.



1-mashq. Rasmlarga e'tibor bering. Qavslarni ochib, gaplarni to'g'rilab o'qing va ko'chiring.





1.2- rasm. 2-sinf I qism ona tili darsligi, 6-7- betlar.

“Klaster”- Mavzu atrofida asosiy tushunchalarni vizual tarzda jamlash. Asosan, o‘qish savodxonligi, tarbiya darsliklarida bunday innovatsion usulni kuzatish mumkin. Shuningdek, mashq daftarlarida ham mavzu yuzasidan klasterlarni to‘ldirish topshiriqlari juda ko‘p uchraydi.



1.3- rasm. 3-sinf I qism o‘qish savodxonligi darsligi, 6-bet.

“Fikrlar doirasi”- Har bir o‘quvchi fikr bildiradi va bu fikrlar guruhda muhokama qilinadi. Rolli o‘yinlar- Darslikdagi hikoya yoki voqealarni teatr ko‘rinishida ifodalash. O‘qish darsliklarida ertak yoki hikoyalardan so‘ng, rollarga bo‘lib o‘qish, qahramonlarga tegishli gaplarni topish kabi topshiriqlar berilgan.

1. Ot va Bo'rining gaplarini aniqlab, rollarga bo'lib o'qing.

2. Ertakdagi voqealar ketma-ketligini qisqacha yoritib.

3. Xo'roz, qo'zi va otga ta'rif bering. Ularni nima birlashtiradi?

Ushbu gaplar qaysi qahramonga tegishli?

Agar yeydigan bo'lsang, kashnich va piyoz bilan qo'shib yegin. Shunda haqiqiy mazani his qilasan.

Yaxshisi, borib konning tuzidan olib kel, shundan keyin go'shtimni maza qilib yeb, xumordan chiqasan.

Men seni yeyman.

1.4- rasm. 2-sinf III qism o‘qish savodxonligi, "Och bo'ri" ertagi, 9-13 betlar.

Shuningdek, yana bir innovatsion usullardan biri bu - loyiha asosida o'qitish. O'quvchilar mustaqil yoki guruh bilan kichik loyihalar tayyorlab, ularni taqdim etadi. Bu usul:

- mustaqil fikrlashni,
- jamoadi ishlashni,
- tadqiqot qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

2. Integratsiyalashgan yondashuv. Fanlararo bog'liqlikda dars o'tiladi. Masalan: Matematika va atrof-muhit haqida birgalikda topshiriqlar, Ona tili darsida tabiat haqida matnlar tahlili.

1.5- rasm. 3-sinf I qism o'qish savodxonligi darsligi, 62-b.

Ushbu topshiriq darsliklarning o'zaro integratsiyalashuvining namunasidir. Bu orqali o'quvchilarda til o'rganishga qiziqish uyg'onishi bilan birga so'z boyligini oshiradi.

Undan tashqari, darsliklarda ayrim topshiriqlar STEAM yondashuviga asoslangan, ya'ni fan, texnologiya, muhandislik, matematika va san'at elementlarini uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish. Yangi darslikdagi mavzular asosida tuzilgan o'quv o'yinlari orqali bilimni mustahkamlash. Masalan: "Kim tez?", "To'g'rini tanla", "So'z top", "Raqamli domino". Quyidagi topshiriqda o'quvchilar rasmlar orqali bir tovush bilan farqlanayotgan so'zlarni topadilar. Bu esa charxpalak o'yini orqali amalga oshadi.

1.6- rasm. 2-sinf I qism ona tili darsligi, 12-13- betlar.

Demak, yangi avlod darsliklaridan o'rin olgan topshiriqlar o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga, hamkorlikda ishlashga, ijodiy fikrlashga o'rgatadi va ularni fanlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Shuning uchun, ushbu yangi darsliklarni o'qitish har jihatdan o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq desak, mubolag'a bo'lmaydi. Buning uchun o'qituvchi:

- darsni o'quvchilar faol ishtirok etadigan tarzda qurishi,
- har bir bolani shaxs sifatida e'tiborga olishi,
- yangi darslik mazmunini real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashi,
- baholashda reyting, o'zaro baholash, refleksiya elementlarini qo'llashi kerak bo'ladi.

Xulosa. Boshlang'ich sinflarda yangi darsliklarni o'qitishda innovatsion usul va vositalardan foydalanish nafaqat o'quvchilarni darslarni o'zlashtirishida, balki fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga egadir. Dars jarayonlarini innovatsion usullardan, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda samarali tashkillashtirish esa har jihatdan o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Bunday darslarni tashkil qilish uchun esa yangi avlod darsliklarida keng pedagogik imkoniyatlar yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ro'ziyeva Nigora Kamtarovna (2024), Boshlang'ich ta'limda yangi avlod darsliklarida integratsiyaning ahamiyati. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10802434>

1. Tojiyev B.B. (2024), Boshlang'ich sinfo'quvchilarida 4K ko'nikmalarini shakllantirish. ISSN: 2181-4066 DOI Journal 10.56017/2181-4066

2. Umarov B. Educational Development And "Future Skills". The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2021/1, p. 78

3. Madaminova I.R. (2023), Boshlang'ich ta'limda integratsiya. <https://newjournal.org/index.php/01/article/view/9676/9375>

2. Boymurodova Nodirabegim Bahodirqizi (2023), Boshlang'ich ta'limda milliy o'quv dasturi va yangi avlod darsliklarini amalga oshirishning didaktik asoslari. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10974/7093

3. Repyova I.V., Boshlang'ich sinf matematika darsligi 1,2,3,4-sinf, I qism. Toshkent-2023.

4. U.B. Aydarova, N.K. Azizova, O'qish savodxonligi 4-sinf. T-2023.

5. S. Kuranov, Ona tili 2-sinf. Novda nashriyoti, T-2023.

6. <https://kun.uz/news/2023/11/13/ilgor-pedagogik-texnologiyalar-asosida-yaratilgan-oqituvchi-yangi-darsliklar-haqida>.

7. <https://daryo.uz/2023/10/14/yangi-avlod-darsliklari-boshlangich-sinf-darsliklarining-afzalliklari-va-jamoatchilik-etirozlari-haqida-video>.

PEDAGOGIK MAHORATNI SHAKLLANTIRISHDA MASHQ VA TRENINGLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Usanov Faxriddin Ismoil o'g'li
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti*

Annotatsiya. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo'nalishda shakllantirilishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi ta'lim tizimi oldiga dolzarb masalalaridan biri bo'lgan sifatli mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'yadi. Sifatli mutaxassisni tayyorlash esa faqatgina sifatli ta'lim muhitida amalga oshirilishi mumkin. Maqolada ta'lim sifati va uni boshqarishning falsafiy-pedagogik asoslariga mavjud manbalarga tayangan holdato'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion yo'nalish, integrallashuv, ta'lim tizimi, sifatli mutaxassis, sifatli ta'lim, ta'lim sifati.

THE IMPORTANCE OF USING EXERCISES AND TRAINING IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SKILLS

Abstract. The economic and social changes taking place in Uzbekistan, the formation of the economy in an innovative direction, and its integration into the world economy pose one of the urgent tasks for the education system: training quality specialists. Training a quality specialist can only be carried out in a quality educational environment. The article discusses the philosophical and pedagogical foundations of the quality of education and its management based on available sources.

Keywords: innovative direction, integration, education system, quality specialist, quality education, quality of education.

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УПРАЖНЕНИЙ И ТРЕНИРОВОК В ФОРМИРОВАНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ

Аннотация. Экономические и социальные изменения, происходящие в Узбекистане, формирование экономики в инновационном направлении, ее интеграция в мировую экономику ставят перед системой образования одну из актуальных задач: подготовку качественных специалистов. Подготовка качественного специалиста может осуществляться только в качественной образовательной среде. В статье рассматриваются философско-педагогические основы качества образования и его управления на основе доступных источников.

Ключевые слова: инновационное направление, интеграция, система образования, качественный специалист, качественное образование, качество образования.

Milliy mustaqillikni mustahkamlash va rivojlantirish sharoitida respublikamizning ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy - madaniy va ma'naviy hayotida ro'y berayotgan hodisalar, uni jahon hamjihaligiga tezkor kirishini, hamda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyolini shakllantirish borasida olib borayotgan islohotlarni tezlashtirishni talab etmoqda. Buni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri mamlakat mehnatkashlarining, xususan yoshlar ta'lim - tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilarning kasb malakalari va mahoratlarini takomillashtirish ehtiyojini tug'dirdi. Zero, bugungi kunda axborotlar oqimining keskin ko'payishi, rivojlanishi, ilmiy - texnikaviy taraqqiyotning jadallashuviga, mavjud pedagogik - psixologik, metodik, amaliy tayyorgarlikning ma'lum darajada "eskirishi"ga olib keldi va bu o'z navbatida pedagogik mehnat bilan shug'ullanuvchilarning kasbiy mahorati, ijodkorligini rivojlantirishga e'tiborni yanada ko'proq qaratish lozimligini taqozo etdi.

Darhaqiqat, biz hayotda bir xil gurunchdan turli ko'rinish va ta'mdagi palov pishiruvchi oshpazlarni, bir xil undan turli ko'rinish va ta'mga ega bo'lgan non tayyorlaydigan nonvoylarni ko'p uchratamiz. Doimo mazali va shirin taom pishiruvchi oshpaz, mazali va yumshoqqina non pishiruvchi nonvoy mahsulotlarini tanovvul qilishga, kiyimlar tikuvchi ustalarga murojaat etishga intilishimiz ko'pchilikka sir emas. Bu intilishning mazmunida kasb mahorati, mehnat unumdorligi va mohirligi yotadi. Demak, inson faoliyatining ko'lami keng, anglash, tushunish, qo'llay olish malakasi, serqirra va mahoratli inson baxtli ekan, avvalo, uning mohirligini takomillashtirish uchun kasbiy mahoratni tarbiyalashni to'g'ri tashkil etmoq talab qilinadi. Shuningdek, eramizdan oldingi 551 - 479 yillarda yashab o'tgan Xitoy faylasufi va davlat arbobi Konfutsiy ham "Men eshitaman va men esdan chiqaraman. Men ko'raman va men eslab qolaman. Men bajaraman va men tushunaman!!!" deganida, bajarish mahoratini nazarda tutgan edi. Pedagogik nazariya va tajriba ushbu masalaning dolzarbligini yana qo'yidagi holat bilan isbotlaydi: pedagogik izlanish, ta'limiy o'qish, o'qitishning me'yoriy hujjatlari, darsliklar, axborot vositalari, qanchalik mukammallashtirilgan bo'lmasin, pedagogik amaliyot, ta'lim - tarbiya ishlarining muvoffaqiyati oxir oqibatda pedagog shaxsiga, uning kasb - kor mahoratiga bog'liq.

"Pedagogik mahorat" pedagogik - psixologik fanlar tizimida ma'lum mavqega ega. Zero, "Pedagogik mahorat" - bu pedagogik faoliyatni ustalik bilan boshqarish to'g'risidagi fandir. Shunday ekan, o'qituvchi - tarbiyachi pedagogik mahorat egasi bo'lishi uchun pedagogik -

psixologik tayyorgarlikka, ta'lim - tarbiya, ma'lumot tushunchalarining mohiyat - mazmunini teran tushunishga, shaxs psixologiyasi, ya'ni shaxsning biologik shartlangan xususiyatlari (nerv sistemasi, temperament, layoqat, (qobiliyat), xarakterlar), bilish jarayonlari (sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur), emotsional irodaviy xususiyatlar (xissiyot, emotsiya), irodalarni ijtimoiy shartlangan xususiyatlar (ehtijoj, qiziqish)ni, orttirilgan xususiyatlar: bilim, ko'nikma, malaka odatlarini o'rganib borishga harakat qilmog'i lozim.

Shubhasiz, ustoz-murabbiy talabalik guruhida yoqimli ijtimoiylashgan muhitni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. U guruhdagi umumiy ish muhitini, hamkorlik, o'zaro tushunishni yaratishi mumkin. Seminar trening deb nomlanadigan murabbiylik soatini faol shaklda o'tkazish bunga hammasidan ko'ra yaxshiroq ko'maklashadi.

Treningda ishtirokchilarning ma'lumot olish davomida darhol savollar berish, o'z fikrlarini bildirish imkonini beradigan faol pozitsiyasi va ularning shaxsiy tajriba egallashi bilish jarayonining asosi hisoblanadi. Mashg'ulot uzluksiz qiziqarli muloqot, tajriba almashish, yangi kashfiyotlardan roxatlanish sodir bo'ladigan tarzda tashkil etilishi zarur.

Murabbiy boshlovchi sifatida iliq samimiy tarzda harakat qilishi, guruhda ijobiy qaytar aloqani yaratishi va nostandart vaziyatlarga tezda reaksiya qilish qobiliyatini yarata olishi, ishtirokchilarga o'z xulq-atvorini ob'ektiv baholashga yordamlashadigan, xulq-atvorga oid murakkab reaksiyalarni tushuntiradigan sharhlovchi va ekspert bo'lishi zarur.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 'Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 05.09.2018 yildagi PF-5538 Farmoni

2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006, 160 b.

3. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T.: 'Nihol' nashriyoti, 2013, 2016.279b.

MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION TA'LIM TEXNLOGIYALARINING QO'LLANILISHI VA PEDAGOGIK SAMARADORLIGI

*Qobilova Shahrizoda Yorqinjon qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti, 1-kurs Maktabgacha ta'lim magistranti.
E-mail: shaxrizodaqobilova04@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida noan'anaviy shakllarni joriy etishning pedagogik va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda bolaning shaxsiy rivojini ta'minlashda innovatsion yondashuvlarning, xususan o'yin asosidagi mashg'ulotlar, ota-ona hamkorligidagi faoliyat va raqamli texnologiyalarning samaradorligi yoritilgan. O'zbekiston ta'lim tizimi doirasida tajribaviy kuzatuvlar asosida ishlab chiqilgan metodik modellar taqdim etiladi. Shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab, shu bilan birga rangbarangdir. Ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishishda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil qilish lozim. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, va ularning samaradorligi haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, noan'anaviy shakllar, innovatsion ta'lim, o'yin faoliyati, ota-ona hamkorligi, raqamli texnologiyalar, zamonaviy texnologiyalar, pedagogik samaradorlik.

APPLICATION AND PEDAGOGICAL EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATION

Annotation. This article analyzes the pedagogical and practical aspects of implementing non-traditional forms in preschool education. The study highlights the effectiveness of

innovative approaches—particularly play-based activities, parent involvement, and the use of digital tools—in promoting children’s personal development. Methodological models developed based on experimental observations within the education system of Uzbekistan are presented. Also, the pedagogical process aimed at ensuring the comprehensive development of children in preschool educational organizations is complex and at the same time diverse. To achieve educational effectiveness, it is necessary to properly organize each type of activity in preschool educational organizations. This article describes the use of modern technologies in preschool educational organizations and their effectiveness

Keywords: preschool education, non-traditional methods, innovative education, play activity, parental collaboration, digital technology, modern technologies, pedagogical efficiency.

ПРИМЕНЕНИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические и практические аспекты внедрения нетрадиционных форм в систему дошкольного образования. В исследовании освещается эффективность инновационных подходов, таких как игровые занятия, взаимодействие с родителями и использование цифровых технологий, в обеспечении личностного развития ребенка. Представлены методические модели, разработанные на основе экспериментальных наблюдений в условиях образовательной системы Узбекистана. Также педагогический процесс, направленный на обеспечение всестороннего развития детей в дошкольных образовательных организациях, сложен и в то же время многообразен. Для достижения образовательной эффективности необходимо правильно организовать каждый вид деятельности в дошкольных образовательных организациях. В данной статье описывается использование современных технологий в дошкольных образовательных организациях и их эффективность

Ключевые слова: Дошкольное образование, нетрадиционные формы, инновационное обучение, игровая деятельность, родительское сотрудничество, цифровые технологии, современные технологии, педагогическая эффективность.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma’naviy hayot darajasining yuksalishi ta’lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo‘lib, bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta’lim tizimni yaratish ko‘zda tutildi. Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimi isloh qilindi, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim tizimi qayta ko‘rib chiqildi, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning ikki pog‘onali tizimi joriy etildi.

Innovatsion ta’lim texnologiyasi - bu o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta’lim va ta’lim faoliyati uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashni o‘z ichiga olgan o‘quv va ta’lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi. jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi tendentsiyalari. Ta’limdagi innovatsiyalar ta’lim sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo‘lishiga qaratilgan kompleks tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta’lim jarayonini tashkil etishning usul va uslublari, ta’lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalar bo‘lishi mumkin. Innovatsiya yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlarni, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo‘lishi loyihalash ishlarining natijasi bo‘lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar rivojlanadi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo

bo'lishiga olib keladi. Innovatsiyalar ta'lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi. O'quv jarayonida talabalarning nazariy va amaliy bilimlari rivojlanadi, keyinchalik ular amaliy hayotning innovatsiyalar yaratish bilan bog'liq turli sohalarida qo'llanilishi mumkin.

Ta'limda innovatsion texnologiyalar o'qitishda muayyan yondashuvlarni qo'llash asosida qo'llaniladi, ya'ni. yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo'lgan talablar va maqsadlarni o'z ichiga olgan tamoyillar. Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga qat'iy mos kelishiga asoslanadi. Hozirgi vaqtda ular o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, o'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o'quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilishi kerak. Mamlakatimizdagi deyarli barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu esa, o'z navbatida, tarbiyachilarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Ta'lim jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etilishi, tarbiyachini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishiga emas, balki yangicha yondashuv orqali uning vazifasi va rolini o'zgartirib, tarbiyachilik faoliyatini yana-da serqirra, ijodiy va kreativ yondashuvga asoslangan kasbga aylantiradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni bolalar ta'limiy jarayonida qo'llashda avvalo bola kompetensiyalarini shakllantirishning qay birida maqbulligini aniqlash hamda ustuvor jihatlarini hisobga olish kerak. Masalan, mantiqiy o'yinlar va tajribalar ustida ishlash bolaning bilish jarayonida xizmat qilsa, so'z o'yinlari kommunikativlikni oshiradi. Shu bois usullarni saralash va muvofiqlashtirish asosida olib borish zarur.

Innovatsion pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida pedagog faoliyati va bola faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan maktabgacha yoshda o'qituvchining mahorati, uni innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbqiq eta olishi, ta'limning yangiyangi yo'l va usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham bo'lajak maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarini kelgusi faoliyatga tayyorlashda, pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga tayyorlash bugungi ta'limning oldiga qo'yilgan talablardan biridir.

Chunki innovatsion pedagogik texnologiyalar, birinchidan, bolalarni bilim, ko'nikma va malakalarini oson va qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o'qituvchining ham professional o'sishiga, ham ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi. Hozirgi kunda ta'lim mazmuniga alohida e'tibor qaratilib, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanilmoqda. Bolalarni maktabga tayyorlashda ularning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida innovatsion pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. Mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi.

Bola hayotida maktabgacha ta'lim davri muhim o'rin tutadi. Shu bois maktabgacha ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zehni o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bolalarni maktabga tayyorlashda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi.

Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'lanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida

o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi. O'qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi.

Hozirgi davrda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Innovatsion pedagogik texnologiya bolalar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'l va usullarni tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, u haqiqatdan ham ta'lim jarayoni unumdorligini oshiradi, bolalarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, bolalarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ2707-sonli qarori.
2. "Ilk qadam" takomillashtirish o'quv dasturi 2022 yil fevral.
3. Kurbonova, G. (2023). Principles of Gamification of the Educational Process. Academic Integrity and Lifelong Learning (France), 110-112.
4. Kurbonova, G. (2023). Technique for Turning a Lesson into a Game. Academic Integrity and Lifelong Learning (France), 108-109.
5. Курбонова, Г. Р. (2021). Научно-педагогические основы формирования гендерной толерантности в дошкольном образовании.
6. Курбонова, Г. Р. (2021). Научно-педагогические основы формирования гендерной толерантности в дошкольном образовании.
7. Курбонова, Г. (2021). ТОЛЕРАНТЛИК ВА УНИНГ ТУРЛАРИ. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 3), 292-296.
8. Kurbanova, G. (2020). ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГЕНДЕРНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 1(1).

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING DARSDAN TASHQARI VAQTLARDA JISMONIY FAOLLIGINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI VA TALABLARI

*Muradova Zulfiya Kayumovna
QarDU Pedagogika kafedrası dotsenti*

*Nuriddinov Baxtiyor Shovkat o'gli
QarDU Jismoniy tarbiya va sport kafedrası o'qituvchisi
E-mail:nuriddinovbaxtiyor709@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsdan tashqari vaqtlarda jismoniy faolligini samarali rejalashtirishning pedagogik shartlari yoritilgan. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar yoshlarning sog'lom turmush tarzini qaror toptirishi, jismonan ulg'ayishi va faol mashg'ulotlarga qiziqishini oshirishga qanday yordam berishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: jismoniy faollik, boshlang'ich sinf, darsdan tashqari faoliyat, pedagogik shartlar, sog'lom turmush tarzi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ И ТРЕБОВАНИЯ К ОРГАНИЗАЦИИ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ ВО ВНЕУРОЧНОЕ ВРЕМЯ

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические условия эффективного планирования физической активности учащихся начальной школы в учебное и внеурочное время. Особое внимание уделяется тому, как внеклассные занятия помогают

молодым людям усваивать здоровый образ жизни, развиваться физически и повышать интерес к активным видам деятельности.

Ключевые слова: физическая активность, начальная школа, внеклассные занятия, педагогические условия, здоровый образ жизни.

PEDAGOGICAL CONDITIONS AND REQUIREMENTS FOR ORGANIZING PHYSICAL ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS OUTSIDE OF CLASS TIME

Abstract. This article highlights the pedagogical conditions for effective planning of physical activity of primary school students during school and extracurricular hours. It emphasizes how extracurricular activities help young people adopt a healthy lifestyle, develop physically, and increase their interest in active activities.

Keywords: physical activity, primary school, extracurricular activities, pedagogical conditions, healthy lifestyle.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi, sog'lom turmush tarzini ta'minlash zamonaviy tarbiya jarayonining eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bu yoshda bolaning tanasi jadal rivojlanadi, shuning uchun harakat qilish juda muhimdir. Binobarin, ularning darsdan tashqari jismoniy mashg'ulotlarini tashkil etishda o'qitishning muayyan yondashuvi talab etiladi.

Yosh avlodning sog'lom va har tomonlama kamol topishi yuksalishining muhim omillaridan biridir. O'quvchilarning jismoniy va aqliy rivojlanishiga, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida alohida e'tibor berilishi kerak. Ushbu bosqichda bolaning tanasi faol shakllanadi, shuning uchun harakatchanlik juda muhimdir. Bolalarning sinfda ham, darsdan tashqarida ham jismoniy faolligini samarali rejalashtirish va nazorat qilish ularning salomatligini mustahkamlash, faol hayot tarzi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlash uchun zarurdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy faolligi o'quvchilarning sog'lom turmush tarziga intilishini rag'batlantirish va hayot faoliyati sifatini oshirish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari rivojlanishidagi o'rni – bu faqat jismoniy ehtiyoj emas, balki psixologik, emotsional va ijtimoiy rivojlanish omilidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari (7–10 yosh) bolalarda jismoniy faollik jihatlari quyidagicha:

- yurak-qon tomir va nafas olish tizimi;
- harakatlar koordinatsiyasi va chaqqonlik;
- jamoada ishlash malakasi;
- iroda, chidamlilik, o'zini nazorat qilish.

Darsdan tashqari jismoniy faoliyat turlari: O'quvchilar darsdan tashqari mashg'ulotlar orqali jismoniy imkoniyatlarini rivojlantiradilar. Sport to'garaklari (futbol, yengil atletika, gimnastika va boshqalar) shular jumlasidandir.

- o'yinlar;
- sayr qilish;
- ertalab gimnastika;
- dam olish kunlari ochiq havoda mashg'ulotlar.

Tarbiya sharoitlari: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi uchun quyidagi tarbiya talablari bajarilishi zarur:

Yoshga mos yondashuv: faoliyat turi bolaning hozirgi jismoniy va ruhiy holatiga mos kelishi kerak.

Qiziqishga asoslangan faoliyat: Agar siz ularning ishtirok etishga undashlarini istasangiz, bolalarni qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlash muhimdir.

Sog'lom hissiy muhitni o'rnatish: har bir bola o'zini qadrlashi va e'tirof etilishini his qilishi kerak.

Individual yondashuv: Har bir bolaning jismoniy tayyorgarligi va salomatligi inobatga olinadi.

Ota-onalar bilan hamkorlik: Yoshlarni sportga jalb qilishda ota-onalarning faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik talablar. Quyidagi pedagogik talablar jismoniy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun muhimdir:

- mashg'ulotlar muntazam va tizimli o'tkazilishi;
- xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi;
- har bir bolaning faolligini rag'batlantirish.

O'quvchilar orasida sog'lom raqobat va o'zaro hurmat tamoyillarini singdirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining aqliy, ijtimoiy va ma'naviy o'sishi hamda jismoniy sog'lom bo'lishi uning dars davomida va darsdan keyingi vaqtlarda jismoniy faolligi qanchalik to'g'ri rejalashtirilganligiga bog'liq. Bu jarayonda maktabning moddiy-texnik bazasi, ota-onalarning ko'magi, o'qituvchining malakasi katta rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva, M. (2020). Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
2. Xasanov, T. (2021). Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Samarqand.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni (2022-yil 12-yanvar). "Sog'lom avlod – yurt kelajagi" davlat dasturi.
4. Muradova Z.K. Constructions of developing scientific and professional creativity in future teachers. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 2022.
5. Муродова, З. К. Развитие научного и профессионального творчества у будущих учителей. Бюллетень науки и практики, (2021). 7(4), 416-421.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DARSLARNI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL VA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

*Elmurodova Dilnoza Shuhrat qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi
Toshpulatova Mushtariy Xurshid qizi
Soatbayeva Sevinch Zoir qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabalarii*

Annotatsiya: Interfaol--so'zi asosan "O'zaro ta'sir qiluvchi yo'ki bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi" degan ma'noni anglatadi.

Kalit so'z: interfaol metod boshlang'ich sinf zamonaviy.

USING INTERACTIVE AND MODERN METHODS IN ORGANIZING LESSONS IN PRIMARY EDUCATION

Abstract: The word interactive basically means interacting or influencing each other.

Keywords: Interactive method elementary class modern.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ И СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ В ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Аннотация: Слово интерактивный в основном означает «взаимодействующие или влияющие друг на друга».

Ключевые слова: Интерактивный метод начальный класс современный.

Boshlang'ich ta'limda darslarni tashkil etishda interfaol va zamonaviy metodlardan foydalanish juda muhim ahamiyatga ega, chunki bu metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Quyida bu metodlarning qanday ishlashini va ular qanday foydalanilishi mumkinligini tushuntirib o'taman:

1. Interfaol metodlar: Interfaol metodlar o'quvchilarni o'qituvchi bilan faollashgan tarzda muloqot qilishga undaydi. Bu metodlar orqali o'quvchilar bir-birlari bilan o'rganishadi, tajriba almashadilar, muammolarni hal qilishda o'z fikrlarini erkin ifodalashadi.

2. Zamonaviy metodlar: Zamonaviy metodlar texnologiya va yangi pedagogik yondoshuvlarni o'z ichiga oladi, bu esa o'quvchilarning o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi.

Boshlang'ich ta'limda interfaol va zamonaviy metodlar o'quvchilarning faolligini oshirish, o'rganish jarayonini samarali va qiziqarli qilishda muhim o'rin tutadi. Bu metodlar o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin ifodalash, jamoaviy ishlarni amalga oshirish va o'rganilgan bilimlarni amalda qo'llash imkonini beradi. Quyida interfaol va zamonaviy metodlarning tavsifi va ularni boshlang'ich ta'limda qanday qo'llash mumkinligi haqida ma'lumot beraman.

Interfaol metodlar.

Interfaol metodlar o'quvchilarning darsda faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi va o'rganish jarayonini interaktiv tarzda olib borishga imkon beradi. Bular orqali o'quvchilar faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'ladilar.

Interfaol metodlarning asosiy turlari:

Rol o'ynash: O'quvchilarga turli vaziyatlarda turli rollarda ishtirok etish topshiriladi. Masalan, "do'stlik" mavzusida o'quvchilar bir-birlariga yordam berish yoki yordam so'rash rollarini o'ynashlari mumkin. Bu metod ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Boshqariladigan muhokamalar: O'qituvchi o'quvchilarga biror mavzu bo'yicha savol berib, ularni muhokama qilishga undaydi. O'quvchilar turli fikrlarni aytib, savolga javob topishga harakat qilishadi. Bu metod o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Jamoaviy ishlar: O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, birgalikda muammolarni hal qilishga undash. Masalan, guruhlariga o'qish materiallarini tahlil qilib, yakuniy natija haqida umumiy fikr bildirish topshirilishi mumkin. Bu metod jamoaviy ishlash ko'nikmalarini oshiradi.

"Ochiq mikrofon" metodi: O'quvchilarga o'z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyati beriladi. Bu metod o'quvchilarning o'z fikrlarini ishonch bilan aytish qobiliyatini rivojlantiradi.

Zamonaviy metodlar

Zamonaviy metodlar ta'lim jarayonida yangi pedagogik yondoshuvlarni va texnologiyalarni qo'llashni ta'minlaydi. Bu metodlar o'quvchilarning o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi, shuningdek, ular mustaqil fikrlashga, yangi bilimlarni o'zlashtirishga va kreativlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Zamonaviy metodlarning asosiy turlari:

Flipped Classroom (Aks ta'lim): Bu metodda o'quvchilar darsdan oldin onlayn materiallarni o'rganadilar (masalan, video darslar yoki o'quv qo'llanmalari). Darsda esa o'rganilgan materialni amalda qo'llash, muammolarni hal qilish va guruhli ishlashga ko'proq e'tibor qaratiladi. Bu metod o'quvchilarga mustaqil o'rganish imkoniyatini beradi.

Loyihaviy metod: O'quvchilarga o'zlarining loyiha ishlarini yaratish topshiriladi. Masalan, o'quvchilar yangi mavzu bo'yicha kichik tadqiqotlar o'tkazib, natijalarini taqdim etishlari mumkin. Bu metod o'quvchilarning ijodkorlik va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Teknik vositalardan foydalanish: O'qituvchi o'quvchilarga ta'limning vizual va interaktiv qismlarini taqdim etish uchun kompyuterlar, proyektorlar, raqamli o'quv materiallari va mobil ilovalardan foydalanishi mumkin. Masalan, matematikada geometriya shakllarini ko'rsatish uchun virtual dasturlarni ishlatish.

O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida onlayn muloqot: Darsdan tashqari o'quvchilar bilan onlayn muloqot o'rnatish, forumlar, chatlar yoki o'quv portalidan foydalanish orqali qo'shimcha ma'lumotlar va maslahatlar olish imkoniyatini yaratish.

Simulyatsiya va virtual laboratoriyalar: O'quvchilar virtual simulyatsiyalar orqali ilmiy tajribalar va laboratoriya ishlarini bajarishlari mumkin. Bu metod ayniqsa, tabiiy fanlar darslarida juda samarali bo'ladi.

Interfaol va zamonaviy metodlarning o'zaro bog'lanishi.

Interfaol va zamonaviy metodlar birgalikda ishlatilganda o'quvchilarning faolligi yanada oshadi. Masalan, flipped classroom metodini interfaol muhokama yoki guruhli ishlash bilan birlashtirish orqali o'quvchilarning o'zaro fikr almashish va tajriba o'rganish imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, o'qituvchining o'quvchilarga qo'llanma va texnologiyalar orqali ko'proq shaxsiy yordam ko'rsatishi, ularning individual ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

Xulosa. Boshlang'ich ta'limda interfaol va zamonaviy metodlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning mustaqil ishlash va jamoaviy faoliyatda ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu metodlar o'quvchilarga o'rganilgan bilimlarni hayotda qo'llash imkoniyatini beradi va ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Dars jarayonini samarali tashkil etish" – R. S. Qodirov
2. "Boshlang'ich sinfda tarbiya va rivojlantirish" – A.A. Karimov
3. "Interfaol metodlar va texnologiyalar" – M.A. Rahmatullaeva
4. "Boshlang'ich sinfda o'qish va yozishni o'rgatish metodikasi" – Sh. I. Xudoyberdiyeva
5. "O'zbek tilidan boshlang'ich ta'lim" – D. T. G'ulomova
6. "Pedagogika" – S. T. Ruziev
7. "Boshlang'ich sinfda darslarni tashkil etish" – N.A. Biryukova, T.V. Stepanova
8. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" – F.N. Batalova, D.A. Lupanova

XALQARO TAJRIBALARNING UZLUKSIZ TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.

Mustafoyeva Mehrangiz Shukurulloyevna

BuxDPI maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqola, dunyo miqyosida muvaffaqiyatli bo'lgan xalqaro ta'lim tajribalarining o'rganilishi va ularning o'z ta'lim tizimlarimizda qanday qo'llanishi mumkinligini tahlil qiladi. Xalqaro tajribalar, ta'lim sifatini oshirishda juda muhim ahamiyatga ega. Maqolada eng muvaffaqiyatli ta'lim tizimlari (masalan, Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya) misolida ularning o'ziga xos yondoshuvlaridan qanday foydalanish mumkinligi ko'rsatiladi. Xalqaro tajribalar orqali ta'lim tizimlarini yanada samarali qilish, o'qituvchilar malakasini oshirish va ta'limda innovatsiyalarni qo'llash zarurati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: xalqaro tajribalar, globalashtirish, texnologiyalar, innovatsion yondashuv, madaniy sharoit, zamonaviy ta'lim tizimlari.

Аннотация: В этой статье рассматривается изучение успешного международного опыта образования во всем мире и то, как его можно применить к нашим собственным системам образования. Международный опыт очень важен для повышения качества образования. В статье показано, как наиболее успешные системы образования (такие как Финляндия, Сингапур и Южная Корея) могут использовать свои уникальные подходы. Необходимость повышения эффективности систем образования, повышения квалификации учителей и использования инноваций в образовании обсуждается на основе международного опыта.

Ключевые слова: международный опыт, глобализация, технологии, инновационный подход, культурные условия, современные системы образования.

Annotation: This article examines the study of successful international education experiences around the world and how they can be applied in our own education systems. International experiences are very important in improving the quality of education. The article shows how the most successful education systems (such as Finland, Singapore and South Korea) can use their unique approaches. The need to make educational systems more effective, to improve the qualifications of teachers and to use innovations in education is discussed through international experiences.

Key words: international experiences, globalization, technologies, innovative approach, cultural conditions, modern education systems.

Ta'lim – har qanday jamiyatning taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimini rivojlantirishda ilg'or xalqaro tajribalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlarning tajribalarini o'rganish, ularning muvaffaqiyatli modellarini o'zlashtirish va milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshirish mumkin. Dunyo bo'ylab ta'lim tizimlari turli yo'nalishlarda rivojlanmoqda. Har bir davlat o'zining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlariga mos ravishda ta'lim siyosatlarini ishlab chiqadi. Biroq, globallashtirish va yangi texnologiyalar ta'lim tizimlariga yangi talablar keltirmoqda. Shu sababli, turli mamlakatlar ta'lim tizimlarining o'zaro o'rganilishi va tajriba almashish, ta'limning sifatini oshirishda muhim vositaga aylanishi mumkin.

Ta'lim tizimi va uning global muammolari.

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimlari o'zgarish va yangilanish talablariga javob berishga harakat qilmoqda. Ta'lim tizimlari nafaqat ilmiy bilimlarni oshirishni, balki o'quvchilarga ijtimoiy ko'nikmalarni ham berish zaruratini belgilab bermoqda. Bunda, xalqaro baholash tadqiqotlari va statistikalar muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro tajribalar ta'lim tizimlarida muvaffaqiyatni ta'minlash uchun asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Misol qilib oladigan bo'lsak, Finlandiya ta'lim tizimi.

Finlandiya ta'lim tizimi o'qituvchilarning malakasi, o'quvchilarga individual yondashuv va o'qitishning yuqori darajasi bilan ajralib turadi. O'qituvchilarni yuqori malakada tayyorlash, o'quvchilarning iqtidori va ehtiyojlariga mos o'quv rejalarini ishlab chiqish ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Finlandiyada ta'lim faqat bilim olishga yo'naltirilmaydi, balki ijtimoiy ko'nikmalar, mas'uliyatli va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratiladi. O'quvchilarning bilimni baholashda ko'proq individual yondashuvlar va amaliy ishlarga e'tibor qaratiladi. Finlandiya ta'lim tizimi ta'limning sifatiga, o'qituvchilarning professional rivojlanishiga va ta'lim jarayonining mustahkam asoslariga katta e'tibor beradi. Finlandiya ta'lim tizimi ko'plab afzalliklarga ega, ular orasida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Finlandiyada barcha o'quvchilarga maktab ta'limi, darsliklar, ovqatlanish va transport bepul taqdim etiladi. Bu tizim tenglikni ta'minlaydi va har qanday ijtimoiy sinfga mansub o'quvchilarga bir xil imkoniyatlar yaratadi. O'qituvchilar o'quvchilarga individual e'tibor qaratadilar. Finlandiya ta'lim tizimida imtihonlar va sinovlar juda kam. Bu o'quvchilarga o'qish jarayonidan ko'ra, bilimlarni chuqur o'rganish va ko'nikmalarni rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratishga imkon beradi. O'quvchilarga faqat bilim berish emas, balki ularni kreativ va mustaqil fikrlashga o'rgatish ham maqsad qilinadi. Darslar ko'pincha amaliy faoliyatlar, loyihalar va tajribalar bilan bog'liq bo'ladi. Bu afzalliklar Finlandiya ta'lim tizimining dunyo miqyosida muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi va uning o'ziga xosligini yaratadi.

Singapur ta'lim tizimi.

Singapur ta'lim tizimi dunyodagi eng yuqori sifatli tizimlardan biri sifatida tanilgan. Singapurda o'quvchilarga matematik va fan sohalarida yuqori darajadagi bilim beriladi. Shuningdek, ular o'zlarining o'quvchilari uchun samarali o'quv dasturlarini yaratishga alohida e'tibor berishadi. Mamlakat ta'lim tizimi sinovlardan o'tgan, samarali va innovatsion metodlarga asoslangan. Bu tizim bir qancha yutuqlarga erishgan va turli ko'rsatkichlar bo'yicha dunyo miqyosida ham birinchi o'rinlarda turadi.

Singapur o'quvchilari, xususan, matematikada va ilm-fan sohalarida PISA (Program for International Student Assessment) sinovlarida yuqori o'rinlarni egallaydi. Bu mamlakat 2009-yildan boshlab PISA sinovlarida doimiy ravishda birinchi o'rinlarda turadi.

Singapur ta'lim tizimida texnologiyalardan samarali foydalanish muhim omil hisoblanadi. Raqamli o'quv vositalari va innovatsion o'quv metodlari o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Janubiy Koreya ta'lim tizimi.

Janubiy Koreya ta'lim tizimi yuksakligi, texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilishda keltirilgan muvaffaqiyatlari bilan ajralib turadi. Bu davlatda ta'limni rivojlantirishga

katta e'tibor qaratilgan va bu o'quvchilarning yuqori bilim darajasiga olib keladi. Bu tizimning yutuqlari bir nechta omillarga bog'liq. Quyidagi yutuqlarni ta'kidlashimiz mumkin:

Yuqori darajadagi o'quv natijalari: Janubiy Koreya o'quvchilari xalqaro baholashlarda (PISA testi kabi) yuqori o'rinlarda turadi. O'quvchilar matematikada, fanlar va o'qish bo'yicha yuqori natijalar ko'rsatmoqda.

Innovatsion o'quv metodlari: Koreyada ta'limning asosiy qismi zamonaviy pedagogik metodlarga asoslanadi. Masalan, "flipped classroom" (o'quvchilarning darsni uyda o'rganishi va sinfda muhokama qilish) metodikasidan keng foydalaniladi.

Undan tashqari Janubiy Koreya ta'lim tizimiga davlat tomonidan katta mablag' ajratiladi, bu esa o'qituvchilarni yuqori malakaga ega qilish va zamonaviy o'quv resurslarini taqdim etishga yordam beradi. Koreyada ilm-fan va texnologiya sohalarida katta yutuqlar bor. Ular o'zlarining ilg'or ilmiy tadqiqotlar va innovatsion texnologiyalari bilan dunyoga tanilgan. Qolaversa, ta'lim tizimi o'quvchilarni mehnat bozorida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun kerakli ko'nikma va bilimlarni berishga qaratilgan. Ko'plab o'quvchilar oliy ta'lim olishadi, bu esa iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Janubiy Koreya ta'lim tizimining muvaffaqiyatlari ko'plab davlatlar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro tajribalarni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.

O'zbekiston ta'lim tizimi xalqaro tajribalarni qo'llashda bir qancha imkoniyatlarga ega. O'zbekiston ta'lim tizimida xalqaro amaliyotlarni tatbiq etish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim.

1. O'qituvchilarni malakasini oshirish: Xalqaro tajribalar orqali o'qituvchilarning malakasini oshirish va pedagogik bilimlarni yangilash zarurati katta.

2. O'quv dasturlarini yangilash: Singapur va Finlandiya tajribalaridan o'rganib, o'quv dasturlarini yangilash va zamonaviy metodlarni tatbiq etish.

3. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish va masofaviy ta'limni rivojlantirish.

Xalqaro tajribalardan foydalangan holda ta'lim sifatini oshirishning afzalliklari.

Xalqaro tajribalarni ta'lim tizimida qo'llash o'qituvchilarning malakalarini oshirishga yordam beradi. Yangi metodlar, ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llash o'qituvchilarni yanada sifatli va zamonaviy bilimlar bilan ta'minlaydi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi texnologiyalarga juda bog'liq. Singapur va Koreya kabi davlatlar masofaviy ta'lim va onlayn platformalarni keng qo'llagan holda ta'lim sifatini oshirgan. O'zbekistonda ham shu kabi innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish muhim.

Xalqaro tajribalar ta'lim tizimlarining samaradorligini oshirish uchun yangi metodlarni va ilg'or texnologiyalarni qo'llashni o'rganish imkonini beradi. Masalan, raqamli ta'lim platformalari yoki interaktiv o'quv vositalari yordamida ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish. Xalqaro tajribalar yordamida o'quv dasturlari yanada kengaytiriladi va turli madaniyatlar, bilim sohalari va yondashuvlar bilan tanishish imkoniyati yaratiladi. Bu ta'lim jarayonini yanada boyitadi va o'quvchilarga kengroq dunyoqarashni shakllantiradi.

Xalqaro tajribalar o'qituvchilarga o'z kasbini rivojlantirish va zamonaviy o'quv usullarini o'rganish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, o'qituvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini yangilash orqali ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro ta'lim tizimlari o'quvchilarga global mehnat bozorida muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'rgatadi. Ular kommunikatsiya, jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash va boshqa zarur kompetensiyalarni rivojlantiradilar.

Ta'limdagi tenglikni ta'minlash: Xalqaro tajribalar orqali, ta'lim tizimlarida gender, millat, ijtimoiy holat va boshqa omillarga nisbatan tenglikni ta'minlashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqiladi. Bu o'quvchilarga bir xil imkoniyatlar yaratish va jamiyatda ijtimoiy adolatni kuchaytirishga yordam beradi.

Xalqaro tajribalar, davlatlar o'rtasida ta'lim sohasidagi bilim va ma'lumot almashinuvi orqali, ta'lim tizimini yaxshilashga xizmat qiladi. Bunday hamkorlik orqali ta'lim tizimlari o'rtasidagi farqlarni qisqartirish va yaxshilash mumkin.

Shu tarzda, xalqaro tajribalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi, o'quvchilar va o'qituvchilarni global miqyosda tayyorlashga imkon yaratadi.

Xalqaro tajribalar ta'lim tizimlarini yaxshilashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Har bir mamlakatning o'ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlari mavjud bo'lsa-da, xalqaro tajribalar orqali muvaffaqiyatli natijalarga erishish mumkin. O'zbekistonda xalqaro tajribalarni qo'llash ta'lim tizimini rivojlantirish va yangi avlodni yaxshi bilim bilan ta'minlashda samarali bo'ladi. Shu bilan birga, global miqyosda raqobatbardosh bo'lish uchun zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsiyalarni joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Maktabgacha pedagogika" F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M.N. A'zamova. T.2019y.
2. Bogoyavlenskaya D.B. Ijodiy qobiliyatlar psixologiyasi: Proc. talabalar uchun nafaqa. yuqoriroq darslik muassasalar / D.B. Epifaniya. - M.: Akademiya, 2002. - 320-yillar.
3. Mustafoeva M.Sh. Talis research international study of teaching and learning conditions. 2023y.
4. Eshova D.Sh., Mustafoeva M.Sh. POSSIBILITIES OF JOINT ARTISTIC AND PLAYFUL ACTIVITIES WITH PARENTS IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES IN CHILDREN. JMEA Journal of Modern Educational Achievements 2023, Volume 10 <https://scopusacademia.org/>
5. M.Sh.Mustafoeva, G.T.Baxronova, D.O'.Jo'rayeva, Sh.N.Ne'matova.
6. UPDATING AND CONDUCTING THE QUALITY OF PRIMARY EDUCATION ON THE BASIS OF MODERN METHODS./ <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=15945983713562668087&btnI=1&hl=ru>

ONA TILI TA'LIMIDA IJODIY MATNLARNING AHAMIYATI

Baxrinova Munisa Xusniddinovna

Qarshi DU "Boshlang'ich ta'lim" kafedrası doktoranti

E-mail: mbaxrinova@gmail.com Phone number: +998909111338

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili ta'limida ijodiy matnlardan foydalanishning o'quvchilarning tafakkuri, nutqiy faolligi, estetik didi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ijodiy matnlar orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish, o'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqish va badiiy-estetik dunyoqarashni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. ona tili, ijodiy matn, nutqiy faollik, mustaqil fikrlash, estetik did, ta'lim metodikasi, til o'qitish

ЗНАЧЕНИЕ ТВОРЧЕСКИХ ТЕКСТОВ В ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. В данной статье освещается роль использования творческих текстов в преподавании родного языка в формировании мышления, речевой активности, эстетического вкуса и навыков самостоятельного мышления у учащихся. Также проанализированы возможности эффективной организации учебного процесса с помощью таких текстов и развития интереса к языку и художественно-эстетического мировоззрения.

Ключевые слова. родной язык, творческий текст, речевая активность, самостоятельное мышление, эстетический вкус, методика обучения, преподавание языка

THE IMPORTANCE OF CREATIVE TEXTS IN MOTHER TONGUE EDUCATION

Abstract. This article highlights the role of using creative texts in native language education in developing students' thinking, verbal activity, aesthetic taste, and independent thinking skills. It also analyzes how such texts can enhance the effectiveness of the learning process and develop students' interest in language and artistic-aesthetic worldview.

Keywords. native language, creative text, verbal activity, independent thinking, aesthetic taste, teaching methodology, language instruction

Kirish. Bugungi ta'lim islohotlari zamirida o'quvchilarning shaxs sifatida har tomonlama kamol topishi, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini ochish muhim o'rin tutadi. Bu

jarayonda ona tili fani asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ona tili darslarida grammatik bilimlar bilan bir qatorda o'quvchilarning hayotiy tajribasi, tasavvuri va ijodiy tafakkurini boyitishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ayniqsa, ijodiy matnlardan foydalanish orqali bu maqsadlarga erishish mumkin.

Asosiy qism. Ijodiy matnlar deganda badiiy, publitsistik yoki esse tarzida yozilgan, fikr va tuyg'ularni obrazli bayon etuvchi matnlar tushuniladi. Bunday matnlar o'quvchilarning:

- Tilni obrazli idrok etishi;
- Tasavvuri va tafakkurini rivojlantirishi;
- Estetik didini shakllantirishi;
- Yozma va og'zaki nutqini boyitishi;
- Ijodiy fikrlashini o'stirishi uchun qulay vositadir.

Ona tili darslarida ijodiy matnlar bilan ishlash quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Badiiy matnlarni tahlil qilish: Matndagi obrazlar, badiiy vositalar, muallif niyatini tushunishga qaratilgan topshiriqlar orqali o'quvchi fikrlashga undaladi.

2. Matnga asoslangan insho yozish: O'quvchi o'z munosabatini bildirish, tahlil qilish, dalillash orqali mustaqil fikrlashga o'rgatiladi.

3. Matn asosida ijodiy topshiriqlar bajarish: Tugallanmagan hikoyani davom ettirish, voqeani boshqa yo'nalishda rivojlantirish, o'zgacha yakun yasash kabi mashqlar orqali ijodiy salohiyat yuzaga chiqadi.

4. Dialog va sahna ko'rinishlari yaratish: Matn asosida dialog tuzish, sahna ko'rinishini yaratish orqali o'quvchi nutqiy faollik ko'rsatadi.

Ijodiy matnlarning turlari va ta'limdagi o'rni

Ijodiy matnlar o'z ichiga hikoya, rivoyat, ertak, esse, dramatik parchalar, badiiy tasvirlangan dialog va monologlarni oladi. Bunday matnlar orqali o'quvchilarda hayotiy voqealarga ijodiy munosabat, obrazli fikrlash, tahlil qilish va tasviriy ifodaning shakllanishi kuzatiladi. Har bir ijodiy matn o'zining syujeti, badiiy obrazlari, til boyligi va ifoda uslubi bilan o'quvchini jalb etadi. Masalan, xalq ertaklari orqali ezgulik va yovuzlik, haqiqat va yolg'on tushunchalari asosida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy qarashlari shakllanadi.

Bundan tashqari, zamonaviy yozuvchilarning asarlaridan parcha yoki esse shaklidagi matnlar ham o'quvchilarning hayotiy voqealarga, ijtimoiy hodisalarga munosabatini shakllantiradi. Bu orqali o'quvchi mustaqil fikr yuritish, muammoni tushunish va yechim topish ko'nikmalarini egallaydi.

O'quvchilarda tafakkur va estetik didni shakllantirishdagi roli

Ijodiy matnlar estetik tarbiyani, ya'ni chiroyli fikrlash, his qilish, anglash va ifodalash malakalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Matn asosida obrazli tasvir tuzish, syujetni davom ettirish, obrazlarga ta'rif berish, ularga munosabat bildirish orqali o'quvchi estetik tafakkurga ega bo'ladi. Shuningdek, ijodiy matnlar orqali o'quvchi o'z his-tuyg'ularini erkin ifodalaydi, o'zini ifoda etish va baholashga o'rganadi.

Estetik tarbiya nafaqat badiiy asarlarni tushunish, balki o'z fikrini chiroyli, ravon, obrazli ifodalashga ham xizmat qiladi. Dars jarayonida ijodiy matn asosida rasm chizish, dramatik sahnalar tayyorlash, voqeani boshqa tugallanish bilan yakunlash kabi topshiriqlar orqali o'quvchilarning tasavvur doirasi kengayadi.

Ijodiy topshiriqlarning o'rni va metodikasi

Ijodiy matn asosida beriladigan topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishda asosiy vositadir. Misol uchun, hikoya yoki ertak asosida yangi yakun yaratish, voqeani boshqa obraz nuqtai nazaridan qayta hikoya qilish, esse yozish, dialog yozish, syujetni rasmga aylantirish kabi mashg'ulotlar ijodiy faoliyatni rag'batlantiradi.

Bu jarayonda o'qituvchining roli beqiyosdir. U o'quvchini ilhomlantiruvchi, yo'l ko'rsatuvchi va baholovchi bo'lishi kerak. Har bir o'quvchi individual yondashuvni talab qiladi. Boshqa tomondan, ijodiy topshiriqlar baholash mezonlari asosida tahlil qilinishi, o'quvchining yutug'i va kamchiliklari mulohaza qilinishi muhim.

Xulosa. Ona tili ta'limida ijodiy matnlardan foydalanish o'quvchilarning tafakkurini, nutqiy va estetik salohiyatini rivojlantiradi. Bu esa ularni har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlovchi va badiiy didga ega bo'lgan shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Ijodiy matnlar dars jarayonini jonlantiradi, o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning o'z

fikrini aniq, obrazli ifodalashiga yordam beradi. Darslar davomida o'quvchilarga ijodiy topshiriqlar berish, ularni baholash mezonlarini aniq belgilash orqali o'quvchilarning bilim sifati va nutqiy faolligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduazizov A. "Ona tili o'qitish metodikasi". – Toshkent: O'qituvchi, 2009.
2. G'afurov N. "Til va tafakkur". – Toshkent: Fan, 2010.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Usmonov Q. "Badiiy nutq asoslari". – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
5. Respublika ta'lim markazi metodik qo'llanmalari, 2022.
6. Raxmonov A. "Ijodiy tafakkur va yozma nutq". – Toshkent: O'zR FA nashriyoti, 2019.
7. Abdullayeva N. "Til o'qitishda estetik yondashuv". – Toshkent: Ta'lim, 2021.
8. Mamatov T. "O'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish usullari". – Samarqand: Ilm ziyo, 2020.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA 3-7 YOSHLI BOLALARDA HUQUQIY TA'LIM BERISH TAMOYILLARI

Boltayeva Nasiba Ilhom qizi

BuxDPI "Maktabgacha ta'lim" kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshdagi tarbiyalanuvchilarda huquqiy madaniyat, huquqiy ongning shakllantirish bugungi kunda qanchalik dolzarb masalalardan biri bo'lib qolayotganligi, huquqiy madaniyat har bir o'sib kelayotgan yosh avlod hayotida katta ahamiyatga ega ekanligi va bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar haqida ma'lumotlar ko'rsatilgan. Maktabgacha ta'lim muassasa tarbiyalanuvchilarda huquqiy savodxonlikni shakllantirishga doir tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy tarbiya, demokratik, insonparvarlik, jamiyat, tarbiya, tamoyil, huquqiy ong, huquqiy madaniyat.

PRINCIPLES OF PROVIDING LEGAL EDUCATION TO CHILDREN AGED 3-7 IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM

Annotation: This article shows how the formation of legal culture and legal awareness in preschoolers remains one of the most urgent issues today, the importance of legal culture in the life of every growing young generation, and information about the work being carried out in our country in this regard. Recommendations are given for the formation of legal literacy in preschoolers.

Keywords: legal education, democratic, humanistic, society, education, principle, legal consciousness, legal culture.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish jarayonida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ta'lim tizimi va mazmunini demokratizatsiyalash davlatimizning ustivor siyosati XXI - asr yoshlarini har tomonlama rivojlangan, yetuk, dunyoviy fikr yuritadigan, bilimli barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishdan iborat.

Yosh avlodni erkin, demokratik, insonparvarlik tamoyillari asosida komil inson ruhida o'stirish, ularni nafaqat o'z huquq va erkinliklarini yaxshi biluvchi, balki ularni amalga oshira oladigan hamda o'z burch va majburiyatlarini ham ongli ravishda bajaruvchi inson sifatida jamiyatning teng huquqli va faol subyekti qilib tarbiyalash fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik, huquqiy davlat qurishni o'z oldiga maqsad qilib olgan har bir demokratik davlatlar kabi O'zbekiston uchun ham muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Dunyo hamjamiyatida rivojlangan xorijiy davlatlarning hukumati tomonidan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirishga alohida e'tibor qaratgan holda turli xil yondashuvlardan foydalanib ko'plab loyihalarni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmon 1-ilovasiga asoslangan davlat siyosatiga oid belgilangan dasturiy maqsadlarning 70-maqsadi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish" kabi mazmunda qo'yilishi

maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda huquqiy savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishda ta'limiy, tarbiyaviy zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish" zaruriyatini belgilasa, 2019 yil 9 yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmoni, 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son, 2019-yil 22-apreldagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4236-son qarorlari, hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi strategik hamda modernizatsion vazifalarni amaliyotga joriy etishda mazkur maqolatadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Maktabgacha ta'limning davlat talablari asosida shaxsning individualligini hisobga olish, uning yosh, psixologik, o'ziga xosligiga tayanib, ta'lim-tarbiya jarayoni mazmunini belgilashga, bola shaxsini yaxlit holda e'tirof etish va uning "men"ini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan talablar majmuini o'zida aks ettirganligini anglash mumkin. Bu esa bolalarga o'zining psixologik himoyalanganligini his etishga, har qanday sharoitda ham uning huquqlari ta'minlanishi imkoniyati mavjudligini anglashga imkon beradi.

Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolaning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyillarida o'z aksini topgan: – bola huquqlari, o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari va salohiyatlarini hisobga olish; – ta'lim jarayonida barcha turdagi rivojlanish sohalarining o'zaro bog'liqligi; – bola salomatligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlari, harakatlanishi ehtiyojini qondirish; – bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash; – o'yin orqali ta'lim berish va rivojlantirish; – bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish; – bola uchun xavfsiz muhitni ta'minlash; – milliy madaniy ana'nalar qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat, boshqa millatlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatini hisobga olish asosiy tamoyillar sifatida belgilangan bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish jamoaviy ish hisoblanib, uni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlari va tashkilot rahbari javobgar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori asosida qabul qilingan konsepsiyasining 2-bobida maktabgacha ta'lim tizimining joriy holati va uni rivojlantirishdagi mavjud muammolar tahlil etilib, unda maktabgacha yoshdagi bolalar manfaatlarini himoya qilishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va dolzarb muammolar ko'rsatib o'tilgan. Muammolarni bartaraf etish hamda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari konsepsiyaning 3-bobida ko'rsatib o'tilib, uning maqsadi bola hayoti va faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishni ta'minlovchi muhim manba bo'lgan sifatli maktabgacha ta'limdan foydalanish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Xulosa qilib aytganda, bolalarga huquqiy ta'lim-tarbiya berish, ularning huquqiy madaniyatini shakllantirish, huquqiy savodxon qilish eng dolzarb pedagogik vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – 1992-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi 2, 3-bobi.
3. O. Karimova. "Huquq ta'limini o'qitish metodikasi" T.: "O'zbekiston" 2011 yil, 23-b
4. Islomov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. –T.: TDYUI, 2004. –138 b.
5. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013
6. bolahuquqi.uz sayti.

IKKI TILLI BOLALARNI TARBIYALASH: OTA-ONALAR UCHUN METODIK TAVSIYALAR VA ILMIY ASOSLAR

Rasulqulova Sitara Shodmonjonovna,

Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi, International school of finance and technology, Tashkent, Uzbekistan EFL teacher sitorarasulqulova@mail.ru +998909867498

Annotatsiya. Ushbu maqola ikki tilli (bilingval) oilalarda farzand tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi ota-onalar, pedagoglar va tilshunoslar uchun mo'ljallangan. Kitoblar va boshqa kichik yoshdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarda bolalarning ikki tilda rivojlanish bosqichlari, maktabgacha davrdagi til o'rganish jarayonlari, ota-onaning tutumi, ijtimoiy va emotsional omillarning til o'rganishga ta'siri keng yoritilgan. Xususan, farzandning ona tili va muhit tilini o'zlashtirishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar, ko'p tillilikning psixologik, lingvistik jihatlari hamda oilaviy muhitdagi amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan. Ushbu maqolada diqqat qaratilgan jihat til o'rgatishda madaniyatlararo yondashuvning ahamiyatini ta'kidlaydi hamda ikki tillilikka oid tushunmovchiliklar va noto'g'ri qarashlarni bartaraf etishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Bilingvizm, ikki tilli bola, maktabgacha ta'lim, ota-ona qo'llanmasi, til rivoji, multilinguallik til o'rgatish usullari, oila va til siyosati, madaniyatlararo muloqot, ikki tillilik afzalliklari.

RAISING BILINGUAL CHILDREN: METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS AND SCIENTIFIC FOUNDATIONS FOR PARENTS

Annotation: This collection of sources is intended for parents, educators, and linguists involved in raising children in bilingual families. The books and newsletters provide comprehensive insights into the stages of bilingual language development in children, especially during the preschool years, as well as the influence of parental behavior, social, and emotional factors on language learning. In particular, the works of L. Arnberg, E. Harding, P. Reilly, and G. Saunders offer practical guidance and explore the psychological and linguistic aspects of raising bilingual children. These resources also emphasize the importance of intercultural approaches in language education and aim to dispel common myths and misconceptions about early bilingualism.

Keywords: bilingualism, bilingual child, preschool education, parenting guide, language development, Multilingual Matters, language teaching methods, family language policy, intercultural communication, benefits of bilingualism.

ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ-БИЛИНГВОВ: МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ И НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ДЛЯ РОДИТЕЛЕЙ

Аннотация. Данный сборник источников предназначен для родителей, педагогов и лингвистов, занимающихся воспитанием детей в билингвальных семьях. В книгах и информационных бюллетенях подробно рассматриваются этапы развития речи у детей, растущих в условиях двухъязычия, особенно в дошкольном возрасте. Также освещается влияние родительского поведения, социальных и эмоциональных факторов на процесс овладения языком. В частности, работы Л. Арнберг, Э. Хардинга, П. Рейли и Г. Сандерса предлагают практические рекомендации и исследуют психологические и лингвистические аспекты воспитания билингвальных детей. Эти ресурсы подчёркивают важность межкультурного подхода в обучении языкам и направлены на опровержение распространённых мифов и заблуждений о раннем билингвизме.

Ключевые слова: Билингвизм, билингвальный ребёнок, дошкольное образование, руководство для родителей, развитие речи, методы преподавания языков, языковая политика в семье, межкультурная коммуникация, преимущества билингвизма.

Bugungi kunda muloqot tobora rang-barang va ko'p tilli bo'lib borayotgan bir paytda, ko'proq yosh bolalar bir nechta til ishlatiladigan muhitda ulg'aymoqdalar. Xuddi shuningdek, turli hududlarga ko'chishni talab qiladigan ish o'zgarishlari sababli ota-onalar o'zlari va farzandlari zimmasiga tushayotgan til yuklamalaridan charchashlarini kuzatish mumkin. Ota-onalar farzandlaridan nimani kutishlari mumkin? Ota-onalar erta til rivojlanish jarayoniga qanday hissa qo'sha oladilar? Bolalarning bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq tilni o'rganishi ularni chalg'itib qo'yadimi? Bir nechta tilni o'zlashtira olish uchun bolalar alohida intellektual salohiyatga ega bo'lishlari kerakmi?

Butun dunyo bo'ylab odamlar bolalarning ikkinchi yoki uchinchi tilni o'rganib ulg'ayishiga doir qat'iy fikrlarga ega hisoblanadilar. Bu fikrlar odamlarning o'z farzandlari bilan qanday muloqot qilishlariga, shuningdek, boshqalarning bolalariga qanday qarashlariga ta'sir

qiladi. Bu fikrlar, shuningdek, o'qituvchilar, shifokorlar va nutq terapevtlari kabi mutaxassislarining ikki tilli bolalarning ota-onalariga qanday maslahatlar berishlariga ham ta'sir qiladi. Afsuski, odamlarning bolalarning ikkinchi yoki uchinchi tilni o'rganib ulg'ayishiga doir fikrlari ko'pincha bu bolalarga foyda bermaydi, aksincha salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu xulosaning maqsadlaridan biri — bolalarning ikki tilli bo'lib ulg'ayishiga oid ayrim keng tarqalgan afsonalarni rad etish va bolalarga ikki yoki undan ortiq tillarni ravon ishlatishlariga yordam beradigan takliflarni taqdim etishdir.

Ikki tilli muhit ko'pincha tanlov emas, balki zarurat hisoblanadi. Ko'pchilik erta ikki tillilikning foyda yoki zararlari haqidagi munozaralarda ota-onalar farzandlari uchun ikki tilli muhitni tanlaydi degan tasavvurga asoslanadi. Biroq bu odatda haqiqatga to'g'ri kelmaydi; ikki tilli bo'lib ulg'ayayotgan yosh bolalar asosan bunday bo'lishga majbur bo'layaptilar — ularning yagona tilda ulg'ayishlari mumkin emas. Masalan, bola doimiy ravishda bir tildagina so'zlashadigan odamlar bilan muloqotda bo'lishi mumkin, ulardan ba'zilar bir tilni (masalan, faqat ingliz tilida so'zlashadigan o'qituvchilar va sinfdoshlar), boshqalari esa boshqa tilni (masalan, faqat fransuz tilida so'zlashadigan ota-onalar) ishlatishadi. Boshqa bolalar esa kunlik hayotda ko'pchilik aholisi ikkita tilni ishlatadigan jamiyatda ulg'ayishlari mumkin. Ushbu tillar uchun amal qilinadigan ishlatish qoidalari qaysi holatda qaysi til ishlatilishini belgilaydi. Bu tillarni ishlatish konventsiyalarini o'zgartirish va bolaning ijtimoiy olamidagi barcha ikki tilli kishilarni har qanday holatda yagona til bilan cheklashga majburlash — nafaqat imkonsiz, balki axloqiy jihatdan ham shubhali hisoblanadi, chunki bu odamlarning til huquqlariga tajovuz bo'lar edi.

Bolalikda ikki yoki undan ortiq tilni eshitish til buzilishi yoki til rivojlanishida kechikishga sabab bo'lmaydi. Butun G'arb dunyosida, ikki yoki undan ortiq til muhitida ulg'ayayotgan kichik yoshdagi bolalarning ota-onalariga nutq terapevtlari va shifokorlar tomonidan bolalari bilan ishlatilayotgan tillardan birini tashlab qo'yish bo'yicha maslahatlar beriladi. Odatda, tashlab yuborilishi kerak bo'lgan til atrof-muhitda keng qo'llanilmaydigan til bo'ladi. Masalan, ota-onalarga uyda o'zlari oilaviy uyda gaplashadigan, deylik, turkman tilidan voz kechib, ingliz tilini ishlatishni maslahat berishadi, Yoki aynan Buxoro hududida kuzatadigan bo'lsak, ota-onalarga uyda tojik tilidan voz kechib, rus tilida gapirish tavsiya etiladi. Bu kabi maslahatlar odatda ikki sabab bilan izohlanadi.

Birinchidan, bolaga ikki yoki undan ortiq tilni eshitish chalkashlik keltirib chiqaradi va tilni o'zlashtirishda jiddiy muammolarga olib keladi, degan da'vo mavjud. Ikkinchidan, asosiy tilni (atrof-muhitdagi tilni) o'zlashtirish boshqa tildan keladigan "raqobat" bo'lmagan holda samaraliroq kechadi, deb hisoblanadi.

Biroq hozirgacha ikki yoki undan ortiq tilni eshitish tilni o'zlashtirishda kechikish yoki buzilishlarga olib keladi, degan ilmiy dalil yo'q. Dunyo bo'ylab juda ko'p bolalar tug'ilganidan boshlab ikki yoki undan ortiq tilni eshitib ulg'ayishadi va bunda hech qanday til rivojlanishida kechikish yoki buzilish belgilari kuzatilmaydi. Bu bolalar ikki tilli muhit va til o'rganishdagi muammolar o'rtasida hech qanday sababiy bog'liqlik yo'qligini ochiq ko'rsatadi.

Shuningdek, bir tilni tashlab faqat boshqa tilni ishlatishning foydali ta'sir ko'rsatishi haqidagi da'volarni qo'llab-quvvatlaydigan ilmiy dalillar ham mavjud emas. Aksincha, ota-onalar tomonidan uy tilining to'satdan to'xtatilishi bolaning ham, ota-onaning ham katta hissiy va psixologik muammolarga duch kelishiga olib kelishi mumkin. Axir til hissiyot, mehr-muhabbat va shaxsiyat bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Agar 3 yoshli bola onasi tomonidan ilgari ishlatilgan va unga tanish til bilan endi gaplashilmayotganini ko'rsa, ayniqsa, onasi uning shu tildagi gaplariga javob bermasa, bola o'zini hissiy jihatdan tark etilgandek va butunlay adashgandek his qilishi mumkin. Agar nutq terapevti ota-onaga yagona tilda gapirishni maslahat bergan bo'lsa, u bola muayyan muammoli xatti-harakatlarni namoyon eta boshlaganida hayron qolmasligi kerak. Hatto bola bu og'riqli tajribadan so'ng tiklana olsa ham, uy tilini yo'qotish asosiy tilni o'zlashtirishga yordam beradi, degan hech qanday dalil yo'q. Aksincha, ta'lim muhitida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning birinchi tilidagi ko'nikmalariga tayanish — ikkinchi tilni o'zlashtirishni osonlashtiradi.

Bolalarning bir jumlada ikki tilni ishlatishi chalkashlik belgisi emas. Ko'pincha, ikki tilni o'rganayotgan kichik yoshdagi bolalar tilni o'zlashtirish jarayonida ikkala tilni aralashtirib yuboradi yoki chalkashtiradi, degan fikr ilgari suriladi. Bir jumlada ikkala tildan so'zlar ishlatilishi bolaning bu ikki tilni bir-biridan ajrata olmasligining isboti sifatida ko'riladi. Biroq,

aslida bu holat hech qanday chalkashlik belgisi emas. Aksincha, yetuk ikki tilli shaxslar tomonidan bitta jumlada ikki tilni ishlatish til bo'yicha katta malakani namoyon etadi (9:12). Shuningdek, yosh ikki tilli bolalar ba'zan bitta jumlada ikkita tildan so'z ishlatishlari mumkin bo'lsa-da, ular ko'proq faqat bitta tilda qurilgan jummalarni ishlab chiqaradilar. Bu esa ularning ikki tilni bir-biridan ajrata olish qobiliyatiga ega ekanligini aniq ko'rsatadi.

Endi savol tug'iladi: qaysi holatlarda bolalar bitta jumlada ikki tildan so'zlar ishlatadilar? Bunday holat faqatgina ular suhbatlashayotgan odam ikkala tilni ham tushunishini bilganlarida va bu jummalarni ishlatganlari uchun ular ustidan tanbeh olinmasligiga amin bo'lganlarida sodir bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, bolalar o'zlarini qanday ijtimoiy vaziyatda topgan bo'lsalar, aynan shu kontekst ularning bitta jumlada bir nechta tilni ishlatishini belgilaydi. Xuddi shu narsa ikki tilli kattalarda ham kuzatiladi: ular faqat bunday til aralashmasi mos keladigan ijtimoiy-lingvistik vaziyatlarda bitta jumlada ikki tilni ishlatadilar.

Bolalar tilni shunchaki o'zlashtirib olmaydi balki ular kuchli qo'llab-quvvatlanadigan va boy muhitga muhtoj. Ko'pchilik orasida bolalar uchun yangi tilni o'rganish juda oson degan fikr mavjud va bu deyarli hech qanday kuch sarflashni talab qilmaydi, deb hisoblanadi. Biroq tilni o'rganish — hattoki bitta tilni ham ko'p yillar davom etadigan murakkab jarayondir. Tillar juda murakkab tuzilmaga ega. Ularning barcha murakkabliklarini o'zlashtirish uchun katta hayotiy tajriba zarur. Oddiy suhbatni olib borishni o'rganish unchalik ko'p vaqt olmasligi mumkin (biroq hatto yagona tilda so'zlashadigan bolalarga ham begona odamlar bilan aniq suhbat qurishga taxminan 3 yil kerak bo'ladi), lekin rasmiy nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirish ancha uzoq vaqt talab qiladi.

Nutq o'rganishda atrof-muhit juda muhim rol o'ynaydi. Bolalar gapirishni faqat turli holatlarda ularga so'zlanayotgan nutqni eshitganidagina o'rganadilar. Til rivoji dastlabki bosqichlarda lug'at boyligiga kuchli darajada bog'liq. Bola qancha ko'p so'z bilsa, gapirishni shuncha yaxshi o'rganadi va maktabdagi muvaffaqiyati uchun imkoniyatlari ortadi. Kitob o'qish — lug'at boyligini rivojlantirishda juda foydali manbadir. Hattoki bola hali o'tirib o'qishga ojiz bo'lgan davridayoq har qanday tilda kitob o'qish nafaqat til o'rganishga, balki ota-ona va bola o'rtasidagi hissiy rishtalarni mustahkamlashga ham katta yordam beradi. Bundan tashqari, bu faoliyat ko'plab madaniyatlarda ona va otalarga mos va munosib deb qaraladi hamda bolalarni o'zlari yashayotgan atrof-muhitda uchramaydigan madaniyat jihatlari bilan tanishtirishning ajoyib usulidir.

Ota-onalar uchun tavsiyalar zuda muhim sanaladi, chunki hayotning birinchi 10 yili davomida til bolalarning akademik va ijtimoiy ko'nikmalari uchun asos bo'lib xizmat qiladi, shuning uchun bolaning bir, ikki yoki undan ko'p til o'rganishida qanday omillar muhim rol o'ynashini chuqurroq o'ylab ko'rish hashamat emas, zaruratdir. Har bir ota-ona ko'rib chiqishi kerak bo'lgan barcha omillarni bu yerda to'liq bayon qilish imkoni bo'lmasa-da, quyidagi qisqacha maslahatlar muayyan darajada yordam beradi. Mening ota-onalarga tavsiyam — bolalardagi ikki yoki undan ortiq tildan foydalanish imkoniyati ota-ona tomonidan qo'llab-quvvatlanishga muhtoj. Axir bolangizning ikki yoki ko'p tillilikka sarmoya kiritish kelajakda katta samara berishi mumkin.

Quyida bolani bir nechta tilda ulg'aytirishda muhim bo'lgan bir nechta asosiy jihatlarni fikrimizning xulosasi sifatida sanab o'tsak: siz va oilangiz uchun tabiiy bo'lgan tarzda, qaysi tilda va qachon so'zlashishni tanlang, lekin bolalaringiz ikkala (yoki uch, hatto to'rt) tilni ham tez-tez va turli vaziyatlarda eshitayotganlariga ishonch hosil qiling. Bolalaringiz eshitayotgan barcha tillarni ishlatishlari uchun imkoniyatlar yarating. Farzandlaringizga har bir muhim tilda kitob o'qib bering va birga o'qing.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Soliyeva D.T. – Ko'p tillilik sharoitida bolalarda nutq kompetensiyasining shakllanishi // "Filologiya masalalari" ilmiy jurnali, 2021. – Maktabgacha yoshdagi bolalarda til o'zlashtirish xususiyatlari va bilingvizmning psixolingvistik jihatlari haqida ma'lumot beradi.

2. Rasulova M.S. – Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq faoliyatining rivojlanishi // "Pedagogik ta'lim" jurnali, 2020. – Til rivojida bilingval muhitning ijobiy va salbiy ta'siri muhokama qilinadi.

3. Normurodova G.A. – Ikki tillilik va uning maktabgacha ta'limda o'rni // Andijon davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2022. – Maktabgacha ta'lim tizimida ikki tillilikni samarali joriy etish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

4. Yoqubova Z.X. – Maktabgacha yoshdagi bolalarda lingvistik ko‘nikmalarni shakllantirishda ona tilining o‘rni // “Boshlang‘ich ta‘lim va tarbiya” jurnali, 2023. – Bolalarda ona tilini yo‘qotmaslik va bilingv muhitga moslashuvga oid fikrlar berilgan.

5. Bialystok, E. (2001). *Bilingualism in Development: Language, Literacy, and Cognition*. – Cambridge University Press. – Bilingvizmning kognitiv rivojlanishga ta‘siri, ayniqsa bolalik davrida qanday kechishi haqida.

6. Genesee, F., Paradis, J., & Crago, M. B. (2004). *Dual Language Development and Disorders: A Handbook on Bilingualism and Second Language Learning*. – Brookes Publishing. – Bilingval bolalarning til o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklari va muammolari keng yoritilgan.

7. De Houwer, A. (2009). *An Introduction to Bilingual Development*. – Multilingual Matters. – Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilingvizmni shakllantirish jarayoni haqida oddiy va ilmiy asoslangan tahlil.

8. King, K. A., & Mackey, A. (2007). *The Bilingual Edge: Why, When, and How to Teach Your Child a Second Language*. – HarperCollins. – Amaliy maslahatlar va bilingv muhitdagi muammolarga ota-onalar va tarbiyachilar nuqtayi nazaridan yondashuv.

9. Arnberg, L. (1987). *Raising children bilingually: The pre-school years*. Clevedon: Multilingual Matters. Ikki tilda ulg‘ayotgan bolalarni maktabgacha yoshda tarbiyalash haqida foydali qo‘llanma.

IJTIMOIY TARMOQLARDA KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING LINGVISTIK JIHATLARI

*Saidova O‘g‘ilxon Bekmurodovna
Buxoro Pedagogika Instituti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya Mazkur ilmiy-tadqiqot ishi internet va ijtimoiy tarmoqlarda muloqotning lingvistik jihatlarini keng qamrovda o‘rganishga qaratilgan. Maqolada raqamli davr sharoitida til transformatsiyalari, yangi nutq shakllari, qisqartmalar, jargonlar, emoji va yorliqlar (hashtaglar) ning ijtimoiy muloqot jarayonidagi roli hamda ularning ijtimoiy munosabatlarga ta‘siri ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari onlayn muloqotda yuz berayotgan til evolyutsiyasining madaniy o‘zlik, yosh guruhlar va ijtimoiy sinf dinamikasi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi va kelgusidagi ilmiy ishlar uchun yangi tahliliy yondashuvlarni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: madaniy o‘zlik, muloqot muhiti, muloqot makoni, virtual muloqotga qodir shaxsiyat, stan madaniyati, kod almashish

LINGUISTIC ASPECTS OF THE COMMUNICATION PROCESS IN SOCIAL NETWORKS

Abstract. This research examines the linguistic aspects of communication processes on the Internet and social media platforms. The article explores language transformations in the digital age, focusing on the emergence of novel discourse forms, abbreviations, slang, emojis, and hashtags, and their impact on social interactions. The findings indicate that the evolution of language in digital communication is closely linked with cultural identity, generational dynamics, and social stratification, suggesting new analytical approaches for future studies in this field.

Key words: cultural identity, communication environment, communication space, virtual language personality, stan culture, code-switching.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОЦЕССА КОММУНИКАЦИИ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

Аннотация. Данная научно-исследовательская работа направлена на всестороннее изучение лингвистических аспектов общения в Интернете и социальных сетях. В статье рассматриваются трансформации языка в условиях цифровой эпохи, новые формы речи, сокращения, жаргоны, эмодзи и ярлыки (хэштеги), а также их роль в процессе социального общения и влияние на социальные отношения. Результаты исследования показывают, что эволюция языка в онлайн-общении тесно связана с культурной идентичностью, возрастными группами и динамикой социального класса, а также предлагает новые аналитические подходы для будущих научных исследований.

Ключевые слова: культурная идентичность, коммуникационная среда, пространство общения, личность, способная к виртуальному общению, культура стана, обмен кодами

Internet shunday axborot-kommunikatsiya muhitiki, unda nutqning ogʻzaki va yozma shakllari turli janr va uslubiy yoʻnalishlar bilan hamohang tarzda mavjud boʻlib, foydalanuvchidan oʻziga xos yondashuvni talab qiladi. Soʻngi yillarda internet orqali muloqot koʻlami keskin oshib borayotganini inobatga olsak, bu oʻz navbatida nafaqat internetdan foydalanish jarayonini jadallashtirmoqda, balki maxsus muloqot muhiti va makonini yuzaga keltirmoqda [(1, 52b.). Virtual muloqotga qodir shaxsiyat tushunchasi global muhokamaga aylanib borayotgani natijasida [2, 54b.), internet tilining lingvistik xususiyatlari tahlili hanuzgacha bir qator tadqiqotchilar qiziqishiga sabab boʻlmoqda [3, 57b.).

Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot lingvistik nuqtai nazardan katta taʼsirga ega boʻlib, oʻzaro fikr almashinuvi va gʻoyalarning tarqalish jarayonini shakllantiradi. XXI asr virtual dunyo foydalanuvchilari Instagram, Twitter va TikTok kabi ijtimoiy tarmoqlarda oʻz fikrlarini tez va ijodiy uslubda ifodalash uchun turli yoʻsindagi ogʻzaki til, shevalar, qisqartmalar va emotikonlardan foydalanishadi. Ushbu til nafaqat muloqot vositasi sifatida, balki foydalanuvchilarga muayyan guruhlar bilan onlayn bogʻlanish va oʻz shaxsiyatlarini rivojlantirish imkoniyatini ham beradi. Memlar, hashtaglar va qiziqarli ifodalar tez tarqalish qobiliyatiga ega boʻlib, jamoat fikriga va hatto madaniy tendensiyalarga taʼsir qiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda qoʻllanilayotgan til rasmiy va norasmiy muloqot oʻrtasidagi farqlarni aniqlashni murakkablashtiradi, chunki foydalanuvchilar koʻpincha vaziyat taqozosi yoki auditoriya muhitidan kelib chiqib ularning har ikkalasidan ham foydalanishadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi til qoʻllanilishi raqamli munosabatlarning, madaniyat va insonlar oʻrtasidagi aloqalarga qanday taʼsir qilishini koʻrsatishda muhim rol oʻynaydi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi til nafaqat shaxsiy identifikatorni aks ettiradi, balki foydalanuvchilarga turli ijtimoiy yoki madaniy guruhlar bilan moslashish imkoniyatini ham beradi. Odamlar koʻpincha oʻzlari aʼzo boʻlgan yoki boʻlishni istagan jamoalarning oʻziga xos tili, leqonlar yoki hatto hazillarini qabul qilishadi. Masalan, fandomlar (telekoʻrsatuvlar, kitoblar yoki mashhurlar kabi umumiy qiziqishlar atrofida shakllangan jamoalar) doirasida ishqibozlar chuqur bilim va jamoa aʼzolikini namoyon etish uchun maxsus atamalar, havolalar yoki iqtiboslardan foydalanishadi. Shunga oʻxshash tarzda, Twitter yoki TikTok kabi platformalardagi subkulturalar oʻziga xos til uslublarini ishlab chiqishadi va bu ularning asosiy oqimdan ajralib turishiga xizmat qiladigan belgilardir. Masalan, “stan madaniyati” deb ataladigan tizimda sodiq ishqibozlar maxsus shevalar va ifodalardan foydalanib, oʻzlarining hayrat va mehr-muhabbatlarini bildirib borishadi. Bundan tashqari, tilning turli uslublari oʻrtasida almashish qobiliyati — bu “kod almashishi” deb ataladi — foydalanuvchilarga koʻp qirrali identifikatsiyalarini ifodalash imkonini beradi. Masalan, kimdir LinkedInʼda professional koʻrinish uchun rasmiy ohangni tanlashi, ammo Instagramʼda doʻstlari bilan suhbatlashayotganda norasmiy shevani qoʻllashi mumkin. Tilning bu moslashuvchanligi shaxslar auditoriya, kontekst yoki platformaga qarab oʻzlarining turli qiyofalarini shakllantirishini koʻrsatadi [4, 4b.).

Til ijtimoiy tarmoqlarda raqamli jamoalarni shakllantirishning asosi boʻlib, u foydalanuvchilar guruhlar orasida birlashuvchi va ajratuvchi omil sifatida xizmat qiladi. Onlayn jamoalar umumiy qiziqishlar, sabablar yoki madaniy aloqa atrofida shakllanadi va ushbu joylarda qoʻllanilayotgan til aʼzolik hissinı mustahkamlashga yordam beradi. Hashtaglar tilning raqamli platformalar boʻylab odamlarni birlashtirish borasida eng mashhur namunadir. Misol uchun, “#Oʻzbekiston” hashtagini keltirish mumkin. Ushbu hashtag ijtimoiy tarmoqlarda milliy mavzular, dolzarb voqealar va madaniy tadbirlarni yoritishda keng qoʻllaniladi. “#Oʻzbekiston” hashtag orqali foydalanuvchilar oʻzaro tajriba almashishlari, milliy identitet va ijtimoiy birlikni mustahkamlashlari mumkin [5, 1b.). Shu bilan birga, ushbu hashtag yordamida shaxsiy fikrlar, jamoat fikrlari va yangiliklar tez tarqaladi, bu esa ijtimoiy tarmoqlarda dolzarb mavzular atrofida keng muhokamalarni yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun asosiy aloqa va muloqot vositasiga aylandi. Tezlik, qisqalik va oʻziga xoslikni afzal koʻrgan holda, ular jargon va qisqartmalardan keng foydalanmoqdar. Ushbu jarayon aloqa samaradorligini oshirsa-da, adabiy til meʼyorlari va tillararo rishtalarga zarar yetkazishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda mavjud til oʻzgarishlari,

yoshlar muloqotida jargon va qisqartmalarning roli haqidagi ilmiy tahlillarga asosan internet tili jargon va qisqartmalar orqali rivojlanib, yoshlar o'rtasida tezkor aloqani ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy tarmoqlar tilni "dinamik laboratoriya" sifatida shakllantirayotganini ko'rsatib turibdi [6, 34b]. Baronning "Doim aloqada" asarida zamonaviy yoshlar mobil va internet texnologiyalari bilan muloqot qilishda qanday qilib jargonlardan foydalanishi tahlil qilinadi. Muallifning ta'kidlashicha, qisqartmalarning keng tarqalishi tilni soddalashtiradi, ammo bu ba'zan aloqa noaniqliklariga olib kelishi mumkin [7, 5b.]. O'zbek olimasi M.Aliyeva o'zining mahalliy tadqiqotida yoshlar orasida o'zbek tilida yangi paydo bo'lgan jargon va qisqartmalarning tezkor aloqani osonlashtirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, qisqartmalar madaniyatlararo aloqalarni osonlashtirsa-da, ulardan noto'g'ri foydalanish adabiy tilga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [8, 1b.]. Avvalgi tadqiqotlarga ko'ra, ijtimoiy tarmoq tili jargon va qisqartmalarni asosiy tarkibiy qismlar sifatida o'z ichiga olgan bo'lib, bu yoshlar suhbatlarida sezilarli o'zgarishlar hosil qilgan. Mamlakat tilidagi leksik o'zgarishlar adabiyotga va madaniy ta'sirlarga ham ijobiy, ham salbiy oqibatlar keltiradi. Muvozanatni saqlash ushbu hodisaga nisbatan nazariy usullar va amaliy kuzatuvlar o'rtasida doimiy tadqiqotlarni talab qiladi.

Shuningdek, emoji'lar, smayliklar va inson yuz ifodalarini aks ettiruvchi belgilar barchasi hissiy ma'lumotni yetkazadi, garchi emoji'lar ayrim his-tuyg'ular uchun eng oson aniqlanadigani bo'lib, keyin inson yuzlari va smayliklar turadi [9, 12b.]. Shaxsiy muloqotda emoji'lar kompensatsiya va ishontirish vositasi sifatida xizmat qiladi, mantiqiy va hissiy jihatlar orqali idrokga ta'sir qiladi [10, 772b.]. Elektron aloqada emoji'lar raqamli madaniyatni o'zgartirmoqda, ehtimol ifodalanmagan ma'lumotni ochib beradi va huquqiy jarayonlarda qaror qabul qilishga ta'sir qilishi mumkin [11, 396b.]. Ijtimoiy media ta'sir o'tkazuvchilari o'zaro aloqani rag'batlantirish va turli xil ishontirish va kommunikativ maqsadlarni amalga oshirish uchun murakkab va strategik emoji'lardan foydalanadigan misollar mavjud [12, 34b.]. Emoji'lar zamonaviy aloqada muhim ahamiyatga ega, bu foydalanuvchilarga Unicode piktogrammalari va logogrammalaridan foydalanib tana tili, ob'ektlar, belgilar yoki fikrlarni ifoda etishga imkon beradi va ijtimoiy media ta'sir o'tkazuvchilari tomonidan ishontirish maqsadlarida ishlatiladi. Biznes elektron pochta xabarlaridagi smayliklar mualliflarning his-tuyg'ularining vizual ifodasi sifatida xizmat qiladi va bayonotning mo'ljallangan talqini haqida ma'lumot beradi. Ular kontekstualizatsiya ko'rsatkichlari sifatida xizmat qiladi, yozma aloqada shaxslararo munosabatlarni tashkil qiladi [13, 110b.].

Xulosa qilib aytganda, til ijtimoiy media aloqasida muhim rol o'ynaydi, o'zini ifoda etish, jamiyat qurish va hissiy bog'lanish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Foydalanuvchilar o'z shaxsini ifodalash va madaniy chegaralar bo'ylab boshqalar bilan bog'lanish uchun norasmiy til va emoji'lardan tortib kodlarni almashtirishgacha bo'lgan turli xil lingvistik uslublardan foydalanadilar. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy media platformalari turli guruhlar o'rtasida mansublik va tushunish tuyg'usini rivojlantiradigan o'zaro aloqalarni osonlashtiradi. Raqamli aloqa rivojlanishda davom etar ekan, tilning roli shaxslarning o'zini qanday ifoda etishi va onlayn dunyoda boshqalar bilan qanday munosabatda bo'lishini shakllantirishda muhim bo'lib qoladi, bu esa inklyuziv va mazmunli o'zaro aloqalarni rivojlantirishda lingvistik xilma-xillikning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ushbu ijtimoiy tarmoq lingvistik birliklari salbiy ta'siridan saqlanish uchun esa ulardan oqilona foydalanishni talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Khusanov, M. (2024) The role of language on internet communication. CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTER DISCIPLINARY STUDIES (CARJIS) ilmiy jurnali, 14-son ,52-53.
2. Zummo, M. (2018). The effect of CMC in business emails in lingua franca: Discourse features and misunderstandings. *International Journal of Society, Culture & Language*, 6(1), 47-59.
3. Miftakhova, A., Bochina, T., & Malikov, A. (2020). Woman vs. baba in Russian culture and internet language. *International Journal of Society, Culture & Language*, 8(3), 54-62.
4. Sobirova, D., Khamitov, E., (2024). THE ROLE OF LANGUAGE IN SOCIAL MEDIA COMMUNICATION. INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND THEIR SOLUTIONS 7(2), 3-6.
5. <https://wearesocial.com/digital-2022>

-
6. Crystal, D. (2001). Language and the Internet. Cambridge University Press.
 7. Baron, N. S. (2008). Always On: Language in an Online and Mobile World. Oxford University Press
 8. Aliyeva, M. (2023). Zamonaviy tilda sleng va uning ahamiyati. Tilshunoslik jurnali.
 9. Fischer, B., & Herbert, C. (2021). Emoji as affective symbols: affective judgments of emoji, emoticons, and human faces varying in emotional content. *Frontiers in Psychology*, 12, 645173.
 10. Koltsova, E. A., & Kartashkova, F. I. (2022). Digital Communication and Multimodal Features: Functioning of Emoji in Interpersonal Communication. *RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics*, 13(3), 769-783.
 11. Wagner, A., Marusek, S., & Yu, W. (2020). Emojis and law: Contextualized flexibility of meaning in cyber communication. *Social Semiotics*, 30(3), 396-414.
 12. Ge, J., & Gretzel, U. (2018). Emoji rhetoric: a social media influencer perspective. *Journal of Marketing Management*, 34(15-16), 1272-1295.
 13. Thompson, D., & Filik, R. (2016). Sarcasm in written communication: Emoticons are efficient markers of intention. *Journal of Computer-Mediated Communication*, 21(2), 105-120.
 14. Халилова Р.Р. Виртуал коммуникатив майдон самарали мулоқот воситаси сифатида // НамДУ Илмий Ахборотномаси. – Наманган, 2021. – № 2.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUV-METODIK YONDASHUVLAR ORQALI TA‘LIM UZVIYLIGINI TA‘MINLASH

*Normamatova Sitara Ilyosjonovna
Buxoro viloyati Buxoro Xalqaro Universiteti bakalavriat talabasi
sitoranormamatova88gmail.com +998941170430*

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich ta‘lim tizimida uzviylik prinsipini ta‘minlashning o‘quv-metodik jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, integralashgan ta‘lim modellari va o‘quv jarayonida fanlararo bog‘lanishni ta‘minlash usullari o‘rganilgan. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari hisobga olingan holda ta‘lim uzviyligini ta‘minlashning eng samarali usullari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, uzviylik, o‘quv-metodik yondashuv, fanlararo integratsiya, pedagogik texnologiya

ENSURING EDUCATIONAL CONTINUITY THROUGH EDUCATIONAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES IN PRIMARY EDUCATION

Abstract. The article analyzes the educational and methodological aspects of ensuring the principle of continuity in the primary education system. During the research, modern pedagogical approaches, integrated educational models and methods of ensuring interdisciplinary connections in the educational process were studied. The article proposes the most effective methods of ensuring educational continuity, taking into account the age characteristics of primary school students.

Keywords: primary education, continuity, educational and methodological approach, interdisciplinary integration, pedagogical technology.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ НЕПРЕРЫВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ ПОСРЕДСТВОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ И МЕТОДИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В статье анализируются учебно-методические аспекты обеспечения принципа преемственности в системе начального образования. В ходе исследования изучались современные педагогические подходы, интегрированные образовательные модели и методы обеспечения межпредметных связей в образовательном процессе. В статье предлагаются наиболее эффективные методы обеспечения образовательной преемственности с учетом возрастных особенностей учащихся начальной школы.

Ключевые слова: начальное образование, преемственность, учебно-методический подход, межпредметная интеграция, педагогическая технология.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida uzviylik prinsipi alohida ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida uzviylikni ta'minlash kelajakdagi ta'lim jarayonining samaradorligini belgilaydi. O'quvchilarning bilim olish jarayonida turli fanlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni tushunishi, ularning umumiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, boshlang'ich ta'limda uzviylik prinsipi o'quvchilarning ta'lim samaradorligini 25-30% ga oshiradi. Bu ko'rsatkich zamonaviy ta'lim tizimida integralashgan yondashuvlarning zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodikasi

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi:

- Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish
- Amaliy tajribalarni o'rganish
- Ekspert so'rovlari
- Statistik tahlil

Ta'lim uzviyligining nazariy asoslari

Ta'lim uzviyligini ta'minlash – bu turli ta'lim sohalarini mantiqiy bog'lab, o'quvchilarda yaxlit bilim tizimini shakllantirishdir. Piaget va Vygotskiy nazariyalariga asoslanib, bolalar bilishning konkret bosqichlaridan mavhum fikrlashga o'tish jarayonida uzviylik muhim rol o'ynaydi. Uzviylikning asosiy komponentlari:

- Mazmuniy uzviylik – fanlar o'rtasidagi mavzuviy bog'lanish
- Metodologik uzviylik – o'qitish usullarining uyg'unligi
- Tashkiliy uzviylik – ta'lim jarayonining ketma-ketligi

Boshlang'ich ta'limda uzviylikni ta'minlash usullari

1. Fanlararo integratsiya modeli

Matematika, tabiatshunoslik va ona tili fanlarini integratsiyalash orqali o'quvchilar real hayot bilan bog'liq masalalarni yechishni o'rganadilar. Masalan, matematik masalalarni tabiiy muhit kontekstida yechish, ona tilida tabiatshunoslik mavzularini muhokama qilish.

2. Loyiha asosidagi o'qitish

Loyiha usuli o'quvchilarga bir nechta fanni birlashtirgan holda amaliy topshiriqlarni bajarishga imkon beradi. Bu yondashuv o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va fanlar o'rtasidagi bog'lanishni anglab etishlariga yordam beradi.

3. Muammoli o'qitish texnologiyasi

Muammoli vaziyatlar yaratish orqali o'quvchilar turli fanlardagi bilimlarini qo'llash zaruriyatini sezadilar. Bu esa tabiiy ravishda fanlararo integratsiyani ta'minlaydi.

Amaliy tajribalar va natijalar

"Lee (2016) tadqiqotiga ko'ra, Singapur boshlang'ich maktablarida integratsiyalashgan dasturlar joriy etilganda, o'quvchilarning:

- Bilim sifati 20% ga oshdi
- Fanlarga qiziqishi 22-35% ga ortdi
- Mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlandi"[4]

Finlandiya: Phenomenon-Based Learning (PhenoBL) modeli

Finlandiya 2016-yilda milliy ta'lim dasturiga "Phenomenon-Based Learning"ni kiritdi. Bu usulda:

- Tajriba: 5-12 yoshli o'quvchilar uchun 9 haftalik fanlararo loyihalar (masalan, "Iqlim o'zgarishi" mavzusi ostida matematika, tabiiy fanlar va geografiyani birlashtirish).

Natijalar (Helsinki Universiteti, 2020):

- O'quvchilarning fanlarga qiziqishi 34% ga oshdi (so'rov va kuzatishlar asosida).
- Bilimlarni amaliy qo'llash qobiliyati 28% yaxshilandi.
- Muhim jihat: O'qituvchilar har hafta 2 soatni jamoa sifatida loyiha rejalashtirishga sarflashadi.

Kanada: Inquiry-Based Learning. Ontario provinsiyasida boshlang'ich sinflarda qo'llaniladigan usul:

- Tajriba: O'quvchilarning savollari asosida dasturlar tuzish (masalan, "Suv qayerdan keladi?" mavzusi orqali fizika, kimyo va ekologiyani o'rganish).

- Natijalar (Toronto Universiteti, 2021):

- Mustaqil fikrlash ko'rsatkichi 31% oshdi.

- O'qituvchilarning 72% ushbu usulni an'anaviy metodikagag qaraganda samarali deb hisobladi[6]

Qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari

1. Asosiy qiyinchiliklar:

- O'qituvchilarning integralashgan yondashuvlarga tayyorgarlik darajasi
- Darslik va o'quv materiallarining moslashtirilmaganligi
- Baholash tizimining muammolari

2. Yechim yo'llari:

- O'qituvchilarni qayta tayyorlash dasturlari
- Integralashgan darsliklar yaratish
- Yangi baholash mezonlarini ishlab chiqish

Xulosa va takliflar

Boshlang'ich ta'limda uzviylik prinsipi o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali qilishning muhim omilidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, to'g'ri tanlangan o'quv-metodik yondashuvlar orqali fanlararo integratsiyani ta'minlash mumkin.

Asosiy takliflar:

1. Finlandiya modeli asosida o'qituvchilarni tayyorlash: O'qituvchilar uchun 3 oylik amaliy kurslar tashkil etish, ularda:

- Loyiha asosida o'qitish (masalan, "Atrof-muhit va matematika" integratsiyasi).
- Har bir dars uchun fanlararo aloqalarni rejalashtirish.

2. Darslik islohoti

- Integratsiyalashgan darsliklar yaratish (masalan, matematika + tabiiy fanlar birlashtirilgan misollar).

- Real hayotdan misollar kiritish (masalan, bozor hisob-kitoblari, ekologik loyihalar).

3. Baholash tizimi – kompleks baholash mezonlarini joriy etish

4. Texnologik yondashuvlar – raqamli texnologiyalar orqali fanlararo bog'lanishni ta'minlash

Ta'lim uzviyligini ta'minlash – bu bir martalik jarayon emas, balki doimiy rivojlanish va takomillashtirishni talab qiluvchi tizimdir. Kelajakda bu soha bo'yicha chuqurroq tadqiqotlar olib borish va xalqaro tajribalarni o'rganish zarur.

Integratsiyalashgan ta'lim — nafaqat bilim berish, balki dunyoqarashni shakllantirish vositasidir. Finlandiya, Singapur va Kanada tajribalari isbotlaganidek, ushbu yondashuvni joriy etish uchun tizimli islohotlar, o'qituvchilarning yangicha fikrlashi va jamiyatning qo'llab-quvvatlashi muhimdir. O'zbekiston uchun bu — zamonaviy ta'lim tizimiga o'tishning asosiy kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. (2023). *Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education*. Paris: UNESCO Publishing.

2. Piaget, J. (2022). *The Child's Conception of the World*. London: Routledge

3. Vygotsky, L.S. (2021). *Mind in Society: Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge: Harvard University Press.

4. Lee Sing Kong "Integrated Curriculum in Singapore Primary Schools: A Case Study" ERIC (<https://eric.ed.gov/>"Singapore integrated curriculum primary schools") 2016.

5. Finnish National Agency for Education (2020). "Phenomenon-Based Learning in Practice". Helsinki Universiteti, 2020

6. OECD (2023). "Global Lessons for Integrated Curriculum Development".

TIBBIY BIRLIKLAR SINONIMIYASI XUSUSIDA

*Navruzova Muyassar Gaybullayevna
f.f.f. doktori (PhD), BuxDU dotsenti*

Annatatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot terminologiyasida tibbiy birliklar sinonimiyasi tuzilishi va amaliy jihatlari, shuningdek tibbiy atamalarda sinonimlarning shakllanish mexanizmlari, semantik tipologiyasi va ularning klinik va akademik kommunikatsiyadagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit soʻzlar: tibbiy terminologiya, sinonimiya, semantik tahlil, leksik-semantik tipologiya, klinik kommunikatsiya, tibbiy-atama, sinonimik birliklar, terminologiya

ON THE SYNONYMY OF MEDICAL UNITS

Abstract. This article examines the structure and practical aspects of synonymy within medical terminology. It explores the mechanisms for the formation of synonyms in medical terms, their semantic typology, and their significance in both clinical and academic communication.

Keywords: medical terminology, synonymy, semantic analysis, lexico-semantic typology, clinical communication, medical term base, synonyms in medicine, terminology

О СИНОНИМИИ МЕДИЦИНСКИХ ПОДРАЗДЕЛЕНИЙ

Аннотация. В статье рассматривается структура и прикладные аспекты синонимии в медицинской терминологии. Освещаются механизмы образования синонимов в медицинских терминах, их семантическая типология и значение в клинической и академической коммуникации.

Ключевые слова: медицинская терминология, синонимия, семантический анализ, лексико-семантическая типология, клиническая коммуникация, база медицинских терминов, медицинские синонимы, терминология

Sinonimiya hodisasi zamonaviy fan va tibbiyot amaliyotida asosiy uslubiy va amaliy oʻrin tutadi. Tibbiy atamalarda yangi sinonimlarning paydo boʻlishi — mavjud eski atamalar oʻrniga torroq qoʻshimcha atamalarni aniqlash orqali maʼlum jarayon sifatida yuz beradi[1].

Umumiy adabiy til va terminologiyada sinonimiya masalasi tilshunoslar, atamashunoslar va tadqiqotchilar tomonidan uzoq vaqt eʼtibor bilan oʻrganilgan. Teoretik va amaliy jihatdan sinonimiya boʻyicha koʻplab ishlar mavjud: G. B. Antrushina, D. Dobrovolskiy, L. Poppel, O. V. Afanaseva, N. N. Morozova, V. G. Vilyuman, B. A. Ilish, V. N. Yarseva va boshqalar. Oʻzbek tilshunosligida A. Hojiyev, A. Doniyorov, B. Toʻychiboyev, R. Yunusovlar ushbu masalaga alohida eʼtibor berishgan. 1970-yillarga qadar sinonimlik maʼnosi aynan bir xilligi orqali aniqlansa, 1980-yillardan boshlab semik tahlil asosida terminlarning maʼno tuzilishi oʻrganila boshlandi (S. Rahmatullayev, H. Neʼmatov, E. Begmatov, R. Rasulov).

Sinonimiya tushunchasiga oid yagona aniqlik hozirgacha shakllanmagan. Tilshunoslik adabiyotida sinonim va sinonimiya tushunchalarining mohiyati, ularning real mavjudligi borasida turlicha, koʻpincha qarama-qarshi fikrlar mavjud.

Akademik A. Hojiyev sinonimlarni keng qamrovda taʼriflaydi:

“Sinonimlar maʼnosining bir xilligi ularning oʻzaro farqli xususiyatlarga ega boʻlishini inkor etmaydi...[2]”

Unga koʻra, sinonimlar bir xil maʼnoni ifodalasa-da, leksik birlik sifatida mavjud boʻlish uchun oʻziga xos belgilarni saqlaydi.

Oʻzbek tilshunosligida sinonimlarni aniqlashda anʼanaviy yondoshuvdan tortib zamonaviy semik tahlilgacha boʻlgan yondashuvlar farqlidir. Semik yondashuv, aynanlik va farqlilik belgilarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Aʼuning bir turi — ziddilik: aynanlikdan oʻsib chiqib, yangi maʼnoni shakllantiradi. E. N. Millerga koʻra, ziddilik aynanlikning dialektik inkori boʻlib, u aynanlik-farqlilik-ziddilik zanjirining boshlangʻich boʻgʻini hisoblanadi[3].

Sinonimik (yaʼni maʼnodoshlik) munosabat – bu bir xil yoki yaqin maʼnoni bildiruvchi, ammo uslubiy jihatdan va qoʻllanilish doirasida farq qiluvchi soʻzlar orasidagi aloqadir. Ilmiy terminologiyada sinonimlar bir tushunchani aniqlashda yetkazishda yordam beradi.

Terminologiyada bir maʼnoni ifodalovchi bir nechta nomlar mavjud boʻlsa, bu matn tushunarligida muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, bir terminning sinonimi ishlatilsa, oʻquvchi asl maʼno noaniqligidan xabardor boʻlmasligi mumkin. Shu sababli ayrim mutaxassislar terminologik sinonimiyani maʼqullashmaydi, lekin koʻplab terminologik tizimlarda baʼzan dubletlar mavjud boʻladi.

Bizning tadqiqot tibbiyot terminologiyasidagi sinonimik birliklarni tahlil qiladi. Aniqlanishicha, ba'zi tibbiy sohalarida atama fondining 25–40 % sinonimlardan iborat, umumiy terminlar lug'atidagi 60 ming birlikdan taxminan 15 minggaacha sinonimik birlik mavjud. Ba'zi tushunchalar bir necha o'nlab sinonimlar bilan ifodalanadi[4].

Terminologik sinonimiya haqida turli qarashlar mavjud. Masalan, S.V. Grinev sinergik nuqtai nazardan "terminlar sinonimiyasi – ya'ni bir tushunchani bir nechta maxsus leksik birliklar bilan nomlash – terminologiyaning eng muhim muammolaridan biridir" deb ta'kidlaydi.

A. A. Reformatskiy ta'kidicha, "sinonimlar va dubletlar bir xil emas: sinonimlar turlicha so'zlar bo'lsa, dubletlar – so'zlarning affiksli variantlari" hisoblanadi. Masalan, "dermatoz" (teri yallig'lanishi) va "dermatit" (teri kasalliklarining umumiy nomi) so'zlari bu farqni yaxshi tasvirlaydi[6].

Terminologik sohada – sinonim yoki dublet deb atashdan ko'ra, asosiysi terminologik lug'atlarda kontekstdan kelib chiqib bir-birini almashtirsa bo'ladigan birliklar mavjudligidir.

Tibbiy atamalar va sinonimlarning paydo bo'lishi

Yunon-lotin tillaridan olingan tibbiy terminlar new tasniflar paydo bo'lganida, ham shifokor, ham bemor o'zlariga qulay sinonimlarga ehtiyoj sezadi. Tadqiqotimizda tibbiy lug'atdagi sinonimik birliklarni quyidagicha mezonlarga ko'ra tasnifladik:

Til manbasiga ko'ra

O'zbekcha va boshqa tillardagi ekvivalentlar

Tarjimaviy sinonimlar: bir terminni o'zbekchaga turli usullar bilan tarjima qilish

Hypertension – "gipertoniya", "qon bosimi yuqoriligi", "arterial bosim oshishi"

Flu – "gripp", "shamollash"

Diabetes – "qandli diabet", "shakar kasalligi"

So'z yasallish usuliga ko'ra

Dialektal farqlar asosidagi sinonimlar (ma'lum hududlarda ifodalanishi)

Leksik-semantik xususiyatiga ko'ra sinonimlar tiplari

To'liq (absolyut) sinonimlar. Bir xil ma'noni ifodalaydi va to'liq almashtiriladi (stil yoki kontekst farqi yo'q). Misol: "tomoq og'rig'i" – "faringit", "yurak xuruji" – "miokard infarkti", "qon bosimi yuqoriligi" – "gipertoniya".

Qisman (nisbiy) sinonimlar. Ma'nosi yaqin, lekin kontekstga qarab farq bo'lishi mumkin. Misol: "shamollash" – "ORVI" (infeksion kasallik), "tashqi hayz" – "menstruatsiya" (ilmiy va rasmiy).

Stilistik sinonimlar. Bir xil ma'no, turli uslubda ifodalangan. Misol: "nevroz" – "asabiylik", "onkologik kasallik" – "rak".

Emotiv sinonimlar. Ma'nolari yaqin, lekin hissiy ohangda farq. Misol: "og'ir kasallik" – "halokatli kasallik", "saraton" – "rak" – "o'sma".

Kontekstual sinonimlar. Faqat konkret kontekstdagina almashtiriladi. Misol: "davolash" – "terapiya" (klinika konteksti), "shish" – "o'sma" (patologiya).

Ko'pma'noli (polisemantik) sinonimlar. Bitta termin turli kontekstlarda sinonim bo'lishi mumkin. Misol: "bosim" – "arterial bosim", "ichki bosim", "gipertoniya".

Umumiy va maxsus sinonimlar. Umumiy atama kengroq tushunchani bildirsa, maxsus sinonim tor ma'noga ega. Misol: "shamollash" – umumiy; maxsus: "larengit", "bronxit", "ORVI".

Xulosa qilib aytganda, leksik-semantik xususiyatga ko'ra tasniflangan sinonimik tibbiy birliklar asosiy uch sohada muhim ahamiyat kasb etadi:

Tibbiy muloqot va hujjatlarda aniqlik

Sinonimik birliklarni to'g'ri tasniflash maqsadi klinik va akademik yozuvlarda bir-birini almashtiruvchi atamalarni aniqlashtiradi. Bu esa bemor yozuvlari va tibbiy hujjatlarda ma'lumotlarning aniq va standart shaklda bo'lishini ta'minlaydi.

Bemor bilan muloqotda tushunarlilik va stil moslashuvi

Stilistik, kontekstual va emotiv sinonimlar yordamida shifokor bemor bilan muloqotda til yo'naltirishni sezilarli darajada oshiradi. Bunda bemorning bilimi va emosional holatiga mos ravishda uslub veligini tanlash mumkin.

Ilmiy ishlarda aniqlik va ekspertlik

Semantik nuanslar — leksik, morfologik va kontekstual farqlarni hisobga olgan holda tibbiy ishlarni yozish terminlarning to‘g‘ri kontekstda ishlatilishini kafolatlaydi. Bu esa ilmiy tahlil, malaka oshiruvchi va akademik maqolalarda aniqlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fatullayeva K. Tibbiy birliklarning leksik-semantik munosabatlari // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. — 6/4-2023. — B. 50. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/14156_1_6D5F52869C9B99595D15C3F964366177C305D44E.pdf
2. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. — Тошкент: Ўқитувчи, 1980. — Б.115
3. Миллер. Э.Н. Содержательные функциональные основания единства антонимии номинативных единиц// Филологические науки, -М.,1987.Н 6.44-49.
4. Деревлева Н.В., Шульга А.А. О некоторых проблемах перевода англоязычной медицинской литературы, связанных с широким развитием синонимии в медицинской терминологии/ Журнал Гродненского государственного медицинского университета. 2009. — №3. — С.131-132.
5. Гринев, С.В. Введение в терминоведение [Текст] / С.В. Гринев. — М.: Московский лицей, 1993. — 309 с.
6. Реформатский, А.А. Что такое термин и терминология [Текст] / А.А. Реформатский // Вопросы терминологии. - М.: Наука,1961. — С. 46 - 54.

TIBBIY TERMINOLOGIYADA KO‘P MA’NOLILIK VA OMONIMLIK HODISALARI

*Navruzova Muyassar Gaybullayevna
f.f.f. doktori (PhD), BuxDU dotsenti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiy terminologiyada uchraydigan ko‘p ma’nolilik (polisemiya) va omonimlik hodisalari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tibbiy terminlar orasida ba’zi birliklarning bir nechta ma’noni ifodalay olishi yoki boshqa terminlar bilan shakl jihatdan o‘xshash bo‘lib, mazmunan farqlanishi ularning tushunarligiga va aniq qo‘llanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada ko‘p ma’nolilik va omonimlik hodisalari sabablari, ularning terminologik tizimdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, tibbiy terminlar misolida bu hodisalarning semantik va stilistik xususiyatlari tahlil etiladi

Kalit so‘zlar: tibbiy terminologiya, ko‘p ma’nolilik, omonimlik, lingvistik tahlil, semantika, terminshunoslik, tibbiy matnlar, leksik birliklar.

ЯВЛЕНИЯ ПОЛИСЕМИИ И ОМОНИМИИ В МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация. В данной статье проводится лингвистический анализ явлений многозначности (полисемии) и омонимии, встречающихся в медицинской терминологии. Некоторые медицинские термины могут выражать несколько значений или иметь формальное сходство с другими терминами при различии в содержании, что влияет на их однозначность и точность употребления. В статье освещаются причины возникновения полисемии и омонимии, их место в терминологической системе, а также рассматриваются семантические и стилистические особенности этих явлений на примере медицинских терминов.

Ключевые слова: медицинская терминология, полисемия, омонимия, лингвистический анализ, семантика, терминоведение, медицинские тексты, лексические единицы.

POLYSEMY AND HOMONYMY PHENOMENA IN MEDICAL TERMINOLOGY

Annotation. This article provides a linguistic analysis of polysemy and homonymy phenomena observed in medical terminology. Some medical terms can express multiple meanings or may be formally identical to other terms while differing in content, which affects their clarity and precise usage. The article explores the causes of polysemy and homonymy, their place within the terminological system, and examines their semantic and stylistic features using examples from medical terms.

Keywords: medical terminology, polysemy, homonymy, linguistic analysis, semantics, terminology studies, medical texts, lexical units.

Ilmiy yondashuvlarga ko'ra, termin bir ma'noli bo'lishi va muayyan tushunchani aniq ifodalashi zarur. Biroq tilshunoslikda, jumladan, terminshunoslikda terminlarning bir yoki bir nechta ma'noga ega bo'lishi masalasi to'liq hal etilmagan. Amaliy tahlillar ayrim terminlar semantik jihatdan bir nechta ma'noga ega ekanini, ya'ni terminologik polisemiyaning mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu holat barcha soha terminologiyasida uchraydi va umum hamda maxsus lug'atlarda aks etgan.

Ba'zi terminlarning tarkibida umumleksik va terminologik ma'no birgalikda mavjud bo'lsa, ayrimlari bir nechta tushuncha bilan bog'liq semantik qatlamlarni o'z ichiga oladi. Bunday holatlar terminlarni leksema-termin, sof termin, umumiy va ixtisoslashgan terminlarga ajratishni, shuningdek, ularning leksikografik talqinini aniqlashtirishni talab etadi. Bu esa terminologik polisemiyaning omonimiya va polifunksionimiya bilan munosabatini tahlil qilish hamda terminlar mazmunining aniqligini ta'minlash zaruratini yuzaga chiqaradi.

Terminolog D.S. Lotten fikricha, har bir termin muayyan soha doirasida bir ma'noli bo'lishi lozim[1]. Bu nuqtayi nazar O.S. Axmanova, A.Hojiyev kabi tilshunoslar tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan. Ularning fikricha, terminlar emotsional-ekspressiv bo'lmagan, qat'iy aniqlikni ta'minlovchi birliklar bo'lib, ular har doim yagona tushunchani ifodalaydi[2].

Shunga qaramay, ba'zi tadqiqotchilar — xususan, V.A. Tatarinov, Y. Konovalova, A.V. Superanskaya — terminologiyada ko'p ma'nolilik (polisemiya), omonimiya va sinonimiyaning mavjudligini inkor etmaydi. Ular terminologik birliklar, ba'zan, bir nechta ma'noviy qatlamni o'zida mujassamlashtirishi mumkinligini qayd etadilar. A.V. Superanskaya "Termin – bu professional bilimlarning muayyan sohasi atamalar tizimiga kiruvchi tushuncha hisoblanib, u so'z bilan ifodalanadi. Termin – maxsus maqsadlar uchun mo'ljallangan tilning asosiy ma'noviy elementidir. Termin bir ma'noda qo'llaniladi. Turli maydonlarning bir xil aytiladigan terminlari – omonimlardir"[3].

O'zbek tibbiy terminologiyasida ham bunday semantik hodisalar uchraydi. Polisemantik terminlar ko'pincha umumleksik va maxsus lug'atlarda turlicha izohlanadi. Bu esa terminlar semantikasi, ularning monosemantik bo'lishga intilishi va real til holatidagi polisemik xususiyatlari o'rtasida tafovut mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqotchilar, jumladan, A.A. Ufimtseva, V.P. Danilenko, V.M. Leychik, V.N. Teliya terminologik polisemiyaning tilning tabiiy hodisasi sifatida ko'radilar. Ba'zilar esa (Afanasyeva, Novichkova, Jandoeva) bu holatni lingvistik iqtisod tamoyili — kam til vositasi bilan ko'proq ma'lumot yetkazish — bilan izohlaydi. N.Z. Kotelova esa "termin bir ma'nolidir" degan qarashni noto'g'ri deb hisoblaydi, chunki u ifodalovchi shaklning turli tushunchalarga moslashuvchanligini e'tiborga olish kerakligini ta'kidlaydi.

A.A. Ufimtseva terminlar umumiy leksik tizimning bir qismi sifatida bir necha ma'noni ifodalash xususiyatiga ega bo'lishi mumkinligini ilgari suradi. Bu tilning semantik harakatchanligi bilan bog'liq bo'lib, yangi terminologik birliklarning metafora va metonimiya asosida yuzaga kelishiga imkon beradi[4].

Tibbiyot terminologiyasida polisemiya, ya'ni ko'p ma'nolilik hodisasi bir qancha omillar ta'sirida shakllanadi. O.V. Shestak bu jarayonni ikki asosiy omil bilan izohlaydi. Birinchisi — gnoseologik omildir: inson tafakkuri til vositalaridan foydalanishda aniqlik va noaniqlik o'rtasida muvozanatni saqlashga intiladi, yangi tushunchalarni ifodalash uchun mavjud so'zlardan foydalanishga moyildir. Ikkinchi omil esa tibbiyot fanining ichki rivojlanish xususiyatlariga bog'liq bo'lib, mikroterminal tizimlarning ko'payishi natijasida bir xil lingvistik birliklar turli tushunchalarni ifodalashda takroran qo'llanila boshlaydi[5].

M.N. Chernyavskiy ko'p ma'nolilikni tushuncha mazmunining rivojlanish bilan bog'liq murakkablashuvi, ya'ni sivilizatsiya taraqqiyoti ortidan keluvchi semantik farqlanish bilan izohlaydi. Ilmiy bilish jarayonida yagona tushuncha bir necha mustaqil tushunchalarga ajraladi, biroq bu tushunchalar uchun hali yangi, aniq terminlar shakllanmagani sababli ilgari mavjud bo'lgan terminlar saqlanib qoladi[6].

So'nggi yillarda terminlarning ommalashuvi kuchaydi. Bunga ikki asosiy omil sabab bo'ldi: birinchidan, aholining ilmiy saviyasi oshib bordi, bu esa har bir fan doirasida yangi terminlardan foydalanishni talab etdi; ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari orqali yangi terminlar faol targ'ib qilina boshlandi. Ayniqsa, tibbiyot sohasida bu jarayon jadal kechmoqda.

Inson salomatligi bilan bog'liq tushunchalar keng omma uchun dolzarb bo'lgani sababli, tibbiy terminlar boshqa soha terminlariga qaraganda tezroq umumadabiy tilga kirib bormoqda.

Tibbiy terminlar reklama, ommabop adabiyotlar, internet manbalari, taqdimotlar orqali keng ommalashmoqda. Bu terminlarning keng nutq muomalasiga kirib borishi ularning ba'zida polisemik xarakter kasb etishiga olib keladi. Shu sababli tibbiy atamalar, ayniqsa, bemorlar va mutaxassis bo'lmagan foydalanuvchilar uchun soddalashtirilgan, tushunarli vositalar (masalan, kodlar, o'xshatmalar, tasviriy izohlar) orqali yetkazilishi ehtiyojini tug'diradi. Bu holat tibbiy terminologiyada polisemiyaning tabiiy shakllanish sabablarini hamda uning ijtimoiy va kommunikativ zaruriyat bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Polisemiya har qanday tabiiy tilda muhim semantik hodisalardan biri sanaladi. Til boyligi faqat yangi so'zlar bilan emas, balki mavjud birliklarning ma'nodagi kengayishi orqali ham o'sib boradi. Ko'p ma'nolilik (polisemiya) – so'zlarning leksik salohiyati va tildagi semantik harakatchanlikning ko'rinishidir. Tilshunolar polisemiyaning qadimdan o'rganib kelgan: eramizdan avvalgi davrda xitoy va hind mutafakkirlari, keyinchalik yunon olimlari, o'rta asrlarda esa Markaziy Osiyolik leksikograflar, jumladan, Mahmud Koshg'ari “Devonu lug'otit turk” asarida turkiy tildagi ko'p ma'noli birliklarni qayd etgan.

Polisemiyaning yuzaga kelishi inson tafakkuri va bilish darajasi bilan uzviy bog'liq. Shu bois, milliy tafakkur, madaniyat va ijtimoiy ehtiyojlar polisemantik birliklarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Leksik ma'nolar milliy xarakterga ega bo'lganidek, ularning ko'p ma'nolilik holatlari ham shu milliy semantik tizim doirasida shakllanadi.

Tibbiy terminologiyada ham ko'p ma'nolilik ko'plab leksik birliklar misolida kuzatiladi. Quyidagi misollar tibbiy atamalarning umumtil darajasiga o'tib, yangi, ko'chma yoki ijtimoiy-ma'naviy konnotatsiyalarga ega bo'lishini ko'rsatadi:

Parda: bir tomondan, anatomik birlik — “ko'z pardasi”, boshqa tomondan, maishiy predmet sifatida — “xonaga parda ilindi”.

Kosa: dastlab idish nomi — “kosa to'la sut”, keyinchalik ko'chma ma'noda — “ko'z kosasi” tarzida ishlatiladi.

Xuruj: tibbiy kontekstda “kasallikning avj olishi” (masalan, “epilepsiya xuruji”), umumiy til darajasida esa “mojaro xuruji” kabi emotsional vaziyatlarni bildiradi.

Immunitet: dastlab organizmning biologik himoya tizimi sifatida ishlatilsa (“virusga immunitet”), keyinchalik metaforik tarzda “g'oyaviy immunitet” iborasi shakllangan.

Organizm: tibbiy atama sifatida biologik tizimni bildiradi, ammo siyosiy yoki madaniy kontekstda — “yagona mintaqaviy organizm” kabi ko'chma ma'noda ham qo'llanadi.

Ushbu misollar shuni ko'rsatadiki, tibbiy terminlar ko'pincha kontekstga qarab yangi semantik qatlamlar bilan boyiydi. Bu holat tilning kommunikativ quvvatini oshirish bilan birga, terminologik izchillikni saqlash zaruratini ham tug'diradi. Shu bois, polisemiyaning tibbiy terminologiyadagi mavjudligi tabiiy, ammo nazorat talab qiluvchi jarayon sifatida e'tirof etiladi.

Tibbiy terminlar, odatda, qat'iy ilmiy ma'no va aniq semantik chegaralarga ega bo'lishi bilan ajralib turadi. Biroq, kommunikativ jarayonda bu birliklar ma'lum kontekstlarda o'zining dastlabki, fundamental ilmiy mohiyatidan chekinib, kengroq yoki ko'chma ma'nolarda ishlatilishi mumkin. Bu holat ko'pincha metaforizatsiya va polisemiyaning o'zaro aloqadorligida vujudga keladi.

Ilmiy kontekstdan chiqqan tibbiy atama o'z semantik yadrosini to'liq saqlamaydi, balki unga yangi, ijtimoiy-psixologik yoki estetik ma'nolar yuklanadi. Bunday metaforik kengayishlar polisemantik birliklarning shakllanishida asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Masalan:

“Ko'z” – ko'rish a'zosi sifatida aniq fiziologik funktsiyani bildiruvchi atama, ammo “ko'ngil ko'zi” iborasi orqali u ichki sezgi, ruhiy idrokka aylantiriladi.

“Virus” – biotibbiy kontekstda faqat hujayralar ichida ko'payadigan yuqumli agent sifatida tavsiflanadi, lekin “vahima virusi” yoki “josus virus” kabi ifodalarda xavf, axborot xuruji, tahdid timsoliga aylanadi.

“Jigar” – anatomik a'zo sifatida tanilgan bo'lsa-da, “Sen yetim emassan, jigarim” misolida insoniy yaqinlik, mehr va iliqlik timsoli sifatida metaforalanadi.

“Chiniqtirish” – fizioterapevtik muolaja sifatida qaralsa-da, “g'oyaviy chiniqtirish” iborasida inson psixologik va mafkuraviy mustahkamligini anglatadi.

Bu holatlarda atama o'zining dastlabki ilmiy shaklida emas, balki “tashqi semantik qobiq” orqali, ya'ni umumiy leksik muhitda ko'chma ma'noda ishlatiladi. F.A. Abulxairova fikricha, bu

kabi hollarda tibbiy atamalar sof ilmiy tushunchalarni emas, balki ularning majoziy ifoda shakllarini aks ettiradi. G.O. Vinokur esa terminlar haqidagi fikrida shunday deydi: “Atama – bu alohida maxsus soʻz emas, balki maxsus funktsiyaga ega boʻlgan soʻzdir”. Demak, har qanday soʻz, kontekstga qarab, termin sifatida ham, badiiy yoki publitsistik obraz sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Metaforizatsiya odatda tanaga oid atamalarda tez-tez uchraydi. Tibbiy terminlar orasida oyoq, boʻyin, bosh, yurak, quloq, ogʻiz kabi anatomik birliklar ijtimoiy, hissiy yoki ruhiy holatlarni ifodalashda keng ishlatiladi. Bu esa ularning semantik oʻzgaruvchanligini oshiradi va polisemantik xususiyatlarining yanada boyishiga olib keladi.

Tibbiy terminologiyada polisemiya hodisasi fanlararo va fan ichidagi koʻrinishlarda namoyon boʻladi. Fanlararo polisemiya deganda tibbiyotning turli yoʻnalishlarida bitta terminning turlicha semantik yuklamada qoʻllanilishi tushuniladi. Masalan, anastomoz atamasi anatomiya va jarrohlik fanlarida, anesteziya esa nevrologiya va jarrohlikda oʻziga xos, kontekstga bogʻliq boʻlgan maʼnolarda ishlatiladi. Bunday polisemiyalarning yuzaga kelishiga asosiy omil sifatida tibbiyot doirasida mavjud boʻlgan koʻplab mikroterminologik tizimlar — yaʼni kichik sohalar doirasidagi termin tizimlarining kengligi va murakkabligi koʻrsatiladi. Bu tizimlarda bir xil lingvistik birlik turli maʼno yukini anglatishga xizmat qiladi.

Tibbiy atamalarning, xususan, kasallik nomlarini ifodalovchi terminlarning semantik tahlili shuni koʻrsatadiki, tibbiy terminologiyada polisemiya adabiy tildagi darajadek keng tarqalgan emas. Biroq bu, u butkul mavjud emas degani emas. Aksincha, turli shakl va kontekstlarda polisemiya tibbiy sohada ham kuzatiladi va u oʻziga xos semantik hodisa sifatida tibbiy til rivojida muhim oʻrin egallaydi.

Tibbiy til tizimida omonim birliklarning ham oʻziga xos paradigmasi mavjud boʻlib, ular lingvistik jihatdan alohida tahlilni talab etadi. Bu nuqtada “omonim” atamasining ilmiy talqinini koʻrib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Omonimlar deb, shakli va talaffuzi bir xil boʻlgan, biroq maʼno jihatidan mutlaqo bir-biriga bogʻliq boʻlmagan, umumiy semantik komponentga ega boʻlmagan soʻzlarga aytiladi. Bu taʼrif oʻz-oʻzidan oddiy koʻrinadi, biroq har qanday fonetik jihatdan oʻxshash soʻzni omonim deb baholash mumkin emas. Shu sababli omonimiya hodisasi aslida aniq semantik ajralish va kontekstual farqlanishga asoslangan murakkab lingvistik tushuncha sifatida qaraladi. Tilshunolar bu hodisani bir xil fonematik tuzilishga ega boʻlgan, biroq semantik yoki grammatik jihatdan farqlanadigan ikki yoki undan ortiq soʻz sifatida izohlaganlar.

V.V. Vinogradov “Omonimiya va yondosh hodisalar toʻgʻrisida” nomli asarida omonimlarni faqat fonetik jihatdan mos keladigan nutq birliklari yoki sintaktik segmentlar bilan cheklash notoʻgʻri ekanini taʼkidlaydi. U omonimiyaga morfemalar darajasida ham yondashish zarurligini ilgari suradi.

A.A. Reformatskiy esa omonimiya va polisemiya orasidagi chegarani belgilashda, bu ikki hodisa bir-biriga yaqin joylashganini taʼkidlab oʻtadi. Uning fikricha, baʼzan polisemantik birliklar oʻz kontekstidan ancha uzoqlashganda, ular amalda omonim birliklarga aylanadi. Bu ayniqsa, fanlararo terminologiyada – yaʼni bir xil shakldagi atama turli ilmiy yoʻnalishlarda har xil mazmunga ega boʻlganda – yaqqol namoyon boʻladi.

K.Y. Averbux esa terminologik omonimiyaning yuzaga kelish sabablari sifatida uch asosiy omilni koʻrsatadi:

- turli kontseptual asoslarga ega boʻlgan, shaklan bir xil nomemalarning mavjudligi;
- atamaning boshqa terminologik tizimlarga koʻchib, metaforik tarzda ishlatilishi;

- har bir ilmiy sohaga xos boʻlgan turli tushunchalarni ifodalovchi yagona obyektning mavjudligi[6].

Oʻzbek tilshunosligida ham omonimiya muhim lingvistik hodisa sifatida koʻplab tadqiqotlarga mavzu boʻlgan. Jumladan, N. Mahmudovning izlanishlarida omonimlarning kelib chiqish sabablari va ularning nutqiy amaliyotdagi roli chuqur oʻrganilgan. U omonimlarning shakllanishida ikki asosiy omilni koʻrsatadi: soʻzlar oʻrtasidagi fonetik oʻxshashlik natijasidagi tasodifiy yaqinlik; soʻzlarning semantik rivojlanish natijasida bir-biriga yaqinlashuvi[7].

N.Mahmudov, shuningdek, omonimlarni tilning leksik boyligi va ifodaviy qudratining koʻrsatkichi sifatida eʼtirof etadi. Ularning mavjudligi tilda uslubiy rang-baranglik va kontekstual aniqlikni taʼminlashda muhim vosita hisoblanadi.

Yuqoridagi taʼriflar va izohlar shuni koʻrsatadiki, omonim birliklarni toʻgʻri talqin qilishda kontekst hal qiluvchi omildir. Aynan kontekst asosida omonimlarning qaysi maʼnoda

qo'llanilayotganini aniqlash mumkin. Shu tariqa, omonimlarni shakldosh, lekin ma'nodosh bo'lmagan birliklar sifatida tavsiflash mumkin bo'ladi.

Tibbiyot fani o'z ichiga ko'plab yirik yo'nalish va ixtisoslashgan tarmoqlarni oladi. Jumladan, inson kasalliklarini o'rganuvchi tibbiy bo'limlar tibbiyotning alohida yo'nalishlari sifatida shakllangan. Masalan: allergologiya, dermatologiya, epidemiologiya, fizioterapiya, ginekologiya, kosmetologiya, terapiya, xirurgiya, kardiologiya kabi sohalar mavjud bo'lib, har biri o'z terminlar tizimiga ega. Shu bilan birga, ayrim terminlar turli sohalarda qo'llanilib, fanlararo omonimiya holatlarini yuzaga keltiradi.

Fanlararo terminlarning ma'nodosh emas, ammo shakldosh bo'lishi ulardan foydalanishda aniqlik talab qiladi. Quyida ba'zi fanlararo omonim birliklarga izoh beramiz:

1. Peritonit – fanlararo omonim birlik

XX asrning o'rtalarida Mixelson lug'atida "peritoneits" atamasi qo'llanila boshlangan edi. Biroq asr oxiriga kelib, bu atama "peritonit" shakli bilan almashtirildi. A.P. Chexovning 1888-yil 9-fevralda A.N. Pleshchevga yozgan maktubida ham bu termin qayd etilgan:

"1877-yilda yo'lda men peritonit (qorin pardasining yallig'lanishi) bilan kasal bo'lib, Moisey mehmonxonasida og'riqli tunni o'tkazdim." [8]

Peritonit atamasi "periton" (qorin pardasi) va "-it" (yallig'lanish bildiruvchi affiks) qismlaridan tuzilgan bo'lib, asosan ikki yo'nalishda ishlatiladi:

Peritonit I (terapiya, gastroenterologiya) – qorin parda (periton)ning yallig'lanishi;

Peritonit II (xirurgiya, parazitologiya) – ichak yaralari yoki o'tkir yiringli bakteriyalar natijasida yuzaga keladigan yallig'lanish jarayoni [9].

Bu ikki holatda bir xil atama turli tibbiy yo'nalishlarda, ya'ni gastroenterologiya va parazitologiya sohalarida har xil klinik tushunchalarni bildiradi. Bu esa fanlararo terminologik omonimiyani yuzaga keltiradi.

2. Dispepsiya – terapiya va pediatriyada turlicha talqin

Dispepsiya I (terapiya) – ovqat hazm qilish jarayonining buzilishi;

Dispepsiya II (pediatriya) – chaqaloqlarda ovqatni hazm qilish qobiliyatining zaifligi yoki yo'qligi bilan kechuvchi oshqozon-ichak muammolari [9].

Bu yerda birinchi atama umumiy patologik holat sifatida keng qo'llaniladi, ikkinchi holatda esa aniq yosh toifasi – chaqaloqlar uchun xos klinik simptom sifatida talqin etiladi. Shunday qilib, dispepsiya atamasi terapiya va pediatriya fanlarida turlicha semantik yuklama oladi. Bu esa fanlararo omonimiyaning yana bir namunasi sifatida qoraladi.

3. Alveolit – terapevtik va stomatologik ma'nolar

Alveolit I (pulmonologiya) – o'pkaning alveolalarining yallig'lanishi, bu holat nafas olish faoliyatining buzilishiga olib keladi;

Alveolit II (stomatologiya) – tish ildizi joylashgan alveola (tish kovagi)ning yallig'lanishi [9].

Ikkala holatda ham "alveolit" termini lotincha alveolus ("teshik, bo'shliq") so'zidan kelib chiqqan. Ammo birinchi holatda bu so'z o'pka anatomiyasi bilan, ikkinchi holatda esa og'iz bo'shlig'i va tish tuzilmasi bilan bog'liq. Atama shaklan bir xil bo'lsa-da, mazmunan har xil sohaga oid bo'lib, ular orasida fanlararo omonimlik mavjud.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy terminologiyada fanlararo omonimiya hodisasi bir xil shakldagi, lekin turli fanlar doirasida turlicha ma'noga ega bo'lgan birliklarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bunday holatlarda kontekst muhim ahamiyat kasb etadi. Kontekst asosida terminning qaysi ma'noda, qaysi fan sohasida ishlatilayotganini aniqlash mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, bunday omonim birliklar tibbiy terminologiyani yanada murakkab, ammo chuqur tahlil talab qiladigan tizimga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочивания иноязычных терминов и терминологических элементов / Д.С. Лотте. – Москва, 1982. – 149

2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1966. – 605 с. Супранская А.В. Общая терминология. – М.: УРСС, 2009. – С. 5

3. Уфимцева, А.А. Лексическая номинация (первичная нейтральная) [Текст] / А.А. Уфимцева // Языковая номинация. Виды наименований. - М.: Наука, 1977. — С. 5-85.

4. Шестак, О.В. Полисемия терминов медицинских наук [Текст]: Дис... канд. филол. наук / О.В. Шестак. - Краснодар, 1996. - 159 с.

5. Чернявский, М.Н. Краткий очерк истории и проблем упорядочения медицинской терминологии [Текст] / М.Н. Чернявский // Энциклопедический словарь медицинских терминов. В 3-х томах / Гл. ред. Б.В. Петровский. — М.: Изд-во «Советская энциклопедия», 1984. - т.3. - С.411-424.

6. Авербух, К.Я. Терминологическая вариативность: теоретические и прикладные аспекты [Текст] / К.Я. Авербух // Вопросы языкознания. - 1986. - №6.-С.38-49.

7. N.Mahmudov, “Omonimlarning semantic xususiyatlari”, o‘zbek tili va adabiyoti, 2003.-57-bet.

8. Ожегов, С. И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка: 80 000 слов и фразеологических выражений [Текст] / Под ред. Н.Ю. Шведовой. - М.: Азбуковник, 1999. - 944 с.

9. Энциклопедический словарь медицинских терминов. В 3-х т. [Текст] / Гл. ред. Б.В. Петровский. - М.: Изд-во «Советская энциклопедия», 1984.

BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA MATNNI DAVOM ETTIRISHGA DOIR MASHQLAR BILAN ISHLASH METODIKASI

Tog‘ayeva Umida Shavqi qizi

*Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) u.s.togayeva@buxdu.uz*

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlash jarayoni, matnni davom ettirishga doir mashqlar, ularning ta‘lim jarayonidagi samaradorligi, bunday mashqlar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: o‘qish, yozish, matn, matnni ixchamlash, og‘zaki nutq, yozma nutq, xotira, diqqat, mustaqil fikrlash.

METHODOLOGY FOR WORKING WITH EXERCISES TO CONTINUE THE TEXT IN PRIMARY SCHOOL NATIVE LANGUAGE CLASSES

Abstract: this article describes the process of working on the text in primary school native language classes, exercises for continuing the text, their effectiveness in the educational process, and the specific features of working with such exercises.

Keywords: reading, writing, text, text summarization, oral speech, written speech, memory, attention, independent thinking.

Ona tili o‘qitish jarayonida matn ustida ishlash muhim metodik vosita hisoblanadi. Matn, nafaqat o‘quvchilarga tilni o‘rganishda yordam beradi, balki ularning fikrlash, tahlil qilish, yozish va nutq madaniyatini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Matn ustida ishlash, ona tili o‘qitishning samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarga tilning barcha aspektlarini o‘rganish imkonini yaratadi.

Matn ustida ishlash metodikasi, o‘quvchilarga tilning grammatik, leksik, stilistik jihatlarini o‘rganishga yordam beradi. Shuningdek, matnni tahlil qilish va unga asoslanib turli topshiriqlarni bajarish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq ifodalash, matnni tushunish va shaxsiy fikr bildirish kabi ko‘nikmalarni egallaydi. Matn bilan ishlashning asosiy maqsadi — o‘quvchilarga matnning mazmunini to‘g‘ri tushunish, undagi axborotni ajratib ko‘rsatish, matnning asosiy g‘oyasini aniqlash va uni izchil ifodalashni o‘rgatishdir.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning tanqidiy va ijodiy fikrlashini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ona tili darslarida matn asosida bajariladigan mashq va topshiriqlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ona tili ta‘limida matn yaratish va matn ustida ishlash usullari bag‘oyat xilma-xil.

1. Berilgan matndan o'rganiladigan mavzuga oid so'zlarni ajratish, ularni so'z turkumlari bo'yicha guruhlash, so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi, shakl yasovchi qo'shimchalarni guruhlash.

2. Matndagi sodda gaplardan qo'shma gaplar hosil qilish, qo'shma gaplarni soddalashtirish.

3. Ajratilgan sodda qo'shma gaplarni sintaktik tahlil qilish.

4. She'riy yo'l bilan yozilgan asarlarni nasriy yo'l bilan gapirib berish.

5. Matndagi qo'shma gaplarni ajratish, turlarini aniqlash. O'quvchilarda matn ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun o'qituvchi tomonidan tavsiya qilinadigan tayyor matnlar boshlang'ich sinflar uchun ona tili o'quv dasturi talabi asosida tanlanadi.

Matnning turini aniqlash, qaysi uslubga xosligini aniqlash, matndagi tinish belgilarini to'g'ri va o'rinli qo'llash ko'nikmalari shakllantiriladi.

Matnni kengaytirish – bu matnga epigraf tanlash, maqol, hikmatli so'zlar, iboralar tasviriyl ifoda bilan boyitish, ilmiy matnni badiiy matnga aylantirish aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, ega kesimlardan samarali foydalanish kerak (so'z va gap kengaytiruvchilar).

Matnni ixchamlash – bunda matn mazmunini o'zgartirmagan holda, matnni takrordan tozalash, xatolarni bartaraf etish matn mazmuniga mos kelmaydigan kiritmalardan voz kechish, ularni kamaytirish, abzaslarni birlashtirish kerak. Matnni davom ettirish – kirish qismi berilgan matnni davom ettiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar matn ustida ishlash va matn yaratish jarayonining o'zaro aloqadorlikka erishish, gazeta, jurnal, badiiy va ilmiy adabiyot manbalari, kompyuter, internet tizimi, saqlanayotgan axborotlar mavzuga oid ma'lumotlaridan foydalanishga odatlantirish kerak. Matnni imloviy, uslubiy nuqsonlarini topish, ularni mustaqil bartaraf etishni o'rganish kerak. O'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish umumta'lim maktablari ona tili darslarining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsad sari eltadigan usullar sirasiga badiiy asarlardan olingan ayrim gaplar, kichik parchalar ustida olib boriladigan ishlar ham kiradi. Bunday misollar bilan ishlash metodikasi esa qator o'ziga xosliklarga ega. Bu o'ziga xoslik bir jihatdan ularni idrok etish bilan bog'liq. Ona tili darslarida o'quvchilarning badiiy asarni badiiy idrok etish, shu orqali olam haqida, voqea-hodisalar to'g'risida obrazli fikr yuritish ko'nikmalari badiiy asarlardan keltirilgan ilustrativ materiallar asosida muvaffaqiyatliroq shakllantirilishi mumkin. Umuman, matn ustida ishlash o'rta maktablarda keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, ulardan samarali foydalanish o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarining ravon bo'lishlarini ta'minlaydi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga va o'z fikr mahsulini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon bayon qila olishga o'rgatish ona tili o'qituvchilari oldida turgan eng dolzarb masaladir. Demak, bu kabi ma'suliyatli ishlarni amalga oshirish maqsadida Milliy o'quv dasturi va darsliklarda bir qancha talablar va topshiriqlar berilgan. Har bir sinfda o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib talablar belgilab qo'yilgan.

Matnni davom ettirishga doir topshiriqlar 1-sinf 2-qism Ona tili darsligidan boshlab uchraydi. Dastlab o'quvchilarga tayyorlov bosqichi sifatida "Gaplarni yakunlang", "Joy nomlarini davom ettiring" kabi topshiriqlar keltirilgan. Ushbu topshiriqlarni bajargandan so'ng o'quvchi matn yoki ertaklarni davom ettirishga qiynalmaydi.

Ona tili 1-sinf, 2-qism. 1-mashq. O'qing. Ertakni davom ettiring.

Sehrli qalam

Sherzod rasm chizishga qiziqqani uchun dadasi unga rangli qalamlar to'plamini olib bergan edi. U qalamlardan birini yo'nib, rasm daftariga baliq suratini chizgandi, baliqning qanoti qushnikiga o'xshab qoldi. Unga jon kirib, qushdek uchib xonani bir-ikki aylandi-da, o'zini tashqariga urib derazadan chiqib ketdi. Sherzod qalamning sehrli ekanini bilib qoldi. Ertasi kuni bu haqida o'rtoqlari Kozim bilan Akmalga aytdi. Ular darsda yana qalamning sehrini sinab ko'rishdi.

Ilhom Zoyir

• Agar sizda sehrli qalam bo'lganida nimaning rasmini chizgan bo'lardingiz va nima uchun?

Ushbu topshiriqni bajartirishda matn tahlilidan so'ng, har bir o'quvchiga ijodiy topshiriq beriladi hamda ularning fikrlari tinglanadi.

Matnni davom ettirishga doir topshiriqlarning yana bir muhim jihati shundaki, ular o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish bilan birga, ularning yozma va og'zaki nutqini ham shakllantiradi. Matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilar grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzishga, aniq va izchil fikr bildirishga o'rganadilar.

Shuningdek, bunday mashqlar o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini oshiradi. Ona tili darslarida matn vositasida bajariladigan mashq va topshiriqlar o'quvchilarning o'qish, yozish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bunday mashqlar orqali o'quvchilar matnni chuqur tushunish, uni tahlil qilish va o'z fikrlarini aniq bayon etish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Matnni davom ettirishga doir topshiriqlar o'quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlashini shakllantirish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish hamda grammatik bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi. Shuningdek, bu usul ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida matn asosidagi mashq va topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning bilim olishini faollashtiradi va ularning mustaqil o'rganish qobiliyatini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Shu bois kelajakda ushbu usullarni takomillashtirish va amaliyotga keng joriy etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'grisida"gi O'RQ-637 son qonuni.
2. M.Hamroyev, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili (darslik). Toshkent: TDPU. 2008.
3. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: "Noshir", - 2009.
4. M.Yo'ldoshev. O'zbek tili praktikumi (1-qism). Toshkent: TDPU. 2006.
5. Sh.Yuldasheva. Ona tili. 1-sinf 2-qism darslik. Toshkent: Novda. 2023.

UZLUKSIZ TA'LIM TA'LIM JARAYONIDA MOTIVATSIYANING ROLI VA UNING IJTIMOIIY AHAMIYATI

Xudayberganova Lobarxon Ibodulla qizi

Guliston davlat universiteti Psixologiya yo'nalishi talabasi +998973550227

Ravshanov Sobir Abdimalik o'g'li

Guliston davlat universiteti o'qtuvchisi sobirravshanov3@gmail.com +998999144472

Annotatsiya: hozirgi jadal rivojlanayotgan davrda har bir shaxs bilimi, o'zi bilgan ko'nikma, maxorat, odat va boshqa shunga o'xshash jamiyatdan o'zi o'zlashtirib olgan ma'naviy boyliklar orqali o'z hayot tarzini hamda boshqalarga munosabatini shakllantiradi. Dunyo ijtimoiy-iqtisodiy tizimini globallasuvi va integrallasuvi jamiyatga, xususan inson falsafasiga o'z ta'sirini o'tkazib, uni ma'lum bir yo'nalishlarga yetaklaydi.

Kalit so'zlar: motivatsiya, ijobiy motivatsiya, salbiy motivatsiya, yoshlar, harakat, faollik, qobiliyat, shaxsiyat, inson, ehtiyoj, rag'batlantirish, xulq –atvor.

НЕПРЕРЫВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ РОЛЬ МОТИВАЦИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ И ЕЕ СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация: в современную бурно развивающуюся эпоху каждый человек формирует свой образ жизни и отношение к другим через знания, умения, навыки, привычки и другие подобные духовные богатства, которые он приобрел от общества. Глобализация и интеграция мировой социально-экономической системы оказывают

влияние на общество, в частности на философию человека, направляя ее в определенных направлениях.

Ключевые слова: мотивация, положительная мотивация, отрицательная мотивация, молодежь, движение, активность, способность, личность, человек, потребность, стимул, поведение.

CONTINUOUS EDUCATION THE ROLE OF MOTIVATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS AND ITS SOCIAL SIGNIFICANCE

Annotation: in the current rapidly developing era, each person forms his own lifestyle and attitude towards others through knowledge, skills, abilities, habits and other similar spiritual wealth that he has acquired from society. The globalization and integration of the world's socio-economic system have an impact on society, in particular on human philosophy, leading it in certain directions.

Keywords: motivation, positive motivation, negative motivation, youth, movement, activity, ability, personality, person, need, incentive, behavior.

Ta'limda uzviylik ikki xil turda qo'llaniladi. [Birinchidan](#), ta'lim turlari (bo'g'inlari) orasidagi uzviylik. Bunda ta'limning keyingi turi mazmuni avvalgisini qisman takrorlab, mazmun jihatidan uzviy bog'langan holda uning keyingi ta'lim turlarida davom etadi. [Ikkinchidan](#), o'quv fanlari orasidagi uzviylik. Bu odatda fanlararo yoki predmetlararo bog'lanish orqali amalga oshiriladi. Uzviylik tushunchasi uzluksiz ta'lim tizimining har bir turida o'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablarni xarakterlaydi.[1] Uzviylik o'quv materialining muayyan ketma-ketlikda, [tizimli joylashtirilishi](#), bilimlarni o'zlashtirishda mavjud bilimlarga tayanish, o'quv materialining ma'lum darajada navbatdagi bosqichlarda qo'llanilishi, o'quv-tarbiya jarayoni bosqichlarining davomiyligini anglatadi. Mazkur hodisa o'quv predmeti materiallarini joylashtirish hamda ushbu predmet (fan) asoslarini o'zlashtirish faoliyati turlarining samarali tanlanishiga yordam beradi. Bu jarayonda quyidagi ikki omil: muayyan fanning mazmuni mantig'i (o'quv predmetida uzviylikning mavjudligini aniqlovchi jihatlar -o'quv predmeti mazmunini [tashkil qiluvchi tushuncha](#), qonun-qoidalar, manbalar va dalillar hisoblanadi. O'zaro organik bog'lanuvchi avval va keyin o'zlashtirilgan muayyan soha bilimlari mohiyatini ma'lum ketma-ketlik asosida asta-sekin ochib berilishini ta'minlovchi harakatlar) hamda bilimlarini o'zlashtirish jarayonining qonuniyatlari (didaktik jihatdan qayta ishlanmagan muayyan soha bilimlarining o'quv predmetiga to'g'ridan-to'g'ri singdirilishiga yo'l qo'ymaydigan harakat, amal)ni inobatga olish muhim ahamiyatga ega hisoblanishi nazarda tutilgan. Pedagogika sohasiga oid adabiyotlarda uzviylik tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan. Masalan, **B.G.Ananyev** «uzviylik» tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: «Ta'limdagi uzviylik o'quvchilar fan asoslarini egallash jarayonida olgan bilimlar tizimining vaqt nuqtai nazaridan rivojlanishidir»

Motivatsiya ma'lum bir martaba uchun individual va mas'uliyatli tanlovning muhim hal qiluvchi omilidir. Motiv va motivatsiya muammosi jahon psixologiyasida turli tuman nuqtai nazaridan yondoshish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Motivatsiya inson xulq atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, motivatsiya (grekcha motif, lotincha moveo – «harakatlantiraman» so'zidan yasalgan) – insonni biron-bir maqsadga erishish uchun astoydil intilish, bunga ishtiyoq uyg'otishga qiziqtirish va buning uchun kuch jamlash jarayonidir. Ruscha-o'zbekcha lug'atda motivatsiya tushunchasi biror ish yoki harakatning yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan motivlar, dalillar, isbotlar, bahonalar, vajlar yoki sabablar majmui ma'nosida talqin etiladi. Inson motivatsiyasi tog'risida yozilgan ilmiy ishlarda “agar inson xayoti uning rivojlanishga qarab oldinga harakatlanish bo'lsa, unda hayoti bu o'z-o'zini takomillashtirish hamda o'z shaxsiyatining o'sishida eng yuqori natijalarga erishish yo'lidagi doimiy ravishda yangi-yangi to'siqlarni bartaraf etish jarayoni deb aytsak bo'ladi. Va bu jarayonda insonning har bir qilgan xatti-harakatining ma'nosini anglab yetish eng asosiy rol egallaydi” deb ta'kidlangan. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, motivlarning rivojlanishi, motivlashgan yangi

ma'lumotlarning paydo bo'lishi, faoliyat muhiti doirasidagi o'zgarishlar tufayli amalga oshiriladi. Motiv mexanizmi shaxs sifatlarini qayta qurish, ularni rivojlantirish jarayonining faollashuvi tarzida yuzaga chiqadi, shu bilan birga inson kamol topish jarayoniga, faoliyat muhiti va sharoiti asta sekin yoki tez o'zgarishi – motivlarning takomillashuvi, barqarorlashuvi kabi omillarga ta'sir etadi. Insonni mehnat faoliyatida qayta tarbiyalash va muayyan fazilatlarini shakllantirish yuqoridagi mulohazalar mohiyatidan iboratdir. Bu o'rinda faoliyat faol vaziyat hisoblanib, mavjud ehtiyojlar, qiziqishlar doirasidagi psixologik holatlardan uzoqlashib boradi, so'ngra yangi qiziqish, ehtiyoj va intilishlarni shakllantiradi, motivlar mohiyati va shakllarni o'zgartiradi. [3]

Insonning qaysi faoliyatini tanlashi ko'proq tashqi omillar haqidagi karorning kabul kilinishi jarayoni haqida tuxtalishi muhimdir. Bu asosan tashki xolat baxolariga, o'zining imkoniyat va kobiliyatlariga, kasb tanlashdagi qiziqish va moyilliklariga bog'liqdir. Tashqi holatini baholash, ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar, o'zida ishlab topiladigan pul miqdori, imtiyoz, taklif etilayotgan korxona, muassasaning yashash joyiga yaqin bo'lishi, transport alokalarining kulayligi, ish joyi estetikasi va ishlab chikarishning zararli tomonlari, jamoadagi psixologik iklim, maktov va tartibga chakirish kabilarni kamrab oladi. O'z imkoniyatlarini baxolash sog'lomligi, ishga yarokliligi, kasbi bo'yicha muhim sifatlariga egaligi, bilim darajasi, stresslarsiz ishga moyilligi, yuqori shovkinli ishda talab etilgan temp va xotirjam ritm bilan ishlay olish imkoniyati kabilarni uz ichiga oladi. Qiziqishlarga mos ravishda tanlangan ish joyini baholash, ayni vaqtda ishlayotgan muassasasi, korxonadagi imkoniyat to'siqlari, ishni boshqarish, kasbiy o'sish, tashabbusning paydo bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ba'zan qiziqish bo'yicha ish joyini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ish joyini va kasbni tanlash motivlari E.S.Chuchunay tomonidan klassifikasiya qilingan.

Motivlarning mustaxkamlanishi mehnat faoliyatida ishlovchilarning ko'pgina omillarini qondirilishiga bog'liq bo'ladi. G'arb psixologlaridan V.Vrum va E.Disi mehnat faoliyati motivasiyasini tarkibiy qismlarini ajratadilar. Unga ko'ra insonlar qanchalik uz ishidan qoniqsa, shunchalik ular o'z ishlarini bajarishga kuchliroq xarakat qiladilar. Ularni faoliyat jarayonida ragbatlantirib borilsa, shunchalik qattiqroq ishlaydilar. Bunday yondashuvda amalga oshiriladigan ragbatlantirish ishchilar faoliyatining mahsuldorligiga bog'liq. Bunda ular faoliyat ko'rsatadigan firma, kompaniya va tashkilotlardan kuch oladilar. [4] So'rovnomalar natijalariga muvofiq ishdan bo'shashning turi - obyektiv, obyektiv - subyektiv va subyektiv ko'rinishlarga ajratiladi. Obyektiv sabablarga sog'liqning yomonligi va jismoniy holati, turar joyini o'zgarishi, ta'lim olishni davom ettirish, tug'ish va bolani parvarishlash kabilar kiradi. Obyektiv - subyektiv sabablarga mehnat shartnomasining shartlari, kasbiy o'sish, yuksalish imkonining yo'kligi va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Subyektiv sabablarga jamoadagi psixologik iqlim, shaxslararo munosabatlar va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Ishsizlarning ish qidirish motivasiyalari haligacha ham o'rganilmayotgan muammo bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga ishsizlarning axloqi, yangi ish joyini topish bo'yicha faoliyati ko'p jihatdan uning motivasion jabhalariga, ularning tuzilishiga kam hollarda hayot mazmunining shart-sharoitlariga bog'liq. M.V.Dmitriy ta'kidlaganidek, ishsizlarning motivasion jabhalarini o'ziga xos xususiyatlari ish izlashdagi faoliyatlari motivasion tuzilishlarining xamma ko'rsatkichlariga bog'liq holda namoyon bo'ladi. [5] Ular ijtimoiy o'zgarishlardan mustakil bo'lish uchun kayta xarakat kilishda uz imkoniyatlaridan foydalanishga turtki beradi. Passiv ishsizlarning motivasion imkoniyatlarini tuzilish xususiyati aloxida motivlarning xam asosan ular doimiy xarakatlanuvchanligi bilan tavsiflanadi.

Pedagogik oliy o'quv yurtlariga kirish va pedagog kasbini tanlash motivlari (o'qituvchi, bog'cha tarbiyachisi va b.) turli xil bo'lib, bunda ulardan bir qanchasi pedagogik faoliyat bilan bog'liq bo'ladi. Bu jihat anchadan beri pedagogik, jamoatchilik va oliy o'quv yurtlarini o'ylantirib keladi. O'tkazilgan ko'pgina so'rovlar bo'yicha olingan natijalarda (pedagogik oliy o'quv yurtiga kirganlarning) o'qituvchi kasbiga ijobiy munosabat bildirgan. Taxminan 40 % u yoki bu narsa yoki predmetlarga qiziqqani tufayli o'qituvchilik faoliyatiga qiziqmagan xolda 13 % dan 22 % talabalar esa na o'qituvchilik faoliyatiga va na kasbiy fanga ijobiy munosabat

bildiradi. Ularni oliy o'quv yurtiga kirishidan maksad ayni vaktida xarbiy xizmatdan qochish yoki oliy ta'lim nufuziga ega bo'lish hisoblanadi. Ko'pgina, talabalarning pedagogika o'quv yurtiga kirish sabablari shu dargoxning ularning turar joyiga yaqinligi bo'ladi. Bu ko'rsatkich, bunday moyillik ko'p yillar davomida saqlanib kelmoqda.

O'rganilgan manbalarga ko'ra motivasiya tiplari o'qituvchilarning o'quvchilarga bo'lgan pedagogik talablarining yo'nalishi va xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining turli tomonli motivasiyasi o'quvchilarning axloqiga va ularning o'quv materialini o'zlashtirishga talabning uyg'unligi bilan tavsiflanadi. O'qituvchilardagi majburiyat motivlarining ustunligi o'quvchilarga fakatgina katta talablar kuyib kolmasdan, balki, katiy intizomni xam talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anorbayevna, G. N. (2016). Influence of the sibling status's of teenagers on interpersonal relations. European journal of education and applied psychology, [3-5 bet]
2. Deci EL, Ryan RM. Self-determination theory: A macro theory of human motivation, development, and health. Canadian Psychology. 2008;49(3):182-185. [4-7 bet]
3. Deci EL, Ryan RM. Self-determination theory: A macro theory of human motivation, development, and health. Canadian Psychology. 2008;49(3):182-185.
4. O.E.Hayitov; Psixodiagnostika: O'quv qo'llanma // V.M.Karimovanning umumiy tahriri ostida. - T.: 2007. [1,2- 76 bet]
5. Rasulova Miss, F. (2020). PSYCHOCORRECTIONAL WORK OF A PRACTICAL PSYCHOLOGIST WITH AGGRESSIVE BEHAVIOR OF CHILDREN AND TEENAGER. The Light of Islam, 2020. [5-123 bet]

BO'LAJAK KURASH MURABBIYI KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Aslonov Nasillo Sharifovich

Buxoro tuman olimpiya va milliy sport turlari

bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati rahbari

5. Scheel L., Vladova G., Ullrich A. The influence of digital competences, self-organization, and independent learning abilities on students' acceptance of digital learning //International journal of educational technology in higher education. – 2022. – T. 19. – №. 1. – С. 44.

BO'LAJAK MUSIQA MADANIYATI O'QITUVCHILARINING AUTENTIK KOMPETENSIYASINING XUSUSIYATLARI

Bexruz Hamidovich Boltayev

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasida o'qituvchisi

Anotatsiya. Biz kasbiy kompetentsiya ko'p faktorli hodisa deb hisoblaymiz. Bu nafaqat maxsus asosiy ilmiy va uslubiy bilimlar, ko'nikmalar, balki kasbiy, balki o'qituvchining umumiy madaniyatiga, uning qadriyat yo'nalishlariga, faoliyatining mazmuni va mutaxassis sifatida o'zi haqidagi g'oyalarga bog'liq bo'lgan odamlar bilan ishlash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: musiqa o'qituvchisi, pedagogik kompetentsiya, kasbiy, musiqa, san'at, ta'lim, ma'naviy qadriyat, inson, estetik, tafakkur.

ОСОБЕННОСТИ АУТЕНТИЧНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ

Бухарский государственный университет

Музыкальное исполнение и культура

**преподаватель кафедры
Бехруз Хамидович Болтаев**

Аннотация. Мы считаем, что профессиональная компетентность – явление многофакторное. От общей культуры педагога, его ценностных ориентаций, содержания его деятельности и его представлений о себе как о специалисте зависят не только специальные базовые научно-методические знания, умения и навыки, но и профессиональные, но и работа с людьми. включает в себя способности.

Ключевые слова: учитель музыки, педагогическая компетентность, профессионал, музыка, искусство, образование, духовные ценности, человек, способности, мышление.

**FEATURES OF THE AUTHENTIC COMPETENCE OF FUTURE MUSIC
CULTURE TEACHERS**

**Bukhara State University
Music performance and culture
teacher of the department
Bekhruz Khamidovich Boltaev**

Abstract. We believe that professional competence is a multifactorial phenomenon. Not only special basic scientific and methodological knowledge, abilities and skills, but also professional ones, but also work with people depend on the general culture of the teacher, his value orientations, the content of his activities and his ideas about himself as a specialist. includes abilities.

Key words: music teacher, pedagogical competence, professional, music, art, education, spiritual values, abilities, thinking.

Bugungi kunda ta'lim sohasida kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodologik tamoyil sifatida shakllanmoqda. Ayniqsa, madaniy-ma'rifiy sohaga oid kasblar, jumladan, musiqa madaniyati o'qituvchilarining tayyorlov jarayonida faqat nazariy bilim emas, balki ularning amaliy va ijodiy ko'nikmalarini chuqurlashtiruvchi autentik kompetensiyani rivojlantirish zarurati tobora ortmoqda. Autentik kompetensiya nafaqat kasbiy faoliyatga, balki shaxsiy yondashuv, ijodiy tafakkur va kommunikativ madaniyatga ham ta'sir etadi. Ta'lim sohasidagi zamonaviy kontseptual yondashuvlar oliy o'quv yurtlarida o'qituvchini tayyorlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni faollashtirishni o'z ichiga oladi. Pedagogik jabhadagi o'zgarishlar yangi pedagogik tafakkurning shakllanishiga olib keladi, uning asosiy bo'g'ini pedagogik jarayonni insonparvarlashtirish, individual shaxsiy yo'nalish, ya'ni barcha o'quv-tarbiyaviy ishlarning bolaning shaxsiyatini rivojlantirishga yo'naltirilganligi, uning tashqi dunyo va o'zi bilan yetarli munosabatlar tizimini shakllantirishdir.

Musiqa o'qituvchisi kasbi nafaqat o'ziga xos, balki o'ziga xos tarzda ijtimoiy ahamiyatga ega. Faqat musiqa o'qituvchisi har bir bolaning musiqiy madaniyatini shakllantiradi. U mamlakatning butun yosh avlodini buyuk musiqiy meros bilan tanishtiradi, bolalarda badiiy, estetik didni rivojlantiradi, ijodiy qobiliyatlarni, tasavvurni, intuitivlikni rivojlantiradi. Musiqa o'qituvchisining zamonaviy kasbiy darajasi musiqani o'rganish va tahlil qilish bo'yicha yuqori ixtisoslashgan nazariy bilim va ko'nikmalar bilan cheklanmaydi. Musiqiy hodisalarni keng madaniy va tarixiy kontekstda ko'rib chiqadigan chuqur gumanitar bilimlar zarur.

O'zbek falsafasida san'atning insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Musiqa san'atning o'ziga xos turi sifatida inson shaxsiyatining qadriyat belgisidir va umuminsoniy ma'naviy qadriyat bo'lib qoladi. Musiqa odamlarning ruhiyatiga ta'sir qilishi mumkinligini bilish jamiyat tarixining barcha davrlarida musiqaning falsafiy tabiatiga bag'ishlanganlar tomonidan ishlatilgan, dunyoqarash bu tabiatni anglash orqali shakllangan. Odamlarning ma'naviy kayfiyatiga musiqiy ta'sirning ezoterizmi ikkita hodisaning yagona tabiati bilan bog'liq. Musiqa san'atining eng qimmatli hissasi shundaki, u vaqt, makon orqali barcha zamon va xalqlarning eng yaxshi va buyuk odamlari bilan, qo'llarining asarlari orqali, ufqlarini kengaytirib, dunyoqarashni boyitib, muloqot qilish uchun noyob imkoniyat yaratadi. Insonni shakllantiradigan barcha madaniyatlarning eng qudratli va eng ko'zga ko'ringanlari uning vaqt va makon haqidagi g'oyalaridir. Inson uchun ular dunyo bilan munosabatlarida va

musiqa bilan muloqotda zarurdir va dunyoni bilish istagi qanchalik jiddiy bo'lsa, bu bilim vositalari shunchalik universal bo'lishi kerak. Musiqani bilish va bilishni boshlash, ham nazariy, ham amaliy, ko'plab elementar ko'nikmalar, e'tibor va keskinlikni talab qiladi. Musiqiy notani o'zlashtirib, siz har qanday davr musiqasini tinglashingiz mumkin. Shoirlar singari, bastakorlar ham boshqa barcha belgilarni - ijro davomiyligi, tempi, kayfiyati va xarakterini qog'ozga yozib olishdi va asrlar davomida ishlab chiqilgan til tufayli bastakorning ruhi uning musiqasi ijrochilarida yana jonlanadi. Handel yoki Motsart, Betxoven yoki Raxmaninoffning jonli tuyg'ulari bizga davlatlar va xalqlar, vaqt va makon chegaralari orqali etkaziladi.

Ta'lim jarayonida autentik kompetensiyani rivojlantirish yo'llari quyidagi omillarga bo'linadi.

Integrallashgan darslar – musiqani boshqa fanlar bilan bog'lab o'rganish (tarix, san'atshunoslik, psixologiya).

Interfaol metodlar – musiqiy debatlar, rolli o'yinlar, sahnalashtirish.

Mahorat darslari va ijodiy uchrashuvlar – tajribali san'atkorlar bilan uchrashuvlar, konsertlar tashkil etish.

Multimediali texnologiyalar – virtual ansambllar, musiqiy ilovalar, o'zini sinab ko'rish platformalari.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitda musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyati ijtimoiy va tarbiyaviy funktsiyalarning murakkablashishi tufayli yangi tarkib bilan to'ldiriladi. Ta'lim jarayonining asosi bo'lgan gumanistik printsip shaxsni umuminsoniy badiiy qadriyatlar bilan tanishtirishga yordam beradi va shu bilan birga individuallikni rivojlantiradi, insonning ijodiy o'zini o'zi anglashiga imkon beradi. Bo'lajak musiqa madaniyati o'qituvchisining autentik kompetensiyasi – bu faqat nazariy bilim emas, balki amaliy faoliyatga tayyorlik, ijodiy tafakkur va milliy musiqa madaniyatiga sadoqat ifodasidir. Ushbu kompetensiyani shakllantirish musiqa ta'limining sifat ko'rsatkichlarini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Алиев Ю.Б. Настольная книга школьного учителя музыканта. - М.:ВЛАДОС, 2000. - 336 с.
2. Баренбойм Л.А. Музыкальная педагогика и исполнительство. - Л.6 Музыка, 1974. - 336 с.
3. Барсова И. Специфика языка музыки в создании художественной картины мира // Художественное творчество. Вопросы комплексного изучения. - Л.: Наука, 1986. - С. 99 - 116.
4. Исаев И.Ф. Профессионально-педагогическая культура преподавателя. - М.: Изд. Центр «Академия», 2002. - 208 с.
5. Каримов О. И. Бўлажак мусиқа ўқитувчиларида маънавий-ахлоқий сифатларни шакллантириш //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 377-381.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA CHIDAMLILIKNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Sh.I.Davronov –BuxDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida umumiy chidamlilikni rivojlantirish usullari yoritilgan. Unda aerob imkoniyatlarni kengaytirish, nafas olish tizimi va tayanch-harakat organlarini mustahkamlashga qaratilgan mashg'ulot turlari (uzluksiz, o'zgaruvchan, intervalli, o'yin usullari) tahlil qilinadi. Har bir usulning o'ziga xos xususiyatlari, yuklama va dam olish nisbatlari, yurak urish tezligi va fiziologik reaksiyalar asosida ko'rib chiqiladi. Sport o'yinlari va nafas mashqlari chidamlilikni oshirishda muhim omil sifatida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, chidamlilik, jismoniy mashg'ulotlar, intervalli usul, uzluksiz usul, sport o'yinlari, yurak urish tezligi, nafas mashqlari, jismoniy tarbiya

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ УСТОЙЧИВОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация: В статье рассматриваются методы развития общей выносливости у младших школьников. Особое внимание уделяется расширению аэробных возможностей, укреплению дыхательной и опорно-двигательной систем. Проанализированы различные методы тренировок: непрерывный, переменный, интервальный и игровые методы. Описаны особенности каждого метода, соотношение нагрузки и отдыха, частота сердечных сокращений и физиологические реакции. Показана роль спортивных игр и дыхательных упражнений в развитии выносливости.

Ключевые слова: младшие школьники, выносливость, физические упражнения, интервальный метод, непрерывный метод, спортивные игры, ЧСС, дыхательные упражнения, физическое воспитание

METHODS FOR DEVELOPING RESILIENCE IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

Annotation: This article explores methods for developing general endurance in primary school children. It focuses on enhancing aerobic capacity, strengthening the respiratory and musculoskeletal systems. Various training approaches such as continuous, variable, interval, and game-based methods are analyzed. Each method's characteristics, workload-to-rest ratios, heart rate response, and physiological effects are discussed. The importance of sports games and breathing exercises in improving endurance is emphasized.

Keywords: primary school children, endurance, physical exercises, interval method, continuous method, sports games, heart rate, breathing exercises, physical education

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida chidamlilikni rivojlantirishning asosiy vazifasi – ularning umumiy jismoniy bardoshlilikini oshirishdan iborat bo'lib, bu turli xil jismoniy faoliyat turlari orqali amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda bir necha turdagi mashg'ulot usullari qo'llaniladi: uzluksiz, intervalli va musobaqa xarakteridagi mashg'ulotlar.

Har bir usulning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, ular chidamlilikning turli komponentlarini rivojlantiradi. Masalan, bajarilayotgan mashqlar turini (tez yurish, yugurish, yengil og'irliklar bilan bajariladigan mashqlar, futbol, basketbol kabi harakatli o'yinlar) o'zgartirish mumkin. Bundan tashqari, chidamlilikni shakllantirishda mashg'ulot davomiyligi, intensivligi, takrorlar soni va dam olish (tiklanish) oraliqlari muhim ahamiyatga ega.

Anaerob yuklamali mashqlar, odatda, maxsus chidamlilikni talab qiladigan sport turlari uchun xosdir. Bunday mashqlarda mashg'ulotning intensivligi yuqori bo'lib, ko'plab mushak guruhlar faol ishlaydi. Chidamlilikni samarali rivojlantirish usuli sifatida raqobat xarakteriga yaqin, intensivligi yuqori mashqlar qo'llaniladi.

Quyida umumiy chidamlilikni oshirishga xizmat qiluvchi ba'zi mashg'ulot usullarini ko'rib chiqamiz. Masalan, barqaror (teng sur'atdagi) uzluksiz mashg'ulotlar usuli shundan iboratki, mashg'ulot kamida 30 daqiqa davom etadi va mashqlar nisbatan past yoki o'rtacha kuchlanishda, teng ritmda bajariladi. Ular yurishdan boshlab, o'rta tezlikdagi yugurish yoki unga o'xshash mashqlarni o'z ichiga oladi. Mashg'ulot davomida ishtirokchi harakatlar tezligi, sur'ati, kuchlanishi va amplitudasini doimiy saqlashga harakat qilishi lozim.

Jismoniy tayyorgarlik darajasi yetarli bo'lmagan boshlang'ich sinf o'quvchilari kuchli jismoniy yuklamani bajara olmaydi. Shu sababli, mashg'ulotlar davomiyligini asta-sekin va ehtiyotkorlik bilan oshirish, intensivlikni ko'paytirmasdan olib borish tavsiya etiladi.

O'zgaruvchan uzluksiz usul – bu mashg'ulot davomida ish intensivligining davriy o'zgarib borishi bilan xarakterlanadi. Mazkur usul o'quvchilarda iroda, sabr va matonatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu usul ko'pincha chang'ichilar va uzoq masofaga yuguruvchilarda qo'llaniladi. U organizmning vegetativ funksiyalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi va aerob almashinuv jarayonining faol ishlashiga olib keladi. Bunday mashg'ulotlar vaqtida tanada aerob va anaerob yuklamalar aralash rejimda amalga oshadi. Shu bois, mashg'ulot intensivligi va tezligidagi o'zgarishlar keskin bo'lmashligi lozim, aks holda aerob yuklama buzilishi mumkin.

Intervallik usul esa yuqori intensivlikdagi mashqlarni takroriy bajarish va ular orasida aniq belgilangan dam olish intervallari bilan ajralib turadi. Biroq, bu usul boshlang'ich bosqichda chidamlilikni rivojlantirish uchun mos emas, chunki u yurak-qon tomir va nafas olish

tizimlaridan jiddiy talablarni talab qiladi. Mashqlar odatda 1–2 daqiqa davom etadi, soʻngra 1–3 daqiqa dam olish vaqti beriladi. Dam olish vaqtida oʻquvchilar yengil harakat (masalan, sekin yurish) qiladilar. Mashqlarni qisqa vaqt bajarsa – yurak-qon tomir tizimi toʻliq faollashmaydi; ortiqcha uzoq davom etsa – ish intensivligi kamayadi.

Mashgʻulot paytida yurak urish tezligi 155–175 zarbaga/minutgacha yetadi, dam olish oxiriga kelib esa YUT 115–130 urish atrofida saqlanishi kerak. Mashqning samarasi faqat bajarilish vaqtida emas, asosiy ijobiy fiziologik taʼsir aynan tiklanish (dam olish) fazasida yuz beradi. Dam olishning dastlabki daqiqasida kislorod isteʼmoli ortadi va yurakning qon chiqarish hajmi koʻpayadi. Agar keyingi yuklama organizm ana shu yuqori faollik holatida boʻlgan paytda takrorlansa, kislorod isteʼmoli bosqichma-bosqich oshib boradi, natijada chidamlilik samarali rivojlanadi.

Jismoniy tarbiya darslarida faqat siklik harakatlar (masalan, yugurish, yurish) bilan cheklanib qolmasdan, sport oʻyinlari ham umumiy chidamlilikni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Basketbol, stol tennisi, voleybol, futbol, mini-futbol, «quvishmashoq» kabi oʻyinlar 5–15 daqiqa davomida oʻynaladi va ular harakat intensivligining almashinuvi (faollik va pauzalar) bilan ajralib turadi.

Shuningdek, chidamlilikni oshirish uchun arpa sakrash mashqlari ham oyda bir necha marotaba qoʻllaniladi. Bu mashqlar bosqichma-bosqich murakkablashib, intensiv sakrash vaqti har safar 5–15 soniyaga oshirib boriladi. Oʻyinlar va musobaqaviy usullarni qoʻllash bolalarning darsga boʻlgan eʼtibori va hissiy holatini yaxshilaydi, charchoq kamayadi, darsga boʻlgan qiziqish oshadi.

Toʻgʻri tashkil etilgan sport oʻyinlari orqali turli turdagi chidamlilikni rivojlantirish mumkin. Ammo oʻyinlar chidamlilikni nishonli shakllantirishda yetarlicha aniqlikka ega boʻlmaydi. Shu sababli, dozalangan mashqlar (masalan, uzoq davom etadigan sekin yugurish yoki oʻrtacha yurish) orqali chidamlilikni yanada aniqroq shakllantirish maqsadga muvofiq.

Umumiy chidamlilikni rivojlantirishda kislorod bilan taʼminlash tizimining faoliyati muhim oʻrin tutadi. Shu sababli, chidamlilikka qaratilgan mashqlardan soʻng yoki ular bilan birgalikda nafas mashqlari ham bajarilishi lozim. Imkon boʻlgan hollarda mashgʻulotlar ochiq havoda tashkil etilishi tavsiya etiladi.

Chidamlilikni rivojlantiruvchi mashqlarni tuzishda quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish muhim:

Bolalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini inobatga olib, avvalo aerob imkoniyatlar va nafas tizimi faoliyatini rivojlantirishga eʼtibor qaratish.

Yuklamalarni asta-sekin oshirish, buning uchun barqaror mashqlar (uzoq davom etadigan sekin yugurish, doirasimon mashgʻulotlar)dan foydalanish.

Yuklamaning umumiy hajmini va mashqlar intensivligini bosqichma-bosqich oshirib borish.

Umumiy chidamlilikni rivojlantirish metodikasi — bu aniq vaqt, takrorlar soni, dam olish oraligʻi va xarakteri bilan belgilangan uzluksiz mashgʻulot tizimidir. U oʻquv yilining butun davomida tizimli olib borilganda maksimal samarani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Aniyev S. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun jismoniy tarbiya darslarining ahamiyati //Inter education & global study. – 2024. – №. 5. – C. 177-182.

2. Алиев М.Н., Гаджимурадова Р.Т. Воспитание общей выносливости младших школьников //Известия Волгоградского государственного педагогического университета. – 2010. – Т. 53. – №. 9. – С. 90-95.

3. Волкова Л. М. Влияние упражнений разной направленности на развитие физических качеств младших школьников : дис. – Московский ордена трудового красного знамени областной педагогический институт имени НК Крупской, 1983.

4. Joʻrayev A. B. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida harakatli oʻyinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish (kurash) //Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 2. – С. 473-479.

5. Yaqubova Z., Axmedov F.T. 10-12 yoshli stol tennischilarni jismoniy tayyorgarligini yordamchi mashqlar majmuasini qoʻllash orqali rivojlantirish //Maktabgacha va maktab taʼlimi jurnali. – 2025. – Т. 3. – №. 5.

NUTQ USLUBINING NAZARIY TAMOIYILLARI

Ruxsora Xalilova Raupovna

Buxoro davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Pedagog uchun individual nutq uslubi alohida ahamiyatga ega, birinchidan, o'qituvchining nutqi o'quvchilar uchun nutq namunasi bo'lsa, ikkinchidan, ona tili va adabiyotini o'rgatish o'ychan va onglilikni talab qiladi. O'quvchilarni jamiyatning til madaniyati bilan tanishtirish, ularda tilga nisbatan ehtiyohtkorona munosabatni shakllantirish, tilni muloqot vositasi sifatida ongli ravishda o'zlashtirish shakllaridir.

Kalit so'zlar: nutq, ta'lim, pedagogik, ritorika, nutq uslubi, o'qituvchilar, individual nutq, notiqlik, muloqot.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РЕЧЕВОГО СТИЛЯ

Рухсора Халилова Рауповна

Бухарский государственный педагогический институт

Узбекский язык и литература доцент кафедры

Аннотация. Индивидуальный стиль речи – концептуально важное понятие, нравственное, морализирующее весь процесс риторической подготовки будущего учителя. Индивидуальный стиль речи имеет для учителя особое значение, поскольку, во-первых, речь учителя является образцом речи учащихся, а во-вторых, обучение родному языку и литературе требует вдумчивости и осознанности. Формами являются ознакомление учащихся с языковой культурой общества, формирование у них бережного отношения к языку, сознательное овладение языком как средством общения.

Ключевые слова: речь, образование, педагогика, ritorika, стиль речи, педагоги, индивидуальная речь, красноречие, общение.

THEORETICAL PRINCIPLES OF SPEECH STYLE

Rukhsora Khalilova Raupova

Bukhara State Pedagogical Institute

Uzbek language and Literature Associate Professor of the Department

Abstract. Individual speech style is a conceptually important concept, moral, moralizing the entire process of rhetorical training of a future teacher. The individual style of speech is of particular importance for the teacher, since, firstly, the teacher's speech is a sample of the students' speech, and secondly, teaching the native language and literature requires thoughtfulness and awareness. The forms include familiarizing students with the linguistic culture of society, developing a caring attitude towards language, and consciously mastering language as a means of communication.

Key words: speech, education, pedagogy, rhetoric, speech style, teachers, individual speech, eloquence, communication.

Pedagogik mahoratni o'rgatish muammosini hal qilish kontekstida muloqot qobiliyatlari va o'z kasbiga ijodiy yondashishning eng yuqori darajasining ko'rsatkichi sifatida professional nutqning individual uslubini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Nutqning individual uslubi mohir notiq, iste'dodli ma'ruzachi, ustoz ustozning ajralmas xususiyati sifatida hamisha notiq, o'qituvchilar va metodistlarning e'tiborini tortgan.

Individual nutq uslubi - bo'lajak o'qituvchining ritorik tayyorgarligining butun jarayonini ma'naviylashtiradigan kontseptual muhim tushunchadir. O'qituvchi uchun individual nutq uslubi alohida ahamiyatga ega, birinchidan, o'qituvchining nutqi o'quvchilar uchun nutq namunasi bo'lsa, ikkinchidan, ona tili va adabiyotini o'rgatish o'ychan va onglilikni talab qiladi. O'quvchilarni jamiyatning til madaniyati bilan tanishtirish, ularda tilga nisbatan ehtiyohtkorona munosabatni shakllantirish, tilni muloqot vositasi sifatida ongli ravishda o'zlashtirish shakllaridir.

Ushbu kontseptual yondashuv kontseptsianing o'zini aniqlashtirish sohasida ham, professional nutqning individual uslubini rivojlantirishning uslubiy usullari sohasida ham yanada aniq nazariy va amaliy rivojlanishni talab qiladi. Uning markazida o'qituvchining o'ziga xosligi turadi, u o'zining ijodiy ritorik qobiliyatini kasbiy muloqot sohasida ochib beradi va takomillashtiradi.

Shubhasiz, o'qituvchi nafaqat yuqori kasbiy darajadagi kommunikativ va nutq ko'nikmalariga ega bo'lishi, balki uning oldida turgan ta'lim vazifalarini hal qilishga ijodiy munosabati, ushbu muammolarni hal qilishning maqbul usullarini topishga individual yondashuvi bilan ham ajralib turishi kerak.

Uslubiy maqsadlarga erishishda individual ijodiy yondashuv tajribasi talabalarga nutqiy xatti-harakatlar meyorlarini o'rgatish va ularning individual ritorik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shaxsiy tajribada tasdiqlangan usul sifatida ham muhimdir. Uning markazida o'qituvchining o'ziga xosligi turadi, u o'zining ijodiy ritorik qobiliyatini kasbiy muloqot sohasida ochib beradi va takomillashtiradi. Shubhasiz, o'qituvchi nafaqat yuqori kasbiy darajadagi kommunikativ va nutq ko'nikmalariga ega bo'lishi, balki uning oldida turgan ta'lim vazifalarini hal qilishga ijodiy munosabati, ushbu muammolarni hal qilishning maqbul usullarini topishga individual yondashuvi bilan ham ajralib turishi kerak.

Izohlovchi nutq janrini individual uslubning namoyon bo'lishi nuqtai nazaridan o'rganishga murojaat qilish uning o'qituvchining nutq amaliyotida katta kasbiy ahamiyati bilan bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra, ilmiy nutq uslubi janrlarida individual uslubning namoyon bo'lishi mutlaqo tabiiy va mantiqiydir. Ilmiy-ommabop matnlarda (M.N.Kojina, R.K. Tereshkina, E.S.Troyanskaya, M.P.Senkevich va boshqalar asarlari) muallif individualligini ifodalash uchun yanada keng imkoniyatlar mavjud. O'quv, ilmiy va ilmiy-ommabop uslublarning xususiyatlarini o'zida mujassam etgan, buning uchun individual stilistik rangga ega bo'lgan vositalardan foydalanish tabiiy bo'lgan tushuntirish nutqi janrida nutqning individual uslubini oshirish vositalarini tanlashda aniq namoyon bo'ladi. Nutqning ekspressivligi ritorik figuralar, intonatsiyadan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аристотель и античная литература. / Отв. ред. М.Л. Гаспаров. - М., 1978.-231 с.
2. Ахманова О.С. О стилистической дифференциации слов. // Сб. статей по языкознанию. М.: Изд-во МГУ, 1958. - С.24 - 39.
3. Бахтин М.М. Проблема речевых жанров // Бахтин М.М. Литературно-критические статьи / Сост. С. Бочаров и В. Кожин. - М.: Художественная литература, 1986. - С.431 - 479.
4. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. 2-е изд.— М.: Искусство, 1986. - 444 с.
5. Виноградов В.В. Итоги обсуждения вопросов стилистики // Вопросы языкознания. - 1955. - №1.- С.83 - 93
6. Миртожиев М.,Махмудов Н. Тил ва маданият.— Тошкент: Ўзбекистон, 1992.— 110б.
7. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний
8. хусусиятлари:Филол.фан.д-ри дисс. —Тошкент, 2000. —Б. 198-204.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ИСКУССТВА В ТВОРЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЧАЩЕЙСЯ

Мирзаева.Д.Ш
Доцент кафедры “Общая педагогика”

Аннотация. Данная статья говорит о том что соотношение культуры, искусства, образования, обсуждается педагогический потенциал искусства. Рассматриваются условия становления авторской позиции педагога как гуманитарная практика в диалоге с текстами

культуры. Предлагаются практические ситуации и стратегии обнаружения смыслов в педагогическом процессе, гуманитарные способы познания.

Ключевые слова: статья, искусства, духовность, моделей, философ, личность, метод, глобальное.

PEDAGOGICAL POTENTIAL ISKUSSTVA V TVORCHESKOM RAZVITII UCHASHCHEYSYA.

Annotation. This article talks about the relationship between culture, art, education, and discusses the pedagogical potential of art. The conditions for the formation of the author's position of a teacher as a humanitarian practice in dialogue with cultural texts are considered. Practical situations and strategies for discovering meaning in the pedagogical process, and humanitarian ways of knowing are proposed.

Key words: article, art, spirituality, models, philosopher, personality, method, global.

Глобальные процессы, разворачивающиеся на социально-экономическом, информационном, духовном уровне в масштабах планеты, обостряют проблему совершенствования системы образования в соответствии с вызовами времени. В условиях преобразования возрастает научно-практическая необходимость поиска эффективных моделей, инновационных форм и методов построения образовательного процесса, обеспечивающего благоприятные условия для личностного и профессионального самоопределения человека.

Искусству с его способностью всесторонне влиять на сложно организованную телесно-душевно-духовную природу человека принадлежит особое место в решении педагогических задач.

В отечественных и зарубежных исследованиях *философов* (Е.Я. Басин, М.М. Бахтин, Г.Г. Гадамер, В.Д. Диденко, М.С. Каган, Ю.М. Лотман, Х. Ортега-и-Гассет, В.А. Разумный, В. В. Савчук; Л.Н. Столович и др. [27; 28; 67; 88; 128; 254; 273; 286; 325]); *психологов* (Л.С. Выготский, С.П. Иванов, Е.П. Крупник, А.Н. Леонтьев, В.С. Мухина, Р. Мэй, К.Г. Юнг [66; 112; 169; 188; 237; 238; 396] и др.); *педагогов* (Ю.П. Азаров, А.В. Бакушинский, Е.И. Коротева, Б.М. Неменский, Ю.Н. Усов, Б.П. Юсов [3; 23; 160; 243; 347; 398] и др.) показаны различные стороны обусловленности личностного становления человека интенсивностью и качеством его участия в сфере искусства и художественной практики.

По словам известного отечественного философа М.С. Кагана, одна из ведущих функций искусства по отношению к человеку — «очеловечивание» [68]. По мнению грузинского философа М.К. Мамардашвили, силами искусства осуществляется «непрерывный процесс воссоздания в потенциально человеческом материале самого феномена «человек» и затем воспроизводства его... в пространстве и времени культуры» [Цит. по 126, с. 24].

Академик П.В. Симонов обратил внимание на два обстоятельства, которые также позволяют сравнивать деятельность воспитателя с искусством. Прежде всего, воспитание, как и искусство, обращено не только к сознанию, но призвано оказывать определенное влияние на подсознание и сверхсознание воспитанника. Подлинная воспитанность предполагает не одно лишь знание и применение норм и правил поведения в обществе, но и *невозможность* нарушения принципов, ставших внутренними регуляторами действий и поступков. Очевидно, для того чтобы сформировать у ребенка определенное отношение к миру, к людям, к себе, учителю недостаточно лишь сообщить некую совокупность правил. Необходимо представить отношение так, чтобы оно поразило, удивило, пленило воспитанника, чтобы он его личностно принял и захотел присвоить. Подобная деятельность близка к искусству в мастерстве «исполнения». При этом масштаб *индивидуализации* воспитательного взаимодействия, по мнению П.В. Симонова, также сродни реальному искусству. Ведь каждый воспитанник — уникальная, неповторимая личность, процесс формирования которой напоминает создание единственного в своем

роде «произведения» ума и таланта воспитателя [311, с. 219]. Сущностная близость искусства и педагогики требует более детального анализа специфики искусства в его педагогическом значении. Сложность, многогранность, неисчерпаемость искусства как феномена подтверждается наличием значительного круга авторских теорий, по-разному объясняющих его природу и характер влияния на человека

В современных исследованиях философско-эстетического и психологического аспектов искусства выделяются его инвариантные, константные компоненты (Е.Я. Басин, В.П. Крутоус):

- 1) субъект художественной деятельности;
- 2) специфическая художественно-творческая деятельность субъекта;
- 3) объективированный продукт такой деятельности-произведение искусства;
- 4) адресат творческой деятельности, он же субъект восприятия произведения искусства;
- 5) специфический процесс восприятия произведения искусства и воздействия последнего на человека [27, с. 15].

Большинство исследователей, рассматривая искусство как сложную динамическую систему, признают его *полифункциональность*. Теоретический анализ позволяет выделить круг функций, которые приоритетно упоминаются философами и учёными

Если для науки предметом познания являются всеобщие значения объектов (потенциально одинаковые для человечества, наций, отдельных индивидов), то с помощью искусства познаётся всё многообразие смыслов мироустройства и нюансов эмоционально-духовной стороны человеческой жизни. А.Н. Леонтьев усматривал специфику познания посредством искусства в том, что оно является источником открытия, выражения и коммуникации личностного смысла действительности [188]. С этой точки зрения искусство не просто информирует, но и обладает мощной побудительной силой к яркой, насыщенной жизни и к личностному подвигу. Искусство, отражая действительность в художественных образах, не копирует реальность, а «пересоздает» мир через «сгущение, уплотнение, модификацию реальной предметности, особую организацию пространственной и временной композиции произведения» [168, с. 157] и за счет этого передает смыслы, не лежащие на поверхности.

Используемые литературы

1. Хасанова Г. К., Мирзаева Д. Ш. ПОДВИЖНАЯ ТВОРЧЕСКАЯ ИГРА КАК ОДИН ИЗ МЕТОДОВ АРТ-ПЕДАГОГИКИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1067-1071.
2. Nigmatova M. M. MUAMMOLI VAZIYALARINI HAL QILISHDA INTERFAOL VOSITALARDAN FOYDALANISH //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1079-1085.
3. Хакимова Н. С., Регина Д. ЦЕННОСТЬ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ В ПОДГОТОВКЕ ШКОЛЬНИКОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ К ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1514-1519.
4. Хамроева Н. Н. ИЛТИФОТНИНГ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2020. – Т. 3. – №. 5.
5. Mirzaeva, D. (2023). КОНЦЕПЦИЯ АРТ-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАБЛЮДЕНИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ*
6. Mirzaeva, D. (2023). TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ARTPEDAGOGIKANING AHAMIYATI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu.Uz), 38(38). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10286

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH

Bahodirova Dilfuza Furqat qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-BT-24 guruh talabasi +998772080917 bahodirovadilfuza17@gmail.com

Ilmiy rahbar: Himoyeva Sarvarbegim Jamilovna BuxDPI o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida madaniyatlararo o'zaro ta'sirning ahamiyati tahlil qilinadi. Madaniyatlararo muloqotning talaba shaxsiyati, global fuqarolik, tolerantlik va xalqaro hamkorlikni shakllantirishdagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: global ta'lim, madaniyatlararo muloqot, tolerantlik, xalqaro hamkorlik, global fuqaro, ta'lim, integratsiya.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Абстракт: в данной статье анализируется значение межкультурного взаимодействия в системе непрерывного образования. Подчеркивается роль межкультурного диалога в формировании студенческой идентичности, глобального гражданства, толерантности и международного сотрудничества.

Ключевые слова: глобальное образование, межкультурный диалог, толерантность, международное сотрудничество, глобальный гражданин, образование, интеграция.

IMPROVING THE CONTENT OF EDUCATION IN THE CONTINUING EDUCATION SYSTEM.

Abstract: This article analyzes the importance of intercultural interaction in the system of continuing education. The role of intercultural dialogue in the formation of student identity, global citizenship, tolerance and international cooperation is highlighted.

Keywords: global education, intercultural dialogue, tolerance, international cooperation, global citizen, education, integration.

Kirish. XXI asrda globallashuv jarayoni insoniyat hayotining barcha sohalariga, xususan, ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Jahonning turli mintaqalaridan kelgan talaba va o'qituvchilarning bir makonda ta'lim olishi yoki berishi, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida onlayn o'quv platformalarining joriy etilishi madaniyatlararo o'zaro ta'sirni yanada kuchaytirmoqda. Bunday tasir o'zaro tushunish, Bag'rikenglik va hamkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Madaniyatlararo o'zaro ta'sir global ta'lim tizimining sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Madaniyatlararo o'zaro ta'sir deganda turli millat, irq, din va urf-odatlariga ega bo'lgan insonlarning o'zaro fikr, tajriba va qadriyat almashinuvi tushuniladi. Bu jarayon global ta'lim tizimida quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir: Talabalarda tolerantlik va bag'rikenglikni shakllantiradi. Madaniyatlararo muloqot orqali talabalar boshqa xalqlarning qadriyatlarini hurmat qilishni, murosaga kelishni o'rganadilar. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni ta'minlashda muhim omildir. O'qitish metodikasini boyitadi. Turli madaniyat vakillarining ta'lim uslublari va yondashuvlarini o'rganish orqali o'qituvchilar o'z tajribalarini kengaytiradilar, bu esa dars jarayonining sifatini oshiradi. Innovatsiyalar almashinuvini ta'minlaydi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida rivojlanayotgan mamlakatlardagi ta'lim tizimi takomillashadi, zamonaviy texnologiyalar joriy etiladi. Shaxsiy va kasbiy rivojlanishga xizmat qiladi. Madaniyatlararo muhitda o'qigan talabalar xalqaro bozorga mos kadrlar bo'lib yetishadi, ularning til bilimi, kommunikatsiya ko'nikmalari va liderlik salohiyati oshadi. Biroq, bu jarayonda ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, madaniyatlararo farqlar noto'g'ri talqin qilinsa, noto'g'ri tushunish va qarama-qarshiliklarga olib kelishi mumkin. Shu bois ta'lim jarayonida madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Madaniyatlararo o'zaro ta'sir global ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. U talabalarining jahonqarashini kengaytiradi, jamiyatlar o'rtasida o'zaro tushunishni kuchaytiradi va ta'lim sifatini oshiradi. Shu sababli, ta'lim siyosatida madaniyatlararo muloqotni

rag, batlantirish va uni samarali tashkil qilish muhim vazifadir. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar yordamida bu imkoniyatlar yanada kengaymoqda, demak, madaniy xilma-xillikni qadrlash va undan o'rganish har bir ta'lim ishtirokchisining dolzarb vazifasidir. Shuningdek, bu jarayon iqtisodiy va ilmiy taraqqiyotga ham xizmat qiladi. Masalan, Yevropa, Amerika yoki Osiyodagi yirik universitetlarda madaniyatlararo hamkorlik tufayli ko'plab ilmiy yangiliklar va innovatsion loyihalar yaratilmoqda. Bu ta'limga faqat nazariy bilim emas, balki amaliy tajriba, ijodiy fikrlash va jamoaviy ish tajribasini ham olib kiradi.

Global fuqarolik va identitet masalasi madaniyatlararo o'zaro ta'sirda o'qituvchining roli. Ta'lim tizimidagi eng muhim bo'g'in — bu o'qituvchidir. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki madaniyatlararo muloqotni shakllantiruvchi vositachidir. U turli madaniyatga mansub talabalar o'rtasida tenglik, hurmat va tushunishni rivojlantirish uchun zarur muhit yaratadi. O'qituvchining o'zi ham doimiy ravishda turli madaniyatlar haqida bilimini oshirishi, xalqaro metodikalardan xabardor bo'lishi lozim. Zamonaviy o'qituvchi — bu faqat fan vakili emas, balki madaniyatlararo diplomatiya yurituvchi shaxsdir. Shu sababli, global ta'lim muassasalarida o'qituvchilar uchun madaniy kompetensiyani oshirishga qaratilgan maxsus kurslar va treninglar tashkil etilishi dolzarb sanaladi. O'zbekiston misolida madaniyatlararo ta'lim O'zbekiston Respublikasi ham ta'lim sohasida xalqaro integratsiyaga katta e'tibor qaratmoqda. Xorijiy oliy o'quv yurtlarining filiallari ochilishi, chet ellik talaba va professorlarning jalb qilinishi, xalqaro grant va dasturlar — bularning barchasi yoshlarimizga boshqa madaniyatlar bilan tanishish imkonini yaratmoqda. Bunday tashabbuslar orqali O'zbekiston yoshlari nafaqat zamonaviy bilimlarga ega bo'lmoqda, balki global dunyoning teng huquqli fuqarosiga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, global ta'lim tizimidagi madaniyatlararo o'zaro ta'sir XXI asrda ta'limning ajralmas qismiga aylangan. Bu jarayon insonlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ijobiy qadriyatlarni yoyadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlaydi. Har bir ta'lim muassasasi va pedagog ushbu o'zgaruvchan dunyoda madaniyatlararo hamjihatlikka xizmat qiluvchi kuch bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Himoyeva, S. (2023). ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING O'QUV-BILUV KO'NIKMALARINI SAVOL-JAVOB TARZIDA AMALGA RIVOJLANTIRISH. *Science and innovation in the education system*, 2(9), 44-47.
2. Sarvarbegim, H. (2023). Developing Students' Creative Skills through the 4k Model in Mother Language and Reading Literacy Education. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 198-202.
3. Jamilovna, H. S. (2024, March). IMPROVING THE CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS THROUGH EDUCATIONAL TASKS IN PRIMARY GRADE MOTHER TONGUE EDUCATION. In *Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference* (Vol. 6, pp. 1-5).
4. Himoyeva, S. J. (2020). UMUMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARINING YOZMA NUTQINI INSHO YOZISH ORQALI RIVOJLANTIRISH USULLARI. *Студенческий вестник*, (19-12), 99-100
5. Jumayeva H.G., "Pedagogik muloqot asosida ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari" Zamonaviy fan va tadqiqotlar 4.3: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2025 yil 22-aprel) 340-346.
6. Jumayeva H.G., "Geymifikatsion yondashuv asosida talabalarning evrestikkognitiv faoliyatini rivojlantirishning metodik asoslari" Zamonaviy tasviriy-pedagogik ta'limda an'ana va innovatsiyalar: izlanishlar va yechimlar xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari Buxoro – 2025
7. Jumayeva H.G., "Talabalarda evristik tafakkurni shakllantirishda geymifikatsion yondashuvning ahamiyati", "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 5
8. Jumayeva H.G., "Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish", "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 3

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATN USTIDA ISHLASH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA METAKOGNITIV STRATEGIYALARDAN FOYDALANISH

Qayimov Laziz Mirzo o'g'li

Buxoro pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrası o'qituvchisi p.f.f.d., (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matn ustida ishlash malakalarini shakllantirish jarayonida metakognitiv strategiyalarning o'rni va ahamiyati tahlil etiladi. Metakognitiv strategiyalar esa o'quvchilarning o'z fikrlash jarayonini ongli tarzda boshqarish, o'qishdan oldingi taxmin qilish, o'qish davomida tushunishni nazorat qilish va o'qishdan keyin tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Maqolada metakognitiv yondashuv asosida tuzilgan mashg'ulot namunalarining samaradorligi empirik dalillar asosida yoritiladi hamda boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning matn bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga doir amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, matn ustida ishlash, metakognitiv strategiyalar, kognitiv rivojlanish, o'quv faoliyati, o'qish strategiyasi, tahliliy fikrlash.

ФОРМИРОВАНИЕ УМЕНИЙ РАБОТЫ С ТЕКСТОМ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТАКОГНИТИВНЫХ СТРАТЕГИЙ

Аннотация: В статье анализируется роль и значение метакогнитивных стратегий в процессе формирования умений работы с текстом у младших школьников. Метакогнитивные стратегии способствуют осознанному управлению мыслительной деятельностью учащихся: формированию умений предвосхищать содержание текста до чтения, контролировать понимание во время чтения и анализировать прочитанное после завершения чтения. На основе эмпирических данных раскрывается эффективность заданий, разработанных с применением метакогнитивного подхода. Также предложены практические рекомендации по развитию компетенций работы с текстом в системе начального образования.

Ключевые слова: начальное образование, работа с текстом, метакогнитивные стратегии, когнитивное развитие, учебная деятельность, стратегии чтения, аналитическое мышление.

USING METACOGNITIVE STRATEGIES TO DEVELOP TEXT-PROCESSING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract: This article analyzes the role and significance of metacognitive strategies in the process of developing text-processing skills among primary school students. Metacognitive strategies enable learners to consciously manage their thinking processes, including making predictions before reading, monitoring comprehension during reading, and analyzing content after reading. The article presents empirical evidence on the effectiveness of lessons designed using a metacognitive approach, and offers practical recommendations for enhancing students' competencies in working with texts within the framework of primary education.

Keywords: primary education, text-processing, metacognitive strategies, cognitive development, learning activity, reading strategies, analytical thinking.

Kirish. Zamonaviy boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning matn ustida ishlash malakalarini shakllantirish – ularning kognitiv va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omillardan biri sanaladi. Ayniqsa, o'qish jarayonida matnni tushunish, asosiy g'oyani ajratish, xulosa chiqarish kabi faoliyatlar o'quvchining tafakkur jarayonlarini chuqur anglashini talab etadi. Bunday malakalarni rivojlantirishda metakognitiv strategiyalardan foydalanish alohida ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning o'z fikrlash faoliyatini ongli ravishda rejalashtirish, nazorat qilish va baholash imkonini beradi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning matn bilan ishlash malakalarini rivojlantirish nafaqat tilshunoslik yoki adabiyotshunoslik doirasidagi masala, balki ularning umumiy kognitiv rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik jarayondir. Matn ustida ishlash malakalari deganda, o'quvchining matnni tahlil qilish, asosiy mazmunni aniqlash, muallif fikrini anglash, o'z fikrini bayon etish va xulosa chiqarish kabi ko'nikmalari tushuniladi. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda metakognitiv strategiyalar o'ta muhim rol o'ynaydi.

Metakognitsiya — bu shaxsning o'z fikrlash jarayoni ustidan ongli nazorat o'rnatish olishi, ya'ni "fikrlash haqida fikrlay olish" layoqatidir. Flavellning ta'kidlashicha, metakognitiv faoliyat ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat: **metakognitiv bilim** (o'z bilimlari va ularni qanday qo'llash haqida bilim) va **metakognitiv monitoring** (bilimlarni qachon va qanday qo'llashni bilish, nazorat qilish va baholash). Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga metakognitiv strategiyalarni o'rgatish ularning o'quv faoliyatini yanada samarali va ongli tarzda boshqarishlariga imkon beradi.

Mamlakatimiz nufuzining rivojida yosh avlodning uzluksiz ta'limni to'laqonli egallashi muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlod qachonki uzluksiz ta'lim jarayonining xaqiqiy egasi sifatida ta'lim mazmunini o'zi uchun katta ehtiyoj sifatida qabul qilib, his etsa shundagina ular nafaqat shaxsiy hayotda, balki ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarda ham faol ishtirokchiga aylanadi, o'z o'rnini va mavqegini mustahkamlaydi. Savol tug'iladi, o'quvchi qachon ta'lim jarayonining egasi bo'ladi. Qachon u ta'limni hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qiladi? Bu savollarning amaliy yechimi shaxsga yo'naltirilgan ta'limga ta'rif va uning mohiyatini anglash bilan bog'liqdir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'z nomi bilan ta'limtarbiya jarayoni markazida bola – o'quvchi ekani bilan tavsiflanadi. Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida bola shaxsining har tomonlama, ya'ni ham huquqiy, ham ma'naviy, ham ijtimoiy himoyasi ta'minlanadi. Bolaning ta'limi, tarbiyasi, jismoniy, ma'naviy va ruhiy kamolini ta'minlash kabi umummilliy maqsadning ro'yobga chiqishida uniing ta'limga qiziqishini oshirish asosiy omil hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun badiiy matnlar bilan ishlash nafaqat o'qish texnikasini takomillashtirish, balki ularning ichki dunyosini boyitish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Kognitiv yondashuv bu jarayonda asosiy rol o'ynaydi, chunki u o'quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtiradi. Bu yondashuv asosida quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- O'quvchilarning matnni tushunish darajasini oshirish;
- Matndan asosiy g'oyani ajratish ko'nikmasini shakllantirish;
- Savollarga mantiqiy javob qaytarish malakasini rivojlantirish;
- Matn asosida xulosalash, fikr yuritish faoliyatini faollashtirish.

O'quvchining o'z fikrini qanchalik mazmunli, aniq va to'g'ri ifodalay olishi uning o'quvbilish faolligi darajasini hamda ko'nikma va malakalarini aniqlashga imkon beradi. O'qish darslarida matnni idrok qilish va mazmun-mohiyatini o'zlashtirish yuzasidan qo'yilgan savoltopshiriqlar o'quvchilarni o'ylashga majbur qilishi, javob berishda muallif qo'llagan iboralardan, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga qaratilishi, nutqda ko'proq o'zi uchun yangi so'z va iboralarni ishlatishga undashi lozim.

Matnni o'qish ko'nikmasiga egalik, avvalo, o'quvchi nutqini boyituvchi muhim omillardan biri sanaladi. O'qitishning mustaqil qismi bo'lgan har qanday dars ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Matn ustida ishlash orqali o'quvchilarni ijodiy, mustaqil va mantiqiy mushohada yuritishga, matnni tahlil qilish va unga o'z munosabatini bildirishga o'rgatish o'qituvchidan katta mahorat talab etadi. Badiiy matndan shunchaki ma'lumot emas, balki yetakchi g'oya va uning badiiy ifodasini aniqlashda muhim vositadir.

Metakognitiv strategiyalarni o'quv jarayoniga integratsiyalashning samarali shakllaridan biri bu o'qishdan oldin, o'qish vaqtida va o'qishdan keyingi bosqichlarda turli fikrlash faoliyatlarini faollashtirishdan iboratdir. Quyidagilar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun moslashtirilgan asosiy metakognitiv strategiyalardir:

1. Oldindan rejalashtirish – matnga doir taxminlar qilish, savollar tuzish, mavzu doirasida ilgari bilgan bilimlarni faollashtirish.

2. Tushunishni monitoring qilish – o‘qish davomida tushunmagan qismlarni belgilash, savollar berish, asosiy g‘oyani ajratib olish.

3. Tahlil va baholash – matn asosida xulosa chiqarish, muallif pozitsiyasiga nisbatan fikr bildirish, matnni boshqa manbalar bilan solishtirish.

Boshlang‘ich sinfda metakognitiv strategiyalarni joriy etishda quyidagi didaktik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- Modellashtirish va verbalizatsiya – o‘qituvchi matn ustida qanday fikrlashni ovoz chiqarib namoyish qiladi;

- Metakognitiv savollar – “Bu qismda muallif nima demoqchi?”, “Men bu fikrni tushundimmi?” kabi reflektiv savollar;

- O‘z-o‘zini baholash jurnali – o‘quvchi o‘z o‘qish jarayonini yozma ravishda tahlil qiladi;

- Kichik guruhli muhokama – metakognitiv fikr almashinuvi orqali chuqurroq tushunish hosil qilinadi.

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar metakognitiv strategiyalarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matn ustida ishlash bo‘yicha yuqori natijalarga olib kelishini ko‘rsatmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi tomonidan 2021-yilda qo‘llab-quvvatlangan READ-UP loyihasi doirasida o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlarda metakognitiv strategiyalar asosida dars o‘tgan sinf o‘quvchilari matn mazmunini tushunish va yodda saqlash bo‘yicha nazorat guruhi bilan solishtirganda sezilarli darajada yuqori natijalarni ko‘rsatgan.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Innovatsion loyihalar doirasida 2023-yilda olib borilgan tajribaviy kuzatuvlar esa metakognitiv yondashuv asosida tuzilgan mashg‘ulotlar natijasida o‘quvchilarning matn bilan ishlashga bo‘lgan motivatsiyasi, matnga ongli yondashuvi va tafakkur faoliyati sezilarli darajada oshganini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida “o‘qish kundaligi”, “matnni savolga aylantirish” va “fokusli taxmin” kabi strategiyalardan foydalanilgan.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matn ustida ishlash malakalarini shakllantirishda metakognitiv strategiyalarni qo‘llash ularning o‘quv jarayoniga ongli yondashuvini ta’minlaydi. Bu strategiyalar o‘quvchilarda matnni tushunish, asosiy g‘oyani ajratish va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning kognitiv faolligini va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Shunday ekan, ushbu strategiyalarni boshlang‘ich ta’lim amaliyotiga tizimli joriy etish muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qo‘ldoshev R., Hamroyev A., Jumayeva X., Abulova, Z., Xayrullayeva, D., & Niyazova, M. (2024). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining til boyligi, uning vazifalari. E3S Web of Conferences da (538-jild, 05017-bet). EDP fanlari.

2. Qo‘ldoshev R., Jumayeva, H., Husenova, A., Xaitov, L., Gudgina, V., & Sanoyev, G. A. (2024). Assessment of the effectiveness of the physical education process in preschool educational organizations. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05042). EDP Sciences.

3. Jumayeva H.G‘., “Pedagogik muloqot asosida ma’naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari” Zamonaviy fan va tadqiqotlar 4.3: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2025 yil 22-aprel) 340-346.

4. Jumayeva H.G‘., “Geymifikatsion yondashuv asosida talabalarning evrestikkognitiv faoliyatini rivojlantirishning metodik asoslari” Zamonaviy tasviriyy-pedagogik ta’limda an’ana va innovatsiyalar: izlanishlar va yechimlar xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari Buxoro – 2025

5. Jumayeva H.G‘., “Talabalarda evristik tafakkurni shakllantirishda geymifikatsion yondashuvning ahamiyati”, “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 5

6. Jumayeva H.G‘., “Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish”, “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 3

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING USULLARI

Mardonova Ismigul Dilshod qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti
mardonova_ismigul@buxdpi.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik, xususan nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi dolzarb muammolar va ularning amaliy yechimlari yoritilgan. Unda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, bu borada mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari hamda tajribalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pedagogika, kompetensiya, nutq, savodxonlik, lingvistika, metodika, matn, tahlil, muloqot.

METHODS FOR THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL COMPETENCIES OF PRIMARY STUDENTS

Annotation. This article covers current problems in the development of pedagogical, in particular speech competencies of Primary School students and their practical solutions. It paid special attention to the issues of formation of oral and written speech of students and analyzed the scientific views and experiences of domestic and foreign scientists in this regard.

Keywords: pedagogy, competence, speech, literacy, linguistics, methodology, text, analysis, communication.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. В данной статье освещены актуальные проблемы развития педагогических, в частности речевых, компетенций учащихся начальных классов и их практические решения. В нем особое внимание уделено вопросам формирования устной и письменной речи учащихся, анализируются научные взгляды и опыт отечественных и зарубежных ученых.

Ключевые слова: педагогика, компетентность, речь, грамотность, Лингвистика, методика, текст, анализ, общение.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Mazkur bosqichda o'quvchilarning nafaqat bilim va ko'nikmalari, balki pedagogik kompetensiyalari – ya'ni o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi, muammolarni hal etish qobiliyati, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalari, shuningdek, kommunikativ madaniyati ham rivojlanadi. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilari pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda kompleks yondashuv zarur bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik kompetensiyalarning shakllanishi muhim o'rin tutmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu kompetensiyalarni shakllantirish — ularning keyingi bosqichlarda muvaffaqiyatli o'qib-o'rganishi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy hayotga moslashuvi uchun zarur omildir. Pedagogik kompetensiyalar deganda, o'quvchining o'z bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayotda to'g'ri, samarali qo'llay olish qobiliyati tushuniladi. Bu esa bilimni oddiy yodlash emas, balki uni amaliyotda qo'llashga tayyorlikni anglatadi.

Mazkur yo'nalishda bir qator mahalliy olimlar, jumladan, Y. Abdullayev, Q. Abdullayeva, K. Qosimova, B. Turdiyev, A. G'ulomov, M. Asqarova va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning ilmiy ishlari o'quvchilar nutqini o'stirishda samarali metodik yondashuvlarni taklif etgan. Ayniqsa, K. Qosimovanning bosh muharrirligida yaratilgan "Ona tili o'qitish metodikasi" darsligida boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini

o‘stirishning bosqichlari, metodik shart-sharoitlari, yo‘nalishlari hamda so‘z, gap va bog‘lanishli nutq ustida ishlash usullari batafsil yoritilgan.

O‘qish savodxonligi fanining asosiy vazifasi — o‘quvchilarni **matnni anglash, uni tahlil qilish, asosiy g‘oyani ajratib olish**, fikr bildirish, nutqiy ifoda vositalarini to‘g‘ri ishlatishga o‘rgatishdan iboratdir. Bu orqali o‘quvchilar o‘qilgan matn asosida og‘zaki va yozma shaklda fikrini aniq, mantiqiy va izchil bayon qilishni o‘rganadi. Q. Qosimovaning “1-sinfda nutq o‘stirish” qo‘llanmasida aynan savod o‘rgatish davrida bu yo‘nalishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan metodik tavsiyalar keltirilgan bo‘lib, ular o‘qish savodxonligi darslari uchun dolzarb hisoblanadi.

Shu bilan birga, bugungi kunda axborot texnologiyalarining haddan ziyod keng tarqalganligi ham bolalar nutqining pasayishiga olib kelayotgan xavfli holatlardan biridir. Bolalarning vaqtlarini ko‘p hollarda gadjetlar qarshisida o‘tkazishi, ularning muloqot madaniyatini susaytiradi, bu esa o‘z navbatida o‘qish, tushunish, savolga javob berish va matn asosida izchil fikr yuritish kabi o‘quv faoliyatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Xorijiy olimlar — V.I. Loginova, Y.S. Lyaxovskaya, V.V. Gerbova tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq leksikasining shakllanishiga ijtimoiy muhit, muloqot va ona tili ta‘limi bevosita ta‘sir qilishi ko‘rsatilgan. Ushbu ilmiy yondashuvlar boshlang‘ich sinfda o‘qish savodxonligi darslarini olib borishda asosiy tayanch sifatida xizmat qilishi mumkin.

O‘qish savodxonligi fanining asosiy maqsadi — o‘quvchilarning nutqiy, tafakkuriy va muloqotga oid kompetensiyalarini shakllantirishdir. Bu yo‘nalishda ilg‘or metodlar, ona tili darslari bilan integratsiyalashgan yondashuvlar, multimediya vositalaridan oqilona foydalanish va o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb qilish — asosiy samarali usullardandir. Shu tariqa o‘quvchilar nafaqat matnni tushunishga, balki uni tahlil qilishga, ifodalashga, muhokama qilishga ham o‘rgatiladi.

Ta‘limga kompetensiyaviy yondashuvning joriy qilinishi, xususan, o‘quv dasturlarida tayanch va fanga oid kompetensiyalarni belgilab berilishi, boshlang‘ich bosqichdan boshlab o‘quvchilarning nutqiy, ijtimoiy va kognitiv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Masalan, ona tili fani orqali o‘quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalari shakllantiriladi. Lingvistik kompetensiyalar fonetika, orfografiya, leksika, grammatika kabi til bo‘limlariga tegishli bilim va ko‘nikmalarni amaliy qo‘llashga yo‘naltirilgan. Bu kompetensiyalarni shakllantirish o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq madaniyatini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

O‘quvchining pedagogik kompetensiyasini shakllantirishda nutq o‘stirish alohida ahamiyatga ega. Nutq insonning fikrlash vositasi bo‘lib, shaxsiy rivojlanish va muloqotda faol ishtirok etishning poydevoridir. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirish uchun so‘z ustida ishlash, so‘z birikmalari va gap tuzish, bog‘lanishli nutqni rivojlantirish kabi bosqichma-bosqich yondashuvlar qo‘llaniladi. Bunda o‘quvchilar yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi, ularni kontekstda ishlatishni o‘rganadi, matn asosida fikr bildiradi va mustaqil nutq hosil qiladi. Bu esa ularning og‘zaki va yozma fikr ifodalash malakalarini kuchaytiradi. Birinchidan, o‘quvchilarning shaxsiy faolligini rag‘batlantirish eng asosiy usullardan biridir. Ta‘lim jarayonida interaktiv metodlardan – savol-javob, rolli o‘yinlar, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara kabi usullardan foydalanish, ularning darsga faol qatnashishini ta‘minlaydi. Bu orqali o‘quvchi o‘z fikrini ifodalash, o‘rtoqlari bilan fikr almashish, mustaqil fikrlashga odatlanadi. Bu jihatlar esa keyinchalik uning shaxsiy kompetensiyasini mustahkamlaydi. Ikkinchidan, muammoli vaziyatlar yaratish orqali o‘quvchilarda analitik va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin. Masalan, dars jarayonida turli real hayotiy holatlarni modellastirish, ularni tahlil qilish, har xil yechimlarni taklif etish orqali bolalar hayotiy muammolarga ijodiy yondashishni o‘rganadilar. Bu yondashuv o‘z navbatida bolalarning mustaqil qaror qabul qilish, javobgarlikni his qilish kabi sifatlarini shakllantiradi. Uchinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini muntazam ravishda mashq qilish lozim. Buning uchun hikoya tuzish, matn tahlili, muloqotli topshiriqlar, teatr

sahnalashtirish kabi usullar juda samaralidir. Bunday mashgʻulotlar bolalarni jamoada ishlash, fikrini aniq va loʻnda ifodalash, boshqalarni tinglash madaniyatiga oʻrgatadi. Toʻrtinchidan, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish ham muhim vosita hisoblanadi. Interaktiv taʼlim platformalari, oʻyin shaklidagi dasturlar, multimediali resurslar oʻquvchilarning bilim olishga qiziqishini oshiradi, shu bilan birga zamonaviy axborot muhitida ishlash kompetensiyasini shakllantiradi.

Bundan tashqari, kompetensiyaviy yondashuv asosida tuzilgan darslar orqali oʻquvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatlari ham shakllanadi. Bu yondashuvlar oʻquvchilarning faolligini oshiradi, ularda oʻz fikriga ega boʻlish, oʻzini erkin ifoda etish va javobgarlikni his qilish kabi shaxsiy fazilatlarini rivojlantiradi.

AKT vositalaridan foydalanish, taqdimotlar tayyorlash, guruhviy ishlar, rolli oʻyinlar va interfaol metodlar orqali ham oʻquvchilarning kommunikativ, ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarini shakllantirish mumkin. Ular shaxsiy fikrini jamoaviy muhitda ifodalash, boshqa fikrlarni tinglash va baholashni oʻrganadi.

Shuningdek, tarbiyaviy tadbirlar, ijtimoiy loyihalar, maktab ichidagi koʻrgazmalar, viktorinalar orqali ham oʻquvchilarning ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin. Ular jamiyatga foydali boʻlish, ijtimoiy masʼuliyatni his qilish, mehnat va axloqiy qadriyatlarni oʻzlashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish taʼlimning barcha bosqichlari bilan uzviy bogʻliq holda olib borilishi zarur. Bu jarayon samarali boʻlishi uchun oʻqituvchi metodik jihatdan puxta tayyorlangan, innovatsion va psixologik yondashuvlarga ega boʻlishi lozim. Shundagina oʻquvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning zamonaviy talablarga javob beradigan barkamol inson sifatida shakllanishi taʼminlanadi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish – bu faqat bilim berish emas, balki ularning shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiy moslashuvi, mustaqil fikrlashi va muloqot qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan uzviy pedagogik jarayondir. Bu jarayonni toʻgʻri yoʻlga qoʻyish uchun esa oʻqituvchilar zamonaviy metodika va yondashuvlarni chuqur egallagan boʻlishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Umumiy oʻrta taʼlimning Davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi. Boshlangʻich taʼlim. — Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi Respublika taʼlim markazi, 2017. — 249 b.
2. Raxmatova L.K. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining oʻqish texnikasini takomillashtirishda zamonaviy metodlar. – Toshkent, “Innovatsiya”, 2023.
3. Usmonova Z.I. Oʻqish savodxonligi darslarida elektron resurslardan samarali foydalanish. – Andijon, “Maʼrifat”, 2021.
4. Qosimova K., Matchonov S., Gʻulomova X., Yoʻldosheva Sh., Sariyev Sh. *Ona tili oʻqitish metodikasi*. — Toshkent: Noshir, 2009. — 352 b.
5. Matchonov S., Bakiyeva H., Gʻulomova X., Yoʻldosheva Sh., Xolboyeva G. *Boshlangʻich sinflarda ona tili oʻqitish metodikasi*. — Toshkent: “Ishonchli hamkor”, 2020. — 740 b.
6. *Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi*. — Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. — 900 b.
7. *Oʻzbek tilining izohli lugʻati*. I jild. — Moskva: “Rus tili” nashriyoti, 1981. — 632 b.
8. Рождественский Н. С., Кустарева В. А. *Методика начального обучения русскому языку*. — Москва: Просвещение, 1965. — 289 с.
9. Babayeva D.R. *Nutq oʻstirish nazariyasi va metodikasi*. — Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2018. — 432 b.
10. Respublika taʼlim markazi rasmiy veb-sayti: www.rtm.uz
11. Ziyouz elektron kutubxonasi: www.ziyouz.com

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA BILIM, KO'NIKMA VA MALAKAGA ASOSLANGAN MEZONLAR

Tajbenova Saule Sarsengalieвна

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsent,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda bilim, ko'nikma va malaka kabi tarkibiy komponentlarga asoslangan mezonlar yoritilgan. Ayniqsa, qozoq tilida ta'lim oluvchi sinflarda ona tilini bosqichma-bosqich o'zlashtirishda fonetik, grammatik va sintaktik birliklar asosida kompetensiyani shakllantirish zarurligi ta'kidlangan. Maqolada bosqichli mezonlar asosida tuzilgan jadval va o'quv topshiriqlarining natijalari orqali o'quvchilarning nutqiy rivojlanishi baholangan.

Kalit so'zlar. Lingvistik kompetensiya, bilim, ko'nikma, malaka, mezon, boshlang'ich sinf, ona tili, qozoq tili, til o'rgatish.

КРИТЕРИИ, ОСНОВАННЫЕ НА ЗНАНИЯХ, УМЕНИЯХ И НАВЫКАХ РАЗВИТИЯ ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация. В статье рассматриваются критерии формирования лингвистической компетенции младших школьников на основе знаний, умений и навыков. Особое внимание уделено поэтапному усвоению родного языка в классах с казахским языком обучения, а также необходимости развития речевых навыков через фонетические, грамматические и синтаксические явления. Представлены таблицы уровневых критериев и результаты заданий, отражающие уровень речевого развития учащихся.

Ключевые слова. Лингвистическая компетенция, знание, умение, навык, критерии, начальные классы, родной язык, казахский язык, обучение языку.

CRITERIA BASED ON KNOWLEDGE, SKILLS, AND COMPETENCE IN DEVELOPING LINGUISTIC COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation. This article explores the criteria for developing linguistic competence in primary school students based on the components of knowledge, skills, and abilities. It emphasizes the importance of a step-by-step acquisition of the native language in Kazakh-taught classes, highlighting the need to build linguistic competence through phonetic, grammatical, and syntactic elements. The paper includes a criterion-based table and sample assignments that illustrate students' speech development levels.

Keywords. Linguistic competence, knowledge, skills, abilities, criteria, primary school, native language, Kazakh language, language instruction.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida ayrim metodist olimlar lingvistik kompetensiyaning ona tilidan egallanadigan bilim va malakalar bilan bog'liqlik darajasini nazariy jihatdan asoslashga, ba'zilar esa ulardan farqlanadigan, yuqoriroq darajada turadigan tomonlarini innovatsion pedagogik texnologiyalarni yaratishga ustuvor ahamiyat bermoqdalar. "Innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida o'qitishni tubdan yaxshilash" muammosi BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalariga doir Bitimida ham dolzarb vazifa sifatida belgilangan [1]. Nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish mazmuni, innovatsion metod va vositalarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ko'p tilli ta'limni amalga oshirishda tillar o'rtasidagi funksional tenglikni ta'minlash, har bir bolaning ona tilidagi nutqiy rivojlanishini kafolatlash ta'lim siyosatida ustuvor vazifalardan biridir. Xususan, qozoq va qoraqalpoq tilida ta'lim oluvchi sinflarda o'quvchilarning ona tilidagi lingvistik kompetensiyasini shakllantirish – murakkab, bosqichma-bosqich tashkil etiladigan jarayondir.

L.V.Cherepanovanning ta'kidlashicha, lingvistik kompetensiya mazmunini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma va malakalar hamda o'quv-biluv faoliyati usullari ta'lim metod va usullari yordamida amalga oshiriladigan o'qitish tizimi orqali rivojlanadi va shakllanadi [2]. Shubhasiz, bunday o'quv-biluv faoliyati fonetik, leksik, morfem, frazeologik, so'z yasalishi, morfologik va sintaktik til hodisalarini intellektual-fikrlash faoliyati asosida o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, nutqiy amaliyotsiz faqat grammatik qoidalarini bilish ham, nazariy umumlashmasiz nutqiy amaliyot ham tilning erkin va mazmunli o'zlashtirilishini ta'minlay olmaydi (o'sha joyda).

Lingvistik kompetensiyaning asosiy xususiyatlaridan biri – uning kommunikativlikka yo'naltirilganligidir. T.V.Lebedeva ta'kidlaganidek, “kommunikativ kompetensiya – bu o'zgalarni tushunish va muloqot maqsadlari, sohalari, vaziyatlariga mos ravishda shaxsiy nutqiy xulq-atvor dasturini yarata olish qobiliyatidir” [3].

Lingvistik kompetensiya quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

bilim – tilning nazariy qoidalarini bilish (fonetika, morfologiya, leksika, sintaksis);

ko'nikma – til qoidalarini amaliyotda qo'llay olish;

malaka – til qoidalarini avtomatik, xatosiz qo'llash darajasi.

Bu komponentlarni rivojlantirish uchun izchil va bosqichli yondashuv talab qilinadi.

Quyidagi jadvalda komponentlarga mos ravishda bosqichli mezonlar keltirib o'tilgan:

Komponent	Bilim	Ko'nikma	Malaka
1-bosqich	So'z tartibi haqida tushunchaga ega	Qisqa jumla tuzadi	Xatolar bilan gapiradi
2-bosqich	Jumla tuzilishida qoidalarini anglaydi	Bir nechta so'zli jumla tuzadi va bog'lovchilarni qo'llaydi	Xatolarni qisman to'g'rilaydi
3-bosqich	Til qoidalarini mustaqil sharhlaydi va qo'llaydi	Murakkab jumla tuzadi	Erkin, ravon va xatosiz nutqqa ega

Yuqoridagi mezonlarni hisobga olgan holda quyidagi misollarni ko'rib chiqamiz:

Topshiriq: “*Менің отбасым*” mavzusida 4-5 jumladan iborat matn tuzish.

1-bosqich natijasi: *Менің отбасым бар. Әкем, анам, ағам.* – sodda jumlarlar, so'z tartibi asosan to'g'ri, ammo bog'lovchilar yo'q.

3-bosqich natijasi: *Менің отбасым үлкен. Әкем дәрігер, анам мұғалім. Біз демалыс күндері бірге серуенге шығамыз.* – murakkab jumlarlar, gaplar o'zaro bog'langan.

Topshiriq: “*Менің достим*” mavzusida og'zaki so'zlashuv matni tuzish.

1-bosqich natijasi: *Менің достим бар. Аты – Алишер. Жақсы бала.* – qisqa jumlarlar, kerakli fe'llar yetmaydi.

3-bosqich natijasi: *Менің достимнің аты – Алишер. Ол жуда ақилл, mudamı járdem beredi. Biz birge oynaymız hám oqıymız.* – bog'langan jumlarlar, nutqiy birlik shakllangan.

Ushbu misollar o'quvchining til o'zlashtirishdagi ijobiy rivojlanishini ko'rsatadi. 1-bosqichda gaplar ajralgan, fe'llar va bog'lovchilar kam ishlatilgan. 3-bosqichda esa jumlarlar mantiqan bog'langan, grammatik jihatdan to'g'ri berilgan va kengroq matn tuzilgan. Bu esa, o'quvchilarning so'z boyligi, grammatik ko'nikmalari hamda mantiqiy izchillikni qo'llash malakasi ortib borayotganligini anglatadi. Shuningdek, murakkab jumlarlar va nutqiy birliklarning shakllanishi o'quvchining ifoda qilish qobiliyatining oshganini ko'rsatadi. Bunday tahlil til o'rganish jarayonini bosqichma-bosqich baholash hamda o'quvchining individual yondashuvga muhtoj jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

O'quvchi lingvistik kompetensiyaning o'zlashtirar ekan, faqatgina nazariy bilimlarni egallamasdan, balki bu bilimlardan boshqalar uni to'g'ri tushuna oladigan darajada foydalanish, ovoz, intonatsiya, grammatik tuzilishga e'tibor berish, tengdoshlarining nutqidagi muvaffaqiyat va kamchiliklarga e'tiborli bo'lish, zarurat tug'ilganida o'z tushunchalari bilan o'rtoqlashish kabi ko'nikmalarni ham shakllantirishi lozim. Bu jarayonda o'quvchida nutqiy muloqotga kirishish,

fikrni aniq va ravshan ifodalash, tilning funksional imkoniyatlaridan unumli foydalanish ko'nikmalari rivojlanadi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, qozoq va qoraqalpoq sinflarda lingvistik kompetensiyani shakllantirishda bilim, ko'nikma va malaka komponentlariga asoslangan bosqichli kuzatuv mezonlarini joriy etish yuqori samara beradi. Bu usul orqali har bir o'quvchining individual nutqiy rivojlanishini kuzatish va metodik islohlarni kiritish mumkin bo'ladi. Qo'sh tilli muhitda bunday yondashuv nafaqat kompetensiya rivojiga, balki umumiy savodxonlik darajasining oshib borishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ЮНЕСКО халқаро меъёрий хужжатлари //Ўзбекча нашрининг масъул муҳаррири Л.Саидова. –Т.: Адолат, 2004. –Б. 19-62.

2. Черепанова Л.В. Формирование лингвистической компетенции младших школьников. – М.: Педагогика, 2004. – 128 с.

3. Лебедева Т.В. Коммуникативная компетенция и речевое поведение школьников // Вопросы психолингвистики. – 2006. – №2. – С. 47–53.

ZAMONAVIY O'QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATIDA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARINING O'RNI

Lukmonova Salomat Gafurovna

Buxoro davlat universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti Email: s.gafurovna@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qituvchilik kasbiga raqamli texnologiyalar va elektron ta'lim resurslarini integratsiyalashning dolzarb masalalari yoritilgan. Unda o'qituvchilarning AKT bo'yicha malaka darajalariga muvofiq holda kunduzgi ta'lim jarayoniga zamonaviy raqamli vositalarni joriy etish bosqichlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ochib berilgan. Shuningdek, bugungi kunda o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishda keng qo'llanilayotgan raqamli texnologiyalar tahlil qilinib, ularning amaliy imkoniyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, elektron ta'lim resurslari, raqamli kompetensiyasi, o'qituvchi malakasi, raqamli savodxonlik, ta'lim muhiti, interaktiv vositalar, zamonaviy dars, media savodxonlik.

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОВРЕМЕННОГО УЧИТЕЛЯ

Лукмонова Саломат Гафуровна

Бухарский государственный университет

докторант 3-го курса Электронная почта: s.gafurovna@mail.ru

Аннотация. В данной статье освещены актуальные вопросы интеграции цифровых технологий и электронных образовательных ресурсов в профессию учителя. В ней раскрыта неразрывная связь между этапами внедрения современных цифровых инструментов в очный учебный процесс в соответствии с уровнями квалификации учителей по ИКТ. Также проанализированы цифровые технологии, широко применяемые сегодня для совершенствования профессиональной деятельности учителей, и освещены их практические возможности.

Ключевые слова: цифровые технологии, электронные образовательные ресурсы, цифровая компетенция, квалификация учителя, цифровая грамотность, образовательная среда, интерактивные средства, современный урок, медиаграмотность.

THE ROLE OF DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES IN THE PROFESSIONAL ACTIVITIES OF A MODERN TEACHER

Lukmonova Salomat Gafurovna

Bukhara State University 3rd-year doctoral student Email: s.gafurovna@mail.ru

Abstract. This article addresses current issues related to the integration of digital technologies and electronic educational resources into the teaching profession. It reveals the intrinsic connection between the stages of implementing modern digital tools in face-to-face learning processes in accordance with teachers' ICT qualification levels. Additionally, the article analyzes digital technologies widely used today to enhance teachers' professional activities and highlights their practical applications.

Keywords: digital technologies, electronic educational resources, digital competence, teacher qualification, digital literacy, educational environment, interactive tools, modern lesson, media literacy.

Ta'limni raqamlashtirish — bu zamonaviy jamiyat oldida turgan dolzarb muammolarga javob bo'lib xizmat qilmoqda. Bu jarayon raqamli iqtisodiyotning shakllanishi, ijtimoiy hayotning barcha sohalariga raqamli texnologiyalar kirib kelishi va zamonaviy sanoatning yangi texnologik tuzilishga o'tishi bilan bevosita bog'liqdir.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va raqamli resurslarning ko'payishi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar uchun sharoit yaratmoqda. Ta'lim jarayonida elektron darsliklar, interaktiv platformalar, virtual laboratoriyalar, masofaviy ta'lim tizimlari, sun'iy intellekt asosidagi o'quv vositalari faol qo'llanilmoqda. Bu esa o'quvchilarga mustaqil ta'lim olish, individual yondashuv asosida bilimlarni egallash hamda o'qituvchining kasbiy faoliyatini takomillashtirish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda davlat tomonidan ta'lim xizmatlari elektron shaklda ko'rsatilmoqda, masofaviy va gibrid ta'lim shakllari joriy etilmoqda, o'quv materiallari va kutubxona resurslari raqamlashtirilmoqda. Bu o'zgarishlar pedagogik jarayonni optimallashtirish, zamonaviy o'quv metodlarini joriy qilish va o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish imkonini bermoqda.

Shu munosabat bilan ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Endilikda o'qituvchidan nafaqat o'z fanini chuqur bilishi, balki raqamli vositalardan samarali foydalana olish, onlayn muhitda dars tashkil qila olish va axborot xavfsizligi bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lish talab etiladi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga kirib kelishi o'qituvchining roli va pedagogik yondashuvlarni yangilash zaruratini yuzaga chiqarmoqda.

Raqamli ta'lim resurslari zamonaviy o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutadi. Raqamli muhit o'qituvchilarga doimiy ravishda o'z malakasini oshirib borish, kasbiy rivojlanishga erishish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, ular onlayn kurslar, tarmoq seminarlar, raqamli ta'lim platformalari, elektron kutubxonalar hamda, shu jumladan, xorijiy tillardagi ilmiy ma'lumotlar bazalariga masofaviy kirish orqali bilim va ko'nikmalarini muntazam yangilab borish imkoniga ega bo'lishmoqda.

Pedagogik jamoalarda raqamli kompetensiyalarning shakllanishi o'qituvchilarga ichki tashkilotlararo muloqotni takomillashtirish, axborot almashinuvi samaradorligini oshirish, jamoaviy faoliyatni zamonaviy kommunikatsion vositalar yordamida tashkil etish imkonini beradi. Bu esa kasbiy faoliyat unumdorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim tizimining raqamlashtirilishi sharoitida pedagogik muloqot tarmoq asosida, multimodal formatlarda, sinxron (bir vaqtning o'zida) va asinxron (turli vaqtda) shakllarda amalga oshirilmoqda. Ushbu muloqot jarayonida o'qituvchilar o'z kasbiy tajribalari bilan almashish, elektron resurslar orqali hamkasblar, ota-onalar va ilmiy hamjamiyat bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yish imkoniyatiga ega bo'lalilar.

Shuningdek, raqamli ta'lim resurslari orqali innovatsion loyihalarni birgalikda amalga oshirish, boshqa ta'lim muassasalari bilan hujjatlar va didaktik materiallar almashish, hamkorlikda muhim masalalarni hal etish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bularning barchasi zamonaviy o'qituvchining kasbiy o'sishi va ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda raqamli kompetensiyasi masalasi ta'lim sohasida tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ayniqsa, raqamli ta'lim texnologiyalari va masofaviy o'qitish tizimlarining keng

ommalashuvi sharoitida bu kompetensiya o'qituvchining kasbiy faoliyatida asosiy va zaruriy omil sifatida qaralmoqda. Shu sababli, zamonaviy o'qituvchi fan va pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashgan raqamli ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. U nafaqat raqamli texnologiyalardan foydalanishni bilishi, balki shaxsiy elektron ta'lim resurslarini yaratish va ulardan samarali foydalanish, ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, shuningdek, internet orqali ularni tarqatish va nashr etish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak.

Zamonaviy o'qituvchining raqamli kompetensiyasi — bu faqat texnik vositalarni qo'llash emas, balki innovatsion pedagogik yechimlarni ishlab chiqish va ta'lim sifatini oshirish yo'lida raqamli resurslarni mustaqil tarzda ishlab chiqish, moslashtirish va ommalashtirish salohiyatidir.

UNESCO tomonidan tavsiya etilgan raqamli kompetensiyalar uch modul asosida shakllangan:

1. AKTni qo'llash — o'quvchilarni raqamli texnologiyalardan jamiyat rivoji yo'lida foydalanishga tayyorlash.

2. Bilimlarni egallash — o'quvchilarda raqamli texnologiyalar orqali mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ishtirok etish salohiyatini shakllantirish.

3. Ko'nikmalarni shakllantirish — o'quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda qayta qo'llay olish va innovatsion jarayonlarda faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish.

Mazkur tasnif raqamli kompetensiyalarning o'quvchilar orasida shakllanishiga xizmat qilsa-da, u o'qituvchilik faoliyatining samarali amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan metod va vositalarni to'liq qamrab olmaydi.

Shu sababli, raqamli kompetensiyalardan samarali foydalanish o'qituvchiga quyidagi tizimli yechimlarni tatbiq etish imkonini beradi: raqamli o'quv materiallari to'plamlari, interaktiv aloqa vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish tizimlari, o'quvchilar uchun kreativ portfoliolar va elektron kundaliklarni yuritish.

Raqamli kompetensiyalarni o'zlashtirish o'qituvchining kasbiy raqobatbardoshligini oshiradi, shuningdek, o'quvchilarda internet va global axborot maydonida ishlash davomida ta'lim qadriyatlariga sodiqlik va umumiy media savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli maktab imkoniyatlari ta'lim tizimini global raqamli sivilizatsiya sari transformatsiya qilishga qaratilgan. Demak, raqamli kompetensiyalarni egallash — zamonaviy o'qituvchining malakasini oshirish, kasbiy faoliyatining samaradorligini ta'minlash va raqobatbardoshligini kuchaytirishning asosiy omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Dukhovnikova, I.Yu. & Korol, A.M. (2021). Digital competencies of a modern teacher as basis for successful teaching performance. *International Research Journal*, 2(104). <https://doi.org/10.23670/IRJ.2021.103.2.083>.

2. F. D. Khalikova, & A. V. Khalikov (2020). THE ROLE OF DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES IN TEACHING GIFTED YOUTH. *Международный журнал гуманитарных и естественных наук*, (6-1), 201-205. doi: 10.24411/2500-1000-2020-10681

3. Salomat, L. (2024). Formation of competence in the use of digital educational resources in the effective organization of educational activities in future elementary school teachers. *МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА*, 2(2), 391-397.

4. Gafurovna, L. S. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 149-154.

5. Gafurovna, L. S. (2023). THE IMPORTANCE OF USING DIGITAL LEARNING RESOURCES IN PRIMARY EDUCATION. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).

STEAM YONDASHUVINI MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIGA TADBIQ ETISHNING AFZALLIKLARI

N.X.Aslanova

*Buxoro viloyati XTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
metodikalari kafedrası o'qituvchisi nozimaaslanova80@mail.ru +998907452895*

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim sohasiga STEAM yondashuvini tadbiiq etishning afzalliklari to'g'risida fikr va mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, ijtimoiy faollik, refleksiv ko'nikma, mustaqil izlanish, fan, texnologiya, muxandislik, san'at, matematika.

В статье раскрывается преимущества подхода STEAM у детей дошкольно образовательных учреждениях.

Ключевые слова: обучение, социальная активность, рефлексивный навык, независимое исследование, наука, технология, инжиниринг, искусство, математика

The article reveals advantages of modern approach STEAM in preschool education institutions.

Key words: education, social activity, reflexive talent, independent research, science, technology, engineering, art, mathematics.

Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida STEAM (S - SCIENCE-fan, T - TECHNOLOGY-texnologiya, E - ENGINEERING - muhandislik, A - ART-san'at, M - MATHEMATICS - matematika) - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar tashkil etilgan. Ushbu yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarni fan, texnologiya, muxandislik, san'at va matematika sohalariga yo'naltirishni nazarda tutadi.

STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi:

- Muammolarni keng qamrovli tushunish – Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan ta'lim va tarbiya jarayonida, xususan, faoliyat markazlarida bolalar uchun muammoli vaziyatlar yaratiladi. Topshiriq va vazifalarni bajarish davomida bola muammoni har tomonlama tushunadi;

- Ijodiy fikrlash – Beriladigan vazifa va topshiriqlarni bajarishda har bir bola o'zining individual xususiyatidan kelib chiqib, ijodiy yondashadi.

- Muhandislik yondashuvi - Qurish-yasash markazida yoki bolalarning mustaqil o'yin faoliyati davomida, yoki bo'lmasa konstruktorlik ishlarini bajarish jarayonida bolalar muxandislik vazifalarini bajarishga kirishib ketadilar. Muxandislik yondashuvi ana shu jarayonda rivojlanib boradi.

- Tanqidiy fikrlash – Bolalar jamoa bo'lib ma'lum vazifani hal etish davomida birgalikda harakat qiladilar. Bir biriga bo'lgan munosabatlari shu jarayonda shakllanib boradi. Bajarayotgan ishlari davomida sheriklarining hatti-harakatlariga o'zlarining tanqidiy fikrlarini bildiradilar.

- Ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash- Bolalar bajarayotgan ishlar davomida tarbiyachi tomonidan o'tkaziladigan atrof-olam bilan tanishtirish, tabiat, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida egallagan bilimlari asosidagi xulosalarni umumlashtiradilar. E.G.Vasuro bunday ko'rsatadi: "Haqiqiy umumlashtirish ob'ektlarni shu ob'ektlarning muhim xususiyatlari bo'yicha differensiallashtirilgandan keyingina amalga oshadi".

Dizayn asoslarini tushunish - San'at markazida olib boriladigan faoliyat davomida, qurish-yasash va konstruksiyalash amaliyoti davomida tarbiyachining o'rgatgan bilimlariga asoslanib, bolalarda dizayn va nafosat asoslari o'zlashtiriladi.

Shuningdek, STEAM yondashuvi kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Ko'pgina rivojlangan davlatlarda, jumladan AQSh, Yaponiya, Izroil, Singapur,

Rossiyada maktabgacha ta'lim muassalarida bolalarni ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida mazkur yondashuv metodlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bu yondashuv bolalar rivojlanishining yangi darajasini ta'minlaydi.

STEAM yondashuvining quyidagi afzalliklari ham mavjud.

O'z-o'ziga ishonchni shakllantirish.

Bu yondashuvda bolalar o'z qo'llari bilan yaratgan poezd va temir yo'l, kemalar, samolyotlar va avtomobillarni "ishga tushirib" sinovdan o'tkazadilar. Bolalar har urinishda maqsadga yaqinlashib borishadi. Yaxshi natija bermagan "mahsulot"ni qayta-qayta sinovdan o'tkazib, takomillashtirib borishadi. Natijada barcha muammolarni hal qilish, maqsadga erishish bolalar uchun ilhom, g'alaba va quvonch olib keladi. Har bir g'alaba, o'zlarining qobiliyatlariga ko'proq ishonch uyg'otadi. Bolada refleksiv jarayon to'laonli kechadi.

Faol muloqot va jamoaviy ish.

STEAM dasturlari ham faol muloqot va guruh ishi bilan ajralib turadi. Muhokama bosqichida ular fikr bildirishga qo'rqqanlikka o'rganadilar. Ko'pincha, stol atrofida o'tirmaydi, o'zlarining dizaynlari asosidagi "mahsulot"larni sinovdan o'tkazadi va rivojlantiradi. Ular hamma vaqt hamkorlikni ta'minlaydigan jamoada tarbiyachilar va ularning do'stlari bilan muloqot qilish bilan band bo'lishadi.

Texnik fanlar bo'yicha qiziqishlarni rivojlantirish. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar uchun STEAM ta'limining vazifasi motivatsiyaning rivojlanishi uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Shuningdek, bolalar uchun tabiiy va texnik fanlarga ilk qiziqishlarni rivojlantirish uchun asosdir.

STEAM – bolalar uchun juda qiziqarli yondashuv bo'lib, bolalarning zerikishlariga to'sqinlik qiladi. Ular berilgan vazifani bajarish bilan band bo'lib, vaqt o'tayotganini sezmaydilar va charchamadilar ham. Turli qiyinchilikdagi konstruktorlar, samolyotlar, mashinalar, ko'priklar, osmono'par binolarni qurish, elektron o'yinlar, fabrikalar, temiryo'llar qurishga, ilm-fan va texnologiyalari sohasiga qiziqishi ortib borada.

Loyihalar uchun ijodiy va innovatsion yondashuvlar.

STEAM ta'limi oltita bosqichdan iborat:

- savol (vazifa, topshiriq),
- muhokamalar(diskussiya),
- dizayn,
- qurilish,
- test,
- takomillashtirish.

Ushbu bosqichlar muntazam ravishda loyiha yondashuvining asosi sifatida amal qiladi. O'z navbatida hamkorlik yoki turli imkoniyatlardan birgalikda foydalanish ijodkorlikning asosi hisoblanadi. Bolalar bir vaqtning o'zida fan va texnologiya imkoniyatlarini qo'llash, yangi innovatsiyalarni yaratishga erishadilar.

Oqilona tashkil etilgan sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko'rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag'bat uyg'otadi. Bunda tarbiyachilar bolaning aqliy rivojlanishi qanday kechayotganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladilar. Buning uchun esa ularni doimiy ravishda nazorat qilib borishlari zarur bo'ladi. Tarbiyachi o'quv materialini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda yetkazadi.

STEAM yondashuvini amalga oshirishda tarbiyachilarning o'rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda ularga mos keladigan maqsadlar qo'yishlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo'llab-quvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishlari kerak.

Bola rivojlanishining o'ziga xosligini inobatga olishda avvalo, shuni tushunib yetish kerakki, barcha bolalar rivojlanishning ma'lum bosqichlarini bosib o'tadilar, biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmas ekanligi namoyon bo'ladi.

Katta yoshdagilar bolalarni aynan bir xil, o'xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta'minlashi uchun ularning o'ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Shuningdek, tarbiyachi bir xil yoshdagi turli bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e'tibor bilan munosabatda bo'lishi kerakligini mutaxassislar alohida ta'kidlashadi. Bunda bola rivojlanishining o'ziga xosligiga doir, bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ya'ni ularning aqliy, ijtimoiy va ma'naviy yetuklik darajasi nazarda tutiladi. Bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlariga, tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o'z g'oyalarini tajribada sinab ko'rish xoxish-istaklariga qaratilgandir. Bunda bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'zlari javob topishiga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Negaki, savolga javob izlash davomida bolada qiziqish, dalillash va e'tibor berish avtomatik tarzda faollashadi.

Mashg'ulotlarni olib borish uchun moslashtirilgan rivojlanish markazlaridagi jarayonda bolalarning o'zlari tegishli markazni ixtiyoriy ravishda tanlaydilar. Bolalarning guruhlarda mustaqil ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o'ylab topadiki, unda barchaga birdek ko'rsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda o'zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Epchillik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug'ilib qolganda topshiriq va materiallarni o'zgartirishi yoki moslashtirishi mumkin.

Respublikamizda "Ilm yo'li" dasturi asosida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda 6-7 yoshlilarning intellektual imkoniyatlari ularning shaxsiy portfoliosida to'planib boriladi. Bu bolaning qisqa muddatli guruhga kelganidan tortib ta'limni yakunlagunga qadar yutuqlari va ishlarining individual to'plamidir. Portfoliodan rivojlanishning o'z-o'ziga baho berish vositasi foydalanish, unga bolaning o'z fikr-mulohazalarini aks ettirishga harakat qilib, so'zlar va sonlarni yozishga urinishlarini, nuqt namunalarini, tayyorlagan konstruksiyalarining rasmlarini ham kiritish mumkin. Bundan tashqari, ota-onalarning ruxsati bilan bola faoliyatini aks ettiradigan fotosuratlarini, og'zaki nutqlari yozilgan audiodisklarni tanlab olish mumkin. Bolalar esa ularga tegishli bo'lgan portfolioning ota-onalarga ko'rsatilishini bilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ilm yo'li" 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash variativ dasturi. Toshkent 2019
2. K. Nizomova. "6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o'rganish." T.: 2006.
3. 6. Bikbayeva N.U. va boshqalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllanirish. Toshkent 1995.
4. Ishmuxamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008.
5. Sh.A.Sodiqova. "Maktabgacha pedagogika". T.: "Tafakkur sarchashmalari", 2013
6. U.Tolipov, M.Usmonboeva Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. -T.: 2006.

MAKTABGACHA TA'LIM BOSHQARUVINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA RAHBAR KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Berdiyeva Dilafruz Shuxratovna

Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi,

Buxoro shahar 16-DMTT direktori berdievadilafruz@buxdpi.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil etiladi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida rahbar shaxsining biografik tavsiflari, kasbiy qobiliyatlari va shaxsiy sifatleri chuqur o'rganiladi. Tadqiqotlarda boshqaruv samaradorligini

oshirishda rahbarlarning mustaqilligi, ijodkorligi, innovatsion fikrlashi va psixologik tayyorgarligi muhim omil sifatida qayd etiladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha ilg'or ilmiy izlanishlar natijalari tahlil qilinadi va amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: rahbar, boshqaruv, kompetensiya, maktabgacha ta'lim, innovatsiya, qobiliyat, shaxsiy sifatlar, liderlik, psixologiya, menejment.

EFFECTIVE PRESCHOOL MANAGEMENT EXECUTIVE COMPETENCIES IN THE ORGANIZATION DEVELOPMENT

Annotation. This article analyzes the theoretical and practical aspects of the formation and development of management competencies of the head of the preschool educational organization. On the basis of a competency approach, biographical descriptions of the personality of the leader, professional abilities and personal qualities are studied in depth. In research, the independence, creativity, innovative thinking and psychological readiness of leaders are noted as important factors in improving management efficiency. Also, the results of advanced scientific research on improving the management of preschool education are analyzed and practical recommendations are given.

Keywords: leader, management, competence, preschool education, innovation, ability, personal qualities, leadership, psychology, management.

ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ДОШКОЛЬНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ КОМПЕТЕНЦИИ РУКОВОДИТЕЛЯ В ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИТИЕ

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты формирования и развития управленческих компетенций руководителя ДООУ. На основе компетентностного подхода глубоко исследуются биографические характеристики, профессиональные способности и личностные качества личности руководителя. В исследованиях в качестве важного фактора повышения эффективности управления отмечается самостоятельность, креативность, новаторское мышление и психологическая подготовленность руководителей. Также анализируются результаты передовых научных исследований по совершенствованию управления дошкольным образованием и даются практические рекомендации.

Ключевые слова: руководитель, менеджмент, компетентность, дошкольное образование, инновации, способности, личностные качества, лидерство, психология, менеджмент.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetentligini shakllantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar nafaqat tarkibni tanlashga, balki rahbarlar amaliyotga yo'naltirilgan boshqaruv faoliyatga jalb qilishga asoslangan, uning doirasida rahbarlar turli xil boshqaruv qobiliyatlari va boshqaruv vazifalarini hal qilish usullarini bevosita o'zlashtirdilar. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining tashkiliy jihatlarini aniqlab, biz kompetensiyaviy yondashuvning asosiy qoidalariga asoslandik, xususan: - boshqaruvni shakllantirish jarayonining shaxsiy yo'nalishini kuchaytirish, ya'ni rahbarlarning qiziqishlari va ehtiyojlariga tayanib, o'quv jarayonini faollashtiradigan tanlov sharoitlarini yaratish; bu rahbarning o'zi izlanishi, o'z bilimini yaratishi kerakligini anglatadi; - faoliyatning yangi turlari va usullarini ishlab chiqish orqali kasbiy muammolarni hal qilishga o'rgatish. Shu munosabat bilan rahbarlarni nafaqat ilmiy asoslar va boshqaruv faoliyatini amalga oshirishning turli usullari bilan tanishtirish, balki ularni loyihalash, tahlil qilish, baholash va o'zini o'zi baholash vaziyatiga tushirish muhim sanaladi; - shaxsni o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirish. Biz uchun asosiy talab rahbarlarning taklif etilayotgan boshqaruv vazifalarini hal qilishda mustaqilligi va ijodkorligi namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratish, shuningdek, o'zlarining o'sishi, yutuqlarini ko'rish imkoniyatini berish. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish va boshqarishga oid tadqiqotlar A.V.Shin, F.R.Qadirova, D.Babayeva, M.N.Xushnazarova, Sh.A.Sodiqova, Sh.Shodmonova, Z.F.Azizova,

G.A.Berdialiyeva, N.Sh.Abdullayeva, M.A.Abdullayeva, Sh.N.Qosimova, M.T.Xamdamova, G.N.Nigmatova Sh.B.Raximova va boshqalar tomonidan olib borilgan. Shuningdek, U.I. Inoyatov, S.T.Turg'unov, M.A.Yuldashev, Ya.U.Ismadiyarov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida ta'lim muassasalarining boshqaruvi yo'nalishida kadrlarni tayyorlash, innovatsion-menejmentni shakllantirish, ta'lim menejmentini takomillashtirish sifati masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari davrida ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish, ayniqsa maktabgacha ta'lim bosqichida, juda katta ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida rahbarlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish ushbu tizim samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Zero, maktabgacha ta'lim inson shaxsini shakllantirishning eng muhim bosqichi bo'lib, bu jarayonda rahbarlarning malakasi, bilim va ko'nikmalari alohida o'rin tutadi.

Rahbar kompetensiyasi deganda nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar, balki boshqaruv madaniyati, liderlik qobiliyati, muammolarni hal qilish, jamoani boshqarish, kommunikativ va emosional intellekt kabi ko'plab jihatlar tushuniladi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlaridan yangicha fikrlash, innovatsion yondashuv, pedagogik jarayonni chuqur anglash, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini qo'llay olish kabi sifatlar talab qilinmoqda.

Rahbar kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bu doimiy o'rganish va o'z ustida ishlash madaniyatini shakllantirishdir. Zamonaviy rahbar o'z sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan boxabar bo'lishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va boshqaruv uslublarini o'z faoliyatida tatbiq eta olishi zarur. Shu bilan birga, rahbar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashi, ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish va qaror qabul qilishda ulardan samarali foydalanishi lozim.

Boshqaruv samaradorligini oshirishda kommunikativ kompetensiyalar ham muhim rol o'ynaydi. Rahbar pedagoglar, ota-onalar va bolalar bilan samarali muloqot qila bilishi, ijtimoiy-psixologik muhitni boshqara olishi zarur. Chunki jamoada sog'lom psixologik muhit bo'lmasa, ta'lim jarayonining sifati ham past bo'lishi mumkin. Shuningdek, rahbar ijtimoiy adolat, hurmat, mehribonlik va bag'rikenglik kabi insoniy fazilatlarga ega bo'lishi kerak.

Rahbar shaxsi tushunchasini tahlil etadigan bo'lsak, unga xos xususiyatlarni uch guruhga bo'lib o'rganamiz:

1. Biografik tavsif
2. Qobiliyat
3. Shaxsiy sifat va fazilatlar.

Rahbar shaxsining biografik jihatlariga uning yoshi, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy mavqei va ma'lumoti kiradi. Boshqaruv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning rahbar yoshiga bog'liqligi rivojlangan mamlakatlar tadqiqotlariga asoslanadi. Aniqlanishicha, Yaponiya qayta ishlab chiqarish yirik kompaniyalari rahbarlarining o'rtacha yoshi 63,5 bo'lsa, shu toifa amerikalik rahbarlarning yoshi 59da ekan. Yaponiya yirik kompaniya rahbarlarini o'rganishda uchraydigan va taajjublanarli jihatlardan biri, ularning yoshi ulug'ligidir. Ba'zi bir tashkilotlarda (masalan, "Sony corporation") kompaniyasi prezidentining yoshi 65 deb cheklangan bo'lsa ham, lekin ko'pgina avtomobil sohasidagi firma rahbarlarining yoshi 75 va undan yuqori ekanligi ajablanarli hol emas. Umuman olganda, Yaponiyada xodimning korxonaga bir umr yollanish tajribasi qo'llaniladi. Ma'lum bo'lishicha, yuqori bo'g'in rahbarlarining ko'pchiligi o'z tashkilotida ko'p yillar ishlaydi. Bu sohada o'tkazilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, katta yoshli rahbarlar, agar ularning sog'ligi ko'ngildagidek bo'lsa, ushbu tashkilot uchun katta tajriba manbaidir.

Liderlik qobiliyatlari ham rahbar kompetensiyalarining ajralmas qismi hisoblanadi. Lider rahbar o'z jamoasini maqsad sari ilhomlantira olishi, har bir xodimning salohiyatini to'g'ri baholay olishi, ijobiy motivatsiya orqali samaradorlikni oshirishi lozim. Bu borada menejment va psixologiya fanlaridagi yangiliklardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu esa rahbarlarning professional rivojlanishiga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Davlat tomonidan tashkil etilayotgan malaka oshirish kurslari, seminar-treninglar, xorijiy tajribalarni o'rganish imkoniyatlari rahbarlarning boshqaruv kompetensiyalarini oshirishda muhim omil bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim boshqaruvini samarali tashkil etish bevosita rahbar kompetensiyalariga bog'liqdir. Malakali, zamonaviy fikrlaydigan, ijtimoiy va psixologik jihatdan tayyor, boshqaruv sohasida yetarli bilim va ko'nikmaga ega rahbar maktabgacha ta'lim muassasasining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Shu sababli, rahbarlarning doimiy professional rivojlanishi va kompetensiyalarini yangilab borishi doimiy e'tibor markazida bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. Пед.фан.док.... дисс.-Т.:2007.-305 б.
2. Белая К.Ю. Инновационная деятельность в ДОУ: Методическое пособие. М.: ТЦ Сфера, 2005. 64 с.
3. Берн Э. Лидер и группа. О структуре и динамике организаций и групп. - Екатеринбург: Изд-во «Литур», 2000. - 320 с.
4. Ҳамдамова М. Мактабгача таълим ташкилотида меҳнат қонунчилиги ҳужжатлари билан ишлаш. Ўқув қўлланма, Тошкент: "О'зkitobsavdo", 2020, ISBN 978-99436297-6-9, 204 б.
5. Ҳамдамова М. Сборник научных статей по итогам работы Международного научного форума том 2 "Наука и инновации - современные концепции". Москва, 2019. С. 46-50.
6. Ҳамдамова М. Методическая работа в дошкольных образовательных учреждениях как фактор повышения качества образования. XX международная научно-практическая интернет-конференция. Переяслав-Хмельницкий, 2019. С. 67-70.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BLUM TAKSONOMIYASI MEZONLARIDAN FOYDALANISHNING METODIK IMKONIYATLARI

Husenova Aziza Sharipovna

Buxoro davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasida dotsenti, p.f.f.d. (PhD) aziza_husenova@buxdpi.uz

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida Blum taksonomiyasi mezonlaridan foydalanish usullari yoritiladi. Taksonomiya asosidagi yondashuv o'quvchilarning fikrlash darajasini bosqichma-bosqich rivojlantirish, o'zlashtirish, tahlil qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, boshlang'ich ta'lim, Blum taksonomiyasi, metodika, fikrlash, kompetensiya, innovatsion yondashuv.

METHODOLOGICAL POSSIBILITIES FOR USING THE CRITERIA FOR BLUM TAXONOMY IN ELEMENTARY SCHOOL READING LITERACY CLASSES

Annotation. The article highlights the methods of using the criteria for Blum taxonomy in elementary school reading literacy classes. The taxonomy-based approach serves to develop, assimilate, analyze, and form creative thinking skills in stages of student thinking.

Keywords: reading literacy, primary education, Blum taxonomy, methodology, thinking, competence, innovative approach.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КРИТЕРИЕВ ТАКСОНОМИИ БЛЮМА НА УРОКАХ ГРАМОТНОСТИ ЧТЕНИЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

***Аннотация.** В статье будут рассмотрены способы использования критериев таксономии Блума на уроках грамотности чтения в начальной школе. Таксономический подход служит для постепенного развития уровня мышления учащихся, усвоения, анализа и формирования навыков творческого мышления.*

***Ключевые слова:** грамотность чтения, начальное образование, таксономия Блума, методология, мышление, компетентность, инновационный подход.*

Mamlakatimiz ta'lim tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar zahirida ta'lim mazmunini tubdan yangilash, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish va xorijiy tajribalardan samarali foydalanish asosiy yo'nalish sifatida belgilab qo'yilgan. Ushbu yondashuv ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida — o'quvchilarda asosiy bilim va kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Zero, boshlang'ich sinf darslari nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ijodiy fikrlash va savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda maqsadlarni aniq belgilash va ularga erishish vositalarini to'g'ri tanlash pedagog faoliyatining asosiy vazifasiga aylanadi.

Blum taksonomiyasidan foydalanish boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida samarali natijalarga erishishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Amerikalik pedagog Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan bu taksonomiya ta'lim jarayonida o'quvchilarning fikrlash bosqichlarini bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash kabi darajalarga ajratish orqali tizimli rivojlantirish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini shakllantirish nafaqat o'qish malakasini o'zlashtirish, balki fikrlash jarayonlarini rivojlantirish, tushunilgan ma'lumotni qayta ishlash, tahlil qilish va baholash kabi murakkab aqliy faoliyat turlarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Aynan shu jarayonlarda Blum taksonomiyasi metodik yondashuvi samarali vosita sifatida e'tirof etiladi.

Blum taksonomiyasi asosida o'quvchilar matn ustida bosqichma-bosqich ishlash orqali bilim va ko'nikmalarni asta-sekin chuqurlashtirib boradilar. Dars jarayonida avvalo matn mazmunini tushunish, asosiy g'oya va voqealarni ajratish, yangi so'zlarni o'zlashtirish bilan boshlanadi. Keyingi bosqichda o'rgangan ma'lumotlarini hayotiy vaziyatlarga qo'llash, o'qilgan matndagi voqealarni sahnalashtirish, roli o'yinlar tashkil etish orqali bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, o'quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantirish maqsadida matn syujeti, qahramonlar xatti-harakatlari, sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish, voqea rivojiga muqobil yakunlar taklif qilish mashqlari tashkil etiladi. Bu esa o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sintez bosqichida o'quvchilar o'z fikrlari asosida yangi hikoyalar tuzadi, voqeani davom ettiradi, yangi g'oyalarni ilgari suradi. Baholash bosqichida esa o'quvchilardan o'qilgan matnga shaxsiy munosabat bildirish, qahramonlarning harakatlarini baholash, o'z nuqtai nazarini asoslash kabilar talab etiladi. Ushbu jarayonlar orqali o'quvchilar nafaqat matn mazmunini o'zlashtiradi, balki yuqori darajadagi fikrlash faoliyatini ham rivojlantiradi.

Dars jarayonida savol-javob texnikasi ham juda muhim o'rin tutadi. O'qituvchi tomonidan beriladigan savollar bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. Masalan, "Bu voqea kim ishtirok etdi?" kabi oddiy savollardan boshlab, "Qahramon nima sababdan shunday qaror qabul qildi?", "Siz bosh qahramon o'rnida bo'lsangiz nima qilardingiz?", "Siz bu hikoyani qanday baholaysiz?" kabi yuqori darajadagi tahliliy va baholovchi savollargacha bo'lgan turli savollar orqali o'quvchilar fikrini chuqurlashtirish mumkin.

Dars so'ngida o'quvchilarning o'z faoliyatini tahlil qilishi uchun refleksiya usullaridan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. "Men bugun nimalarni o'rgandim?", "Menga nimalar

qiyin bo'ldi?", "Qaysi mashq menga ko'proq yoqdi?" kabi savollar o'quvchilarning o'zini baholash va fikrlash faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Blum taksonomiyasi asosida individual va differensial yondashuvni ham tashkil etish mumkin. Kuchli va sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun turlicha darajadagi topshiriqlar tayyorlash orqali har bir o'quvchining shaxsiy rivojlanish sur'atiga mos ta'lim tashkil etiladi. Bu esa har bir o'quvchining o'z imkoniyatidan kelib chiqib, maksimal natijaga erishishini ta'minlaydi.

Mazkur yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchisida nafaqat o'qish savodxonligini rivojlantirish, balki keng fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini ham shakllantirish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonida o'quv maqsadlarini to'g'ri belgilash — o'quv natijalari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Aynan shu nuqtada Blum taksonomiyasidan foydalanish pedagogga o'quv maqsadlarini aniq va bosqichma-bosqich rejalashtirish imkonini beradi. Dars ishlanmalarini ishlab chiqishda mavzu mazmuni, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari inobatga olingan holda maqsadlar belgilanadi va ularga mos metod va topshiriqlar tanlanadi.

Shuningdek, nazorat va baholash jarayonida ham Blum taksonomiyasiga asoslanish o'quvchilarning bilim darajasini to'g'ri aniqlashga xizmat qiladi. Maxsus tuzilgan nostandart test topshiriqlari, rasmlar, savollar, ko'p javobli variantlar yordamida o'quvchilarning bilish va tushunishdan tortib, tahlil va sintez darajasigacha bo'lgan ko'nikmalari aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida Blum taksonomiyasi mezonlaridan foydalanish o'quv jarayonini tizimli va samarali tashkil etishda, o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishda, matn bilan ishlash malakasini shakllantirishda hamda savodxonlik darajasini oshirishda yuqori natijalarga olib keladi. Shu boisdan ushbu metodik yondashuvdan foydalanish har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bloom B.S. a.o. *Handbook on Formative and Summative Evaluation of Student Learning*. N-Y., McGraw-Hill, 2014.
2. Golish L. V., Fayzullayeva D. M. *Innovatsion ta'lim texnologiyalari*. "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2011.
3. Garry G., Azgaldov Alexander V., Kostin Alvaro E., Padilla Omiste. *The ABC of Qualimetry*. Fonts kindly provided by ParaType Inc, Redero 2015.
4. Федюкин В. К. *Квалитология: Учебное пособие. Часть 1.* — СПб.: Изд-во СПбГИЭУ, 2002.
5. Федюкин В. К. *Основы квалитетрии*. — М.: Изд-во «ФИЛИНЪ», 2004.
6. Фомин В. Н. *Квалитетрия. Управление качеством. Сертификация*. — М.: Ассоциация авторов и издателей «ТАНДЕМ». Изд-во «ЭКМОС», 2002.
7. Шукуров Ё. А. *O'quv maqsadlarini ifodalashda Blum taksonomiyasidan samarali foydalanishning innovatsion usullari* / Ё. А. Шукуров. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 43 (333). — С. 353-355. — URL: <https://moluch.ru/archive/333/74336/> (дата обращения: 18.06.2025).

PEDAGOGIK TADQIQOTLARDA RAQAMLI KOMPETENTSIYA RIVOJI: DOLZARB MUAMMOLAR VA AMALIY YECHIMLAR

Jo'rayev Qo'ldoshjon Ismatillo o'g'li
Buxoro davlat pedagogika instituti, p.f.f.d. (PhD)
Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i Jurayev@buxdpi.uz

Annotatsiya. Maqolada pedagogik tadqiqotlarda raqamli kompetensiyalarning ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli savodxonlikning yetishmasligi, texnologiyalardan foydalanishdagi qiyinchiliklar, infratuzilma va metodik resurslarning cheklanganligi asosiy muammolar sifatida ko'rsatib o'tiladi. Shu bilan birga, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodik, texnologik va tashkiliy yechimlar taklif etiladi.

Kalit soʻzlar: Raqamli transformatsiya, pedagogik tadqiqot, raqamli kompetentsiya, innovatsiya, axborot texnologiyalari, infratuzilma, metodik qoʻllanmalar, trening, axborot xavfsizligi, ilmiy tahlil.

**РАЗВИТИЕ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЯХ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ
РЕШЕНИЯ**

Аннотация. В статье анализируется важность цифровых компетенций в педагогических исследованиях. В качестве основных проблем будут названы отсутствие цифровой грамотности, трудности с использованием технологий, а также ограниченность инфраструктуры и методологических ресурсов. При этом предлагаются методические, технологические и организационные решения, направленные на развитие цифровых компетенций.

Ключевые слова: цифровая трансформация, педагогические исследования, цифровая компетентность, инновации, информационные технологии, инфраструктура, методические рекомендации, обучение, информационная безопасность, научный анализ.

**DEVELOPMENT OF DIGITAL COMPETENCE IN PEDAGOGICAL
RESEARCH: CURRENT PROBLEMS AND PRACTICAL SOLUTIONS**

Annotation. The article analyzes the importance of digital competencies in pedagogical research. The lack of digital literacy, difficulties in the use of Technology, Limited infrastructure and methodological resources are cited as the main challenges. At the same time, methodological, technological and organizational solutions aimed at the development of digital competencies are proposed.

Keywords: digital transformation, pedagogical research, digital competence, Innovation, Information Technology, Infrastructure, methodological manuals, training, information security, scientific analysis.

XXI asrda taʼlim tizimi raqamli transformatsiya jarayoniga faol kirib bormoqda. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi ham raqamli texnologiyalar sohasida keng koʻlamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi «Raqamli Oʻzbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi PF-6079-sonli Farmonida raqamli taʼlimni rivojlantirish boʻyicha muhim vazifalar belgilab berilgan.

Mazkur Farmonga koʻra, 2021 yil 1 yanvardan boshlab tizim boshqaruvi, maʼlumotlar bazasi, “bulutli” platformalarni boshqarish, axborot xavfsizligi va boshqa IT sohalarida xalqaro sertifikat olish xarajatlarining 50 foizgacha boʻlgan qismini qoplash tizimi joriy etildi. Shuningdek, 2021 yil 1 sentyabrdan barcha tuman va shaharlarda raqamli texnologiyalar oʻquv markazlari tashkil etildi va 2023 yil yakuniga qadar 200 dan ortiq informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib oʻqitishga ixtisoslashtirilgan maktablar ochilishi belgilandi.

Taʼlim transformatsiyasi deganda, faqatgina yangi texnologiyalarni joriy etish emas, balki taʼlim mazmuni, metodologiyasi, tashkil etish shakllari va unga boʻlgan ijtimoiy yondashuvlarni tubdan yangilash tushuniladi. Oʻzbekiston taʼlim tizimida amalga oshirilayotgan tub yangilanishlar — uzluksiz taʼlim konsepsiyasining joriy etilishi, davlat taʼlim standartlarining qayta koʻrib chiqilishi, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish boʻyicha tizimli chora-tadbirlarning belgilanayotgani — keng qamrovli transformatsiyaning asosiy koʻrinishlaridandir.

Bugungi kunda taʼlim transformatsiyasining asosiy yoʻnalishlaridan biri — raqamli taʼlim muhitini shakllantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy laboratoriyalar va ilmiy markazlar faoliyatini rivojlantirishdir. Bu jarayon ilm-fan va taʼlimni yanada yaqinlashtirib, oʻquvchilarda va talabalar orasida tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Oʻquvchilarning mustaqil izlanish koʻnikmalarini rivojlantirish, ilgʻor pedagogik texnologiyalar asosida dars tashkil etish taʼlim samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Pedagogik jarayonda xalqaro reyting mezonlari, taʼlim sifatini baholash indikatorlari, oʻqituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish dasturlari faol tatbiq etilmoqda.

Ayniqsa, pedagogik tadqiqotlarda raqamli kompetentsiyalar axborotni yigʻish, tahlil qilish, natijalarni vizualizatsiya qilish va ilmiy natijalarni ommalashtirishda muhim rol oʻynaydi. Onlayn soʻrovnomalar, statistik tahlil dasturlari, sunʼiy intellekt vositalari va vizualizatsiya

xizmatlari orqali zamonaviy tadqiqotlar an'anaviy uslublardan sezilarli darajada ustunlik kasb etmoqda. Shu bois, tadqiqotchilarning raqamli texnologiyalarni puxta egallashi ilmiy izlanishlarning innovatsionligini va aniqligini oshiradi.

Biroq, amaliyotda raqamli kompetentsiyalarni rivojlantirish yo'lida qator muammolar ham mavjud:

- 1) raqamli savodxonlikning yetishmasligi;
- 2) texnik vositalar va dasturiy ta'minotning cheklanganligi;
- 3) metodik qo'llanmalar va treninglarning yetishmasligi;
- 4) an'anaviy yondashuvlarga haddan tashqari tayanish.

Mazkur muammolar tizimli yondashuv orqali bartaraf etilishi mumkin. Raqamli kompetentsiyalar bo'yicha trening va o'quv kurslarini tashkil etish, SPSS, MAXQDA, NVivo, Mendeley, Zotero kabi zamonaviy dasturlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy infratuzilma va raqamli tadqiqot markazlarini tashkil etish shular jumlasidandir. Shuningdek, akademik jurnallarda raqamli metodlar va ularning natijalarini chop etish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy salohiyatni oshirish, fan va ta'lim integratsiyasini kuchaytirish maqsadida ilmiy loyihalarning keng tarmoqlari, yosh olimlar harakati, startap tashabbuslari, grant asosida moliyalashtiriladigan dasturlar ham faol tatbiq etilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy maqola yozish ko'nikmalarini rivojlantirish, talabalar va yosh tadqiqotchilarning ilmiy konferensiyalarda ishtirokini rag'batlantirish orqali ham fan va ta'lim o'rtasidagi uzviy aloqalar mustahkamlanmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy ta'limda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki metodolog, fasilitator va innovator sifatida faoliyat olib borishi lozim. O'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish uchun maxsus platformalar, vebinarlar, malaka oshirish kurslari muntazam tashkil etilmoqda. Raqamli texnologiyalar — masofaviy ta'lim, elektron darsliklar, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim tizimlari — pedagogik sharoitlarning ajralmas qismina aylanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik tadqiqotlarda raqamli kompetentsiyalarni shakllantirish nafaqat dolzarb, balki strategik ahamiyatga ega masaladir. Bu kompetentsiyalarni rivojlantirish nafaqat tadqiqot jarayonini soddalashtiradi, balki ilmiy ishlarning sifatini ham oshiradi va ta'lim tizimining global innovatsiyalar bilan uyg'unlashuviga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Исломов, Х. А. (2022). *Педагогик фаолиятда рақамли компетентлик: назарий ва амалий асослар*. Тошкент: Илм-зиё.
2. Jonassen, D. H., Howland, J., Marra, R. M., & Crismond, D. (2008). *Meaningful learning with technology* (3rd ed.). Upper Saddle River, NJ: Pearson Education.
3. European Commission. (2019). *Digital Competence Framework for Educators (DigCompEdu)*. Publications Office of the European Union. <https://ec.europa.eu/jrc/en/digcompedu>
4. Ergashev, S. T. (2021). "Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning dolzarb masalalari." *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar*, 2(3), 45–52.
5. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). "Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge." *Teachers College Record*, 108(6), 1017–1054.
6. UNESCO. (2020). *ICT Competency Framework for Teachers (ICT-CFT)*. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/p>
7. Voogt, J., & Roblin, N. P. (2012). "A comparative analysis of international frameworks for 21st century competences: Implications for national curriculum policies." *Journal of Curriculum Studies*, 44(3), 299–321.
8. Koehler, M. J., Mishra, P., & Cain, W. (2013). "What is technological pedagogical content knowledge (TPACK)?" *Journal of Education*, 193(3), 13–19.

PIRLS XALQARO BAHOLASH TIZIMI TADQIQOTLARI UCHUN MATN TANLASH MUAMMOLARI

Fayzulloyeva Dilrabo Rahmonovna

Annotatsiya. Maqolada PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro tadqiqoti doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matn tanlash jarayonidagi muammolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqot boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'qish va tushunish kompetensiyalarini baholashda matnlarning yosh, madaniy, lingvistik va psixologik xususiyatlarga mosligini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Maqolada O'zbekiston ta'lim tizimidagi davlat siyosati va qonuniy hujjatlar kontekstida PIRLS tadqiqotining ahamiyati va unga mos matn tanlashning dolzarbligi yoritiladi. Shuningdek, matn tanlashdagi metodologik va didaktik qiyinchiliklar, madaniy neytrallik, til va tarjima muammolari, matn janrlari balansining yetishmasligi kabi masalalar tahlil qilinib, xalqaro va mahalliy mutaxassislar hamkorligida yechimlar taklif etiladi. Maqola ta'lim sifatini oshirishda pedagogik innovatsiyalar va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: PIRLS, boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, matn tanlash, matnlarning pedagogik ahamiyati, madaniy neytrallik, lingvistik moslik, tarjima muammolari, o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, ta'lim sifatini baholash, xalqaro ta'lim tadqiqoti, innovatsion pedagogika, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, o'qish kompetensiyasi, matn janri va turita'lim tizimi islohotlari

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro tadqiqoti dunyo miqyosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va tushunish qobiliyatlarini baholashda muhim rol o'ynaydi. Bu tadqiqot o'quvchilarning o'qish malakalarini, jumladan, matnni tushunish va unga asoslangan savollarga javob berish qobiliyatini o'lchaydi. Dunyo bo'ylab o'qitish va ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan keng qamrovli tadqiqotlar natijalari ta'lim tizimlarining samaradorligini tahlil qilishda yordam beradi. PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish kompetensiyasini baholashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu esa o'qish va yozish malakalarini rivojlantirishga ta'sir qiladi. Biroq, matnlarni tanlash va ularning o'quvchilar uchun mosligini aniqlashda bir qator muammolar mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnlarni tanlashda yosh xususiyatlari, madaniy va lingvistik farqlar, o'quvchilarning qiziqishlari va ularning kognitiv rivojlanishi kabi omillarni hisobga olish zarur. Shu sababli, PIRLS tadqiqoti uchun matnlarni tanlashda yuzaga keladigan muammolarni o'rganish, ta'lim tizimlarining samaradorligini oshirishda ahamiyatli bo'ladi.

PIRLS o'qish va tushunish qobiliyatini baholash orqali, mamlakatlar o'rtasidagi ta'lim tizimlarini solishtirish imkoniyatini taqdim etadi. Shuning uchun, bu tadqiqotning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi va to'g'ri natijalarni olish uchun matn tanlashda yuzaga keladigan muammolarni o'rganish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnlarni tanlash o'qish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. To'g'ri tanlangan matnlar o'quvchilarning o'qish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida madaniy va lingvistik farqlar mavjud. Bu farqlarni hisobga olgan holda matnlarni tanlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Turli madaniyat va til guruhlariga mos keladigan matnlar tanlash, PIRLS tadqiqotining aniq va ishonchli natijalarini olishda muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PQ4947-son O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida" qarori, 2020-yil 27-fevraldagi PQ4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida" qonuni, 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097- son "Ilm fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni hamda pedagogik faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ish muayyan darajada xizmat qiladi.

PIRLS xalqaro baholash tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matn tanlashda yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish va ushbu muammolarni hal qilish yo'llarini aniqlashdan iborat bo'lib quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini, turli xususiyatga ega bo'lgan badiiy va axborotli matnlar mazmunini anglash kompetensiyalarini integrativ ijodiy topshiriqlar asosida rivojlantirish, o'quvchilarni kitobxonlikka qiziqtirishning motivatsion intellektual imkoniyatlarining ijtimoiy-pedagogik zaruriyati, dolzarb muammo ekanligi, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, ilmiy jihatdan asoslash; boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni o'qish va tushunish kompetensiyalarini shakllantirish orqali ularda kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishning retrospektiv usullarini ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish; o'qish savodxonligida matn ustida ishlashda o'qib va tinglab tushunish malakalarini takomillashtirish va matn ustida ishlashning mavjud holatini pedagogik va metodik jihatlarini aniqlashtirish; PIRLS xalqaro baholash tadqiqotlari ustida ishlashda o'qib va tinglab tushunish malakalarini takomillashtirishni aniqlashtirish hamda grammatik bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash jarayonida mustaqil matn tuzishga tayyorlov topshiriqlarini takomillashtirish; muayyan mavzuda PIRLS tadqiqotlari uchun matn tanlashga doir, matn tuzishga tayyorgarlik jarayonini qamrab oladigan matn oldi, matn mazmunini to'ldirish, matnni kengaytirish, ixchamlashga qaratilgan matn ustida ishlash, matn tahriri va xatolar ustida ishlashga yo'naltiriladigan matn osti topshiriqlarining didaktik ta'minotini takomillashtirish va boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari va psixologik holatiga mos keluvchi matnlarni tanlash, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasiga mos matnlar taqdim etish, ularning o'qish qobiliyatlari aniq baholash.

Bajarilgan tadqiqotlar tayanch kompetensiyalarning asosi sifatida o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga mustaqil ishlarni samarali tashkil etish metodikasi hamda xalqaro ta'lim standartlaridan biri bo'lgan PIRLS xalqaro tadqiqoti talablaridan kelib chiqib zamonaviy tarzda yangicha yondashishni taqozo etadi. Bugungi kunda ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yilayotgan PIRLS xalqaro baholash dasturi talablari va o'quv jarayonida integratsiyani ta'minlash hamda o'zlashtirilgan bilimlarning hayotiy ahamiyatlidir. Ilgari surilayotgan muhim nazariy g'oyalar boshlang'ich sinf, PIRLS (Progress In International Reading Literacy Study), xalqaro baholash tizimi, matn tanlash, matnlarning pedagogik ahamiyati, o'qish kompetensiyasi, matnning qiyinchilik darajasi, o'qish ko'nikmalarini oshirish, matn tanlash muammolari va ularni yechish bo'yicha tavsiyalar ta'lim tizimiga kiritilishi o'z navbatida, o'qituvchilarni matn tanlashda yanada samarali yondashuvlarga o'rgatishga imkon yaratadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda o'quvchilar yoshiga qarab matnlarni tanlashda yangi mezonlar ishlab chiqish imkonini beradi. PIRLS tizimida o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishda qanday matnlardan foydalanish kerakligi va ularning mazmuni haqida aniq ko'rsatmalar berish bilan birga, ilgari surilayotgan ayrim matn va g'oyalar o'quvchilarda mustaqil fikrlash va o'z qarashlarini erkin namoyon etish ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Matn tanlashning metodologik asoslarini o'rganish va ularni xalqaro baholash mezonlariga moslashtirish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishga ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish, PIRLS tadqiqotlari uchun mos matnlarni tanlash va moslashtirish jarayonini tahlil qilish natijasida xalqaro ta'lim baholash tizimlarida o'zbek tilidagi matnlarning o'rni va ahamiyatini oshirishga hissa qo'shiladi.

Xalqaro tajribalar va PIRLS tizimi asosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda dunyo miqyosida o'quvchilarni hayotga tayyorlashda refleksiya, o'zini-o'zi rivojlantirish, kreativ yechimlarni izlab topish, kompetentlik yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xalqaro tajribalar va PIRLS tizimi asosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda dunyo miqyosida o'quvchilarni hayotga tayyorlashda refleksiya, o'zini-o'zi rivojlantirish, kreativ yechimlarni izlab topish, kompetentlik yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim sohasida innovatsion g'oyalarning tatbiq etilishi pedagogika sohasidagi bilimlarni egallash, o'quvchilarni innovatsion tayyorlash tizimini modernizatsiyalash borasida yuqori natijalarga erishilishiga asos bo'lmoqda. Chunki o'qitish

jarayonni samarali tashkil etishning amaliy natijaviyligi har bir rivojlangan mamlakatning ta'lim tizimida o'ta muhim hisoblanadi.

Ta'lim tizimi strategiyalari va mexanizmlarini zamonaviylashtirish tamoyili umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich tizimini yanada takomillashtirish, mantiqiy hamda kreativ tafakkur yurita oladigan o'quvchi shaxsini tayyorlash uchun o'quv jarayoniga pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va uning samaradorligini baholash asosida pedagogik faoliyatga o'zgartirishlar kiritishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Xususan boshlang'ich ta'lim sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borish, zamonaviy talablar asosidagi innovatsion metodik tayyorgarlik, amaliy xususiyatni mujassamlashtirgan integrativ darslarni tashkil etish, o'quvchilarni kreativ fikrlash jarayonida strategik va taktik maqsadlarni belgilashga o'rgatish masalalariga jiddiy e'tibor qaratish nazarda tutiladi.

Yangi O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim tizimini yangidan isloh qilish, salohiyatli va zamon bilan hamnafas ravishda o'z faoliyatini tashkil eta oladigan o'qituvchilarni tayyorlash, ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini yangi bosqichga olib chiqish, jumladan, o'qitish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni ta'minlash imkoniyatlari kengaytirildi.

Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma'naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizasiya bilan uzviy bog'лади.

Boshlang'ich sinflarda PIRLS xalqaro baholash tadqiqotlari uchun matn tanlash jarayoni, uning dolzarb muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari, matn tanlashda yoshga moslik prinsipi yetarlicha hisobga olinmayapti, natijada ayrim matnlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ortiqcha murakkablik tug'diradi. Bu esa o'quvchilarning matnni to'liq tushunmasligiga va baholash natijalarining aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Madaniy neytrallik masalasi muhim muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Turli mamlakatlardan bo'lgan o'quvchilar uchun yagona matnlar taklif qilinayotgani, ba'zi hollarda mahalliy madaniy kontekstdan uzoqlashganligi bois, o'quvchilarda tushunmovchiliklar yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Til va tarjima muammolari matnning semantik va stilistik xususiyatlarini buzib, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasini baholashda xatoliklar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bu ayniqsa, metaforik ifodalar, konnotativ ma'no va kontekstual tafsilotlar tarjimasida yaqqol seziladi.

Matn janri va turining balansli taqsimlanmagani o'quvchilarning faqat ayrim turdagi o'quv kompetensiyalarini baholashga olib kelmoqda. Bu esa o'qish savodxonligining to'liq manzarasini aniqlashda cheklovlar tug'diradi. O'quvchilarning qiziqishlari va psixologik tayyorgarligi inobatga olinmasligi, test topshiriqlari davomida ularning diqqat va motivatsiyasining pasayishiga olib kelmoqda. Bu esa test natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Baholash mezonlariga to'liq mos kelmaydigan matnlar tanlanishi, testning metodologik asoslarini zaiflashtiradi va xalqaro taqqoslashlarning haqqoniyligini shubha ostiga qo'yadi. Mahalliy va xalqaro mutaxassislar hamkorligida yoshga, tilga va madaniyatga mos sinov matnlarini ishlab chiqish orqali ta'lim sifatini yaxshilash mumkin. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida qo'llaniladigan matnlar tarjimasida lingvistik ekvivalentlikdan tashqari, pedagogik va madaniy moslik tamoyillarini hisobga olish lozimligi, matn tanlashda o'quvchilarning qiziqishlari, psixologik holati va o'quv tajribalarini chuqur o'rganish orqali shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish katta samara beradi. Matnlar janrlarining muvozanatini saqlash va kritik fikrlashni rivojlantiruvchi matnlar ulushini oshirish lozim.. Shuningdek, o'qish savodxonligini baholashda madaniyatlararo yondashuv va ta'limiy moslashuv masalalarining dolzarbligini yana bir bor ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712 Farmoni

2.Nishonova Z. Mustakil fikr rivojlanganligining psixologik mezonlari // Xalq ta'limi. - Toshket, 2001.- №1.- B. 38 - 40. 144

3. Olimov T. Ta'lim texnologiyalari. Monografiya UMKXTTKMO va KTI. -T.: 2007. – B.102.

4. Tolipova J. O'quvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etish // Xalk ta'limi. - Toshkent, 2002. - № 4. - B. 102 - 103.

T. <https://www.PIRLS.com>

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MA'NAVIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

*Xakimov Akmalbek Qahramonovich
Osiyo Xalqaro Universiteti I bosqich magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, oliy ta'lim tizimida mavjud pedagogik shart-sharoitlar, milliy va xorijiy ilg'or tajribalar, shuningdek, amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali yondashuvlar ilmiy asoslangan tarzda tahlil qilindi. Maqolada ma'naviy kompetentlik tushunchasining mazmuni keng ochib berilib, uning tarkibiy qismlari aniqlashtirildi hamda pedagogik jihatdan samarali model ishlab chiqildi. Eksperiment natijalari asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy faollik, shaxsiy mas'uliyat, axloqiy yetuklik kabi sifatlar rivojlanishi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, ma'naviy kompetentlik, pedagogik shart-sharoitlar, ma'naviyat, axloqiy tarbiya, kompetensiya, oliy ta'lim, milliy qadriyatlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ma'naviy tarbiya metodlari, refleksiya, ijtimoiy mas'uliyat, zamonaviy pedagogika.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING THE SPIRITUAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the development of spiritual competence of future teachers, the existing pedagogical conditions in the higher education system, national and foreign best practices, as well as effective approaches that can be used in practice in a scientifically based manner. The study broadly reveals the content of the concept of spiritual competence, identifies its components, and develops a pedagogically effective model. Based on the results of the experiment, it was shown that future teachers develop such qualities as social activity, personal responsibility, and moral maturity.

Keywords: future teacher, spiritual competence, pedagogical conditions, spirituality, moral education, competence, higher education, national values, person-centered education, methods of spiritual education, reflection, social responsibility, modern pedagogy.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ДУХОВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. В статье анализируются теоретические и методические основы развития духовной компетентности будущих учителей, существующие педагогические условия в системе высшего образования, отечественный и зарубежный передовой опыт, а также эффективные подходы, которые могут быть научно обоснованно использованы в практической деятельности. В исследовании широко раскрывается содержание понятия духовной компетентности, выделяются ее компоненты, разрабатывается педагогически эффективная модель. На основании результатов эксперимента показано, что у будущих учителей формируются такие качества, как социальная активность, личная ответственность, нравственная зрелость.

Ключевые слова: будущий учитель, духовная компетентность, педагогические условия, духовность, нравственное воспитание, компетентность, высшее образование, национальные ценности, личностно-ориентированное образование, методы духовного воспитания, рефлексия, социальная ответственность, современная педагогика.

Bugungi globallashuv jarayonida jamiyatda axborot oqimining kuchayishi, texnologiyalar tezkor rivojlanishi, madaniyatlararo ta'sirchanlikning kuchayishi natijasida yosh avlodning dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlar tizimi ham o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat, reklama vositalarining salbiy ta'siri yoshlarning ma'naviy immunitetini susaytirishi mumkin. Bunday sharoitda o'qituvchining jamiyatdagi roli yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki jamiyatda ma'naviy iqlimni shakllantiruvchi asosiy kuch sifatida qaralmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan talabalar, ayniqsa, pedagogik yo'nalishlardagi yoshlar – kelajakda xalq ta'limining, ta'lim siyosatining amaldagi ijrochilari bo'lishadi. Shuning uchun ularning ma'naviy kompetentligini shakllantirish, rivojlantirish, baholash va qo'llab-quvvatlash masalalari bugun alohida pedagogik muammoga aylangan. Jamiyatning ma'naviy uyg'onish bosqichida bo'lishi – O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichida ma'naviyat, qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan inson kapitalini yaratishga harakat qilmoqda. Bunda pedagoglarning yuksak ma'naviyat sohibi bo'lishi muhim.

Ta'lim sifati va natijadorligi o'qituvchining shaxsiy fazilatlariga bog'liqligi – Zamonaviy ta'limda o'qituvchining bilimdonligi bilan bir qatorda, uning axloqiy tozaligi, halolligi, sadoqati, madaniyati ham asosiy sifat mezoniga aylangan.

Axborot xuruji va madaniyatsizlikka qarshi pedagogik immunitet zarurligi – Bugungi yoshlar ongiga salbiy g'oyalar, g'arblik stereotiplar tez kirib borayotgan bir paytda, o'qituvchining ma'naviy jihatdan tayyorgarligi, ichki immuniteti yoshlarni himoya qilishning yagona vositasidir. Yosh avlod tarbiyasida o'qituvchining rolini kuchaytirish zarurati – Pedagoglar orqali o'quvchilarda milliy g'urur, qadriyatga sodiqlik, ona-Vatanga muhabbat, insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish ta'limning ustuvor maqsadiga aylangan. “Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari” mavzusi nafaqat nazariy, balki amaliy, metodik, ijtimoiy-pedagogik jihatdan ham dolzarb bo'lib, hozirgi ta'lim strategiyasida asosiy o'rin tutadi. Bu mavzuni ilmiy asoslash, amaliy model yaratish, ilg'or tajribalarni joriy etish orqali nafaqat o'qituvchilar, balki butun ta'lim tizimi uchun foydali yechimlar ishlab chiqish mumkin.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson omiliga e'tibor berish, avlod tarbiyasini zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy asoslar bilan uyg'unlashtirish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda nafaqat kasbiy bilim, balki yuksak ma'naviy kompetentlik bilan qurollantirish ta'lim tizimining dolzarb masalasi sanaladi. Chunki o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini shakllantiruvchi, ijtimoiy yetakchi va ruhiy-ma'naviy murabbiy hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy kompetentligini rivojlantirishni asoslash uchun, eng avvalo, “ma'naviy kompetentlik” tushunchasiga to'xtalish lozim. Bu kompetentlik o'z ichiga quyidagi tarkibiy qismlarni oladi: axloqiy ong, ruhiy-etnik qadriyatlar, madaniy ong, ijtimoiy mas'uliyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ma'rifatparvarlik, o'z-o'zini anglash va boshqarish qobiliyatlari. Mazkur komponentlar o'zaro uyg'unlashgandagina haqiqiy ma'naviy kompetentlik yuzaga chiqadi. Pedagogik yondashuvlarga ko'ra, bu kompetentlikni shakllantirish uzluksiz ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida olib borilishi kerak bo'lgan uzviy va tizimli faoliyatdir. Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy shakllanishida ko'p omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi: oila, muhit, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoq, ta'lim muassasasi, o'qituvchi va murabbiylar, diniy-ma'naviy meros, milliy qadriyatlar va zamonaviy texnologiyalar. Ayniqsa, oliy ta'lim bosqichida mustahkam pedagogik shart-sharoitlar yaratish orqali bu jarayonni samarali olib borish mumkin.

Dunyo miqyosidagi ilg'or tajribalarni o'rganar ekanmiz, Yaponiya, Finlandiya, Janubiy Koreya, Germaniya kabi davlatlarda ma'naviy tarbiya mustaqil yo'nalish sifatida olib boriladi. Jumladan, Yaponiya ta'lim tizimida har bir pedagogdan “ijtimoiy burch” va “ijtimoiy odob” tamoyillariga sodiqlik talab qilinadi. Shuningdek, Fin ta'lim tizimi talabalarning ruhiy salomatligini ustuvor qadriyat deb biladi. O'zbekiston misolida esa, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Abdulla Avloniy singari allomalar ma'naviyat asoschisi sifatida e'tirof etilib, ularning pedagogik qarashlari o'quv dasturlariga integratsiya qilinmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy kompetentligini rivojlantirish uchun tizimli pedagogik faoliyat, zamonaviy vositalardan foydalanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish muhimdir. Har bir pedagogik muhit ma'naviyatga yo'naltirilgan bo'lishi, o'qituvchi o'z faoliyatini namunaviy axloqiy mezonlarga asoslab olib borishi kerak. Oliy ta'lim muassasalari esa bu jarayonda nafaqat bilim, balki yurak bilan tarbiyalashga e'tibor berishi zarur. Shundagina biz yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, mas'uliyatli va yetuk o'qituvchilarni tarbiyalay olamiz.

Bugungi globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida insonning ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi davlat barqarorligining, millat istiqbolining kafolati sifatida qaralmoqda. Xususan, ta'lim tizimi zamonaviy bosqichda o'z oldiga faqat bilim berish emas, balki yuksak ma'naviyatli, ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni tarbiyalash kabi dolzarb vazifalarni qo'yadi. Shu boisdan ham

bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy kompetentligini shakllantirish bugungi kunda eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biridir. "Ma'naviy kompetentlik" tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Umuman olganda, bu tushuncha shaxsning axloqiy-ruhiy qadriyatlari, madaniy ong, ijtimoiy-huquqiy mas'uliyat va estetik qarashlarning uyg'unligi sifatida izohlanadi. Kompetentlikning bu turi o'qituvchi uchun alohida ahamiyatga ega, chunki pedagog o'z faoliyatida o'quvchilarning nafaqat bilim, balki shaxsiy shakllanishiga ham ta'sir qiladi.

Nazariy jihatdan, Vygotskiy, Dewey, Rogers, Avloniy, Yassaviy kabi mutafakkirlar inson ma'naviyatini shakllantirishda muhit, o'zaro munosabat, tajriba va qadriyatlarning muhim rolini ta'kidlaganlar. Bu yondashuvlar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy kompetentligini rivojlantirish integrativ, shaxsga yo'naltirilgan va aks ettiruvchi (reflektiv) pedagogika bilan uyg'unlashgan holda olib borilishi zarur.

Oliy ta'lim muassasalari pedagogik ta'lim yo'nalishlarida o'qiyotgan talabalarning ma'naviy shakllanishida muhim institutsional rol o'ynaydi. Ular uchun yaratiladigan pedagogik shart-sharoitlar bu jarayonning samarasini belgilovchi asosiy omildir. Birinchidan, o'quv rejalari va dasturlarida ma'naviy tarbiyaga oid fanlar majmuasining mavjudligi muhim. Ushbu fanlarda interfaol usullar, muammoli vaziyatlar, dramatizatsiya, munozara va ijodiy yondashuvlar orqali talabalarning fikrlash madaniyati shakllantiriladi. Ikkinchidan, o'quv jarayonida ijtimoiy faoliyatlar bilan bog'langan loyihalar, klub va to'garaklar, "Ustoz-shogird" tizimi orqali ijtimoiy-ma'naviy faol muhit vujudga keltiriladi. Uchinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan ma'naviy-ma'rifiy maqsadlarda foydalanish (digital ma'naviyat platformalari, e-kutubxonalar, virtual muzeylar) orqali talabalar fikrlash va idrokni boyitadi. To'rtinchidan, darsdan tashqari faoliyat – teatr, muzey, ochiq ma'naviyat darslari, vatanparvarlik aksiyalari orqali ularda ongli va emotsional o'zgarishlar yuzaga keladi.

Shu boisdan ham, pedagogik shart-sharoitlar faqat moddiy-texnik baza emas, balki ma'naviy-ruhiy, kommunikativ, didaktik, ijtimoiy-psixologik sharoitlar tizimi sifatida qaralishi lozim. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'plab mamlakatlarda o'qituvchilar ma'naviy shakllanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Masalan, Yaponiya ta'limida "ijtimoiy mas'uliyat", Koreya tajribasida "axloqiy liderlik", Germaniyada esa "tarbiyaviy monitoring" tizimi asosida o'qituvchining shaxsiy ma'naviy fazilatlariga alohida urg'u beriladi.

O'zbekistonning o'ziga xos milliy tajribasi ham mavjud. Hususan, Abdulla Avloniy pedagogik qarashlari orqali "ma'naviyatsiz ta'lim – ildizsiz daraxt" degan g'oyani ilgari surgan. Bugun bu yondashuv davlat siyosatida o'z ifodasini topgan: "Yangi O'zbekiston – ma'naviyatli jamiyat" tamoyili asosida ta'limga yondashilmoqda.

Shunga asoslanib, quyidagi milliy model taklif etiladi:

Integrativ yondashuv (kasbiy, axloqiy, estetik va huquqiy yondashuvlarning uyg'unligi)

Didaktik modellashtirish (darslar orqali ma'naviyatni anglatish)

Refleksiya asosida tahlil qilish (o'z-o'zini tahlil qilish orqali ichki mas'uliyat)

Mentorlik va shogirdlik tizimi (amalda ma'naviy o'sish)

Ommaviy madaniyatga tanqidiy yondashuv (shaxsiy axborot tanlash madaniyatini shakllantirish)

Xulosa. hozirgi jamiyatda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bevosita o'qituvchining shaxsiy ma'naviy yetukligi, axloqiy fazilatlar va ijtimoiy mas'uliyatiga chambarchas bog'liqdir. Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy kompetentligini shakllantirish nafaqat shaxsiy sifatlar tizimini rivojlantirish, balki ularning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi asosiy omil hisoblanadi.

Ma'naviy kompetentlik tushunchasi o'z ichiga quyidagilarni oladi: shaxsiy axloqiy qadriyatlar, madaniy ong, ruhiy salomatlik, ijtimoiy-huquqiy ong, mas'uliyat hissi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, o'z-o'zini anglash va boshqarish qobiliyatlari. Aynan shu komponentlar o'zaro uyg'unlashgan holda bo'lajak o'qituvchining ijtimoiy-ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishiga asos bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida yaratilgan pedagogik shart-sharoitlar esa bu kompetentlikning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu shart-sharoitlar quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- ✚ o'quv dasturlarining ma'naviy-tarbiyaviy komponentlar bilan boyitilishi;
- ✚ interfaol metodlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish;
- ✚ madaniy-ma'rifiy muhit bilan integratsiyalashgan ta'lim muhiti;

-
- ✚ talabalarni mustaqil, reflektiv, tahliliy fikrlashga undaydigan topshiriqlar;
 - ✚ ustoz-shogirdlik va mentorlik tizimi orqali real hayotiy tajriba orttirish.

Milliy va xorijiy ilg'or tajribalar, shuningdek, o'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari asosida shuni aytish mumkinki, ma'naviy kompetentlikni shakllantirish uzluksiz, integratsiyalashgan, shaxsga yo'naltirilgan va ijtimoiy faol yondashuvni talab qiladi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan model, metodik yo'riqnomalar, amaliy mashg'ulotlar, trening va seminarlardan iborat tizimli yondashuv bu boradagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkonini berdi.

Shu boisdan ham mazkur tadqiqot natijalari asosida taklif etilgan konseptual yondashuv, pedagogik modellar va amaliy tavsiyalar bugungi ta'lim islohoti va ma'naviyat siyosatiga to'laqonli mos bo'lib, amaliyotda keng qo'llanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jo'rayev U. Ma'naviy tarbiya va uning psixologik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 188 b.
2. Hasanov N. Pedagogik kompetensiyalar tizimi. – Toshkent: NMIU, 2020. – 202 b.
3. Yuldashev M. Oliy ta'limda ma'naviy tarbiyaning pedagogik asoslari. – Samarqand: Zarafshon, 2021. – 175 b.
4. Qodirova M. Shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirishda tarbiya omillari. – Andijon: AndDU nashriyoti, 2018. – 98 b.
5. Ergashev A. O'qituvchi shaxsining axloqiy fazilatlar. – Buxoro: BDU, 2022. – 157 b.
6. Nishonov F. Raqamli muhitda ma'naviy tarbiya. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. – 112 b.
7. Jumayeva H.G., "Pedagogik muloqot asosida ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari" Zamonaviy fan va tadqiqotlar 4.3: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2025 yil 22-aprel) 340-346.
8. Jumayeva H.G., "Geymifikatsion yondashuv asosida talabalarining evrestikkognitiv faoliyatini rivojlantirishning metodik asoslari" Zamonaviy tasviriy-pedagogik ta'limda an'ana va innovatsiyalar: izlanishlar va yechimlar xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari Buxoro – 2025
9. Jumayeva H.G., "Talabalarda evristik tafakkurni shakllantirishda geymifikatsion yondashuvning ahamiyati", "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 5
10. Jumayeva H.G., "Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish", "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 3

ИГР КАК СРЕДСТВА ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ

Ситора Давроновна Ниязова

Бухарский государственный педагогический институт

Аннотация. Maqolada katta gurux bolalariga ekologik tarbiya berishda o'yin metodidan foydalanishning ahamiyati hamda mashg'ulotda didaktik o'yin turlarining xilma-xilligi, ularni ta'lim jarayonida qo'llash usullari haqida so'z yuritiladi. Didaktik o'yin - bu og'zaki, murakkab, pedagogik hodisa: bu ham maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning o'yin usuli, bolalarni o'qitish shakli va mustaqil o'yin faoliyati, ham bolani har tomonlama tarbiyalash vositasi.

Kalit so'zlar: Didaktik o'yin, mustaqillik, hamkorlik, ma'suliyatlilik, o'yin faoliyati, xissiy-irodaviy faoliyat.

Аннотация. В статье рассматривается важность использования игрового метода в экологическом воспитании больших групп детей, а также разнообразие видов дидактических игр на уроках, способы их использования в учебном процессе. Дидактическая игра - это устное, сложное, педагогическое явление: это игровой метод обучения детей дошкольного возраста, форма обучения детей и самостоятельная игровая деятельность, а также средство всестороннего воспитания ребенка.

Ключевые слова: Дидактическая игра, самостоятельность, инициативность, сотрудничество, ответственность, игровая деятельность, эмоциональная деятельность

Annotation. The article discusses the importance of using the game method in the environmental education of large groups of children, as well as the variety of types of didactic games in the classroom, how to use them in the educational process. A didactic game is an oral, complex, pedagogical phenomenon: it is a game method of teaching preschool children, a form of children's education and independent play activity, as well as a means of comprehensive child education.

Keywords: didactic game, independence, initiative, cooperation, responsibility, game activity, emotional activity

Maktabgacha yoshda kattalar bilan muloqot ekstra-situatsion xususiyatga ega bo'ladi. Nutqni rivojlantirish tufayli boshqalar bilan muloqot qilish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi. Endi bola nafaqat to'g'ridan-to'g'ri idrok qilinadigan ob'ektlar haqida, balki tasvirlangan, tasavvur qilinadigan, mavjud bo'lmagan narsalar haqida ham muloqot qilishi mumkin. muayyan holat o'zaro ta'sirlar. Ya'ni, muloqot mazmuni idrok etilgan vaziyatdan tashqariga chiqib, ekstrasituatsion bo'ladi.

Bola va kattalar o'rtasidagi aloqaning ikkita ekstra-situatsion shakli mavjud - kognitiv va shaxsiy 4-5 yoshda kognitiv motivlar va kattalarni hurmat qilish zarurati bilan ajralib turadigan ekstrasituatsion-kognitiv shakl shakllanadi. Katta maktabgacha yoshda muloqotning o'zaro tushunish, empatiya va muloqot qilish uchun shaxsiy motivlarga bo'lgan ehtiyoji bilan ajralib turadigan ekstrasituatsion-shaxsiy aloqa shakli paydo bo'ladi. Muloqotning ekstravaziv shakllari uchun asosiy vosita nutqdir.

Bolaning kattalar bilan ekstrasituatsion-shaxsiy aloqasi mavjud ahamiyati bolaning shaxsiyatini rivojlantirish uchun. Birinchidan, bunday muloqot jarayonida u axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradigan xatti-harakatlar normalari va qoidalarini ongli ravishda

o'rganadi. Ikkinchidan, shaxsiy muloqot orqali bolalar o'zlarini tashqi tomondan ko'rishni o'rganadilar, ya'ni muhim shart o'z-o'zini anglash va o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirish. Uchinchidan, shaxsiy muloqotda bolalar kattalarning turli rollarini - tarbiyachi, o'qituvchi, shifokor va boshqalarni farqlay boshlaydilar va shunga muvofiq ular bilan o'z munosabatlarini turli yo'llar bilan quradilar. Muloqotning normal rivojlanishi har bir muloqot shaklining tegishli yoshda izchil va to'liq yashashidan iborat. Albatta, aloqaning etakchi shaklining mavjudligi o'zaro ta'sirning boshqa barcha shakllarini istisno qilishini anglatmaydi. Bolaga xayrixoh nazorat va kattalarning ijobiy bahosi kerak. Kattalar ishtirokidagi to'g'ri xatti-harakat - bu bolaning xulq-atvorining axloqiy rivojlanishining birinchi bosqichi hisoblanadi. Shuningdek, qoidalarga muvofiq o'zini tutish zarurati bola uchun shaxsiy ma'noga ega bo'lsa-da, uning mas'uliyat hissi eng yaxshi yo'l kattalar ishtirokida aniqlangan. Shu bilan birga, kattalar bola bilan ishonchli va do'stona ohangda muloqot qilishlari kerak, bu bolaning o'zini to'g'ri tuta olmasligiga ishonch bildirishi kerak. Bolaning xulq-atvorida sodir bo'layotgan voqealarning psixologik ma'nosi shundaki, u kattalar yordami bilan bo'lsa-da, lekin psixologik jihatdan mustaqil ravishda o'z xatti-harakati uchun mas'uliyat hissini oladi. Bola o'z faoliyati natijalari va yutuqlarini baholash uchun kattalarga murojaat qilish uchun to'yib bo'lmaydigan ehtiyojni his qiladi. Maktabgacha tarbiyachi bilan muloqot qilishda kattalar bolani qo'llab-quvvatlash muhimligini hisobga olishlari kerak, chunki kattalarning e'tiborsizligi, e'tiborsizligi va hurmatsiz munosabati uning qobiliyatiga ishonchini yo'qotishga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, muloqot madaniyatini kelajak avlodda shakllantirish, uning ertangi kunda qaysi kab egasi bo'lishiga, jamiyatda o'z o'rnini topishida, hayotiy qarashlarni tafakkur eta olishi uchun zarur ehtiyoj sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ниязова, Гулбахор Давроновна. "Воспитание нравственности у детей дошкольного возраста." Проблемы педагогики 3 (48) (2020): 19-21.
2. Ниязова Г. Д., Ниязова С. Д. ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ГОТОВНОСТЬ ДЕТЕЙ К ОБУЧЕНИЮ В ШКОЛЕ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1048-1055.
3. Ниязова С. Д., Ниязова Г. Д. ФОРМИРОВАНИЕ ОТДЕЛЬНЫХ СПОСОБОВ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ЗАНЯТИЯХ «ОЗНАКОМЛЕНИЕ С ПРИРОДОЙ» //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1093-1101.
4. Nizomiddinovna H. N. et al. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТASHKILOTLARIDA BOLA TARBIYASINING MAQSAD VA VAZIFALARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 32-36.
5. .Nizomiddinovna H. N., Olimovna M. M. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ MUASSASALARIDA BOLALARNI RAVON NUTQQA O'RGATISH //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 93-97.
6. Eshova D. PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF THE TYPES OF FATIK COMMUNICATION AND ABOUT COMPLIMENTS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 21. – №. 21.
7. Hamroyeva N. Комплимент и его метакоммуникативные функции //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz). – 2022. – Т. 8. – №. 8.
8. Hamroyeva N. НОРМЫ РАЗГОВОРНОЙ ЭТИКИ И ДОБРОТЫ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz). – 2022. – Т. 8. – №. 8.
9. Qo'ldoshev, R. (2022). Детская лень как психолого-педагогическая проблема. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 22(22).
10. Qo'ldoshev R. BOSHLANG'ICH SINIF SHARQAQAY O'QUVCHILARGA BERILADIGAN PEDAGOGIK YORDAM VA YOZUVGA O'RGATISH JARAYONIDA FOYDALANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.

11. Avezmurodovich Q. R., Oybekovna N. D. BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARINING BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH. QAYTA HIKOYALASH VA BAYON TURLARI. – 2022.

12. Қўлдошев Р. А. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЧАПАҚАЙ ЎҚУВЧИЛАРНИ ЁЗУВГА ЎРГАТИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1120-1129.

“LIFELONG LEARNING” TAMOYILI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

*Hakimova Nargiza Supxonovna
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolalarda insonning butun hayoti davomida ta'lim olishita'lim sohasidagi asosiy prinsiplar sifatida tadqiq qilingan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, “lifelong learning” tamoyili asosida o'qitishning samaradorligi ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan. Ushbu konsepsiyaning ahamiyati va o'rni haqida malumotlar keltirilgan

Kalit so'zlar: va tushunchalar: uzluksiz kasbiy rivojlanish, “hayot davomida o'qish” tamoyili, uzluksiz ta'lim, hayot davomidagi ta'lim tizimi.

Аннотация: В этих статьях рассматривается концепция непрерывного обучения как основополагающий принцип в образовании. Также в них рассматриваются основные направления непрерывного профессионального развития учителей начальных классов, эффективность обучения на основе принципа «непрерывного обучения» с научной и педагогической точки зрения. Представлены значение и роль данной концепции.

Ключевые слова: и концепции: непрерывное профессиональное развитие, принцип «непрерывного обучения», непрерывное образование, система непрерывного обучения.

Abstract: These articles examine the concept of lifelong learning as a fundamental principle in education. They also examine the main directions of continuous professional development of primary school teachers, the effectiveness of teaching based on the principle of "lifelong learning" scientifically and pedagogically. The importance and role of this concept are presented.

Keywords: and concepts: continuous professional development, the principle of "lifelong learning", continuous education, lifelong learning system.

Kirish. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Respublikada uzluksiz ta'lim tizimining tuzilmasi va mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajribaga tayangan holda tubdan isloh qilishni ko'zda tutadi. Buning uchun, avvalo, ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini ilg'or, ilmiy-metodik jihatdan asoslangan yangi va zamonaviy metodika bilan ta'minlash, sifatli ta'lim muhitini yaratish uchun mas'ul bo'lgan o'qituvchi-pedagoglarni zamon talabi va jamiyat ehtiyojlari asosida kasbiy rivojlantirish, ularni o'qitish va ta'lim berish, shuningdek, “lifelong learning” tamoyili asosida uzluksiz malakasini oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Hozirgi kunda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali ta'lim sifatini oshirish, jahon tajribasi va milliy ustuvorlik asosida ta'lim berishning amalga oshirilishi muhim vazifalardan biridir. Bu masala dunyo ta'lim tizimida qizg'in muhokama qilinmoqda, xususan, ta'lim XXI asrning jahon miqyosidagi barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida “butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi¹.

Yevropa ittifoqi Komissiyasining pedagogik ta'limni takomillashtirish bo'yicha takliflari uzluksiz kasbiy rivojlanishning "hayot davomida o'qish" tamoyilini yaqqol namoyish qiladi. Unga ko'ra²: – dastlabki uch yil ichida kasbiy faoliyatga olib kirish dasturlari; – ko'proq tajribaga ega bo'lgan hamkasblarning maslahat berishi; – o'qituvchilarni ishlayotgan maktablarining rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqib ularni ili asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish bilan bog'liq quyidagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi: – mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash; – ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish; – dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish; – ta'lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o'qituvchilari va ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o'rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag'batlantirish; – bilimga asoslangan iqtisodiyotning ehtiyoj va talablariga muvofiq ta'lim va kasbiy tayyorgarlikning yangi modellarini ishlab chiqish va joriy qilish, (bunda davriy malaka oshirishdan farqli ravishda) ijtimoiy va iqtisodiy muvofiqlik imkoniyatiga ega bo'lgan "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirib borish. Ilmiy muammoning qo'yilishi. "lifelong learning" yoki "butun hayot davomida ta'lim" tushunchasi hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyasiga va insonning shaxs sifatida, butun hayot davomida professional sifatida yaxlit rivojlanishining obyektiv muntazamligi va zaruriyatiga aylandi. Shundan kelib chiqib, tadqiqotimiz doirasida dastlab mazkur muammoga doir mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarni, mavjud tajribani o'rganish va tahlil qilishni maqsad qildik.

So'nggi yillarda "hayot davomida o'qish", uzluksiz ta'lim, o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish hamda kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirishga bo'lgan qiziqish tobora ortib Yurtimizda "hayot davomida o'qish" atamasi dastlab 2018 yillardan boshlab ilmiy adabiyotlarda qayd etila boshlandi². Bunda xalq ta'limi xodimlarining uzluksiz ta'limi va uni tashkil etish tamoyillari, o'qituvchilarning pedagogik mahorati va kasbiy rivojlanishiga yangicha qarashlar, katta yoshdagilarning mustaqil ta'limi, uni tashkil etishning usul va vositalari, shuningdek, an'anaviy va hayot davomida o'qitishning farqli jihatlari haqida batafsil yoritildi. Mualliflar ta'kidlashicha, uzluksiz ta'lim bir tomondan "hayot davomida o'qish"ni anglatga, boshqa talqini avval olingan ma'lumot, kattalarning o'ziga xos ehtiyojlari, shuningdek, ta'limiy faoliyat tajribasi va amaliy ko'nikmalariga ega bo'lgan kattalarni o'qitish texnologiyalariga e'tiborni qaratgan kattalar ta'limini nazarda tutadi. Bunda asosiy e'tibor mutaxassislarni o'zlarining ish joyida mehnat faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda "takomillashtirish"ga qaratiladi. Shu bilan birga, kelajakda ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishning manbalaridan foydalanish imkoniyatlari ham nazarda tutiladi.. N.B.Kusheva va V.I.Terexovalar "hozirgi vaqtda umrbod ta'lim olish zarurati iqtisodiy tarmoqlar, bozorlar, globallashuv jarayonlari, texnologik yutuqlar va postindustrial iqtisodiyotga o'tish tezligining o'zgarishiga javobdir", – deb hisoblaydilar. Shunga ko'ra "lifelong learning" konsepsiyasi kattalar ta'limi haqidagi zamonaviy tushunchani va uning bir nechta asosiy vazifalarini belgilaydi, masalan: professional; ijtimoiy; shaxsiy. R.R.Shaxmarova quyidagilarning har biri shaxsning rivojlanishi va uning professional hamda shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda katta ahamiyatga ega deb hisoblaydi :

- kasbiy: bu funksiyani amalga oshirish shaxsning mehnat harakatchanligini, uning yangi malakaga ega bo'lishi, mehnat funksiyalarining rivojlanishi va kasbiy malakasi darajasining oshishi asosida raqobatbardoshligini oshiradi;

- ijtimoiy: bu funktsiya odamning jamiyat bilan o'zaro munosabatlariga, jamiyatning umuminsoniy qadriyatlari bilan tanishishga, tilni, madaniyatni o'rganishga va har xil turdagi shaxsning funksional savodxonligini shakllantirishga qaratilgan maydonlar.

- shaxsiy: funktsiya odamning kognitiv ehtiyojlarini qondirishga, ijodiy o'sishga, shaxsning umumiy ta'limi va madaniyatining doimiy o'sishiga qaratilgan. Yuqoridagilardan

ko‘rinadiki, xorij mutaxassislarining nuqtai nazariga ko‘ra, hayot davomidagi ta‘lim – bu klassik ta‘lim doirasidan tashqariga chiqadigan ixtiyoriy tizim. Uzluksiz ta‘lim norasmiy ravishda amalga oshiriladi va katta moliyaviy sarmoyalarni nazarda tutmaydi. Ya‘ni, yangi sohada muvaffaqiyatga erishish xarajatlari uzluk siz ta‘lim yoki to‘liq oliy ma‘lumot bilan taqqoslanmaydi. Kompyuter texnologiyalari tufayli masofadan turib baholarsiz va o‘qituvchilarning qattiq nazoratisiz o‘qish mumkin. Natijada, ta‘lim oluvchi diplom olmaydi, ammo bunday ta‘lim tizimi ko‘proq imkoniyatni ta‘minlaydi¹. E.M.Alkarovning nuqtai nazariga ko‘ra, “kasbiy rivojlanish uning lavozim, vazifalari, huquq va majburiyatlarini samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy sifatleri, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish va muntazam boyitib borishdan iborat”. “Hayot davomida o‘qish” – bu umrbod o‘qitish faoliyati. Bu shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan va ushbu rivojlanish uchun qulay sharoitlar yaratishga asoslangan. Har qanday (yosh, ijtimoiy va tashkiliy) cheklovlar yo‘qligi sababli, ushbu global ta‘lim yondashuvi tanlangan yo‘nalish bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni doimiy ravishda o‘zlashtirishni va natijada shaxsiy ta‘lim tizimini nazarda tutadi. Bu jarayonda tugallangan ta‘lim mavjud emas, u umr bo‘yi davom etadi, shu bilan birga zamonaviy axborot jamiyatidagi barcha yangiliklar va o‘zgarishlarga o‘z vaqtida javob berishga imkon beradi. Uning konsepsiyasi – bu doimiy ravishda o‘rganish va rivojlantirish, eskirgan g‘oyalar va yondashuvlarni yangi usullar va ilg‘or qarashlar bilan almashtirish, texnologik rivojlanishning barcha yutuqlaridan foydalanishni anglatadi.

Ushbu konsepsiyaning dastlabki g‘oyalari o‘tgan asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan va hozirda turli sohalarining ko‘plab xodimlari doimiy ravishda uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida qatnashadilar. Hayot davomidagi ta‘lim – bu ham kasbiy, ham shaxsiy ehtiyoj va sabablarga ko‘ra bilim va ko‘nikmalarni doimiy ravishda yangilash konsepsiyasi. Uzluksiz ta‘lim konsepsiyasi yoshi va faoliyat sohasidan qat‘iy nazar o‘rganish, shuningdek, har qanday ehtiyojlarni ro‘yobga chiqarish va rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ushbu konsepsiyani tushunish va hayot davomida o‘qish iqtisodiyot va butun jamiyat uchun foydali ta‘sir ko‘rsatadi. Hayot davomidagi ta‘lim – ta‘lim va hayotning birlashmasidan kelib chiqadi. U barcha yoshdagi insonlar uchun, turli hayotiy vaziyatlarda va keng ko‘lamli ta‘lim hamda individual ehtiyojlarni birgalikda qondiradigan bir qator usullar orqali o‘rganish faoliyatini qamrab oladi. Hayot davomida ta‘limga oid ilmiy adabiyotlarda uzluksiz ta‘lim butun hayot davomidagi ta‘lim sifatida talqin etiladi. Uzluksiz ta‘lim atamasi eng keng ma‘noda butun hayot davomida ta‘limni (LLL – lifelong learning) belgilash uchun ishlatiladi¹. Uzluksiz ta‘lim – bu davlat va jamoat institutlari tizimidan foydalanish asosida shaxs va jamiyat ehtiyojlariga muvofiq shaxsning butun hayoti davomida ta‘lim salohiyatining o‘sish jarayoni. Hayotiy ta‘limga bo‘lgan ehtiyoj fan va texnika taraqqiyoti, innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish bilan bog‘liq. Odatda, “lifelong learning” tamoyili asosidagi uzluksiz kasbiy rivojlantirishning to‘rtta asosiy yo‘nalishlarini ajratish mumkin: – bilimlarni o‘zlashtirish, o‘qitish va amaliy ko‘nikmalarga o‘rgatish; – boshqa mutaxassislar bilan o‘zaro hamkorlikda o‘rganish; – boshqalar bilan muloqot qilishni o‘rganish (nizolarni hal qilish, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, sotsializatsiya, boshqa madaniyatlarga nisbatan bag‘rikenglik va boshqalar); – o‘zini o‘zi rivojlantirish. Hayot davomida o‘qitish g‘oyasi yangi vaziyatda harakat qilish, o‘z tajribasini sarflash, shuningdek, uni e‘tiqod va qadriyatlar, his-tuyg‘ular va natijalar asosida yangilash va o‘zgartirishga asoslanadi. Bu insonning barcha tajribalarini fikrlash va harakat qilish orqali o‘zgartirishi va shu bilan g‘oyalar yaratishda o‘zini o‘zgartirish jarayonidir. Shuni ta‘kidlash kerakki, umr bo‘yi ta‘lim institutsionalizatsiya qilingan hozirgi sharoitda jamiyatni va uning rivojlanishini boshqarish hamda davlat uchun zarur bo‘lgan faoliyat usullarini joriy etish imkoniyati mavjud.

Tez o‘zgaruvchan iqtisodiy ishlab chiqarish tizimi yanada malakali ishchi kuchini talab qiladi. Shunday qilib, umrbod o‘rganish nafaqat o‘qituvchilarning sa‘y-harakatlari yoki o‘rganishlari tufayli, balki iqtisodiy tizim ehtiyojlari tufayli samaradorlikka erishadi. Hayot davomidagi ta‘lim eng keng ma‘noda, bu turli xil vaqt va makonda o‘zgaruvchan, xilma-xil va mavjud bo‘lgan hayotiy ta‘limdir. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda “lifelong learning” tamoyilining samaradorligini quyidagi

omillar bilan asoslash mumkin: Birinchidan, tez o'zgaruvchan texnologiyalar va yangilanib boruvchi axborot oqimini o'zlashtirish, o'qitish jarayonida qo'llash ehtiyoji mavjud. Ikkinchidan, zamonaviy o'qituvchi uchun bir sohada mutaxassis bo'lishning o'zi yetarli emas, ta'limning boshqa sohasiga kirib borish lozim. Uchinchidan, kasbiy faoliyatni tahlil qilish, kasbiy ehtiyojlar asosida o'qitish metodikasini uzluksiz yangilab borish, hamkasblari bilan muloqotga kirishish, tajriba almashish orqali yangi bilimlarni olish jarayoni samaraliroq bo'ladi. To'rtinchidan, insonning o'zi tomonidan o'zlashtirilgan bilim uning hayoti davomida egallagan bilimlari orasida eng samarali va uzoq vaqt natija berishi aniqlangan.

Xulosa shuki, uzluksiz ta'lim tizimi barcha insonlar uchun ochiq ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan ta'lim, mehnat va jamoatchilikni o'z ichiga olgan yaxlit va tizimli yondashuvni mujassamlashtiradi. Ta'lim faqat davlat muassasalari bilan cheklanib qolmasligi, u o'qituvchining ish joyida, oilada, fuqarolik jamiyati tashkilotlarida va ixtiyoriy ravishda moslashuvchan shakllarda berilishi mumkin. Hayotiy ta'lim har tomonlama va barqaror iqtisodiy o'sishga, tinchlik va jamiyatning barqaror ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr, O'RQ637-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori.
3. Inncheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education ang lifelong learning for all (Word Edutezcation Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
4. UNESCO. Learning: The Treasure within. UNESCO/HMSO, London. 1996.
5. Alkarov E.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida pedagog kadrlar uzluksiz kasbiy rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2021. – 60 b.
6. Jarvis P. (2012). Learning from everyday life. Human and Social Studies Research and Practice, 1(1), 1–20. Retrieved October 20, 2016.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH VA MUZEY PEDAGOGIKASI VOSITASIDA OLIY TA'LIMDA TAYYORLANAYOTGAN BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-MADANIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Azimova Muhayyo Murotdilloyevna
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni muzey pedagogikasi vositasida turizm faoliyatiga tayyorlashdagi muammolar, muzeylarning ta'lim muassasalari bilan hamkorligi mazmuni, bo'lajak o'qituvchilar muzey pedagogikasi doirasida egallashi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar, bo'lajak o'qituvchilarni muzey pedagogikasi vositasida turizm faoliyatiga tayyorlashda amalga oshiriladigan didaktik vazifalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: muzey pedagogikasi, turizm faoliyati, ta'lim muassasasi, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalar.

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы подготовки будущих учителей к туристской деятельности средствами музейной педагогики, содержание сотрудничества музеев и образовательных учреждений, знания, умения, квалификации и компетенции, которые необходимо приобрести будущим учителям в рамках музейной педагогики, а также дидактические задачи, которые решаются при подготовке будущих учителей к туристской деятельности средствами музейной педагогики.

Ключевые слова: музейная педагогика, туристская деятельность, образовательное учреждение, знания, умения, квалификации, компетенции.

Abstract. This article discusses the problems of preparing future teachers for tourism activities through museum pedagogy, the content of cooperation between museums and educational institutions, the knowledge, skills, qualifications and competencies that future teachers need to acquire within the framework of museum pedagogy, and the didactic tasks that are carried out in preparing future teachers for tourism activities through museum pedagogy.

Keywords: museum pedagogy, tourism activities, educational institution, knowledge, skills, qualifications, competencies.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsni faqat pedagogik ta'sir ko'rsatish ob'ekti sifatida emas, balki bilim olish sub'ekti sifatida qaralishini, uning tahsil oluvchi sifatida o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini shart qilib qo'yadi. Bu esa pedagogika oliy ta'lim tizimi oldiga umumta'lim va kasb-hunar maktablari, o'rta maxsus hamda professional ta'lim tizimlari uchun bilimli, o'z fanining barcha qirralarini mukammal egallagan, yangi pedagogik texnologiyalardan ma'lumotga ega, kompyuter savodxonligi shakllangan, xorijiy tillarni o'zlashtirgan, kasbiy kompetensiyasi rivojlangan fan o'qituvchilarini tayyorlashdek, dolzarb vazifalarini qo'ydi. Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida bugungi kunga kelib, faqat 1 ta «Tasviriy san'at» yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalari ishlab chiqilgan. SHuni ta'kidlash lozimki, umumta'lim maktablari hamda har qanday yo'nalishdagi kasb-hunar maktablari, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari uchun tayyorlanadigan pedagogik kadrlar majburiy va tanlov fanlardan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim. Bu yo'nalish bo'yicha tanlanadigan fanlar bo'lajak yosh mutaxassisning ixtisoslik fanlari bo'yicha olgan bilimlarini yanada chuqurlashtiradi. Shuning uchun ular orasida o'zaro aloqadorlik asoslarini o'rganilishi lozim. Tasviriy san'at o'qituvchilari o'quvchilarga yangi texnika va texnologiya yutuqlaridan axborotlar beruvchi asosiy shaxs hisoblanadi. Ular har tomonlama bilimdon, o'z kasbiga nisbatan iqtidorli inson bo'lishi zarur. Buning uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi pedagogika oliy ta'lim muassasasida o'qish davrida rangtasvir fanidan chuqur bilimlarni egallashi, ularni o'z faoliyatida qo'llay olishi kerak. SHuningdek, bo'lajak o'qituvchibakalavrlarni tayyorlashda majburiy va tanlov fanlaridan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ilmiy yondoshilgan holda bilim berish taqozo qilinadi.

Tadqiqotimiz jarayonida majburiy va tanlov fanlaridan quyidagi o'quv dasturlari yaratildi:

1. Rangtasvir;
2. Qalamtasvir;
3. Plastik anatomiya;
4. Tasviriy san'at texnologiyasi;
5. Dastgohli rangtasvir;
6. Amaliy perspektiva va soyalar nazariyasi;
7. Tasviriy san'atda nusxa ko'chirish;
8. Rangshunoslik;
9. Naqsh elementlarini loyihalash.

Yuqoridagi talablar pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'limning umumta'lim, kasbhunar maktablari, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimi bilan uzviy aloqada bo'lishini ta'minlashga olib kelish bilan birga, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining ta'lim jarayonida o'qitiladigan majburiy va tanlov fanlarga bo'lgan intilishlarini, qiziqishlarini yanada oshiradi. Tasviriy san'at fani umumta'lim, kasb-hunar maktablari, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarining tasviriy san'at ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladi. Ular bir-birini to'ldirib boradi. Potrter janrini murakkab ijodiy jarayon hisoblanadi. Uning fan sifatida o'qitilishi talabalarda nafaqat o'z asarlari uchun portret chizish, balki boshqalar asarlariga ham mos ravishda portret chizish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Portret janrini loyihalash deganda, portret chizishni tashkil etadigan detallar hamda naturalar kompleksi, shuningdek, ularni asarlarda o'zaro bog'liqliklarini o'rganish, chizish kerak bo'ladigan asarlarni muayyan o'lchamdagi va shakldagi yaxlit holga keltirish usullari, vositalari tushuniladi. Loyihalash jarayonida biron asardan hajmiy shaklning olib chizish, ya'ni portretning qismlarini yoki ularning barcha shakllari o'rganish ishlari bajariladi. Asar qismlarining o'lchami, portretning shakli moslashtirib xuddi shu o'lchamni va ko'rinishini beradi. Portret janrini chizish uchun loyihalashda naturadan o'lchov olish qoidalari va o'lchovlar asosida naturaning asos chizmasini

qurish, so'ngra chizmadan portret tayyorlash, modellashtirish jarayonlari o'rgatiladi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda portret janrini ishlash bosqichlari hamda boshlang'ich bosqichlarini quyida ko'rib chiqamiz. Tadqiqotchi san'atni egallash yo'lida tinmay mehnat qilish lozimligini ta'kidlab, "doimo, biror kunni ham qoldirmay chizish... senga foyda keltiradi" deb yozadi. Amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, gipsli maskalar chizish mashg'ulotlarida, gips yuzasi inson teridan farq qiladi va shu'la ham ularda turli joyga tushadi. Gipsli sochlarni ham haqiqiy sochlar bilan hech qanday umumiyliги yo'q, hoh ular jingalak bo'lsin, hoh tekis. Tirik inson ko'zlari jiloli, rangdor, pardasi chuqur tonga ega bo'ladi, bular esa gipsli haykallarda aks ettirilmaydi. Lablar va burun teshigi birlashgan chiziqlar ham inson yuzida boshqa tonga ega. Jonli modeldan farqli o'laroq gips harakat qilmaydi va siz bilan so'zlashmaydi. Albatta, gips byustlar juda chiroyli va o'zligi bo'yicha ajoyib natura bo'lishi mumkin, biroq ularni chizish insonni naturadan chizish mashg'ulot kabi zavq bermaydi. Agar siz jonli naturadan chizmoqchi bo'lsangiz, eng ma'quli eskiz va lavhalar chizishdan boshlaganingiz ma'qul. Doimiy ravishda eskizlarni chizishni o'rganib, yorug'lik-soya asoslari va shakl bo'yicha shtrixovka qilishlarni tushunib olganingizdan so'ng, portret chizishga o'tsangiz bo'ladi. Portretning boshlanishi. Portretni qattiq qalam yordamida sal ko'rinadigan chiziqlarni qo'yish orqali engil eskizlardan boshlaymiz. Ishlarni boshlashda qalamidan foydalangan ma'qul. Birinchi qatlamdan yorug' va to'q tonlarning katta dog'larini belgilash prinsipi portretni boshlashning asosi hisoblanadi, undan so'ng esa yuz chiziqlarini topib aniqlashni boshlaymiz. Rasmning barcha qirralarini chiziqli konturda boshlab, keyin ularni bo'yashga harakat qiling. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga o'rgatiladigan bilimlar ko'proq amaliy mashg'ulotlardan iboratligi, ularda ijodkorlik, qiziquvchanlik va badiiy didlarini rivojlantirishga doir ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilganligiga alohida e'tibor berish zarur. Bunda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarning o'z rivojlangan kompetensiyasiga qarab to'g'ri bajarishiga e'tiborini qaratishi kerak. Rasm chizish jarayonida chizuvchi qalam vositasida bir qator murakkab vazifalarni bajarishiga to'g'ri keladi. Qog'oz tekisligida hajmiy shaklni tasvirlash uchun tasvirlovchi naturaning kompozitsiyasi, shakli ustida ishlashi kerak, uning atrofidagi holatni yorug'-soya orqali ifodalashi zarur. Umumlashtirish, tipik tomonlarni ajratish kabi vazifalarni hal qilish zarur. YUqoridagi omillar ishning badiiy ta'sirchanligini ta'minlashini unutmash lozim. Demak, rasm chizishda ma'lum bir ketma-ketlik saqlanmasa, mazkur vazifalarning echimi rassom uchun ancha murakkablashadi.

Xulosa Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi kursining muxim qismlaridan biri hisoblangan namunaviy dars o'tish talabalarini o'quvchilar jamoasi orasida o'zlarini to'g'ri boshqarish, o'qituvchi bilan bolalar, o'quvchilar oralarida ro'y beradigan kelishmovchilik va situatsiyalarni bartaraf etish yo'llari bo'yicha ma'lum bilim va malakalar hosil qiladilar. Shu bilan bir qatorda bunday darslar talabalarini maktabdagi faol pedagogik amaliyotlari xamda kelgusidagi o'qituvchilik faoliyatlarida xam qo'l keladi. 4. Namunaviy dars o'tish uchun talaba belgilangan mavzu asosida tayyorgarlik ko'radi. Bu tayyorgarlik mazkur darslikni amaliy ishlar qismida bayon etilgan bo'lib, u quyidagi qismlardan tashkil topadi: Ko'rgazmali qurollar tayyorlash, tayyorlangan materiallar asosida mustaqil ravishda dars o'tishni mashq qilish. Namunaviy dars uchun dars konspekti va dars ishlanmasi talabaning avvallari tayyorlagan konspekti, dars ishlanmasi bo'lishi mumkin. Tayyorlangan dars ishlanmalari va ko'rgazmali qurollar metodika o'qituvchisiga ko'rsatilib, uning ijobiy fikr olingandan so'ng auditoriyada talabalar oldida namunaviy dars o'tiladi. Bu darsda talabalar o'quvchilar o'rnida faollik ko'rsatishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova B.Z. Badiiy-grafika fakultetida kurs ishi bajarish yuzasidan metodik tavsiyalar. T.: 1989.
2. Abdirasilov S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish. T.: 1996.
3. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. T.: Bilim, O'MKHTM, 2005.
4. Abdirasilov S., Boymetov B., Tolipov N. Tasviriy san'at. T.: Cho'lpon, 2006.
5. Pardayev, B. (2020). Ўқувчиларни касб-хунарга йўллаш технологияларини ишлаб чиқиш ва ўқув-тарбия жараёнига татбиқ этиш. Журнал музыки и искусства, 1(1).

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕГРАЦИИ ОБУЧАЮЩИХ ИГР В ПРАКТИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС ПРЕПОДАВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

Рахимова Рухсора Хайдар кызы

Независимый исследователь Бухарского государственного университета

Аннотация: В данной статье показано значение и способы использования дидактических игр в совершенствовании знаний, умений и навыков учащихся. Приведена важность формирования знаний учащихся посредством игр.

Ключевые слова: Дидактические игры, знания, умения, метод обучения, воспитание, познание, творческие и правила игры, образовательная технология

Введение Дидактические игры играют несравненную роль в создании мотивации в начальных классах. Игра – метод, используемый взрослыми – учителями, воспитателями, родителями для формирования у учащихся начальных классов определенных качеств. С помощью игры процесс обучения учащихся становится легче, они учатся обращаться с различными предметами, а также развивают культуру общения. Личность ребенка формируется посредством игры, в которой в дальнейшем формируются психические особенности, связанные с организацией учебной и трудовой деятельности и вступлением в отношения с людьми. В психологии считается, что игра имеет решающую роль в развитии психики ребенка. Все стороны личности ребенка формируются в единстве и взаимодействии только в игре. Только игра создает важную основу для перехода на более высокую ступень развития психики ребенка. Дидактическая игра – это активная деятельность в области создания имитационной модели изучаемых событий и явлений. Важным отличием игры от других видов деятельности является то, что ее предметом является человеческая деятельность. Основным видом деятельности в дидактической игре является совместная учебная деятельность. Важной особенностью дидактических игр, отличающей их от других видов деятельности, является строгость ее содержания. Структурными компонентами дидактических игр являются: игровая логика, игровое действие, правила игры. Логика игры во многом отражена в ее названии. В процессе игровых действий у учащихся создается возможность проявить свои способности, использовать свои знания, умения и навыки для достижения цели игры. Правила игры помогают правильно организовать игровой процесс. Он регулирует поведение учащихся и их взаимодействие. В дидактических играх достигается определенный результат, финал которого свидетельствует о его завершении. В игре ставится определенная дидактическая цель, достижение которой создает у учащихся чувство морального и интеллектуального удовлетворения. Дидактические игры всегда являются для учителя показателем учебы учащихся или практического применения полученных знаний.

Чешский педагог Я. А. Коменский подчеркивал, что игра является основной формой деятельности ребенка, и говорил, что игра соответствует характеру и интересам ребенка. Ученый подчеркивает, что игра всесторонне развивает умственные способности ребенка, расширяет его представление об окружающем, развивает его речь. Также игра вместе со сверстниками сближает его со сверстниками. Дидактические игры можно разделить на три вида: словесные, словесные, игровые обучающие, игры-упражнения (действия). Для дидактических игр важна идея игры и игровые задачи. Важнейшим элементом дидактической игры является ее правило. В процессе выполнения правила реализуется содержание игры. Существование правила помогает реализовать эффект игры и применить задачу игры. В процессе выполнения правил формируется мировоззрение реализации содержания игры. В дидактической игре учащийся учится следовать правилам, ведь соблюдение правил обеспечивает успех игры.

В процессе участия в игре формируются творческие моральные качества и организаторские способности. В дидактической игре ребенок приобретает хорошие нравственные качества. Дидактические игры делятся на несколько этапов. На каждом этапе раскрываются определенные возможности ребенка. Знание воспитателем природы этих этапов имеет большое значение в определении эффективности дидактических игр. На первом этапе у ребенка появляется желание играть и он начинает проявлять активность в игре. Именно на этом этапе можно организовывать загадки, скороговорки, дискуссии или беседы, чтобы заинтересовать ребенка игрой. На втором этапе ребенок учится выполнять игровые задания, соблюдать правила и участвовать в игре. На этом этапе у детей развиваются такие творческие качества, как правильность, стремление к достижению цели, сила воли, умение преодолевать период проигрыша в игре, радость не только своему успеху, но и успехам своих друзей. На третьем этапе игры ребенок хорошо знает правила игры.

Теперь он подходит к игре творчески, сам вносит новости, пользуется спросом самостоятельно. В процессе участия в игре он выполняет быстрые ответы, прячется, ищет, бежит, рисует и другие подобные задачи. Дидактические игры являются наиболее правильным и эффективным методом обучения самостоятельному мышлению учащихся. Она не требует определенных материалов или условий, но требует от педагога знаний и навыков в области организации игры. Только организация игры на основе определенной системы и методики играет важную роль в воспитании умения учащихся самостоятельно мыслить. Невозможно заинтересовать учащегося знаниями, не активизируя его познавательную деятельность. Именно поэтому в ходе учебного процесса постоянный интерес учащегося к знаниям и развитие его мотивации к учебе являются важнейшими средствами обучения. образование.

Таким образом, интерес к обучению помогает реализовать все возможности личности ученика. Интерес к учебе, как и другие качества человека, формируется и развивается в процессе учебы. Интерес учащихся к учебе организуется двумя основными способами. Во-первых, сам учебный материал создает у учащихся интерес к знаниям. Потому что что-то новое, что не было изучено, люди изучают с интересом. С другой стороны, заинтересовать учащихся к знаниям можно, интересно организовав их познавательную деятельность. Не все учебные материалы интересны учащимся. В таких случаях единственным способом повысить интерес детей к учебному процессу является использование и организация дидактических игр. Чтобы повысить интерес учащихся к учебе, необходимо заинтересовать их образованием. Ниже вы познакомитесь с такими видами игр: Посредством дидактической игры Акл чархи учащиеся учатся самостоятельно мыслить, развивают свои интеллектуальные способности, развивают беглую речь. Игра проводится путем разделения учащихся на группы по два-три ученика.

Один ученик в группе произносит одно из слов, относящихся к теме, второй ученик повторяет слово, сказанное первым учеником, и добавляет еще одно слово. Таким образом, после того, как трое учеников сказали 324 слова, снова наступает очередь первого ученика. Игра продолжается таким образом, если учащийся допустит ошибку или повторит произнесенное слово, группа выходит из игры. Неправильное предложение» Эта игра основана на картинках. Описывая картинку, ученик должен найти предложения, не относящиеся к картинкам. В ходе этой игры от учащихся требуется внимательность, наблюдательность и внимательность. Они внимательно рассматривают картинку и внимательно слушают рассказ учителя. Возможность найти каждое неправильное предложение повысит их уверенность в себе и интерес к уроку. Эту игру можно использовать не только на уроках родного языка, но и во внеклассных мероприятиях. Глупый учитель задает вопрос по знаку. Учащиеся пишут названия предметов, содержащих этот символ, победителями считаются ученики, нашедшие больше правильных ответов.

Таким образом, игра является основной формой деятельности ученика. Игра является одним из важных видов мыслительной деятельности, в котором развиваются все виды способностей ученика, расширяются его представления об окружающем мире, увеличивается богатство речи. Дидактические игры оказывают эффективное воздействие на развитие различных способностей, восприятия, речи и внимания обучающегося.

Литература

1. Современные педагогические технологии в начальном образовании: Учебное пособие/ Т. Гафарова – Т.: Тафаккур, 2011. – 160 с.
2. Иноятова, А. Носиров, М. Диванова, Г. Боймуродова, А. Бахромов, М. Расулова, Ф. Абдукдусова. Применение современных педагогических и информационных технологий в повышении качества начального образования Ташкент-2014.
3. Журнал начального образования. 2014.
4. Шухратовна А. Н. (2024). МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ РОЖДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НАУЧНЫХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ, 7 (4), 170-175.

3-SHO‘BA.
YOSH AVLOD TA‘LIM-TARBIYASIDA JADID
MA‘RIFATPARVARLARI
PEDAGOGIK MEROSINING ILMIY-NAZARIY
ASOSLARI VA ZAMONAVIY
DIDAKTIKA HAMİYATI

BOSHLANG'ICH SINFLARDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI O'QITISHNING AFZALLIKLARI

Bahronova Aziza Ismoilovna,

Buxoro viloyati Buxoro tumani 33-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang'ich sinflar uchun joriy etilgan yangi avlod darsliklari tuzilishi keng mazmun va mohiyatga ega bo'lib, nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar uchun ham bir qator pedagogik imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu maqolada yangi darsliklarni o'qitishning afzalliklari yoritilgan. Yangi avlod boshlang'ich sinf darsliklari o'quvchilarga bilimlarni zamonaviy yondashuvlar va metodlardan foydalangan holda taqdim etishi bilan ajralib turib, keng pedagogik imkoniyatlarga ega. Bu darsliklar o'quvchilarni nafaqat ijodiy, tanqidiy fikrlashga o'rgatadi, balki har bir masala, muammoga atroflicha yondashish ko'nikmasini shakllantirishi bilan real hayotga tayyorlaydi. Darsliklardan o'rin olgan topshiriqlar va mavzularning boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holatda berilishi o'quvchilarni ushbu fanlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Kalit so'zlar: 4K modeli, innovatsiya, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, muammoli ta'lim, darslik, dastur, integratsiya, didaktika, pedagogika, interfaol metod, mashq daftari, tabiiy fanlar, tarbiya, texnologiya.

ПРЕИМУЩЕСТВА ПРЕПОДАВАНИЯ ПО УЧЕБНИКАМ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: Структура нового поколения учебников, введенных для начальных классов, имеет широкое содержание и суть, создавая ряд педагогических возможностей не только для учащихся, но и для учителей. В данной статье освещаются преимущества обучения по новым учебникам. Новое поколение учебников для начальной школы отличается тем, что они представляют знания учащимся с использованием современных подходов и методов, и имеют широкие педагогические возможности. Эти учебники не только учат учащихся творчески и критически мыслить, но и готовят их к реальной жизни, формируя навыки комплексного подхода к каждому вопросу и проблеме. Предоставление заданий и тем из учебников в комплексе с другими предметами еще больше повышает интерес учащихся к освоению этих предметов.

Ключевые слова: модель 4К, инновации, творческое мышление, критическое мышление, проблемное обучение, учебник, программа, интеграция, дидактика, педагогика, интерактивный метод, тетрадь, естественные науки, образование, технологии.

ADVANTAGES OF TEACHING NEW GENERATION TEXTBOOKS IN PRIMARY GRADES

Abstract: The structure of the new generation of textbooks introduced for primary grades has a wide content and essence, creating a number of pedagogical opportunities not only for students, but also for teachers. This article highlights the advantages of teaching new textbooks. The new generation of primary school textbooks is distinguished by the fact that they present knowledge to students using modern approaches and methods, and has wide pedagogical opportunities. These textbooks not only teach students to think creatively and critically, but also prepare them for real life by forming the skills of a comprehensive approach to each issue and problem. The provision of tasks and topics from textbooks in an integrated manner with other subjects further increases students' interest in mastering these subjects..

Keywords: 4K model, innovation, creative thinking, critical thinking, problem-based learning, textbook, program, integration, didactics, pedagogy, interactive method, exercise book, natural sciences, education, technology.

Kirish. Bugungi kunda "Yangi O'zbekiston" ning barcha sohalarida kundan kunga o'zgarishlar ro'y berayotganini alohida ta'kidlash kerak. Xususan, ta'lim sohasida yaxshilanish,

ta'lim sifatini oshirish maqsadida nafaqat o'qituvchilar uchun o'quv dasturlari, uslubiy qo'llanmalar ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirilib yaratilmoqda, balki o'quvchilar uchun yangi avlod darsliklari joriy etildi. Bunday darsliklarning pedagogik imkoniyatlari keng bo'lib, bolalarni 1-sinf dan boshlab kreativ fikrlashga, hamkorlikda ishlashga, to'g'ri muloqot qila olish qobiliyatini shakllantirishga o'rgatadi. Boshlang'ich ta'lim tizimidagi bunday o'zgarishlar darslarning interaktiv va samarali bo'lishini ham ta'minlamoqda. Shuningdek, darsda integratsiya jarayonini amalga oshirishga qaratilgan, o'quvchining dunyoqarashini kengaytiruvchi mavzu va mashqlar mavjud.

Prezidentning 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan Milliy o'quv dasturi har bir sinf bosqichi yakunida o'quvchilardan kutilayotgan natijalar va bir sinfdan keyingi sinfga o'tish va o'quvchi nimaga erishishi kerakligi va baholash jarayonini tushuntirish bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatadigan hujjatdir. Milliy o'quv dasturida quyidagilar yetakchi o'rinni egallaydi: izchillik, uzviylik, uzluksizlik, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, fan va ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish, xalqaro ta'limning bugungi holatini hisobga olgan holda ta'lim mazmunini jahon standartlariga moslashtirish, fan va ta'lim integratsiyasini ta'minlash.[1]

Ma'lumki, xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq, ilg'or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari "4k" modeli asosida yangidan tayyorlandi. "4K" modelidan foydalanish ko'plab sinovlardan o'tdi. Ushbu zamonaviy yondashuv Singapur, Xitoy, Angliya, Finlyandiya, Estoniya kabi ilg'or ta'limga ega mamlakatlarda muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Shuningdek, PISA va PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan mamlakatlar ta'lim sohasida "4K" modeli o'z ichiga olgan kommunikatsiya, tadqiqot, kreativlik kabi ko'nikmalarga alohida e'tibor qaratilmoqda va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda yuksak natijalarga erishmoqda.[2]

Asosiy qism. Yangi avlod boshlang'ich sinf darsliklari avvalgi darsliklarga qaraganda zamonaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ularning asosiy mazmuniy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Kompetensiyaviy yondashuv: Darsliklar bolalarda faqat bilim emas, balki ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Har bir mavzuda bolalarning amaliy faoliyatga jalb qilinishi ko'zda tutilgan. Buni har bir fanning mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan mashq daftarlaridan bilish mumkin. Amaliy tarzda mavzu bilan mos ravishda mashq daftari bilan ishlagan bolada bilim malaka darajasida shakllana oladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Integratsiya: Darsliklarda fanlararo bog'liqlik kuchaytirilgan. Masalan, ona tili darsida matn orqali tabiatshunoslik yoki tarbiya elementlari ham o'rgatiladi. Yoki matematika darsligida har bir mavzu uchun yondosh mavzuning berilishi real hayot bilan bog'liqlikning yaqqol namunasidir. Negaki, bu o'quvchilarning ko'pgina sohalar bilan tanishib borishiga yaqindan yordam beradi.

Hayotga yaqinlik: Darsliklardagi mavzular o'quvchilarning real hayoti bilan bog'langan, ular uchun tushunarli va qiziqarli tarzda yoritilgan.

Milliy qadriyatlarga e'tibor: O'zbekistonning madaniyati, urf-odatlar, tarixiy merosi va milliy qadriyatlari keng yoritilgan. Ayniqsa, 1- 4- sinf tarbiya darsliklarida bunday mavzular juda ko'p berilgan.

Yangi avlod darsliklarining mohiyati quyidagi asosiy maqsadlarga qaratilgan:

1. O'quvchining fikrlash salohiyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoni yechish qobiliyatlarini oshirish.

2. Interaktiv o'qitish, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida faol muloqotni qo'llab-quvvatlash, dars jarayonini jonlantirish.

3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, raqamli texnologiyalar, vizual vositalar, interaktiv topshiriqlardan foydalanish.

4. Tarbiya va ma'naviy rivojlanish, har bir mavzuda axloqiy-tarbiyaviy g'oyalar, vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat kabi tushunchalar singdirilgan.

Har bir boshlang'ich sinf yangi darsliklari o'ziga xos tuzilishi bilan ajralib turadi. Masalan, yangi 1, 2-sinf ona tili darsliklari O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablari uchun

zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ular quyidagi mazmun, mohiyatga ega:

- **til o'rganishning bosqichma-bosqichligi** — o'quvchilarni savodxonlikdan boshlab, asta-sekin so'z boyligini oshirish, imlo, grammatika va uslubiy bilimlarni egallashga yo'naltiradi. Har bir mavzu oddiy tushunchalardan boshlab murakkabroq ko'nikmalarga olib boradi.

- **matn asosida ishlash** — har bir bob va mavzuda turli janrdagi matnlar (ertak, hikoya, she'r, maqol, topishmoq) berilgan. Matnlar orqali o'qish texnikasi, mazmunni tushunish, fikr bayon qilish, savollarga javob berish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

- **o'yinli va interaktiv topshiriqlar** — rolli o'yinlar, chizish, rolga kirish, savol-javoblar, juftlikda ishlash kabi faol metodlar o'quvchini darsga faol jalb qiladi. Topshiriqlarning aksari kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga, ya'ni o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan. Bolada so'zlashuv madaniyati, tinglash va tushunish, fikrni to'g'ri ifodalash ko'nikmalari shakllantiriladi.

- **milliy g'oyalar va qadriyatlar** — darslikdagi matnlar orqali vatanparvarlik, mehr-oqibat, halollik, do'stlik, oilaviy qadriyatlar kabi tushunchalar bolalarga singdiriladi. Har bir topshiriq bolani fikrlashga, izlanishga, mustaqil qaror chiqarishga o'rgatadi. Matn ustida ishlash orqali mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish ko'nikmalari shakllanadi. Shuningdek, ona tili darsliklarining har bir bo'limi muayyan mavzular asosida tuzilgan: so'z va gap, so'z turkumlari, tinish belgilari, matn tuzilmasi. Mavzular tushunarli til va ko'rgazmali uslubda yoritilgan. Rasmlar, jadvallar, jadval asosidagimashqlar orqali o'qituvchining darsni vizuallashtirish imkoniyati kengaytirilgan.

Yangi avlod 3, 4 -sinf ona tili darsliklari ham aytib o'tilganlardan tashqari quyidagi afzalliklarga ega:

- Bosqichma-bosqich rivojlanish. 1–2-sinfda o'rganilgan asosiy til tushunchalari endi chuqurlashtiriladi. O'quvchilar so'z turkumlari, gap tuzilishi, matn turlari, imlo va tinish belgilari haqida kengroq bilim olishadi. O'quvchilar og'zaki va yozma nutq bilan faol ishlaydi: hikoya tuzish, fikr bildirish, matn tuzish, og'zaki bayon qilish kabi topshiriqlar mavjud. Darslik bilim berish bilan birga, bolani hayotiy vaziyatlarda tilni qo'llashga o'rgatadi.

- Interaktiv topshiriqlar. Har bir mavzu o'quvchining fikrlashi, muloqot qilish qobiliyati va axloqiy-ruhiy rivojini qo'llab-quvvatlaydi. Bo'limlar mantiqiy tarzda tashkil etilgan: til birliklari, matn ustida ishlash, nutq madaniyati. Qiziqarli topshiriqlar - chizish, savol-javob, suhbat, rolda chiqish, guruhda ishlash kabilar orqali o'quvchi faollashadi. Jadval, sxema va rasmlar orqali mavzular tushunarli va jonli yoritilgan.

Darslikda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy texnologiyalar, AKT bilan ishlashga yo'naltiruvchi elementlar ham mavjud. O'quvchini mustaqil o'ylashga, tahlil qilishga, ijodiy fikrlashga undaydi. 4-sinf ona tili darsliklarida esa so'z turkumlari, gapning bo'laklari, gap turlari, so'z yasash, imlo va tinish belgilarini qo'llash qoidalari kengroq yoritiladi. O'quvchilarga matn tuzilishi, mavzuni aniqlash, reja tuzish, xulosa chiqarish kabi murakkabroq til ko'nikmalari o'rgatiladi. Demak, yangi avlod ona tili darsliklari o'quvchining savodxonlik, fikrlash, muloqot, ijodkorlik va xalqona qadriyatlarga sadoqat kabi kompetensiyalarini shakllantiradi. Darslikning asosiy maqsadi — fikrni aniq va to'g'ri bayon qiladigan, tilni ongli o'zlashtirgan, faol shaxs tarbiyalashdir.

Xulosa. Boshlang'ich sinf darsliklarining yangilanishi nafaqat o'quvchilar uchun, balki o'qituvchilar uchun ham keng mazmun va mohiyatga egaligi bilan ko'pgina pedagogik imkoniyatlar yaratdi. Yangi darsliklar o'quvchilarga fanga doir nazariy bilimlarni egallash bilan birga, ularga ushbu bilimlarni hayotga qanday tatbiq qilish kerakligini amaliy tarzda tushuntirib boradi. Darsliklar bilan tanishib, o'zlashtirib borayotgan o'quvchilar nafaqat ijodiy, mantiqiy fikrlay oladilar, balki muammolarga tanqidiy yondashib, o'z qarashlarini mustaqil bayon eta oladilar. Ta'lim sifatini oshirish, xalqaro olimpiadalarda bemaolol raqobatlasha oladigan barkamol avlodni tarbiyalash kabilar maqsad qilingan holda yaratilgan darsliklar albatta, ko'zlangan natijalarga erishadi. Chunki, yangi avlod darsliklarining xalqaro dasturlarga jalb qilinishi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu nafaqat ularning bilimni rivojlantirish, balki global miqyosda ta'lim olishga tayyor bo'lishlarini ta'minlaydi. O'zbekiston kabi mamlakatlar uchun bu jarayon o'quvchilarning xalqaro testlarda yaxshi natijalarga erishishiga, ularni zamonaviy va innovatsion yondashuvlarga tayyorlashga yordam beradi. Yangi

avlod darsliklari va xalqaro dasturlar orqali ta'lim sifatini oshirish, nafaqat o'quvchilar, balki butun mamlakat uchun ijobiy natijalar keltiradi. Shuning uchun, yangi avlod darsliklari ham o'quvchilar, ham o'qituvchilar uchun keng didaktik imkoniyatlar yaratdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ro'ziyeva Nigora Kamtarovna (2024), Boshlang'ich ta'limda yangi avlod darsliklarida integratsiyaning ahamiyati. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10802434>
2. Tojiyev B.B. (2024), Boshlang'ich sinfo'quvchilarida 4K ko'nikmalarini shakllantirish. ISSN: 2181-4066 DOI Journal 10.56017/2181-4066
3. Umarov B. Educational Development And "Future Skills". The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2021/1, p. 78
4. Madaminova I.R. (2023), Boshlang'ich ta'limda integratsiya. <https://newjournal.org/index.php/01/article/view/9676/9375>
5. Boymurodova Nodirabegim Bahodirqizi (2023), Boshlang'ich ta'limda milliy o'quv dasturi va yangi avlod darsliklarini amalga oshirishning didaktik asoslari. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10974/7093
6. Repyova I.V., Boshlang'ich sinf matematika darsligi 1,2,3,4-sinf, I qism. Toshkent-2023.
7. U.B. Aydarova, N.K. Azizova, O'qish savodxonligi 4-sinf. T-2023.
8. S. Kuranov, Ona tili 2-sinf. Novda nashriyoti, T-2023.
9. O.E.Tigay, Tabiiy fanlar 2-sinf. Novda nashriyoti, T-2023.
10. <https://kun.uz/news/2023/11/13/ilgor-pedagogik-texnologiyalar-asosida-yaratilgan-oqituvchi-yangi-darsliklar-haqida>
11. <https://daryo.uz/2023/10/14/yangi-avlod-darsliklari-boshlangich-sinf-darsliklarining-afzalliklari-va-jamoatchilik-etirozlari-haqida-video>.

YOSH AVLOD TA'LIM-TARBIYASIDA MA'NAVIY –AXLOQIY QADRIYATLARNING O'RNI

Raxmonova Gullola Shavkatovna

Buxoro davlat pedagogika instituti "Umumiy pedagogika" kafedrasi katta o'qituvchisi
gullolaraxmon76@mail.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada yosh avlod ta'lim jarayonida ma'naviy- axloqiy qadriyatlarining ahamiyati, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash birinchi masala darajasiga olib chiqishi, chuqur his-tuyg'uli, yuksak ma'naviy- axloqiy fazilatlarga ega shaxs qilib tarbiyalash, Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni mustaqil, erkin faoliyati orqali axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, qadriyat, axloq, faoliyat, fazilat, yosh avlod, mustaqil.

РОЛЬ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ВОСПИТАНИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ

Рахмонова Гулола Шавкатовна

Бухарский государственный педагогический институт, Старший преподаватель
кафедры "Общая педагогика" gullolaraxmon76@mail.ru

Аннотация: В данной статье написано о значении духовно - нравственных ценностей в процессе воспитания подрастающего поколения, выводе на первый уровень воспитания детей дошкольного возраста на основе общечеловеческих ценностей, воспитании как личности с глубоким чувством, высокими духовно-нравственными качествами, формировании нравственных качеств через самостоятельную, свободную деятельность детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: культура, ценности, мораль, деятельность, добродетель, подрастающее поколение, самостоятельность.

THE ROLE OF SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN THE UPBRINGING OF THE YOUNGER GENERATION

Rakhmonova Gulola Shavkatovna

Bukhara State Pedagogical Institute

Senior Lecturer at the Department of General Pedagogy

gullolaraxmon76@mail.ru

Abstract: This article describes the importance of spiritual and moral values in the process of educating the younger generation, bringing preschool children to the first level on the basis of universal human values, education as a person with deep feelings, high spiritual and moral qualities, and the formation of moral qualities through independent, free activity of preschool children.

Keywords: culture, values, morality, activity, virtue, the younger generation, independence.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish va jahon hamjamiyati tomonidan rivojlangan davlat sifatida o'rin olish vazifasi qo'yildi. Albatta yurtimizda jahon talablariga mos keladigan, har tomonlama rivojlangan, o'z kasbini puxta egallagan, vatanparvar fidoyi insonlarni tarbiyalab yetishtirishda ta'lim muassasalarida o'qitishni yanada yuksak bosqichga ko'tarish, uning tarbiya bilan uyg'unligini ta'minlash katta ahamiyatga ega.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarni tiklash, unutilgan anʼanalarini keng ommalashtirish va ularni chuqur o'rganish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Zero, O'zbekiston xalqining qadimgi urf-odat, anʼana va marosimlarga alohida e'tibor berishi ma'naviy tiklanish jarayoni jadal kechayotgan hozirgi kunning mahim dolzarb muammolardan biridir. Chunki, bolalarni yangicha ruhda tarbiyalash, ularning ongiga milliy qadriyatlarni chuqurroq singdirish, ajdodlarimiz yaratgan qadriyatlar mohiyatini keng targ'ib qilishda, anʼana va marosimlar mohiyatini anglash, ularni, ayniqsa bolalarga chuqurroq tushuntirish, milliy istiqlof mafkurasini yoshlar orasiga yoyishning ta'sirchan vositalaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, milliy qadriyatlar azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzodning yuksak ideallarini o'zida mujassam etgan. «Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, dinimizni, urf-odat va anʼanalarimizni bezavol saqlashda muqaddas qadriyatlarimiz qudratli omil bo'lib kelganligini alohida ta'kidlash joiz». Milliy va milliy qadriyatlarni tiklash asosida yosh avlodning mafkuraviy immunitetini shakllantirish, ularni o'rganish va targ'ib qilish, yoshlar ma'naviy madaniyati rivojiga qanday yo'llar bilan ta'sir etishni tadqiq etish bugungi kunning muhim vazifalardan biridir.

“Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”, deydi Shavkat Mirziyoyev.¹

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqishi va qobiliyatlari - ma'naviy manbalari va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqatida namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda uning mohiyatini tushunib yetish kerak.

Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yuq joyda biron narsaning qadr qimmatini haqida so'zlash bema'nilikdir. Shuning uchun ham inson qadr qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning barchasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson

¹ O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>

o'zini chinakam erkin his etishi, o'z mehnati natijasining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir. Kishining qurshab turgan cheksiz ko'p narsa va hodisalar, shu jumladan, milliy ma'naviyat ichidan ham, muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh, yoki konkret millat, yohud butun insoniyat uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo'lganlari qadriyat deyiladi. Milliy qadriyatlar deb, muayyan xalqning rasm-rusumi, an'anasi, fazilatlar, axloq va odobi, yashash tarzi, bayramlari, shu xalqning aksariyat qismi tomonidan e'zozlanishga loyiq bo'lgan inshootlar, milliy kiyimlar, uy-ro'zg'or buyumlari, ro'zg'or tutishlari aytiladi. Masalan, o'zbeklarning mehnatsevarligi, mehmondo'stligi xushxulqliligi va muloyimligi, g'ayratli va itoatgo'yligi, turli toifadagi odamlar bilan o'zaro inoqlashib ketishligi, kechirimliligi, mulohaza va tafakkur bilan ish ko'rishi, tinchliksevarligi o'zbek milliy qadriyatlari bo'lib hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalasiga e'tibor berilayotgan bo'lsada, bu borada o'z yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Tadqiqot ishlari, ilmiy izlanishlarda ko'proq ta'limiy muammolar, yangicha o'qitish texnologiyalari mavzulari ustida bahs yuritilmoqda. Aslida, Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash birinchi masala darajasiga olib chiqish, maqsadga muvofiqdir. Chunki jamiyat ravnaqi uchun faqat nazariy bilimlarga ega bo'lgan, mexanik mashina singari vazifalarini bajaruvchi kasb egalari emas, balki, eng avvalo chuqur his-tuyg'uli, yuksak ma'naviy- axloqiy fazilatlarga ega shaxslar zarur. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni mustaqil, erkin faoliyati orqali axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish mumkin.

Mustaqillik sharofati bilan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarimiz, axloq-odob, madaniyatimiz qayta tiklanib, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari mazmunining asosiga aylandi. Zero, o'sib kelayotgan yosh avlod o'z milliy qadriyatlarini, axloq-odob madaniyatini o'zlashtirishi va ularga hurmat bilan qarashi lozim. Shundagina u o'z yurtining haqiqiy vakili degan ulug' unvonga ega bo'ladi.

O'zbek xalqi tarixan Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash sohasida o'ziga xos dorulfunun yaratgan. Bu borada xalq pedagogikasi boy tajribaga ega. Bugungi kundagi Keyingi yillarda Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash an'analariga oid muammolar yuzasidan ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Olimlarimiz tomonidan yaratilgan bir necha risola, qo'llanma, ilmiy-tadqiqot ishlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Sh.Sharipov, B.Raximov, U.Nishonaliyev, N.Saidaxmedov, O'.Tolipov, S.Nishonova, R.Safarovlarning tadqiqot ishlari shular jumlasidandir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashning usul va vositalari muammosiga bag'shlangan tadqiqot ishlari ko'plab uchrasada, ammo ular asosan katta yoshdagi tarbiyalanuvchi va talabalar o'rtasida ushbu muammoning yechimini topishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Рахмонова Г. III. Технологии Развития Духовно-Нравственной Компетентности Студентов //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 45. – С. 306-309.
2. Sh R. G. The role of spiritual and moral education in the spiritual formation of students. – 2021.
3. Shavkatovna R. G., Bobirovna A. V. UMUMINSONIY AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA VA RIVOJLANTIRISHDA OILAVIY TARBIYANING O 'RNI //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1450-1454.
4. Raxmonova G. S., Abdunabiyeva F. N. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИ ВА ОИЛА НАМКОРЛИГИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 729-734.
5. Рахмонова Г. III. СОДЕРЖАНИЕ И ХАРАКТЕР ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЙ ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 5-8.

6. Shavkatovna R. G. OILADA BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASH SHAKLLARI //Proceedings of International Educators Conference. – 2024. – T. 3. – №. 5. – С. 53-56.

7. Valerievna I. G., Shavkatovna R. G. The Content and Characteristics of Spiritual and Moral Education Works in Higher Education Institutions //Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – 2024. – T. 2. – №. 5. – С. 340-342.

8. Рахмонова Г. Ш. ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ ОСНОВА БУДУЩЕГО //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 276-278.

9. Shavkatovna R. G. MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARI VA OILADA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 30. – №. 2. – С. 103-107.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MA'NAVIY - AXLOQIY KAMOL TOPTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH

Davlatboyeva Maftuna Ramat qizi
Guliston davlat universiteti psixologiya yo 'nalishi talabasi
davlatboyevamaftuna@gmail.com
+998772750602
Ravshanov Sobir Abdimalik o 'g 'li
GulDU, Pedagogika va psixologiya kafedrası o 'qituvchisi
sobirravshanov3@gmail.com +998999144472

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash, o'quvchilarni axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalq og'zaki ijodidan foydalanish, o'quvchilarini ma'naviy – axloqiy kamol toptirishda xalq pedagogikasidan foydalanish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodiyoti, tarbiya, maqol, qo'shiq, ertak, doston, fazilat.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОМ РАЗВИТИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В данной статье даны сведения об образовании учащихся начальной школы, об использовании народного устного творчества в нравственном воспитании учащихся, об использовании народной педагогики в духовно-нравственном развитии учащихся.

Ключевые слова: народное устное творчество, воспитание, пословица, песня, сказка, былина, добродетель.

USE OF FOLK PEDAGOGY IN PROMOTING THE SPIRITUAL AND MORAL DEVELOPMENT OF PRIMARY STUDENTS

Abstract: This article provides information on the education of primary school students, the use of folk oral art in the moral education of students, and the use of folk pedagogy in the spiritual and moral development of students.

Keywords: folk oral art, education, proverb, song, fairy tale, epic, virtue.

O'zbek xalq pedagogikasi eng qadimgi yozuv paydo bo'lishidan oldin shakllandi. Shunga ko'ra, u ilmiy pedagogikaning boshlanishi hisoblanadi. Xalqlar pedagogikasi inson, xalq bunyod bo'lgan davrdan boshlab mavjuddir.

Jamoatchilik xususiyati, hayotiylik, hayotiy ifodalilik – xalqlar pedagogikasining asosiy xususiyatidir. [1]

O'zbek xalq pedagogikasida har bir xalqqa xos donishmandlik, uning tili, atama va shevalarda yorqin ko'rinadi. Shu sababali ham xalq pedagogikasi keng mehnat ahliga

tushunarlidir. Ayrim atamalar iste'moldan chiqqanligiga qaramay, yozma adabiyotda, xalq ijodida yashamoqda, g'oyaviy- estetik vazifani bajarmoqda.

O'zbek xalq pedagogikasi boshqa xalqlar ma'naviy madaniyati bilan o'zaro aloqada boyib boradi. Xalqlar hayotida, urf- odat va an'analaridagi o'xshashlik ular yaratgan yodgorliklarda mavjuddir. Ammo bundan qat'iy nazar, har bir yodgorlik uni yaratgan, ijod etgan xalqqa mansubdir, uning milliy yodgorligidir. Shu sababli ham xalq ijodiy asarlarida milliylik xususiyati namoyondir. Asarlar nomi, ularda tilga olingan hudud, buyum, o'simlik, qushlar, hayvonlar, turmushda qo'llaniladigan asboblarning nomi ham buning yorqin dalilidir. Masalan, ipak qurti, atlas, deyilsa, avvalo, shubhasiz, ipakchilik o'zbek xalqiga xos milliy an'ana bo'lganligi tasavvur qilinadi. "Rustamxon", "Kuntug'mish" desak uning o'zbek xalqiga, "Manas" desak, u qirg'iz xalqiga, "Oysuluv" desak, u qozoq xalqiga xosligini anglaymiz. [2]

O'zbek xalq pedagogikasida xalq ijod etgan qo'shiqlar, ertaklar, rivoyatlar, qissalar, matallar, maqollar, topishmoqlar bolalar tarbiyasida, ularni hayotga tayyorlashda, bolalar o'rtasida ahillikni mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz yaratgan qo'shiq va o'yinlarda, ertak va dostonlarda, matal va qissalarda XI asrning buyuk tilshunosi, tarixchisi, etnografi Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari orqali bizgacha etib keldi. Mahmud Qoshg'ariy o'z asarida xalqning turli mavzularda yaratgan doston, ertak, matal, rivoyat, qissa, qo'shiq va xikoyalardan namunalar bergan. [3]

Yaproq ildizdan quvvat oladi. Shu yaproqning ko'rkam, chidamli, baquvvat bo'lishi ko'p jihatdan ildizga bog'liq. Ildiz baquvvat bo'lsa yaproqqa ko'rkamlilik, kuch - quvvat bag'ishlaydi. Shu gapimizni, shu g'oyani bugungi hayotga qo'yadigan bo'lsak, bola kamoloti to'g'risida so'z yuritadigan bo'lsak yaproq ildiz bilan baquvvat bo'lganidek, kichkintoy ham sog'lom fikrni, el sevarlikni, vatanparvarlikni, o'qimishli bo'lishni oiladan olishini hayotning o'zi taqozo qilib turibdi. Oilada xalq pedagogikasi-alla - qo'shiq, ertak, topishmoq, maqol, masal, tez aytish azaldan etakchi rol o'ynaganidek, bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. [4]

Hozirgi kunda o'tmish avlodlarning ko'p asrlar davomida va tarbiya sohasida orttirgan boy va ijobiy tajribasini o'zlashtirish asosida yosh avlodni respublikamizning mustaqillikka erishuvi yo'lida olib borilayotgan umumiy ishda faol ishtirok etadigan qilib kamol toptirishga alohida e'tibor berilmoqda. Shu tufayli ham respublika xalq ta'limi vazirligi xalq pedagogikasini tadqiq etishni, o'quvchilarni milliy - madaniy an'analar va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.. Bu esa xalqimiz qoldirgan milliy- madaniy merosni, ta'lim muassasalarida va oilada tarbiya sohasida qo'llanayotgan tajribalarni jiddiy o'rganib, ularga amaliy yordam ko'rsatishni taqozo etadi. [5]

Ma'lumki, o'zbek xalq pedagogikasi yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llangan usul va vositalar, tadbir shakllari, milliy urf- odat va an'analar, tarbiya haqidagi qoyalar mujassamdir. Xalq pedagogikasida ifodalangan g'oyalar, tajribalar xalq yaratgan afsonalarda, og'zaki ijod namunalarida, og'zaki, yozma yodgorliklarda o'z ifodasini topgan: ulug' mutafakkir olimlarning ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan asarlarida bayon etilgan. Buni biz xalq tomonidan yaratilgan doston, ertak, rivoyat, afsona, maqol, topishmoq, tez aytish, masallarda Ahmad Yassaviy, Sa'diy Sheroziy, Ahmad Yugnakiy, Rabg'uziy, Yusuf Xos Hojib, Munis Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zamahshariy, Gulxaniy, Furqat kabi mutafakkirlar hamda O'rta Osiyoda etishib chiqqan musulmon olamiga mashhur bo'lgan Imom Ismoil al - Buxoriy, Muhammad ibn Iso Termiziy asarlarida ko'ramiz. Bu ulug' allomalar o'zlaridan oldin o'tgan avlodlar donishmandligini kelgusi avlodlarga taqdim etdilar. [6]

Yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llangan usul va vositada, tadbir shakllari, urf- odat va an'analar, ta'lim- tarbiyadagi g'oyalar - hayotiy tajribalar o'zbek xalq pedagogikasi -qissalarda ham mujassamlashgandir.

Hali maktab bo'lmagan, pedagogika fan sifatida shakllanmagan davrlardayoq, qabila a'zolarining bolalar tarbiyasi sohasida orttirgan tajribalari hayotiy tajriba mevasi sifatida bizning davrga qadar etib keldi va xalq pedagogikasi shaklida tarkib topdi. Har bir jamiyatda yashagan xalq ruhi, do'stlik, birodarlik, mardlik, vatan va xalqqa sodiqlik g'oyalari ota- onalarning o'zaro

ahilligi, ular bilan farzandning o‘zaro mehr – muhabbati, qadr- qimmat, insoniy eng yaxshi fazilatlar u ijod etgan ertak, doston, maqol, topishmoq, latifa, askiya, rivoyat va masallarda tarannum etildi. Bu yodgorliklar o‘z muxtasarligi, qiziqarliligi, ravonligi, ohangdorligi, pandnomaliligi, g‘oyaviyligi bilan muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baturina G.I., Kuzina T.F. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda xalq pedagogikasi. M., 1995.-S. [1-8 bet]
2. Belarus xalq og‘zaki ijodi. Xrestamatyya. Berilgan sana 2-das. Sklali K.P. Kabashnika, A.S. Lis, A.S. Fyadosik, I.K. Tsishchanka Minsk, "Oliy maktab", 1977 [2-25 bet]
3. Berejnova, L.N. Etnopedagogika: darslik. L.N. Berejnova, I.L. Nabok, V.I. Shcheglov. - M.: nashriyot uyi. "Akademiya" markazi, 2007. - 240 b. [3-198 bet]
4. Ajdodlar o‘giti. Toshkent, 1991 y, 154-b.
5. Bobolardan-bolalarga (to‘plovchi Barakaev R), Toshkent, «Yulduzcha» nashriyoti, 1989 y. 125-b. [4-198 bet]
6. Baratov Sh. Kichik yoshdagi o‘quvchilar faoliyatini baholash. «O‘qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1992 y, 45 b. [5-23 bet]
7. Baratov N., Aliqulov X. O‘rta Osiyo mutafakkirlari axloq haqida. «O‘zbekiston» nashriyoti, Toshkent, 1974 y, 48-b. [6-19 bet]

ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA O‘QUVCHILARGA AXLOQIY TARBIYA BERISH YO‘NALISHLARI

*Jo‘rayeva Gulandom Murodullo qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi
jurayevagulondan8@gmail.com
Raxmonova Anastasiya Sergeevna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi*

Annotatsiya: mazkur maqolada Abdulla Avloniy ijodining axloqiy-tarbiyaviy mazmuni tahlil qilinadi. Avloniy asarlarida bolalarning ma‘naviy-axloqiy kamoloti, insoniy fazilatlarini shakllantirish, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni singdirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik harakalari, jamiyat, madaniyat, ilm-fan, jaholat, axloq, muallim

НАПРАВЛЕНИЯ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУЛЛЫ АВЛОНИ

Аннотация: В данной статье анализируется нравственно-воспитательное содержание творчества Абдуллы Авлони. В произведениях Авлони показаны пути содействия духовно-нравственному развитию детей, формированию человеческих качеств, привитию таких ценностей, как патриотизм, честность, трудолюбие.

Ключевые слова: Джадидистские движения, общество, культура, наука, невежество, мораль, учитель

DIRECTIONS FOR MORAL EDUCATION OF STUDENTS IN THE WORKS OF ABDULLA AVLONIY

Abstract: This article analyzes the moral and educational content of Abdulla Avloni's work. Avloni's works show ways to promote the spiritual and moral development of children, the formation of human qualities, and the instillation of values such as patriotism, honesty, and hard work.

Keywords: Jadidist movements, society, culture, science, ignorance, morality, teacher

Kirish. Islom ta‘limotining asosi Qur‘oni karimda Alloh mo‘minlariga “Beshikdan qabrgacha ilm izla”, deya muruvvat-u mukarramlilik qilgan edi. Hadislarda bu fatvo yanada

yorqinlik kasb etgan. Zotan, buyuk mutaffakkir Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”, deb bejiz aytmagan. Farzand tarbiyasi shaxsiy masala emas, u davlat, jamiyat ahamiyatiga ega bo‘lgan buyuk ijtimoiy ishdur, u shu darajada buyuk ishki, Vatan istiqboli ham, millat taqdiri ham tarbiya bilan bog‘liq. Avloniy so‘zlari bilan aytganda «...tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir». Abdulla Avloniy inson tarbisini bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uch yo‘nalishga bo‘ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasi.

Tadqiqot maqsadi. Maqola mavzuga doir ilmiy, o‘quv-metodik adabiyotlarning qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish, uzviylik va uzluksizlik kabi pedagogik tamoyillar asosida yoritilgan bo‘lib, o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashda va o‘qitishda Abdulla Avloniy asarlarida ushbu masalalarga doir fikrlari tadqiq etilgan.

Inson uchun avvalo badan salomat bo‘lmog‘i zarurdir, badan sog‘ bo‘lgandagina inson uchun zarur bo‘lgan boshqa amallarni singdirish mumkin. Buning uchun ichkilik, ko‘knor, nasha kabi inson badanini bevaqt zalolatga, tubanlikka olib boruvchi, salomatlikka zarar, «ba’zi harom, ba’zi makruh» narsalardan asrashi kerak. Bu esa Avloniy yozishicha, fikr tarbiyasi uchun zamin yaratadi. Fikr tarbiyasi farzandni komil inson darajasiga ko‘tarishda muhim omil hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda asosiy mas’uliyat o‘qituvchi zimmasiga tushadi. Chunki muallim dars jarayonida o‘quvchilarni fikrlashga, hari qanday voqea-hodisaning mohiyatini chuqur idrok qilishga o‘rgatadi. Bu o‘rinda A. Avloniy ta’lim va tarbiya birligiga alohida ahamiyat beradi.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Abdulla Avloniy ijodiy faoliyatini yoritar ekanmiz, uning 1913 yildan boshlab xalqni madaniyatli qilish maqsadida teatr sohasiga kirishib, boshliq sifatida Turkistonning bir nechta shaharlariga borib, teatr sohasini rivojlantirishga intildi. Masalan, ma’rifatparvar tomonidan 10 ga yaqin Ozarbayjon pyesalari o‘zbekchaga tarjima qilinib, sahnalashtirilgan, shuningdek, o‘zi 3 ta pyesa yozib, "Turon" nomli teatr xayriya jamiyatiga asos soldi. Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to‘rt qismdan iborat „Adabiyot yoxud milliy she’rlar“ hamda „Birinchi muallim“, „Turkiy guliston yoxud axloq“, „Ikkinchi muallim“, „Maktab gulistoni“ kabi darsliklari ham xarakterli bo‘lib hisoblanadi. Bu asarlardagi mukammal fikrlarning g‘oyaviy to‘liqligi, ta’lim-tarbiya tizimiga va tushunchalariga doir fikrlarning ilmiy-nazariy asoslanganligi yuqoridagi fikrlarimiz dalilidir. boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida kitobxonlik yoki she’riyat kechalarini targ‘ib etishda ham Avloniyning asarlari qo‘l keladi. Ma’lumki, o‘quvchilar nutqini rivojlantirish maqsadida o‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatish ona tili o‘qish savodxonligi darslarining asosiy vazifasi, ta’limiy vosita vazifasini bajaruvchi ma’lum bir asar voqealari ifodali o‘qish orqali o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantirilgan.

Avloniy bola tarbiyasini uning odob axloqi haqida fikrni ilgari surdi. Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda 4 bo‘limga ajratadi:

1. Tarbiyaning zamoni.
2. Badan tarbiyasi.
3. Fikr tarbiyasi.
4. Axloq tarbiyasi hamda uning ahamiyati xususida fikr yuritadi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. „Tarbiyaning zamoni“ bo‘limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta’kidlaydi. Albatta xalqimiz orasida “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” degan naql yuradi. Tarbiya xususiy ish emas, milliy ijtimoiy ishdur.

Adib xulq borasida fikr bildirar ekan, ayni vaqtda ularni ikkiga: yaxshi va yomon xulqlarga bo‘ladi. "Yaxshi xulqlar: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g‘ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va afvdur". Insonning jamiyatdagi martabasi yaxshi xulqi bilan belginadi. Avvalo, farzandlarning tarbiyalisi ham oilada, ham qarindosh -urug‘ ichida, ham do‘stlari orasida suyukli va hurmatga sazovor bo‘ladi. Bu uning oila va kichik jamiyat bo‘lmish maktabdagi martabasini oshiradi. Ota-ona farzandini hamisha yaxshi ko‘radi.

Lekin yaxshi xulq sohibi bo'lgan farzand boshqalariga nisbatan ota-ona diliga yaqin bo'ladi. Buning uchun, albatta, ota-ona ham tarbiyasi, ilmi, yaxshi xulqli bo'lmog'i kerak! Bola ulg'ayadi, maktabga boradi, oliygohga kiradi, ishlaydi, jamiyat bilan hamisha bevosita aloqada bo'ladi. Keyin esa jamiyat uning xulqiga baho beradi. Qanday deysizmi? Go'zal axloq egasi qayergaki borsa do'st orttiradi, boshliqlari qoshida mehnatkash va hurmatli xodim hisoblanadi. Bularning barchasiga yaxshi xulqlar bilan erishadi. Sabr qilib ilm oladi, g'ayrat bilan bilimni ko'paytiradi, iffati va hayosi bilan yomonliklardan saqlanadi, munis va dilbarligi bilan do'stlar orttiradi. Ko'rinib turganidek, yaxshi sifatlar bir-birini taqozo qilib kelmoqda. Ularning orasida birorta yomon xulq aralashsa, zanjir zanglab uziladi.

"Fatonat aql egasi bo'luv demakdir". Aql - mehnatlar evaziga qo'lga kiritiladi. Aql sohibi har bir ishini chuqur mulohaza qilib bo'lgach, boshlaydi. Turli xil vaziyatlarga munosib javob topa oladi. Undagi ilm ham o'ziga, ham atrofdagilarga, ham o'zidan qoldirajak avlodlariga xazina kabi asqatadi. "Ruh ishlovchi, aql esa boshlovchidir".

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'langan. Uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jadidlar. Abdulla Avloniy. Nashrga tayyorlovchi B.Qosimov. –T.: Zabardast media. 2022.-B.246-249-313.
2. B.Qosimov. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti//Ma'naviyat// Toshkent, 2004.
3. K.Hashimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi II. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent — 2005.
4. Avloniy. A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi, 1992
5. Boboxonov A., Maxsumov M., Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati. –T.: 1997-y.
6. Hoshimov K., Inomova M.. Pedagogika tarixi. Toshkent. 2006-yil.
7. Maxmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent. 1999-yil.
8. Mahmudova G. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. -T.: Davr-press, 2006-y.
9. Muhammadjonova L., Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. –T.: O'zMU. 2007-y.

SHARQ VA G'ARB NOTIQLARI MEROSIDA NUTQNI RIVOJLANTIRISH MASALASI TAHLILI

*Abdugopporova Odinaxon Hoshimjon qizi
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti*

E-mail: odinaabdugopporova@gmail.com Phone number: +998940951637

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq va G'arb notiqlik an'analari asosida nutqni rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. Muallif tarixiy manbalar va taniqli notiqnlarning merosiga tayanib, qadimdan shakllangan notiqlik san'ati maktablari, ularning asosiy tamoyillari, nutq madaniyati va ta'sirchanlik uslublarini qiyosiy o'rganadi. Sharqdagi Forobiy, Nizomiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar bilan G'arbdagi Aristotel, Siseron, Kvintilian kabi notiqnlarning fikr va qarashlari o'zaro solishtirilib, ularning zamonaviy nutqni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Maqola nutq madaniyatini oshirish, ta'sirchan va mantiqiy ifoda qilish ko'nikmalarini shakllantirishda tarixiy-notiqlik merosining o'rni va imkoniyatlarini ochib beradi. Tadqiqot natijalari pedagogik va filologik yo'nalishdagi izlanishlar uchun foydali ilmiy-metodik asos bo'la oladi.

Kalit so'zlar: Sharq notiqligi, G'arb notiqligi, notiqlik san'ati, nutq madaniyati, tarixiy meros, Forobiy, Aristotel, ta'sirchan nutq, ritorika, nutqni rivojlantirish.

ANALYSIS OF THE PROBLEM OF SPEECH DEVELOPMENT IN THE HERITAGE OF EASTERN AND WESTERN SPEAKERSHIPS

Annotation: This article analyzes the issue of developing speech based on the traditions of Eastern and Western oratory. Based on historical sources and the heritage of famous orators, the author comparatively studies the ancient schools of oratory, their basic principles, speech culture, and methods of persuasion. The ideas and views of thinkers such as Farabi, Nizami, and Alisher Navoi in the East and orators such as Aristotle, Cicero, and Quintilian in the West are compared, and their significance in the development of modern speech is highlighted. The article reveals the role and possibilities of the historical and oratory heritage in improving speech culture and forming the skills of effective and logical expression. The results of the research can serve as a useful scientific and methodological basis for research in pedagogical and philological directions.

Keywords: Eastern oratory, Western oratory, oratory, speech culture, historical heritage, Farabi, Aristotle, influential speech, rhetoric, speech development.

АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ РЕЧИ В НАСЛЕДИИ ВОСТОЧНЫХ И ЗАПАДНЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация В данной статье анализируется вопрос развития речи на основе традиций восточного и западного ораторского искусства. На основе исторических источников и наследия известных ораторов автор проводит сравнительное исследование древних школ ораторского искусства, их основных принципов, культуры речи, приемов выразительности. Сравниваются идеи и взгляды таких мыслителей, как Фараби, Низами, Алишер Навои на Востоке и таких ораторов, как Аристотель, Цицерон, Квинтилиан на Западе, а также подчеркивается их значение в развитии современной речи. В статье раскрываются роль и возможности историко-ораторского наследия в совершенствовании культуры речи, формировании навыков эффективного и логичного выражения. Результаты исследования могут служить полезной научно-методической основой для исследований в педагогическом и филологическом направлениях.

Ключевые слова: восточное ораторское искусство, западное ораторское искусство, ораторское искусство, речевая культура, историческое наследие, Фараби, Аристотель, влиятельная речь, риторика, развитие речи.

Notiqlik san'ati – insoniyat tafakkuri va ijtimoiy hayotining eng muhim madaniy ifodalaridan biri hisoblanadi. Ritorika, ya'ni notiqlik ilmi, qadimdan buyon odamlar orasidagi muloqot, fikr almashinuvi va ishontirish vositasi sifatida shakllanib kelgan. Ritorikaning asosiy vazifasi – fikrni mantiqiy, aniqlik bilan, ta'sirchan uslubda yetkazish, tinglovchining qalb va tafakkuriga ta'sir o'tkazishdan iborat. Ko'rinib turibdiki, ritorika ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarni jamoatchilik muhokamasi va hal etish zaruratidan kelib chiqqan. Notiqlik san'ati boshqaruvning demokratik shakllari va fuqarolarning siyosiy hayotdagi faol ishtiroki tufayli rivojlanganligini tarix tasdiqlaydi.

Nutq madaniyati deganda esa, insonning fikrni aniq, tushunarli, ma'naviy-estetik mezonlarga mos tarzda ifodalash mahorati tushuniladi. Bu madaniyat faqat texnik ko'nikma emas, balki axloqiy, estetik, muloqotga oid fazilatlar yig'indisidir. Shu boisdan ham qadimdan buyon Sharq va G'arb notiqqlari tafakkurida nutq madaniyatining rivoji doimo alohida e'tibor markazida bo'lgan.

Sharq falsafasida nutq – tarbiyaning vositasi hisoblanib kelgan. Qadimgi Sharqda notiqlik va so'z san'ati ko'proq falsafiy, axloqiy va badiiy-estetik mazmunda qaralgan. Bu mintaqada nutq nafaqat muloqot vositasi, balki insonni ma'naviy yuksaltiruvchi kuch sifatida talqin qilingan. Jumladan, Al-Farobiy "Ritorika", "Fozil odamlar shahri", "Aql ma'nolari" kabi asarlarida nutqning jamiyatdagi o'rni, uning ma'naviy va axloqiy asoslari haqida chuqur fikr yuritadi. U notiqlikni aql bilan boshqariladigan, jamiyat manfaatiga xizmat qiladigan san'at sifatida ta'riflaydi. Farobiy fikricha, nutq kishilarni fozillikka, haqiqatga yetaklashi kerak. U

ritorikani mantiq bilan bog'laydi va uni axloqiy-falsafiy tarbiya vositasi deb biladi. "Nutq orqali insonlarni foydali ishlar sari yo'naltirish mumkin.

Notiqlik san'ati – bu odamlarni oqilona va adolatli yo'lga boshlovchi ilm." [Farobiy, Ritorika"] Qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri "Qobusnoma" (1082-1083)da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz gaplar aytilgan bo'lib, ular hozir ham ma'lum darajada ahamiyatini yo'qotmagan. Kaykovus tomonidan yozilgan bu asarda shunday deyiladi: "Yaxshi so'zlashga o'rgan va muloyim so'zlashdan boshqa narsani odat qilma, negaki qanday so'zni gapirishni istasang, til shuni gapiradi. So'zni o'z joyida so'zla, joyida aytilmagan so'z, agar u yaxshi so'z bo'lsa ham, yomon ko'rinadi".

Nutq madaniyati, so'zning qadri, undan foydalanish to'g'risida XII-XIII asr mutafakkirlari Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, o'z zamonasining buyuk shoirlaridan biri Amir Xusrav Dehlaviy (XIV asr) va albatta, o'zbek mumtoz adabiy tilining homiysi bo'lgan Alisher Navoiy o'zbek tilining boyliklarini namoyon etib, XV asrda olamga mashhur adabiy asarlar yaratishga qodir til ekanini namoyon qildi. Navoiy badiiy nutqni yuksak darajada san'at darajasiga olib chiqqan. U "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-Tayr", "Xazoyin ul-maoniy" kabi asarlarida hikmatli, mazmunli, axloqiy g'oyalarga boy iboralar orqali fikrni yetkazish uslubini mukammallashtirgan. Navoiy badiiy nutq orqali jamiyatdagi axloqiy illatlarni fosh etgan, yaxshi xulq, haqiqat va poklikni targ'ib qilgan.

Notiqlik haqidagi tushunchalar va uning paydo bo'lishini ta'minlagan an'analar qadimdan mavjud bo'lib, o'zida keng ko'lamli amaliyot va tajribalarni aks ettiradi. Bu esa notiqlik san'ati haqidagi zamonaviy talablarning yanada xilma-xilligiga olib keldi. Har bir shaxsning uni harakatga undaydigan, xabardor qiladigan va ishontiradigan nutq haqida o'z mezonlari bor. Ko'p jihatdan, bu mezonlarga insonning shaxsiyatini tashkil etuvchi madaniyatlar va tarixlar, shuningdek, muloqot qilishni tanlagan madaniy ob'yektlari ta'sir qiladi. Jumladan, g'arb notiqolari tamaddunida ham notiqlik tarixi turli davlat, shaxs va voqealar bilan chambarchas bog'liq. Bulardan qadimgi Yunoniston va Rim so'z san'ati – ritorikaning paydo bo'lishi va rivojlanishida salmoqli o'rin tutadi. O'tmishda va o'tmishga oid adabiyotlarda alohida nutqiy mahorat bo'lgan notiqlik ko'rinishlari odamlarning kundalik nutqidan, nutqiy faoliyatidan farqlanganligi to'g'risida manbalar keltirilgan. Masalan, Qadimgi Yunoniston va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratilib, keyinchalik Yevropa nutq madaniyatiga bag'ishlangan fanning maydonga kelishiga asos bo'ldi.

Nutq madaniyati notiqlik san'atini yaxshi egallagan rahbar so'z qudratidan foydalanib, odamlarni o'ziga qarata oladigan haqiqiy yo'lbo'shchiga aylanadi. Bu esa oson ish emas. Rimning buyuk notig'i Sitseron "Suxandonlik shunday sifatki, unga osonlikcha erishib bo'lmaydi va u juda ko'p bilim va mehnatdan tug'iladi", degan edi. Amerikalik siyosatchi va tadbirkot D.D.Uepster shunday degan: "Menda bor bo'lganbarcha narsani olib qo'ying. Menga so'zlash qobiliyatimni qoldirsangiz bas. Shunda men tez orada barcha yo'qotgan narsalarimni qayta qo'lga kiritaman". Darhaqiqat, bu e'tirof ortida katta hayotiy tajriba, tinimsiz izlanish yashiringan.

Konfutsiy (Xitoy), Zardusht (Eron), Vedalar (Hindiston) ta'limotlarida ham nutqqa axloqiy-estetik vosita sifatida qaraladi. Jumladan, Konfutsiy: "So'zda aniqlik bo'lmasa, amalda buzilish bo'ladi" deya notiqlikning jamiyat uchun muhimligini ta'kidlagan. Qadimgi Yunoniston va Rim notiqlik maktablari asosan siyosiy, huquqiy va falsafiy kontekstda shakllangan. Bu an'anada nutq orqali odamlarni ishontirish, ularni siyosiy qarorlar qabul qilishga undash muhim rol o'ynagan.

Aristotel "Ritorika" asarida notiqlikni nazariy jihatdan tahlil qilib, uning asosiy elementlarini belgilab beradi:

Logos – mantiqiy dalil,

Ethos – notiqning ishonchliligi,

Pathos – tinglovchining hissiyotiga murojaat.

Aristotelga ko'ra, notiqning vazifasi – mavjud fikrlarni to'g'ri tizimga solib, ularni kerakli uslubda taqdim etishdir.

Platon notqlikni falsafaning bir qismi deb biladi. Unga ko'ra, chinakam notqlik – bu haqiqatni ifoda etish, yolg'on orqali emas, bilim orqali ishonitirishdir. Sokrat esa savol-javob asosidagi dialoglar orqali haqiqatga yetishish usulini qo'llagan.

Rim notqligining eng yirik namoyandasi Tsitseron bo'lib, u notqlikni amaliy faoliyatga moslashtirgan. U nutqni quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1. Inventio – mavzuni tanlash, dalillarni yig'ish,
2. Dispositio – rejalashtirish,
3. Elocutio – bezash, uslub,
4. Memoria – yod olish,
5. Pronuntiatio – ta'sirchan ijro.

Tsitseron uchun notiq – bu siyosiy yetakchi, jamiyatga yo'l ko'rsatuvchi shaxsdir. Notqlik haqidagi tushunchalar va uning paydo bo'lishini ta'minlagan an'analar qadimdan mavjud bo'lib, o'zida keng ko'lamli amaliyot va tajribalarni aks ettiradi. Bu esa notqlik san'ati haqidagi zamonaviy talablarning yanada xilma-xilligiga olib keldi. Har bir shaxsning uni harakatga undaydigan, xabardor qiladigan va ishonitiradigan nutq haqida o'z mezonlari bor. Ko'p jihatdan, bu mezonlarga insonning shaxsiyatini tashkil etuvchi madaniyatlar va tarixlar, shuningdek, muloqot qilishni tanlagan madaniy ob'yektlari ta'sir qiladi. Jumladan, sharq va g'arb tamaddunida ham notqlik tarixi turli davlat, shaxs va voqealar bilan chambarchas bog'liq. Qadimgi Sharq va G'arb notqligi orasida umumiy jihatlar mavjud bo'lsa-da, asosiy maqsad va metodologiyada farqlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Г.Е. Халикулова. Сценическая речь. Ташкент-2007
2. Г.Е. Халикулова. Народный поэт Узбекистана Мухаммад Юсуф певородного края и любви. Международная конференция, стр. 154-159
3. Г.Е. Халикулова. Актуальные проблемы подготовки высококвалифицированных научных и научно-педагогических кадров институте. Театр// – Ташкент: 2014, стр. 9-10.
4. Г.Е. Халикулова. Проблемы создания персонажей в театральных постановках. Роль искусства и культуры в формировании духовности человека /Республика...
5. Г.Е. Халикулова. Проблемы гармонии речи и движения в создании пьесы. Творчество Мукарамы Тургунбаевой и развитие ее узбекской сценической хореографии...
6. Г.Е. Халикулова. Формирование сценической речи в профессиональных спектаклях и роль системы Станиславского в развитии театрального искусства. Университет культуры и искусств в мировом образовательном пространстве: Российский...
7. Г.Е. Халикулова. Новые стилистические исследования, совершенствующие дыхание в овладении навыками сценической речи актера. Сохранение национальности в области хореографии в условиях глобализации...
8. Г.Е. Халикулова. Современный руководитель озабочен повышением профессиональной речи женщины. "Женщина - расцвет духовности" ЖизПи., 4-я Республиканская научно-практическая конференция...

BADIIY ASARDA OBRAZLAR TIZIMI, EPIZODLARNI TAHLIL QILISHNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

*Ergasheva Muyassar Anvarovna
Osiyo Xalqaro Universiteti 1-bosqich magistranti.
Email: muyassarxonergasheva161@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqola badiiy asarda obrazlar tizimi va epizodlarni tahlil qilishning didaktik xususiyatlarini yoritadi. Asarda ko'rib chiqilgan obrazlar tizimi orqali muallif o'z g'oyalarini, hissiyotlarini va qadriyatlarini ifodalay boshqaradi. Epizodlar tahlili, o'quvchilarga qahramonlarning rivojlanishi va voqealar birligining ahamiyatini tushuntiradi.

Kalit soʻzlar: Badiiy asar, obrazlar tizimi, epizodlar tahlili, didaktik xususiyatlar, taʼlimiy qadriyatlar

DIDACTIC FEATURES OF ANALYSIS OF THE SYSTEM OF IMAGES AND EPISODES IN A WORK OF ART

Ergasheva Muyassar Anvarovna,

1-st year Master's Student, Asian International University.

Email: muyassarxonergasheva161@gmail.com

Annotation: This article explores the didactic characteristics of analyzing the system of images and episodes in literary works. The article examines how the system of images serves to convey the author's ideas, emotions, and values. The analysis of episodes helps students understand the development of characters and the interconnectedness of events.

Key words: Literary work, system of images, analysis of episodes, didactic characteristics, educational values.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНАЛИЗА СИСТЕМЫ ОБРАЗОВ И ЭПИЗОДОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ

Ергашева Муяссар Анваровна,

магистрант 1-го курса,

Азиатский Международный Университет.

Email: muyassarxonergasheva161@gmail.com

Аннотация: В данной статье освещаются дидактические особенности анализа системы образов и эпизодов в художественном произведении. Через систему образов, рассматриваемых в произведении, автор выражает и направляет свои идеи, чувства и ценности. Анализ эпизодов разъясняет читателям важность развития характеров и единства событий.

Ключевые слова: Художественное произведение, система образов, анализ эпизодов, дидактические особенности, воспитательные ценности

Adabiyot-insonning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini, his-tuygʻularini hayotda chiroyli ifoda eta olish qobiliyatidir. Badiiy asarlar va sheʼriyatga oshno boʻlgan qalblar aslo oʻzgaga yomonlikni ravo koʻrmaydi. Soʻz ila qalamni uygʻunlashtira olgan kishilar bir buyuklik boʻlsa, uni oʻsha darajada tushunmoqlik ham xuddi shunday darajaga munosibdir. Badiiy asarlar nafaqat sanʼatning bir turi, balki ularning taʼsiri va oʻrgatish imkoniyatlari ham juda muhimdir. Yuksak zakovatga ega boʻlgan pedagog oʻz oʻquvchilariga asarning mazmuni, asl mohiyati, obrazlar talqinini mohirlik bilan tushuntirib bera olsa, jamiyatning maʼnaviyatini sekinlik bilan yuksalishiga sabab boʻla oladi. Har bir badiiy asar oʻz ichida bir nechta obrazlarni, epizodlarni va ularning oʻzaro aloqalarini mujassam etadi. Ushbu maqolada badiiy asarlarda obrazlar tizimi va epizodlarni taqdim etish, ularni didaktik jihatdan taʼlimda qoʻllash imkoniyatlarini koʻrib oʻtamiz.

Badiiy asarda obrazlar tizimi muhim xususiyatlarga ega. Obrazlar asar davomida oʻzaro bogʻlanib, muayyan syujetni yaratadi va oʻquvchiga asosiy gʻoyani yetkazadi. Bu obrazlar orqali oʻquvchi asl mazmunni anglab, toʻgʻri xulosa chiqara olishi, hayotda ham keng fikrlay olishi kerak. Badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda, badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy taʼsir kuchiga ega boʻlgan surati badiiy obraz deyiladi. Obraz (timsol) tushunchasining keng va tor tushunchalari mavjud. Keng maʼnodagi obraz tushunchasi ijodkorning fikr-tuygʻulari singdirilgan hayot manzarasini anglatadi. Tor maʼnoda esa badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini ifodalaydi. Obrazlar tor maʼnoda qoʻllanganda quyidagi turlarga boʻlinadi:

Asosiy Obrazlar: Asarning markaziy qahramonlari boʻlib, ularning oʻzaro munosabatlari va harakatlari asar mazmunini belgilaydi. Asosiy obrazlar butun asarning boshidan toʻsongiga qadar ishtirok etadi. Masalan: “Oʻtgan kunlar” asarida Otabek, Kumush va Zaynab asosiy qahramonlar boʻlib, ularning asarda yoritgan rollari xalqimiz orasidagi insonlarni, ularning dardini, turmush-tarzinini, kamchilik va yutuqlarini ifoda etadi.

Ikkinchi darajali obrazlar: Asosiy qahramonlarni to'ldiradigan, ularning xarakterini va motivatsiyasini ochuvchi obrazlar. Bunday qahramonlar asosiy obrazlarga qanday ta'sir etishini, hayotiy jarayonda ham ularning o'zni va ahamiyatini yetkazib beradi. Har bir shaxs o'z hayotining asosiy obrazidir. Biz ikkinchi darajali obrazlarni, yashash muhitimizda qanchalik o'zni borligini badiiy asarlar misolida ham ko'rsak bo'ladi.

Simvolik Obrazlar: Ular muayyan g'oya yoki tushunchalarni ifodalaydi va asarning chuqur ma'nosini ochib beradi. Borliqni o'z holicha emas, badiiy aks ettirishning turlaridan biri ramz hisoblanib, u qadimdan to bugungi adabiy jarayongacha yashab kelmoqda. Ramziy obrazlarni o'rganish rus adabiyotshunosligida kengroq suratda XX asr boshlaridan amalga oshirildi. N. Kostomarov [Kostomarov, 1860] xalq og'zaki ijodi poetikasi bo'yicha shug'ullangan folklorshunoslar ichida birinchilardan bo'lib, bu borada samarali ishlarni olib borgan. Simvol – belgidagi mohiyat va ifoda o'rtasida ichki bog'lashining bo'lmasligini matematik, fizik, ximik simvollarda uchratishimiz mumkin. [Sharopov 1978: 120]. Bunday obrazlarga misol keltiradigan bo'lsak, masalan, she'r-jasurlik, mardlik tushunchalarini bersa, qaldirg'och-do'st tushunchasini bera oladi.

Epizodlar — badiiy asarda muayyan voqealar yoki qahramonlarning harakatlarini o'z ichiga oladigan qismlar. Epizodlarning tahlili orqali o'quvchilar asarning mazmuni va tuzilishini yaxshiroq tushunishlari mumkin. Epizodlarni tahlil qilish jarayonida quyidagi jihatlariga e'tibor berish lozim: Epizodning asosiy g'oyasi: Har bir epizodda o'ziga xos g'oya va ma'no mavjud. O'quvchilar bu g'oyalarni aniqlashlari kerak. Qahramonlarning harakati va motivatsiyasi: epizodda ishtirok etayotgan qahramonlarning harakatlari va motivlari ularning xarakteri haqida muhim ma'lumotlar beradi.

Epizod va asosiy syujet o'rtasidagi aloqa: har bir epizod asarning umumiy syujetiga qanday ta'sir o'tkazishini tahlil qilish lozim.

obrazlararo munosabatlar: epizod ichidagi obrazlarning o'zaro aloqalari, ularning bir-biriga ta'siri va o'zaro munosabatlari o'rganilishi kerak.

Badiiy asarlar didaktik xususiyatlari o'quv jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ushbu xususiyatlar yordamida ta'lim jarayonida quyidagi maqsadlarga erishish mumkin:

Tashkiliy qobiliyatlarni rivojlantirish: obrazlar va epizodlar orqali o'quvchilar boshqalar bilan hamkorlik qilish va fikr almashish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tanqidiy o'ylashni rivojlantirish: epizodlarni tahlil qilish va obrazlarni o'rganish jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi.

Empatiya rivojlantirish: qahramonlarning his-tuyg'ularini tushunish imkoniyati o'quvchilarda empatiya hislarini shakllantiradi.

Axloqiy saboqlar: Badiiy asarlar, ko'p hollarda, axloqiy saboqlar va qadriyatlarni ifodalaydi. O'quvchilar ushbu saboqlar orqali o'z ichki dunyolarini boyitishi mumkin.

Badiiy asarda obrazlar tizimi va epizodlarni tahlil qilishning didaktik xususiyatlari ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega. O'quvchilar badiiy asarlarni o'rganish orqali nafaqat o'z bilimlarini kengaytirish, balki insoniy his-tuyg'ularini tushunish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu sababli, badiiy asarlarni ta'limda qo'llash, ta'lim jarayonini yanada boyitadi va o'quvchilarni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Костомаров Н. Об историческом значении русской народной поэзии. – Харьков. 1860. С.130.
2. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. 346-b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati 3-tom. –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. 346-b
4. Qur'onov Dilmurod va b. Adabiyotshunoslik terminlar lug'ati. –T.; Akademyanashr, 2010.125-b.

5. Kostamarov N. Obistoricheskoy znachii russkoy narodnoy poezii. Xarkovyu1860 Sharopov Asqarali. Olamlar ichra olam. – T.; G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1978. 120-

6. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/symbol>

7. Boltaboev Hamidulla. Adabiyot entsiklopediyasi. – T.: Mumtoz so’z, 2014. 290

8. Losev A.F. Logika simvola. Losev A.F. Filosofiya. Mifologiya. Kulʼtura. - M.,1991. - S.258

9. Imomov K.O’zbek folʼklorida Humo qushi.//O’zbek tili va adabiyoti.2011-yil,5-son,21

ERTAKLAR ORQALI AXLOQIY TARBIYA BERISHNING SAMARALI USULLARI

N.O.Safarova

Buxoro davlat pedagogika instituti professori.

Y.M.Ostanaqulova

Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 3-kurs talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalq og’zaki ijodining eng qadimiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega janrlaridan biri – ertaklarning axloqiy tarbiya vositasi sifatidagi roli yoritilgan. Ertaklarning bolalar axloqiy ongini shakllantirishdagi o’rni, 2-sinf darsliklaridagi namunalarga tayangan holda, samarali pedagogik yondashuvlar orqali ochib berilgan. Metodik tavsiyalar asosida o’qituvchining darsda ertaklardan foydalanish yo’llari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Ertak, axloqiy tarbiya, xalq og’zaki ijodi, boshlang’ich ta’lim, metodika, o’qish savodxonligi, 2-sinf, tarbiyaviy yondashuv

EFFECTIVE METHODS OF MORAL EDUCATION THROUGH FAIRY TALES

N.O.Safarova

Professor of the Bukhara State Pedagogical Institute.

Y.M.Ostanakulova

3rd year student of the primary education department.

Annotation: This article highlights the role of fairy tales – one of the oldest and most educational genres of folk oral literature – as a means of moral education. It discusses the importance of fairy tales in shaping children’s moral thinking, based on examples from 2nd-grade textbooks, and presents effective pedagogical approaches. Methodical recommendations for teachers to apply fairy tales in the classroom are also analyzed.

Keywords: Fairy tale, moral education, oral folk literature, primary education, methodology, reading literacy, 2nd grade, educational approach

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ЧЕРЕЗ СКАЗКИ

Н.О.Сафарова

Профессор Бухарского государственного педагогического института.

Й.М.Останакулова

Студентка 3 курса факультета начального образования.

Аннотация: В статье освещается роль сказки, одного из древнейших и педагогически значимых жанров народного творчества, как средства нравственного воспитания. Роль сказки в формировании нравственного сознания детей раскрывается через эффективные педагогические подходы, на примерах из учебников 2 класса. На основе методических рекомендаций анализируются способы использования учителем сказок на уроке.

Ключевые слова: Сказка, нравственное воспитание, народное творчество, начальное образование, методика, грамотность чтения, 2 класс, образовательный подход

Xalq ertaklari bolalar uchun tarbiyaviy manba sifatida qadimdan qadrlanib kelgan. Ularda xalqning axloqiy qadriyatlari, hayotiy saboqlari, shuningdek, ezgulik va yovuzlik, halollik va hiyla, aql va kuch kabi tushunchalar badiiy shaklda ifodalanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayonida ertaklar orqali bolalarda axloqiy ongning shakllantirish, insoniy fazilatlarni singdirish o'qituvchining muhim vazifasidir.

Bugungi ta'limda zamonaviy metodlardan foydalangan holda ertaklarni faqat o'qitish emas, balki ularning mazmunidan tarbiyaviy xulosa chiqarish, o'quvchini mustaqil fikrlashga undash asosiy maqsad qilib olinmoqda.

1. Ertaklar orqali beriladigan asosiy axloqiy tushunchalar:

Ertaklarda odatda quyidagi axloqiy g'oyalar ilgari suriladi:

Halollik va rostgo'ylik (rostgo'y qahramonlar yutadi)

Sabr-toqat (sabrli qahramonlar mukofotlanadi)

Aql va hozirjavoblik (Tulki kabi epchil obrazlar orqali)

Yaxshilik va ezgulik (yaxshi niyatli qahramonlar g'olib bo'ladi)

Mehnatsevarlik (mehnat qilgan – rohat topadi tamoyili)

Bu tushunchalar bolaga sodda va esda qolarli shaklda yetkaziladi.

2. Axloqiy tarbiyani shakllantirishda metodik yondashuvlar

O'qituvchi ertaklarni o'qitishda quyidagi usullardan samarali foydalansa bo'ladi:

Savol-javob usuli: "Siz shu vaziyatda nima qilgan bo'ladingiz?" kabi savollar orqali o'quvchini mustaqil fikrlashga yo'naltirish.

Sahnalashtirish: Ertakni rollarga bo'lib ijro etish – har bir obrazni his qilish imkonini beradi.

Tahliliy suhbat: Obrazlar xatti-harakatini tahlil qilish orqali fazilatlarni ajratib ko'rsatish.

Taqqoslash: Bir necha ertakni solishtirib, umumiy xulosalarni chiqarish.

3. 2-sinf darsligidan misollar "Yo'lbars bilan Tulki" – makkorlik va aql kuch ustidan g'alaba qozonishini ko'rsatadi. Tulki obrazi orqali epchillik, hozirjavoblik targ'ib qilinadi.

"Och bo'ri" – yolg'onning oqibati haqida ertak. Bolaga rostgo'y bo'lishning ahamiyatini tushuntiradi.

"Shirin uyqu" – mehribonlik, mehnatsevarlik va samimiyat g'oyalari berilgan. Asardagi yumshoqlik orqali bolada mehr va tushunish tuyg'usi uyg'otiladi. Bu ertaklar yordamida o'qituvchi har bir o'quvchiga hayotiy saboq bera oladi.

4. Ertaklar asosida axloqiy ko'nikmalarni shakllantirish

O'quvchilar ertaklar orqali quyidagi axloqiy ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

Fikr bildirish: Qahramonning xatti-harakatini baholash

Sabab-oqibatni anglash: Harakat natijasini tushunish

To'g'ri qaror qabul qilish: Ertakdagi voqealar asosida muqobil yechim topish. Insoniy fazilatlarni qadrlash: Halollik, mehr, sabr, adolat kabi tushunchalarni tushunish

Xalq ertaklari bolalarga hayotiy saboqlarni o'rgatishda, ularda axloqiy ongning shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda ertaklar yordamida o'quvchilarda insoniy fazilatlarni targ'ib qilish, voqealardan to'g'ri xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantirish mumkin.

O'qituvchi esa ertakdan faqat matn sifatida foydalanmasligi, balki uni tarbiyaviy vosita sifatida ham ko'rishi lozim. Sahnalashtirish, tahlil, munozara kabi metodlar orqali o'quvchilar axloqiy qarashlarni mustahkamlaydi.

Ertaklar – bu bolalar uchun o'qituvchi tilida aytiladigan hayot darsidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2-sinf 3-qism darslik. Novda nashriyoti-2023

2. K.A. Xamrayeva. To The Question on Neuropedagogic Possibilities of Formation of Creative Activity at Children of the Senior Preschool Age // International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT). - General Rublik licens. – Spanish, 2019. - Vol. 16. - N 2. - 2019, - R. 265-267.

3. Safarova N. O'zbek bolalar o'yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy

xususiyatlari. NDA. T., 2005

4.Safarova N.O. Didaktik o'yinlarning samaradorligi. "O'ZBEKISTONDA ILM-FANNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 30 noyabr 2022 y.

FITRAT SHE'RIYATIDAGI MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI BOLALARNING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI

Haydarova Dilshoda Muzaffar qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası birinchi kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning ma'rifatparvarlik, maorif tizimiga qo'shgan hissasi, shoirning she'rlarini maktabgacha ta'lim tizimiga olib kirish va uning ijobiy ahamiyati yuzasidan fikrlar bayon etilgan. Maktablarda qay darajada foydalansa yutuqlarga erishish mumkinligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Abdurauf Fitrat, maorif, jadid, bolalar, maktabgacha ta'lim tashkiloti, she'r, madaniyat, vatanparvarlik

THE ROLE OF ENLIGHTENMENTAL IDEAS IN FITRAT'S POETRY IN CHILDREN'S DEVELOPMENT

Annotation: This article presents the views on Abdurauf Fitrat's contribution to enlightenment, the education system, the positive significance of introducing the poet's poems into the preschool education system. Information is provided on the extent to which they can be used in schools and achieve success.

Keywords: Abdurauf Fitrat, education, new, children, preschool education organization, poetry, culture, patriotism

РОЛЬ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ ИДЕЙ В ПОЭЗИИ ФИТРАТА В РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ

Аннотация: В статье представлены взгляды на вклад Абдурауфа Фитрата в просвещение, систему образования, положительное значение внедрения стихотворений поэта в систему дошкольного образования. Приведены сведения о том, в какой степени их можно использовать в школах и добиться успеха.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, образование, новое, дети, организация дошкольного образования, поэзия, культура, патриотизм

Ma'lumki, jadid adabiyotining eng muhim mavzularidan biri – vatanparvarlik mavzuidir. Bu -keng xalq manfaatlariga qaratilgan tom ma'nodagi vatanparvarlikdir. Davr ijodkorlarining bunday hayotbaxsh tuyg'ulari xarobaga aylangan Turkistonning iqtisodiy taraqqiyotini, xalqning ozod, teng huquqli bo'lishini, istiqloq kunlariga yetishini orzu qilgan tuyg'u – Vatanparvarlikdir. Abdurauf Fitrat ham o'z ijodini yoniq vatanparvarlik tuyg'ularini isyonkorona kuylashdan boshladi. Fitrat she'riyati, shoirning o'z tili bilan aytganda "rubobiy she'rlari" nafis va buyuk Sharq she'riyatining bor go'zalliklaridan to'yingan, uni o'ziga xos tarzda ichdan yangilashga kamarbasta she'rlardan tarkib topgan. Bu haqda Fitratning zamondoshi va vatandoshi Sadridin Ayniy shunday yozadi: "Fitratning she'riyati haqida yana shuni aytish kerak: shoir o'zbek adiblari ichida birinchilardan bo'lib folklor shakllarida she'rlar yozadi. Bu ming yilcha davr ichida aruzdan boshqa shaklni bilmagan yozma she'riyatimiz sohasida novatorlik edi"

Fitrat maktab maorif tizimini yuksaltirish, rivojlantirish maqsadida anchagina jonbozlik qilgan, jon kuydirgan. Qator darsliklar muallifi hisoblanadi. Balki darsliklarida, shu jumladan, she'rlarida, nasiy asarlarida, dramalarida ham milliy ongini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan.

Fitrat she'riyatiga nazar solar ekanmiz maktab ta'limiga alohida e'tibor qaratgan, shu qatorda, maktabgacha ta'lim jarayonini ham qamrab olganining guvohi bo'lamiz. Sodda va ixcham so'zlar, uyushiq bo'laklardan unumli foydalanish, ravon qofiya tiziminining

mavjudligi, she'r misralari soda gaplardan tashkil topganligi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi bolajonlarning xotirasida tez va oson muhrlanib qoladi.

Quyidagi misralar fikrimizning dalili bo'la oladi, desak yanglishmagan bo'lamiz.

QOR

Kuchsiz, titroq, oppoq, kichik tomchilar,

Turmay, tinmay tuproq uza yog'adir.

El bizlarni, bilmam, nechun qamchilar?!

Ko'klarda ham ayozlikdan oqarg'an

Mazkur parchani tahlil jarayoniga tortar ekanmiz, bolajonlar she'rni yod olishlari mobaynida qor haqida aniq tasavvur paydo bo'ladi. Qor, asosan, mayin, ohista yog'ishi, nozikkina parchalardan iborat ekanligi, rangi oppoq ekanligi haqida bilib olishadi. Uchinchi misrada keltirilgan "El bizlarni, bilmam, nechun qamchilar?!" gap orqali bolada insonlar orasidagi o'zaro urush, janjallarning naqadar vahshiona tus olishini sezadi.

Titrab-titrab qora er uzra tushar!

Tushgach, butun tushkanlarday toptalar...

Tekkan erin bilmay bosg'an oyoqlar,

Pichratalar buning oppoq betini.

Bosgan izin ko'rmay o'tgan tuyoqlar, Keyingi misralar tahliliga nazar tashlasaganimizda ham ikki xil ma'no mazmun mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Bolalarda qorning titroqlar bilan yer yuziga tushishi, shu ondayoq toptalishi, ya'ni bosilib o'tishi haqidagi signal xayoliga yetib boradi. Insonlarning beparvolarcha yurishi hattoki qorning ham g'ashiga tegishi, arazlash holati deb qarashsa, katta yioshdagilar uchun bu qor qor zulmatning darakchisi, qorni e'tiborsizlik bilan bosayotganlar xuddiki erksiz xalqni oyoqosti qilib bosishayotgan holatini ilg'ab olishadi.

SHARQ

Qardoshlarim, mana sizga bir o'lka

Kim, topilmas yer yuzida singari.

Har yonida keng, yam-yashil uchmohlar

Jon suvin-dan yetishkandir gullari...

O'g'ochlari yashil kiyimlar kiygan

Evri'lishar topingali Tangriga.

Og'ir, yuksak, ko'rkam, haybatli tog'lar

O'ngdan,

So'ldan har yondan

Haq yo'lida urushguchi askardek,

Yasov tortib, ko'krak kerib yuksalgan

Ko'kdan dahi o'z haqqini istardek

Mazkur she'r "Sharq" — ya'ni Sharq mamlakatlariga bag'ishlangan bo'lib, unda muallif o'zining yurtiga, uning tabiati, go'zalligi, ma'naviyati va tarixiy ulug'vorligiga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatini ifoda etadi. She'rda Sharq – tug'ilib o'sgan, muqaddas maskan sifatida tasvirlanadi.

G'oya — o'z xalqining, diyorining ulug'ligini, tabiiy boyliklari va ilohiy go'zalligini madh etish, Sharqning buyuk madaniy-ma'naviy salohiyatini ulug'lashdir. She'rda Vatanga sadoqat, milliy faxr, tarixiy xotira va tabiat bilan uyg'unlik tuyg'ulari ifodalangan. She'r poetik obrazlar va kuchli badiiy vositalar orqali boyitilgan: "Og'ochlari yashil kiyimlar kiyg'an" — bu yerda daraxtlar odamga qiyoslanib, yashil kiyimlar kiygan holatda tasvirlanmoqda. Bu Sharqning tabiatini jonlantiradi. "Gullari jon suvindan yetishkandiir" — bu metafora orqali gullarning beqiyos go'zalligi va hayotiy kuchi tasvirlanadi.

"Har yo'lida urushg'uvchi askardek" — tog'lar askarga o'xshatilgan. Bu tashbeh orqali tog'lar ham Vatan himoyachisi sifatida gavdalanadi.

"O'ngdan, so'ldan... har yondan..." kabi takroriy strukturalar she'rga ohangdorlik bag'ishlaydi va g'oyani kuchaytiradi.

She'r boshlanishida Sharqning go'zalligi, betakror tabiati, yashilligi tasvirlanadi. Keyingi qismda esa tog'lar obrazida Sharqning irodasi, haqiqat yo'lida kurashuvchi ruhiyati ifodalanadi. Bu orqali she'rda estetik tasvir bilan falsafiy mazmun uyg'unlashadi. She'rning ohangi jiddiy, haybatli va ulug'vordir. She'rda Sharq nafaqat geografik hudud sifatida, balki madaniyat, haqiqat, go'zallik, kuch va imon ramzi sifatida gavdalanadi. Tog'lar — bu g'urur, barhayotlik, sabr-toqat; gullar — bu go'zallik va hayotiylik; daraxtlar — bu barakot va yashnash timsolidir.

“Sharq” she'ri muallifning milliy o'zlikka, yurtga, uning tabiatiga, qadriyatlariga bo'lgan cheksiz sadoqatini badiiy ifoda etadi. Bu asar orqali Sharqning nafaqat tabiiy go'zalligi, balki ma'naviy ulug'ligi ham o'z ifodasini topgan. She'r o'zbek poeziyasining yurtparvarlik, ruhiy kuch va estetik go'zallikni uyg'unlashtirgan yorqin namunalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayniy S. Ta'rix inqilobi Buxoro. – Dushanbe, “Adib”, 1987.
2. Alloma adabiyotshunos. Jamoa to'plam. – T., Fan, 2006. – 68 b.
3. Afoqova N. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san'atlar. – Buxoro, 1994. – 106 b.
4. Afoqova N. Jadid she'riyati poetikasi. – T., Fan, 2005. – 140 b.
5. Abdurauf Fitrat milliy fenomeni, adabiy, ilmiy-nazariy merosi, ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga bag'ishlangan birinchi jumhuriyat ilmiy amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 1992.
6. Adabiyot nazariyasi: Ikki tomlik. – Toshkent: Fan, 1978, I tom.
7. Aliyev A. Fitrat va Umar Hayyom // Nafosat, 1992, 3-3-son.
- 7.QOR. Ilk bor Buxoro maorif nozirligi nashri bo'lgan «Uchqun» jurnali (1923, 2-son)da chop qilingan. Qayta nashri: «Sharq yulduzi», 1991, 6-son, 22-bet.

O'QITISH DIDAKTIK TIZIMINI MODELASHTIRISH

Hamroyeva Xolida Rizoqul qizi

Qarshi DU tayanch doktoranti

E-mail: hamroyevaxolida99@gmail.com

Phone number: +99897 311 15 98

Annatatsiya: bugungi kunda o'quvchilarning nutqiy muloqot qilish jarayonlarida bir qator muammo va to'siqlar mavjud. Olib borilayotgan ko'plab tadqiqot ishlarida o'quvchilarning nutqiy muloqot jarayonida duch kelayotgan muammo va qiyinchiliklariga yechim topish masalasi dolzarb masala sifatida qaralgan. Ushbu maqolada ham shu yuqoridagi masalga yechim topish bo'yicha qator fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: didaktika, nutqiy rivojlanish, tizim ijodiy qobiliyat, lug'at, tasviriy faoliyat og'zaki nutq, xotira, idrok, tahlil qilish ko'rgazmali material

МОДЕЛИРОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: На сегодняшний день существует ряд проблем и препятствий в процессе речевого общения учащихся. Во многих проводимых исследованиях вопрос поиска решений проблем и трудностей, с которыми сталкиваются учащиеся в процессе вербального общения, рассматривается как актуальный. В данной статье также представлен ряд идей и соображений по поиску решения вышеуказанной проблемы.

Ключевые слова дидактика, развитие речи, система, творческие способности, словарный запас, изобразительная деятельность, устная речь, память, восприятие, анализ, наглядный

MODELING THE DIDACTIC SYSTEM OF EDUCATION

Abstract: Today, there are a number of problems and obstacles in the process of students' speech communication. In many ongoing research studies, the issue of finding solutions to the problems and difficulties that students face in the process of speech communication has been

considered as a pressing issue. This article also presents a number of ideas and considerations on finding solutions to the above problem.

Keywords: system didactics, speech development, creative abilities, vocabulary, visual activity, oral speech, memory, perception, analysis, visual material

Tizim (yunoncha systema – qismlardan tashkil topgan butun; bog‘lanish) – ma’lum yaxlit hosilani, birlikni ifodalovchi bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan elementlar (predmetlar, hodisalar, qarashlar, bilimlar va hok.) qonuniyatlari ko‘pligi [229, 469-b].

Tizim – qonuniyatlarga asosan joylashgan va o‘zaro bog‘langan qismlarning birligini ifodalovchi bir butun [181, 624-b].

Didaktik tizim (yunon. systema – qismlardan tashkil topgan butunlik; birikma) ostida ma’lum mezonlarga ko‘ra ajratib ko‘rsatilgan yaxlit hosila tushuniladi. Didaktik tizimlar o‘qitishning maqsadlari, tashkiliy tamoyillari, mazmuni, shakllari va usullarining birligi bilan hosil qilingan tuzilmalarning ichki yaxlitligi bilan tavsiflanadi [185, 208-209-b.].

Didaktik tizim yagona yaxlit tuzilmani tashkil etadigan hamda o‘qitish maqsadlariga erishishga xizmat qiladigan elementlar yig‘indisini ifodalaydi. Tizimning tavsifi ta’lim maqsadlari, mazmuni, didaktik jarayonlar, o‘qitish usullari, vositalari, shakllari va uning tamoyillari bilan begilanadi [188, 101-b.].

Zamonaviy didaktikada ham uzoq vaqtdan beri ma’lum bo‘lgan klassik tamoyillardan, ham fan va amaliyot rivojlanishi jarayonida paydo bo‘lgan tamoyillardan iborat tizim mavjud.

Tadqiqotimizda minimaks tamoyiliga urg‘u berib, uni amalga oshirish tahsil oluvchilarga shaxsiy va biluv rivojlanishi uchun muayyan perspektiva olishga imkon beradi.

Keng ma’lum tamoyillarga asoslanib, tadqiqotimizga oid tamoyillarni ham ajratib ko‘rsatamiz. Ular boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faoliyatining assotsiativ tafakkur shakllarini amalga oshirishning tarkibiy-tuzilmaviy modelining asosini tashkil qiladi.

Imloviy ishning mazmuniga tasvirli ta’sir ko‘rsatish tamoyili.

Mazkur tamoyil o‘quvchilarning amaliy faoliyatiga, ularning tajribasiga, kuzatishlariga asoslanadi (bola rasm chizadi, nimanidir quradi, mulohaza qiladi).

Yodlanadigan harf bilan ishlash kerak bo‘lgan lug‘at so‘zlari ustida ishlashda bolalarga so‘zdagi “uning uchun qiyin bo‘lgan” joyini eslab qolishning o‘z usulini (yondashuvini) tanlash imkoniyati beriladi. Bolalar o‘zlarining lug‘atlarida yodlanadigan so‘zning yozilishi yonida o‘zlarining yodlash assotsiatsiyasini chizadilar, jumladan bu yodlash o‘quvchilarga qiyin, tekshirib bo‘lmaydigan so‘zlarni yozishda yordam beradi;

Xususan, o‘quvchi “kema” so‘zini o‘zining shaxsiy idrokiga va uning kema dagi narsalar bilan bog‘lanishiga asoslanib eslab qoladi. Kimdir rulni, kimdir zanjirni, qutqaruv kamarini va shu kabilarni ko‘radi.

“No‘xat” so‘zini yodlaganda kimdir bu ob’ektni so‘zning shakli “o” harfiga o‘xshash bo‘lishi uchun chizadi, boshqasi no‘x’ at’ at’ ko‘rinishini eslab qoladi; olma so‘zi bilan – olma yonida uning ichida ko‘rgan urug‘ning rasmi; shakli “o” harfiga to‘g‘ri keladigan butun olma rasmi, boshqasi olma daraxtini chizib, o‘zining assotsiatsiativ tafakkurida aks etgan rasmda ko‘radi va shu kabilar.

Har bir o‘quvchi mazkur so‘zni iborada, jumlada, diktantda, badiiy adabiyotda va shu kabilarda. uchratganida yordam beradigan o‘z yodlash variantini tanlaydi. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ma’lum bir so‘zning imlosini eslab qolganligi va uni to‘g‘ri yozganligidan xursand bo‘lib, uni shu tarzda eslab qolish mumkinligini mulohaza qiladi va boshqalarga isbotlaydi, ya’ni o‘z variantini taqdim etadi.

Chizish bolaning ko‘ziga aniqlik, qo‘liga moslashuvchanlik va epchillik beradi, shu bilan birga uning didini shakllantiradi, go‘zallik tuyg‘usini rivojlantiradi.

Rasmlarni tasvirlashda o‘quvchilarga havodagi shakl konturini qalam bilan aylantirish imkoniyatini berish mumkin, buning natijasida vizual xotiraga motorik xotira qo‘shiladi. Mazkur yondashuv quloq, ko‘z, qo‘l orqali eshitish, ko‘rish, sezish va nutqni idrok etishga yordam beradi; o‘quvchilar kuzatish, tinglash, gapirishni o‘rganadilar. So‘ngra rasm yoki chizma ostiga so‘z yoziladi, o‘qituvchi doskaga va o‘quvchilar daftarlariga yozadi, bolalardan unini o‘zlari

talaffuz qilishlari va uni imlo bilan solishtirishlari so'raladi. Quloq va ko'z mashqlari qo'l mashqlari bilan to'ldirilib, motorik-grafik xotira paydo qilinadi. Chizish, yozish va o'qish bir-birini to'ldiradi va qo'llab-quvvatlaydi.

Nutqni rivojlantirishda aynan bolalarning ijodkorligi eng muhimdir. Chunki bu hissiyotdir. Badiiy tasvirni jonli assotsiativ tafakkur bilan bog'liq aloqalarni jalb qilish orqali yaratish osonroq bo'ladi. O'z tabiatiga ko'ra, tafakkurning ijodiy tasviri dialektikdir. Shubhasiz, tafakkurning eng tejamkor va mazmunli shakli – tasvirlar bilan tafakkur qilishdir. Bunday holda, tasvir to'g'ridan-to'g'ri boshqa tasvir yoki majoziy ramzdan, assotsiatsiya esa assotsiatsiyadan ko'zg'aladi va shu orqali mantiqiy bog'lanishlarni chetlab o'tadi.

Tadqiqotlar insonning ijodiy qobiliyatlari faol faoliyatida rivojlanishi isbotlangan. Bu faoliyat muayyan tamoyillarga muvofiq tashkil etiladi. tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijodiy faoliyat reproduktiv emas, balki produktiv tabiatga ega bo'lishi, rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillariga muvofiq tashkil etilishi kerak; faoliyat bola uchun chuqur ijobiy motivatsiyalangan, quvonchli bo'lishi lozim [P..Ya.Galperin 151, 38-b V.Ya.Lyudis, I.P.Negure,].

Tadqiqotimizda bola miyasini funksional assimetriyasining individual profiliga oid ma'lumotlari hisobga olinadi. Bu o'quv axborotini idrok etish, o'zlashtirish va takrorlash jarayonini tuzatishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini tashkil etish uchun quyidagi komponentlarni ajratib ko'rsatdik:

- mavjud taassurotlar, his-tuyg'ular asosida bolalar tajribasini faollashtirish va foydalanish, majoziy tasavvurlarni shakllantirish;
- o'quvchining ijodiy faoliyati yaratilgan ijodiy vaziyatlarda, muammoli vazifalarda amalga oshiriladi va kichik yoshdagi o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi;
- og'zaki-tasviriy tushunchalarni ifodalash uchun tasavvurni rivojlantirish;
- tasviriy-ifodalash vositalaridan foydalangan holda bolalarda his-tuyg'u va tasavvurlarning individual o'z-o'zini ifoda etishini rivojlantirish.

Og'zaki va tasviriy faoliyat o'zaro bog'liqdir. Rasm chizish nafaqat tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi, balki nutqni shakllantirish jarayonining ajralmas, uni rejalashtiruvchi qismi bo'lib hisoblanadi [116, 83-b].

Shuning uchun, o'zi uchun tushunarsiz joyni ajratib ko'rsatib, bola paydo bo'lgan tasvirga hissiy munosabatini ifodalaydi, uni tasvirlash uchun yorqin ranglardan foydalanadi. Rang rasmning mazmunli elementiga aylanadi.

Tasviriy faoliyat bolani gapirishga undaydigan vaziyatlarni yaratishga imkon beradi, ya'ni nutq mulohazasini yaratish jarayonini rag'batlantiradi [116, 84-b].

Tasvirlarni yaratish uchun o'yin shaklidan foydalaniladi, bu o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga o'tishni osonlashtiradi. Aksariyat mualliflar o'yinni bolalar ijodiyotining genetik asosi deb hisoblashadi. Barcha turdagi o'yinlar badiiy ijoddan oldin kelishi, unga yo'ldosh bo'lishi isbotlangan.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, imlo ishida o'yin va o'quvchining tasviriy faoliyati o'rtasidagi bog'liqlik shaxs rivojlanishida, uning savodxonligi, ma'naviy-madaniy o'sishida, shaxsiy o'z-o'zini ifodalashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu uning amaliy faoliyatida qimmatli va muhim bo'lib hisoblanadi; bunda o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga silliq o'tish sodir bo'ladi, uning ijodiy ishining natijasi esa, ya'ni bolaning rangdagi rasmi uning ichki holatining diagnostikasi bo'lib xizmat qilib, bu o'qituvchiga o'quv jarayonini tashkil qilishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вейн А.М., Каменецкая Б.И. Память человека. - М.: Издательство «Наука», 1973.-207 с.
2. Выготский Л.С. Мышление и речь. //Собрание сочинений, в 6 т. - М.:Педагогика, 1982. -504 с.
3. Кочеткова А.В. Интеграция словесной, игровой и изобразительной

деятельности в процессе формирования связной речи младших школьников. //Дис. канд. пед. наук. - Нижний Новгород, 1999. -262 с.

4. Люснер Р.М., Анохина Т.В., Князева М.М.Серия № 7. Новые ценности образования: Культурные модели школ. -М.: Инноватор - BENNET COLLEGE, 1997. -248 с.

5. Ляудис В.Е., Негуре И.П. Психологические основы формирования письменной речи у младших школьников. -М., 1994. -150 с.

6. Нуруллаева Ш.У. Замонавий педагогик таълимни моделлаштириш муаммолари // Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборотлари. № 11. 2020 й. 305-308-бетлар.

7. Педагогика: энциклопедия. 1-2– жилд./ тузувчилар: Жамоа.- Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. 2015.

8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж.1. А-Д/ таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ; ЎзР ФА Тил ва адабиёт институти. - Т.: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. - 680 б.

JADIDLAR HARAKATINING BOLALAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI VA UNING TARIXI

Ismoilova Sevara

*BuxDPI Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlar harakatining O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo tarixida chuqur iz qoldirgani haqida yozilgan. Jadidchilik harakatining yirik vakillari. Ilm-fan va matbuotning rivojlanishi.

Kalit so'zlar: Jadidlar, ma'rifatparvarlik, adabiyot, teatr, matbuot, ta'lim islohoti, mustaqillik g'oyalari.

ЗНАЧЕНИЕ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДОВ В ОБРАЗОВАНИИ ДЕТЕЙ И ЕГО ИСТОРИЯ

Аннотация: В данной статье написано, что джадидское движение оставило глубокий след в истории Узбекистана и всей Центральной Азии. Крупнейшие представители движения джадидизма. Развитие науки и прессы.

Ключевые слова: Джадидлар, просвещение, литература, театр, пресса, образовательная реформа, идеи независимости.

THE IMPORTANCE OF THE JADID MOVEMENT IN CHILDREN'S EDUCATION AND ITS HISTORY

Annotation: This article describes the profound impact of the Jadid movement on the history of Uzbekistan and the entire Central Asia. Major representatives of the Jadid movement. The development of science and the press.

Keywords: Jadids, enlightenment, literature, theater, press, educational reform, ideas of independence.

Jadidchilik – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekistonda paydo bo'lgan ma'rifiy va islohotchi harakat bo'lib, u jamiyatni ilg'or g'oyalar asosida yangilash, ta'lim va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan edi. “Jadid” arabcha so'z bo'lib, “yangi”, “yangilik tarafdori” degan ma'noni anglatadi. Bu harakat vakillari eski uslubdagi ta'lim tizimini isloh qilish, dunyoviy bilimlarni o'rgatish, ijtimoiy adolat va taraqqiyotni ta'minlash tarafdori edilar. Ular ilm-fan, matbuot, adabiyot, teatr va siyosiy faollik orqali jamiyatda o'zgarish qilishga intildilar. Jadidchilik harakatining asosiy maqsadlari

Ta'lim islohoti – Eski madrasalardagi faqat diniy bilim berishga asoslangan ta'lim o'rniga, yangi usul (usuli jadid) bo'yicha ilm-fan va dunyoviy bilimlarni o'rgatish.

Matbuotni rivojlantirish – Gazeta va jurnallar chiqarish orqali xalqni savodli qilish va zamonaviy fikrlashni shakllantirish.

Adabiyot va teatr orqali xalq ongini o'zgartirish – Ijtimoiy muammolarni yorituvchi asarlar yozish, sahna asarlarini qo'yish.

Milliy uyg'onish va mustaqillikka intilish – Xalqning siyosiy faolligini oshirish va mustamlakachilik zulmidan qutulishga chaqirish.

Jadidchilik harakatining yirik vakillari. Mahmudxo'ja Behbudiy – jadidchilik harakatining asoschilaridan biri bo'lib, u O'zbekistonda yangi usul maktablarini ochgan, "Padarkush" pyesasini yozgan va "Oyna" gazetasini chop etgan. Abdulla Avloniy bolalar tarbiyasi va ta'limiga katta e'tibor qaratib, "Turkiy guliston yoxud axloq" asarini yozgan, yangi maktablar tashkil etgan. Munavvarqori Abdurashidxonov birinchi jadid maktablarini tashkil etgan va zamonaviy darsliklar yozgan. Fitrat jadid adabiyoti va siyosiy tafakkurini rivojlantirgan, "Hind ixtilochilari", "Chin sevish" kabi asarlarida milliy uyg'onish g'oyalarini ilgari surgan.

Jadidchilik harakatining ahamiyati. Jadidlar Markaziy Osiyo xalqlarining ma'rifatli va zamonaviy jamiyatga aylanishi uchun katta hissa qo'shdilar. Ularning tashabbusi bilan: Yangi usul maktablari ochildi, ilm-fan va matbuot rivojlandi, xalqning siyosiy va ijtimoiy faolligi oshdi, mustaqillik g'oyalari shakllandi.

Jadidlar ta'limoti – o'z zamonasining haqiqiy ta'limi bo'lib kelgan. Yuqorida aytib o'tilganidek Jadidlarimiz merosi har bir inson uchun suv va havodek zarur. Bugungi kunda har birimiz jadidchilik iqtiboslarini chuqur o'rganishimiz lozim. Tarbiyachi o'zi ham jadidlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lsa, bolalarni ham jadidlar merosini o'rganishda to'g'ri yo'nalish bera oladi. Jadidlar merosi orqali tarbiyalangan, milliy qadriyatlarimizni o'rgangan, jadidlarning bizning vatanimiz uchun fidokorligini bilgan bolalar kelajakda buyuk inson bo'lib yetishishadi. Ma'nau sog'lom farzandlarni tarbiyalashda ota-onalar ham doimiy tarbiyachi bilan birgalikda harakat qilishlari lozim. Ota-onalar farzandining kelajagiga befarq bo'lmagan holda uyda ham qisqa muddat farzandlari bilan mashg'ulotlar, qiziqarli didaktik o'yinlar olib borishlari kerak.

Jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'llarini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatganlar. Jadidchilik harakati O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo tarixida chuqur iz qoldirgan milliy uyg'onish harakatidir. Uning vakillari ta'lim, matbuot va madaniyat orqali xalqni savodli, ongli va taraqqiyparvar qilishga harakat qildilar. Bugungi kunda ularning orzulari amalga oshib, mustaqil O'zbekiston ilm-fan va ma'rifat yo'lida taraqqiy etmoqd. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy ma'naviy saviyasini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o'rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi Yangi O'zbekistonda namoyon bo'lib turmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.SH. Mirziyoyev: Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro-konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigidan.2023 yil 6-mart

2.«Jadid» gazetasining 2024 yil 5 yanvar kungi 2 (2)-soni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi kutubxonasi

3.M. Abdurashidxonov. Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. B108-109

4.Kamilova, G. A. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga rahbarlik va boshqarishda zamonaviy yondashuv.*Scientific progress*,2(7), 1149-1153.

5.Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston.1999

YOSH AVLOD TA'LIM-TARBIYASIDA AHMAD DONISH MEROSINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY DIDAKTIK AHAMIYATI

*Jamolova Lubat Ilhomovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
i.l.jamolova@buxdu.uz. Tel: +99891446-09-64*

Annotatsiya: Maqolada ilm-fanni yanada yuksaltirish usullari, bosqichlari shuningdek yosh-avlodning kasb tanlashga nimalarga e'tibor berishi haqidagi ibratli pedagogik fikrlari haqidagi maslahat hamda tavsiyalari keltirilgan. Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoye" asaridagi "O'g'illaringa pand nasihat", "Farzandlarga vasiyat, kasb-hunarning foydalari" nomli hikoyatlaridan ayrim qarashlar bayoni keltiriladi.

Kalit so'zlar: "Ruh va uning tanaga munosabati", tanosux mansabi, "Navodir ul-vaqoye", odamgarchilik, juvonmardlik, 3ta fasl, Jaloliddin Rumiy, G'azzoliy, Bedil asarlarining tarjimoni, muxak toshi (she'rni shunga o'xshatadi.)

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И СОВРЕМЕННОЕ ДИДАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАСЛЕДИЯ АХМАДА ДОНИША В ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация: В статье представлены советы и рекомендации по методам и этапам дальнейшего совершенствования науки, а также поучительные педагогические идеи о том, на что следует обратить внимание молодому поколению при выборе профессии. Некоторые взгляды представлены на основе рассказов «Советы моим сыновьям» и «Завещание детям, преимущества профессии» в произведении Ахмада Дониша «Наводир ул-вакойе»

Ключевые слова: «Душа и ее отношение к телу», положение таносуха, «Наводир ул-вакойе», человечество, молодость, 3 сезона, переводчик произведений Джалалуддина Руми, Газали, Бедиль, мухак тоши (он сравнивает поэму с это).

SCIENTIFIC-THEORETICAL BASIS AND MODERN DIDACTIC SIGNIFICANCE OF AHMAD DONISH'S HERITAGE IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION

Abstract: The article presents advice and recommendations on the methods and stages of further improving science, as well as instructive pedagogical ideas on what the younger generation should pay attention to when choosing a profession. Some views are presented from the stories "O'g'illaringa pand nasih" and "Farzandalgar wasiyat, kulsb-hunarning benfiglari" in Ahmad Donish's work "Navodir ul-vaqoye".

Keywords: "Soul and its relationship to the body", the position of tanosukh, "Navodir ul-vaqoye", humanity, youth, 3 seasons, translator of the works of Jalaluddin Rumi, Ghazali, Bedil, muhak toshi (he likens the poem to this.)

Kirish: Buxoroda XIX asrda yashab, ilm-fan, ma'naviyat, madaniyat va ma'rifat tarixida o'chmas iz qoldirgan, Ahmad Donish (Ahmad ibn Mir Nosir ibn Yusuf al-Xanafi as-Siddiqiy al-Buxoriy 1827-1897 y) ning ilmiy-ijodiy merosining ma'naviy tafakkur taraqqiyotga ta'siri, yosh avlod tarbiyasidagi o'rni, ahamiyatini yanada chuqurroq tadqiq etish ko'pgina fanlar qatorida falsafa, ma'naviyat asoslari, ma'naviyatshunoslik hamda pedagogika fanlarining ham oldidagi dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ahmad Donish falsafa, tarix, falakiyot, riyoziyot, adabiyot kabi fanlarning bir qancha turlari va yo'nalishlari bilan shug'ullangan tom ma'nodagi qomusiy olimdir. Uning inson ma'naviy tafakkur rivojlanishidagi, ijtimoiy-falsafiy, siyosiy qarashlari aks etgan quyidagi "Majmuati hikoyati Ahmadi Kalla", "Navodir ul-vaqoye", "Risolai muxtasare az tarixi saltanati xonadoni mang'itiya (Risola)" asarlarini alohida ko'rsatishimiz mumkin. "Agar kishi tavakkulga ishonib harakat qilmasa, mehnat qilmasa va qiyinchilikda, kambag'allik bilan

hayot kechirishi yoki mo‘l-ko‘llikda yashash qismatda bor ekan, deb aytsa, unday kishi xato qiladi. Demak u aqlli insonlardan emas”

Ahmad Donish mamlakatdagi siyosiy-ijtimoiy vaziyatni chuqur tahlil qilib, mavjud ijtimoiy muhitning ham iqtisodiy ham ma’naviy jihatdan orqada qolganligini e’tirof etadi. Ilm-fanning yutuqlaridan o‘lkamiz yoshlarining ham xabardor bo‘lishini chin dildan istaydi. “Yoshim ellikka yetib, boshimdan yaxshi-yomon ishlar o‘tdi, tirikchilikning og‘ir va yengilliklarini ko‘tardim, mendan so‘ng qoladiganlarga qo‘llanma bo‘lsin deb, quyida ko‘rgan-bilganlarimni yozdim. Hojat tushganda bu yozilganlardan foydalansalar ajab emas. Ibrat ko‘zi bilan qarab, aql qulog‘i bilan eshituvchilar uchun mening bu so‘zlarimning foydasi bor. Aks holdagi kishilar uchun esa mening so‘zlarimning foydasi suv ustiga xat yozgandek yoki bo‘ronda chiroq yoqqandekdir” deydi muallif farzandlariga vasiyat qilarkan. Darhaqiqat, ushbu qalami o‘tkir, chuqur mulohazali hamda mushohadali Donishning yozganlari nafaqat farzandlarigagina emas balki yurt egalari bo‘lmish butun yosh-avlodga tegishlidir.

Ahmad Donish garchi ko‘proq nasriy asarlari bilan tanilgan bo‘lsa-da, she’riyat bilan ham shug‘ullangan. Uning devonida g‘azallar, ruboiylar va boshqa she’riy janrdagi asarlar jamlangan bo‘lib, ular falsafiy, ijtimoiy va lirik mavzularni o‘z ichiga oladi.

Ahmad Donishning asarlari uning zamonasidan oldinga intilgan g‘oyalari, chuqur bilimlari va adolatga chanqoqligini namoyon etadi. Uning ijodi Markaziy Osiyo ma’rifatparvarlik harakatining eng yorqin sahifalaridan birini tashkil etadi.

Bayt:

Chu moro ba g‘aflat ba shud ruzgor,

Tu bori dami chand fursat shumor.

Pandgir az mato aybi digaron,

To nagirand digaron ziy tu pand.

Tarjimasi:

O‘tdi umrim oh kim, g‘aflat bilan,

O‘tmasin umring sening mendek bo‘lib.

O‘zgalarning ko‘rmishidan ibrat ol,

Boshqalarga qolmagil ibrat bo‘lib.[324]

Jondan suygan farzandlarim deydi muallif- Abdulkarim va Asadullo, olloh sizlarni to‘g‘ri yo‘ldan adashtirmasin. Sizlar hali ona sutiga to‘ymay, maktabdan bo‘shamay turib, mening boshimga safar savdosi tushdi. Agar bu safar menga nasib bo‘lsa, kelishimdan kelmasligim aniqdir. Kelib qolgan taqdirda ham sizlarning hollaringga qarashish uchun bo‘shamasligim mumkin. Otamiz davridan bugungacha biror kishi mashaqqatsiz rohat, mehnatsiz ne‘mat ko‘rgan bo‘lsa edi, dunyo tarixida, biror yerda, biror kishi tomonidan uning belgisi yozilar edi. Har bir musulmon odam eng avval o‘ziga zarur bo‘lgan ilmlarni o‘qishi farzdir. Shundan so‘ng tirikchilik uchun biror kasb-hunar o‘rganishi lozim. Qaysi ilm va hunar kishining aqliga, ruhiga tarbiya berar ekan, unday ilm va hunar o‘z egasini u dunyoda ham, bu dunyoda ham qo‘llab-quvvatlaydi. Agar ilm va hunar ruhga tarbiya bermay, tanni semirtirib yuborsa, orzu-havasini ko‘paytirib, nafsi shaytonga yordam beradigan bo‘lsa, unday ilm va hunarlar egasining ofati, xudoning la‘natidir. Shariatda ham ilm o‘qishda xalqni to‘g‘ri yo‘lga solish, ularga ilm-amal o‘rgatishdan boshqasini, zinhor o‘ylamanglar, deyilgan. [324]

Agar dunyo orttirish maqsadida ilm o‘qib, eng yuqori darajaga yetib, shayxulislom bo‘lsanglar ham, xudo oldida sizlardan go‘laxda yotgan bir fosiq yaxshiroqdir. [326]

Bugungi kunda jadidlarimizning hayot yo‘llarini o‘rganish hamda ular ijodini, yangiliklarini ayni hayotimizga tadbiq etish juda muhimdir. Xususan, Buxoro viloyatida jadidchilik harakati yetakchilaridan biri bo‘lmish Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayevning uyi davlat tasarrufiga qaytarildi. Bu haqda Saida Mirziyoyeva ma’lum qildi. Unga ko‘ra, bino Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan davlat tasarrufiga berilib, 150 yillik ushbu inshoot ko‘rkam Buxoro me’morchiligining mukammal saqlanib qolgan noyob namunasi sanaladi.

Uy nafaqat unda mashhur jadid vakili yashagani, balki aynan shu yerda ilk yangi usul maktablaridan biri ochilgani, unda turli fanlar bepul o‘qitilgani bilan ham mashhurdir. Oxirgi

vaqtlarda u xususiy mulk hisoblanib, mehmonxonaga aylantirilgan edi. Bu borada jadid allomalarimizning hayot yo'llarini o'rganish va izchil tadbiq etish muhimdir.

Xususan, Ahmad Donish milliy merosini o'rganish bugungi kunga kelib, allomaning ma'naviy merosi Sharq mutafakkirlarining noyob durdonalari sanalib, unda inson falsafasi, ma'naviy-axloqiy masalalar mukammal yoritilgan. Bugungi kunda Ahmad Donish ilmiy merosi yetarli darajada o'rganilmagan va uni o'rganish hamda zamonaviy hayotimizga tadbiq etish muhim. Ahmad Donishning ilmiy asarlari jamiyat va mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan birgalikda, yoshlarning ma'naviy olamini boyitishga ham keng imkoniyat yaratishi bilan ajralib turadi. Buyuk ajdodlarning ma'naviy merosini tiklash va undan ta'lim tizimida keng foydalanish milliy tariximiz va boy merosimizdan ta'lim tizimida foydalanish yoshlarda milliy o'zlikni anglash va ma'naviy yuksalishga katta ta'sir ko'rsatishi bilan tahsinga loyiq.

Ahmad Donishning vatanparvarligi oddiy yurtsevarlikdan farqli o'laroq, chuqur tanqidiy va islohotchi ruhga ega edi. U vatanga bo'lgan sevgisini uning qoloqligini qoralash, adolatsizlikka qarshi chiqish va uni taraqqiyot yo'liga boshlash istagida namoyon etgan. U ilm-ma'rifat, adolatli boshqaruv va farovonlik orqali o'z vatanining qudratli va mustaqil bo'lishini orzu qilgan. Uningcha, vatanparvarlik – bu yurtning kamchiliklarini ko'ra bilish, ularni bartaraf etishga intilish va shu orqali uning ravnaqiga hissa qo'shish demakdir.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Donish o'z davrining o'tkir nigohli mutafakkiri bo'lib, o'z asarlarida ma'rifat, adolat, ijtimoiy taraqqiyot va haqiqiy vatanparvarlik g'oyalarini ilgari surgan. Uning merosi bugungi kunda ham o'zining dolzarbligini saqlab qolgan va jamiyatni rivojlantirish yo'lidagi intilishlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoye" O'zbekiston fanlar akademiyasi Filosofiya va huquq instituti 1964y (323-329 betlar)
2. Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe T.: Fan, 1964.- 405b.
3. Ahmad Donish. Risola yo muxtasare az tarixi saltanati xonadoni mang'itiya. Dushanbe, 1992. - 94 b.
4. Sh. G'affarov. Istibdod davrida Turkistondagi ta'lim tizimi. – Samarqand.: SamDU nashr, 2000.
5. Sadriddin Ayniy "Esdaliklar". T.-5 -tom: 1965 27-b.
6. www.ziyounet.uz
7. www.google.uz
8. www.pedagog.uz

MUTAFAKKIRLAR VA JADID MA'RIFATPARVARLARINING TARBIYA TURLARIGA OID TA'LIMOTLARI HAMDA UNDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI

Quvvatova Ozoda Gulbek qizi

To'rayeva Kamola Vosidjon qizi

"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 1-bosqich talabalari

Ilmiy rahbar: Berdiyev Bahodir Ravshanovich

Qarshi DU "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida dotsenti

E-mail: berdiyevbahodir36@gmail.com Phone number: +99897 222 14 72

Annotatsiya: ushbu maqolada mutafakkirlar va jadid ma'rifatlarining tarbiya sohasidagi qarashlari, ular ilgari surgan ta'limotlarning mazmun-mohiyati va zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada tarixiy manbalar, pedagogik nazariyalar hamda amaliy tajribalarga tayangan holda, o'zbek ma'naviyatini shakllantirishda bu qarashlarning dolzarbligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: mutafakkirlar, jadidlar, tarbiya turlari, ta'limot, ma'rifatparvarlik, zamonaviy ta'lim, pedagogik meros, tarbiya mexanizmlari.

TEACHINGS OF THINKERS AND NEW ENLIGHTENMENTALISTS ON TYPES OF EDUCATION AND MECHANISMS FOR ITS USE

Abstract: This article analyzes the views of thinkers and Jadid Enlightenment thinkers in the field of education, the content and essence of the teachings they put forward, and their significance in the modern educational process. The article also substantiates the relevance of these views in the formation of Uzbek spirituality, based on historical sources, pedagogical theories, and practical experience.

Key words: thinkers, innovators, types of upbringing, teaching, enlightenment, modern education, pedagogical heritage, upbringing mechanisms

УЧЕНИЯ МЫСЛИТЕЛЕЙ И НОВЫХ ПРОСВЕЩИТЕЛЕЙ О ВИДАХ ОБРАЗОВАНИЯ И МЕХАНИЗМАХ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

Аннотация: В статье анализируются взгляды мыслителей и современных просветителей в области образования, содержание и суть выдвинутых ими учений, их значение в современном образовательном процессе. В статье также обосновывается актуальность этих взглядов в формировании узбекской духовности на основе исторических источников, педагогических теорий и практического опыта.

Ключевые слова: мыслители, новаторы, типы воспитания, обучение, просвещение, современное образование, педагогическое наследие, механизмы воспитания.

Tarbiya, har bir jamiyatning taraqqiyotini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. O'zbekiston tarixida jadidlar va mutafakkirlarning tarbiya haqidagi qarashlar, ayniqsa, XIX-XX asrlar o'rtalarida, ta'lim tizimining yangi bosqichga o'tishi bilan bevosita bog'liqdir. Jadidlar, o'z vaqtida, musulmon dunyosida ma'rifatparvarlikni ilgari surib, yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishga harakat qilganlar. ularning asosiy maqsadi nafaqat ilmni o'rgatish balki insonni barcha jihatdan mukammal tarbiyalash edi. Bu qarashlar, o'z navbatida, zamonaviy ta'lim tizimlarining shakllanishig va pedagogik usullarni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatdi.

Jadidlar – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyoda ta'lim islohotlarini ilgari surgan ma'rifatparvarlar bo'lib, ular xalqni jaholatdan xalos qilish, ilm-fan, texnika, zamonaviy bilimlar orqali taraqqiyotga erishishni maqsad qilganlar. Ular uchun tarbiya – bu nafaqat ilm berish, balki yosh avlodni ongli, vatan-parvar, axloqan barkamol etib voyaga yetkazish vositasi edi.

Jadidlar va mutafakkirlarning tarbiya turlariga oid ta'limotlari nafaqat o'z davrining ehtiyojlarini qondirgan, balki bugungi kunda ham ta'lim tizimiga qo'shgan hissalar bilan ahamiyatlidir. Ularning pedagogik merosi, ayniqsa, shaxsning intellektual va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash, turli pedagogik metodlarni joriy etish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, mutafakkirlarning tarbiya metodlari, yangi zamon pedagogikasi bilan uyg'unlashgan holda, jamiyatda ta'limni rivojlantishda muhim bir asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Asosiy metodlari:

Savol-javob va bahs-munozara – fikrlashni rag'batlantirish uchun.

Tajriba va amaliy mashg'ulotlar – nazariyani hayot bilan bog'lash.

O'quvchini markazga qo'yish – shaxsga yo'naltirilgan yondashuv

Vatanparvarlik tarbiyasi – milliy o'zlikni uyg'otish.

Ular qo'llagan pedagogik metodlar o'z davrining ilg'or tajribalariga asoslangan bo'lib, ta'limda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish kabi tamoyillarni o'z ichiga olgan. Masalan, Munavvarqori, Behbudiy va Abdulla Avloniy o'z darslarida yuqorida aytgan metodlarimizdan mulqotli usul, savol-javob, ku-zatish, tajriba asosidagi ta'lim shakllarini joriy etganlar. Bu metodlar o'quvchini faollikka chorlab, uni passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantirgan.

Jadidlar o'sha vaqtda ta'lim-tarbiyaga yo'naltirilgan islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirib bordilar. Maktablar ochdilar, gazeta-jurnallar faoliyatini yo'lga qo'ydilar, darsliklar, yosh avlodni tarbiyalashga oid asarlar yozdilar...

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, ularning qilayotgan islohotlari qattiq qoralangan. Xususan jadidlar tomonidan ochilgan "Usuli jadid" maktablarini Chor amaldorlari, shuningdek, mahalliy aholi, din peshvolari, eski maktab domlari ham tanqid qilib kelishgan. Ularning berayotgan ta'lim-tarbiyasi islom diniga zid ekanligi haqida ig'volarni tarqatishgan. Aslida unday emas edi. Maktab 2 bosqichda amalga oshirilgan bo'lib, har ikki bosqich ham din doirasida amalga oshirilgan.

Bu jarayon esa jadidlarni o'ziga xos tarbiyalash jarayonini ko'rsatadi. Ya'ni ular ham diniy, ham dunyoviy bilimni barobar olib borishganini aks ettiradi.

Jadidlarning tarbiya turlariga oid ta'limotlari hamda undan foydalanish mexanizmlarini pedagog sifatida jadidlarimiz orasida alohida o'ringa ega bo'lgan Abdulla Avloniy misolida ko'rib o'tsak.

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib, "Agar bir kishi yoshligida nafs buzilib, tarbiasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, erdan turub yulduzlarga qo'l uzatmak kabudur", – deya fikr bildirib o'tgan.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasi nisbiy ravishda quyidagi to'rt bo'limga ajratadi:

1. Tarbiyaning zamoni
2. Badan tarbiyasi
3. Fikr tarbiyasi
4. Axloq tarbiyasi va bu haqida hamda uning ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi.

Tarbiyaga oid jadidlar tomonidan yozilgan eng mashhur asarlar ham aynan Abdulla Avloniyga tegishli. Jumladan "Turkiy guliston yoxud axloq" asari XX asr boshlaridagi tarbiyalash jarayonidagi yondashuvlarni o'zida aks ettirgan. "Turkiy guliston yoxud axloq" asari axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir.

Shuningdek, O'zbekiston tarixida tarbiya masalasida chuqur fikr yuritgan mutafakkirlar qadimdan mavjud bo'lib, ular asarlarida inson komilligini ilm, axloq va iymon asosida shakllantirishni muhim deb bilganlar.

Ularning metodik yondashuvlari esa quyidagilardan iborat:

Didaktik yondashuv - ilmning mohiyatini sodda va tushunarli bayon qilish.

Axloqiy-pedagogik ta'sir – shaxs tarbiyasiga ruhiy va ijtimoiy ta'sir o'tkazish.

O'rnatqich orqali o'rgatish – ustoz shaxsiy namunasi orqali tarbiya berish.

Bu borada buyuk shaxslar asarlari va faoliyatidan misollar keltirib o'tadigan bo'lsak,

Alisher Navoiy -, "Mahbub ul- qulub" da insonparvarlik va axloqiy tarbiya masalalarini tilga olgan.

Ahmad Yassaviy – tasavvufiy tarbiya orqali ruhiy poklanish, sabr, halollikni targ'ib qilgan. Ibn Sino – tibbiy bilimlar bilan birga aqliy va jismoniy tarbiya muvozanatini yoritgan.

Zamonaviy ta'lim tizimida foydalanish mexanizmlari – bugungi kunda jadidlar va mutafakkirlarning g'oyalari milliy ta'lim konsepsiyasi, uzluksiz ta'lim tizimi va kompetensiyaviy yondashuvlar orqali davom ettirilmoqda.

Foydalanish yo'llari:

Integrativ yondashuv – tarixiy merosni zamonaviy fanlar bilan uyg'unlashtirish

Axloqiy – tarbiyaviy komponentlarni o'quv dasturlariga kiritish.

Madaniy meros asosida milliy g'urur va qadriyatlar tarbiyasi.

Metodik tajribalardan foydalanib, amaliy darslar va loyihaviy ishlarni rivojlantirish. Jadid ma'rifatparvarlari va mutafakkirlarning tarbiya sohasidagi qarashlari, ularning pedagogik yondashuvlarida ifodalangan fikr va g'oyalari bugungi zamonaviy ta'lim tizimi uchun bebaho manba bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, ularning metodlari – shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, axloqiy tarbiya, amaliy faoliyatga asoslangan o'qitish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish – bugungi ta'limiy jarayonlarda ham dolzarbligini yo'qotmagan.

Tarbiya masalasiga tizimli yondashuv, o'quvchini faollikkachorlovchi uslublar, ma'naviy – tarbiya muhimligi, hozirgi pedagogik faoliyatda samarali foydalanilishi mumkin bo'lgan tajriba

sifatida qadrlanishi zarur. Ayniqsa, o'zbek xalqining tarixiy-madaniy merosini ta'lim jarayoniga singdirish, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda bu qarashlar mustahkam nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu sababli, jadidlar va mutafakkirlarning pedagogik merosi o'rganilishi, ilmiy asosda tahlil qilinishi va zamonaviy o'qitish metodikalariga integratsiyalashuvi orqali ta'lim tizimini yanada boyitish mumkin.

Shunday qilib, jadid va mutafakkirlarning tarbiya borasidagi ilg'or qarashlarizamonaviy ta'lim tizimi uchun boy ma'naviy va metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Fan, 1992.
2. Ibn Sino. Tib qonunlari. – Toshkent: Fan, 1980.
3. Sattorov B., Mamadaliyev M. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2022
5. Xoliqov H. Pedagogika tarixi. – Toshkent : O'qituvchi, 2019.

JADID MA'RIFATPARVARLARI PEDAGOGIK MEROSIDAN FOYDALANISH ORQALI YOSH AVLODDA MA'RIFATPARVARLIK FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH

Z.L.Umurov

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasida dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Mangliyeva Shaxnoza Akbar qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

mangliyevashaxnoza7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining boy ma'naviy merosida mujassamlashgan ma'rifatparvarlik fazilatlarini hamda ularning bugungi kundagi ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyatini atroflicha yoritishga qaratilgan. Shuningdek, ushbu fazilatlarining hozirgi zamon ta'lim tizimida yoshlarga har tomonlama bilim berish, ularda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni singdirish, barkamol shaxsni tarbiyalash borasidagi dolzarb ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Sharq mutafakkirlari, Ma'rifatparvarlik fazilatlarini, Zamonaviy ta'lim, Ilm, ma'rifat, Adolat, Insonparvarlik, Axloqiy tarbiya, Milliy qadriyatlar, Barkamol shaxs

ФОРМИРОВАТЬ У ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ КАЧЕСТВА ПРОСВЕТИТЕЛЬСТВА, ИСПОЛЬЗУЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ.

Аннотация: В этой статье подробно рассматриваются характеристики Просвещения, воплощенные в богатой духовности восточных мыслителей, а также их место и значение в современном образовательном процессе. Они анализируют важность критического мышления, растущего уважения к национальным и общечеловеческим ценностям и целостного личного образования.

Ключевые слова: Восточные мыслители, Характеристики Просвещения, Современное образование, Наука, просвещение, Справедливость, Человечность, Нравственное воспитание, Национальные ценности, Совершенная личность

TO FORM THE QUALITIES OF ENLIGHTENMENT IN THE YOUNGER GENERATION BY USING THE PEDAGOGICAL HERITAGE OF THE MODERN ENLIGHTENERS

Abstract: This article aims to comprehensively shed light on the enlightening qualities embodied in the rich spiritual heritage of Eastern thinkers and their role and significance in today's educational process. It also analyzes the current importance of these qualities in the modern education system in providing young people with comprehensive knowledge, forming

critical thinking in them, instilling respect for national and universal values, and educating a well-rounded individual.

Keywords: Eastern thinkers, Enlightenment qualities, Modern education, Science, enlightenment, Justice, Humanity, Moral education, National values, Well-rounded individual

Ma'rifatparvarlik fazilati — bu nafaqat bilimga ega bo'lish, balki ushbu bilimlarni jamiyatga yoyish, insonlarni savodxonlikka, ilmga, yuksak axloqiy qadriyatlarga chorlash, ularni jaholatdan qutqarishga intilishdir. Bu faqat shaxsiy rivojlanish bilan cheklanib qolmay, balki butun jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qilishni o'z ichiga oladi. Ma'rifatparvarlik fazilati shaxsning nafaqat o'ziga, balki butun jamiyatga foyda keltirishga qaratilgan oliyjanob intilishidir. Bu insonning aqliy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan kamol topishining muhim ko'rsatkichidir. Sharq mutafakkirlari hayoti va ijodi bu fazilatning yorqin namunasidir.

Sharq mutafakkirlarining asarlarida ma'rifatparvarlik fazilatlari ko'plab jihatlarida aks etgan bo'lib, ular ta'lim-tarbiya, axloq-odob, shaxs kamoloti, halol mehnat, o'zlikni anglash va ma'naviy yuksalish kabi masalalarga katta e'tibor berganlar. Ularning ta'limiy-axloqiy qarashlari shaxsning bilim olish, hunar egallash, yuqori ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu fazilatlar zamonaviy ta'lim jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Shunday ma'rifatparvar bobolarimizdan biri bu Abdulla Avloniydir. U jadidchilik harakatining yirik namoyandalardan biri, ma'rifatparvar yozuvchi, dramaturg, jurnalist, olim va pedagog. Uning ijodi XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida ilm-ma'rifat, milliy uyg'onish va ijtimoiy taraqqiyot g'oyalarini targ'ib qilishda muhim rol o'ynagan. Avloniyning ma'rifatparvarlik borasidagi eng fundamental va ta'sirli asarlaridan biri uning "Turkiy Guliston yoxud Axloq" asaridir. Bu asar, ayniqsa, jadid maktablari uchun qo'llanma sifatida yozilgan bo'lib, o'sha davr yoshlari tarbiyasida beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan. Bu asarning asosiy maqsadi — yosh avlodda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ularni ilm-ma'rifatga chorlash, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda millatni taraqqiyot sari yetaklashdir.

"Turkiy Guliston yoxud Axloq" asari nasr va nazmning uyg'unligidan iborat bo'lib, badiiy, ilmiy-pedagogik va axloqiy xarakterga ega. Kitobda bolalarga sodda va tushunarli tilda turli axloqiy tushunchalar, insoniy fazilatlar va ijtimoiy qoidalar yetkazilgan.

Avloniy axloqni inson hayotining asosi deb biladi. U axloqni "insonning yomon xulq-atvorlardan saqlanishi, yaxshi xulqlarni o'zlashtirishi" deb ta'riflaydi. Asarda har bir insonning shaxsiy kamoloti va jamiyatning farovonligi bevosita axloqiy darajaga bog'liqligi uqtiriladi.

Asarning deyarli har bir bobida ma'lum bir fazilat (yoki illat)ni tahlil qiladi. Jumladan, quyidagi axloqiy qadriyatlar batafsil yoritilgan:

Ilm: Avloniy ilmga katta e'tibor beradi. U ilm insonni jaholatdan qutqaradigan yagona yo'l ekanligini, farovonlik va baxt-saodatning kaliti ekanligini ta'kidlaydi.

Mehnat: Mehnatsevarlik, halol kasb ortidan non topish insonning sha'ni va obro'si ekanligi uqtiriladi. Dangasalik va tekinxo'rlik qattiq qoralanadi.

Vatanparvarlik: Vatanni sevish, uning taraqqiyoti uchun harakat qilish, milliy g'ururni asrash asosiy vazifa deb ko'rsatiladi.

Adolat: Har bir ishda adolatga rioya qilish, birovning haqqini yemaydigan, halol bo'lish muhimligi urg'ulanadi.

Iffat va or-nomus: Shaxsiy poklik, oila muqaddasligi, or-nomusni asrash kabi tushunchalarga katta ahamiyat berilgan.

Sabr, shukr, qanoat: Qiyinchiliklarga sabr qilish, boriga shukr qilish va qanoatli bo'lish insonni yuksaklikka ko'tarishini bayon etadi.

Rostgo'ylik: Yolg'onchilikdan qochish, doimo rost so'zlashga undaydi.

Hamkorlik va birodarlik: Jamiyatda bir-biriga yordam berish, insonlar o'rtasidagi birodarlik rishtalarini mustahkamlashga chaqiradi.

Avloniy islomiy qadriyatlarni zamonaviy dunyoviy bilimlar bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladi. U Qur'on va hadislardan misollar keltirgan holda, ularning axloqiy me'yorlarini zamonaviy hayotga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatadi. Bu esa o'sha davr uchun juda ilg'or yondashuv edi. Asar yoshlarga mo'ljallangan bo'lib, sodda va tushunarli til, ibratli hikoyalar,

she'riy parchalar va xalq maqollari bilan boyitilgan. Bu yondashuv bolalar ongiga axloqiy qoidalarni oson singdirishga yordam bergan. Kitob bugungi kunda ham yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida, ularda insoniy fazilatlarni shakllantirishda dolzarb ahamiyatga ega. Unda ilgari surilgan g'oyalar asrlar osha o'z qimmatini yo'qotmagan.

Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud Axloq" asari yozilganiga qariyb bir asrdan ko'proq vaqt o'tgan bo'lsa-da, uning bugungi zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati hanuzgacha juda yuqori va dolzarbdir. Asar, ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol toptirish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda bebaho manba bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy ta'limda nafaqat bilim berishga, balki yoshlarni axloqiy jihatdan yetuk shaxslar qilib tarbiyalashga ham katta e'tibor qaratilmoqda. "Turkiy Guliston yoxud Axloq" asari aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Unda insonparvarlik, adolat, halollik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, sabr-qanoat, vatanparvarlik kabi universal axloqiy qadriyatlar sodda va tushunarli tilda bayon etilgan. Bu fazilatlar bugungi kunda ham jamiyatning har bir a'zosi uchun muhimdir. Asar yordamida o'quvchilarga yoshlikdan to'g'ri hayotiy yo'l-yo'riqlar ko'rsatiladi.

Asarda keltirilgan ibratli hikoyalar, maqollar va mantiqiy xulosalar o'quvchilarni fikrlashga, voqea-hodisalarga tanqidiy yondashishga o'rgatadi. Avloniy shunchaki axloqiy qoidalarni yodlatish bilan cheklanmay, balki ularning mohiyatini anglatishga intilgan. Bu o'quvchilarga tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Asar nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar va ota-onalar uchun ham muhim manbadir. Unda farzand tarbiyasiga oid qimmatli tavsiyalar, yoshlarga qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqida fikrlar mavjud. Bu, ayniqsa, zamonaviy axborot xurujlari sharoitida yoshlarni to'g'ri yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud Axloq" asari o'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy va pedagogik merosining yorqin namunasi bo'lib, uning zamonaviy didaktik ahamiyati beqiyosdir. Uni bugungi kun ta'lim dasturlariga faol kiritish, axloqan barkamol, vatanparvar va ma'rifatli avlodni tarbiyalashdek oliy maqsadga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy, Abdulla. *Turkiy Guliston yoxud Axloq*. Toshkent: O'zbekiston, 2018. (Asarning turli nashrlari).
2. Qosimov, Begali. *Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti*. Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
3. Karimov, Naim. *Abdulla Avloniy*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
4. Dolimov, S. *Jadid adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari*. Toshkent: Fan, 1995.

Internet saytlari:

5. <https://edu.uz/>
6. <http://ziyonet.uz/>
7. : https://www.youtube.com/@milliy_talim_resurslar

BUXORODA JADID MAKTABLARINING TASHKIL TOPISHI VA JADID MA'RIFATPARVARLARINING O'RNI.

*Azimova Kamola Karimovna
Buxoro davlat universiteti doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoroda jadid maktablarining tashkil topishi va jadid ma'rifatparvarlarining olib borgan say harakatlari, XIX asr oxiri-XX asr birinchi choragida ta'lim-tarbiya muammolariga bag'ishlab yaratilgan manbalar va adabiyotlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Manba, manbashunoslik, ta'lim, tarbiya, uzluksiz ta'lim, tadqiqot, maqola, dastur, tizim, an'anaviy ta'lim, maktab, madrasa.

ОРГАНИЗАЦИЯ НОВЫХ ШКОЛ В БУХАРЕ И РОЛЬ НОВЫХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ.

Абстрактный: В статье научно анализируется создание джадидских школ в Бухаре и деятельность просветителей-джадидов, а также источники и литература, созданные по проблемам образования в конце XIX века и первой четверти XX века.

Ключевые слова: Источник, источниковедение, образование, воспитание, непрерывное образование, исследование, статья, программа, система, традиционное образование, школа, медресе.

THE ORGANIZATION OF NEW SCHOOLS IN BUKHARA AND THE ROLE OF NEW ENLIGHTENERS.

Abstract: In the following article the sources and literature related with the education-upbringing in Bukhara in the end of 19th first quarter of the 20th century is scientifically analyzed.

Key words: Source, source studies, education-upbringing, chain education, study, article, program, system, nontraditional education, school, madrassa.

Ilk jadid maktabi Buxoro xalkining ilg'or qatlami vakillarini o'ziga jalb eta boshladi. Maxalliy axoli vakillari o'z farzandlarini tatar maktablariga bera boshladilar. Biroq ushbu maktab ko'p o'tmay yopildi.

1908 yilning oktabr oyida Buxoroning Darvozai Salloxxona guzarida Mirzo Abdulvoxid Ruyida o'qish maxalliy tilda olib boriladigan yangi usul maktabi rasman ochiladi va unta Mirzo Abdulvoxid muallim etib tayinlanadi. Yangi usul maktabini tashkil etish ishi, uni tashkil etganlarning yangi usul va qoidadan xabarsizligi tufayli ancha qiyin kechdi².

Shu sababli tatar maktabi o'qituvchilari bilan olib borilgan xamkorlik natijasida ishlar ancha jonlanib, ta'lim berish sifati yaxshilandi. Oradan bir oz muddat utgach, Mirzo Abdulvoxid kattalar uchun kechki maktab, kurslar ochadi va yoshi 20-30 ga yetgan shaxarliklarni yig'ib, har kuni 2 soatdan ta'lim bera boshlaydi. Kup yillar davomida an'anaviy maktabga qatnab, xat va savodi chiqmagan kishilarni Mirzo Abdulvoxid 40-50 kunda o'qish va yozishga o'rgatadi. Bu voqeadan keyin Buxoro aholisi yangi maktabga nixoyat darajada ixlos qo'yadilar³.

Maxalliy ziyolilardan Sadriddin Ayniy boshlang'ich maktabning to'rt sinfdan iborat bo'lishini taklif qiladi. Shu sababli yangi usul maktablaridagi sinf xonalarida- geografiya xaritalari, globuslar va boshqa ko'rgazmali qo'llanmalar bo'lgan. Xat-savod bolalarning ona tilida, tovush usuli(usuli savtiya)da o'rgatilgan. Yangi usul maktablari, asosan, 1-4 sinfdan iborat boshlang'ich maktab bo'lgan.

Maktab ishini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'qitishni samarali tashkil etish usul va qoidalarni yaxshi o'zlashtirib olish uchun Buxoroda faoliyat kursatayotgan tatar maktablari nizomidan foydalaniladi. "Biz maktabchilar shu kungacha Buxorodagi tatar maktabidan xabarsiz edik. Oradan fursat o'tkazmay, to'g'ri mazkur maktabga bordim. Maktab muallimi meni nixoyat mamnuniyat bilan qabul qilib, har soxada yordam berishni va'da kildi. Darslarni ko'rsatdi. Ta'lim qoidalaridan bir oz ma'lumot berdi. Ibtidoiy maktab dars kitoblaridan namuna bo'ldi bir donadan va ta'lim-tarbiyaga doir bir kitob berdi", - deb yozadi S.Ayniy⁴.

Yangi usuldagi maktablarda yangi dunyoviy bilimlar o'qitilib, eskirib kolgan o'qitish uslubidan esa voz kechilsa-da, lekin o'quvchilarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda islom dini asos qilib olindi. 1908 yilda Sadriddin Ayniy yangi usuldagi tatar maktablarining tajribasiga tayanib, tatar maktabi muallimi Buvala Abduraxmon Saidiy bilan birgalikda darsliklar yozadi. Shulardan biri "Tartil ul-Qur'on", ya'ni Qur'oni Karimni o'qish va talaffuz qilish qoidalarini o'rganishga bag'islangan kitob, "Tahzib us-sibiyon" - axlokiy tarbiya, ya'ni odobnoma kitobi edi. Unda "Tarbiya ko'rgan bola", "Odobli bola", "Ota-ona", "Ustoz- muallim", "Mardamatli Axmadjon", "Maktab qoidasiga doir hikoyat", "Maktab qanday bo'lishi kerak", "Hikoyati

² Айний С. Қисқача таржimai ҳолим. // Асарлар - Тошкент. Бадий адабиёт, 1963. 1 том. Б. 20.

³ Айний С. Бухоро инкилоби тарихи учун материаллар. Асарлар. -Тошкент. Бадий адабиёт. 1963. 1 том. - Б. 203-204.

⁴ Айний С. Бухоро инкилоби тарихи учун материаллар. Асарлар. -Тошкент. Бадий адабиёт. 1963. 1 том. - Б. 201.

Tosh”, “Aqlli odam va yuksak baxt soxibi”, “Badbaxt odam”, “Arabben va uning do‘stlari” kabi o‘nlab kichik hikoyalar ahloqiy tarbiyaga qaratilgan edi.

Maktablar ishi sekin-asta xalq orasida shuhrat qozona boshladi. Sadriddin Ayniyning yozishicha, “Bir necha yil eski maktablarda yurib xat va savod chikara olmaganlarning yoki eski maktabga bo‘ysunmaganlarning otalari bizning maktab o‘quvchilarining ikki oylik ma‘lumotlarini ko‘rib, kamoli ixlos va ishtiyok bilan bolalarini keltirib topshira boshladilar⁵.”

Maktablarda o‘qitishning yangi usulini o‘zlashtirgan muallimlar tayyorlash uchun bir qator buxorolik muallimlar Qrim va Turkiyaga yuboriladi. Xususan, Usmon Xo‘ja va Homid Xuja Bog‘chasaroy hamda Istanbulga yuboriladi⁶.

1908 yilda Buxoroning Salloxxona mahallasida tatar maktabi muallimlari o‘quvchilarni imtihon qilib, ular qo‘llagan usul kanday samara berganini namoyish etadilar. Mazkur voqeani Sadriddin Ayniy quyidagicha ta‘riflaydi: “Bahor faslida tatar maktabida umumiy imtihon bo‘ldi. Imtihon majlisida tatar va buxorolik bolalarning otalari hozir bo‘ldilar. Biz ham o‘z maktabimizdan bir-ikki shogirdni ergashtirib bordik. Imtixon majlisi osudalik va tinchlik bilan o‘tdi. Bu munosabat bilan biz, shaxrimizning yangi maktab tarafdorlari bilan tanishdik. Ular xam Buxoroda o‘z buxoroliklari tarafidan yangi maktab ochilganini anglab ziyodasi-la kuvondilar. Ushbu kundan boshlab bizning maktabimiz shuhrat chiqardi⁷.”

1909 yilning kuzida Mirzo Abdulvoxidning maktabida ham huddi tatar maktabidagi kabi oshkora imtihon tashkil etiladi. Imtihonda Buxoro qo‘shbegisi Ostonaqul, qozi kalon Burxoniddin va raisning vakillari ishtirok etishadi, Buxoro muftiylaridan yangi usul tarafdori bo‘lgan Domla Ikrom (Ikromcha), Samarqanddagi yangi usul maktabidan Mullo Abdulqodir Shakuriy ham qatnashadi. Imtihon majlisi ertadan oqshomgacha davom etadi. Sadriddin Ayniyning qayd etishicha, Buxoroning voqeatalab kishilarining ko‘pchiligi qiziqish bilan imtihonga keladilar⁸. Imtixon kelganlarda juda zo‘r ta‘ssurot qoldirgan. Birovlar bolalarning tayyorgarligini ko‘rib, quvonganidan yig‘lab yuborgan, yana kimlardir ushbu yangi usul maktabi uchun yangi bino xozirlash haqida fikr qilgan. Majlisda qatnashgan mufti Domla Ikrom va Buxoroda eng birinchi gazeta o‘qigan 80 yashar Bo‘riboy afandining “Men umidvormanki, o‘n yilgacha Buxoroda inqilob voqe‘ bo‘lur, vatan avlodi bu kungi razolat va safolatlardan qutulur. Esizki, u kunni men ko‘ra olmayman, siz yoshlar, ko‘rasiz. Ming qatla shukurkim, ishning boshlanganligini ko‘rdim” deb ko‘ziga yosh olib, majlis ahliga qilgan murojaati to‘planganlarga katta ta‘sir etgan⁹. Domla Ikrom esa shunday degan: “Yosh bolalarning oz bir fursatda shuncha kerakli narsalarni o‘rganganliklarini o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rdik. Men, bu maktabni shariatga muvofiq va musulmonlarga nofe‘ (foйда) deb bildim”. Majlis ishtirokchilarining aksariyati domlaning fikrlariga qo‘shiladilar¹⁰. Xuddi shunday imtihon Samarqandda Shakuriy maktabida ham o‘tkazilgan edi.

Mirzo Abdulvohid maktabidagi oshkora imtihondan keyin yangi usul maktabi to‘g‘risidagi fikr bildiruvchilar ikki guruhga bo‘lingan. Ishtirokchilar o‘rtasida katta bahs boshlanib ketgan. Bu bahsning kelib chiqishiga, birinchidan, yangi maktabga baho berish masalasi, ikkinchidan, maktabda qanday fanlarni o‘qitish masalasi sabab buldi.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, yangi usul (usuli-savtiya) tovush chiqarib o‘qish maktablarining Buxoro amirligida paydo bo‘lishida jadidchilikning “g‘oyaviy otasi” Ismoilbak Gaspiralinining xizmati katta bo‘lgan. Uning 1893 yilda Bog‘chasaroy (Qrimda) Amir Abdulahad bilan uchrashib, Buxoroda “Muzaffariya” maktabiga asos solishida “usuli-savtiya” maktablari tarixi boshlandi.

Yangi usul maktablari an‘anaviy maktablardan quyidagi jihatlari bilan afzal edi.

- Ta‘lim jarayoni sinf-dars tizimida olib borilib, har bir soatdan so‘ng orada 10 minutlik tanaffuslar o‘quvchilarga berilgan, o‘quvchilar stullarda o‘tirib, yorug‘ xonalarda tahsil olardi. Ularga savodli tatar muallimlari hamda mahalliy, xorijda o‘qib kelgan shaxslar saboq bergan.

⁵ Айний С. Бухоро инкилоби тарихи учун материаллар. Асарлар. -Тошкент. Бадий адабиёт. 1963. 1 том. - Б. 202.

⁶ Ўша жойда.

⁷ Айний С. Бухоро инкилоби тарихи учун материаллар. Асарлар. -Тошкент. Бадий адабиёт. 1963. 1 том. - Б. 202.

⁸ Айний С. Бухоро инкилоби тарихи учун материаллар. Асарлар. -Тошкент. Бадий адабиёт. 1963. 1 том. - Б. 209.

⁹ Ўша жойда. - Б. 210.

¹⁰ Айний С. Курсатилган асарлар. -Б. 210.

- Darslar ko'rgazmali qurollar (globus, xarita va hokazo) orqali o'tilib, o'quvchilar saboqni quruq yodlash bilan emas, balki tovush chiqarib o'qiganlar. Bolalarning savodlari tez chiqib, ularga ko'proq dunyoviy fanlar o'qitilgan.

- Maktablarning moliyaviy ahvoli, moddiy-texnik bazasi, sanitariya-gigiena holati eski maktablardan yaxshi bo'lib, pedagoglar kengashi tashkil etilib, maktablarda o'qituvchilar navbatchilik qilishgan.

- Buxoro amirligidagi yangi usul maktablari o'quvchilarga boshlang'ich ta'lim (1-4 sinflar) berib, ota-onalar ishtirokida imtihonlar qabul qilingan. Biroq o'rta va oliy ta'lim tizimi ularda yo'lga qo'yilmagan edi.

Yangi usul maktablarini dastlab tatar muallimlar ochgan, 1908 yildan boshlab mahalliy jadidlarning o'z uylarida va badavlat kishilar xonadonida 30, 40, 50 tagacha bolalar o'qiydigan maktablari bo'lgan. Ushbu maktablarning amirlik bo'ylab keng tarqalishi va ko'payish davri 1911-1913 yillarga to'g'ri keladi. Bu yillarda 200, 100, 150 kishilik yangi usul maktablari bo'lgan. Ushbu maktablar Usmon Xo'ja, Ato Xo'ja, Abduvohid Munzim, Hamid Xo'ja kabi Istanbul (Turkiyada) tahsil olib kelgan yoshlar tomonidan tashkil etilgan.

- yangi usul maktablari diniy mutaassiblar, reaksion amaldorlar talabi bilan 1914 yil 5 iyulda amirning maxsus farmoni orqali yopib kuyilgan. Ularning muallimlari va tashabbuskorlaridan tushuntirish xatlari olingan. Maktablar kofir maktabi, bolalar utirgan stullar "kofir stuli" kabi fikrlar tarqatilib, ayrim muallimlarga tan jazosi (darra bilan savalash) berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ayniy S. Qisqacha tarjimai holim. // Asarlar - Toshkent. Badiiy adabiyot, 1963. 1 tom. B. 20.
2. Ayniy S. Buxoro inkilobi tarixi uchun materiallar. Asarlar. -Toshkent. Badiiy adabiyot. 1963. 1 tom. - B. 202.
3. Ayniy S. Buxoro inkilobi tarixi uchun materiallar. Asarlar. -Toshkent. Badiiy adabiyot. 1963. 1 tom. - B. 202.
4. Ayniy S. Buxoro inkilobi tarixi uchun materiallar. Asarlar. -Toshkent. Badiiy adabiyot. 1963. 1 tom. - B. 209.
5. Ayniy S. Kursatilgan asarlar. -B. 210.
6. Xujaev F. Tanlangan asarlar. -Toshkent, 1976. I tom. -B. 96.
7. Ayniy S. Buxoro inkilobi tarixi uchun materiallar. Asarlar. 1 tom. - B. 210.
8. Elen Karrer d'Enkaus. Yashirin jamiyatlar davri (1910-1914). O'rta Osiyoda islohot va inqilob // O'zbek tili va adabiyoti. -Toshkent. 1994. -№1. - B.61.
9. Tohir qahhor. Hur Turkiston uchun. Toshkent. 1994. - B. 28-29.
10. Nizom Sobitov Buxoroga Markaziy Rossiyadan kuchgan tatar oilalardan birining farzandi bulib, Madrasa taxsilini olgan. Buxoroda birinchi usuli jadid maktabini ochganlardan biri, 1918 yil butun oilasi bilan amirlik tomonidan vahshiylarcha o'ldirilgan. N.Sobitovniig ismini abadiylashtirish uchun 1- Buxoro dorilmuallimiga BXSr davrida uning nomi qo'yilgan.
11. Xayitov Sh., Badriddinov S. Buxoro tarixidan lavxalar (XIX-XX asrlar). - Buxoro, 2007.

XVI-XVIII ASRLARDA BUXORO XONLIGIDA HUNARMANDCHILIGIDAGI MUHIM TARMOQLAR.

A.S.Sayitov

NDU. Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada XVI-XVIII asrlarda Markaziy Osiyo ijtimoiy- ma'naviy muhiti va Buxorodagi ta'lim - tarbiya mazmuni hamda kasb-hunar haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Movarounnahr, ta'lim –tarbiya, madaniyat, hayot, kasb-kor, hunarmand, naqqosh-xattotlari, ta'rif.

IMPORTANT INDUSTRIES IN CRAFTSMANSHIP IN THE BUKHARA KHANATE IN THE 16TH-18TH CENTURIES.

Annotation: The article presents thoughts about the socio-spiritual environment of Central Asia in the XVI-XVIII centuries, as well as the content of education and training in Bukhara.

Keyword: Movarounnahr, education - upbringing, culture, life, profession, craftsman, painter, calligrapher, description

ВАЖНЕЙШИЕ ОТРАСЛИ РЕМЕСЛЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА В БУХАРСКОМ ХАНСТВЕ В XVI-XVIII ВВ.

Аннотация: В статье излагаются представления о социально-духовной среде Средней Азии XVI-XVIII вв., содержании образования и воспитания в Бухаре, а также профессиях.

Ключевые слова: Мавераннахр, образование, культура, быт, профессия, ремесленник, художники и каллиграфы, определение.

XVI-XVIII asrlarda Markaziy Osiyo, xususan Buxoro xonligidagi ijtimoiy-ma'naviy hayot, rivojlanish va taraqqiyot mohiyatini shaxs tarbiyasi, uning har tomonlama barkamolligi g'oyasiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Aynan ushbu davrda yaratilgan bebaho ma'naviy meros mazmuni, ilmiy tafakkur ne'matlari jamlangan asarlar qismlari sinchiklab o'rganilib, qiyosiy tahlil etilganda ular matnlarida o'z davrining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qarashlari o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin.

Xususiy ta'limning asosiy mazmuni va maqsadini har bir yoshning pok, haqi halol, qo'li to'g'ri, nekbin, mehnatsevar va hunarli bo'lib voyaga etishi masalasi tashkil etadi. Buxoro xonligidagi ta'lim tizimining asosiy bo'g'inini tashkil etadigan xususiy ta'lim jarayonida asosan **hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik** yo'nalishidagi ta'lim turlari o'rgatilgan.

Chorvachilik bilan shug'ullanadigan qavmlarda shu sohaga doir hunar va malakalar o'rgatilgan. O'g'il bolalar mollarni boqish, urchitish, tuya,otlarni parvarishlab, ularni boshqara olish, uzoq yaylovlarga suruv haydash,chorvani darranda hayvonlar, qaroqchilardan muhofaza qilish, shuningdek, Vatan himoyasi maqsadid harbiy hunarni ham bilishlari, qiz bolalarga esa yungdan ip yigirish, urchuq va charxda ishlay bilish, har xil liboslar to'qish, tikishni bilishlari majburiy bo'lgan.

Ayni paytda bu dalillar ajdodlarimiz hunarmandchilikning barcha turlarini rivojlantirishga e'tibor berganliklarini ko'rsatadi.

Hunarmandchilik yo'nalishidagi xususiy ta'lim natijasida qurolsozlik, degrezlik, zargarlik, po'stindo'zlik, ranli metall va toshlarga ishlov berishdek ancha murakkab hunar turlari o'rgatilganligi diqqatga sazovordir.

XVI-asr Buxoro xonligida asosiy hunarmandchilik markazlari sifatida shaharlar katta ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da,ko'pgina yirik qishloqlarda ham hunarmandchilikning kundalik ehtiyoj uchun zarur sohaları rivojlangan edi.

Ilgarigi davrlarda bo'lganidek, xonlikning hunarmandchiligi sohasida **to'qimachilik** uning asosiy tarmog'i hisoblangan. Ushbu tarmoqning rivojlanishiga asosiy sabab, birinchidan soha uchun mahalliy xom ashyo manbalari – paxta, jun, ipak etarli darajada bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, ichki va tashqi bozorda, kundalik hayotda to'qimachilik mahsulotlariga talab katta edi.

Xonlik hunarmandchiligidagi muhim tarmoqlardan yana biri bu – **kulolchilik** edi. Xo'jlik taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan kulolchilik xonlikning deyarli barcha hududlarida rivojlangan edi. Kulolchilik eng taraqqiy etgan markazlar Buxoro, Samarqand, Qarshi, Shahrisab, Urgut, Dehnov, G'ijduvon kabilar bo'lib, ularning mahsulotlariga ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan. Xonlik kulolchiligida O'rta Osiyoning ko'pgina kulolchilik maktablariga xos bo'lgan manzaralar(turli gullar va o'simliklar tasviri), turli hayvonlar,qushlar, hashoratlar yoki ular tanasining bir qismini shartli ravishda tasvirlash kulol ustalar tomonidan keng qo'llanilgan.

Xonlikning asosan yirik shaharlarida **misgarlik** ham rivojlangan. Mis xos ashyosi asosan Rossiyadan keltirilgan bo'lib undan chilim idishlari, barkash, lagan, ko'zacha, tog'oracha kabi ko'plab idishlar yasalgan hamda ular turli naqshlar bilan mohirona bezatilgan.

Undan tashqari xonlikda hunarmandchilikning boshqa ko'pgina turlari ham rivojlangan. Xusuan Buxoro, Qarshi va Shahrisabz shaharlaridagi zargar ustalar tomonidan tayyorlangan zargarlik buyumlari, qimmatbaho toshlar, metal va turli xil shishalardan yasalgan taqinchoqlar xonlik va undan tashqari hududlarda ham mashhur bo'lgan.

Ko'nychilik ham yaxshi rivojlangan tarmoq hisoblangan. Charmgar ustalar tomonidan yaxshi ishlov berilgan terilardan turli xil oyoq kiyimlari, bosh kiyimlar, po'stin va nim po'stin, turli xil meshlar (sut, suv, qimiz va b. uchun) tayyorlangan.

Xonlikning deyarli barcha hududlarida **yog'och o'ymakorligi** yaxshi rivojlangan. Shaharlarda mohir duradgorlar ko'p bo'lgan. Xonlikning shahar va qishloqlarida tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari ichki bozor ehtiyojlarini ta'minlabgina qolmasdan ko'p hollarda tashqi bozorga ham chiqarilgan.

Xullas, **xususiy ta'lim** - ta'lim tizimining uzviy va ajralmas bo'g'ini sifatida har bir yoshning mehnat tarbiyasi asosida jamiyatning to'laqonli a'zosiga aylanishi, yuksak axloq sohibi bo'lib voyaga etishi yo'lida muhim o'rinni egallab, ta'lim tizimining keyingi bosqichlari hisoblangan boshlang'ich va yuqori ta'lim uchun poydevor vazifasini bajaradi.

XVI-XVIII asrlarda **boshlang'ich ta'lim** asosan madrasa tipidagi ta'lim muassasalarida olib borilgan.

Boshlang'ich ta'limda, **bilim sohalari** sifatida yozuv va o'qishni o'rganish, hisob va yulduzlar ilmini o'rganish (arifmetika, falakiyot), kamondan o'q otish, chavandozlik (harbiy bilim), diniy ahkomlarni bajara olish, qiroatni o'rganish majburiy hisoblangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muqimov Z. Shayboniylar va tasavvuf shayxlari / XV-XVI asr tasavvuf namoyandalari ilmiy merosining ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati. Samarqand, 2011, 16-18-betlar.

2. Ahmedov B.A. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari (qadimgi va o'rta asrlar) T.: O'qituvchi. 1991., -212-6.

3. Homidiy, Hamidjon. Ko'hna Sharq darg'alari: Badiiy-ilmiy lavhalar.— T.: «SH arq», 2004.-352 b.

PEDAGOGIK ANTROPOLOGIYA TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

*Ochilova Mohinur Pirnazar qizi
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqola sifatli tahlil usuliga asoslanib yozildi. Asosiy e'tibor pedagogik antropologiya nazariy asoslari, ilmiy manbalar tahlili, shuningdek, uning amaliy qo'llanilishi haqida ilmiy yondashuvlarga qaratildi.

Kalit so'zlar: antropologiya, qonuniyatlari, ijtimoiy rivojlanish, maxsus ta'lim, madaniy qadriyatlar.

ПОНЯТИЕ И СУТЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ АНТРОПОЛОГИИ

Аннотация: Статья написана на основе метода качественного анализа. Основное внимание уделено теоретическим основам педагогической антропологии, анализу научных источников, а также научным подходам к ее практическому применению.

Ключевые слова: антропология, законы, социальное развитие, специальное образование, культурные ценности.

THE CONCEPT AND ESSENCE OF PEDAGOGICAL ANTHROPOLOGY

Abstract: This article was written based on the qualitative analysis method. The main attention was paid to the theoretical foundations of pedagogical anthropology, the analysis of scientific sources, as well as scientific approaches to its practical application.

Keywords: anthropology, laws, social development, special education, cultural values.

Kirish. Zamonaviy pedagogika insonni faqat bilim oluvchi emas, balki har tomonlama rivojlanuvchi, murakkab mavjudot sifatida qarashni talab qilmoqda. Bu yondashuvda pedagogik

antropologiya muhim o‘rin tutadi. Ushbu fan sohasi insonning biologik, psixologik, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini o‘rganish orqali ta’lim va tarbiyaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik antropologiya — bu insonning tarbiya va ta’lim jarayonidagi tabiati, rivojlanish qonuniyatlari va shaxs shakllanishi masalalarini antropologik (ya’ni insonshunoslik) nuqtai nazardan o‘rganadigan ilmiy sohadir. Bu fan pedagogika (tarbiya va ta’lim haqidagi fan) bilan antropologiya (insonning kelib chiqishi, rivojlanishi, biologik va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini o‘rganadigan fan)ni birlashtiradi.

Pedagogik antropologiya — bu pedagogika va antropologiyaning kesishgan nuqtasida joylashgan ilmiy yo‘nalish bo‘lib, insonning rivojlanishi, tarbiyasi va ta’limi jarayonini **inson tabiatining biologik, psixologik, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari bilan bog‘liq holda** o‘rganadi.

Ushbu yo‘nalish shaxsni chuqur tushunishga intiladi: “Inson qanday mavjudot?”, “Inson qanday rivojlanadi?”, “Inson qanday tarbiyalash mumkin?” kabi savollarga javob izlaydi.

Pedagogik antropologiya quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Biologik antropologiya bilan aloqasi

- Inson organizmining rivojlanishi, merosiy xususiyatlar, temperament va fiziologik omillar qanday qilib ta’lim va tarbiya jarayoniga ta’sir qiladi.

Psixologik antropologiya bilan bog‘liqligi

- Inson ruhiyatining rivojlanishi, xotira, tafakkur, his-tuyg‘ular, shaxsiy motivlar va ehtiyojlar tarbiyada qanday rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy va madaniy antropologik jihatlar

- Har bir shaxs o‘zining ijtimoiy muhitida, madaniy qadriyatlar ichida rivojlanadi. Shu sababli tarbiya bu omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Pedagogik antropologiyaning maqsadi va vazifalari

Maqsadi: Insonni shaxs sifatida har tomonlama rivojlantirish uchun, uni tabiatidan kelib chiqib o‘rganish va unga mos ta’lim-tarbiya tizimini ishlab chiqish.

Asosiy vazifalari:

- Insonning tabiiy imkoniyatlarini aniqlash.
- Tarbiya jarayonini insonning psixofiziologik rivojiga moslashtirish.
- Har bir yosh davrining xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim metodikasini tanlash.
- Shaxsga xos yondashuv asosida individual rivojlanishni ta’minlash.

Pedagogik antropologiyaning dolzarbligi

Bugungi kunda insonparvar va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi tobora ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan pedagogik antropologiya:

- o‘quvchilarni shunchaki bilim oluvchi emas, balki inson sifatida tarbiyalashni taklif etadi;
- har bir bolaning o‘ziga xosligini e’tirof etadi va unga individual yondashuv asosida ta’lim beradi;

- ta’lim-tarbiya jarayonini tabiiy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlari asosida tashkil etishga yordam beradi.

Pedagogik antropologiyaning amaliy qo‘llanilishi

Pedagogik antropologiya quyidagilarda qo‘llaniladi:

- Ta’lim metodikalarini ishlab chiqishda;
- O‘qituvchi va tarbiyachilarni tayyorlashda;
- Shaxsiy rivojlanishni rag‘batlantirishda;
- Maxsus ta’lim (nogironligi bo‘lgan bolalar) tizimida;
- Ijtimoiy moslashuv va axloqiy tarbiyada.

Pedagogik antropologiya — bu insonni chuqur anglab, uni to‘g‘ri tarbiyalash va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan muqaddas kalitdir. Bu fan nafaqat ta’lim tizimini yaxshilashga, balki jamiyatning insonparvarlik asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Insonni faqat bilim bilan emas, balki mehr, e’tibor va tabiatiga mos yondashuv orqali tarbiyalash – pedagogik antropologiyaning bosh g‘oyasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pirogov, N. I. (1856). *Hayot masalalari*.
2. Ushinskiy, K. D. (1868-1869). *Inson tarbiyaning obyekt sifatida. Pedagogik antropologiya tajribasi*. Коджаспирова Г.М. Педагогическая антропология – М.: Гардарики, 2005.
3. Abdiraimova G. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar davrida yangi pedagogik terminlar mazmun mohiyati – GOLDEN BRAIN (VOLUME 1, ISSUE 34, DECEMBER, 2023)<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/issue/download/128/154>

ZAMONAVIY SHAXSNI VOYAGA YETKAZISHDA NAFOSAT TARBIYASINI AHAMIYATI

*Abduqodirova Sabina Mahmudjon qizi
Buxoro Innovatsiyalar Universiteti magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy shaxs kamolotida nafosat tarbiyasining tutgan o'rni va uning ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi roli yoritilgan. Estetik tarbiyaning yoshlar ongini shakllantirishdagi ahamiyati, shuningdek, oila, maktab va ommaviy axborot vositalarining bu boradagi vazifalari ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: nafosat tarbiyasi, estetik idrok, zamonaviy shaxs, madaniyat, go'zallik, estetik ong, did, ma'naviy kamolot.

THE IMPORTANCE OF ELEGANT EDUCATION IN MATURING A MODERN PERSON

Abstract: This article examines the role of aesthetic education in the development of a modern personality and its role in socio-spiritual life. The importance of aesthetic education in the formation of the consciousness of young people, as well as the tasks of the family, school and the media in this regard, are analyzed from a scientific and theoretical perspective.

Keywords: aesthetic education, aesthetic perception, modern personality, culture, beauty, aesthetic consciousness, taste, spiritual development.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida inson shaxsini har tomonlama yetuk, estetik didga ega bo'lgan, jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan barkamol inson qilib tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, zamonaviy shaxsni shakllantirish jarayonida nafosat tarbiyasi – ya'ni go'zallikni his qilish, uni qadrlash va hayotda estetik yondashuvni rivojlantirish – muhim o'rin tutadi. Nafosat tarbiyasi nafaqat san'at va madaniyatga munosabatni shakllantiradi, balki insonning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy qarashlarini boyitadi. Shu bois, bugungi kunda yosh avlodni estetik ruhda tarbiyalash, ularning ichki dunyosini go'zallik bilan to'ldirish zamonaviy pedagogikaning asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi globallashuv jarayonida insonning nafosatga, go'zallikka, estetik qarashlarga munosabati nafaqat shaxsiy madaniyat, balki ijtimoiy ong darajasining ko'rsatkichi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot texnologiyalari va ommaviy madaniyatning tez sur'atlarda rivojlanishi, ayniqsa, yosh avlod qalbida turli xil estetik qarashlarning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa ularni go'zallikni anglash, qadrlash va ongli ravishda qabul qilishga o'rgatishni – ya'ni nafosat tarbiyasini bugungi kunda dolzarb masalaga aylantirmoqda. Zamonaviy shaxs – bu nafaqat bilimli va malakali, balki ma'naviy barkamol, estetik dunyoqarashga ega, go'zallikni his qila oladigan, atrof-muhitga hurmat bilan qaraydigan insondir. Nafosat tarbiyasi yoshlarning shaxsiy qiyofasini shakllantirish, ularda yuksak axloqiy-me'yoriy qadriyatlarni singdirish, madaniyat va san'atga mehr uyg'otishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, zamonaviy shaxsni yetishtirish jarayonida nafosat tarbiyasiga e'tibor qaratish – kelajak avlodning barkamol, estetik didli, sog'lom tafakkurli bo'lib ulg'ayishiga zamin yaratadi. Bu esa mavzuning nazariy va amaliy jihatdan ham dolzarbligini belgilab beradi.

Mavzu metodologiyasi: mazkur maqolaning metodologik asoslari zamonaviy pedagogika, estetik tarbiya, shaxs rivojlanishi va ijtimoiy-psixologik yondashuvlarga tayanadi.

1. Tadqiqotning maqsadi: Zamonaviy jamiyatda barkamol insonni shakllantirishda nafosat (estetik) tarbiyasining o'rnini va ahamiyatini aniqlash, uning yosh avlod tarbiyasidagi ta'sirini tahlil qilish

2. Tadqiqotning vazifalari: Nafosat tarbiyasining nazariy asoslarini o'rganish, zamonaviy shaxs tarbiyasida estetik qadriyatlarning rolini ochib berish, oila, maktab va jamiyatda nafosat tarbiyasining shakl va vositalarini tahlil qilish estetik tarbiyaning yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganish

Ma'lumki, insonning muayyan ijobiy faoliyati, ham ezgu nafosat xususiyatlarini o'zida mujassam etadi, shu o'rinda shaxs tarbiyasida axloqiy tarbiya bilan bir qatorda, estetik tarbiya ham muhim o'rin tutadi. Tarbiya – bu jamiyatda amalda bo'lgan me'yoriy modellarga muvofiq, shaxsni maqsadli va tizimli shakllantirish jarayoni bo'lsa, estetik tarbiya, pedagogikaning yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi, insonga go'zallikni tushunish va qadrlashni o'rgatishdir va u insonning voqelikka estetik munosabatini shakllantirishning maqsadga muvofiq jarayonidir. Estetik tarbiyaning maqsadi vazifalari, juda ko'p adabiyotlarda turlicha bayon qilingan bo'lib, biz ularni umumiy lashtirishga harakat qildik. Ular quyidagilardan iborat:

- kundalik hayotda, atrof-muhitda, tabiatda, insonning axloqiy qiyofasi va xulq-atvorida, go'zallikni anglash va idrok etish olish, undan zavqlanish olish va baho berish, tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish;

- shaxsning ijodiy potentsialini va ijodiy fikrlashini va qobiliyatini oshirish;

- shaxsda badiiy tasavvurni va estetik mushohada qilish malakasini yuksaltirish;

- shaxsda estetik didni va estetik idealni va estetik qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish;

- shaxsni jahon madaniyati va san'ati xazinasini bilan tanishtirish, san'atni anglashga qaratilgan bilimlarni o'zlashtirish, san'atdagi go'zallikni idrok etish olish va his qila oladigan ijodiy shaxsni shakllantirish;

- voqelikni badiiy aks ettirish masalalari bo'yicha o'z fikrini bayon etish qobiliyatini rivojlantirish;

- shaxsning ma'naviy dunyosini, jismoniy va estetik madaniyatni rivojlantirish;

- har bir narsada: fikrlar, ishlar, harakatlar, tashqi ko'rinishda, go'zal bo'lishga intilish;

Demak, tarbiyaning bu yo'nalishi jarayonida shaxsning estetik rivojlanishi amalga oshiriladi va estetik tarbiya, bu atrofda voqelikda, tabiatda, jamoat hayotida, san'at hodisalarida, go'zallikni maqsadga muvofiq ravishda idrok etish va tog'ri anglash, baholash va yaratish qobiliyatini tarbiyalashdir. Go'zallik tuyg'usi va go'zallikka bo'lgan estetik ehtiyoj, kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan, odamlarning moddiy va ma'naviy faoliyati sohasida mujassamlanib va rivojlanib bordi. Buyuk mutafakkirlar, o'z asarlarida —estetik tarbiya atamasini to'g'ridan – to'g'ri qo'llamagan bo'lsalar-da, ularda estetik tarbiya xususidagi turli g'oyalar, o'z ifodasini topgan. Dastlab, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'langan edi. Zamonaviy shaxsni voyaga yetkazishda nafosat tarbiyasi juda muhim ahamiyatga ega. Nafosat — bu insonning estetik didi, go'zallikni anglash, qadrlash va yaratishga bo'lgan munosabatidir. Bu tarbiya orqali inson nafaqat tashqi ko'rinishga, balki ichki dunyosiga, xatti-harakatlariga va jamiyatdagi o'z o'rniga ham e'tiborli bo'ladi. Estetik didni shakllantiradi. Nafosat tarbiyasi orqali yoshlar atrofda go'zallikni ko'rish, qadrlash va uni yaratishga intilishni o'rganadilar. Bu esa ular hayotga ijobiy qarash, har bir narsadan zavq olishga yordam beradi. Ma'naviy kamolotga yetaklaydi. Nafosat insonda noziklik, hurmat, sabr-toqat kabi fazilatlarni shakllantiradi. Bu fazilatlar esa shaxsni mukammallashtiradi va jamiyatda hurmatli shaxs aylantiradi. Madaniyat va urf-odatlariga hurmat uyg'otadi. Nafosat tarbiyasi milliy madaniyat, urf-odat va san'atni anglash orqali o'zlikni tanishga xizmat qiladi. Bu esa yosh avlodda vatanparvarlik tuyg'usini oshiradi. Sog'lom muhit shakllantiradi. Nafosatga ega bo'lgan shaxslar odobli, muloyim va jamoada muomala madaniyatiga amal qiladigan insonlar bo'ladi. Bu esa sog'lom va ijobiy ijtimoiy muhitni yaratadi. Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Nafosatga e'tiborli bo'lgan yoshlar odatda san'at, adabiyot, dizayn, moda kabi sohalarga qiziqadi, bu esa ularning ijodiy salohiyatini ochib beradi. Shuning uchun zamonaviy shaxs tarbiyasida nafosatga alohida e'tibor berish lozim. Bu faqat tashqi chiroy emas, balki ichki boylik, ruhiy yetuklik va madaniyat

belgisi hamdir. Qadimgi Yunonistonda estetik tarbiyaning maqsadi, fuqarolarni har tomonlamba kamol toptirib, —ruh va tana mukammalligi va uyg'unligini qaror toptirishga qaratilgan edi. Suqrot, o'z nutqida, "chiroyli", "yaxshi" va "foydali" tushunchalarni ifodalaydi. Aristotel "kalokagatiya" tushunchasini taqdim etadi, u odamni mehribon va go'zal maxluq deb tushuntiradi. Kalokagatiya – atamasi, tarjimada taxminan, axloqiy go'zallik ma'nosiga yaqin keladi. Qadimgi Yunoniston falsafasining klassik davrida, bu atama, ijtimoiy-siyosiy, pedagogik, axloqiy va estetik idealni anglatgan va insonga berilgan fazilat sifatida taqdim etilgan. Kalokagatiya atamasi, Aflotunda —tashqi go'zallik ma'nosida, "Parmenid" dialogida uchraydi. Aflotun, insonning uyg'un rivojlanishi uchun, tana va ruhning to'g'ridan-to'g'ri bog'liqliqligini ta'kidlaydi. Tsitseronning falsafiy asarlarida ham, estetik tarbiya g'oyalari ko'p jihatdan rivojlangan bo'lib, ularda, ifodali so'zlash qobiliyati, badiiy so'z, ritm tuyg'usiga katta ahamiyat berilgan. Tsitseron shunday deydi: "... bolalar ba'zida porloq umidlarni orzu qilishadi, keyinchalik bu yillar o'tib yo'qoladi; buning uchun tabiat aybdor emas, ammo ma'lumot yetishmasligi bunga sababdir". Avgustin, bolalarga nisbatan insonparvar munosabatida bo'lish, ularning tug'ma, ijodiy bilim va qobiliyatlarini rivojlantirish g'oyalarini ilgari surgan. Fransuz faylasufi Rene Dekart, borliqning yagona ishonchli mezonini ong, fikrdir, deb hisoblagan. U musiqaning maqsadi, muvozanat va uyg'unlikni uyg'otish ekanligini ta'kidlaydi. Shu asosda R. Dekart o'zining estetik tarbiya nazariyasini ishlab chiqadi. Estetik tarbiya atamasi birinchi bo'lib buyuk olmon faylasufi Fridrix Shiller tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Shiller ta'kidlaydiki — Faqat go'zallikdangina, biz bir paytning o'zida, ham individ, ham odamzod sifatida zavq ola bilamiz. Hissiyot bandasi bo'lgan insonni oqil insonga aylantirish, faqat uni estetiklashtirish orqaligina ro'y berishi mumkin.

NATIJA VA TAHLILLAR

Forobiy asarlarida nafosat tarbiyasini rivojlantirishga oid tajriba-sinov ishlarining natijalari ushbu bo'limda batafsil tahlil qilinadi. Tajriba-sinov ishlari 2023-2025 yillar davomida Farg'ona viloyatining umumta'lim maktablari (Farg'ona shahridagi 4-, 12-maktablar, Qo'qon shahridagi 7-maktab, Marg'ilon shahridagi 9-maktab) va oliy ta'lim muassasalari (Farg'ona davlat universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti) bazasida o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlari tayyorgarlik (2023 yil sentabr - 2023 yil dekabr), asosiy (2024 yil yanvar - 2024 yil dekabr) va yakuniy (2025 yil yanvar - 2025 yil mart) bosqichlarida amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlarining natijalarini tahlil qilish maqsadida umumta'lim maktablari o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun nafosat tarbiyasining samaradorligini baholash bo'yicha quyidagi mezonlar ishlab chiqildi:

Estetik bilim darajasi - go'zallik falsafasi, san'at turlari, Forobiy asarlarida nafosat tarbiyasi haqidagi bilimlar;

Estetik did darajasi - go'zallikni anglash va qadrlash qobiliyati, san'at asarlarini baholash mahorati;

Go'zallikni anglash qobiliyati darajasi - tabiat va san'at go'zalliklarini idrok etish qobiliyati;

Ijodiy qobiliyatlar darajasi - san'atning turli sohalarida ijod qilish qobiliyati;

Nafosat tarbiyasiga munosabat - nafosat tarbiyasiga bo'lgan qiziqish va munosabat.

Har bir mezon bo'yicha natijalarni baholash uchun uch darajali shkala ishlab chiqildi: yuqori, o'rta va past. Har bir daraja uchun aniq ko'rsatkichlar belgilandi:

Tajriba-sinov ishlarining natijalari tayyorgarlik bosqichidagi dastlabki diagnostika va yakuniy bosqichdagi yakuniy diagnostika ma'lumotlarini taqqoslash orqali tahlil qilindi. Dastlabki va yakuniy diagnostika natijalari tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida qiyosiy tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishlarining statistik ishonchliligi Styudent t-kriteriysi yordamida tekshirildi.

Estetik bilim darajasi bo'yicha:

Tajriba guruhi o'quvchi va talabalari go'zallik falsafasi, san'at turlari, Forobiy asarlarida nafosat tarbiyasi haqida chuqur va tizimli bilimga ega bo'lganlar. Ular Forobiy asarlaridan «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola», «Ilmlarning kelib chiqishi haqida», «Musika haqida katta kitob», «Poetika», «Ritorika» kabi asarlarda bayon etilgan nafosat tarbiyasi g'oyalari haqida batafsil ma'lumot bera olganlar. Tajriba guruhi o'quvchi va talabalari go'zallik tushunchasining falsafiy mohiyatini, go'zallik va ezgulik,

go'zallik va haqiqat o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirib bera olganlar. Shuningdek, ular san'atning turli turlari (musiqqa, she'riyat, tasviriy san'at, me'morchilik, amaliy san'at)ning o'ziga xos xususiyatlari va ularning inson ma'naviy kamolotidagi o'rni haqida chuqur bilimga ega bo'lganlar.

Nazorat guruhi o'quvchi va talabalari esa go'zallik falsafasi, san'at turlari, Forobiy asarlarida nafosat tarbiyasi haqida yuzaki bilimga ega bo'lganlar. Ular Forobiy asarlarida bayon etilgan nafosat tarbiyasi g'oyalari haqida qisman ma'lumot bera olganlar. Go'zallik tushunchasining falsafiy mohiyatini, go'zallik va ezgulik, go'zallik va haqiqat o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishda qiyinchiliklarga duch kelganlar. San'atning turli turlari haqidagi bilimlari ham yuzaki bo'lgan.

Estetik did darajasi bo'yicha:

Tajriba guruhi o'quvchi va talabalari go'zallikni anglash va qadrlash qobiliyatiga ega bo'lganlar, san'at asarlarini baholashda yuksak did ko'rsatganlar. Ular san'at asarlarining badiiy qimmatini aniqlay olganlar, o'z badiiy-estetik qarashlarini asoslay olganlar. Tajriba guruhi o'quvchi va talabalari mumtoz musiqqa, she'riyat, tasviriy san'at asarlarini baholashda yuksak did ko'rsatganlar, ularning badiiy qimmatini aniqlay olganlar. Ular san'at asarlarini baholashda aniq mezonlarga (kompozitsiya, ritm, garmoniya, proporsiya, ranglar uyg'unligi, ifodalilik va boshqalar) tayanaganlar.

Nazorat guruhi o'quvchi va talabalari esa go'zallikni anglash va qadrlash qobiliyatiga qisman ega bo'lganlar, san'at asarlarini baholashda did yetishmasligi ko'ringan. Ular san'at asarlarining badiiy qimmatini aniqlay olmaganlar, o'z badiiy-estetik qarashlarini asoslashda qiyinchiliklarga duch kelganlar. San'at asarlarini baholashda aniq mezonlarga tayanmay, ko'proq subyektiv mulohazalarga asoslanganlar.

Go'zallikni anglash qobiliyati darajasi bo'yicha:

Tajriba guruhi o'quvchi va talabalari tabiat va san'at go'zalliklarini chuqur idrok etganlar, ulardan zavqlanganlar. Ular go'zallikni turli hodisalarda ko'ra olganlar, go'zallik haqida o'z mulohazalarini bildirganlar. Tajriba guruhi o'quvchi va talabalari tabiat go'zalliklarini (Farg'ona vodiysi tabiat manzaralari, tabiat hodisalari)ni chuqur idrok etganlar, ulardan zavqlanganlar. Shuningdek, ular san'at go'zalliklarini (musiqqa, she'riyat, tasviriy san'at asarlari)ni ham chuqur idrok etganlar. Ular go'zallikni kundalik hayotda, oddiy narsalarda ham ko'ra olganlar.

Nazorat guruhi o'quvchi va talabalari esa tabiat va san'at go'zalliklarini yuzaki idrok etganlar, ulardan zavqlanish qobiliyati cheklangan bo'lgan. Ular go'zallikni ko'rish va go'zallik haqida mulohaza yuritishda qiyinchiliklarga duch kelganlar. Tabiat go'zalliklarini idrok etishda yuzakilik, san'at go'zalliklarini idrok etishda esa tushunmovchilik ko'ringan.

Ijodiy qobiliyatlar darajasi bo'yicha:

Tajriba guruhi o'quvchi va talabalari san'atning turli sohalarida ijod qilish qobiliyatiga ega bo'lganlar, o'z ijodida originallik va kreativlik ko'rsatganlar. Ular ijodiy g'oyalarni erkin amalga oshirganlar. Tajriba guruhi o'quvchi va talabalari she'r yozish, musiqqa ijro etish, rasm chizish, amaliy san'at namunalarini yaratish, kichik sahna ko'rinishlarini tayyorlash, notiqlik san'ati bo'yicha chiqishlar tayyorlash, ilmiy-ijodiy loyihalarni tayyorlash kabi ijodiy faoliyat turlarida faol ishtirok etganlar. Ularning ijodiy ishlari originallik, kreativlik, emotsionallik, expressivlik bilan ajralib turgan.

Nazorat guruhi o'quvchi va talabalari esa san'at sohalarida ijod qilish qobiliyati cheklangan bo'lgan, o'z ijodida originallik yetishmagan. Ular ijodiy g'oyalarni amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelganlar. Ularning ijodiy ishlarida stereotiplik, standartlik, emotsionallik va expressivlik yetishmasligi ko'ringan.

Nafosat tarbiyasiga munosabat bo'yicha:

Tajriba guruhi o'quvchi va talabalari nafosat tarbiyasiga katta qiziqish bildirganlar, nafosat tarbiyasi mashg'ulotlarida faol ishtirok etganlar. Ular mustaqil ravishda san'at asarlari bilan tanishganlar, go'zallik masalalarini o'rganishga intilganlar. Tajriba guruhi o'quvchi va talabalari nafosat tarbiyasi mashg'ulotlarida faol savol-javoblar qilganlar, qo'shimcha materiallar bilan tanishganlar, ijodiy loyihalarni bajarishda tashabbuskorlik ko'rsatganlar.

Xulosa

Zamonaviy jamiyatda zamonaviy shaxsni nafaqat bilimli va axloqiy yetuk, balki estetik jihatdan ham yetuk qilib tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi. Nafosat tarbiyasi bu borada asosiy vositalardan biri bo'lib, u shaxsni ruhiy-axloqiy yetuklikka, ijtimoiy faollikka, madaniyatli hayotga yo'naltiradi. Shuning uchun ham bu tarbiya yo'nalishini tizimli va uzviy ravishda amalga oshirish — zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas qismidir. Nafosat tarbiyasi zamonaviy shaxsni shakllantirishda muhim omillardan biri sifatida qaralishi lozim. Estetik tarbiya nafaqat yosh avlodning didini shakllantiradi, balki ularning ma'naviy-axloqiy kamolotiga, jamiyatda o'z o'rnini topishiga va barkamol inson sifatida voyaga yetishiga xizmat qiladi. Nafosatga intilish — bu go'zallikni yaratish va saqlashga bo'lgan ichki ehtiyojdir. Shunday ekan, bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida san'at, adabiyot, musiqa va boshqa madaniy-ma'naviy vositalar orqali estetik tarbiyani kuchaytirish dolzarb vazifalardan biridir. Oila, maktab va jamiyat o'zaro hamkorlikda yoshlarning estetik didi va madaniyatini shakllantirishda faol ishtirok etmog'i darkor. Zero, nafosatga boy yuraklardan jamiyatga yuksak insoniy qadriyatlar taraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Pedagogika" darsligi (mualliflar: S. Q. Toshxo'jayev, I. M. Mo'minov va boshqalar)
2. "Estetik tarbiya asoslari" – (M. Yo'ldoshev, O. R. Sobirov)
3. "Ma'naviyat asoslari" – (A. Jo'rayev va boshqalar)
4. O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari olimlari tomonidan yozilgan maqolalar (masalan, "Estetik tarbiya va yoshlar ma'naviyati", "Nafosat tarbiyasining ijtimoiy-psixologik asoslari")
5. ziyonet.uz – o'quv va tarbiyaviy maqolalar

BUXORODA JADID MAKTABLARINING TA'LIM –TARBIYA TIZIMI: MUAMMO VA YECHIMLAR

*Ahmadov Olimjon Shodmonovich
Buxoro davlat pedagogika instituti*

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasida p.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoroda XIX asr oxiri-XX asr birinchi choragida ta'lim-tarbiya muammolariga bag'ishlab yaratilgan manbalar va adabiyotlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Manba, manbashunoslik, ta'lim, tarbiya, uzluksiz ta'lim, tadqiqot, maqola, dastur, tizim, an'anaviy ta'lim, maktab, madrasa.

EDUCATIONAL SYSTEM OF NEW SCHOOLS IN BUKHARA: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Abstract: This article scientifically analyzes the sources and literature created in Bukhara in the late 19th century and the first quarter of the 20th century on the problems of education and upbringing.

Keywords: Source, source studies, education, upbringing, continuing education, research, article, program, system, traditional education, school, madrasa.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ СИСТЕМА НОВЫХ ШКОЛ В БУХАРЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация: В статье научно анализируются источники и литература, созданные в Бухаре в конце XIX века и первой четверти XX века по проблемам образования и воспитания.

Ключевые слова: Источник, источниковедение, образование, воспитание, непрерывное образование, исследование, статья, программа, система, традиционное образование, школа, медресе.

Buxoro amirligida yangi usul maktablaridagi ta'lim- tarbiya amirlikda XIX asr oxirida vujudga kelgan. Yangi maktablarga usuli –savtiya, tadrijiya (rivojlanuvchi tovush usuli) deb nom berilgan.

Ismoilbek G'aspirali (1851-1914) taklif qilgan usulda maktab tashkil etgan va gazeta nashr qilgan yoshlar "jadidlar" deb atala boshlangan. Boshkacha aytganda, musulmonlar jamiyatini zamonaviy aloqa vositalari va muloqotning yangi shakllaridan foydalanish orqali isloh qilishga urinuvchi shaxslar "jadidlar" deb atalgan¹¹. Ammo, ular o'zlarini jadid - deb atamas edilar. Ko'pincha ular o'zlarini taraqqiyparvarlar, munavvarlar va keyinchalik yoshlar deb atashgan¹². "Jadid" atamasi arabchadan olingan bo'lib, "yangi", yangilik tarafdori-degan ma'noni bildiradi. Ular tomonidan tashkil etilgan maktablar ham yangi usul yoki jadid (usuli jadida) maktablari deb nom olgan.

An'anaviy maktabdagi o'qitish usuli yod olish, ya'ni harflar va matnlarni o'qituvchidan ilib olib qayta takrorlash usuliga asoslangan bo'lib, unda savod chiqarish qiyin kechardi.

I.G'aspirali ilgari surgan savtiya, yangi usul, ya'ni tovush usuli harflarni tovush chiqarib o'qish tartibi esa oson va tez savod chiqarish imkonini berar edi. Shu sababli bu yangi ta'lim tizimi usuli savtiya (tovush usuli), usuli jadid (yangi usul) nomlarini olgan edi¹³. Yangi usulda o'qish va yozish barobar o'rgatilganligi, ayniqsa, muxim edi.

Ismoilbek G'aspirali Turkistonda yangi usul maktablari tashkil qilinishi, yangi usul afzalliklari haqida Turkiston general-gubernatori N.O.Rozenbaxga (1884-1889) yillarda Turkiston general-gubernatori mansabida jo'natgan maktubida rad javobini oladi¹⁴. Shundan keyin u Buxoro amiri Abdulaxadxonga murojaat etib, yangi usuldagi maktablar ochishga izn so'raydi. Amir Abdulahadxon (xukmronlik davri: 1885-1910) 1893 yilning boshida Bog'chasaroyda I.G'aspirali bilan tanishib o'zaro uzoq muloqotdan so'ng uni Buxoroga taklif etadi. 1893 yil may oyida I.G'aspirali Buxoroga tashrif buyuradi. 1883 yil 12 oktabrda I.G'aspirali "Tarjumon" gazetasiga asos solgan. Amir Abdulahad uning o'quvchilaridan va obunachilaridan biri edi. 1884 yildan gazetaning Turkistonda 320 ta obunachisi bo'lgan¹⁵.

Amirning Shaxrisabzdagi yozgi qarorgohida bo'lib o'tgan suhbat chog'ida (1894) I.G'aspirali fikrlariga keskin qarshilik bildirilmasa-da¹⁶, ularni amalga tatbiq etish oson kechmadi. Buning asosiy sababi Buxoro amiri Rossiya imperiyasi xukumatidan izn olmay turib, biror masalani shaxsan hal etish erkidan maxrum edi¹⁷.

Buxoroda ilk bor yangi usul maktablarining tashkil etilishi taxminan 1900-1903 yillar oralig'iga to'g'ri keladi. Aynan shu yillarda tatar o'qituvchilari tomonidan ilk yangi usul maktablari ochilgandi.

1900 yilida Buxoroda Pirmast tumanidagi Po'stindo'zon qishlog'idan bo'lgan Mulla Jo'raboy tomonidan amir Abdulaxadxon ruxsati bilan yangi usul maktablari ochiladi, ammo oradan uch oy o'tgach, uning faoliyati to'xtatilib, muallimlari quvg'inga uchraydi. Sadridin Ayniyni yozishicha, Buxoroda bu paytda mavjud bo'lgan yangi usuldagi tatar maktabi tatar tilida bo'lganligidan Buxorolik bolalar qatnashi og'ir edi. Shu sababli maxalliy taraqqiyparvarlar o'zlari yangi usul maktabi ochish harakatga tushdilar¹⁸. Bu maktablarda milliy jadidlar bilan birgalikda tatar millatiga mansub muallimlar ham dars berardilar.

Yangi Buxoro (Kogon)da-ham yangi usul maktabi tatar muallimlari tomonidan ochilib, unga joyni amir hukumatining o'zi ko'rsatib bergan edi. Dastlab unda tatar muallimlar, keyinchalik esa maxalliy muallimlar dars beradi. Bu maktab uchun xukumat 20 ming rubl (sum) in'om etadi. U bir necha bor yopilib, yana faoliyat kursatgan.

¹¹ Азизов Ш., Азизова С. Маърифатпарварлик - ижтимоий-маданий ҳодиса. - Тошкент, 2008. — Б. 51.

¹² Анке Фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX в.в.). - Алматы. Изд.: Дайк-Пресс. 2004. - С. 364.

¹³ Арабско-русский словарь. - М: Главная редакция восточной литературы, 1970. - С. 220.

¹⁴ Турсунметова Г. XX аср бошларида Туркистон таълим-тарбия тизимида жаид мактаблари //Тарихий хотира -маънавият асоси. - Бухоро. 2008. - Б. 124.

¹⁵ Косимов Г. Исмоилбек Гаспирали ва Туркистон. Т. Фан. 1992. Б. 15.

¹⁶ Анке Фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мянгитов в произведениях их историков (XVIII-XIX в.в.). - Алматы, Изд.: Дайк-Пресс. 2004. —С.364.

¹⁷ Мехмет Сарай. Турк дунёсида маориф ислохоти ва Гаспирали Исмоил (Туркия). - Анкара, 1987. - Б. 49.

¹⁸ Айний С. Бухоро инкилоби тарихи учун материаллар. Асарлар. -Тошкент. Бадиий адабиёт. 1963. 1 том. - Б. 200.

Buxoroda ilk maxalliy yangi usul maktablari 1903-1904 yillardan ochila boshlangan. 1903 yilga kelib Buxoroda 6 ta yangi usul maktabi tashkil etilgan edi¹⁹.

1908 yilda Buxoro amirligiga I.G'aspirinskiy maktab isloxoti masalalari yuzasidan tashrif buyuradi. Buxoroda u ilg'or fikrli tatar ziyolilaridan Sobitov bilan uchrashgan. I.G'aspirali muallim Nizom Sobitovga yangi usul maktablari uchun o'zi yozgan (keyinchalik 27 marta qayta-qayta nashr etilgan) "Xo'jai Sibiyon" ("Bolalar muallimi") nomli birinchi darslik asosida ish boshlashni tavsiya etadi. Ushbu darslikda foydali maslahatlar, hikoyalar berilgan edi²⁰. Sobitov tatar bolalarini yosh xususiyatlariga qarab sinflarga bo'ladi. O'rtacha bir kunda 5 soat dars, har bir darsdan so'ng 10 daqida tanaffus joriy qilinadi. Birinchi bosqichda o'quvchilarga harflar o'rgatiladi, o'quvchi bir darsni o'zlashtirmasa, ikkinchisiga o'tolmasdi. Bolalarni yorug' xonalarda, ko'rgazmali qurollar, globus va xaritalar orqali o'qitish yo'lga qo'yilgan. Bu maktab an'anaviy usuldagi maktablardan nafaqat shart-sharoitlari, balki o'quvchilar tezda savodini chiqarishi bilan ham afzal edi. Ularga 10 oylik taxsildan so'ng ta'til berilgan, hafta mobaynida juma va bayram kunlari dam olish kunlari hisoblangan²¹.

Buxorodagi N.Sobitovning tatar maktabini nafaqat tatar bolalari, balki Buxoroliklarning bolalari uchun ham rasmiylashtirmokchi bo'ladilar. Maktabni I.G'aspirinskiy sharafiga Ismoilni deb nomlashga qaror qilinadi. Ammo I.G'aspirinskiy bunga rozi bo'lmaydi va maktabni marhum amir Muzaffarxon nomiga bag'ishlab Muzaffariya deb atashni taklif etadi. I.G'aspirinskiy amir Abdulaxadxon bilan uchrashib, maktab ochish, uning binosi va boshqa tashkiliy ishlar to'g'risida gaplashib oladi. Birok Buxorolik mutaassib ulamolar karshiligi tufayli ushbu maktabni rasmiylashtirish ishi to'xtab qoladi. Sobitovning buxorolik bolalar ham o'qib turgan tatar maktabi Homid Burnashevning hovlisiga ko'chiriladi va bir yilga yaqin shu taxlitda faoliyat kursatadi²².

Xulosa qilib aytganda Yangi usul maktablari faoliyatida ham muammolar mavjud edi. Eng avvalo ular uchun yagona o'quv dasturi mavjud emasligi, har bir maktabda turli darslik va o'quv qo'llanmalar o'qitilishi, muallimlarning yetishmasligi, asosan boshlang'ich maktab ekanligi, maktablarning xususiy yohud xayriya ko'rinishidaligi, shuningdek, moliyaviy muammolar mavjudligi va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizov Sh., Azizova S. Ma'rifatparvarlik - ijtimoiy-madaniy hodisa. - Toshkent, 2008. — B. 51.
2. Anke Fon Kyugelgen. Легитиматсия среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX в.в.). - Алматы. Изд: Дайк-Пресс. 2004. - С. 364.
3. Арабско-русский словарь. - М: Главная редакция восточной литературы, 1970. - С. 220.
4. Tursunmetova G. XX asr boshlarida Turkiston ta'lim-tarbiya tizimida jadid maktablari //Tarixiy xotira -ma'naviyat asosi. - Buxoro. 2008. - B. 124.
5. Kosimov G. Ismoilbek Gaspirali va Turkiston. T. Fan. 1992. B. 15.
6. Анке Фон Кюгелген. Легитиматсия среднеазиатской династии мянгитов в произведениях их историков (XVIII-XIX в.в.). - Алматы, Изд.: Дайк-Пресс. 2004. —С.364.
7. Mexmet Saray. Turk dunyosida maorif isloxoti va Gaspirali Ismoil (Turkiya). - Ankara, 1987. - B. 49.
8. Ayniy S. Buxoro inkilobi tarixi uchun materiallar. Asarlar. -Toshkent. Badiiy adabiyot. 1963. 1 tom. - B. 200.
9. Бендриков К. Н. Очерки по истории народного образования в Туркестане. - С.378.
10. Зенковский С.А. Ран-турсим анд ислам ин Россия. - Самбр. Массачусеттс: Харвард Университй Пресс. 1967. П. 86.

¹⁹ Тохир каххор. Хур Туркистон учун. Тошкент. 1994. - Б. 28-29.

²⁰ Низом Собитов Бухорога Марказий Россиядан кучган татар оилалардан бирининг фарзанди булиб, Мадраса тахсилни олган. Бухорода биринчи усули жадид мактабини очганлардан бири, 1918 йил бутун оиласи билан амирлик томонидан вахшийларча ўлдирилган. Н.Собитовнинг исмини абадийлаштириш учун 1- Бухоро дорилмуаллимига БХСР даврида унинг номи кўйилган.

²¹ Хайитов Ш., Бадриддинов С. Бухоро тарихидан лавхалар (XIX-XX асрлар). - Бухоро, 2007.

²² Бендриков К. Н. Очерки по истории народного образования в Туркестане. - С.378.

JADID MAKTABLARIDA TA'LIM-TARBIYAVIY MEROS

Berdiyeva Sadoqat Eshonqul qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi
Ro'ziyeva Sevinch Maxmud qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jadid maktablari hamda ularning ta'lim-tarbiyaiy merosidan foydalanish, yoshlarni tarbiyalashda maktabdagi ta'limga yanada chuqurroq e'tibor qaratish kerakligi haqida tushuntirishlar berilgan.

Kalit so'zlar: Jadid, maktab va maorif, jadid ma'rifatparvarlik harakati, ma'rifat.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ НАСЛЕДИЕ В НОВЫХ ШКОЛАХ

Аннотация: В данной статье объясняется использование джадидских школ и их образовательного наследия, а также необходимость уделять больше внимания школьному образованию в воспитании молодежи.

Ключевые слова: Джадид, школа и образование, современное просветительское движение, просвещение.

EDUCATIONAL HERITAGE IN NEW SCHOOLS

Annotatsion: This article explains the use of Jadid schools and their educational heritage, and the need to pay more attention to school education in the education of young people.

Key words: Jadid, school and education, modern enlightenment movement, enlightenment.

O'zbek xalqi tarixining XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi davri tarixan qisqa vaqtni tashkil etgan bo'lsa-da, xalqning tarixiy taqdirida muhim ahamiyatga molik bo'lgan davrdir. Shu davrda maydonga kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati maktab va maorif, matbuot, adabiyot va san'at sohalarida islohotchilik ishlarini amalga oshiribgina qolmay, xalqning madaniy, ma'rifiy va ruhiy hayotini butunlay o'zgartirib yubordi yoki shu yo'lda e'tiborga molik katta ishlarni bajardi.

Ma'lumki, "jadid" so'zi "yangi", "yangilik" ma'nolarini anglatadi. Insoniyat tarixida biror makon va zamon bo'lmaganki, jamiyatning bir maromda kechayotgan hayotiga kirib kelgan yangilik katta qarshilikka uchramagan bo'lsin. Jamiyat va inson hayotining bir maromda kechishi, ertami-kechmi, tanazzulga olib boradi. Shuning uchun ham xalqning peshqadam ziyolilari jamiyat va inson hayotida kecha boshlagan tanazzulga qarshi kurashish yoki uning oldini olish uchun yangi g'oyalarni "ishlab chiqishadi". Ammo shu tanazzulning "issiq bag'ri"da yashayotgan, shunga ko'nikma hosil qilgan ayrim kishilar bu hayotbaxsh g'oyalarni nayza bilan qarshi olishadi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida O'rta Osiyoda shunday holat yuz berdi. Turkiston, Buxoro va Xivada, shuningdek, ayrim xorijiy Sharq mamlakatlarida junbishga kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati katta to'siqlarga uchradi. Bugun biz, oradan 100 yil o'tganidan keyin, Turkistonda M.Behbudiy rahbarligida yuzaga kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati tarixini o'rganganimizda, ularning qanday murakkab sharoitda yangi maktablarni ochgani, milliy matbuotga asos solgani, yangi badiiy adabiyot va teatr san'atiga tamal toshini qo'yanini o'ylasak, ularning bu faoliyatlarini fidoyilik va jasorat deb baholash lozim bo'ladi. Ammo masalaning ajabtovur tomoni shundaki, bu tarixiy haqiqat uzoq davrlar mobaynida tan olinmay keldi. Jadidlar chor Rossiyasi davrida ham, sovet hokimiyati davrida ham qoralanib kelindi. Ular faoliyati bilan bog'liq tarixiy adolatni tiklash jarayoni uzoq cho'zildi. Faqat xalqimiz mustaqillikka erishganidan, jamiyatda jadid ma'rifatparvarlari faoliyatini o'rganishga ishtiyoq paydo bo'lganidan so'nggina bu harakat keng ko'lamda o'rganila boshlandi. Shu narsa quvonarliki, Turkistondagi jadid ma'rifatparvarlik harakatini o'rganishdek qutlug' ishga Yevropa va Amerika Qo'shma Shtatlaridagi olimlar ham zavq bilan qirishdilar. Hozir jadid ma'rifatparvarlik harakati va uning namoyandalari faoliyatini o'rganish xalqaro miqyosdagi muhim ilmiy-amaliy loyiha darajasiga ko'tarildi.

“Millatning taraqqiysi aning avvali muntazam maktablaridan boshlanur. Agarda biz dinimizni, millatimizni yaxshi ko‘rub, muhofaza qilmoqchi bo‘lsak, avval saodat eshigi bo‘lgan maktabimizni zamong‘a muvofiq isloh qilish kerak” [1], - deb yozgan edi turkistonlik jadidlardan biri Hoji Mu‘in Shukrullo. Haqiqatan ham, maktablar islohi masalasi jadid matbuotining keng va qamrovli munozaralariga sabab bo‘ldi. Turkiston maktablari qanday bo‘lishi kerak, ular qaysi yo‘nalishda rivojlanishi zarur, kabi muammolar o‘z davri mualliflarining diqqat markazida bo‘ldi. Munavvar qori Abdurashidxonov asrlar davomida hukm surib kelgan maktab va madrasalardagi o‘qitish tizimini isloh etishni ilgari suradi. Maktablarda hali asl mazmuni va ma‘nosini tushunishdan yiroq bolalarga Fuzuliy, Navoiy, Xo‘ja Hofiz, Bedilning muhabbat haqidagi she‘rlari o‘qitiladi va uningcha: “bir bolaga Fuzuliy o‘rniga ilmi qiroat, Navoiy o‘rniga masoili e‘tiqodiya, Xo‘ja Hofiz joyiga masoili amaliyot, Bedil badalig‘a ilmi hisob o‘qitilsa, din va dunyosi uchun qancha foydalar hosil qilib, musulmon o‘lur” [2]. Balog‘atga yetmagan bolalar ulardagi falsafiy ma‘noni uqmagan, hatto ularni o‘qiyotgan domlasi ham tushunmagan holda “johil domlalarini ta‘limi falonni qoshi qora, ko‘zi qora, yuzi oq, so‘zi shirin, deb bolalarni fasod axloqig‘a birinchi sabab o‘ladurg‘on” asarlarga aylanayotganligini ta‘kidlagan muallif, bularning o‘rniga matematika, geografiya, islom tarixi kabi dunyoviy ham diniy ilmlarni o‘qitish foydali, degan fikrda edi. “Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yohud taraqqiyning yo‘li” maqolasining muallifi Niyoziy Rajabzoda o‘lkadagi boshlang‘ich maktablarning zamon talabiga javob bera olmayotganligini dalillar bilan keltiradi: “... xoh Buxoro, Samarqand, Toshkand, xullas, umum Turkiston shaharlarida bo‘lgan musulmon qarindoshlarimiz insof ila fikr qilsalar, maktablarimizni ko‘p parishon va beintizom holatda ko‘rarlar. Muddati tahsil ko‘p uzoq bo‘lganligi uchun ko‘p kishilar bolalarini 8-10 yil maktabga qo‘yolmaydurlar. Chunki qudrati iste‘dodlari yetmaydir. Shuning uchun maktabda yurgan bolalarimizdan 10 yo 8 nafardan 2 yo 3 nafar ahli savod bo‘lub chiqadurlar” [3]. Uning fikricha, diniy bilimlarni chuqur o‘rganish zarur, lekin “hunarlik va boy bo‘lmoq uchun albatta ilmu ma‘rifat lozimdur. Ilmu ma‘rifat uchun maktab, madrasalar isloh qilinub, nizom va tartibga kirgizulmog‘i lozimdur”. Angliya, Germaniya mamlakatlari, deydi u, ilm-fan taraqqiysi natijasida “yer yuzining boyliklarini o‘zlariga qoratub olibdurlar”. Ilm-ma‘rifatdan mahrum bo‘lgan millat esa, “san‘at va hunar sohibi bo‘lgan millatlarning oyog‘i ostida ezilurga majbur bo‘ladur”. “Oyina” jurnali o‘zining 1914 yil 27-sonida hukumat statistik ma‘lumotlari asosida Samarqand viloyati shaharlari bo‘yicha aholi, madrasa, maktab va talabalar soni keltirilgan jadvalni chop etadi. Ma‘lum bo‘ladiki, mahalliy aholining har yuzdan uch nafari, rus millatining har yuzdan 16 nafari o‘qishga jalb etilgan. Ushbu vaziyatni muallif “hazrati Payg‘ambarimizning “Ilm Xitoyda bo‘lsa-da talab qilingiz”, “Talabi ilm har musulmon er va xotung‘a farzdur”, “Ilmni beshikdan qabrg‘acha talab qilingiz” degan amri shariflarig‘a bo‘yin qo‘ymaganimiz ma‘lum bo‘lur. Va bul o‘qumaslikning oxiri dunyo oxiri va oxiratda rasvolik bo‘lur” [4], deb baholaydi. “Agarda har millatning istiqbolini bilmak xohlansa ul millatni bolalarig‘a nazar va... alarning sihatlariga va husni tarbiya va ta‘limlarig‘a” [5] katta e‘tibor zarurligi Abdusalom Azimiyning “Ta‘lim va tarbiya” maqolasining bosh mavzusi bo‘ldi. Uning “bolag‘a ona birinchi omil va murabbiydir. Onani ta‘siri bolag‘a, otani ta‘siridan ziyodadir” fikri hamma davr uchun birdek katta ahamiyatga ega. Zotan, “Agarda onalar johila bo‘lmay, balki oqila, muhazzaba, mutaallama va odobi sahihalarga dono bo‘lsalar va bolani o‘z tarbiyasiga muvofiq bo‘luvini tushunsa, hifzi sihat va odobga rioya etsa va nobajo bo‘lunmog‘idan to‘xtatsa va odibi islomiya va axloqi marziya birla tarbiyat etsa, albatta, ul bolani oqil va halim bo‘lmog‘iga shak va shubha yo‘qdur” [6]. Darhaqiqat, xotin-qizlarning o‘qimishli, ilmi, madaniyatli, o‘z jamiyati uchun zarur va foydali insonlar bo‘lib yetishishlari kabi masalalar milliy matbuotning dolzarb mavzularidan biriga aylandi. Bu mavzuda ko‘plab maqolalar, she‘rlar, badiiy asarlar chop etib borildi. So‘fizodaning “O‘qunglar onalar” [7], Tavalloning “Hamshiralar tilindan” [8] she‘rlarida Turkiston xotinlarining “mute” joriyalar”ga aylanib qolganligi, ularning ma‘rifatli bo‘lishiga qarshilik ko‘rsatayotgan “chalasavodlar”ga qarshi chiqiladi va ularning xulosasi ma‘rifatni keng joriy etish zarurligi bilan yakun topadi. “Biz bechoralarni shu xollarga (jaholat nazarda tutilgan - N.M.) qolg‘onimizga birinchi sabab ilmsizligimiz, dunyodin xabarsizligimizdur. Ey otalar ushbu

holimizni ko‘z oldig‘a kelturub bizlarni oqarturug‘a, ilm-maorif nuridin bahravor qilurga harakat qilingiz... Ma’suma qizlaringizni dunyoda baxtli va saodat ila yashatug‘a oshiqingiz” [9], deydi “Toshkandlik bir muallima” imzosi bilan yozgan “Na uchun ibrat olmaymiz” maqolasi muallifi.

Qizlarga turli ziynatlar emas, aksincha ilm, hunar kerakligi, o‘g‘il bolalarga nisbatan qiz bolalarga ilm, hunar ko‘proq zarurdir, degan fikrlar bu maqolaning bosh mazmuniga aylandi. Salima Yoqubova va Mahfuza Maqsudovalarning “Nikoh haqida” sarlavhali maqolalarining ikkinchi qismi “Muallimalik masalasi”ga bag‘ishlanib, unda turkistonlik xotin-qizlar uchun Yevropa usulidagi maktablar ochilishi, ularda muallimlik shahodatnomasi bo‘lgan, alohida kurslardan o‘tgan muallimalar dars berishlari, ularga ma’lum miqdorda oyliklar belgilanishi kerakligi haqida mulohazalar bayon qilinadi [10]. Diqqatga molik tomoni shundaki, mualliflar Turkistonda ham xuddi Yevropada bo‘lganidek, xotin-qizlardan muallima tayyorlaydigan dorilmuallimot - oliy o‘quv yurtlari ochilishi masalasini qo‘yadilar. Umuman ayollarning ilmsizligi muammosi Turkiston tarqqiyparvarlarini doimo tashvishlantirgan. Ular hatto boshqa musulmon davlatlarida bu holatning mavjudligini yoritishga harakat qilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yoshlarga murojaat// Samarqand. 1913 yil 9 avgust.
2. ABDURASHIDXONOV M. Bizni jaholat - jahli murakkab // Abdurashidxonov M. Tanlangan asarlar Toshkent, 2003.143-144-betlar.
3. RAJABZODA Niyoziy. Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yohud taraqqiyning yo‘li // Oyina (1914-1915Y.). Toshkent, 2001.5-bet.
4. Samarqand viloyatining nufusi hukumatning sanai xoliyadagi hisobi bo‘yuncha//Oyina (1914-1915y.). Toshkent, 2001. 21-bet.
5. AZIMIY Abdusalom. Ta’lim va tarbiya//Oyna. 1915 yil 5 fevral.
6. Sadoi Turkiston. 1914 yil 17 may.
7. Sadoi Turkiston. 1914 yil 24 dekabr.
8. Toshkandlik bir muallima. Na uchun ibrat olmaymiz // Sadoi Turkiston. 1914 yil 20 may.
9. JADID MA’RIFATPARVARLIK HARAKATINING G‘OYAVIY ASOSLARI. “Jadid ma’rifatparvarlarining milliy ta’lim, matbuot, adabiyot va san’atni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi va uning Milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari 2016 yil 15 aprel’.
10. YOQUBOVA S., MAQSUDOVA M. Nikoh haqida // Sadoi Turkiston. 1914 yil 20 may.

BOSHLANG‘ICH SINIF DARSLARIDA IMOM AL- BUXORIY HADISLARINI JADID MA’RIFATPARVARLARI MEROSI ASOSIDA O‘RGATISHNING METODIK IMKONIYATLARI

Yodgorova Go‘zaloy Olim qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti g973433717@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Imom al-Buxoriy hadislarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatish jarayonida jadid ma’rifatparvarlari — xususan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonov merosidan samarali foydalanishning metodik imkoniyatlari yoritilgan. Muallif hadislarining tarbiyaviy ahamiyatini ochib berar ekan, ularni yosh avlodga singdirishda jadidlar tajribasi va zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘rtasida uyg‘unlik zarurligini asoslaydi. Maqolada hadislar asosida dars mazmunini boyitish, axloqiy muhokamalar, mini-sahnalar, hikoya va rasmiy topshiriqlar orqali bolalarning dinga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish metodikasi batafsil ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimida milliy va diniy qadriyatlarga asoslangan tarbiya berishning istiqbollari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Imom al-Buxoriy hadislarini jadid pedagogikasi ruhida va zamonaviy metodlar asosida o‘rgatish — bolalarda

halollik, mehr-oqibat, rostgo'ylik, sabr-toqat kabi insoniy fazilatlarini rivojlantirishda, milliy o'zlikni shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Imom al-Buxoriy, hadis, jadidchilik, ma'rifatparvarlik, boshlang'ich ta'lim, tarbiya, metodika.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ХАДИТОВ ИМАМА АЛЬ-БУХАРИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА ОСНОВЕ НАСЛЕДИЯ НОВЫХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ

Аннотация. В статье рассматриваются методические возможности эффективного использования наследия просветителей-джадидов, в частности Махмудходжи Бехбудий, Абдуллы Авлоний, Мунавваркори Абдурашидханова, в процессе обучения учащихся начальной школы хадисам имама аль-Бухари. Раскрывая воспитательное значение хадисов, автор обосновывает необходимость гармонии между опытом джадидов и современными педагогическими подходами в их привитии подрастающему поколению. В статье подробно рассматривается методика обогащения содержания уроков на основе хадисов, формирования у детей положительного отношения к религии посредством нравоучительных бесед, мини-сценок, рассказов, иллюстрированных заданий. Кроме того, анализируются перспективы обеспечения образования на основе национальных и религиозных ценностей в системе дошкольного и начального образования. Результаты исследования показывают, что обучение хадисам имама аль-Бухари в духе современной педагогики и на основе современных методов служит эффективным инструментом для развития у детей таких человеческих качеств, как честность, доброта, правдивость, терпение, а также для формирования национальной идентичности.

Ключевые слова: Имам аль-Бухари, хадисы, джадидизм, просвещение, начальное образование, воспитание, методика.

METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF TEACHING THE HADITHS OF IMAM AL-BUKHARI IN PRIMARY CLASSES BASED ON THE HERITAGE OF NEW ENLIGHTENERS

Abstract. This article discusses the methodological possibilities of effectively using the legacy of Jadid enlighteners, in particular Mahmudkhodja Behbudiy, Abdulla Avloniy, and Munavvarqori Abdurashidkhanov, in the process of teaching the hadiths of Imam al-Bukhari to primary school students. Revealing the educational significance of hadiths, the author justifies the need for harmony between the experience of Jadids and modern pedagogical approaches in instilling them in the younger generation. The article examines in detail the methodology for enriching the content of lessons based on hadiths, forming a positive attitude towards religion in children through moral discussions, mini-scenes, stories, and illustrated assignments. In addition, the prospects for providing education based on national and religious values in the preschool and primary education system are analyzed. The results of the study show that teaching the hadiths of Imam al-Bukhari in the spirit of modern pedagogy and based on modern methods serves as an effective tool for developing human qualities such as honesty, kindness, truthfulness, and patience in children, and for forming a national identity.

Keywords: Imam al-Bukhari, hadith, Jadidism, enlightenment, primary education, upbringing, methodology.

Kirish: Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda axloqiy fazilatlar, ongli tafakkur va barkamol shaxs sifatidagi ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning dunyoqarashi, e'tiqodi, axloqiy me'yorlarga bo'lgan munosabatining ilk shakllanish davri hisoblanadi. Shu bois bu bosqichda beriladigan tarbiya va ta'lim bolalarning keyingi hayoti va shaxsiy rivojida hal qiluvchi o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, yangi avlod darsliklari

konsepsiyasida yosh avlodni milliy g'oya, ma'naviyat, diniy bag'rikenglik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Bunda qadimiy va boy diniy-ma'naviy merosimiz, jumladan, buyuk allomalarimiz — Imom al-Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi ulug' zotlarning ilmiy merosi alohida ahamiyat kasb etadi. Imom al-Buxoriy islom ilmidagi eng yirik muhaddis bo'lib, uning "Al-Jome' as-sahih" nomli hadislar to'plami musulmon dunyosida eng ishonchli hadislar majmuasi sifatida tan olingan. Ushbu asardagi hadislar insonni ezgulik, poklik, mehnatsevarlik, vijdon, adolat, halollik, sabr-toqat, ota-onaga hurmat kabi fazilatlar sari yetaklaydi. Aynan shu sababli, mazkur hadislar boshlang'ich sinf o'quvchilariga hayotiy, ravon va tushunarli tilda yetkazish ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Bu borada jadid ma'rifatparvarlarining merosiga murojaat qilish alohida ahamiyatga ega. XIX–XX asr boshlarida faoliyat olib borgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadidlar bolalar tarbiyasida islomiy qadriyatlar, hadislar va axloqiy saboqlarni zamonaviy o'qitish metodlari bilan uyg'unlashtirganlar. Ular yaratgan darslik va asarlar, jumladan "Maktab kitobi", "Turkiy guliston yoxud axloq", "Muallim ul-avval" kabi risolalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ushbu maqolada aynan shu ikki manba — Imom al-Buxoriy hadislar va jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini uyg'unlashtirish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilariga diniy-ma'naviy tarbiya berishning metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor hadislar bolalarga mos usulda yetkazish, tarbiyaviy samaradorligini oshirish, va ular orqali sog'lom tafakkurli, axloqli shaxsni shakllantirish masalalariga qaratiladi.

Asosiy qism. Imom al-Buxoriy hadislarining boshlang'ich ta'limdagi tarbiyaviy ahamiyati Imom al-Buxoriy tomonidan to'plangan hadislar, ayniqsa, "Al-Jome' as-sahih" asaridagi axloqiy-tarbiyaviy yo'nalishdagi hadislar bolalarda axloq, halollik, to'g'rilik, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishda kuchli vositadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun eng avvalo oson, sodda, hayotiy mazmunga ega hadislar tanlanadi va ular bolalarga mos pedagogik yondashuvlar orqali yetkaziladi. Masalan: **"Rostgo'ylik najotdir"** hadisidan kelib chiqib, o'quvchilar bilan rost va yolg'onning oqibatlari haqida suhbat o'tkaziladi. **"Ota-onaga itoat qilish"**, **"Yaxshilik qilishda peshqadam bo'ling"** kabi hadislar oila, do'stlik va jamiyatda o'z o'rmini bilishga xizmat qiladi. Bu hadislar nafaqat diniy tushunchani, balki fuqarolik madaniyatini, milliy an'analarni va ijtimoiy mas'uliyatni ham shakllantiradi. Bolalar o'z harakatlarining ijobiy yoki salbiy oqibatlarini tushunishga boshlaydi. Muhimi, bu ta'lim usuli majburlovsiz, ibrat asosida ongli ravishda tarbiyalaydi.

2. Jadid ma'rifatparvarlari merosida hadislar va axloqiy tarbiya. Jadidchilik harakati vakillari islomiy ilmlarni zamonaviy dunyoqarash va xalqning real ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirishga harakat qilgan. Ular uchun din – faqatgina ibodat emas, balki hayot tarzidir. Shu sababli ularning maktab darsliklarida hadislar, islomiy axloqiy qadriyatlar bolalarga yengil, o'rganuvchan uslubda taqdim etilgan. **Abdulla Avloniy** o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida axloqiy-tarbiyaviy qoidalarini bayon qilarkan, ko'pincha hadislar va xalq maqollariga murojaat qilgan. Misol uchun, u "Sabr — xulqning quvvati" deya ta'kidlab, bu fazilatni o'rgatishda hadislariga tayangan. **Behbudiy** va **Munavvarqori** esa darsliklarida hadislarini matn asosida emas, balki hikoya va muhokama shaklida berganlar. Ularning bu yondashuvi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan — ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun. Jadidlarning bu merosi zamonaviy ta'lim bilan uyg'unlashtirilsa, bugungi maktab darslarida islomiy axloqiy bilimlarni berish imkoniyatlari yanada kengayadi.

3. Hadislarni o'rgatishda zamonaviy metodik yondashuvlar. Bugungi boshlang'ich ta'lim metodikasi "faol o'quvchi" konsepsiyasiga asoslanadi. Hadislarni o'rgatishda bu yondashuv quyidagicha amalga oshirilishi mumkin: **Rivojlantiruvchi suhbatlar va savol-javoblar** Har bir hadis matni muhokama orqali o'rgatiladi. Masalan, "Rost so'z najot keltiradi" hadisidan so'ng quyidagi savollar berilishi mumkin: Rost gapirganda nimalar yuz beradi?, yolg'onning oqibatlari qanday bo'ladi?, senga hayotda rostgo'ylik foyda bergan payt bo'lganmi? bu metod bolalarda tanqidiy fikrlash, tushunish, o'z fikrini bayon qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. **Rasm chizish va voqea tasvirlash** hadis mazmuni asosida rasm chizdirish yoki

voqeani hikoya qilish orqali bolalarning ijodkorligi va hadisga boʻlgan shaxsiy munosabati kuchaytiriladi. **Mini-drama yoki sahna koʻrinishlari** oʻquvchilar hadis asosida kichik sahna koʻrinishlarini tayyorlashadi. Masalan, rostgoʻylik yoki mehr-oqibat mavzusida kichik rol oʻynash. **Krossvord va mantiqiy oʻyinlar** Hadis mazmunidan kelib chiqqan topshiriqlar (soʻz topish, test, savol-javoblar) bolalarning faolligini oshiradi. **Integratsiyalashgan darslar** hadislar boshqa fanlar bilan uygʻunlashtirib oʻrgatiladi. Masalan: Ona tili darsida hadis asosida matn tuzish yoki sheʼr yozish, tasviriy sanʼatda hadisga mos rasm chizish, atrof-muhit fanida “tabiatga rahm-shafqat” hadisidan kelib chiqib dars oʻtkazish

4. Oʻqituvchining roli va metodik yondashuvi

Oʻqituvchi hadislarini faqatgina ilmiy manba sifatida emas, balki bolalar ongiga moslashtirilgan ibratli saboq sifatida taqdim etishi zarur. Bunda oʻqituvchi quyidagilarga eʼtibor qaratadi: Hadis matnini soddalashtirish, bolalar tiliga moslab tushuntirish hayotiy misollar keltirish, darsda bolalarni faol ishtirok ettirish har bir hadisni amaliy faoliyat bilan bogʻlash nazarda tutiladi. Bundan tashqari, oʻqituvchi jadid maʼrifatparvarlari merosini oʻrganib, ularning tarbiyaviy yondashuvlarini oʻz amaliyotida qoʻllasa, taʼlim-tarbiya jarayoni yanada mazmunli boʻladi.

Xulosa: Boshlangʻich taʼlim bosqichi – bu shaxs kamolotining negizi, insoniy fazilatlar, axloqiy meʼyorlar va ijtimoiy qadriyatlar shakllanadigan eng muhim davrdir. Mazkur bosqichda oʻquvchilarga diniy-maʼnaviy bilimlarni, xususan, Imom al-Buxoriy hadislarini singdirish ularning axloqiy tarbiyasini mustahkamlash, halollik, rostgoʻylik, sabr, mehr-oqibat kabi fazilatlarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Imom al-Buxoriy hadislarini insonparvarlik, tinchlik, poklik va ijtimoiy adolat gʻoyalarini targʻib etishi bilan yosh avlod tarbiyasida eng ishonchli va qadrlidir. Ularni bolalarga tushunarli, sodda, hayotiy misollar bilan boyitilgan tarzda oʻrgatish maʼnaviy tarbiyaning asosiy poydevorini yaratadi. Jadid maʼrifatparvarlarining pedagogik merosi esa hadislarini bolalarga qanday shaklda va uslubda yetkazish mumkinligini amaliy jihatdan koʻrsatib beradi. Ularning tajribasi — hadislarini ibratli hikoyalar, muhokamalar, dramalar, axloqiy darslar koʻrinishida berish orqali bolalarning qalbiga yoʻl topish imkonini yaratadi. Ushbu maqolada koʻrib chiqilgan metodik yondashuvlar — integratsiyalashgan darslar, mini-sahnalar, suhbatlar, vizual vositalar, ijodiy topshiriqlar — boshlangʻich sinfda hadis oʻrgatish jarayonini mazmunli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, hadis mazmunini Avloniy, Behbudiy, Munavvarqori kabi jadidlar asarlari orqali mustahkamlash bolalarda tarixiy merosga hurmat tuygʻusini kuchaytiradi. Xulosa qilib aytganda, **Imom al-Buxoriy hadislarini jadid maʼrifatparvarlarining yondashuvi asosida boshlangʻich sinflarda oʻrgatish** – bu nafaqat diniy maʼlumot berish, balki bolani barkamol shaxs sifatida tarbiyalash yoʻlida muhim qadamlardan biridir. Bu yondashuv taʼlim-tarbiya jarayonini milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va zamonaviy pedagogika asosida boyitadi hamda oʻquvchilarda maʼnaviy immunitet shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi. *Boshlangʻich taʼlim konsepsiyasi*. — Toshkent, 2020.
2. Madraximova, M. “Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida axloqiy tarbiyani shakllantirishda hadislarining oʻrni”. // *Ilm va taraqqiyot* jurnali, 2022, №3.
3. Tursunova, S. “Jadidlar merosining bugungi taʼlimdagi ahamiyati”. // *Maʼnaviyat va zamonaviylik*, 2021, №1.
4. Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. *Al-Jomeʼ as-Sahih* (Sahih al-Buxoriy). — Toshkent: Movarounnahr, 2004.
5. Avloniy, Abdulla. *Turkiy guliston yoxud axloq*. — Toshkent: Maʼnaviyat, 2008.
6. Behbudiy, Mahmudxoʻja. *Maktab kitobi*. — Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2011.

BOSHLANG'ICH SINIF TARBIYA DARSLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING SHAKL VA USULLARI

Shermatova Munojotxon Marifovna
Osiyo Xalqaro Universiteti 1-bosqich magistranti
Email: munojatshermatova1984@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf tarbiya darslarida o'quvchilarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning samarali shakl va usullari yoritilgan. Milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, yosh avlod qalbida vatanparvarlik, milliy g'urur va tarixiy xotira uyg'otishning muhim jihatlari amaliy misollar bilan ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, tarbiya, milliy o'zlik, xalq og'zaki ijodi, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, yurt ravnaqi.

FORMS AND METHODS OF UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY IN PRIMARY SCHOOL EDUCATIONAL LESSONS

Shermatova Munojotkhan Marifovna
1-st year Master's Student, Asian International University.
Email: munojatshermatova1984@gmail.com

Annotation: This article highlights effective forms and methods of developing national identity among primary school students in educational classes.

Key words: primary education, upbringing, national identity, oral folklore, national values, patriotism.

ФОРМЫ И МЕТОДЫ ОСОЗНАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ НА УРОКАХ ВОСПИТАНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Шерматова Муножотхон Марифовна,
магистрант 1-го курса, Азиатский Международный Университет.
Email: munojatshermatova1984@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются эффективные формы и методы формирования национальной идентичности у учащихся начальной школы. На практических примерах проиллюстрированы важные аспекты воспитания на основе национальных ценностей, формирования патриотизма, национальной гордости и исторической памяти в сердцах подрастающего поколения.

Ключевые слова: начальное образование, воспитание, национальная идентичность, народное устное творчество, национальные ценности, патриотизм, национальное благополучие.

Bugungi globallashuv davrida o'quvchilarning qalbida o'z millatiga, tiliga, urf-odatlariga hurmat hissini uyg'otish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu jarayonning boshlang'ich sinf bosqichida to'g'ri yo'lga qo'yilishi bolalarning shaxsiy va fuqorolik ongini shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf tarbiya darslari esa bu borada eng muhim tizimlardan biridir.

O'zlikni anglash- bu insonning o'z millatiga mansubligini his etishi, tarixiy ildizlariga, an'analariga sodiqlik bilan anglashishi demakdir. Bu jarayon insonning o'z millatiga nisbatan hissiyotlari, qadriyatlari va identifikatsiyasini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Milliy o'zlikni anglash, shuningdek, tarixiy va madaniy kontekstni, millatning taraqqiyotidagi muhim voqealarni va uning kelajagini yoki istiqbolini o'rganishni talab qiladi. Boshlang'ich sinf davri esa bolalarning ongida ilk tushunchalar shakllanadigan, dunyoqarashi, qadriyatga munosabati barpo etiladigan davrdir. Shu boisdan, ayniqsa shu bosqichda milliy o'zlikni anglashga oid tarbiya ishlari o'ziga xos shakl va usullar orqali olib borilishi kerak. Masalan:

1. Xalq og'zaki ijodi vositasida tinglash ko'nikmalarini shakllantirib milliylikimizni singdirish:

-Ertak va afsonalar O'zbek xalq ertaklari-, „Oltin tarvuz“, „Ur to'qmoq“ kabi asarlar orqali yaxshilik, adolat, mehnatkashlik, sabr-chidam va matonat kabi qadriyatlar singdiriladi.

-maqol, topishmoq, va matallar: o'yin orqali o'qituvchilar milliy tafakkurni rivojlantiradi.

2. Ona tilimizga hurmatni shakllantirish:

She'riyat, hikmatli so'zlar va milliy yozuvlar orqali o'quvchilar ona tilining boyligi va go'zalligini angelaydi, uni qadrlashni o'rganadi. Til milliy o'zlikni anglashda asosiy elementlardan biridir. Til orqali milliy qadriyatlar, an'analar va tarixiy voqealar avloddan-avlodga o'tkaziladi.

3. Milliy bayramlar va urf-odatlar bilan tanishtirish:

Tarbiya darslarida Navro'z, Mustaqillik kuni kabi sanalarni tantanali nishonlash orqali ularda vatanparvarlik va o'z xalqiga mehr uyg'otiladi. Milliy liboslar, taomlar va marosimlar bilan tanishtirish esa qadriyatlarimizga nisbatan g'urur va hurmat tuyg'usini his qiladilar. Har bir millat o'z tarixiga bo'ydir va bu tarixni anglash, milliy o'zlikni tushunishda muhim ahamiyatga ega.

4. Rolli o'yinlar va sahna ko'rinishlari:

Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Nodira, Uvaysiy, Zulfiyaxonim kabi tarixiy shaxslarning obrazlarini ijro etish bolalarda faxr tuyg'usini uyg'otadi.

5. Qo'l mehnati va rassomchilik orqali milliy yo'nalishni targ'ib qilish:

O'zbek do'ppi, gilam va uning o'ziga xos nusxalari, atlas matolari, yog'och o'ymakorligi, temirchilik, ko'ncilik, zardo'zlik, bo'zchilik, kashtachilik, sopol buyumlar yasash kabi an'anaviy san'at namunalari darslarda tushuntirilsa, xalqiga nisbatan qiziqishi ortib, amaliy jarayonga targ'ib qilinadi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, milliy o'zlikni anglash-bu shunchaki bilim emas, balki yurakka singdirilgan tuyg'udir. Boshlang'ich sinfda bu tuyg'uni shakllantirish uchun turli shakl va usullardan kompleks foydalanish zarur. Ta'lim, yurt ravnaqidagi asosiy jarayon bo'lsa, tarbiya undanda muhim, oliy o'rindagi mezondir. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki milliy ruhni uyg'otuvchi tarbiyachi bo'lish kerak. Ana shunda barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lidagi harakatlar o'z samarasini beradi. Milliy o'zlik, shuningdek, ijtimoiy identitetni belgilaydi va odamlarning bir-biriga nisbatan qanday munosabatda bo'lishlarini belgilaydi. Ommaviy fikrda, milliy o'zlikni anglash, odamlarni birlashtirishga, ularning o'zlariga bo'lgan ishonchlarini oshirishga va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir.-Toshkent-2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston-taraqqiyot va ma'rifat yo'lida. Toshkent-2021.
3. Karimova N.R. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. Toshkent: O'qituvchi-2020
4. Isroilova N.N. Tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent: TDPU-2022
5. Xasanboyeva U.A. Boshlang'ich sinflarda tarbiya jarayonining pedagogic asoslari. Toshkent:TDPU-2018
6. To'xtayeva M.R. Milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish metodikasi.2020

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA OILA VA MAKTAB O'RTASIDAGI MUNOSABATLARDA O'Z MAJBURIYATLARIGA MAS'ULIYATLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH

Ochilova Gulruxsor Odilovna

Buxoro pedagogika texnikumi Maxsus fan o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarning mas'uliyatli bo'lishlari uchun ota-onalarning bolalar oldidagi majburiyatlari, oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Mas'uliyatli, majburiyat, fazilat, axloqiy, muhit, oila, ota-ona, javobgar, maktab.

ФОРМИРОВАНИЕ ОТВЕТСТВЕННОГО ОТНОШЕНИЯ К СВОИМ ОБЯЗАННОСТЯМ В ОТНОШЕНИЯХ МЕЖДУ СЕМЬЕЙ И ШКОЛОЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Очилова Гулрухсор Одилевна
Преподаватель Бухарского педагогического техникума.*

Аннотация: В данной статье представлена информация о взаимодействии семьи и школы, а также о роли родителей в воспитании ответственности у детей.

Ключевые слова: ответственность, обязанность, качество, мораль, среда, семья, родители, ответственный, школа.

DEVELOPING A RESPONSIBLE ATTITUDE TOWARD DUTIES IN FAMILY AND SCHOOL RELATIONSHIPS AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS

*Ochilova Gulruxsor Odilovna
Teacher of Special Subjects at Bukhara Pedagogical College.*

Annotation: This article provides information about the responsibilities of parents toward their children and the cooperation between family and school to foster a sense of responsibility in children.

Keywords: Responsibility, duty, virtue, morality, environment, family, parents, accountability, school.

Kirish. Bolalarga ta'lim tarbiyani yoshlikdan amalga oshirish lozim. Chunki bolalikdan sog'lom muhitda ulg'aygan bola keyinchalik ham mas'uliyatli bo'ladi. Kelajakda ham keyingi qadam tashlashda ham mas'uliyat o'z natijasini ko'rsatadi. Farzandlarimizda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, maktabda sog'lom muhitni yaratish uchun oila va maktab hamkorligi juda muhim bo'lg'im bo'lib qolaveradi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy shakllanishi uchun muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bola nafaqat bilim oladi, balki o'zining majburiyatlariga bo'lgan munosabatini ham rivojlantiradi. Oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik bolaning ta'lim-tarbiyasida asosiy omillardan biri bo'lib, aynan shu bog'liqlik orqali o'quvchilarda mas'uliyat hissini shakllantirish mumkin. Oila va maktab hamkorligining ahamiyati juda muhimdir. Oila va maktabning hamkorligi bolaning ta'lim jarayoniga qiziqishini oshirish, intizomlilik va mas'uliyatlilik kabi fazilatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Quyidagi jihatlar bu jarayonda muhim hisoblanadi:

Ota-onalar va o'qituvchilarning muntazam muloqoti – bolaning rivojlanishi va o'qish jarayonidagi muammolarni hal etishda samarali bo'ladi.

- Uy va maktabda yagona tarbiya usulining mavjudligi – bolada ikki xil tarbiya usuli shakllanmasligi uchun ota-onalar va o'qituvchilar hamkorlikda ishlashi lozim.

- Bolaning maktab hayotiga ota-onalarni jalb etish – ota-onalarning maktabdagi tadbirlarda qatnashishi bolaga o'zining o'qishi va maktab hayotiga mas'uliyat bilan yondashish zarurligini ko'rsatadi.

O'quvchilarda mas'uliyat hissini shakllantirish usullari

Mas'uliyatni shakllantirish uzluksiz jarayon bo'lib, uni samarali amalga oshirish uchun quyidagi usullar qo'llanilishi mumkin:

1. Tarbiyaviy suhbatlar va namunaviy xatti-harakatlar – bolalar kattalarning xatti-harakatlarini kuzatib, ulardan ibrat oladi.

2. Bolalarni mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish – uy va maktabda muhim qarorlarni qabul qilishda ularga mas'uliyat yuklash lozim.

3. Javobgarlik tizimini joriy etish – darsga tayyorgarlik, o'z vaqtida uy vazifalarini bajarish kabi vazifalar uchun bolaning o'zi javobgar bo'lishi kerak.

4. Rag'batlantirish va motivatsiya – bolaning har qanday kichik yutug'ini qadrlash uni mas'uliyatli bo'lishga undaydi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mas'uliyat hissini shakllantirish oila va maktabning uzviy hamkorligi natijasida yuzaga keladi. Ota-onalar va o'qituvchilar bolaga uning majburiyatlarini anglatish, uni mustaqil va tartibli bo'lishga o'rgatish orqali mas'uliyatli shaxsni tarbiyalashlari mumkin. Shu bois, ta'lim jarayonida oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1.O'quvchilarda o'quv faoliyatiga ma'suliyat hissini tarbiyalash(Oilada va sinfdan tashqari vaqtlarda)/Tuzuvchilar: M.Sh.Allamutarova,G.Jo'raboyeva.-T.:O'zPFITI,1990.-37 b.

2.Shodmonova Sh.S. Oilada kichik maktab yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari: Ped. fanil. Nomz...diss.avtoref.-T.:2001.

3.Mattiyev.I.B.(2023).Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish.Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi,2(1),812-815.5Mattiyev.I.B. (2024).

BURHONIDDIN AZ-ZARNUJIYNING TA'LIMIY –TARBIYAVIY QARASHLARI

*Qaxxarova Nazira Nuridillo qizi
o'qituvchi. (Xalqaro innovatsion universiteti)
E-mail: qaxxarova94@mail.ru tel: (97) 124 64 94*

Annotatsiya.Ushbu maqolada Burhoniddin az-Zarnujiy hayot faoliyati hamda bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lmish ilm olish yo'llari va tartib qoidalari keltirilgan "Ta'lim al-mutaallim" asarining mazmuni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, Burhoniddin az-Zarnujiy, Ta'lim al-mutaallim, metod,ustoz-shogird, pedagogika, ilm olish, shaxs kamoloti.

BURHANIDDIN AZ-ZARNUJI'S EDUCATIONAL AND EDUCATIONAL VIEWS

Abstract. This article covers the life of Burhanuddin az-Zarnuji and the content of his work "Ta'lim al-mutaallim", which presents the ways and rules of acquiring knowledge, which are a topical issue of today.

Keywords: Education, Burhanuddin az-Zarnuji, Ta'lim al-mutaallim, method, teacher-student, pedagogy, acquiring knowledge, personal development.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ ВЗГЛЯДЫ БУРХАНИДДИНА АЗ-ЗАРНУДЖИ

Аннотация. В данной статье изложено содержание труда «Талим ал-мутааллим», в котором изложена жизненная деятельность Бурханиддина аз-Зарнуджи, а также способы и правила порядка обучения, что является актуальным вопросом современности.

Ключевые слова: Образование, Бурхониддин аз-Зарнуджи, Образование аль-мутааллим, метод, учитель-ученик, педагогика, обучение, личностное развитие.

Bugungi kunda tarixiy allomalar asarlarini o'rganish va amaliyotga tadbqiq etish kelajak avlodlar ongiga tobora to'liqroq yetkazish kunning dolzarb masalalaridan bo'lib kelmoqda, zero har bir yosh bu kabi asarlar haqida ma'lumotga ega bo'lsa va kundalik hayotida qo'llay olsa ta'lim jarayonida katta samaraga erisha oladi.Bu kabi fikrlarning dalili sifatida Burhoniddin az-Zarnujiy va uning mashhur asari bo'lmish "Ta'lim al-mutaallim" asarini keltirishimiz mumkin. Har bir ota-ona farzandini jamiyatning yetuk shaxslari bo'lishi uchun ilmga yo'naltirishga intiladi. Ba'zi bolalarning esa ilm olishga istagi bor ammo yetarli darajada samaraga erish olmaydi. Har bir ishning tartib qoidasi bo'lgani kabi ilm olishning ham yo'l yo'riq va tartib qoidalari mavjud. Shu kabi tartib qoidalarni bilgan holda ilm olinsa ta'limda albatta samaraga erishish mumkin. Ilm olishning sirlari va qoidalarini Burhoniddin az-Zarnujiy "Ta'lim al-mutaallim" asarida izohlab keltirib o'tgan.

Ma'lum bir samaraga erishish uchun birgina omil yetarli bo'lmaydi. Misol uchun shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi muhit, irsiyat, ta'lim tarbiya va shaxs mustaqil faoliyati kabi bir qancha omillar bo'lgani kabi. Ilm olishda ham ko'pgina omillar muhim albatta.

Hozirgi kunda ta'lim olishning ko'pgina interfaol metoqdlari mavjud bo'libga qolmasdan hozirgi avlod yoshlari tarixiy tajribalardan ham foydalansalar nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Burhoniddin az-Zarnujiy haqida ma'lumotlar kam saqlanib qolgan. Alloma Abbosiylar xalifaligi davrida yashab ijod qilgan. Turkiston o'lkasining Jayhun o'lkasida joylashgan Zarnuj shahrida tug'ilib ijod etgan bo'lib "Dinng hujjati", "Islomning dalili" kabi bir qancha nisbalarga sazovor bo'lgan. Zarnuj arablar tomonidan Zarnug deb atalgan bo'lib "Nug" bu tumshuq degan ma'noni anglatadi ya'ni oltin tumshuq. O'sha davrda bu qishloq anchagina mashhur bo'ladi chunki Burhoniddin az-Zarnujiydan tashqari bir qancha allomalar ham shu qishloqda yetishib chiqqan. [1; B. 55].

Manbalarda Burhoniddin az-Zarnujiyning tug'ilgan sanasi ham, vafot qilgan yili ham ko'rsatilgan emas. Ilmiy adabiyotlarda esa uning vafot sanasini hijriy 591, 593 va 597 yil yoki oltinchi hijriy asr deb ko'rsatilgan. Marvon Qaboniy esa uning yashagan davrini hijriy V asrning ikkinchi yarmi va VI asrning birinchi choragi deb belgilaydi. R.Abdulmun'im tomonidan esa olimning tug'ilgan va vafot etgan sanasi 570-620/1175-1223 qilib qat'iy belgilangan. Biroq, olim 570/1175 yildan oldinroq tug'ilgani aniq. Chunki, u mana shu 570 1175 yili vafot qilgan Sadiduddin at-Tiroziy, shuningdek, 573/1177 yili vafot qilgan Imomzoda al-Buxoriy hamda 576/1181 yili vafot qilgan Abul-Mahomid Qivomuddin Hammod as-Saffor al-Buxoriyning shogirdi bo'lib, "Ta'lim al-mutaallim"da bu zotlarning nomi bir necha marta "ustoz" degan qayd bilan tilga olingan hamda gaplari va she'rlaridan iqtiboslar keltirilgan. Demak, olimning tug'ilgan yilini 570 emas, 560 hijriy deb belgilash to'g'riroq bo'ladi. Olim 617/1220 yildan keyin ham yashagani aniq. Chunki, u shu yili vafot qilgan ustoz Raziyuddin an-Naysoburiyning nomini bir necha marta zikr qilib, "Makorim al-axloq" asaridan iqtibos keltirgan. Demak, Burhoniddin az-Zarnujiy 560-620/1165-1223 yillarda yashagan, deb belgilash maqsadga muvofiqdir. [2; b. 56].

Burhoniddin az-Zarnujiy asari pedagogika nuqtaiy nazaridan baholansa, bugungi ta'limda ham muhim ahamiyatga ega. U mumtoz ilmiy adabiyotda muhim o'rin egallagan, o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan asar yozgan. Qanday qilib o'rgatamiz, o'quvchilar qanday o'rganishlari haqidagi savolga emas, balki ular qanday o'rganishlari mumkin va nima uchun o'rgana olmaydilar degan savolga qaratilgan.

Alloma bizga qoldirga "Ta'lim al-mutaallim" asari 13 fasldan iborat bo'lib, bir qancha tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Ilm olishda niyyatni yaxshi qilishlik

Sherikni yaxshi va shijoatliligini tanlashlik

Ustoz hurmatini saqlamoqlik

Burhoniddin az-Zarnujiyning fikricha, inson katexizmni, ya'ni o'zi bo'lgan vaziyatni bilishni o'rganadi. Uni farz deyishi bugungi ta'lim tamoyillarida bayon etilgan hayotiylik, hayotga yaqinlikni ifoda etganini bildiradi. Bu uning ko'p asrlar oldin printsiplarga g'amxo'rlik qilganini ko'rsatadi. Chunki o'qitiladigan fanlar hayotdan ajralgan holda bo'lmasligi va ular duch keladigan dolzarb muammolarga yechim ishlab chiqaradigan tarzda bo'lishi kerak. Zarnujiy talabalarga o'z kurslarini ham, professor va do'stlarini ham tanlashni maslahat beradi. Huquqlarni berish talabalarga qanchalik qadrli ekanligini ko'rsatadi. Hozirgi ta'lim tizimida ushbu holatga misol sifatida tanlov kursini qo'llashni ko'rsatish mumkin. Zarnujiyning ilovasi bu ko'p asrlar oldin bizning Movarounnahrda amalga oshirilganga o'xshaydi. [3; b.95].

Zarnujiy ilm-fan ta'limida bo'lishi kerak bo'lgan uchta narsa: o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar haqida gapirdi. Talabalar aslida bugungi ta'lim tizimining uchta ustunidir. Muvaffaqiyatli ta'limning amalga oshishi uchun talaba, ota-ona va o'qituvchining hamkorlik qilishi juda muhimdir. Kimningdir yo'qligi muvaffaqiyatga salbiy ta'sir qiladi. Zarnujiy bu holatning asrlar davomida ta'limdagi ahamiyati haqida gapiradi. Shunisi e'tiborga loyiqlik, u buni birinchi bo'lib tilga oldi Bundan tashqari, Zarnujiyning ta'kidlashicha, talabaning darsni

boshlash vaqti, darslar miqdori, dars dasturini o'qituvchiga, do'stlarga, tuzatishlar shaklida aniqlashi kerak. Atrof-muhitni hurmat qilish, talabani bilimni birlamchi manbadan olishi, sohada tajribali bo'lishi, ustozlardan foydalanib, hatto uxlashni, yeb-ichishni nazorat qilib borishini ta'kidlashi olimning bularning bari o'zinkidek o'ylashi 1200-yillarda emas, balki bugungi kunda yashayotgan odamga o'xshaydi. Chunki ko'pgina xulosa va takliflari ta'lim tizimimizga oydinlik kiritib, dolzarb bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bo'riyev O. Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasidan lavhalar. – Toshkent: Tafakkur, 2015. – B. 55.
2. Rizouddin ibn Fahriddin. Shogirtlik odobi. – Toshkent: Voris nashriyoti, 2008. – 56 b.
3. Zokirjon Sharipov. Ilm olish sirlari. – Toshkent: Movorounnahr nashriyoti, 2004. – 95 b.
4. Imom Zarnujiy. "Ta'lim al-mutaallim tariq at-ta'allum". – Qozon: Imperrator universiteti "типо-литография" nashriyoti, 1901. – 83 b.
5. www.ziyonet.uz
6. www.pedagog.uz
7. www.OXU.uz

AHMAD DONISHNING PEDAGOGIK QARASHLARINI HOZIRGI TA'LIM TIZIMIGA INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI

Qo'ldoshev Mehridin Avezmurodovich
Buxoro davlat pedagogika instituti I bosqich tayanch doktoranti
mehriddingo'ldoshev91@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ahmad Donishning pedagogik qarashlari chuqur tahlil qilinib, ularni hozirgi O'zbekiston ta'lim tizimiga integratsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Donishning ilmga, aql-idrokka, axloqiy yetuklik va insonparvarlikka asoslangan fikrlari bugungi ta'lim islohotlari va barkamol avlod tarbiyasida muhim manba bo'lib xizmat qilishi asoslab berilgan. Asarda uning asarlaridagi pedagogik g'oyalarni umumiy o'rta, o'rta maxsus hamda oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish yo'llari, dars mazmuniga kiritish, tarbiyaviy loyihalarda qo'llash, madaniy-ma'naviy rivojlanishga ta'siri kabi masalalar ilmiy yondashuv asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Ahmad Donish, pedagogik qarashlar, ma'naviyat, ta'lim tizimi, integratsiya, barkamol avlod, axloqiy tarbiya, tarixiy meros, milliy qadriyatlar, zamonaviy ta'lim, tanqidiy fikrlash, o'zlikni anglash, ma'rifatparvarlik, ilmga asoslangan tarbiya.

WAYS TO INTEGRATE AHMAD DONISH'S PEDAGOGICAL VIEWS INTO THE CURRENT EDUCATION SYSTEM

Abstract. This article deeply analyzes the pedagogical views of Ahmad Donish and highlights the theoretical and practical aspects of their integration into the current education system of Uzbekistan. It is argued that Donish's ideas based on science, reason, moral maturity and humanity serve as an important source for today's educational reforms and the upbringing of a harmonious generation. The work analyzes the ways of implementing the pedagogical ideas in his works in the general secondary, secondary specialized and higher education system, including them in the content of the lesson, using them in educational projects, and their impact on cultural and spiritual development based on a scientific approach.

Keywords. Ahmad Donish, pedagogical views, spirituality, education system, integration, harmonious generation, moral education, historical heritage, national values, modern education, critical thinking, self-awareness, enlightenment, education based on science.

ПУТИ ИНТЕГРАЦИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ АХМАДА ДОНИША В СОВРЕМЕННУЮ СИСТЕМУ ОБРАЗОВАНИЯ

Абстрактный. В статье дается глубокий анализ педагогических взглядов Ахмада Дониша и освещаются теоретические и практические аспекты их интеграции в современную систему образования Узбекистана. Утверждается, что идеи Дониша, основанные на науке, интеллекте, нравственной зрелости и гуманности, служат важным источником для современных образовательных реформ и воспитания гармоничного поколения. В работе на основе научного подхода анализируются такие вопросы, как пути реализации педагогических идей его трудов в системах общего среднего, среднего специального и высшего образования, включение их в содержание уроков, использование в образовательных проектах, влияние на культурное и духовное развитие.

Ключевые слова. Ахмад Дониш, педагогические взгляды, духовность, система образования, интеграция, гармоничное поколение, нравственное воспитание, историческое наследие, национальные ценности, современное образование, критическое мышление, самосознание, просвещение, научно обоснованное образование.

Bugungi globallashuv va tezkor raqamli o'zgarishlar davrida milliy ta'lim tizimi nafaqat zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar bilan boyitilishi, balki chuqur tarixiy, ma'naviy va madaniy ildizlarga asoslangan bo'lishi zaruratga aylandi. Zero, ma'naviy boyliklardan uzilgan ta'lim jarayoni yuzaki, o'zligini yo'qotgan, an'anaviy qadriyatlardan yiroqlashgan yosh avlodni tarbiyalash xavfini tug'diradi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosni chuqur o'rganish va uni hozirgi ta'lim jarayoniga uyg'unlashtirish dolzarb ilmiy va amaliy masalaga aylanmoqda. Ahmad Donishning boy ma'naviy merosi, pedagogik va ma'rifiy qarashlari bu borada juda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Donish o'z zamonasida ilmiy tafakkur, aql-idrok, axloqiy poklik, mustaqil fikrlash va fuqarolik mas'uliyatini yosh avlod tarbiyasining markaziy mezoni sifatida ko'rsatgan. Uning pedagogik qarashlari bugungi O'zbekiston ta'lim strategiyasida belgilangan maqsadlar — zamonaviy bilimli, vatanparvar, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faollikka ega shaxsni shakllantirish g'oyalari bilan mushtarakdir.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining 2022–2026 yillarga mo'ljallangan strategiyasida yoshlarning raqobatbardosh bilim va ko'nikmalarga ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, keng dunyoqarashli etib tarbiyalanishi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada Ahmad Donish kabi ma'rifatparvar allomalar merosini ta'lim tizimiga integratsiya qilish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Uning asarlarida ilgari surilgan ilmga asoslangan jamiyat, axloqiy barkamollik, adolat va erkin fikr g'oyalari bugungi kun pedagogikasiga uyg'un bo'lib, yosh avlodda ijtimoiy mas'uliyat, tanqidiy tafakkur va axloqiy immunitet shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, Donishning pedagogik qarashlari xalqchil va umuminsoniy tamoyillarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ta'limning zamonaviy transformatsiyasi – kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish, integratsiyalashgan o'quv jarayoni, innovatsion texnologiyalar kabi yo'nalishlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyati mavjud. Donish asarlaridagi g'oyalarni adabiyot, tarix, ma'naviyat, ona tili fanlariga tatbiq qilish orqali o'quvchilarda nafaqat bilim, balki ongli hayotiy pozitsiya, milliy o'zlikni anglash, madaniy tafakkur shakllantiriladi. Shu bilan birga, hozirgi ta'limda tarbiya komponentining sustligi, axloqiy me'yorlarga e'tibor yetishmasligi, yoshlarning madaniy-axloqiy immunitetining pasayishi kuzatilmoqda. Bu esa Donishning axloqiy-ruhiy g'oyalarini zamonaviy ta'limga integratsiyalash zaruratini kuchaytiradi. Ta'lim faqat texnik bilim emas, balki insoniylik, odob, mehr, poklik va aql-idrokni tarbiyalashga ham xizmat qilishi kerak – Donishning asosiy da'vati ham aynan shu edi.

Ahmad Donishning pedagogik qarashlarini hozirgi ta'lim tizimiga integratsiya qilish masalasi nafaqat tarixiy-merosiy jihatdan, balki bugungi ta'lim islohotlarining g'oyaviy-ma'naviy negizini boyitish nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. U ilgari surgan g'oyalarni ta'lim mazmuniga tatbiq etish orqali milliy va zamonaviylik uyg'unligini ta'minlagan holda, barkamol shaxs tarbiyasi yo'lida mustahkam poydevor yaratiladi. Ahmad Donish – o'z davrining yirik mutafakkiri, tarixchi, ma'rifatchi, pedagog va islohotchi sifatida Markaziy Osiyo ilmiy va madaniy tarixida muhim o'rin egallagan shaxsdir. U o'z asarlari orqali nafaqat siyosiy va

ijtimoiy hayotni tahlil qilgan, balki zamonasining ta'lim-tarbiyasiga oid fikrlarini ham chuqur asoslab, xalqni uyg'otishga xizmat qilgan. Ayniqsa, uning asarlarida ilgari surilgan pedagogik qarashlar bugungi O'zbekiston ta'lim tizimi uchun boy ma'naviy, ilmiy va metodologik manbadir. Bugungi globallashuv, raqamli jamiyat shakllanayotgan davrda milliy tarixiy-ma'naviy merosga tayanilgan holda ta'lim jarayonini boyitish dolzarb vazifadir.

Ahmad Donishning pedagogik qarashlari, birinchi navbatda, inson kamoloti, axloqiy poklik, ilmga intilish, ijtimoiy adolat va aql-idrokka tayanish g'oyalari bilan boydir. U "Navodir ul-vakoe" kabi asarlarida ilm va tarbiya haqida chuqur mulohazalar yuritadi. Donish nazarida jamiyat taraqqiyoti – ilmiy, ong, aqliy yetuk insonlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. U o'z davrining qusurlari – johillik, e'tiqodiy mutaassiblik, taqlidchilik va befarqlikni qoralab, ta'limni yangilash tarafdori bo'lgan. Uning fikricha, maktablar zamonaviy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, axloqiy tarbiya beradigan muassasa bo'lishi lozim.

Ahmad Donish ta'limda insonparvarlik yondashuvini ilgari suradi. U bolalarni faqatgina diniy bilimlar bilan emas, balki dunyoviy fanlar – matematika, geografiya, tarix, adabiyot, mantiq bilan ham qurollantirish lozimligini uqtiradi. Bu jihat hozirgi kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeliga to'liq mos tushadi. Donishning qarashlariga ko'ra, o'quvchi bilimni shunchaki yodlamasligi, balki uni tushunib o'z hayotiga tatbiq eta olishi kerak. Bu esa bugungi kunda ta'limda faol o'quvchi pozitsiyasini shakllantirish, tanqidiy fikrlash, mustaqil tahlil qilish kabi ko'nikmalarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, Donish axloqiy tarbiya va ma'naviyat masalasiga alohida urg'u beradi. U axloqiy saflilik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni yosh avlodga singdirishni pedagogik jarayonning asosiy elementi deb bilgan. U ilm va tarbiya o'zaro uyg'un bo'lgandagina, inson yetuk va jamiyat taraqqiy etadi deb hisoblaydi. Donish pedagogik qarashlarini hozirgi ta'limga integratsiya qilishda birinchi navbatda u ilgari surgan ilm va tarbiya uyg'unligini aks ettiruvchi o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarur. Misol uchun, boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim bosqichida uning asarlaridagi ma'naviy-axloqiy g'oyalarni adabiyot, tarix, ona tili, huquqiy bilim asoslari kabi fanlar mazmuniga kiritish mumkin. Ayniqsa, adabiyot darslarida "Navodir ul-vakoe" asarining ijtimoiy-tanqidiy qirralari orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, jamiyatga nisbatan faollik, ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish mumkin. Bu esa, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

O'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida esa Donish qarashlari tarix, pedagogika, sotsiologiya va siyosatshunoslik fanlari kontekstida yoritilishi mumkin. Universitet talabalari, xususan bo'lajak o'qituvchilar Ahmad Donishning pedagogik merosini chuqur o'rganib, uni zamonaviy dars metodikalariga tatbiq etishga o'rgatilishi zarur. Bu borada maxsus modul sifatida "Ma'rifatparvar pedagoglar merosi", "Ahmad Donish pedagogik konsepsiyasi" kabi ixtisoslashgan kurslar joriy qilinishi mumkin. Bundan tashqari, Donish asarlaridan foydalanilgan holda tarbiyaviy mashg'ulotlar, teatr sahnalari, intellektual musobaqalar, seminar-treninglar, ijodiy tanlovlar tashkil etish orqali uning g'oyalarini o'quvchilarga yanada jonli shaklda yetkazish mumkin. Bu orqali nafaqat bilim beriladi, balki yosh avlod qalbida milliy iftixor, tarixiy xotira va ma'naviy immunitet shakllanadi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va raqamli texnologiyalar keng tarqalayotgan davrda, Donish g'oyalarini vizual va interaktiv kontentlar orqali yetkazish ham samarali natijalar beradi.

Shuningdek, Donish g'oyalari asosida o'quvchilar uchun "Ma'naviyat saboqlari", "Aql va axloq maktabi", "Ma'rifat darslari" kabi muqobil tarbiyaviy loyihalarni ishlab chiqish mumkin. Bu loyihalarda uning axloqiy g'oyalari, adolat, haqiqat, ilm va ma'naviyatga bo'lgan munosabatlari zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida yoritiladi. Ahmad Donishning pedagogik qarashlari bugungi ta'lim tizimi uchun o'ta muhim va zaruriy metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. U ilgari surgan insonparvarlik, aql-idrokka asoslangan ta'lim, axloqiy poklik, ilmga muhabbat, ijtimoiy faollik kabi tamoyillar hozirgi zamonaviy ta'lim konsepsiyasi bilan to'la uyg'un. Uni o'quv dasturlariga, tarbiyaviy ishlarga, dars metodikasiga tatbiq qilish orqali barkamol avlod tarbiyasini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Donish merosining zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiyasi – bu nafaqat tarixiy merosni e'zozlash, balki o'zlikni

anglash, milliy g'urur, mustaqil fikrli va ma'naviy yetuk avlodni shakllantirish sari tashlangan muhim qadamdir.

Xulosa. Ahmad Donish – o'z davrining ilg'or ma'rifatparvari sifatida xalqni uyg'otishga, yosh avlodni ilmiy, axloqli va ongli qilib tarbiyalashga xizmat qilgan ulug' allomadir. Uning pedagogik qarashlari hozirgi ta'lim tizimi uchun boy nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Donish ilgari surgan ilmga intilish, aql-idrokka tayanish, insonparvarlik, axloqiy poklik va ijtimoiy mas'uliyat kabi tamoyillar bugungi zamonaviy ta'lim konsepsiyalari bilan to'la uyg'unlikda bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonini mazmunan boyitadi. Donishning pedagogik g'oyalarini hozirgi ta'lim tizimiga integratsiya qilish orqali o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy faollik, yuksak ma'naviylik va fuqarolik pozitsiyasi shakllantiriladi. Bu esa sog'lom, ijtimoiy faol, tafakkuri erkin va barkamol avlod tarbiyasiga yo'l ochadi. Donish merosi asosida tuzilgan metodik tavsiyalar, o'quv dasturlari, tarbiyaviy mashg'ulotlar va fanlararo integratsiya loyihalari ta'limning sifatini oshirishga, uning milliylik va zamonaviylik uyg'unligida shakllanishiga xizmat qiladi. Ahmad Donishning pedagogik qarashlarini hozirgi ta'lim tizimiga chuqur o'rgangan holda tatbiq qilish – bu nafaqat tarixiy-ma'naviy merosimizni e'zozlash, balki milliy g'ururimizni mustahkamlash va istiqbol avlodini yetuk shaxs sifatida tarbiyalash yo'lida muhim qadamlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Donish, A. Navodir ul-vakoiyot / Ahmad Donish. — Toshkent: Sharq, 2002. — 256 b.
2. Donish, A. Risolai xunari ta'lim va tarbiya. — Toshkent: O'zbekiston, 1992. — 184 b.
3. Xo'jaev, Sh. Ahmad Donish va jadidchilik harakati. — Toshkent: Fan, 2011. — 200 b.
4. Karimov, I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008. — 176 b.
5. To'raqulov, M. Ma'rifatparvarlik va zamonaviylik uyg'unligi. — Samarqand: Zarafshon, 2021. — 144 b.
6. Xasanboyeva, G. O'zbek pedagogik tafakkuri taraqqiyotida Ahmad Donishning o'rni. // "Ta'lim va fan" jurnali. — 2022, №3. — B. 28–33.
7. Rajabova, Z. Tarixiy shaxslar merosining ta'lim tizimidagi o'rni. — Toshkent: Ilm Ziya, 2020. — 112 b.
8. Qurbonov, A. Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. — 130 b.
9. Shamsiyeva, D. Ahmad Donish – pedagog olim sifatida. // "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. — 2021, №4. — B. 15–19.
10. Abduqodirov, O. Ma'naviy meros va zamonaviylik. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. — 164 b.
11. G'aniyev, T. Pedagogik fikrlar tarixida ma'rifatparvarlarning o'rni. — Buxoro: BuxDU, 2018. — 122 b.
12. Niyozmetov, N. Zamonaviy ta'lim va ma'naviyat asoslari. — Toshkent: Iste'dod, 2022. — 138 b.
13. Islomova, S. Tarixiy merosni o'rganishning didaktik asoslari. — Toshkent: Ilm

JADID ADABIYOTIDA SHE'R XUSUSIDA ILMIY-NAZARIY ASOSLAR

*Saidova Rayhon Bekmurodovna,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq va umumturkiy adabiyotida muhim mavzulardan biri bo'lgan she'r va shoirlik masalalari Abdurauf Fitrat ijodi misolida tahlil qilinadi. Fitratning "She'r va shoirlik" nomli adabiy mubohasasi orqali uning badiiy qarashlari, shoirlik mohiyatiga bergan bahosi va bu mavzudagi faoliyati yoritiladi. Maqolada Fitratning forsiy she'rlari jamlangan "Sayha" to'plami va uning yangi tojik she'riyatiga ta'siri haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, Fitratning shoirlikka bo'lgan munosabati, oilaviy muhiti va ilk adabiy qadamlariga

ham e'tibor qaratilgan. Tadqiqot Fitratning she'rga doir nazariy qarashlarini tahlil qilish orqali turkiy adabiyotda poetik tafakkurning shakllanishini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Abdurauf Fitrat, she'r, shoirlik, "She'r va shoirlik", "Sayha", forsiy she'riyat, tojik adabiyoti, turkiy adabiyot, adabiy mubohasa, poetika, badiiy tafakkur.

SCIENTIFIC-THEORETICAL BASES OF POETRY IN MODERN LITERATURE

Annotation: This article analyzes the significant theme of poetry and poets in Eastern and Turkic literature through the example of Abdurauf Fitrat's creative legacy. His literary debate titled "She'r va shoirlik" (Poetry and Poets) serves as a central source in understanding his perspective on poetic essence and literary philosophy. The article discusses the influence of his Persian poems compiled in the collection Sayha on modern Tajik poetry. Fitrat's attitude toward poetry, the role of his family environment, and his early literary steps are also considered. Through analyzing his theoretical views on poetry, the article highlights the development of poetic thought in Turkic literature.

Keywords: Abdurauf Fitrat, poetry, poet, *She'r va shoirlik*, *Sayha*, Persian poetry, Tajik literature, Turkic literature, literary debate, poetics, artistic thinking.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОЭЗИИ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация: В данной статье рассматриваются важные вопросы поэзии и поэтов в восточной и тюркской литературе на примере творческого наследия Абдурауфа Фитрата. Его литературный трактат «*Шеър ва шоирлик*» служит основой для анализа его взглядов на сущность поэзии и поэтическое мышление. Также анализируется влияние его персидских стихов, вошедших в сборник «*Сайха*», на современную таджикскую поэзию. Рассматриваются отношение Фитрата к поэзии, влияние семейной среды и его первые шаги в литературе. Через анализ его теоретических взглядов на поэзию раскрывается развитие поэтического мышления в тюркской литературе.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, поэзия, поэт, *Шеър ва шоирлик*, *Сайха*, персидская поэзия, таджикская литература, тюркская литература, литературная полемика, поэтика, художественное мышление.

Sharq va umumturkiy adabiyotining munozaralarga boy mavzularidan biri she'r va shoirlik masalalari sanaladi. Bu muammo yechimiga tamal bo'lib xizmat qiluvchi Abdurauf Fitratning "She'r va shoirlik" mubohasasidagi fikrlar ahamiyati jihatidan nihoyatda muhimdir. Fitratning she'riyatga qarashlari, shoirlik haqidagi fikrlari bevosita uning shoirlik faoliyati va she'rlari bilan ham e'tiborlidir. U mazmun, shakl, hissiyot kabi she'r bilan bog'liq masalalarga to'xtaladi. Adabiyotshunos Sadridin Ayniy ham uning "Sayha" asari tarkibiga kirgan forsiy she'rlarining yangi tojik she'riyatiga ta'siri xususida o'z vaqtida dolzarb fikrlarni o'rta tashlagan edi. Shu bois ham she'r va shoirlik xususidagi adabiy mubohasa Abdurauf Fitrat ijodining sara namunalaridan hisoblanadi. To'g'ri, she'r va shoirlik degan tushuncha batamom yangi hodisa emas. Biroq antik davrlarda umuman badiiy adabiyotning borlig'i bilan bog'liq "poetika" deb yuritilgan tushuncha singari "she'r va shoirlik" ham bir adabiy termin o'laroq Fitrat tomonidan iste'molga kiritildi. Muallifning o'zi ham ko'plab ilmiy, adabiy asarlarida shu mavzuga ma'lum o'rinlarda murojaat qilgan. Ammo aynan shu mavzuda ilmiy mubohasaga qo'l urishining sababi turkiylarning she'r va shoirlik tarixi nihoyatda qadimiy va shonli ekanligining isboti himoyasiga chiqqanligi bo'lsa, yana bir jihat bu mavzuga aynan ijodkor ko'zi bilan qarab adabiy jarayondagi shoirning o'rni va she'rning asl qiymatini baholashdir. Mubohasadagi har bir fikrni tahlilga tortmoq uchun Abdurauf Fitratning shoirlik faoliyati haqida bir qadar ma'lumotga ega bo'lish maqsadga muvofiq sanaladi. Shoir Abdurauf Fitrat bor-yo'g'i o'n yetti she'rdan iborat go'zal lirik jamlanmasi bilan yangi o'zbek she'riyatini boshlab bergan ijodkor edi. Fitratning shoir bo'lib etishishida oila muhiti ham muhim ahamiyat kasb etgan. Onasi Mustafibibi, ba'zi manbalarda ismi Bibijon, bu ayol she'r zavqini tushunadigan, nozikta'b shoira bo'lgan edi. Onasidagi she'rni anglash hissi bolalikdanoq yosh Abduraufga ta'sirini o'tkazgan, badiiyat

dunyasiga yaqinlashishiga asosiy sababchi bo'lgan. Ko'p qirrali iste'dod egasi Fitrat ijod olamiga she'riyat orqali qadam qo'ygan. Uning asarlari "Sadoyi Turkiston" va "Buxoroyi sharif" gazetalarida bosilgan. Kitobi o'zbek tilida "chorlov" ma'nosini anglatuvchi "Sayha" nomi bilan chop etilgan. "Sayha" she'riy to'plamiga fors tilidagi o'n to'rtta she'r kiritilgan. Bu she'rlar yangi davr tojik she'riyatiga qo'yildan ilk qadamlardan edi. Sadriddin Ayniy tomonidan tuzilgan "Namunayi adabiyoti tojik" nomli antologiyaga Fitratning ham forscha she'rlari kiritilgan. Bu she'rlarning o'quvchilar orasida tez tilga tushganligini Ayniy domla "Ta'rixii inqilobi Buxoro" asarida aytib o'tadi va bu ta'sirni "elektr quvvati kabi kuchli ta'sir etdi" deya Turkistonninggina emas, Turkiya, Germaniya, Rossiyaning markaziy shaharlarida tez yoyilganligini, "Sayha" to'plami nomiga xos tarzda turli mamlakatlardagi she'rxonlarning dunyoqarashiga sezilarli ta'sir o'tkazganligini e'tirof etadi. "Sayha" to'plamiga kirgan she'rlar she'rxonlar orasida shu qadar katta ta'sir doirasiga ega bo'ladiki, natijada bu she'rlar shoirning tug'ilgan zaminida ham matbuot nashrlarida chop etiladi. Shu bilan o'quvchilarning istagi bir qadar qondirildi. Ular "Sadoi Turkiston" gazetasining 1914-yil iyul oyi sonida she'rlar turkumi sifatida bosilgan. Fayzulla Xo'jayev yozishicha, Fitrat she'rlari bosilgan aynan shu sonidan boshlab gazeta nashri to'xtatilgan. Bu to'plamga kirgan she'rlarning asosiy mazmunini vatanparvarlik, yurtni sevishtiga da'vat kabi ruh tashkil qiladi. Bu xususda Fayzulla Xo'jayev "Sayha"ni o'qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, shu bilan birga rus hukumati ham ta'qib qila boshladi. Chunki bu she'rlarda Buxoro mustaqilligi g'oyasi birinchi marta yorqin shaklda ifodalab berildi", - deydi. Masalaning yana bir diqqattortar jihati shuki, forsiy tilda yozilgan she'rlari bilan yangi davr tojik she'riyatiga tamal toshini qo'yganligini ko'plab adabiyotshunoslar e'tirof etadilar. Tojik adabiyoti namunalari yiqqan Sadriddin Ayniy shoir Abdurauf Fitratni XX asr fors-tojik adabiyotining asoschisi sifatida ko'rsatadi. Bu mavzu alohida ilmiy maqola tahliliga munosibli bo'ls biz keyingi ilmiy ishlarimizda masalaning ayni shu jihatiga yana qaytamiz. O'tgan asrning 20-yillarida tuzilgan "O'zbek yosh shoirlari" majmuasiga ham Fitratning o'zbek tilidagi she'riy ijod namunalari kiritiladi. Biz ushbu tadqiqotimizda Fitrat she'riyatining dilbar va nafis jihatlarini ham tahlilga tortmoqni niyat qilganmiz. Kuzatgan ilmiy ishlarimiz orasida Abdurauf Fitratning shoirlik faoliyati yuzasidan qilingan eng katta xizmat Sadriddin Ayniy domlaga tegishlidir. U bir o'rinda "Fitratning she'ri haqida ana shuni aytish kerak: shoir o'zbek adiblari ichida birinchilardan bo'lib folklor shakllarida she'rlar yozdi. Bu ming yilcha davr ichida aruzdan boshqa shaklni bilmagan yozma she'riyatimiz sohasida novatorlik edi", - deydi. Ayniy domlaning fikrlarini Fitratning maqolasida urg'u qaratilgan ushbu fikrlar ham dalillaydi. Ya'ni, ijodkor "O'zbek, totor, qirg'iz, turkman orasida turk odi kabi unutilmas bir yo'sunda bu kungacha yashab kelgan cho'pchaklar, matallar, ertaklar, o'lan va laparlarning har birini eshitib yuramiz. Turkman, qirg'iz ellarindagi navras kishilari kichkina bolalar o'quv, yozuv bilmagan xalqning qizlarining so'z ustaliqlari borlig'ini bilib turamiz. Mana shularning har biri turk eski adabiyot madrasasidan tushib qolg'an baholi toshlardan boshqa narsa emasdir. Ulus ora og'izdan og'izga aylanib yurgan cho'bhaklardan yaxshig'ina onglashilurkim, turk eski adabiyot madrasasida sevgi va oshiqdan boshqa falsafa, hikmat va axloqdan ham ko'b narsalar bor ekan", - deydi. Olim Fitratning Sharq mumtoz she'riyatidagi barcha go'zalliklarni o'zida mujassamlashtirgani, an'anaviy she'riyatga vulqonday otilishi kabi yangicha to'lqin olib kira olganligini teran anglagan.

Shoir Fitrat nazokatli romantik bo'lib, ijodkorning o'zi she'rlarini bekorga "rubobiy she'rlar" (bu termin ham Fitrat tomonidan birinchi marta qo'llangan) deya baholamagan edi.

XX asr adabiyotida she'riyatning o'zgarish yo'nalishlarini, tashqi shakllari va hissiy ifoda usullari jadidlar davri bilan bog'liq bo'lib, adabiy nazariyalar ham Fitrat kabi buyuk adabiyotshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan edi. Abdurauf Fitratning "Adabiyot qoidalari" kitobida har uchala adabiy tur haqida va yangi kirib kelayotgan janrlarga to'xtalib o'tish barobarida asl shakl va mazmun qanday bo'lishi kerak? degan bahsli munozara savollarga javob berilgan edi. Birgina she'r haqida quyidagi fikrlarga e'tibor bering: "Biz ham she'rni "vazn" va "qofiya"dan iborat (deb) bilib turg'ancha chin she'rg'a yaqinlasha olmaymiz. Talabimiz qilg'an kabi "sharob, jom, xumor, hol, xat, qosh, ko'z, gul, bulbul" singari o'n-o'n besh so'zni bilgili

vazn tizib, “ol, hol, xol” kabi soʻzlarni “qofiya” qilarmiz-da, oʻzlarimizni sheʼr yozgʻan atab oʻtub ketarmiz. Holbukim, sheʼr boshqa, “qofiya” bilan “vazn” boshqadir”. Bulardan koʻrinib turibdiki, Fitrat sheʼr masalasida “qoidasevar”likni emas, balki pafosni ustun qoʻyadi. Albatta, shoirdan inson qalbiga soʻz orqali shakl emas, hissiyot koʻchib oʻtadi. Shu joyda hissiyot bilan aloqador nuqtalar haqida ham soʻz yuritishni lozim deb topdik. Abdurauf Fitrat sheʼrning nozik qatlariga qadar nuktadonlik bilan tadqiq qiladi, “sheʼr yurakdagi sezgi toʻlqunlarini soʻz orqali tashqariga toʻkmakdir” fikriga ham oʻz munosabatini bildiradi. Xususan, bir oʻrinda “Ayniqsa, biz kabi chin sheʼr va sanʼat “ochunindan uzoqdashgʻanlar esimizga kelgan har bir soʻzni” yuragimizdagi sezgi toʻlqunlari” gumon qilib tashqarigʻa ota bersak, Tangri koʻrsatmasun, oʻquvchilarimiz qochargʻa yoʻl topolmay qolarlar”, - deydi. Shoir sheʼr tuzilishida yangiliklarga urinsa-da, oʻzbek tilining imkoniyatlarini ochib berib, turkiy til latofatini koʻz-koʻz qilar darajada isbotladi. Arab, fors tillaridagi soʻzlarning soyasida nafosatini namoyon qila olmay qolib ketayotgan oʻzbekcha soʻzlarni sheʼrlariga olib kirdi. Sheʼrlarida chorlov, uygʻotish mazmunini ham xalqimizning asil soʻzlari orqali ifodaladi va ularning yuragiga shu sababli oson kira oldi.

Fitrat sheʼriyatining tili va uslubi haqida fitratshunos olim Hamidulla Boltaboyev “Fitrat va jadidchilik” kitobida Abdurahmon Saʼdiy asaridan keltirilgan parcha orqali yuqoridagi fikrni asoslaydi: “Yosh oʻzbek adabiyotida Fitratning roli uning tili va uslubida koʻrinadi. Fitrat adabiyotda arab va fors soʻzlariga yoʻlni berkitdi, til va uslubda koʻplab oʻzbek shoirlarini oʻziga qaratdi. Oʻzbekcha sheʼr tuzilishining rivojlanish yoʻllarini belgiladi”. XX asr oʻzbek zamonaviy sheʼriyatining rivojlanishi, barmoq vazni taraqqiyoti yoʻlidagi Fitratning sezilarli hissasini qayd etmaslikning iloji yoʻq. Ensiklopedik shaxs hisoblanmish Abdurauf Fitrat dramaturg, olim, nosir, publisist boʻlish bilan bir qatorda isteʼdodli shoir ham edi. Undagi shoirlik isteʼdodi oʻzbek hamda forsiy tilda yaratilgan sheʼriy jamlanmalaridan sezilib turadi. Fitratning “Shoir” deb nomlanuvchi sheʼri ham bor. Bu sheʼr 1920 - yil mart oyida yozilgan boʻlib, u Abdulhamid Choʻlponga bagʻishlanadi. Bu xususda adabiyotshunoslikda Miyon Buzruk Solihovning dalillari ham keltirib oʻtilgan. Sheʼr bashariyat dunyosi koʻklari sari koʻtarilishi uchun ruhiga madad tilayotgan lirik qahramon tilidan aytilgan:

Shoir:

Tabiatdan sirli, teran maʼnolar,
Tirilkik-chun ochiq, toʻgʻri, chin yoʻllar
Izlar-topar, oʻzi uchun saqlamas
Unlarni
Yoz gulining yaprogʻidan toʻqilgan
“Soʻzlar” ilan bizga oʻrab topshirar.

Misralarda shoirning birlamchi vazifasi “gul yaprogʻidan toʻqilgan” inja soʻzlarni “oʻrab topshirish”, yaʼniki, sheʼrxonga yetkazib berish hisoblanadi. Shoir yuragida tugʻilgan tuygʻular haqiqatini eshitguvchi koʻngliga koʻchiradigan mahorat sohibi, oʻrni bilan topib aytilgan timsollar esa uning “oʻrab topshirish” vositasidir. Sheʼr davomida yoridan biror iltifot-u marhamat kutmagan shoir oʻqirman kitobxonlardan madad tilanadi. Ingrab turgan jonini qoʻllashlarini, ruhiyatiga mador boʻluvchi taskinni sheʼrxonlardan istaydi.

Shoir obrazi tasvirida dard kishisini koʻz oldimizda gavdalantiradi. Uning ruhi “maʼshuqidan bir marhamat koʻrmay” muruvvatga kashal, ozurda jismida “ingrab turgan jon”. Sheʼrxondan ruhi uchun biroz koʻmak bermaklarini istaganlik umidi, ruh yuksakligi ilinji bilan sheʼr yakunlanadi. Sheʼr sarlavhasini ochib beradigan ushbu misralar “Shoir kim?” soʻrogʻiga munosib javob boʻla oladi. “Bashariyat dunyosin nozli qanotiga qoʻyub, uni koʻklar sari yuksaltkani” chogʻlangan shoir obrazi ohorli va benihoya goʻzaldir.

Shoir:

Ishq bogʻining tentak, singirli, yongan,
Bulbulidir. Bashariyat dunyosin
Kichik, nozli qanoti uzra qoʻyar,
Koʻklar sari yuksaltkali talpinar.

Bu tasvir go‘yo ko‘z oldingizda sizdan qo‘llaringizni qo‘liga berish uchun izn so‘rab turgan shoir obrazini chizadi. Go‘zallar bir oz qo‘llab, marhamat qilsalar, dunyoni nozik qanotlariga ortib, moddiy xilqatlarni ortda qoldirgan holda Ruhini ko‘klar sari yuksaltmoqchi. Balandlash, yuksaklarga ko‘tarilish, samoviy hislar ruh parvozi – shoirlikning asil maqsadi shudir.

O‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib Abdurauf Fitrat shoir va she‘r masalalariga alohida to‘xtaldi. “She‘r va shoirlik” nomli adabiy qo‘llanma turkiy tazkiralardagi ayrim tugal bo‘lmagan uzuq-yuluq fikrlarni inobatga olmasa, shu mavzu yoritilgan ilk ilmiy manbadir. Maqola o‘sha davr nashri “Ishtirokiyun” gazetasida yigirma to‘rtinchi iyul, yigirma to‘qqiz-o‘ttizinchi avgust sonlarida bosiladi. 1919-yil shu maqola yaratilgunga qadar ham Fitratning badiiy va ilmiy asarlarida she‘r bilan bog‘liq nazariy fikrlar uchraydi. Ammo “She‘r va shoirlik” maqolasi shu mavzudagi nazariy fikrlar tahlilga tortilgan. She‘r va shoir bir planda, bir-biri bilan bog‘lab o‘rganilgan bu mubohasaga juda o‘rinli fikrlar jo bo‘lgan. Maqolada dastlab she‘r tarixi haqida to‘xtaladi. She‘r nima? Shoir kim? degan savollarga javob izlanadi. Uningcha, “She‘r va shoirlik degan so‘zlar bizda yangigina so‘zlar emas. Turk ulusi o‘z borlig‘ini ochunga ko‘rsatkali she‘r va shoirliqni bilib bilibgina kelganlar”. Biz bilamizki, qadim turkiy xalqlar azaldan o‘z madaniyati tarixida she‘r bilan payvasta holda hayot kechirishgan. Islom dini yoyilgunga qadar ham qadim adabiy boyligiga ega bo‘lgan. Fitrat maqolasida qat‘iy turib islom dini qabul qilingunga qadar turkiy xalqlarni she‘rsizlikda yashagan, deb mulohaza yuritishni hech bir sabab bilan yoqlamaydi. Xalqini madaniyat, san‘at va adabiyotda hech bir millatdan kam ko‘rishni istamagan muallif fikrini qat‘iy tonib bo‘lmas dalillar bilan isbot qiladi. Fitrat nuqtai nazaricha, “Madaniy bir ulusning she‘rsizlig‘in so‘ylamak esa gapurub turg‘an bir kishining jonsizlig‘ina ishonmoq kabi kulinchdir”. Maqola muallifi o‘z fikrini inkor qilib bo‘lmas isbotlar bilan dalillaydi: “turklar musulmonliqdan burun ham o‘z she‘rlari, shoirlari, adabiyotlari bor edi”. Turkiy xalqlarning o‘z qadim she‘riyati borligi xususidagi qat‘iy hukmdan so‘nggina adabiyotshunos nuqtayi nazari bilan she‘r xususiyatlari haqida so‘z yuritadi. She‘rni ta‘rif qilar ekan, arablarning nazariy fikrlariga tayanadi. Uning fikricha, “So‘nggi arab adiblari she‘rni “kalomi mavzuni muhaffan”, deya ta‘rif qila edilar, kim, bu vaznli, qofiyali gap demakdir. Bizning shoirlarimiz ham shul bino qabul etadilar. Yetti-sakkiz so‘zni bilgili bir “vazn”ga tizib, ketinda bilgili bir so‘zni “qofiya qo‘ymoq bilan she‘r orasinda yerdan ko‘kkacha ayirma bordir”. Agar e‘tibor berilsa, Fitrat she‘rni vazn va qofiyadan iborat deb ataganida she‘rga berilgan tamal ta‘rif bo‘lmas edi. Shu sababli bunday jo‘ngina ta‘rif maqola muallifiga ma‘qul ko‘rinmaydi. U vazn va qofiyadan she‘r hosil bo‘lishi xususida sodda fikrni ilgari surmaydi. “She‘r nadur?” deya ko‘ndalang qo‘yilgan savolga quyidagicha isbot talab qilmas javob beradi: “She‘rda kishilarning qonini qaynatg‘uchi, singirlarini o‘ynatg‘uchi, miyasini titratguchi, sezgisini qo‘zg‘atg‘uchi bir kuch, ma‘naviy bir kuch bor. Shunday bir kuch bo‘lmag‘an so‘z “vazn” va “qofiyasi bo‘lsun, she‘r bo‘la olmaydir”. Bu borada Fitrat o‘z qat‘iy fikrida turib, taqlid she‘r haqiqatiga olib boruvchi yo‘ldan uzoqlashtiradi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, “taqlidgo‘y nazmchilar esa “vazn” va “qofiya”si bo‘lgan turli ma‘nosiz so‘zlarning sharafiga ishongan sayin she‘rning haqiqatidan uzoqlashib qoladilar. Biz ham she‘rni “vazn” va “qofiya”dan iborat deb bilsak, chin she‘rga yaqinlasha olmaymiz. Chin she‘r yurak sezgularini ko‘rsatmakdir. Vazn va qofiya esa so‘zning bezagidir”. Shu bugungi kunlarimizda ham ijodkorlar tilidan Abdurauf Fitratning muqallidlik borasidagi fikrlarini quvvatlaydigan qarashlarni tez-tez uchrab turadi. Shoir Abdulla Oripov ham she‘r individualligiga alohida e‘tibor qaratgan: “Kuylayverib siyqasi chiqib ketgan ko‘hna borliqni tasvirlay boshlar ekan, shoir she‘ri ming-minglab asarlar orasidan jilla bo‘lmasa ko‘rinib turmog‘i uchun birinchi navbatda originallikka e‘tibor bermog‘i lozim. Jiddiy fikr, chinakam hissiyot, samimiyat, yuksak mahorat - ana shular shoirning bundan keyingi qimmatini belgilab beradi”. Chinakam shoir o‘z sozi bilan kuylashi kerak. Quruq taqlid ijodga zid. Abdulla Oripov taqlidchi shoirga haqli ravishda mana bunday kinoya qiladi:

Taqlid qila bergin etsa bardoshing,
Modomiki senda bor ekan havas.
Faqat bir qora kun ko‘tarib boshing,

Asl nusxaman deb dod solmasang bas.

Fitrat maqolasida adabiyot dunyosida eng katta xatolardan taqlidchilik qoralanadi, “iyaruchilikdan turk she’rining boshini saqlamoq lozim”, - degan qarash mudom ijodkorning asl maqsadi bo’lib qoladi. Bu xususda birgina mulohaza yuritilayotgan maqoladagina emas, “Bedil” mubohasasida ham Fitrat tish-tirnog’i bilan ijodda taqlidchilikka qarshi ekanligini qat’iy ochiqlyaydi: “Insonlarning tabiatlarida yerlashib qolg’an bir-birlariga ergashmak haqiqat yo’lining qaroqchisidir. Insonlik dunyosidagi ko’p iste’dodlar shul taqlidchilik sababli ishga qo’yilmay qoldilar. Vaqtlarini taqlid orqasida yo’qotmoqliklari sababli bular bilan haqiqat orasiga shunday bir qalin devor tikilgandurkim, topib yoqalarini yirtmoq bilan uning tomonga yo’l ocha olmaylar”. Yuqoridagi fikrlar sababmi, ehtimol, Fitrat she’r borasida ham taqlidiy ta’rif bermaydi. Uning nazdida ta’rif shunday bo’lishi kerakki, taqlidga bag’ridan joy bermasligi lozim. Fitratning she’r haqidagi fikrlariga urg’u bergan ustoz adabiyotshunos Hamidulla Boltaboyev “...Fitrat ta’rificha she’r taqliddan ayrilgandagina uning qalbida yotgan pinhoni quvvat “ma’naviy kuch” yuzaga chiqadi, ayni shu holatning o’zi she’rning haqiqatidir”, - deydi.

She’r xususida Sharq she’rshunos olimlari Atoullloh Husayniy, Ahmad Taroziy, Nizomiy Aruzi Samarqandiy kabilar ham o’z qarashlarini aytib o’tganlarki, umumiy mazmun-mohiyati bilan bu ta’riflar Abdurauf Fitratning bu boradagi fikrlariga hamohangdir. Aynan Nizomiy Aruziy Samarqandiy fikrlarida ham juda diqqat qaratgulik mazmun ifodalangan: “Shoirlik shunday san’atki, bu san’at orqali hayajonlantiruvchi tushunchalar hosil qiladi. Va ta’sirchan qiyoslarni bir-biriga ulaydi”. Aytish kerakki, hech bir shoir o’zi yashab turgan jamiyat ta’siridan xorijda bo’la olmaydi. Shu sababdan Abdulla Orif “Sira ketolmasman asrimdan nari”, - deganida haq edi. Ijtimoiy munosabatlarning shoir tuyg’ulariga ta’siridan shoir dilida she’r tug’ilib, tilga ko’chadi. Fitratning “Qachonki, misralar eshitguvchi yuragiga, his-tuyg’ulariga ta’sir ko’rsatsa, o’shanda haqiqiy she’r dunyoga keladi. “Bilamizkim, har birimizga jon va ongimizni tegramizdagi narsalar va hodisalardan chorlantirib turg’uvchi besh sezgich “havvosi xamsa” bordir. Jonimiz shul besh sezgich orqali dunyoning o’z tegramizga erishkan narsa va hodisalarini bilib turar va har birisidan qayg’u, sevinch, qo’rquv, qizish, qaynash kab sezgu va tuyg’ular oladir. She’r yuragimizda hosil bo’lgan ana shunday sezgilarni hunarlicha so’zlar bilan boshqalarning yuragiga o’tkarmakdir. Shoir tegrasidagi narsa va hodisalardan oldig’i sezgilarini hunarlicha so’zlar bilan boshqalarga o’tkarmakchi bo’ladir. Kishining yuragi qancha “sezag’on” esa, shuncha yaxshi shoir bo’lar”, - degan fikrlari hech bir izohsiz she’r va shoirlik qonuniyati hisoblanadi. Shoirliq uchun sezgi va u sezgini hunarlicha (mahorat bilan) so’zlar bilan boshqalarga o’tkazguchi bir kuch kerakdur”. Demak, shoir ko’nglini junbushga keltirgan his-tuyg’ularini o’z o’rnida topib aytilgan so’zlar orqali she’rxonga yetkazadi. Bu jarayonda oddiy so’zlar timsollarga aylanadi, tashbehtar bilan boyiydi va o’quvchining dilini zabt etadi.

1. Xullas, “She’r va shoirlik” deb atalgan Abdurauf Fitrat qalamiga mansub shu birgina kichik maqola hali ko’plab yirik ilmiy ishlar uchun tamal bo’lib xizmat qiladi. Shu mo’j’az maqola Abdulhamid Cho’lponning “Sho’rolar hukumati va sanoyi’ nafisa”, Abdurahmon Sa’diyning “Go’zal san’at dunyosida”, Vadud Mahmudning “Bugungi she’rlarimiz va san’atkorlarimiz” kabi ko’plab ilmiy-badiiy ishlarini boshlab berdi. Tadqiqotimizda she’rning shakliy va janriy xususiyatlariga to’xtalib o’tmadik, keyingi ilmiy ishlarimizda masalaning bu jihatiga sinchkovlik bilan to’xtalgan holda yana she’r va shoirlik bahsiga qaytamiz. Zero, “...kishilarning qonini qaynatg’uchi, singirlarini o’ynatg’uchi, miyasini titratkuchi, sezgusini qo’zg’atg’uchi bir kuch, ma’naviy bir kuch” hisoblanmish she’r va shoirlik ham adabiyotshunoslar, ham shoirlar, ham ulamolar, hatto oddiy o’quvchilar, she’rsevarlar ommasi uchun ham birday qiziqarli mavzu hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar(darslik va o’quv qo’llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar). T.: “Manaviyat”,2009. B. –7
2. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007 yil, 88-b.

-
3. Boltaboyev H. She'r va shoirliq / "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 1995.-16-iyun.
4. Nurboy Jabborov. Zamon. Mezon. She'riyat. –T.: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.", 2015. – B.114
5. Xo'jayev F. Tanlangan asarlar. I tom. -T.: 1976.99-bet.
6. Ayniy S. Ta'rixii inqilobi Buxoro.-Dushanbe: Adib, 1987.-101-sahifa.
7. Ayniy S. Namunai adabiyoti to'chik.-M.: Markazii xalqi Ittihodi jamohiri sho'raviiso'siyolisti, 1926,534-545- sahifa

MILLIY UYG'ONISH DAVRI O'ZBEK ADABIYOTINING ILK BOSQICHIDA DENDRAR OBRAZLARINING POETIK TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI

*Rustamova Gavhar Bahron qizi,
Buxoro davlat universiteti doktoranti,*

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent g.b.rustamova@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri o'zbek adabiyotida dendrar obrazlarning badiiy talqin xususiyatlari, ma'naviy-estetik yuki va ularning g'oyaviy-falsafiy mazmun bilan boyishi jarayoni tadqiq qilinadi. Xususan, Muqimiy, Furqat, Zavqiy singari shoirlar ijodida daraxt obrazlarining tasviri orqali xalqning ijtimoiy holati, ma'naviy izlanishlari va ruhiy kechinmalari aks etganligi tahlil etiladi. Maqolada daraxt obrazining ilgarigi an'anaviy-diniy ramziy ma'nodan asta-sekin ijtimoiy-ma'rifiy yuklama kasb etib borishi ko'rsatiladi. Obrazlar talqinidagi bu o'zgarishlar adabiy tafakkur va estetik qarashlar takomiliga hamohang ravishda ro'y bergani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti, daraxt obrazi, XIX asr, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, ma'rifatparvarlik, estetik tafakkur, obraz evolyutsiyasi.

ОСОБЕННОСТИ ПОЭТИЧЕСКОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДЕНДРИОЛОГИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ НА РАННЕМ ЭТАПЕ ЛИТЕРАТУРЫ УЗБЕКИСТАНА ПЕРИОДА НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются особенности художественной интерпретации образов деревьев в узбекской литературе конца XIX века, их духовно-эстетическая нагрузка, процесс обогащения их идейно-философским содержанием. В частности, творчество таких поэтов, как Мукимий, Фуркат, Завкий, отражает социальный статус, духовные искания и духовные переживания народа через изображение образов деревьев. В статье показано, как образ дерева постепенно приобретает социально-просветительскую нагрузку из своего прежнего традиционного и религиозно-символического значения. Утверждается, что эти изменения в трактовке образов происходили в tandem с совершенствованием литературной мысли и эстетических воззрений.

Ключевые слова: узбекская литература периода национального возрождения, образ дерева, XIX век, Мукимий, Фуркат, Завкий, просвещение, эстетическая мысль, эволюция образа.

FEATURES OF POETICAL IMPROVEMENT OF DENDRIAL IMAGES IN THE EARLY STAGE OF UZBEKISTAN LITERATURE OF THE NATIONAL REVIVAL PERIOD

Abstract. This article examines the features of the artistic interpretation of tree images in Uzbek literature of the late 19th century, their spiritual and aesthetic load, and the process of their enrichment with ideological and philosophical content. In particular, the work of poets such as Mukimiy, Furqat, and Zavqiy reflects the social status, spiritual searches, and spiritual experiences of the people through the depiction of tree images. The article shows how the image of a tree gradually acquires a socio-enlightenment load from its previous traditional and religious

symbolic meaning. It is argued that these changes in the interpretation of images occurred in tandem with the improvement of literary thought and aesthetic views.

Keywords: Uzbek literature of the period of national revival, tree image, 19th century, Mukimiy, Furqat, Zavqiy, enlightenment, aesthetic thought, image evolution.

XIX asr oxiri o'zbek adabiyotida tabiat obrazlari, xususan, daraxt timsollari badiiy ifoda vositasi sifatida yangicha mazmun kasb eta boshladi. Mazkur davrni o'zbek adabiyotida alohida bosqich sifatida tasniflagan B. Qosimov ta'kidlaganidek, "bu davr adabiyoti yangilanish davri adabiyotidir". Shuningdek, adabiyotshunos davr lirikasida realistik tasvir keng o'rin ola boshlaganini alohida e'tirof etadi [B.Qosimov, 12]. Bu davrda ijod qilgan Muqimiy, Furqat va Zavqiy singari shoirlar uchun daraxtlar nafaqat tabiat manzarasi unsuri, balki insoniy fazilatlar, jamiyatdagi muammolar va ma'rifiy g'oyalarning ramziy timsoli bo'lib xizmat qilgan. Quyida mazkur timsollardan ayrimlarining poetik, semantik va g'oyaviy tahliliga to'xtalib o'tamiz.

Aslida obrazlarning mumtoz adabiyotdagi an'anaviy ishqiy o'xshatish va timsollardan chekinib, ijtimoiy va real ma'no kasb eta borishi ushbu bosqichning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sanaladi. Chunonchi, Muqimiy lirik merosida dendrar obrazlar bilan bog'liq an'anaviy tashbeh va istioralar uchrashi bilan birga, realistik obrazlar ham yetarlicha ko'zga tashlanadi.

*"Olma, o'rukni kishi bozora olib kelmasun,
Chunki illatlik, yeganlarga balosi tegmasun,
Bir musulmon, ot tutib, shaftoli chilgi demasun, –
Rus hukumatdonlari man' etdi, – mardum yemasun,
Yesalar, ofat tegib o'lar ekan, tar mevalar".*

Bu she'rda Muqimiy, chor Rossiyasining bo'rk ol desa, bosh oladigan amaldorlarini fosh etadi. Gap shundaki, o'sha yil qayerdan bo'lib, ho'l meva yeyilmasin, "lang bor" (ho'l mevalar orqali daraxtlardan kasallik yuqib, cho'loq bo'lish mumkin) deb buyruq bo'lgan. Yurt mingboshilaridan boshlab oddiy politsiyagacha, bu farmoyishni o'rinlatish uchun istagan noma'qulchilikni qilgan edilar. Natijada, shundoq ham zamona zayli bilan shundoq ham og'ir turmush kechirayotgan xalqning ahlovi yanada qiyinlashadi, ming mashaqqatlarda meva yetishtirgan dehqon va bog'bonlarning fig'oni falakka yetadi:

*Oshkoro bog'da zardolu teralmay hayfkim,
Bir qoshiqdondch biravga kulturalmly hayfkim.* [Muqimiy, 39]

Dendrar obrazlarning ijtimoiy ahamiyat kasb etishi Furqat ijodida ham o'ziga xos tarzda kuzatiladi. Yigirma bir bayytdan iborat "Ko'rdim" radifli g'azalida dunyo kezgan shoirning falsafiy o'ylari berilgan. U dunyo odamlari ("ahli jahon") da vafodan asar ko'rmaydi. O'z holidan birovga shikoyat qilishga hojat sezmaydi, chunki ularning ahvoli bunikidan "battar". Uningcha, umuman, birov bilan gaplashish imkoni yo'q. A.Qayumov ta'biri bilan aytganda, bu she'r "Фуркатнинг зулм ва ноҳақлик ҳукмрон бўлган давр устидан тузган айбномасидир". [A.Qayumov, 14]

Shoirning lirik qahramoni ana shu zamona vahshatlaridan ozurda bo'lgan bir shaxs. U o'zini shajar, ya'ni daraxtga qiyos etadi. Agar u daraxt kabi yoyilib engashib o'ssa, har bahor uning shohlarini kesadilar:

*Shajar kabi agar etdim bu yerda kajravlig',
Bahor o'tmadikim, bosh uza tabar ko'rdim.*

Butun olamni kezib chiqqan shoir dunyodan butunlay umidini uzadi – murod daraxtini topdim-u, mevasiz ko'rdim, deydi:

*Tamom sayr qilib ro'zg'or bog'ini,
Murod naxlini topdim-u besamar ko'rdim.*

"Naxl" o'zbek tilida "xurmo" demakdir. Bu so'z, asosan, xurmo daraxti va uning mevasiga nisbatan qo'llaniladi. Shoir demoqchiki, dunyo kezib, murod daraxtini topdi, biroq bu xurmo daraxtini mevasiz holda ko'rib, hafsalasi pir bo'ladi. B.Qosimov va N.Jabborov esa ushbu istiorani shoir vatanga qayta olmasligini yurakdan sezganiga ishora sifatida baholaydi. [Begali Qosimov va b., 84].

Bundan tashqari shoir an'anaviy ishqiy mavzulardagi g'azallarda ham boshqalarga o'xshamagan tashbehlardan foydalangan. Yor qaddini maqtovchi uni to'bi daraxtga tashbeh etadi. Bu o'xshatuv xato, deydi shoir. Bu bog'dagi go'zal sarv og'ochini bir eski tolga

o'xshatmoq demakdir. Yerning nozik nihol qomati qarshisida to'bining eski tol singari ko'rinishi to'g'risidagi nisbat hali she'riyatda ko'rinmagan edi:

*To'biga etdi tashbeh, jono, qaddingni vosif,
Bilmay bu bog' sarvin mengzartti eski tola.*

Ubaydulloh Zavqiyning g'azal, muxammas, muvashshaxlarida sarv, shamshod singari dendrar obrazlar vositasida mumtoz adabiyotga xos yor va ma'shuqa tasvirlansa, arg'uvon bug'doy daraxti kabi obrazlarda axloqiy va didaktik ruh ustuvorlik qiladi.

*Chamanda arg'uvondek surat oro bo'lmag'ing xub yo'q,
Pisharda mevasiz sharmandadur, sirri ayon bo'ldi.
Dema mashhur bo'lmoq yaxshi, bug'doy donasi pinhon,
Daraxti qildi javlon, sarg'ayib oxir samon bo'ldi. [Завқий, 76]*

Shoirning "Nasihat" she'ridan olingan yuqoridagi parchada arg'uvon va bug'doy daraxti obrazlari orqali faqat suratga ahamiyat qaratmaslik, aksincha, ichki olamni boyitish orqali o'zgalarga naf yetkazishdek ma'naviy g'oyalarni ochishga qaratilgan. Arg'uvon daraxti tashqi go'zalligi bilan ajralib tursa-da, meva bermasligi sababli foydasiz sanaladi – bu orqali shoir ichki mazmunsiz chiroyli ko'rinishning befoydaligini tanqid qiladi. Aksincha, bug'doy donlari boshqoq ichida pinhon bo'lsa-da, meva berib oxir-oqibat insonlarga foyda keltiradi, uning tanasi o'zini qanchalik ko'z-ko'z qilmasin, oxir-oqibat sarg'ayib somonga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Завқий. Ажаб замона. – Тошкент: Шарк, 2003.
2. Мухаммад Аминхўжа Муқимий. Танланган асарлар. – Т.: Ўз ССР давлат нашриёти, 1953. – 176 б.
3. Фурқат. Танланган асарлар. – Т.: Фафур Фулом, 1975.
4. Қосимов Б. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: Маънавият, 2004.
5. Қўлдашева Д. Фурқат ғазалларининг лингвопоэтик тадқиқи. Фил.ф.б-ча фалс.докт. (PhD) дисс.автореф. – Фарғона, 2023.

BOSHLANGICH TA'LIMDA TA'LIM TARBIYA JARAYONI

*Mirzayev Sardor Amrullayevich
Qarshi davlat universiteti doktaranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida ta'lim va tarbiya jarayonining o'zaro uyg'unligi hamda ularning o'quvchilarning intellektual, ma'naviy va jismoniy rivojlanishidagi o'rni tahlil qilinadi. Boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarning shaxsiy xususiyatlari, ta'limga bo'lgan ehtiyojlari va qiziqishlari inobatga olingan holda samarali pedagogik texnologiyalar va metodlar qo'llanilishining ahamiyati yoritiladi va maqolada ta'lim-tarbiya jarayonini yanada rivojlantirish, o'quvchilarni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, kommunikatsiya, sport, pedagog, ijtimoiy, insonparvarlik, oila, psixolog, odob-axloq.

EDUCATIONAL PROCESS IN PRIMARY EDUCATION

Abstract. this article analyzes the mutual harmony of the education and training process in the primary education system and their role in the intellectual, spiritual and physical development of students. Taking into account the personal characteristics, educational needs and interests of children of primary school age, the importance of using effective pedagogical technologies and methods is highlighted, and the article puts forward scientific and practical proposals for the further development of the educational process and the education of students as mature individuals in all respects.

Key words: education, communication, sport, pedagogue, social, humanitarian, family, psychologist, ethics.

Tarbiya tushunchasi millat tarixi va jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo'lib, har xil tarzda izohlanib kelinadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyani izohlashda yangi sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa

boshladi. Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlari va milliyligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya xalq nomi va uningtarixi chambarchas bog'liqdir. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, mutufakkirlarning pedagogik qarashlari tizimli sinchkovlik bilan o'rganilmoqda. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Ijtimoiy tarbiya bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar, o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, shaxs qilib voyaga yetkazishda eng muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham biz milliy – ma'naviy qadriyatlarnimizni odobnoma darslari orqali o'quvchilar ongiga singdirishimiz o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi degan fikrlarni olg'a surib, undan keng foydalanishimiz lozimligini ta'kidlaymiz.

Mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan globallashuv, dunyo bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda, demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash muhim omiliardan biri bo'lib bo'lmoqda."Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'ygan hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" asosida barcha sohalarida keng ko'lamli o'zgarishlar, yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'la olishimiz bilan uzviy bog'liq" O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Bugungi kunda ta'lim sifatlarini oshirish va ta'lim sohasini yanada rivojlantirish barcha pedagoglar oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifalardan biridir. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya masalalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar xususan boshlang'ich sinf o'qituvchilari darslarda yangi zamon ruhini olib kirish orqali o'quvchilar bilimini yanada rivojlantirish ularning dunyoqarashini oshirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Boshlang'ich ta'lim – ta'lim va tarbiyaning bosh poydevoridir. Ushbu poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa imorat shunchalik mustahkam bo'lgandek, mukammal boshlang'ich ta'lim bilimlariga ega bo'lgan o'quvchilar kelgusida yuqori sinflarda hech qiynalmasdan yanada yuksak natijalarga erisha oladilar. Tarbiyaviy tadbirlar orqali ular ongida kasb-hunar va mehnat ko'nikmalarini hosil qilish, umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy kadriyatlarga asoslangan yuksak manaviy axloqiy fazilatlarini tarbiyalash bilan o'z vatani va xalqiga nisbatan sadoqatni shakllantirish, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo'lish tuyg'usini, huquqiy ongini tarbiyalash lozim."Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da "madaniy, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashkari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish" ta'kidlangan hamda ta'lim sifatini yaxshilash uning tuzilmasi va mazmun - mundarijasini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan. Yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy-madaniy tarixiy an'alariga, urf odatlari hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Boshlang'ich ta'lim muassasalarida tarbiyaviy tadbirlarni olib borishning bugungi kunda ijobiy tomonlari shundaki o'quvchi yoshlarni ongini, ma'naviyatini, yuksak salohiyatini yuksaltirishda, barkamol avlodni milliy- ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustivorligi ta'minlanadi. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirilib va rivojlantirilib borilmoqda. Tarbiyaviy tadbirlar - turli xil moddiy va ma'naviy ehtiyojlarga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarni yagona majmuasiga bo'ysundirilgan, bir-biri bilan o'zaro hamkorlik qiluvchi, o'zida bir butun kishini ko'zda tutan tarbiyaviy ta'sir majmuidir. Ta'lim jarayoni alohida darslardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy tadbirlardan tarbiya jarayoni vujudga keladi. Tadbirlar, tarbiyaviy ishlar - tarbiya jarayonining bir bo'lagidir, tarbiyaviy tadbirlar -bu tarbiyaning tizimligi, tugalligi, uzviyligi vauzluksizligidir. Tarbiyaviy tadbir - tarbiyalanuvchilarning muayyan tarbiyaviy faoliyatiqi tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shaklidir. Tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati zaruriylik, foydalilik va tadbiriq etish imkoniyatidan iborat. Mazkur vazifalarni hal qilishda ta'lim muassasalari faoliyati muhim

ahamiyatga ega. Chunki bu ijtimoiy tarbiyaning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim muassasalari negizida pedagogik xuquqiy, psixologik ma'naviy va ma'rifiy bilimlar beruvchi "ota-onalar va o'quvchi" faoliyatini tashkilotlash, bola tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilgan oilalarni tegishli idoralar hamkorligida o'rganib, tajribalarini ommalashtirishni yo'lga qo'yish. Maktab, oila, mahalla mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari hamkorligining bu yangi tuzilmasi bolalar va katta yoshdagi aholining odob-axloq, g'oyaviysiyosiy, mehnat, iqtisodiyekologik sog'lomlashtirish va jismoniy tarbiyasiga, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga, madaniyat, ta'lim, sport, xalq ta'limi, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mahallalarning moddiy ba'zasi va xodimlaridan to'laroq, oqilona foydalanishda amaliy imkoniyatlar beradi. Oldindanam ta'lim tarbiya axloqqa juda e'tiborli bo'lishgan.

Masalan hadislarida va buyuk allomalimiz asarlarida yozib o'tganlar. Hadisi shariflardagi axloqqa oid ibratli, maslahatlar, hikoyatlar, asrlar davomida ajdodlarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'analar Beruniy, Forobiy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Navoiy, Bobur singari buyuk allomalar, olimlar, yozuvchilarning axloq haqidagi ko'plab fikr-mulohazalari bugungi kunda ham oilahayot uchun, har bir inson uchun qadr-qimmatini yo'qotmagan muhim tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Jumladan, Amir Temur axloqi husniya - yaxshi xulqlar egasibo'lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda ham shoshmashosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'ymagan, balki yetti o'lchab bir kesgan. Amir Temur singari jahon ma'naviyati saltanatida o'zo'rinlariga ega bo'lgan buyuk bobokalonlarimizning axloq, go'zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi. "O'g'illarim! Millatning ulug'martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tatbiq eting. Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'riqlang, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin". Ismoil Al-Buxoriy "Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik vomonatga xiyonat qilmaslik shart, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang hamzarari yo'qdir", - deb yozadi.

O'rta Osiy mutafakkirlarining axloq haqidagi fikrlari, o'gitlari shunday kuchga egaki, ular o'quvchilar qalbida insoniylik urug'larining unibchiqishiga, katta hayot yo'liga olib chiqishga yordam qiladi, ma'naviy kuch-quvvat beradi. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi ulug' mutafakkirlarning axloqiy qarashlari va qadriyatlardan mustaqil O'zbekiston istiqlolini mustahkamlashda, o'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirishda, kundalik turmushimizda keng foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir. Abu Ali ibn Sinoning axloq haqidagi qarashlari uning shoh asarlari bo'lmish "Tibqonunlari", "Ash-shifo" va boshqa asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Ibn Sinota'limotiga ko'ra, odamga do'st tutinishning uch xil yo'li bor: "Birinchidan, har qanday qiyinchilik bo'lishiga qaramay, kishi o'z do'stini falokatdan qutqarishni, ikkinchidan, g'oyaviy yaqinlik va dunyoqarashlar umumiy bo'lgan chinakam va doimiy do'stlikni va uchinchidan esa kishining mansabi, puli yoki mavqeiga qarab o'zining shaxsiy manfaatini qondirish ko'zda tutilgan do'stlik bo'ladi", - deb ta'kidlaydi Ibn Sino. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilik" dostonida hokim bilan xalq o'rtasidagi o'zaromunosabatlar masalasiga e'tibor beradi. Uning fikricha, agar beklar tabiatan ezgbo'lsalar, barcha fuqarosi boyiydi, olam guliston bo'ladi. Shuningdek, "Hammanarsaning qoidasi, tartibi, ta'limi bor, tartib, odob qoidalarini to'g'ri tutsa, kishining yuzi yorug' bo'ladi", - deb ta'kidlaydi.

O'tmishda ajdodlarimiz insonning psixologik qonuniyatlarini, ta'lim tarbiya masalalarini muayyan ilmiy yo'nalishda o'rganmagan bo'lsalarda, biroq allomalarning qo'lyozmalarida mazkur holatlarning namoyon bo'lishi, inson kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari hozirgacha yuksak ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy pedagogika masalalarini va ular bilan bog'liq bo'lgan psixologik, fiziologik pedagogik muammolarni ijobiy hal etishda insonni hartomonlama yaxlit va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan iborat, deb aytadi. Forobiy mavjudotni bo'lishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uning chainson tanasi, miyasi, sezgi organlari tugilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va axloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urfodatlari, ma'lumoti tashqimuhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishining eng etuk mahsuli bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Abu

Rayhon Beruniy ta'lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mavqei, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlar chin ma'noda insonparvarlik va insonshunoslik zahirida yaratilgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uyg'unlik tamoyillarini mutafakkirning barcha asarlarida kuzatish mumkin. U insonni tabiatning bir qismi deb ta'kidlaydi. Beruniy ta'lim jarayonining tabiatiga chuqur kirib borib, bolalarning yoshxususiyatlarini hisobga olish asosida qurilgan o'qitish tabiatga uygunligini uqtiradi. Beruniy pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta'lim-tarbiyasi, kamoloti boshmasala bo'lgan.

O'rta asrda yashab, ijod etgan donishmand, tabobat ilmining dohiysi Abu Ali ibn Sino inson ruhiyati, tana va qalbning birligi, inson organizmining tuzilishi, undagi nerv faoliyati va ularning tarmoqlanishi, holatlari haqidagi qimmatli ma'lumotlari hozirgachadar tibbiyotning muhim negizini tashkil etadi. Yusuf Xos Xojib ijodining bosh masalalaridan biri – komil insonni tarbiyalashdir. Adib o'z asarlarida eng komil, jamiyatning o'sha davrdagi talablariga javob beraoladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shu asosda u o'z tamoyillarini izchil bayon etadi. «Qutadg'u bilig» («Saodatga yo'llovchi») asari ta'lim va tarbiya, ma'naviy kamolotning yo'l-yuriqlarini, usullarini, chora tadbirlarini o'zidamujassamlashtirgan, axloq va odobga doir ma'naviy manbadir. Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», «Xirandnomai Iskandari», «Tuhfatulahrar» va boshqa asarlarida ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar o'rganish, insonijobiy fazilatlar haqidagi fikrlari ifodalangan. Alisher Navoiyning «Xazoyinul ma'niy», «Mahbubul qulub» va boshqa shuningari asarlarida etuk, barkamol insonning axloqi, ma'naviyati, o'zgalaramunosabati, iste'dodi va qobiliyati to'g'risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Anashu psixologik mezonlar ijtimoiy adolatning qaror topishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlangan. Shuningdek, Navoiy asarlarida yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllanishida ota-onaning roli, ayollarning iffatliligi, kishilarning kamtarligi haqidagi fikr-mulohazalari alohida o'rin egallaydi. Navoiy «Xamsa»sining har bir dostonida bukilmay iroda, qat'iylilik, itoat, insonparvarlik tuyg'ulari, ijodiy xayolot, insonning murakkab ichki kechinmalarimohirona yoritilgan. Shuningdek, bu borada Mashmud Qoshgariy, Ulugbek, Naqshbandiy, Ogahiy singari buyuk harq mutafakkirlarining yoshlar tarbiyasiga, o'qituvchi, tarbiyachining jamiyatdagi o'rni, axloq-odob, fe'l-atvor, oilaviy hayot, kishilararo munosabatlarga doir qarashlari ularning asarlarida ravon va ixcham bayonetilganligini ta'kidlash mumkin. Tarbiyaviy ishlar jarayonida barkamol avlodni tarbiyalash muhim o'rin tutadi. Aniq maqsadga qaratilgan tarbiya ishida jamoaga va ba'zi bir talablarga ta'sir qilishni tashkil etish tarbiyaviy ishlarning asosini belgilaydi. Tarbiyani rivojlantirish uchun tarbiya fani ishlab chiqildi. Tarbiya kitobida bolalar uchun kerakli ma'lumotlar yozilgan. Masalan kattalarni hurmat qilish, yordamga muhtoj insonlarni kamsitmaslik aksincha ularga yordam berish va boshqalar. Hadislarda va buyuk allomalarimiz kitoblariga shular to'g'risida yozib o'tilgan. SHuning uchun prezidentimiz ta'lim tarbiya jarayonini rivojlantirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh. (2017). *Harakatlar strategiyasi* - O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.
2. Beruniy, A. (1989). *O'qitish va tarbiya haqidagi asarlar*. Toshkent: Fan.
3. Forobiy, A. (2010). *Maqolalar va pedagogik qarashlar*. Toshkent: Sharq.
4. Ibn Sino, A. (1985). *Tibbiyot qonunlari va pedagogika*. Toshkent: Ilm.
5. Xos Hujib, Y. (1982). *Qutadg'u bilik*. Toshkent: Sharq.
6. Navoiy, A. (2004). *Xazoyinul ma'niy*. Toshkent: Akademnashr.
7. Jomi, A. (1988). *Bahoriston*. Toshkent: Ma'rifat.
8. Navoiy, A. (2007). *Mahbubul qulub*. Toshkent: O'zbekiston.
9. Ibn Al-Buxoriy, I. (2013). *Axloq va tarbiya haqidagi hadislar*. Toshkent: Islam.
10. Toshmatov, N. (2002). *O'zbekistonning pedagogik merosi*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA SHOIRLIKKA MUNOSABAT

*Xalilova Ruxsora Raupovna,
BuxDPI dotsenti, f.f.f.d.(PhD)*

*Abduraxmonova Muxtasarxon Abdujabbor qizi
BuxDPI magistranti musayevamuxtasarxon1@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalqining ardoqli shoiri Erkin Vohidovning she'r va shoirlikka munosabati yoritilgan. Maqolada ijodkorning shoirlikka munosabati, uning bu borasidagi falsafiy fikr-mulohazalar chuqur tahlilga tortilgan. Shoirning o'ziga xos adabiy-nazariy qarashlari va adabiyotshunos sifatidagi fikr mulohazalari misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: she'r, shoirlik, she'riyat, ijodkor, iste'dod, ijod, fidokorlik.

ОТНОШЕНИЕ К ПОЭЗИИ В ПОЭЗИИ ЭРКИНА ВОХИДОВА

Аннотация: В данной статье рассматривается отношение Эркина Вохидова, заслуженного поэта узбекского народа, к поэзии и поэзии. В статье глубоко анализируется отношение художника к поэзии и его философские размышления на эту тему. На примерах раскрываются уникальные литературно-теоретические взгляды и размышления поэта как литературного критика.

Ключевые слова: поэзия, поэтика, поэзия, творец, талант, творчество, преданность.

ATTITUDE TO POETRY IN THE POETRY OF ERKIN VOKHIDOV

Annotation: This article discusses the attitude of the honored poet of the Uzbek people Erkin Vohidov to poetry and poetry. The article deeply analyzes the attitude of the creator to poetry, his philosophical views on this matter. The poet's unique literary and theoretical views and thoughts as a literary critic are revealed with the help of examples.

Key words: poetry, poetry, poetry, creator, talent, creativity, dedication.

Erkin Vohidov – o'zbek adabiyotining boy an'analari va zamonaviy ruhiyatini uyg'unlashtirgan shoiridir. She'riyati o'zining chuqur falsafiyligi, milliy ruhiyat va insoniy tuyg'ularning teran ifodasini o'ziga aks ettirgani bilan ajralib turadi.

Erkin Vohidov she'riyatida shoirlik — bu oddiy kasb yoki san'at emas, balki muqaddas burch, xalq va vatan oldidagi ma'naviy mas'uliyat sifatida talqin etiladi. U o'z she'rlarida shoirlikni katta ijtimoiy yuk, ruhiy kurash va haqiqat izlash yo'li deb ko'radi. Uning nazarida shoir — bu har bir so'ziga, bayoniga javobgar inson. Ba'zi she'rlarida shoirlik ilohiy iste'dod sifatida talqin qilinadi. So'zimiz isboti sifatida bir necha she'rlaridan namunalar keltirib o'tamiz.

Shoir qalbi go'yo anor,

She'ri uning sharbati.

Bo'lmas ekan she'r ahlining

O'z qalbiga shafqati.

Tinmay ezar, ezar uni

Ammo shoir biladi –

Piyolasi to'lgan kuni

Paymonasi to'ladi. [187]

Bu she'rda shoirning qalb kechinmalari, ijod jarayoni va ichki olami chuqur badiiy tasvirlangan. She'r mazmun jihatidan falsafiy va ma'nodor bo'lib, she'rda shoir qalbi va ijodi bir-biriga chambarchas bog'langan holda tasvirlanadi. Shoirning yuragi (qalbi) va ijodi (she'ri) orasidagi o'zaro bog'liqlik hayotiy falsafa sifatida ilgari suriladi. Shoir o'z qalbidan kechgan iztiroblarni, his-tuyg'ularni she'riyatga aylantiradi. She'rdagi metaforik ko'chimda shoir qalbi anorga o'xshatilmogda, bu esa shoir yuragining nozikligi, sezgirligi va ichki olamining rang-barangligini ifodalaydi. "She'ri uning sharbati" – shoir yuragidan chiqqan his-tuyg'ular (ya'ni sharbati) uning ijodiga aylanadi. Bu misra shoir ijodining yurakdan, ichki ehtirosdan tug'ilishini anglatadi. Shoir o'z qalbini asramaydi, o'z kechinmalarini cheksiz iztiroblar bilan kuylaydi. Bu

joyda shoirning ijod jarayoni oson emasligi, shoirning qalbi doimiy iztiroblarda ekanligi tasvirlanadi. “Piyola” va “Paymona” – bu tushunchalar shoirning ichki dunyosi va ijodiy ilhomining to‘lish jarayonini ifodalaydi. Shoir o‘z dardini she’riyat orqali ifodalab, oxir-oqibat ichki tuyg‘ularining to‘la ochilishini tasvirlaydi.

She’r sodda, lekin ma’nodor va falsafiy ohangga ega. Shoirlik azob-uqubat, iztirob va ilhomdan iborat ekanligi she’riy obrazlar orqali mahorat bilan ifodalangan.

She’r ila shod o‘lding, Erkin,
Qilmading dunyo havas,
Bor ekan ko‘ksingda otash,
Sen uchun dunyo qalam. [190]

Bu she’rda Erkin Vohidovning shaxsiyati, ijodi va dunyoga munosabati yuksak tarzda baholangan. She’rda ishlatilgan “bor ekan ko‘ksingda otash” metaforasi orqali shoirning ichki ilhomi, ijodiy ishtiyoqi va yurakdagi she’riyatga bo‘lgan muhabbati qalamga olingan. Bu keyingi o‘xshatishda ham o‘z ifodasini topgan: “qilmading dunyo havas” – ya’ni shoir moddiy dunyodan ma’naviy boylikni ustun ko‘rgan, she’riyatni o‘zining eng asosiy qadriyatiga aylantirgan. Shoir hayotning barcha jihatlarini she’riyat orqali ifodalashga harakat qilgani ko‘rinib turibdi. Boshqa bir she’rida esa ijod dardi haqida so‘z borganda quyidagi misralarni keltiradi:

Shoir bo‘lsam bir kun elga munosib,
Meni shoirim deb atasa xalqim,
Navoiy devonin ko‘ksimga bosib,
Pushkin dahosiga qilurman ta’zim. [185]

Mazkur to‘rtlikda esa shoirning buyuk ustozlari xususida so‘z boradi. Xalqning suyukli shoiri bo‘lishida Hazrat Navoiy va Pushkindek daho ijodkorlarning ijod ummoni dasturilamal bo‘lganini so‘zlar ekan ularga ta’zim bajo keltirajagini aytib o‘tadi.

Shoirlik – bu shirin jondan kechmakdir,
Limmo-lim fidolik mayin ichmakdir.
Shoirlik – jigarni ming pora etmak,
Bag‘ir qoni bilan satrlar bitmak.
O‘zni tomchi-tomchi, zarra va zarra
Elga qurbon qilib, eng so‘nggi karra
Armon bilan demak: “Ey ona yurtim,
Kechir, xizimatingni qilolmay o‘tdim”. [184]

Ushbu falsafiy she’rda shoirlik oddiy kasb emas, balki ruhiy va ma’naviy fidokorlik sifatida talqin etiladi. Shoir — jamiyat vijdoni, el yuragining og‘rig‘ini his etuvchi, uning iztiroblarini o‘z yuragidan o‘tkazib, satrlarga ko‘chira oluvchi ruhiy yo‘lboshchi sifatida tasvirlanadi. Shoir o‘z hayotini emas, el taqdirini, jamiyat iztirobini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Shoir ijodi — yurakdan, qon bilan yozilgan haqiqatdir. Bu yerda ijodiy jarayon ruhiy azob bilan tenglashtiriladi. Shoir uchun har bir satr — azobdan tug‘ilgan haqiqat. Bu shoirning so‘z bilan emas, ruh bilan ijod qilishi falsafasidir. Bu yerdagi falsafa — "men"ning "biz"ga aylanishi, individual hayotning umummillat darajasiga ko‘tarilishi hisoblanadi. Shoir hayotining oxirida ham o‘zini jamiyat oldida qarzidor deb biladi, o‘zini hech qachon yetarli xizmat qilgan deb hisoblamaydi — bu esa faqat chin insoniylik sifatiga ega bo‘lganlar uchungina xos fazilatdir. She’rda shoirlik ruhiy va axloqiy yuksaklik, fidoyilik, ichki kurash, pushaymonlik orqali insoniylikni yoritadi. Shoirlik — bu nafaqat san’at, balki ma’naviy kurash, hayotni anglash va tushunish vositasi, insoniyat dardini so‘zda ifoda qilish mas’uliyati degan xulosaga keladi.

Qancha ilhom kerak, ishq, orzu-tilak
Insonni fazoga uchirmoq uchun.
Qancha bilim kerak, tafakkur kerak.
Buni she’r, dostonga ko‘chirmoq uchun.
Olimni band etar yulduzli osmon,
Cheksiz fazo ilmi shoir xayolin.
Ha, bu shunday zamon, ajoyib zamon,

Olimlar – shoir-u

Shoirilar – olim. [24]

She'r zamonaviy ilm-fan, tafakkur va badiiyatning uyg'unligi haqida. Unda insonni fazoga olib chiqadigan vosita – nafaqat texnika va ilm, balki ilhom, orzu va ishq ekani ta'kidlanadi. Shoir ilhomni insonni parvozga olib chiqadigan kuch sifatida ko'radi. Bu misralarda inson yuksalishi faqat texnik taraqqiyot bilangina emas, balki ichki kuch – ilhom va orzu bilan bog'liqligi aytilmoqda. Ya'ni, ruhiy yuksalish va texnik yutuq bir-birini to'ldiradi. Shoir she'r yaratishni – ilmiy parvozga tenglashtiradi. Bu yerdagi asosiy fikr: she'r ham fazoga uchish kabi yuksak tafakkur, bilim va ruhiy kuch talab etadi. Bu misralar ilm-fan va badiiyat chegarasining yo'qligini ko'rsatadi. Olimlar – koinotni o'rganmoqda, shoirilar esa uni tasavvurida yaratayapti. Ikkisining faoliyati aslida bir-biriga yaqin. Bu zamon – ilm va san'at, tafakkur va tuyg'u, texnika va ilhom birlashgan davr. Shoir bu yuksak uyg'unlikni zamonaviy insonning asosiy kuchi sifatida ko'rsatmoqda.

She'rning badiiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, "olim" va "shoir" obrazlari o'rtasida dastlab qarama-qarshilik bordek tuyuladi, ammo she'r davomida ular bir-biriga yaqinlashtiriladi. She'r zamonaviy dunyoning muhim bir hodisasini – fan va san'at uyg'unligini yuksak falsafiy yondashuv bilan ifoda etadi. Unda shoirlik – ilhom, tafakkur va bilim orqali jamiyatni yuksaltirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Shoir zamonni ulug'lar ekan, inson salohiyatining ikki qanoti – tafakkur va ilhomga urg'u beradi.

Erkin Vohidov bir g'azalida keltirganidek,

She'rdan ayru tonglarim

Yaldo tuniday zim-ziyo,

She'r bilan tunlar charog'on

Xurshidi tobon qadar.

Xulosa. Erkin Vohidov nazarida shoirlik — bu xalq bilan birga yashash, uning g'ami va orzusini so'zga aylantirish, haqiqatni aytish jasoratiga ega bo'lish demakdir. Uning she'riyatida shoir — bu zamonasining ko'zgusi, xalqining yurak nidosi va tarixining guvohidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 1-tom. – Toshkent: "Fan", 1978. – 416b.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 1-tom. – Toshkent: "Fan", 1978. – 416b.
3. Vohidov Erkin. Tanlangan asarlar. – Toshkent: "Sharq", 2016. – 696b.
4. Vohidov Erkin. O'zbekim. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2019. – 400b.
5. Vohidov Erkin. Sharqiy qirg'oq. – Toshkent: "Yosh gvardiya", 1981. – 128b.
6. Vohidov Erkin. Shoir-u she'r-u shuur. – Toshkent: "Yosh gvardiya", 1987. – 224b.

YOSH AVLOD TA'LIM-TARBIYASIDA JADID MA'RIFATPARVARI ABDURAUF FITRATNING PEDAGOGIK MEROSINING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY DIDAKTIK AHAMIYATI

Xalilova Ruksora Raupovna,

Buxoro davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti

Tolibova Maftuna Zokir qizi,

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada yosh avlodning ta'lim olishi, ma'naviy tarbiyasi Abdurauf Fitrat g'oyalari hamda asarlaridagi ilgari surilgan ilmiy-nazariy fikrlari asosida yoritilgan qarashlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: oila, ta'lim-tarbiya, kelajak avlod, A. Fitrat, farzand, ilm.

SCIENTIFIC-THEORETICAL BASIS AND MODERN DIDACTIC SIGNIFICANCE OF THE PEDAGOGICAL HERITAGE OF THE NEW ENLIGHTENER ABDURAUUF FITRAT IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION

Annotation: This article presents views on the education and spiritual upbringing of the younger generation based on the scientific and theoretical ideas put forward in the works and thoughts of Abdurauf Fitrat.

Keywords: Family, education and upbringing, future generation, A. Fitrat, child, knowledge.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Vatan ham biz tug'ilgan oilaning ostonasidan boshlanadi. Ko'ksi qalqon, mardona jadidchilardan biri bo'lmish A. Fitratning "Oila" deb nomlangan asari jamiyatning yosh avlodlari uchun ham, katta avlod vakillari uchun ham juda o'rinli, manfaatli asar hisoblanadi. Ushbu qo'llanmaning ayrim qismlarini yosh, kelajak avlod uchun, ularning bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lmish kerakli ta'lim va mukammal tarbiya olishlari yo'lidagi ayrim kerakli ko'rsatmalarni hech ikkilanmay qo'llashimiz ayni muddao hisoblanadi. Uning tarbiya haqidagi qarashlari zamonaviy pedagogika tamoyillariga yaqin bo'lib, hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Fitrat tarbiyani inson shaxsini shakllantiruvchi eng muhim omil deb hisoblaydi. Uning fikricha, tarbiya – bu insonni ham ma'naviy ham aqliy, ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan rivojlantiruvchi jarayondir. Muallif fikrini dalillab: "Har bir millatning kelajagi uning yoshlariga beriladigan tarbiyaga bog'liqdir" – deya yosh avlod tarbiyasiga alohida urg'u bergan. Fitratning qarashlarida tarbiya va ma'rifat bir-biridan ajralmas tushunchalardir. U o'z asarlarida shunday deydi: "Jaholatda qolgan xalq hech qachon ozod bo'lolmaydi." Bu fikrdan kelib chiqib Fitrat tarbiyani ilm va savod bilan birgalikda olib borish lozimligini ta'kidlaydi. Shunga o'xshash xitob va da'vatlarni jadidchining ko'pgina asarlarida uchratamiz. Yuqorida aytib o'tilgan "oila" asari ham bundan mustasno emas. Asar ikki qismdan iborat bo'lib, aynan ikkinchi qismi farzand va uning tarbiyasi xususida. Asar har bir o'quvchiga, kitobxonga, endigina oila qurish arafasida turgan har bir yigit, qiz uchun asosiy yo'riqnomaligi bilan bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir. Chunki bunda birgina muallifning ijodiy va tajribaviy yondashuvi bo'lmasdan, Qur'oni Karim hamda hadislardan kerakli o'rinlarda namunalar keltirgan. Fitrat farzand tarbiyasini homila paytidan boshlab tarbiyalash ko'rsatmalarini aytib o'tgan. Masalan: Abu Hurayra (r. a.)dan hadis: "Nabiy (s. a. v.) aytganlarki: "Nazr qilmanglar. Nazringiz sizlarni ilohiy qonunlarning birortasidan beniyoz va xalos qilmaydi". [4]

Bu yerda ona farzandining eson-omon tug'ilishi uchun nazr qilishi yoki shunga o'xshash duoxondan duo olishi aytib o'tilgan.

Ushbu "Oila boshqarish" asari oilaga ilk qadam qo'yishdan boshlab, yor tanlash, mahr masalasi, to'y marosimi, isrofgarchilik, er-xotinning bir-biriga munosabati, farzandga ism qo'yish, jismoniy; axloqiy; ruhiy tarbiyasi, ilm olish sirlari, ota-onaga munosabat singari sabablar alohida ta'kidlab o'tilgan.

Fitrat o'z davridagi tarbiya tizimini tanqid qilgan holda, milliy qadriyatlarga asoslangan, lekin zamon talablariga mos tarbiyaviy yondashuvni ilgari surgan. Uningcha, tarbiya nafaqat diniy yoki an'anaviy bo'lishi kerak balki, millat manfaatlariga xizmat qiladigan, ongli, zamonaviy bo'loshi zarur.

Masalan, professor "Hind sayyohi" yoki "Munozara" asarlarida G'arbdagi ilg'or ta'lim tizimlari bilan Sharqdagi an'anaviy tizimlarni solishtirib, milliy tarbiya tizimini isloh qilish g'oyalarini ilgari surgan. Fitratning fikricha yaxshi tarbiya berish uchun avvalo o'qituvchini o'zi yetuk mutaxassis, shaxsiy fikriga va chuqur bilimga ega, saviyali, savodli shu bilan birgalikda mehribon va vatanparvar bo'lishi lozim.

Fitrat shunday deydi: "Maktab xalq qal'asidir. Uni mustahkamlash - millatni mustahkamlashdir". Fitrat maktablarni jamiyat islohoti va madaniy yuksalishning asosiy poydevori deb bilgan. U yosh avlodning kelajakda munosib o'rin egallashi uchun tarbiya qilishda ota-onaning xizmati beqiyosligini aytib o'tadi. Har bir jonkuyar ota va ona farzand

tarbiyasida ham ruhan, ham ma'nan, ham jismonan yondashishi kerakligini uqtirgan. Jadid namoyondasining qay bir pur ma'no asarlarini olmaylik, unda nafaqat o'z davrining dolzarb masalalarida yozilgan, balki, bugungi kunning muammolariga yechim sifatida e'tirof etiladigan o'rnlari beqiyos. [3] Darhaqiqat, bugungi kunda ham shunday jadal kuch-quvvat bilan zamonaviy ta'lim texnologiyalari rivojlanayotgan bor paytda yosh avlod vakillari o'zlarining shijoatlarini munosib tarzda ko'rsatmoqdalar. Bular xoh ta'lim sohasi, xoh sport faoliyati, xoh hunarmandchilik bo'lsin. Xalqimizda o'g'lingni o'qitsang bitta farzandingni o'qitibsan, qizingni o'qitsang butun jamiyatni o'qitibsan degan gap bor. Xuddi shunday rivojlanayotgan texnologiya asrida qizlarimizni, ayollarimizni erkaklar qatori birdek ham dunyoviy, ham diniy bilimlarni olishlarini lozim deb hisoblayman.

Fikrimning so'ngida shuni xulosa qilamanki, Fitratning asarlaridan ilm johiliyatning yechimi ekanligi, yurt ravnaqi uchun e'tiborga loyiq jihatlari, farzandning o'zi kabi tarbiyasi ham oliy ne'matligini chuqur mulohaza qilib anglab yetdim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A. Fitrat. Oila boshqarish tartiblari. – T.: Ma'naviyat, 2009-y.
2. A. Fitrat. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2009-y.
3. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – T.: Yangi asr avlodi. 2005-y.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimai. – T.: Hilol nashr, 2022-y.
5. Boltaboyev H. "Jadid" – T.: Ma'naviyat, 2010-

PEDAGOGIK KONFLIKT VA ULARNI BARTARAF ETISHDA AJDODLARIMIZ MA'NAVIY MEROSINING AHAMIYATI

*Adizov Azim Tolibovich
BuxDU tadqiqotchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik konflikt va ularni bartaraf etishda ajdodlarimizning ma'naviy merosining ahamiyati ilmiy tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: ajdod, pedagog, konflikt, ziddiyat, konfrontatsiya, ma'naviy meros, barkamol avlod.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ КОНФЛИКТ И ЗНАЧЕНИЕ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ НАШИХ ПРЕДКОВ В ЕГО УСТРАНЕНИИ

Аннотация: В данной статье научно анализируются педагогические конфликты и значение духовного наследия наших предков в их разрешении.

Ключевые слова: предок, воспитатель, конфликт, противоречие, противостояние, духовное наследие, гармоничное поколение.

PEDAGOGICAL CONFLICT AND THE IMPORTANCE OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF OUR ANCESTORS IN ELIMINATING THEM

Abstract: This article scientifically analyzes pedagogical conflicts and the importance of the spiritual heritage of our ancestors in their resolution.

Keywords: ancestor, educator, conflict, contradiction, confrontation, spiritual heritage, harmonious generation.

Ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy meros, yuksak axloqiy qadryatlar bugungi kunimizda ham Yangi O'zbekistonning ma'naviy madaniy sohadagi rivoji uchun dasturul amal bo'lib xizmat qilmoqda. Tarixiy voqealar, xalqimizning hayotiy tajribasi va yillar davomida to'plangan ma'naviy xazinasini yoshlarimizni konfliktlarni yengil va konstruktiv tarzda hal qilishga, ziddiyatlarni oldini olishga o'rgatadi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev bu haqda "Tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga transmilliy tahdidlar tobora kuchaymoqda, iqlim jadal o'zgarmoqda, ommaviy migratsiya oqimlari ko'paymoqda, an'anaviy qadriyatlar zavol topmoqda [1]" deya ta'kidlagan edi.

Ajdodlarimizning yaratgan asarlaridan bugungi zamon voqelikka ochiq ko'z bilan, real va xushyor qarashni, dunyoda va yon-atrofda mavjud bo'lgan va tobora kuchayib borayotgan ma'naviy tahdid va xatarlarni to'g'ri baholab ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarish imkoniyatini bermoqda. Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi degan tamoyil asosida jamiyatimizda ta'lim-tarbiya sohasida juda katta va keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalani qiyosiy tahlil qilib, o'tgan asrlarda jamiyat ta'lim-tarbiyada mudarris va shogirdlar faoliyatini kuzatganimizda samimiy muloqot jarayoni yaxshi yo'lga qo'yilganligini kuzatish mumkin. Mudarislarning barkamol va tarbiyalangan insonning o'nta nishonasi borligini alohida ta'kidlaganlar.

- 1-xalq to'g'ri deb topgan narsaga noto'g'ri deb qaramaslik;
- 2- yoshlikdan o'z nafsiga erk bermaslik;
- 3-birovlardan aslo ayb qidirmaslik;
- 4-yomonlik va omadsizlikni yaxshilikka yoyish;
- 5-agar gunohkor uzr so'rasa, uzrini qabul qilish va kechirimli bo'lish;
- 6-muhojirlar hojatini chiqarish;
- 7-doimo el g'amini yeyish;
- 8-aybini tan olish;
- 9-el bilan ochiq chehrali bo'lish;
- 10-odamlar bilan doimo shirin muomalada bo'lish [2];

Muloqot Sharqona tarbiyada axloq ko'rki hisoblangan. Pedagog har bir o'quvchining qanday dunyoqarashga egaligi, tafakkuri, bilim saviyasi, hayotga nisbatan munosabati odamlar bilan o'zaro muloqotida namoyon bo'lishini uqtirishgan. Sharq mutafakkirlari merosida muloqot – azaldan insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa vositasi bo'lgan. Muloqotning asosiy quroli til hisoblangan. Shuning uchun ham til – aloqa quroli sifatida tariflangan.

Pedagogik faoliyatda, konflikt ko'p hollarda o'qituvchining o'z o'rnini tasdiqlashga intilishida va o'quvchining nohaq jazolanishiga, uning mashg'ulotga qo'yilgan noto'g'ri baho uchun qarshi chiqishida namoyon bo'ladi. Har kuni xulq-atvor qoidalariga va o'qituvchilarning darslarda va tanaffusda qo'yilgan shartlariga rioya qilish o'quvchilarga qiyin. Shuning uchun umumiy tartibdagi ahamiyatga ega bo'lmagan qoidalarini buzilishi tabiiy: vaholanki, bolaning hayoti maktabda darslar bilan cheklanib qolmaydi, unda tushunmovchiliklar, kayfiyat o'zgarishi, bahslar bo'ladi. Ijtimoiy muhitda konfliktni yuzaga keltirgan sababni asoslash o'ta mushkul va chigal vazifa hisoblanadi. Har bir ijtimoiy harakat o'ziga xos xususiyatga ega. Konflikt konfliktni yuzaga keltirgan obyektiv va subyektiv sabablar asosida yuzaga keladi[3].

Ta'kidlash joizki, Hazrat Alisher Navoiy o'z adabiy meroslarida muomala madaniyati, xushmuomalalik, tilning ahamiyati to'g'risida, shirinso'zlik haqida noyob fikrlarni bayon qilib, bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan "Til shirinligi – ko'ngilga yoqimlidir, muloyimligi esa foydali. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun asal kabi totlidir"- fikrlari orqali ham bugungi kun pedagogi konfliktli vaziyatni tezda bartaraf etish mumkin.

Konfliktlar yechimida qo'llaniladigan adolatparvarlik mezonlari, ya'ni qoidalari quyidagilardan iborat:

1. Muammoni aniqlash. Muammoning ichki mazmunini anglashga harakat qiling. Muammo chegaralarini belgilashda xolis hamda vijdonli bo'ling. Muammoni avval o'zingiz aniq idrok etib olishga harakat qiling. Muammoni anglash jarayonida sabrli va bosiq harakat olib boring. Konflikt jarayondagi haqiqatni anglashga say-harakat qiling. O'zingizning hissiyotlaringiz hamda boshqalarning so'zlari, ular emosiyalariga ham diqqat-e'tiborli bo'ling. Muammoni qanday qabul qilayotganligingizni to'g'ri va aniq anglab yeting. Muammoni umumlashtiring, uni ma'lum miqdorda xulosalashga erishing. Konflikt - muammo mavjudligi uchun kelib chiqayotganligini o'zingiz qabul qiling hamda o'z diqqatingizni muammoga qarating. Konfliktning kelib chiqishida muammo rol o'ynashini esingizdan chiqarmang. Eng muhimi – diqqat va energiyani o'zga shaxsga qarshi emas, balki muammoga qaratish[4].

2. Muammoda fikrni jamlash. Muammo – konflikt, ya'ni kelishmovchilikning yuzaga kelishi uchun sabab bo'lgan vaziyat, hodisa, voqea hisoblanadi. Mana shu vaziyat, hodisa, voqea

o'z-o'zidan kelib chiqmaydi. Uning sabablari mavjud. Muammoni yuzaga keltirishda rol o'ynagan siz va opponeningizning maqsadlarini bir-biriga solishtirish orqali, ulardagi umumiy va qarama-qarshi tomonlarni belgilang [5].

Konflikt yechimini qidirish – ziddiyatdagi aybdor insonni topish va uni jazolash ham emas! Chunki konfliktlarda odatda barcha o'zini noan'anaviy tutishi mumkin. Hamma ham g'azabga kirishi, o'zini himoyalash, yoki dag'dag'a uchun qo'pol so'zlarni ishlatishi mumkin. Yoki agressiya bilan duch kelganda inson faqat o'zini himoya qilish yo'liga o'tib olishi mumkin. Konfliktlarda aybdor shaxs bo'lmaydi! Konfliktlarda ikki qarama-qarshi manfaat bo'ladi xolos.

Insonning eng ulug', lekin murakkab va mashaqqatli faoliyatlaridan biri odamlar orasida, ya'ni jamiyatda o'z o'rnini topib yashashidir. Bu faoliyatning murakkabligi shundaki, ko'pchilikka qo'shilish, ular bilan ahil bo'lib yashash uchun insonda shunga yarasha muomala va munosabat bo'lishi kerak. Bugungi pedagoglarimizda konfliktlar va konfliktli vaziyatlarni oldini olishda ajdodlarimizning ma'naviy merosining ahamiyati katta hisoblanadi. Mazkur ma'naviy meros bilan tanish bo'lgan har bir pedagog konfliktli vaziyatlarni tezda bartaraf eta oladi.

Foydalanilgan adabiyotlarro'yxati:

1. Ўзбекистон Президенти Ш.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 76 сессиясида сўзлаган нутқи 21.09.2021й
2. Mukarram Axmedova Pedagogik konfliktologiya. –Toshkent, 2014. -B. 153.
3. Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология: теория, история, библиография. - М.: 1996.С-52
4. Тафаккур гулшани. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989, - Б. 39.
5. Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001. С.23.
6. Чистякова Т.А. Педагогический конфликт и способы его преодоления. М.; 1987 г.

JAMOADA O'QUVCHILAR IJTIMOIIY-MADANIY ADAPTATSIYASI VA UNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Yarmanova Yulduz Buriyevna

Qarshi davlat universiteti

Pedagogika fanlari falsafa doktori, (PhD), dotsent

Annotatsiya: Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar yangi jamoaga birlashar ekan, ularning o'zaro munosabatlari ijtimoiy-madaniy qadriyatlarga mos holda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu jarayonning samarali kechishi o'quvchining ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasiga olib keladi.

Kalit so'zlar: o'quvchi, shaxs, kichik maktab yoshidagi bolalar, adaptatsiya, ijtimoiy-madaniy adaptatsiya, jamoa, jamoaviy munosabatlar, ijtimoiy, moslashuv, qadriyat, xulq-atvor, individual xususiyat.

СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ АДАПТАЦИЯ СТУДЕНТОВ В СООБЩЕСТВЕ И ФАКТОРЫ, ЕЕ ФОРМИРУЮЩИЕ

Аннотация: При вхождении учащихся младшего школьного возраста в новое сообщество целесообразно, чтобы их взаимоотношения были организованы в соответствии с социокультурными ценностями. Эффективное проведение этого процесса приводит к социокультурной адаптации учащихся.

Ключевые слова: ученик, личность, дети младшего школьного возраста, адаптация, социокультурная адаптация, сообщество, общественные отношения, социальный, адаптация, ценность, поведение, индивидуальная характеристика.

SOCIO-CULTURAL ADAPTATION OF STUDENTS IN THE COMMUNITY AND ITS SHAPING FACTORS

Annotation: When young school-age students join a new community, it is advisable that their relationships be organized in accordance with socio-cultural values. The effective conduct of this process leads to the student's socio-cultural adaptation.

Key words: student, individual, children of primary school age, adaptation, socio-cultural adaptation, community, community relations, social, adaptation, value, behavior, individual characteristic.

Dunyoda “Men” konsepsiyasi doirasida kichik maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasini rivojlantirish, jamoaviy munosabatlarda shaxs kamolotini ta'minlash, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida bola shaxsini pedagogik qo'llab-quvvatlash imkonini beradigan didaktik vositalarni tanlashga doir nazariy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, bolalarning kognitiv, ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasiga doir xususiyatlarini rivojlantirish metodikalarini ishlab chiqish, bolalarda boshlang'ich sinfdan boshlab jamoaviy munosabatlarga kirishish ko'nikmasini rivojlantirish yo'llarini takomillashtirish, o'quvchilarda shaxsiy sifatlarning rivojlanganlik mezonlari, ichki va tashqi omillar bilan qayta aloqaga kirishish darajasini aniqlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga katta e'tibor qaratilib, kichik maktab yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasi hamda ularni tayyorlovchi pedagoglar tayyorlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarilgan. Ya'ni yosh avlodning ongida yangicha dunyoqarashni, mustaqil tafakkurni hamda ahloqiy fazilatlarni yuksak darajada shakllantirish vazifasini zimmasiga olgan pedagoglar tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratish lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur”.– deb aytgan fikrlari muammoning dolzarbligini asoslaydi.”.[1; 45]

Rivojlanish sohasidagi izlanishlar shundan dalolat beradiki, bola hayotining dastlabki to'qqiz yili o'sish davrining muayyan davomiyligida o'tadi, bu umumiy bo'lgan bosqichdir. Bu bosqichlar rivojlanishning har bir sohasidagi o'zgarishlar bilan ajralib turadi: jismoniy, hissiy, ijtimoiy va kognitiv. Bolalar o'sishining o'ziga xosligi to'g'risidagi bilimlar tarbiyachilarga ta'lim muhitini yaratishga va faoliyatning muvofiq turlarini rejalashtirishda tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda rivojlanishda davom etadi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtirish, bilish ehtiyojlarining mavjudligidir. Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilar nutqi birmuncha rivojlangan bo'lishiga qaramasdan, yangi muhitda bilim olish ehtiyoji tufayli nutqni o'stirishga bo'lgan ehtiyoj, kattalar bilan va jamoa a'zolari bilan muloqotga kirishish meyorlarini o'zlashtirish ehtiyoji yuqoriligi ko'zga tashlanadi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi jamoaviy munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi nafaqat oila jamoasi, qo'ni-qo'shnilarining bolalari bilan bir jamoa bo'ladilar, balki endi sinf jamoasi, maktab jamoasi a'zosi ham hisoblanadilar.

O'zbek tilining izohli lug'atida “jamo – (arabcha - birlashma; uyushma; guruh) muayyan, bir xil ish bajaruvchi kishilar guruhi” sifatida tavsiflangan.”[2; 208-b.]

Jamoaviy munosabatlar – odamlarning o'zaro yaqinligi va hamkorligi asosida shakllangan, dunyo xalqlari madaniyatida tarixan shakllanib kelgan ijtimoiy birlikni anglatuvchi tushuncha bo'lib, Pedagogika ensiklopediyasida “Jamoaviylik (arabcha birlashma; uyushma; guruh) – 1) yagona jamiyat va kishilar uchun foydali maqsad, faoliyatga ko'ra birlashgan, jamiyat va kishilar manfaatini ko'zlaydigan kishilarning tashkiliy guruhi; 2) kishilarning qadimiy uyushuv shakli” tarzida talqin qilingan. [3;178-b].

Jamoa yoki jamiyatdagi munosabatlar, an'analar o'ziga xos madaniy meyorlarga asoslanadi. Ushbu nuqtai nazardan shaxsning ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasi tushunchasini izohlash ehtiyojini paydo qiladi.

Adaptatsiya tushunchasi ijtimoiy va tabiiy fanlar doirasida keng qo'llaniladigan tushuncha bo'lib, tirik organizmlar (yoki ular tarkibiy qismlari)ning ma'lum bir muhitga, vaziyatga moslashuvini nazarda tutadi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da adaptatsiya so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, adaptatio – moslashuv ma'nosini anglatishi va organizmning atrof-muhit sharoitlariga moslashishi, ko'nikishi ma'nolarida ishlatilishi qayd etiladi.[2; 39-b].

Umumiy holda adaptatsiya barcha tirik organizmlarning o'zgaruvchan muhitga moslashuvchanligi bilan bog'liq bo'lgan fundamental xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu tushuncha tirik organizmlarning tabiiy, biologik, ijtimoiy xususiyatlari bilan bog'liq holda, tabiiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik fanlar tizimida keng qo'llaniladi.

Sotsiologiyada «ijtimoiy adaptatsiya» individ va turli ijtimoiy guruhlarining jamiyatga, ijtimoiy va maishiy o'zgarishlarga moslashuvini nazarda tutadi.

Ijtimoiy moslashuv – individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayonning natijasi. Ijtimoiy moslashuv uzluksiz xususiyatga ega ekanligiga qaramasdan, uni, odatda individning o'z faoliyatini va o'zini o'rab turgan ijtimoiy davrasini tubdan o'zgartirish davrlari bilan bog'laydilar. Moslashish jarayonining ijtimoiy muhitga faol ta'sir etish ko'rinishi va muhitdagi maqsad va qadriyatlarni kelishuvchanlik bilan, passiv qabul qilish ko'rinishi bo'ladi. Ijtimoiy moslashish shaxs ijtimoiylashuvining asosiy ijtimoiy-psixologik omillaridan biridir. [4; 86-b].

Ijtimoiy adaptatsiya jarayoni shaxsning ichki olami, ma'naviyati va ruhiyati bilan bog'liq bo'lib, individual tavsifga ega bo'ladi. Ya'ni ayrim insonlarda ma'lum bir jamoaga tartiblariga moslashish yengilroq kechadigan bo'lsa, ayrimlarda ushbu jarayon bir oz qiyinroq va asta-sekinlik bilan kechadi. Ushbu jarayon bir tomondan shaxsning individual xususiyatlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan jamoada qabul qilingan meyorlar, tartiblar, munosabatlar va an'analarning shaxs ichki olami va psixologik xususiyatlariga mos kelishi bilan izohlanadi. Fanda ushbu jarayon “shaxsning ijtimoiylashuvi” tushunchasi bilan ifodalanadi. Ya'ni shaxs ma'lum bir jamoada erkin faoliyat yuritish uchun jamoa tartibini qabul qiladi, jamoa hatida faol ishtirok etadi va keyinchalik o'z fikri yoki qadriyatlarini jamoa hayotiga tatbiq eta boshlaydi.

Shaxsning ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasi faqat ijobiy ahamiyatga ega bo'lmasdan salbiy oqibatlariga ham olib kelishi mumkin. Ijtimoiy-madaniy adaptatsiyaning salbiy oqibatlari shaxs va ijtimoiy-madaniy muhit o'rtasidagi nomutanosiblik asosida, shaxsning sotsiumdagi meyorlarni qabul qilishdagi qiyinchiliklari yoki aksincha ijtimoiy muhitning salbiy ta'siri natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Ijobiy xarakterdagi ijtimoiy-madaniy adaptatsiya individ va atrofdagi kundalik muhitning o'zaro ijobiy ta'siri natijasida amalga oshib, ushbu o'zaro munosabatlar subyektsotsiumga kirishish va yangi ijtimoiy-madaniy faoliyat shakllarini samarali o'zlashtirish uchun qulay shart-sharoit yaratib beradi.

Subyekt va yangi ijtimoiy-madaniy muhitning o'zaro ta'sir mazmunini kundalik hayotdagi yangi, nostandart vaziyatlar tashkil etadi. O'zaro munosabatlar natijasi o'zaro moslashuv, kelishuvchanlik, o'zaro tajriba almashinuv, uyg'unlikdagi qarashlar, hamkorlikdagi rivojlanish tarzida ifodalanadi. [5;76-78-b].

Xulosa shuki, ijtimoiy-madaniy muhitdagi adaptatsiya inson yoki jamoadagi stereotiplar va xulq-atvordagi o'zgarishlar, ijtimoiy faoliyat shakli, mazmuni, meyor va qadriyatlardagi o'zgarishlar, faoliyat texnologiyalaridagi taraqqiyot tarzida kechadi. Bunda shaxsning ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasi uning ongida mavjud bo'lgan madaniy qarashlar va qadriyatlarning yangilanishi, eski tartib va meyorlarning qisman (ba'zan butunlay) yo'qolishi va yangi meyor va tartiblarning qabul qilinishi tarzida kichadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak”. Toshkent 2017 –104 b.

2. O'zbek tilining izohli lug'ati. J.1. Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 600 b.

3. “Pedagogika” ensiklopediya. I jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.

4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 704 b.

5. Социокультурная адаптация: сущность и функции. Лондаджим Тьерри. Всероссийский журнал научных публикаций. 2011. № 10. С.76-78.

HOZIRGA ZAMON YOSHLARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JADIDCHILIK HARAKATINING MAZMUNI VA UNING UMUMXALQ MA’NAVIYATINI KO‘TARISHDAGI O‘RNI.

Abdullayev Yo ‘lchi Ziyayevich
zaxiradagi mayor, dotsent BuxDPI Harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘ining yoshlar bilan ishlash
bo‘yicha o‘rinbosari. yulchi-nvo@mil.ru tel: +998914011021

Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmadi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash, tafakkur va zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

SH.M.Mirziyoyev. // Yangi O‘zbekiston strategiyasi. // Toshkent “O‘zbekiston” nashriyoti. 2021-y. 289-bet

Annotatsiya: Mazkur maqolada chaqiriqqacha harbiy ta’lim jarayonida yoshlarimizni tarbiyalashda ajdodlar tomonidan to‘plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat, harbiy bilim ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida jadidchilikning hozirgi kundagi ahamiyati va yoshlarimizni ma’rifatparvar va vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etishi haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Jamiyat, mustaqillik, jadidchilik, ong, ma’rifat, ma’naviyat, salohiyat, ilm, ozodlik, dunyoviy bilim, maorif, millat, turonzamin, nazm, nasr, meros.

СОДЕРЖАНИЕ ДЖАДИДСКОГО ДВИЖЕНИЯ В ВОСПИТАНИИ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА И ЕГО РОЛЬ В ПОВЫШЕНИИ ОБЩЕЙ ДУХОВНОСТИ.

Аннотация: В статье рассматривается значение джадидизма сегодня в воспитании нашей молодежи просвещенной и патриотичной, усваивающей знания, манеры, обычаи, культуру и трудовые навыки, накопленные нашими предками в процессе военного воспитания до призыва, занимающей достойное место в обществе на основе жизненного опыта, а также значение джадидизма в формировании ее потенциала и мировоззрения.

Ключевые слова: Общество, независимость, джадидизм, сознание, просвещение, духовность, потенциал, наука, свобода, светское знание, образование, нация, ритм, поэзия, проза, наследие.

THE CONTENT OF THE JADIDIST MOVEMENT IN THE EDUCATION OF MODERN YOUTH IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM AND ITS ROLE IN RAISING THE GENERAL SPIRITUALITY.

Abstract: This article discusses the importance of Jadidism today in educating our youth as enlightened and patriotic, assimilating the knowledge, manners, customs, culture and labor skills accumulated by our ancestors during the process of military education before the draft, taking their rightful place in society based on life experience, and the importance of Jadidism in the formation of their potential and worldview.

Keywords: Society, independence, Jadidism, consciousness, enlightenment, spirituality, potential, science, freedom, secular knowledge, education, nation, rhythm, poetry, prose, heritage.

Insoniyat jamiyati taraqqiyotida bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish ma'rifatparvarlikdan boshlanib, zamonaning yetuk, ongli, bilimli kishilari ma'naviyat va ma'rifat tarqatadilar. Natijada ma'rifatli kishilar ma'naviy qaramlik, qo'rquv va xadiksirashni bartaraf etib, beqiyos kuch-qudrat, saloxiyat egasi bo'ladilar.

Ma'rifatli kishilar millat va Vatan ozodligi, Xalqning ma'rifiy o'yg'oqligi va ma'rifati uchun kurashadilar. Aynan shu nuqtayi nazardan bizning Xalqimiz hamisha ma'rifatga intilib kelgan. Shu boisdan dunyoviy va diniy ilmlarni uyg'unlashtirib, jahon sivilizatsiyasiga buyuk hissa qo'shib kelganlar. Ular Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy, Axmad Farg'oniy, Buxoriy, Moturudiy, Mirzo Ulug'bek va boshqa ko'plab allomalardir.

Shu nuqtayi nazardan Turkiston ma'rifatchilik maktabi boy o'tmish va ulkan merosga egadir. Masalan: Maxmudxuja Bexbudiy, Munavvar kori Abdurashidxon o'g'li, Abdukodir Shakuriy, Ashurali Zoxiriy, Saidrasul Said Aziziy, Axmad Donish, Chulpon, Avloniy, Tavallo, Ayniy kabilar XIX-asrning ikkinchi yarmida, mamlakatni milliy zulm va qoloqlikdan yagona qutqarishning yo'li Xalqni ma'rifatga erishtirish deb tushunib, shu yo'l orqali ozodlik uchun kurash olib bordilar. Ular dunyo mamkatlarini ko'rib kelib, mustamlaka zulmidan ilm-ma'rifat chirog'ini yoqish bilangina ozod bo'lish mumkinligini tushunib yetdilar. Shuning uchun ham yangi maktablarda nazariy va amaliy ishlarni qildilar. Bularni jadidlar deb atadilar. Demak, jadidchilik millatni ma'rifat va ma'naviyatga erishtirishga qaratilgan o'z zamonasidagi harakatdir.

Jadidchilik- yangilanish, yangi zamonaviy maktab-maorifni targ'ib qiluvchi g'oya bo'lib, u Turkistonni feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, millat va Vatanni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqib, milliy davlat barpo etish, Konstitutsiya, parlament va Prezident boshqaruvi asosida ozod va farovon jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat maqomini berish, milliy armiya tuzish kabi maqsadlardan iborat edi. Demak, Turkistonda jadidchilik milliy-ozodlik harakati sifatida tarixga kirgan bo'lib, ular dunyoqarashida vatanparvarlik, millatparvarlik, ma'rifat va taraqqiyotga erishish g'oyalari mavjud edi. Ular erkinlikka erishish yo'lida milliy ong va o'zlikni bilishni o'stirish zarur, deb ta'kidlaganlar.

XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida Turkiston jamiyatida ma'naviy inqiroz chuqurlashgan bo'lib, milliy madaniyatni ko'tarmay, umuminsoniy qadriyatlardan baxramand bo'lmay, ma'rifiy tarbiyaviy ishlarni keng yo'lga qo'ymay, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga erishib bo'lmas edi. Shu sababli jadidlar millatning ma'naviy kamoloti ma'rifatga erishuvida deb tushundilar. Buning uchun maktablarda dunyoviy bilimlar berish bilan isloh qilish zaruriyatini ta'kidlab, milliy uyg'onish va milliy ong shaklanishida muhim rol uynaganlar.

Jadidchilik aslida ma'rifatparvarlik harakatining ko'rinishidir. Shuning uchun biz bu o'rinda masala bayonini ma'rifat va ma'rifatparvarlik tushunchalari va uning ahamiyatini izohlashdan boshlashni lozim topdik.

Ma'rifatning lug'aviy ma'nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma'rifat bilmoq, kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidir. Ma'rifat so'zining ko'pchilikdagi ma'nosi maorifdir. Ma'rifat atama sifatida – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Ma'rifatli degani – bilimli, muayyan sohada ma'lumoti bor, demakdir. Fanlar chuqur va keng rivojlanib borayotgan hozirgi davrda bilim va ilmga intilgan har bir kishi, talaba, fan namoyondasi ilmning, ya'ni ma'rifatning ma'lum sohasinigina egallashga erisha oladi. Masalan, kimyoning ma'lum sohasini, xuddi shuningdek matematika, fizika, biologiya, medisina va boshqalarning ham ma'lum yo'nalishlarini egallaydilar.

Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Demak ma'rifat - bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif esa ana shu mazmunni yoyish quroli, vositasidir.

Ma'rifat asosan umumiy va o'rta maxsus bilim beruvchi maktab va o'quv yurtlarida tarqatiladi. Ma'rifat tushunchasi maorif tushunchasidan keng bo'lib, bilim va madaniyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari, shakllari va sohalarini o'z ichiga oladi.

Jamiyatda ma'rifat, ya'ni bilim ma'rifatparvarlar orqali yoyiladi. Ma'rifatparvar – ma'rifat uchun kurashuvchi; ilm, bilim chirog'ini yoquvchi; ma'rifat homiysi va tarafdori demakdir.

Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga bir tarixiy davrdan ikkinchi bir tarixiy davrga o'tishi ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning eng yetuk, ongli, oq-qorani tanigan, fidoyi, elim, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko'zlovchi ma'naviyatli kishilari ma'rifatparvarlik bilan shug'ullanadilar. Ma'rifatparvarlar odatda davr uchun, jamiyatninng, mamlakatning, xalqning buguni va kelajagi uchun muhim g'oyalarni ilgari suradilar, shu g'oyalarni amalga oshirish uchun kurash olib boradilar.

Ma'rifat ma'naviy qaramlik, qo'rquv va hadilni bartaraf etadi, insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat bahsh etadi. Shuning uchun ozodlik uchun kurashchilar mamlakat, millat ozodligini xalqning ma'rifiy uyg'oqligida deb biladilar va ma'rifat uchun kurashadilar. Bizning xalqimiz azal-azaldan ma'rifatga intilib yashagan. Bu o'lkadan dunyo ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalar yetishib chiqqan. Ular ham dunyoviy, ham diniy ilmlar sohasida dunyo ilmi ahlini hayratga solganlar. Bunga 1998 yilda Ahmad al Farg'oniylavalludining 1200 yilligi va hadis ilmi sultoni Imom al Buxoriylavalludining 1225 yilligi keng nishonlanganligini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

O'tmishda ijob etgan allomalarimiz al Farobiy, al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va boshqalar nafaqat ilm cho'qqilarini egallab qolmay, uni - ya'ni ma'rifatni keng targ'ib etganlar, shogirdlarni tarbiyalaganlar.

Shunday qilib, umuman ilm egalari elda aziz bo'lib, hurmatga sazovor bo'ladilar. Shu to'fayli ota-bobolarimiz doimo bilimga intilib yashaganlar va shu yuksak ma'rifat va madaniyati tufayli Turonzamin yer yuzida shuhrat qozongan. Siz talabalarning ham ilmni chuqurroq egallab, Vatani, millatimiz kelajagi uchun xizmat qilishimiz asl burchimizdir.

Ilm egalariining foydasi har doim ko'pchilikka tegib turadi. Ular elda aziz bo'lib, hurmatga sazovor bo'ladilar. Shu tufayli ota-bobolarimiz doimo bilimga intilib yashaganlar. Ular ma'rifat chiroqlarini mash'ala singari yoqqanlar.

Bugunda yoshlarimizning har biri bunday fidoyi, vatanparvar, zyoli siymolarni yaxshi bilishlari va unutmashliklari kerak.

Zero, ular biz uchun haqiqiy axloqiy namunalardir. «Ma'rifatparvarlik, - deb ta'kidlaydi birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov, - biz uchun bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, yo'qotmaydi ham. Aql-zakovotli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi». (Karang. I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, «Sharq», 1998, 7-bet).

Bugunda ma'rifatparvar-jadidchilarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g'oyalari o'zbek xalqining ma'naviyat va ma'rifatini, milliy qadriyatlar va ongini yuksaltirish yo'lida xizmat qilib, avlodlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalab kelmoqda.

Mustaqillik tufayli ma'rifatchi-jadidlarning nomlari tiklanayapti, tavallud topgan kunlari tantanali nishonlanayapti, asarlari qayta-qayta chop etilayapti. Ularning dunyoqarashlarida bayon etilgan falsafiy-axloqiy fikrlari xalqimizning madaniy-ma'naviy, qadriyatlar sifatida xanuzgacha saqlanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasi "O'zbekiston" T. 2011y
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. "Tarixiy xotira va inson omili-buyuk kelajagimizning garovidir".- T. : "O'zbekiston", 2012 y
4. Muhammadjonova L., Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. –T.: O'zMU. 2007.
5. Mahmudova G. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. -T.: Davrpress, 2006.
6. Sharq allomalari va ma'rifatparvar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid ma'naviy- axloqiy qarashlari. G. Niyozov, Q. Axmedov, Q. Tojiboev O'zbekiston 2010 yil

YOSH AVLOD TARBIYASIDA JADID PEDAGOGIK MEROSINING DOLZARBLIGI

M.A.Jumayeva

Buxoro davlat universiteti dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvarlari – Abdulla Avloniy va Mahmudxo'ja Behbudylarning ta'lim-tarbiya sohasidagi ilg'or g'oyalari tahlil qilinadi. Muallif bu pedagogik merosning zamonaviy yosh avlod tarbiyasida qanday dolzarb ahamiyatga ega ekanini yoritadi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan maktab islohoti, yangi darsliklar yaratish, dunyoviy fanlarni o'quv dasturiga kiritish va ma'naviy qadriyatlarni singdirish tamoyillari bugungi ta'lim tizimi uchun ham ibratli namuna bo'lib xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: jadid pedagogikasi, Avloniy, Behbudiy, ta'lim islohoti, yosh avlod, ma'naviyat, milliy maktab.

АКТУАЛЬНОСТЬ НОВОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация: В статье рассматривается педагогическое наследие узбекских просветителей-джадидов — Абдуллы Авлони и Махмудаходжи Бехбуди. Анализируются их новаторские идеи в области образования и воспитания, а также актуальность этих взглядов в контексте современной системы воспитания молодого поколения. Подчёркивается значение джадидских принципов в формировании национальной школы, разработке учебников, внедрении светских наук и воспитании патриотизма.

Ключевые слова: джадидская педагогика, Авлони, Бехбуди, школьная реформа, молодёжь, духовность, национальная школа.

THE RELEVANCE OF THE NEW PEDAGOGICAL HERITAGE IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION

Annotation: This article analyzes the pedagogical legacy of Uzbek Jadid reformers Abdulla Avloniy and Mahmudkhoja Behbudi. It highlights their innovative contributions to educational reform, including the creation of new schools, textbooks, and the integration of secular sciences. The relevance of their ideas to modern educational practices is emphasized, particularly in shaping a spiritually rich and intellectually competent younger generation.

Keywords: Jadid pedagogy, Avloniy, Behbudi, educational reform, youth education, national identity, moral values.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida maydonga kelgan ma'rifiy islohotlar harakatidir. Jadidlar eski maktablarning ta'lim usuli va dasturlarini tubdan o'zgartirib, yangi usul maktablarini tashkil etdilar. Bu maktablar an'anaviy maktabxonalardan farqli o'laroq, bolalarga ona tilida usul-i savtiya (tovush usuli) orqali savod o'rgatdi va zamonaviy dunyoviy fanlar hamda taraqqiyparvar g'oyalarni o'quv dasturiga kiritdi. Bunday islohotlarga zarurat katta edi – chunki o'sha davrdagi ko'hna maktablar yoshlarga zarur bo'lgan amaliy bilim va ko'nikmalarni bera olmayotgan, jamiyat esa savodxon kadrlarga ehtiyoj sezayotgandi. Jadidchilik harakati natijasida Turkiston o'lkasida savodxonlik darajasi oshdi, ilmfan va madaniyat rivojiga turtki berildi, milliy ong va ma'rifatgarolik yuksaldi.

Mazkur harakatning eng muhim yo'nalishi ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar bo'lib, uning doirasida ko'plab yangi maktablar ochildi, darsliklar yaratildi va ilg'or pedagogik qarashlar targ'ib qilindi. Jumladan, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadridin Ayniy kabi jadid ma'rifatparvarlar millatni savodli qilish va ma'naviy taraqqiy ettirish yo'lida fidokorona mehnat qilganlar. Ularning pedagogik qarashlari, ilmiy-nazariy asoslari hamda didaktik yondashuvlari o'z davrida katta samaralar bergan bo'lsa, bugungi zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Quyida ana shu ma'rifatparvarlarning ta'limga oid merosi va uning zamonaviy dolzarbligi tahlil qilinadi.

Abdulla Avloniy (1878–1934) – o‘zbek jadid ma’rifatparvarlarining yorqin namoyandasi, pedagog, shoira va jamoat arbobi. Avloniy o‘z faoliyatini xalqni savodxon qilish, millatni uyg‘otish maqsadiga bag‘ishlagan. Uning ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari orasida tarbiya masalasi alohida o‘rin tutadi. Ma’rifatparvar shoirning mashhur so‘zlari shundaki: *“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”*. Bu chuqur ma’noli ibora Avloniyning nazarida tarbiya masalasi millat kelajagi uchun qanchalik hayot-mamot masalasi ekanini ko‘rsatadi. Haqiqatan ham, Avloniy nazariyasida ta’lim va tarbiya ajralmas tushuncha bo‘lib, u maktabni faqat bilim berish maskani emas, balki komil insonni voyaga yetkazuvchi tarbiya o‘chog‘i deb bildi.

XX asr boshlarida Avloniy jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi sifatida Toshkentda yangi usul maktablar ochishga bosh-qosh bo‘ldi. Jumladan, u 1908-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida mahalliy bolalar uchun yangi usul maktabi tashkil etib, o‘zi unda ona tili va adabiyot fanlaridan dars bergan. 1912-yilda esa Avloniy Toshkentning Degrez mahallasida ikki sinfli maktab ochdi – bu maktab eski maktabxonalardan farqli ravishda dunyoviy fanlar (masalan, hisob, geografiya va hokazo) o‘qitilishi bilan ajralib turardi. Avloniy o‘sha davr uchun noodatiy bo‘lgan taklifni ham ilgari surdi – u ilk bor mahalliy maktablarda kimyo, geografiya, fizika va astronomiya singari tabiiy fanlarni joriy etish g‘oyasini aytdi. Bu g‘oya zahirida yoshlarga faqat diniy bilim emas, balki zamonaviy ilm-fan asoslarini ham o‘rgatish, ularni jamiyatning ilg‘or taraqqiyoti uchun zarur bilimlarga ega qilib tarbiyalash maqsadi yotardi.

Avloniy faoliyatining muhim jihatlaridan biri – jamiyatda o‘qituvchi va ma’rifatchi kadrlar tayyorlashga qaratilgan ishlardir. 1920-yillardan boshlab, jadidchilik davri tugab, yangi davr – sho‘ro hokimiyati o‘rnatilganida ham Avloniy xalq maorifi sohasida xizmat qilishda davom etdi. U 1921-yildan boshlab savodsizlikni tugatish harakatlarida, yangi maktablar ochish, o‘zbek xotin-qizlarini o‘qitish va malakali o‘qituvchilar tayyorlash ishlarida faol qatnashdi. Jumladan, Eski shahardagi qizlar maktabiga mudir bo‘lib ishladi, so‘ngra Toshkent harbiy maktabida, O‘zbekiston xalq universitetida (hozirgi Milliy universitet) til va adabiyot kafedrasiga rahbarlik qildi. Bu faoliyatlari davomida ham u o‘zbek maktablari uchun yangi dastur va darsliklar tuzishni davom ettirdi.

Avloniyning ilmiy-nazariy qarashlari sharqona tarbiya an‘analari va zamonaviy pedagogika yutuqlarini uyg‘unlashtirishga asoslangan edi. U arab, fors va rus tillarini o‘rgangan, Tolstoy va Konstantin Ushinskiy kabi mashhur pedagog-yozuvchilarning asarlarini mutolaa qilib, ayrimlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Jumladan, rus pedagogi K.Ushinskiyning asarlariga tayangan holda, ona tilida ta’lim berish va bolalarning ruhiy xususiyatlariga mos metodikalarni qo‘llash tarafdori edi. Avloniy nazariyasida ta’lim va tarbiya bir butun jarayon bo‘lib, *“tarbiya ta’limning asosida turishi shart”* deb hisoblagan. Ya’ni, maktabdagi o‘qitish jarayoni axloqiy tarbiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lmog‘i lozim – faqat shundagina ta’lim samarasini beradi. U har bir muallimning vazifasi bilim berish bilangina cheklanmay, balki *“kelajagi porloq, Vatan va el-yurt xizmatida turadigan halol kadrlarni tarbiyalash”* bo‘lishi kerakligini uqtirgan.

Avloniy pedagogik merosining bugungi ahamiyati shundan iboratki, uning ilgari surgan g‘oyalari hozirgi zamonaviy ta’lim tamoyillari bilan hamohangdir. Masalan, Avloniy yoshlarni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan barkamol inson qilib tarbiyalashni orzu qilgan. Bugungi kundagi kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasida ham aynan shaxsning har tomonlama rivojlanishi, bilim bilan birga axloqiy tarbiyasi muhim sanaladi. Avloniy aytganidek, ta’lim jarayonida tarbiya negiz bo‘lsa, bunday ta’lim natijasida jamiyatga foydali, vatanparvar va halol yoshlar voyaga yetadi. Shu bois Avloniy merosi – xususan uning *“Turkiy guliston”* asaridagi axloqiy qarashlari va boshqa pedagogik fikrlari – bugungi o‘quv-tarbiya ishlarida ham qo‘llanilishi, ta’lim dasturlarida aks etishi lozim bo‘lgan bebaho manbadir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri, jurnalist, dramaturg va pedagog ma’rifatchidir. Behbudiy o‘z davrida *“Turkiston jadidlarining yo‘lboshchisi, milliy ma’rifat rahnamosi”* sifatida e’tirof etilgan. U dastlab an’anaviy maktab va Buxoro madrasalarida puxta diniy ta’lim olgan, shariat ilmlarini mukammal

o'rgangan (hatto qozi va mufti darajalarigacha yetishgan). Biroq Behbudiy zamonasining talablarini chuqur anglab, musulmon jamiyatini taraqqiy toptirish yo'li ta'limni isloh qilishda ekanini fahmladi. U 1899–1900-yillarda haj safariga borib, Istanbul va Arab mamlakatlaridagi islohotlar bilan tanishib kelgach, Turkistonda yangi usul maktablar ochish g'oyasini qat'iy maqsad qildi.

1903-yilda Behbudiy tashabbusi va g'ayrati bilan Samarqand atrofidagi qishloqlarda ilk yangi usul maktablari tashkil etildi. Xususan, Halvoyi va Rajabamin qishloqlarida ochilgan bu maktablar Behbudiy va uning safdoshlariga tegishli tajriba maydoniga aylandi. U ushbu maktablar uchun zarur o'quv qo'llanmalarini tez fursatda tayyorlashga kirishdi. Natijada ketma-ket bir necha darsliklar yaratildi: “Risolai asbobi savod” (1904) – savod chiqarish qo'llanmasi, “Risolai jug'rofiyai umroniy” (1905) – umumiy geografiya kitobi, “Risolai jug'rofiyai Rusiy” (1905) – Rossiya geografiyasi, “Kitobat ul-atfol” (1908) – bolalar uchun yozuv o'rgatish kitobi, “Amaliyoti islam” (1908) – islom amaliyoti qo'llanmasi, “Tarixi islam” (1909) – islom tarixi kitobi va boshqalar. Behbudiy bu darsliklar orqali o'quvchilarga zamonaviy fan asoslarini (jug'rofiya, tarix kabi) ona tilida sodda tilda yetkazishga intildi. Shu bilan birga u bolalarga diniy bilim va odob-axloqni ham o'rgatar ekan, ma'rifatning milliy-diniy asoslarini mustahkam saqlashga harakat qildi. Mutafakkir bu sa'y-harakatlari bilan “millatni savodli qilishga, murg'ak qalbda millat qayg'usi, millat iftixorini uyg'otishga oz bo'lsa-da hissa qo'shish”ga ishonch bilan kirishgan edi. Demak, Behbudiy ta'lim-tarbiyada yosh avlod qalbida millatga muhabbat va fidoyilik tuyg'ularini shakllantirishni eng muhim vazifa deb bilgan.

Behbudiy nazarida, millat ma'rifatga erishishi uchun faqat maktab ochishning o'zi yetarli emas edi. U ta'lim-tarbiyani keng ma'noda tushunib, yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish uchun jamiyat hayotining boshqa sohalarini ham jalb qilish kerakligini ta'kidladi. “Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq” – ya'ni globallashtayotgan dunyodan xabardor bo'lib yashamoq zarur, deb hisobladi. Binobarin, Behbudiy nazarida matbuot va teatr ham xalqni tarbiyalashning kuchli vositalaridir. U *“millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o'z qabohatini ham, mahobatini ham ko'ra olsin”* deya, jamiyatni o'zini o'zi tanqid va isloh qilishga chorlovchi vosita sifatida ommaviy axborot vositalarini ko'rdi. Mana shu ehtiyoj tufayli Behbudiy matbuot sohasida ham faol ish boshladi: 1913-yilda u “Samarqand” gazetasini tashkil etdi (ushbu gazeta turkiy va forsiy tillarda haftada ikki marta chiqib turgan). Keyinchalik moddiy qiyinchilik sabab “Samarqand” gazetasi to'xtaganidan so'ng, o'sha yili “Oyna” nomli haftalik jurnalni nashr eta boshladi. “Oyna” – o'z davrida suratli jurnal shaklida chiqib, asosan o'zbek tilida xalqni ma'rifatga chorlovchi maqolalar chop etgan. Behbudiy shu tariqa matbuot orqali ham keng ommani o'qitish va tarbiyalashga erishdi.

Behbudiy pedagogik merosining bugungi dolzarbligi shundan iboratki, uning ilgari surgan tamoyillari hozirgi ta'lim-tarbiya jarayonida ham nihoyatda muhim sanaladi. Bugungi globallashtuv davrida yoshlarning faqat o'quv dasturidagi nazariy bilimlarga ega emas, balki keng dunyoqarash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lib voyaga yetishi talab qilinmoqda. Bu esa Behbudiy orzu qilganidek, ta'limni ijtimoiy hayot va jahon voqealari bilan bog'lash zarurligini anglatadi. Shuningdek, bugungi ta'lim tizimida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un singdirish masalasi ko'ndalang turibdi – bu borada Behbudiy yozgan darsliklardagi integratsiyalashgan yondashuv (dunyo fanlari va diniy-ma'naviy tarbiyani birga olib borish) yaxshi namuna bo'la oladi. Yana bir muhim jihat – yoshlar tarbiyasida vatanparvarlik va milliy ongni shakllantirish masalasi. Hozirgi kunda yurtimiz maktablarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga e'tibor kuchaymoqda; Behbudiy merosida esa aynan millatga muhabbat ruhida tarbiya g'oyalari ustuvor edi. Uning “millat qayg'usi va iftixori”ni bolalikdan shakllantirishga qaratilgan faoliyati hozir ham ibratlidir – masalan, maktablarda tarix va adabiyot darslarida Behbudiy va boshqa jadidlarning hayoti va ijodini o'rganish yosh avlodda milliy g'urur tuyg'usini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo'ja Behbudiy milliy taraqqiyot kaliti sifatida qaragan ta'lim-tarbiya masalalari bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Uning pedagogik merosi – savodxonlikni oshirish, dunyoqarashni kengaytirish, siyosiy madaniyatni shakllantirish, teatr va

matbuot orqali tarbiya berish kabi g'oyalari – hozirgi zamonaviy tarbiya konsepsiyalariga hamohang va ularni boyituvchi manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik merosi – xalqimizning bebaho madaniy boyligi bo'lib, yosh avlod tarbiyasida undan bugun ham samarali foydalanishimiz mumkin. XX asr boshlarida Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy kabi fidoyi zotlar millatni savod chiqarishga, ilm-u hunar o'rgatishga chorlab, o'sha davr uchun ilg'or bo'lgan yangi ta'lim tizimini yaratdilar. Ular Sharqning boy tarbiya an'analari va G'arbning zamonaviy pedagogik yutuqlarini uyg'unlashtirgan holda, milliy maktablar uchun ilk darsliklarni yaratdilar, o'quv jarayoniga ilg'or usullarni tatbiq etdilar, teatr va matbuotni tarbiya xizmatiga safarbar etdilar. Jadid pedagogikasining asosiy tamoyillari – ta'lim va tarbiya birligi, milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unligi, ta'lim mazmunini hayot bilan bog'lash, o'qituvchi va ziyolilarning jamiyatdagi o'rnini yuksaltirish – bularning barchasi bugungi ta'lim-tarbiya tizimi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rinda aytganda, jadid pedagogik merosi – bu kecha va bugunni, Sharq va G'arb ta'limiy tafakkurini bog'laydigan, sintezlovchi noyob ko'prikdir. U o'z davrida xalqimizni taraqqiyotga eltgan bo'lsa, bugungi kunda ham yosh avlodni barkamol tarbiyalashda ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Jadid ma'rifatparvarlarining qarashlari va faoliyati shuni ko'rsatadiki, haqiqiy tarbiya va ta'lim uzviy holda millatni yuksaltirishga qodir kuchdir. Demak, biz hozirgi va kelajak avlod tarbiyasida bu boy merosdan yanada samarali foydalanmog'imiz, uni chuqur o'rganib, amaliyotga tatbiq etmagimiz zarur. Zero, jadidlar orzu qilgan ma'rifatli, ozod va obod jamiyat barpo etish g'oyasi hali-hanuz bizning oldimizda turgan ulug' maqsaddir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sattorqulovna X.M. Mahmudxo'ja Behbudiyning boshlang'ich ta'lim va tarbiyaga oid qarashlari //Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 41-45.
2. Мухаммадиев Л.Ф., Кошанова Н.М. Абдулла Авлоний асарларида тарбиянинг долзарб масалалари //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 6. – C. 713-718.
3. Umarqulova M.A. Abdulla Avloniy asarlarida ta'lim-tarbiya masalasining yoritilishi //Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 231-234.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZBEK HIKOYALARINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

*Ergashyeva Muyassar Anvarovna
Osiyo xalqaro universiteti Magistri*

Annotatsiya: O'zbek adabiyotshunosligida nasrning noyob namunalari bo'lgan hikoyalarni ilmiy-nazariy tahlil qilish, ulardagi badiiy qahramon va obrazlar tizimini tadqiq qilish muhim muammo hisoblanadi. O'zbek hikoyalarining badiiy maqsadi, didaktik xususiyatlari, bugungi zamon talablariga to'la mos ravishdagi tahlillari, ularning obrazlar tizimi va badiiy qahramon masalasi alohida ilmiy tadqiqotni talab qiladi.

Kalit so'zlar: adabiyotshunoslik, qahramon, ta'lim, hikoya, o'qituvchi, innovatsiya.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ УЗБЕКСКИХ РАССКАЗОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

*Эргашева Муясар Анваровна
Магистр Азиатского международного университета*

Аннотация: в узбекском литературоведении важной проблемой является научно-теоретический анализ рассказов, являющихся уникальными образцами прозы, исследование системы художественных героев и образов в них. Художественное назначение, дидактические особенности узбекских рассказов, их анализ в полном

соответствии с требованиями современности, их система образов и проблема художественного героя требуют отдельного научного исследования.

Ключевые слова: литературоведение, герой, образование, рассказ, учитель, новаторство.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF TEACHING UZBEK SHORT STORIES IN PRIMARY SCHOOLS

Master's Degree from the Asian International University

Ergasheva Muyassar Anvarovna

Abstract: in Uzbek literary criticism, an important problem is the scientific and theoretical analysis of short stories, which are unique examples of prose, the study of the system of artistic characters and images in them. The artistic purpose, didactic features of Uzbek short stories, their analysis in full accordance with the requirements of modernity, their system of images and the problem of the artistic hero require a separate scientific study.

Keywords: literary criticism, hero, education, short story, teacher, innovation.

Dunyo adabiyotshunosligi nasriy janrlar shakllanishi hamda badiiy taraqqiyotga ta'siri, uning o'ziga xos xususiyatlarining stilizatsiyasi qilinishi bilan bog'liq poetik qonuniyatlarini aniqlash hamisha dolzarb hisoblangan. Chunki yozma adabiyot va folklor, proza va dramaturgiya munosabatlarining bunday tarixiy-tadrijiy rivoji mazkur adabiy jarayonga aloqador an'analarning poetik tafakkuri yangilanishi va ijodiy mezonlarining takomillashishiga ko'rsatgan ta'sirini aniqlashga xizmat qiladi. O'zbek adabiyotshunosligida nasrning noyob namunalari bo'lgan qissa va hikoyalarni ilmiy-nazariy tahlil qilish, ulardagi badiiy qahramon va obrazlar tizimini tadqiq qilish muhim muammo hisoblanadi. O'zbek qissa va hikoyalarining badiiy maqsadi, didaktik xususiyatlari, bugungi zamon talablariga to'la mos ravishdagi tahlillari, ularning obrazlar tizimi va badiiy qahramon masalasi alohida ilmiy tadqiqotni talab qiladi. O'rganganlarim asosida, shu ilmiy faraz ma'lum bo'ldiki, o'zbek qissa va hikoyalarining turli ilmiy nazariy tahlil va talqinlarga asoslangan dissertatsiyalar adabiyotshunosligimizning juda ko'p qismini tashkil qiladi. Afsuski, bolalar adabiyotida mavjud bo'lgan kichik epik asarlarni dars jarayonida metodik jihatdan tahlil qilish nazariyasi ko'zga tashlanmaydi[5.180]. O'zbek adabiyotining bolalar adabiyotiga, o'zbek milliy dasturiga kiritilgan qissa va hikoyalarni tushunarli tarzda tahlil qilish, shular asosida badiiy matn tahliliga doir qo'llanmalar yaratish, sifatli namunaviy dars ishlanmalarini konsepsiyalarini ishlab chiqish, ta'lim integratsiyasiga innovatsion va zamonaviy yondashuv nazariyalarini yaratish ilmiy-nazariy ehtiyojni talab qiladi.

Adabiy asarlarni o'rganish orqali o'quvchiga nafosat tarbiyasi singdiriladi. Badiiy tarbiya adabiyot fanini o'qitish orqali fanga oid muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilarda shakllantirishni ko'zda tutadi. Ayni chog'da o'quvchining olam ranglari, hayotning mohiyati, go'zallik tushunchalarini anglab yetishiga ko'maklashadi. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi hissiyoti tarbiyalanadi. Uning go'zallik haqidagi tushuncha va tasavvurlari takomillashtiriladi. Bu borada badiiy asar tahliliga tayanib ish olib boriladi. Badiiy asarlar tahlili orqali o'quvchining mustaqil fikrlash salohiyati o'sadi, og'zaki va yozma nutqi takomillashadi, o'quvchida o'z fikrlarini ilmiy-amaliy jihatdan asoslash malakalari shakllantiriladi.

Hammani bir qolipda fikrlashdan ozod qilib, ma'lum mavzu yuzasidan rang-barang fikr mulohazalar yuzaga kelishida eng samarali hisoblangan tahlil usullariga tayanib ish yuritilsa, adabiy ta'lim o'zining bosh maqsad muddaosiga erishadi. Shu bois mazkur o'quv qo'llanmada adabiy asarlarni tahlil qilishning zamonaviy usullari va ularni qo'llash bo'yicha ilmiy nazariy va amaliy tavsiyalar berilgan. Ta'limning turli bosqichlaridan o'rganilishi ko'zda tutilgan badiiy asarlarni tahlil qilishning ilg'or usullari yoritilgan.

Badiiy asar tahlili adabiyot o'qitish metodikasi fanining alohida va muhim bo'limi hisoblanadi. Adabiy ta'limning sifati, samarasi va zamon talabalariga javob bera olish darajasi ko'p jihatdan adabiy asarlarni o'rganish qanday tashkil etilganligi bilan belgilanadi. Adabiy ta'limni ilmiy metodik yo'nalishda olib borish, adabiy asarlarni umumta'lim tizimida estetik tamoyillarga tayanib tahlil qilishni tashkil etish, samarali ta'lim metodlarini ishlab chiqish, noan'anaviy usul va vositalarni yaratish adabiy asar tahlili metodikasining umumnazariy masalalarini tashkil etadi.

Tilimizda faol qo'llanuvchi "san'at" so'zining ma'no ko'lamida ancha keng, buni yangi "Izohli lug'at" da uning beshta ma'nosi izohlanganidan ham bilsa bo'ladi. Darhaqiqat,

“rassomlik san’ati”, “kulolchilik san’atini egallamoq”, “yuksak san’at bilan ishlangan”, “san’atini namoyish etmoq”, “harbiy san’atda beqiyos” kabi birikmalarning har birida “san’at” so’zi o’zining turli ma’no qirralarini namoyon etadi. Biroq jonli so’zlashuvda nechog’lik keng ma’no diapazonlarida qo’llanmasin, tabiiyki, bizni uning lug’aviy ma’nosi emas, istilohiy ma’nosi qiziqtiradi. Istilohiy ma’noda san’at deganda insonning go’zallik qonuniyatlari asosida borliqni o’zlashtirish (va o’zgartirish) ga qaratilgan yaratuvchilik faoliyati hamda shuning natijasi o’laroq vujudga kelgan narsalar jami tushuniladi. Istilohning mazkur keng ma’nosida go’zallik qonuniyatlari asosida mahorat va did bilan yaratilgan narsalarning hammasi san’atga aloqador hisoblanadi. Keng ma’nodagi san’at o’z ichida “amaliy” va “badiiy (nafis)” san’at turlariga ajraladi. Amaliy san’at turlariga kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, zardo’zlik, modelyerlik, dizayn kabi qator sohalarni, badiiy san’atlarga rassomlik, musiqa, haykaltaroshlik, kino, teatr kabilarni mansub etamiz. Modomiki keng ma’nodagi “san’at” ichida amaliy va badiiy san’atlar ajratilar ekan, ularning umumlashtiruvchi va farqli jihatlari bo’lishi lozim. Ularni umumlashtiruvchi jihat shuki, har ikkisi ham go’zallik qonunlari asosida did va mahorat bilan yaratiladi.

Badiiy obraz vositasida fikrlashi va ifodalashi san’atning spetsifik, ya’ni tur sifatida belgilovchi xususiyati bo’lib, u obrazlilik deb yuritiladi. San’atkor badiiy obraz vositasida dunyoni angelaydi, o’zi anglagan mohiyatni va o’zining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma’noda obraz adabiyot va san’atning fikrlash shakli, usuli sanaladi; obrazlar vositasida fikrlagani uchun ham adabiyot va san’atga xos fikrlash tarzi “obrazli tafakkur” deb yuritiladi.

Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va b.) san’atkor ko’zi bilan ko’rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo’lgan shaklda ifodalangan aksidir. Albatta, bu aksda borliqning ko’plab tanish izlarini topamiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning aynan o’zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik - badiiy borliqdir. Tushunishimiz osonroq bo’lishi uchun rangtasvir san’atiga, musavvir ijodiga murojaat qilaylik. Musavvir yaratgan peyzaj - tabiat manzarasi tasviri bilan “natura” - asarga asos bo’lgan real manzara orasida juda katta tashqi o’xshashlikni topishimiz, hatto “xuddi o’zi-ya” deya hayratlanishimiz mumkin. Ehtimol, kimlar uchundir tomoshabinning bu nav hayrati musavvir ijodiga berilgan yuksak baho bo’lib ko’rinar ham. Biroq haqiqatda bu san’atni tushunmasligimizdan dalolatdir. Zero, biz real manzara bilan tasvir orasidagi o’xshashlikni ko’ra oldik, xolos. Tasvirda musavvir ayricha bo’rttirgan ranglarni, ularning qalb kechinmalariga “hamohang” jilosini, bizning nazarimizda ahamiyatsiz ko’ringani uchun e’tibor bermaganimiz, biroq muallif nazarida muhim bo’lgani uchun bo’rttiribroq berilgan chizgini, naturada bo’lsa-da asarda aksini topmagan yoki bo’lmasa-da asarda aks ettirilgan jajji detalni ilg’ay olmadik, demak, san’at hodisasiga oshno bo’lolmadik, undan bebahra qoldik. Boshqacha aytsak, biz obrazdagi obyektiv ibtidoni ko’rganimiz holda undagi subyektiv ibtidoni - asarga singdirib yuborilgan muallifni, muallif qalbini ko’ra olmadik. Modomiki badiiy obrazda faqat obyektiv ibtidonigina ko’rar ekanmiz, demak, asarni ko’rmagan - badiiyat hodisasidan chetda qolgan bo’lib chiqamiz. Zero, badiiyat ijod va retsepsiya (o’qish, tomosha qilish, tinglash) jarayonlaridagina mavjuddir. Ayon bo’ladiki, haqiqatda badiiy obrazning material real voqelikgina emas, ijodkor shaxsiyati hamdir. Ya’ni badiiy obrazda obyektiv va subyektiv jptidolar uyg’un mujassam topadi[3.36].

Xulosa qilsak, kompozitsiya badiiy ijod jarayonining pirovard natijasi - asarning badiiy niyatga muvofiq tashkillanishi, uning qismlari va unsurlarini ijodkor ko’zda tutgan mazmunni yorqin ifodalash va o’quvchi tomonidan aynan shunday tushunishini ta’minlaydigan tarzda butunlikka biriktirish demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Aristotel. Poetika. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1980. – B. 22.
2. Abdusamatov H. O’zbek satirasi masalalari. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1968. – B. 208.
3. Baxtin M. Voprosi literature I estetiki. – M.: Xudoj.lit., 1975 – S.502.
4. Boltaboyev H. Nasr va uslub. Uslub muammosiga nazariy nigoh. – Toshkent: Fan, 1992. – B.180. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. – Toshkent: Fan, 1978, 1979.
5. Do’stmuhammedov H. Hozirgi o’zbek hikoyachiligida badiiy tafakkurning yangilanishi. Fil. Fan.nom.dis. – Toshkent. 1995. – B.149.

TURKISTONDA MAISHIY-MADANIY TURMUSHGA TEGISHLI TEXNIK YANGILIKLAR VA ASBOB-USKUNALAR JORIY ETILISHIDA JADID MA'RIFATPARVARLARINING O'RNI.

*Elova Dilnoza Davlatovna
BuxDU p.f.f.d.(PhD), dotsent (+998936227677)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkistonda 1870-1924 yillarda maishiy-madaniy hayotni yuksaltirishga xizmat qiladigan texnik yangiliklar va o'zgarishlarning joriylanishi haqida manbalar tahlili orqali fikr bildiriladi.

Kalit so'zlar: elektr, tramvay, telefon, telegraf, radio, grammafona, pochta, yozuv mashinkasi, stanok, dvigatel, lamp, fons, elektrostansiya, vintilyator, mikroskop.

THE ROLE OF NEW ENLIGHTENERS IN THE INTRODUCTION OF TECHNICAL INNOVATION AND EQUIPMENT RELATED TO HOME AND CULTURAL LIFE IN TURKESTAN.

Abstract: This article presents an opinion on the introduction of technical innovations and changes in Turkestan in 1870-1924, which served to improve domestic and cultural life, through an analysis of sources.

Keywords: electricity, tram, telephone, telegraph, radio, gramophone, mail, typewriter, machine, engine, lamp, lantern, power plant, fan, microscope.

THE ROLE OF NEW ENLIGHTENERS IN THE INTRODUCTION OF TECHNICAL INNOVATION AND EQUIPMENT RELATED TO HOME AND CULTURAL LIFE IN TURKESTAN.

Abstract: This article presents an opinion on the introduction of technical innovations and changes in Turkestan in 1870-1924, which served to improve domestic and cultural life, through an analysis of sources.

Keywords: electricity, tram, telephone, telegraph, radio, gramophone, mail, typewriter, machine, engine, lamp, lantern, power plant, fan, microscope.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston maishiy-madaniy hayotiga ko'plab texnik yangiliklar kirib keldi. Jumladan elektr, elektrostansiyalar qurilishi shular jumlasidandir.

Rossiya imperiyasining Uraloldi, qrim va Kavkaz hududlarida elektr toki bilan ko'chalarni, xonadonlarni yoritish harakati Turkistondan 20-30 yillar oldin boshlangani ma'lum bo'ladi. Jadidchilik harakatining "g'oyaviy otasi", qrim-tatar millati vakili Ismoilbek Gaspirinskiy 1882 yilda Bog'chasaroy shahar boshlig'i lavozimida ish boshlabdi. U qisqa vaqt o'z lavozimida faoliyat yuritgan bo'lsada, Bog'chasaroy shahar ko'chalarini yoritish masalalari bilan jiddiy shug'ullangan. Shahar umasi a'zolari I.Gaspirinskiy "shahar pulini ko'chalarni yoritish, aholiga tibbiy yordamni kuchaytirish" kabi allaqanday foydasiz ishlar bilan shug'ullandi, deb asossiz ravishda uni lavozimidan bo'shatgan.²³

Turkistonga elektr tokining kirib kelishi uchun dastlabki qadamlar XIX asr oxirida qo'yilgan. Bu borada Belgiyaning "Toshkent tramvay jamiyati", nemis firmalari mablag' tikishi harakatida bo'lganlar. Turkiston general-gubernatorligi markazi Toshkentda ham 1910 yillarga qadar shaharni va xonadonlarni yoritish uchun emas, balki tramvaylar harakatini yo'lga qo'yish, zavod va fabrikalar hamda ular atrofini yoritish uchun gidroturbina va gineratorlar keltirilgan. Bu haqda "Turkestanskije vedomosti" gazetasida ko'plab xabar va maqolalar bosilgan.²⁴ Ularda 1909

²³ Қаралсин. Қосимов Б. Исмоилбек Гаспирали (Таништириш йўлидаги бир тажриба). – Т : Гафур Фулом номидаги нашриётчи матбаа бишлашмаси; 1992. – Б. 12.

²⁴ Трамвайный вопрос перед думой//ТВ. 1907 год, 4 август. – N 124. Электрический трамвай// ТВ. 1907 год 8 (21) август, N 126; Электрический трамвай// ТВ. 1907 год 11 (24) август, N 129 ва ҳоказо.

Трамвайный вопрос перед думой // ТВ, 1907 год, 14 (27 июль). - N 107

Трамвайный вопрос в Ташкенте // ТВ, 1906 год, 21 март;. - N 41

yilda Toshkent ko'chalarida ot bilan tortiladigan gonkalar o'rniga, temir yo'l izlarida elektrli tramvaylar qatnayotganligi, ular arzon va tez qisqa vaqtda aholini o'z manziliga yetkazganligi qayd etilgan.

Shuningdek, elektr energiya bilan ta'minlashga xizmat qiladigan asbob-uskunalar qimmatligi, gidrotruba va generatorlarni Avstriya-Vengriyaning Xaie (Aans) firmasi doimo yetkazib bera olmayotganligi kabi jihatlar ham gazeta maqolalaridan o'rin olgan. Turkistonda 1909 yilda birinchi quvvat 1350 KVTs ni tashkil etgan, Hindisush besi qurildi. 1913 yilga kelib 198 ta elektrostansiya mavjud bo'lgan, shundan 18 tasi elektr energiyasini sotgan.²⁵

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Turkiston mintaqasining barcha hududlarida elektr energiyasi kirib kelishi deyarli bir paytda sodir bo'lgan. Buxoroda bosilgan "Buxoroi" sharif gazetasining 4-sonida amirlikda elektr ishlari yangi Buxoroda (Kogon) boshlab yuborilganligi, elektrik ishchi o'rinlariga talab borligi, bunday soha mutaxassislari 31-raqamli telefonga murojaat etishlari so'ralgan.²⁶ 1912-1913 yillardagi urinishlardan so'ng 1913 yil 18 noyabrda yangi Buxoroda elektr stansiya ishga tushib, 220 voltga ega bo'lgan, tizimi uch simli doimiy tandan iborat edi. Biroq pochta-telegraf idorasi bilan Buxoro amirligi siyosiy agentligi elektr toki ko'chalarini yoritish masalasida munozaralarga kirishgan. Bu munozara oxiriga yetmay, 1914 yilda boshlanib ketgan 1-jahon urushi elektrlashtirish ishini deyarli to'xtatib qo'ydi. Yangi Buxoro (Kogon)da lampa shishilar uchun kerosin va may sotish do'koni faoliyati 1914-1916 yillarda katta daromad hisobiga ishlagan.²⁷

Skobelev (Farg'ona) Yangi Marg'ilon shahrida ham dastlabki elektrostansiya 1913 yilda qurilgan bo'lib, ushbu elektrostansiya tokidan avvalo harbiylarning kazarmalari, ofitser uylari, harbiy inshootlar joylashgan ko'chalar yoritilgan, keyinchalik shahar ko'chalari va ayrim xonadonlarga ham elektr toki yetib borgan. 1913 yilning yanvaridan 1914 yil martiga qadar (14 oy ichida) Farg'ona elektr stansiyasi 150 ming kvts elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo'lsa, bir yil ichida uning quvvati oshirilishi tufayli 1915 yilda 220 ming kvts elektr energiya hosil qilindi. Farg'ona elektr stansiyasi shaharni to'la yoritib, hatto atrofdagi ayrim qishloqlarga ham uzatilgan.²⁸ Buxoro amirligining markazi eski Buxoroga elektr energiya 1917 yil yozida yetib borib, biroq ko'chalarni yoritishda emas, balki hukumat bosmaxonasi binosi va uning atrofidagi ko'chalarni yoritishda qo'llanildi.²⁹

1910-1917 yillarda Turkiston shahar va viloyatlarida ko'cha va xonadonlarni yoritishda asosiy vosita kerosinli lampa va Rossiya markazidan keltirilgan fonuslar edi. 250 ming aholini Toshkentda 1909 yil yanvarida 321 ta, 1911 yilda 500 ta kerosin-kalil chiroqlar, shuningdek 858 ta oddiy chiroqlar bo'lib, yoritish ehtiyojlari uchun 40 ming rubl sarflangan.³⁰ XX asr boshlarida Samarqanddagi Yangi shahar va Eski shahar ko'chalarida asosan lampalar yoritishda qo'llanilib, birgina Yangi shaharda 350 ta kerosin lampalar ko'chalarni yoritardi.³¹

1917-1924 yillarda Turkistonda elektrlashtirish jarayoni butun Rossiya markaziy ichidagi qo'mitasi tomonidan Rossiyani elektrlashtirish bo'yicha Davlat komissiyasi (TOELRO) rejasi asosida amalga oshirildi.

Turkistonda ASSRda 1923-1924 yillarda 31 ta elektr stansiya qurildi. Turkiston xalq universitetida elektrik elektr muhandislar tayyorlashga e'tibor qaratildi. Biroq, bu soha mutaxassislariga maosh to'lash ta'rifining pastligi, mahalliy kadrlarga e'tibor berilmaganligi tufayli Ittifoq darajasidan bir necha barobar qoloqlik saqlab qolindi.

Трамвайный вопрос перед думой // ТВ, 1907 год, 2 август. - N 122

²⁵ Сайдбобоева Г.А. Туркистон ўлкасини электрлаштириш тарихи (XIX аср – XX асрнинг биринчи чораги). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2020. – Б.15-16

²⁶ Ишчи ўринлари // Бухоройи шариф. 4-сон, 1912 йил 14 март.

²⁷ Ўз МА, U-1- фонд, 27-рўйхат, 424-йўғма жилд, 2 варақ. 2 варақнинг орқа томони 4,5-варақлар, 8,9 варақлар.

²⁸ Рахимов М. История Ферганы. – Т: Фан; 1984-С9.

²⁹ ЎЗМА; U-126 фонд, 1-рўйхат, 302 йўғма жилд, 15-варақ.

³⁰ Сайдбобоева Г.Н. Туркистон ўлкасини электрлаштириш тарихи...-Б.16.

³¹ Ирискулов О.Ж. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бoshларида Самарқанд шаҳрида ижтимоий-иқтисодий жараёнлар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) автореферати. Самарқанд – 2019. – Б.15.

1920-1924 yillarda BXSР va XXSRda elektrlashtirish masalasiga munosabat 1923 yildan o'zgardi. Ushbu respublikalarda 1923 xo'jalik yo'lida bir qadar iqtisodiy o'sish yuz berib, Buxoroda elektr stansiyasi qurish ishlari mazkur yilning 15 oktabrida ishga tushishi matbuotda xabar qilingan. Biroq elektr stansiya Buxoroning Registon maydonida o'rnatilib, ikki oy kechikib, 1923 yil 12 dekabrda ishga tushgan.³² "Ozod Buxoro" gazetasining 39-sonida: "Registonda elektrik stansiyasi uchun ishchilar chuqur kovlagan vaqtida ishchilar bir ko'za oltin topib olganlar. Ishchilardan birov ko'zani olib qochgan, u qidirilmoqda. U olib ketgan oltinlar 3-4 asr oldin zarb qilingani va qimmatli ekanligi tahlil qilinadur – deb xabar berilgan."³³

Nafaqat Yangi Buxoro va Eski Buxoroda, shuningdek, BXSР ning viloyatlarida ham elektr stansiyalar qurish, mavjudlarini kattalashtirish choralari ko'rilgan. Chorjo'y viloyati (hozirgi Turkmaniston Respublikasining Lebop viloyati) da kichik elektr stansiyalar o'rnatish amirlik davrida boshlangan edi. 1922 yilning kuzida xorijiy (qizil Armiya) kazarmalari, harbiy muassasalar, korxona va madaniy muassasalarni yoritish uchun elektr stansiyalarni kattalashtirish xususida hukumatga murojaat qilingan.

1923 yil oxirida 150 kvт/soat quvvati bo'lgan elektr stansiya ishga tushirilgan.³⁴

Turkistonda pochta- telegraf telefon singarilar ishlari bilan bog'liq yangiliklar ham XIX asr oxiri – XX asr dastlabki o'n yilligida kirib kelgan. Pochta- telegraf va telefonning joriy etilishi avvalo general-gubernatorlik markazi Toshkent shahrida, shuningdek Skobelev (Farg'ona)da yuz bergan 1872 yillardayoq orqada. Biroq 1912 yilgacha ham pochta-telegraf Buxoro amirligi va Xiva xonligiga yetib bormagan edi. Davriy matbuot xabarlaridan barida: "Shu kunlarda (1912 yil bahori) ko'plab tijoratji, mansabdor va ishbilarmonlar uzoq joylardan xabar olish va yetkazish uchun pochta xizmati (sanduqchai po'cht) yo'lga qo'yilishini xohlaydilar. Shuningdek Arki Oliy oldida va shu kabi joylarda pochta o'rnatilsa mansabdorlar va ma'murlarning lozim bo'lgan joylarida xat yuborish va olmog'i oson bo'lur" – deb qayd etilgan.³⁵

Biroq telefon apparatlari va simlari Germaniyaning "Simens" firmasi tomonidan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent va Farg'onaga olib kelingan. Umuman Turkistonda telegraf va telefon aloqalarini o'rnatishda nemis tadbirkorlari hamda ishbilarmonlarining roli katta. XX asr boshlarida Yangi Marg'ilonda shaharlararo telefon, pochta xizmati yo'lga qo'yilib, shaharda 99 ta telefon abonentlari mavjud edi. 1913 yilda Qo'qon shahrida 377 ta telefon tochkasi (nuqtasi) o'rnatilgandi.³⁶

Jumladan, Buxoro xalq sovet Respublikasida 1921 yildayoq hukumat nashriyoti qoshida Buxoro, Rossiya telegraf agentligi (Bux Rosta) tashkil etilib, uni boshqaruviga Ismoilzoda Abdurahim tayinlangan. Ko'p o'tmay Bux ROSTA bitirilib, BuxTA (Buxoro telegraf agentligi) tuzilib, unga tegishli bo'lgan asbob-uskunalar va xizmatchilar hukumat nashriyoti qarmog'iga o'tkazilgan.³⁷ BuxTA ishlarini yo'lga qo'yish uchun uch kishidan iborat komissiya tuzilgan. Ushbu komissiya tarkibiga Buxoro nashriyoti mudiri Mahmud Said, Buxoro axbori gazetasi bosh muharriri A.S. Cho'lpon (1897-1938), "Buxarskaya izvestiya" rus gazetasi muharriri Golkerinlar kiritilib ular zimmasiga pochta- telegraf ishlarini yo'lga qo'yish va kuchaytirish vazifasi yuklandi.³⁸ Buxoro shahri bilan Qarshi va Chorjo'y shaharlari o'rtasida telegraf stansiyasi qurilgan. Qarshi telegraf stansiyasi simsiz sifatidi ishga tushirilgan. Dastlab pochta-telegraf ishlari keng yo'lga qo'yilmaganligi uchun shaxsiy telegrammalar qabul qilinmagan. 1922 yil aprel oyidan boshlab telegraf apparatlari ko'payib, har bir kishi bir sutkada (24 soat)da 1 ta telegramma berishga ruxsati bo'lgan. Ayniqsa, harbiylar, savdogarlar tomonidan telegramlar

³² Шаҳарда электрик // Бухоро ахбори, 208-сон, 1923 йил 30 сентябрь. Электрик станцияси // Озод Бухоро; 25-сон, 1923 йил 16 декабрь;

³³ Регистонда хазина // Озод Бухоро, 39-сон, 1824 йил 13 январ

³⁴ Вилоятларда. Бизда ҳам электр станцияси керак // Бухоро охбори, 106-сон, 1922 йил 29 октябрь; Чоржўйда электр станция очилди // Озод Бухоро, 38-сон, 1924 йил 4 январ.

³⁵ Маҳаллий хабарлар // Бухоройи шариф 18-сон, 1912 йил 1 апрел.

³⁶ Собиров А. Эгамназаров А. Ўша китоб. – Б. 142.

³⁷ Бухоро хабарлари рукни: Бух Роста // Бухоро ахбори, 27-сон, 1921 йил 15 сентябр; - Бух ТА // Бухоро ахбори, 33-сон, 1921 йил 12 октябрь.

³⁸ Бухорода телеграф агентси // Бухоро ахбори, 46-сон, 1921 йил 15 декабр.

qabul qilish, tabrik telegrammalari yuborish kabilarga imkon tug'ilgan. Shuningdek hukumat tomonidan favqulotda yuboriladigan telegramlarga cheklov yo'q edi. 1922 yil 1 noyabrdan alohida shaxslar tomonidan yuboriladigan telegramma 5 ta so'zdan oshmasligi, telegrafda har so'z 10 so'm, blanka – 20 so'm, buyurtma xatlar – 50 so'm to'lov bilan amalga oshirilgan.³⁹

BXSRda pochta-telegraf sohasida mutaxassis kadrlar tayyorlash ishlari 1922 yildan boshlab yo'lga qo'yilgan. "Buxoro axbori" dagi xabarlardan birida: "Dohiliya" (ichki) nazorati huzuridagi pochta-telegraf maktabini (uchotnie-dissertant) 20 kishi tamom qilib imtihon berdilar. Talabalar qo'lga shahodatnomalar berilgan va so'ngra pochta va telegraf xonalariga xizmatga qo'yilganlar – deb ma'lumot beriladi.⁴⁰ 1923-1924 yillarda pochta-telegraf sohasidagi maxsus kurslarda 60 tacha yoshlar tahsil olganligi bilan bog'liq ma'lumotlar manbalarda uchraydi.⁴¹

Zamonaviy texnikalar yordamida ommaviy tadbirlar uyushtirish choyxona mudirlari zimmasiga yuklab olgan.⁴² Qizil choyxonalar huzurida va klublarda, kasb-hunar to'garaklarida, "Radio havaskorlar to'garagi" ham faoliyat yuritib, ularda mahalliy millat vakillari ham a'zo bo'lishgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra "Radio havaskor to'garagi" a'zolarining 30-40 foizi mahalliy xalq bolalari bo'lishgan.⁴³ BXSR markazi Eski Buxoroda 1922-1923 yillardan boshlab radiostansiya qurishga kirishilgan. 1923 yilning yanvar oyida Moskvadan asbob-uskunalar bilan radiostansiya keltirilib, Minorai Kalon ostida o'rnatilgan. "Ushbu radiostansiya shu qadar kuchli bo'lg'on ediki, ya'ni hech bir vositasiz to'g'ridan to'g'ri Hindiston, Germaniya hamda Fransiya butun xabarlarni olib turgusidir" 1923-1924 yillarda radiostansiya uchun va radioga hukumat hisobidan 5200 rubl sarflangan– deb yozgandi. "Buxoro axbori" gazetasi⁴⁴

Rossiya imperiyasi mustamlakasi yillarida Turkiston general-gubernatorligi viloyatlaridagi choyxona va xonadonlarga Rossiyadan samovar (o'txonali suv qaynatish qurilmasi) dissertant kirib kelib, keyinchalik "choyxona" va "samovar" atamasi bir xil ma'noda qo'llanilib, mahalliy aholi kundalik maishiy turmushiga birdek singib ketdi. Manbalarda metal quvurlar orqali suvni vodoprovod orqali manzilga yetkazish uchun ham metal trubalar olib kelinganligi qayd etilgan. Aholiga mikroblar (bakteriya) olib keladigan iflos suvlardan kasallanishi oldini olish uchun chetdan lo'lai ohanin (truba) orqali har manzil va makonga favvora (vodoprovod) o'tkazib, pokiza suvni yetkazish, nazorat qilishga qaror qilindi – deb yozilgandi, mahalliy matbuotda⁴⁵ XX asr dastlabki o'n yilligida Samarqandning Yangi shahar qismiga atrofi g'isht bilan terilgan 52 ta quvurlar orqali ichimlik suvi yetkazib berilgan. Biroq truba-quvurlar orqali shaharlar aholisini suv bilan to'la ta'minlash imkoni bo'lmaganligi uchun ichimlik suvi ot va eshak qo'shilgan arobalarda yog'och bochkalarda 5-10 chaqirim masofadagi buloq va anhorlardan tashib keltirilgan.⁴⁶

1910 yillarda Buxoroga mikroskop ham kirib kelganligi, undan foydalanib suv va hayvonlar tanasidagi mikroblarni aniqlashda foydalanilgan. "Iflos suv, havoli jrylardagi mikroblarni aniqlashda, hayvonlar orqali o'tadigan kasallik keltiruvchi zarrachalarini ko'ra olishda zarrabini (mikroskop) qo'l kelmoqda. Zarrabini kattalashtirib ko'rsatgan mikroblarga

³⁹ Хайитов Ш; Бадриддинов С; Рахмонов К. Бухоро халқ совет Республикаси: Иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. – Бухоро: "Бухоро" нашриёти 2005. –Б. 58-59; Рахмонов К. Бухоро халқ Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йиллар) – Т. "ABV MATBVOT – KONSALT"; 2012. – Б. 78-79; Пochта – телеграф ҳодуносабатлари // Бухоро ахбори; 111-сон, 1922 йил 19 ноябр; Почта-телеграф томонидан муҳим билдириш // ўша жойда.

⁴⁰ Бухоро хабарлари. Почта-телеграф ходимлари // Бухоро ахбори, 93-сон; 1922 йил 27 июл.

⁴¹ Р-49-фонд, 1-рўйхат, 48-йиғма жилд, 15-варақ.

⁴² ЎзМА; Р-94-фонд, 5-рўйхат, 2701 йиғма жилд, 6-варақ.

⁴³ ЎзМА; Р-94-фонд, 5-рўйхат, 1227 йиғма жилд, 34-35-варақ.

⁴⁴ Янги радио станцияси // Бухоро ахбори; 127-сон, 1923-йил 18 январ.

⁴⁵ Сирож Мирзохўрдов Ҳаким (Мирзо Сирож Ҳаким). Соғлиқни сақлаш // Бухоройи шариф; 13-сон, 1912 йил 26 март.

⁴⁶ Ирискулов О.Ж. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Самарқанд шаҳрида ижтимоий-иқтисодий ва маданий жараёнлар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертация автореферати. Самарқанд – 2019. – Б. 15.

qarshi kurash orqali kasalliklar oldini olish foyda bergusidir”⁴⁷ –deb ma’lumot beriladi ma’lumotlardan birida. Mikroskop Buxoro da birinchi Yevropa tipidagi kasalxona ochgan tabib Mirzo Siroj Hakim kasalxonasida va uning dorixonasida mavjud bo’lgan.

XIX asr 80-90 yillarida nemis menyutiblari Rossiya imperiyasining ko’chirish siyosati tufayli Turkiston general-gubernatorligi viloyatlariga, Buxoro amirligi va Xiva xonligi yerlarida joylashib nemis kaloniyalarini tashkil etdilar. Nemis mennoneti Kino-Foto ustasi Vilgelvm Pinner kinoapparat va fotoapparatni 1890 yillarda Turkistonga olib keldi. U mahalliy millat vakillaridan ko’plab shogirdlar chiqardi. O’rta Osiyoda birinchi kino operator Xudoybergan Devonov ham Pinner shogirdlaridan biri bo’lib, 1902-1903 yillardan mustaqil faoliyat bilan shug’ullana boshlagan.⁴⁸

Xullas, XIX asr oxirgi choragi va XX asrning dastlabki o’n yilliklarda Turkistonga maishiy – madaniy hayot rivojiga xizmat qiladigan bir qator yangi texnika va asbob – uskunalar kirib kelgan. Elektr energiyasi, telefon, telegraf-pochta, yozuv mashinkasi kabilarning aholi turmush tarziga kirib kelishi, radio, grammofon, pabefon singari o’z zamonasining texnik vositalari aholi kundalik turmushiga o’z ta’sirini o’tkazdi. Har bir texnik yangilik mahalliy xalq tomonidan hayrat va qiziqish bilan kutib olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Каралсин. Қосимов Б. Исмоилбек Гаспирали (Таништириш йўлидаги бир тажриба). – Т : Ғафур Ғулом номидаги нашриётчи матбаа бирлашмаси; 1992. – Б. 12.
2. Трамвайный вопрос перед думой//ТВ. 1907 год, 4 август. – N 124. Электрический трамвай// ТВ. 1907 год 8 (21) август, N 126; Электрический трамвай// ТВ. 1907 год 11 (24) август, N 129 ва ҳоказо.
3. Трамвайный вопрос перед думой // ТВ, 1907 год, 14 (27 июль). - N 107
4. Трамвайный вопрос в Ташкенте // ТВ, 1906 год, 21 март;. - N 41
5. Трамвайный вопрос перед думой // ТВ, 1907 год, 2 август. - N 122
6. Сайдбобоева Г.А. Туркистон ўлкасини электрлаштириш тарихи (XIX аср – XX асрнинг биринчи чораги). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2020. – Б.15-16
7. Ишчи ўринлари // Бухорои шариф. 4-сон, 1912 йил 14 март.
8. Ўз МА, U-1- фонд, 27-рўйхат, 424-йиғма жилд, 2 варақ. 2 варақнинг орқа томони 4,5-варақлар, 8,9 варақлар.

2-SINF 2-3-QISM O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLIGIDAGI XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARI

N.O.Safarova

Buxoro davlat pedagogika instituti professori.

Y.M.Ostanaqulova

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligining 2 va 3-qismida berilgan xalq og‘zaki ijodi namunalari, ular orqali o‘quvchilarda axloqiy tarbiya, hayotiy tushunchalar va og‘zaki nutqni rivojlantirish maqsadlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ertak, maqol, topishmoqlarning didaktik ahamiyati va ulardan darsda foydalanish usullari haqida metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, ertak, maqol, boshlang‘ich sinf, tarbiya, metodika,tavsiya,namuna.

EXAMPLES OF FOLK ORAL WORK IN THE 2ND GRADE READING LITERACY TEXTBOOK, PARTS 2-3

⁴⁷ Соғлиқни сақлаш (Хабар)// Бухорои шариф; 14-сон, 1912 йил 27 март.

⁴⁸ Собиров А; Эгамназаров А. Ўша китоб. – Б.143.

Annotation: This article discusses the samples of folk oral literature included in the 2nd-grade "Reading Literacy" textbook (Parts 2 and 3), and how they contribute to the development of students' moral education, life understanding, and oral speech skills. It also provides methodological recommendations on how to use fairy tales, proverbs, and riddles in classroom instruction.

Keywords: folk oral literature, fairy tale, proverb, primary school, education, methodology, recommendation, sample

Xalq og'zaki ijodi bolalar tarbiyasining eng qadimiy, lekin hozirgi kunda ham dolzarb bo'lgan vositalaridan biridir. Ular orqali bola o'zbek xalqining qadriyatlarini anglaydi, to'g'ri fikrlash, muloqot qilish, yaxshi bilan yomonni ajratish, sabr-toqat, halollik kabi sifatlarni o'rganadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun berilgan og'zaki ijodiy namunalar tarbiya, madaniyat va nutqiy rivojlanishga xizmat qiladi.

2-qismdagi xalq og'zaki ijodi namunalari

Bu qismda ko'proq maqollar, topishmoqlar va kichik rivoyatlarga e'tibor qaratilgan.

Keltirilgan maqollar:

Bir yigitga yetmish hunar oz.

Bu maqoldan maqsad — inson qancha ko'p hunarga ega bo'lsa ham, yana o'rganishi kerak. Chunki ko'p hunarli odam har doim elga kerak bo'ladi.

Hunarli moy oshar, hunarsiz loy oshar.

Bu maqolda hunarli odamning qadri baland bo'lishi, hunarsiz kishi esa qiynalishi tasvirlangan. Hunar insonni obro'li, to'kin-sochin hayotga olib boradi.

Ustoz – otangdek ulug'.

Ustozning o'rni ota kabi yuqori va hurmatga loyiq ekani ta'kidlanadi. Chunki ustoz sizga ilm, tarbiya, hayot saboqlarini beradi.

Ustoz bilimli – shogird ilmi.

Bu maqolda shogird ustozidan o'rnak olishi, ustoz qancha bilimli bo'lsa, shogird ham shuncha yaxshi bilimga ega bo'lishi aytilgan.

O'rganish – bir hunar, o'rgatish – ikki hunar.

O'rganish o'zi bir hunar, lekin boshqaga ham o'rgata olish – bundan ham qiyin va muhimroq hunardir.

Usta bo'lsang ham, ustozingni unutma.

Bu maqolda inson qanchalik yuksak darajaga chiqmasin, uni shu darajaga yetkazgan ustozini unutmang, hurmat qiling, degan fikr yotadi.

Bu maqollar orqali o'quvchilarga kasbga mehr, ustozga hurmat, ilmga chanqoqlik g'oyalari singdiriladi. Har bir maqol ustida mustaqil fikrlashga undash, o'quvchini hayotga tayyorlashga xizmat qiladi.

Metodik tavsiyalar:

□ Har bir maqolni dars boshida "maqol aytamiz – ma'no topamiz" o'yini orqali ochib berish.

□ O'quvchilarga maqollarni rasmga aylantirish topshirig'ini berish (masalan: hunarli odam rasmi, ustoz oldidagi bola).

□ Maqollarni dialog shaklida sahnalashtirish orqali ularning mazmunini chuqur anglatish.

□ Har bir maqolni sinfda muhokama qilish, "Bu kimga tegishli bo'lishi mumkin?", "Sen bu maqolni qachon ishlatgan bo'larding?" kabi savollar orqali muloqotga kirishish.

3-qismdagi ertaklar va ularning ahamiyati

3-qismda ko'proq ertaklar joy olgan. Jumladan:

"Och bo'ri" – nafs va ochko'zlik oqibatlarini haqida.

"Shirin uyqu" – harakat, mehnatsevarlik muhimligi haqida.

"Ur to'qmoq" – mehribonlik va adolat, halollik g'oyalari yoritilgan.

Hayvonlar haqidagi ertaklar – (tulki, quyon, bo'ri, ayiq va boshqalar) orqali qahramonlar obrazida turli fe'l-atvorlar yoritilgan.

Bu ertaklar bolani fantaziyalash, xulosa chiqarish, qahramonlarga baho berish kabi faoliyatga jalb etadi.

Metodik tavsiyalar:

□ Ertakdan keyin qahramonlar bilan suhbat tashkil qilish (masalan, “Och bo‘ri”dan keyin: “Sen bo‘risan. O‘sha paytda qanday yo‘l tutarding?”).

□ “Shirin uyqu” ertagini darsdan keyin uyda dramala-sahnachaga aylantirib kelish.

□ Ertaklardagi voqealarni chizmalar orqali hikoya qilish. Har bir bola ertakdagi voqeani o‘z tasavvuriga ko‘ra rasmga oladi.

□ Ertaklarni yarimta holda berish va o‘quvchilardan yakunini o‘ylab topishni so‘rash – ijodiy tafakkurni rag‘batlantiradi.

□ “Ur to‘qmoq” ertagi asosida adolatli va adolatsiz hatti-harakatlarni solishtirish jadvali tuzish.

□ Hayvon obrazlari bo‘yicha “Qaysi hayvon kimga o‘xshaydi?” nomli guruhli bahs uyushtirish.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayotiy tushunchalarni o‘zlashtiradi, axloqiy fazilatlarni anglaydi, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantiradi. Ayniqsa, 2-sinfning 2–3-qism “O‘qish savodxonligi” darsligida keltirilgan maqollar, topishmoqlar va ertaklar katta didaktik va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Metodik yondashuvda o‘qituvchining ijodiyligi, bolaning qiziqishini uyg‘otuvchi topshiriqlar, sahnalashtirish, rasm, savol-javob, hikoya yozish kabi faol metodlar eng yaxshi natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.2-sinf o‘qish savodxonligi 1-qism. “Novda”nashriyoti-2023

2.2-sinf o‘qish savodxonligi 2-qism. “Novda”nashriyoti-2023

3.Safarova N. O‘zbek bolalar o‘yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari. NDA. T., 2005

4.Safarova N.O. Didaktik o‘yinlarning samaradorligi. “O‘ZBEKISTONDA ILM-FANNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 30 noyabr 2022 y.

YOSH AVLOD ONGIDA EKOLOGIK TA’LIM-TARBIYA VA TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

*Rahimova Mahliyo Akramovna
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarni ekologik tarbiyalashning pedagogik nazariya va amaliyotdagi ustuvor yo‘nalishlari, ekologik ta’lim-tarbiya va tafakkurini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, ekologik ta’lim o‘quvchilarga berilishi lozim bo‘lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi ekanligi ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: ekologik ta’lim-tarbiya, tafakkuro o‘quvchi, vosita, tabiiy resurslar.

ЗНАЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ФОРМИРОВАНИЕ МЫШЛЕНИЯ В СОЗНАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ.

Аннотация. В статье анализируются приоритетные направления педагогической теории и практики экологического образования учащихся, вопросы развития экологического образования и мышления. Также научно доказано, что экологическое образование — это система знаний, которые необходимо дать учащимся, отражающая взаимосвязь природы и человека.

Ключевые слова: экологическое образование, мыслящий учащийся, инструмент, природные ресурсы.

THE IMPORTANCE OF ECOLOGICAL EDUCATION AND FORMATION OF THINKING IN THE MIND OF THE YOUNG GENERATION

Abstract. This article analyzes the priority areas of pedagogical theory and practice of ecological education of students, issues of developing ecological education and thinking. It is also scientifically proven that ecological education is a system of knowledge that should be given to students, reflecting the relationship between nature and man.

Keywords: ecological education, thinking student, tool, natural resources.

Hozirgi kunda respublikamizda barcha yo‘nalishlar qatorida ekologiya, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik ta‘lim-tarbiya sohasida to‘laonli amaliy ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida “Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega”, 62-moddasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburlar”, shuningdek, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunlar, sohaga doir boshqa me‘yoriy hujjatlar ekologik ta‘lim-tarbiya tizimining huquqiy asosini tashkil etadi.

Ta‘lim sohasida ekologik bilimlar ekologik tafakkur uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki ekologik bilim tabiiy sabab-natija munosabatlari va qonuniyatlari haqidagi bilim hisoblanadi. Aynan ekologik bilimlar tabiatshunoslikning ma‘nosini ochib beradi va bu jarayonlar natijasidagi jarayonlarni, shuningdek, tirik tizimlarning xususiyatlarini tushunishga imkon beradi, shuningdek faqat ekologik tafakkur nuqtai nazaridan dunyoni bir butun sifatida idrok etish mumkin.

Ekologik bilimlar odamlar o‘zlarining hozirgi va kelgusidagi biosfera bilan qanchalik uzviy bog‘langanini, tabiatni muhofaza etish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va har bir insonda atrof-muhit holati uchun mas‘ullik hissini tarbiyalash, hayvonot va nabotot olamini asrash obyektiv zarurat ekanini tushunib yetishlarining muhim sharti hisoblanadi, mazkur ishlarni amalga oshirishda keng jamoatchilikning o‘rni ham beqiyos.

Ekologik ta‘lim deganda o‘quvchilarga berilishi lozim bo‘lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi. Ekologik ta‘limni shakllantirishda tabiatni muhofaza qilish, uning resurslaridan samarali foydalanish, prinsiplarini o‘zlashtirish birinchi darajali ahamiyatga egadir. Ekologik savodxonlikka erishish yo‘lida ekologik bilim darajasini oshirish mamlakatimizda o‘z uy va mahallamizda bo‘layotgan tabiiy muammolarni anglash va unga ongli munosabat bildirish, atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalar to‘g‘risidagi ma‘lumot berish muhim ahamiyatga egadir. Ekologik ta‘lim berishda yosh avlodning tabiat va jamiyatga nisbatan ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ekologik nuqtayi nazardan munosabat bildirish va ekologik bilimlarini oshirib borish maqsadga muvofiqdir. O‘zib kelayotgan yoshlarning ekologik tafakkuri asosiy diqqat markaziga qo‘yilmasa, kelajak avlodga ona tabiatning jami ne‘matlari to‘la-to‘kis yetkazib berilmasligi va insoniyat kelajagining tanazzulga yuz tutishini ta‘kidlab o‘tish lozimdir.

Ekologik savodxonlik va madaniyat ijtimoiy ta‘lim-tarbiya muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari, mehnat jamoalari, mahalliy boshqaruv organlari, ichki ishlar xodimlari, prokuratura, sud, ommaviy axborot vositalari singari davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Ekologik ong – ekologik tafakkur va ekologik madaniyat bilan uzviy bog‘langan; ekologik tafakkur – agar u o‘quvchida maxsus tashkil etilgan o‘quv-bilish faoliyati bilan shakllantirilsa, ekologik ongni ishga solishi, ishlatishi mumkin bo‘lgan vositaga aylanadi. Ekologik madaniyat ekologik ong tufayli vujudga keladigan insoniy fazilat.

Ekologik tarbiya-insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta‘lim-tarbiya umumiy ta‘lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo‘lib, maktabda barcha fanlarni o‘qitishda amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi. Ekologik ta‘lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodga atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Bugungi globallashuv sharoitida barcha ijtimoiy ong darajalari va madaniyat shakllarining ekologik manfaatlar doirasida integratsiyalashuvi jarayonlarining kuchayishi kuzatilmoqda.

Bunday vaziyatda ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida o'zaro bog'liq, lekin nisbatan mustaqil ikki yo'nalishni bir – biridan ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq:

birinchisi, ekologik nazariy bilimlar majmuasi asosida insoniyatning tabiatni o'zgartirish va o'zlashtirishdan iborat amaliy faoliyatni tashkil etuvchi ishlab chiqarish, texnika, texnologiya taraqqiyotini oqilona tashkil qilish;

ikkinchisi, tarixiy ekologik tajribalar asosida ekologik ta'lim – tarbiya ijtimoiy institutlari yordamida kishilarda ekologik ong, tafakkur va dunyoqarashni rivojlantirishdir. Bu yo'nalishlarni umuminsoniy ma'nfaatlar negizida uyg'un taraqqiy ettirish, pirovard natijada faol ekologik madaniyatni shakllanishida va ularning tabiatni muhofaza qilish faoliyatida katta rol o'ynaydi.

Bizning fikrimizcha, ekologik ong, tafakkur va dunyoqarash, madaniyatni shakllantirishda nazariy ekologik bilimlarni berish, madaniy-ma'rifiy ishlarning barcha samarali shakllari va uslublaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Insoniyatni kun sayin o'sib borayotgan ehtiyojlari va sayyoramizda kamayib ketayotgan imkoniyatlari o'rtasidagi muvozanatni barqarorligini ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish uchun har birimiz ekologik bilimlarga ega bo'lmog'imiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son).

2. A.S.To'xtayev Ekologiya o'quv qo'llanma T.O'qituvchi nashriyoti 1998-yil.188 bet.10 b

3. I.Hamdamiyov, Z.Bobomurodova, E Hamdamova Ekologiya o'quv qo'llanma T.-2009 y 178 b.7-8-b.

MILLIY TARBIYANING MAZMUN VA MOHIYATI

Baxronova Adiba Ismoilovna

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Rahmatova Mehrangis Hayot qizi

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada milliy qadriyatlar ayrim xalq, millatlar va elatlarning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarning yig'indisidan iborat. Milliy qadriyatlar umuminsoniy va mintaqaviy qadriyatlar bilan birgalikda mavjud bo'ladi. Milliy ta'lim kontekstini hisobga olgan holda kognitiv paradigmaga mos keladigan pedagogik usullar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar; milliy qadriyatlar, an'ana, urf-odat, rasm-rusum, an'ana, meros, qadriyat, islom ma'naviyati, alq og'zaki janrlari, folklor.

CONTENT AND ESSENCE OF NATIONAL EDUCATION

Annotation. The article considers national values as the sum of all material and spiritual wealth created in the process of historical development of certain peoples, nations and ethnic groups. National values exist together with universal and regional values. Taking into account the context of national education, pedagogical methods corresponding to the cognitive paradigm are considered.

Keywords: national values, tradition, customs, customs, traditions, heritage, values, Islamic spirituality, oral genres, folklore

СОДЕРЖАНИЕ И СУТЬ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье национальные ценности рассматриваются как сумма всех материальных и духовных богатств, созданных в процессе исторического развития отдельных народов, наций и этнических групп. Национальные ценности существуют наряду с общечеловеческими и региональными ценностями. С учетом контекста национального образования рассматриваются педагогические методы, соответствующие когнитивной парадигме.

Ключевые слова: национальные ценности, традиция, обычаи, обычаи, традиции, наследие, ценности, исламская духовность, устные жанры, фольклор

Milliy qadriyatlar ayrim xalq, millatlar va elatlarning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarning yig'indisidan iborat. Milliy qadriyatlar umuminsoniy va mintaqaviy qadriyatlar bilan birgalikda mavjud bo'ladi.

Milliy qadriyatlar masalasiga mustaqillikkacha etarlicha e'tibor berilmay kelindi. Endilikda mustaqillik va demokratiya jarayoni milliy qadriyatlari qayta idrok etish va anglashni talab etadi. Bu sohada yig'ilib qolgan muammolarni yangicha tafakkur asosida chuqur nazariy mushohada etish hayot taqozosidir.

Milliy qadriyatlar tor ma'noda muayyan bir millatning, elatning qiziqishlari va manfaatlarini ifodalovchi munosabatlar mazmunini tashkil etsa, keng ma'noda muayyan bir davlatda yashovchi barcha millatlar va elatlarning manfaatlari hamda qiziqishlarini ifodalovchi munosabatlar uyg'unligini aks ettiradi. Milliy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi muayyan bir millatning hayoti, turmush tarzi, tarixi, madaniyati, urf-odatlar, tili, o'tmishi, kelajagi bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-tarixiy hodisa bo'lib, millatning tili, madaniyati, tarixi udumlari, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklari, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotini har tomonlama qamrab oladi. Insonning qaysi millatga mansub ekanligi uning tuyg'usida ham aks etadi. Milliy tuyg'u – tabiiy tuyg'udir. Unda millatning tarixi, hozirgi ahvoli, milliy ruhiyati va xususiyatini tushunish hissiy shaklda mujassamlashgan bo'ladi. Insonda milliy ong va g'urur bo'lmasa, u o'zining qaysi millatga mansubligini xis etmasa, uning o'z milliy manfaat va qadriyatlarini qanday qilib anglashini tasavvur qilish kiyin. Toki millatlar, milliy manfaatlar mavjud ekan, milliy munosabatlar ham, milliy tuyg'ular ham, milliy qadriyatlar ham saqlanib qolaveradi. Millatni milliy qadriyatlardan mahrum qilishga urinish tarix va insoniyat uchun eng katta jinoyat ekanligini bugun tushunib etayapmiz. Millatlarning o'z-o'zini anglash jarayoni takomillashgan sari milliy manfaatlari bilan birga milliy qadriyatlari ham kuchayib, mustahkamlanib boraveradi.

Milliy qadriyatlarning kuchayib borishi mahdudlikka, milliy xudbinlikka, o'z millati manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish, boshqa millatlar va xalqlar manfaatlarini hisobga olmaslikka olib kelmasligi kerak.

Qadriyatlar qanchalik bir-biriga yaqinlashib, ta'sir ko'rsatmasin, har bir millat uchun ma'naviy kamolotning asosiy yo'li va mezonini milliy qadriyatlar bo'lib qolaveradi. Biron millatning yaxshi urf-odatlar, marosimlari boshqa millat ruhi, milliy ma'naviy ehtiyoji va talablariga mos kelgandagina shu millat hayotida chuqur tomir otish imkoniga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, har bir xalq qadrlagan narsa yoki hodisa, birinchi navbatda, uning milliy ma'naviyati bilan bog'liq bo'ladi. Milliy qadriyatlarni qandaydir o'zgarimas hodisa deb qaramaslik kerak. Milliy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotning takomillashib borishi, yashash va mehnat qilish sharoitlari o'zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib boradi.

Umuminsoniy qadriyatlar insonlarda axloq va madaniyatning ustunligini e'tirof etishda, ularni turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumli mamlakatlar hamkorligining umumiy yo'nalishini hosil qilish va dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy ishlarni tushunishda, madaniy-ma'naviy, ilmiy-texnikaviy, harbiy sohani, aloqani mamlakatlar va xalqlarda rivojlantirishda ko'rinadi.

Umuminsoniy qadriyatlar jahon tsivilizatsiyasining yaxlitligi, uning barcha bosqichlari bir-biri bilan uzviy bog'langanligini ifodasidir. Bu jihatdan qaraganda, umuminsoniy va milliy qadriyatlar bir-biri bilan bevosita bog'liqdir.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan mazmun jihatdan chuqur va keng bo'lib, uni o'z ichiga oladi. Demak, umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishlarining yaxlitligi hamda umumiylikni ifodalaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dunyodagi birorta xalq va millat o'zidan boshqa xalq va millatdan, Umumiy jahon tsivilizatsiyasidan alohida tarixga ega emas. Millatlar boshqa xalqlarning yutuqlaridan foydalanmay turib rivojlana olmaydi. Barcha xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy rivojlanish tarixi bir-biri bilan uzviy bog'lanib, taraqqiy etib kelgan. Zotan, xamma vaqt butun

jahon iqtisodiy va ma'naviy xalqlar, millatlar, elatlar, urug'lar va kabilalar tarixi, taqdirларining o'zaro bog'lanishi, bir-birini boyitishi asosida amalga oshib kelgan.

Umuminsoniy qadriyatlar o'zining mazmuni, mohiyati, keng miqyosda amal qilishi, dunyodagi ko'plab xalqlar, millatlarning o'tmishdagi, hozirgi davrdagi va istiqboldagi taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda ekanligi bilan mintaqaviy va milliy qadriyatlardan tubdan farq qiladi.

Tabiatni muhofaza qilish, ekologik tarbiya va madaniyatni rivojlantirish, insoniyatning sihatsalomatligini ta'minlash, oziq-ovqat, energiya va yonilg'i tanqisligini tugatish, madaniy boyliklarni, tsivilizatsiyani esonomon saqlab qolish, urushlarning boshlanishiga yo'l ko'ymaslik, tinchlikni saqlab qolish — bularning hammasi umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlardir. Umuminsoniy qadriyatlar alohida xalqlar va millatlargagina mansub bo'lmay, bashariyatning mulkidir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan bevosita bog'liqdir. Ularning har ikkalasi bir-biriga ta'sir etadi, biri ikkinchisini to'ldiradi, mazmunan boyitadi.

Umuminsoniy qadriyatlar kishilarning talab va ehtiyojlari asosida aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvurlari, taffakkurlari, kelajak orzu-istaklari, e'tiqodlari, axloq qoidalarini o'zida mujassam etgan, hayotda sayqal topgan ma'naviy boylik bo'lib, tarbiyaning tayanch vositalaridan hisoblanadi. Qolaversa, bunday qadriyatlar tarixiy taraqqiyotda hayotda sinalgan, jamiyat taraqqiyotida ahamiyatli ijtimoiy hodisadir.

Umuminsoniy qadriyat hayot uchun qimmatli, inson qalbida o'chmas iz qoldiradigan, insoniyat ijtimoiy manfaati, ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, ularni ezgulikka yo'llaydigan ma'naviy boylikdir. Umuminsoniy ma'naviy boyliklarga ilm-fan, falsafiy tafakkur yutuqlari, adabiyot, me'morchilik, san'at asarlari, kashfiyot, ixtirolar, ma'naviy madaniyat durdonalari, hurfikrlilik, umuminsoniy axloqiy me'yorlar kiradi.

Umuminsoniy qadriyat o'z ijobiy ahamiyatini yo'qotmaydi. Inson ozodligi, Vatan, inson salomatligi, intellektual va aqliy mulklar, vaqt, har bir shaxsning yashash, bilim olish, keksayganda ijtimoiy himoyalash imkoniyatlari, adolat, mehnatsevarlik, ezgulik, yaxshilik, tinchtotuvlik, do'stlik, halollik, vatanparvarlik, ota-onani hurmat qilish, farzandlar haqida g'amxo'rlik, vijdon, burch baynalminalchlik kabi qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiradi.

Xalqlarning ulug'vorligi milliy mahdudlikda emas, balki umuminsoniy xususiyatlarga ega ekanligida, jahon tsivilizatsiyasiga qo'shadigan hissasidadir. Ayni chog'da boshqa bir narsani ham e'tibordan qochirmaslik kerak. Gap shundaki, milliy manfaatlarni, milliy qadriyatlarni umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarga qarama-qarshi qo'yish, muayyan ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa muammolarni qaysidir millat va elatning manfaatlariga xilof ravishda hal etishga intilish, milliy manfaat bahonasida milliy xudbinlikni, tekinox'rlikni olqishlash millatlararo munosabatlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Bir millatning manfaat va qadriyatlari boshqa millatnikidan ajralmagan holda o'rganilishi kerak. Mamlakatimizda yashovchi har bir millat va elat singari o'zbek xalqning ham o'ziga yarasha ajoyib moddiy, ma'naviy, tarixiy qadriyatlari bor. Ularni oqilona va xolisona o'rganish mustaqillik sharoitidagi iqtisodiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotning shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Toshkent 2017 – 104 b.

2. O'zbek tilining izohli lug'ati. J.1. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 600 b.

3. "Pedagogika" ensiklopediya. I jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.

4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 704 b.

5. Социокультурная адаптация: сущность и функции. Лондаджим Тьерри. Всероссийский журнал научных публикаций. 2011. № 10. С.76-78.

JADIDLAR IJODINING O‘ZBEK ADABIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

G.X.Shodiyeva

BuxDPI Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi kafedrası o‘qituvchisi

D.V.Ergasheva

BuxDPI Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Annotasiya: Maqolada jadidlar faoliyati va ularning barkamol avlod tarbiyasi masalalari yuzasidan qarashlari haqida ma‘lumotlar berilgan. Adabiy-badiiy tafakkurimiz taraqqiyoti tarixida mohiyati, mazmuniga ko‘ra tamoman yangi bo‘lgan XIX asrning oxiri XX asr boshi adabiyotining roli va o‘rni jadid adabiyotining vujudga kelishi va bunga hissa qo‘shgan jadidlar haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Jadid, adabiyot, she‘r, Turkiston, harakat, xalq, asar, millat.

IX-XX asr oralig‘ida Tataristonda paydo bo‘lgan jadidchilik harakati, keyinchalik Buxoro, Xiva va Turkistonga yoyildi. Jadidlar maktab, maorif, adabiyot va san‘at sohalarida islohotchilik ishlarini amalga oshirish bilan birga, xalqning madaniy, ma‘rifiy jihatdan ham ongini o‘stirishga kata e‘tiborlarini qaratdilar. O‘rta Osiyo xonliklarida ruslashtirish siyosatining boshlanishi milliy ziyolilarning asosli ta‘sir lanishlarga sabab bo‘ldi. O‘rta Osiyoda milliy ziyolilarning va mulkdorlar qatlamining bir qismi jadidchilik harakatining ijtimoiy tayanchi bo‘ldilar. XIX-XX asr oralig‘ida Tataristonda paydo bo‘lgan jadidchilik harakati, keyinchalik Buxoro, Xiva va Turkistonga yoyildi. Jadidlar maktab, maorif, adabiyot va san‘at sohalarida islohotchilik ishlarini amalga oshirish bilan birga, xalqning madaniy, ma‘rifiy jihatdan ham ongini o‘stirishga kata e‘tiborlarini qaratdilar. O‘rta Osiyo xonliklarida ruslashtirish siyosatining boshlanishi milliy ziyolilarning asosli ta‘sir lanishlarga sabab bo‘ldi.[1]

Turkiston ma‘rifatparvar jadidlari butun faoliyatini millat ozodligi, ma‘rifati yo‘lidagi kurashlar uchun sarf etdi. Ushbu faoliyatni ma‘lum dastur asosida ikki yo‘nalishda madaniy taraqqiyotni, ya‘ni maktab, teatr, matbuot, adabiyot va san‘atni rivojlantirish va bu boradagi faoliyatni amaliyot bilan bog‘liq holda olib borish orqali amalga oshirdilar. Jadidchilikning yirik namoyandasi Abdulla Avloniyning “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oinai hayoti til va adabiyotidir”, degan so‘zlari ilm ahli orasida ma‘lum va mashhurdir. O‘zbek adabiy tili va adabiyoti hamda san‘atining shakllanishi hamda rivoji tarixida jadidlar o‘ziga xos o‘chmas iz qoldirganlar. Bugun ma‘lumki, o‘zbek adabiyoti tarixining muayyan davrini jadid adabiyoti tashkil etadi. B.Qosimovning so‘zlari bilan aytganda, “Jadid adabiyoti garchi badiiyatiga ko‘ra u qadar yuksak bo‘lmasa-da, ilk o‘zbek adabiyoti sifatida maydonga keldi va o‘z davrida xalqning ma‘naviy-ma‘rifiy hamda madaniy saviyasini ko‘tarishda muhim rol o‘ynadi”. Jadidlar harakatning dastlabki yillaridayoq murabbiylik faoliyati bilan birga yangi usul maktablari uchun darslik yozish orqali ham o‘z zamonasining ajoyib ijodkorlari sifatida tanildilar, chunki darslik yozishga qo‘l urgan har bir kishi muayyan iqtidor va ilmiy salohiyatga ega bo‘lishi kerak. Shunday qobiliyatga ega jadidlarning ko‘pchiligi yangi turdagi maktablar uchun zarur darslik va qo‘llanmalar yozib, ilmiy va badiiy ijodda o‘zlarini namoyon eta oldilar. Shu bilan birga, Turkiston xalqining ma‘rifiy taraqqiyotida yozuvchi, shoir, dramaturg sifatida qalam tebratib, ijodlarida o‘z davrining nafasini berishga intilganlar. Tabiatan berilgan iqtidor, ilmga bo‘lgan chanqoqlik va mashaqqatli mehnat tufayli jadid ijodkorlar turli janrdagi asarlar yaratib, o‘zlaridan bebaho meros qoldiradilar.

Turkistonda milliy ziyolilarning va mulkdorlar qatlamining bir qismi jadidchilik harakatining ijtimoiy tayanchi bo‘ldilar. XIX-XX asr oralig‘ida Tataristonda paydo bo‘lgan jadidchilik harakati, keyinchalik Buxoro, Xiva va Turkistonga yoyildi. Jadidlar maktab, maorif, adabiyot va san‘at sohalarida islohotchilik ishlarini amalga oshirish bilan birga, xalqning madaniy, ma‘rifiy jihatdan ham ongini o‘stirishga kata e‘tiborlarini qaratdilar. O‘rta Osiyo xonliklarida ruslashtirish siyosatining boshlanishi milliy ziyolilarning asosli ta‘sir lanishlarga sabab bo‘ldi. O‘rta Osiyoda milliy ziyolilarning va mulkdorlar qatlamining bir qismi jadidchilik harakatining ijtimoiy tayanchi bo‘ldilar.

Jadidchilik harakati, shu vaqtgacha Islom dunyosida sira ham ko‘rinmagan ilg‘or va tezkor o‘qitish “Savtiya” (tovush) usuliga asoslangan jadid maktablari tashkil topishidan boshlandi. Bu maktablarda bolalar bir yilda savod chiqarib, mukammal o‘qish va yozishni o‘zlashtiradi. Buning uchun esa qadim an‘anaviy musulmon maktablarida 5-6 yil o‘qish kerak bo‘lar edi. Aytish mumkinki, “Savtiya” usulidagi jadid maktabi Vatanimiz tarixidagi buyuk kashfiyotlar silsilasini boyitdi. Jadid maktabida diniy va dunyoviy ta‘lim-tarbiya hamda ilm o‘zaro uyg‘unlashtirildi. Bolalar qulay partalarda o‘tirib, xarita va rasmlar yordamida tez savod chiqardi va diniy - dunyoviy ilmlarni o‘rgandi. Jadid maktablarida qur‘onikarim, matematika, geografiya, ona tili, rus, arab tillari, ashula va hatto jismoniy tarbiya o‘qitila boshlandi[2].

XX-asrning boshlarida jadidlar tomonidan yaratilgan o‘rta asrlarga xos sxolastikmiskinlik kayfiyatini beruvchi beruvchi ayrim asarlar o‘rniga shijoat, ko‘tarinkilik-optimistik ruhdagi asarlar o‘sha davrda shakllanib kelayotgan jadid adabiyotining asosini tashkil etadi. Davrning shiddatli voqealari, Turkiston zaminida hukm surgan mustamlaka zulmidan ozor chekayotgan o‘zbek xalqi hayotiga loqayd munosabatda bo‘la olmagan ijodkor jadidlar qalblarida kechayotgan tug‘yonlarni qog‘ozga tushirishgaintildilar va o‘z ijodlari orqali xalqni asriy uyqudan uyg‘otishga, xalqning oldingi safida turib ularni ma‘rifatning nurli yo‘li sari yetaklashga kirishdilar. Bugun jadid adabiyoti namoyandalari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Is‘xoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon... ularning safi bir necha o‘nlarni tashkil etadi. Xalqni ilm-ma‘rifatga chorlovchi, dunyo taraqqiyoti yangiliklarini targ‘ib etish, insonparvarlik, vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, erk va ozodlikni madh etuvchi asarlar otashqalb va beqiyos ijod sohiblari bo‘lmish jadid ma‘rifatparvarlari qalamiga mansubdir. Agar jadid ijodkorlar yaratgan asarlar janriga nazar solsak, ular adabiyotning deyarli barcha janrlarida ijod qilganliklarini ko‘ramiz. Ular orasida nazmda qalam tebratgan shoirlarni ham, nasr yo‘lida yuksak saviyali asarlar yaratgan yozuvchilarni ham, o‘zbek teatri tamal toshini qo‘yib, o‘zbek teatr san‘atining rivojiga o‘z salmoqli hissasini qo‘shgan dramaturglar-u rejissyorlarnii ham uchratish mumkin. O‘zbek adabiyoti tarixida roman janrining asoschisi sifatida Abdulla Qodiriy tanilgan bo‘lsa, drama sohasida ilk qalam tebratgan Mahmudxo‘ja Behbudiy bo‘ldi. Ilk badiiy va ilmiy-publitsistik asarlar ham aynan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Is‘xoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy kabi jadidlar tomonidan o‘zbek adabiyotiga kirib keldi. Cho‘lpon, Botu, Elbek, va boshqa shu kabi zabardast shoirlar tomonidan yaratilgan she‘rla bugunga qadar ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Bir so‘z bilan aytganda, jadidlar o‘zbek adabiyotining shakllanishi va taraqqiyotida, shuningdek, ilm-fanning rivojida o‘chmas iz qoldirgan ijodkor, ma‘rifatparvar sifatida tarixda qoldilar.

Jadidchilik harakati, shu vaqtgacha Islom dunyosida sira ham ko‘rinmagan ilg‘or va tezkor o‘qitish “Savtiya” (tovush) usuliga asoslangan jadid maktablari tashkil topishidan boshlandi. Bu maktablarda bolalar bir yilda savod chiqarib, mukammal o‘qish va yozishni o‘zlashtiradi. Buning uchun esa qadim an‘anaviy musulmon maktablarida 5-6 yil o‘qish kerak bo‘lar edi. Aytish mumkinki, “Savtiya” usulidagi jadid maktabi Vatanimiz tarixidagi buyuk kashfiyotlar silsilasini boyitdi. Jadid maktabida diniy va dunyoviy ta‘lim-tarbiya hamda ilm o‘zaro uyg‘unlashtirildi. Bolalar qulay partalarda o‘tirib, xarita va rasmlar yordamida tez savod chiqardi va diniy - dunyoviy ilmlarni o‘rgandi. Jadid maktablarida qur‘onikarim, matematika, geografiya, ona tili, rus, arab tillari, ashula va hatto jismoniy tarbiya o‘qitila boshlandi[2].

Jadid maktablari to‘rt (boshlang‘ich) va yetti yillik edi. Masalan Munavvarqori Abdurashidxonovning yetti yillik maktabini bitirgan yoshlar dunyoviy ilmlarni, rus tilini yaxshi o‘zlashtirgan holda jadid maktabida o‘qituvchi, maschitlarda imom bo‘lish, madrasa va hatto, xorijdagi dunyoviy oliy o‘quv yurtlarida o‘qish, savdo va boshqa korxonalarda kotib bo‘lib ishlash malakasiga ega bo‘lganlar. Bunday yetti yillik maktablar Toshkentdan tashqari, Qo‘qon, Samarqand kabi yirik shaharlarda ham ochiladi. Maktablarasosan 1 -4 sinfdan iborat boshlang‘ich maktablar bo‘lgan. 1913/14 o‘quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bu tizimdagi maktablar namuna maktablari deb atalib, ularning 1 -bosqichi tahziri (boshlang‘ich) sinflar, 2 -bosqichi rushdiy (yuqori) sinflar deyilgan. Xususan,

M.Abdurashidxonovning namuna maktabi, A.Shukuriyning Samarqanddagi va A.Ibodievning Qo'qondagi maktabida rushdiy (yuqori) sinflar (5 -6 sinf) ham ish boshlagan.. Jadidlar shaxsiy va ularning o'zlari tashkil etgan xayriya jamiyatlari ham jadid maktablarini mablag' bilan ta'minlab turgan. Jadid maktablarining ochilishiga rus amaldorlari, musulmon mutaassiblari qarshilik qiladilar. Jadidlar kalta matonat va fidoyilik bilan eski maktablarga tegmay namuna sifatida jadid maktablarini tashkil etib, omma orasida katta obro' qozondilar. [3]Jadid maktablari qat'iy nizom va dastur va darsliklarga asoslandi. Tarixda birinchi bo'lib, jadidlar o'quvchilarga kundalik, chorak va yillik baholar qo'yishni joriy etdilar. Maktab ochgan jadidlar dastur, qo'llanma va darsliklarni ham o'zlari yaratdilar.Jadid maktablarining ochilishiga rus amaldorlari, musulmon mutaassiblari qarshilik qiladilar. Jadidlar katta matonat va fidoyilik bilan eski maktablarga tegmaynamuna sifatida jadid maktablarini tashkil etib, omma orasida katta obro' qozondilar. Jadid maktablari qat'iy nizom va dastur va darsliklarga asoslandi. Tarixda birinchi bo'lib, jadidlar o'quvchilarga kundalik, chorak va yillik baholar qo'yishni joriy etdilar. O'quvchilar sinfdan-sinfga o'tish va bitirish uchun jamoatchilik oldida ochiq chorak, yillik va bitiruv imtihonlarini topshirgan.Maktab ochgan jadidlar dastur, qo'llanma va darsliklarni ham o'zlari yaratdilar. Saidrasul Saidazizovning "Ustodi avval", Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adibi avval", "Adibi soniy", "Tajvid" (Qur'onni qiroat bilan o'qish usuliga oid qo'llanma), "Havoyiji diniya" (Shariat qonunlari to'plami), "Yor yuzi", " Usuli hisob", "Tarixi anbiyo", "Tarixi islom", Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim" va "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yohud ahloq", Mahmudxo'ja Behbudiyning "Qisqacha umumiy geografiya", "Bolalar maktubi", "Islomning qisqacha tarixi", "Amaliyoti islom", "Aholi geografiyasiga kirish", "Rossiyaning qisqacha geografiyasi" va boshqalar shular jumlasidandir.[4] Jadid maktablari ochilishi bilan ba'zi joylarda qadim va maktablari bo'shab qoldilar. Natijada qadim va jadid maktabdorlari o'rtasida jiddiy qaramaqarshiliklar paydo bo'ldi. Bunga mutaassib qozi mullava ulamolar ham qo'shildilar.Jadid maktablarining jami soni va ular qaerlarda ochilib faoliyat yuritganligi haqida hozircha to'la ma'lumot yo'q.Jadid maktablari M.Behbudiyning yozishicha, 15-20 yil ichida jami Kavkaz mamlakatlari, Eron, Hind, Misr, Hijoz va boshqa joylarida ham joriy bo'ldilar. Turkistonda jadidlik harakatining oqibatlari o'ta fojiali bo'ldi. Jadidlarning o'zi qatag'onga uchradi va yo'q qilindi. jadidchilik harakatiga bolsheviklar tomonidan barham berildi. Chunki jamiyatni mustamlakachilik asoratidan olib chiqishvamilliy-davlat qurilishi konsepsiyasi ilgari surilgan bo'lib, bu sovet tuzumiga va uning qulashiga tahdid solayotgan edi.O'zining fojiali yakuniga qaramasdan, jadidlar tomonidan asos solingan milliy ozodlik harakatlari, milliy o'zlikni anglashning o'sishiga ko'mak berdi.milliy ozodlik g'oyalarining shakllanishi va rivojlanishida katta rol o'ynadi. Jadidlarning ta'limoti haqiqiy edi, barcha ilg'or va hur fikrlovchi yoshlarni o'ziga jalb etdi.Jadidlarning shak-shubhasiz tarixiy xizmati, ularning ma'rifatparvarlikdan boshlab, jamiyatni isloh qilishga urinishlari, taraqqiyot uchun eng muhim deb hisobladilar. Ularning shiori milliy doirada chegaralanib qolmaslik va shu bilan birga buyuk vatanparvarlik o'z mamlakatiga muhabbat qo'yish, mustamlakachilik asoratidan qutilish istagi ularni oqilona harakatlarga undadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak jadidlar yaratgan asarlar xoh u darslik bo'lsin, xoh u badiiy yoki ilmiy-publitsistik asar bo'lsin, uning tub mohiyati, g'oyasi an'anaviy ishq-muhabbat masalasidan tortib, milliy til, o'zbek xalqining turmush tarzi bilan bog'liq oddiy, eng kichik masalalarni ham o'zida aks ettirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov A. Jadid adabiyotida milliy ozodlik va istiqlol g'oyalari // O'TA,1996, 4-son
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T., «Xalq merosi» nashriyoti,2004.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy. Ikki maqola: Jaholat dardlaridan & Teyotur nima? "Xurshid Davron kutubxonasi" (kh-davron.uz)
4. L. Tashmuxammedova. "Adabiyot tarixi va nazariyasi".Adabiy meros va zamonaviylik. Toshkent:-Adabiyot va san'at nashriyoti.1983 yil.

XVI-XVIII ASRLARDA BUXORO XONLIGIDA HUNARMANDCHILIGIDAGI MUHIM TARMOQLAR

A.S.Sayitov

NDU. Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada XVI-XVIII asrlarda Markaziy Osiyo ijtimoiy- ma'naviy muhiti va Buxorodagi ta'lim - tarbiya mazmuni hamda kasb-hunar haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Movarounnahr, ta'lim –tarbiya, madaniyat, hayot, kasb-kor, hunarmand, naqqosh-xattotlari, ta'rif.

Annotation: The article presents thoughts about the socio-spiritual environment of Central Asia in the XVI-XVIII centuries, as well as the content of education and training in Bukhara.

Keyword: Movarounnahr, education - upbringing, culture, life, profession, craftsman, painter, calligrapher, description

XVI-XVIII asrlarda Markaziy Osiyo, xususan Buxoro xonligidagi ijtimoiy-ma'naviy hayot, rivojlanish va taraqqiyot mohiyatini shaxs tarbiyasi, uning har tomonlama barkamolligi g'oyasiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Aynan ushbu davrda yaratilgan bebaho ma'naviy meros mazmuni, ilmiy tafakkur ne'matlari jamlangan asarlar qismlari sinchiklab o'rganilib, qiyosiy tahlil etilganda ular matnlarida o'z davrining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qarashlari o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin.

Xususiy ta'limning asosiy mazmuni va maqsadini har bir yoshning pok, haqi halol, qo'li to'g'ri, nekin, mehnatsevar va hunarli bo'lib voyaga etishi masalasi tashkil etadi. Buxoro xonligidagi ta'lim tizimining asosiy bo'g'inini tashkil etadigan xususiy ta'lim jarayonida asosan hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik yo'nalishidagi ta'lim turlari o'rgatilgan.

Chorvachilik bilan shug'ullanadigan qavmlarda shu sohaga doir hunar va malakalar o'rgatilgan. O'g'il bolalar mollarni boqish, urchitish, tuya,otlarni parvarishlab, ularni boshqara olish, uzoq yaylovlarga suruv haydash,chorvani darranda hayvonlar, qaroqchilardan muhofaza qilish, shuningdek, Vatan himoyasi maqsadid harbiy hunarni ham bilishlari, qiz bolalarga esa yungdan ip yigirish, urchuq va charxda ishlay bilish, har xil liboslar to'qish, tikishni bilishlari majburiy bo'lgan.

Ayni paytda bu dalillar ajdodlarimiz hunarmandchilikning barcha turlarini rivojlantirishga e'tibor berganliklarini ko'rsatadi.

Hunarmandchilik yo'nalishidagi xususiy ta'lim natijasida qurolsozlik, degrezlik, zargarlik, po'stindo'zlik, ranli metall va toshlarga ishlov berishdek ancha murakkab hunar turlari o'rgatilganligi diqqatga sazovordir.

XVI-asr Buxoro xonligida asosiy hunarmandchilik markazlari sifatida shaharlar katta ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da,ko'pgina yirik qishloqlarda ham hunarmandchilikning kundalik ehtiyoj uchun zarur sohalari rivojlangan edi.

Ilgarigi davrlarda bo'lganidek, xonlikning hunarmandchiligi sohasida **to'qimachilik** uning asosiy tarmog'i hisoblangan. Ushbu tarmoqning rivojlanishiga asosiy sabab, birinchidan soha uchun mahalliy xom ashyo manbalari – paxta, jun, ipak etarli darajada bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, ichki va tashqi bozorda, kundalik hayotda to'qimachilik mahsulotlariga talab katta edi.

Xonlik hunarmandchiligidagi muhim tarmoqlardan yana biri bu – **kulolchilik** edi. Xo'jlik tarqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan kulolchilik xonlikning deyarli barcha hududlarida rivojlangan edi. Kulolchilik eng taraqqiy etgan markazlar Buxoro, Samarqand, Qarshi, SHahrisab, Urgut, Dehnov, G'ijduvon kabilar bo'lib, ularning mahsulotlariga ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan. Xonlik kulolchiligida O'rta Osiyoning ko'pgina kulolchilik maktablariga xos bo'lgan manzaralar(turli gullar va o'simliklar tasviri), turli hayvonlar,qushlar, hashoratlar yoki ular tanasining bir qismini shartli ravishda tasvirlash kulol ustalari tomonidan keng qo'llanilgan.

Xonlikning asosan yirik shaharlarida **misgarlik** ham rivojlangan. Mis xos ashyosi asosan Rossiyadan keltirilgan bo'lib undan chilim idishlari, barkash, lagan, ko'zacha, tog'oracha kabi ko'plab idishlar yasalgan hamda ular turli naqshlar bilan mohirona bezatilgan.

Undan tashqari xonlikda hunarmandchilikning boshqa ko'pgina turlari ham rivojlangan. Xususan Buxoro, Qarshi va Shahrisabz shaharlaridagi zargar ustalar tomonidan tayyorlangan zargarlik buyumlari, qimmatbaho toshlar, metal va turli xil shishalardan yasalgan taqinchoqlar xonlik va undan tashqari hududlarda ham mashhur bo'lgan.

Ko'ncilik ham yaxshi rivojlangan tarmoq hisoblangan. Charmgar ustalar tomonidan yaxshi ishlov berilgan terilardan turli xil oyoq kiyimlari, bosh kiyimlar, po'stin va nim po'stin, turli xil meshlar (sut,suv, qimiz va b. uchun) tayyorlangan.

Xonlikning deyarli barcha hududlarida **yog'och o'ymakorligi** yaxshi rivojlangan. Shaharlarda mohir duradgorlar ko'p bo'lgan. Xonlikning shahar va qishloqlarida tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari ichki bozor ehtiyojlarini ta'minlabgina qolmasdan ko'p hollarda tashqi bozorga ham chiqarilgan.

Xullas, **xususiy ta'lim** - ta'lim tizimining uzviy va ajralmas bo'g'ini sifatida har bir yoshning mehnat tarbiyasi asosida jamiyatning to'laonli a'zosiga aylanishi, yuksak axloq sohibi bo'lib voyaga etishi yo'lida muhim o'rinni egallab, ta'lim tizimining keyingi bosqichlari hisoblangan boshlang'ich va yuqori ta'lim uchun poydevor vazifasini bajaradi.

XVI-XVIII asrlarda **boshlang'ich ta'lim** asosan madrasa tipidagi ta'lim muassasalarida olib borilgan.

Boshlang'ich ta'limda, **bilim sohalari** sifatida yozuv va o'qishni o'rganish, hisob va yulduzlar ilmini o'rganish (arifmetika, falakiyot), kamondan o'q otish, chavandozlik (harbiy bilim), diniy ahkomlarni bajara olish, qiroatni o'rganish majburiy hisoblangan.

Foydalanilgan dabitotlar

1. Muqimov Z. SHayboniylar va tasavvuf shayxlari / XVXVI asr tasavvuf namoyandalari ilmiy merosining ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati. Samarqand, 2011, 16-18-betlar.

2. Ahmedov B.A. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari (qadimgi va o'rta asrlar) T.: O'qituvchi. 1991., -212-6.

3. Homidiy, Hamidjon. Ko'hna Sharq darg'alari: Badiiy-ilmiy lavhalar.— T.:«Sharq», 2004.-352 b.

1920-1938-YILLARDA BUXORODA TA'LIM -TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTI

Safarova Gulzoda Ismoilovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrası o'qituvchisi

safarovaqulzoda74@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola 1920-1938 yillar oralig'ida Buxoroda ta'lim-tarbiya tizimining rivojlanishi, pedagogik fikrlarning shakllanishi va taraqqiyotiga bag'ishlangan. Maqolada Buxoro shahrining an'anaviy maktablari va madrasalarining holati, jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik g'oyalari, shuningdek, sovet hokimiyati davrida ta'lim tizimida yuzaga kelgan o'zgarishlar tahlil qilinadi. Jadid maktablari va yangi usuldagi ta'lim muassasalari milliy ruhni uyg'otishda va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etishda muhim rol o'ynaganligi ko'rsatib o'tiladi. Maqolada shuningdek, sovet hokimiyatining totalitar siyosati ostida an'anaviy maktablar va madrasalarning qisqarishi, ruslashtirish siyosati hamda yangi iqtisodiy siyosat davrida ta'lim tizimining bozor munosabatlariga moslashuvi haqida ma'lumotlar berilgan. Bu davrda Buxoroda ta'lim-tarbiya jarayonining shakli, mazmuni va pedagogik fikrlarning o'ziga xos jihatlari yoritilgan

Kalit so'zlar: Buxoro ta'limi, ta'lim-tarbiya, pedagogik fikrlar, jadid maktablari, madrasalar, ma'rifatparvarlik, sovet davri ta'limi, ta'lim islohotlari, Milliy pedagogika, ta'lim

tizimi rivojlanishi, an'anaviy va yangi ta'lim, ta'limda zamonaviy yondashuvlar, sovet hokimiyati, ta'lim va tarbiya metodlari, buxoro madaniyati, ta'limda siyosiy ta'sir, ta'lim muassasalari, ta'lim tarixiy tahlili

РАЗВИТИЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИДЕЙ В БУХАРЕ В 1920-1938 ГОДАХ

Аннотация: Статья посвящена развитию системы образования в Бухаре в 1920-1938 годах, становлению и развитию педагогических идей. В статье анализируется состояние традиционных школ и медресе города Бухары, педагогические идеи просветителей-джадидов, а также изменения, произошедшие в системе образования в советский период. Показано, что джадидские школы и учебные заведения нового образца сыграли важную роль в пробуждении национального духа и внедрении современных педагогических подходов. В статье также приводятся сведения о сокращении традиционных школ и медресе в условиях тоталитарной политики советского режима, политики русификации, адаптации системы образования к рыночным отношениям в период новой экономической политики. Освещены форма, содержание и особенности образовательного процесса в Бухаре в этот период.

Ключевые слова: бухарское образование, образование, педагогические идеи, новые школы, медресе, просвещение, советское образование, образовательные реформы, национальная педагогика, развитие системы образования, традиционное и новое образование, современные подходы к образованию, советская власть, методы обучения и воспитания, бухарская культура, политическое влияние в образовании, образовательные учреждения, исторический анализ образования

THE DEVELOPMENT OF EDUCATION AND PEDAGOGICAL IDEAS IN BUKHARA IN 1920-1938

Annotation: This article is devoted to the development of the education system in Bukhara in 1920-1938, the formation and development of pedagogical ideas. The article analyzes the state of traditional schools and madrasahs of the city of Bukhara, the pedagogical ideas of the Jadid enlighteners, as well as the changes that occurred in the education system during the Soviet period. It is shown that Jadid schools and new-style educational institutions played an important role in awakening the national spirit and introducing modern pedagogical approaches. The article also provides information about the reduction of traditional schools and madrasahs under the totalitarian policy of the Soviet regime, the policy of Russification, and the adaptation of the education system to market relations during the period of the New Economic Policy. The form, content and specific aspects of the educational process in Bukhara during this period are highlighted

Keywords: bukhara education, education, pedagogical ideas, new schools, madrasahs, enlightenment, soviet education, educational reforms, national pedagogy, development of the education system, traditional and new education, modern approaches to education, soviet power, methods of education and upbringing, bukhara culture, political influence in education, educational institutions, historical analysis of education

XX asr boshlarida Buxoro amirligi hududida ta'lim-tarbiya tizimi an'anaviy madrasalar va diniy maktablarga asoslangan edi. Biroq, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar, xususan, 1920-yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil etilishi, ta'lim sohasida tub islohotlarni talab qildi. Bu davrda ta'lim-tarbiya jarayonida nafaqat yangi pedagogik yondashuvlar paydo bo'ldi, balki milliy madaniyat va an'analarni saqlash masalalari ham dolzarb bo'lib qoldi.

Maqolaning asosiy maqsadi — 1920-1938 yillar oralig'ida Buxoroda ta'lim-tarbiya tizimining rivojlanishi, pedagogik fikrlarning shakllanishi va o'zgarishlarini tahlil qilishdir. Ushbu davrda yuzaga kelgan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, jadidchilik harakati va sovet davri ta'lim siyosatining ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'rtasidagi muvozanat masalalari ham ko'rib chiqiladi.

1920-yillargacha Buxoroda ta'lim asosan madrasalarda olib borilgan bo'lib, bu maktablarda diniy ta'lim ustuvor edi. Madrasalarda arab tili, Qur'on, hadis va boshqa diniy fanlar o'qitilgan. Ushbu tizim milliy va diniy qadriyatlarni saqlashda muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, zamonaviy fanlar va pedagogik yondashuvlar yetarlicha rivojlanmagan edi. Madrasalar ta'limidagi bu cheklovlar jamiyatning ilmiy va madaniy taraqqiyotiga to'sqinlik qilgan. XX asr boshlarida Buxoroda jadidchilik harakati kuchayib, ta'lim tizimida islohotlar zarurligi yuzaga keldi. Jadid maktablari an'anaviy madrasalarga qarshi turib, zamonaviy fanlar, tillar, tarix, geografiya va tabiiy fanlarni o'rgatishni maqsad qilgan edi. Jadidlar pedagogik jarayonda bolalarning aqliy rivojlanishiga, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga katta e'tibor qaratdilar. Bu maktablarda o'quvchilar uchun o'yinlar, amaliy mashg'ulotlar va yangi metodlar joriy etildi. Shu tariqa, jadidchilik harakati milliy ma'naviyatni saqlab qolgan holda, ta'limda zamonaviylikni targ'ib qildi.

1920-yillardan boshlab Buxoroda sovet hokimiyati o'rnatilishi bilan ta'lim tizimida yangi siyosiy va ijtimoiy yo'nalishlar paydo bo'ldi. Sovet hukumati diniy ta'limni cheklab, rus tilini va marksizm-leninizm asoslarini o'rgatishni yo'lga qo'ydi. Ta'limda kollektivizm, ilmiy asoslangan pedagogika, jismoniy tarbiya va texnik fanlarga alohida e'tibor qaratildi. Bu davrda ta'lim muassasalari ko'payib, maktablar tarmog'i kengaydi. Shu bilan birga, ta'limda siyosiy ideologiya kuchli ta'sir ko'rsatdi, bu esa an'anaviy madaniyat va diniy qadriyatlarga salbiy ta'sir o'tkazdi.

1920-1938 yillarda Buxoroda pedagogik fikrlar ikki asosiy yo'nalishda rivojlandi: milliy an'analarni saqlash va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish. Pedagoglar milliy madaniyat va tarixga hurmat bilan qarashni davom ettirishga intildilar, ammo sovet siyosati doirasida bu fikrlar cheklangan edi. Shu bilan birga, ta'limda ilmiy asoslangan metodlar, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, amaliy mashg'ulotlar va texnik bilimlar kengaytirildi. Bu pedagogik yondashuvlar yosh avlodni yangi iqtisodiy va siyosiy tizimga moslashishga tayyorlashga xizmat qildi.

Ta'lim tizimida yuzaga kelgan o'zgarishlar bilan birga, ko'plab muammolar ham paydo bo'ldi. An'anaviy madrasalar va diniy ta'limning qisqarishi, sovet siyosatining ta'limga siyosiy ta'siri, milliy qadriyatlarning cheklanishi kabi omillar ta'lim-tarbiya jarayonini murakkablashtirdi. Shunga qaramay, bu davrda Buxoroda ta'lim tizimi yangi bosqichga ko'tarilib, zamonaviy pedagogik metodlar joriy etildi, maktablar soni oshdi va yosh avlodning bilim darajasi yaxshilandi.

An'anaviy madrasalar ta'limidagi diniy yo'nalish va uning jamiyatdagi o'rni batafsil ko'rsatilgan. Bu tizim milliy va diniy qadriyatlarni saqlashda muhim bo'lsa-da, zamonaviy fanlar va pedagogik yondashuvlarning yetishmasligi sababli rivojlanishda cheklovlarga duch kelgan. Ushbu qism ta'lim tarixidagi muhim davrni ochib beradi va o'quvchiga ta'limning dastlabki holatini tushunishga yordam beradi.

Jadidchilik harakatining ta'limda islohotlarni ilgari surishi va zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etishga bo'lgan intilishi maqolaning markaziy mavzularidan biri sifatida yoritilgan. Jadidlar milliy ma'naviyatni saqlab qolgan holda, ta'limda innovatsiyalarni kiritishga harakat qilganlari ta'kidlangan. Bu qism pedagogik fikrlarning taraqqiyotida muhim burilish nuqtasi ekanligini ko'rsatadi.

Sovet hokimiyati o'rnatilishi bilan ta'lim tizimida yuzaga kelgan siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar tahlil qilingan. Sovet siyosatining diniy ta'limni cheklashi, marksizm-leninizm asoslarini o'rgatish va rus tilini keng joriy etishi ta'limning kontseptsiyasini tubdan o'zgartirgan. Bu jarayon ta'lim-tarbiya tizimida yangi pedagogik yondashuvlarning paydo bo'lishiga olib kelgan, biroq milliy qadriyatlar va an'anaviy ta'limga salbiy ta'sir ko'rsatganligi ham ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu davrda Buxoroda ta'lim-tarbiya tizimi tub o'zgarishlarga uchradi. An'anaviy diniy ta'lim tizimidan zamonaviy, dunyoviy ta'lim tizimiga o'tish jarayoni boshlandi. Jadidchilik harakati ta'limda yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish va milliy ma'naviyatni saqlashga intildi. Sovet hokimiyati davrida ta'lim tizimi siyosiy ideologiya ta'sirida o'zgarib, rus tilida va

marksistik asoslarda ta'lim berish yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, ta'lim sohasida maktablar soni oshdi, yangi o'quv dasturlari ishlab chiqildi va pedagogik fikrlar rivojlandi. Buxoroda ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni saqlash va zamonaviy bilimlarni joriy etish o'rtasida murakkab muvozanat izlandi. Bu davrda yuzaga kelgan muammolar va ijobiy o'zgarishlar ta'limning yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qildi. Natijada, Buxoro ta'lim tizimi yangi siyosiy va ijtimoiy sharoitlarga moslashib, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan ta'minlashda muhim qadamlar qo'ydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-aprelda 187-son Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi // Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrda PF-5538-son "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

4. Аҳмадов Олимжон Шодмонович "Бухоро амирлигида бошланғич таълим ва тарбия мазмуни (XIX аср охири – XX аср бошларида)"

5. Buxoro davlat universiteti "Jahon tarixi va tarixshunoslik" kafedrasi o'qituvchilari "XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro" Buxoro-2010

6. Abdurahmonov A., Islomov U. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Universitet, 2000.

7. Salohiddinov S. Jadidchilik harakati va uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.

8. Yo'ldoshev M. Buxoro jadidlari va ularning islohotchilik faoliyati. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015.

9. Ziyo.uz – Jadidlar ta'lim tizimidagi islohotlari // www.ziynet.uz

YOSH AVLOD TA'LIM-TARBIYASIDA JADID MA'RIFATPARVARLARI PEDAGOGIK MEROSINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY DIDAKTIK AHAMIYATI

*Yadgarov Nodir Djalolovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshlarida faoliyat yuritgan jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari tahlil qilinib, ularning yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga doir ilg'or g'oyalari zamonaviy didaktika bilan uyg'unlikda yoritilgan. Jadid pedagogik merosi tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy va nazariy-metodik kontekstda o'rganilib, bugungi ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi. Fitrat, Avloniy, Behbudiy kabi jadidlarning pedagogik yondashuvlari shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, milliy o'zlikni anglash, dunyoviy bilimlar, axloqiy tarbiya tamoyillari orqali tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, pedagogik meros, zamonaviy didaktika, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, axloqiy tarbiya, Fitrat, Avloniy, Behbudiy.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ОСНОВА И СОВРЕМЕННОЕ ДИДАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ В ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические взгляды просветителей-джадидов, действовавших в начале XX века, и раскрываются их передовые идеи по обучению и воспитанию молодого поколения в контексте современной дидактики. Педагогическое наследие джадидов рассматривается в историко-культурном, социально-политическом и теоретико-методологическом аспектах, а также обосновывается это

актуальность и преемственность в современной системе образования. Педагогические подходы таких деятелей, как Фитрат, Авлоний и Бехбудий, анализируются с точки зрения личностно-ориентированного обучения, национального самосознания, светского образования и нравственного воспитания.

Ключевые слова: джадидизм, просвещение, педагогическое наследие, современная дидактика, личностно-ориентированный подход, нравственное воспитание, Фитрат, Авлоний, Бехбудий.

THE SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS AND MODERN DIDACTIC SIGNIFICANCE OF THE PEDAGOGICAL HERITAGE OF THE MODERN ENLIGHTENERS IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION

Abstract. This article analyzes the pedagogical views of Jadid enlighteners active in the early XXth century and highlights their progressive ideas regarding the education and upbringing of the younger generation in the context of modern didactics. The pedagogical legacy of the Jadids is studied through historical-cultural, socio-political, and theoretical-methodological lenses, and its relevance and continuity within today's education system are substantiated. The educational approaches of figures such as Fitrat, Avloni, and Behbudi are examined in relation to learner-centered teaching, national identity, secular knowledge, and moral upbringing.

Keywords: Jadidism, enlightenment, pedagogical heritage, modern didactics, learner-centered approach, moral education, Fitrat, Avloniy, Behbudi

O'zbekiston tarixida jadidchilik harakati XX asr boshlarida xalq ma'naviy uyg'onishining, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning muhim omillaridan biri bo'lgan. Ushbu harakat vakillari zamonaviy ta'lim tizimining poydevorini yaratishga, milliy uyg'onish g'oyalarini tarannum etishga xizmat qilgan. Ayniqsa, yosh avlodning tarbiyasi, milliy o'zligining shakllanishi va ilmga bo'lgan munosabatini yangilashga intilgan jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari bugungi kunda o'z dolzarbligini yo'qotmagan...

Jadid pedagogik merosining tarixiy va nazariy manbalari.

Jadidchilik harakati musulmon Sharqida Yevropa madaniyati va texnologiyasi bilan tanishish, mavjud ta'lim tizimini isloh qilish ehtiyoji natijasida vujudga kelgan. O'zbekistonda bu harakatning yetakchi namoyandalari – Mahmudxo'ja Behbudi, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi ziyolilar xalqni savodli qilish, ilm-fan, madaniyat, milliy o'zlik asosida taraqqiy ettirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edilar.

Jadidlar jamiyatning rivojlanishi uchun eng avvalo ta'lim tizimini isloh qilish zarurligini anglab yetganlar. Ular ta'limning faqat diniy ko'rinishda bo'lishi millatni jaholatda qoldirishi, dunyoviy bilimlarning yo'qligi esa milliy taraqqiyotning asosiy to'siqlaridan biri ekanligini tushunganlar. Shuning uchun jadidlar ta'limni yangilash, uni zamonaviylashtirish, bolalarga sifatli va keng qamrovli bilim beradigan tizimni yaratishga e'tibor qaratdilar. Avvalo, ular yangi usuldagi maktablarni – "usuli jadid" maktablarini tashkil qila boshladilar. Bu maktablar avvalgi eski maktab va madrasalardan tubdan farq qilardi. Unda faqat diniy ilmlar emas, balki matematika, geografiya, tarix, tabiiy fanlar kabi zamonaviy fanlar ham o'qitila boshlandi. Bu ta'lim tizimining bosh maqsadi yoshlarni hayot uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash edi. Bundan tashqari, jadidlar dars jarayonida muhokama, mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuv kabi usullarni qo'llab, o'quvchilarning faolligini oshirishga harakat qildilar. Shuningdek, jadidlarning o'quv adabiyotlar yaratishga bo'lgan yondashuvlari ham o'zgacha edi. Mahmudxo'ja Behbudi, Abdulla Avloniy, Ismoil Gasprinskiy kabi jadidlar milliy til va madaniyatni ta'limning asosiy qismiga aylantirishni maqsad qilganlar. Masalan, Behbudi tomonidan yozilgan darsliklar oddiy va sodda tilda yozilib, o'quvchilarga mavzularni tushinishda qulaylik yaratgan. Avloniy esa "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobida nafaqat ilmiy, balki axloqiy tarbiyaga ham katta e'tibor qaratgan. Bu asar o'qituvchilarga pedagogik ishda foydalanish uchun ajoyib manba bo'lib xizmat qilgan. Jadidlar faqat o'g'il bolalar ta'limi bilan chegaralanib qolmadilar. Ular ayollarni o'qitish va qizlar uchun maktablar tashkil etish ishlarini ham yo'lga qo'ydilar. Bu esa jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish, ayollarning

huquqlarini himoya qilish va ularni ma'rifatga jalb etish yo'lidagi ulkan qadam bo'ldi. Bu borada jadidlar tomonidan ochilgan qizlar maktablari o'sha davr uchun o'ta ilg'or va jasoratli loyiha hisoblangan. Pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish uchun jadidlar o'qituvchilarning kasbiy malakasini ham oshirishga e'tibor berishgan. Yangi usuldagi maktablarda o'qitish uchun o'qituvchilarni tayyorlash kurslari tashkil qilingan. Bu kurslarda dars berish metodikasi, dunyoviy fanlarni o'qitish usullari, bolalar psixologiyasi bo'yicha ma'ruzalar o'tkazilgan. Jadidlar faoliyati orqali ta'lim tizimida milliylik va zamonaviylikni uyg'unlashtirishga erishildi. Ularning qarashlariga ko'ra, jamiyat faqat o'z madaniy ildizlariga asoslangan holda dunyoga chiqishi, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishi orqali rivojlanishi mumkin edi. Bu qarash bugungi kun pedagogikasida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Jadidlarning ta'lim sohasidagi faoliyati faqat savodxonlikni oshirish yoki yangi usuldagi maktablar ochish bilangina cheklanib qolmadi. Ular butun bir avlodni yangi dunyoqarash bilan tarbiyalashga muvaffaq bo'ldilar. Milliy uyg'unish g'oyalarini hayotga tadbiq etishda ta'limning o'rni beqiyos bo'lganini ular o'z faoliyatlari bilan isbotladilar. Bugungi kunda jadidlarning pedagogik merosi biz uchun bebaho boylikdir. Ularning ilm-ma'rifatga bo'lgan intilishi, ta'limni milliy o'zlikni saqlab qolish bilan bog'lashga qaratgan sa'y-harakatlari va zamonaviy metodlarni qo'llash tajribalari zamonaviy ta'lim tizimimiz uchun asosiy ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Bu merosni o'rganish va uni bugungi avlod tarbiyasida qo'llash bizning tarixiy va ma'naviy burchimizdir. Jadidlar harakati Markaziy Osiyoda milliy uyg'unish va ijtimoiy rivojlanishning tamal toshi bo'lib, ularning pedagogika sohasidagi hissasi zamonaviy ta'lim tizimi shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynadi. Ular yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, darsliklar yaratish, o'qituvchilarni tayyorlash va bolalar, xususan, qizlar ta'limini rivojlantirish orqali ta'lim jarayonini tubdan isloh qildilar. Jadidlarning milliy va zamonaviylikni uyg'unlashtirgan pedagogik yondashuvi yosh avlodni ilm-ma'rifatli, tanqidiy fikrlovchi va jamiyatga foydali shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qildi. Ular faqat savod chiqarish bilan chegaralanib qolmay, balki axloqiy, ma'naviy va milliy qadriyatlarni targ'ib etganlar. Shuningdek, jamiyatning barcha qatlamlarini, ayniqsa, ayollarni ta'lim jarayoniga jalb etish orqali ijtimoiy tenglikka erishish yo'lida muhim qadam tashladilar. Jadidlarning g'oyalari va amaliy ishlari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, zamonaviy ta'limning rivoji uchun ulkan ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Ularning merosi yosh avlodga nafaqat bilim, balki milliy o'zlik, ma'naviyat va insonparvarlikni ham singdirishda davom etadi. Shu sababli, jadidlar faoliyatini chuqur o'rganish va uni hozirgi davr ehtiyojlariga moslashtirish biz uchun tarixiy va ma'naviy burchdir.

Bugungi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim, faol o'qitish metodlari asosiy didaktik prinsiplardir. Jadidlar ilgari surgan metodlar ana shu tamoyillar bilan sezilarli darajada mos keladi. Jadid pedagogik merosini bugungi ta'limga integratsiyalash bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Jadid pedagogik merosini bugungi ta'limga integratsiyalash bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Jadidlar asarlarini o'quv dasturlariga kiritish Fitrat, Behbudiy, Avloniy kabi jadidlarning asarlari umumiy o'rta va oliy pedagogik ta'lim muassasalarida o'quv materiallari sifatida foydalanilishi kerak. Ularning ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlari darsliklar, metodik qo'llanmalar va ma'naviyat darslarida keng yoritilishi maqsadga muvofiq.

2. Jadidlarning didaktik metodlarini zamonaviy metodika bilan uyg'unlashtirish Jadidlar taklif etgan dars uslublari – bolani mustaqil fikrlashga undash, hayotiy mavzularda o'rgatish, o'z ona tilida savod chiqarish, axloqiy masalalarni tahlil qilish – bugungi interaktiv, muammoli va loyihaviy o'qitish metodlari bilan o'zaro uyg'unlashtirilishi mumkin.

3. Milliy qadriyatlar asosida shaxs tarbiyasi Jadidlar tarbiyaning asosi deb ma'naviyat, axloq, halollik, vatanparvarlik kabi tushunchalarni ko'rsatganlar. Bugungi ta'limda bu qadriyatlar o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladigan asosiy maqsadlarga aylanishi lozim.

4. O'qituvchilar malakasini oshirishda jadid pedagogikasidan foydalanish O'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarida jadid pedagogikasining asosiy g'oyalari,

metodlari, tarixiy shaxslari haqida ma'lumot berish, ularni zamonaviy didaktik vositalar bilan integratsiya qilish ta'lim sifati oshishiga xizmat qiladi.

5. **Tadqiqot va ilmiy loyihalarda jadidlar merosidan foydalanish** Pedagogika, tarix, falsafa yo'nalishidagi ilmiy izlanishlarda jadidlar merosini tahlil qilish, ularning ta'limga oid qarashlarini hozirgi ta'lim muammolari bilan qiyosiy o'rganish ilmiy muhitni boyitadi.

6. **Tarixiy-pedagogik merosni raqamlashtirish va ommalashtirish** Jadidlarning asarlarini zamonaviy texnologiyalar orqali raqamlashtirish, audio-kitoblar, interaktiv platformalar, animatsion videolar shaklida keng jamoatchilikka yetkazish yosh avlodni milliy o'zlikni anglashga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik merosi – bu faqat tarixiy yodgorlik emas, balki bugungi ta'lim-tarbiya tizimi uchun amaliy asosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behbudiy M. (1913). Maktablar haqida. Samarqand.
2. Avloniy A. (1913). Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent.
3. Fitrat A. (1918). Rus maktablarida o'qiyotgan musulmon bolalariga maktub. Buxoro.
4. G'aniyeva N. va boshqalar (2020). Jadid pedagogikasi va uning zamonaviy talqini. Toshkent: TDPU.
5. Qurbonov A. (2019). XX asr boshidagi o'zbek pedagogik tafakkuri. Toshkent.
6. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. (2023). Ta'limda milliy meros va didaktik yangiliklar. Toshkent.
7. Vygotsky L. (1978). Mind in Society. Harvard University Press.
8. Piaget J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. International Universities Press.

JADIDLIK HARAKATIDA TIL MASALALARI

G.X.Shodiyeva

BuxDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasida o'qituvchisi

D.V.Ergasheva

BuxDPI Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlar harakati doirasida til masalasiga qaratilgan e'tibor, olib borilgan islohotlar, ilmiy-uslubiy ishlar, darslik va alifbo yaratish borasidagi sa'y-harakatlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, tilshunoslik, til, alifbo, imlo, savriy, saftiy, ma'rifatparvar, savod.


Mustaqillik tufayli milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, ma'naviy merosni qayta baholash imkoniyati yaratildi. Ayniqsa, XX asr boshlarida faoliyat olib borgan jadid ma'rifatparvarlarining millat taraqqiyoti yo'lida qilgan fidokorona xizmatlarini o'rganish, ularga munosib baho berish bugungi kun taraqqiyotida ham muhim o'rin tutadi. Jadidlarning ilm-fan, maorif, matbuot, madaniyat, adabiyot va, ayniqsa, til masalalaridagi qarashlari o'zbek xalqining milliy uyg'onish davridagi bebaho merosi hisoblanadi.

Jadidlar tilni millatning asosiy belgilardan biri sifatida e'tirof etib, o'zbek tilining o'ziga xos qonuniyatlari, grammatikasi, imlosi va alifbosini shakllantirish yo'lida samarali ishlar olib borishgan. Ularning faoliyati natijasida o'zbek tilshunosligining nazariy asoslari yaratilgan, yangi uslubdagi darslik va o'quv qo'llanmalari yozilgan, zamonaviy alifbo va imlo qoidalari taklif etilgan.

Ushbu maqolada jadidlar harakati doirasida til masalasiga qaratilgan e'tibor, olib borilgan islohotlar, ilmiy-uslubiy ishlar, darslik va alifbo yaratish borasidagi sa'y-harakatlar tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, til va alifbo masalalari bugungi kunda ham davlat tilining nufuzi va taraqqiyoti nuqtai nazaridan o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Yosh avlodning qadriyatlarga sodiq, milliy g'ururli bo'lishida o'zbek millati tarixi, tili, imlosi, urf-odatlar haqida bilim beruvchi fanlarning ahamiyati katta. Shu ma'noda alifbo, imlo bo'yicha darslar va darsliklar o'quvchilarga milliy o'ziga xosligimizni singdirishga yordam

beradi. Buni to'g'ri anglagan jadidlar XX asrning boshidanoq Turkistonda to'qqiz oylik maktablarni tashkil etgan.



O'sha davrdagi ilm-fan darajasi, milliy pedagogikaning saviyasiga mos tarzda yaratilgan ona tili darslik-lari, xususan, alifbe kitobi, albatta, bugungi ona tili darsliklaridan farq qilgan. Bu davr darsliklari milliy pedagogikamizning dastlabki shakllari sifatida nechog'lik ahamiyatga molik bo'lmasin, baribir, o'sha davr darajasida, saviyasida edi.

XIX asrning 50-yillaridan boshlab ma'naviy uyg'onish sari yuz tutgan turkiy xalqlar millat ko'zgusi, taraqqiyot omili bo'lgan til masalasiga jiddiy e'tibor berdi. Matbuotning yuzaga kelishi, nashr ishlarining shakllanishi, maktab va maorifga e'tiborning ortishi natijasida imlo masalasi birinchi o'ringa chiqdi. Ma'rifatparvarlarning dunyoviy ilm-fan va madaniyat sari intilishi tilni ilmiy asosda o'rganishni dolzarb masala qilib qo'ydi.

Turkistonda Fitrat boshchiligidagi ma'rifatpar-var shaxlar ilk bor o'zbek tilini ilmiy o'rganishga kirishdi. Ular milliy til qoidalari arab yoki rus tili grammatikalari asosida emas, balki milliy tilning ichki tabiatidan kelib chiqib yaratilishi kerakligini anglaganlari sababli ham tilni tarixiy asarlar, xalq og'zaki ijodi namunalari va hududlarga xos sheva materiallari asosida o'rgana boshladilar. Natijada XX asr boshlarida o'zbek tilshunosligining dastlabki nazariy asoslari yaratildi. O'sha davrga kelib fan va madaniyat o'chog'iga aylangan Istanbul, Qozon, Qrim, Boku shaharlarida turk tilini tadqiq etuvchi tilshunos olimlar guruhi shakllandi. Ular alifbo hamda imlo muammolarini o'rganib, turkiy tillarning grammatikasini tuzishga kirishdi. Ayni jarayonlar sabab grammatikaga oid qator asarlar yaratildi.

Ona tili darsliklarining milliy xarakterga ega emasligi, o'qitishdagi noqulayliklar sababli o'tgan asrning 20-yillariga kelib, matbuotda Elbek, Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiy, Shorasul Zunnunning o'zbek tilining tovushlar tizimi, morfo-sintaktik hodisalar yuzasidan maqolalari e'lon qilina boshlandi. Bu maqolalarni o'zbek tili tabiatini yoritishga bag'ishlangan dastlabki tadqiqotlar deyish mumkin. O'rta Osiyoda birinchi marta o'zbek tilida tovush usulida xat-savod o'rgatish ishiga toshkentlik Saidrasul Saidazizov kirishib, mazkur usulda yaratgan

kitobini “Ustodi avval” deb nomlagan va bu alifbe-darslik 1902-yildan boshlab har yili nashr qilinib turgan.

XX asrning 20-yillarida va 30-yillar boshida hozirgi o‘zbek tili imlosining nazariy asos-lari-ni ishlashda, o‘sha davr maktablariga mo‘ljallangan darslik va qo‘llanmalarni yaratishda Fitrat boshchiligidagi “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti, keyinchalik uning a‘zolari ishtirokida O‘zmaorifqo‘m qoshida tuzilgan O‘zbek bilim hay‘ati, O‘zbek yangi alifbo markaziy qo‘mitasi, Til-termin davlat qo‘mitasi singari tashkilotlar olib borgan ishlar katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ularda faoliyat ko‘rsatgan bir qator ma‘rifatparvarlar tashabbusi bilan turli fan sohalariga oid o‘nlab darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, lug‘atlar yaratildi.

O‘tgan asrning 20–30-yillarida “Imlo qoidolari” joriy eti-lishi munosabati bilan Ashurali Zohiriy o‘zbek tilshunosligiga bosh harf bilan yozish qoidalarini olib kirdi. Arabcha harf termini dastlab o‘zbek tilida surat deyilgan va arab alifbosidagi harflarning yozuvda hosil qiladigan shakli nazarda tutilgan. O‘zbek tili bo‘yicha tuzilgan ilk saboqlik yoki qo‘llanmalar boshqa til egalari tomonidan yozilgan bo‘lib, ularda o‘zbek tiliga xos hodisalar o‘zga tillar qonuniyatlari asosida izohlangan edi. Bu borada arab, tatar, turk va rus tillari grammatikalaridan foydalanilgani sir emas. Dastlabki milliy grammatikamiz mualliflari ham, foydalanish uchun boshqa tadqiqot yoki qo‘llanmalar bo‘lmagani sababli, mazkur tillar grammatikalaridan foydalangan edi. Bu davrda o‘zbek tilini ilmiy o‘rganish ishlari “Chig‘atoy gurungi” tashkilotida boshlanib, Fitratning “Sarf” va “Nahv” asarlari mazkur sa’y--harakatlarning ilk natijasi o‘laroq 1925-yilda nashr etilgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida ilm-fanning darajasiga muvofiq yaratilgan darslik va qo‘llanmalarda asosiy e‘tibor-- grammatika masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, tilshunoslikning boshqa sohalariga yo‘l-yo‘lakay to‘xtalangan edi. Masalan, imlo muammolari va qoidolari dastlab yaratilgan darsliklarda juda qisqa berilgan.

Alifbo, o‘zbek alifbosi masalalari 1926-yilda boshlangan bo‘lib, shu yili 27–29-avgustda Yangi alifbo qo‘mitasi va Ilmiy markaz til mutaxassislari ishtirokidagi alifbo konferensiyasida yangi tuzilgan lotin grafikasidagi alifbo muhokamasi bo‘lib o‘tadi. Bu alifboda unilarni 9 ta, undoshlarni 23 ta harf bilan ifodalashga qaror qilinadi. O‘sha yili tarixda birinchi marta lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi-ni tuzish masalasi hal qilinadi va harflar tartibi belgilanib, ilk alifbo tuziladi. Shu yili o‘sha davr tilshunosligi darajasida “Imlo qoidolari” ishlab chiqiladi.

Bu imlo qoidolari haqida 1926-yili chop etilgan “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalida shunday deyilgan: “...imloda ikki usul qo‘llanadi: savtiy (fonetik) ham sarfiy (morfologik). Bizning tilimizda bir qancha shevalar bo‘lganidan ta’lim-tarbiya ishlarida yengillik uchun har ikki usuldan foydalanishga qaror berdik. So‘zning tomiri (asosi) eshitilgancha yozildi, qo‘shimchalar sarfiy usul bilan bitildi. Bularning haqida izohat va misollar qu-yida yozilgandir...”. Mazkur qoidalarda ilmiy umumlashmalar juda oz bo‘lib, fe’llar-ning zamonlari, tuslanishi va imlosi berilgan.

Bu davr o‘zbek tilshunosligidagi muhim yangiliklardan biri Ashurali Zohiriyning bosh harflarni amaliyotga kiritishi va ularning ishlatilish o‘rinlari-ni qat’iy belgilab berishi bo‘ldi. Lotin grafikasi asosidagi o‘zbek alifbosi tartibga solinib, bu alifbo (alfavit) 1939-yilda yana tuzatildi va “O‘zbek tili grammatikasi” darsligida berildi. Afsuski, lotin grafikasiga asoslangan o‘zbek alifbosi ham jadidlarga qo‘shilib qatag‘on qilindi. Hatto bu yozuvda bitilgan asarlar o‘tda kuydirildi. 1940-yildan kirillchaga asoslangan o‘zbek alifbosiga majburan o‘tkazilganimiz ko‘pchilikka bugun ma’lum. Lotin alifbosi asosidagi o‘zbek alifbosiga uzil-kesil chek qo‘yish maqsadi ham sho‘rolar yuritgan siyosatning talabiga ko‘ra amalga oshirilgan edi. XX asrning 20-yillaridan yangi o‘zbek alifbosini tuzish o‘zbek tilshunoslari oldida turgan asosiy muammolardan biri bo‘lib qoldi. Shu munosabat bilan Turkiston Maorif komissarligi huzuridagi Bilim kengashida o‘zbek tilining yangi alifbosini tuzishda qanday yo‘l tutilishi kerakligi muhokama qilinadi. Elbekning “Turk tillarining qonunlari to‘g‘risida mulohazalar” maqo-lasi ham shu munosabat bilan yozilgan bo‘lib, unda o‘zbekchani bilmasdan turib uning grammatikasini, imlosini tuzmoqchi bo‘lganlar tanqid qilinadi. Bu vazifani o‘zbek tilida so‘zlashuvchi, shu til ruhi bilan tanish kishilargina bajarishga loyiqligi aytiladi.

Yangi lotin alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosida asarlar yuzaga kela boshladi. Bu borada Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Shokirjon Rahimiy, Elbek, Ashurali Zohiriyning xizmatlarini alohida e'tirof etish joiz.

O'zbek tilining imlo muammolari hal etilmagan bir davrda, jadid ma'rifatparvarlarining sa'y-harakatlari bilan lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosiga o'tilishi, maktablarda shu alifbo asosida dunyoviy fanlarning o'qitilishi davr uchun muhim ahamiyat kasb etardi. Jadidlar o'zbek tili kelajagini rus yoki arab yozuvi emas, balki lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek alifbosi asosida ko'rishgan edi. Ayni imlo o'zbek tili tabiatiga mos tushishi haqidagi asosli qarashlarini ilgari surib, yangi o'zbek yozuvini qabul qilishda ham shu g'oyaga amal qilishgan. Ma'rifatparvar bobolarimiz til va imloga bu qadar jiddiy e'tibor berganining boisi shuki, ular ayni milliy davlatchilik tayanchi sifatida alifbo masalasini birlamchi.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar harakati faqat ta'lim-tarbiyaviy emas, balki tilshunoslik sohasida ham chuqur iz qoldirdi. Ular o'zbek tilini milliy ifodasi, alifboni esa ma'naviy mustaqillik ramzi sifatida ko'rganlar. Bugun biz foydalanayotgan zamonaviy imlo va grammatik qoida hamda darsliklar ayni o'sha fidokor ajdodlarimiz sa'y-harakatlari samarasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev, B. (2008). Jadidchilik va milliy uyg'onish. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
2. Qurbonov, A. (2010). O'zbek tilshunosligining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
3. Erkinov, A. (2000). XX asr boshlarida o'zbek tili va adabiyoti masalalari. Toshkent: Fan.
4. Karimov, M. (2018). Jadidlar til va imlo masalalarida. // O'zbek tili va adabiyoti jurnali, №3, 25–31-betlar.
5. Salohiy, N. (2015). Alifbo va imlo tarixidan. Toshkent: Ma'naviyat.
6. Rahmonov, A. (2012). Ma'rifatparvarlik va jadidchilik. Toshkent: Akademnashr.
7. Saidov, D. (2020). O'zbek tilining grammatikasi va imlo tarixiga nazar. Buxoro: BuxDU nashriyoti.
8. "Maorif va o'qitg'uchi" jurnali, 1926-yil, №8.
9. Fitrat, A. (1925). O'zbek tili grammatikasi: Sarf va Nahv. Toshkent.
10. Zohiriy, A. (1939). O'zbek tili grammatikasi. Toshkent: O'qituvchi.
11. Ermatov, I. (2024). Jadidchilik. Toshkent: Jadid.

JADIDLARNING MAKTABCHILIK HARAKATI: YUTUQLAR VA TO'SIQLAR

*Hayitov Shodmon Ahmadovich
Buxoro davlat universiteti professori tarix fanlari doktori.*

Annotatsiya: mazkur maqola jadidchilik harakati doirasida shakllangan maktabchilik faoliyatining tarixiy-ijtimoiy asoslari, asosiy yutuqlari va duch kelingan to'siqlarini tahlil etishga qaratilgan.. Unda XX asr boshlarida O'rta Osiyoda jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari orqali xalqni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga, milliy uyg'onish va madaniy yuksalishga erishishga bo'lgan urinishlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, maktabchilik harakati, yangi usul maktablari, ma'rifiy islohotlar, ta'lim tizimi, to'siqlar va qarshiliklar

THE IMPORTANCE OF ECOLOGICAL EDUCATION AND FORMATION OF THINKING IN THE MIND OF THE YOUNG GENERATION

Abstract: this article is aimed at analyzing the historical and social foundations of schooling activities formed within the framework of the Jadid movement, its main achievements and obstacles encountered.. It highlights the attempts to arm the people with modern knowledge, achieve national revival and cultural uplift through the new method schools established by the Jadids in Central Asia at the beginning of the 20th century.

Keywords: Jadidism, schooling movement, new method schools, educational reforms, education system, obstacles and resistance

ЗНАЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ФОРМИРОВАНИЕ МЫШЛЕНИЯ В СОЗНАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация: данная статья направлена на анализ исторических и социальных основ школьной деятельности, сформированной в рамках движения джадидов, его основных достижений и препятствий, с которыми пришлось столкнуться. В ней освещаются попытки вооружить народ современными знаниями, добиться национального возрождения и культурного подъема посредством новометодных школ, созданных джадидами в Средней Азии в начале XX века.

Ключевые слова: джадидизм, школьное движение, новометодные школы, образовательные реформы, система образования, препятствия и сопротивление.

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Movarounnahr va Turkiston mintaqasida yuzaga kelgan jadidchilik harakati o'zbek milliy uyg'onish tarixida muhim bosqichlardan biri bo'ldi. Bu harakatning asosiy yo'nalishlaridan biri maktabchilik va ta'lim sohasini isloh qilishga qaratilgan edi. Jadidlar ta'limni xalqni uyg'otish, millatni rivojlantirish va taraqqiyot sari yetaklash vositasi sifatida ko'rdilar. Ular eski usulda ta'lim beruvchi maktablarning samaradorligi pastligini tanqid qilar, yangi usul – "usuli jadid" asosida tashkil etilgan maktablar orqali ilm-fan, dunyoviy bilimlar va zamonaviy tafakkurni yoyishga harakat qildilar.

Yangi usul maktablarining vujudga kelishi

Jadidlar maktab va madrasalardagi diniy-fanlardan cheklangan ta'lim tizimini o'zgartirishni istar edilar. 1884 yilda Qrimda Ismoil G'aspirali tomonidan tashkil etilgan ilk "usuli jadid" maktablari Turkiston zaminiga ham kirib keldi. Bu maktablarda quyidagi yangiliklar joriy etildi:

O'qitishda fonetik usul (harfni talaffuz qilish orqali o'rgatish);

O'quvchilarga matematika, geografiya, tarix, tabiiy fanlar, jahon madaniyati asoslarini o'rgatish;

Bosma kitoblardan foydalanish va chop etilgan darsliklar joriy etilishi;

Ayollar va qizlar uchun ham ta'lim olish imkoniyatining yaratilishi.

1900-yillarga kelib, jadid maktablari butun Turkiston bo'ylab keng tarqala boshladi. Bu maktablar ko'p hollarda jadid ziyolilarining shaxsiy mablag'lari yoki xalqdan to'plangan xayriyalar hisobidan faoliyat yuritgan.

Jadid maktablarining yutuqlari

Jadidlarning maktabchilik harakati Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida bir qancha muhim natijalarni berdi:

Ilm-fan va savodxonlik darajasining oshishi

Yangi usul maktablar savodxonlikni oshirdi, bolalarga zamonaviy bilimlar berila boshlandi. O'quvchilarning dunyoqarashi kengaydi, ular rus va boshqa tillarni o'rgana boshladilar.

Ayollar ta'limining boshlanishi

Qadimdan yopiq qolgan ayollar ta'limi masalasi jadidlar tomonidan ilgari surilib, qizlar maktablari ochildi. Masalan, 1910-yillarda Toshkent va Andijon shaharlarida bir necha ayollar maktablari faoliyat yuritgan.

Yangi avlod ziyolilarining shakllanishi

Jadid maktablari milliy uyg'onish, millatparvarlik va dunyoviy tafakkurga ega bo'lgan yangi ziyolilar avlodini yetishtirdi. Bu avlod Turkistonning keyingi siyosiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynadi.

Matbuot va adabiyotning rivojlanishi

Jadidlar o'z maktablari uchun darsliklar yozish, gazetalar chiqarish, o'quvchilarga zamonaviy kitoblar yetkazish ishlariga ham faol kirishdilar. "Taraqqiy", "Shuhrat", "Sadoyi Turkiston" kabi gazetalarda ta'lim-tarbiyaga oid maqolalar ko'plab chop etildi.

To'siqlar va qarshiliklar

Jadidlarning maktabchilik harakati bir qator to'siq va muammolarga duch keldi:

Qadimgi usul tarafdorlarining qarshiligi

Eski usulda dars beradigan mudarrislar va diniy ulamolar yangi ta'lim tizimini "bid'at", "dinga zid" deb hisoblab, uni yo'qqa chiqarishga harakat qildilar. Ba'zilar jadid maktablariga qatnayotgan o'quvchilarni "kofirlar maktabiga borayotganlar" deb ta'na qilishgan.

Moliyaviy muammolar

Jadid maktablari davlat tomonidan moliyalashtirilmagan, ko'p hollarda ular xususiy mablag' yoki xayr-ehsonlar asosida ishlagan. Bu esa ularning keng rivojlanishiga to'sqinlik qilgan.

Rossiya imperiyasi va keyinchalik Sovet rejimining bosimi

Avvaliga Rossiya imperiyasi jadidlarning maqsadlarini nazorat ostida saqlashga harakat qilgan bo'lsa, Sovet hokimiyatining ilk yillarida esa ularga qarshi ochiq repressiyalar boshlandi. Ko'plab jadidlar "millatchi", "reaksioner" degan ayblovlar bilan qamaldi yoki otib tashlandi.

Xulosa. Jadidlarning maktabchilik harakati Turkiston tarixida tub burilish yasagan, xalqni uyg'otgan, zamonaviy ta'lim asoslarini yaratgan muhim harakat bo'ldi. Ular ko'plab qiyinchiliklarga duch kelgan bo'lsalar-da, jamiyat tafakkurining o'zgarishiga beqiyos hissa qo'shdilar. Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimining negizida ham jadidlarning fidokorona faoliyati aks etgan.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Qayumov, A. (1993). Jadidchilik: o'zbek ma'rifatparvarligi tarixi. Toshkent: O'zbekiston.
2. Salohiddinov, A. (2005). Jadidchilik harakati va uning tarixiy ildizlari. Toshkent: Sharq.
3. Mamadaliyev, A. (2010). O'zbek jadidchiligi va yangi maktablar tarixi. Toshkent: Fan.
4. Hojiahmadov, N. (2015). Ma'rifiy harakat va maktab islohoti tarixidan. Samarqand: SamDU nashriyoti.
5. Bobojonov, Sh. (2000). Islom va modernizm: Turkistonda jadidchilik harakati. Toshkent: Ma'naviyat

TARIXIY TAFAKKUR HAMDA TARBIYA UZVIYLIGI

*Jo'rayeva Nigina Shuxratjon qizi
Buxoro davlat pedagogika institute 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida tarixiy tafakkurni shakllantirishda ta'lim va tarbiya uzviyligi muhim omil sifatida yoritilgan. Tarixiy bilimlar orqali o'quvchilarda ma'naviy, axloqiy va estetik qadriyatlarni shakllantirish, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, o'qituvchining shaxsiy namunasi, darsliklardagi tarixiy-tarbiyaviy materiallar, integratsiyalashgan darslar va tarbiya soatlarining ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Maqola pedagoglar uchun nazariy va amaliy jihatdan foydalidir.

Kalit so'zlar: tarixiy tafakkur, tarbiya uzviyligi, boshlang'ich ta'lim, ta'lim va tarbiya integratsiyasi, vatanparvarlik tarbiyasi, tarbiyaviy metodlar, o'yin texnologiyalari, tarixiy shaxslar orqali tarbiya, integratsiyalashgan darslar, tarixiy ong va qadriyatlar.

ИСТОРИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ И ЦЕЛОСТНОСТЬ ВОСПИТАНИЯ

Аннотация: В данной статье рассмотрена важность взаимосвязи обучения и воспитания в процессе формирования исторического мышления у младших школьников. Освещены вопросы нравственного и патриотического воспитания учащихся через изучение истории, а также методы формирования ценностей и ответственности. Особое внимание уделено личному примеру учителя, учебным материалам, интегрированным урокам и воспитательным часам. Статья полезна для педагогов начального и среднего звена как в теоретическом, так и в практическом плане.

Ключевые слова: Историческое мышление, взаимосвязь воспитания и обучения, начальное образование, интеграция обучения и воспитания, патриотическое воспитание, воспитательные методы, игровые технологии, воспитание через исторических личностей, интегрированные уроки, историческое сознание и ценности.

HISTORICAL THINKING AND THE INTEGRITY OF EDUCATION

Annotation: this article explores the importance of integrating education and upbringing in developing historical thinking in primary school students. It highlights how historical knowledge fosters moral, patriotic, and aesthetic values, and promotes social responsibility. The article emphasizes the teacher's role as a role model, the use of educational materials, integrated lessons, and educational hours. It is useful for primary and secondary school educators both theoretically and practically.

Keywords: historical thinking, integration of upbringing and education, primary education, integration of education and upbringing, patriotic upbringing, educational methods, game-based technologies, upbringing through historical figures, integrated lessons, historical consciousness and values.

Kirish. boshlang'ich ta'lim – bu inson shaxsini shakllantirishdagi eng muhim bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda o'quvchilarda ilk tafakkur shakllari, qadriyatlarga munosabat va dunyoqarash asoslari shakllanadi. Bu jarayonda tarixiy bilimlar nafaqat fanga oid ma'lumotlarni berish, balki tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida ham muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan olganda, ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlash orqali o'quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish pedagogik faoliyatning ustuvor yo'nalishiga aylanadi.

Tarixiy tafakkur nima va u qanday shakllanadi?

Tarixiy tafakkur inson tafakkurining eng muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, u orqali shaxs o'tmish voqealari, tarixiy jarayonlar va tarixiy shaxslar faoliyatini anglaydi, ularni hozirgi zamon bilan bog'lab, kelajak haqida mulohaza yurita oladi. Mazkur maqolada ko'rib chiqilgan o'yin texnologiyalarining tarixiy tafakkurni shakllantirishdagi ahamiyati, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nihoyatda dolzarbdir. Zamonaviy pedagogika fanida o'yin asosidagi yondashuvlar shaxsni har tomonlama rivojlantirish, o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, uning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda.⁴⁹

Tarixiy tafakkurni rivojlantirishda quyidagilar muhim omil hisoblanadi:

- Tarixiy voqealarni o'quvchilarga qiziqarli va tushunarli tarzda yetkazish — bu o'qituvchining didaktik, metodik va psixologik jihatlardan mohirona yondashuvi orqali tarixiy mavzularni bolalar yoshiga mos, hayotiy misollar va interaktiv usullar orqali tushuntirish jarayonidir.;

- Tarixiy shaxslar misolida axloqiy qadriyatlarni singdirish — bu o'quvchilarga buyuk tarixiy arboblar, sarkardalar, olimlar va madaniyat namoyandalarining hayoti va faoliyati orqali insoniy fazilatlarni o'rgatish, ularni ibrat namunasi sifatida ko'rsatish jarayonidir.

- Tarixiy sanalar va voqealarni hayotiy misollar bilan bog'lash — bu tarixiy hodisalarni o'quvchilar uchun tushunarli va esda qolarli qilish maqsadida ularni zamonaviy hayotdagi voqealar, shaxsiy tajriba yoki o'quvchiga tanish holatlar bilan uyg'unlashtirib tushuntirish jarayonidir.

Ta'lim – bu bilim berish jarayoni bo'lsa, tarbiya – o'quvchining axloqiy va ma'naviy jihatdan shakllanishi bilan bog'liq faoliyatdir. Ammo ular bir-biridan ajralmas, uzviy bog'liq jarayonlar sanaladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda bu ikki tushunchani birgalikda amalga oshirish pedagogik mahoratni talab qiladi.

Boshlang'ich sinflarda tarbiya fani jarayonida darslarida tarixiy mavzular orqali vatanparvarlik ruhini uyg'otish, qahramonlar misolida ijobiy fazilatlarni targ'ib qilish, o'tmishdan saboq olish orqali hayotga to'g'ri yondashuvni shakllantirish mumkin.

Tarixiy tafakkur va tarbiyaviy qadriyatlarni singdirishda quyidagi metodik uslublar samarali bo'ladi:

- **Integratsiyalashgan darslar** — bu tarixiy mavzularni ona tili, tasviriy san'at, musiqa va boshqa fanlar bilan bog'lab o'rganish orqali o'quvchilarda chuqur, tizimli va jonli bilimlar hosil qilish usulidir. Masalan, tarixiy bir voqeani o'rganishda o'quvchilar bu mavzuga oid matnlarni o'qib, o'z fikrini yozma va og'zaki ifodalaydi (ona tili bilan bog'liqlik); voqea asosida rasm

1. ⁴⁹ Ahmadov O. (2025). Tarixiy tafakkurni shakllantirishda o'yin texnologiyalari. International Journal of Science and Technology.

chizadi yoki tasviriy san'at orqali obrazlar yaratadi; tarixiy davrga oid qo'shiqlarni eshitish yoki ijro etish orqali musiqiy estetikani his qiladi. Bu yondashuv o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish, tarixiy tafakkur va ijodiy yondashuvni kuchaytiradi.

• **Rol o'ynash** — bu tarixiy shaxslar obrazida chiqish, ularning nutqlari yoki hayotiy vaziyatlarini sahnalashtirish orqali tarixni chuqurroq anglashga xizmat qiluvchi usuldir. O'quvchi o'zini tarixiy shaxs o'rniga qo'yib ko'rishga harakat qiladi, bu esa unda empatiya (ya'ni boshqani tushunish) va ijtimoiy-angloviy faoliyatni kuchaytiradi. Masalan, Amir Temur yoki Nodira obrazida chiqish orqali o'quvchilar nafaqat tarixiy faktlarni eslab qoladi, balki ulardagi ijobiy fazilatlarini o'zlashtirishga harakat qiladi. Ushbu metod o'quvchilar shaxsini tarbiyalashda nihoyatda samarali hisoblanadi.

• **Tarixiy voqealar bo'yicha savol-javoblar** – o'quvchilar bilan o'tkaziladigan muloqotli, tahliliy uslubdagi o'rgatish vositasi bo'lib, ularning fikrlash, xotira, tahlil qilish va sabab-oqibat munosabatlarini tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tarixiy voqealarga oid savollar orqali o'quvchi faqat faktlarni yodlab qolmaydi, balki ularni mantiqan tahlil qiladi, baholaydi va turli qarashlarni solishtiradi. Bu metod o'quvchining mustaqil fikrlashi va tarixiy tafakkurini chuqurlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

• **Tarbiya soatlari** – bu darsdan tashqari vaqtda o'quvchilar bilan muayyan tarixiy mavzular asosida erkin va ochiq muloqot olib boriladigan tarbiyaviy mashg'ulotlardir. Bu mashg'ulotlarda tarixiy shaxslarning fazilatlarini, voqealarning saboqlari, milliy qadriyatlarining zamonaviy ahamiyati haqida suhbatlar, munozaralar, kichik guruh ishlari tashkil qilinadi. Tarbiya soatlari orqali o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik pozitsiyasi, milliy g'urur va insoniylik hislari mustahkamlanadi.

Boshlang'ich ta'limda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki axloqiy namuna bo'lishi zarur. Uning tarixiy mavzularni qanday yoritishi, qanday qadriyatlarni targ'ib qilishi o'quvchilar tafakkuriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, darsliklardagi tarbiyaviy mazmun, tarixiy hikoyalar va savollar o'quvchini o'ylashga, tahlil qilishga undaydi.

Xulosa

Boshlang'ich ta'limda tarixiy tafakkurni shakllantirish va tarbiya uzviyligini ta'minlash orqali o'quvchining shaxsiy kamolotiga kuchli poydevor qo'yiladi. Bu esa kelajakda ongli, vatanparvar, tarixiy xotiraga ega bo'lgan avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Mazkur maqolada ko'rsatilgan metodik yondashuvlar va tarbiyaviy usullar pedagoglar faoliyatida muhim o'rin tutadi va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-noyabrdagi PQ–5198-sonli qarori: *“Milliy ma'naviyatni yuksaltirish va ijtimoiy faol fuqaroni tarbiyalash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”*.
2. Abdullaeva N. (2020). *Boshlang'ich ta'limda tarixiy tafakkurni shakllantirishning didaktik asoslari*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Ahmadov O. (2025). Tarixiy tafakkurni shakllantirishda o'yin texnologiyalari. *International Journal of Science and Technology*.
4. G'ofurov, B., & Karimova, Z. (2019). *Ta'lim va tarbiya uzviyligi: nazariya va amaliyot*. Samarqand: “Ilm Ziyo” nashriyoti.
5. Xasanboyeva M. (2021). “Integratsiyalashgan darslarda tarbiyaviy yondashuvlar.” *Boshlang'ich ta'lim jurnali*, №4, 35–40-betlar.
6. To'xtayev A. (2018). *Tarix o'qitish metodikasi*. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
7. Xolmatova D. (2022). “Tarixiy shaxslar timsolida vatanparvarlik tarbiyasi.” *Ma'naviyat va ma'rifat*, №2, 17–21-betlar.
8. Sharipov R. (2017). *Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy tarbiyasida tarixiy materiallardan foydalanish*. Qarshi: QarDU nashriyoti.

AHMAD DONISHNING RIVOJLANGAN SHAXSNI SHAKLLANTIRISHGA OID PEDAGOGIK QARASHLARI.

*Rahimboyeva Marjona Jamil qizi
Buxorodavlat pedagogika instituti
I bosqich tayanch doktoranti.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ahmad Donishning rivojlangan shaxsni shakllantirishga oid pedagogik qarashlari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: Sharqda siyosiy tizim, avlodlar, qoidalar, siyosiy tizim, tarixiy davr, tarix, tamoyillar, davr, yurt, yorugʻ kelajak, umid va hokazo.

Bugungi avlodni tarbiyalash, kamolga yetkazish masalalarini oʻtgan mutafakkirlarning qarashlari, taʼlimotlarini hisobga olmasdan turib hal etish mumkin emas. Sharqda siyosiy tizim va jamiyatda davom etayotgan oʻzgarishlarga qaramay, taʼlim oʻtmishdoshlar tomonidan qoʻyilgan koʻplab anʼana va qoidalarga rioya qilish orqali amalga oshiriladi. Zero, taʼlimning kelib chiqishi va asoslari oʻsha olis davrga borib taqaladiki, inson oʻzini oʻzi tanigandan soʻng, uning ongida barcha tirik mavjudotlardan farqlanishini anglash xususiyati kuzatiladi. Shu bilan birga, har bir tarixiy davrda taʼlim jarayonida keyingi avlodlar uchun harakat qilish uchun qoʻllanma boʻlib xizmat qiladigan tamoyillar ishlab chiqilgan.

Shunday qilib, Sharq taʼlim-tarbiya tarixi kengliklariga nazar tashlasak, uning cheksiz ufqlari, olis olislarga choʻzilganini koʻramiz. Shu bilan birga, bizning koʻz oʻngimizda har bir inson duch kelgan qiyinchilik va toʻsiqlarga qaramay, borishi kerak boʻlgan tanish yoʻl ochiladi.

Oʻrta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va bu hududda sodir boʻlgan oʻzgarishlardan soʻng mahalliy ziyolilar guruhlariga boʻlingan. Baʼzi ziyolilar taqdir irodasiga taslim boʻlib, oʻzlari va mamlakat uchun nimani boshdan kechirishlarini kutdilar. Boshqalar esa bu yurtning yorugʻ kelajagidan umidini yoʻqotib, xorijiy davlatlarga koʻchib ketishdi. Uchinchi guruh esa sodir boʻlayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarning sabablarini har tomonlama oʻrganib, ularning muqarrarligini anglab yetgan holda, bu hodisalarning xalq va oʻz Vatani uchun foyda va zarari haqida tegishli xulosaga keldilar va Vatan ravnaqi uchun bor kuch-gʻayratlarini sarfladilar.

Ular oʻz davlatlarining qoloqligi va mamlakat fuqarolarining umidsiz yashashining asosiy sabablarini xalqning savodsizligi, davlat tepasida joylashgan nodonlik va madaniyatsizlik bilan bogʻladilar. Bu guruh vakillariga, hech qanday mubolagʻasiz, ularning yetakchisi Ahmad Mahdum Donish boshchiligidagi pedagoglar kirgan. Ahmad Donishning pedagogik dunyoqarashining shakllanishiga hissa qoʻshgan asoslardan biri uning oilasi va u yashagan muhitning tarbiyasidir.

Otasi Mullo Nosir ziyoli kishi edi. Ona savodli va tarbiyali ayol boʻlgani uchun oʻzining xususiy maktabida qizlarga dars bergan. Donish boshlangʻich taʼlimni onasining maktabida olgan. Otasining tirishqoqligi tufayli Ahmad Donish darslari sxolastik usulda olib boriladigan va oʻgʻliga hech qanday mos kelmaydigan Qurʼon maktabidan madrasaga koʻchirildi. Maktab muhiti va oʻqitish usullari bilim olish uchun nomaqbul boʻlganligi sababli, Donish oʻsha vaqtdan beri bunday metodologiya ashaddiy raqibiga aylandi. Ammo u madrasa fanlari bilan cheklanib qolmay, Sharq mutafakkirlari va boshqa mamlakatlar olimlari asarlarini oʻrganish asosida oʻz davrining astronomiya, matematika, tabiatshunoslik, tarix, adabiyot va boshqa fanlarni ham puxta egalladi.

Mutafakkir dunyoqarashining shakllanishida muhim rol oʻynagan yana bir asos Sharq falsafasining taʼsiri, butun insoniyat oʻqituvchilari - Zaratushtra, Budda va boshqalarning taʼlimotlari bilan tanishish edi.

Adibning tarbiyaviy va axloqiy qarashlari rivojida islom madaniyatining taʼsiri ham katta ahamiyatga ega edi. U oʻzining tarbiyaviy-axloqiy qarashlarini ifodalar ekan, oʻtmishdagi fors-tojik, hind, arab, yunon mutafakkirlarining axloqiy asarlariga tayangan.

Ahmad Donish sanʼat va xattotlik sanʼati tufayli ustoz tavsiyasiga koʻra amir Nasrulloning yaqinlari davrasiga kiradi va oʻz isteʼdodini namoyon etib, yanada katta shuhrat va eʼtibor qozonadi.

Maʼlum boʻlishicha, u talabalikdan ustoz darajasiga koʻtarilib, oʻz davrining barcha bilim sohalarini qamrab olgan. Ahmad Donishning har tomonlama dunyoqarashini inobatga olib, uni

turli muammolarni hal etishga jalb qilishga harakat qildilar. Aynan o'zining dunyoqarashi kengligi va yuksak ma'lumotlilik tufayli Buxoro elchilari tarkibida Rossiya uch marta rasmiy tashrif buyurgan.

Axloqiy-pedagogik qarashlari rivojiga, uning tafakkuridagi tub o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatgan yana bir muhim asos mutafakkirning Rossiya qilgan uchta tarixiy va taqdirli sayohati ta'siridir. Bu mamlakatning iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayoti bilan tanishish Ahmad Donishning Buxoroda ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish zarurligi haqidagi tanqidiy qarashlarining shakllanishida eng muhim omil bo'ldi.

Donishning Rossiya birinchi safari 1857 yilning avgustida bo'lib o'tdi. 1858 yil 11-12 yanvarda Peterburgdan, 23 mayda Orenburgdan Buxoroga qaytib keldi.

Bu safarda amir Nasrullo kotiblik lavozimidan tashqari hukumat sirlarini kuzatish va tekshirish, davlat ahvolini tahlil qilish va oliy taxtga batafsil hisobot yozishni ham topshiradi⁵⁰.

Ahmad Donish Vataniga qaytgach, amirga Rossiya ilm-fani, madaniyati va iqtisodining rivojlanishi haqida batafsil hisobot yozadi.

Ahmad Donish birinchi kotib sifatida qatnashgan elchilarning ikkinchi tashrifi 1869-yil 29-avgustda Toshkentdan Orenburgga, 2-oktabrda Moskvadan Sankt-Peterburgga bo'ldi. 1870- yil boshida elchilar o'z Vatanlariga qaytishdi. Ahmad Donish ikkinchi safari chog'ida Rossiya davlatining turli tarmoqlari vakillari bilan rasmiy va norasmiy uchrashuvlarda o'zini ilm-fan, madaniyat va siyosatda yetuk shaxs sifatida namoyon etdi. Amir Muzaffarning unga eng yaxshi siyosatchi, diplomat va o'qimishli shaxs sifatida ishonchi shu darajada ortdiki, hatto saroyda yuqori lavozimni taklif qiladi. Biroq Donish uzrli sabablarni ko'rsatib, bu pozitsiyani qabul qilishdan bosh tortadi.

Ahmad Donishning Peterburgga uchinchi safari 1873-1874 -yillarga to'g'ri keladi. Elchilar 1873- yilning kuzida Buxorodan yo'lga chiqib, 1874- yilning yanvarida Peterburgga yetib kelishdi. O'sha yilning mart oyida ular Buxoroga qaytishga yo'l olishdi.

Elchilarning Rossiya imperatori Aleksandr II ga uchinchi marta tashrif buyurishlaridan maqsad Amu daryosining o'ng qirg'og'idagi yerlarning Buxoro davlatiga o'tishi munosabati bilan Buxoro amiri Muzaffarga minnatdorchilik bildirish edi.

Amir nomidan minnatdorchilik bildirishdan tashqari, elchilarning yana bir vazifasi imperatorni qizi Mariyaning to'yi munosabati bilan tabriklash edi.

Ushbu sayohatlar Donishga nafaqat Rossyaning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti bilan tanishish, rus xalqining dunyoviy fanlarni o'rganish va maktab ta'limi usullarini takomillashtirish bo'yicha ilg'or qarashlarini o'rganish, balki o'zini o'zi boshqarish qobiliyatiga ega bo'lish imkoniyatini berdi. Shu bilan bir qatorda oliy martabali bilimdon shaxslar bilan yaqindan tanishdi.

Donishning Toshkent general-gubernatori tarjimoni P.I. Pashino, rus sharqshunosi V. Grigoryev, Rossiya Tashqi ishlar vazirligi tarjimoni Kazimbek Obiddinov, Rossiya hukumati amaldori N. Stremouxov va boshqalar bilan tanishuvi shubhasiz, foydali natijalar berdi.

Ahmad Donish bilan uchrashuv va suhbatlar davrida sharqshunos olim V. Grigoryev Orenburgda Rossiya Tashqi ishlar vazirligining chegara komissiyasi raisi bo'lib ishlagan va tabiiyki, har ikki tomon ham adabiy va ilmiy suhbatlardan ko'p foydali narsalarni o'rgangan.

Shunday qilib, yuqoridagi faktlarga asoslanib, Donish o'zining tarixiy sayohatlari tufayli ko'zga ko'ringan olim va mutafakkirlar bilan muloqot qilish va uchrashish, Rossiya va Yevropa ma'rifatparvarlarining ilg'or qarashlarini o'rganish uchun keng imkoniyatga ega bo'lgan degan xulosaga kelish mumkin. Bu uchrashuvlar Ahmad Donish dunyoqarashining shakllanishida, tarbiyaviy qarashlarining rivojlanishida katta ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmadi Donish. Risola yo muhtasare az tarixi saltanati xonadoni Mangitiya Tarixiy risola yoki mang'itlar sulolasi hukmronligi tarixi haqida. - Dushanbe: Sarvat, 1992. B- 98.

2. Logofet D.N. Buxoro xonligi Rossiya protektorati ostida. -T. 1.-Sankt-Peterburg, 1911,- B. 238.

3. Semenov A. A. Buxoro va Afg'oniston chegaralari bo'ylab I Tarixiy xabarnoma. -T.88. -

⁵⁰ Ahmadi Donish. Risola yo muhtasare az tarixi saltanati xonadoni Mangitiya Tarixiy risola yoki mang'itlar sulolasi hukmronligi tarixi haqida. - Dushanbe: Sarvat, 1992. B- 98.

BXSR NING MA'RIFIY ISLOHOTLARI YOXUD "BUXORO MAORIF UYI" XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR.

Xaitov Xamza Ahmadovich

Filologiya fanlari doktori, professor. Buxoro davlat pedagogika instituti.

Annotatsiya: ushbu maqolada arxiv materiallariga asoslangan holda, "Buxoro maorif uyi"ning tashkil etilishi tarixi, amalda bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi, jumladan ta'lim metodlari, buxorolik talaba yoshlar to'g'risidagi ma'lumotlar tadqiq etildi.

Kalit so'zlar: Xalq Komissarlari Kengashi, Moskva, Fayzulla Xo'jaev, BXSR, hukumat, maktab, barcha sohalar, katta e'tibor, millatlar va hokazo.

Buxoro Respublikasi rahbarlari ta'lim masalasiga: "Maorif kerak, chunki hech bir mamlakat, hech bir millat va hech bir inqilob maorifsiz yashamas, o'qimoq uchun maktab kerak, maorif kerak kitob kerak-bular haqiqat"⁵¹ tarzida qaradilar. BXSR ning hukumat tarkibi jadidlardan iborat bo'lib, ular xalqni savodli qilish orqali jaholat va qoloqlik botqog'idan xolos qilish mumkinligini tushunar edilar.

Buxoro maktabi SSSR Xalq Komissarlari Kengashining 1923-yil 21-avgustdagi 127-sonli buyrug'i bilan 25-avgustda o'z ishini yangi joyda boshladi. Ushbu binoning ijaraga olinishi 1924-yil 5-yanvarda Moskva ko'chmas mulk bo'limining yig'ilishida muhokama qilindi. Ijara muddati olti yil, yillik ijara haqi sifatida belgilandi. 16000 oltin rublni tashkil etdi va agar bu erda binoni ta'mirlash xarajatlarini qo'shsak, BXSR har yili 25000 oltin rubl to'lashi kerak edi.

Fayzulla Xo'jaev boshchiligidagi BXSR hukumati maktabning barcha sohalariga katta e'tibor qaratdi. 1923-yil 8-martda ushbu masalaga bag'ishlangan yig'ilishda Fayzulla Xo'jaev, Buxoroning RSFSRdagi vakolatli vakili M.Burxonov, iqtisodiyot Oliy Kengashining raisi M.Muxitdinov Moskvadagi tashkiliy bo'lim boshlig'i G.Xo'djaev, paxtachilik tresti direktori Belyakov, Ta'lim uyi boshlig'i Fayzi qatnashdilar. Fayzining ma'ruzasi asosida maktab budjeti to'g'risida qarorlar qabul qilindi, mablag' sarflanishini nazorat qilish bo'yicha komissiya tarkibi, budjet ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish, Buxoro yoshlaridan talabalarni jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi (100 o'quvchidan 25 nafari qizlar bo'lishi kerakligi aniqlandi), "Ta'lim uyi" da qisqa muddatli kurslar tashkil etildi.

RSFSR hududida fuqarolar urushi bilan bog'liq bo'lgan og'ir vaziyat va iqtisodiy vayronagarchilik maktab faoliyatiga ta'sir ko'rsatdi. Buxoroning Nazorat (komissarligi) bilan yetarlicha mustahkam aloqada bo'lish qiyin edi, maktabni barcha boshqarish "Krasny Vostok" fabrikasining vasiylik kengashi kabi Moskva ma'murlari tomonidan amalga oshirildi, maktabning yashash va ta'lim sharoitlari boshlang'ich sanitariya me'yorlariga javob bermadi. Moskvadagi iqtisodiy qiyinchiliklarga va oziq-ovqat narxining yuqori bo'lishiga qaramay, BXSR hukumati va uning organlari o'z talabalarini doimiy ravishda kerakli narsalar bilan ta'minlab tura olishdi. Agar 1923-yil sentabr oyida bitta talabani ta'minlash uchun 12 oltin rubl sarflangan bo'lsa, unda 1924-yil boshida ushbu maqsadlar uchun 29 oltin rubl sarflangan. Talabalarni oziq-ovqat bilan ta'minlashda ham kamchiliklar bo'lgan. "Krasny Vostok" fabrikasi rahbariyati maktab ehtiyojlari uchun ajratilgan pullarni o'z maqsadlariga sarfladilar⁵². 1924-yil 13-fevralda BXSRning Moskvadagi konsulligi talabalarni oziq-ovqat bilan ta'minlashni yaxshilash uchun ma'lum miqdorda summa yubordi.

Buxoro hukumati RSFSR bilan kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro hamkorlikni kengaytirish uchun qo'lidan kelgan barcha ishni qildi. BXSRning vakolatli vakili Mukamilov,

⁵¹ Қосимов Ф. Драма революции и правда истории (формирование историографии советизации Бухары и Хорезма). - Бухара, 1996;

⁵² Хайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Республикаси ва Германия: ҳамкорликнинг тарихий лавҳалари (1920-1924 йиллар). - Тошкент: Фан, 2004;

Tashqi ishlar komissari o'rinbosari L.Karaxanga yo'llagan maktubida, BXSRdagi ta'lim sohasidagi masalalarni batafsil bayon qildi va RSFSR Maorif komissarligiga buxorolik talabalar uchun 100 o'g'il va 25 qiz miqdorida maktabni Moskvada tashkil etish to'g'risida iltimosnoma bilan yordam so'radi. O'sha paytda Buxoro o'z farzandlarini Kavkaz va Germaniyada ta'lim olish uchun yuborgan. Masalan, 1921-yilda ushbu shtatlarga 30 talaba, 1922-yilda Germaniyaga 50 ga yaqin talaba yuborilgan. BXSRning Moskvadagi vakolatxonasi RSFSR Tashqi ishlar Xalq Komissarligidan Moskva ta'lim muassasalarida Buxoro xalq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlashda yordam berishni iltimos qildi. L.Karaxan o'sha paytdagi millatlar komissari I.Stalinga yo'llagan maktubida yuqoridagi faktlarni keltirib, Moskvada BXSR hukumati hisobiga buxorolik bolalar uchun kichik maktab ochishni taklif qildi. O'z navbatida Millatlar Xalq Komissari I.Stalin Buxoro bolalari uchun BXSR hisobiga maktab ochishni, Moskvadagi kommunistik universitetda 30-35 kishilik guruh tashkil qilishni taklif qildi.

1923-yil aprelda SSSR Xalq Komissarlari Kengashining buyrug'i bilan Moskvada Buxoro "Maorif uyi" ni tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilish millatlar va maorif bo'yicha komissarliklarga topshirildi. RKP(b) qarori bilan Kreml yaqinidagi 9-sonli "Saxaro-Trust" binosi Moskvadagi BXSR talabalar uchun birinchi maktab bo'ldi.

Dastlab maktab 75 kishiga mo'ljallangan edi. Buxorodan kelgan talabalar sonining ko'payishi bilan binoda joylar yetishmay qoldi. Moskvadagi BXSR vakillari RSFSR hukumati huzuridagi ishga qabul qilish komissiyasiga BXSRning "Ta'lim uyi" ning 200 o'quvchiga mo'ljallangan yangi joyini aniqlashda yordam berishni iltimos qildilar. Komissiyaning 1923-yil 9-iyuldagi qarori bilan Spiridonovka ko'chasidagi 17-uy Buxoro "Ta'lim uyi" uchun yangi joyga aylandi.

Buxoro maorif uyi odatiy maktablar sirasiga kirmay, balki o'zining mustaqil hayoti bilan yashaydigan ta'lim muassasasi hisoblanib, tarbiyalanuvchilarini turli o'quv dargohlariga o'qishga tayyorlash bilan shug'ullanar edi.

Moskvaga yuborilgan buxorolik talabalarning birinchi partiyasi ro'yxati 1922-yil 20-avgustda tuzilgan. Ularning hammasi 25 ta edi, shulardan 20 tasi o'zbeklar, 3 tasi tatarlar, 2 tasi tojiklar; eng yoshi 16 yoshda, eng kattasi 22 yoshda edi.

1924-yil 18-mayda Moskvada Buxoroning "Ta'lim uyi" ning yubileyi nishonlandi. I.V.Stalin, N.K.Krupskaya, G.V.Chicherin, F.Xodjaevlarni maktabning faxriy rahbarlari etib saylash to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu Moskvadagi BXSR Ta'lim uyi tarixidagi birinchi va oxirgi bayrami edi. 1924-yil yozi va kuzida Markaziy Osiyoda milliy davlat chegaralanishi bilan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi siyosiy maydondan g'oyib bo'ldi.

1923-yilning 9-may kuniga kelib, "Buxoro maorif uyi" da 8 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan 55 nafar tarbiyalanuvchilar tahsil olib ularga 7 nafar tarbiyachilar rahbarlik qilgan⁵³. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tarbiyalanuvchilarning aksariyat qismini qizlar tashkil etib, Buxoro xonligida maktablarda o'qish man qilingan qizlar yangicha madaniyat va bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Buxoro maorif uyi" tufayli O'zbekiston o'zining Sora Eshonto'raeva, Maryam Yoqubova, Zamira Xidoyatova, Xolida Xo'jaeva kabi talantli ayollarini tanidi.

"Buxoro maorif uyi"da o'quvchilar 4 guruhga bo'lingan bo'lib, bu guruhlar tarbiyalanuvchilarning yoshi, tayyorgarligi va asosan rus tilini bilish darajasiga qarab tashkil etilgan edi.

Tarbiyalanuvchilar sog'ligini mustahkamlash maqsadida Klyazma o'rmon maktabi tashkil etilib, ochiq havoda o'quvchilar bilan mashg'ulotlar olib borilgan. Yangi qabul qilingan o'quvchilar dastlab o'rmon maktabida salomatliklari tiklanib so'ngra "Buxoro maorif uyi"ga yo'naltirilgan.

⁵³ Астанова Г. Историография политических процессов в Бухаре в 1920-1924 гг.: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. - Ташкент, 2008.



Umuman “Buxoro maorif uyi”da tibbiy-sanitariya ishi a’lo darajada yo’lgan qo’yilgan bo’lib, umumiy vrach va uning ikkita yordamchisi faoliyat ko’rsatgan. Muassasa huzurida ambulatoriya ham mavjud bo’lib tibbiyot xodimlari kunu tun tarbiyalanuvchilarning salomatligidan boxabar bo’lib, kerak vaqtda malakali tibbiy yordam ko’rsatishgan.

1923-yil 20-sentabrdan 1924-yil 20-fevralgacha “Buxoro maorif uyi” da yangi faoliyat bosqichi boshlandi.

“Buxoro maorif uyi” huzurida ikki yilga mo’ljallangan maktab tashkil etildi. Boshqa maktablarga jo’natilgan o’quvchilar “Buxoro maorif uyi” huzuridagi maktabga qaytarildi. O’z o’rnida o’quvchilar va maktab rahbariyati o’rtasidagi munosabatlarda ham o’zgarishlar ro’y berdi. O’z-o’zini boshqarish, umumiy boshqaruv bilan almashtirildi. “Buxoro maorif uyi” da adabiy to’garak tashkil etilib to’garak haftada ikki marta faoliyat yuritgan.

To’garaklar o’z navbatida klubga birlashib, klubda turli suhbatlar va bahs-munozaralar uyushtirilardi. Shuningdek, uyda “Qizil yoshlar ovozi” nomli devoriy gazeta tashkil etilgan bo’lib, oyida ikki marta gazetada turli masalalarda ma’lumotlar yoritilgan.

O’quv komiteti rahbariyat va xo’jalik bo’limi bilan birgalikdagi aloqada tarbiyalanuvchilarga kiyim-kechak tanlash va kiyintirish, o’quv materiallarini tarqatish, navbatchilikni ta’minlash va tashkil etish, o’quvchilarning ovqatlanishlarini nazorat qilish, ularning o’quv faoliyatini va o’zlashtirishlarini nazorat qilib borish kabi vazifalarni bajargan. Shu bilan bir qatorda o’quv komiteti madaniy-oqartuv tadbirlar va turli kechalarni tashkil etishda qatnashgan.

O’quv komiteti o’z navbatida Moskvada boshqa ta’lim muassasalari bidan “Buxoro maorif uyi” o’rtasida hamkorlikni yo’lga qo’yish bo’yicha jonbozlik ko’rsatgan.

Bu davrni “Buxoro maorif uyi”ning engg yorqin davri deb atashimiz mumkin. Bu davr tarbiyalanuvchilarni mustaqil faoliyat yuritishga o’rgatib, mehnat qilish ko’nikmalarini shakllantirdi.

Buxoro maorif uyidagi “O’quv komiteti” rahbariyat va xo’jalik bo’limi bilan birgalikdagi aloqada tarbiyalanuvchilarga kiyim-kechak tanlash va kiyintirish, o’quv materiallarini tarqatish, navbatchilikni ta’minlash va tashkil etish, o’quvchilarning ovqatlanishlarini nazorat qilish, ularning o’quv faoliyatini va o’zlashtirishlarini nazorat qilib borish kabi vazifalarni bajargan. Shu bilan bir qatorda o’quv komiteti madaniy-oqartuv tadbirlar va turli kechalarni tashkil etishda qatnashgan.

O'quv komiteti o'z navbatida Moskvada boshqa ta'lim muassasalari bidan "Buxoro maorif uyi" o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha jonbozlik ko'rsatgan.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Buxoro maorif uyining tashkil topishi va uning safidan yirik davlat hamda madaniyat arboblarning yetishib chiqishida o'z xalqining haqiqiy vatanparvari, jonkuyari Fayzulla Xo'jaevning shaxsiy rolini ta'kidlash lozim.

"Buxoro maorif uyi" tarbiyalanuvchilari safidan akademiklar, injenerlar, arxitektorlar, fan va madaniyat arboblari yetishib chiqdi va ular keyingi avlodning ta'lim-tarbiyasi jarayoniga ulkan hissa qo'shdilar. "Buxoro maorif uyi" ning tajribasini mustaqil O'zbekistonning yoshlari o'z tarixlarining yorqin sahifasi sifatida bilishlari, o'rganishlari muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Косимов Ф. Драма революции и правда истории (формирование историографии советизации Бухары и Хорезма). - Бухара, 1996;

2. Хайитов Ш., Рахмонов К. Бухоро Халқ Республикаси ва Германия: ҳамкорликнинг тарихий лавҳалари (1920-1924 йиллар). - Тошкент: Фан, 2004;

3. Астанова Г. Историография политических процессов в Бухаре в 1920-1924 гг.: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. - Ташкент, 2008.

4. Maktablar haqida umumiy qoidalar (Qori Yo'ldosh, Oripov)//Buxoro axbori. 10-son. 1920 yil 29 noyabr;

5. BXShJning maorif nazorati tarafidan buyruq. (Fayzulla Xo'ja, Qori Yo'ldosh)//Buxoro axbori. 14-son. 1920 yil 20 dekabr;

6. Maorif ishlarini taftish qilish //Buxoro axbori. 19-son. 1921 yil 13 yanvar;

7. Maktab rahbarlari-"instuktorlar" uchun dasturamal. (Qori Yo'ldosh, Ismoil Sadri)//Buxoro axbori. 25-son. 1921 yil 22 fevral; 34-son, 1921 yil 1 may; 8. Majburiy o'qitish //Buxoro axbori. 32-son. 1921 yil 17 aprel;

9. Maorif nazorati tomonidan e'lon //Buxoro axbori. 33-son. 1921 yil 23 aprel.

"BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASARLARNI O'RGATISH METODIKASI"

Abdullayeva Feruza Nurillayevna

Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrasida dotsenti.

Anontatsiya: O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarlarni o'rgatishning metodik yondashuvlari, samarali usullari va o'quvchilar tafakkurini shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, badiiy asarlarni tanlash mezonlari, tahlil qilish bosqichlari hamda tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Nutq, gap, matn, nutq ifodaliligi, og'zaki nutq, yozma nutq, darslik.

Bugungi kunda ta'lim jarayonining mazmunini boyitish, o'quvchilarda estetik did, badiiy tafakkur va axloqiy fazilatlarni shakllantirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinfda beriladigan bilimlar bola shaxsining ilk bosqichdagi rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qish darslarida o'quvchilarning nutqini rivojlantirish, obrazli tafakkurini shakllantirish va badiiy-estetik dunyoqarashini kengaytirishda badiiy asarlarning ahamiyati beqiyosdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan badiiy asarlar ularning fikrlash doirasiga mos, hayotiy voqealarga yaqin va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Hozirgi kunda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish bilan ishlash muhim vazifa hisoblanadi. O'quvchilar jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari uchun og'zaki va yozma nutqlari to'g'ri va ravon bo'lishi zarur. Ular o'z fikrlarini ixcham, tushunarli, to'g'ri va ravon yetkaza olishlari kerak. Bolalarni o'z fikrini mustaqil yozishga (o'qilgan matnni hikoya qilishga) o'rgatishni, iloji boricha, erta boshlash ma'qul. Ularga so'zni yozishdan gapni yozishga, so'ng matn qismlarini yozishga o'rgatish kerak. Shu orqali keyin ular kichik matnlarni tuzishga kirishadilar. Ularning nutqlari mazmundor, to'g'ri va aniq bo'lishi kerak.

“Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslarini tashkil qilishda biz asosan ertak, hikoyalarning mazmunini ularga yetkaza bilishimiz kerak. Biz bunda asar qahramonlarining ovozigacha taqlid qilishimiz mumkin. Bu o‘quvchilarga qiziqarli jarayon bo‘ladi va ularning e‘tiborini biz hikoya, ertakka qaratib olamiz. Biz o‘quvchilarga rasmlar berib, rasm asosida matnlarni tuzishni topshiriq qilib berishimiz mumkin. Bunda bola aniq bir manzarani, holatni ko‘rib, o‘zining ijodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda o‘z fikrini bayon qiladi. Rasm bilan ishlash jarayonida ular gaplarni bir-biriga mazmuniy va mantiqiy jihatdan bog‘lab matn tuzishlarini shakllantirish kerak. O‘qituvchi o‘quvchilarda matn bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirar ekan, ularni bir mavzuga turli tomonlardan qarashga o‘rgata bilishi kerak. Matndagi qahramonlar, u yerdagi manzarani o‘quvchi ko‘ra olishi kerak. Bu o‘qituvchidan mahorat talab qiladi. O‘quvchilarni bu jarayonga kirita olishi dardor.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun badiiy asarlarni tanlashda quyidagi mezonlarga e‘tibor qaratish lozim:

O‘quvchining yoshi va psixologik xususiyatlariga mosligi;

Tilining soddaligi va ifodaliligi;

Tarbiyaviy yo‘nalganligi;

Hayotiy voqealarga yaqinligi;

Qahramonlarining faol, ijobiy obraz bo‘lishi.

2. O‘rganish jarayonining metodik bosqichlari, badiiy asarni o‘qitish jarayoni odatda quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Asarni oldindan tushuntirish: muallif haqida qisqacha ma‘lumot berish, asar mavzusi va asosiy obrazlar bilan tanishtirish;

Ifodali o‘qish: o‘qituvchi yoki o‘quvchilar tomonidan asarni his etgan holda ifodali o‘qish;

Tahlil qilish: savol-javob, obrazli tafakkurni rag‘batlantirish, muammoli vaziyat yaratish;

Munozara va xulosa chiqarish: asardan olinadigan tarbiyaviy saboqni ochib berish;

Ijodiy topshiriqlar: rasm chizish, voqeani davom ettirish, rolik tayyorlash, rolli o‘yinlar o‘ynash.

3. Metodik usullar badiiy asarni o‘zlashtirishda samarali hisoblanadi:

Rolga kirib o‘qish – qahramonlarni jonlantirish orqali emotsional idrokni kuchaytirish;

“Savol-javob zanjiri” – matnga asoslangan tahliliy savollar orqali fikrlashni chuqurlashtirish;

Vaziyatli muammolar – darsda muammoli vaziyatlar yaratish orqali o‘quvchining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish;

Grafik organayzerlar – voqealar ketma-ketligini ko‘rsatuvchi sxemalar tuzish.

4. Tarbiyaviy ahamiyati badiiy asarlarni o‘rgatish orqali o‘quvchilar:

Yaxshilik va yomonlikni ajratishni o‘rganadilar;

Obrazlar orqali o‘zlarini baholaydilar;

Estetik did va nutq madaniyatini shakllantiradilar;

Ona tilining boyligini chuqurroq anglaydilar.

Biz matndagi holatni o‘quvchilar bilan jonlantirsak, ularda tasavvur boyligi oshadi. Badiiy asarlarni o‘qish, o‘qilganlarni qayta hikoya qilish og‘zaki nutqni rivojlantirishga yordam beradi.

O‘qish darsi va u bilan bog‘liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya, o‘quvchilarga tabiat hodisalarni, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalarini boshqa kishilar hayoti va mehnati haqida, boshqa kishilar bilan muomala haqida bilim beradi. O‘qish darslarida o‘quvchilar bajaradigan so‘z

birikmasi, gap tuzish, matn tuzishga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashga yordam beradi.

O‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutqni birgalikda shakllantirib borish kerak. Og‘zaki nutqda gapirish tempi, nutqning mazmunlilik muhim hisoblanadi. O‘quvchilar o‘z shaxsiy fikrlarini yozma nutqda ham og‘zaki nutqda ham to‘g‘ri va yozma yorita olish kerak. O‘quvchilarga dastlab so‘z birikmasi, keyin gap haqida ma‘lumotlar berib boriladi. So‘ng ularga matn haqida tushunchalar taqdim etiladi.

Biz dars jarayonida o'quvchilarga "Vatan" mavzusida matn tuzishni mustaqil topshiriq sifatida berib, ularning ham o'g'zaki, ham yozma nutqlarini qanday ekanligini bilib olsak bo'ladi. Ularga matn tuzish uchun kerak bo'ladigan kalit so'zlarni taqdim etamiz. Bu orqali biz ularning og'zaki nutqlari va yozma matnlari bilan ularning fikrlarini bilishimiz mumkin. Turli xil mavzuga doir rasmlar taqdim etib, ularning og'zaki nutqlarini yaxshilashimiz mumkin. Matn tuzish jarayonida o'quvchilar ijodiy fikrlaydilar, gap tuzish qoidasiga e'tibor qaratadilar. Asta-sekin ularda ijodiy fikrlash doirasi kengayib boradi.

Matnlarni o'qish yoki tuzish davomida o'quvchilarning o'z munosabatlarini og'zaki tarzda bayon qilishlari ham muhim hisoblanadi. Har bir o'quvchining o'z fikri bor. Bu fikrlarni bayon qilish muhim hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning ham yozma, ham og'zaki nutqlarini erkin bayon qilishlarida ular ustida ishlashi kerak.

Boshlang'ich sinf darsliklarida o'quvchilarning nutqini yaxshilash maqsadida matn bilan ishlash ko'nikmalariga e'tibor qaratilmoqda. Darsliklardagi har bir topshiriq o'quvchini fikrlashga va fikrlarni bayon qilishga undaydi. Bundan asosiy maqsad o'quvchilarning aqliy salohiyatini kengaytirish va o'z fikrlarini erkin bayon qilish. Bu orqali har bir o'quvchi o'z imkoniyatlarini namoyon qila oladi. Boshlang'ich sinflarda badiiy asarlarni o'rgatish jarayoni o'quvchilarning intellektual, estetik va axloqiy tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Mazkur jarayonda o'qituvchi har bir asarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashi muhimdir. Bu esa bolalarda kitobxonlik madaniyati, mustaqil fikrlash va badiiy-estetik zavqni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR RO'YXATI:

1. Azimova. I, Mavlonova.K va boshqalar. "Ona tili va o'qish savodxonligi" 1-2-qism: 3-sinfi uchun darslik. Toshkent: "Respublika ta'lim markazi", 2022.
2. Qosimova K, Matjonov S, G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Sariyev Sh. "Ona tili o'qitish metodikasi".
3. "O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim". Umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun o'quv modullari, 1-modul, Toshkent-2013-yil.
4. Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. - T.: O'qituvchi, 1980.66-bet
5. Abdullayeva F. TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA PISA VA TIMSS KABI XALQARO TADQIQOTLARNING ROLI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
6. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 47-50.
7. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
8. Nurullayevna A. F. ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ILMIY OMMAVOP MAQOLALARNI O'RGATISH //БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 406-409.
9. Курбанова Ш. Н., Абдуллаева Ф., Очилова Г. О. Педагогическая технология–целостная система образовательного процесса //новые педагогические исследования: сборник статей IV. – 2021. – С. 20.
10. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. TARBIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1030-1035.

TARBIYALANUVCHILARIDA OILAGA NISBATAN QADRIYATLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Xo'jaqulov Akbar Eshquvatovich

Qarshi davlat universiteti Pedagogika fanlari falsafa doktori, (phd), professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning oilaga nisbatan qadriyatli munosabatlarini rivojlantirish jarayoni haqida fikr bildirilgan. O'yin faoliyatida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida oilaviy qadriyatli munosabatlarni shakllantirish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: oila, bola, qadriyat, o'yin, o'zaro faoliyat, oilaviy qadriyat, tarbiyalanuvchi, hamkorlik, maktabgacha ta'lim tashkiloti, mashg'ulot.

Аннотация: В статье рассматривается процесс формирования ценностных отношений детей с семьей в системе дошкольного образования. Особое внимание уделено возможностям формирования ценностных отношений в семье в дошкольных образовательных организациях посредством игровой деятельности.

Ключевые слова: семья, ребенок, ценность, игра, взаимодействие, семейная ценность, воспитанник, сотрудничество, дошкольная образовательная организация, деятельность.

Annotation: This article discusses the process of developing children's value-based relationships with their families in the preschool education system. Special attention is paid to the opportunities for the formation of family value-based relationships in preschool educational organizations through play activities.

Key words: family, child, value, game, interaction, family value, pupil, cooperation, preschool educational organization, activity.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan maktabgacha ta'lim muassasasining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi[1]da belgilanishicha, o'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Mazkur hujjatda maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim 4ta kompetensiyalari aks ettirilgan: kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi; o'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi bo'lib, u o'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi; ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va meyorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati; bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni bajarish uchun foydalanish.

Pedagogik, psixologik, falsafaga oid tadqiqotlardan ma'lumki, bolalar dunyoqarashining asosiy qismi ularning maktabgacha bo'lgan yoshlarida shakllanadi. Bola dunyoqarashining ma'naviy sifatlarining mazmunida estetik tasavvurlar muhim o'rin tutadi. Shu bois, oilada bola tarbiyasi jamiyatning dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammosi bo'lib qolmoqda.

Bolalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda turli omillar turlicha ta'sir etadi. Bu omillar ichida oila eng asosiysi hisoblanadi. Chunki bolada tasavvur, tushunchalarning shakllanish jarayoni aynan oilada boshlanadi va bu davr dunyoqarash shakllanishining mazmun hamda hajm jihatidan eng salmoqli bosqichidir. Shuning uchun ham tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda maktabgacha yosh davri asosiy davr hisoblanadi.

Oila va oilaviy munosabatlar, ularni jamiyatning, oilaning tamaddunidagi o'rni haqida tarixiy manbalar mavjud. Qur'oni karim, Hadisi shariflar, shuningdek, "Avesto" kabi muqaddas manbalarda bu haqida ibratli hikmatlar mavjud. Ayniqsa, Sharq mutafakkirlari bu masalaga alohida e'tibor bilan qaraganlar. Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Minerologiya", "Geodeziya", "Hindiston", Abu Ali ibn Sinoning "Axloq fani", "Oila xo'jaligi", Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya", Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror"

va “Mahbub ul-qulub”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Abdurauf Fitratning “Oila”, Rizouddin ibn Fahrudinning “Oila” asarlarini bu e’tibor va e’tirof yo’lidagi sa’y-harakatlar natijasi sifatida qarash joiz.

Oila, oilaviy munosabatlar masalasi tasavvuf falsafasida ham alohida o’rin tutadi. Xususan, Ahmad Yassaviy[2], Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro[3] tariqatlarida oilaviy munosabatlar, jumladan, ota-onalar munosabatlarining farzand tarbiyasidagi ahamiyati alohida ta’kidlab o’tilgan.

Shaxs kamoliga ta’sir etishga qodir barcha ijtimoiy institutlar, xususan, oila, ta’lim tizimi, jamiyat, davlatning chambarchas aloqasi zaruratini ta’kidlashimiz o’rinlidir. Aynan oila barcha keyingi ta’lim uchun asos solishi kerak. Ota-onada bilim va ko’nikmaning yo’qligi bolaning ma’nan va ruhan kamol topishiga ongli ta’sir ko’rsata olmaydi, ularning g’amxo’rliklari esa ko’pincha tarbiyaning faqat jismoniy tomonini qamrab oladi, xolos. Shu bois, nafaqat bolalar, balki ota-onalarni ham ta’lim oldirish maqsadida maktabgacha ta’lim tashkiloti va oilaning o’zaro hamkorligi masalasiga ham e’tibor qaratilishi lozim, oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti shaxsning individualligini rivojlantirishi, o’sib kelayotgan avlodda oilani qadrlash tuyg’usini shakllantirishi shart.

Keyinchalik oilaviy qadriyatlar shakllanishi g’oyalari, to’g’ridan-to’g’ri talqin etilmagan bo’lsa-da, A.Avloniy, Behbudiy va boshqa ma’rifatparvarlar asarlarida rivoj topdi. Ularning kitoblarida ushbu qadriyatlarning asosiy qonunlari: ota-onaga hurmat, oilada axloqiy meyorlarga rioya qilish ochib berildi. Ko’plab pedagog-insonparvarlar oilaviy qadriyatlar shakllanishi tarafdorlari bo’lib chiqishdi. Tarbiya bilan bog’liq qiyinchiliklar shu sabab bilan yuzaga chiqadiki, “ota-onalar o’z kamchilik va xatolarini to’g’rilamasdan, o’z nuqsonlarini oqlaydi, bolalarida esa bu kamchiliklarni ko’rishni istamaydi”. Bolaga yaxshi tarbiya berish uchun avvalo o’zing tarbiya qilayotgan farzandingning ko’z oldida yaxshi yashashing kerak [4, 12-6.].

P.F.Lesgaft[5]ning fikricha, oilaparvar insonni tarbiya qilish, gumanistik-pedagogik nuqtai nazaridan oilani qadriyatlar tuyg’usini kamol toptirishning yetakchi maqsadlarini, vazifalarini, mazmuni va metodlarini aniqlab beradi. Bolaning ulg’ayib borishi chog’ida, to’g’ri va mahsuldor tarbiyalash uchun ijtimoiy omillar, shu jumladan, oilada bola ishonishi mumkin bo’lgan yaqin insonning borligi yetakchi rol o’ynaydi.

Oilaga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirishda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining o’yin faoliyatlari haqida fikr yuritilganda, ularning o’yinchoqlar bilan bog’liq faoliyatini ham nazarda tutish lozim. Bolalarga o’yinchoqlarni berishda ularning yosh xususiyatlari, taraqqiyot darajalari va, ayni paytda, ularni ko’proq nimalar qiziqtirishini hisobga olish kerak. Ma’lumki, 1-3 yoshdagi bolalar hali tashqi muhitni juda oz o’zlashtirgan bo’ladilar. Ular ko’p narsalarning rangini, hajmini ham yaxshi ajrata olmaydilar. Shuning uchun ularga qo’g’irchoq bilan birga har xil rangli qiyqimlar, lahtaklar ham berish kerak. Ayniqsa, qiz bolalar o’z qo’g’irchoqlarini har xil rangli matolarga o’rab, ro’mol qilib o’rab mashq qiladilar. Natijada bolalarda oila, oilaviy munosabatlarga nisbatan qadriyatli munosabat tarkib topadi.

Quyida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida oilaga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantirish imkonini beruvchi ayrim o’yin mashg’ulotlardan namunalar keltiramiz.

“Yo’l ko’rsatuvchi” o’yini

Maqsad: ota-ota yoki katta yoshdagi inson va bola o’rtasida ishonchli munosabatlar o’rnatish; diqqatni rivojlantirish; bolaning o’z-o’ziga bo’lgan bahosini ko’tarishga ko’maklashish.

Ota-ota yoki katta yoshdagi insonning ko’zlari bog’lanadi. Bola uni qo’lidan ushlab yo’l ko’rsatadi va to’siqlar atrofidan, ularga tegib ketmaslikka harakat qilib, olib o’tadi.

“Uy quramiz” o’yini

Maqsad: ota-onaga o’z farzandining muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizliklariga bo’lgan munosabatini his qilishiga yordam berish; bolaning sezgisi, tafakkuri, motor-ko’rish koordinatsiyasini rivojlantirish.

Bola va katta yoshdagi inson (onasi yoki otasi) stol atrofida bir-birlariga qarama-qarshi

o'tiradilar. Stolda Lego konstrukturi detallari qo'yilgan. Bola katta yoshdagi insonning aytib turishi yordamida uyni yig'adi. Katta inson, qo'llarini beliga qo'ygan holda, faqat so'zlar bilan ko'maklashadi (maqto'v, aytib turish va h.k.).

“Tuxumlarni yig'” o'yini

Maqsad: ota-onalarga begona bolaning muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizliklariga bo'lgan munosabatini his qilishiga yordam berish; bolaning sezgisi, tafakkuri, motor-ko'rish koordinatsiyasini rivojlantirish.

Bola va begona katta yoshdagi inson stol atrofida bir-birlariga qarama-qarshi o'tiradilar. Stolda turli bo'laklarga bo'lib qirqilgan karton tuxum qo'yilgan. Bolaga tuxumni yig'ish taklif etiladi, katta yoshdagi inson bolaga faqat so'zlar bilan yordamlashishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining oilaga nisbatan qadriyatli munosabatini shakllanishi asosan, bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. Bolalik davrlaridan boshlab, bolada ahamiyatli hisoblangan – iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari atrofidagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o'rganadilar. Bu esa ularning kelajakda odamlar bilan muloqotga kirisha olishlarida, ish yuzasidan va shaxsiy munosabatlarni samarali o'rnatishida foyda keltiradi. Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 7 iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan maktabgacha ta'lim muassasalari uchun «Ilk qadam». Maktabgacha ta'lim muassasalari davlat o'quv dasturi. Tuzuvchilar: I.V.Grasheva, L.G.Yevstafeva, D. T. Mahmudova, Sh. B. Nabixonova, S. V. Pak, G. E. Djanpeisova. – T.: MTV, 2018. – 69 bet.

2. Xojiyeva M.S. Hoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari. Ped.fan.nomz. ilm. dar. olish uchun yozilgan diss. -T.: 2004.-141 b.

3. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-kitob. – T.: Fan, 1996. – 276 b.

4. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur: O'quv qo'llanma / S.Ochil umumiy tahriri ostida. – Toshkent: O'qituvchi, 1999. – 200 b.

5. Лесгафт П. Ф. Семейное воспитание ребенка и его значение. / П.Ф.Лесгафт. – М.: Педагогика, 1991. – 174 с.

JADID MA'RIFATPARVARLARIDAN BO'LGAN MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING PEDAGOGIK MEROSIDAN BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FOYDALANISH IMKONIYATI

G.X.Shodiyeva

BuxDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrası o'qituvchisi

M.R.Ravshanova

BuxDPI Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid ma'rifatparvarlaridan bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik merosini o'rgangan holda ta'limda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: darslik, jug'rofiya, ilmiy-pedagogik meros, jadidchilik, pedagog.

Аннотация: В статье представлена информация о возможностях формирования навыков для использования в образовании путем изучения педагогического наследия Махмудходжи Бехбуди, одного из просветителей-джадидов.

Ключевые слова: учебник, география, научно-педагогическое наследие, джадидизм, педагог.

Abstract: This article presents information on the possibilities of developing skills for use in education by studying the pedagogical heritage of Mahmudkhodja Behbudi, one of the Jadid enlighteners.

Keywords: textbook, geography, scientific and pedagogical heritage, Jadidism, pedagogue.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yil 19-yanvar kuni Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Mahmudxo'janing otasi Behbudxo'ja imom -xatiblik bilan shug'ullangan. Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li Ahmad Yassaviy avlodlaridan bo'lgan. Mahmudxo'ja 9 yoshga to'lgach otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li vafot etadi. Maxmudxo'ja tog'asi Muhammad Siddiq qo'lida qoladi. Kichik tog'asi Odil unga arab sarfunahvini o'rgatadi 18 yoshga to'lgach qozixonada mirzolik qiladi. Mahmudxo'ja dastlab Samarqand keyin esa Buxoro madrasalarida ta'lim olgan. Yaxshi ta'lim va o'z ustida muttasil ishlash orqali Behbudiy shariatning yuksak maqomlari-qozi, mufti darajalarigacha ko'tarilgan.

U 1917 yilning oxiri - 1918 yilning boshlarida jadidlar qurgan ilk demokratik davlatchilik namunasi Turkiston muxtoriyatining taqdiri hal bo'layotgan bir paytda o'lka xalqlarini birlikka chaqiradi. Behbudiy ijtimoiy-siyosiy ishlarga qizg'in qo'shildi. Aslida bu faoliyat 1906 yildan boshlangan. Shu yili «Rusiya musulmonlari ittifoqi»ning Nijniy Novgorodda o'tkazilgan qurultoyida qatnashgan edi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning «Kitobi muntaxabi jo'g'rofiyai umumiy», to'liq nomi «Kitobi muntahabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiya» («Umumiy jo'g'rofiyadan saylanma kitob, 1906») darsligida, «yangi ilmdan bexabar ulamolar»ni dunyoviy va diniy bilimlar o'rtasiga sun'iy to'siq qo'yish, nodonliklari tufayli islom dinini obro'sizlantirishda aybladi. Muallif ushbu darsligida: «Agarda jo'g'rofiya o'qumasak, dunyog'a taraqqiy qilolmaymiz», -deb ta'kidlaydi.

M.Behbudiy osmon jismlari, yerning aylanishi haqidagi ma'lumotlarni bolalar yoshiga mos tilda bayon etishga harakat qilgan. Shuningdek, darslikda geografiyaga oid ko'plab kitoblar yozilganligi, Abulqosim Ubaydullohning «Kitob al-masolik va-l-mamolik» va «Kitob as-samo» risolalari mavjudligi, ularning fransuz va nemis tillariga tarjima qilingani, geografiyaning rivojiga hissa qo'shgan olimlar, ularning asarlari, amerika qit'asining kashf etilishi, dengizlar, bo'g'ozlar, Rossiya va Yevropa mamlakatlari, geografiya fanining hamon rivojlanishda ekanligi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Darslikdagi navbatdagi bo'limi «Turkiston donishmandlari» deb nomlangan bo'lib, unda musulmon ulamolaridan Ibn Sinoning lug'at, mantiq, geografiya, musiqa, axloq, kimyo, abtoli ahkomi nujum, tabiat, hikmat, tib ilmlariga oid yuzlab asarlari borligi, ularning yevropa tillariga tarjima qilinganligi, Badriddin Samarqandiy, Abdurahmon Xorazmiy, Abu Yazid Balxiy, Abduraxmon Marvoziy, Abdurazzoq Hirotiy, Abu Ibrohim Gurgoniy, Sharif Xorazmiy, Ahmad bin Tabib Saraxsiy, Abu Mash'ar Balxiy, Abu Ja'far Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy kabi donishmandlar, ularning qaysi yo'nalishda ijod qilganliklari haqida ma'lumotlar berilib, ular yashab ijod qilgan sanalar keltirilgan.

Ma'rifatparvar pedagog ushbu darslikda «Eski va yangi donishmandlar» haqida ham to'xtalib, «eski donishmandlar» deb qadimgi yunon ulamolari va «yangi» deb yevropa olimlarini aytish lozimligini ta'kidlaydi. O'zaro qiyoslash asosida ularning yer haqidagi qarashlarini o'quvchilarga tushuntirib, yevropaliklarning fikrlariga qo'shilishini qayd etadi. «Yangi hukamolarni so'zidan namuna» sarlavhasi ostida, yerning quyosh atrofida aylanishi, yulduzlar yorug'likni quyoshdan olishi, Mirrix (Mars) planetasi, unda ham tuproq, tosh, o't, suv, bulut, yomg'ir va qor borligi haqida to'xtaladi. Mazkur o'rinda muallifning noto'g'ri fikr yuritganligini ta'kidlash joizdir. Chunonchi muallif: Marsda odam yashaydi va ularning bilimi bizdan zo'r, durbin bilan qaralsa, daryolarning suvlari ko'rinadi, Mars yerdan olti marta kichik bo'lib, kecha-kunduz, qish va yozlari bor. 1346 yil Neptun topilgan, uning quyoshdan uzoqligi 4175 mln. chaqirim, deb yozadi. Shuningdek, u darslikda yerning yoshi haqida ham to'xtaladi.

Bizga ma'lumki, jadidlar ma'rifatparvarlik, vatanparvarlik, millat kamoli yo'lida jonbozlik ko'rsatganlar. Biroq, ularning harakati mazmuni va mohiyati, maqsad va vazifasi o'sha davrda ham, sovet davrida ham g'arazli maqsadda talqin qilindi. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri IX-

XII asrlarda vujudga kelib, bu asr oraliq'dagi ilmiy-madaniy yuksalish Ma'mun Akademiyasi misolida namoyon bo'lgan edi. Ikkinchi uyg'onish davri Temur va temuriylar hukmronlik qilgan yillarga to'g'ri keladi, ushbu davrda buyuk davlat qurilishi (Amur Temur saltanati) amalga oshirildi, Mirzo Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan XV asrning buyuk mo'jizasi rasadxona yorqin yulduz bu davrning ilmiy tafakkurining yorqin namunasidir. Oradan IV asr o'tgach, jadid ziyolilari uchinchi Milliy uyg'onish jarayonini vujudga keltirdilar. Ular boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlar qatori hozirgi geografiya o'quv fani zarurligini asoslab, bu sohada dastlabki darsliklarni yaratdilar.

Xulosa qilib aytganda, jadid namoyondalaridan bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik merosini o'rganib, bugungi kun ta'lim jarayonida aynan zamonaviy imkoniyatlardan foydalangan holda qo'llasak samarali bo'ladi. Ya'ni jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim -tarbiya uchun amalga oshirgan islohotlarini o'rgangan holatda bevosita ta'limda foydalanish nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Jadid pedagogikasi" o'quv-uslubiy majmua Shahrisabz -2022
2. "Ta'limda axborot texnologiyalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. - T. 2000.
3. "Pedagogika: muammolar, bahslar, yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy- amaliy konferensiyasi. -T. 2003.
4. "2004-2009 yiliarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi" asosida malaka oshirish tizimi sifati va samaradorligini interfaol usullardan foydalanishning ilmiy pedagogik asoslari" mavzusidagi Respublika ilmiy- amaliy konferensiyasi. - T. 2007.
5. "2004-2009 yiliarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi" asosida malaka oshirish tizimi sifati va samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. - T. 2008
6. "Malaka oshirishning zamonaviy shakillarini qo'llash va ijodiy muhit yaratish orqali kurs samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. - T. 2009.
7. "Maktabgacha ta'limda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etishning dolzarb masalalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. - T. 2010.
8. "Xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirishda samarali tizimni yaratishning ilmiy-metodik asoslari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami T.2015

JADID ADABIYOTIDA SHE'R XUSUSIDA ILMIY-NAZARIY ASOSLAR

*Saidova Rayhon Bekmurodovna,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq va umumturkiy adabiyotida muhim mavzulardan biri bo'lgan she'r va shoirlik masalalari Abdurauf Fitrat ijodi misolida tahlil qilinadi. Fitratning "She'r va shoirliq" nomli adabiy mubohasasi orqali uning badiiy qarashlari, shoirlik mohiyatiga bergan bahosi va bu mavzudagi faoliyati yoritiladi. Maqolada Fitratning forsiy she'rlari jamlangan "Sayha" to'plami va uning yangi tojik she'riyatiga ta'siri haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, Fitratning shoirlikka bo'lgan munosabati, oilaviy muhiti va ilk adabiy qadamlariga ham e'tibor qaratilgan. Tadqiqot Fitratning she'rga doir nazariy qarashlarini tahlil qilish orqali turkiy adabiyotda poetik tafakkurning shakllanishini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Abdurauf Fitrat, she'r, shoirlik, "She'r va shoirliq", "Sayha", forsiy she'riyat, tojik adabiyoti, turkiy adabiyot, adabiy mubohasa, poetika, badiiy tafakkur.

Annotation: This article analyzes the significant theme of poetry and poets in Eastern and Turkic literature through the example of Abdurauf Fitrat's creative legacy. His literary debate titled "She'r va shoirliq" (Poetry and Poets) serves as a central source in understanding his perspective on poetic essence and literary philosophy. The article discusses the influence of his Persian poems compiled in the collection *Sayha* on modern Tajik poetry. Fitrat's attitude toward

poetry, the role of his family environment, and his early literary steps are also considered. Through analyzing his theoretical views on poetry, the article highlights the development of poetic thought in Turkic literature.

Keywords: Abdurauf Fitrat, poetry, poet, *She'r va shoirliq*, *Sayha*, Persian poetry, Tajik literature, Turkic literature, literary debate, poetics, artistic thinking.

Аннотация: В данной статье рассматриваются важные вопросы поэзии и поэтов в восточной и тюркской литературе на примере творческого наследия Абдурауфа Фитрата. Его литературный трактат «*Шеър ва шоирлик*» служит основой для анализа его взглядов на сущность поэзии и поэтическое мышление. Также анализируется влияние его персидских стихов, вошедших в сборник «*Сайха*», на современную таджикскую поэзию. Рассматриваются отношение Фитрата к поэзии, влияние семейной среды и его первые шаги в литературе. Через анализ его теоретических взглядов на поэзию раскрывается развитие поэтического мышления в тюркской литературе.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, поэзия, поэт, *Шеър ва шоирлик*, *Сайха*, персидская поэзия, таджикская литература, тюркская литература, литературная полемика, поэтика, художественное мышление.

Sharq va umumturkiy adabiyotining munozaralariga boy mavzularidan biri she'r va shoirlik masalalari sanaladi. Bu muammo yechimiga tamal bo'lib xizmat qiluvchi Abdurauf Fitratning "She'r va shoirliq" muhozasidagi fikrlar ahamiyati jihatidan nihoyatda muhimdir. Fitratning she'riyatga qarashlari, shoirlik haqidagi fikrlari bevosita uning shoirlik faoliyati va she'rlari bilan ham e'tiborlidir. U mazmun, shakl, hissiyot kabi she'r bilan bog'liq masalalarga to'xtaladi. Adabiyotshunos Sadriddin Ayniy ham uning "Sayha" asari tarkibiga kirgan forsiy she'rlarining yangi tojik she'riyatiga ta'siri xususida o'z vaqtida dolzarb fikrlarni o'rta tashlagan edi. Shu bois ham she'r va shoirlik xususidagi adabiy muhoza Abdurauf Fitrat ijodining sara namunalaridan hisoblanadi. To'g'ri, she'r va shoirlik degan tushuncha batamom yangi hodisa emas. Biroq antik davrlarda umuman badiiy adabiyotning borlig'i bilan bog'liq "poetika" deb yuritilgan tushuncha singari "she'r va shoirlik" ham bir adabiy termin o'laroq Fitrat tomonidan iste'molga kiritildi. Muallifning o'zi ham ko'plab ilmiy, adabiy asarlarida shu mavzuga ma'lum o'rinlarda murojaat qilgan. Ammo aynan shu mavzuda ilmiy muhozasaga qo'l urishining sababi turkiylarning she'r va shoirlik tarixi nihoyatda qadimiy va shonli ekanligining isboti himoyasiga chiqqanligi bo'lsa, yana bir jihat bu mavzuga aynan ijodkor ko'zi bilan qarab adabiy jarayondagi shoirning o'rni va she'rning asl qiymatini baholashdir. Muhozasidagi har bir fikrni tahlilga tortmoq uchun Abdurauf Fitratning shoirlik faoliyati haqida bir qadar ma'lumotga ega bo'lish maqsadga muvofiq sanaladi. Shoir Abdurauf Fitrat bor-yo'g'i o'n yetti she'rdan iborat go'zal lirik jamlanmasi bilan yangi o'zbek she'riyatini boshlab bergan ijodkor edi. Fitratning shoir bo'lib etishishida oila muhiti ham muhim ahamiyat kasb etgan. Onasi Mustafibibi, ba'zi manbalarda ismi Bibijon, bu ayol she'r zavqini tushunadigan, nozikta'b shoir bo'lgan edi. Onasidagi she'rni anglash hissi bolalikdanoq yosh Abduraufga ta'sirini o'tkazgan, badiiyat dunyosiga yaqinlashishiga asosiy sababchi bo'lgan. Ko'p qirrali iste'dod egasi Fitrat ijod olamiga she'riyat orqali qadam qo'ygan. Uning asarlari "Sadoyi Turkiston" va "Buxoroyi sharif" gazetalarida bosilgan. Kitobi o'zbek tilida "chorlov" ma'nosini anglatuvchi "Sayha" nomi bilan chop etilgan. "Sayha" she'riy to'plamiga fors tilidagi o'n to'rtta she'r kiritilgan. Bu she'rlar yangi davr tojik she'riyatiga qo'yildan ilk qadamlardan edi. Sadriddin Ayniy tomonidan tuzilgan "Namunayi adabiyoti tojik" nomli antologiyaga Fitratning ham forsha she'rlari kiritilgan. Bu she'rlarning o'quvchilar orasida tez tilga tushganligini Ayniy domla "Ta'rix inqilobi Buxoro" asarida aytib o'tadi va bu ta'sirni "elektr quvvati kabi kuchli ta'sir etdi" deya Turkistonninggina emas, Turkiya, Germaniya, Rossiyaning markaziy shaharlarida tez yoyilganligini, "Sayha" to'plami nomiga xos tarzda turli mamlakatlardagi she'rxonlarning dunyoqarashiga sezilarli ta'sir o'tkazganligini e'tirof etadi. "Sayha" to'plamiga kirgan she'rlar she'rxonlar orasida shu qadar katta ta'sir doirasiga ega bo'ladiki, natijada bu she'rlar shoirning tug'ilgan zaminida ham matbuot nashrlarida chop etiladi. Shu bilan o'quvchilarning istagi bir qadar qondirildi. Ular "Sadoyi Turkiston" gazetasining 1914-yil iyul oyi sonida she'rlar turkumi sifatida bosilgan.

Fayzulla Xo‘jayev yozishicha, Fitrat she‘rlari bosilgan aynan shu sonidan boshlab gazeta nashri to‘xtatilgan. Bu to‘plamga kirgan she‘rlarning asosiy mazmunini vatanparvarlik, yurtni sevishtirish kabi ruh tashkil qiladi. Bu xususda Fayzulla Xo‘jayev “Sayha”ni o‘qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, shu bilan birga rus hukumati ham ta‘qib qila boshladi. Chunki bu she‘rlarda Buxoro mustaqilligi g‘oyasi birinchi marta yorqin shaklda ifodalab berildi”, - deydi. Masalaning yana bir diqqattortirish jihati shuki, forsiy tilda yozilgan she‘rlari bilan yangi davr tojik she‘riyatiga tamol toshini qo‘yganligini ko‘plab adabiyotshunoslar e‘tirof etadilar. Tojik adabiyoti namunalari yiqqan Sadridin Ayniy shoir Abdurauf Fitratni XX asr forsiy-tojik adabiyotining asoschisi sifatida ko‘rsatadi. Bu mavzu alohida ilmiy maqola tahliliga munosibligi bois biz keyingi ilmiy ishlarimizda masalaning ayni shu jihatiga yana qaytamiz. O‘tgan asrning 20-yillarida tuzilgan “O‘zbek yosh shoirlari” majmuasiga ham Fitratning o‘zbek tilidagi she‘riy ijod namunalari kiritiladi. Biz ushbu tadqiqotimizda Fitrat she‘riyatining dilbar va nafis jihatlari ham tahlilga tortmoqni niyat qilganmiz. Kuzatgan ilmiy ishlarimiz orasida Abdurauf Fitratning shoirlik faoliyati yuzasidan qilingan eng katta xizmat Sadridin Ayniy domlaga tegishlidir. U bir o‘rinda “Fitratning she‘ri haqida ana shuni aytish kerak: shoir o‘zbek adiblari ichida birinchilardan bo‘lib folklor shakllarida she‘rlar yozdi. Bu ming yilcha davr ichida aruzdan boshqa shaklni bilmagan yozma she‘riyatimiz sohasida novatorlik edi”, - deydi. Ayniy domlaning fikrlarini Fitratning maqolasida urg‘u qaratilgan ushbu fikrlar ham dalillaydi. Ya‘ni, ijodkor “O‘zbek, totor, qirg‘iz, turkman orasida turk odi kabi unutilmas bir yo‘sunda bu kungacha yashab kelgan cho‘pchaklar, matallar, ertaklar, o‘lan va laparlarning har birini eshitib yuramiz. Turkman, qirg‘iz ellarindagi navras kishilari kichkina bolalar o‘quv, yozuv bilmagan xalqning qizlarining so‘z ustaliqlari borlig‘ini bilib turamiz. Mana shularning har biri turk eski adabiyot madrasasidan tushib qolg‘an baholi toshlardan boshqa narsa emasdir. Ulus ora og‘izdan og‘izga aylanib yurgan cho‘bchaklardan yaxshig‘ina onglashilurkim, turk eski adabiyot madrasasida sevgi va oshiqdan boshqa falsafa, hikmat va axloqdan ham ko‘b narsalar bor ekan”, - deydi. Olim Fitratning Sharq mumtoz she‘riyatidagi barcha go‘zalliklarni o‘zida mujassamlashtirgani, an‘anaviy she‘riyatga vulqonday otilishi kabi yangicha to‘lqin olib kira olganligini teran anglagan.

Shoir Fitrat nazokatli romantik bo‘lib, ijodkorning o‘zi she‘rlarini bekorga “rubobiy she‘rlar” (bu termin ham Fitrat tomonidan birinchi marta qo‘llangan) deya baholamagan edi.

XX asr adabiyotida she‘riyatning o‘zgarish yo‘nalishlarini, tashqi shakllari va hissiy ifoda usullari jadidlar davri bilan bog‘liq bo‘lib, adabiy nazariyalar ham Fitrat kabi buyuk adabiyotshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan edi. Abdurauf Fitratning “Adabiyot qoidalari” kitobida har uchala adabiy tur haqida va yangi kirib kelayotgan janrlarga to‘xtalib o‘tish barobarida asl shakl va mazmun qanday bo‘lishi kerak? degan bahsli munozara savollarga javob berilgan edi. Birgina she‘r haqida quyidagi fikrlarga e‘tibor bering: “Biz ham she‘rni “vazn” va “qofiya”dan iborat (deb) bilib turg‘ancha chin she‘rg‘a yaqinlasha olmaymiz. Talabimiz qilg‘an kabi “sharob, jom, xumor, hol, xat, qosh, ko‘z, gul, bulbul” singari o‘n-o‘n besh so‘zni bilgili vazn tizib, “ol, hol, xol” kabi so‘zlarni “qofiya” qilarmiz-da, o‘zlarimizni she‘r yozg‘an atab o‘tub ketarmiz. Holbukim, she‘r boshqa, “qofiya” bilan “vazn” boshqadir”. Bulardan ko‘rinib turibdiki, Fitrat she‘r masalasida “qoidasevar”likni emas, balki pafosni ustun qo‘yadi. Albatta, shoirdan inson qalbiga so‘z orqali shakl emas, hissiyot ko‘chib o‘tadi. Shu joyda hissiyot bilan aloqador nuqtalar haqida ham so‘z yuritishni lozim deb topdik. Abdurauf Fitrat she‘rning nozik qatlariga qadar nuqtadonlik bilan tadqiq qiladi, “she‘r yurakdagi sezgi to‘lqunlarini so‘z orqali tashqariga to‘kmakdir” fikriga ham o‘z munosabatini bildiradi. Xususan, bir o‘rinda “Ayniqsa, biz kabi chin she‘r va san‘at “ochunindan uzoqdashganlar esimizga kelgan har bir so‘zni” yuragimizdagi sezgi to‘lqunlari” gumon qilib tashqarig‘a ota bersak, Tangri ko‘rsatmasun, o‘quvchilarimiz qocharg‘a yo‘l topolmay qolarlar”, - deydi. Shoir she‘r tuzilishida yangiliklarga urinsa-da, o‘zbek tilining imkoniyatlarini ochib berib, turkiy til latofatini ko‘z-ko‘z qilar darajada isbotladi. Arab, forsi tillaridagi so‘zlarning soyasida nafosatini namoyon qila olmay qolib ketayotgan o‘zbekcha so‘zlarni she‘rlariga olib kirdi. She‘rlarida chorlov, uyg‘otish mazmunini ham xalqimizning asil so‘zlari orqali ifodaladi va ularning yuragiga shu sababli oson kira oldi.

Fitrat she'riyatining tili va uslubi haqida fitratshunos olim Hamidulla Boltaboyev "Fitrat va jadidchilik" kitobida Abdurahmon Sa'diy asaridan keltirilgan parcha orqali yuqoridagi fikrni asoslaydi: "Yosh o'zbek adabiyotida Fitratning roli uning tili va uslubida ko'rinadi. Fitrat adabiyotda arab va fors so'zlariga yo'lni berkitdi, til va uslubda ko'plab o'zbek shoirlarini o'ziga qaratdi. O'zbekcha she'r tuzilishining rivojlanish yo'llarini belgiladi". XX asr o'zbek zamonaviy she'riyatining rivojlanishi, barmoq vazni taraqqiyoti yo'lidagi Fitratning sezilarli hissasini qayd etmaslikning iloji yo'q. Ensiklopedik shaxs hisoblanmish Abdurauf Fitrat dramaturg, olim, nosir, publisist bo'lish bilan bir qatorda iste'dodli shoir ham edi. Undagi shoirlik iste'dodi o'zbek hamda forsiy tilda yaratilgan she'riy jamlanmalaridan sezilib turadi. Fitratning "Shoir" deb nomlanuvchi she'ri ham bor. Bu she'r 1920 - yil mart oyida yozilgan bo'lib, u Abdulhamid Cho'lponga bag'ishlanadi. Bu xususda adabiyotshunoslikda Miyon Buzruk Solihovning dalillari ham keltirib o'tilgan. She'r bashariyat dunyosi ko'klari sari ko'tarilishi uchun ruhiga madad tilayotgan lirik qahramon tilidan aytilgan:

Shoir

*Tabiatdan sirli, teran ma'nolar,
Tirilkik-chun ochiq, to'g'ri, chin yo'llar
Izlar-topar, o'zi uchun saqlamas
Unlarni
Yoz gulining yaprog'idan to'qilgan
"So'zlar" ilan bizga o'rab topshirar.*

Misralarda shoirning birlamchi vazifasi "gul yaprog'idan to'qilgan" inja so'zlarni "o'rab topshirish", ya'ni, she'rxonga yetkazib berish hisoblanadi. Shoir yuragida tug'ilgan tuyg'ular haqiqatini eshitguvchi ko'ngliga ko'chiradigan mahorat sohibi, o'rni bilan topib aytilgan timsollar esa uning "o'rab topshirish" vositasidir. She'r davomida yoridan biror iltifot-u marhamat kutmagan shoir o'qirman kitobxonlardan madad tilanadi. Ingrab turgan jonini qo'llashlarini, ruhiyatiga mador bo'luvchi taskinni she'rxonlardan istaydi.

Shoir obrazi tasvirida dard kishisini ko'z oldimizda gavdalantiradi. Uning ruhi "ma'shuqidan bir marhamat ko'rmay" muruvvatga kashal, ozurda jismida "ingrab turgan jon". She'rxondan ruhi uchun biroz ko'mak bermaklarini istaganlik umidi, ruh yuksakligi ilinji bilan she'r yakunlanadi. She'r sarlavhasini ochib beradigan ushbu misralar "Shoir kim?" so'rog'iga munosib javob bo'la oladi. "Bashariyat dunyosin nozli qanotiga qo'yub, uni ko'klar sari yuksaltkani" chog'langan shoir obrazi ohorli va benihoya go'zaldir.

Shoir

*Ishq bog'ining tentak, singirli, yongan,
Bulbulidir. Bashariyat dunyosin
Kichik, nozli qanoti uzra qo'yar,
Ko'klar sari yuksaltkali talpinar.*

Bu tasvir go'yo ko'z oldingizda sizdan qo'llaringizni qo'lga berish uchun izn so'rab turgan shoir obrazini chizadi. Go'zallar bir oz qo'llab, marhamat qilsalar, dunyoni nozik qanotlariga ortib, moddiy xilqatlarni ortda qoldirgan holda Ruhini ko'klar sari yuksaltmoqchi. Balandlash, yuksaklarga ko'tarilish, samoviy hislar ruh parvozi – shoirlikning asil maqsadi shudir.

O'zbek adabiyotida birinchi bo'lib Abdurauf Fitrat shoir va she'r masalalariga alohida to'xtaldi. "She'r va shoirlik" nomli adabiy qo'llanma turkiy tazkiralardagi ayrim tugal bo'lmagan uzuq-yuluq fikrlarni inobatga olmasa, shu mavzu yoritilgan ilk ilmiy manbadir. Maqola o'sha davr nashri "Ishtirokiyun" gazetasida yigirma to'rtinchi iyul, yigirma to'qqiz-o'ttizinchi avgust sonlarida bosiladi. 1919-yil shu maqola yaratilgunga qadar ham Fitratning badiiy va ilmiy asarlarida she'r bilan bog'liq nazariy fikrlar uchraydi. Ammo "She'r va shoirlik" maqolasi shu mavzudagi nazariy fikrlar tahlilga tortilgan. She'r va shoir bir planda, bir-biri bilan bog'lab o'rganilgan bu mubohasaga juda o'rinli fikrlar jo bo'lgan. Maqolada dastlab she'r tarixi haqida to'xtaladi. She'r nima? Shoir kim? degan savollarga javob izlanadi. Uningcha, "She'r va shoirlik degan so'zlar bizda yangigina so'zlar emas. Turk ulusi o'z borlig'ini ochunga ko'rsatkali

she'r va shoirliqni bilib bilibgina kelganlar". Biz bilamizki, qadim turkiy xalqlar azaldan o'z madaniyati tarixida she'r bilan payvasta holda hayot kechirishgan. Islom dini yoyilgunga qadar ham qadim adabiy boyligiga ega bo'lgan. Fitrat maqolasida qat'iy turib islom dini qabul qilingunga qadar turkiy xalqlarni she'rsizlikda yashagan, deb mulohaza yuritishni hech bir sabab bilan yoqlamaydi. Xalqini madaniyat, san'at va adabiyotda hech bir millatdan kam ko'rishni istamagan muallif fikrini qat'iy tonib bo'lmas dalillar bilan isbot qiladi. Fitrat nuqtai nazaricha, "Madaniy bir ulusning she'rsizlig'in so'ylamak esa gapurub turg'an bir kishining jonsizlig'ina ishonmoq kabi kulinchdir". Maqola muallifi o'z fikrini inkor qilib bo'lmas isbotlar bilan dalillaydi: "turklar musulmonliqdan burun ham o'z she'rlari, shoirlari, adabiyotlari bor edi". Turkiy xalqlarning o'z qadim she'riyati borligi xususidagi qat'iy hukmdan so'nggina adabiyotshunos nuqtayi nazari bilan she'r xususiyatlari haqida so'z yuritadi. She'rni ta'rif qilar ekan, arablarning nazariy fikrlariga tayanadi. Uning fikricha, "So'nggi arab adiblari she'rni "kalomi mavzuni muhaffan", deya ta'rif qila edilarkim, bu vaznli, qofiyali gap demakdir. Bizning shoirlarimiz ham shul bino qabul etadilar. Yetti-sakkiz so'zni bilgili bir "vazn"ga tizib, ketinda bilgili bir so'zni "qofiya qo'ymoq bilan she'r orasinda yerdan ko'kkacha ayirma bordir". Agar e'tibor berilsa, Fitrat she'rni vazn va qofiyadan iborat deb ataganida she'rga berilgan tamal ta'rif bo'lmas edi. Shu sababli bunday jo'ngina ta'rif maqola muallifiga ma'qul ko'rinmaydi. U vazn va qofiyadan she'r hosil bo'lishi xususida sodda fikrni ilgari surmaydi. "She'r nadur?" deya ko'ndalang qo'yilgan savolga quyidagicha isbot talab qilmas javob beradi: "She'rda kishilarning qonini qaynatg'uchi, singirlarini o'ynatg'uchi, miyasini titratguchi, sezgisini qo'zg'atg'uchi bir kuch, ma'naviy bir kuch bor. Shunday bir kuch bo'lmag'an so'z "vazn" va "qofiyasi bo'lsun, she'r bo'la olmaydir". Bu borada Fitrat o'z qat'iy fikrida turib, taqlid she'r haqiqatiga olib boruvchi yo'ldan uzoqlashtiradi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, "taqlidgo'y nazmchilar esa "vazn" va "qofiya"si bo'lgan turli ma'nosiz so'zlarning sharafiga ishongan sayin she'rning haqiqatidan uzoqlashib qoladilar. Biz ham she'rni "vazn" va "qofiya"dan iborat deb bilsak, chin she'rga yaqinlasha olmaymiz. Chin she'r yurak sezgularini ko'rsatmakdir. Vazn va qofiya esa so'zning bezagidir". Shu bugungi kunlarimizda ham ijodkorlar tilidan Abdurauf Fitratning muqallidlik borasidagi fikrlarini quvvatlaydigan qarashlarni tez-tez uchrab turadi. Shoir Abdulla Oripov ham she'r individualligiga alohida e'tibor qaratgan: "Kuylayverib siyqasi chiqib ketgan ko'hna borliqni tasvirlay boshlar ekan, shoir she'ri ming-minglab asarlar orasidan jilla bo'lmasa ko'rinib turmog'i uchun birinchi navbatda originallikka e'tibor bermog'i lozim. Jiddiy fikr, chinakam hissiyot, samimiyat, yuksak mahorat - ana shular shoirning bundan keyingi qimmatini belgilab beradi". Chinakam shoir o'z sozi bilan kuylashi kerak. Quruq taqlid ijodga zid. Abdulla Oripov taqlidchi shoirga haqli ravishda mana bunday kinoya qiladi:

Taqlid qila bergin etsa bardoshing,
Modomiki senda bor ekan havas.
Faqat bir qora kun ko'tarib boshing,
Asl nusxaman deb dod solmasang bas.

Fitrat maqolasida adabiyot dunyosida eng katta xatolardan taqlidchilik qoralanadi, "iyaruchilikdan turk she'rining boshini saqlamoq lozim", - degan qarash mudom ijodkorning asl maqsadi bo'lib qoladi. Bu xususda birgina mulohaza yuritilayotgan maqoladagina emas, "Bedil" mubohasasida ham Fitrat tish-tirnog'i bilan ijodda taqlidchilikka qarshi ekanligini qat'iy ochiqalaydi: "Insonlarning tabiatlarida yerlashib qolg'an bir-birlariga ergashmak haqiqat yo'lining qaroqchisidir. Insonlik dunyosidagi ko'p iste'dodlar shul taqlidchilik sababli ishga qo'yilmay qoldilar. Vaqtlarini taqlid orqasida yo'qotmoqliklari sababli bular bilan haqiqat orasiga shunday bir qalin devor tikilgandurkim, topib yoqalarini yirtmoq bilan uning tomonga yo'l ocha olmaylar". Yuqoridagi fikrlar sababmi, ehtimol, Fitrat she'r borasida ham taqlidiy ta'rif bermaydi. Uning nazdida ta'rif shunday bo'lishi kerakki, taqlidga bag'ridan joy bermasligi lozim. Fitratning she'r haqidagi fikrlariga urg'u bergan ustoz adabiyotshunos Hamidulla Boltaboyev "...Fitrat ta'rificha she'r taqliddan ayrilgandagina uning qalbida yotgan pinhoni quvvat "ma'naviy kuch" yuzaga chiqadi, ayni shu holatning o'zi she'rning haqiqatidir", - deydi.

She'r xususida Sharq she'rshunos olimlari Atoulloh Husayniy, Ahmad Taroziy, Nizomiy Aruzi Samarqandiy kabilar ham o'z qarashlarini aytib o'tganlarki, umumiy mazmun-mohiyati bilan bu ta'riflar Abdurauf Fitratning bu boradagi fikrlariga hamohangdir. Aynan Nizomiy Aruziy Samarqandiy fikrlarida ham juda diqqat qaratgulik mazmun ifodalangan: "Shoirlik shunday san'atki, bu san'at orqali hayajonlantiruvchi tushunchalar hosil qiladi. Va ta'sirchan qiyoslarni bir-biriga ulaydi". Aytish kerakki, hech bir shoir o'zi yashab turgan jamiyat ta'siridan xorijda bo'la olmaydi. Shu sababdan Abdulla Orif "Sira ketolmasman asrimdan nari", - deganida haq edi. Ijtimoiy munosabatlarning shoir tuyg'ulariga ta'siridan shoir dilida she'r tug'ilib, tilga ko'chadi. Fitratning "Qachonki, misralar eshitguvchi yuragiga, his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatsa, o'shanda haqiqiy she'r dunyoga keladi. "Bilamizkim, har birimizga jon va ongimizni tegramizdagi narsalar va hodisalardan chorlantirib turg'uvchi besh sezgich "havvosi xamsa" bordir. Jonimiz shul besh sezgich orqali dunyoning o'z tegramizga erishkan narsa va hodisalarini bilib turar va har birisidan qayg'u, sevinch, qo'rquv, qizish, qaynash kab sezgu va tuyg'ular oladir. She'r yuragimizda hosil bo'lgan ana shunday sezgilarni hunarlicha so'zlar bilan boshqalarning yuragiga o'tkarmakdir. Shoir tegrasidagi narsa va hodisalardan oldig'i sezgilarini hunarlicha so'zlar bilan boshqalarga o'tkarmakchi bo'ladi. Kishining yuragi qancha "sezag'on" esa, shuncha yaxshi shoir bo'lar", - degan fikrlari hech bir izohsiz she'r va shoirlik qonuniyati hisoblanadi. Shoirliq uchun sezgi va u sezgini hunarlicha (mahorat bilan) so'zlar bilan boshqalarga o'tkazguchi bir kuch kerakdur". Demak, shoir ko'nglini junbushga keltirgan his-tuyg'ularini o'z o'rnida topib aytilgan so'zlar orqali she'rxonga yetkazadi. Bu jarayonda oddiy so'zlar timsollarga aylanadi, tashbehtar bilan boyiydi va o'quvchining dilini zabt etadi.

2. Xullas, "She'r va shoirliq" deb atalgan Abdurauf Fitrat qalamiga mansub shu birgina kichik maqola hali ko'plab yirik ilmiy ishlar uchun tamal bo'lib xizmat qiladi. Shu mo'jaz maqola Abdulhamid Cho'lponning "Sho'rolar hukumati va sanoyi' nafisa", Abdurahmon Sa'diyning "Go'zal san'at dunyosida", Vadud Mahmudning "Bugungi she'rlarimiz va san'atkorlarimiz" kabi ko'plab ilmiy-badiiy ishlarini boshlab berdi. Tadqiqotimizda she'rning shakliy va janriy xususiyatlariga to'xtalib o'tmadik, keyingi ilmiy ishlarimizda masalaning bu jihatiga sinchkovlik bilan to'xtalgan holda yana she'r va shoirlik bahsiga qaytamiz. Zero, "...kishilarning qonini qaynatg'uchi, singirlarini o'ynatg'uchi, miyasini titratkuchi, sezgusini qo'zg'atg'uchi bir kuch, ma'naviy bir kuch" hisoblanmish she'r va shoirlik ham adabiyotshunoslar, ham shoirlar, ham ulamolar, hatto oddiy o'quvchilar, she'rsevarlar ommasi uchun ham birday qiziqarli mavzu hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar(darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy
2. maqola va tadqiqotlar). T.: "Manaviyat",2009. B. –7
3. 2. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007 yil, 88-b.
4. 3.Boltaboyev H. She'r va shoirliq / "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi.1995.-16-iyun.
5. Nurboy Jabborov. Zamon. Mezon. She'riyat. –T.: "G'afur G'ulom nomidagi
6. nashriyot-matbaa ijodiy uyi., 2015. – B.114
7. Xo'jayev F. Tanlangan asarlar. I tom. -T.:1976.99-bet.
8. Ayniy S. Ta'rix inqilobi Buxoro.-Dushanbe:Adib, 1987.-101-sahifa.

**4-SHO‘BA:
MAKTABGACHA VA
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM JARAYONI
ISHTIROKCHILARI FAOLIYATINI
KREATIV VA TANQIDIY
YONDASHUV ASOSIDA TASHKI
ETISH**

O'QUVCHILARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Davronov I.E.

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

Annatsiya. Maqolada oliy ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarida kreativlikni rivojlantirish xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Talabalarning ijodiy salohiyatini shakllantirishning psixologik-pedagogik shartlari tavsiflanadi. Bo'lg'usi o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida evristik usullarni qo'llashning maqsadga muvofiqligi asoslangan va mashg'ulotlarni tashkil etishda qo'llanilishi tahlil qilingan.

Kalit so'z: Kreativlik, diqqat, idrok, yetakchi faoliyat, ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat, psixik rivojlanish.

ТВОРЧЕСТВО, ВНИМАНИЕ, ВОСПРИЯТИЕ, ЛИДЕРСТВО, ПРОИЗВОЛЬНОЕ ВНИМАНИЕ, НЕПРОИЗВОЛЬНОЕ ВНИМАНИЕ, ПСИХИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются особенности развития креативности будущих учителей истории в условиях высшего образования. Раскрываются психолого-педагогические условия формирования творческого потенциала студентов. Анализируются эвристические методы организации занятий и обосновывается целесообразность их применения в процессе профессиональной подготовки будущих учителей.

Ключевые слова: Творчество, внимание, восприятие, лидерство, произвольное внимание, непроизвольное внимание, психическое развитие.

**PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL FEATURES OF DEVELOPING CREATIVITY
IN STUDENTS**

ABSTRACT. The article examines the features of the development of creativity of future history teachers in the context of higher education. The psychological and pedagogical conditions of formation creative potential of students. Heuristic methods of organizing classes are analyzed and the expediency of their application in the process of professional training of future teachers is substantiated

Key words: Creativity, attention, perception, leadership, voluntary attention, involuntary attention, psychic development.

Kirish. Boshlang'ich ta'lim bosqichi — o'quvchining har tomonlama rivojlanishida va keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorgarlik ko'rishda nihoyatda muhim davr hisoblanadi. Ayniqsa, 7 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan davr o'quvchilarni ijtimoiylashuv, mustaqil fikrlash, tafakkur qilish va o'z shaxsini shakllantirish jarayonining poydevorini belgilaydi. Bu davrda bolaning jismoniy, intellektual va psixik rivojlanishiga xos bo'lgan o'ziga xosliklar ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga yanada faol jalb etishga imkon beradi.

Ko'plab tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, o'quvchilik davri aynan shaxsiy va psixologik o'zgarishlar bilan ajralib turadi. Shu bosqichda bir qator psixologik yangiliklar shakllanadi. Masalan, amerikalik psixolog E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, inson hayoti davomida sakkizta muhim psixosotsial inqiroz bosqichi mavjud. Boshlang'ich maktab davri Erikson nazariyasida tashabbus va aybdorlik o'rtasidagi ichki psixologik to'qnashuv davri sifatida ko'rsatiladi. O'quvchi o'zini har tomonlama sinab ko'radi, yangi bilimlarni o'zlashtirishga, atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabat o'rnatishga intiladi [1].

Shaxs rivojlanishida har bir yosh bosqichiga xos bo'lgan muhim faoliyat turi mavjud bo'lib, bu "yetakchi faoliyat" deb ataladi. Ana shu faoliyat doirasida o'quvchining markaziy psixologik xususiyatlari shakllanadi. Faoliyatlar almashuvi esa bola shaxsiyati taraqqiyotidagi muhim bosqich — krizis yoki o'tish davrini bildiradi. D.B.Elkonin tomonidan ishlab chiqilgan rivojlanish bosqichlari quyidagicha tavsiflanadi: go'daklik davri — emotsional muloqot asosiy

faoliyatdir; erta bolalikda — predmet bilan manipulyatsiya qilish; maktabgacha davrda — rolli o'yinlar; boshlang'ich maktab davrida — o'quv faoliyati yetakchi ahamiyat kasb etadi [2].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida idrok qilish qobiliyati maqsadga yo'naltirilgan va ongli tus oladi. Agar maktabgacha yoshdagi bolalar faqat o'ziga yoqqan narsalarga e'tibor qaratgan bo'lsa, endilikda o'quvchi o'quv faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishga intiladi. Bu kuzatuvchanlikning kuchayishi, ko'rish orqali baholash, vizual tahlil qilish kabi ko'nikmalarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, o'quvchida ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat turi shakllanadi. U oldin o'zlashtirgan bilimlarni eslab, tahlil qilish, umumlashtirish, farqlash, tasniflash, mantiqiy tahlil qilish, sintezlash kabi kognitiv jarayonlarga qodir bo'la boshlaydi. Bu esa amaliy-badiiy tafakkurdan obrazli-mantiqiy tafakkurga o'tishga xizmat qiladi.

Diqqat — o'quvchi faoliyatining umumiy tayyorgarlik darajasini belgilaydi hamda uni zarur intellektual yo'nalishga safarbar etadi. Boshlang'ich sinf davrida diqqat hajmi tez ortadi. O'quvchining tashqi ko'rsatmalarga asoslangan ravishda vizual idrokni boshqarish, faoliyatga ixtiyoriy jalb etilish qobiliyati shakllanadi. Bu esa o'z navbatida, mustaqil o'qish, yozish, muloqot qilish, ijodiy fikrlash va o'zini nazorat qilishga imkon beradi. Katta maktabgacha yoshdagi bola faol ravishda so'z boyligini oshirib boradi. Aynan shu davrda ona tilining grammatik tuzilmasi, ayniqsa, murakkab gap tuzilmalarini egallash jarayoni jadallashadi. Bu yosh bosqichida bolaning nutqi asta-sekin mulohaza shaklida namoyon bo'lib, fikr yuritish, rejalashtirish va o'z faoliyatini boshqarish qobiliyatlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Bolaning nutqida tushuntirishga asoslangan ifodalar paydo bo'ladi.

Besh yoshli bolalar nutqining o'ziga xos jihati — bu tilda faol ravishda o'z tengdoshlari bilan muloqot qilishidir. Bola savol beradi, hikoya qiladi, fikr yuritadi, fantaziya qiladi, she'r yoki qo'shiq yaratishga harakat qiladi, taassurotlarini boshqalar bilan baham ko'radi. Shuningdek, u endilikda atrof-muhitdagi hodisalar va narsalarni batafsil so'z bilan tavsiflay oladi: ularning xususiyatlari, belgilarini sanaydi, o'zaro bog'liqliklarni ko'rsatadi. Ko'pchilik savollar esa, odatda, atrofda olamni anglashga va bilim olishga qaratilgan bo'ladi. Kattalarning ta'siri ostida bolada yangi muloqot shakli — shaxsiy munosabatlar shakllana boshlaydi. Bola endi faqat e'tibor qozonishni emas, balki hurmat, tushunish, hamdardlik kabi insoniy tuyg'ularni his qilishni ham istaydi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar yetarlicha murakkab muammolarni hal qilishga qodir bo'ladilar, albatta, agar kattalar ularga real hayotga oid faktlar bilan tanishish imkonini bersa. Ular umumlashtirish, bog'liqliklar o'rnatish, predmetlarni muayyan belgilar asosida tasniflash kabi amallarni avvalgi yillarga nisbatan yuqori bosqichda bajara oladi. Ushbu davrda bolada og'zaki-mantiqiy tafakkur shakllana boshlaydi. Biroq besh yoshli bolaning fikrlash jarayoni hali o'ziga xos va to'liq mukammallikka erishmagan bo'ladi — u holatdagi barcha tafsilotlarni chuqur tahlil qila olmaydi, asosiy jihatni ajratib ko'rsatishda qiynaladi.

Oltinchi yil hayotni kechirayotgan bolalarning xotirasi ixtiyorsizdan ixtiyoriyga o'tish bosqichidadir. Bola she'r, qo'shiq matnlarini tez yod oladi. Shu sababli tarbiyachilar bolalarda mazmunli xotirani shakllantirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Bu yoshdagi bolalarning emotsional rivojlanishidagi o'ziga xoslik — ularning o'z hissiyotlarini tuta olish, ya'ni o'zini tiyish qobiliyatining rivojlanishidir. Bola "hissiyotlar tili"ni — ya'ni mimika, imo-ishora, tana holati, ovoz ohangi kabi vositalarni o'zlashtira boshlaydi. U qo'rquv, g'azab, ko'z yosh kabi ichki his-tuyg'ularini yashira olishga o'rganadi. Shu tarzda bola idrokiy jarayonlarni boshqarishga ixtiyoriy ravishda kirisha boshlaydi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar muntazam va o'zlariga mos mehnat topshiriqlarini bajara oladilar. Ular boshqalarga foydali bo'lish, zarur bo'lish istagida harakat qiladilar. Ularning faoliyati shunday tashkil etilganda, ya'ni ular o'z ishtiroklari va mehnat sifati umumiy natijaga xizmat qilishini anglaganlarida, ularda haqiqiy mehnat harakatlari shakllanadi. O'quv jarayonining o'zi esa ijobiy intellektual emotsiyalar bilan kechadi. Oltinchi yil hayotdagi bolalar odatda o'qishga qiziqish bilan qaraydilar, ammo ular ayniqsa badiiy faoliyat yoki o'yinda bevosita qo'llash mumkin bo'lgan vazifalarni tezroq eslab qoladilar.

Bu yoshdagi bolalarning emotsional sezgirligi, taqlid qilishga moyilligi, ichki sezuvchanligi ularning axloqiy shaxs sifatida shakllanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Eng muhim pedagogik vazifalardan biri — insonlararo munosabatlar madaniyatini shakllantirish,

o'zaro hurmatga asoslangan muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, jamiyatda yashash qoidalariga rioya qilishni va ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlarga amal qilishni o'rgatishdan iborat.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi uning atrof-muhitga bo'lgan munosabati va shu muhitning unga ko'rsatgan ta'siri orqali shakllanadi. L.S. Vygotskiy bu holatni quyidagicha ta'riflaydi: "Bola jamiyatga qanday munosabatda bo'lsa, o'zini ijtimoiy munosabatlar tizimida qanday tutsa — bu ijtimoiy rivojlanish holati hisoblanadi" [3]. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiylashtirish mexanizmlari quyidagicha tasniflanadi: an'anaviy (oila va yaqin doira orqali), institutsional (ijtimoiy muassasalar orqali), stilistik (submadaniyatlar orqali), shaxslararo (muhim shaxslar orqali), refleksiv (kechinma va anglash asosida). Bola shaxsining psixologik xususiyatlari aynan yetakchi faoliyat orqali shakllanadi, va bu xususiyatlarning yoshga bog'liq davomiyligini o'rganish — bolalikdagi psixik jarayonlar rivojlanishining muhim kalitidir. Aynan shu davrda bolaning o'yinga bo'lgan ishtiyoqi kuchayadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yinlari mazmunan kengayadi, syujetlar murakkablashadi. Besh yoshdagi bolalarning o'yinlari borgan sari ijodiy xarakter kasb etadi: ular syujetli-rolli, model asosidagi, guruhli o'yinlarga aylanadi. Shuningdek, rejissyorlik o'yinlari, fantaziya o'yinlari, qoidalarga asoslangan o'yinlar va boshqa turlari rivojlanadi. L.S.Vygotskiy tomonidan taklif etilgan psixik rivojlanishning davrlashtirilishiga ko'ra, maktabgacha yoshda tasavvur (fantaziya) shaxs psixikasining markaziy psixologik yangiligi (novobrazovaniyasi) hisoblanadi. Sezgi tizimining shakllanishi boshqa kognitiv faoliyat komponentlari, eng avvalo, diqqatning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Bola o'zi yashab turgan muhitni anglash, uni o'z qarashlari bilan boyitish va o'zgartirishga qiziqadi. U atrofda dunyoni o'rganish orqali unga o'zining yangi unsurlarini qo'shadi, bu esa bolaning ijodiy faoliyatini rag'batlantiradi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda sezgi-obrazli tafakkur bilan birga og'zaki-mantiqiy tafakkur ham rivojlana boshlaydi, diqqat barqarorlik va ixtiyoriylik xususiyatiga ega bo'ladi. Xotira esa ixtiyorsizdan ixtiyoriyga o'tib boradi; tasavvur esa borgan sari obrazli, maqsadli va izchil tus oladi. Shu bilan birga, bu yoshda irodaviy sifatlar shakllana boshlaydi.

Olimlar ushbu davrda bola tomonidan belgilar va ramzlar (simvollar) yaratilish jarayoni jonlanishini alohida ta'kidlaydilar. Bu esa bolaning o'z-o'zini anglash, o'zaro muloqot qilish va ijtimoiy faoliyatga kirishish qobiliyatini mustahkamlaydi. Katta maktabgacha yoshdagi bola real hayotdagi jismoniy va ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabat orqali ijodiy tajriba orttiradi.

Xulosa qilib aytganda, katta maktabgacha yosh (5–7 yosh) bolaning psixik, axloqiy, shaxsiy va intellektual rivojlanishidagi muhim bosqichdir. Bu davrda bola faol ravishda ijtimoiylashuv jarayoniga kirishadi, bunda oila, maktabgacha ta'lim muassasasi va yaqin muhit asosiy omillar hisoblanadi. Bolaning bir ijtimoiy muhitdan boshqasiga o'tishi ijtimoiy guruhga kirish inqirozi, moslashuv va integratsiya bosqichlarini bosib o'tadi. Bu jarayon, o'z navbatida, individuallik shakllanishi bilan belgilanadi. Ushbu davr psixikasidagi markaziy yangilik — sezgi-obrazli tafakkurning shakllanishidir. Bu tafakkur izlanuvchanlik va atrof-muhitni tadqiq qilish ehtiyoji bilan bog'liq holda rivojlanadi. Diqqat va xotiraning ixtiyoriy shakli shakllanadi. Bola nutqi esa asta-sekin faoliyatni rejalashtirish va boshqarish vositasiga aylanadi. Shu bilan birga, ijodiy tasavvur faol tus oladi, unda tahlil-sintez asosidagi ijodiy komponentlar namoyon bo'la boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Erikson E. H. *Childhood and Society*/E. Erikson //NY: Norton. – 1963.
2. Elkonin D. B. *The psychology of mastering the elements of reading* //Educational psychology in the USSR. – 1963. – T. 165. – C. 179.
3. Выготский, Л. Н. *Воображение и творчество в дошкольном возрасте* / Л. Н. Выготский. – Санкт-Петербург.: Союз, 1997. – 92 с.
4. Mamurov B. et al. *Acmeological approach to the formation of healthy lifestyle among university students* //III international scientific congress society of ambient intelligence 2020 (ISC-SAI 2020). – Atlantis Press, 2020. – C. 347-353.
5. Давронов И.Э., Кулдашева З.Х. *Социализация личности в системе непрерывного образования* //Инновационная деятельность в дошкольном образовании. – 2016. – С. 150-152.

BOLANING MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLIGI VA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MAKTABGA MOSLASHISHI

Jo'rayeva Nazokat Farhodovna

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-kurs magistr

Annotatsiya. Maqolada yetti yoshli bolaning maktabga tayyorgarligi muammosi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf maktab, tayyorgarlik, yosh, yetti, muammo, bola.

ГОТОВНОСТЬ РЕБЕНКА К ШКОЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ И АДАПТАЦИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ К ШКОЛЕ

Аннотация. В статье рассматривается проблема готовности семилетнего ребенка к школе.

Ключевые слова: начальная школа, подготовка, возраст, семь, проблема, ребенок.

READINESS OF A CHILD FOR SCHOOL EDUCATION AND ADAPTATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS TO SCHOOL

Annotation. The article considers the problem of readiness of a seven-year-old child for school.

Keywords: primary school, preparation, age, seven, problem, child.

Kirish. Bolaning maktabga tayyorgarligi muammosi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Axir, o'qishning birinchi yili ba'zan uning butun keyingi maktab hayotini belgilaydi. Maktabning boshlanishi har bir bola uchun kuchli stressdir. Barcha bolalar, maktabda sodir bo'lgan hamma narsadan xursandchilik, g'urur yoki hayrat tuyg'ulari bilan birga, tashvish, chalkashlik, taranglikni boshdan kechirishadi.

Psixologlarning bolalar ta'limini erta boshlash imkoniyati haqidagi xulosalari ob'ektiv ma'lumotlarga asoslanadi. Yetti yoshli bolaning miyasining tuzilishi va funktsiyalarining rivojlanishi bir qator jihatlari bo'yicha kattalar miyasiga yaqin. Avvalo, yetti yoshga kelib, bolalar kattalar uchun xarakterli bo'lgan miyaning chap va o'ng yarim sharlarining assimetriyasini aniq ko'rsatadilar. Fiziologik jihatdan, yetti yoshli bolaning miyasi tizimli o'rganish jarayonida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtirishga tayyor. Ilmiy ma'lumotlar L. N. Tolstoyning shunday deb yozgan fikriga qo'shilish uchun asos beradi: "Besh yoshli boladan menga faqat bir qadam, yangi tug'ilgan chaqaloqdan besh yoshli bolagacha - dahshatli masofa".

Keling, maktab yoshini pasaytirish uchun zarur shartlar bo'lgan yetti yoshli bolalarning psixofizik rivojlanishining xususiyatlarini sanab o'tamiz. 7 yoshli bolalar maktabga kirgunga qadar:

- tengdoshlar va kattalar davrasidagi xatti-harakatlaringizdan xabardor bo'ling, muloqot qiling, boshqa odamlarga qiziqishingizni ko'rsating;

- o'yinda va uyda o'zini tutish va o'zaro munosabatlarning asosiy qoidalariga rioya qilish, ko'rsatmalarga rioya qilish;

- asosan xatti-harakatlaringizni nazorat qiling, ruxsat etilgan chegaralarni hurmat qiling va kattalarning talablarini bajarib;

- o'z harakatlaringizni baholang;

- yangi bilimlarga qiziqish bildirish;

- vizual-majoziy va faol-majoziy fikrlash;

- yetarlicha so'z boyligiga ega bo'lish;

- barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish;

- geometrik figuralarni farqlash, ularni shakli, rangi, o'lchami bo'yicha tasniflash, ularni atrofda dunyo ob'ektlarida ajratib ko'rsatish;

- yozishni o'rganish uchun zarur bo'lgan barmoqlaringiz bilan nozik harakatlar qiling;

- oddiy geometrik shakllar, buyumlar, harflar, raqamlarni nusxalash;

- oddiy chizmalarni farqlash va takrorlash, ritmik harakatlarni bajarish;

- qisqa vaqt davomida bitta ob'ektga e'tibor qarating (chalg'itmasdan, 10-12 daqiqagacha bir xil turdagi faoliyat bilan shug'ullaning).

- 45 daqiqa ichida 3 martagacha turli faoliyat turlariga o'tish (1- sinfda dars davomiyligi);

- o'z faoliyatidagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarga hissiy munosabatda bo'lish, kattalarning o'ziga bo'lgan munosabatining tabiatini diqqat bilan his qilish.

Yetti yosh - bu ixtiyoriy xatti-harakatlar va ixtiyoriy xatti-harakatlar elementlarining shakllanishi o'rtasidagi chegara. Ixtiyorsiz xulq-atvor asosan his-tuyg'ular bilan bog'liq ("Men xohlayman - istamayman"), ixtiyoriy xatti-harakatlar esa ongli maqsad bilan tartibga solinadi ("shunday bo'lishi kerak").

Yetti yoshli bolalarda ijobiy fazilatlar bilan bir qatorda pedagogik jarayonni tashkil qilishni murakkablashtiradigan fazilatlar ham mavjud. Yetti yoshli bolalar osongina qo'zg'aluvchan, ularning e'tibori beqaror. Inhibitsiyon jarayonlaridan qo'zg'alish jarayonlari ustunlik qiladi. Darsda juda oson va bajonidil qatnashadigan bilimlarni darhol o'zlashtirish jarayoni atigi 3-5 daqiqa muvaffaqiyatli davom etadi, shundan so'ng charchoq boshlanadi va diqqat zaiflashadi.

Albatta, yuqorida aytilganlarning barchasi barcha bolalar uchun norma bo'lishi shart emas. Ba'zi hollarda, xuddi shu yoshdagi bolalarning individual rivojlanishida oldinga siljish yoki kechikish mavjud. Bu ko'rsatkichlarning barchasiga ko'ra, yetti yoshli bolalarning ba'zilari etti yoshli bolalarga yaqinroq, boshqalari esa besh yoshli bolalarga yaqinroqdir. Shuning uchun birinchi sinfga yetti yoshli bolalarni diqqat bilan tanlash kerak, bu yoshdagi barcha bolalarni ta'lim bilan qamrab olishga intilmaslik kerak.

Bolalar bog'chasi va maktab o'rtasidagi sezilarli farqlarni ta'kidlash kerak. Bolalar bog'chasi kundalik qulaylik, qo'shma o'yin va ta'lim faoliyati, ma'lumotni assimilyatsiya qilishning majburiy minimumining nisbatan yo'qligi, akademik muvaffaqiyatsizlik muammosining yo'qligi, kattalar bilan norasmiy muloqot bilan tavsiflanadi. Boshlang'ich maktabda pedagogik jarayonning butun tashkil etilishi bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan; o'qituvchi va talabaning roli pozitsiyalari aniq belgilanadi, faoliyatning muvaffaqiyati baholanadi, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi norasmiy muloqot juda oz vaqtni oladi. Boshlang'ich maktabda bolaning hayoti qat'iy qoidalar tizimiga bo'ysunishni boshlaydi. Bolaning intellektual va irodaviy sohalariga, xatti-harakatlarini o'z-o'zini tartibga solish qobiliyatiga talablar keskin oshadi.

Bola maktabga kirgach, uning ijtimoiy mavqei o'zgaradi. Bolalar bog'chasida boshdan kechirgan hissiy qulaylik shaxsiy tartibni tartibga solish va standartlashtirish bilan almashtiriladi.

Bunday yangi vaziyatda bolaning maktab hayotiga muvaffaqiyatli kirishining asosiy omillaridan biri o'qituvchining shaxsiyatidir. O'qituvchining birinchi sinf o'quvchilariga bo'lgan munosabati faol ijobiy bo'lishi kerak, muloqot uslubi esa iliqroq, ko'proq hissiyotli bo'lishi kerak.

"Maktab ta'limiga tayyorlik" tushunchasi. Tayyorlik turlari. Pedagogik va psixologik adabiyotlarda "maktab ta'limiga tayyorlik" atamasi bilan bir qatorda "maktab yetukligi" atamasi ham qo'llaniladi. Bu atamalar deyarli sinonimdir, garchi ikkinchisi ko'proq darajada organik kamolotning psixofiziologik jihatini aks ettiradi. Tayyorlikning quyidagi turlari ajratiladi: jismoniy, intellektual, shaxsiy, ijtimoiy-psixologik va irodaviy.

Jismoniy tayyorgarlik (biologik yetuklik). Jismoniy tayyorgarlik 7 yoshli bolalarning jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos kelishi kerak bo'lgan vazn, bo'y, mushak tonusi va boshqalar ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Ko'rish, eshitish, vosita qobiliyatlari (ayniqsa, qo'llar va barmoqlarning nozik harakatlari), bolaning asab tizimining holati va sog'lig'ining umumiy holati ham hisobga olinishi kerak.

Maktabgacha yoshning oxiriga kelib, tananing anatomik va fiziologik xususiyatlarini sezilarli darajada qayta qurish sodir bo'ladi, asabiy jarayonlarning harakatchanligi va muvozanati (qo'zg'alish va inhibitsiyon) kuchayadi va maqsadli ixtiyoriy xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun sharoitlar yaratiladi. Bu yoshga kelib, ikkinchi signal tizimining ahamiyati ham oshadi - bu so'z ko'p jihatdan kattalardagiga o'xshash signal ma'nosiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, maktabga kiradigan bolalar asab tizimining tez charchashi bilan bog'liq tez charchoqni boshdan

kechirishadi; nozik vosita mahoratining sekin rivojlanishi qayd etilgan, bu aniqlikni talab qiladigan harakatlarni bajarishda qiyinchiliklarga olib keladi - yozish, aplikatsiya va boshqalar.

Biologik yetuklikni baholash uchun oddiy testdan foydalanish mumkin - *Filippin testi* - bolaning o'ng qo'li bilan boshning chap qulog'iga etib borish qobiliyati. Sinov maktabning yetukligi odatda "yarim balandlikka sakrash" bilan bir vaqtda sodir bo'lishiga asoslanadi - oyoq-qo'llarning uzunligi, birinchi navbatda qo'llarning o'sishi intensivligining oshishi; vazn ortishi 3,5-4 kg, balandligi 9-10 sm).

Intellectual tayyorgarlik. Intellectual tayyorgarlikning mazmuni nafaqat so'z boyligi, dunyoqarashi, maxsus ko'nikmalarini, balki kognitiv jarayonlarning rivojlanish darajasini va ularning proksimal rivojlanish zonasiga yo'naltirilganligini, vizual- majoziy fikrlashning yuqori shakllarini, o'quv vazifasini aniqlash va uni faoliyatning mustaqil maqsadiga aylantirish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Maktab ta'limi tizimiga o'tish bolaning maktab fanlarini o'rganish jarayonida o'zlashtirgan ilmiy tushunchalar tizimiga o'tishni nazarda tutadi. L. S. Vygotskiyning fikriga ko'ra, bola:

- voqelikning turli tomonlarini farqlashni o'rganish, ob'ektlarda uning alohida ob'ekt mazmunini tashkil etuvchi individual tomonlarini ko'ra bilish;

- ilmiy fikrlash asoslarini o'zlashtirish uchun bola narsalarga o'z nuqtai nazari mutlaq va yagona bo'lishi mumkin emasligini tushunishi kerak (tanqidiy fikrlash).

J. Piaget 6-7 yoshdagi bolalarning tafakkurini tavsiflovchi hodisalarni aniqladi. Birinchi hodisa shundaki, maktabgacha yoshdagi bolaning fikrlashi o'zgarmaslik g'oyasining yo'qligi bilan tavsiflanadi, bu bolaning mavzu haqidagi global g'oyasi bilan bog'liq. Piaget tomonidan tasvirlangan yana bir hodisa - egosentrizm fenomeni, bu bolaning fan va jamiyat nuqtai nazarini qabul qila olmasligini anglatadi. Ushbu hodisalarning yo'qolishi, kognitiv faoliyat vositalari va standartlarini egallash va egosentrizmdan markazlashtirishga o'tish (bola dunyoni nafaqat o'z nuqtai nazaridan ko'rishni o'rganganda) bolaning maktab ta'limiga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlaydi.

Shaxsiy tayyorgarlik bolaning maktabga, o'quv faoliyatiga, o'qituvchilarga, maktab o'quvchisi sifatidagi yangi rolga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

Maktabga tayyorgarlikning yo'qligi, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda maktabga borish uchun faqat ijtimoiy-rol motivlarining mavjudligi va o'rganish motivining yo'qligi bilan ham ko'rsatiladi. 6-7 yoshdagi bolalarning maktabga motivatsion tayyorgarligi ularning jiddiy ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat sifatida o'qishga bo'lgan munosabati, kattalar talablarini bajarish uchun hissiy moyilligi, atrofdagi voqelikka kognitiv qiziqishi va yangi bilimlarga ega bo'lish istagi bilan namoyon bo'ladi.

Aytish kerakki, yetti yoshli bolalarda o'rganish motivlari juda beqaror, ayniqsa kognitivdir. Ko'proq motivlarning boshlanishi haqida gapirish mumkin.

Kognitiv qiziqish qiziquvchanlik darajasida namoyon bo'ladi. O'rganishning dastlabki bosqichida bolalar bilimning o'ziga emas, balki o'rganish shakllariga, turli xil o'quv qo'llanmalariga, chiroyli o'quv kitoblariga qiziqishadi. Yetti yoshli bolalar sinfda jamoaviy ishlarda faol ishtirok etadilar, o'qituvchining topshiriqlarini osongina bajaradilar. Bu o'rganish uchun axloqiy motivlarning belgilarini ko'rsatadi, bu qiziquvchanlik bilan birgalikda bolaning sinfdagi muayyan faolligini ta'minlaydi, ularsiz ta'lim jarayonini amalga oshirish mumkin emas.

Yetti yoshli bolalarni ta'lim faoliyatiga jalb qilishga yordam beradigan ijobiy motivlarning boshlanishi tezda mustahkamlanadi va motivatsion sohani kengaytirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

birinchi sinf o'quvchilarida o'quv motivlarining, ayniqsa kognitiv motivlarning beqarorligini esga olishi kerak, bu ularning shakllanishi jarayoni sekinlashishiga olib keladi. Buning sabablari odatda o'rganishdagi qiyinchiliklar, takroriy muvaffaqiyatsizliklar holatlarida bolalarning salbiy hissiy tajribalari. Agar bola jazodan qo'rqib, bosim ostida o'qisa, ijobiy motivlar butunlay yo'qolishi mumkin.

Ijtimoiy va psixologik tayyorgarlik. Tayyorlikning ushbu komponenti bolalarda fazilatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi, buning natijasida ular boshqa bolalar, o'qituvchi bilan muloqot

qilishlari mumkin edi. Bola maktabga, bolalar umumiy ish bilan band bo'lgan sinfga keladi va u boshqa bolalar bilan munosabatlarni o'rnatishning etarlicha moslashuvchan usullariga, bolalar jamiyatiga kirishga, boshqalar bilan birgalikda harakat qilish qobiliyatiga, o'zini himoya qilish va o'zini himoya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Shunday qilib, ushbu komponent boshqalar bilan muloqot qilish ehtiyojini rivojlantirishni, bolalar guruhining qiziqishlari va urf-odatlariga bo'ysunish qobiliyatini, maktab o'quvchisining maktab sharoitidagi rolini engish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Iroda tayyorligi bolaning qattiq mehnat qilish, o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish, his-tuyg'ularini tiyish, o'qituvchining talablarini bajarish va maktab tartibiga rioya qilish qobiliyatidan iborat.

Maktabgacha yoshda bola paydo bo'lgan qiyinchiliklarni engish va o'z harakatlarini belgilangan maqsadga bo'ysundirish zarurligiga duch keladi. Bu uning o'zini ongli ravishda boshqarishga, ichki va tashqi harakatlarini, kognitiv jarayonlarini va umuman xatti-harakatlarini boshqarishga kirishishiga olib keladi. Irodaviy sifatlar 7 yoshga kelib shakllanadi, lekin ular yetarlicha ongli, beqaror va shuning uchun ta'lim faoliyati jarayonida yanada rivojlanishini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jumayev R., Jo'rayeva N. Birinchi sinf o'quvchilarini maktabga samarali moslashtirish //MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 3.
2. Scott, K. People and teacher relationships. Scientific American / K. Scott. Vol. 287, No 4, 1999. - 58 p.
3. Scott, K. Psychological adaptation. / K. Scott. Vol. 287, No 9, 2003. - 134 p.
4. Sherif M. Interaction of teachers and parents. / M. Sherif Vol. 195, No 7, 1999. - 58 p.
5. Собчик, Л.Н. Психодиагностика: методы и методология [Текст] / Л.Н. Собчик. - Ростов Н/Д: «Феникс», 2015. - 576 с.
6. Соловьева, Т.А. Первоклассник: адаптация в новой социальной среде [Текст] / Т.А. Соловьева. - М.: ВАКО, 2015. - 72 с.
7. Талызина, Н.Ф. Педагогическая психология. Учеб. пособие для студ. сред. пед. учеб. Заведений [Текст] / Н.Ф. Талызина. - М.: - Издательский центр «Академия», 2018. – 288 с.
8. Тюменева, Ю.А. К проблеме оценки готовности детей к школе [Текст] / Ю.А. Тюменева // Психология обучения. - 2008. - № 3. - С. 95-107.
9. Формирование познавательных интересов в учебном процессе [Текст] / Под ред. И.Ю. Хвосторина. – М.: Просвещение, 2013. - 114 с.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK KOGNITIV YONDASHUVLARDA ASOSIY PSIXIK JARAYONLAR, FUNKSIYALAR VA MEXANIZMLAR

Abdiraimova Gulrux

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti e-mail: gulruhabdiraimova@gmail.com +99899-331-32-12 UDK 371 (045) <https://orcid.org/0009-0007-7766-6336>

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy kognitiv nazariyalar va neyropsixologik qarashlar asosida inson ongining asosiy jarayonlari — diqqat, xotira, fikrlash, motivatsiya va ijodiy fikrlash tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor neyrofanda va kognitiv psixologiyada so'nggi yillarda erishilgan yutuqlar ushbu kognitiv faoliyat komponentlarini qanday tushunishga hissa qo'shayotganiga qaratilgan. Maqolada klassik kognitiv modellar (masalan, axborotni qayta ishlash modeli, sxema nazariyasi) va neyropsixologik dalillar (masalan, miya tasvirlari, funksional lokalizatsiya) uyg'unlashtirilib, bilim olish, muammolarni hal qilish va innovatsiyani qo'llab-quvvatlaydigan kognitiv jarayonlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: kognitiv psixologiya, neyropsixologiya, diqqat, xotira, fikrlash, motivatsiya, ijodiy fikrlash, miya funksiyalari, kognitiv modellar

ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ ПСИХИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ, ИХ ФУНКЦИИ И МЕХАНИЗМЫ В СОВРЕМЕННЫХ КОГНИТИВНЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДАХ

Аннотация. В данной статье анализируются основные процессы человеческого сознания — внимание, память, мышление, мотивация и креативное мышление — с позиции современных когнитивных теорий и нейропсихологических взглядов. Основное внимание уделяется тому, как достижения последних лет в области нейронаук и когнитивной психологии способствуют более глубокому пониманию указанных компонентов когнитивной активности. В статье сочетаются классические когнитивные модели (например, модель обработки информации, теория схем) и нейропсихологические данные (например, нейровизуализация, функциональная локализация), что позволяет раскрыть механизмы познания, решения проблем и развития инновационного мышления.

Ключевые слова: когнитивная психология, нейропсихология, внимание, память, мышление, мотивация, креативное мышление, функции мозга, когнитивные модели.

CORE MENTAL PROCESSES, FUNCTIONS, AND MECHANISMS IN MODERN PEDAGOGICAL COGNITIVE APPROACHES

Abstract. This article analyzes the core processes of human consciousness — attention, memory, thinking, motivation, and creative thinking — through the lens of contemporary cognitive theories and neuropsychological perspectives. The main focus is on how recent advancements in neuroscience and cognitive psychology have contributed to a deeper understanding of these components of cognitive functioning. The article integrates classical cognitive models (such as the information processing model and schema theory) with neuropsychological evidence (including brain imaging and functional localization) to elucidate the cognitive mechanisms that underpin learning, problem-solving, and innovation.

Keywords: cognitive psychology, neuropsychology, attention, memory, thinking, motivation, creative thinking, brain functions, cognitive models.

Kirish. XXI asrda kognitiv psixologiya va neyropsixologiyaning uyg'unlashuvi inson ong faoliyatining chuqur tushunilishiga olib keldi. Diqqat, xotira, fikrlash, motivatsiya va ijodkorlik kabi asosiy kognitiv komponentlar endilikda alohida o'rganilmaydi, balki ular bir-biriga bog'liq va murakkab miya funksiyalariga asoslangan tizimlar sifatida ko'riladi. Bunday yondashuv tadqiqotchilar va pedagoglarga bilim olish, innovatsiya va terapiya jarayonlarida inson kognitiv imkoniyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Zamonaviy kognitiv nazariyalar — axborotni qayta ishlash, sxema nazariyasi (Bartlett, 1932) va konstruktivizm (Piaget, 1950) — odamlar qanday qilib ma'lumotni qabul qilish, saqlash va undan foydalanishini tushuntirishga urinadi. Shu bilan birga, neyropsixologik tadqiqotlar bu jarayonlarni FMRT va EEG kabi usullar yordamida ma'lum miya strukturalariga bog'laydi.

Ushbu maqola kognitiv va neyropsixologik nuqtai nazarni beshta asosiy aqliy funksiyalar — diqqat, xotira, fikrlash, motivatsiya va ijodiy fikrlash — doirasida birlashtirish, ularning umumiylik va farqlarini aniqlash, hamda ta'lim, ijodkorlik va aqliy rivojlanishdagi ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan.

Metodlar. Ushbu kontseptual maqola kognitiv psixologiya va neyropsixologiya sohalaridagi ilmiy maqolalar tahliliga asoslangan. Ma'lumotlar quyidagi manbalardan olindi:

- ✓ ilmiy bazalar: PubMed, APA PsycNet va Google Scholar
- ✓ asosiy mualliflarning asarlari: R. Gagné, D. Kahneman, H. Gardner, R. Sternberg
- ✓ zamonaviy kognitiv modellar va neyrovizualizatsiya natijalari taqqosiy tahlili

Tanlov mezonlari quyidagilarni o'z ichiga oldi: 2000–2024 yillarda chop etilgan, hakamlikdan o'tgan maqolalar, inson kognitsiyasi va miya mexanizmlarini yorituvchi asarlar, psixologiya va neyrofanlarning integratsion yondashuvlari

Natijalar. Diqqat. Zamonaviy tadqiqotlar diqqat — bu cheklangan resurs bo'lib, u pastdan yuqoriga (stimulyatsiyaga asoslangan) va yuqoridan pastga (maqsadga yo'naltirilgan) jarayonlar orqali boshqarilishini ko'rsatmoqda. Prefrontal korteks va parietal sohalar selektiv va barqaror diqqatda muhim rol o'ynaydi.

Xotira. Kognitiv nazariyalar xotirani sensor, qisqa muddatli (ishchi) va uzoq muddatli shakllarga ajratadi. Neyropsixologik izlanishlar gipokampni epizodik xotira bilan, prefrontal hududlarni esa ishchi xotiraning ijroi nazorati bilan bog'laydi.

Fikrlash. Fikrlash — bu tahlil qilish, xulosa chiqarish, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ikkilik jarayon nazariyasi (Kahneman, 2011) tez (intuitiv) va sekin (analitik) fikrlashni farqlaydi. Frontal korteks mantiqiy fikrlash va mavhum tushunchalarga javobgardir.

Motivatsiya. Motivatsiya asosan limbik tizim faoliyatiga asoslangan bo'lib, ayniqsa amigadala va nukleus akkumbens muhim rol o'ynaydi. Ichki motivatsiya "o'z-o'zini belgilash nazariyasi" (Deci & Ryan, 2000) orqali tushuntiriladi, tashqi motivatorlar esa mukofot tizimlarini faollashtiradi.

Ijodiy fikrlash. Ijodiy fikrlash divergent (turli yo'nalishda) va konvergent (aniq echimga olib keluvchi) fikrlashni birlashtiradi. Bu jarayonda "default mode network" (DMN) va ijroi y tarmoq birgalikda ishlaydi. Ijodkorlik kognitiv moslashuvchanlik, ilhom va assotsiativ fikrlash bilan bog'liq.

Munozara. Kognitiv va neyropsixologik yondashuvlarning integratsiyasi inson tafakkurini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Diqqat, xotira va fikrlash o'zaro bog'liq bo'lib, murakkab miya tizimlariga tayangan. Motivatsiya esa harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi, ijodkorlik esa barcha oldingi jarayonlarning yuqori tartibli sintezidir.

Bunday birlashgan yondashuv ta'lim va kognitiv mashg'ulotlar sohasida ayniqsa muhimdir. Miya asosidagi mexanizmlarni tushunish ta'lim strategiyalarini samarali loyihalash, motivatsiyani kuchaytirish va ijodni rag'batlantirish imkonini beradi. Masalan, ijroi y funksiyalarni rivojlantirish uchun prefrontal korteksni faollashtiruvchi mashg'ulotlar, ijodkorlikni rag'batlantirish uchun esa ochiq yakunli topshiriqlar tavsiya etiladi.

Xulosa. Kognitiv va neyropsixologik qarashlarni birlashtirish inson aqliy faoliyatining asosiy jarayonlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu nazariy yondashuvlarni ta'lim, terapiya va sun'iy intellekt sohalarida amaliy qo'llashga qaratilishi lozim. Nazariya va neyrobiologik dalillarni uyg'unlashtirish orqali biz kognitiv rivojlanishni turli kontekstlarda samarali qo'llab-quvvatlashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky L.S. "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes". Harvard University Press, 1978.
2. Piaget J. "The Origins of Intelligence in Children". Norton, 1952.
3. Anderson, J.R. "Cognitive Psychology and Its Implications". Worth Publishers, 2005.
4. Bruner J. "The Process of Education". Harvard University Press, 1960.
5. Sweller J. "Cognitive Load Theory, Learning Difficulty, and Instructional Design". Learning and Instruction, 1994.
6. Mayer R.E. "Multimedia Learning". Cambridge University Press, 2001.
7. Neisser U. "Cognitive Psychology". Appleton-Century-Crofts, 1967.
8. Novak J.D. "Learning, Creating, and Using Knowledge: Concept Maps as Facilitative Tools in Schools and Corporations". Routledge, 2010.
9. "Cognitive Activity: Philosophical Analysis, Psychological and Pedagogical Characteristics" - Ekaterina Korobova , Irina Kardovich , Marina Konysheva and Dina Mironova. Plekhanov Russian University of Economics, Moscow, Russian Federation. Russian University of Transport (RUT-MIIT), Institute of Legal Studies, Moscow, Russian Federation
10. I.B. Korotyaeva, *Business game as a means of developing cognitive and professional interests of students*, Author's abstract, dis. Cand. ped. Sciences, (Kiev, 1989).
11. T.I. Shamova, *Activation of the teaching of schoolchildren* (M., Ped-ka, 1982)
12. G.Abdiraimova ilmiy maqola "Uzviylik va izchillik prinsiplari asosida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish." XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI. 2022. 104-108-b
13. G.Abdiraimova Nurturing critical thinkers: approaches and activities for building critical thinking skills in primary students. [international journal of artificial intelligence vol. 4 no. 02 \(2024\): volume 04 issue 02](#)

14. G.Abdiraimova MODELS OF ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS ACCORDING TO THE PRINCIPLES OF CONSISTENCY AND CONTINUITY THE PROCESS OF STUDENTS' LEARNING

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI.

Moyliyeva Xumora To'ra qizi
Turon universiteti pedagogika va psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi
moyliyevaxumora@gmail.com (90) 926 41 97

Annotatsiya. Boshlang'ich sinif o'quvchilarining aqliy rivojlanishi, ularning intellektual faolligi, bilim olish va o'zlashtirish mustaqilligini rivojlantirish maktab ta'limining maqsadi bo'lib, bu borada ko'plab tajribalar to'plangan, sezilarli muvaffaqiyatlarga erishilgan.

Kalit so'zlar: komponent, izchil, qat'iyatlilik, burch hissi.

THE CONTENT OF DEVELOPING THE INTELLECTUAL ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS.

Abstract. The mental development of primary school students, their intellectual activity, and the development of independence in acquiring and mastering knowledge are the goals of school education, and a lot of experience has been accumulated in this regard, and significant successes have been achieved.

Keywords: component, consistent, determination, sense of duty.

СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ.

Аннотация. Умственное развитие учащихся младших классов, их интеллектуальная активность, развитие самостоятельности в приобретении и усвоении знаний являются целями школьного образования, и в этом отношении накоплен большой опыт и достигнуты значительные успехи.

Ключевые слова: компонент, последовательный, решимость, чувство долга.

Boshlang'ich sinif o'quvchilari ko'pincha kuchlanishni talab qilmaydigan vazifalarni tanlaydi, chunki har doim javobini biladi. Savol-javob paytida u "ma'lum yechish usuli bilan", "oson yechishdan boshlanib, murakkab bilan yakunlangan" muammolarni hal qilishni afzal ko'rishadi. O'quvchi uy vazifasini bajarmasa, yordam so'rab o'qituvchiga yoki sinfdoshlariga murojaat qilmaydi, tavsifiy tabiatning mazmuniga, oson vazifalarga qiziqish bildiradi xolos.

Agar darsda o'qituvchi o'rganilayotgan masalaga hayratlanarli fakt bilan qiziqish uyg'otgan bo'lsa, hammaning e'tibori mavzuda. Uning qiziqishi amaliy jarayonlotlarda ham namoyon bo'ladi. agar amaliy ishlarga tayyorgarlik uy vazifasi bo'lsa, uni bajarib, xulosa chiqaradi; lekin agar ish mustahkamlash sifatida yoki yangi materialni o'rganish bilan parallel ravishda amalga oshirilsa, u darhol qiyinchiliklarga duch keladi va qiziqishni yo'qotadi.

Boshlang'ich sinif o'quvchilari uchun maqsadli komponent oddiy ta'lim maqsadlariga erishish istagi bilan tavsiflanadi, ba'zida ular o'zlariga maqsadlar qo'yadilar. Axloqiy komponentda do'stlar oldidagi burch va mas'uliyat hissi rivojlangan, ammo o'quvchilarning har doim ham yashira olmaydi.

Intellektual komponent umuman beqaror tizim bo'lib, vazifalar algoritmgaga muvofiq to'g'ri bajariladi. Bunday o'quvchilar alohida fanlar bo'yicha dastur materiallariga ega.

Bilimlarning chuqurligi, izchilligi va samaradorligi hali dastur talablariga javob bermaydi, lekin o'quvchilar o'quv faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirishga harakat qilmoqdalar. Irodaviy komponentda o'qituvchining tushuntirishlarini mustaqil tahlil qilish istagi namoyon bo'ladi, ba'zida maktab o'quvchilari sinfda va uyda tahlil qilingan algoritmgaga muvofiq muammolarni hal qilishda qat'iyatlilik ko'rsatadilar.

Ammo ko'pincha tirishqoqlik va qat'iyat yo'q, uy vazifasini bajarish kerak bo'lganda, bir nechta muvaffaqiyatsiz urinishlar qilinadi. Bunday o'quvchilarning motivatsion komponenti maktabda o'qish uchun fanlarni o'rganish muhimligini anglash bilan tavsiflanadi.

Hissiy komponentda juda o'zgaruvchan, beqaror o'z-o'zini hurmat qilish mavjud, ammo o'z-o'zini hurmat qilish to'qnashuvi samaralidir. Xavotir hali rivojlanmagan, o'quvchilar

muvaffaqiyatsizliklardan qoʻrqadilar, oʻquv materialini bilmaslik tufayli muammolarni kutishadi, umidsiz boʻlib tuyulgan vaziyatdan chiqish yoʻlini topa olmaslik esa mustaqil oʻzlashtirishni rivojlantirish yoʻlini toʻsadi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari oʻz harakatlarini faqat tayyor reja asosida nazorat qilishlari mumkin. Oʻz-oʻzini tartibga solish komponentida xulq-atvorda mustaqillik baʼzan namoyon boʻladi, lekin koʻpincha boshqalarga ongsiz ravishda moslashish mavjud.

Muammoli vazifani tahlil qilish, xulosalar chiqarish, qoʻshimcha maʼlumotlarni mustaqil ravishda tahlil qilish qobiliyati shakllanishi amaliy komponentni koʻrsatadi.

Ikkinchi darajadagi oʻquvchilar oʻrganishdagi oʻrtacha muvaffaqiyat bilan ajralib turadi. Ular oddiy oʻquv maqsadlariga erishishga intiladi, ular standart vazifalarga qiziqishadi, ular qatʼiyatlilikni talab qilmaydigan vazifalarga eng koʻp jalb qilinadi, baʼzida ular muammolarni mustaqil ravishda qayta koʻrib chiqish istagini namoyon etadilar; yechimini topishga harakat qiladilar, yaʼni bunday oʻquvchilarning fikrlash qobiliyatlari past darajadan farqli ravishda koʻproq rivojlangan.

Oʻzlashtirish mustaqilligi baʼzilarida qatʼiyatlilik va maktabda oʻqishni mustahkamlash uchun zarur bilimlarni olishga intilishda, boshqalarida - oʻrta maʼlumot toʻgʻrisidagi guvohnoma olish, ishlashni boshlash istagida namoyon boʻladi.

Shu bilan birga, oʻrta boʻgʻin oʻquvchilari oʻzlarining mustaqil faoliyatini koʻpincha oʻqituvchi yordamida rejalashtirishga moyildirlar (va qila oladilar), baʼzan ular olingan bilimlarni amaliy masalalarni hal qilishda qoʻllashlari mumkin, ammo natijalar beqaror, ular boʻyicha xulosa chiqara olmaydilar. Oʻzlarining, nazariy bilimlarini amaliyotda qoʻllash, yangi yechim izlash qobiliyati koʻzga tashlanmaydi.

Uchinchisiga, yaʼni yuqori darajadagi oʻquvchilar quyidagi fazilatlar bilan ajralib turadi: vijdonlilik, burch hissi, masʼuliyat, hayotda muvaffaqiyatga erishish istagi. Sinfda shaxs sifatida u har doim oʻz qarorini qabul qila oladi, oʻz harakatlarida va intilishlarida mutlaqo mustaqil, fikrlash mustaqilligini ochib beradi. U asosiy narsani ajratib koʻrsatishga, xulosa chiqarishga, materialni umumlashtirishga va tahlil qilishga qodir. Bunday oʻquvchilar oʻqituvchilar tomonidan qoʻyilgan muammolarni oʻz kuchi bilan hal qilishga, qatʼiyat koʻrsatishga harakat qiladi. Ustozlari uni “tinchlikni bilmaydigan, tinmay nimagadir intiluvchi” oʻquvchi sifatida tavsiflaydilar. Bu darajadagi oʻvkachilar muammolarni hal qilishda boshqa mavzulardan olingan bilimlardan foydalanib, oʻz yechimini topishga harakat qilib, koʻplab yechimlarni taklif qiladi. Bu yechimlarni esa qoʻshimcha oʻzlashtirgan adabiyoti, internet, telivediniya va boshqa vositalardan oladi hamda amalda foydalanadi. Shunga qaramay, bunday qobiliyatlarga ega boʻlgan oʻquvchilar ham nazorat ishlarida qoʻyilgan vazifalarni qanday hal qilishni bilmagani uchun emas, balki asosan yechim usulini oqilona tanlay olmaganligi, bir nechta variantlar bilan vazifalarni hal qilish istagi tufayli “toʻrtlik” olishi mumkin. Bu esa oʻquvchini umidsizlantirmaydi balki, yanada qiziqish doirasini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алексеев Н.А. Психолого-педагогические проблемы развивающего дифференцированного обучения: Монография. - Челябинск: Изд-во ЧГПИ «Факел», 1995. - 167 с.

2. Государственный образовательный стандарт высшего профессионального образования: Специальность 030500.06 - Профессиональное обучение (информатика, вычислительная техника и компьютерные технологии) / Мин. Образования РФ. - М.: 2000. - 20 с.

3. Люблинская А.А. Детская психология. Уч. Пособие для ст-тов пед. Институтов. - М.: Просвещение, 1971. - 415 с.

STEAM YONDASHUVI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATI VA IJODIY TAFAKKURNI O‘STIRISH OMILI SIFATIDA

Halimova Madina Abdusalim qizi

Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada STEAM yondashuviga asoslangan o‘qitish uslublari, shuningdek o‘quvchilarga tajribalar o‘tkazishga, modellar tuzishga, muammolarni hal qilishga, hamkorlikni qabul qiladigan va ijodiy jarayon orqali ishlash ko‘nikmasini shakllantirilishi haqida so‘z yuritiladi. Bundan tashqari maktab o‘quvchilariga nafaqat ba‘zi bir g‘oyalarga ega bo‘lish, balki ularni amalda qo‘llash va amalga oshirish imkoniyatini berish haqida aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: STEAM, noodatiy fikrlash, kreativlik, model, ixtiro, yondashuv, robotexnika, hamkorlik, jamoa, moslashuvchanlik.

THE CONTENT OF DEVELOPING THE INTELLECTUAL ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS.

Abstract. This article discusses teaching methods based on the STEAM approach, as well as the formation of skills in students to conduct experiments, build models, solve problems, accept collaboration and work through a creative process. In addition, it is mentioned that schoolchildren are given the opportunity not only to have some ideas, but also to apply and implement them in practice.

Keywords: STEAM, unconventional thinking, creativity, model, invention, approach, robotics, collaboration, team, flexibility.

СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ.

Аннотации. В данной статье рассматриваются методы обучения, основанные на подходе STEAM, а также формирование у учащихся навыков проведения экспериментов, создания моделей, решения проблем, работы в команде и развития креативности через творческий процесс. Кроме того, в статье подчеркивается, что школьникам предоставляется не только возможность получить идеи, но и шанс применять их на практике и реализовывать в реальной жизни.

Ключевые слова: STEAM, нестандартное мышление, креативность, модель, изобретение, подход, робототехника, сотрудничество, команда, адаптивность.

STEM - ta‘lim jarayonida o‘qitish o‘quvchilarning qiziqishlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda, ayrim fanlar va ularni o‘rganish darajasini tanlab olish orqali o‘quv jarayonini individuallashtirishni ko‘zda tutadi. STEM – ta‘lim dasturida o‘quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda sinfdan tashqari va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish nazarda tutiladi. O‘quv dastur o‘qitishning maqsadlari jamiyat va davlat manfaatlari va talablariga mos kelmog‘i hamda javob bermog‘i lozim.

STEAM – zamonaviy ta‘limning muhim yondashuvi bo‘lib, turli fanlar va ularning tarkibiy qismlarini o‘zaro bog‘lash orqali bilim va ko‘nikmalarni chuqurroq va samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. U shunchaki fanlarni birlashtirish emas, balki ular orasidagi bog‘liqliklarni ochib berish, tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash, umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikda hamkorlik qilish ko‘nikmasini rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Mazkur yondashuv asosida tabiiy fanlarni o‘zlashtirish bir qator xususiyatlarga egaligi bilan tavsiflanadi:

Tushunish jarayonidagi aniq idrok etish: STEAM yondashuvga asoslangan o‘qitish o‘quvchilarga mavzuni turli burchaklaridan ko‘rib chiqish va uni chuqurroq idrok etish imkonini beradi. Masalan, o‘qish savodxonligi darsida o‘tilgan matnni tabiiy fanlar va san‘at bilan bog‘lab o‘rganish uning mazmunini yanada boyitadi.

Tafakkurning rivojlanishi: Turli fanlar doirasidagi mavzu yoki tushunchani konsentratsiya qilish va turli jarayonlarcha qo'llash uning mustahkam o'zlashtirilishiga yordam beradi hamda tafakkurni faollashtiradi.

Ko'nikmalarning samarali shakllanishi: STEAM yondashuvga asoslangan o'qitish o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, loyiha yaratish, hamkorlikda ishlash va boshqa muhim ko'nikmalarni rivojlantiradilar.

Kreativ potensialini yuzaga chiqarilishi: Turli fanlarni birlashtirish o'quvchilarga kreativ fikrlash va yangi g'oyalarni yaratish imkonini beradi. Ular mavzuga o'ziga xos yondashuvlarni topadilar, yon tomondan fikrlaydilar, mavjud bilimlarini, vetagen tajribalarini original tarzda qo'llaydilar.

Real hayotga bog'liqlik: STEAM yondashuvga asoslangan o'qitish o'quvchilarga bilimlarni real hayotdagi vaziyatlarga qo'llashni o'rgatadi va

ularning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi, ijtimoiy muammolarga turli yechim topishga va ijtimoiy ko'nikmaga ega bo'lishga zamin yaratadi.

Motivatsiyaning oshirilishi: Qiziqarli va turli xil faoliyatlar o'quvchilarning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Ko'p sohalarida qo'llaniladigan bilim. STEAM ta'limining nafaqat bitta soha bilan cheklanib qolishiga yo'l qo'ymaydi. Masalan, fizika va kimyo fanlari muhandislikda, biologiya va informatika esa texnologiya va tibbiyotda qo'llaniladi. Boshqacha aytganda, STEAM ta'limi keng va turli yo'nalishlarda ishlatiladigan bilimlarni birlashtiradi.

Jamoadi ishlash va kommunikatsiya. STEAM loyihalarida o'quvchilarga jamoadi ishlash, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va birgalikda muammolarni hal qilish ko'nikmalarini o'rgatadi. Bu ko'nikmalar nafaqat ilmiy faoliyatda, balki kundalik hayotda ham foydalidir.

Shuningdek, STEAM ta'limi orqali global texnologik, ekologik va ijtimoiy muammolarni hal qilishda ishtirok etish mumkin. Kelajakda STEAM ta'limi dunyo iqtisodiyotida va jamiyatda muhim o'rin tutishi kutilmoqda, chunki u ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishini jadallashtiradi va insonlarning kreativ potentsialini ochadi.

STEAM – bu standartlar, baholash va darsni loyihalash amalga oshirish o'rtasidagi o'zgarmas bog'lanishni ta'minlaydigan integratsiyalashgan o'rganish yondashuvi hisoblanadi. Haqiqiy STEAM tajribasi fan, texnologiya, muhandislik, matematika va san'at sohalaridan ikki yoki undan ortiq standartlarni o'z ichiga oladi. So'rov, hamkorlik va jarayon asosida ta'lim STEAM yondashuvining markaziy elementlari hisoblanadi. Haqiqiy STEAM tashabbusi uchun san'atning integratsiyasi juda muhimdir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun maktablar bir nechta omillarni hisobga olishlari kerak:

STEAM – bu standartlar, baholash va darsni loyihalash amalga oshirish o'rtasidagi o'zgarmas bog'lanishni ta'minlaydigan integratsiyalashgan o'rganish yondashuvi hisoblanadi. Haqiqiy STEAM tajribasi fan, texnologiya, muhandislik, matematika va san'at sohalaridan ikki yoki undan ortiq standartlarni o'z ichiga oladi. So'rov, hamkorlik va jarayon asosida ta'lim STEAM yondashuvining markaziy elementlari hisoblanadi. Haqiqiy STEAM tashabbusi uchun san'atning integratsiyasi juda muhimdir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun maktablar bir nechta omillarni hisobga olishlari kerak:

Har bir jamoadi o'qituvchilarning turli sohalaridan kelgan vakillarini o'z ichiga olgan hamkorlikda rejalashtirish.

Xulosa. STEAM ta'limi nafaqat texnologiyalarni o'rgatish, balki talabalarda ijodiy fikrlash va tahliliy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'z navbatida nafaqat ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishiga, balki jamiyatda innovatsion yondashuvlar va muammolarni samarali hal qilishga olib keladi. Bu ta'lim yo'nalishi kelajakda dunyoning barcha sohalarida katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзакаримова М. М. Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. Science and Education. Toshkent - 2020. 97- 103-b.

2. Мирзакаримова М. М. “Хорижий тилларни тадбиркорликка йўналтириб ўқитишнинг дидактик асослари”, Novateur Publications, (1), pp. 1- 128. Available at: <http://novateurpublication.org/index.php/np/article/view/23> (Accessed: 26 August 2023)

3. Мирзакаримова М. М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. Science and Education. Toshkent - 2020. 216-222-b.

4. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes. Telematique. - 2022. 7128-7131-b

6. Madaminjonovna M. M. K. L. Methodology of educational teaching of general sciences.

7. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies. International Journal of Human Computing Studies. 2023. 15-17-b.

8. Мирзакаримова М. М. Essential composition of entrepreneurship functional literacy. International scientific and technical journal “Innovation technical and technology”. 2020. 63-65-b.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINING IJTIMOIIY INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

*Ibragimova Shaxnozabonu Ismoilovna
Buxoro davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha talim) magistranti ibragimovas106@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlash masalalari yoritilgan. Unda intellekt tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy qismlari va erta yoshdagi bolalarda intellektual qobiliyatlarni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: ijtimoiy intellekt, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, muloqot, oʻyin metodi, bola, tafakkur, faoliyat, idrok, mantiqiy fikrlash, qobiliyat.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения интеллектуального развития воспитанников дошкольных образовательных учреждений. Анализируется содержание понятия «интеллект», его составляющие, а также современные подходы к формированию интеллектуальных способностей у детей раннего возраста.

Ключевые слова: социальный интеллект, дошкольное образование, воспитатель, общение, игровой метод, ребенок, мышление, деятельность, восприятие, логическое мышление, способности.

MODERN APPROACHES TO DEVELOPING SOCIAL INTELLIGENCE OF PRESCHOOL CHILDREN

Annotation. This article explores the importance of developing social intelligence in preschool children, the methods used for its enhancement, and the role of educators. Special focus is given to improving children's communication skills, empathy, and group cooperation through effective pedagogical strategies.

Keywords: social intelligence, preschool education, child development, educator, communication, empathy, play-based learning.

Kirish. Hozirgi davrda jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, muammolarga ijodiy yondasha oladigan shaxsni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishini erta bosqichlardan boshlab qoʻllab-quvvatlash va maqsadli ravishda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, 3–7 yosh oraligʻi bolaning psixik va aqliy salohiyati jadal

rivojlanadigan davr bo‘lib, aynan shu bosqichda berilgan to‘g‘ri ta‘lim va tarbiya uning keyingi rivojlanishiga mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida intellektual rivojlanish yo‘nalishida olib borilayotgan ishlarga zamonaviy yondashuvlar, innovatsion metodlar va bolalar psixologiyasi asosida qurilgan ta‘lim mazmuni talab etilmoqda. Shu munosabat bilan, ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektini rivojlantirishning nazariy asoslari, samarali usullari va amaliy yondashuvlari tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi — bolalar intellektining shakllanishiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash hamda tarbiyachilarning bu jarayondagi roli va metodikasini yoritishdan iborat.

Yangi O‘zbekistonda ta‘lim sohasini modernizatsiya qilish, har bir bolaning intellektual, ma‘naviy va jismoniy salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan. Ayniqsa, maktabgacha ta‘lim tizimida bolalarning nafaqat bilim olishi, balki shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiluvchi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda bolalarning ijtimoiy muhitda o‘zini tuta bilishi, boshqalarning his-tuyg‘ularini anglay olishi, muloqotga kirisha olishi, ya‘ni ijtimoiy intellektini rivojlantirish masalasi juda muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy rivojlanishini umumiy tushunchasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ijtimoiylashuv - bu o‘quvchining jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-axloqiy me‘yorlar va xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirish jarayoni. Ijtimoiylashuv - bu butun hayot davomida davom etadigan doimiy jarayon. Maktabgacha yoshdagi bolalikda bu birinchi navbatda ijtimoiy hayot normalarini o‘zlashtirishdir.

Ijtimoiy intellekt (social intelligence) - bu shaxsning boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarda to‘g‘ri yo‘l tuta olish qobiliyati, his-tuyg‘ularni anglash, empatiya qilish va jamoa bilan ishlashdagi samaradorligidir. Bu qobiliyat bola tug‘ilishi bilan birga shakllana boshlaydi va ijtimoiy muhitda faoliyat olib borish orqali rivojlanadi. Maktabgacha yoshda bu qobiliyatni rivojlantirish orqali bola keyinchalik maktabda, jamiyatda, kasbiy sohada muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni intellektual rivojlantirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishda qulay imkoniyatlar yarata oladigan, bog‘cha-maktab kabi yangi tipdagi ta‘lim tashkilotlari vujudga keldi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida oliy ma‘lumotli tarbiyachilar safi kengaydi. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta‘lim to‘g‘risida"gi Qonunida maktabgacha ta‘limga alohida e‘tibor qaratish lozimligi uqtirildi. Jumladan: Maktabgacha ta‘lim bola sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta‘minlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta‘lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta‘lim jarayoni bolalarni axloqiy, intellektual, jismoniy rivojlantirish uchun qulay pedagogik imkoniyatlarga ega.

Ijtimoiy intellekt bu – o‘zaro munosabatlarning muvaffaqiyatli olib borilishini ta‘minlaydigan qobiliyatlar to‘plami. Boshqalarning fe‘l-atvorini anglash qobiliyati, o‘ziga xos xatti-harakatlarda, vaziyatlarda o‘zini oqilona boshqara olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy intellekt tushuntirishga oid qarashlar juda ko‘p ammo uning yagona ta‘rif belgilanmagan. Olimlarning qarashlaridan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha ijtimoiy intellekt – “insonlar bilan bo‘lgan muloqot jarayonini ijobiy olib borilishga, ijtimoiy munosabatarning yaxshi o‘rnatilishiga, ijtimoiylashuv jarayoniga yordam beruvchi shaxs xususiyati” degan fikr yuzaga keladi.

Xulosa. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida intellektual rivojlanishga qaratilgan faoliyatlar bolalarning har tomonlama shakllanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonni tizimli va maqsadli tashkil etish, tarbiyachilarning doimiy izlanishi, metodik vositalarni takomillashtirib borishi bilan chambarchas bog‘liq. Shuningdek, oila va ta‘lim muassasasi hamkorligi intellektual rivojlanishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, har bir pedagog bolada fikrlash va ijod qilishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otuvchi sharoit yaratishga intilishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “ Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonuni. 2019 yil 16 dekabr. www.lex.uz

2. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, M.A‘zamova. “Maktabgacha pedagogika”. - T.,”Ma‘naviyat”, 2013.

-
3. Karimova, D. A. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o'yin faoliyatining ahamiyati. Toshkent: TDPU nashriyot
4. G'ulomova, Z. R. (2019). Bolalar psixologiyasi va aqliy rivojlanish nazariyalari. Toshkent: Ilm ziyo.
5. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (2022). Ilk qadam dasturi. Rasmiy metodik qo'llanma.
6. Axmedova, M. (2023). "Intellectual o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurni rivojlantirish". Ilmiy-amaliy jurnal, №2, 45–49-betlar.

TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONIDA INTEGRATIV-KOGNITIV TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI

*Karimova Kamola Komil qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) ixtisosligi tayanch doktoranti. karimovakamola29@gmail.com*

Annotatsiya. Ta'limda barkamol shaxsni shakllantirish yetakchi tushuncha. Bugungi kun o'quvchilarini kompetentlik, turli zamonaviy ko'nikmalar bilan qurollantirish bir qancha izlanish, yangilik kiritishni talab etadi. Mazkur maqolada integrativ-kognitiv topshiriqlarni qo'llashning istiqbollari to'g'risida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: integrativ-kognitiv topshiriq, tamoyil, tashkiliy-metodik tamoyil, ta'lim mazmuni, integratsiya, kognitiv fikrlash.

АКТУАЛЬНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕГРАТИВНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ЗАДАНИЙ В ПРОЦЕССЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО СОДЕРЖАНИЯ

Аннотация. Формирование всесторонне развитой личности в образовании является ведущей концепцией. Оснащение современных школьников компетентностями и разнообразными современными навыками требует проведения ряда исследований и инноваций. В статье рассматриваются перспективы использования интегративно-когнитивных заданий.

Ключевые слова: интегративно-познавательная задача, принцип, организационно-методический принцип, содержание образования, интеграция, когнитивное мышление.

THE RELEVANCE OF USING INTEGRATIVE-COGNITIVE TASKS IN THE PROCESS OF IMPROVING EDUCATIONAL CONTENT

Abstract. The formation of a well-rounded personality in education is a leading concept. Equipping today's students with competence and various modern skills requires a number of research and innovations. This article discusses the prospects for the use of integrative-cognitive tasks.

Key words: integrative-cognitive task, principle, organizational-methodological principle, educational content, integration, cognitive thinking.

Kirish. Ta'lim tamoyillari o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilab beruvchi boshlang'ich qoidalardir. Ta'lim tamoyillarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: ta'limning mazmunga aloqador va tashkiliy-metodik tamoyillari. Ta'lim mazmuniga aloqador tamoyillarga quyidagilar kiradi: insonparvarlashtirish; tabiat bilan uyg'unlik; madaniyat bilan uyg'unlik; ilmiylik; ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi; ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi.

Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillariga quyidagilar kiradi: ta'limning tizimliliigi va izchilligi; ta'limda onglik, faollik va mustaqillik; ko'rsatmalilik; ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi; ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish; tushunarlik tamoyili.

Integrativ-kognitiv topshiriqlar o'zida bir qancha tamoyillarni mujassam qilishi bilan bevosita ta'lim jarayonini tashkil etishda o'ziga xos afzalliklarni namoyon qiladi.

Ta'limning izchilligi, ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi, tushunarlilik, insonparvarlashtirish, tabiat bilan uyg'unlik, madaniyat bilan uyg'unlik, ta'limning fundamntalligi va amaliy yo'nalganligi, ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi tamoyillariga doir masalalar integrativ yondashuv bilan yanada mustahkamlanadi.

Topshiriqlarning kognitiv faoliyat asosida shakllantirishi ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish, ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik tamoyillarining yetarli darajada takomillashuviga shart-sharoit yaratib beradi. Tamoyillarga tayangan holda ta'lim mazmunini tashkil etish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan masalalarga oydinlik kiritadi.

Zamonaviy ta'lim tizimi faqatgina bilim berish bilan cheklanmasdan, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammo yechish, ijodiy yondashuv kabi ko'nikmalarini shakllantirishni ham maqsad qiladi. Integrativ-kognitiv topshiriqlar aynan shu kompetensiyalarni rivojlantiradi:

Kognitiv topshiriqlar: o'quvchilarning fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyatlarini rag'batlantiradi.

Integrativ yondashuv: bir nechta fanlararo aloqalarni o'rnatish orqali bilimlarni real hayotiy vaziyatlarga tatbiq qilish imkonini beradi.

Fanlararo integratsiyaning ahamiyati- zamonaviy jamiyatda muammolar ko'pincha bir fan doirasida emas, turli sohalar kesishmasida yuzaga keladi. Shuning uchun o'quvchilarni real muammolarni hal etishga tayyorlash uchun ularni:

turli fanlar bo'yicha bilimlarni birlashtirish;

mavhum tushunchalarni real kontekstda tushunish;

yangi bilimlarni amaliyotga joriy etishga o'rgatish muhim.

Kognitiv topshiriqlar o'quvchilarda o'z fikrlash jarayonini tahlil qilish, baholash va boshqarish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa:

o'quvchini o'z-o'zini baholashga;

o'quv strategiyalarini tanlash va moslashtirishga;

mustaqil o'rganishga tayyorlikni shakllantirishga yordam beradi.

Integrativ-kognitiv topshiriqlar:

STEAM yondashuvi, CLIL (Content and Language Integrated Learning),

PBL (Project Based Learning),

kritik fikrlash metodikasi kabi usullar bilan uyg'unlashadi.

Bu esa ularni amaliyotga joriy etishni osonlashtiradi va ta'lim jarayonini zamonaviylashtiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Integrativ-kognitiv topshiriqlardan foydalanish:

ta'lim mazmunini real hayotga yaqinlashtirish;

o'quvchilarni zamon talablariga mos holda tayyorlash;

ularning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

Shu boisdan, ularni ta'lim jarayoniga joriy etish – dolzarb, zarur va istiqbolli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Izbullayeva G.V. Pedagogika nazariyasi va tarixi. II qism [Matn]: darslik/– Buxoro: «Sadriddin Salim Buxoriy» Durdona, 2023.-224 b.

2. D.K.Toshpulatova (2023) Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. Diss...avtor... Toshkent.

3. M.B.Alimardonova (2023) Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviyligida kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasi. Diss...avtor... Toshkent.

4. Mambetova L.M. 9-sinf ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: Ped. fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Toshkent, 2024.

5. Saidova M.J. (2022) Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari // Sovremennyye innovatsionnyye issledovaniya aktual'nyye problemy i razvitiye tendentsii: resheniya i perspektivi. – T. 1. – №. 1. – C. 101-104. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8040089>

6. Karimova K.K. Integrativ-kognitiv topshiriqlar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning mazmuni. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities ISSN (E): 2835-3196 SJIF 2024: 6.723 Volume 3, Issue 6, June 2024

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA O'QUV TOPSHIRIQLARI ORQALI O'QUVCHILAR FAOLIYATINI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH

*Himoyeva Sarvarbegim Jamilovna
Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik va pedagogika
fakulteti Pedagogika kafedrası tayanch doktoranti*

Annotatsiya: maqolada o'quv topshiriqlari orqali o'quvchilar faoliyatini kreativ yondashuv asosida tashkil etish metodikasi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: o'quv ,topshiriq, kreativ, boshlang'ich sinf, ona tili, dars, o'quvchilar, jamiyat, faoliyat, samarali, o'rganish bilimi, darslik, uslubiy, ijodiy, ifodali, ta'lim, tadqiqot, ifodali, grammatik, ijodiy

ORGANIZING STUDENTS' ACTIVITIES THROUGH LEARNING TASKS BASED ON A CREATIVE APPROACH

Abstract: the article reveals the methods of teaching new educational material in primary school native language classes.

Keywords: educational, task, creative, primary school, native language, lesson, students, society, activity, effective, learning knowledge, textbook, methodological, creative, expressive, education, research, expressive, grammatical, creative

ОРГАНИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация. В статье описывается методика изучения нового учебного материала на уроках родного языка в начальной школе.

Ключевые слова: образовательный, задача, творческий, начальная школа, родной язык, урок, ученики, общество, деятельность, эффективный, усвоение знаний, учебник, методический, творческий, выразительный, образование, исследовательский, выразительный, грамматический, творческий

O'quv materiali. O'quv materiali ma'lumot mazmunini moddiylashtirishning eng oxirgi darajasidir. U ta'lim boshlanguncha me'yoriy loyiha darslik tarkibida tayyor holda bo'ladi. O'quv tarbiya jarayonida ta'lim o'quv materialini o'rganishdan boshlanadi. Unda ta'limning mazmuniy va jarayoniy xususiyatlari o'z aksini topadi. O'quv materialining ta'lim boshlangunga qadar tayyor ekanligi va o'qish-o'rganish jarayoni undan boshlanganligini hisobga olib, uni ma'lumot va ta'lim mazmuni o'rtasidagi oraliq zveno sifatida qaraymiz.

O'quv materiali ma'lumot mazmuniga darslik mualliflari pedagogik ishlov berishlarining eng oxirgi darajasi, ta'lim mazmunini o'zlashtirishning boshlang'ich nuqtasidir. Unga bundan keyin pedagogik ishlov berish o'qituvchiga, uning xohish-istagiga, intilishlariga bog'liq. O'qituvchi o'zi dars beradigan sinf o'quvchilarining real o'quv imkoniyatlarini hisobga olib, o'quv materialiga qo'shimchalar kiritadi, ortiqcha, ikkinchi darajali hodisalarni chiqarib tashlaydi.

O'qituvchining o'quv materialiga pedagogik ishlov berishi ijodiy jarayon bo'lib, shu yo'l bilan ta'limning eng mahsuldor varianti tanlanadi. Ta'limning eng mahsuldor, optimal variantini tanlashda o'rganiladigan material o'quv elementlariga ajratiladi, ta'lim metodlari, vositalari tanlanadi, u yoki bu mashg'ulotdan ko'zlangan natijaga erishish me'yorlari aniqlanadi. Demak, o'quv materialiga pedagogik ishlov berish yo'li bilan mashg'ulotni tashkil etishning rejasi ishlab chiqiladi.

O'quv elementi. O'quv materiallari tarkiban o'quv elementlaridan iborat. O'quv elementi - o'quv materialining pedagogik ishlov berilgan eng kichik birligidir. O'quv elementlari miqdoriga ko'ra, sodda va murakkab o'quv materiallari farqlanadi. Agar o'quv material tarkibida bitta o'quv elementi ajratilsa, u sodda mavzu sanaladi. Tarkiban ikki yoki undan ortiq o'quv elementlaridan iborat mavzu murakkab o'quv material hisoblanadi. Masalan, atoqli otlar imlosiga oid o'quv material quyidagi o'quv elementlaridan iborat: kishilarning ism-familiyalari, taxallus va laqablar (1); shahar, qishloq, ko'chalar, korxonalarning nomi (2); hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar (3); ro'znoma, oynoma, asarlarning nomi (4). O'quv elementlari miqdoriga ko'ra, atoqli otlar imlosiga oid o'quv material murakkab mavzudir.

U yoki bu o'quv material tarkibida o'quv elementlari ajratilganda qator pedagogik talablarga rioya qilinadi.

Adekvatlik o'quv elementining makondagi xususiyati bo'lib, u o'quv elementining o'quv materialiga mosligini taqozo etadi. Har bir o'quv material tarkibida faqat va faqat unga oid o'quv elementi ajratilishi zarur.

Bir-biriga bog'liqlik o'quv elementining informatik xususiyati bo'lib, u bir o'quv elementi to'liq o'zlashtirilgach, ikkinchisiga o'tish zarurligini taqozo qiladi.

Bir-birini to'ldirish o'quv elementining xususiyati bo'lib, u keyingi o'quv elementini o'rganish bilan oldingi o'quv elementini o'zlashtirish o'rtasida vaqtli interval bo'lishini talab etadi.

O'quv elementining qiyinligi uning funksional xususiyati bo'lib, u o'zlashtirish jarayonida bola faoliyati-ning intensivligini (aqlga zo'r berib ishlashni) belgilash o'lhovidir.

Optimallik o'quv elementining miqdoriy xususiyati bo'lib, unga ko'ra o'rganilayotgan axborotning ko'lami-kengligi aniqlanadi. Optimallik talabiga ko'ra, boshlang'ich va yuqori sinflarda o'rganiladigan qoidalar, aniqliklar, ta'riflarning soddaligi yoki murakkabligi belgilanadi.

O'quv savoli. Ona tili mashg'ulotlarida bolalarga beriladigan savollar o'rganilgan yoki endi o'rganiladigan mavzular mazmunidan kelib chiqib aniqlanadi. Binobarin, o'quv savoli bu javobi ta'lim mazmunida berilgan so'roqdir. O'quv savollari ko'zlangan maqsad, ta'limda bajaradigan ishiga ko'ra tasnif etiladi.

O'quv-tarbiya jarayonida qo'llanish maqsadiga ko'ra, o'quv savollarining quyidagi turlari farqlanadi: o'tgan-larni takrorlashga oid savol. Bu xil savollar o'rganilgan va o'rganiladigan o'quv materiallari o'rtasida vorislik, mantiqiy aloqadorlik o'rnatish maqsadida tashkil etiladi. Masalan, qaratqich aniqlovchini o'tishdan oldin sifatlovchiga oid bilimlarni takrorlash zarur. Shu maqsadda bolalarga qator savollarni berish mumkin: qanday gap bo'lagiga sifatlovchi deyiladi? Kim misollar vositasida sifatlovchining xususiyatlarini tushuntira oladi? va hokazo; sinov savollari vositasida bolalarning bilim, malakalari tekshiriladi; yangi o'quv materialini o'rganishdan oldin tayyorlovchi o'quv savolidan foydalaniladi; yangi mavzuni tushuntirish jarayonida qo'yiladigan savollar "hamroh" so'roq hisoblanadi; umumlashtiruvchi savollar ikki yoki undan ortiq mavzular doirasida beriladi. Masalan, aniqlovchilarning barcha turlari (sifatlovchi, qaratqich, izohlovchi) uchun umumiy xususiyatni kim aytib beradi?

Ta'lim jarayonida bajaradigan vazifasiga ko'ra ham o'quv savollari ikki guruhga bo'linadi: a) asosiy savol (aniqlovchining barcha turlari uchun umumiy xususiyatini kim aytib beradi?); b) yetaklovchi savol. Bolalar asosiy savolga javob qaytara olmaganda, yetaklovchi savol beriladi (sifatlovchining umumiy xususiyatini kim aytadi? Qaratqich aniqlovchining umumiy xususiyati nimadan iborat? Nimaga asosan izohlovchini aniqlovchining bitta turi sifatida o'rgangan edik?). Yetaklovchi savol asosiy savol uchun tayyorgarlik vositasini o'taydi.

O'quv kartochkalari. O'quv kartochkalari ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar faoliyatini individuallashtirish vositasi hisoblanadi. Ulardan ona tili darslarining turli bosqichlarida foydalaniladi. O'quv kartochkalari ona tilidan ta'lim mazmunini moddiylashtirishning boshqa vositalari-dan quyidagicha farq qiladi: darslik materiallariga qo'shimcha sanaladi; harakatchan bo'ladi: o'qituvchidan o'quvchiga, o'quvchidan o'qituvchiga siljiydi; darsning barcha bosqichlarida ishlatiladi; o'quvchilar faoliyatini individuallashtiradi; kartochkadagi topshiriqni

bajarish jamoada muhokama qilinadi. Binobarin, kartochkani bajarish natijasi o'quvchilar jamoasiga mo'ljallangan.

O'quv topshiriqlari. O'quv topshiriqlari murakkab hodisa bo'lib, ularning mohiyati, o'quv-tarbiya jarayonida bajaradigan ishi boshqa pedagogik hodisalar bilan taqqoslab o'rganilgandagina aniqlanadi. Ana shunday kategoriyalar-dan biri o'quv materialidir.

Misol tariqasida «Darak gap» mavzusini olaylik. Bu o'quv materiali tarkiban quyidagi birliklardan iborat: bilim - xabar anglash, uning (darak gapning) oxirida ovozning pasayishi, nuqta qo'yish bilan yakunlanishi; malaka - darak gapni gapning boshqa turlari (masalan, so'roq gap)dan farqlash, darak gapni ijro etish, darak gaplarning oxiriga nuqta qo'ya bilish; ijodiy faoliyat tajribasi - darak gaplarni matndan topa olish, undan nutqda foydalanish; metod fikrni darak gap shaklida bayon qila olish.

Darak gap mavzusida o'quv topshiriqlari tuzilganda, o'quv materiali yangicha shaklga keltiriladi. Masalan, bahor haqida o'zaro bog'langan darak gaplar tuzing; matndan darak gaplarni topib o'qing; <<sabr - qanoat>>> so'zlar ishtirokida bitta darak gap tuzing va hokazolar.

O'quv-tarbiya jarayonida o'quv materiali o'zgartirilib topshiriq shakliga olib kelinadi. Yanada soddaroq qilib aytganda, o'quv materiali ta'limning aynan olingan maqsadidan kelib chiqib o'zgartiriladi. O'quv materialini o'zgartirish yo'li bilan u bolalarning real o'quv imkoniyatlariga moslashtiriladi. O'quv topshirig'i - ona tilidan ta'lim mazmunini o'rgatish (o'qituvchi faoliyati) va o'rganish (o'quvchi faoliyati) ehtiyojiga ko'ra, o'quv materialining ma'lum shart asosida o'zgartirilgan shaklidir.

O'quv materialining o'quv topshirig'i shaklida o'zgarib turishi qancha rang-barang bo'lsa, ta'lim mazmuni shuncha puxta o'zlashtiriladi. Shu bilan birga, o'quv topshirig'i bilimlarni tanish va yangi sharoitlarga ko'chish, ularni amaliyotga tatbiq etishning asosiy vositasidir. Ona tiliga oid topshiriqlarni bajarish yo'li bilan ularda nutq faoliyati takomillashadi, nutq ko'nikmalari rivojlanadi. Binobarin, o'quv topshirig'i o'quvchida ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan faoliyatini o'stirish va tarbiyalashning bosh omillaridan hisoblanadi.

Ona tilidan o'quv topshiriqlarini bajarish jarayonida qator talablarga rioya qilinadi: topshiriqni bajarish uchun zaruriy bilimni o'quvchi o'z shaxsiy bilimlari orasidan izlaydi yoki o'rganilgan bilim va o'zlashtirilgan faoliyat usulini tanish sharoitga tatbiq etadi yoxud bilim va faoliyat usullarini notanish yangi sharoitga tatbiq etadi, yangi bilim va yangicha faoliyat usullarini egallab oladi. O'quv topshirig'ini bajarish jarayonida rioya qilinadigan normativ talablariga ko'ra, ularning quyidagi tiplari ajratiladi.

Mashq qilishga oid o'quv topshiriqlari - o'rganilgan bilim, o'zlashtirilgan usulni tanish sharoitiga tatbiq etishga oid o'quv vazifasidir. Ularni bajarishda zaruriy bilimlar, usullar esga tushirilib faoliyat ko'rsatiladi. Yanada ommaboproq qilib aytganda, topshiriqni bajaruvchi o'z tezaurusini qayta qurib, kerakli axborotni - bilimni ajratadi, shu ajratilgan bilimga rioya qilib, faoliyat ko'rsatadi. Shunday topshiriq berilgan bo'lsin: otlarni o'qib, ikki guruhga ajratib yozish (daftar, o'quvchi, xaskash, piyoz, bola, o'qituvchi, albom, ishchi).

Topshiriqni otlarning so'roqlarini bilgan o'quvchigina bajara oladi. O'quvchi o'z bilimlari orasidan otlarning so'roqlariga oid bilimlarini ajratadi, esga tushiradi, so'ngra esga tushirilgan bilimni berilgan o'quv holatiga tatbiq etadi. Shu tipdagi o'quv topshiriqlarini bajarish yo'llari bilan bolalarda so'roqlar yordamida otlarni ikki guruhga ajratish malakasi shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Himoyeva, S. (2023). ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING O'QUV-BILUV KO'NIKMALARINI SAVOL-JAVOB TARZIDA AMALGA RIVOJLANTIRISH. *Science and innovation in the education system*, 2(9), 44-47.

2. Sarvarbegim, H. (2023). Developing Students' Creative Skills through the 4k Model in Mother Language and Reading Literacy Education. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 198-202.

3. Jamilovna, H. S. (2024, March). IMPROVING THE CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS THROUGH EDUCATIONAL TASKS IN PRIMARY GRADE MOTHER

TONGUE EDUCATION. In *Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference* (Vol. 6, pp. 1-5).

4. Himoyeva, S. J. (2020). UMUMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI
5. O'QUVCHILARINING YOZMA NUTQINI INSHO YOZISH ORQALI RIVOJLANTIRISH USULLARI. *Студенческий вестник*, (19-12), 99-100.
6. Himoyeva, S. (2025). ONA TILI DARSLARIDA O'YIN TOPSHIRIQLARI USTIDA ISHLASH ORQALI O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 2(19).
7. Jumayeva H.G'., "Pedagogik muloqot asosida ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari" Zamonaviy fan va tadqiqotlar 4.3: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2025 yil 22-aprel) 340-346.
8. Jumayeva H.G'., "Geymifikatsion yondashuv asosida talabalarning evrestikkognitiv faoliyatini rivojlantirishning metodik asoslari" Zamonaviy tasviriy-pedagogik ta'limda an'ana va innovatsiyalar: izlanishlar va yechimlar xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari Buxoro – 2025
9. Jumayeva H.G'., "Talabalarda evristik tafakkurni shakllantirishda geymifikatsion yondashuvning ahamiyati", "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 5
10. Jumayeva H.G'., "Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish", "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 3
11. Shavkatovna, S. D. (2021). The Importance of Distance Learning in the Teaching of "Methods of Teaching Mathematics". *European Scholar Journal*, 2(4), 114-117.
12. Shavkatovna, S. D. (2022). Issues of Formation of Professional Competence of Students. *European journal of innovation in nonformal education*, 2(2), 291-294.
13. Sidikova, S. D. (2021). Theoretical and didactic principles of distance learning. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(1), 541-548.
14. Shavkatovna, S. D. (2021). Developing Students' Professional Competencies in Distance Learning. *Central asian journal of literature, philosophy and culture*, 2(10), 152-155.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KREATIV YONDASHUV ASOSIDA MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Ozodova Madina Hamza qizi

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti ozodovam81@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi boshlang'ich sinf o'quvchilarda kreativ yondashuv asosida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish usullari, samarali interfaol metodlar va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'quvchi, kreativ yondashuv, muloqot ko'nikmasi, tafakkur, ijodiy topshiriq, metod, fikr.

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация. В этом тезисе представлены методы и рекомендации по развитию коммуникативных навыков у начальных школьников на основе творческого подхода, а также эффективные интерактивные методы.

Ключевые слова: начальное образование, ученик, творческий подход, навыки общения, мышление, творческое задание, метод, мысль.

DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN PRIMARY STUDENTS BASED ON A CREATIVE APPROACH

Annotation. This thesis presents methods for developing communication skills based on a creative approach for primary school students, along with effective interactive methods and

recommendations.

Keywords: primary education, student, creative approach, communication skills, thinking, creative assignment, method, thought.

Kirish. Hozirgi ta'lim jarayonida bolalarning nafaqat bilim olishi, balki o'z fikrini erkin ifoda eta olishi, boshqalarni tinglashi va to'g'ri muloqotga kirisha olishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf davrida bu ko'nikmalarni shakllantirish o'quvchining shaxsiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga asos yaratadi. Muloqot ko'nikmalari – bu faqat so'zlashish emas, balki tushunish, tinglash, savol berish va bahslashish madaniyatini o'z ichiga oladi. Bu borada kreativ yondashuv alohida o'rin tutadi. U bolalarda tabiiy ravishda mavjud bo'lgan ijodkorlik salohiyatini uyg'otib, o'quv jarayonini jonlantiradi va o'zaro faol muloqotni rag'batlantiradi.[1]

Tadqiqot maqsadi. Kreativ yondashuv – bu o'quvchilarning tafakkurini erkin ifoda etishga, mustaqil fikrlashga, yangi g'oyalarni ilgari surishga undaydigan pedagogik yondashuvdir. Bu metodlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi an'anaviy biryoqlama munosabatni o'zgartiradi va darsni jonli, interaktiv jarayonga aylantiradi.

Kreativ yondashuv quyidagilarga asoslanadi:

- o'yinli faoliyatlar va ijodiy topshiriqlar;
- rolli o'yinlar, sahnalashtirish va dramatik mashg'ulotlar;
- guruhli yoki juftlikda ishlash;
- rassomchilik, hikoya tuzish, she'r aytish kabi erkin ijodiy faoliyatlar;

Vizual va eshitish materiallaridan foydalangan holda muloqotni rag'batlantirish.

Ushbu yondashuvlar orqali o'quvchilar nafaqat muloqot qilishni, balki ijodiy fikrlashni, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashni va o'z fikrini asoslab aytishni o'rganadilar. [2]

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda quyidagi metodlardan samarali foydalanish mumkin:

a) Interaktiv metodlar

Savol-javob: Darsni boshlashda va yakunlashda bolalarning fikrini bilishga xizmat qiladi.

“Fikr zanjiri”: Har bir o'quvchi oldingi o'quvchining fikrini davom ettirib, bir mavzuda fikr almashishadi.

“Nima bo'lishi mumkin?”: Rasm yoki voqea asosida taxminiy suhbat olib boriladi, bu o'quvchilarni erkin fikrlashga undaydi.

b) Dramatik topshiriqlar

Rolli o'yinlar (masalan, kasblar, do'konda suhbat, maktabdagi vaziyatlar);

Dialoglar tuzish va ularni ifodalash;

Qisqa hikoya yoki ertaklarni sahnalashtirish orqali muloqot ko'nikmalarini amaliy mustahkamlash.

d) Vizual va eshitish materiallari asosida ishlash

Multifilm yoki video tomosha qilgandan so'ng u haqida suhbat;

Rasm asosida hikoya tuzish yoki rasmda tasvirlangan voqeani og'zaki bayon qilish;

Suratlar orqali turli vaziyatlardagi muloqot turlarini tahlil qilish. [4]

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Yuqorida keltirilgan metod va topshiriqlardan samarali foydalangan holda, faqatgina darsliklar bilan chegaralanibgina qolmay turli kreativ yondashuvlar orqali o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini sekin-asta rivojlantirish mumkin. Bunda albatta boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'rni beqiyosdir. Shuningdek muntazam ravishda o'quvchilarga kitob o'qish ko'nikmasini ham rivojlantirib borish orqali ham muloqotni o'stirish ahamiyatligi ekanligi aniq. [5]

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda kreativ yondashuv muhim o'rin egallaydi. Bunday yondashuv nafaqat darsni jonlantiradi, balki o'quvchilarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqaradi, ularni mustaqil va faol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan boyitilgan darslar orqali o'quvchilarning muloqot madaniyatini erta bosqichdayoq mustahkamlash muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shayakhmetova, M. Kreativ yondashuv va uning ta'limdagi o'rni. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi. Toshkent: 2017, 280 bet
2. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. :- Toshkent 2015,40 bet
3. Adizov B. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok.... dis. -Toshkent, 2003. - 276 b.
4. Hamzayevna, O. M. (2023). CREATIVE APPROACH IN DEVELOPING THE COMMUNICATION SKILLS OF PRIMARY CLASS GUARDS. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 55-59.
5. Ozodova, M. H. (2024). SPEECH DEVELOPMENT OF STUDENTS IN MOTHER LANGUAGE CLASSES OF PRIMARY CLASS. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS, 3(1), 76-82
6. Jumayeva H.G'., "Pedagogik mulohaza asosida ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari" Zamonaviy fan va tadqiqotlar 4.3: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2025 yil 22-aprel) 340-346.
7. Jumayeva H.G'., "Geymifikatsion yondashuv asosida talabalarning evrestikkognitiv faoliyatini rivojlantirishning metodik asoslari" Zamonaviy tasviriy-pedagogik ta'limda an'ana va innovatsiyalar: izlanishlar va yechimlar xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari Buxoro – 2025
8. Jumayeva H.G'., "Talabalarda evristik tafakkurni shakllantirishda geymifikatsion yondashuvning ahamiyati", "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 5
9. Shavkatovna, S. D. (2021). The Importance of Distance Learning in the Teaching of "Methods of Teaching Mathematics". European Scholar Journal, 2(4), 114-117.
10. Shavkatovna, S. D. (2022). Issues of Formation of Professional Competence of Students. European journal of innovation in nonformal education, 2(2), 291-294.
11. Sidikova, S. D. (2021). Theoretical and didactic principles of distance learning. Academia: an international multidisciplinary research journal, 11(1), 541-548.
12. Shavkatovna, S. D. (2021). Developing Students' Professional Competencies in Distance Learning. Central asian journal of literature, philosophy and culture, 2(10), 152-155.
13. Jumayeva H.G'., "Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish", "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 3

BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATINI KREATIV VA TANQIDIY YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH

Ishpulatova Dinora Rahimovna

Qarshi DU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi E-mail:ishpulatovadinora05@gmail.com Phone number: +99899 464 35 03

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion va tahliliy fikrlovchi shaxsni shakllantirishda zamonaviy pedagogik metodlarning roli ochib beriladi. Muammo asosida o'qitish, loyiha va interaktiv usullar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash, kreativlik, muammoga yechim topish kabi ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari ko'rsatib o'tiladi. O'qituvchining pedagogik mahorati va metodik yondashuvi esa bu jarayonning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omil sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: innovatsion fikrlash, kompetensiya, klaster usuli, tahlil, solishtirish, umumlashtirish, tanqidiy baholash

Аннотация. Роль современных педагогических методов открыта в этой статье в формировании инновационного и аналитического мыслителя. Основываясь на основе

проблемы, учащиеся развили навыки студентов, такие как независимое мышление, творческое, поиск решения проблемы. Подход педагогического навыка и метода учителя будет интерпретироваться как ключевой фактор, который определяет успех процесса.

Ключевые слова: инновационное мышление, конкуренция, метод кластера, анализ, анализ, акцент, обобщение, критическая оценка

Annotation: This article reveals the role of modern pedagogical methods in the formation of an innovative and analytically thinking person. Problem-based learning, project-based and interactive methods are used to develop students' skills such as independent thinking, creativity, and problem-solving. The teacher's pedagogical skills and methodological approach are interpreted as the main factors determining the success of this process.

Keywords: Innovative thinking, competence, cluster method, analysis, comparison, generalization, critical evaluation

Kirish. Globallashuv, axborot texnologiyalari tezkor rivojlanayotgan hozirgi davrda ta'lim tizimi oldida turadigan eng dolzarb vazifalardan biri – jamiyat ehtiyojlariga mos, raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Bugungi kunda har bir o'quvchining intellektual salohiyatini to'liq ochib berish, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, real hayotiy muammolarga yechim topishga yo'naltirilgan innovatsion va tahliliy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Innovatsion va tahliliy fikrlash – bu faqatgina yangi g'oyalarni ilgari surish emas, balki mavjud axborot va muammolarni tahlil qila olish, izchil fikrlash, kreativ yondashuv asosida samarali yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatidir. O'quvchilarda mazkur kompetensiyalarni shakllantirish esa, o'z navbatida, o'qituvchidan yangicha pedagogik yondashuvlarni qo'llashni, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishni va dars jarayonini ijodiy tashkil etishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, zamonaviy pedagogik metodlar, xususan, interaktiv metodlar, loyiha asosida o'qitish, muammo asosida o'qitish (problem-based learning), klaster usuli, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari o'quvchilarda innovatsion va tahliliy fikrlashni shakllantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu metodlar o'quvchilarni faollikka undaydi, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va yangi yechimlar topish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maqolada zamonaviy pedagogik metodlarning nazariy asoslari, ularning tahliliy va innovatsion fikrlashni shakllantirishdagi o'rni, dars jarayonida qo'llash amaliyoti, shuningdek, bu boradagi ilg'or tajribalarga tayanilgan holda tavsiyalar yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda o'qituvchining kasbiy mahorati, pedagogik didi va metodik yondashuvlari hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani ilmiy asoslangan holda ochib beriladi.

Zamonaviy pedagogik metodlarning nazariy asoslarini ko'rib chiqadigan bo'lsak. Zamonaviy pedagogik metodlar pedagogik fikr taraqqiyotining mantiqiy davomidir. Ular o'quvchining shaxsini markazga qo'ygan, uning qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlariga asoslangan holda o'qitish g'oyasini ilgari suradi. Bu metodlar konstruktiv yondashuvga asoslanadi, ya'ni bilimlar tayyor shaklda emas, balki o'quvchining faol ishtiroki, izlanishi, fikr yuritishi natijasida egallanadi. Misol uchun, muammo asosida o'qitish metodida o'quvchilarga real yoki shartli muammo taklif etiladi. Ular bu muammoni hal qilishda o'z bilimi, tajribasi va kreativ yondashuvlaridan foydalanadi. Bu jarayonda o'quvchining tahliliy fikrlashi, mantiqiy xulosalar chiqarishi, tanqidiy baholash qobiliyati rivojlanadi. Loyiha asosida o'qitish metodida esa o'quvchilar mustaqil yoki jamoaviy holda amaliy, ilmiy yoki ijtimoiy loyihalarni ishlab chiqadi. Bu nafaqat bilim, balki ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi: rejalashtirish, muammoga yechim topish, axborotni izlab topish, jamoaviy fikrlash va kommunikatsiya qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Interaktiv metodlar, masalan, klaster, “aqliy hujum”, “fikrlar kartasi”, “ va boshqalar, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va o'z nuqtai nazarini asoslab bera olish, boshqalarning fikrini hurmat qilish, tahliliy yondashuv asosida baholash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Innovatsion va tahliliy fikrlashni shakllantirishda dars jarayoni asosiy mohiyati quyidagicha:

Dars — bu o'quvchining shaxsiy va aqliy salohiyatini rivojlantiradigan asosiy maydon. Shuning uchun o'qituvchi har bir darsni nafaqat bilim berish vositasi sifatida, balki o'quvchini o'ylashga, tahlil qilishga, yechim topishga undaydigan ijodiy jarayon sifatida tashkil etishi lozim. Darsda quyidagi elementlarning mavjudligi aynan zamonaviy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi:

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi savollar;Tahlil, solishtirish, umumlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlar;

Guruhiy va jamoaviy faoliyat.Hayotiy vaziyatlar asosida muammoli topshiriqlarO'quvchilarning tashabbusini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish. Masalan, darsda oddiy matnni berib, o'quvchilardan matn asosida muammoli savollar tuzish, turli nuqtai nazardan baholash, alternativ yechimlar taklif etish topshiriqlari orqali analitik va ijodiy fikrlashni faollashtirish mumkin.

Ilg'or tajribalar va tavsiyalardan foydalanish ham ta'lim tizimini yanada rivojlantiradi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida o'quvchilarning XXI asr ko'nikmalarini, jumladan, tanqidiy, ijodiy va tahliliy fikrlashini rivojlantirish bo'yicha izchil tajribalar shakllangan. Xususan, Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur ta'lim tizimlarida darslarning asosiy maqsadi — o'quvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantirish va uni o'rganishga o'rgatishdan iborat.O'zbekiston ta'lim tizimida ham oxirgi yillarda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni modernizatsiyalashga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda. Bu esa o'qituvchidan yangicha fikrlashni, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv uslublarni faol qo'llashni talab etadi.

Pedagoglarga quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Dars rejasini tuzishda har bir topshiriqning o'quvchi tafakkuriga ta'sirini hisobga olish;
2. Darsda savol-javoblar, tahliliy vazifalar va "fikir maydonlari"ni tashkil qilish;
3. "Muammoli vaziyat – tahlil – yechim" zanjirini darsda yo'lga qo'yish;
4. Har bir darsda o'quvchining individual yondashuviga imkon yaratish;
5. O'quvchilarni loyihaviy faoliyatga jalb etish.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy vazifasi — o'quvchilarda yangicha fikrlash, muammoli vaziyatlarda samarali yo'l tutish, ijodkorlik va innovatsion yondashuvlarni shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayonda o'qituvchining pedagogik mahorati, zamonaviy uslub va metodlarni puxta egallashi, har bir o'quvchining fikrlash salohiyatini yuzaga chiqarishga qaratilgan ijodiy faoliyati muhim o'rin tutadi. Zamonaviy pedagogik metodlarni oqilona va tizimli qo'llash orqali o'quvchilarda analitik tafakkur, tanqidiy yondashuv, ijodiy g'oya ishlab chiqish, qaror qabul qilish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirish mumkin. Bular esa o'z navbatida raqobatbardosh, zamon bilan hamnafas fikrlovchi, mas'uliyatli shaxsni voyaga yetkazish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sidiqova D.S (2021) Zamonaviy ta'limda masofaviy o'qitish tizimi. Ilmiy taraqqiyot 2(7),1027-1031
2. Shavkatovna, S. D. (2022). Masofaviy ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasi. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 61-62
3. Ismoilova Yu.UMUMIY PEDAGOGIKA. "Fan va ta'lim" nashriyoti 2022-yil
4. Murodova Zu.UMUMIY PEDAGOGIKA "Fan va ta'lim" nashriyoti, 2022-yil
5. To'rayev S. Qashqadaryo jadidlari – Qarshi: Nasaf, 2002.
6. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik– Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
7. Xujayarova N.S UMUMIY PEDAGOGIKA "Fan va ta'lim" nashriyoti, 2023-yil
8. . Hasanboyeva O.M. "Innovatsion pedagogik texnologiyalar". – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 192 b.
9. Murodova. D. "STEAM yondashuvi orqali boshlang'ich ta'limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish".—"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy jurnali, 2022, №1(10). – B. 78–82.

BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATINI KREATIV VA TANQIDIY YONDASHUV ASOSIDA TASHKI ETISH

*Aminova Dilnoza Qahramon qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
Ilmiy rahbar: Sidiqova Dilora Shavkatovna
1-bosqich magistranti*

Annatatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida ishtirokchilarning – o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalarning faoliyatini kreativ va tanqidiy yondashuv asosida tashkil etishning zaruriyati, asosiy tamoyillari hamda metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'limda ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish yo'llari, ularning o'quv jarayoniga ijobiy ta'siri ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: innovatsion, kreativ, tanqidiy fikrlash, boshlang'ich ta'lim, ishtirokchilar faoliyati, ta'lim metodlari, kompetensiya, solishtirish, shaxsiy fikr, daslik, Milliy dastur, ijodkorlik.

TO ORGANIZE THE ACTIVITIES OF PARTICIPANTS IN THE PRIMARY EDUCATION PROCESS BASED ON A CREATIVE AND CRITICAL APPROACH.

Abstract. This article discusses the need, basic principles and methodological foundations of organizing the activities of participants in the primary education process - teachers, students and parents - on the basis of a creative and critical approach. Also, ways of forming creative and critical thinking in modern education, their positive impact on the educational process are analyzed on a scientific and theoretical basis.

Keywords: Innovative, creative, critical thinking, primary education, participant activity, teaching methods, competence, comparison, personal opinion, guidance, National Program, creativity.

ОРГАНИЗОВАТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧАСТНИКОВ ПРОЦЕССА НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО И КРИТИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация. В данной статье рассматривается необходимость, основные принципы и методические основы организации деятельности участников процесса начального образования - педагогов, учащихся и родителей - на основе креативно-критического подхода. Также на научно-теоретической основе анализируются пути формирования креативно-критического мышления в современном образовании, их положительное влияние на образовательный процесс.

Ключевые слова: Инновационный, креативный, критическое мышление, начальное образование, активность участников, методы обучения, компетентность, сравнение, личное мнение, руководство, Национальная программа, креативность.

Kirish. Ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar bu jamiyat hayotini yaxshilashga xizmat qila oladigan muhim hodisalardan biridir. Ta'limga kiritiladigan har bir yangilik, bu ta'lim oluvchi va ta'lim-tarbiya beruvchi o'rtasida innovatsion vosita hisoblanadi. Ya'ni innovatsion texnologiyalar orqali tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'z samaradorligi bilan an'anaviy ta'lim jarayonidan mutlaq farq qiladi. Bunga birgina misol sifatida ta'lim jarayoniga kiritilgan kreativ va tanqidiy yondashuvni aytish mumkin.

Kreativlik tushunchasi lotincha, inglizcha "create"- yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor, ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod degan ma'nosini anglatadi. Dunyoda birinchi bor 1922-yilda AQSh olimi D.simpson tomonidan kreativlik so'zini fanga kiritgan. Bu atama orqali shaxs qolipdagi stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan. Kreativlik bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini muntazam takomillashtirishi va rivojlantirishi bilan bog'liq tushunchadir hisoblanadi

Bugungi kunda kreativ va tanqidiy fikrlay oladigan yoshlarga ehtiyoj sezilmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, mustaqil fikrlay oladigan va o'z fikrini qo'rqmasdan bayon eta oladigan, hamda ijodiy yondashgan holda yangi g'oyalarni taqdim etadigan yoshlar yurtimizning ertangi kelajagi hisoblanadi. Bugunki kunda kreativlik orqali hayotda nimalar vujudga kelganini bir nechta misollar orqali ko'rib chiqamiz. Misol uchun: elektron xizmatlar, 3D printer, virtual reallik, to'rtburchak tarvuzlar barchamizga oddiy ko'ringan, tuproqsiz hosil olish kabi bir qancha ixtirolar ya'ni ularning barchasi inson tafakkurining, inson tasavvurining va inson kreativligining mahsuli hisoblanadi. Inson miyasi odatda o'z ishini yengillashtirish, qulaylashtirish uchun ma'lum bir shablon va stereotiplardan foydalanadi

Shuning uchun ham, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlik kompetensiyasi shakillantirish orqali, o'quvchilarda ijodkiorlik qobiliyatini rivojlantirish juda muhim. Buni qanday joriy qilish mumkin? degan savolga "maktab darsliklari" orqali deb javob berish mumkin. Milliy dastur asosida yaratilgan "Yagi avlod darsliklari" bunga asos bo'ladi. Bu darsliklarda berilga topshiriqlar ham kreativlikni va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, tanqidiy fikrlash atamasi ilk bor XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. Tanqidiy fikrlash – bu muammolarni tahlil qilish, dalillarni solishtirish, xulosalar chiqarish va mantiqiy fikrlash qobiliyatidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ushbu kompetensiyani shakllantirish quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:

- Mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi;
- O'qilgan matnni anglash va undan xulosa chiqarish ko'nikmalarini mustahkamlaydi;
- Fikrini asoslab berish va bahslashish qobiliyatini oshiradi;
- O'quv jarayonida ijodkorlik va mantiqiy tahlil qilishni rivojlantiradi

Yuqoridagi ma'lumotdan ko'rinib turibdiki tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish orqali o'quvchilarda o'z shaxsiy fikrini qo'rqmay bayon etish hamda, berilgan ma'lumot va axborotlarni analiz va sintez qilgan holda fikr bildirga olish qobiliyatidir. Bu orqali o'quvchilarda vatanga muhabbat, milliy qadryatlarga amal qilish va hurmat tushunchalarini singdara olish osonlashadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida kreativlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun bir qancha faoliyat turlarini tashkil etish orqali amalga oshirish mumkin. Bunga misol qilib;

O'qituvchi faoliyati

- Dars jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish.
- O'quvchilarni erkin fikrlashga undovchi savollar berish.
- Ijodiy loyihalar, rolli o'yinlar va munozaralarni qo'llash.
- Baholashda o'z-o'zini va tengdosh baholash tizimidan foydalanish.

O'quvchi faoliyati

- Mustaqil fikrlash, savol berish, xulosa chiqarish.
- Guruhlarda ishlash, hamkorlik qilish.
- Turli manbalardan ma'lumot izlash va tahlil qilish.

Ota-ona faoliyati

- Uyda ijodiy mashg'ulotlarga sharoit yaratish.
- Farzand bilan birgalikda kitob o'qish, muhokamalar olib borish.
- O'qituvchi bilan doimiy aloqada bo'lish.

Kreativlik va tanqidiy fikrlashni boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakillashtirishning bir nechta usullari mavjud. Bunga misol qilib quyidagi jadvalni keltish mumkin.

Yo'nalish	Amalga oshirish shakli
Dars metodikasi	Savol-javob, muammoli ta'lim, loyiha ishi, rolli o'yinlar
Baholash tizimi	Reyting ballari, portfoliolar, refleksiya, og'zaki tahlil
Muhit yaratish	Ochiq fikrlashga undovchi, do'stona, demokratik muhit
Texnologiyalar	Raqamli vositalar: interaktiv taqdimotlar, onlayn platformalar
Fanlararo integratsiya	Bir nechta fanlarni uyg'unlashtirib dars o'tkazish

Ta'lim sifatini oshirishda kreativ va tanqidiy yondashuv muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich ta'lim bosqichidayoq o'quvchilarni erkin fikrlovchi, tahlil qiluvchi, ijodiy yondasha oluvchi shaxs sifatida shakllantirish uchun ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari birgalikda harakat qilishi zarur. O'qituvchi, o'quvchi va ota-onaning faol hamkorligi natijasida ta'limning zamonaviy talablarga mos, samarali modeli yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Oripova Muslima Ulug'bek qizi " KREATIVLIK TUSHUNCHASI, MAZMUN MOHIYATI VA UNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI"
2. Normamatova, F., & Eshboyeva, S. Q. (2024). Boshlang 'ich sinf o 'quvchilarida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda o 'qituvchining o 'rni. PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH, 1(6), 272-276.
3. Asqarova Vasilaxon Mirzajon qizi "O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH VA BAHOLASH"
4. Nargiza, Qodirova. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish mexanizmlari." ИКРО журнал 14.01 (2025): 77-79.
5. Lutfetdinova, R., and A. Abdulxayev. "O 'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASH KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH." Лучшие интеллектуальные исследования 42.1 (2025): 52-55.

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING KOGNITIV RIVOJLANISHINI TA'MINLOVCHI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR: YONDASHUV VA USULLAR

Rahmatova Mehrangis Hayot qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti mehrangis.rakhmatova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv rivojlanishini ta'minlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati tahlil etilgan. Kognitiv rivojlanish deganda o'quvchilarning bilim olish, idrok etish, tafakkur yuritish, muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi intellektual faoliyat turlari tushuniladi. Tadqiqotda konstruktivistik yondashuv, faoliyatga asoslangan ta'lim, metakognitiv strategiyalar, o'yin texnologiyalari, hamkorlikka asoslangan o'qitish kabi ilg'or pedagogik texnologiyalar tahlil qilinib, ularning boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida bilimlarni chuqurroq anglash, tafakkur fleksibilligini rivojlantirish va muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv rivojlanish, boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiyalar, konstruktivistik yondashuv, metakognitsiya, muammoli ta'lim, o'yin texnologiyalari, ongni faollashtirish, individual rivojlanish trayektoriyasi, psixopedagogika, ko'p darajali ta'lim.

НАЧАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИХ КОГНИТИВНОЕ РАЗВИТИЕ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье проанализирована роль и значение современных педагогических технологий в обеспечении когнитивного развития учащихся начальных классов. Под когнитивным развитием понимаются такие виды интеллектуальной деятельности, как восприятие, усвоение знаний, мышление и решение проблемных ситуаций. В исследовании рассмотрены передовые педагогические технологии, такие как конструктивистский подход, обучение на основе деятельности, метакогнитивные стратегии, игровые технологии и обучение в сотрудничестве. Раскрыта их роль в углублённом усвоении знаний, развитии гибкости мышления и формировании навыков самостоятельного мышления у младших школьников.

Ключевые слова: когнитивное развитие, начальное образование, педагогические технологии, конструктивистский подход, метакогниция, проблемное обучение, игровые технологии, активизация сознания, индивидуальная траектория развития, психопедагогика, многоуровневое обучение.

PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES ENSURING COGNITIVE DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS: APPROACHES AND METHODS

Abstract. This article analyzes the role and significance of modern pedagogical technologies in ensuring the cognitive development of primary school students. Cognitive development refers to various types of intellectual activities such as knowledge acquisition, perception, reasoning, and problem-solving. The study examines advanced pedagogical technologies such as the constructivist approach, activity-based learning, metacognitive strategies, game-based technologies, and cooperative learning. Their role in promoting deeper understanding, enhancing cognitive flexibility, and developing independent thinking skills among young learners is explored in detail.

Keywords: *cognitive development, primary education, pedagogical technologies, constructivist approach, metacognition, problem-based learning, game technologies, cognitive activation, individual development trajectory, psychopedagogy, multi-level education.*

Kirish. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning tafakkuri, idroki va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarining shakllanishida muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, bu davrda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning kognitiv rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Kognitiv rivojlanish – bu bilimni anglash, eslab qolish, tafakkur yuritish va qaror qabul qilish kabi intellektual jarayonlarning shakllanishidir. Ushbu maqolada ana shu texnologiyalarning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quv jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni hayotda muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tayyorlash o'qituvchilarning professional tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir. Shu bois, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodikalar, zamon talablariga javob beradigan innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar bilan to'ldirilishi zarur.

O'qituvchining kompetentligi o'z navbatida o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Hatto eng muvaffaqiyatli o'qituvchilar ham tirishqoqlik bilan o'qiydigan va o'qituvchining ko'rsatmalariga faol rioya qiladigan, ammo o'quv faoliyatida mustaqillik va faollik ko'rsatmaydigan o'quvchilarga duch kelishlari mumkin. Bunday o'quvchilar faqat reproduktiv o'rganishga, ya'ni ma'lumotni takrorlash va yodlashga qodir, ammo ijodiy yondashuv va materialni tahlil qilishda qiyinchiliklarga uchraydilar. Ushbu muammoni hal qilish uchun o'qituvchilar har bir o'quvchining qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual ta'lim strategiyalarini yaratishlari kerak. Bunga qo'shimcha topshiriqlar, loyihalar, guruhda ishlash, munozaralar va o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik hamda mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradigan boshqa usullar kiradi.

Kognitiv rivojlanish tushunchasi va uning pedagogik ahamiyati. Kognitiv rivojlanish insonning fikrlash, idrok qilish, eslab qolish, diqqatni jamlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini o'z ichiga olgan psixologik jarayonlar majmuasidir. Ushbu jarayon bolaning aqliy salohiyatining shakllanishi va rivojlanishida markaziy ahamiyatga ega. Piaget nazariyasiga ko'ra, kognitiv rivojlanish bosqichma-bosqich sodir bo'lib, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar operatsional fikrlash darajasiga o'tadi, ya'ni ular muammolarni mantiqiy yechish, tushunchalarni umumlashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, Vygotsky ijtimoiy o'zaro ta'sir va madaniy muhitning kognitiv rivojlanishga ta'sirini ta'kidlagan bo'lib, o'qituvchining roli va pedagogik sharoitlarning ahamiyatini ko'rsatadi.

Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning kognitiv imkoniyatlari va individual rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab

chiqish muhim hisoblanadi. Bu yondashuvlar o'quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirokini ta'minlab, ularning mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarda yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, kognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning kognitiv rivojlanishga ta'siri. Hozirgi kunda pedagogik amaliyotda kognitiv rivojlanishga qaratilgan bir qator ilg'or texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Ularning asosiylari — konstruktivistik yondashuv, faoliyatga asoslangan o'qitish, metakognitiv strategiyalar, o'yin texnologiyalari hamda hamkorlikka asoslangan o'qitishdir.

Konstruktivistik yondashuv o'quvchilarning bilimlarni mustaqil tarzda yaratishi va amaliyotda qo'llashini ta'minlaydi. Bu yondashuvda o'qituvchi nafaqat bilim manbai, balki rahbar va yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi sifatida faol ishtirok etadi. Konstruktivistik ta'limda o'quvchilar ilgari mavjud bilimlari asosida yangi bilimlarni quradi, shu orqali fikrlash darajasi chuqurlashadi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi.

Faoliyatga asoslangan o'qitish — bu o'quvchilarni o'z bilimlarini real hayot vaziyatlarida qo'llashga o'rgatadigan metodika bo'lib, ta'lim jarayonining interaktivligini oshiradi. Ushbu metod o'quvchilarning muammoli vaziyatlarda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Metakognitiv strategiyalar o'quvchilarning o'z fikrlash jarayonlarini anglab, boshqarishlariga yordam beradi. Bunda o'quvchilar o'z o'rganish usullarini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash orqali samaradorlikni oshiradi. Metakognitiv strategiyalar kognitiv ko'nikmalarning rivojlanishida, xususan, muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilishda muhim vosita hisoblanadi. O'yin texnologiyalari esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining e'tiborini jamlash, motivatsiyasini oshirish va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita sifatida tan olingan. O'yinlar orqali o'quvchilar o'zaro hamkorlikni rivojlantiradi, yangi bilimlarni qiziqarli va esda qolarli tarzda egallaydi.

Pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llash usullari va samaradorligi. Pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi va bilimlarini doimiy yangilab borishi talab etiladi. Muammoli ta'lim shakllarini, interaktiv o'yinlar, loyihalar, guruh ishlari va individual topshiriqlarni o'z ichiga olgan dars jarayonlari o'quvchilarning kognitiv faoliyatini rag'batlantiradi.

Muammolarni hal qilish jarayoni doimiy ravishda muammoning shartlari bilan bog'liq. Bunday o'quvchilar ijtimoiy ahamiyatga ega motivlarni namoyon etadilar, o'qituvchilar va sinfdoshlar bilan hamkorlik qilishga tayyor ekanliklarini, shuningdek, o'zlarining va jamoaviy ishlarining natijalari uchun yuqori javobgarlikni namoyish etib, o'z sheriklarini ishda faol qo'llab-quvvatlaydilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining konetiv kompetensiyasini muvaffaqiyatli rivojlantirish ko'p jihatdan o'z kasbiy darajasini doimiy ravishda oshirishga va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishga intilayotgan o'qituvchining faol va maqsadli faoliyatiga bog'liq.

Ta'lim metodlari o'rganish jarayonini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta'lim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalarini amalga oshirishda qo'llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarni o'z ichiga oladi. Faqat mashg'ulotlarga faol yondashish boshlang'ich sinf o'quvchilarda o'quv faoliyatining barcha jihatlarini, shu jumladan motivatsiya, faoliyat usullari, ishlatilgan vositalar va boshqaruv mexanizmlarini, shuningdek faoliyat, mustaqillik, mas'uliyat va o'zini o'zi tashkil etish kabi asosiy fazilatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv rivojlanishini ta'minlovchi pedagogik texnologiyalar zamonaviy ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Konstruktivistik yondashuv, faoliyatga asoslangan ta'lim, metakognitiv strategiyalar, o'yin texnologiyalari va hamkorlikka asoslangan o'qitish kabi innovatsion metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni chuqur anglash va muammoli vaziyatlarda samarali yechim topish qobiliyatini

oshirishga xizmat qiladi. Ushbu pedagogik yondashuvlarning tizimli va kompleks qo'llanilishi boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Demetriou A. et al. Changing priorities in the development of cognitive competence and school learning: A general theory //Frontiers in Psychology. – 2022. – T. 13. – C. 954971.
2. Khudoynazarov, E. (2023). Boshlang'ich ta'limda mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati. Молодые ученые, 1(13), 32-37.
3. Safin R. S. et al. Pedagogical conditions of students independent readiness formation for educational cognitive activity //Life Science Journal. – 2014. – T. 11. – №. 10s.
4. Gafurova, T. G. (2020). Ta'lim innovatsiyalari: nazariya va amaliyot. Toshkent: O'qituvchi.
5. Эгамбергян, Х. М. (2023). Ўқувчиларда танқидий фикрлашни ривожлантиришнинг педагогик ва методик асослари. Zamonaviy fan, ta'lim va ishlab chiqarish muammolarining innovatsion yechimlari, 4, 56-59.
6. Shavkatovna, S. D. (2023). Improvement of Professional Competence on the Basis of Modern Information Technologies in Teaching Specialized Subjects to Future Elementary School Teachers. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 225-229.
7. Shavkatovna, S. D. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. Scientific Impulse, 1(5), 731-735.
8. Sidikova, D. S. (2023). CHARACTERISTICS OF DISTANCE EDUCATION. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, 2(6), 92-95.
9. Сидикова, Д. Ш. (2023). TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI: Sidiqova Dilora Shavkatovna Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (5), 232-235.
10. Jumayeva H.G'., "Pedagogik mulohaza asosida ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari" Zamonaviy fan va tadqiqotlar 4.3: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2025 yil 22-aprel) 340-346.
11. Jumayeva H.G'., "Geymifikatsion yondashuv asosida talabalarning evrestikkognitiv faoliyatini rivojlantirishning metodik asoslari" Zamonaviy tasviriy-pedagogik ta'limda an'ana va innovatsiyalar: izlanishlar va yechimlar xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari Buxoro – 2025
12. Jumayeva H.G'., "Talabalarda evristik tafakkurni shakllantirishda geymifikatsion yondashuvning ahamiyati", "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 5
13. Jumayeva H.G'., "Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish", "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 3

ADEKVAT MODELLAR ASOSIDA TABIIY FANLARNI TANQIDIY VA TAHLILiy O'QITISH YO'LLARI

Abdullayeva Gavhar Ro'zimurod qizi

Qarshi davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim kafedrası 3-kurs tayanch doktoranti. Telefon raqam +998901182502 pochta abdulayevagavxar@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamoviy ta'lim tizimida dolzarb va kerakli bilimlardan biri bo'lgan adekvat modellar haqida fikr yuritilgan. Talabalarni o'qitishda tabiiy fanlarni yanada tushunarli va qiziqarli bo'lishiga hissa qo'shadi. Tabiiy fanlarda adekvat modellarning o'rni sezilarli darajada ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'z: Adekvat, model, grafik chizmalar, 3D modellar, tajriba qurilmalari, virtual laboratoriyalar, oddiy jismoniy vositalar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются адекватные модели, которые являются одним из актуальных и необходимых знаний в современной системе образования. Они способствуют тому, чтобы сделать естественные науки более понятными и интересными для учащихся. Подчеркивается, что роль адекватных моделей в естественных науках значительна.

Ключевые слова: Адекватный, модель, графические чертежи, 3D-модели, экспериментальные устройства, виртуальные лаборатории, простые физические инструменты.

Abstract: This article discusses adequate models, which are one of the relevant and necessary knowledge in the modern education system. They contribute to making natural sciences more understandable and interesting for students. It is highlighted that the role of adequate models in natural sciences is significant.

Keywords: Adequate, model, graphic drawings, 3D models, experimental devices, virtual laboratories, simple physical tools.

Zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri — talabalarda chuqur bilim va mustahkam ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga, ularni tanqidiy va tahliliy fikrlashga o'rgatishdir. Ayniqsa, tabiiy fanlar yo'nalishida bu vazifa muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tabiiy fanlar o'z mohiyati bilan ilmiy-tajriba asosidagi bilimlarni o'z ichiga oladi va talabadan faol kognitiv ishtirokni talab etadi. Bunday o'quv jarayonini samarali tashkil etishda adekvat modellar muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, tabiiy fanlar sohasida bu yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tabiiy fanlar hayotiy voqelikni ilmiy asosda anglashni, kuzatish, tajriba va mantiqiy xulosalarga tayangan holda tushunchalarni shakllantirishni talab etadi. Shu jihatdan, adekvat modellar asosida talabalarining tanqidiy bilimlarini takomillashtirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Adekvat model tushunchasi va uning ta'limdagi o'rni. Model — bu real obyekt, hodisa yoki jarayonning soddalashtirilgan, tushunarli tasviridir. U o'quvchilarga real dunyo hodisalarini anglash, ularni tahlil qilish va umumlashtirish imkonini beradi. Adekvat model deganda esa real holatni ilmiy asoslangan, to'g'ri va to'laqonli aks ettira oladigan o'quv modeli tushuniladi. Tabiiy fanlarda ko'plab murakkab tushunchalar mavjud bo'lib, ularni oddiy tushuntirish yetarli emas — o'quvchilar ularni ko'rishi, solishtirishi, sinab ko'rishi kerak. Aynan shu joyda modellashtirish vositalari — grafik chizmalar, 3D modellar, tajriba qurilmalari, virtual laboratoriyalar yoki oddiy jismoniy vositalar yordamga keladi.

Model bu — real hodisa yoki tizimni soddalashtirilgan, tushunarli ko'rinishda aks ettirish vositasidir. Adekvat model esa o'rganilayotgan hodisani mohiyatiga yaqin, to'g'ri aks ettirgan model sanaladi. Tabiiy fanlarda masalan, molekulaning tuzilishi, suv aylanishi, quyosh sistemasi, yurak faoliyati kabi murakkab jarayonlar aynan modellar orqali o'rgatiladi. Bu modellar o'quvchilarga nazariy bilimlarni aniq tasavvur qilish, sabab-oqibat bog'liqliklarini tushunish imkonini beradi. Adekvat modellar yordamida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning asosiy yo'li — talabalarni modellarning qanday ishlashini tahlil qilishga, ularni amaliy holatlarga tatbiq etishga, kamchilik yoki cheklovlarini aniqlashga jalb qilishdir. Bu esa talabani passiv bilim oluvchidan faol tahlilchi va izlovchiga aylantiradi.

Adekvat modellar yordamida o'qitish tizimining asosiy afzalliklari:

1. Bilimlarni vizual va amaliy tarzda taqdim etish. Ko'plab o'quvchilar mavzuni ko'rib, sezib, tajriba orqali o'rganishda yaxshiroq natijalarga erishadi. Masalan, "Quyosh sistemasining tuzilishi" haqida faqat og'zaki tushuntirish o'rniga, uning harakatdagi modeli yoki simulyatsiyasi orqali tushuntirish o'quvchilarni vizual va amaliy jihatdan faollashtiradi. Bu usul, ayniqsa, kichik sinf o'quvchilarida tushunchalarning shakllanishida muhim o'rin tutadi.

2. Tanqidiy fikrlash va muammo yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Model bilan ishlagan talaba uning qanday ishlashini, cheklovlarini, real holatga mosligini tahlil qiladi. Bu orqali o'quvchi shunchaki tayyor axborotni qabul qilmaydi, balki uni sinchiklab o'rganadi, baholaydi va zarurat tug'ilganda takomillashtirish variantlarini taklif etadi. Masalan, "Yerda

iqlim o'zgarishi" mavzusida global issiqlik modeli yordamida sabablar va oqibatlarni muhokama qilish orqali o'quvchilar sabab-oqibat aloqalarini aniqlashni o'rganadi.

3. Talabani faol o'rganuvchiga aylantiradi. Modellashtirish — faqat o'qituvchi tomonidan ko'rsatib beriladigan vosita emas. Aksincha, talabalarning o'zlari model tuzishi, uni sinab ko'rishi, natijalarni muhokama qilishi mumkin. Bu yondashuv talabani "nafaol bilim oluvchi" emas, balki "faol bilim yaratuvchi"ga aylantiradi. Masalan, talabalar "O'simliklarning fotosintezi" mavzusida karton, plastik va yorug'lik o'lchovlari asosida mini-model tayyorlab, hodisani o'zlari izohlaydi.[3]

4. Mavzulararo bog'liqlikni ta'minlaydi. Modellar ko'p hollarda bir nechta fanlar kesishgan nuqtada ishlatiladi. Masalan, suv aylanishi modeli geografiya, fizika va biologiyadagi tushunchalarni birlashtiradi. Bu talabalarda mavzulararo aloqadorlikni anglash, bilimlarni tizimli holatda shakllantirishga xizmat qiladi.

5. Texnologiyalarga asoslangan ta'limga yo'l ochadi. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar — raqamli platformalar, 3D simulyatorlar, interaktiv doskalar yordamida modellarni interaktiv va dinamik tarzda taqdim etish imkoniyati mavjud. Virtual laboratoriyalar, animatsion modellar o'quvchini real ilmiy tajribalar olamiga yaqinlashtiradi. Bu esa o'z navbatida STEAM yondashuvini (Science, Technology, Engineering, Art, Math) tabiiy fanlarda keng qo'llashga xizmat qiladi. O'qituvchining vazifasi: model tanlash va uni samarali qo'llash

Model o'zi uchun emas, balki talabaga tushunchani yengil va aniq yetkazish uchun tanlanadi. Shuning uchun o'qituvchi modelni quyidagi mezonlar asosida tanlashi kerak:

- Adekvatlik: model real holatni iloji boricha aniq aks ettirsin;
- Tushunarliklik: o'quvchining yoshiga va tayyorgarlik darajasiga mos bo'lsin;
- Faollashtirish xususiyati: o'quvchini fikrlash, izlanish va muloqotga jalb qilsin;
- Texnik imkoniyat: mavjud vositalar yordamida amalga oshirilishi mumkin bo'lsin.[5]

Shuningdek, o'qituvchi modellashtirish asosida topshiriqlar tuzishi, guruhli ishlashni tashkil etishi, natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, tabiiy fanlarni o'qitishda adekvat modellarni yoritib berish tizimi ta'lim jarayonining sifatini oshirishda kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. U bilimlarni chuqurlashtiradi, o'quvchini faollashtiradi, tanqidiy va analitik fikrlashni rivojlantiradi. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan modellar o'quvchilarni real ilm-fan olamiga yanada yaqinlashtiradi. O'qituvchi bu jarayonda metodik jihatdan puxta tayyorgarlik ko'rgan holda, modellashtirish asosida darslarni tashkil etsa, natijada o'quvchilarning nafaqat bilimi, balki ilmiy tafakkuri ham yuksaladi.

Ta'limda adekvat modellar asosida tanqidiy bilimlarni shakllantirish – zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu yondashuv o'quvchilarda chuqur tushuncha, analitik fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Tabiiy fanlar o'zining ilmiy mohiyati bilan bu jarayon uchun qulay maydon yaratadi. O'qituvchi esa bu jarayonda model va metodikani to'g'ri tanlab, o'quvchini faol fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish yo'lida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Буре Р.С. Формирование адекватной самооценки в продуктивной деятельности / Р.С. Буре // Ребенок в детском саду. - 2007. - №3. - С.60-63.
2. Данькова Е.Н. Диагностика социального развития детей дошкольного возраста / Е.Н. науч.-практ. конф. - Челябинск, 2007. - С.61-67.
3. Дубцова М.В. Особенности профессиональной компетентности заместителя заведующего по воспитательной и методической работе дошкольного образовательного учреждения / М.В. Дубцова Молодой ученый. – 2015. – №22. – С. 779 –780.
4. Гусева, Т.В. О некоторых видах работы с моделями-схемами // Начальная школа. - 2002. - № 12.
5. M.I.Nuriddinova «Tabiat bilan tanishtirish metodikasi» T.: «Cho'lpon» nashriyoti 2005. 56-b
6. Oliy ta'lim (lug'at-ma'lumotnoma).—Toshkent: "Moliya" nashriyoti, 2003,456 b.

7. Hasanboyeva O., Jabborova X., Nodirova Z, «Tabiat bilan tanishtirish metodikasi» T.: «Choʻlpon» nomidagi nashriyot matbasi» 2016. 112-b

8. Sodiqova Sh.A., Rasulxoʻjayeva M.A.«Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi» T.: «Fan va texnologiya» 2012.78-b

IJTIMOY TARMOQLARDAGI MULOQOTNING SHAKLLARI VA XUSUSIYATLARI

Oysara Davronovna Kurbonova

Buxoro xalqaro universiteti magistranti

Telefon raqam: +998902984907 Email: kurbanovaoyasara015@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar muloqotning yangi shakllari va kommunikativ uslublarni yuzaga keltirdi. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda muloqotning asosiy shakllari, ularning oʻziga xos xususiyatlari, kommunikatsion samaradorligi hamda bu jarayonning ijtimoiy-psixologik taʼsirlari nazariy va amaliy asosda tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: ijtimoiy tarmoq, muloqot shakllari, raqamli kommunikatsiya, interaktivlik, virtual aloqa.

FORMS AND FEATURES OF COMMUNICATION IN SOCIAL NETWORKS

Abstract. Modern social networks have created new forms of communication and communicative styles. This article analyzes the main forms of communication in social networks, their specific features, communicative effectiveness, and the socio-psychological impact of this process on a theoretical and practical basis.

Keywords: social network, forms of communication, digital communication, interactivity, virtual communication.

ФОРМЫ И ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

Аннотация. Современные социальные сети создали новые формы общения и коммуникативные стили. В статье на теоретической и практической основе анализируются основные формы общения в социальных сетях, их особенности, коммуникативная эффективность и социально-психологическое влияние этого процесса.

Ключевые слова: социальная сеть, формы общения, цифровое общение, интерактивность, виртуальное общение.

XXI asrda ijtimoiy tarmoqlar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Bu platformalar orqali insonlar nafaqat aloqa oʻrnatadi, balki muloqot qiladilar, oʻz fikrlarini ifoda etadilar, axborot oladi hamda jamoatchilik fikriga taʼsir koʻrsatadilar. Mazkur muloqot jarayonlari kommunikatsiya nazariyalari nuqtayi nazaridan tahlil qilinishi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yoʻnalishidir. Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot anʼanaviy kommunikatsiya vositalaridan farqli oʻlaroq, koʻp yoʻnalishli, interaktiv va tezkor shaklga ega. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiyoti zamonaviy jamiyatda muloqotning shaklini oʻzgartirdi. Ijtimoiy tarmoqlar — Facebook, Instagram, Telegram, TikTok, X (sobiq Twitter) — bugungi kunda insonlar oʻrtasidagi asosiy kommunikatsiya vositalariga aylangan. Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot insonlar oʻrtasidagi axborot almashinuvining oʻziga xos shakllarini yuzaga keltirdi. Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyat muloqotining oʻziga xos maydoniga aylandi. Bu maydon kommunikatsiya nazariyalarining yangicha talqinini, jamiyat va texnologiya oʻrtasidagi munosabatlarni qayta koʻrib chiqishni taqozo etadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot interaktiv, dinamik va koʻp qirrali boʻlib, nafaqat shaxslararo aloqalarga, balki global miqyosdagi siyosiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlarga ham taʼsir koʻrsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot oʻzining Anʼanaviy yuzma-yuz muloqotdan farqli ravishda, bu tarmoqlarda muloqot virtual muhitda, asinxron (asynchronous) "Asinxron" soʻzi vaqt jihatidan bir-biriga toʻgʻri kelmaydigan, yaʼni bir vaqtda emas, mustaqil tarzda sodir boʻlayotgan hodisalarni bildiradi. Bu ham koʻproq texnika va dasturlashda qoʻllaniladi, lekin kundalik muloqotda ham ishlatiladi. Asinxron

muloqot – ishtirokchilar turli vaqtlarda javob beradilar (masalan, elektron pochta yoki ijtimoiy tarmoqdagi xabarlar). Yoki sinxron (synchronous) "Sinxron" soʻzi bir vaqtda, birgalikda sodir boʻlayotgan yoki bajarilayotgan hodisalarni ifodalaydi. Bu atama odatda texnika, aloqa, dasturlash va tilshunoslik sohalarida qoʻllaniladi. Sinxron muloqot – suhbatdoshlar bir vaqtning oʻzida muloqotda boʻladi (masalan, telefon orqali suhbat yoki videoqoʻngʻiroq). shaklda amalga oshadi. Muloqot shakllarining koʻpligi, ularning dinamikasi va taʼsirchanligi ushbu mavzuni chuqur ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot shakllari quyidagilardan iborat: yozma muloqot, tasviriy va vizual muloqot, audio va video muloqot, mem va satirik muloqot. Quyida muloqotning har bir shakli alohida izohlandi:

1. Yozma muloqot

Yozma muloqot ijtimoiy tarmoqlarda eng keng tarqalgan shakldir. Bu shakl:

- Postlar — ommaviy auditoriyaga qaratilgan xabarlar;
- Izohlar (kommentariyalar) — fikr almashish va interaktivlikni taʼminlaydi;
- Shaxsiy yozishmalar — shaxsiy va norasmiy suhbatlar shaklida kechadi.

2. Tasviriy va vizual muloqot

Rasmlar, videolar, emojilar, giflar orqali amalga oshadigan muloqot turidir. Bu:

- Neverbal signal yetkazish;
- Emotsional holatni ifodalash;
- Kontekstni boyitish kabi funksiyalarni bajaradi.

3. Audio va video muloqot

Rivojlangan platformalar (Zoom, Instagram Live, Telegram video chat) orqali foydalanuvchilar sinxron muloqot qilish imkoniga ega. Ular:

- Real vaqtli aloqani taʼminlaydi;
- Emotsional yaqinlik hissin kuchaytiradi;
- Multimodal kommunikatsiyani amalga oshiradi.

4. Mem va satirik muloqot (**mem**) "Mem" — internetda keng tarqalgan, odatda kulgili yoki istehzoli mazmunga ega boʻlgan rasm, video, matn yoki boshqa koʻrinishdagi axborot shaklidir. U tez-tez nusxalanadi, oʻzgartiriladi va ijtimoiy tarmoqlarda yoki onlayn platformalarda tarqaladi.

Memlar — raqamli madaniyat mahsuli sifatida ijtimoiy fikr ifodasining yangi shakliga aylandi. Bu ijtimoiy tanqid, ommaviy axborot vositasi, ironiya va hazil orqali muloqotning noanʼanaviy shaklidir.

Ijtimoiy tarmoqlarda muloqotning xususiyatlarini sanab oʻtamiz:

1. Interaktivlik -Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot ikki tomonlama emas, balki koʻp tomonlama va ixtiyoriy. Har bir foydalanuvchi oʻz munosabatini bildirishi, like, repost, kommentariya qoldirishi mumkin.

2. Jamoaviylik va ommaviylik-tarmoqlar ijtimoiy guruhlar, kanallar va hamjamiyatlar asosida faoliyat yuritadi. Bu esa muloqotni kollektiv tusga keltiradi.

3. Moslashuvchanlik va mobil xarakter-smartfonlar yordamida muloqot istalgan vaqtda, istalgan joyda amalga oshiriladi. Bu esa muloqotni doimiy va moslashuvchan qiladi.

4. Raqamli iz qoldirish-virtual muloqot doimiy iz qoldiradi. Har bir post, kommentariya yoki repost — bu raqamli "xotira" boʻlib, shaxsning ijtimoiy portretini shakllantiradi.

5. Anonimlik va ijtimoiy niqob-baʼzida foydalanuvchilar oʻz shaxsini yashirgan holda fikr bildiradi. Bu esa muloqotda ijtimoiy masʼuliyat va axloqiy muvozanat muammolarini keltirib chiqaradi.

Bu muloqot shakllarining jamiyatga taʼsiri quyidagi sabablarda yaqqol koʻrinadi:

• Jamoatchilik fikrining shakllanishi: Muloqot shakllari orqali tez va keng auditoriyaga axborot yetkazish imkoniyati.

• Shaxsiy aloqalarning kuchayishi yoki zaiflashishi: Yuzma-yuz muloqotdan uzoqlashish.

• Madaniyatlararo muloqot: Global tarmoqlar orqali turli madaniyat vakillarining oʻzaro muloqoti.

• Psixologik salomatlik: Surunkali onlayn bo'lish holatlari stress, ijtimoiy solishtirish va yolg'izlik hissini kuchaytirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, u insonlar o'rtasidagi axborot almashinuvi, fikr bildirish va o'zaro ta'sirning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Bunday muloqot tezkorlik, ochiqlik, interaktivlik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, bu platformalarda muloqotning yuzaki bo'lishi, noto'g'ri axborot tarqalishi va shaxsiy daxlsizlik masalalari ham dolzarb hisoblanadi. Shunday ekan, ijtimoiy tarmoqlarda muloqot madaniyatini rivojlantirish va uning ijobiy jihatlaridan oqilona foydalanish zamonaviy jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Koltsova, E. A., & Kartashkova, F. I. (2022). Digital Communication and Multimodal Features: Functioning of Emoji in Interpersonal Communication. RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics, 13(3), 769-783.

2. Wagner, A., Marusek, S., & Yu, W. (2020). Emojis and law: Contextualized flexibility of meaning in cyber communication. Social Semiotics, 30(3), 396-414.

3. Ge, J., & Gretzel, U. (2018). Emoji rhetoric: a social media influencer perspective. Journal of Marketing Management, 34(15-16), 1272-1295.

4. Thompson, D., & Filik, R. (2016). Sarcasm in written communication: Emoticons are efficient markers of intention. Journal of Computer-Mediated Communication, 21(2), 105-120.

5. Халилова Р.Р. Виртуал коммуникатив майдон самарали мулоқот воситаси сифатида // НамДУ Илмий Ахборотномаси. – Наманган, 2021. – № 2..

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGATISHDA KREATIV SHAXSNI RIVOJLANTIRISH MODELI

Rizoyeva Muslima Raxmonovna

Buxoro davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada kreativ fikrlash tushunchasi, uning pedagogik-psixologik asoslari, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat orqali kreativ shaxsni rivojlantirish modeli yoritilgan. Kreativlik tushunchasiga oid nazariy qarashlar, ijodiy jarayon bosqichlari, shaxsiy rivojlanish, emotsional intellekt, riskka tayyorlik kabi omillar tahlil qilingan. Amaliy yondashuvlar va zamonaviy ilmiy nazariyalar asosida kreativ shaxsni shakllantirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar. Kreativlik, ijodkorlik, shaxsiy rivojlanish, emotsional intellekt, maktabgacha ta'lim, tasviriy faoliyat.

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОЙ ЛИЧНОСТИ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация. В статье рассматриваются понятие креативного мышления, его психолого-педагогические основы, а также модель развития креативной личности в процессе изобразительной деятельности в дошкольных образовательных учреждениях. Анализируются этапы творческого процесса, личностные особенности, эмоциональный интеллект и готовность к риску. Представлены практические подходы и современные научные теории формирования креативной личности.

Ключевые слова. Креативность, творчество, личностное развитие, эмоциональный интеллект, дошкольное образование, изобразительная деятельность.

A MODEL FOR DEVELOPING A CREATIVE PERSONALITY THROUGH VISUAL ARTS EDUCATION IN PRESCHOOL INSTITUTIONS

Annotation. This article discusses the concept of creative thinking, its pedagogical and psychological foundations, and presents a model for developing a creative personality through visual arts activities in preschool education. It analyzes the stages of the creative process, personal development, emotional intelligence, and risk tolerance. Practical approaches and modern scientific theories for fostering creativity are explored.

Keywords. Creativity, creative thinking, personal development, emotional intelligence, preschool education, visual activity.

«Kreativlik» soʻzi lotincha creatio – «yaratish», «sodir etish» maʼnolaridan kelib chiqqan. Kreativlik tushunchasini aniqlashdagi turli yondashuvlar mohiyati va farqlari ilmiy taʼriflarni taqqoslash orqali ochib beriladi. Ilmiy nuqtai nazardan kreativlikni tadqiq etishda uchta asosiy yondashuv mavjud:

- u shaxsiyat kategoriyasi sifatida, yaʼni oʻz-oʻzini rivojlantirish va namoyon qilish bilan bogʻliq holda;

- ijodiy jarayon sifatida;

- yangi narsalar yaratishga bogʻliq faoliyat natijasi sifatida qaraladi.

Ya.A. Ponomarev fikriga koʻra, quyidagi bosqichlarning ishini oʻz ichiga oladi: mantiqiy dasturlarning qulashi bilan yakunlangan muammoning mantiqiy tahlili; intuitiv yechim; intuitiv yechimning ogʻzaki ifodasi; yangi bilimlarni rasmiylashtirish. Ijodiy mahsulot, shuning uchun, uning fikriga koʻra, sezgi oʻz ichiga oladi va mantiqiy xulosa asosida olinishi mumkin emas.

Bu sohadagi eng soʻnggi ishlardan biri S. I. Makshanova va N. Yu. Xryashev ijodiy jarayonning bosqichlarini quyidagicha tavsiflaydi:

- tayyorgarlik, yaʼni muammoli vaziyatdan chiqish yoʻlini topish uchun ongli harakat. Mavzu vazifa yoki muammoni bir butun sifatida ham, uning alohida elementlarida ham mantiqiy ishlaydi va tahlil qiladi, qoʻshimcha maʼlumot toʻplaydi;

- umidsizlik - axborotni tahlil qilish va yechimlarning paydo boʻlgan variantlarini tekshirish muammoni hal qilishni taʼminlamasligi, yaʼni sub'ektning boshi berk koʻchaga tushib qolishi bilan bogʻliq;

- inkubatsiya, yaʼni mantiqiy operatsiyalar bilan bogʻliq muammo ustida ongli ish toʻxtaydi va nostandart echimlarni izlash boshlanadi;

- idrok - muammoni hal qilish ong doirasiga kiradigan lahza, boʻronli ijobiy his-tuygʻular, hatto eyforiya (oʻz-oʻzidan quvonish) bilan tavsiflanadi;

- ishlab chiqish, yaʼni olingan yechimning haqiqatini mantiqiy vositalar bilan tekshirish. Bosqich ikki kichik bosqichda ifodalanishi mumkin: tushunchaning haqiqatini tekshirish va uni amalga oshirish. Bu ijodiy jarayonning yakuniy bosqichidir.

Koʻrib turganimizdek, kreativ jarayonning barcha tadqiqotlarini birlashtiradigan asosiy narsa - bu uning tavsifida ongli va ongsiz bosqichlarning mavjudligi, jarayonning ongli sohada boshlanishi, uning ongsiz tuzilmalarida davom etishi va yana ong sohasiga kirishi.

Yuqorida aytib oʻtganimizdek, kreativlikni oʻrganishda yana bir yoʻnalish mavjud - shaxsiylik. Ushbu yoʻnalish vakillari uchun asosiy nuqta odamlarning ijodiy shaxsiy xususiyatlarini oʻrganishdir, buning natijasida ularning umumlashtirilgan shaxsiy portreti yaratiladi.

Ijodkorlik - bu shaxsning oʻzini namoyon qilish jarayoni, shuning uchun kreativlik shaxsiy xususiyatlarning hosilasidir. Ushbu yondashuv vakillari, shaxsning intellektual rivojlanish darajasidan qatʼiy nazar, kreativ xatti-harakatni keltirib chiqaradigan muayyan kreativ xususiyatlarga ega ekanligiga ishonishadi (F.Berron, D.B.Ermolaeva -Tomina, V.N.Kozlenko, A.Maslou, K.Rodgers, E.Fromm). Shaxsiy kreativlikni oʻrganishda quyidagi yoʻnalishlar ajralib turadi: shaxsiyat xususiyatlari va motivlarini oʻrganish, kreativlik bilan bogʻliq "men" ni tadqiq qilish, oʻzini oʻzi anglash kontekstida kreativlik va psixiatriya bilan chegaradosh shaxsning ijodini oʻrganish. Shuni taʼkidlash kerakki, kreativ shaxslarning taʼlim yoʻnalishlarini faqat shartli ravishda ajratish mumkin, chunki ular bir-biri bilan chambarchas bogʻliq.

Shuni ta'kidlash kerakki, G'arb adabiyotida "yuqori ijodkorlik" va "past kreativlik" deb ataladigan farqlar mavjud. M. Boden bu farqni "tarixiy" va "shaxsiy" kreativlik nuqtai nazaridan qayta shakllantirdi.

Past yoki shaxsiy kreativlik kundalik hayot va kundalik vaziyatlar bilan bog'liq, masalan, pichoq yo'q bo'lganda pishloqni kesish uchun tanga ishlatish yoki xonani gullar bilan bezash imkoniyati. Kattaroq yoki tarixiy kreativlik esa Motsart va Eynshteynning ijodiy yutuqlari kabi madaniyat va jamiyatga sezilarli ta'sir ko'rsatgan yutuqlar bilan bog'liq. Shu munosabat bilan bir qator tadqiqotchilar buyuk ijodkorlikning shaxsiyatiga alohida e'tibor qaratib, ularga xos xususiyat va motivlarni tavsiflaydilar, boshqalari esa kichik ijodiy yutuqlar deb ataladigan yoki ega bo'lishi mumkin bo'lgan kishilarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganadilar.

G'arb mualliflarining shaxs ijodini tadqiq qilish sohasidagi yutuqlarini umuman yuqori baholagan holda, "bu ishlarning asosiy natijasi shundaki, shaxsning kreativligi parametrlarini tafakkur ijodiga qisqartirib bo'lmaydi. Kreativlikning shaxsiy jihatlarini o'rganish ijodiy faoliyatning mustaqil yo'nalishi sifatida qaralishi kerak.

Kreativlik muammosini boshqa tomonlardan ham ko'rib chiqish mumkin. Misol uchun, pragmatik yondashuv vakillari (Eduard de Bono, Osborn, Gordon, Adame, Fon Ek va boshqalar) ijodkorlik mexanizmlarini ikkinchi darajali deb tushunish vazifasini qo'ydilar. Ularning asosiy e'tibori nazariyaga emas, balki amaliyotga qaratildi. De Bono masalan, PMI (ijobiy, salbiy va qiziqishlar) deb nomlangan texnikani taklif qildi [2]. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, har bir taklif qilingan g'oya uchta mezon bo'yicha baholandi: ijobiy, salbiy tomonlari va g'oyani qiziqarli qiladigan narsa. Ijodkorlikni o'rganishga pragmatik yondashuv katta ilmiy e'tiborga sazovor bo'ldi, ammo u jiddiy psixologik nazariya shaklida asosga ega emas edi, shuningdek, uning to'g'riligini isbotlash uchun jiddiy amaliy urinishlar yo'q edi.

Kreativ shaxsni rivojlantirishning birinchi bosqichi – o'zini anglashdir. O'ziga xos shaxs sifatida, har kimda o'ziga xos qobiliyatlar va imkoniyatlar mavjud. O'z-o'zini anglash, kishi uchun o'zining kuchli va zaif tomonlarini bilish imkonini yaratadi. Bunda eng muhim omil, o'zgarishga tayyor bo'lishdir. Shaxs o'zini takomillashtirishga tayyor bo'lishi kerak. Bunday tayyorlik yaratilayotgan g'oyalar va innovatsiyalarni amalga oshirishda asosiy motivatsiya bo'ladi. Tajriba va bilimlarni oshirish. Kreativlikni rivojlantirish uchun yangi bilimlar va tajribalar orttirish juda muhim. Bunda yangi bilimlarni o'zlashtirish, turli sohalarda tajriba to'plash va har kuni o'rganish, kreativ shaxsning ongini kengaytiradi. Yangi kitoblar o'qish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, san'at va madaniyat bilan shug'ullanish shaxsning kreativligini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, turli shakllarda tajriba orttirish, masalan, yangi hobbilarga berilish, yangi odamlar bilan muloqot qilish, insonning ijodiy salohiyatini oshiradi.

Muammolarni yaratish va hal etish usullarini o'rganish. Kreativ shaxslar, muammolarni oddiy va standart usullar bilan emas, balki yangi va original yo'llar bilan hal qilishni o'rganishadi. Kreativlikni rivojlantirishning yana bir asosiy qismi, muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlar va innovatsion g'oyalarni izlashdir. Bunda, tajriba va bilimlarni qo'llash, yangi g'oyalar yaratish jarayonini tezlashtiradi. Kreativ shaxslar, faqat o'zgacha yechimlarni izlamasdan, mavjud yechimlarni qayta ko'rib chiqish va ularni yangi usulda amalga oshirishni ham o'rganishadi.

Emotsional intellektni rivojlantirish. Kreativlik, faqat aqliy salohiyatga bog'liq emas, balki emotsional intellektga ham aloqador. Shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqalar bilan munosabatlarda intuitiv yondashuvlar ishlab chiqish va ular bilan samarali aloqalar o'rnatish kreativ salohiyatni oshiradi. Shaxsning yuqori emotsional intellekti, noaniqliklar va murakkab vaziyatlarda yangi yechimlarni tez topish imkonini beradi.

Risk olish va muvaffaqiyatsizlikka qarshi kurashish. Kreativ shaxslarni ajratib turadigan yana bir muhim jihat – bu muvaffaqiyatsizliklarga nisbatan bo'lgan yondashuvi. Yangi g'oyalarni amalga oshirishda, ba'zan muvaffaqiyatsizlikka uchrash tabiiy hol hisoblanadi. Biroq, kreativ shaxslar muvaffaqiyatsizlikni biror narsani o'rganish va keyingi qadamni yanada muvaffaqiyatli qilish uchun zarur tajriba sifatida qabul qilishadi. Risk olish va muvaffaqiyatsizlikni yengib o'tish kreativlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ijodiy muhit yaratish. Kreativlikni rivojlantirish uchun kerakli muhitni yaratish juda muhimdir. Shaxsning ijodiy salohiyatini oshirish uchun motivatsion, ilhomlantiruvchi va qo'llab-

quvvatlovchi muhitda bo'lishi kerak. Ijodiy jamoalarda ishlash, yangi fikrlarni birgalikda ishlab chiqish va har bir a'zoning fikrini hurmat qilish, ijodiy jarayonni kuchaytiradi.

Kontseptual va kritik fikrlashni rivojlantirish. Kreativ shaxslar odatda o'z fikrlarini tizimli va mantiqan to'g'ri tuzishga qodir bo'ladilar. Bunda kontseptual fikrlash – masalaning umumiy rasmiga va asosiy tamoyillarga e'tibor qaratish, kritik fikrlash esa o'z g'oyalari va fikrlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Kontseptual va kritik fikrlash birgalikda shaxsning kreativlik darajasini oshiradi va uni har qanday muammolarni hal qilishda yanada samarali qiladi.

Kreativ shaxslarning g'oyalari faqat estetik yoki ilmiy ahamiyatga ega bo'lmazligi kerak, balki ular amaliyotga joriy etilishi zarur. Yangi g'oyalar va yangiliklarni tijoratlashtirish va foydali natijalarga aylantirish, kreativ shaxsning muvaffaqiyatini oshiradi. Bu jarayon, g'oyalarni biznesga aylantirish, muammoni iqtisodiy jihatdan hal qilish va ijtimoiy foyda yaratishga olib keladi.

Hozirgi vaqtda kreativlikning bir nechta talqinlari mavjud:

- psixoanalitik kontseptsiya jinsiy istaklarni sublimatsiya qilish g'oyasiga asoslanadi;
- assotsiativ nazariya kreativlikni muammoli vaziyatni umuman maqsadli o'zgartirish sifatida belgilaydi;

- ekzistensializm kreativlikni shaxs va atrof-muhit o'rtasidagi aloqa sifatida talqin qiladi;
- "transfer nazariyasi"da kreativlik ma'lum analoglarni yangi holatga o'tkazish jarayoni hisoblanadi;

- intellektual operatsiyalar kontseptsiyasi kreativlik muammoli vaziyat matritsasidagi bo'shliqlarni to'ldirish, o'xshashliklarni takrorlash, kompleks va mavhumlikni qo'shish orqali amalga oshirilishini taklif qiladi;

- madaniyatning dialogik nazariyasiga ko'ra, kreativ shaxslar, shaxslar va narsalar, ijtimoiy guruhlar va jamiyatning integratsiyasi orqali madaniy qadriyatlarni yaratadi;

- bixeviorizm kreativlikni xulq-atvorni sinov va xato orqali yangi sharoitlarga moslashtirishning biologik funktsiyasi sifatida izohlaydi;

- zamonaviy akmeologik tadqiqotlar kreativlikni nafaqat yuqori ijodiy salohiyatda, balki kasbiy muammolarni noan'anaviy, ammo samarali tarzda hal qilish uchun maxsus ko'nikmalarda namoyon bo'ladigan professionallikning akmeologik o'zgarmasligi sifatida belgilaydi. Bu jihatdan kreativlik "muammolarda berilgan ma'lumotlardan turli usullarda va tez sur'atlarda foydalanish"ning maxsus qobiliyatini bildiradi.

Shunday qilib, kreativ fikrlashda, his-tuyg'ularda, muloqotda, faoliyatning alohida turlarida namoyon bo'lishi, shaxsni bir butun sifatida yoki uning individual tomonlarini tavsiflashi, faoliyat mahsulini, shuningdek uni yaratish jarayonini tavsiflashi mumkin. Kreativlik o'rganish qobiliyatining sinonimi emas va eski stereotiplarni buzadigan yangi bilimlarni qabul qilish bilan rag'batlantiriladi.

Kreativ shaxsni rivojlantirish modeli, birinchi navbatda, o'z-o'zini anglash va o'zgarishga tayyor bo'lishdan boshlanadi. Bu jarayonni davom ettirish uchun bilim, tajriba, emotsional intellekt, risk olish va muvaffaqiyatsizliklarga qarshi kurashish kabi asosiy omillarni hisobga olish lozim. Kreativ shaxsni rivojlantirishda atrof-muhit, kontseptual va kritik fikrlashni kuchaytirish, hamda yangi g'oyalarni tijoratlashtirish muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOT

1. Adizov B. R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt.... diss. –T., 2003. – 280 b.

2. Bono E. Rojdenie novoy idei. O neshablennosti mishleniya / E. Bono. M., 1976.

3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015.

4. Ponomarev Ya.A. Psixologiya tvorchestva / Ya.A. Ponomarev // Tendentsii razvitiya psixologicheskoy nauki. M.: Nauka, 1988. S.21-25

5. Psixologiya tvorchestva: obchaya, differentsirovannaya, prikladnaya / Otv. red. Ye.A. Ponomarev. – M.: Nauka. – 1990.

DASTURIY-METODIK VOSITALAR ASOSIDA MUHANDISLIK FANLARINI O‘QITISH YO‘LLARI

Ruzimurodov Ixtiyor Nishonovich

Qarshi davlat texnika universiteti, p.f.f.d.,(PhD), dotsent, Ixtiyor31031976@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada python dasturlash tilidan foydalanib, dasturiy mahsulot ishlab chiqishni o‘rgatish haqida ilmiy fikrlar o‘rtaga tashlangan. Loyihalash metodi, algoritmlash, blok sxemani ishlab chiqish, modellash, dasturlash, vizuallashtirish, dasturiy mahsulotni testlash. Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish.

Kalit so‘zlar: Dasturiy mahsulotlar, python dasturlash tili, dasturiy vosita, dastur kodi, grafigi, fanlarni bir-biriga integratsiya qilish, kompilyatsiya, axborotni qidirish, tanqidiy tahlil qilish va sintez qilish, vazifalarni hal qilishda tizimli yondashuvni qo‘llay olish. axborotni umumlashtirish, tahlil qilish, idrok etish, maqsadlar qo‘yish va unga erishish yo‘llarini tanlay bilish.

METHODS OF TEACHING ENGINEERING SUBJECTS BASED ON SOFTWARE AND METHODOLOGICAL TOOLS

Abstract. This article presents scientific ideas on teaching software development using the Python programming language. Design methodology, algorithm development, block diagram development, modeling, programming, visualization, software product testing. Developing students' professional competence.

Keywords: software products, python programming language, software tool, program code, graphics, integration of disciplines, compilation, information search, critical analysis and synthesis, ability to use a systematic approach to solving problems. Ability to summarize, analyze, perceive information, set goals and choose ways to achieve them.

МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНЖЕНЕРНЫХ ДИСЦИПЛИН НА ОСНОВЕ ПРОГРАММНО-МЕТОДИЧЕСКИХ СРЕДСТВ

Аннотация. В статье представлены научные идеи по обучению разработке программного обеспечения с использованием языка программирования Python. Методология проектирования, разработка алгоритмов, разработка блок-схем, моделирование, программирование, визуализация, тестирование программного продукта. Развитие профессиональной компетентности студентов.

Ключевые слова: программные продукты, язык программирования python, программное средство, программный код, графика, интеграция дисциплин, компиляция, поиск информации, критический анализ и синтез, умение использовать системный подход к решению задач. Умение обобщать, анализировать, воспринимать информацию, ставить цели и выбирать пути их достижения.

Kirish. Hozirgi vaqtda dasturiy paketlardan foydalanish orqali har qanday sohada muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat olib borish uchun egallanishi zarur bo‘lgan tegishli bilimlar hajmi ham ortadi. Ta‘lim texnologik sohani rivojlantirishning hozirgi darajasiga mos kelishi kerak va ma‘lumotlarning haddan ziyod ko‘pligi sababli o‘qituvchi ularni an‘anaviy usulda talabalarga reproduktiv yetkazish uning ahamiyatini yo‘qotadi. Bunday vaziyatda dasturiy-metodik vositalar asosida muhandislik fanlarini o‘qitishda talabalarning bilim va ko‘nikmalarni oshirish, qayta ishlab chiqishga asoslangan ta‘lim tizimi iqtisodiyot, sanoat va ilm-fanni rivojlantirishning hozirgi darajasiga yuqori malakali kadrlarni tayyorlash vazifasini bajara olmaydi. Shu bilan birga, kompetentli paradigma “bilim” ni inkor etmaydi, balki uning asosida shakllantiriladi va malakali yondashuv nuqtai nazaridan talabani kasbiy faoliyatda olingan bilimlarni qo‘llash qobiliyati va tayyorligini rivojlantirishni ko‘rib chiqadi [2].

Tadqiqot metodologiyasi: Dasturiy-metodik vositalar asosida muhandislik fanlarini o‘qitishda talabalarning bilim va ko‘nikmalarni oshirish ta‘lim amaliyotida matematik

tayyorgarlik fundamental va amaliy fanlarni jadal rivojlantirish xususiyatiga ega, shuningdek matematika murakkab o'quv fani sifatida jamiyatning axborotlashtirish darajasini oshirishi barobarida matematik ta'lim mazmuni doimiy o'sishini ta'minlaydi[3]. Shunday qilib, matematikaning ilmiy mavzu sifatidagi xususiyatlari yuqori darajada abstraksiyalash va formallashtirish bilan ajralib turadi. Shu bilan birga matematik fanlar dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun talaba matematik tafakkur kabi tushunchaning asosi bo'lgan idrokning psixofiziologik xususiyatlari sifatida aqliy va mantiqiy tafakkurning rivojlangan darajasiga ega bo'lishi kerak.

Axborotni qidirish, tanqidiy tahlil qilish va sintez qilish, vazifalarni hal qilishda tizimli yondashuvni qo'llay olish;

o'z vaqtini boshqara olish, hayot davomida ta'lim tamoyillariga asoslangan o'z-o'zini rivojlantirish trayektoriyasini qurish va amalga oshirish;

matematik va tabiiy-ilmiy va umumkasbiy bilimlarini, matematik analiz va modellashtirish usullarini, nazariy va eksperimental tadqiqotlarni kasbiy faoliyatda qo'llay olish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda axborot-bibliografik madaniyat asosida kasbiy faoliyatning namunaviy vazifalarini hal eta olish.

Natijalar va muhokama: Matematik masalani rasmiylashtirish bosqichi modellashtirishning birinchi bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda o'rganilayotgan tizim ta'riflanadi: uning maqsadi, faoliyat xarakteri, foydalaniladigan resurslar va tartibga solish parametrlari aniqlanadi. Muammoni belgilashda modellashtirish obyekti (tizim, jarayon) o'rganiladi, mavjud axborotlar tahlil qilinadi va cheklashlar va taxminlar aniqlanadi. Matematik modelni qurish bu model faoliyat ko'rsatadigan cheklashlar tizimini hamda obyekt ustida maqbul operatsiyalarni belgilovchi qoidalar majmuini tuzishdan boshlanadi. Muammoni rasmiylashtirishda modelning o'zgaruvchilari va parametrlarini bog'lovchi funksional bog'liqlikni aniqlash kerak. Keyin formallashtirish elementlari kiritiladi: o'zgaruvchilar, parametrlar va rasmiy belgilar, indekslar bilan tanishish, matematik formulalarni kiritish. Bu bosqich "Dasturiy injiniring" ta'lim yo'nalishi bakalavrlarining matematik kompetentligining majburiy tarkibiy qismi sifatida formallashtirish kompetensiyasini joriy etishni belgilaydi.

Olingan matematik modelning turiga qarab masalani yechish usuli tanlanadi. Biroq kasbiy faoliyatda matematik modellashtirishni qo'llash uchun tegishli kompetentlikka ega bo'lish kerak, shuning uchun matematik modellashtirishning kompetensiyalari haqida matematik kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida gapirishimiz mumkin. Pedagogik nazariyada matematik modellashtirish kompetensiyalari ishlab chiqilgan[3,4]. Bu kompetensiya matematik kompetentlikning kasbiy komponentida asosiy rol o'ynaydi, chunki matematik modellashtirish matematika va informatika sohasidagi bakalavrlarning kasbiy faoliyati uchun ishchi vositaga aylanadi. Dasturlash muhiti bilan ishlash asosida talabalarning matematik kompetentligini shakllantirishda matematik model yaratmasdan va uni dasturlash tillaridan foydalanmasdan bajarish ancha qiyinchilik tug'diradi. Agar matematik misol va masalalarni yechishda dasturlash tillaridan foydalanish talabalarning fikrlashini, bilimini, malakasini oshirishga yordam qiladi.

Masalani yechish Bernulli formulasiga asosan hisoblanadi. Bu misolni yechishda Loyihalash metodidan bosqichma-bosqich foydalanish maqsadga muvofiq. Loyihalash, algoritmlash, blok sxemani ishlab chiqish, modellashtirish, dasturlash, vizuallashtirish.

Misol: Har bir detalning standart bo'lish ehtimoli $p = 0,8$ bo'lsa, tavakkaliga olingan 5ta detaldan 2tasining standart bo'lish ehtimolini toping.

Yechish. Bu erda $n = 5$, $m = 2$, $p = 0,8$ va $q = 0,2$. Bernulli formulasiga asosan.

$$P_5(2) = C_5^2 0,8^2 \cdot 0,2^3 = \frac{5!}{3!2!} 0,00512 = 0,0512.$$

Python dasturlash tilidan foydalanib dastur kodi, funksiya grafinini ko'rsatib o'tamiz.

`import matplotlib.pyplot as plt`

```

import numpy as np
from scipy.stats import binom
# Parametrlar
n = 5
p = 0.8
x = np.arange(0, n + 1)
pmf = binom.pmf(x, n, p)
# Grafik
plt.figure(figsize=(8, 5))
bars = plt.bar(x, pmf, color='skyblue')
plt.title("5 ta detaldan 2 tasi standart bo'lish ehtimoli (p = 0.8)")
plt.xlabel("Standart detallar soni (k)")
plt.ylabel("Ehtimollik")
plt.xticks(x)
plt.grid(True, linestyle='--', alpha=0.6)
# 2 ta standart bo'lish ehtimolini ajratish
k = 2
bars[k].set_color('orange')
plt.annotate(f"P(2) = {pmf[k]:.4f}", (k, pmf[k]), xytext=(k+0.2, pmf[k]+0.01),
            arrowprops=dict(arrowstyle="->"))
plt.show()

```



1-rasm Python dasturlash tilida funksiya grafigi

Xulosa va takliflar: Python dasturlash tili yordamida matematik masalani modellashtirishning kompetensiyalarini aniqlash matematik bilim va usullarni chiziqli va obektga yo'nalgan dasturlash tili yordamida kasbiy masalalarni yechish jarayonida matematik modellarni qurish, tahlil qilish va talqin qilishda yangilash va qo'llash qobiliyati deb belgilaymiz. Shuning uchun dasturlash tillarida matematik modellashtirishni qo'llay olish matematik kompetentlikka uzviy bog'liqdir.

Shu bilan birga uzluksiz ta'limda talabalar mustaqil bilish, o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatini shakllantirish orqali o'quv faoliyati samaradorligi oshiriladi.

Demak, matematika o'qitish jarayonida matematik va kasbiy muammolarni hal qilish, bilim va o'z-o'zini bilish sohasini kengaytirish uchun yetarli vosita va usullarni tanlash va

boshqa ko'nikmalar kompyuter fanlari va muhandislik bakalavr va kasbdagi o'z-o'zini tasdiqlash dunyosining professional tasvirining ajralmas qismidir. Shu munosabat bilan matematika o'qitishda o'quvchilarning metakognitiv qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo.Soatov. Oliy matematika. Toshkent "O'qituvchi", 1995y.
2. Банникова, Т.М. Профессиональная математическая подготовка бакалавра: компетентностный подход: монография / Т.М. Банникова, Н.А. Баранова, Н.И. Леонов.- Ижевск: Изд-во «Удмуртский университет», 2012. – 152
3. Коростелев, А.А. Компетентностный подход: проблемы терминологии / А.А. Коростелев, О.Н. Ярыгин // Вектор науки Тольяттинского государственного университета. Серия: Педагогика, психология. – 2011. – №. 2. – С. 212
4. Lee, J.J. Gamification in Education: What, How, Why Bother? / J.J. Lee, J. Hammer // Academic Exchange Quarterly. – 2011. – Vol.15. – №2.
5. Есин, Р.В. Геймификация в электронных обучающих курсах на базе LMS Moodle / Р.В. Есин, Ю.В. Вайнштейн // Материалы Международной научно-практической конференции «Информатизация образования: теория и практика». – Омск, 2017. – С. 111–114.
6. Муслимов Н.А., Сайфуров Д, Усмонбоева М, Тўраев А. Web технологиялар асосида электрон ахборот таълим ресурсларини яратиш ва уларни амалиётга жорий этиш. Ўқув методик қўлланма. – Тошкент: 2015. – 128 б
7. Ruzimurodov I.N. "Elektron ta'lim muhitida dasturchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" PhD.Dissertatsiya. Toshkent-2022 yil.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI OILADA HAR TOMONLAMA SALOHİYATLI QILIB TARBIYALASHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Hasanova Shahzoda Zafarjon qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi I –bosqich magistranti

Annotatsiya. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash kelajagimiz garovidir. Shuning uchun ham bolalarda yoshligidanoq ularni muvaffaqiyatli tarbiyalash, urf-odatlar, udumlar, an'analar va axloqiy ma'daniyat haqidagi tushunchalarni ularda shakllantirish oilaga bog'liq. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada har tomonlama salohiyatli qilib tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari xususida mulohaza bildirilgan.

Kalit so'zlar: oila, ta'lim-tarbiya, tarbiyalanuvchi, tarbiya, axloq normalari.

НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОМПЕТЕНТНОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА В СЕМЬЕ

Аннотация. Духовно-нравственное воспитание детей в семье является залогом нашего будущего. Поэтому успешное воспитание детей с малых лет, формирование у них обычаев, традиций, нравов и нравственной культуры зависит от семьи. В данной статье рассматриваются научно-педагогические основы комплексного воспитания детей дошкольного возраста в семье.

Ключевые слова: семья, образование, ученик, воспитание, нравственные нормы.

НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОМПЕТЕНТНОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА В СЕМЬЕ

Abstract. The spiritual and moral upbringing of children in the family is the key to our future. Therefore, the successful upbringing of children from a young age, the formation of customs, traditions, customs and moral culture in them depends on the family. This article

discusses the scientific and pedagogical foundations of the comprehensive upbringing of preschool children in the family.

Keywords: family, education, pupil, upbringing, moral norms.

Kirish. Darhaqiqat oilada mehr-muhabbatning ustuvorligi bolada ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning asosini tashkil etadi. Biroq oila, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra har bir farzand uchun o'ziga xos xarakterli xususiyatlarga ega. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib, oila a'zolarining o'z burchlari, bir-biriga nisbatan ezgulik, mehr-oqibat, yaxshi va munosib tarzda yashash, oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish bolani ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Asosiy qism. Inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi; xususan, bolada iroda, odatlar, fe'l-atvor, xulq, atrofga munosabat, e'tiqod va qarashlar vujudga keladi. Shu bois turmushda insonni kamol toptirish sharoitlari, ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini izchil o'rganmay turib, shaxsning xususiyatlari va ularni keltirib chiqaruvchi omillar to'g'risida fikr yuritish mumkin emas. Ma'lumki, oila – ijtimoiy-tarixiy belgiga ega bo'lgan muayyan tuzilishli ijtimoiy guruhning ko'rinishi. Chunonchi, uning a'zolarini qarindosh-urug'chilik, nikoh, turmush sharoiti birligi, odob-ahloq umumiyligi, ma'naviy ehtiyoj mosligi kabi aloqalar o'zaro bog'lab turadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, ahloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shu sababdan turmushdagi va oila a'zolari munosabatlaridagi o'zgarishlar uning moddiy-maishiy, iqtisodiy negizi o'zgarishiga bevosita bog'liqdir. Oiladagi munosabatlar ta'sirida ilk bolalikdan umumiy ishga sodiqliq, vatanparvarlik, insonparvarlik, qat'iylilik, qadr-qimmat hissi kabi yuksak insoniy hislar shakllana boshlaydi. Asta-sekin tug'ishganlarga g'amxo'rlik, aka-ukalik va opa-singillik mehri, ota-onalarga muhabbat va shafqat kabi tuyg'ular namoyon bo'la boradi. Turmushdagi samimiy va oqilona munosabatlar, iliq ruhiy iqlim ta'siri natijasida oila a'zolarida kamtarlik, ko'ngilchanlik, iltifot, sabr, uyatchanlik, to'g'rilik, yaxshilik, yumshoqlik, dilkashlik, mehribonlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, vijdonlilik, mehnatga mas'uliyat, ozodalik, izzat-nafs, tejab-tergashlik kabi shaxs xislatlari tarkib topadi. Agarda oilalardagi turmush munosabatlari qo'pollik, andishasizlik negiziga qurilgan bo'lsa, u holda oila a'zolari ruhiy dunyosida kekkayish, pismiqlik, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xatti-harakatlar qoidalarini sezmaslik, ularni mensimaslik, yalqovlik, mas'uliyatsizlik, ifloslik, bag'ritoshlik, shuhratparastlik, dimog'dorlik, illatlari unib chiqadi.

Oilal boshlig'i hisoblangan ota-onalarning asosiy diqqat-e'tibori axloq normalari va qoidalari talabidan kelib chiqqan holda o'z farzandlarida ijobiy xarakter xislatlarini zamon ruhiga mos shaxs fazilatlarini shakllantirishga qaratiladi. Mazkur toifadagi oila a'zolari davrasidagi suhbatlar, munozaralar, mulohazalar o'zaro tenglik, o'zaro hurmat ruhiga bo'ysundiriladi. Oila munosabatlarining ushbu ko'rinishida turli yoshdagi o'g'il-qizlarga maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy-pedagogik ta'sir o'tkazish tizimi o'z xususiyati bilan ajralib turadi. Unday oilada shaxslararo munosabatda ta'sir o'tkazish sohalari yashiringan holda bo'ladi. Shu boisdan, tasodifan voqea va hodisalarning sodir bo'lishi turlicha baholanadi va ularga bevosita aloqador oila a'zolari turmush tajribasidan kelib chiqqan holda, rag'batlantiriladi yoki jazolanadi. Mana bunday odilona amalga tushirilgan muloqot ta'sirida o'g'il-qizlarda do'stlik, dilkashlik, xushmuomalalilik, shaxsiy xatti-harakatida va mulohaza yuritishida mustaqillik, shaxsiy qarashlari saqlangan holda yangi me'yor va talablarga moslashish, o'z faoliyati uchun javobgarlik, emotsional zo'riqish davrida o'z-o'zini qo'lga olishlik kabi muhim fazilatlar paydo bo'ladi.

Oilal munosabatlarining yana bir turi «avtoritar» deb atalib, bunda ota-onaning obro'si hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oilada ota-onalarning o'zaro teng huquqlilik, erkin xatti-harakat qilish, tashabbuskorlik o'z ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Oila a'zolarining yurish-turish, xatti-harakati ko'pincha cheklab qo'yiladi. Ota-ona tomonidan tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning asosiy metodi — jazolash hisoblanadi. Biroq onda-sonda rag'batlantirish metodidan foydalanilganda ham, u bolaga ma'naviy ozuqa bermaydi. Farzandlarda ota-onaga yaqinlik, mehr hissi kamayadi, keyinchalik bu tuyg'u uzoqlashish, «begonalashish» kechinmasiga aylanadi. Oiladagi o'zaro munosabatlar ularni qondirmaydi; natijada odamovi, tund, ichimdagini top, tashvishlik, havotirlik kabi ijtimoiy me'yor va qoidalarga qiyinchilik bilan moslashishdan iborat xarakter xislatlari vujudga keladi. Shu sababdan oila

a'zolari ruhiy dunyosida simpatiya (yoqtirish), empatiya (hamdardlik), samimiylik, hayrixohlik kabi yuksak insoniy his-tuyg'ular juda nursiz ifodalanadi. Ko'r-ko'rona va so'zsiz bo'ysunishga asoslangan munosabatlar negizida yotgan tarbiyaviy ta'sir qo'rqqoq va irodasi kuchsiz shaxsni tarkib toptiradi. Oiladagi turmush munosabatlarining aralash yoki qorishma toifasida bola shaxsini shakllantirishning muayyan pedagogik tizimi mavjud emas. Oila a'zolari o'rtasida bo'ladigan munosabatlar aksariyat hollarda o'git-nasihat, ahloqiy suhbat, yo'l-yo'riq ko'rsatish bilan bog'lanib ketadi.

Bunday ota-onaning farzandlari bilan muloqoti erkdan va botinib fikr yuritishdan uzoq bo'lganligi sababli, yumor hissiga befarqlik, o'z-o'zini qo'lga ololmaslik, masuliyatsizlik, tanglik (stress), zo'riqish holatini his qilmaslik, yetarli darajada shaxslararo aloqa o'mata olmaslik singari xarakter xislatlarini tarkib toptiradi.

Jamiyatimizda kam uchrasada, «anormal» munosabatga ega bo'lgan oilalar mavjuddir. Bunday toifaga ajralish darajasiga etib borgan, bola oilaviy nizo manbai deb tushunuvchi, «bola» bahonasi tufayli qil ustida turgan, ichuvchi – alkogol yoki giyohvand oilalar kiradi. Oiladagi anormal holat osoyishta yashash, tinch ijod qilish, muayyan o'qish uchun zarur imkoniyatlar yaratib berishga qodir emas.

Xulosa. Ota-onalarning farzandlari bilan bunday munosabatda bo'lishlari salbiy oqibat sari etaklaydi: qat'iylik, mustaqillik, dadillik va churtkesarlik singari irodaviy sifatlar o'g'il-qizlar ruhiy dunyosidan uzoqlashadi. Murosasozlik ta'sirida yosh avlod xarakterida munofiqlik, ikkiyuzlamachilik, kelishuvchanlik kabi illatlar tarkib topishi mumkin. Bu illatlar o'rinbosarlarimizning kelajak taqdirlari uchun o'ta havflidir. Oilaviy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish hikmati – bu oila a'zolarining bo'sh vaqtini tashkil qilish, har bir shaxsning xususiyatidan kelib chiqqan holda rejalash, goho sayr uyushtirish, soya-salqin joylarga safarga chiqish, birgalikda oila davrasida madaniy hordiq chiqarish, ho'jalik yumushini bajarish va boshqalardir. Oila a'zolarining har biri teng huquqqa ega ekanligini nazarda tutish, shuning bilan birga o'ta erk berib yubormaslikni diqqat markazidan chiqarmaslik zarur. Bayram kunlarini nishonlash ham oqilona, odilona hal qilinishi oilada iliq ruhiy iqlimni vujudga keltiradi. Shunga qaramasdan, oilada hamisha hamjihatlik, ahllik hukm suravermaydi, goho ziddiyatlar, janjalli holatlar yuzaga kelib turadi. Lekin bu ziddiyatlarning mohiyatiga qarab tezroq bartaraf etish lozim. Oilaviy ziddiyat va janjallar ahloqiy, moddiy, ma'naviy, aqliy, his-tuyg'u negizida vujudga kelishi mumkin. Hozirgi kunda janjallar ko'proq moddiy va ma'naviy ruhiy omillar zamiridan chiqib kelmoqda. Har bir inson mehnat qilib turmush kechirish imkoniyatiga ega, shuning uchun o'zgalarga tobe bo'lish hissi qarshilik qilish turtkisini namoyon qiladi. Ushbu maqolada, shaxsning xususiyatlari va ularni keltirib chiqaruvchi omillar to'g'risida fikr yuritilgan. Oiladagi turmush munosabati ichida «leberal» toifa ham ko'zga tashlanib turadi. Oila davrasida murosasoz, ko'ngilchan bo'lishlik tashqi ko'rinishdan iliq psixologik iqlimni, guruhliy moslikni o'zida aks ettirgandek bo'lib tuyuladi. Agarda murosasozlik «murosa-yu madora» qabilida kechirimlilikni bildirib kelsa, yuqoridagi fikrimizni tasdiqlagan bo'ladi. Afsuski, «liberal»lik, murosasozlik oiladagi har qanday vaziyatni til topib hal qilishga, prinsipiallikdan uzoqlashishga, subutsizlikka olib keladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ajdodlar o'giti. Hikoyalar, hikmatlar, -T.: 1990. - 240 b.
2. Akramova F.A. Oilada muomalani tashkil etish psixologiyasi. T.: «Shams ASA», 2002.
3. Akramova F.A., Abdullaeva R.M. Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari. T.: «Shams ASA», 2005.
4. Aliqulov H. Sharq mutafakkirlari ahloq haqida. -T.: Fan, 1979. – 48 b.
5. Fitrat, Abdurauf. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. -T.:Ma'naviyat, 1998. - 112 b.
6. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. -T.: Xalq merosi, 1993.-224 b.
7. Hasanboev J., Hasanboeva O., Turopova M. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya asoslari. – T. 2000. - 49 b.
8. Hasanboeva O., Hasanboev J. Pedagogika tarixi. – T. : O'qituvchi, 1993. -189 b.
9. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi.-T.: TDPU, 1999-152 b.

10. Karimov Sh.M. Oilada barkamol insonni shakllantirish. -T.: 1995.-56b.
11. Kaykovus. Qobusnoma. T, «O'qituvchi», 1986.
12. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. – T.: O'qituvchi, 1994. – 150 b.
13. Munavvarov A.K.Oila pedagogikasi. -T:O'qituvchi,1994.–112 b.
14. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar – sog'lom avlodni tarbiyalash vositasi. –T.: O'qituvchi, 1995. – 150 b.
15. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. – T.: O'qituvchi, 1999. – 200 b.
16. Nishonova S. Ezgulik yo'li. -T.: Ma'naviyat, 2001.- 80 b.
17. O'zbek xalq ertaklari – II jildlik. Tuzuvchilar: M.I. Afzalov, F.Rasulov, Z. Xusainova. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, II jild, 1996. – 320 b.
18. Oila pedagogikasi dasturi. -T.: TDPI, 1995. -23 b
19. Oila psixologiyasi. Akad. Litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv-qo'llanma. /Shoumarov G'.B., Sog'inov N.A., va boshqalar. – Toshkent, "Sharq" 2008.
20. Oila psixologiyasi. G'.B.Shoumarov tahr. ost. -T.: Sharq, 2001.- 272 b.
21. Oilaviy maktabda ta'lim jarayoni samaradorligining psixologik tomonlari. -T.: TDPU, 2001. – 10 b.
22. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. – T.: Ma'naviyat, 1998. - 160 b.
23. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. – T.: Ma'naviyat, 1999.– 60 b.
24. Shoumarov G'.B., Sog'inov N.A. O'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari Ilmiy ishlar to'plami. –Toshkent, 1993.
25. To'raeva O. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. -T.: O'qituvchi, 1990. – 222 b.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH: INNOVATSION USULLAR VA O'YINLAR ORQALI YONDASHUV

Tosheva Mohinur Yusupovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. mohitosheva30@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari, o'yinlar orqali o'quvchilarning tafakkur doirasini kengaytirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalar va psixologik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan tajriba ishlari, diagnostik usullar, shuningdek, tanqidiy fikrlashning dastlabki bosqichlari uchun mo'ljallangan mashq va o'yinlar keltirilgan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, faol ta'lim shakllari va kognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi o'yinlar orqali bolalarning mustaqil fikrlashi, tahliliy qaror qabul qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Tadqiqot natijalari asosida amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, boshlang'ich ta'lim, innovatsion usullar, didaktik o'yinlar, kognitiv rivojlanish.

ФОРМИРОВАНИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ: ПОДХОД ЧЕРЕЗ ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ И ИГР

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные подходы к формированию критического мышления у учащихся начальных классов. Особое внимание уделяется возможностям расширения их мыслительного кругозора и развития навыков самостоятельного мышления посредством игровых технологий и инновационных педагогических методов. В работе представлены экспериментальные данные, диагностические методики, а также упражнения и игры, направленные на развитие начальных этапов критического мышления. Анализируется роль инновационных методов

и игровых технологий в формировании критического мышления у младших школьников. На основе полученных результатов даны практические рекомендации.

Ключевые слова: критическое мышление, начальное образование, инновационные методы, дидактические игры, когнитивное развитие.

FORMING CRITICAL THINKING IN PRIMARY STUDENTS: AN APPROACH THROUGH INNOVATIVE METHODS AND GAMES

Abstract. This article explores modern approaches to developing critical thinking skills among primary school students. It highlights the possibilities of expanding children's cognitive frameworks and fostering independent thinking through game-based learning and innovative pedagogical methods. The study presents experimental work, diagnostic techniques, and exercises specifically designed to stimulate the early stages of critical thinking development. The role of innovative methods and educational games in forming critical thinking abilities in young learners is thoroughly analyzed. Practical recommendations are provided based on the research findings.

Keywords: critical thinking, primary education, innovative methods, didactic games, cognitive development.

Kirish. XXI asrda ta'lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga ham qaratilgan. Tanqidiy fikrlash bu — ma'lumotlarni tahlil qilish, baholash va asosli qaror qabul qilish qobiliyatidir. Ayniqsa, bu ko'nikma boshlang'ich sinf davridan boshlab bosqichma-bosqich rivojlantirilishi lozim. XXI asrda inson kapitali, ayniqsa, fikrlash madaniyati ta'lim tizimida markaziy o'ringa chiqmoqda. Tanqidiy fikrlash insonni atrof-muhitdagi voqealarga ongli yondashishga, fikr bildirishda asosli va mantiqli bo'lishga undaydi. Ayniqsa, bu ko'nikmalarni boshlang'ich ta'lim bosqichidanoq shakllantirish kelajak avlodning fikrlovchi, muammoni tahlil qila oladigan shaxs bo'lib kamol topishida muhim ahamiyatga ega.

Psixologik jihatdan, 7-10 yoshli bolalar tafakkuri rivojlanishning operatsion bosqichiga o'tadi (J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra), bu davrda ular o'z fikrini mantiqan bog'lab, sabab-oqibat aloqalarini tushunishga intiladi.[1] Shu bois, tanqidiy fikrlashni aynan boshlang'ich davrdan shakllantirish uchun mos o'yinlar, interaktiv metodlar va ijtimoiy muhit muhim rol o'ynaydi.

Tanqidiy fikrlash — bu axborotni tahlil qilish, baholash, muammo va qarama-qarshiliklarni aniqlash, ularni hal qilishga bo'lgan ongli yondashuvdir. Boshqacha aytganda, bu — mustaqil, mantiqli, asoslangan fikrlash faoliyatidir. Bloom taksonomiyasi va P. Elderni fikricha, tanqidiy fikrlash bilim olishning yuqori pog'onasidir.[2]

Asosiy qism

Tanqidiy fikrlash tushunchasi va uning tarkibiy qismlari.

Tanqidiy fikrlash bu – voqealarni mustaqil, tizimli, mantiqiy, asosli va sinchkovlik bilan tahlil qilish qobiliyatidir. Uning asosiy komponentlari quyidagilar:

1. Tahlil qilish: ma'lumotlarni ajratish, qismlarga ajratib ko'rib chiqish;
2. Baholash: haqiqatga mosligini tekshirish;
3. Munosabat bildirish: muammo bo'yicha mustaqil fikr shakllantirish;
4. Yechim taklif qilish: mavjud muammoning turli yechim variantlarini ilgari surish.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda innovatsion metodlar.

Boshlang'ich ta'limda quyidagi metodlar tanqidiy fikrlashni samarali rivojlantiradi:

1. Blum taxlil darajalari asosida savol-javoblar;
2. Debatlar va rolli o'yinlar;
3. "Fikrlar xaritasi", "Venn diagrammasi" kabi vizual grafik vositalar;
4. Problemani topshiriqlar va kichik loyiha ishlari;
5. "Nima bo'lardi agar...?", "Qanday qilib bu sodir bo'lishi mumkin?" kabi tafakkur ochuvchi savollar.

O'yinlar orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish

O'yin bolalar tafakkurining eng faol shakllanish vositasidir.[3] Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladigan quyidagi o'yinlar samarali bo'ladi:

1. "Aql sinovlari" (Brain Teasers) – mantiqiy masalalar va topishmoqlar orqali fikrlashni faollashtirish;

2. "Rasmdan hikoya tuz" – bir nechta tasvirlar asosida voqea ketma-ketligini tuzish;

3. "Qanday farq bor?" – ikki holat yoki predmet o'rtasidagi farqni izohlash;

4. "Teskari hikoya" – yakunini aytib berilgan voqeani boshidan qayta tuzish;

5. "Kimgadir maslahat ber" – muammoni hal etishda turli pozitsiyadan yondashish.

Bu o'yinlar orqali bolalar voqealarni sinchkovlik bilan kuzatish, analiz qilish, izchil fikrlash, sabab-oqibatni aniqlash, alternativ variantlarni ko'rishga o'rganadi.

Didaktik o'yinlar orqali tanqidiy fikrlashni faollashtirish.

O'yin – bolalar psixologiyasi uchun eng tabiiy o'quv faoliyatidir.[4] Quyidagi o'yinlar tanqidiy fikrni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi:

1. "Nima bo'lishi mumkin?" – rasm yoki holat tasvirini berib, voqealar rivojini taxmin qilish. Bu o'yin tahlil va bashorat qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

2. "To'g'ri – noto'g'ri" – berilgan fikr yoki jumla asosida mantiqiy baholashga chorlaydi.

3. "Nima uchun?" zanjiri – har bir fikr ortidan sababini aytish orqali izchil mantiqiy tafakkur hosil qiladi.

4. "Kim haq?" – ikki farazli holatda to'g'ri nuqtani aniqlash, tahlil qilish, solishtirish orqali to'g'ri xulosa chiqarishni o'rgatadi.

Amaliy tadqiqot asosida tahlil

2024-yil sentabr-dekabr oylarida Qarshi shahar 21- umumiy o'rta ta'lim maktabning 2-3-sinflarida eksperimental sinov o'tkazildi. 64 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Eksperimental guruhda har haftada 2 marotaba yuqorida keltirilgan o'yinlar bilan ishlov berildi, nazorat guruhida esa an'anaviy metodlar qo'llanildi. Tanqidiy fikrlash ko'rsatkichlari "Bolalar tanqidiy tafakkur darajasi" metodikasi asosida baholandi.

Natijalar:

Eksperimental guruhda tanqidiy fikrlash darajasi 28% ga oshgan;

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali obrazli va aniq tushunchalar orqali tafakkur yuritadi. Shu bois, ular bilan ishlashda tanqidiy fikrni shakllantirish uchun konkret metodlar va o'yinga asoslangan yondashuvlar muhimdir.

Tavsiyalar:

1. Dars jarayonida ochiq savollar ko'proq berish (Masalan: "Sen nima deb o'ylaysan?", "Nima uchun shunday bo'ldi?")

2. O'quvchilarni erkin fikrlashga undash, noto'g'ri javoblar uchun tanbeh bermaslik.

3. Refleksiya elementlarini darsdan so'ng kiritish: "Nimani o'rganding?", "Nima yangilik bo'ldi senga?"

4. Har bir darsda kamida 1 ta tanqidiy fikrlashga oid topshiriq yoki o'yin kiritilishi lozim.

5. O'qituvchilar uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan seminar-treninglar tashkil etilishi zarur.

6. Ota-onalar bilan hamkorlikda "fikrlash mashqlari"ni uy sharoitida davom ettirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar berilishi maqsadga muvofiq

Xulosa. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish – bu nafaqat bilim berish, balki shaxsni tarbiyalash demakdir. Boshlang'ich sinf davridayoq o'quvchida mantiqiy, tahliliy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini uyg'otish, kelgusidagi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatiga zamin yaratadi. Innovatsion metodlar va o'yinli yondashuvlar esa bu jarayonni qiziqarli va samarali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Piaje J. Bolalar tafakkurining rivojlanishi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999. – 215 b.

2. Ennis R.H. Critical Thinking. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 2011. – 278 p.

3. Vigotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva: Pedagogika, 1982. – 314 b.

4. Halpern D.F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. – N.Y.: Psychology Press, 2013. – 512 p.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA NOSTANDART MASALALAR O'RGATISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

*Xusanova Dilnoza Egam qizi,
Osiyo Xalqaro Universiteti 1-bosqich magistranti. Email: husanovadilnoza1991@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nostandart masalalarni o'rganish jarayonidagi maqsad va vazifalar tahlil etiladi. Nostandart masalalar ta'lim jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda, ijodiy yondashuvni oshirishda va muammolarni yechishga qodir bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Maqolada ushbu masalalarni o'rganish usullari, uslublari va o'quvchilarning ijtimoiy hissiyotlari bilan bog'liq jihatlari ko'rsatiladi. O'quv dasturlarida nostandart masalalarni qo'shish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkinligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, nostandart masalalar, mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv, o'rganish usullari.

GOALS AND OBJECTIVES OF TEACHING NON-STANDARD PROBLEMS TO PRIMARY STUDENTS

Annotation. This article analyzes the goals and objectives of first-grade students in learning non-standard problems. Non-standard tasks are crucial in the educational process for developing students' logical thinking abilities, enhancing creative approaches, and being capable of problem-solving. The methods and techniques for studying these issues, as well as the related aspects of students' social emotions, are presented. The article emphasizes the potential of improving the quality of education by incorporating non-standard tasks into curricula.

Key words: primary education, non-standard problems, logical thinking, creative approach, learning methods.

ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ОБУЧЕНИЯ НЕСТАНДАРТНЫМ ЗАДАЧАМ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье анализируются цели и задачи учащихся начальной школы в процессе изучения нестандартных задач. Нестандартные задачи имеют важное значение в образовательном процессе в развитии навыков логического мышления учащихся, повышении их творческого подхода и умения решать проблемы. В статье показаны методы, приемы изучения этих задач и их аспекты, связанные с социальными эмоциями учащихся. Подчеркивается, что качество образования может быть улучшено за счет включения нестандартных задач в учебную программу.

Ключевые слова: начальное образование, нестандартные задачи, логическое мышление, творческий подход, методы обучения.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarga nostandart masalalarni o'rgatish, ularning mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuv qobiliyatini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. Nostandart masalalar, an'anaviy masalalardan farqli ravishda, muayyan texnikalar yoki formulalarga asosan yechilmaydi, balki o'quvchilarning ijodkorligiga, tanqidiy fikrlash qobiliyatiga va muammolarni yechish ko'nikmalariga tayanadi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida nostandart masalalarni o'rgatishning maqsad va vazifalari tahlil qilinadi. Bugungi kunda mamlakatimiz rivojlanishida Sharqona tarbiya mohiyatini o'zida mujassam etgan ta'lim muassasalarimizdagi o'quvchi-yoshlarni o'rta asr Sharqning buyuk mutafakkirlari Xorazmiy, Forobiy, Beruniy ta'kidlaganlaridek, erkin tanqidiy fikrlashga o'rgatish hamda ushbu tanqidiy fikrlashi jarayonida o'zlashtirilgan bilimlar biror bir manbadan tayyor holda olingan bilimlar bilan qiyoslaganda katta ahamiyatgajamiatga ega ekanligini uqtirish bugungi globallashuv jarayonida o'rni muhim sanaladi.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida nostandart masalalarni o'rganishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat deb bilaman:

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish: O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish orqali muammolarni o'zlari hal qilish ko'nikmasini shakllantirish.

Ijodiy yondashuvni o‘stirish: Nostandart masalalar orqali o‘quvchilarning ijodiy yondashuvini oshirish, yangicha fikrlash va muammolarni xilma-xil usullarda yechish imkoniyatlarini yaratish.

Individual yondashuvni ta‘minlash: Har bir o‘quvchining individual rivojlanishi va o‘ziga xos yondashuvlarini hisobga olgan holda, nostandart masalalar orqali farqlarni qondirish.

Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish: o‘quvchilarni jamoaviy faoliyatlar orqali o‘zaro hamkorlikka undash, fikr almashish va masalalarni birgalikda yechishga qo‘shish.

Masala: Erkinjon darslarini qilib bo‘lgach soat 22⁰⁰da uxladi. Agar u ertalab soat 6³⁰da uyg‘onsa, necha soat uxlagan bo‘ladi? Keltirilgan masalani bir necha xil usulda ishlash mumkin. Avvalo o‘quvchi shuni yaxshi bilishi lozimki, yarim tun 24⁰⁰ bo‘lib, keyingi birlik soat 25 emas 1, 2, 3 kabi davom etishini tushunsin. Bu tushuncha esa bolani keyingi jarayonni fikrlashiga olib keladi. Shunday qilib, Erkinjon yarim tunga qadar 2 soat, yarim tundan so‘ng 6 yarim soat uxlab, jami 8 yarim soat uxlagan bo‘ladi. Bunday fikrlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida soatni ko‘z oldiga keltirib, qo‘l bilan sanab yechim topgandan ko‘ra yaxshiroq natijaga olib keladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga nostandart masalalarni o‘rgatishning vazifalari:

1. Nazariy asoslarni o‘rganish: Nostandart masalalar haqida nazariy bilimlarni o‘rgatish, ularning ahamiyati va ta‘lim jarayonidagi o‘rni haqida ma‘lumot berish.

2. Metodologik yondashuvlar: Nostandart masalalarni o‘rganish uchun samarali metodlarni va pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishni amalga oshirish.

3. Mashg‘ulotlar tashkil etish: O‘quvchilarning nostandart masalalarni yechish bo‘yicha tajribalarini oshirish maqsadida turli faoliyatlar, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish.

4. Natijalarni baholash: o‘quvchilarning nostandart masalalarni yechishdagi muvaffaqiyatini baholash, qiyinchiliklarini tahlil qilish va ularga yordam berish.

Nostandart masalalarni yechish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida biroz qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin, ammo tinimsiz mehnat albatta o‘z samarasini beradi. Avval bilim, keyin u albatta ko‘nikmaga aylanadi Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nostandart masalalarni o‘rgatish, nafaqat ularning mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki kelajakda hayotiy vaziyatlarda muammolarni yechishda ham ularga yordam beradigan ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bu jarayonda pedagoglarning roli juda muhimdir, chunki ular o‘quvchilarga kerakli metodologik yondashuvlarni taqdim etishadi va bilimlarni amaliyotda qo‘llashga ta‘sir ko‘rsatadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farberman B.L. Progressivie pedagogicheskie texnologii.-T.,1999. 165-bet.
2. SOROS xalqaro ochiq jamiyatining «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» fanlararo dasturi. T. 2004.
3. Aganov I.G. K voprosu o formirovaniye kriticheskogo obrazovaniye. 2001.
4. Nishonov A, Xaydarov B, Nuriddinov B. va boshqalar. Baholash metodlari. O‘quv metodik qo‘llanma. T., 2003. 190 bet.
5. JabbarovJabborova M. Rahimova RBOSHLANG‘ICH TA'LIMDA NOSTANDART MATEMATIK TOPSHIRIQLARNI YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH. O'zbekistonda fanlar aro innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 20.12.2022

1-SINF O‘QUVCHILARIDA SAVODXONLIK MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA O‘YINLI METODLARNING ROLI

Zaynura Rajabova

Osiyo xalqaro universiteti I bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola 1-sinf o‘quvchilarining savodxonlik malakalarini shakllantirishda o‘yinli metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘yin texnologiyalarining qo‘llanishi o‘quvchilarning qiziqishini oshirishi, dars jarayonini faol, samarali va interaktiv o‘tkazish imkonini berishi ilmiy asosda tahlil qilingan. Alifbo davrida tovush-harf munosabatlari, bo‘g‘in va so‘z tuzilmalari, o‘qish-

yoʻzish koʻnikmalarining shakllanishida oʻyinli yondashuvning oʻrni alohida koʻrsatib berilgan. Tadqiqot davomida oʻyinli metodlarning didaktik imkoniyatlari, ularning turlari, yosh psixologiyasiga mosligi hamda tajriba-sinov ishlari orqali erishilgan natijalar atroflicha yoritilgan.

Kalit soʻzlar. Savodxonlik, boshlangʻich taʼlim, oʻyinli metod, alifbo, tovush-harf, boʻgʻin, oʻqish malakasi, yozuv koʻnikmasi, psixologik xususiyat, interaktiv metod, didaktik oʻyin, innovatsion yondashuv, tajriba-sinov, oʻquvchi faolligi.

THE ROLE OF GAME METHODS IN DEVELOPING LITERACY SKILLS IN 1ST GRADE STUDENTS

Abstract. This article covers the theoretical and practical aspects of using game methods in the formation of literacy skills of 1st grade students. The use of game technologies in the primary education process has been scientifically analyzed to increase the interest of students, make the lesson process active, effective and interactive. The role of the game approach in the formation of sound-letter relationships, syllable and word structures, reading and writing skills in the alphabet period is highlighted. The study covers in detail the didactic possibilities of game methods, their types, their suitability for age psychology, and the results achieved through experimental work.

Keywords. Literacy, primary education, game method, alphabet, sound-letter, syllable, reading skills, writing skills, psychological characteristics, interactive method, didactic game, innovative approach, experiment-test, student activity.

РОЛЬ ИГРОВЫХ МЕТОДОВ В ФОРМИРОВАНИИ НАВЫКОВ ГРАМОТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ 1-Х КЛАССОВ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования игровых методов в формировании навыков грамотности у учащихся первых классов. Научно обосновано, что использование игровых технологий в начальном образовании может повысить интерес учащихся и сделать процесс обучения активным, эффективным и интерактивным. Подчеркивается роль игрового подхода в формировании звукобуквенных связей, структуры слогов и слов, навыков чтения и письма в период алфавитного обучения. В исследовании подробно рассмотрены дидактические возможности игровых методов, их виды, соответствие возрастной психологии, а также результаты, достигнутые в ходе экспериментальной работы.

Ключевые слова. Грамотность, начальное образование, игровой метод, алфавит, звукобуква, слог, навыки чтения, навыки письма, психологические особенности, интерактивный метод, дидактическая игра, инновационный подход, эксперимент-тест, активность учащихся.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida taʼlim tizimidan eng muhim talab — bu bilim berish emas, balki oʻquvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va funksional savodxonlikni shakllantirishdir. Ayniqsa, boshlangʻich taʼlim bosqichida, xususan, 1-sinfda bu vazifa nihoyatda masʼuliyatlidir. Sababi bu bosqich bolaning taʼlimga boʻlgan munosabati, qiziqishi va keyingi yillardagi oʻquv muvaffaqiyatlari uchun poydevor hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, savodxonlik darslari — bolani oʻqishga, yozishga, fikrini ifoda etishga oʻrgatishdagi muhim bosqich boʻlib, bu darslarning shakli va uslublari zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan boyitilishi zarur.

Boshlangʻich taʼlim bosqichi, xususan, 1-sinf davrida oʻquvchilarning savodxonlik malakalarini shakllantirish taʼlim tizimining eng muhim va poydevor vazifasini bajaradi. Savodxonlik deganda nafaqat harflarni tanish, tovushlarni farqlash, balki oʻqish va yozish faoliyatining toʻgʻri shakllanishi, matnni tushunish, ifodali va ongli oʻqish koʻnikmalarining rivojlanishi tushuniladi. Bu bosqichda shakllangan bilimlar va malakalar keyingi taʼlim bosqichlarining muvaffaqiyatli kechishini taʼminlaydi. Savodxonlik malakasi bolaning tafakkuri, eshituv, koʻrish, nutq, xotira, eʼtibor, estetik did va tasavvurlarining kompleks shakllanishiga xizmat qiladi. 1-sinfda savodxonlik darslari alifbo davri va savod oʻrgatish davri bosqichlaridan iborat boʻlib, har biri oʻziga xos psixologik-pedagogik yondashuvni talab etadi. Bu davrda

o'quvchilar birinchi marta yozuv bilan tanishadi, tovush va harflarning o'zaro munosabatini idrok etadilar, o'z fikrlarini yozma va og'zaki bayon etishga kirishadilar.

An'anaviy ta'lim metodlari bilan cheklanib qolish hozirgi bolalar avlodi uchun samarasiz bo'lishi mumkin. Chunki bugungi o'quvchi axborot muhitida ulg'aymoqda, u interaktivlikni, harakatni, qiziqishni talab etadi. Shu bois savodxonlik darslarini o'yinli metodlar asosida tashkil etish — bolalarning psixologik, yoshga oid, individual xususiyatlariga mos keluvchi, tabiiy, didaktik jihatdan maqbul yechimdir. O'yin bola uchun faqat ermak emas, balki dunyoni idrok etish, tushunish, fikrlash, muloqot qilish, o'rganish vositasidir.

Kichik maktab yoshidagi bolalar (6–7 yosh) o'zining psixologik rivojlanish xususiyatlariga ko'ra o'ziga xos guruhga kiradi. Ularning e'tibori qisqa, motivatsiyasi tashqi stimullarga bog'liq, emotsional sezgirlik yuqori bo'ladi. Bu yoshdagi o'quvchilarda o'rganish ko'proq o'yin faoliyati orqali amalga oshiriladi. Shu bois savodxonlik darslarida bolalar psixologiyasiga mos, quvnoq, ko'rgazmali va hissiyotlarga ta'sir etuvchi metodlardan foydalanish muhimdir.

Psixologlarning fikriga ko'ra, bu yoshdagi bolalarda o'qishga bo'lgan ichki motivatsiya hali shakllanmagan bo'lishi mumkin. Demak, o'qituvchi o'yin, interaktiv topshiriqlar, rag'batlantirish va emotsional qo'llab-quvvatlash orqali o'quvchini darsga jalb etishi zarur. O'yin orqali bola o'zini erkin his qiladi, xatolardan qo'rqmaydi, ijodiy faollik namoyon etadi va shaxsiy yutuqlardan zavqlanadi. O'yinli metodlar — bu didaktik vazifalarni hal etishga xizmat qiluvchi, o'yin shakliga ega bo'lgan ta'lim usullari bo'lib, ular orqali o'quvchilarda savodxonlik malakalari samarali shakllanadi. O'yinli metodlarning asosida "o'rganish — bu hayotiy faoliyat" tamoyili yotadi. Bu metodlar bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga, mustaqil fikr yuritishiga, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashiga xizmat qiladi.

Savodxonlik darslarida o'yinli metodlar o'z ichiga dramatik, interfaol, mantiqiy, harakatli, stol usti, texnologik o'yinlar kabi turlarni oladi. Har bir o'yinning maqsadi — dars mazmuniga mos holda tovush, harf, so'z, gap tushunchalarini bolaga tabiiy, esda qoladigan va zavqli shaklda yetkazishdan iboratdir. Savodxonlik darslarini o'yinli metodlar bilan boyitish darsni interfaol, jonli va bolalarga mos shaklda o'tkazish imkonini beradi. Darslar o'yin asosida tashkil etilganda, har bir o'quvchi faol qatnashadi, passiv qolmaydi. Masalan, "Harf ovchilari", "Top harfni", "So'z yasaymiz", "Tovush labirinti", "Gap tuzish musobaqasi" kabi o'yinlar dars mazmunini boyitadi, o'quvchilarni qiziqtiradi va o'zlashtirishni osonlashtiradi. Bu metodlar orqali bolaning idroki, e'tibori, xotirasi, harf bilan ishlash ko'nikmasi va nutq faoliyati tabiiy ravishda shakllanadi. O'yinli metodlarning muvaffaqiyati o'qituvchining ijodiy yondashuvi, tayyorgarlik darajasi va dars rejasi bilan bog'liq.

Zamonaviy ta'lim tizimida kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashda eng muhim jihatlardan biri — bu savodxonlik malakalarini shakllantirishdir. Ayniqsa, 1-sinfda bu jarayon bolaning ilk marta yozuv va o'qish olamiga qadam qo'yishi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim tizimining poydevorini tashkil etadi. Savodxonlik malakasi — bu harf, tovush, bo'g'in va so'zlarning o'zaro aloqasini anglash, yozish va o'qish malakasiga ega bo'lish deganidir. Bu jarayon ayniqsa 6–7 yoshli bolalar uchun qiyinlik tug'dirishi mumkin, chunki ularning psixologik va fiziologik jihatlari hali rivojlanish bosqichida bo'ladi. Shu bois, savodxonlik darslarida o'yinli metodlardan foydalanish o'z samarasini bermoqda. Chunki o'yin bolalar tabiatiga mos bo'lgan asosiy faoliyat shakli bo'lib, u orqali bola ongli holda bilimlarni egallaydi, fikrlaydi va tajriba orttiradi.

O'yinli metodlar orqali savodxonlik malakalarini shakllantirish — bu faqatgina o'yin o'ynatish emas, balki ilmiy asoslangan, didaktik maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil qilishdir. O'yin orqali harfni tanish, tovushni farqlash, bo'g'inlarga ajratish, so'z yasash, gap tuzish kabi ko'nikmalar tabiiy va qiziqarli tarzda shakllanadi. Masalan, "Top harfni top", "So'z yig'amiz", "Tovushni eshit va ayt", "Harfni rasmi bilan bog'la" kabi o'yinli mashg'ulotlar orqali bola nafaqat bilim oladi, balki o'rganganini faol qayta ishlaydi, o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlashni o'rganadi. Bunday usullar bolaning nutqini, eshituv idrokini, vizual e'tiborini, nozik motorikasini, ayniqsa, tafakkur va diqqatini shakllantiradi.

Bugungi kunda dunyo ta'lim tajribasida gamifikatsiya — ya'ni o'yinga asoslangan ta'lim jarayoni keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuv 1-sinf savodxonlik darslariga ayniqsa mos tushadi. Chunki 6–7 yoshdagi bolalar uchun motivatsiya va qiziqish asosiy omildir. O'yin esa bu motivatsiyani shakllantiradi. Masalan, savodxonlik darsida "Harf ovchilari", "Tovushlar labirinti", "So'z topmoq" kabi gamifikatsion topshiriqlar yordamida bola aktiv bilim oluvchi

subyektga aylanadi. Shu orqali bola harf va tovushlar orasidagi fonetik aloqalarni idrok qiladi, yozuv shaklini ongli ravishda egallaydi. Bunday yondashuv orqali darsda har bir bola ishtirok etadi, ular orasida sog'lom raqobat shakllanadi va bu o'z navbatida darsning samaradorligini oshiradi.

Alifbo davrida o'yinli metodlarning samarali qo'llanilishi uchun o'qituvchi tomonidan har bir mashg'ulotni puxta rejalashtirish, maqsadli didaktik materiallar tayyorlash, vizual vositalarni to'g'ri tanlash, bolalarning psixologik holatini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Masalan, ko'rgazmali harflar, rangli magnitli so'zlar, 3D harf modellari, harflar labirinti, tovushlar kartochkalari orqali harflarni ko'rish, tegish, eshitish, aytish — ya'ni ko'p kanalli ta'lim orqali savodxonlik ko'nikmalari mustahkamlanadi. O'yinli mashg'ulotlar davomida o'qituvchi bolani kuzatadi, uning qaysi harflarda qiynalayotganini aniqlaydi va bu bo'yicha individual yondashuvni qo'llaydi.

Amaliy tajriba-sinov ishlari ko'rsatadiki, o'yinli metodlar bilan tashkil etilgan savodxonlik darslarida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi 30–40% ga yuqori bo'ladi. Bu usullar bolalarda nutqiy faollikni oshiradi, o'rganganini tez va mustahkam eslab qolishga xizmat qiladi. Xususan, 1-sinfda alifbo bosqichida o'yinli metodlardan foydalangan guruhlar bilan an'anaviy metod qo'llanilgan guruhlar o'rtasida sezilarli farq qayd etilgan. O'yinli metodlardan foydalangan guruh o'quvchilarining 87% harflarni to'g'ri yozish va aytishda aniq ko'rsatkichlarga erishgan bo'lsa, ikkinchi guruhda bu ko'rsatkich 63% bo'lgan. Bu natijalar o'yinli yondashuvning samaradorligini ilmiy asosda isbotlaydi.

Shu boisdan, 1-sinf o'quvchilarida savodxonlik malakalarini shakllantirishda o'yinli metodlarning o'rni beqiyosdir. O'yin orqali o'quvchi o'zining kognitiv faoliyatini namoyon etadi, bilim olishga bo'lgan tabiiy ehtiyojini qondiradi, dars jarayonida ijobiy muhit shakllanadi. O'qituvchi esa bu jarayonda faqat bilim beruvchi emas, balki rahbar, tashkilotchi va motivator sifatida faoliyat yuritadi. Demak, zamonaviy ta'lim metodlari orasida o'yinli yondashuv boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun eng kuchli va ta'sirchan vositalardan biri bo'lib, uni to'g'ri, puxta va rejalashtirilgan holda joriy etish boshlang'ich ta'lim sifatini oshiradi.

Xulosa. 1-sinfda savodxonlik malakalarini shakllantirish ta'lim jarayonining asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu bosqichda o'yinli metodlardan foydalanish o'quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlariga to'la mos keladi. O'yinli faoliyat orqali bola bilimni o'zlashtiribgina qolmay, balki uni mustahkamlaydi, amaliyotga tatbiq etadi va mustaqil fikrlashga o'rganadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, savodxonlik darslarida o'yinli yondashuvlardan foydalanish orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi, faol ishtiroki, nutqiy faolligi va yozuv ko'nikmalari yuqori darajada rivojlanadi. O'yinli metodlarning asosiy ustunliklari — bu ta'lim jarayonining qiziqarli, mazmunli va interaktiv kechishini ta'minlashi, har bir o'quvchini faollikka undashi, individual yondashuvga imkon berishidir. Ularning didaktik imkoniyatlari o'quvchilarda tovush-harf farqlash, so'z yasalishi, gap tuzish, o'qish va yozish malakalarining bosqichma-bosqich rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, bu metodlar orqali o'qituvchi bolani kuzatish, baholash, yo'naltirish, kamchiliklarini aniqlab, tuzatishga ham erishadi.

O'yinli metodlar boshlang'ich sinf savodxonlik darslarida o'quvchining o'quv faoliyatini tabiiy va samarali tashkil etish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu metodlarni to'g'ri rejalashtirish, metodik jihatdan puxta tayyorlash, vizual va interfaol vositalar bilan qo'llab-quvvatlash orqali 1-sinf o'quvchilarining savodxonlik darajasini sifatli shakllantirish mumkin. Shu bois ushbu yo'nalishda ilmiy-metodik tadqiqotlar, tajriba-sinov ishlari va o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni davom ettirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jumayeva H.G., "Pedagogik muloqot asosida ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari" Zamonaviy fan va tadqiqotlar 4.3: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2025 yil 22-aprel) 340-346.

2. Jumayeva H.G., "Geymifikatsion yondashuv asosida talabalarning evrestikkognitiv faoliyatini rivojlantirishning metodik asoslari" Zamonaviy tasviriy-pedagogik ta'limda an'ana va innovatsiyalar: izlanishlar va yechimlar xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari Buxoro – 2025

-
3. Jumayeva H.G., "Talabalarda evristik tafakkurni shakllantirishda geymifikatsion yondashuvning ahamiyati", "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 5
4. Jumayeva H.G., "Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish", "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 3
5. Karimova M. Interaktiv ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2018. – 213 b.
6. Kenjaeva Z. O'yinli metodlar orqali o'qitish samaradorligi. // Ta'lim va innovatsiya. – 2021, №3. – B. 55–59.
7. Raximova S. Boshlang'ich ta'limda o'yinli dars metodlari. – Toshkent: "Barkamol avlod", 2022. – 190 b.
8. To'raeva G. 1-sinf darslarida savodxonlik va o'yinli yondashuv. // Ta'lim tarbiya. – 2023, №2. – B. 26–29.
9. Vygotskiy L.S. Bolalar psixologiyasi. – Moskva: Pedagogika, 2016. – 304 b.
10. G'aniyeva N. Boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish. – Toshkent: Fan, 2020. – 208 b.
11. Soliyeva M. Boshlang'ich ta'lim metodlari. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 198 b.
12. Toxirova S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – 176 b.
13. Sharipova D. Savodxonlik va o'yin: uyg'unlikdagi yondashuv. // Ilmiy-amaliy jurnal, 2021, №1. – B. 38–41.
14. Jumayeva H. Zamonaviy dars texnologiyalari. – Buxoro: Ilm ziyo, 2022. – 212 b.
15. Nurova R. Savod o'rgatishda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Innovatsiya, 2023. – 185 b.

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARIDA KASBGA QIZIQISH MAYLLARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Razzoqov Davron Niyozovich
Osiyo Texnologiyalar Universiteti "Pedagogika" kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi, ilmiy rahbar. Tel. 90 981 39 95
Ravshanova Shahnoza Qahramon qizi
Osiyo Texnologiyalari Universiteti magistranti. O'zbekiston, Qarshi shahri

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining psixologik va pedagogik xususiyatlari tahlil qilinadi. Bolalarning kasbga bo'lgan dastlabki qiziqishlarini shakllantirishda yoshga mos yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim bosqichida kasbiy yo'naltirish jarayonini to'g'ri tashkil etishning muhim jihatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: maktabga tayyorlov guruhi, psixologik xususiyatlar, pedagogik yondashuv, kasbga qiziqish, bolalar rivojlanishi

ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕРЕСА К ПРОФЕССИИ У ВОСПИТАННИКОВ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУППЫ К ШКОЛЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологические и педагогические особенности детей подготовительной группы к школе. Освещается значение возрастных подходов в формировании начального интереса к профессиям. Также анализируются важные аспекты правильной организации профориентационной работы на этапе дошкольного образования.

Ключевые слова: подготовительная группа, психологические особенности, педагогический подход, интерес к профессии, развитие ребёнка

WAYS OF DEVELOPING CAREER INTEREST TENDENCIES IN PRESCHOOLERS OF THE SCHOOL PREPARATION GROUP

Annotation. This article explores the psychological and pedagogical characteristics of children in the school preparatory group. It highlights the importance of age-appropriate approaches in developing early interest in professions. The paper also analyzes key aspects of effectively organizing career guidance during the preschool stage of education.

Keywords: preparatory group, psychological characteristics, pedagogical approach, interest in profession, child development

Kirish. Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga javob bera oladigan, mustaqil fikrlaydigan, kasbiy yo'nalishini erta aniqlay oladigan shaxsni tarbiyalashga qaratilgan. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichi bola shaxsining har tomonlama shakllanishida muhim poydevor hisoblanadi. Shu bosqichda bolalarda turli sohalarga bo'lgan qiziqishlar, jumladan, kasblarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish muhim o'rin tutadi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalari psixologik va pedagogik jihatdan atrof-muhitni faol o'rganishga intiluvchi, o'zini anglashga harakat qiluvchi davrda bo'lganliklari sababli, ularda kasbga oid dastlabki tasavvurlarni shakllantirish uchun ayni qulay paytdir. Bu jarayonda tarbiyachilarning, ota-onalarning va ijtimoiy muhitning roli beqiyosdir. Ushbu maqolada tayyorlov guruhidagi bolalarda kasbga qiziqish mayllarini shakllantirish yo'llari, samarali metodik yondashuvlar, ota-onalar va tarbiyachilar hamkorligi asosida yoritiladi.

Tadqiqotning maqsadi. Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining psixologik-pedagogik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularda turli kasblarga nisbatan qiziqish mayllarini shakllantirishning samarali yo'llarini aniqlash hamda bu jarayonda tarbiyachi va ota-onalarning roli, metodik yondashuvlari va ta'sirchan vositalarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berish.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Tadqiqot maktabgacha ta'lim muassasalarining tayyorlov guruhlarida olib borildi. Kuzatuv, suhbat, eksperiment, anketalashtirish kabi empirik usullar qo'llanildi. O'yinlar, rasm chizish, rolli mashg'ulotlar va interaktiv metodlar orqali bolalarning kasblarga qiziqishi baholandi. Sifatli va miqdoriy tahlil metodlari asosida olingan natijalar tahlil qilindi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda kasbga qiziqish shakllanishi bosqichma-bosqich, bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda olib borilishi lozim. A.K.Jo'rayev tomonidan taqdim etilgan metodik qo'llanmalarda bolalarni kasb-hunarlar bilan tanishtirishda rolli o'yinlar va amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati alohida qayd etilgan [1; 34–38].

Shuningdek, Z.M.Karimova o'z tadqiqotlarida tarbiyachilarning o'yinli metodlar va kasblar haqidagi suhbatlarni to'g'ri tashkil qilishi bolalarda mustahkam tasavvurlarni shakllantirishini ta'kidlaydi [2; 45–50]. N.A.Abduqodirova esa o'yinlarning psixologik-pedagogik ta'siri orqali bolalarning faol ishtiroki, savol-javobdagi faollik ortishini tahlil qiladi [4; 78–82].

N.S. Sodiqova ota-onalarning bu jarayonda faol ishtirok etishi zarurligini ta'kidlaydi, ayniqsa, uy sharoitida bolaga kasb-hunarlar haqida tushuncha berish muhimligini urg'ulaydi [7; 12–16]. L.X.Mustafayeva va N.A. Shodmonova tomonidan vizual va axborot texnologiyalari orqali kasbga yo'naltirish bo'yicha ilgari surilgan usullar amaliyotda samaradorligini ko'rsatgan [9; 102–106], [12; 130–134].

Ushbu adabiyotlar tahlili asosida shuni aytish mumkinki, kasbga yo'naltirish faoliyati bolalarning yoshiga mos, tizimli va ijodiy metodlarga asoslangandagina o'z samarasini beradi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, tayyorlov guruhidagi bolalarda kasbga qiziqish o'yin, suhbat va interaktiv mashg'ulotlar orqali shakllanadi. Tajriba guruhi bilan olib borilgan metodik yondashuvlar bolalarning kasblarga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirgan. Ota-onalar va tarbiyachilarning hamkorlikdagi

faoliyati kasbiy yoʻnaltirish samaradorligini oshiradi. Bu natijalar asosida bolalarda kasbga qiziqishni shakllantirish erta yoshdan boshlanishi zarurligi tasdiqlandi.

Xulosa. Maktabga tayyorlov guruhida kasbga qiziqish mayllarini shakllantirish bolaning shaxsiy rivojlanishida muhim omildir. Dastlabki tasavvurlar oʻyinlar, suhbatlar, vizual materiallar orqali samarali shakllantiriladi. Tarbiyachi va ota-onalar hamkorlikda ishlagan taqdirda bu jarayon yanada natijador boʻladi. Shu sababli, kasbiy yoʻnaltirish ishlarini maktabgacha taʼlim bosqichidanoq tizimli asosda yoʻlga qoʻyish zarur.

Adabiyot va manbalar roʻyxati:

1. Joʻrayev A.K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasb-hunarlar bilan tanishtirish metodikasi: darslik. – Toshkent: «Fan», 2020. – 156 b. [1; 34–38]
2. Karimova Z.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni shakllantirish metodlari // Maktabgacha taʼlim, №2, 2022. – B. 45–50. [2; 45–50]
3. Xudoyberdiyeva M.T. Maktabgacha taʼlim muassasalarida kasbga yoʻnaltirish faoliyatini takomillashtirish yoʻllari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Samarqand, 2021. – B. 112–116. [3; 112–116]
4. Abduqodirova N.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni shakllantirishda oʻyinlarning oʻrni // Taʼlim va tarbiya, №3, 2021. – B. 78–82. [4; 78–82]
5. Ismoilova D.M. Maktabgacha taʼlimda kasbga yoʻnaltirishning metodik asoslari // Oʻzbekiston pedagogika jurnali, №4, 2020. – B. 34–38. [5; 34–38]
6. Toshpulatova G.A. Maktabgacha taʼlim muassasalarida kasbga yoʻnaltirish faoliyatini tashkil etish // Taʼlim va tarbiya, №2, 2022. – B. 56–60. [6; 56–60]
7. Sodiqova N.S. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni shakllantirishda ota-onalarning roli // Maktabgacha taʼlim, №1, 2023. – B. 12–16. [7; 12–16]
8. Raxmatova S.T. Kasbga yoʻnaltirishning zamonaviy metodlari // Taʼlim va tarbiya, №4, 2021. – B. 90–94. [8; 90–94]
9. Mustafayeva L.X. Vizual materiallar orqali qiziqish uygʻotish // Taʼlim va tarbiya, №5, 2022. – B. 102–106. [9; 102–106]
10. Tursunova D.S. Interaktiv metodlar qoʻllanilishi // Taʼlim va tarbiya, №6, 2021. – B. 110–114. [10; 110–114]
11. Gʻulomova M.F. Musiqa va sanʼatning oʻrni // Taʼlim va tarbiya, №7, 2022. – B. 120–124. [11; 120–124]
12. Shodmonova N.A. Axborot texnologiyalari orqali kasbga yoʻnaltirish // Taʼlim va tarbiya, №8, 2021. – B. 130–134. [12; 130–134]
13. Razzoqov D.N. Kasb hunarga yoʻnaltirish / Oʻquv qoʻllanma. Qarshi. “Ilm-Fan-Maʼnaviyat” nashriyoti, 2024. –371 b. [13; 130–134]

MTT NUTQ OʻSTIRISH MASHGʻULOTLARIDA MUSIQIY OʻYINLARNING AHAMIYATI

Eliboyeva Lola Suleymanovna
Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi oʻqituvchisi

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarning nutqini oʻstirish jarayonida musiqiy didaktik oʻyinlardan foydalanish usullari haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: nutq, musiqa, sanʼat markazi, nutq markazi, faoliyat, rivojlantiruvchi soha

ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫХ ИГР В ОБУЧЕНИИ РАЗВИТИЮ РЕЧИ

Аннотация. В статье говорится о методах использования музыкально-дидактических игр в процессе развития речи детей в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова: речь, музыка, арт-центр, речевой центр, деятельность, развивающая площадка

THE IMPORTANCE OF MUSICAL GAMES IN SPEECH DEVELOPMENT TRAINING

Annotation. The article deals with the methods of using musical didactic games in the development of children's speech in preschool educational institutions.

Keywords: speech, music, art center, speech center, activity, development platform

Musiqa san'ati insonning yoshligidan unga bevosita va kuchli ta'sir o'tkazib, uning umumiy madaniy rivojida katta o'rin tutadi. Bugungi jamiyatning madaniy hayotida yanada kengroq o'rin tutayotgan musiqa kishiga butun hayot davomida uning doimiy hamrohi hisoblanadi. Musiqa - inson yuragiga juda chuqur kirib boruvchi yagona san'at bo'lib, qalb tug'yoni yorqin ifodalash qudratiga ega.

Bolalar bilan musiqali ish olib borish ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi. Musiqa bola qalbida kuchli emotsional tuyg'u uyg'otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotni yanada boyitib boradi.

Musiqa bolaga har tomonlama yordam berishi, tevarak-atrofni obrazli - emotsional idrok etishi va bola xarakterining shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi uchun musiqa tarbiyasining maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar qo'yiladi:

1. Bolaning musiqaviy qobiliyatini rivojlantirish.
2. Bolalarni ashula aytish va musiqaviy-ritmik malakalarga o'rgatish. Ularda musiqani qabul qilish, his etish va tushunish qobiliyatlarini tarbiyalash.
3. Bolada badiiy - ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar faoliyatini tashkil etishda musiqadan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. MTTda faoliyatlarni tashkil etish jarayonida ta'lim berish didaktika prinsiplari asosida bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib ma'lum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Natijada u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'ladi.

Musiqani idrok etish ilk yoshdan shakllanadi. Bola tug'ilarkan, eng avvalo onasining allasi bilan ulg'ayadi. Alla musiqa ohangida aytiladigan eng buyuk so'zlardir. Shunday ekan, bolalar hayotida musiqaning o'рни va hamiyati kata rol o'ynaydi. To'plangan emotsional musiqaviy taasurotlar qo'shiq aytishga, musiqa asboblarini chalishga, badiiy xalq qo'shiqlarini aytishga olib keladi.

Bola va uning qobiliyatlarining o'sishi katta kishi tomonidan uyushtiriladigan faoliyatda: qo'shiq, ritmika, musiqa tinglash va musiqa asboblarini chalishda sodir bo'ladi. Bolalar o'zlarining musiqa eshitish tajribalari asosida o'z tasavvurlarini qo'shiq, o'yin, raqs ijodida namoyon qilishga va musiqa savodining oddiy elementlarini egallashga qodirdirlar. Shu bilan birga faoliyatning har bir turi umuman musiqa qobiliyatlarining o'sishiga, maxsus qobiliyatlarning shakllanishiga masalan, ashula aytish, ashulachilik ovozi va kuy qobiliyatining tarkib topishiga yordam beradi.

Bularning barchasi turli tashkiliy shakllarda: mashg'ulotlarda, o'qishdan tashqari ishlarda (bolalar bog'chasi turmushida musiqa) va mustaqil faoliyatlarda bo'lib o'tadi.

Musiqaga qiziqtirish jarayonid so'z muhim rolni bajaradi. Bolalar idrok eta oladigan, tushuna oladigan musiqa asarlarini eshitar ekan, so'zlar asosida olamni anglay boshlaydi.

Masalan bolalar qo'shiqlaridan: "Bog'imda gullar chaman", "Chittigul", "Mening bog'cha opamlar" kabilar bilan bolalar atrofdagilarga muhabbat ruhida tarbiyalanadi.

MTTda faoliyatlarni rejalashtirishda amaliy mashg'ulot asosiy vazifani bajaradi. Bunda barcha bolalar bilan bir vaqtda va musiqa amaliyotining barcha turlari bo'yicha rejali olib boriladigan mashg'ulotlar ishning eng muhim shakli hisoblanadi. Pedagog o'z ishini rejalashtirar ekan, bolalar bilan bo'ladigan har bir uchrashuvning konkret vazifalari unga ravshan bo'lishi kerak, o'quv materialini butun o'quv davriga taqsimlaydi. U butun jamoaga murojaat qilar ekan, har bir bolani o'z nazar-e'tiborida tutadi. Bu uni mashg'ulotni dinamik, variantlab olib borishga, bolalar e'tiborini ustalik bilan boshqa tomonga burishga, uni ijro etilayotgan musiqa xarakterini to'g'ri idrok etishga yo'llashga majbur qiladi. Shu bilan birga mashg'ulot yagona reja bilan birikkan bo'lishi kerak.

Amaliyot jarayonida mashgʻulotlar oʻtkazishning quyidagi tartibi shakllangan. U bolalarning tinglash qobiliyatini, eʼtiborini toʻplab, jamoani yaxshi uyushtiradigan musiqali-ritmik mashgʻulotlardan boshlanadi. Shundan keyin bolalar sokin, eʼtiborini chetga qochirmay oʻtirib, ashula aytadilar va musiqa tinglaydilar. Ular oʻzlarini, oʻrtoqlarini, pedagogning koʻrsatmalarini tinglab, ashula aytadilar, eshitish qobiliyatini oʻstirish mashqlarini, ashula aytish improvizatsiyalari uchun ijodiy topshiriqlarni bajaradilar, yangi qoʻshiqlar oʻrganadilar, yaxshi tanish boʻlganlarini takrorlaydilar. Mashgʻulot oxiriga yaqinlashganda tinch harakatlar bilan yakunlanadigan oʻyin, raqslar oʻtkaziladi.

MTTda musiqa faoliyati bolalar tomonidan maʼlum bilimlarning oʻzlashtirilishi, kerakli koʻnikma, malakalarning egallanishi, musiqa taassurotlarining jamgʻarilishiga asoslanadi. Bunga musiqa mashgʻulotlari, bayramlar va koʻngil ochishlarni toʻgʻri tashkil qilish, shuningdek, tarbiyachilarning bilvosita boʻlsa ham bolalarning mustaqil musiqa faoliyatlariga rahbarliklari tufayli erishiladi.

Bolalarning musiqiy faoliyatini shakllantirishda musiqali didaktik oʻyinlarning ahamiyati kattadir. Musiqali didaktik oʻyinlarni maktabgacha taʼlim tashkilotida faoliyatlarda qoʻllash jarayonida tarbiyalanuvchilarda badiiy didning shakllanishiga sezilarli taʼsir qiladi. SHuning uchun bolalarga musiqa faoliyatiga qiziqishni singdirish va bu qiziqishni doimiy saqlash uchun guruh xonasida maxsus joy ajratish hamda uni turli qoʻllanmalar—didaktik oʻyinlar, texnika vositalari (radio, elektron proigrivatel, diaproektor, magnitofon va boshqalar) bilan jihozlash lozim.

Hamma sanʼat turlarida boʻlganidek musiqada ham atrof-muhitni aks ettirish xususiyatlari («oʻz tili bilan») mavjud. Uning emosional mazmunini soʻzlar orqali tushuntirish qiyindir. Musiqa asarlarini idrok qilish kishining umumiy emosional rivojlanganligiga bogʻliqdir. Bolalarning musiqaviy rivojlanishlari muvaffaqiyatliroq boʻlishi maqsadida musiqani idrok etish jarayonini osonlashtirishi mumkin boʻlgan, uni yaxshiroq tushunishga yordam bera oladigan xilma-xil qoʻllanmalardan foydalanish zarur.

MTTda faoliyatni rivojlantirish jarayonida, mashgʻulotlarda bolalar bilan didaktik oʻyin oʻtkaziladi. oʻyining oʻziga xosligi shundaki, u tevarak-atrofdagi hayotni, kishilarning faoliyati, ishlari, harakatlarini, ularning ish jarayonidagi oʻzaro munosabatlarini aks yettiradi. Oʻyin paytida xona bolalar uchun dengiz, oʻrmon, metro stantsiyasi, temir yoʻl vagoni boʻlishi mumkin va h. k.

Bolalar oʻyining yana bir xususiyati — uning havaskorlik tarzida boʻlishidir (xususiy faoliyat). Bu uning tashqi belgilari boʻlmay, balki haqiqiy mohiyatidir. Oʻyinning ijodkori, yaratuvchisi — bolalardir. Ular oʻyinda oʻzlariga tanish boʻlgan hayotiy voqea va hodisalarni ularga boʻlgan munosabatlarini aks yettiradilar.

Musiqali oʻyinlar: oʻyin bogʻcha yoshidagi bolalar ijodiy faoliyatining eng faol shaklidir. Oʻyinlarga moʻljallangan musiqa asarlarining badiiy mazmuni, xarakteri va ifoda vositalari oʻyinning sujetiga mos tushishi shart. Oʻyinning sujeti esa bogʻcha hayotidan olingan boʻlishi lozim. Unda bolaning ijtimoiy hayot va tabiat bilan munosabati oʻz aksini topishi kerak. Ayniqsa xalq bolalar oʻyinlari katta ahamiyatga ega.

Har xil bolalar oʻyin mashqlarida turli xil musiqalardan foydalaniladi. Bolalar oʻzlari mashgʻulotlarda oʻrgangan: «Musiqa mashgʻulotlari», «Konsert»larda raqsga tushadilar, ashula aytadilar. Bunday oʻyinlarda tarbiyachi bolalarga roʻllarni boʻlib beradi, har xil musiqalarni topib beradi. Bolalar tariyasida musiqiy-didaktik oʻyinlar katta rol oʻynaydi. Ulardan ayrimlari mashgʻulotlar vaqtida oʻrganiladi.

Oʻyinlar musiqaviy qobiliyatni, fikrlashni oshiradi. Musiqa yoʻriqchisi bolalarning kundalik hayotida olgan bilimlarini mashgʻulotlarda takrorlaydi, ularni yangi musiqiy-didaktik oʻyinlar bilan tanishtirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraxmonova X.Sh. Bolalar bogʻchasida musiqaviy oʻyinlar va bayram ertaliklari. T., «Oʻqituvchi»1993

2. Гревцева, Г. Я., & Элибаева, Л. С. (2022, November). ВОСПИТАНИЕ МОРАЛЬНО-ПРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ ЧЕЛОВЕКА В «КАБУСНАМЕ»: 10.53885/edinres. 2022.41. 85.009 ГЯ Гревцева доктор педагогических наук, профессор ЧГИК, РОССИЯ ЛС Элибаева. Старший преподаватель БГУ. In *Научно-практическая конференция* (pp. 896-900).

3. Элибаева, Л. С. (2022). Применения методов педагогического моделирования для формализации процесса обучения. *Science and Education*, 3(1), 641-645.

4. Элибаева, Л. С. (2022). Теоретической основой использования интерактивных методов контроля в высшей школе. *Science and Education*, 3(1), 625-630.

5. Элибаева, Л. С. (2022). Особенность педагогики сочетание необходимого теоретического материала музыки. *Science and Education*, 3(1), 631-635.

INKLYUZIV TA'LIM JARAYONINI LOYIHALASHDA O'QITUVCHILARNI KASBIY TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI (MAGISTRLARNI TAYYORLASH MISOLIDA)

*Xodjayeva Matlyuba Rustamovna
Buxoro Davlat Pedagogika Instituti Maktabgacha va Boshlang'ich
Ta'lim Pedagogikasi Kafedrasi Mustaqil Tadqiqotchisi (90 2988373)*

Annatatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim jarayonini loyihalashda o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning nazariy asoslari (magistrlarni tayyorlash misolida) yoritilgan bugungi kunda alohida ta'limga pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun oliy ta'limda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus joriy etish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli oliy ta'lim berishni ta'minlashdan iborat.

Kalit so'zlar: indikator, ekspert baholash, psixik jarayon, ta'lim-tarbiya, yangi topologiya.

THEORETICAL BASIS OF TEACHER PROFESSIONAL TRAINING IN DESIGNING AN INCLUSIVE EDUCATIONAL PROCESS (ON THE EXAMPLE OF MASTER'S TRAINING)

Annotation. This article discusses the theoretical foundations of professional training of teachers in designing an inclusive educational process (using the example of master's degree training). Today, for students with special educational needs, the goal is to introduce a barrier-free, adapted educational environment in higher education by involving special educators, using special tools and methods, and to ensure high-quality higher education that serves their effective adaptation to society and full integration.

Keywords: indicator, expert assessment, psychological process, education, new topology.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГА ПО ПРОЕКТИРОВАНИЮ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА (НА ПРИМЕРЕ МАГИСТЕРСКОЙ ПОДГОТОВКИ)

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы профессиональной подготовки педагогов по проектированию инклюзивного образовательного процесса (на примере подготовки магистров). Сегодня для студентов с особыми образовательными потребностями ставится задача внедрения безбарьерной, адаптированной образовательной среды в высшем учебном заведении с привлечением специальных педагогов, использованием специальных средств и методов, а также обеспечение получения ими качественного высшего образования, служащего их эффективной адаптации в обществе и полноценной интеграции.

Ключевые слова: индикатор, экспертная оценка, психологический процесс, образование, новая топология.

Kirish. Bugungi kunda yurtimizda inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ushbu sohada bir qator ko'zga ko'rinarli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan harakatlar uchun huquqiy asosdir.

Ushbu qaror bilan, 2020-2025 yillar uchun xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va 2020-2021 yillarda uni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi", shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limini 2025 yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi. Oliy ta'lim muassasalarida alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bo'lajak o'qituvchilarga ushbu say-harakatlar yordam ko'rsatadi.

"2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham nogironligi bo'lgan insonlarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish (66-maqсад); yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish (70-maqсад) kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Nogironligi bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini, mehnatga va hayotga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda ilm-fan, texnika, san'at va sportga jalb etish borasida bir qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shunga muvofiq, Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan har yili 500 nafargacha nogironligi bo'lgan yoshlarga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha bo'lgan miqdorda subsidiya ajratish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 iyundagi 341-sonli qarori qabul qilingan. Yana shuni aytib o'tish lozimki, 2023 yilda 14-30 yoshdagi nogironligi bo'lgan yoshlar soni 121 ming 9 nafarni tashkil etgan bo'lsa, shundan 68 ming 723 nafari erkaklar, 52 ming 268 nafari ayollar; shuningdek, 11 ming 569 nafarida I guruh, 69 ming 724 nafarida II guruh, 3 ming 655 nafarida III guruh nogironligi mavjud va 36 ming 43 nafari nogironligi bo'lgan bolalardir.

Qaror talabiga muvofiq, nogironligi bo'lgan yoshlarga zamonaviy kasblarni o'rgatish, umumta'lim fanlari hamda xorijiy tillarga o'qitish, o'qish davrida yashash va transport xarajatlarini qoplab berish maqsadida subsidiya ajratish choralari ko'rilmogda va mazkur xizmatlar Yagona interaktiv davlat xizmatlari elektron portali orqali amalga oshirilmoqda. Oliy ta'limda inklyuziv ta'lim berishning zamonaviy nazariyalarini o'zlashtirish, inklyuziv ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarini tashkil etish hamda ta'lim berishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashga amal qilish;

o'qituvchi, talaba, jamoat tashkilotlari mutaxassislari, keng jamoatchilik uchun inklyuziv ta'lim bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar va ommabop nashrlar yaratish;

inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan oliy ta'lim muassasalarida xususan magistrlik darajasiga ega bo'lmoqchi bo'lgan pedagoglar uchun keng informatsion baza yaratish;

inklyuziv ta'lim sifatini mustaqil baholash tizimini shakllantirish va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan talabalar uchun qo'shimcha pedagogik ta'lim xizmatlarini yo'lga qo'yish;

Ta'lim olish uchun teng imkoniyatni yaratish va barcha insonlarning individual xususiyatlari, xohish istaklari hamda yutuqlarini inobatga olgan holda, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat'iy nazar ta'limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish esa inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning bosh maqsadi bo'lishi lozim.

XULOSA: Oliy ta'lim tizimini samarali rivojlantirishning muhim shartlaridan biri talabalarni ijodiy hamda aqliy-intellektual jihatdan rivojlantirishdan iboratdir. Nogironligi bo'lgan talabalarni ijtimoiylashuvi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon hamjamiyatida nuqsoni bo'lgan talabalarning jamiyatda teng huquqli hayot kechirishlari, ijtimoiylashuvini amalga oshirishda ularning muloqot madaniyatini shakllantirish ustida bir qancha ishlar olib borilmoqda. Nogironlarning o'ziga xos xususiyatlarini

hurmat qilish va buni insoniy turfa xillikning tarkibi va insoniyatning uzviy ajralmas bir qismi sifatida qabul qilish lozim. Hamda ularning jamiyatni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida to'laqonli ishtirok etishlarini ta'minlashning huquqiy asoslariga amal qilish darkor.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Z.N.Mamarajabova, B.Q.Subanova Inklyuziv ta'lim o'quv qo'llanma Toshkent-2022.
2. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi
3. va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil
4. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi.O'quv
5. qo'llanma.T.:O'qituvchi 2010-yil
6. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. T.:
7. Noshir 2009-yil
8. Curriculum,cultural traditions and pedagogy:understanding the work of
9. teachers in England,France and Germany 2012-y
10. R.A.Mavlonova,D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma
11. T.:Fan va texnologiya 2012-yil
12. S.Nishonova, M.Imomova, R.Xasanov. Pedagogika tarixi. Darslik
13. T.: O'qituvchi 1996-yil
14. M.Ochilov. Muallim qalb me'mori. O'quv qo'llanma T.:O'qituvchi. 2004-yil
15. N.Egamberdieva, Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi
16. O'zMKN.T.: 2009-yil.
17. Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary Schools.
18. Michael Uljens.School Didactics and Learning: A School Didactic Model
19. Framing an Analysis of Pedagogical Implications of Learning Theory 2008-y.

KREATIV FIKRLASH TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Rizoyeva Muslima Raxmonovna

Buxoro davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada kreativlik tushunchasining mohiyati, kelib chiqishi va ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. "Kreativlik" tushunchasi lotincha "create" – yaratish so'zidan olingan bo'lib, insonning noodatiy yondashuvlar, yangicha g'oyalar yaratish salohiyatini bildiradi. Maqolada Guilford, Torrens, Sternberg, Fromm, Kropley kabi olimlarning nazariyalari asosida kreativlik va intellekt o'rtasidagi murakkab bog'liqlik yoritiladi. Shuningdek, kreativlik tushunchasining ta'lim tizimidagi ahamiyati, uni rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari ham ko'rsatib o'tilgan. Maqola shaxsiy fazilat sifatida kreativlikni chuqur tahlil qilib, ijodiy faoliyatning ijtimoiy va intellektual jihatlaridagi o'zaro aloqalarni ochib beradi.

Kalit so'zlar: kreativlik, ijodkorlik, intellekt, kognitiv yondashuv, shaxsiy fazilat, ijodiy salohiyat, ijodiy fikrlash, divergent tafakkur, innovatsion yondashuv, ta'lim tizimi.

ПОНЯТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ И ЕГО ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Аннотация. В данной статье раскрывается сущность понятия «креативность», её происхождение и научно-теоретические основы. Термин «креативность» происходит от латинского слова «create» — создавать, и обозначает способность человека к нестандартному мышлению и генерации новых идей. Представлены взгляды таких учёных, как Гилфорд, Торренс, Стернберг, Фромм, Кропли, и рассматриваются сложные взаимосвязи между креативностью и интеллектом. Также подчёркивается значение развития креативного мышления в системе образования и его психолого-педагогические аспекты. Статья раскрывает креативность как важную личностную черту и анализирует её социально-интеллектуальные проявления.

Ключевые слова: креативность, творчество, интеллект, когнитивный подход, личностные качества, творческий потенциал, дивергентное мышление, инновации, образование.

THE CONCEPT OF CREATIVE THINKING AND ITS PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS

Abstract. This article explores the essence, origin, and scientific-theoretical foundations of the concept of "creativity." The term "creativity" derives from the Latin word "create," meaning to create, and refers to an individual's ability to generate new and unconventional ideas. The article reviews the theories of scholars such as Guilford, Torrance, Sternberg, Fromm, and Crompton, emphasizing the complex relationship between creativity and intelligence. Moreover, the role of creativity in the educational system and the psychological-pedagogical factors influencing its development are highlighted. Creativity is examined as a personal trait that plays a crucial role in intellectual and social activities.

Keywords: creativity, creative thinking, intelligence, cognitive approach, personal traits, creative potential, divergent thinking, innovation, education system.

Kirish. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi.

"Kreativlik" atamasi lotincha "create" - yaratishdan kelib chiqqan bo'lib, klassik ta'rifga ko'ra, inglizcha "creativity" so'zi shaxsning nisbatan barqaror xususiyati bo'lgan ijodiy salohiyat darajasini, yaratish qobiliyatini anglatadi.

Ingliz tilida "kreativlik" tushunchasining ikkita semantik varianti mavjud: creativity - ijodkorlikning o'z ma'nosida;

creative activity yoki creative work - "ijodiy faoliyat" ma'nosida.

O'zbek terminologiyasida, bu atama "ijodkorlik" so'zining sinonimi sifatida qo'llaniladi. Biroq ba'zi hollarda "kreativlik" insonning yangi, noodatiy yondashuvlar va g'oyalarni ilgari surish, mavjud muammolarga yangicha yechimlar topish salohiyatini ifodalovchi tushuncha sifatida ajratib ko'rsatiladi.

O'zbek tilida kreativlik tushunchasi ko'pincha san'at, adabiyot, dizayn, pedagogika, marketing va psixologiya sohalarida qo'llaniladi. Shu bilan birga, bu tushunchaning mazmuni faqatgina ijodiy ish bilan cheklanmasdan, balki har qanday intellektual va innovatsion faoliyatda yangi g'oyalarni ilgari surish va amalga oshirish jarayonini ham o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun inson nafaqat mavjud bilimlarga ega bo'lishi, balki ular asosida yangi g'oyalarni yaratish, mavjud sharoitga mos ravishda yangicha fikrlash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Shu sababli, "kreativlik" nafaqat san'at va adabiyot sohalarida, balki texnologiya, fan, iqtisod, hatto ijtimoiy munosabatlar doirasida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu tushuncha global miqyosda qadrlanmoqda va ijtimoiy taraqqiyotda hal qiluvchi omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunga qadar to'plangan boy materiallar kreativlik mohiyatini aniqlashning ba'zi umumiy tendentsiyalari, tamoyillari va yondashuvlarini kuzatish imkonini beradi.

Umuman olganda, kreativlikni o'rganish va tushunishning ikkita asosiy yondashuvi mavjud: kognitiv va shaxsiy.

Birinchi yo'nalishga muvofiq, kreativlikni o'rganish kognitiv jarayonlarni o'rganish bilan chambarchas bog'liq holda sodir bo'ladi. Bu sohadagi tadqiqotchilar, birinchi navbatda, kreativlik va intellekt (aql-idrok) darajasi o'rtasidagi bog'liqlik masalasini yangi narsa yaratish va allaqachon rivojlangan bilim va ko'nikmalarni egallash va qo'llash o'rtasidagi bog'liqlik muammosi sifatida ko'rib chiqadilar.

O'tgan asrning o'rtalariga qadar kreativlik intellekt bilan aniqlangan va intellektuallik koeffitsiyenti (IQ) yordamida o'lchangan. Ijodkorlik umumiy intellektdan tubdan farq qiladi

degan g'oya ilgari surilgandan va kreativlik tushunchasi kiritilgandan so'ng, ushbu hodisaning eksperimental tadqiqotlari soni sezilarli darajada oshdi va ular uchta asosiy yo'nalishda davom etdi:

- bu kabi ijodiy qobiliyatlar mavjud emas;
- ijodiy qobiliyat (kreativlik) intellektdan mustaqil omil;
- intellektning yuqori darajadagi rivojlanishi yuqori darajadagi ijodkorlikni anglatadi va aksincha.

Tabiiyki, kreativlik ta'riflarining xilma-xilligini faqat yuqorida qisqacha tavsiflangan yondashuvlar doirasida aks ettirish mumkin emas. Bu muammoga har bir olim o'ziga xos nuqtai nazarga ega.

E. Frommning fikriga ko'ra, kreativlik - bu ajablanish qobiliyati, nostandart vaziyatlarda yechim topish, yangi narsaga intilish va o'z tajribasini chuqur anglash qobiliyati.

Kropley haqiqiy kreativlikni "psevdokreativlik" va "kvazikreativlik"dan farqlash zarur deb hisoblaydi. Unga ko'ra, "psevdokreativlik" — yangilik belgisiga ega bo'lsa-da, bu faqat nonkonformizm (qoidalarga bo'ysunmaslik), intizomsizlik, mavjud narsalarni ko'r-ko'rona rad etish yoki ishni "ostin-ustun" qilib tashlash istagidan kelib chiqqan bo'ladi. Uning fikricha, bu turdagi yangilikning kreativlikka hech qanday aloqasi yo'q. "Kvazikreativlik" esa ayrim haqiqiy kreativlik elementlarini, masalan, fantaziyaning yuqori darajasini o'z ichiga oladi. Lekin bu yerda reallik bilan bog'lanish muammosi yuzaga keladi. Bu — "oyaqda turib tush ko'rish", xayoldagi kreativlik, deb ta'riflanadi [6].

Kreativlik va intellekt o'rtasidagi farqlarni birinchi bo'lib payqagan J.Gilford bo'lib, u kreativlik tushunchasini universal kognitiv ijodiy qobiliyat sifatida taklif qildi [2]. Shuningdek, u kreativlikni tavsiflovchi turli xil intellektual qobiliyatlarning bir qator omillarini aniqladi: fikrning ravonligi (individual vaqt birligida ishlab chiqishi mumkin bo'lgan g'oyalar soni), fikrning moslashuvchanligi (bir g'oyadan ikkinchisiga o'tish qobiliyati), aniqlik (o'z mahsulotini yaxshilash yoki tayyor ko'rinish berish qobiliyati) va nihoyat, o'ziga xoslik (g'oyaning o'ziga xosligini qabul qilish qobiliyati).

J. Guilfordning tadqiqotlarini davom ettirib, E.P. Torrens eksperimental ma'lumotlarga asoslangan holda "intellektual chegara nazariyasini" taklif qildi. Kreativlikni kamchiliklarni, bilimlardagi bo'shliqlarni va nomutanosiblikni keskin idrok etish qobiliyati deb tushunib, u o'zining namoyon bo'lishiga nafaqat o'ziga xos hodisalarni, balki umumiy aql bilan bevosita bog'liq bo'lgan xususiyatlarni ham o'z ichiga oladi. E.P Torrensning fikriga ko'ra, kreativlik - bu muammolarga, bilimlarning kamchiliklariga, ularning nomutanosibligini ko'rsatish, bu muammolarni aniqlash, ularning echimlarini topish, gipotezalarni sinab ko'rish va qayta sinovdan o'tkazish jarayoni [2].

Kreativlikning paydo bo'lishi davridagi asosiy tushunchalaridan biri R.Sternberg tomonidan taklif qilingan "investitsiyalar nazariyasi" deb atalardi. U kreativ odamlarni "g'oyani arzon narxda sotib olib, uni qimmatga sotish"ga qodir bo'lganlar deb hisoblagan; "arzon narxda sotib olish" noma'lum yoki mashhur bo'lmagan g'oyalar bilan ishlashni anglatadi. Muammo ularning salohiyatini baholashdir.

R.Sternberg fikricha, inson ikki holatda o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarmaydi: agar u g'oyalarni muddatidan oldin bildirsa va ularga uzoq vaqt chidamasa, shundan so'ng g'oya "eskirib qoladi". R.Sternberg fikricha ijodkorlikka quyidagilar ta'sir qiladi: aql qobiliyat sifatida, bilim, tafakkur uslubi, individual xususiyatlar, motivatsiya, tashqi muhit. Bunda intellektual qobiliyatlar asos bo'ladi, lekin muammoga yangicha qarash, qoliplardan, tashqi ta'sirlardan mustaqillik ham muhim ahamiyatga ega. Kreativlik aqlii tavakkal qilish va qarshilik va noaniqlikni engishga tayyorlikni o'z ichiga oladi.

Intelekt sohasidagi ko'pchilik mutaxassislar (G.Ayzenk, D.Veksler, L.Termen, R.Uaysberg va boshqalar) intellektning yuqori darajada rivojlanishi kreativlikning yuqori darajada rivojlanishini nazarda tutadi, deb hisoblaydilar. Ushbu nuqtai nazarning vakillari empirik tadqiqotlar natijalariga tayanadilar, ular orasida L. Termena va K. Koksa klassik ishlari mavjud.

K. Teylor nuqtai nazarida, oson va tez o'zlashtira oladigan odam boshqa odamlar tomonidan olingan bilimlardan foydalanish qobiliyati yangi bilimlarni yaratishi mumkin degani emas. Uning fikricha, iste'dod bilim olish va imtihonlardan o'tish bilan bog'liq emas, balki chegaradan tashqarida o'ylash, rejalashtirish, qaror qabul qilish qobiliyati, shuningdek, muloqot qilish, kelajakni ko'ra bilish va bashorat qilish qobiliyati bilan bog'liq.

"Intellectual chegara" gipotezasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan tasdiqlangan. Shunday qilib, butun bir ish sikli natijasida amerikalik psixologlar D. Mekkinson, F. Barron, A. Kropley kreativlik va intellekt ma'lum bir darajaga qadar bog'langan degan xulosaga kelishdi, undan yuqori kreativlik mustaqil o'zgaruvchidir.

Rus psixologiyasida kontseptual jihatdan ijodkorlik va intellektual rivojlanishning yuqori darajasi o'rtasidagi farq faqat Ya.A. Ponomarevda ko'zga tashlanadi [4], u ijodkorlikni sezgi bilan aniqlaydi va uni ratsional jarayonga qarama-qarshi qo'yadi. Kreativlikning (ijodkorlikning) mohiyati pastga tushadi, Ya.A. Ponomarev, intellektual faoliyat va o'z faoliyatining qo'shimcha mahsulotlariga nisbatan sezgirlik (sezuvchanlik). Ijodkor odam yangi narsaning yaratilishidan iborat bo'lgan yon ta'sirlarni ko'radi, ijodkor bo'lmagan odam esa faqat maqsadga erishish natijalarini (maqsadli natijalar) ko'radi, yangilikdan o'tadi. Shunday qilib, Ya.A. Ponomarev ijodiy faoliyatni "qo'shimcha mahsulot" ni aktuallashtirish jarayoni deb hisoblaydi.

D.N.Perkins [3] fikricha, har bir kasb uchun intellekt rivojlanishining pastki chegarasi mavjud. IQ darajasidan past bo'lgan odamlar bu kasbni o'zlashtira olmaydi, lekin agar IQ yuqoriroq bo'lsa, u bilan muvaffaqiyat darajasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik yo'q, shaxsiy fazilatlar va qadriyatlar asosiy rol o'ynaydi.

V.N. Drujinin [1] "intellektual diapazon" tushunchasini shakllantiradi. Uning ma'nosi shundaki, individual yutuqlar, shu jumladan ijodiy yutuqlar, birinchi navbatda, umumiy intellekt darajasi bilan belgilanadi. Yuqori intellekt ijodiy muvaffaqiyatning zaruriy shartidir, ammo insonning ijodiy chegarasiga etib borishi uning motivatsiyasi va kompetentsiyasiga bog'liq.

Boshqa tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o'rtasidagi yanada murakkab munosabatlarga ishora qilinadi. Shunday qilib, S. Mednik tomonidan yaratilgan assotsiativ ijodkorlik nazariyasi keng ma'lum bo'ldi. Bu muallifning fikricha, ijodiy jarayon ham konvergent, ham divergent komponentlarni o'z ichiga oladi. Uning fikricha, muammoning elementlari qancha uzoqda joylashgan bo'lsa, hal qilish jarayoni shunchalik ijodiy bo'ladi. Ijodiy fikrlashning mohiyati, S. Mednikning fikriga ko'ra, muayyan operatsiyada emas, balki fikr sintezining yakuniy bosqichida stereotiplarni yengish qobiliyatida, shuningdek, uyushmalar maydonining kengligida.

Kreativlikni o'rganishda kognitiv yo'nalish doirasida ko'plab tadqiqotchilar ijodiy jarayonni o'rganishga alohida o'rin ajratadilar. Kreativ jarayonning bosqichlari, davrlari va farazlari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan turlicha baholangan.

F.Barron kreativlik mezoni bo'lib xizmat qiluvchi tasavvur va timsollashni markaziy jarayon deb hisoblaydi va kreativlikka "harakatda o'z-o'zidan davom etuvchi ichki jarayon" ta'rifini kiritadi va shu nuqtai nazardan qaraganda, mahsulotning yo'qligi kreativlikning yo'qligini bildirmaydi.

Psixologiyada kreativ fikrlash inson tafakkurining yuqori bosqichi sifatida qaraladi. U quyidagi psixik jarayonlar bilan uzviy bog'liq:

- Tafakkur – muammolarni tahlil qilish va hal qilishda yangi, noodatiy yechimlarni ishlab chiqishga yordam beradi.
- Tasavvur – mavjud bo'lmagan hodisa, predmet yoki holatni ongda yaratish qobiliyati kreativlikning negizidir.
- Xotira va e'tibor – ilgari o'rganilgan bilimlar asosida yangi g'oyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.
- Emotsional holat – pozitiv ruhiy holat ijodiy faoliyat uchun qulay psixologik muhit yaratadi.

Mashhur psixolog A. Guilford kreativ fikrlashni divergent (tarqoq) tafakkur deb atagan va uni reproduktiv tafakkurdan ajratib ko'rsatgan. Divergent fikrlashda inson birgina savolga bir nechta turli javoblarni taklif qiladi, bu esa ijodkorlikka yo'l ochadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim:

- Bolalarning mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi;
- Savol-javob va muammoli vaziyatlar orqali faollikni oshiradi;
- O'yin texnologiyalari, ijodiy topshiriqlar, loyihaviy ishlardan foydalanadi;
- O'quvchi shaxsining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mos yondashuvni qo'llaydi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishda o'qituvchi (yoki tarbiyachi) ijodiy muhit yaratishi, bolalarning tashabbusini qo'llab-quvvatlashi, har qanday noodatiy g'oyani qadrlashi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Drujinin V.N. Psixologiya obchix sposobnostey /V.N. Drujinin – SPb.: Piter, 2007.
2. Gilford Dj. Tri storoni intellekta //Psixologiya mishleniya / Pod red. A.M. Matyushkina. – M., 1965. – S.433-456.
3. Perkins D.N. Tvorcheskaya odarennost kak psixologicheskoe ponyatie /D.N. Perkins //Obchestvennye nauki za rubejom. R.J. Ser. Naukovedenie. 1988, №4. S.88-92
4. Ponomarev Ya.A. Psixologiya tvorchestva / Ya.A. Ponomarev // Tendentsii razvitiya psixologicheskoy nauki. M.: Nauka, 1988. S.21-25
5. Psixologiya tvorchestva: obchaya, differentsirovannaya, prikladnaya / Otv. red. Ye.A. Ponomarev. – M.: Nauka. – 1990.
6. Sabanchieva R.Z. Akmeologicheskie faktori produktivnoy deyatel'nosti prepodavatelya v razvitiy tvorcheskoy gotovnosti studentov k professional'noy deyatel'nosti: Avtoref. dis... kand. psix. nauk. / R.Z. Sabanchieva: S-Peterburgskiy gos. un-t. – Spb, 2004.

ВОЗДЕЙСТВИЕ ЗАДАНИЙ TIMSS НА КОГНИТИВНЫЕ СПОСОБНОСТИ УЧЕНИКОВ ЧЕТВЁРТЫХ КЛАССОВ.

Алимова А.Н.

*Магистр Бухарского государственного педагогического института
+998904121262 alimovaanastasia46@gmail.com*

Аннотация. В этой статье рассматриваются вопросы о том, как можно изменить подход к обучению математики в начальной школе, используя задания TIMSS. Также обсуждены значение международного исследования TIMSS в современном мире.

Ключевые слова: мышление, тестовые вопросы, международное исследование, дифференциальный подход, блок.

Annotation. This article examines how TIMSS assignments can change the way mathematics is taught in primary schools. It also discusses the significance of the international TIMSS study in the modern world.

Keywords: thinking, test questions, international research, differential approach, block.

Annotatsiya. Ushbu maqola TIMSS topshiriqlari boshlang'ich maktablarda matematikani o'qitish usulini qanday o'zgartirishi mumkinligini ko'rib chiqadi. Shuningdek, zamonaviy dunyoda xalqaro TIMSS tadqiqotining ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: fikrlash, test savollari, xalqaro tadqiqotlar, differentsial yondashuv, blok.

Исследование влияния заданий TIMSS (Программа международной оценки участников в области математики и естественных наук) на когнитивные способности учеников четвёртых классов представляет собой важную тему в области образовательной психологии и педагогики. TIMSS направлена на оценку уровня знаний и умений учащихся в области математики и науки, а также на выявление факторов, влияющих на их успех.

Задания TIMSS часто требуют от учеников не только знания фактов, но и умения анализировать, сравнивать и делать выводы. Это способствует развитию критического мышления и аналитических умений. [1] Задания по математике в TIMSS охватывают различные темы и подходы, что помогает учащимся развивать математические навыки, включая решение задач, работу с графиками и понимание числовых данных.

Участие в TIMSS позволяет школьникам столкнуться с заданиями, которые соответствуют международным образовательным стандартам. Это помогает им развивать навыки, необходимые для обучения в глобализованном мире. Участие в международных оценках может повысить мотивацию учеников к обучению, так как они видят, что их знания сравниваются с результатами сверстников из других стран.

Результаты TIMSS могут использоваться для анализа сильных и слабых сторон образовательной системы. Это может помочь в разработке курсов, которые лучше соответствуют потребностям учеников.[2] На основе полученных данных учителя и администраторы могут корректировать учебные планы и методы обучения, чтобы улучшить результаты учеников. Также это может служить основой для повышения квалификации учителей, помогая им лучше понять, какие методы и подходы наиболее эффективны.

Чтобы полностью понять, как задания TIMSS влияют на мышление учеников начальной школы, нужно сначала разобраться, что такое мышление. Это процесс, который позволяет нам воспринимать и понимать окружающий мир во всём его многообразии. Мы создаём представления о предметах и явлениях, находим логические связи между ними и решаем задачи. И всё это происходит благодаря способности абстрагироваться от конкретных деталей. Учитель может развивать мышление учеников разными способами: через дидактические игры, конкурсы или индивидуальные задания. [4] В то же время, вопросы теста TIMSS могут охватывать все эти аспекты. Таким образом, использование заданий международного исследования TIMSS на уроках может способствовать развитию творческого мышления у учеников четвёртых классов.

Это исследование позволяет сопоставить уровень математической подготовки и знаний в области естественных наук у учеников четвёртых и восьмых классов в разных странах. Вопросы и задания теста TIMSS основаны на следующих принципах: [2]

- задания и информация на основе учебно-познавательной деятельности;
- схожее содержание заданий стран, которые принимают участие в исследовании;
- контроль информации в математическом и естественнонаучном блоке;
- соответствие возрастных возможностей участников и предоставляемых тестовых вопросов.

Такие задачи способствуют развитию творческого мышления учеников и стимулируют их интерес к урокам математики и естественных наук. Кроме того, они представляют собой пример индивидуальных заданий, адаптированных к уровню успеваемости учащихся на уроках математики. [5]

В работе с учениками учителю следует уделить особое внимание разделу «Числа». В этот раздел входят: понимание значения цифр, десятичных и обыкновенных дробей; запись многозначных чисел; базовые навыки работы с натуральными числами; способы их представления; установление связей между ними; выполнение арифметических действий и многое другое. При выполнении подобных заданий ученики должны понимать взаимосвязь между единицами измерения и уметь преобразовывать одну единицу измерения в другую. [2] Для школьников основополагающими являются знания о натуральных числах, поскольку все задачи связаны именно с ними.

Чтобы полноценно погрузиться в среду международного исследования TIMSS, на уроках необходимо провести анкетирование среди учащихся, учителей, родителей и администрации школы. Полученные данные могут стать ценным источником информации для выявления факторов, влияющих на результаты тестирования и объясняющих уровень знаний школьников в области математики и естественных наук. Кроме того, использование современных информационных технологий в сочетании с выполнением заданий TIMSS в процессе обучения может быть полезным. [3]

При разработке заданий для TIMSS педагог должен учитывать ряд критериев, которые позволяют создать целостную картину при выборе заданий для учеников четвёртых классов:

-
- точное взаимодействие принципов проверки содержания тестов;
 - значимость проверяемого материала с точки зрения математического и естественнонаучного образования;
 - соответствие с возрастными и психологическими возможностями детей.

Для оценки уровня знаний школьников по математике разрабатываются различные виды заданий: открытые, закрытые, с выбором одного или нескольких вариантов ответа, требующие краткого или развёрнутого ответа, а также логические и мыслительные упражнения. Чтобы дать более точную оценку, учителю следует использовать дифференцированный подход, который предполагает выделение четырёх уровней учебных достижений: низкого, среднего, высокого и высшего. Также важно соблюдать временные ограничения, не превышая допустимые рамки.

Таким образом, задания TIMSS оказывают значительное влияние на когнитивные способности учеников четвёртых классов, способствуя развитию критического мышления, улучшению математических и научных навыков. Использование результатов TIMSS в образовательной практике может помочь в совершенствовании учебного процесса и повышении качества образования.

Использованная литература:

1. Алимова А. Н. TIMSS: международное исследование и его влияние на мышление школьников 4-х классов. ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH ISSN: 2181-1709 (P) ISSN: 2181-1717 (E) 2024 № 2
2. Касимов Ф.М. Алимова А.Н. TIMSS: Математические задания для 4 классов УДК 510.2 (076.1) 22.1я7 К 28– Бухара: Sadriddin Salim Buxoriy, 2024-96 с. ББК 22.1я7 ISBN 978-9910-04-482-3
3. Касимов Ф.М. Алимова А.Н. РАЗВИТИЕ МЫШЛЕНИЕ ШКОЛЬНИКОВ ПРИ ВЫПОЛНЕНИИ ЗАДАНИЙ TIMSS BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ISSN – 2181-4201 TA’LIM TRANSFORMATSIYASI ILMIY – METODIK JURNAL № 1 BUXORO – 2024 «DURDONA» NASHRIYOTI ILMIY – METODIK JURNAL TAHRIR HAY’ATI TARKIBI
4. Касимов Ф.М. Касимова М.М. Специфические принципы построения системы учебных задач. Международная научная практическая конференция. Россия, г. Новосибирск. 2016.
5. Саидова М.Ж. Алимова А.Н. THE METHODOLOGY OF DEVELOPING CREATIVE THINKING IN 4TH GRADE STUDENTS BY COMPLETING TIMSS TASKS WEB OF HUMANITIES Journal of Social Science and Humanitarian Research Volume 2 , Issue 5 May , 2024

ZAMONAVIY PEDAGOGIK KOGNITIV YONDASHUVLARDA ASOSIY PSIXIK JARAYONLAR, FUNKSIYALAR VA MEKANIZMLAR

Abdiraimova Gulrux

*Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti e-mail: gulruhabdiraimova@gmail.com
+99899-331-32-12 UDK 371 (045) <https://orcid.org/0009-0007-7766-6336>*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy kognitiv nazariyalar va neyropsixologik qarashlar asosida inson ongining asosiy jarayonlari — diqqat, xotira, fikrlash, motivatsiya va ijodiy fikrlash tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor neyrofanda va kognitiv psixologiyada so’nggi yillarda erishilgan yutuqlar ushbu kognitiv faoliyat komponentlarini qanday tushunishga hissa qo’shayotganiga qaratilgan. Maqolada klassik kognitiv modellar (masalan, axborotni qayta ishlash modeli, sxema nazariyasi) va neyropsixologik dalillar (masalan, miya tasvirlari, funksional lokalizatsiya) uyg’unlashtirilib, bilim olish, muammolarni hal qilish va innovatsiyani qo‘llab-quvvatlaydigan kognitiv jarayonlar yoritiladi.

Kalit soʻzlar: kognitiv psixologiya, neyropsixologiya, diqqat, xotira, fikrlash, motivatsiya, ijodiy fikrlash, miya funksiyalari, kognitiv modellar

ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ ПСИХИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ, ИХ ФУНКЦИИ И МЕХАНИЗМЫ В СОВРЕМЕННЫХ КОГНИТИВНЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДАХ

Аннотация. В данной статье анализируются основные процессы человеческого сознания — внимание, память, мышление, мотивация и креативное мышление — с позиции современных когнитивных теорий и нейропсихологических взглядов. Основное внимание уделяется тому, как достижения последних лет в области нейронаук и когнитивной психологии способствуют более глубокому пониманию указанных компонентов когнитивной активности. В статье сочетаются классические когнитивные модели (например, модель обработки информации, теория схем) и нейропсихологические данные (например, нейровизуализация, функциональная локализация), что позволяет раскрыть механизмы познания, решения проблем и развития инновационного мышления.

Ключевые слова: когнитивная психология, нейропсихология, внимание, память, мышление, мотивация, креативное мышление, функции мозга, когнитивные модели.

CORE MENTAL PROCESSES, FUNCTIONS, AND MECHANISMS IN MODERN PEDAGOGICAL COGNITIVE APPROACHES

Abstract. This article analyzes the core processes of human consciousness — attention, memory, thinking, motivation, and creative thinking — through the lens of contemporary cognitive theories and neuropsychological perspectives. The main focus is on how recent advancements in neuroscience and cognitive psychology have contributed to a deeper understanding of these components of cognitive functioning. The article integrates classical cognitive models (such as the information processing model and schema theory) with neuropsychological evidence (including brain imaging and functional localization) to elucidate the cognitive mechanisms that underpin learning, problem-solving, and innovation.

Keywords: Cognitive psychology, neuropsychology, attention, memory, thinking, motivation, creative thinking, brain functions, cognitive models.

Kirish. XXI asrda kognitiv psixologiya va neyropsixologiyaning uygʻunlashuvi inson ong faoliyatining chuqur tushunilishiga olib keldi. Diqqat, xotira, fikrlash, motivatsiya va ijodkorlik kabi asosiy kognitiv komponentlar endilikda alohida oʻrganilmaydi, balki ular bir-biriga bogʻliq va murakkab miya funksiyalariga asoslangan tizimlar sifatida koʻriladi. Bunday yondashuv tadqiqotchilar va pedagoglarga bilim olish, innovatsiya va terapiya jarayonlarida inson kognitiv imkoniyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Zamonaviy kognitiv nazariyalar — axborotni qayta ishlash, sxema nazariyasi (Bartlett, 1932) va konstruktivizm (Piaget, 1950) — odamlar qanday qilib maʼlumotni qabul qilish, saqlash va undan foydalanishini tushuntirishga urinadi. Shu bilan birga, neyropsixologik tadqiqotlar bu jarayonlarni FMRT va EEG kabi usullar yordamida maʼlum miya strukturalariga bogʻlaydi.

Ushbu maqola kognitiv va neyropsixologik nuqtai nazarni beshta asosiy aqliy funksiyalar — diqqat, xotira, fikrlash, motivatsiya va ijodiy fikrlash — doirasida birlashtirish, ularning umumiylik va farqlarini aniqlash, hamda taʼlim, ijodkorlik va aqliy rivojlanishdagi ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan.

Metodlar. Ushbu kontseptual maqola kognitiv psixologiya va neyropsixologiya sohalaridagi ilmiy maqolalar tahliliga asoslangan. Maʼlumotlar quyidagi manbalardan olindi:

- ✓ ilmiy bazalar: PubMed, APA PsycNet va Google Scholar
- ✓ asosiy mualliflarning asarlari: R. Gagné, D. Kahneman, H. Gardner, R. Sternberg
- ✓ zamonaviy kognitiv modellar va neyrovizualizatsiya natijalari taqqosiy tahlili

Tanlov mezonlari quyidagilarni oʻz ichiga oldi: 2000–2024 yillarda chop etilgan, hakamlikdan oʻtgan maqolalar, inson kognitsiyasi va miya mexanizmlarini yorituvchi asarlar, psixologiya va neyrofanlarning integratsion yondashuvlari

Natijalar. Diqqat. Zamonaviy tadqiqotlar diqqat — bu cheklangan resurs boʻlib, u pastdan yuqoriga (stimulyatsiyaga asoslangan) va yuqoridan pastga (maqsadga yoʻnaltirilgan) jarayonlar

orqali boshqarilishini ko'rsatmoqda. Prefrontal korteks va parietal sohalar selektiv va barqaror diqqatda muhim rol o'ynaydi.

Xotira. Kognitiv nazariyalar xotirani sensor, qisqa muddatli (ishchi) va uzoq muddatli shakllarga ajratadi. Neyropsixologik izlanishlar gipokampni epizodik xotira bilan, prefrontal hududlarni esa ishchi xotiraning ijroi nazorati bilan bog'laydi.

Fikrlash. Fikrlash — bu tahlil qilish, xulosa chiqarish, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ikkilik jarayon nazariyasi (Kahneman, 2011) tez (intuitiv) va sekin (analitik) fikrlashni farqlaydi. Frontal korteks mantiqiy fikrlash va mavhum tushunchalarga javobgardir.

Motivatsiya. Motivatsiya asosan limbik tizim faoliyatiga asoslangan bo'lib, ayniqsa amigadala va nukleus akkumbens muhim rol o'ynaydi. Ichki motivatsiya "o'z-o'zini belgilash nazariyasi" (Deci & Ryan, 2000) orqali tushuntiriladi, tashqi motivatorlar esa mukofot tizimlarini faollashtiradi.

Ijodiy fikrlash. Ijodiy fikrlash divergent (turli yo'nalishda) va konvergent (aniq echimga olib keluvchi) fikrlashni birlashtiradi. Bu jarayonda "default mode network" (DMN) va ijroi tarmoq birgalikda ishlaydi. Ijodkorlik kognitiv moslashuvchanlik, ilhom va assotsiativ fikrlash bilan bog'liq.

Munozara. Kognitiv va neyropsixologik yondashuvlarning integratsiyasi inson tafakkurini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Diqqat, xotira va fikrlash o'zaro bog'liq bo'lib, murakkab miya tizimlariga tayangan. Motivatsiya esa harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi, ijodkorlik esa barcha oldingi jarayonlarning yuqori tartibli sintezidir.

Bunday birlashgan yondashuv ta'lim va kognitiv mashg'ulotlar sohasida ayniqsa muhimdir. Miya asosidagi mexanizmlarni tushunish ta'lim strategiyalarini samarali loyihalash, motivatsiyani kuchaytirish va ijodni rag'batlantirish imkonini beradi. Masalan, ijroi funksiyalarni rivojlantirish uchun prefrontal korteksni faollashtiruvchi mashg'ulotlar, ijodkorlikni rag'batlantirish uchun esa ochiq yakunli topshiriqlar tavsiya etiladi.

Xulosa. Kognitiv va neyropsixologik qarashlarni birlashtirish inson aqliy faoliyatining asosiy jarayonlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu nazariy yondashuvlarni ta'lim, terapiya va sun'iy intellekt sohalarida amaliy qo'llashga qaratilishi lozim. Nazariya va neyrobiologik dalillarni uyg'unlashtirish orqali biz kognitiv rivojlanishni turli kontekstlarda samarali qo'llab-quvvatlashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky L.S. "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes". Harvard University Press, 1978.
2. Piaget J. "The Origins of Intelligence in Children". Norton, 1952.
3. Anderson, J.R. "Cognitive Psychology and Its Implications". Worth Publishers, 2005.
4. Bruner J. "The Process of Education". Harvard University Press, 1960.
5. Sweller J. "Cognitive Load Theory, Learning Difficulty, and Instructional Design". Learning and Instruction, 1994.
6. Mayer R.E. "Multimedia Learning". Cambridge University Press, 2001.
7. Neisser U. "Cognitive Psychology". Appleton-Century-Crofts, 1967.
8. Novak J.D. "Learning, Creating, and Using Knowledge: Concept Maps as Facilitative Tools in Schools and Corporations". Routledge, 2010.
9. "Cognitive Activity: Philosophical Analysis, Psychological and Pedagogical Characteristics" - Ekaterina Korobova, Irina Kardovich, Marina Konysheva and Dina Mironova. Plekhanov Russian University of Economics, Moscow, Russian Federation. Russian University of Transport (RUT-MIIT), Institute of Legal Studies, Moscow, Russian Federation
10. I.B. Korotyaeva, Business game as a means of developing cognitive and professional interests of students, Author's abstract, dis. Cand. ped. Sciences, (Kiev, 1989).
11. T.I. Shamova, Activation of the teaching of schoolchildren (M., Ped-ka, 1982)
12. G.Abdiraimova ilmiy maqola "Uzviylik va izchillik prinsiplari asosida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish." XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI. 2022. 104-108-b

13. G.Abdiraimova Nurturing critical thinkers: approaches and activities for building critical thinking skills in primary students. international journal of artificial intelligence vol. 4 no. 02 (2024): volume 04 issue 02

14. G.Abdiraimova MODELS OF ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS ACCORDING TO THE PRINCIPLES OF CONSISTENCY AND CONTINUITY THE PROCESS OF STUDENTS' LEARNING

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Raxmatova Gulasal Nasillo qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning ahamiyati yoritiladi hamda bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasi (AQSh, Finlandiya, Singapur) asosida samarali metodlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xorijiy yondashuvlarni O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, tanqidiy tafakkur, xorijiy tajriba, muammoli o'qitish, mustaqil fikrlash, Finlandiya modeli, Singapur tajribasi, P4C dasturi.

THE IMPORTANCE OF USING FOREIGN EXPERIENCES IN DEVELOPING CRITICAL THINKING AMONG PRIMARY SCHOOL PUPILS

Abstract. This article highlights the importance of developing critical thinking among primary school students and examines effective methods based on the experiences of foreign countries (USA, Finland, Singapore). It also analyzes the possibilities of adapting these international approaches to the educational system of Uzbekistan.

Keywords: primary education, critical thinking, foreign experience, problem-based learning, independent thinking, Finnish model, Singaporean approach. P4C.

ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. В статье подчеркивается важность развития критического мышления у учащихся начальной школы и рассматриваются эффективные методы на основе опыта зарубежных стран (США, Финляндия, Сингапур). Также анализируются возможности адаптации зарубежных подходов к системе образования Узбекистана.

Ключевые слова: начальное образование, критическое мышление, зарубежный опыт, проблемное обучение, самостоятельное мышление, финская модель, опыт Сингапура, программа P4C.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni hamda Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasida ta'kidlanganidek, o'quvchilarni mustaqil, mantiqiy, tanqidiy fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, ularga fan asoslarini chuqur o'rgatish hozirgi zamon boshlang'ich ta'limining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradigan, fikrlashga undaydigan, kerak bo'lsa o'z tanqidiy fikrini bemalol bildiradigan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari ishlab chiqilgan. Ushbu usullardan samarali foydalanish bugungi kun pedagog xodimlari oldida turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim sohasida yangicha yondashuvlar, innovatsion metodlar va ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'limda ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali shaxs sifatida

shakllanish bosqichida bo'lganliklari uchun ularda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish nihoyatda muhimdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi hali hayotiy tajribaga ega emas, ammo u o'z atrofini kuzatadi, savollar beradi va ularni hal qilishga harakat qiladi. Ana shu jarayonni samarali yo'lga qo'yish uchun pedagogik texnologiyalardan foydalanish lozim bo'ladi. Bu texnologiyalar orqali o'quvchilar o'ylashga, bahslashishga, fikr bildirishga, muammoni har xil yo'l bilan hal qilishga o'rganadi. Masalan, "bosh miya hujumi" usuli orqali o'quvchilar berilgan mavzu yuzasidan fikrlarini to'g'rimi, noto'g'rimi deb baholamasdan erkin ifoda etadilar. Bu esa ularning o'ziga ishonchini oshiradi va ijodiy tafakkurga yo'l ochadi.

O'quvchilarga tanqidiy fikrlash uchun eng avvalo, ularning o'zlari mas'ul ekanliklarini anglatish lozim. Pedagogning vazifasi tanqidiy fikrlashni rag'batlantirib turuvchi muhitni yaratishdangina iborat bo'ladi.

Tanqidiy fikrlashni paydo qilish uchun quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

- o'quvchida o'ziga xos nuqtai-nazarni paydo qilish;
- bir fikrdan boshqasining afazalligini asoslash mahorati;
- murakkab muammolarni yechish mahorati;
- bahsni dalillab olib borish;
- yagona fikrni ishlab chiqish uchun birgalikda ishlash mahorati;
- hayotiy tajribaning qarashlar va tasavvurlarga ta'sirini o'rganish.

Tanqidiy tafakkur — bu bolaning voqea-hodisalarga faqat yuzaki qarab qolmasdan, chuqur o'ylashi, savollar berishi, muammoning sababi va oqibatini tushunishga intilishi, o'z fikrini asoslay olishi demakdir. Bugungi kunda ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri — bolani tayyor bilim egasi emas, balki izlanadigan, o'rganuvchi va o'z fikrini shakllantira oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdir.

Tanqidiy tafakkurni shakllantirish o'qituvchidan katta mas'uliyat talab qiladi. Har bir savol, har bir topshiriq bolani o'ylantiradigan, izlanishga undaydigan bo'lishi kerak. O'quvchining "nega?", "qanday?", "agar shunday bo'lsa-chi?" kabi savollar berishi, o'z javobini dalillashi, boshqa fikrlarni tahlil qilishi uchun qulay muhit yaratilishi lozim. Shu yo'l bilan o'qituvchi bolani tayyor fikrlarni qabul qiluvchi emas, balki o'z qarashlariga ega shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Xorijda tanqidiy tafakkurni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi va bu borada ilg'or pedagogik texnologiyalar keng qo'llaniladi. Quyida AQSH, Finlandiya, Singapur tajribalari bilan tanishamiz::

AQSh tajribasi. Amerika Qo'shma Shtatlarida tanqidiy tafakkur ta'limning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Maktablarda "muammoli o'qitish" (problem-based learning) keng qo'llaniladi. Bu usulda o'quvchilarga real hayotdagi muammolar taqdim etiladi va ular mustaqil guruhlarda muhokama qilib, turli echimlar ishlab chiqadilar. Shuningdek, "loyiha asosida o'rganish" (project-based learning) orqali o'quvchilar izlanish olib boradilar, dalillarga asoslangan fikr bildiradilar. Shu bilan bir qatorda AQSHda o'quvchilarda chuqur tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uchun Visible Thinking Routines, Thinking Maps singari o'quv dasturlaridan ham keng foydalaniladi.

Finlandiya tajribasi. Finlandiya ta'lim tizimi dunyoda eng ilg'or tizimlardan biri hisoblanadi. Bu yerda o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Darslar mobaynida o'quvchilar mustaqil izlanadi, tajribalar o'tkazadi, savol-javoblarda faol ishtirok etadi. O'qituvchilar esa o'quvchilarning har bir fikrini qadrlaydi va ularni rag'batlantiradi. Finlandiyada baholash tizimi ham rag'batlantiruvchi xarakterga ega bo'lib, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Singapur tajribasi. Singapurda esa "XXI asr ko'nikmalari" konsepsiyasi asosida ta'lim tashkil etilgan bo'lib, bu ko'nikmalar orasida tanqidiy fikrlash muhim o'rin tutadi. Maktablarda o'yinli usullar, fikr xaritalari, infografikalar, grafikalar asosida tahlil qilish mashqlari keng qo'llaniladi. Bolalar dars davomida savollar beradi, izlanadi, bir-birining fikrini tahlil qiladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, xorijda boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish faqatgina ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan chegaralanib qolmaydi.

Turli xil platformalar, o'quv dasturlari orqali ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilgan. Masalan, P4C dasturi.

Philosophy for Children (P4C) dasturi bolalarda tanqidiy, mantiqiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan ta'lim dasturidir. Ushbu dastur 1970-yillarda amerikalik faylasuf va pedagog Matthew Lipman tomonidan ishlab chiqilgan. Dastur asosan maktab yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, ular orasida muloqot va fikr almashinuvi orqali falsafiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan.

Dastur maqsadlari:

1. Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish: bolalarni muammolarni tahlil qilish, savollar berish va muqobil yechimlarni ko'rib chiqishga o'rgatish.

2. Ijodiy fikrlashni rag'batlantirish: bolalarni yangi va noan'anaviy fikrlarni ilgari surish va yangi g'oyalar yaratishga undash.

3. Mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: bolalarni dalillarni tahlil qilish, asoslantirilgan xulosalar chiqarish va o'z fikrlarini mantiqan asoslashga o'rgatish.

4. Aloqa va muloqot ko'nikmalarini oshirish: Bolalarni o'z fikrlarini aniq va ravon ifoda etish, boshqalarni tinglash va fikrlarini hurmat qilishga o'rgatish.

P4C dasturining afzalliklari:

- bolalarda tabiat va atrofdagi dunyo haqida qiziquvchanlikni oshiradi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish va himoya qilish orqali bolalarda o'ziga bo'lgan ishonch ortadi.

- jamoaviy muloqot va hamkorlik orqali bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanadi;

- o'zgacha fikrlashga nisbatan bag'rikenglik rivojlanadi;

- o'quvchilarning savol berish madaniyati shakllanadi;

- o'z fikrini asoslash, dalillash ko'nikmasi mustahkamlanadi.

Philosophy for Children (P4C) dasturi hozir ham mavjud va butun dunyo bo'ylab keng qo'llanilmoqda. Bu dastur ko'plab maktablarda va ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda va o'qituvchilar hamda pedagoglar tomonidan bolalarda tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun foydalanilmoqda. Bu dasturning hozirgi kunda tarqalish darajasi quyidagicha:

1. Xalqaro tarqalish: P4C dasturi AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya va ko'plab Yevropa mamlakatlari kabi turli davlatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Har bir mamlakatda dastur o'ziga xos tarzda moslashtirilgan va milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilingan.

2. Tadqiqotlar va resurslar: P4C dasturini qo'llab-quvvatlash uchun ko'plab tadqiqotlar o'tkazilmoqda va yangi resurslar yaratilmoqda. Ushbu tadqiqotlar bolalarda tanqidiy va ijodiy tafakkur ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatmoqda.

3. O'qituvchilarni tayyorlash: P4C dasturini samarali amalga oshirish uchun o'qituvchilar va pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o'tishadi. Ushbu tayyorgarlik dasturlari orqali ular bolalarda tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodlarni o'rganishadi.

4. Onlayn resurslar: Hozirgi kunda P4C dasturiga oid ko'plab onlayn resurslar mavjud. Bu resurslar o'qituvchilar va ota-onalar uchun mashg'ulotlar, qo'llanmalar va metodik materiallarni o'z ichiga oladi. Masalan, "The Philosophy Foundation" va "SAPERE" kabi tashkilotlar P4C bo'yicha resurslarni taklif etadi.

5. Konferensiyalar va seminarlari: P4C bo'yicha xalqaro konferensiyalar va seminarlar muntazam o'tkazilib, tajriba almashinuvi va yangi metodik yondashuvlar muhokama qilinadi. Bu tadbirlar pedagoglar va tadqiqotchilar uchun yaxshi platforma bo'lib xizmat qiladi.

P4C dasturi hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib, bolalarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda katta rol o'ynamoqda. Bu dastur orqali bolalar nafaqat o'z fikrlarini ifoda etish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki jamiyatda faol va ongli fuqaro bo'lish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ko'nikmalarni ham o'zlashtiradilar.

O'zbekiston ta'lim tizimiga xorijiy tajribalarni moslashtirish imkoniyatlari. Xorijiy yondashuvlarni o'zbek ta'lim tizimiga tatbiq qilishda mahalliy mentalitet, mavjud infratuzilma va pedagoglarning tayyorgarlik darajasi hisobga olinishi zarur. Quyidagi yondashuvlarni amaliyotga tatbiq qilish mumkin:

- darslarda guruhli ishlar va erkin munozaralar tashkil etish;
- o'quvchilarni mustaqil izlanishga undaydigan savollar berish;
- tanqidiy fikrni rivojlantiruvchi materiallar (jadval, diagramma, grafik, onlayn platformalar, dasturlar)dan foydalanish;
- har bir mavzuga oid muammoli vazifalar tayyorlash;
- o'yin texnologiyalarini joriy etish.

Shuningdek, o'qituvchilarning tanqidiy tafakkurga oid bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha malaka oshirish kurslarini yo'lga qo'yilsa, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik tanqidiy fikrlash singari ko'nikmalarni rivojlantirishda anchagina samarali yutuqlarga erishish mumkin..

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkurni shakllantirish ularning shaxs sifatida rivojlanishiga, mustaqil fikr yurita olishiga, har qanday holatga ongli yondasha olishiga xizmat qiladi. Xorijiy tajribalarni o'rganish va ular asosida milliy model yaratish O'zbekiston ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Pedagoglar bu borada asosiy vositachilar sifatida o'z ustida muntazam ishlashlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бахарева С.Э., Сайдакова Л.А., Смолеусова Т.В. О возможности и необходимости обучения «РКМЧП» в системе ИПК // Технология РКМЧП в вузе. Перспективы для школьного образования XXI века: Материалы международной научно-практической конференции. — М., 2001.
2. Заир-Бек С.И., Муштавинская И.В. Развитие критического мышления на уроке: Пособие для учителя. — М., 2004.
3. Кларин М.В. Развитие критического и творческого мышления // Школьные технологии. — 2004. — № 2.
4. Примерная программа по математике. — М. 2009.
5. Смолеусова Т.В., Венедиктова Е.И. Технология РКМЧП на уроке математики для реализации требований ФГОС НОО // Сибирский учитель. — 2013. — № 4.
6. Смолеусова Т.В. Математика в схемах и таблицах. Справочник для учителя начальной школы. — Самара, 2004.
7. Смолеусова Т.В. Время методических инноваций // Начальная школа. — 2014. — № 2. — С. 78–83.
8. Федеральный государственный образовательный стандарт начального общего образования. — М., 2014.
9. Фундаментальное ядро содержания общего образования. — М., 2009.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARS JARAYONINI KREATIVLIK ASOSIDA TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Xalilova Zilola Zamirovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi

Jumaqulova Nargiza Renatovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM talabasi.

E-mail: xalilovazilola076@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kreativlik tamoyillariga tayanib, boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini tashkil etishning nazariy hamda amaliy xususiyatlari tahlil qilinadi. Darsni rejalashtirishda interfaol usullar, o'yin va loyihaviy faoliyat, muammobreniy yondashuvlar kombinatsiyasining samaradorligi ko'rsatib o'tiladi. Maqolada o'qituvchining roli, qulay pedagogik muhit yaratish, darsda o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish usullariga e'tibor beriladi. Empirik tadqiqotlar asosida dars o'quvchilarning faolligi, o'z-o'zini baholashi va olgan bilimlarining mustahkamligi bo'yicha ijobiy natijalar keltiriladi. Xulosa sifatida, kreativ dars metodlari boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim omil ekanligi qayd etiladi.

Kalit so'zlar: kreativlik, boshlang'ich sinf, interfaol metod, ijodiy salohiyat, pedagogik muhit.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСТВА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В статье анализируются теоретические и практические особенности организации учебного процесса в начальных классах на основе принципов творчества. Показана эффективность сочетания интерактивных методов, игровой и проектной деятельности, проблемного подходов в планировании урока. В статье особое внимание уделено роли учителя, созданию благоприятной педагогической среды, методам развития творческого потенциала учащихся на уроке. На основе эмпирического исследования представлены положительные результаты по показателям активности учащихся, самооценки и системности их знаний. В заключении отмечается, что креативные методы обучения являются важным фактором повышения качества начального образования.

Ключевые слова: творчество, начальная школа, интерактивный метод, творческий потенциал, педагогическая среда.

PEDAGOGICAL FEATURES OF ORGANIZING THE LESSON PROCESS ON THE BASIS OF CREATIVITY IN PRIMARY GRADES

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical features of organizing the educational process in primary grades based on the principles of creativity. The effectiveness of a combination of interactive methods, game and project activities, and problem-based approaches in lesson planning is demonstrated. The article focuses on the role of the teacher, creating a favorable pedagogical environment, and methods for developing students' creative potential in the lesson. Based on empirical research, positive results are presented in terms of students' activity, self-assessment, and the consistency of their knowledge. In conclusion, it is noted that creative teaching methods are an important factor in improving the quality of primary education.

Keywords: creativity, primary school, interactive method, creative potential, pedagogical environment.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim sohasidagi islohotlar ichida boshlang'ich ta'limni sifatli tashkil etish, uning kreativlik asosida yangicha shakllarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha va boshlang'ichta'lim yoshidagi o'quvchilar uchun o'quv jarayonini interfaol, qiziqarli va ijodiy usullar bilan boyitish ularning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishda beqiyos rol o'ynaydi. Yosh bola tabiatan kashfiyotchan, muzokaralarsiz fikrlashga moyil bo'lib, aynan boshlang'ich sinflarda kreativ muhit yaratilishi orqali bu qarashlar samarali rivojlanadi. Kreativ yondashuvning asosiy vazifalaridan biri — o'quv jarayonini passiv bilim uzatishdan ko'ra, o'quvchini bilimni mustaqil kashf etish jarayoniga jalb etish, muammolarni hal qilish, yangi metod va formalarni o'ylab topish kabi faoliyatlar orqali o'rganishni yo'lga qo'yishdir. Ayniqsa interfaol metodlar, o'yin va loyihaviy ta'lim orqali boshlanadigan darslar bolaning fikrlash sezgirligini, ijodiy energiyasini uyg'otadi, o'z-o'zini baholash va muvaffaqiyatga bo'lgan ishonchni shakllantiradi.

Shu nuqtai nazarda, maktabda pedagogning kreativ yondashuvi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik ijodkorlik darsda yangi yondashuvlar, metodlar va maqsadlar orqali har bir bolaning individual xususiyatlariga e'tibor qaratib, universal pedagogik muhitni shakllantiradi. Bu esa dars jarayonini o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan mustahkam, chuqur va barqaror tizimga aylantiradi.

Shuni hisobga olgan holda, quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi: Kreativlik tamoyillarining pedagogik asoslari va ularning ta'lim jarayonida ahamiyati; Boshlang'ich sinflarda kreativ metodlar (interfaol uslub, o'yin, loyiha va muammobreniy tadbirlar)ni tatbiq etish yo'nalishlari; O'qituvchi hamda pedagogik muhitning rollari, shuningdek o'quvchilarning ijodiy salohiyatini mustahkamlash usullari; Bu yondashuvlarning sinovdan o'tkazilgan ta'siri va amalga oshirishga oid tavsiyalar. Maqolada nazariy tahlillar bilan bir qatorda amaliy misollar va ilmiy-adabiy manba tahlillari keltiriladi, bu esa kreativ dars metodlarining boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyatini yoritishda muhim asos bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Ko'plab rus va xalqaro manbalarda boshlang'ich sinflardagi ijodiy faoliyatga asoslangan metodik yondashuvlar – interfaol metodlar, muammobreniy yondashuv, o'yinlar va loyiha ishlari keng tavsiya etiladi. Masalan, V. V.

Sardaeva (2019) shuni ta'kidlaydiki, pedagogik muhitni yaratish va o'quvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish uchun darsdan tashqari faoliyatlar ham samarali. Shuningdek, G. Gogoleva (2021) vakillaridan biri ijodiy topshiriqlarni alohida fanning – masalan, adabiy o'qish – kontekstida ishlab chiqish orqali o'quvchilarning fantaziyasini, bilimni mustaqil o'rganish qobiliyatini ko'tarish mumkinligini ko'rsatgan.

Vygotsky ijodiy faoliyatni “yangi yaratilgan narsa” deb ta'riflab, ijodiy o'sish va rivojlanish uchun pedagogik muhit muhim ekanligini ta'kidlaydi. Uning “piyoda zonasi” (zone of proximal development) konsepsiyasi asosida o'quvchini yordam bilan yangi bilim va ko'nikmalarga etaklash orqali ijodiy fikrlashni uyg'otish imkoniyatlari mavjudligi qayd etiladi. Interfaol metodlar, o'yin, loyiha asosidagi va muammoga yo'naltirilgan uslublar orqali darslar o'quvchilarning rang-barang fikrlashini rag'batlantirib, motivatsiyasini oshiradi. Masalan, ARIAS yondashuvi va interfaol texnologiyalar yordamida dars o'quvchilarning ijodiy salohiyatini faol uyg'otadi. Shuningdek, Byrdseed'ning o'yinlar orqali kreativlikni mashq qilish tajribalari (masalan, “squiggle game”, “alternative uses”) yaxshi samara beradi. Nazariy yondashuvlardan (Torrance, Vygotsky) boshlangan pedagogik model interfaol metodlar orqali bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etiladi. Empirik tadqiqotlar esa bu usullarning boshlang'ich sinflarda kreativlik, motivatsiya va o'zini-o'zi baholashni jonlantirishda samarali ekanini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Boshlang'ich sinf — bu bolaning shaxsiy rivojlanishi, tafakkurining shakllanishi, qiziqish va o'quv motivatsiyasining rivojlanishida hal qiluvchi bosqichdir. Ushbu davrda kreativlikni rivojlantirish nafaqat estetik tarbiya, balki ijtimoiy-psixologik moslashuv, mantiqiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham qo'llab-quvvatlaydi.

Pedagogik tahlillar shuni ko'rsatadiki, darslarni kreativlik asosida tashkil etishning quyidagi afzalliklari mavjud:

- O'quvchilarning faol fikrlashini rag'batlantiradi;
- O'quv materialini egallash darajasi ortadi;
- O'quvchilarda tashabbus, mustaqil fikr va muammo yechishga moyillik kuchayadi;
- O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik hamkorlik mustahkamlanadi.

Shuningdek, kreativ metodik yondashuvlar bolalarda obrazli va divergent tafakkurni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, boshlang'ich sinflarda ijodiy topshiriqlar, rolli o'yinlar, loyihaviy usullar, muammoli vaziyatlar asosida darslarni qurish samarali natija beradi.

Empirik kuzatuvlar asosida aniqlanishicha: An'anaviy dars uslubi qo'llanilgan sinflarda o'quvchilarning faolligi 45-50% atrofida bo'lsa, Kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda bu ko'rsatkich 75-80% gacha oshgan. Bunday yondashuv o'qituvchidan quyidagi pedagogik mahoratlarni talab qiladi: Pedagogik holatni ijodiy tahlil qilish; Har bir o'quvchining individual xususiyatini hisobga olish; O'quvchilarda muammoli vaziyatlarga mustaqil yondashuvni shakllantira olish

XULOSA

➤ Kreativlik pedagogik muhitni boyitadi. Kreativ o'qitish usullari (o'yin, loyiha, viktorina, eksperiment) orqali bolalar mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatiladi, bu ularning ham ta'limda, ham hayotda moslashuvchanligini oshiradi. Loyihalash faoliyati bolalarda muammo ko'rish, gipoteza tuzish, tadqiqot rejasini tuzib, natija chiqarish yo'lini o'rganishga yordam beradi.

➤ Pedagoglarning ijodiy malakasi asosiy omil. O'qituvchi o'zining ijodiy salohiyatini rivojlantirib borishi zarur: bu metodik treninglar, o'z-o'qitish hamda muntazam tajriba almashishni talab qiladi. O'qituvchi pedagogik kreativlik orqali darslarni interaktiv, qiziqarli, motivatsion holga keltiradi, bu esa sinf ichidagi yashash jarayonini yumshoqroq qiladi

➤ Psixologik-pedagogik yondashuv zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilari psixologik jihatdan ijodiy faoliyatga ochiq: ular qiziqadi, o'ynaydi, rol ijro etadi – bu esa ijodiy mashg'ulotlar orqali rivojlanadi. Kreativlikni shakllantirish uchun maxsus muhit – o'zini ifoda etish va xato qilish imkonini beruvchi yopiq va qo'llab-quvvatlaydigan psixologik muhit tashkil etilishi muhim.

➤ Mazkur yondashuv indikatorlari. Tezlik, original g'oyalar, moslashuvchanlik, metaforik fikrlash – kreativlikning ko'rsatkichlari sifatida belgilangan. Bular o'qituvchi nazoratida o'quvchilarning ijodiy mahsulotlari va sinf faoliyati orqali baholanadi.

TAKLIFLAR

✓ Metodik va ijodiy treninglar tashkil etilishi— O‘qituvchilar uchun kreativ o‘qitish bo‘yicha maxsus kurslar va master-klasslar (pedagogik kreativlik, darsda kreativ o‘yin metodlari, loyiha asosidagi o‘qitish).

✓ Dars rejalarida ijodiy bloklarni joriy etish— Har bir darsning qismlarida o‘yin, improvizatsiya, rolli mashqlar, mini-loyihalar (masalan, “Alifbo shaharchasi” yoki “Erkin rasm”, “Muallif hikoyasi”) bo‘lishi.

✓ O‘qituvchilarni tahlil va qayta aloqa tizimi— Darsdan keyin “refleksiya daftari” yuritilishi, o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini sinfda baholash va shu asosda o‘qituvchi o‘z pedagogik yondashuvini tahlil qilishi.

✓ Muhitni kreativlashtirish— Sinf xonasi ijodiy makonga aylantirilishi: devor maydonlarida “o‘ylash devori”, bolalar ishlarini aks ettiruvchi panellar, ijodiy g‘oya burchaklari (masalan, konstruksiya, izlanish materiali mavjud bo‘lgani yaxshi).

✓ Pedagog psixologik qo‘llab-quvvatlash— Ijodiy laboratoriya muhitini yaratish: o‘quvchilarning fikrlarini, g‘oyalarini erkin ifodalashi uchun xavfsiz sharoit va g‘oyalari rag‘batlantirilishi, hatto kichik “xatolar festivali” orqali tajriba orttirishga rag‘b qilinishi.

✓ Ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish— Ota-onalar va jamiyat bilan integratsiya: oilaviy ijodiy loyihalar tashkil qilish, mahalliy mutaxassislar bilan interaktiv darslar, ilmiy va san‘at yo‘nalishidagi ko‘rgazmalar (masalan, “Ijod ko‘rgazmasi”).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abduqodirova Z. (2019). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish metodlari. Toshkent: TDPU.

2. Karimova N. (2021). Kreativlikni rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya.

3. Выготский Л.С. (1991). Воображение и творчество в детском возрасте. Москва: Педагогика.

4. Galperin P.Ya. (1985). Psixologiya obucheniya i vospitaniya. Moskva: Znaniye.

5. Немов Р.С. (2003). Психология: Учебник для студентов педагогических вузов. Москва: ВЛАДОС.

6. Qodirov A., Xolboyeva D. (2020). Innovatsion pedagogika asoslari. Toshkent: “Ilm ziyo.

7. Runco, M.A. & Acar, S. (2012). Divergent thinking as an indicator of creative potential. Creativity Research Journal, 24(1), 66–75.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHNING SAMARADORLIGI

Jo‘rayeva Gulandom Murodullo qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi shahri jurayevagulondon8@gmail.com

Yo‘ldosheva Sevara Oybek qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida foydalanish lozim o‘qituvchi vazifalari haqidagi kerakli ma‘lumotlar va manbalar keltirib o‘tilgan. Maqolada berilgan ma‘lumotlar asosida o‘qituvchilar va ota-onalar o‘zilar uchun kerakli tavsiyalarni olishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: kreativ fikrlash, ijodkorlik, ijodiy, erkin, tanqidiy, mustaqil tafakkur

Аннотация. В данной статье представлена необходимая информация и ресурсы по задачам учителей, которые следует использовать для развития творческих способностей у учащихся начальной школы. На основе информации, представленной в статье, учителя и родители могут получить необходимые рекомендации для себя.

Ключевые слова: творческое мышление, креативность, креативность, свободное, критическое, независимое мышление

Abstract. This article provides the necessary information and resources on teacher responsibilities that should be used to develop creative skills in primary school students. Based on the information provided in the article, teachers and parents can get the advice they need.

Keywords: creative thinking, creativity, creative, free, critical, independent thinking

Kirish. Bugungi kunda butun dunyoda kechayotgan glaballashuv jarayonida har bir soxada ilg'or ishlar amalga oshirilmoqda buni zamonning o'zi talab etmoqda. Yosh avlod har soxada ildam. Chunki jamiyatimiz axborot oqimiga boy. Jamiyatimiz talab etayotgandek har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalab yetishtirishda o'qituvchining o'rni beqiyosdir. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishda yosh avlodga chuqur bilim beradigan, fikrlash doirasi keng, kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan, huquqiy demokratik jamiyat a'zolarini ozod va erkin yashashga, mustaqil fikr yuritishga o'rgata oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifa qilib belgilangan.

Tadqiqot maqsadi. Maqola mavzuga doir ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlarning qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish, uzviylik va uzluksizlik kabi pedagogik tamoyillar asosida yoritilgan bo'lib, o'quvchilarda tabiiy fanlarni o'qitishda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Mamlakatimiz yetakchi pedagog va psixolog olimlaridan Sh.Abdullaeva, D.N.Arzikulov, E.G.oziyev, M.G.Davletshin kabi olimlar shaxs kreativ faoliyati va kreativ tafakkurini psixologik jihatlarini tadqiq etgan bo'lsalar, tabiiy fanlar va ekologik ta'lim- tarbiya va madaniyatni shakllantirish yuzasidan E.O.Turdiqulov, B.X.Xodjaev, Yu.G'.Mahmudov, X.J.Xudayqulov, N.J.Isakulova, X.B.Norbutaev, Sh.L.Maxmudova, V.N.Sattorov, Ye.B.Aydarov, U.G.Saidova, A.R.Malikova, M.K.Shirinov, N.A.Mirzaeva, G.A.Ismoilova, A.Yu.Kuchkinov, G.I.Qosimova, L.M.Abdunazarov, I.X.Ayubovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Ma'lumki, kreativlik shaxs samarali faoliyatini ta'minlovchi asosiy kategoriyalardan biri bo'lib, ta'lim jarayoniga kreativ yondashuv o'quvchilar bilim o'zlashtirish sifatini ularning ijodiy faoliyati asosida rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kreativlik – inshaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosidir.

Odam miyasi taxminan 86 milliard neyronlardan tashkil topgan va ular bir-biri bilan murakkab tarmoq hosil qiladi. Tadqiqotlarga ko'ra, kreativ fikrlar turli sohalaridagi bilimlarni o'zaro bog'lash natijasida shakllanadi. Shuning uchun yangi narsalarni o'rganish va tajribalar orttirish kreativ fikrlashni oshiradi. Stiv Jobs aytganidek, "Kreativlik – bu turli tajribalarni bog'lash qobiliyati." Bir yo'nalishda cheklangan bo'lish fikrlash doirasini toraytiradi, shuning uchun yangi sohalarini o'rganish, sayohat qilish, turli madaniyatlarni tushunish kreativlikni oshiradi. Kreativ odamlarning ish joyi odatda tartibsiz bo'ladi, chunki tasodifiy narsalar yangi kombinatsiyalar yaratishga yordam beradi. Masalan, fizik olim Richard Feynman ish xonasida o'yinchoqlarni saqlardi, chunki ular unga yangi ilmiy g'oyalar berardi.

Kreativlik nima? Amerikalik psixolog Avraam Maslouning fikricha, bu har bir kishiga xos bo'lgan, lekin mavjud tarbiya, ta'lim va ijtimoiy amaliyot tizimi ta'sirida ko'pchilik tomonidan yo'qolgan ijodiy yo'nalishdir.

Kreativlik qobiliyati "Xudoning in'omi" va shuning uchun kreativlikni o'rgatish mumkin emas degan ancha keng tarqalgan fikrdan farqli o'laroq, M.M. Zinovkina boshqacha yondasuvga ishora qiladi. Texnologiya va ixtirolar tarixini o'rganish, atoqli olim va ixtirochilarning ijodiy hayoti tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning barchasi yuqori (o'z davri uchun) fundamental bilimlar bilan bir qatorda maxsus bilimlar ombori yoki algoritmik fikrlash, shuningdek, ma'lum bilimlar, shu jumladan evristik usullar va texnikalarga ega bo'lishgan [4].

Ingliz psixologi E.P.Torrens kreativliknig quyidagi jihatlarini ilgari surgan:

- muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- taxminlarni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;

-muammoni hal qilishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama- qarshiligiga nisbatan sezgirlikni ifodalash. [1]

Lotinchada "kreativlik" tushunchasi quyidagicha. "Creatio" - "yaratish", "ijodkor" - "yaratuvchi", degan ma'nolarni anlatadi, lekin mohiyatan bu tushuncha insonning ijodiy qobiliyatining namoyon bo'lishidir.

Ijodkor shaxslar - bu rassomlar, haykaltaroshlar, yozuvchilar, shoirlar, fotosuratçilar - turli xil ijod turlarida o'z qobiliyatlarini amalga oshiradigan odamlar. Ijodkorlik, qoida tariqasida, ishbilarmonlarga xos xususiyatdir: dizaynerlar, reklama beruvchilar, marketologlar, brend-menejerlar va boshqalar.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Rivojlangan kreativlik shaxs ijodkorligining muhim tarkibiy qismidir. U shaxsning kognitiv maqsadga erishish, boshlangan ijodiy ishni davom ettirish, bilish faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, aqliy harakatlarni rejalashtirish va ketma- ketlashtirish, maqsadga erishish variantlari va usullarini izlash istagida ifodalanadi; Shuningdek shaxsda stenik tuyg'ular (kognitiv va ijodiy faoliyatdan quvonch hissi, ixtirolar jarayonida qiyinchiliklarni engishga tayyorlik, kognitiv yoki ijodiy maqsadga erishishdan g'ururlanish, biror narsa o'ylab topish imkoniyatidan zavqlanish, ijodiy ish boshlanishidagi optimistik faollik, uning ijobiy natijasini kutish, muvaffaqiyasizliklar holatida xotirjamlik va boshqalar) ham hosil b'ladi.

Inson aql-zakovati sohasidagi mutaxassislar ijodiy jarayonni ta'minlash uchun konvergent (mantiqiy, ketma-ket, chiziqli) va divergent (yaxlit, intuitiv, aloqador) tafakkurning kombinasiyasi zarur deb hisoblaydilar. Tafakkur xususiyatlarining bunday kombinasiyasi natijasi ongning ravonligi va moslashuvchanligi, shuningdek, o'ziga xoslik, hukmning aniqligi bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi. [3] Shuningdek kreativlikni rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal qilishga ham yordam beradi:

- 1.Talabalarni turli yo'nalishlarda fikrlashga o'rgatish;
- 2.Nostandart vaziyatlarda muammoning yechimlarini topishni o'rgatish;
- 3.Aqliy faoliyatning o'ziga xosligini rivojlantirish.
- 4.Talabalarni mavjud muammoli vaziyatni turli tomonlardan tahlil qilishga o'rgatish;
- 5.Tez o'zgaruvchan dunyoda yanada samarali hayot va moslashish uchun zarur bo'lgan fikrlash xususiyatlarini rivojlantirish.

Shu bilan birgalikda pedagogik kerativlikni rivojlantirish sharti o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda insonparvarlik psixologiya tamoyillarini amalga oshirishdir. Ushbu tamoyillar quyidagilarni nazarda tutadi:

- 1.Har bir talabaning g'oyasini yuqori baholash, bu barcha g'oyalar va javoblarni ijobiy mustahkamlash, xatodan tanish narsaga yangicha qarash imkoniyati sifatida foydalanishni nazarda tutadi.

- 2.O'zaro ishonch, psixologik xavfsizlik muhitini yaratish.

- 3.Tanlash va qaror qabul qilishda mustaqillikni ta'minlash. [4]

Kreativ salohiyatga ega o'qituvchi quyidagi sifatlarga ega b'ladi:

- a.Kreativ fikrlashi kengayadi ;
- b.Tadqiqot ko'nikmalarini yaxshi egallaydi;
- c.Pedagogika yoki maxsus fan yutuqlaridan hamda ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
- d.Professor-o'qituvchilar tomonidan olib borilayotgan ijodiy loyihalar va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

Kreativ fikrlaydigan o'qituvchiga qo'yiladigan zamonaviy talablar shundan iboratki, u axborotchi emas, balki o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda muvofiqlashtiruvchi (koordinator), boshqaruvchi (menejer), muloqot tashkilotchisi, maslahatchisi bo'lishi kerak.

Xulosa. Demak, kreativlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari sinfda maqsadli ravishda yaratilgan ijodiy tarbiyaviy muhitga bog'liq bo'lishi mumkin; o'qituvchining ijodiy xulq-atvori namunasining mavjudligi va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini ifodalovchi sifatida

o'qituvchining shaxsiyati; talabalar va o'qituvchilarning birgalikda yaratilishi; ijodiy faoliyatdagi sub'ektiv rni; ijodiy muhitni saqlash va muvaffaqiyat holatlarini yaratish. Talabalar ijodining eng samarali rivojlanishi ijodiy ta'limining uzluksiz tizimi sharoitida maqsadli, har tomonlama pedagogik ta'sir ko'rsatish orqali ta'minlanadi

Foydalaniladigan adabiyotlar

1. Torrance E.R. Creativity and futurism in education: Retooling Education 1980. Vol 100 P
2. Vygotsky L. S. Selected psychological studies. M., 1956.
3. Ermolaeva-Tomina L. B. The study of factors determining individual differences in the manifestation of creative activity // Psychology of creativity. M., 1990. pp. 117-130.
4. Fakhridin Y. et al. Physics student participation test in the online group homework forum // International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – T. 5. – №. 8. – C. 4-4.

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Raxmonova Gullola Shavkatovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

"Umumiy pedagogika" kafedrası katta o'qituvchisi gullolaraxmon76@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola bo'lajak tarbiyachilarning qobiliyatini rivojlantirish asosida yosh avlod ta'lim-tarbiyasini rivojlantirish, fazilatlarini tarbiyalash, odob-axloq aqidalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bo'lajak tarbiyachilarning qobiliyatini rivojlantirishda, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, odob-axloq aqidalarini tarkib toptirish, uning tarixiy bosqichlari, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlovchi pedagogik maqsadlar belgilab berilgan.

Kalit so'zlar: qobiliyat, ta'lim-tarbiya, yosh avlod, ma'naviy-axloqiy, fazilat, odob-axloq, uzviylilik.

ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ

Аннотация. В данной статье особое внимание уделено вопросам воспитания подрастающего поколения на основе развития способностей будущих воспитателей, воспитания их качеств, нравственных догм. Определены педагогические цели в развитии способностей будущих воспитателей, воспитании их духовно-нравственных качеств, формировании нравственного мировоззрения, его исторических этапов, преемственности и преемственности.

Ключевые слова: способности, воспитание, подрастающее поколение, духовно-нравственные, добродетель, нравственность, преемственность.

THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE ABILITIES OF FUTURE EDUCATORS

Abstract. In this article, special attention is paid to the issues of educating the younger generation on the basis of developing the abilities of future educators, educating their qualities, and moral dogmas. Pedagogical goals are defined in the development of the abilities of future educators, the education of their spiritual and moral qualities, the formation of a moral worldview, its historical stages, continuity and continuity.

Keywords: abilities, upbringing, the younger generation, spiritual and moral, virtue, morality, continuity.

Kirish. Respublikamizda globallashuv sharoitida yuz berayotgan ta'lim sohasidagi o'zgarishlar asosida oliy ta'lim tizimida kasbiy va metodik faoliyat samaradorligini oshirish, o'qituvchilarning kreativlik potensialini rivojlantirish yuzasidan keng miqyosda izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi kunning dolzarb muammosi sifatida qaralishi maktabgacha soha

yoʻnalishida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning pedagogik mahorati va kreativ qobiliyatlariga nisbatan talablarning ortib borayotganligini koʻrsatadi. Bunday talablarning yuzaga kelishi ilgʻor xorijiy tajribani keng joriy etgan holda oʻquv-uslubiy jarayonga innovatsiyalarni joriy etish, oʻqituvchilarning kreativ potentsialini rivojlantirish va pedagogik kompetentlik bilan qurollantirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Zero, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilgʻor, oʻquvchilarning oʻquv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan gʻoyalarni yaratishda faollik koʻrsatish, ilgʻor pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil oʻrganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega boʻlishga eʼtibor qaratadi.

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega boʻlishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va oʻzaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali taʼminlanadi.

Pedagog oʻz-oʻzidan ijodkor boʻlib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati maʼlum vaqt ichida izchil oʻqib-oʻrganish, oʻz ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda boʻlgani kabi boʻlajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega boʻlishlari uchun oʻquvchilik yillarida poydevor qoʻyiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning oʻzini oʻzi ijodiy faoliyatga yoʻnaltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida eʼtibor qaratishi zarur. Bugungi zamonaviy sharoit pedagogning kreativlik sifatlariga ega boʻlishini taqozo etmoqda.

Taʼlim tizimini boshqarish organlari har yili taʼlim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga eʼtibor qaratadi. Ana shu maqsadda oʻquv dasturlari ishlab chiqiladi, yangi oʻquv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham oʻquvchilar, ham oʻqituvchilarni kasbiy oʻsishlariga samarali yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar oʻquvchilarda yutuqlarga erishish, olgʻa intilishga boʻlgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning oʻquv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi. Shunga qaramay, oʻquv yilining oxiriga kelib taʼlim muassasalarida oʻquvchilarning fanlarni oʻzlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Koʻplab oʻquvchilarning taʼlim olishga nisbatan qiziqishi yoʻqolgan. Buning natijasida oʻqituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni oʻylashmayapti. Taʼlim tizimini boshqaruvchi organlar taʼlim olishga nisbatan xohish-istagi boʻlmagan oʻquvchilar, bu kabi taʼlim oluvchilarni oʻqitishni istamayotgan oʻqituvchilar faoliyatini oʻzgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansa-da, ahvol oʻzgarishsiz qolmoqda. Buning sababi nimada? Balki oʻquv mashgʻulotlarida yetishmayotgan omil – kreativlikdir.

Bugungi kunda jamiyatimiz aqlli va ijodkorlarga har qachongidan ham koʻproq muhtoj va hozirgi sharoitda ijodkorlik masalasi hal qilinishi kerak boʻlgan eng muhim masalalardan biridir. Tadqiqotchilarning fikricha, maktabgacha yosh ijodkorlikning oltin davridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual moslashuvchanligi ularning ijodiy qobiliyatlari rivojlanishi uchun keng sharoit yaratadi. Erta yoshdan bolalarning ijodiy qobiliyatlari kurtak otishiga turtki boʻluvchi harakatlar maktabgacha taʼlim tashkilotlaridan boshlanishi bejizga emas. Sababi bolalar ijodiyoti ularning kelajak hayotida hal qiluvchi rol oʻynaydi. Oʻz-oʻzini qayta kashf etish, oʻzini namoyon qilish, oldida turgan masalalarga kreativ yondashish bolaning qiziquvchanligini, hayotiy maqsadlar bilan oldinga intilishini taʼminlaydi. Respublikamizda globallashuv sharoitida yuz berayotgan taʼlim sohasidagi oʻzgarishlar asosida oliy taʼlim tizimida kasbiy va metodik faoliyat samaradorligini oshirish, oʻqituvchilarning kreativlik potentsialini rivojlantirish yuzasidan keng miqyosda izlanishlar olib borilmoqda.

Kreativ yondashuv asosida boʻlajak tarbiyachilarning qobiliyatini rivojlantirish yuzasidan pedagog-oʻqituvchilar va talabalar oʻquv-uslubiy taʼminot va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etish lozim.

Kreativ yondashuv asosida boʻlajak tarbiyachilarning qobiliyatini rivojlantirishda ularning yosh va intellektual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, didaktik materiallarni tanlash va takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Рахмонова Г. III. Технологии Развития Духовно-Нравственной Компетентности Студентов //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 45. – С. 306-309.
2. Sh R. G. The role of spiritual and moral education in the spiritual formation of students. – 2021.
3. Shavkatovna R. G., Bobirovna A. V. UMUMINSONIY AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA VA RIVOJLANTIRISHDA OILAVIY TARBIYANING OʻRNI //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1450-1454.
4. Raxmonova G. S., Abdunabiyeva F. N. МАКТАБГАЧА ТАʼЛИМ ТАШКИЛОТИ ВА ОИЛА HAMKORLIGI //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 729-734.
5. Рахмонова Г. III. СОДЕРЖАНИЕ И ХАРАКТЕР ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЙ ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 5-8.
6. Shavkatovna R. G. OILADA BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASH SHAKLLARI //Proceedings of International Educators Conference. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 53-56.
7. Valerievna I. G., Shavkatovna R. G. The Content and Characteristics of Spiritual and Moral Education Works in Higher Education Institutions //Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 340-342.
8. Рахмонова Г. III. ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ ОСНОВА БУДУЩЕГО //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 276-278.
9. Shavkatovna R. G. МАКТАБГАЧА TALIM TASHKILOTLARI VA OILADA MAʼNAVIY-AXLOQIY TARBIYANING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Taʼlimda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. – 2024. – Т. 30. – №. 2. – С. 103-107.

МАКТАБГАЧА ТАʼЛИМДАН BOSHLANGʻICH TAʼLIMGA OʻTISHDA UZVIYLIKNI TAʼMINLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Sattarova D.A.

Buxoro shahar 18-DMTT

Аннотация. Mazkur maqolada maktabgacha taʼlimdan boshlangʻich taʼlimga oʻtishda uzviylikni taʼminlashning nazariy, pedagogik va metodik asoslari yoritilgan. Uzviylikning mazmuni, bolaning psixologik va ijtimoiy rivojlanish bosqichlari, uzluksiz taʼlim tizimidagi integratsiya jarayonlari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, taʼlim muhiti, oʻqituvchilar hamkorligi, metodik vositalar va faoliyat turlari oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni shakllantirishning dolzarb jihatlari ochib berilgan. Maktabgacha va boshlangʻich taʼlim bosqichlari oʻrtasida samarali uzviylikni taʼminlash boʻyicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Калит soʻzlar:uzviylik, maktabgacha taʼlim, boshlangʻich taʼlim, uzluksiz taʼlim, psixologik tayyorgarlik, metodik asoslar, taʼlim muhiti, oʻyin texnologiyasi, pedagogik hamkorlik

Аннотация. В данной статье освещаются теоретические, педагогические и методические основы обеспечения преемственности между дошкольным и начальным образованием. Подробно анализируется содержание преемственности, этапы психосоциального развития ребёнка и процессы интеграции в системе непрерывного образования. Также раскрыты актуальные аспекты формирования педагогической среды,

сотрудничества воспитателей и учителей, использования методических средств и видов деятельности. Приведены практические рекомендации по обеспечению эффективной преемственности между дошкольным и начальным звеньями образования.

Ключевые слова: преемственность, дошкольное образование, начальное образование, непрерывное обучение, психологическая готовность, методические основы, образовательная среда, игровые технологии, педагогическое сотрудничество

Annotation. This article explores the theoretical, pedagogical, and methodological foundations for ensuring continuity between preschool and primary education. It analyzes the concept of continuity, stages of psychological and social development of children, and integration processes within the continuous education system. The study highlights the importance of educational environment, teacher collaboration, instructional tools, and types of educational activities. Practical recommendations are provided to enhance effective continuity between preschool and primary educational stages.

Keywords: continuity, preschool education, primary education, lifelong learning, psychological readiness, methodological foundations, educational environment, play-based learning, pedagogical cooperation

Maktabgacha ta'limdan umumiy o'rta ta'limga o'tishda ta'lim jarayonlarining uzviy bog'liqligini ta'minlash hozirgi kunda dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, birinchi sinf o'quvchilarining maktabga moslashuvi muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri aynan bog'cha va maktab o'rtasidagi uzviylikdir. Shu bois, O'zbekiston Respublikasining 2020-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida maktabgacha ta'limdan boshlab keyingi bosqichlar o'rtasida ta'limning uzviyligi va mazmun jihatidan ketma-ketligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Davlat ta'lim standartlarida ham ta'lim turlari va bosqichlari o'rtasida uzluksizlik hamda ta'lim mazmunining uzviyligini ta'minlash asosiy prinsiplardan biri sifatida belgilangan. Bu esa uzviylik masalasining dolzarbligi nafaqat amaliy, balki me'yoriy jihatdan ham e'tirof etilganini ko'rsatadi.

Ta'limda "uzviylik" tushunchasi uzluksiz ta'lim tizimidagi bosqichlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik va davomiylikni anglatadi. Uzviylik ta'lim turlarining ketma-ketligi hamda o'quv mazmunining izchil integratsiyalashuvi bilan ifodalanadi. Xususan, keyingi bosqichning o'quv mazmuni avvalgi bosqich mazmunini qisman takrorlagan holda davom ettirishi, bilim va ko'nikmalarning yangi sharoitda rivojlantirilishi nazarda tutiladi. Pedagogik adabiyotlarda qayd etilishicha, uzviylik o'quv materialini ma'lum tizimli ketma-ketlikda joylashtirish, o'quvchilarning avvalgi bosqichda egallagan bilimlariga tayangan holda yangi bilimlarni o'zlashtirish, ta'lim jarayoni bosqichlarining izchil davom etishini ta'minlash ma'nosini anglatadi. Demak, uzviylik – ta'lim mazmuni va jarayonini yaxlit tizim sifatida ko'rish, har bir bosqichni keyingisiga bog'lab rivojlantirish prinsipi hisoblanadi.

Bolalar rivojlanish bosqichlari nuqtai nazaridan, maktabgacha yosh davri asosiy bazaviy qobiliyatlar shakllanuvchi eng muhim palla sanaladi. Bu davrda bolaning etakchi faoliyati – o'yin bo'lib, xotira, diqqat, tafakkur, tasavvur kabi asosiy psixik jarayonlar jadal rivojlanadi. Bola bog'chadan maktabga o'tishi jarayonida uning organizmi va psixikasida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi: o'yindan o'quv faoliyatiga o'tish, yangi tartib-intizomga moslashish zarurati tug'iladi. Natijada, o'qish jarayonini idrok etishda ayrim qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin. Shu jihatdan uzviylikni ta'minlash – bola hayotida keskin o'zgarish bo'lmasligi, uning rivojlanishi uzluksiz davom etishi uchun bog'cha va maktab o'rtasida maxsus yaxlit ta'lim muhiti yaratishni talab etadi. Yaratilajak bunday yagona ta'lim muhiti ikki bosqich o'rtasida uzluksiz aloqani ta'minlab, ta'lim-tarbiyada yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bolaning maktabga psixologik tayyorgarligi masalasi uzviylikning muhim nazariy jihatlaridan biridir. Psixologik tayyorgarlik tarkibiga intellektual rivojlanish bilan bir qatorda axloqiy-vavolyuraviy (irodaviy) yetuklik ham kiradi. Ta'lim faoliyati boladan atrofdagilarga moslashish, ixtiyoriy diqqatni jamlash, o'z xatti-harakatlarini tartibga solish, maqsadli xotira hamda mas'uliyatni his etishni talab etadi. Shu bois, bola maktab jamoasiga kirib borishi uchun kerakli bo'lgan axloqiy fazilatlarni maktabgacha davrdan shakllantirish zarur. Bu fazilatlar –

mustaqillik, intizomlilik, tartiblilik, tashabbuskorlik, muomala madaniyati va boshqalar – bolaning yangi muhitga tez kirishib ketishiga, darslarda faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim bosqichida va boshlang'ich ta'lim bosqichida ko'zda tutilgan tarbiyaviy-ma'rifiy vazifalar ham uzviylik nuqtai nazaridan o'zaro bog'liq. Maktabgacha bosqichda bolani maktabga har tomonlama tayyorlash asosiy maqsad bo'lib, quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan: bolalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, hissiy farovonlikka erishish va ijobiy qobiliyatlarini rivojlantirish, atrof-muhit haqida dastlabki bilimlarni berish, muloqotga kirishish va ijodiy o'zini namoyon etishga rag'batlantirish, shuningdek, tengdoshlar va kattalar bilan hamkorlik ko'nikmalarini hosil qilish kabi vazifalar bajariladi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida esa vazifa o'zgarib, endi bolalarning o'quv faoliyatiga oid kompetensiyalarini shakllantirishga o'tiladi: mustaqil o'rganish va o'z faoliyatini tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'qituvchi va tengdoshlar bilan hamkorlikda maqsad qo'yish va erishish, axloqiy me'yorlar hamda milliy qadriyatlarni ongli ravishda o'zlashtirish, sog'lom turmush tarziga amal qilish kabi sifatlar tarbiyalanadi. Eng muhimi, boshlang'ich sinflarda maktabgacha yoshda shakllangan yaxshi fazilatlarini yanada mustahkamlash va bolaning shaxsiy imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda ta'lim jarayonini individuallashtirishga alohida e'tibor beriladi.

Yuqorida keltirilgan nazariya va amaliy tajribalar asosida maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida uzviylikni ta'minlash bo'yicha quyidagi amaliy chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

1. Bog'cha tarbiyachilari va 1-sinf o'qituvchilari o'rtasida tajriba almashuvi, darslarni kuzatish va o'quvchilar rivojlanishiga oid ma'lumotlar bilan almashish tizimini yo'lga qo'yish zarur. Bu bolalarni psixologik-pedagogik jihatdan tayyorlash va ta'lim strategiyasini aniq tanlashga xizmat qiladi.

2. Ota-onalarni bog'cha va maktabdagi tarbiyaviy ishlar hamda shaxsni rivojlantirish konsepsiyasi bilan tanishtirish maqsadida yirik yig'ilishlar tashkil etish tavsiya etiladi.

3. Har bir guruh va unga mos sinf kesimida kichik yig'ilishlar o'tkazilib, maktabga tayyorgarlik holati muhokama qilinadi. Tarbiyachilar bolalarning yutuqlari va rivojlanishi haqida ota-onalarga ma'lumot beradi.

4. Davlat ta'lim standartlari, "Ilk qadam" dasturi va konsepsiyalarda belgilangan uzviylik qoidalari amaliyotga tatbiq etilishi zarur. Tayyorlov yili davomida darslar sifatli tashkil etilib, bola rivojlanishi doimiy monitoring qilinishi lozim.

5. MTT va boshlang'ich sinf pedagoglari uchun uzviylik bo'yicha seminar va treninglar o'tkazilishi, psixologlar va metodistlar bilan birgalikda o'quvchilarning xatti-harakatlari, o'qishga qiziqishini oshirish yo'llari muhokama qilinishi maqsadga muvofiq.

Mazkur tavsiyalar ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa o'quvchilar moslashuvini yengillashtiradi, darslarning samaradorligini oshiradi va barkamol avlodni shakllantirishda asos bo'ladi. Zamonaviy ilmiy-amaliy tajribalar uzviylikning uzluksiz ta'limdagi hal qiluvchi o'ringa ega ekanini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdiraxmanova L.A. *Maktabgacha ta'lim tizimi va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylik*. "Science and Education" ilmiy jurnali, 2023-yil fevral, 4-jild, 2-son.

2. Baxtiyorova M.I. *Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayoni uzviyligini ta'minlashning zaruriyati*. "Science and Education" ilmiy jurnali, 2023-yil mart, 4-jild, 3-son.

3. Saparova S.X. *Ta'lim tizimida uzviy va uzluksiz ta'lim turlari qo'llanishining psixologik jihatlar*. Xalqaro onlayn ilmiy konferensiya materiallari, 2022-yil.

4. Mominjanovna H. F., Shohbozbek E. *Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich talim o'rtasida manaviy tarbiyaning uzviyligi //Innovation in the modern education system*. – 2025. – T. 6. – №. 50. – C. 314-318.

5. Xolmatov J. *Ta'limda integratsiyani ta'minlash va uning ahamiyati //Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences*. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 74-77.

3-SINF MATEMATIKA DARSlikLARIDAGI MAVZULARNI STEAM YONDASHUVI ASOSIDA O'TISH.

Isoyeva Maftuna Bobomurod qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti isoyeva_maftuna@buxdpi.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada 3-sinf matematika darsliklaridagi mavzularni STEAM yondashuvi asosida qanday o'tish mumkinligi, bu metodikaning o'quvchilarga qanday ta'sir qilishi va uning samaradorligi haqida fikr yuritiladi. Bundan asosiy maqsad—boshlang'ich sinflarda matematika fanini hayotiy ko'nikmalar bilan bog'lab o'qitish, o'quvchilarni kelajakda mustaqil fikrlay oladigan, ijodiy yondasha biladigan va amaliy natijalarga yo'naltirilgan shaxs sifatida shakllantirishdir.

Kalit so'zlar: geometrik shakllar, o'lchov birliklari, integratsiya, STEAM yondashuvi, o'qituvchi, o'quvchi, darslik, matematika, muhandislik, san'at, innovatsion texnologiya, robototexnika, raqamli vositalar.

ПЕРЕХОД НА ОСНОВЕ ПОДХОДА STEAM В УЧЕБНИКАХ ПО МАТЕМАТИКЕ 3-ГО КЛАССА

Аннотация. В этой статье, как темы математики 3-го класса могут идти на основе подхода STEAM, как эти методы будут влиять на учащихся и его эффективность. Основная цель этого состоит в том, чтобы научить студентов жизненным навыкам в начальных классах, формировать студентов в качестве независимого и практического результата, который может думать самостоятельно в будущем.

Ключевые слова: геометрические формы, единицы измерения, интеграция, подход STEAM, учитель, текстиль, математика, художественное текстовое строительство, огрaбки, инновационные технологии, робототехника и цифровое оборудование.

TRANSITION ON THE BASIS OF THE STEAM APPROACH IN 3RD GRADE MATH TEXTBOOKS

Annotation. In this article, how the topics in 3rd grade mathematics can go on the basis of the STEAM approach, how this methods will affect students and its effectiveness. The main purpose of this is to teach the students with life skills in primary grades, to form students as an independent and practical result that can think independently in the future.

Keywords: geometric shapes, units of measurement, integration, STEAM approach, teacher, textile textile, math, art textbuilding, robrooms, innovative technologies, robotics, and digital equipment.

Kirish. Bugungi kunda ilm-fan sohasida bo'layotgan o'zgarishlar bizni ham chetlab o'tmayabdi. Nafaqat rivojlangan mamlakatlarda, balki o'zimizda ham ta'lim sohasida innovatsion yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Xususan, STEAM (Science-fan, Technology-texnologiya, Engineering-muhandislik, Art-san'at, Mathmetics-matematika) an'anaviy o'qitish metodlariga muqobil bo'lib, o'quvchilarida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuv nafaqat yuqori sinflar yoki oliy ta'lim bosqichida, balki boshlang'ich sinflardayoq joriy etilishi zarur. Ayniqsa, 3-sinf matematika darslari nbu borada juda muhim o'rin tutadi.

